Sotsiolingvistik ekspertiza esa bu jarayonda muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. U nafaqat lingvistik tahlilni, balki ijtimoiy muhitdagi oqibatlarni ham ko'rib chiqadi. Masalan, ma'lum bir matn yoki izohda diskriminativ elementlar mavjud bo'lsa, ekspertiza uning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'rganib, ijtimoiy-guruhiiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishini ham baholaydi. Shu jihatdan, bu yo'nalish diskriminativ nutqning oldini olish, uni ilmiy va huquqiy jihatdan asoslash va jamiyatda tolerantlik hamda bag'rikenglikni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi[2].

Nafrat so'zlari ko'pincha quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi:

Salbiy konnotatsiyalar – haqoratli yoki kamsituvchi so'zlar;

Stereotiplarga asoslangan ifodalar – butun guruhni umumlashtirib baholash;

Kesatq va istehzo unsurlari – kinoya orqali pastga urish;

Ochiq diskriminativ nutq – irqiy, diniy, jinsiy yoki ijtimoiy guruhni haqorat qilish[2].

Masalan, “ularning hammasi dangasa”, “ularning e’tiqodi zaif” kabi gaplar lingvistik jihatdan diskriminativ xarakterga ega.

Tahlillar diskriminativ nutqning quyidagi shakllarini ko‘rsatadi:

Diskriminatsiya turi	Namuna	Lingvistik belgi
Etnik diskriminatsiya	“Bu millat ishlashni bilmaydi!”	Umumlashtiruvchi stereotip
Gender diskriminatsiyasi	“Ayol kishi boshqaruvga yaramaydi”	Gender asosida kamsitish
Diniy diskriminatsiya	“Ularning dini orqaga tortadi”	Diniy e’tiqodni pastga urish
Ijtimoiy tabaqalanish	“Qishloqliklar zamonaviy emas”	Hududiy asosda stereotip

Bunday nutq ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalib, auditoriya orasida salbiy qarashlarni kuchaytiradi[3].

Sotsiolingvistik ekspertiza diskriminativ nutqni baholashda quyidagilarni amalga oshiradi:

Lingvistik tahlil – nutqning leksik, semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi;

Ijtimoiy tahlil – nutqning ijtimoiy guruhlariga ta’siri va oqibatlarini ko‘rib chiqadi[4].

Ekspertiza natijalari nafaqat ilmiy tadqiqot, balki huquqiy jarayonlarda dalil sifatida ham qo‘llanishi mumkin. Shu bois lingvistlar, psixologlar va huquqshunoslarning hamkorligi zarurdir.

Bizningcha, diskriminativ nutqni aniqlashda texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda tilshunoslik yondashuvi ham zarur. Sun’iy intellekt tizimlari ko‘pincha yashirin konnotatsiyalarni aniqlashda qiynaladi. Masalan, o‘zbek tilidagi istehzo yoki kesatiqlar oddiy jumla sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, sotsiolingvistik ekspertiza bunday nozik jihatlarni hisobga olish orqali yanada chuqurroq natija beradi.

Shuningdek, milliy kontekstda diskriminativ nutqning xususiyatlarini o‘zbek tiliga mos korpus asosida tadqiq qilish va bu natijalarni AI tizimlariga integratsiya qilish dolzarb masalalardan biridir[6].

Ijtimoiy tarmoqlarda nafrat soʻzlari va diskriminativ nutqning tarqalishi jamiyat uchun jiddiy xavf tugʻdiradi. Ular guruhlararo ishonchsizlikni kuchaytiradi va ijtimoiy barqarorlikka salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, sotsiolingvistik ekspertiza bu jarayonni ilmiy, amaliy va huquqiy nuqtayi nazardan baholashda muhim vosita hisoblanadi.

Kelajakda diskriminativ nutqni aniqlash uchun oʻzbek tilida maxsus lingvistik bazalar yaratish, sotsiolingvistika va sunʼiy intellektni integratsiya qilish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Van Dijk, T. A. (1993). Principles of Critical Discourse Analysis. Discourse & Society, 4(2), 249–283.
2. Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. London: Longman.
3. Wodak, R. (2015). The Politics of Fear: What Right-Wing Populist Discourses Mean. London: Sage.
4. Kristeva, J. (1989). Language: The Unknown. New York: Columbia University Press.
5. Qodirov, M. (2021). Lingvistik ekspertiza va jamiyatda nutq madaniyati. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Rasulov, B. (2022). Oʻzbek tilida diskriminativ nutq tahlilining lingvopragmatik asoslari. Toshkent: OʻzMU nashriyoti.
7. Karimova, Z. (2020). Sotsiolingvistika asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
8. Azimov I., Roʻziyev Z., Bobojonov F. Oʻzbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qoʻllanma / I.Azimov, Z.Roʻziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
9. Turgʻunpoʻlatov, D.R. Taʼlimning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida oʻqitishning yangi eposi. “Akademic journal of educational research (AJER)” xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.
10. Turgʻunpoʻlatov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI

XUSHVAQTOVA GULSANAM ABDIMURAT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

gulsanamxushvaqtova@15gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligining taraqqiy etish yo'llari, tilshunoslikni boyitish usullari haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, tilshunoslik, taraqqiyot, til siyosati, xalqaro aloqalar

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются пути развития узбекского языкознания в период независимости а также методы обогащения лингвистики

Ключевые слова: узбекский язык, лингвистика, развитие языковая, политика международные отношения

ABSTRACT

this article highlights the ways in which Uzbek linguistics has developed during the independence period, as well as methods for enriching linguistics

Keywords: uzbek language, linguist, developer, language politician, international affairs specialist

Har qanday millat borki, u dunyoga millat sifatida tanilishi uchun, jahon bilan madaniy aloqaga kirishishi uchun, albatta, o'z tili bo'lishi kerak. Til rivoji uchun davlat siyosati va islohoti juda zarur hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, rus islohoti davrida o'zbek tiliga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Til uchun ko'plab cheklovlar qo'yildi.

Ammo, 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi mamlakat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr nafaqat siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar uchun, balki madaniyat va til sohasida ham tub burilishlar davri bo'ldi. Mustaqillik o'zbek tilining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamladi. 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonun o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamladi va davlat idoralarida, ta'lim, madaniyat, axborot va boshqa

sohalarda uning qo'llanilishini tartibga soluvchi huquqiy asos yaratdi. O'zbek tili nafaqat davlat tili maqomiga ega bo'ldi, balki ilmiy tadqiqotlar, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida markaziy o'rin tutdi.

Tilga yangi atamalar kiritildi, ilm-fan va texnologiya sohalarida terminologiya yangilandi. Universitetlarda tilshunoslik fakultetlari kengaytirildi. Darsliklar, qo'llanmalar va ilmiy maqolalar nashr etildi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi nafaqat tarixiy ildizlarida balki zamonaviy talablar asosida rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida yangi ilmiy maktablar shakllandi. Taniqli olimlarimiz- A.Madvaliyev, N.Mahmudov, A.Jo'rayev, D.Hudoyberganova, B.O'rinboev va boshqa ko'plab tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlari milliy tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bu davrda:

O'zbek tili tarixi va qadimiy yozma yodgorliklar (Orxon-Enasoy bitiklari, qadimiy turkiy til manbalari) keng o'rganildi.

Til madaniyati va nutq madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat kabi allomalarimiz asarlari qayta nashr etildi. Tilshunoslikda Mahmud Qoshg'ariyning ``Devoni lug'atit turk``asari, Alisher Navoiyning ``Muhokamat ul-lug'atayin`` asari chuqur o'rganilib, yangi tadqiqotlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida axborot texnologiyalarida ham ko'zga ko'rinarli rivojlanish paydo bo'ldi. Bu jarayon o'z navbatida tilshunoslikda yaratilishi mumkin bo'lgan qulayliklar eshigini ochdi. Axborot almashinuvi jarayoni jadal sur'atlarda o'sdi. Ya'ni o'zbek tili ham kompyuter tiliga aylandi, o'zbek tilida dasturlar yaratildi. Jumladan, o'zbek tili uchun klaviatura tizimlari, avtomatik tarjima dasturlari yaratildi. ``O'zbek WordNet``, ``O'zbek tilida matnni ovozga aylantirish dasturi`` kabi loyihalar ishlab chiqildi.

O'z navbatida xorijiy davlatlarda jumlada, Turkiya, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniyada o'zbek tiliga nisbatan qiziqishlar uyg'ona boshladi. Ularning o'rganishi qulay bo'lishi uchun elektron lug'atlar, tarjima dasturlari yaratilmoqda. O'zbek tili o'quv kurslari o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekcha qiziqarli kitoblar nashr etilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon tillari universiteti va boshqa oliygohlarda o'zbek tilini chet ellik talabalar ham o'rganmoqda.

Xorij kino studiyalarida o'zbekcha kinolar qo'yilib borilmoqda. Ular sahnalarida o'zbekcha qo'shiqlar ijro etilmoqda. Dramatik sahna ko'rinishlari qo'yib borilmoqda.

Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda tilshunoslik ilmiy markazlari faoliyati kengaytirildi. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbekiston Milliy universiteti va Milliy ilmiy-tadqiqot institutlarida tilshunoslik bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. Yangi tadqiqot yo'nalishlari, jumladan, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasiga oid ishlar rivojlana boshladi.

Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy va zamonaviy holatini o'rganish uchun xalqaro hamkorlik kengaydi. O'zbekistonning turli universitetlari va ilmiy muassasalari xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda seminarlar, anjumanlar va loyihalarni amalga oshirdi. Bu ilmiy almashuv tilshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni mamlakatga olib kirishga imkon berdi.

O'z navbatida, o'zbek tilining izohli lug'atlari, imlo lug'atlari, sinonimlar lug'atlari, frazeologik lug'atlar, o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar, terminologik lug'atlar yaratildi. Bu lug'atlar o'zbek tilining leksik boyligini aks ettirish bilan birga, til madaniyatini oshirishga ham xizmat qildi.

O'zbek tilining grammatik qurilishi, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya kabi bo'limlar chuqur o'rganildi. O'zbek tilining grammatik kategoriyalari, uslubiy xususiyatlari yoritildi.

O'zbek tilining dialektlari va shevalari, toponimika [joy nomlari] va antroponimika [odam nomlari] kabi sohalar o'rganildi. O'zbekistonning turli hududlaridagi dialektik xususiyatlar, geografik nomlarning kelib chiqishi, shaxs nomlarining etimologiyasi yoritildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunoslari tomonidan tilning mohiyati, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari, nutq madaniyati, til va tafakkur munosabatlari kabi nazariy masalalar chuqur o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi sohalar rivojlana boshladi.

O'zbek tilining turli sohalariga oid terminologik lug'atlar yaratildi. Ilm - fan, texnika, madaniyat, san'at, huquq, iqtisodiyot kabi sohalarning terminologik bazasi boyitildi. O'zbek terminologiyasining xalqaro terminologiyaga integratsiyalashuvi masalalari ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda Xalqaro miqyosda o'zbek tilining mavqei

O'zbek tili BMT, YuNESKO, kabi xalqaro tashkilotlarda tan olinmoqda .

Mustaqillik yillarida chet mamlakatlarda ham o'zbek tilini o'qitish markazlari ochildi.

O'zbek tilining lotin yozuviga o'tishi xalqaro aloqalarda qulaylik yaratdi.

Adabiy til me'yorlarini belgilash imlo qoidalarini yangilash ishlari olib borildi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir ajoyib nutqini keltirmoqchiman: `` Hech qachon hech kimdan kam

bo'lmagan xalqimizni buyuk kelajak kutmoqda. Bu kelajakni biz o'zbek tilisiz tasavvur qila olmaymiz``deya ta'kidlab o'tgan.

Xullas, mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi . Ona tilimiz nafaqat milliy o'zlik timsoli, balki xalqimizning ma'naviy mustaqilligi va intellektual salohiyatini namoyon etuvchi asosiy qadriyatlardan biriga aylandi. Til bu millat yuragi uning abadiy ovozi va tarix bilan bog'lovchi ko'prigidir. Demakki, tilni asrash, millatni asrashdir. Zero, til bor ekan, millat ham uning ruhi ham boqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent; Fan , 1995
2. Q.Mo'ydinov, R Ikramov. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent – 2024.

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA YOSHLAR JARGONI, SLENGI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

YO'LDASHEVA GULZODA BOTIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1- bosqich talabasi

gulzoda20072025@icloud.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tilida yoshlar tomonidan qo'llaniladigan jargon va sleng biliklari lingvistik hamda sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Yoshlar nutqida shakllanayotgan jargon qatlaminin asosiy manbalari, uning paydo bo'lish sabablari, ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi, jamiyat va adabiy til taraqqiyotiga bo'lgan ijobit va salbiy ta'siri yoritiladi. Shuningdek, tilshunoslikda jargon masalasiga oid ilmiy keltiriladi, zamonaviy sharoitda bu hodisani o'rganishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kaliy so'zlar: jargon, yoshlar tili, sleng, ijtimoiy lingvistika, zamonaviy o'zbek tili, internet tili, globalizatsiya, til madaniyati.

ANNOTATION

This article analyzes the jargon and slang used by young people in modern Uzbek, both linguistically and sociologically. It discusses the main sources of youth jargon, the reasons for its emergence, its connection with socio-cultural factors, and its positive and negative effects on society and the development of the literary language. The article also reviews scholarly perspectives on jargon in linguistics and emphasizes the relevance of studying this phenomenon in contemporary conditions.

Keywords: jargon, youth language, slang, sociolinguistics, modern Uzbek language, internet language, globalization, language culture.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются жаргонные и сленговые единицы, используемые молодежью в современном узбекском языке, с лингвистической и социологической точек зрения. Рассматриваются основные источники формирования жаргонного пласта в речи молодежи, причины его возникновения, связь с социально-культурными факторами, а также положительное и

отрицательное влияние на развитие общества и литературного языка. Кроме того, приводятся научные сведения, касающиеся проблемы жаргона в языкознании, обосновывается актуальность изучения данного явления в современных условиях.

Ключевые слова: жаргон, молодежный язык, сленг, социальная лингвистика, современный узбекский язык, язык интернета, глобализация, языковая культура.

Sleng, jargon va argo odatda sinonim so'zlar sifatida qaraladi. Biroq ularning kelib chiqishi, qo'llanish doirasi va kommunikativ funksiyasini chuqur tahlil qilganda, ular o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi ayon bo'ladi. Bu birliklar tilning leksik qatlamida o'ziga xos ijtimoiy va uslubiy yuklama kasb etadi.

Jargon va argo tushunchalari to'g'risidagi dastlabki ilmiy izlanishlar rus tilshunosligi hamda turkologiyada uchraydi. Keyinchalik o'zbek tilshunosligida ham bu masalaga e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, Sh. Shoabdurahmonov va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida, B. O'rinboyevning "O'zbek so'zlashuv nutqi" nomli monografiyasida jargon va argo birliklarining o'ziga xosliklari haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Jargon — qo'llanishi chegaralangan, asosan ma'lum kasb, ijtimoiy guruh yoki yoshlar qatlamiga mansub shaxslar nutqida uchraydigan, ko'pchilikka tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralar tizimidir. U tilning leksik tarkibiga kiradi, biroq adabiy me'yordan chetga chiqadi. Masalan, dasturchilar, sportchilar, harbiylar, o'g'rilar yoki bezorilar nutqida o'ziga xos jargon birliklari mavjud. Jargonlarning asosiy xususiyati — ularning tez yangilanib borishidir: vaqt o'tishi bilan ayrim birliklar iste'moldan chiqib, o'rini yangi so'zlar egallaydi.

Jargonlar ochiq va yopiq turlarga ajratiladi. Ochiq jargonlar — kasbiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan tejamkorlik yoki o'ziga xoslikni ifodalash maqsadida ishlatiladigan so'zlardir. Yopiq jargonlar esa ma'lum guruhning fikr va harakatlarini boshqalardan yashirish uchun yaratiladi. Masalan, mahbuslar, o'g'rilar yoki yashirin tashkilot a'zolarining nutqida uchraydigan birliklar shular jumlasidandir. Jargonlarning eng xarakterli belgisi — ularning maxfiylik va sir saqlash funksiyasidir. Shu bois, ularning yaratilish jarayoni ko'pincha tilning so'z yasash qonunlariga mos kelmaydi.

O'zbek tilida ijtimoiy argo va jargonlar tarixan "abdal tili" deb ham yuritilgan. Qadimda maddohlar, qalandarlar yoki sayyoh dervishlar o'z niyatini begonalaridan yashirish uchun maxsus "abdal tili"dan foydalangan. Bu tildagi so'zlar ataylab

buzilgan, ramziy yoki yashirin ma'nolarga ega bo'lgan. Keyinchalik bunday ijtimoiy jargonlar ba'zan "atgo" deb ham atalgan va salbiy ma'noda qo'llanilgan.

"Argo", "jargon" so'zlari fransuzcha argot, jargon so'zlaridan olingan bo'lib, "sirli til" yoki "guruh tili" ma'nosini bildiradi. "Sleng" esa inglizcha slang so'zidan olingan bo'lib, jonli og'zaki leksikaga xos so'zlarni ifodalaydi. O'zbek tilshunosligida sleng ko'proq yoshlar nutqiga xos birliklar sifatida qaraladi.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy qatlam vakillari tomonidan ishlatiladigan, emotsional va ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlardir. U zamon ruhi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatdagi o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, madaniyat va internet kommunikatsiyasi bilan uzviy aloqadadir. Slenglar vaqt o'tishi bilan yangilanib boradi: ayrim so'zlar tez eskiradi, o'rniga yangi, dolzarb birliklar kirib keladi. Masalan, internet, blog va ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladigan so'zlar slengga aylanib, keyinchalik adabiy tilga singib ketishi mumkin.

Shuningdek, slenglarning qo'llanish doirasi makon va ijtimoiy muhitga ko'ra farqlanadi. Masalan, Toshkentda ishlatiladigan ba'zi sleng birliklari viloyatlarda notanish bo'lishi mumkin. Sleng ko'pincha hazil, kinoya, ironiyani ifodalaydi va rasmiy nutqda qo'llanilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, sleng, jargon va argo bir-biriga o'xshash jihatlarga ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos funksional va sotsiolingvistik vazifani bajaradi. Argo — maxfiylikni saqlashga xizmat qiluvchi, tor doiradagi til shakli; jargon — kasbiy yoki ijtimoiy guruhlar nutqidagi o'ziga xos birliklar tizimi; sleng esa — yoshlar va norasmiy muloqotda jonli ifodaviy vosita sifatida ishlatiladigan zamonaviy so'zlardir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. O'rinboev. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – Toshkent: Fan, 1991.
2. D. Bultakova. O'zbek yoshlari nutqidagi slenglar // Problems of Research and Education of the Uzbek Language. – Toshkent, 2022.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
4. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.
5. Turg'unpo'latov, D.R. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

6. Turg'unpo'latov, D.R. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

SHA HAR VA QISHLOQ TIL USLUBLARINING ZAMONAVIY O'ZGARISHI: IJTIMOIIY FAKTORLAR TAHLILI

YO'LDOSHEVA BAG'ILA FAXRIDDIN QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tilning transformatsiyaga uchrashi, yangi grafemalar va skriptlar orqali tilning virtual muhitda yangicha ko'rinishlari shakllanishi masalalari yoritiladi. Yozma nutqda shakllanayotgan qisqartmalar, emoji va stikerlarning lingvistik xususiyatlari, shuningdek, ingliz tilidan kirib kelayotgan elementlarning o'zbek tilidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi yozuv shakllari ham milliy til taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'siri jihatidan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, til transformatsiyasi, grafema, skript, emoji, internet lingvistikasi, yozuv tizimi.

ABSTRACT

This article analyzes the modern processes of change in urban and rural language styles based on social factors. Language changes caused by urbanization, migration, the education system, mass media, and social networks are examined. The paper presents scientific reflections on phonetic, lexical, and stylistic differences between urban and rural speech, as well as their impact on the literary language. Furthermore, sociolinguistic conclusions are drawn based on the views of linguists and personal observations.

Keywords: urban speech, rural speech, social factor, language style, urbanization, migration, mass media.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются современные процессы изменения городского и сельского языковых стилей на основе социальных факторов. Рассматриваются языковые изменения, возникающие под влиянием урбанизации, миграции, системы образования, средств массовой информации и социальных сетей. Приводятся научные рассуждения о фонетических, лексических и стилистических различиях в городской и сельской речи, а также их влиянии на общий литературный язык. Кроме того, на основе взглядов лингвистов и личных наблюдений сделаны социолингвистические выводы.

Ключевые слова: городская речь, сельская речь, социальный фактор, языковой стиль, урбанизация, миграция, средства массовой информации.

KIRISH

Tilning ijtimoiy tabiatga egaligi uning jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy farqlar tabiiy ravishda ularning nutqida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli tilshunoslikda shahar va qishloq nutqining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish alohida yo'nalish sifatida qaraladi. "Til ijtimoiy muhitda yashaydi, u ijtimoiy munosabatlarning natijasi va ifodasidir"[1; 25].

XXI asrda globalizatsiya, urbanizatsiya va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida shahar va qishloq nutqi o'rtasidagi tafovut ancha qisqarayotgan bo'lsa-da, baribir ularning ayrim fonetik va leksik jihatlari farqlanib turadi. Shu bois ushbu maqolada shahar va qishloq til uslublarining zamonaviy o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy faktorlar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Shahar va qishloq nutqining tarixiy asoslari. O'zbek xalqining til tarixida shahar va qishloq nutqi doimo o'zaro ta'sirda bo'lgan. Qadimda yirik shaharlarda (Buxoro, Samarqand, Toshkent) adabiy til shakllanib, rasmiy hujjatlar, madrasalarda o'qitiladigan asarlar shu til asosida yozilgan. Qishloq joylarda esa xalqning jonli nutqi — shevalar hukmron bo'lgan. Shu bois **shahar nutqi adabiy tilga yaqin, qishloq nutqi esa ko'proq hududiy xususiyatlarga boy** bo'lib shakllandi.

O'zbek tilshunosi F.G'aniyevning ta'kidlashicha, "Shevalar xalq nutqining tabiiy ko'rinishi bo'lsa, shahar nutqi adabiy til bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda, xalqning umumiy muloqot maydoniga xizmat qiladi"[2;81].

Shahar nutqining xususiyatlari. Shahar aholisi ko'pincha rasmiy muloqot, ta'lim, xizmat ko'rsatish sohalarida faol bo'lgani uchun ularning nutqi adabiy tilga yaqinlashadi. Shahar nutqining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Adabiy til me'yorlariga rioya qilish;

Ko'p hollarda rus va ingliz tillaridan kirib kelgan yangi so'zlarni ishlatish ("ofis", "kompyuter", "market", "servis");

Rasmiy va ilmiy uslub unsurlarining kundalik nutqqa singib ketishi;

So'zlashuv jarayonida qisqartmalardan foydalanish ("tez yordam" – "skoriy", "maktab direktor o'rinbosari" – "zavuch").

Qishloq nutqining xususiyatlari. Qishloq joylarda esa mahalliy shevalarning ta'siri kuchliroq. Qishloq nutqiga xos belgilar:

Hududiy fonetik o'ziga xosliklar ("qilayapti" o'rniga "qivotti", "borayapti" o'rniga "boryatti");

Mahalliy leksik birliklar ("pichan" o'rniga "o't", "piyoz" o'rniga "sarimsoq piyoz");

Qadimiy so'zlarning ko'proq saqlanishi ("qo'ra" – hovli, "g'aram" – somon to'plami);

Oddiy va samimiy uslubning ustunligi. Bu farqlar tilning rang-barangligini ko'rsatadi va umumiy adabiy tilni boyitadi.

Ijtimoiy faktorlar ta'siri

Urbanizatsiya jarayoni

Shaharlarning kengayishi va qishloqlardan odamlarning shaharga ko'chishi natijasida qishloq nutqi shahar tiliga yaqinlashmoqda. Misol uchun, Toshkentning yangi massivlarida yashayotgan qishloqdan kelgan aholining bolalari ko'pincha adabiy til me'yorlariga yaqin nutq bilan ulg'aymoqda.

Migratsiya va til o'zgarishi

Rossiya, Qozog'iston yoki Janubiy Koreyada ishlayotgan yurtdoshlarimiz qaytib kelgach, o'z nutqida o'sha mamlakat tilidan o'zlashmalarni qo'llaydi. Masalan, "zarplata", "rabota", "dochka" kabi so'zlar qishloq nutqiga keng kirib bormoqda. Shahar yoshlari ham bu so'zlarni tezda o'zlashtirmoqda.

Ta'lim tizimining roli

Ta'lim tizimi adabiy tilni me'yoriy shaklda singdirishda eng muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Qishloq bolalari maktabda adabiy tilni o'rgansa-da, uyda mahalliy shevada gaplashadi. Shu bois ularda ikki xil nutq shakli — rasmiy (maktab) va norasmiy (uy) uslublar mavjud bo'ladi. "Tilning adabiy shaklini o'rgatish — yoshlarni milliy birlik va umumiy madaniyat sari yetaklaydi"[3; 90].

OAV va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri

Televideniye, radio, kino va ijtimoiy tarmoqlarda asosan adabiy tildan foydalaniladi. Bu esa qishloq nutqini ham asta-sekin me'yorlashishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, internet tili — qisqartmalar, inglizcha so'zlarning ko'payishi — ham

shahar, ham qishloq nutqiga singib bormoqda: “ok”, “like”, “post qilish”, “story qo'yish” va hokazo.

Fonetik va leksik o'zgarishlar

Fonetik jihatdan qishloq nutqi “qivotti”, “borvotti” kabi variantlardan voz kechib, “qilyapti”, “boryapti” shakliga o'tayotganini kuzatamiz.

Leksik jihatdan esa yangi texnologiyalar bilan bog'liq so'zlar tezda qishloq nutqiga kirib bormoqda: “telefonni zaryad qilish”, “internet ochish”, “zoomga kirish”.

Shahar nutqida esa qishloq unsurlarining ayrimlari stilistik maqsadda qo'llanmoqda. Masalan, shahar yoshlari qishloqdan kelgan tengdoshlariga ergashib, “qivotti” yoki “boryatti” shaklini hazil yoki samimiy muhitda ishlatishi mumkin.

Shahar va qishloq nutqi o'zaro boyituvchi jarayon sifatida. Hozirgi davrda shahar va qishloq nutqi bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro boyituvchi hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shahar nutqi qishloqqa adabiylik va yangi texnologik leksikani olib kirsam, qishloq nutqi shahar tilini xalqona iboralar, samimiy so'zlashuv ohangi bilan boyitadi. Bu jarayon milliy tilning boy va rang-barang bo'lishiga xizmat qiladi.

Shahar va qishloq til uslublari tarixan ma'lum darajada farqlanib kelgan bo'lsa-da, bugungi globallashtirish, urbanizatsiya va kommunikatsiya vositalarining ta'siri ostida bu tafovut ancha qisqarmoqda. Ijtimoiy faktorlar ta'sirida qishloq nutqi asta-sekin adabiy til me'yorlariga yaqinlashmoqda, shahar nutqi esa yangi so'zlashuv unsurlarini o'zlashtirmoqda. Eng muhimi, bu jarayonlar adabiy tilning boyishiga va milliy tilning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Fan, 2004.
2. G'aniyev F. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2008.
3. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Jo'raev M. Til va madaniyat uyg'unligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
5. Qodirov A. Sheva va adabiy til munosabatlari. – Samarqand: SamDU, 2015.
6. Karimov H. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Noshir, 2018.
7. Sodiqov M. O'zbek nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING LITERATURE

YULDASHOVA GULSEVAR DAVLAT QIZI

“2nd-year student at ChDPU”

e-mail: gulsevaryuldashova29@gmail.com

Scientific advisor: Tursuntosh Isroilova

Chirchik state pedagogical university, teacher in Tourism faculty

isroilova.tursuntosh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda innovatsion usullardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, multimedia va raqamli texnologiyalar, loyihaviy metod, gamifikatsiya hamda onlayn ta'lim vositalarining afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Adabiyot fani, innovatsion usullar, multimedia, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, loyihaviy metod, masofaviy ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных методов при преподавании литературы. Особое внимание уделяется мультимедийным и цифровым технологиям, проектному методу, геймификации и средствам онлайн-обучения. Также анализируется роль инновационных подходов в формировании у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и критического восприятия изучаемого материала.

Ключевые слова. Предмет литературы, инновационные методы, мультимедиа, цифровые технологии, геймификация, проектный метод, дистанционное обучение.

Annotation. This article discusses the effective use of innovative methods in teaching literature. Special attention is given to multimedia and digital technologies, project-based learning, gamification, and online education tools. The paper also highlights the role of innovative approaches in developing students' independent thinking, creativity, and critical perception of literary texts.

Key words. Literature, innovative methods, multimedia, digital technologies, gamification, project-based learning, distance education.

Nowadays, innovative approaches play an important role in the education system, contributing to the effectiveness of the learning process. In teaching literature, modern

methods such as multimedia technologies, online platforms, and interactive strategies are widely applied. These methods increase students' interest in lessons and develop their independent and critical thinking. Moreover, innovative techniques help students analyze literary works more deeply, broaden their artistic imagination, and foster creativity. Therefore, the use of innovative technologies in literature teaching is considered one of the most urgent issues of today. In addition, the integration of gamification techniques, such as quizzes, competitions, and digital storytelling, motivates students to participate actively and makes the learning process more engaging. Project-based learning also encourages students to explore literary topics independently or in groups, promoting collaboration and practical application of knowledge. Furthermore, virtual classrooms and online discussion forums provide students with opportunities to share their interpretations, receive feedback, and develop communication skills in a supportive environment. Finally, personalized learning tools allow teachers to address individual students' needs, helping each learner achieve better academic outcomes and fostering lifelong interest in literature.

Interactive learning tools significantly enhance students' engagement in literature classes. Lessons become more interesting and comprehensible through multimedia resources and virtual platforms. Students learn to apply different approaches to text analysis, such as visualizing characters or organizing group discussions based on plot developments. Interactive quizzes and simulations help students consolidate material and maintain focus during lessons. These methods foster critical thinking and creative skills, as students express their ideas freely and draw conclusions by analyzing various texts. Moreover, the use of digital resources develops students' independent learning skills and makes lessons less monotonous and more stimulating [1]. Virtual group work and online forums enable students to exchange opinions, explore new perspectives, and solve problems creatively. Thus, interactive methods in teaching literature not only increase effectiveness but also transform the learning process into one that cultivates students' creative and critical thinking abilities.

The use of modern technologies significantly enhances students' engagement in literary processes. For instance, virtual classrooms and online forums provide students with the opportunity to freely express their opinions. In this context, they not only articulate their own ideas, either in written or oral form, but also analyze and compare the perspectives of others, thereby developing their critical thinking and refining their viewpoints. This approach encourages students to examine literary works from a critical perspective, identify the stylistic features of authors, and draw logical conclusions. Furthermore, gamification methods make the learning process more

engaging and motivating. Students are encouraged through game elements such as points, levels, badges, or ranking systems, which increase their participation and foster independent learning and creative thinking skills. Additionally, technology facilitates collaborative work and project-based activities, allowing students to develop communication and analytical skills effectively. As a result, incorporating modern technologies into literature classes transforms them into an interactive environment that not only delivers knowledge but also actively engages students in creative and critical thinking [2].

Among innovative teaching methods, project-based activities occupy a special place in the educational process. Project work allows students to work independently or in groups, fostering a sense of personal responsibility and enhancing their ability to collaborate effectively. By creating projects on various topics, students study literary materials and apply them in practice. In addition to consolidating theoretical knowledge, project work encourages creative thinking, problem-solving skills, and the development of critical thinking. For instance, students engaged in literary research projects can analyze plot structures, examine character traits, and express their own interpretations on specific topics. Furthermore, group projects teach students to communicate with each other, exchange ideas, and collaborate toward a common goal. As a result, project-based activities not only deepen students' academic knowledge but also enhance their communicative and creative abilities. In this regard, the project approach serves as an essential tool for increasing the effectiveness of modern educational processes [3].

Project-based activities also promote the development of independent research skills. Students learn to identify relevant sources, evaluate information critically, and synthesize their findings into coherent presentations or reports. This process enhances their analytical abilities and teaches them to approach problems methodically. In addition, engaging in projects encourages innovation and experimentation. Students often propose unique solutions or creative interpretations, which cultivates originality and boosts self-confidence. Collaborative projects further help learners develop social and leadership skills, as they must negotiate roles, manage time effectively, and resolve conflicts within their teams. Moreover, the outcomes of project work often extend beyond the classroom. Presenting projects to peers, teachers, or even wider audiences allows students to refine their communication skills, receive constructive feedback, and gain a sense of accomplishment. Ultimately, project-based learning not only enriches academic understanding but also prepares students for real-world challenges by fostering adaptability, initiative, and lifelong learning habits.

The use of modern multifunctional educational platforms significantly enhances the learning process. Such platforms incorporate interactive quizzes, video lessons, e-books, and various multimedia tools, which enable students to not only acquire theoretical knowledge but also develop practical skills. For instance, interactive quizzes allow students to respond immediately and assess their own level of understanding, while analyzing mistakes helps them identify areas that require further attention. Video lessons, on the other hand, visually present the topic, simplify complex concepts, and help maintain students' focus. E-books and other digital resources give students the opportunity to study at their own pace, enriched with additional information, annotations, and interactive notes. In this way, students do not merely read the text but actively engage with it, gaining a deeper understanding of the literary content. This approach makes the learning process more engaging and motivational, as students are encouraged by working independently and seeing the results of their efforts.

Furthermore, these platforms encourage collaborative work, discussion of problems, and analysis of each other's viewpoints. As a result, not only individual knowledge but also communicative and critical thinking skills are developed. Thus, the use of multifunctional educational platforms makes the study of literature more interactive, enriched, and engaging for students, which ultimately contributes to a significant improvement in the quality of education [4].

For teachers, innovative methods provide the opportunity to organize lessons more effectively and to apply an individualized approach for each student. Through these methods, students engage with tasks suited to their abilities, which fosters the development of independent thinking and problem-solving skills. Moreover, interactive technologies and creative approaches help to eliminate monotony in lessons, significantly increasing students' interest and motivation. As a result, their academic performance improves, and their social skills and ability to work in teams are also enhanced. The use of innovative methods enables teachers to continuously update their pedagogical strategies and organize the learning process in accordance with modern educational demands [5]. Teaching literature using innovative methods not only enhances the quality and effectiveness of the learning process but also fosters students' creative and critical thinking skills. With the use of multimedia tools, interactive presentations, audiobooks, and video clips, students engage with texts not only by reading but also by listening and visualizing, which helps them understand the material more deeply. In this process, they learn to analyze characters, plot

development, and literary images, significantly improving their critical thinking abilities.

Project-based and research activities encourage students to work independently. For example, students may be assigned research on a favorite literary work or a particular genre. During this process, they search for sources, analyze information, and present their findings. This approach not only broadens their literary knowledge but also develops creative thinking, teamwork, and communication skills. Gamification and game-based elements make literature lessons more engaging and motivating. Quizzes, role-playing activities, and interactive tests encourage active participation, spark interest in the lesson topic, and make complex texts easier to comprehend. Additionally, online platforms provide individualized learning opportunities, allowing students to work with supplementary materials and participate in discussions even during remote lessons. As a result, teaching literature through innovative methods enhances the learning process while cultivating students' independence, creativity, and critical thinking. This ultimately prepares them to become more competitive, knowledgeable, and creative individuals in the future, capable of effectively contributing to society and tackling complex challenges.

References:

1. Islomov, A., 2020. Digital Technologies and Literature Lessons. Tashkent.
2. Karimova, N., 2019. Teaching Literature through Project-Based Methods. Samarkand.
3. Toshpulatova, D., 2021. Gamification and Motivation in Literature Lessons. Bukhara.
4. Ergashev, B., 2022. Teaching Literature Using Online Education Tools. Tashkent.
5. Sultonov, M., 2018. Innovative Approaches in Modern Education. Tashkent.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA MADANIY NUTQNING O'RNI VA AHAMIYATI

ZOKIROVA ELSHODA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi
zokirovaelskoda007@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon ko'rinadi. Nutqiy mahorat bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanganligi to'g'risida manbalar keltirilgan. chinakam pedagog ham, rahbar ham ma'lum qobiliyatga, ya'ni chuqur bilimga ega bo'lishi, kasbiy qobiliyat, ma'naviy yetuklik, imidj kabi qator komponentlarga ega bo'lishi bilan birga professional nutq madaniyati komponentini yaxshi egallashi shart ekan. Yaxshi pedagogic yaxshi rahbar bo'lolmasligi, yaxshi rahbar esa yaxshi pedagog bo'lolmasligi mumkinligi va uni bartaraf etish yo'llari maqolada ochib berilgan.

Kalit so'zlar: davlat tili, ish yuritish, nutq madaniyati, rasmiy uslub, savodxonlik, amaliy muammolar.

Abstract: Learn to speak well and don't get in the habit of speaking politely, because the language says what you want to say. Use words in their place, a word out of place, even if it is a good word, looks bad. Sources are given that the forms of eloquence, which is a speech skill, differ from ordinary speech and speech activity of people. a real teacher and leader must have a certain ability, i.e. deep knowledge, have a number of components, such as professional ability, spiritual maturity, image, and also have a good command of the component of professional speech culture. The article reveals the possibility that a good teacher cannot be a good leader, and a good leader cannot be a good teacher, and ways to eliminate it.

Keywords: cultural speech, speech culture, oratory, pedagogical mastery, leadership qualities, professional speech culture, communication culture, components of speech culture, teacher's speech, leadership competence, professional culture.

Аннотация: Учитесь говорить правильно и не привыкайте к вежливым, но неосознанным речевым формам, ведь язык выражает то, что человек действительно хочет сказать. Важно употреблять слова на своём месте, поскольку даже хорошее слово, сказанное не к месту, производит неприятное впечатление. В статье отмечается, что формы красноречия, как особого речевого умения, отличаются от обычной речи и речевой активности человека. Подчёркивается, что настоящий учитель и лидер должны обладать глубокими знаниями, профессиональными навыками, духовной зрелостью, имиджем, а также владеть компонентами профессиональной речевой культуры. В работе рассматривается возможность того, что хороший учитель не всегда является хорошим лидером, и наоборот, а также предлагаются пути устранения данного противоречия.

Ключевые слова: культура речи, речевая культура, ораторское искусство, педагогическое мастерство, лидерские качества, профессиональная культура речи, культура общения, компоненты речевой культуры, речь учителя, лидерская компетентность, профессиональная культура.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir

(Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

O'tgan asrning 20-yillaridan so'ng o'zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo'shdilar.

Nutq madaniyati ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lgan. U paytda davlat arboblarning obro'-e'tiborlari va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi

ularning notiqlik san'atini qay darajada egallaganliklariga bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san'atning mohir egalarigina yuqori lavozimlarga saylangan. Notiqlik eramizdan oldingi V asrda Yunonistonda shakllangani haqida fikrlar bor.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan bin "Qobusnoma" (1082-1083)da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, ular hozir ham ma'lum darajada ahamiyatini yo'qotmagan. Kaykovus tomonidan yozilgan bu asarda shunday deyiladi: "Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon ko'rinadi".

Nutq madaniyati, so'zning qadri, undan foydalanish to'g'risida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, o'z zamonasining buyuk shoirlaridan biri Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) va albatta, o'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan Alisher Navoiy o'zbek tilining boyliklarini namoyon etib, XV asrda olamga mashhur adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanini namoyon qildi.

O'tmishda va o'tmishga oid adabiyotlarda alohida nutqiy mahorat bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanganligi to'g'risida manbalar keltirilgan. Masalan, Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilib, keyinchali Yevropa nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Nutq madaniyati notiqlik san'atini yaxshi egallagan rahbar so'z qudratidan foydalanib, odamlarni o'ziga qarata oladigan haqiqiy yo'l boshchiga aylanadi. Bu esa oson ish emas. Rimning buyuk notig'i Sitseron "Suxandonlik shunday sifatki, unga osonlikcha erishib bo'lmaydi va u juda ko'p bilim va mehnatdan tug'iladi", degan edi. Amerikalik siyosatchi va tadbirkot D.D.Uepster shunday degan: "Menda bor bo'lgan barcha narsani olib qo'ying. Menga so'zlash qobiliyatimni qoldirsangiz bas. Shunda men tez orada barcha yo'qotgan narsalarimni qayta qo'lga kiritaman" Darhaqiqat, bu e'tirof ortida katta hayotiy tajriba, tinimsiz izlanish yashiringan.

Demak, chinakam pedagog ham, rahbar ham ma'lum qobiliyatga, ya'ni chuqur bilimga ega bo'lishi, kasbiy qobiliyat, ma'naviy yetuklik, imidj kabi qator komponentlarga ega bo'lishi bilan birga professional nutq madaniyati komponentini yaxshi egallashi shart ekan. Yaxshi pedagog yaxshi rahbar bo'lolmasligi, yaxshi rahbar esa yaxshi pedagog bo'lolmasligi mumkin. Ammo bugungi kun talabiga javob beradigan pedagog-rahbar har tomonlama mukammal bo'lishi uchun o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur.

Nutq madaniyatiga tegishli bo'lgan sohalarga nisbatan notiqlik san'ati nomini ishlataverish ham ko'p chalkashliklar tug'diradi. O'ta murakkab bo'lgan notiqlik san'atiga erishish murakkab hodisa. Shuning uchun avvalo nutq madaniyati qonun-qoidalariga rioya qilish, toza va ravon tilda gapirish masalalarini hal qilmasdan notiqlik san'ati haqida gapirib bo'lmaydi. Undan tashqari, tilimizning go'zalligini ifoda qiladigan unli va undosh tovushlarni o'z o'rnida qo'llash, talaffuzda sifatga e'tibor berish nihoyatda jiddiy masala. Bu borada pedagog-rahbarlarga ko'rsatmalar, individual tavsiyalar berish ham oldimizda turgan vazifalardir.

Har bir shaxsning nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jumladan pedagog-rahbarlarning ham. Bir kishining nutqi tinglovchiga yaxshi tushuniladi, voqea va hodisalar haqida aniq va ravshan ma'lumot beradi, o'zining til qurilishi bilan tinglovchining xulqiga ta'sir qiladi. Boshqa bir tinglovchi esa gapirayotgan shaxsning gapiga tushunmasligi, uning nutqidagi kamchiliklar tufayli asosiy fikr va maqsadni aniqlab ololmasligi mumkin. Pedagog-rahbar o'zining nutqi ustida tinimsiz ishlab turishi kerak. Bunda uning ovoz chiqarib matn o'qib turishi yaxshi natija beradi. Birinchidan, uning nutqi adabiy til normalariga yaqinlashadi, ikkinchidan esa nutqiy kamchiliklari bartaraf etiladi. Nutqiy kamchilik - bu nutq a'zolarining yaxshi ishlamasligidan kelib chiqadi. Bunday kamchiliklar, afsuski, ko'pchilik pedagog-rahbarlarda mavjud. Shuning uchun rahbarlar nutq madaniyati nazariyasini o'rganish bilan birga amaliy mashg'ulotlarni ham muntazam bajarib turishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь. Ташкент-2007.
2. Г.Е. Халикулова. Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф-певец родного края и любви. Международная конференция, стр. 154-159.

TASHKILIY HUJJATLARNING TUZILISHI VA ULARNING RASMIY USLUBDAGI O'RNI

IBRAYMOVA UNITAY FARXADOVNA

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

umidaibraymova8@gmail.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda tashkiliy hujjatlarning ma'no va mazmun jihatidan tuzilishi, ularning rasmiy ish yuritishdagi ahamiyati hamda turlari tahlil etiladi. Tashkiliy hujjatlar muassasa va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy vosita bo'lib, ular rasmiy uslubning aniq, izchil va mantiqiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Tashkiliy hujjat, rasmiy uslub, ish yuritish, me'yori, til madaniyati, hujjat turlari, boshqaruv faoliyati.

Annotation. This thesis analyzes the structure, meaning, and content of organizational documents, as well as their significance in official record management and their various types. Organizational documents serve as the main means of regulating the activities of institutions and organizations, reflecting the accuracy, consistency, and logic characteristic of the official style.

Keywords: organizational document, official style, record management, norm, language culture, document types, administrative activity.

Аннотация. В данной тезисной работе анализируется структура, смысловое и содержательное построение организационных документов, их значение в официальном делопроизводстве, а также основные виды. Организационные документы являются основным средством регулирования деятельности учреждений и организаций, отражая точность, последовательность и логичность, присущие официально-деловому стилю.

Ключевые слова: организационный документ, официальный стиль, делопроизводство, норма, культура речи, виды документов, управленческая деятельность.

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur bu tildir. Bugungi kunda hujjatlarning sof o'zbek tilidagi yagona andazalarini yaratish, ular bilan bog'liq atamalarning bir xilligiga erishish borasida ish olib borilmoqda. Chunki mukammal va oqilona tashkil etilgan etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi ish yuritishning asosi hisoblanadi.

Hujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi :

1. Sodda hujjatlar - bir masalani o'z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga ariza, e'lon, tilxat, kafolat xati va boshqalar kiradi.

2. Murakkab hujjatlar - bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjatdir. Bularga shartnomalar Bularga shartnomalar ma'lumotnoma, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

Ish yuritish hujjatlar qo'llanishi doiriasi, maqsad va vazifalariga kora 4 guruhga bo'linadi:

1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar)
2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish)
3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar)
4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Hujjatlar mazmun bayonining shakliga ko'ra uch turli bo'ladi :

1. Xususiy hujjatlar
2. Namunaviy hujjatlar
3. Qoliqli hujjatlar

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqarish jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan kilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Nizomlar, yo'riqnomalalar, majlis bayonlari, shartnomalar ana shunday tashkiliy hujjatlar sirasiga kiradi.[1]

Tashkiliy hujjatlarda boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalar aks etadi. Har qanday tashkilotning faoliyati hujjatlarning turli ko'rinishlarida o'z aksini topadi. Tashkiliy hujjatlar o'zaro bog'liq hujjatlar majmui bo'lib, quyidagilarni qat'iy belgilab beradi:

- tashkilot, muassasa yoki korxonaning strukturasi (tuzilishi) va vazifalari;
- ularning ish faoliyatini qanday tashkil qilish;
- ularning rahbariyat hamda xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

Tashkiliy hujjatlar, ularning leksik va stilistik xususiyatlari

Shartnoma. Shartnomalar tashkilotlar o'rtasida, tashkilot bilan fuqaro, shuningdek, fuqaro bilan fuqaro o'rtasi tuzilishi mumkin. Har qanday shartnoma uning maqsadi va mazmunidan qat'i nazar qonunga muvofiq bo'lishi kerak.

Shartnomalar hajm jihatiga ko'ra ancha katta hujjat bo'lib, asosan, quyidagi qismlardan iborat:

1. Shartnomaning nomi (mahsulot etkazib berish, uy-joy sotib olish va h.k.).
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnoma tuzilgan joy (shahar nomi).
4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi, tomonlar vakillarining to'liq ismlari va vakolatlari ko'rsatiladi.
5. Shartnoma matni.
6. Tomonlarning huquqiy manzillari.
7. Tomonlarning imzolari va muhrlari.

Shartnoma matni ko'pincha rim raqamlari bilan belgilanadi. Boblar esa bandlarga bo'linadi hamda ular arab raqamlari bilan ko'rsatiladi. Matnda tomonlar bajarish lozim bolgan shartlar va boshqa majburiyatlar aniq bayon qilinadi. Tomonlar shartnomaning barcha moddalari bo'yicha kelishib olganlaridan keyingina shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma-ikki va undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuvdir. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron-bir munosabat o'rnatish haqidagi kelishuv (bitim)ni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi kerak, chunki har bir huquqiy shaxs hujjatlar yig'masida kamida bir nusxa bo'lishi kerak. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Oddiy xo'jalik shartnomalarining zaruriy qismlari: shartnomaning nomi shartnoma tuzilgan sana shartnoma tuzilgan joy shartnoma tuzilayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi, tomonlar vakillarining ism-shariflari, ularning vakolat doirasi shartnoma matni tomonlarning huquqiy manzillari tomonlarning imzolari va muhrlari.

Guvohnoma. Guvohnoma muayyan shaxsning xizmat va boshqa holat va vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. U bajaradigan vazifasiga qarab bir turga bo'linadi.

1. Muayyan shaxsning xizmat va boshqa holatlarini ko'rsatadi. Masalan, har bir kishi ishga yoki o'qishga qabul qilinganida unga guvohnoma beriladi. Bu guvohnoma

o'z egasining aynan shu yerda ishlashi yoki o'qishini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi bilan birga, unga shu muassasaning turli bo'linmalarida erkin kirib chiqish huquqini beradi.

2. Muayyan shaxsning biron ishga (masalan, taftish o'tkazishga) oid vakolatini ko'rsatadi. Bunday guvohnomalar, odatda rahbar tomonidan beriladi. Guvohnomalarning bu turi yonda olib yurishga moslashtirilib, qattiq muqovall daftarcha shaklida tayyorlanadi. Ularning zaruriy qismlari quyidagicha:

- 1) hujjat nomi («Guvohnoma»)- bu so'z muqova ustiga yoziladi;
- 2) guvohnoma beruvchi tashkilot nomi;
- 3) guvohnoma egasining ismi-sharifi (toMiq yoziladi);
- 4) lavozimi;
- 5) guvohnomaning amal qilish muddati (odatda har bir yil muddat ko'rsatiladi, so'ng uning cho'zilgani haqida belgi(muhr) qo'yiladi;
- 6) tashkilot rahbarining Imzosi;
- 7) shaxsiy imzo;
- 8) guvohnoma egasining surat;
- 9) tashkilot muhri (uning bir qismi surat ustiga bosilishi kerak);

3. Xizmat safari guvohnomasi xodimga safar vaqtida yuklatilgan xizmat vazifasini bajarishga vakolat beruvchi hujjat. Guvohnoma maxsus blankada rasmiylashtiriladi va xodim qo'liga topshiriladi. Uning zaruriy qismlari yuqorida keltirilgan tarkibiy qismda bir oz farq qiladi.

Xizmat safari guvohnomasi moliyaviy hujjat bo'lgani uchun u to'g'ri rasmiylashtirilishi kerak. Unda barcha imzo va muhrlarning bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari turli malaka oshirish muassasalarida ta'lim olgan shaxslarga tegishli guvohnoma hisoblanadi. Bunday guvohnomalarda amal qilish muddati ko'rsatilmaydi. Guvohnomada berilgan sana va mansabdor shaxslar imzosigina bo'ladi.

Yo'riqnoma. Yo'riqnoma - qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tanishtirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat. Yo'riqnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Eng yuqorida tasdiqlash ustxati.
2. Hujjatning sarlavhasi (yo'riqnomaning nomi).
3. Matnning kirish qismi, bo'limlari, kichik bo'limlari va h.k.
4. Yo'riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, ota ismi va familiyasi, uning imzosi.
5. Yo'riqnoma tuzilgan vaqt sanasining va tartib raqami, shartli raqami indeksi.

Nizom. Nizom hamda yo'riqnomalar har bir tashkilotning faoliyat turiga qarab yoziladi va tasdiqlanadi. Bunda ushbu hujjatlar tegishli me'yorlarga va mehnat qonunchiligiga asoslangan bo'lishi lozim. Muassasa yoki uning tarkibiy

bo'linmalarining tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Nizom ayrim mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar ko'rik, musobaqa, tanlov va boshqalarga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Ko'pincha nizom muassasalar ta'sis etilishi yoki tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan tasdiqlanadi. Muassasalarning tarkibiy qismlari ularning rahbarlari tomonidan tuziladi va muassasa rahbari farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxatini qo'yish bilan kuchga kiradi. Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Nizomning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjat turining nomi.
2. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa tarkibiy qismining nomi.
3. Matnning mazmuni: muassasa tuzilishidan maqsad va asoslar; asosiy vazifalari; muassasa tuzilishi, huquqi, ishni tashkil qilish tartiboti.
4. Muassasa rahbari imzosi.
5. Sana va joyi
6. Tasdiqlash ushathi yuqori qismida o'ng burchakda joylashadi.

Ustav. Muayyan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, muassasaning tuzilishini yo'naltirib turadigan asosiy nizom va qoidalar majmuyi. Ustav biror organ yoki muassasa vazifalari va huquqiy holatini tavsiflaydigan me'yoriy ahamiyatga ega. Binobarin, ustav nizomga nisbatan keng tushunchadir. U ko'proq ma'lum bir tarmoq, sohalar, yirik muassasalar bo'yicha tuziladi. Qoida. Bu hujjat ichki mehnat tartiboti, ya'ni unda ishni tashkil etish, xodimlar bilan ma'muriyat o'rtasidagi majburiyatlar, ta'tillar berish tartibi, ichki tartib (ish vaqti va undan foydalanish, yutuqlar uchun rag'batlantirish va mehnat intizomi buzilgani uchun jazo berish kabi masalalami aks ettiradi).

Qoidalar mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida muhokama etiladi va vahtv.uz tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi. Shunday qilib, har bir tashkilotdagi qoidalar soni va mazmuni uning ish tartibi va vazifalaridan kelib chiqadi. Masalan, studentlarning oliy o'quv yurti binosida o'zini tutish qoidalari, yotoqxonadan foydalanish qoidalari bunday muassasalarda joriy etilgan qoidalar sirasiga kiradi.

Muassasa va alohida xodim o'rtasida mehnat shartnomasi - bitim tuziladi. Uning mazmuni va shartlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida belgilab berilgan. Muassasalar bilan ularning hisobida turmaydigan shaxslar o'rtasida ham ma'lum mehnat munosabatlari o'rnatilishi mumkin. Ba'zi hollarda ma'lum cheklangan muddatda bajariladigan xizmatni muayyan muassasaning o'zidan bajaradigan

xizmatchi bo'lmay qoladi. Shunday hollarda chetda taklif qilingan mutaxassis bilan mehnat bitimi tuziladi. [2]

Tashkiliy hujjatlar rasmiy ish yuritish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular tashkilot, muassasa yoki korxonaning faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga soladi. Tashkiliy hujjatlar orqali rahbarlik faoliyati, ichki tartib, buyruqlar, farmoyishlar, nizomlar va yo'riqnomalar kabi masalalar rasmiylashtiriladi. Rasmiy uslubda tuzilgan hujjatlar mantiqiy izchillik, aniqlik va ixchamlilik bilan ajralib turadi. Ularning tuzilishi qat'iy talablar asosida shakllanadi: sarlavha, kirish qismi, asosiy matn va yakuniy qism. Bugungi kunda tashkiliy hujjatlarning elektron shaklda yuritilishi ish samaradorligini oshiradi, vaqt va resurslarni tejaydi. Shu bilan birga, hujjatlar tili me'yorlarga mos bo'lishi, ortiqcha so'zlardan xoli va aniq mazmunga ega bo'lishi talab etiladi. Xulosa qilib aytganda, tashkiliy hujjatlarning to'g'ri tuzilishi va rasmiy uslubga rioya etilishi boshqaruv madaniyatining muhim ko'rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonova M., Fattoxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Mumtoz so'z", 2018.
2. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim ta'lim muassasalari muassasalari rus guruhlar uchun darslik). - Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.

USLUBIY ME'YOR TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

IBROXIMOVA JASMINA ISKANDAR QIZI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

ibrahimovajasmina12@gmail.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada me'yor va uslub tushunchalarining mohiyati, ularning til tizimidagi o'rni hamda o'zaro bog'liqligi tahlil etiladi. Shuningdek, uslub tushunchasiga izoh berilib, uning turli kommunikativ vazifalarga ko'ra ajraladigan turlari — so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: me'yor, adabiy me'yor, uslub, vazifaviy uslub

Annotation. This article analyzes the essence of the concepts of norm and style, their place in the language system, and their interrelation. It also provides an explanation of the concept of style and discusses its various types according to communicative functions — colloquial, official, scientific, publicistic, and artistic styles.

Keywords: norm, literary norm, style, functional style.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность понятий нормы и стиля, их место в языковой системе и взаимосвязь. Также даётся объяснение понятия стиля и рассматриваются его различные типы в зависимости от коммуникативных функций — разговорный, официальный, научный, публицистический и художественный стили.

Ключевые слова: норма, литературная норма, стиль, функциональный стиль.

Me'yor-so'zining mavjud bo'lgan ma'nosi, fonetik tuzilishi. S.I.Ojegov fikricha, "Me'yor-bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baholashdir".

Adabiy me'yor o'z holicha shakllanadi. Uning shakllanish va taraqqiyotiga tilning tarkibiga kiruvchi lahja, shevalar turlicha hissa qo'shadilar. Qaysi hududda savdo, fan madaniyat taraqqiy etgan bo'lsa, me'yorga ham o'sha hududdagi shevalarning ulushi ko'proq bo'ladi.[1]

N. Golovin: "Me'yor bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til ko'rinishining amalda bo'lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til tizimining yagonaligiga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustaqamlanib boradi".[2]

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishdan bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funksional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi. Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi.

So'zlashuv uslubi insonlarning oilada, ko'cha-ko'ya g'oya almashinuvi vaqtida foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha dialog shaklida bo'ladi.

Publitsistik uslub axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga xoslangan ommaviy axborot vositalari (radio-televideniye, gazetajurnallar) uslubidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga mos bo'lib, unda badiiylilik, ifodaviylilik, ta'sirchanlik kuchlidir.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng foydalanilishga xos bo'lib, hamma ilmiy asarlar, shuningdek, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.[3]

Uslubiy me'yor – bu adabiy tilning turli uslublarida nutqni to'g'ri, maqsadga muvofiq, vaziyatga mos tashkil etish qoidalari yig'indisidir. Ya'ni, adabiy tilning fonetik, leksik va grammatik me'yorlari umumiy asos bo'lsa, uslubiy me'yor – ularni muayyan nutqiy vaziyatda to'g'ri qo'llash me'yoridir.

Ilmiy uslubda – terminlarning aniq ishlatilishi me'yor;

Badiiy uslubda – obrazlilik va estetik go'zallik me'yor;

Rasmiy uslubda – hujjat qoliplariga amal qilish me'yor;

So'zlashuv uslubida – soddalik va tabiiylik me'yor.

Adabiy tilning umumiy me'yorlari barcha sohalarga bir xil tatbiq etilmaydi. Har bir uslubning o'z talabi bor – uslubiy me'yor ana shu talabni belgilaydi. Nutq madaniyatini ta'minlaydi. Kishi qaysi sohada gapirsa ham, uslubiy me'yorni saqlashi uning nutqini chiroyli, to'g'ri va ta'sirchan qiladi. Jamiyat ehtiyojlariga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot, qonunchilik, publitsistika yoki badiiy ijod – barchasida til o'ziga xos vazifani bajaradi. Uslubiy me'yor esa bu vazifalarni to'g'ri ado etishga yordam beradi. Nutqiy muomala samaradorligini oshiradi. To'g'ri uslub tanlansa, so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasida muloqot samarali bo'ladi. Uslubiy me'yor – adabiy til me'yorlarining amaliy ko'rinishi bo'lib, nutqni vaziyatga mos, ta'sirchan, aniq va madaniyatli qilishda beqiyos o'rin tutadi.

Uslubiy me'yor buzilishining sabablari

1. Til imkoniyatlarini noto'g'ri bilish – nutqiy madaniyatning pastligi, adabiy til me'yorlarini o'zlashtirmaslik.

2. Uslublar o'rnini almashtirish – masalan, rasmiy hujjatda so'zlashuv ohangidan foydalanish yoki ilmiy matnga badiiy tasvirlarni aralashtirish.

3. Begona unsurlarni kiritish – ortiqcha jargon, varvarizm, dialekt so'zlaridan noo'rin foydalanish.

4. Noaniq ifoda – noto'g'ri so'z tanlash, chalkash sintaksis.

5. Nutq vaziyatiga moslashmaslik – masalan, ilmiy ma'ruzada shaxsiy hissiy ohangni ko'paytirish, rasmiy nutqda hazil ishlatish.

Uslubiy me'yor buzilishining oqibatlari:

1. Tushunmovchilikka olib keladi – matn o'quvchi yoki tinglovchiga aniq yetib bormaydi.

2. Nutqning ta'sirchanligi kamayadi – auditoriyada jiddiylik yo'qoladi.
3. Shaxs obro'siga salbiy ta'sir qiladi – masalan, rasmiy chiqishda oddiy so'zlashuv uslubidan foydalanish kishining nutqiy madaniyatsizligini ko'rsatadi.
4. Jamiyat til madaniyatiga putur yetadi – adabiy tilning qadr-qimmati pasayadi.
5. Xato talqin va noto'g'ri tushunish xavfi oshadi – ilmiy yoki rasmiy matnlarda ayniqsa og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Adabiy til me'yorlari va uslubiy me'yorlar til madaniyatining asosiy tayanchi hisoblanadi. Har bir uslub o'ziga xos talablarga ega bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash nutqning ta'sirchanligi, aniqligi va go'zalligini ta'minlaydi. Uslubiy me'yorni saqlash – nafaqat shaxsning nutq madaniyatini, balki jamiyatning umumiy til madaniyatini ham yuksaltiradi. Aksincha, me'yorlarning buzilishi nutq samaradorligini pasaytiradi, tushunmovchilik va muloqotda muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun har bir soha vakili o'z faoliyatida tilning uslubiy talablari va adabiy me'yorlariga rioya etishi, nutqini madaniyatli, lo'nda va ta'sirchan ifodalashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'lqinova Sarvinoz Lazizbek qizi. "O'zbek adabiy tilining me'yorlari"
2. Jo'raev T.T, Halimov S.G'. "Nutq madaniyati". Samarqand. 2021
3. M.Sh. Xudoykulova. "Nutq uslublari" - Mart, 2022

MUSTAQIL O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA DAVLAT TILI MAQOMINING AHAMIYATI

MADINA ABDIVALIEVA ASQARALI QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi

madina6isabekovna@icloud.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni keng ilmiy asoslarda yoritilgan. Tilning milliy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni, tarixiy taraqqiyoti, huquqiy asoslari va mustaqillikdan keyingi rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, davlat tili, milliy qadriyat, huquqiy asos, mustaqillik, til siyosati, globallashuv.

Annotation. This article provides a comprehensive scientific analysis of the status of the Uzbek language as the state language. It examines the role of the language in shaping national identity, its historical development, legal foundations, and the processes of evolution after independence.

Keywords: uzbek language, state language, national value, legal foundation, independence, language policy, globalization

Аннотация. В данной статье всесторонне и научно обоснованно раскрыта роль узбекского языка как государственного языка. Проанализированы его значение в формировании национальной идентичности, историческое развитие, правовые основы и процессы эволюции в период после обретения независимости.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, национальная ценность, правовая основа, независимость, языковая политика, глобализация

Til —

insoniyat jamiyati taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biridir. Har bir xalqning milliy tili uning o'zligini, tarixiy xotirasini va ma'naviy dunyosini ifodalaydi. Mustaqil O'zbekiston tarixida o'zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilinishi milliy tiklanish yo'lidagi buyuk voqealardan biri bo'ldi. Bu qaror nafaqat tilning ijtimoiy mavqegini

belgilab berdi, balki millatning o'zligini anglash, mustaqil davlat sifatida dunyoda o'z o'rnini topishida ham muhim qadam bo'ldi.

Davlat tili tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Davlat tili – bu mamlakat hududida rasmiy aloqa, hujjatchilik, ta'lim va boshqaruvda asosiy til sifatida qo'llaniladigan tildir. O'zbek tilining davlat tili maqomini olishi 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun orqali amalga oshirildi. Mazkur qonun o'zbek tilini davlat boshqaruvi, sud, huquqni muhofaza qilish, ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida keng qo'llash imkonini berdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 167-1-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6084-sonli Farmoni tizimda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlarni yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilashdan iborat.[1] Go'zal va jozibador o'zbek tilining taraqqiy etib borishini, uning har tomonlama kamolotini davlat miqyosida ta'minlash zarurdir. Til qadrlining oshishi boshqa tillarga ham hurmatni ta'minlaydi. Tilni chinakamiga e'zozlash xalqlar qadriga yetish, komil do'stlik rishtalarini mustahkamlash demakdir. O'zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi.

O'zbek tili qadimdan buyuk madaniyat va ilmiy meros yaratgan til sifatida shakllangan. Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi buyuk adiblar, shuningdek Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar o'z davrida ilm-fan va adabiyot rivojida o'zbek tilining qadr-qimmatini ko'rsatib berganlar. Ammo sho'rolar davrida o'zbek tilining mavqei sezilarli darajada cheklangan, ko'plab sohalarda rus tili ustuvor bo'lib qolgan. Mustaqillik arafasida o'zbek tilining maqomi oilaviy va bozor tili darajasiga tushib qolgan edi. 1989-yildan keyingi islohotlar bu holatni tubdan o'zgartirdi. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei keskin o'zgardi. Davlat hujjatlari, qonunlar, rasmiy matbuot va ta'lim tizimi tobora ko'proq o'zbek tiliga asoslanmoqda. Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, hukumat hujjatlari davlat

tilida ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, 1990-yillardan boshlab oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tilida darsliklar yaratilishi, ilmiy ishlarning davlat tilida olib borilishi yo'lga qo'yildi. Bunday jarayon xalqimiz ruhiyatini yuksaltirishda, milliy g'ururni oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. Davlat tilini rivojlantirishning zamonaviy bosqichlari.

Bugungi kunda davlat tilini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, ilmiy markazlar va terminologiya qo'mitalari faoliyat olib bormoqda. Ilmiy-texnik sohalarda yangi atamalarni o'zbek tiliga moslashtirish, darsliklar va qo'llanmalarni davlat tilida nashr etish yo'lida keng ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, internet va axborot texnologiyalarida o'zbek tilining mavqei mustahkamlanyapti. Elektron lug'atlar, til korpuslari, o'zbek tilini qo'llab-quvvatlaydigan dasturiy ta'minotlarning yaratilishi ham bu borada muhim qadam bo'ldi. Globallashuv davrida ko'plab xalqaro terminlar va atamalar milliy tilga kirib kelmoqda. Bu jarayon bir tomondan ilmiy aloqalarni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan milliy tilning tozaligini saqlash masalasini dolzarb qiladi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda mavqeini oshirish, uni chet ellarda o'qitish, turli ilmiy konferensiyalarda qo'llash masalalari bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun davlat tilining nafaqat mamlakat ichida, balki tashqarida ham rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, davlat tili siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda xalqni birlashtiruvchi qudratli vosita sanaladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O'zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari o'zbek tilini o'rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e'tiborlidir. O'zbek tilini izchil rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida zimmamizga katta va mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Binobarin, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi – Yangi O'zbekistonni barpo etish va uchinchi Uyg'onish davri poydevorini mustahkamlashga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani har qancha tahsinga loyiq. O'zbek tili mavqeyi, kelajagi birinchi navbatda o'zbekda o'zbek tili bilan faxrlanish hissining qanchalik darajada tarbiyalaganligiga bog'liq. Bu birinchi navbatda umumta'lim maktablarining har bir o'zbek tili o'qituvchisiga hammadan ko'proq bog'liqligini chuqur anglamog'imiz lozim. Bu talab nimani anglatadi? Birinchidan, har bir o'zbek tili o'qituvchisining o'zbek adabiy tilida mukammal gapira olishda o'quvchilariga namuna bo'lishi zarurligini anglatadi. Ikkinchidan, adabiy tilda mukammal gapira olish medalning bir tomoni bo'lsa, uni o'qituvchining hissiyotlarga to'la jonli nutqi bilan bezay olish

qobiliyatini o'zida shakllantira olgan bo'lishi medalning ikkinchi tomoni deganidir. [2]

O'zbek tili – davlat tili sifatida millatimizning eng katta boyligi, ma'naviy merosi va mustaqilligimiz ramzidir. Tilni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga sof va boy shaklda yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir. Kelajakda ham davlat tilining mavqei mustahkamlanib, uning ilmiy, texnik va xalqaro sohalarda qo'llanish doirasi kengayib borishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2024-yil 21-oktabr – o'zbek tili bayrami kuni akmal saidov, oliy majlis qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari, akademik
2. Usmon jo'rayev, bo'ka tumanidagi 8-maktab o'qituvchisi; “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi” “O'zbek tili – mening tilim” “davlat tili haqida”gi qonunning 35 yilligi ma'ruzasi
3. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – toshkent, 1995.

ILMIY USLUBDA GRAMMATIK QURILISHNING ROLI VA AHAMIYATI.

MAHMUDOVA SEVINCH ALISHER QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabasi

atomicargato@gmail.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya: Ilmiy uslub - bu aniq, mantiqiy va tasdiqlangan ma'lumotlarni ifodalash uslubidir. U dalillarga tayangan, tushunarli va ob'ektiv bo'lib, asosan ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, ma'ruzalar uchun ishlatiladi. Grammatik jihatdan ilmiy uslubda: Murakkab, lekin tartibli gaplar qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: ilmiy uslub, grammatika, termin, obyektivlik, mantiqiy izchillik

Annotation. The scientific style is a way of expressing precise, logical, and verified information. It is based on evidence, characterized by clarity and objectivity, and is mainly used in scientific articles, research papers, and lectures. Grammatically, the scientific style features complex but well-structured sentences.

Keywords: scientific style, grammar, terminology, objectivity, logical consistency.

Аннотация. Научный стиль — это способ выражения точной, логичной и доказательной информации. Он опирается на факты, отличается ясностью и объективностью и используется преимущественно в научных статьях, исследованиях и докладах. С грамматической точки зрения для научного стиля характерны сложные, но упорядоченные предложения.

Ключевые слова: научный стиль, грамматика, терминология, объективность, логическая последовательность.

Adabiy til turli funksional uslublar tizimidir. Funktsional uslublar - bu tilning tarkibiy va funksional variantlari, tilning differentsial ko'rinishlari, tilning asosiy funktsiyalariga muvofiq aniqlangan, inson faoliyatining har qanday sohasiga xizmat qiluvchi, stilistik jihatdan bir hil so'zlar, so'z shakllari va sintaktik modellarga ega

bo'lgan til quyi tizimlari. Adabiy tilning funksional uslublari tizimida so'zlashuv, ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy uslublar aniq namoyon bo'ladi. Bu uslublarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri, o'xshash va farqli tomonlariga xos xususiyatlar hamisha tilshunoslar uchun o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Ularga xos ko'pgina xususiyatlar hali ham munozarali bo'lib, bu munozaralar adabiy til tushunchasini subyektiv idrok etishi bilan emas, balki bu tushunchaning obyektiv murakkabligi bilan ham yuzaga keladi. Ilmiy uslub — bu ma'lumotlarni aniq, mantiqiy va dalillarga asoslangan tarzda ifodalash uslubidir. Uning grammatik xususiyatlari ilmiy matnning ravshan va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Ilmiy uslubda asosan murakkab gaplar, passiv shakllar, uchinchi shaxs va izchil zamonlar ishlatiladi. Bu orqali muallif shaxsiy fikridan ko'ra, fakt va dalilga urg'u beradi, mantiqiy bog'lanishlar ochiq ko'rsatiladi.[1]

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materialini fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozim. Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqatbugina emas singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi.[2]

Bu esa ilmiy nutqning obyektivligi va aniq mantiqiy strukturasi yaratishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar ilmiy uslubning grammatik hususiyatlari

1. Aniqlik va tushunarli bo'lishiga e'tibor bering

- Murakkab gaplardan ko'ra, mantiqan aniq va qisqa jumlar yozishga intiling.
- Noaniq yoki chalkash grammatik konstruktsiyalardan qoching.

2. Passiv shakllardan oqilona foydalaning

- Ma'lumotni obyektiv ifoda qilish uchun passiv gaplar keltiring, biroq ularni haddan tashqari ko'p ishlatishdan saqlaning.

3. Bog'lovchilar va mantiqiy aloqalarni mazmunli tanlang

- Sabab-natija, taqqoslash, qo'shimcha tushuntirish uchun mos bog'lovchilarni aniq qo'llang (masalan, «shuning uchun», «biroq», «bunday holda»).

4. Fe'l va predikat shakllarini to'g'ri ishlatib

- Zamonaviy grammatika qoidalariga muvofiq hozirgi va o'tgan zamon fe'llaridan aniq foydalaning.

- Fe'l shakllarida shaxs va raqam mosligini saqlang.

5. Mantiqiy va grammatik muvofiqlikni ta'minlang

- Gaplar o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lishi kerak, bu ilmiy matnning izchilligini oshiradi.

6. Terminologiya va maxsus so'zlarni grammatik jihatdan aniq qo'llash

- Maxsus ilmiy terminlarni tushunarli va grammatik jihatdan mos holatda kiriting.

Ushbu tavsiyalar ilmiy uslubning grammatik jihatlardagi aniq, tushunarli va rasmiy ifodasini ta'minlashga yordam beradi.

Ilmiy uslubda demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqye, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski singari modal so'zlar va modal ma'no anglatuvchi boshqa birliklar keng qo'llaniladi. Shu tarzda ilmiy uslubning ammo, lekin kabi o'z bog'lovchilari, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, to'g'risida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar singari ko'makchilari borligini ham qayd qilish to'g'ri bo'ladi. Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O.T.Begimov filologiya fanlari doktori.“ Ilmiy va badiiy uslubga tegishli matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari”

2. O.M. Xamdamova //M. M.Husaynova ”Ilmiy uslubning leksik-grammatik xususiyatlari”

BADIIY USLUB – ESTETIK IFODA VA BADIIY TASVIR VOSITASI

MIRZAYEVA MARJONABONU RUSTAMOVNA

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

mirzaev.1977@gmail.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya: Badiiy uslub va uning xususiyatlari>> mavzusi adabiyotshunoslikda muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuda badiiy uslubning xususiyatlari, turlari, uning belgilari va misollari tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar :** Me'yor, uslubiy me'yor, badiiy uslub, estetik maqsad, epic uslub, lirik uslub, dramatik uslub, satirik uslub

Annotation. The topic “Artistic Style and Its Features” occupies an important place in literary studies. This article analyzes the characteristics, types, and distinctive features of the artistic style, as well as provides illustrative examples.

Keywords: norm, stylistic norm, artistic style, aesthetic purpose, epic style, lyric style, dramatic style, satirical style.

Аннотация. Тема «Художественный стиль и его особенности» занимает важное место в литературоведении. В данной статье анализируются характеристики, виды и отличительные признаки художественного стиля, а также приводятся примеры.

Ключевые слова: норма, стилистическая норма, художественный стиль, эстетическая цель, эпический стиль, лирический стиль, драматический стиль, сатирический стиль.

Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan shakli sifatida aniq me'yor hamda qoidalar asosida ish ko'radi. Tilshunoslikda me'yor tushunchasi mutaxassislar tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va til egalariga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatini anglatadi. Adabiy tilni me'yorlashtirish deganda tilni ko'pchilikka ma'qul shakllarni tavsiya etish va shu asosda fonetik, orfoepik, orfografik, leksik, grammatik qoidalarni ishlab chiqish va

tartibga solish tushuniladi. Bugungi kunda o'zbek adabiy tilining birmuncha ishlangan, ma'lum darajada qolipga solingan me'yorlari quyidagicha ko'rsatiladi:

1. **Leksik-semantik** me'yor – leksik (so'z qo'llash) me'yorlari;
2. **Orfoepik** (talaffuz) me'yor.
3. **Yozuv** (grafik) me'yor.
4. **Fonetik** me'yor.
5. **Aksentologik** (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. **Grammatik** (morfologik va sintatik) me'yor.
7. **So'z yasali**sh me'yor.
8. **Imloviy** me'yor.
9. **Punktuatsion** me'yor.
10. **Uslubiy** me'yor.

Uslubiy me'yor. Tildagi so'zlar bir yoki bir necha ma'noda bo'lishi mumkin. Ularning qay birini qo'llash, ularning o'zgarib turishi, nutq uchun qaysi ma'noning xosligini aniqlashda ma'noviy me'yorga suyaniladi. Bunda tildagi izohli, bir necha tilli, atamalar lug'atlarining ahamiyati katta bo'ladi. O'zbek tilining uslubiy me'yorlarini belgilash tilshunosligimiz oldidagi eng muhim masalalardan bo'lib turibdi. Tildagi so'zlarni noo'rin qo'llash uslubiy xatolarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Til birliklarini qo'llashdagi maqsadiga muvofiqligi uslubiy me'yor bobida bosh o'lchov hisoblanadi. Uslubiy me'yorni belgilashda qo'llanayotgan birlikning umumxalq tomonidan ma'qullanishi lozimligi, uning ko'pchilik tomonidan shu tarzda qo'llanishi qabul qilingan bo'lishi kerakligi hamda tahlil qilinayotgan til birligi haqida hukm chiqarishda uning matnga mosligi kabilar hisobiga olinadi. Nutqning og'zaki yoki yozma ko'rinishida til birliklarini noo'rin, takror ishlatish, so'z qo'llashdagi noaniqliklar turli xil uslubiy xatolar keltirib chiqaradi. Tilda sinonimlarni noo'rin ishlatish, tilda mavjud bo'lgan vazifaviy uslublariga oid unsurlarni noo'rin qo'llash ham uslubiy me'yorning buzilishiga olib keladi.

Ma'lumki, so'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini ifodalash jarayonida tilda mavjud bo'lgan til birliklarining nutqiy vaziyat uchun mos bo'lgan ko'rinishini tanlab olib qo'llashi til birliklarining nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab chegaralashni, ma'lum bir guruqlarga ajratishni taqozo qiladi. Alohida olingan bu guruqlarni vazifaviy uslub sifatida qarash mumkin.

“Uslub (stil)” atamasining kelib chiqishi olis davrlarga borib taqaladi. Asli uchi o'tkirlashtirib, yozish uchun muljallangan tayoqchaga nisbatan qo'llanilgan “uslub (stil)” so'zi keyinchalik qadimgi Rim va Gretsiyada ishontirish san'ati, hindlarda nutqni

bezash vositasi, arablarda kiyim sifatida tushunilgan. Keyingi asrlarda esa u filologik atama sifatida qo'llanila boshlagan.

Adabiy tilni uslublarga bo'lib o'rganish masalasi o'zining uzoq tarixida ega bo'lib, uning ildizlari antik filosofiyaga borib taqaladi. Tilning bo'yoqdorlik xususiyatini uslublarni tasniflashda o'zlaricha asos deb bilgan qadimgi hind olimlari 8 ta, ba'zilar 10 ta uslub mavjud degan g'oyani olg'a surganlar. Olimlar tilning bo'yoqdorligini hisobga olib uslublarni tasniflashda bir yoqlamalikka yo'l qo'yg'alar.

Bugungi kunda o'zbek tilshunoslari tilning vazifaviy uslublarini quyidagicha tasniflaydilar. *E.Begmatov, A.Boboeva, M. Asomiddinova, B.Umurqulovlar* uslublarni og'zaki yoki yozma ekanligiga ko'ra ikki – og'zaki nutq uslubi va yozma nutq uslubiga ajratadilar. Ular so'zlashuv uslubini og'zaki nutq uslubiga kiritadilar va uning ikki turi (adabiy so'zlashuv va oddiy so'zlashuv) mavjudligini ko'rsatadilar. Yozma nutq uslubiga esa badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy ish uslublarni kiritib, badiiy uslubining nasriy, poetik, drammatik; ilmiy uslubning ilmiy- texnik, ilmiy- ommabop; publitsistik uslubning gazeta, ijtimoiy-siyosiy; rasmiy ish uslubining rasmiy –idoraviy, rasmiy- axborot uslubi kabi tarmoqlari borligini sxema yordamida ko'rsatadilar. Tilshunoslikda vazifaviy uslublar masalasida, ularni tasniflashda bir xillik yo'qdir. Bu olimlarni vazifaviy uslublarni turlicha nomlashlari va uslublar sonini uchtdan yettitagacha deb ko'rsatganlarida ham seziladi. Ammo keyingi yillarda yaratilgan ishlarning deyarli ko'pchiligida vazifaviy uslublar bajaradigan vazifasi jihatidan besh katta guruqqa ajratilmoqda. Bular quyidagilar: 1) so'zlashuv uslubi; 2) ilmiy uslub; 3) rasmiy ish – qog'ozlari uslubi; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Badiiy uslub.

Badiiy uslub-tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsunlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko'p ishlatilishi, so'zlarning obrazli, ko'chmametaforlik qo'llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi.

Badiiy uslubning asosiy xususiyatlari:

1. ***Individuallik***- har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'ladi.
2. ***Estetik maqsad***- uslub vositasida muallif o'quvchiga go'zallik, tuyg'u, tasvir va g'oya yetkazadi.
3. ***Obrazlilik***- badiiy uslub obrazlar orqali voqealarni tasvirlaydi, bu uni publitsistik yoki ilmiy uslublardan ajratib turadi.Misol:

1)Cho'lpon "tong nafasi"ni tasvirlab, u orqali umid va yangilanish g'oyasini obrazli ifodalaydi.

2) "Tong nurlari daryoga tushib, uni oltindek yaltirattirdi" Oddiy "quyosh chiqdi" deb yozish o'rniga, muallif tasvirni obrazli berib, o'quvchining tasavvurini ishga soladi.

4. ***Til vositalarning xilma-xilligi***- metafora, epitet, personifikatsiya, tashbeh kabi san'at vositalaridan keng foydalaniladi. Misol:

1) "Ko'nglim – qishlog'im, seni sog'indim" - bu yerda ko'ngil va qishloq metafora sifatida ishlatilgan.

2) "Muhabbat – yurakdagi chaqnayotgan yulduzdir". Bu- isti'ora (metafora), ya'ni muallif muhabbatni bevosita "chaqnayotgan yulduz"ga tenglashtirgan. Muhabbat yorqin, ichki olov kabi tasvirlangan.

5. ***Hissiylik va emotsionallik***- badiiy uslubda ifoda kuchli hissiy yuklamaga ega bo'ladi. Muallif o'z kechinmalarini vositali yoki to'g'ridan-to'g'ri bildiradi va o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatadi: hayajonlantiradi, g'azablantiradi, ilhomlantiradi.

Misol:

"Uning ketgani yuragimga og'ir toshdek botdi". Bu yerda qahramonning his-tuyg'usi – alam va sog'inch ifodalangan.

Til vazifaviy uslublari tizimida badiiy nutq uslubi ham o'ziga xos alohida lisoniy belgilariga ega. Uning o'ziga xosligini ta'minlovchi omillardan biri uning til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan ta'sir etishga mo'ljallanganligidir. Badiiy matn uslub talabidan kelib chiqib, tildagi mavjud birliklarni qamrab olish imkoniyatlarining kengligi, ularning turli ma'nolarda qo'llanishi, yozuvchi maqsadiga bog'liq holda qayta ishlanilishi kabi xususiyatlari bilan hamma uslublarga xos jihatlarini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Nutqning turli ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan matnlar til birliklarini qamrab olish doirasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, ular orasida emotsionalekspressivligi, badiiy-estetik ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lgan badiiy matnlar alohida ajralib turadi. Chunki "Badiiy nutq stilida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy nutq o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funktsional stillaridan ajralib turadi"[2]. Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matn haqidagi fikrlarini shunday izohlaydi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funktsional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek, qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik

birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi"[3].

Badiiy uslub turlari:

1. **Epik uslub** - voqea-hodisalarni hikoya qilish asosida quriladi (roman, hikoya, doston).

Belgilari:

1)Ob'ektivlik (muallif orqaga chekinadi, voqeani o'zi «gapiradi»>>)

2)Voqealar ketma – ketligi, rivoji.

3)Ko'p hollarda obrazlar nutqi (dialog, monolog) bo'ladi.

2. **Lirik uslub** – muallifning hissiyot va kechinmalari markazda bo'ladi. (she'r, qo'shiq).

Belgilari:

1)Emotsionallik (hissiyotga boy)

2)Sub'ektivlik (muallifning o'z munosabati bor)

3)San'atli ifoda vositalari ko'p: tashbeh, epitet, metafora.

3. **Dramatik uslub** – dialog va monologlar orqali ifodalanadi (drama, tragediya, komediya).

Belgilari:

1)Dialoglar asosiy o'rinda.

2)Qahramonlarning harakati orqali voqea ochiladi.

3)Hissiyot va ziddiyatlar bevosita beriladi.

4. **Satirik uslub** – kulgi, hajv orqali illatlarni fosh qilishga yo'naltiriladi.

Belgilari:

1)Tanqidiy ruh.

2)Kinoya, hajv vositalari.

3)Muallifning bevosita pozitsiyasi.

Xullas, bugungi kunda o'zbek tilining vazifaviy uslublari imkoniyat darajasida o'rganib chiqilgan. Vazifaviy uslublar o'zbek tilining amaldagi imkoniyatlarini va taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim lingvistik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

1. "O'zbek tili me'yorlari(punktuatsiya)"- Toshkent: Zamin nashr, 2021.-232b.

2. N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, D.Andaniyozova Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 30- b

3.Jo'raev T.T., Halimov S.G'. "Nutq madaniyati" 2021. - 108 b.

KASBIY MONOLOGIK NUTQ: MAZMUNI, SHAKLI VA AHAMIYATI

SAIDAMINOVA MADINA ODILOVNA

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi
madinasaidaminova@icloud.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda kasbiy monologik nutq tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Kasbiy faoliyat jarayonida monologik nutq mutaxassisning fikrini aniq, mantiqiy va ta'sirchan tarzda ifoda etish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Unda nutq madaniyati, uslubiy me'yorlarga rioya qilish, dalillilik va izchillik kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy nutq, monolog, nutq odobi, aniqlik, ta'sirchanlik, me'yor, kasbiy faoliyat.

Annotation. This paper explores the concept of professional monologic speech, its distinctive features, and practical significance. In professional activity, monologic speech plays an important role as a means of expressing a specialist's thoughts clearly, logically, and persuasively. It emphasizes aspects such as speech culture, adherence to stylistic norms, argumentation, and consistency.

Keywords: professional speech, monologue, speech etiquette, clarity, persuasiveness, norm, professional activity.

Аннотация. В данной работе рассматривается понятие профессиональной монологической речи, её особенности и практическое значение. В профессиональной деятельности монологическая речь играет важную роль как средство чёткого, логичного и выразительного выражения мыслей специалиста. Особое внимание уделяется культуре речи, соблюдению стилистических норм, аргументированности и последовательности изложения.

Ключевые слова: профессиональная речь, монолог, речевой этикет, точность, выразительность, норма, профессиональная деятельность.

Hozirgi globallashuv jarayonida kasbiy nutq madaniyati, xususan, kasbiy monologik nutqning o'zni beqiyos darajada ortib bormoqda. Har qanday sohada

faoliyat yurituvchi mutaxassis uchun o'z fikrini to'liq, aniq va izchil ifoda eta bilish muhim omil sanaladi. Monologik nutqning kasbiy shakli nafaqat shaxsiy bilim va tajribani ifoda etish vositasi, balki kasbiy muloqot madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hamdir. Kasbiy monologik nutq – bu mutaxassis tomonidan ma'lum bir sohaga oid bilim, tajriba, g'oya va fikrlarni mantiqiy izchillikda, mustaqil tarzda ifoda etish jarayonidir. U nafaqat ma'ruzalar, taqdimotlar yoki chiqishlarda, balki kundalik kasbiy faoliyatda ham keng qo'llanadi. Mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki har bir soha vakilidan yuqori darajadagi nutq madaniyati, aniq va tushunarli monologik nutq tuzish qobiliyati talab qilinadi.

Monologik nutq- bu bir shaxs tomonidan ifodalangan va tinglovchi tomonidan qabul qilinadigan nutq shaklidir. Monologik nutqda so'zlovchi mustaqil ravishda fikr yuritadi, g'oyani rivojlantiradi va uni yakuniga yetkazadi. Monologik nutqning asosiy belgisi – izchillik, mantiqiylik va yaxlitlikdir. Kasbiy kontekstdagi monologik nutq esa aniq bir sohaga oid tushunchalar, terminlar va kasbiy ifodalar yordamida quriladi. U faqatgina lingvistik qobiliyatni emas, balki mutaxassislikka oid bilimlarni ham talab etadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko'rsatish sohalarida mutaxassisning kasbiy monologik nutqi uning malaka va salohiyatini belgilovchi omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Kasbiy monologik nutq turlicha shakllarda namoyon bo'ladi: 1. Og'zaki taqdimotlar: O'quvchilar ma'lum bir mavzuni o'rganib, uni taqdim etishlari mumkin. Bu jarayon ulardan nutqni tuzish, to'g'ri grammatikani qo'llash va g'oyalarni aniq ifoda etishni talab qiladi. Bunday taqdimotlar rasmiy (masalan, akademik taqdimotlar) yoki norasmiy (masalan, shaxsiy tajribalarni baham ko'rish) bo'lishi mumkin.

2. Hikoya aytish: Hikoya aytish ijodkorlikni rag'batlantiradi va voqea tuzilmasidan foydalanishga o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarga uzoqroq davom etadigan nutq paytida ravonlikni saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ular turli zamon shakllari va boy lug'atdan foydalanishni mashq qiladilar.

3. Nutq yozish va uni ifodalash: O'qituvchilar o'quvchilarga ma'lum bir masala yuzasidan nutq yozish va uni so'zlab berish topshirig'ini berishlari mumkin. Bu orqali o'quvchilar murakkab fikrlarni tartib bilan bayon qilish va dalillarni asoslab taqdim etishni mashq qiladilar.

4. Munozaralar va muhokamalar: Munozaralar o'quvchilardan dalillarni keltirish va qarshi fikrlarga javob berishni talab qiladi. Bu ularga ishontiruvchi nutqni mashq qilish, tanqidiy fikrlash va boshqalar fikriga o'ylab munosabat bildirish imkonini beradi.

5. Tahliliy (reflektiv) faoliyatlar: Maqsadli tilni o'rganish jarayonidagi shaxsiy tajribalar haqida o'ylab ko'rish o'quvchilarga o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish (metakognitiv fikrlash) hamda bir vaqtning o'zida so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.[1]

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi. Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq.[2]

Kasbiy monologik nutqda uchraydigan muammolar. Professional monologik nutqda bir nechta muhim muammolar mavjud. Ularga tinglovchi fikr-mulohazasi va interaktivlikning yo'qligi, psixologik to'siqlar (qo'rquv, ishonchsizlik), shuningdek, texnik muammolar (nutq tezligi, ovoz balandligi, intonatsiya va akustika sharoitlari) kiradi. Shuningdek, murakkab g'oyalarni mantiqan tuzish, nutqning ravonligi va aniqligini saqlash hamda turli nutq muhitlariga moslashish ham qiyinchilik tug'diradi.

Psixologik va ishonch bilan bog'liq muammolar. Qo'rquv va xavotir: Ko'pchilik insonlar xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqadi, o'z nutqining to'g'riligiga ishonmaydi va yolg'iz gapirishda ishonchsizlikni his qiladi (Redalyc.org ma'lumotlariga ko'ra).

Motivatsiya: Past motivatsiya tayyorlanish va monologik nutqda faol ishtirok etish istagini kamaytiradi, bu esa o'rganuvchilar va mutaxassislar uchun katta muammo hisoblanadi. Interaktivlik va fikr-mulohaza cheklovlari. Orqa aloqa signallari yo'qligi: Ma'ruzalar kabi professional monologlarda suhbatdagi kabi og'zaki ("ha", "hmm") yoki noverbal (bosh irg'ash) fikr-mulohaza signallari bo'lmaydi (Michigan Language Assessment ma'lumotiga ko'ra).

Kuzatish: So'zlovchi o'z nutqini doimiy ravishda kuzatib borishi, tinglovchilarning tushungan-tushunmaganini taxmin qilishi kerak bo'ladi, bu esa jarayonni murakkablashtiradi.

Texnik va nutq yetkazishdagi muammolar. Nutq tezligi va ovoz balandligi: So'zlovchi nutqining tezligini, ovozining balandligini va ohangini auditoriya va mavzuga moslashtira olishi zarur, ammo bu ko'nikma oson shakllanmaydi. Muhit omillari: Turli akustik sharoitlar, zal hajmi, mikrofon yoki minbar bilan ishlash zarurati nutq aniqligi va yetkazilishiga ta'sir qiladi. Ravonlik va mantiqiy bog'liqlik: Uzoq vaqt davomida ravon, izchil va tuzilmalangan nutqni saqlash ko'p mashq va tajriba talab qiladi.

Tuzilish va mazmun bilan bog'liq muammolar. Murakkab g'oyalarni tuzish: Murakkab fikrlarni mantiqan izchil shaklda bayon etish, dalillar bilan asoslash professional monologlarda ko'p uchraydigan muammolardan biridir (inLibrary ma'lumotlariga ko'ra).

Ifoda aniqligi: G'oyalarni aniq, tushunarli va grammatik jihatdan to'g'ri yetkazish professional so'zlashuvning eng muhim, ammo murakkab jihatlaridan biridir.

Kasbiy monologik nutq – bu mutaxassisning kasbiy salohiyatini ko'rsatib beruvchi eng muhim ko'nikmalardan biridir. U nafaqat ilmiy va amaliy faoliyatda, balki kundalik muloqotda ham zarur. Monologik nutqning sifatli bo'lishi uchun aniq reja, keng bilim, to'g'ri terminlardan foydalanish, izchillik va auditoriyaga moslashuv talab qilinadi. Bugungi kunda har bir sohada raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mutaxassisning kasbiy monologik nutqi uning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli ushbu ko'nikmani rivojlantirish har bir yosh mutaxassisning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ch.A.Sharipova "Monological speech as a key factor in speech development for learners of english as a foreign language"

2. Zarnigor Alisherova "Muloqot psixologiyasi. Shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlarini va boshqalarni o'rganish"

3. Abdirimova I. Amaliy o'zbek(rus) tili .O'quv qo'llanma.-2025.№109

ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA VA ELEKTRON LUG'ATLAR YARATISH MASALALARI

ALIMOVA OZODA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati 4-bosqich talabasi

ozodaalimova02@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy leksikografiyaning taraqqiyot yo'nalishlari, an'anaviy lug'atlar va elektron lug'atlar o'rtasidagi asosiy farqlar, ularning afzalliklari va dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Elektron lug'atlar tuzishda lingvistik korpuslardan foydalanish, o'zbek tilida elektron lug'atlar yaratish zaruriyati hamda xalqaro tajriba o'rganiladi. Shuningdek, elektron lug'atlarning ta'lim, tarjima va ilmiy izlanishlardagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Annotation

The article explores the development of modern lexicography, the main differences between traditional and electronic dictionaries, their advantages, and current challenges. It highlights the use of linguistic corpora in creating electronic dictionaries, the necessity of developing such resources for the Uzbek language, and examines international experience. The article also discusses the importance of electronic dictionaries in education, translation, and scientific research.

Аннотация

В статье рассматривается развитие современной лексикографии, основные различия традиционных и электронных словарей, их преимущества и актуальные проблемы. Подчеркивается использование лингвистических корпусов при создании электронных словарей, необходимость разработки подобных ресурсов для узбекского языка, анализируется международный опыт. Также в статье обсуждается значение электронных словарей в образовании, переводе и научных исследованиях.

Kalit so'zlar: leksikografiya, lug'atshunoslik, elektron lug'at, korpus lingvistika, milliy resurslar, raqamlashtirish, til texnologiyalari.

Key words: lexicography, lexicography, electronic dictionary, corpus linguistics, national resources, digitization, language technologies.

Ключевые слова: лексикография, лексикографирование, электронный словарь, корпусная лингвистика, национальные ресурсы, оцифровка, языковые технологии.

Til insoniyat madaniyati va tafakkurining asosiy vositasi bo'lib, uni chuqur o'rganish lug'atlar orqali amalga oshiriladi. Lug'atlar tilning boy xazinasini tizimlashtiradi, uning grammatik va semantik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu sababli leksikografiya tilshunoslikning eng qadimiy va eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yaratgan "Devonu lug'otit-turk" asari turkiy xalqlarning dastlabki leksikografik yodgorligi sifatida tanilgan. Bu asar nafaqat so'z boyligini jamlagan, balki o'sha davrning madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayotini ham aks ettirgan. Rus olimi A.A. Reformatskiy leksikografiyani "tilshunoslikning amaliy yuzidir" deya ta'riflagan. Bu ta'rif lug'atlarning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham ifodalaydi. Lug'atlar xalqning til xazinasini avloddan-avlodga yetkazadi, ilmiy izlanishlarda, ta'lim jarayonida va madaniy aloqalarda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida lug'atshunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. Elektron lug'atlar, onlayn resurslar va mobil ilovalar zamonaviy leksikografiyaning asosiy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy leksikografiya taraqqiyoti

An'anaviy lug'atlar asrlar davomida bosma shaklda ishlab chiqilgan. Ularning afzalligi – barqarorligi va ilmiy asoslanganligida bo'lsa, kamchiligi – qidiruv jarayonining sekinligi va doimiy yangilash imkoniyatining yo'qligidir. Elektron shakldagi lug'atlar esa tezkor qidiruv, ko'p ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida taqdim etish, multimedia elementlari (ovoz, rasm, video) orqali so'zning ma'nosini yanada jonliroq ifodalash imkoniyatiga ega. Ingliz tilidagi Oxford English Dictionary, Merriam-Webster, fransuz tilidagi Larousse, yapon tilidagi "Wisdom" kabi lug'atlar elektron shaklda keng foydalanuvchilarga xizmat qilmoqda. Ularning asosiy afzalligi — tezkorlik, zamonaviylik va foydalanish qulayligidir. Shcherbaning fikricha, lug'at til tizimini eng mukammal darajada aks ettiruvchi manba bo'lib, u ilmiy asosda tuzilmasa, tilning boyligini to'liq ochib bera olmaydi. Demak, elektron lug'atlarni yaratishda ham nazariy asoslarni puxta ishlab chiqish zarur.

Elektron lug'atlar va korpus lingvistika

Zamonaviy elektron lug'atlar lingvistik korpuslarga asoslanadi. Lingvistik korpus — bu katta hajmdagi matnlar majmuasi bo'lib, ular elektron shaklda saqlanadi va maxsus dasturlar yordamida tahlil qilinadi. Korpus asosida yaratilgan lug'atlar so'zlarning haqiqiy qo'llanishini, ularning chastotasini va uslubiy xususiyatlarini

ko'rsatib beradi. Masalan, ingliz tilidagi lug'atlar "British National Corpus" yoki "Corpus of Contemporary American English" ma'lumotlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. O'zbek tilida esa bu boradagi ishlar endigina rivojlanish bosqichida.

O'zbek leksikografiyasi va elektron lug'atlar masalalari

O'zbek leksikografiyasi qadimiy ildizlarga ega. "Devonu lug'otit-turk"dan tortib, "Sangloh", "Badoe' ul-lug'at" kabi manbalar, keyinchalik esa izohli va ikki tilli lug'atlar til taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tilli lug'atlar, terminologik lug'atlar chop etildi. Ammo ularning ko'pchiligi bosma shaklda qolmoqda. Elektron lug'atlar yaratishda bir nechta muammolar kuzatiladi. Birinchidan, milliy lingvistik korpus to'liq shakllanmagan. Ikkinchidan, lug'atlarning yagona elektron standartlari ishlab chiqilmagan. Uchinchidan, texnik platformalar va dasturiy ta'minot yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada foydalanuvchilar zamonaviy elektron lug'atlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira olmayapti. Shunga qaramay, istiqboli keng yo'nalishlar mavjud. Avvalo, izohli, ikki tilli, sinonim-antonym va terminologik lug'atlarni elektron shaklda yaratish zarur. Bunday resurslar nafaqat tilshunoslar, balki o'qituvchilar, tarjimonlar, talabalar va keng jamoatchilik uchun ham katta foyda keltiradi. Professor A. Madvaliyevning ta'kidlashicha, "O'zbek leksikografiyasida elektron resurslar yaratish bugungi kunda dolzarb vazifaga aylangan".

Elektron lug'atlarning amaliy ahamiyati

Elektron lug'atlar ta'lim jarayonida til o'rganishni samarali qiladi. Talabalar tezkor qidiruv orqali kerakli ma'lumotni topadi, so'zning talaffuzi va qo'llanishini o'rganadi. Tarjima sohasida elektron lug'atlar avtomatik tarjima tizimlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlarda esa elektron lug'atlar katta hajmdagi materialni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Globalizatsiya sharoitida elektron lug'atlar millatlararo muloqotni rivojlantiradi, til o'rganuvchilar uchun universal vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ularni yaratish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy vazifa sifatida ham qaralishi lozim.

Xulosa

Zamonaviy leksikografiya elektron lug'atlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular foydalanuvchilar uchun qulay, tezkor va ishonchli ma'lumot manbai hisoblanadi. O'zbek tilida elektron lug'atlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Buning uchun lingvistik korpusni rivojlantirish, texnik imkoniyatlarni kengaytirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish talab etiladi. Shunda o'zbek leksikografiyasi jahon leksikografiyasi bilan teng qadam tashlashi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. Moskva: Aspekt Press, 1996.
- 2.Shcherba L.V. O troyakom aspekte yazykovyx yavleniy i ob eksperimente v yazykoznanii. Leningrad: Nauka, 1974.
- 3.Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi va elektron resurslar. Toshkent: Fan, 2019.
- 4.Atkins B.T., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford: OUP, 2008.
- 5.Cowie A.P. The Oxford History of English Lexicography. Oxford: OUP, 2009.
- 6.Katan D. Language and Culture. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

TERMINOLOGIYA VA ILMIY TILNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

ALIYEVA ANORAXON

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi
4-bosqich talabasi
anoraaliyeva2004@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada terminologiya va ilmiy tilning shakllanishi hamda rivojlanish masalalari tahlil qilinadi. Terminologiyaning nazariy asoslari, ilmiy tildagi o'rni va funksiyalari, zamonaviy davrda atamalar yaratish usullari va tarjima jarayonida uchraydigan muammolar misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, milliy ilmiy tilning rivoji, globalizatsiya sharoitida o'ziga xoslikni saqlash masalalari, o'zbek va rus tilshunosligida bu boradagi ilmiy qarashlar ham ko'rib chiqiladi. Maqola milliy til siyosati va ilmiy nutq madaniyatining dolzarb jihatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Terminologiya, ilmiy til, atamashunoslik, tarjima, normativ me'yor, milliy til, lingvistika, globalizatsiya, standartlashtirish.

Аннотация

В статье анализируются вопросы становления и развития терминологии и научного языка. На примерах иллюстрируются теоретические основы терминологии, её роль и функции в научном языке, способы создания терминов в современную эпоху, а также проблемы, возникающие при переводе. Также рассматриваются развитие национального научного языка, вопросы сохранения его идентичности в условиях глобализации и научные взгляды на эту проблему в узбекской и русской лингвистике. В статье раскрываются актуальные аспекты национальной языковой политики и культуры научного дискурса.

Ключевые слова: Терминология, научный язык, терминология, перевод, нормативная норма, национальный язык, лингвистика, глобализация, стандартизация.

Abstract

The article analyzes the issues of the formation and development of terminology and scientific language. The theoretical foundations of terminology, its role and functions in scientific language, methods of creating terms in the modern era, and problems encountered in the translation process are illustrated with examples. The development of the national scientific language, issues of preserving its identity in the

conditions of globalization, and scientific views on this issue in Uzbek and Russian linguistics are also considered. The article reveals current aspects of national language policy and the culture of scientific discourse.

Keywords: Terminology, scientific language, terminology, translation, normative norm, national language, linguistics, globalization, standardization.

Til insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida asosiy aloqa vositasi bo'lib kelgan. Biroq fan va texnika rivojlangan sari, tilning maxsus sohasi – ilmiy til va uning asosi bo'lgan terminologiya alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Oddiy muloqot tilida so'zlar ko'pincha ko'p ma'noli bo'lsa, ilmiy tilda atamalar aniq bir tushunchani ifodalaydi. Shu bois terminologiya ilmiy muloqotning aniq, qisqa va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy ilmiy tilni shakllantirish va boyitishga katta e'tibor qaratildi. Mustaqillikdan avval ko'plab terminlar rus tili orqali kirgan bo'lsa, keyingi davrda ingliz tilidan ham bevosita o'zlashtirishlar ko'paydi. Bu jarayon ilmiy tafakkurda yangi imkoniyatlar ochgan bo'lsa-da, o'zbek terminologiyasida bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Shu sababli terminologiya va ilmiy til masalalari bugungi tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida tadqiq qilinmoqda.

Terminologiyaning mohiyati va o'rni

Terminologiya – bu maxsus sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar va iboralar tizimi. U umumxalq tili tarkibida alohida qatlamni tashkil etadi va o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Masalan, “atom”, “molekula”, “fotosintez”, “logaritm”, “morfema”, “sintaksis” kabi terminlar ilm-fanning turli yo'nalishlarida qat'iy ma'noga ega.

O'zbek olimlari Sh. Rahmatullayev, A. Madvaliyev va N. Mahmudov asarlarida ta'kidlanganidek [2; 3], terminologiya milliy tilning rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki ilmiy tafakkur milliy til asosida shakllanmasa, fan yutuqlari keng jamoatchilikka to'liq yetib bormaydi.

Rus olimi D. S. Lotte esa terminologiyani [1] “ilmiy tafakkur qurilishi” deb atagan va yangi atamalarni yaratishda uch asosiy tamoyilni ko'rsatgan: aniqlik, ixchamlik va xalqaro me'yorlarga yaqinlik. Bu tamoyillar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Ilmiy tilning xususiyatlari

Ilmiy til oddiy so'zlashuv tilidan farqli ravishda qator o'ziga xosliklarga ega:

1. Aniqlik va obyektivlik. Ilmiy matnlar subyektiv fikrlardan ko'ra fakt va dalillarga asoslanadi. Masalan, adabiy til "go'zal ko'lmak" deb tasvirlasa, ilmiy til "diametri 10 metr bo'lgan suv havzasi" deya aniqlik kiritadi.

2. Terminlarga boylik. Ilmiy tilning asosiy yukini terminlar tashiydi.

3. Mantiqiy izchillik. Jumalarning tartibi va bog'lanishi qat'iy mantiqqa asoslanadi.

4. Normativlik. Imlo, grammatik va uslubiy me'yorlarga qat'iy rioya qilinadi.

Masalan, V. V. Vinogradov ilmiy tilni [4] "maxsus bilimlarni tizimli va mantiqiy shaklda ifodalash vositasi" deb ta'riflagan. Demak, ilmiy tildagi har bir so'zning o'рни va vazifasi qat'iy belgilanadi.

Bugungi o'zbek tilida terminologiyaning shakllanishi qator muammolarga duch kelmoqda:

- Xorijiy atamalarni moslashtirish. Masalan, "software"ni "dasturiy ta'minot" deb tarjima qilish muvaffaqiyatli yechim bo'lsa, "marketing", "startup" kabi terminlar ko'pincha asl shaklida ishlatilmoqda.

- Bir tushunchaga bir nechta variant. "Printer" – "bosma qurilma" – "chop etish qurilmasi" kabi ko'p shakllilik terminologik tartibsizlikni yuzaga keltiradi.

- Normativlik masalasi. Har bir yangi atama maxsus komissiyalar tomonidan tasdiqlanmaguncha, mutaxassislar turlicha qo'llashadi.

- Tarjima muammolari.

Inglizcha yoki ruschadan to'g'ri tarjima qilinmagan terminlar ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bunday muammolar nafaqat o'zbek tiliga, balki boshqa ko'plab tillarga ham xos. Masalan, rus tilida ham "computer" dastlab "ЭВМ" (elektron hisoblash mashinasi) deb atalgandi, keyinchalik xalqaro shaklida qabul qilindi.

Ilmiy tilni rivojlantirish yo'llari

Ilmiy til va terminologiyani rivojlantirish uchun bir nechta samarali yo'llar mavjud:

1. Atamalarni standartlashtirish. Fanlar akademiyasi huzurida faoliyat yuritadigan atamashunoslik komissiyalari terminlarni yagona shaklda tasdiqlashi kerak.

2. Milliy atamalar yaratish. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari keng. Masalan, "uchuvchisiz samolyot" termini inglizcha "drone" o'rnida muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

3. Ilmiy tarjimalar sifatini oshirish. Rus va ingliz tilidan o'zbekchaga sifatli tarjima qilingan darsliklar va maqolalar milliy ilmiy tilni boyitadi.

4. Texnologik imkoniyatlar. Elektron lug'atlar, terminologik korpuslar va onlayn bazalar ilmiy tilni rivojlantirishda katta yordam beradi.

Bu borada xorijiy tajriba ham muhim [5; 6]. Masalan, Yaponiyada xorijiy terminlarni milliy tilga moslashtirish [7] bo'yicha qat'iy qonunlar mavjud, natijada ilmiy til yapon tili asosida shakllanib, xalqaro darajada ham muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

Globalizatsiya davrida ingliz tili ilmiy muloqotning asosiy vositasiga aylandi [8]. Bu, bir tomondan, ilmiy hamkorlikni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, milliy ilmiy tillar uchun xavf tug'diradi. Agar barcha ilmiy nashrlar faqat ingliz tilida chop etilsa, milliy ilmiy tilning mavqei pasayadi.

Shu bois ko'plab davlatlar ikki yo'lni birgalikda olib bormoqda:

- Xalqaro nashrlarni ingliz tilida chiqarish;
- Milliy ilmiy jurnallar va darsliklarni ona tilida yaratish.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilidagi darsliklar ko'paymoqda, shuningdek, inglizcha manbalardan tarjima qilingan qo'llanmalar ham keng qo'llanilmoqda.

Terminologiya va ilmiy til jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Ular orqali ilm-fan yutuqlari keng jamoatchilikka yetkaziladi, milliy tafakkur shakllanadi va xalqaro hamkorlik rivojlanadi. Hozirgi davrda O'zbekiston ilmiy tilini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar dolzarbdir:

- yangi atamalar yaratish va normallashtirish;
- ilmiy tarjimalarni kengaytirish;
- milliy tilda ilmiy maqola va darsliklarni ko'paytirish;
- elektron terminologik resurslar yaratish.

Shu tarzda ilmiy tilni rivojlantirish nafaqat ilmiy hamjamiyat uchun, balki butun jamiyatning madaniy va intellektual taraqqiyoti uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lotte D. S. Osnovy postroeniya nauchno-texnicheskoy terminologii. Moskva, 1961.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zME, 2006.
3. Mahmudov N., Madvaliyev A. Til va jamiyat. Toshkent: Fan, 2008.
4. Vinogradov V. V. Russkiy yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva: Nauka, 1972.
5. Solijonov X. Atamashunoslik masalalari. Toshkent: Universitet, 2014.
6. Alekseeva I. S. Vvedenie v perevodovedenie. Moskva: Akademiya, 2004.

7. Xudoyberganova D. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot masalalari. Toshkent: Fan, 2012.
8. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006.

O'ZBEK TILINING NEYROLINGVISTIK TADQIQI MUAMMOLAR

Rahimjonov Aliyorbek

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi

4-bosqich talabasi

rahimjonovaliyorbek7@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilining neyrolingvistik tadqiqi jarayonidagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. O'zbek tilining neyrolingvistik xususiyatlari, so'zlashuv mexanizmlari va tilni qayta ishlashdagi murakkabliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, neyrolingvistik tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlar va texnologiyalar muhokama qilinadi. Maqola tilning neyrobiologik asoslarini o'rganish, tilni qayta ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash hamda zamonaviy sun'iy intellekt vositalari yordamida o'zbek tilining neyrolingvistik tadqiqotlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, neyrolingvistika, tilni qayta ishlash, neyrobiologiya, sun'iy intellekt, til mexanizmlari, tadqiqot metodologiyasi.

Аннотация

В статье рассматриваются основные проблемы нейролингвистического исследования узбекского языка. Анализируются нейролингвистические особенности узбекского языка, механизмы речи и сложности обработки языка. Обсуждаются методологические подходы и технологии, необходимые для нейролингвистических исследований. Статья направлена на изучение нейrobiологических основ языка, выявление трудностей при обработке языка и развитие нейролингвистических исследований узбекского языка с использованием современных средств искусственного интеллекта.

Ключевые слова: узбекский язык, нейролингвистика, обработка языка, нейrobiология, искусственный интеллект, механизмы языка, методология исследования.

Abstract

This article analyzes the main issues in the neurolinguistic study of the Uzbek language. It examines the neurolinguistic features of Uzbek, speech mechanisms, and challenges in language processing. Methodological approaches and technologies necessary for neurolinguistic research are discussed. The article aims to explore the neurobiological foundations of the language, identify difficulties in language

processing, and advance neurolinguistic research of Uzbek using modern artificial intelligence tools.

Keywords: uzbek language, neurolinguistics, language processing, neurobiology, artificial intelligence, language mechanisms, research methodology

Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining neyronlarning tilni-so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni-til va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko'ra neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli-til orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi. Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo'limi bilan ham uzviy aloqada. So'nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i vujudga keldi. Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Sodda qilib aytganda, neyrolingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri afaziya, ikkinchisi neyrolingvistik dasturlash (NLP)dir. Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va bu kasalni davolashga e'tibor bergan bo'lsalar ham, lekin u alohida fan tarmog'i sifatida shakllana olmadi, chuqur o'rganilgan. Miya zararlanishining nutqqa ta'siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganildi. Neyropsixologiya va u bilan bog'liq bo'lgan neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina — o'tgan asrning yetmishinchi yillarida shakllandi. Bu fanning vujudga kelishida A. A. Leontev, A. R. Luriya, E. S. Beyn, R. M. Boskis, E. N. Venarskaya, O. S. Vinogradova, N. A. Eysler singari olimlarning xizmati kattadir. Neyrolingvistika fani bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi ilk kitob A. R. Luriya tomonidan yozildi.

Nutqiy axborot jarayoni, ya'ni kishilarning o'zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning bevosita aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, bu tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, «ichki tuzilish»dan «tashqi tuzilish»ga o'tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o'rgandi. Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya esa

bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko'rinadiki, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi. Nerv sistemasi odatda ikki guruhdagi nerv sistemalarini o'z ichiga oladi: 1) markaziy nerv sistemasi va 2) chegara nerv sistemasi. Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalari markazga qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqsagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Shuning uchun ham chegara nerv sistemasiga aloqador a'zolari tahlil qiluvchilar (analizatorlar) deb yuritiladi. Ular ko'rish, eshitish, ta'm-maza a'zolari sanaladi.

Har bir analizatorda ikki turdagi nerv strukturasi ajratiladi: 1) axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura; 2) borliq predmetlariga yo'naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonasi). Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega bo'lgan til pardasi zonasi ajraladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar kompleksi birlashtiriladi va natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o'tish imkoniyati tug'iladi. Nutq hosil qilish, til xulqi aks harakat: markazdan chegaraga tomon harakat orqali yuzaga chiqadi. Miya analizatorlari qoplangan zonada shakllangan nutqiy dastur nutq praksizi zonasida konkretlashadi va nutq organlari (shuningdek yozma nutqni yuzaga chiqaruvchi sistema) ishtirokida proeksiya harakat sistemasi yordamida yuzaga chiqadi. Miyaning praksiyali sistemasidan (sensor yoki harakatlanuvchi) farqli ravishda gnostikpraksik parda va pardali analizatorlarni yopish zonasi funksional assimetriya bilan xarakterlanadi: til sistemasi va nutq orqali ifodalangan tafakkur esa uning yarimshari bilan bog'langan. Inson miyasi murakkab funksional sistema bo'lib, eng kamida uchta asosiy blok ishtirokida muttasil faoliyat ko'rsatadi. Ulardan biri pardaning tetiklanishini ta'minlaydi va tanlash, selektiv faoliyat shaklining uzoq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Boshqasi axborotni olish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlaydi. Uchinchi esa faoliyatni programmashtirish, boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Yuqorida bayon qilingan bloklarning zararlanishi ularning bir me'yordagi vazifasiga salbiy ta'sir qiladi. Birinchi blokka mansub apparatlarning zararlanishi psixik faoliyatni tanlash, selektiv imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchi blok apparatlarining zararlanishi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qobiliyatini yo'qotadi. Uchinchi blokning zararlanishi esa programmashtirish, barqaror ravishda boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi. Ko'rinadiki, miyadagi har qanday zararlanish inson faoliyatining ma'lum qismiga salbiy ta'sir qiladi. Sensor proyeksiya sistemasining zararlanishi eshitish va ko'rish organining kuchsizlanishiga olib keladi.

Buning natijasida og'zaki va yozma nutqni qabul qilish imkoniyati pasayadi. Nutqiy agnoziya holatida bemor ko'rish va eshitish qobiliyatini yaxshi saqlagan holda, ona tilining tovush «qiyofasi»ni (nutqiy eshitish agnoziyasi) yoki yozma nutqda harf ko'rinishini «nutqiy ko'rish agnoziyasi» unutadi. Bunday vaqtda bemor gapirish yoki yozishi mumkin. Nutqiy eshitish agnoziyasiga uchragan bemor o'qishi, nutqiy ko'rish agnoziyasiga uchragan bemor esa og'zaki nutqini tushuntirish mumkin.

Inson

tilni a'nosini tushunmagan holda mexanik ravishda takrorlashi mumkin. Neyrolingvistika uchun ikki til va ko'p til egalarining (poliglottlarning) miyasi zararlanishi katta material beradi. Bu vaqtda bemor bir tilni ma'lum darajada saqlagan holda, ikkinchi tilni butunlay unutishi yoki bir necha tillarning elementlarini aralashtirib yuborishi mumkin. Neyrolingvistika yuqoridagi holatlarni aniqlash bilan, bemorlarni samarali davolash uchun katta imkoniyat yaratib beradi. Lingvistika va tibbiyotning qo'lga kiritgan yangi-yangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi. Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilash tabiatini kompleks ravishda o'rganishning bir tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda. Neyrolingvistik dasturlashni bizning tilimizga tarjima qilsak, "nervlar", "til" va "dasturlash" degan so'zlar kelib chiqadi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, insonni til va so'zlar yordamida dasturlash degan ma'noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini o'rgangan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib, o'z maqsadlariga yetmoqdalar. Neyrolingvistika sohasidagi tadqiqotlar, ayniqsa tilning miya faoliyatidagi o'рни va insonning ruhiy holatiga ta'siri jihatidan katta ahamiyat kasb etadi. Bu fan tilga oid kasalliklarni aniqlash va davolashda yangi imkoniyatlar yaratib, bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, til qobiliyatining buzilishi, so'z boyligining kamayishi yoki til aralashuvi kabi holatlar neyrolingvistikaning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Neyrolingvistik dasturlash esa insonning ruhiy jarayonlarini boshqarish va o'zgartirish uchun samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu usul yordamida odamlarning ichki cheklovlari, qo'rquvlari va salbiy odatlari qisqa muddatda bartaraf etilishi mumkin. Shuningdek, NLP metodlari insonning o'z-o'zini anglashini oshirish, o'zgarishga tayyorligini kuchaytirish va yangi ko'nikmalarni shakllantirishda ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, neyrolingvistik dasturlash ta'lim jarayonida ham samarali bo'lib, o'quvchilarning diqqatini jamlash, motivatsiyasini oshirish va

ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirishda yordam beradi. Bu texnologiya psixologiya, ta'lim, biznes va sog'liqni saqlash sohalarida keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, neyrolingvistik dasturlashni qo'llashda, ayniqsa shaxsiy rivojlanish va terapevtik jarayonlarda, yuqori axloqiy mas'uliyat va ehtiyotkorlik talab etiladi. Usullarni noto'g'ri qo'llash yoki bilimsiz amaliyot ba'zan kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, neyrolingvistika va neyrolingvistik dasturlash inson ruhiyati va til aloqalarini chuqur o'rganish orqali inson hayotining sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan ilg'or ilmiy sohalar hisoblanadi. Ularning rivojlanishi kelajakda insonning psixologik salomatligini ta'minlash va ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy apraksiya ro'y berganda esa buning teskari holatiga duch kelinadi. Bunday vaqtda bemorning nutq organlari harakati va yozish harakati buziladi, tovush va so'zlarni talaffuz qila olmaydi va yoza olmaydi. Lekin atrofdagi odamlar nutqini tushunish, yozuvlarini o'qish qobiliyati saqlanib qolishi mumkin. Neyrolingvistik dasturlashga oid dastlabki ilmiy ishlar hisobotlari o'tgan asrning 70-yillarida paydo bo'lgan. Amerika olimlaridan Jon Grinder va Richard Bandler neyrolingvistik dasturlash asoschilari hisoblanadilar. Neyrolingvistik dasturlash yo'li bilan kishi ruhiyatiga ta'sir qiluvchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunday dasturlar:

- Biron narsa yoki hodisadan qo'rquv hissini yoki boshqa noxush his-tuyg'ularni bir soatga qolmay bartaraf etish;
- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga, o'zlariga ma'lum cheklovlar qo'yib olgan katta yoshdagilarga ulardagi cheklovlarni bir soatga ham yetmaydigan vaqt ichida bartaraf etish;
- Chekish, ichkilikbozlik, mechkaylik, uyqusizlik kabi ko'ngilsiz odatlardan bir necha seansdan so'ng qutulish;
- Qattiq ruhiy tushkunlik bilan ifodalanuvchi kasalliklarni bir necha seansdan so'ng yo'qotish va shular kabi yana bir qancha holatlarni bartaraf etish imkonini beradi. Kuzatishlar shuni ham tasdiqlaydiki, yuksak axloqiy did bilan tanlab ko'p kitob o'qigan kishilarning mafkuraviy immuniteti etarlicha mustahkam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Telia V.N. Rus frazeologiyasi: semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlar. – Moskva: Rus madaniyati tillari maktabi, 1996.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – 5-son.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: o'quv qo'llanma. – Moskva: Academia, 2001.
4. Sabitova Z.K. Lingvokulturologiya: darslik. – Moskva: Flinta: Nauka, 2013.

5. Slyshkin G.G. Matndan ramzgacha: pretsedent matnlarning lingvokulturologik tahlili. – Moskva: Academia, 2000.
6. Pimenova M.V., Kondratyeva O.N. Kontseptual tadqiqotlar. – Moskva: Flinta, 2011.
7. Zaripov Sh. Nutq madaniyati va uning o'zbek tilidagi ifodasi. – Toshkent: Fan, 2008.
8. Karimov A. Zamonaviy pragmalolingvistika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.

ADABIYOT TA'LIMIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASINING O'RNI VA RO'LI

DAMINOVA BIBIOYSHA SHAVKAT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi

4-bosqich talabasi

bibioysa11@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot ta'limida multimedia texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida slaydlar, elektron kutubxona va entsiklopediyalardan foydalanish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy matnni chuqurroq anglash va estetik didini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, multimedia texnologiyalari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, adabiy asarlarni zamonaviy talqin etish va ijodiy faoliyatini kengaytirishda samarali vosita ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: multimediya, virtual, ensiklopediya, dunyoqarash, salohiyat, adabiyotshunoslik, texnologiya, visual, muzey, innovatsion.

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение мультимедийных технологий в преподавании литературы. Показано, что использование слайдов, электронных библиотек и энциклопедий способствует формированию читательской культуры учащихся, более глубокому пониманию художественного текста и развитию эстетического вкуса. Особое внимание уделено тому, что мультимедийные технологии являются эффективным средством для развития самостоятельного мышления, творческой активности и современного осмысления литературных произведений.

Ключевые слова: мультимедиа, виртуальный, энциклопедия, мировоззрение, потенциал, литературоведение, технология, визуальный, музей, инновационный.

Annotation

This article explores the role and importance of multimedia technologies in literature education. It highlights how the use of slides, electronic libraries, and encyclopedias enhances students' reading culture, promotes a deeper understanding of literary texts, and develops their aesthetic taste. Furthermore, the article emphasizes that multimedia technologies serve as an effective means for fostering independent

thinking, encouraging creative activity, and providing modern interpretations of literary works.

Keywords: multimedia, virtual, encyclopedia, worldview, potential, literary studies, technology, visual, museum, innovative.

Milliy tarbiyashunoslik, xususan, adabiyot o'qitish metodikasi ta'limi ilmini takomillashtirish, ayniqsa, amaliyotini samarali tashkil etishda bugun axborot-kommunikativ texnologiyalar, virtual laboratoriya va multimedialar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ularning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan ancha murakkab jarayon bo'lib ko'p bilim va vaqt talab qilishi ma'lum. Ayniqsa, ularni ta'limning biror sohasiga moslashtirish bir nechta soha mutaxassislarining hamkorligini taqozo etadi. Masalan, adabiyot o'qitish amaliyotini multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish ta'lim samaradorligini, o'quvchilarning o'quv faniga, badiiy matnlarni o'zlashtirish va ularga bo'lgan qiziqishlari ortishiga, ayni zamonda o'qituvchiga dars vaqtini tejashga zamin hozirlaydi. Avvalo, "multimedia" atamasining mazmun-mohiyatiga kirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Multimedia" deganda (inglizcha multi ko'p, media muhit), ya'ni bir maqsadga xizmat qiladigan turli ko'rinishdagi axborotlar (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya (haraktlantirish)dan iborat bo'lgan yaxlit bir muhit, sharoit va tizimni umumlashtirgan holda ekranda namoyish etish jarayoni tushuniladi. Multimedialar kompyuter yoki raqamli ma'lumotlar bilan ishlovchi boshqa texnik vositalar orqali taqdim etiladigan matn, tasvir, ovoz va videodan iborat murakkab ko'rinishdagi ma'lumotlar tizimini qamrab oladi. Har qanday iste'molchi o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni ekranda harakatda, videotasvir, matn va ovozli tahlil shaklida, tasviriy vositalar yordamida batafsil tarzda qabul qilishi, foydalanishi va o'zlashtirishi mumkin.

Multimedia mahsulotlarining texnik va dasturiy vositalari foydalanuvchining ovoz, videotasvir, matn, animatsiya (harakatlanish) yordamida muloqotga kirisha olishida qo'l keladigan apparat va dasturiy vositalarning yig'indisini anglatadi. Multimedia qurilma vositalariga quyidagilar kiradi: ma'lumotni yozib olish qurilmalari; ma'lumotni chiqarish qurilmalari; manipulyatorlar (manipulyator mehnat qurollari, mehnat obyektlari, tarkibiy bo'linmalar va elementlarning fazoviy holatini boshqarish mexanizmi. Manipulyatorlar esa monitor ekranidagi kursor bilan buyruq yoki ma'lumotlarni kiritish joyini ko'rsatib ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri kiritishni amalga oshiradi. Kompyuter boshqaruvini yengillashtiradi); virtual (xayoliy obyekt, holat yoki vaziyat ma'nolarini anglatadi) borliq qurilmalari; axborot tashuvchi qurilmalar; tasvirlarni qayta ishlash qurilmalari. Multimedia elementlari mana shu

dasturiy vositalar yordamida birlashtirilib yaxlit tasvir hosil qilinadi. Bu jarayonda soha mutaxassisi bilan kompyuter-dasturchi hamkorlikda ish olib boradi.

Adabiyot nazariyasiga oid mavzularni o'tishda slaydlardan foydalanish.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

O'quv kursini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

o'zaro muloqot.

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo'llay olishi lozim:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- internet, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo'shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o'quvchilar o'zlarini munosabatini bildirishi va uni tahlil qilishi mumkin. Adabiyot ta'limida virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish usullari. Adabiyot o'qitishda virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish mavzuni keng qamrovda o'rgatish imkonini beradi. Bugungi kun o'quvchisi mavzu bo'yicha o'zini qiziqtirgan barcha ma'lumotlarni o'z qiziqishlari asosida qabul qilishni xohlaydi. Shundan kelib chiqib,

o'qituvchi darsni noan'anaviy tarzda o'quvchining qiziqishlarini hisobga olib yangicha yodashuvni tashkil etishi zarur. Buning uchun virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish samarali natija beradi. Elektron kutubxona Internetning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda, uzun, katta javonlar odatda, ko'plab kitoblar terib qo'yilgan joylashgan xonalar ko'z oldimizga keladi. Elektron kutubxonada javonlar vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini esa Internet saxifalari bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'ladi va ular kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. U orqali Siz dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalana olishingiz mumkin. Yana bir qulay tomoni zarur ma'lumot nusxasini ko'chirib olishingiz mumkin. Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter, modem va Internet tarmog'i bo'lishi yetarli. Faraz qilaylik, biror bir ma'lumot bilan tanishish uchun elektron kutubxonadan foydalanmoqchisiz. Kompyuter va Internet yordamida ma'lumotni bir necha daqiqada topish mumkin. Ma'lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan bir zumda sizning kompyuteringiz ekranida tasvirlanadi.

Ensiklopediya yunoncha barcha bilimlar doirasida ta'lim olish yoki qomus ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashrdir. Ensiklopediya qomus muayyan tizimga solingan keng qamrovli bilimlar to'plami, ilmiy yoki ilmiy ommabop nashr. "Ensiklopediya" terminining ma'nosi tarixan o'zgarib turgan. Antik davrda u "erkin san'at" deb atalgan 7 ilm (grammatika, ritorika, dialektika yoki logika, geometriya, arifmetika, musiqa astronomiya)ni anglatgan. XVI asrda G'arbiy Yevropada ensiklopediya yangi ma'noda turli bilimlar majmui ma'nosida ishlatilgan. Ayni vaqtda bilimlar tasnifi ma'nosini ham bildirgan; bu ma'noda "Ensiklopediya" termini XVIII asrda ham qo'llangan. va Hajmiga ko'ra, ensiklopediyalar ko'p jildli va 1-2 jildli bo'lishi mumkin. Ensiklopediya maqolalarida so'zlarning etimologiyasi, transkripsiyasi, definitsiyasi muayyan tartib bilan beriladi. Yoritilayotgan tushuncha haqida ko'proq ma'lumot olish uchun muhim adabiyotlar ro'yxati (bibliografiya) ko'rsatiladi. Ensiklopediya hajmining muayyan qismini bezak materiallar (oqqora, rangli suratlar, xarita, chizmasxemalar va boshqalar) tashkil etadi. Ensiklopediya maqolalarida ortiqcha tafsilotlarga, qaytariqlarga yo'l qo'yilmaydi (buning uchun tegishli maqolaga havola qilishdan foydalaniladi). Ensiklopediya tayyorlashda fakt va ma'lumotlar aniqligiga, atama va terminlar o'z o'rnida, to'g'ri ishlatilishiga ahamiyat beriladi. Uning bayonida ilmiylik, ommaboplik, qisqalik, lo'ndalikka e'tibor beriladi. Shu tarzda adabiyot fanini o'rganish va o'rgatishda onlayn platform va dasturlar, virtual mahsulotlarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.X.Muxammadova. M.D.Abdullayeva. O'zbek tili va adabiyotida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent-2018
2. O.Y.Rasulov Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o'tish.
3. <http://cyberleninka.ru/article/n/aktualnaya-metodika-interaktivnogo-obucheniya-russkomu-yazyku>
4. Q.Hrsanboyeva. Adabiyot o'qitish metodikasi
5. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/16018>
6. <http://lingust.ru>
7. Q.Husanboyeva. R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi
8. <http://multimedia.uz>

ADABIYOT FANINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI**Gulmurodov Muhammadbobur**

CHDPU Turizm fakulteti

GID/22-1 guruh

4-bosqich talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion usullar tahlil qilinadi. An'anaviy ta'lim metodlaridan farqli o'laroq, innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kreativlikni oshirish va ta'lim jarayonini interaktiv hamda samarali qilishga qaratilgan. Maqolada multimediya vositalari, raqamli texnologiyalar, loyihaga asoslangan o'qitish, o'yin metodlari va boshqa zamonaviy pedagogik texnikalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu usullarning amaliy ta'siri va pedagogik samaradorligi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari adabiyot darslarining sifatini oshirish va o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'z: adabiyot fani, innovatsion usullar, interaktiv ta'lim, multimediya vositalari, raqamli texnologiyalar, loyihaga asoslangan o'qitish, pedagogik samaradorlik.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish usullari ko'p hollarda o'quvchilarning qiziqishini susaytiradi va ularning faol ishtirokini cheklaydi. Ayniqsa, adabiyot fani kabi insoniy tafakkur, hissiyot va estetik didni shakllantiruvchi fanlarda o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini oshirish muhimdir. Shu sababli, ta'lim tizimida innovatsion usullarni joriy qilish zarurati kuchaymoqda.

Innovatsion usullar ta'lim jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilishi bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyot fanida innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'quv jarayonini yaxshilaydi, balki milliy madaniyatni chuqur anglash va adabiy asarlar mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Maqolada adabiyot fanini o'qitishda foydalanilayotgan zamonaviy innovatsion usullar — multimediya vositalari, raqamli platformalar, loyihaga asoslangan o'qitish, o'yin metodlari va boshqa pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu usullarning samaradorligi va o'quvchilarga ta'siri haqida ilmiy jihatdan muhokama qilinadi. Bugungi kunda ta'lim tizimlari dunyo miqyosida jadal

rivojlanmoqda. Texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib borayotgani sababli, ta'lim sohasida ham innovatsiyalarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, adabiyot fanida an'anaviy dars usullaridan tashqari, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion usullar o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, ularni mustaqil o'ylashga, yangi bilimlarni izlashga undaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv ta'lim vositalari, multimedia resurslari va loyihalarga asoslangan o'qitish metodlari o'quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faolroq jalb qilinishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, global ta'lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlar milliy ta'lim tizimlarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratmoqda. Bu jarayon milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, yosh avlodni zamonaviy dunyoqarashga ega qilib tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, adabiyot fanini o'qitishda innovatsion usullarni o'rganish va joriy qilish nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, balki ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida milliy madaniyatning yanada boyishi va avlodlarga yetkazilishida muhim omil hisoblanadi.

Asosiy bo'lim: Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion usullar va ularning ahamiyati

1. Multimediya vositalarining qo'llanilishi

Multimediya vositalari — audio, video, grafikalar va interaktiv taqdimotlar — adabiyot darslarini yanada jonli va qiziqarli qiladi. O'quvchilar uchun she'r va proza asarlarini tinglash, sahnalashtirilgan videolarni ko'rish adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshiradi hamda asar mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, o'zbek klassiklari Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy asarlarini multimediya shaklida o'rganish jarayoni o'quvchilarda yanada katta taassurot qoldiradi.

2. Raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish

Internet va raqamli platformalar ta'lim jarayonini interaktiv qilishda muhim rol o'ynaydi. Onlayn testlar, viktorinalar, elektron darsliklar va forumlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, masofaviy ta'lim imkoniyatlari adabiyot fanini o'qitishni joy va vaqtga bog'liq bo'lmagan samarali jarayonga aylantiradi.

3. Loyihaga asoslangan o'qitish

Loyihaga asoslangan o'qitish — o'quvchilarga mustaqil ishlash, guruhda hamkorlik qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyot fanida o'quvchilar o'zlari tanlagan mavzu bo'yicha kichik tadqiqotlar olib borib, natijalarini taqdim qilishadi. Bu usul o'quvchilarning faolligini oshiradi va dars jarayonini boyitadi.

4. O'yin metodlari

Pedagogik o'yinlar va dramatizatsiya usullari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, adabiyot darsida sahnalashtirish, rolli o'yinlar o'quvchilarga asardagi obrazlarni yaxshiroq tushunish va ularni hayotiy kontekstda ko'rib chiqishga yordam beradi.

5. Tanqidiy tahlil va muhokama usullari

Innovatsion ta'limda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar yaratish, asarlarni turli burchaklardan tahlil qilish, guruhlarda fikr almashish o'quvchilarning tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi va darsni yanada interaktiv qiladi.

6. Individual yondashuv va diferensial ta'lim

Innovatsion metodlar o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Har bir o'quvchiga mos keladigan darslarni tashkil etish ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Xulosa

Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion usullarni joriy etish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodlaridan farqli ravishda, innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada ko'rsatilganidek, multimediya vositalari, raqamli platformalar, loyihaga asoslangan o'qitish, o'yin metodlari va tanqidiy tahlil usullari adabiyot darslarini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Multimediya vositalari yordamida o'quvchilar asarlarni nafaqat o'qibgina qolmay, balki eshitish, ko'rish va interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'quvchilarning adabiy asarlarga nisbatan qiziqishini oshiradi, ular mazmunni yanada chuqurroq anglashadi. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar esa darslarni joy va vaqtga bog'liq bo'lmagan shaklda tashkil etishga yordam beradi, bu esa o'qitishning samaradorligini yanada oshiradi.

Loyihaga asoslangan o'qitish esa o'quvchilarni mustaqil ishga, hamkorlikda ishlashga va ijodiy fikrlashga undaydi. Adabiyot fanida bu usul o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi hamda ularning tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'yin metodlari darsni jonlantiradi, o'quvchilarni faol jalb qiladi va adabiy asarlarni yanada hayotiy tarzda qabul qilishga

yordam beradi. Tanqidiy tahlil va muhokama usullari o'quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishlari, o'z nuqtai nazarini shakllantirishlari va boshqalar fikrini tinglashlari uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion usullar o'qituvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi, har bir o'quvchining qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ta'lim sifatini yanada oshirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash nafaqat ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi, balki o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga undaydi. Bu esa milliy madaniyatni rivojlantirish va yosh avlodni zamonaviy dunyoga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari doimiy ravishda innovatsion metodlarni o'rganib, ularni amaliyotga joriy qilishga intilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdullaev, J. (2017). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: Fan.
2. Karimova, N. (2019). Multimediya vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Samarqand: Universitet nashriyoti.
3. Mamatqulov, A. (2020). Adabiyot darslarida interaktiv metodlarni qo'llash. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Mirzaeva, D. (2018). Loyihaga asoslangan o'qitish metodologiyasi. Buxoro: Ilm-fan.
5. Nurmatov, S. (2021). Raqamli texnologiyalar va ta'limda innovatsiyalar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
6. Rustamov, T. (2016). Pedagogik o'yinlar va ta'limda ularning roli. Toshkent: Akademiya nashriyoti.
7. Shokirov, B. (2019). Tanqidiy tahlil va muhokama usullarining ta'limdagi ahamiyati. Samarqand: Fan va texnologiya.

O'ZBEK TILIDA ZAMONAVIY LINGVISTIK TAHLIL METODLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

SALOHIDDINOVA DILDORA JAMOLIDDIN QIZI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti**4-bosqich talabasi**E-mail: dildorasalohiddinova347@gmail.com: 99 925-37-93*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilini o'rganishda zamonaviy lingvistik tahlil metodlarining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Unda tilshunoslikning hozirgi bosqichida qo'llanilayotgan strukturaviy, funksional hamda kognitiv yondashuvlar tahlil qilinib, ularning samaradorligi ilmiy misollar asosida ochib beriladi. Shu bilan birga, lingvistik tahlilda texnologik vositalardan foydalanish imkoniyatlari va mavjud muammolar ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida yangi ilmiy izlanishlarga yo'l ochishi bilan birga, ta'lim jarayonida ham samarali qo'llanishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy lingvistika, o'zbek tili, lingvistik tahlil, metodologiya, strukturaviy yondashuv, kognitiv yondashuv, muammo, yechim.

Abstract: This article explores the role and significance of modern linguistic analysis methods in studying the Uzbek language. It examines structural, functional, and cognitive approaches currently applied in linguistics, highlighting their effectiveness through scientific examples. Furthermore, the article discusses the possibilities of using technological tools in linguistic analysis, identifies existing challenges, and proposes practical recommendations for their solution. The findings demonstrate that the application of these methods can contribute not only to further scientific research in Uzbek linguistics but also to the effectiveness of the educational process.

Keywords: Modern linguistics, Uzbek language, linguistic analysis, methodology, structural approach, cognitive approach, challenges, solutions

Metod - tajriba (eksperiment) orqali aniqlangan va kuzatilgan natijalarni nazariy um um lashtirish usullari. Metodologiya - bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qollash[7:22].

Globalashuv sharoitida tilshunoslik fanining vazifalaridan biri — milliy tillarni chuqur o'rganish va ularni ilmiy hamda amaliy jihatdan rivojlantirishdir. O'zbek tilshunosligida ham bu jarayon sezilarli darajada jadallashmoqda. An'anaviy tadqiqot metodlari bilan bir qatorda zamonaviy lingvistik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, strukturaviy metod til birliklarining ichki tuzilishini ochib berishga, funksional metod ularning nutq jarayonidagi vazifalarini tahlil qilishga xizmat qilsa, kognitiv metod til va tafakkur o'rtasidagi aloqadorlikni yoritadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida matnlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish imkoniyatlari ham

kengaymoqda. Ushbu maqolada aynan shu metodlarning samaradorligi, amaliy qo'llanishi va mavjud muammolari tahlil qilinadi.

Maqola ilmiy-tahliliy va qiyosiy metodlarga tayangan holda yozildi. Strukturaviy metod asosida o'zbek tilidagi so'zlarning morfologik shakllanishi va sintaktik tuzilmalari o'rganildi. Funksional yondashuvni izohlashda A. Madvaliyevning ishlari asos qilib olindi; u til birliklarining turli kommunikativ vaziyatlardagi vazifalarini tadqiq qilgan. Jumladan, u "keldi" fe'lining turli nutqiy vaziyatlarda xabar, so'roq yoki hayrat ma'nosini ifodalashini ko'rsatgan; ushbu tadqiqot davomida 50 dan ortiq matn misolida bu holat tasdiqlandi. Kognitiv metodni yoritishda Sh. Safarovning "Kognitiv tilshunoslikka kirish" (2008) asaridan foydalanildi; unda til birliklarining konseptual mazmunini ochish masalalari ko'tarilgan. Unda "ona" konsepti nafaqat biologik tushuncha, balki mehribonlik, vatan va til timsoli sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan. O'zbek matnlarida "ona til", "ona yurt" kabi birikmalar orqali konseptning ramziy qatlamlari ochib berildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanildi: elektron matn korpuslari asosida leksik birliklarning qo'llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlari o'rganildi. Elektron matn korpuslari asosida 1 milliondan ortiq so'z tahlil qilinib, masalan, "xalq" leksemasi 2500 martadan ko'proq uchrashi va asosan ijtimoiy-siyosiy kontekstlarda ishlatilishi kuzatildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, strukturaviy metod yordamida o'zbek tili grammatik tizimi izchil tahlil qilinadi. Funksional metod orqali so'z va iboralarning turli nutqiy vaziyatlarda qanday kommunikativ yuklamaga ega bo'lishi ochib berildi. Masalan, A. Madvaliyev tadqiqotlarida bir xil birliklarning turli kontekstlarda turlicha semantik qiymat kasb etishi kuzatilgan. Kognitiv metod qo'llanilganda esa Sh. Safarov ta'kidlaganidek, til birliklari xalq dunyoqarashi bilan bog'liq konseptlar tizimi asosida shakllanishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar yordamida esa katta hajmdagi matnlarni qisqa muddatda tahlil qilish mumkinligi tasdiqlandi, biroq o'zbek tili uchun maxsus yaratilgan dasturiy mahsulotlar yetarli emasligi muammo sifatida qayd etildi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy lingvistik metodlarning uyg'un qo'llanilishi o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud: kognitiv tadqiqotlarda konseptlar tizimi to'liq shakllanmagan, funksional metodda nutqiy vaziyatlarni umumlashtirishda yagona mezon yetarli emas, raqamli texnologiyalar sohasida esa milliy dasturiy mahsulotlar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Biroq bu muammolarni hal etish yo'llari ham bor: yangi ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish, konseptlar bazasini yaratish va milliy elektron korpusni kengaytirish zarur. Strukturaviy metod til birliklarini tartibli va qat'iy qoidalarga asoslangan holda o'rganishga yordam beradi, lekin u ma'no va

qo'llanish jihatlariga kamroq e'tibor qaratadi. Funksional metod so'z va iboralarning nutqdagi vazifalarini ochishda samarali, biroq ayrim hollarda umumiy mezonlarning yetishmasligi subyektivlikka olib kelishi mumkin. Kognitiv metod til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni yoritishda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, konseptual tizim hali to'liq ishlab chiqilmagan. Raqamli texnologiyalar esa katta hajmdagi matnlarni tezkor tahlil qilish imkonini bersa-da, milliy dasturiy vositalar yetarli darajada rivojlanmagani seziladi.

Demak, tilshunoslikda samaradorlikka erishish uchun bu metodlarni uyg'unlashtirib qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ularning afzalliklari bir-birini to'ldiradi, mavjud kamchiliklarni esa yangi ilmiy izlanishlar va milliy resurslarni rivojlantirish orqali bartaraf etish mumkin. Shu tariqa o'zbek tilshunosligi zamonaviy ilmiy bosqichga ko'tarilib, xalqaro maydonda raqobatbardosh natijalarga erisha oladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy lingvistik metodlar o'zbek tilini chuqur va har tomonlama o'rganish imkoniyatini bermoqda. Strukturaviy yondashuv til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlashda, funksional metod esa til birliklarining nutqiy vazifasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv metod til va tafakkur o'zaro munosabatini yoritib, o'zbek tilshunosligida konseptual asoslarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu metodlarning uyg'unlashuvi natijasida til hodisalarini nafaqat formal, balki mazmuniy va pragmatik jihatdan ham keng qamrovli tahlil qilish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Sh. Safarov, A. Madvaliyev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida bu metodlar nazariy asoslanganligi va amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Xususan, ular o'zbek tilining semantik, sintaktik va kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etishda zamonaviy yondashuvlarning afzalliklarini namoyish etishgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning qo'llanishi lingvistik tadqiqotlarni tezkor va keng ko'lamli olib borish imkonini bermoqda. Elektron korpuslar, lingvistik bazalar va sun'iy intellekt vositalari yordamida til hodisalarini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish, til o'zgarishlarini monitoring qilish hamda yangi lingvistik qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Kelgusida milliy elektron resurslarni yaratish, dasturiy vositalarni ishlab chiqish va konseptlar bazasini boyitish o'zbek tilshunosligining xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, bir tomondan, o'zbek tilining ilmiy nufuzini oshirsa, ikkinchi tomondan, uni zamonaviy global tilshunoslik tendensiyalari bilan uyg'un rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, o'zbek tili xalqaro miqyosda

chuqurroq o'rganiladigan, boy lingvokulturologik merosga ega bo'lgan tillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Madvaliyev A. Funktsional lingvistika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.
3. Jo'rayev M. Zamonaviy lingvistika: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU, 2017.
4. Xudoyberganova D. Tilshunoslikda strukturaviy yondashuvlar. – Toshkent: Ilm Ziya, 2015.
5. Karimov B. O'zbek matn korpusi va lingvistik tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
7. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/26/NamDU-ARM-8356-Lingistika_btadquqot_metodologiyasi_va_metodikasi_.pdf

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI : TADQIQ , TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI

Arziyeva Dildora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq, tahlil va talqin qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Qadimiy yozma yodgorliklardan tortib, xalq og'zaki ijod namunalari va zamonaviy adabiy jarayonlargacha bo'lgan merosning ilmiy o'rganishdagi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: turkiy xalqlar, adabiyot, tadqiq, tahlil, talqin, manbalar, qiyosiy o'rganish

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы исследования, анализа и интерпретации литературы тюркских народов. Особое внимание уделено древним письменным памятникам, устному народному творчеству, а также методологическим трудностям в изучении языка, стиля и сравнительного литературоведения.

Ключевые слова: тюркские народы, литература, исследование, анализ, интерпретация, источники, сравнительное литературоведение

Abstract: This article examines the challenges of studying, analyzing, and interpreting the literature of Turkic peoples. It discusses ancient written monuments, oral folk heritage, and modern literary processes, highlighting methodological issues related to sources, language, style, and comparative literary studies.

Keywords: Turkic peoples, literature, research, analysis, interpretation, sources, comparative literature

Turkiy xalqlar adabiyoti – qadimiy va boy madaniy meros bo'lib, u turk, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon va boshqa turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarning og'zaki va yozma ijodini o'z ichiga oladi. Bu adabiyotning tarixi ming yilliklar bilan o'lchanadi. U o'z ichiga epik dostonlar (masalan, "Alpomish", "Manas"), she'riy asarlar va zamonaviy nasrni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, ushbu adabiyotni tadqiq etish, tahlil va talqin qilishda bir qator muammolar mavjud. Ular tilshunoslik, tarixiy kontekst, manbalar mavjudligi va madaniy ta'sirlar bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada shu masalalar akademik tadqiqotlar asosida ko'rib chiqiladi. Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq qilish XX asrda, ayniqsa, Sovet Ittifoqi davrida faol rivojlangan. Mustaqillikdan keyin esa yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Masalan, UNESCO

loyihalari orqali turkiy adabiyotni o'rganish va targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga,

muammolar hanuz dolzarb: til xilma-xilligi, qadimiy matnlarning to'liq saqlanmaganligi va siyosiy ta'sirlar tadqiqotlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiq muammolari: Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etishda asosiy muammolardan biri – manbalar mavjudligi va ularning ishonchliligi. Qadimiy turkiy adabiyot, masalan, orxon-yenisey yozuvlari va runik yodgorliklar ko'pincha to'liq saqlanmagan yoki faqat parcha-parcha holatda mavjud. Bu esa to'liq tadqiqot o'tkazishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, turkiy xalqlarning keng geografik tarqalishi (Markaziy Osiyo, Turkiya, Rossiya va boshqalar) sababli tadqiqotlar milliy chegara va siyosiy cheklovlar bilan to'xtab qolishi mumkin. Yana bir muammo – tilshunoslik masalalari. Turkiy tillar oilasi ichida ko'plab lahjalar va variantlar mavjud bo'lib, bu matnlarni qiyosiy o'rganishni murakkablashtiradi. Masalan, qadimiy turkiy adabiyotda mifologik shaxslar haqidagi tadqiqotlarda turli xalqlarning rivoyatlari o'rtasidagi farqlar ko'rinadi, ammo ularni umumlashtirish qiyin. Jadidchilik davridagi adabiyotni o'rganishda esa milliy o'zlik va istiqloq g'oyalari bilan bog'liq siyosiy kontekst tadqiqotlarga ta'sir qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda yo'qolib borayotgan turkiy tillar (masalan, Qozog'istondagi oz sonli etnik guruhlar tillari) muammosi ham ko'tarilmoqda. Bu tillarda saqlanayotgan adabiyotlarni tadqiq etishda so'zlashuvchilar sonining kamayishi katta to'siq bo'lmoqda.

Tahlil muammolari: Adabiyotni tahlil qilishda asosiy muammo – qiyosiy-tipologik yondashuvning murakkabligi. Turkiy xalqlar adabiyoti ko'pincha boshqa madaniyatlar (yunon, arab, fors) bilan taqqoslanadi. Masalan, "Alpomish" va "Odissey" dostonlarining o'xshashliklari ko'rsatiladi. Biroq, bu tahlillarda madaniy o'ziga xosliklar e'tibordan chetda qolishi mumkin, natijada noto'g'ri xulosalar chiqarilishi ehtimoldan xoli emas. Didaktik asarlar tahlilida esa turkiy adabiyotning ta'limiy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ammo ularni maktab darsliklariga qo'llashda struktura, semantika va g'oyaviy jihatlar bo'yicha muammolar yuzaga keladi. Shuningdek, islomiy tarix bilan bog'liq manbalarni tahlil qilishda diniy va milliy mavzularning aralashishi tahlilni murakkablashtiradi, chunki adabiyot ko'pincha diniy talqinlar bilan bog'langan. Turkiy tillar sintaksisi va til aloqalari masalalarida ham tipologik o'zgarishlar va tashqi ta'sirlar (masalan, rus tilining ta'siri) sezilarli rol o'ynaydi, bu esa nazariy tadqiqotlarni talab qiladi.

Talqin muammolari: Talqin – adabiyotni izohlash va ma'no berish jarayoni bo'lib, unda subyektivlik eng asosiy muammolardan biridir. Turkiy adabiyotda mifologik elementlar talqinida, masalan, qadimiy turkiy miflar va rivoyatlarni

zamonaviy talqin qilish qadimiy kontekstni buzishi mumkin. Mavlud (diniy she'rlar) talqinida esa adabiy-ma'rifiy ahamiyat va til xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim, ammo manba tahlili ko'pincha yetarli darajada olib borilmaydi. Jadid adabiyotini talqin qilishda millat va vatan g'oyalari asosida yangi yondashuvlar shakllangan, biroq siyosiy qarashlar ba'zan talqinni buzishi mumkin. Bundan tashqari, turkiy adabiyotning tarixiy va badiiy tipologiyasini talqin etishda poeziya va nasrning o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi, ammo universal standartlarning yo'qligi muammo tug'diradi.

Xulosa

Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq, tahlil va talqin qilishdagi muammolar nafaqat akademik sohada, balki madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Ushbu adabiyotning boyligi uning ko'p qirrali tabiati va turli xalqlarning o'ziga xos madaniy elementlarini birlashtirganligida namoyon bo'ladi. Biroq, manbalar yetishmasligi, til xilma-xilligi va siyosiy omillar tadqiqotchilar oldida jiddiy to'siqlar tug'diradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli arxivlar va sun'iy intellekt yordamida matn tahlili imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa qadimiy yodgorliklarni saqlash va ularni global miqyosda targ'ib qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro hamkorlik, xususan, turkiy tillarda so'zlashuvchi mamlakatlar o'rtasida ilmiy loyihalarni rivojlantirish va birgalikda tadqiqotlar olib borish orqali ushbu muammolarni yengish mumkin. Kelajakda turkiy adabiyotni o'rganishda fanlararo yondashuvlar (tilshunoslik, tarix, antropologiya va adabiyotshunoslik integratsiyasi) hamda ochiq manbalar platformalarini joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, balki uning global adabiy kontekstdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, turkiy xalqlar adabiyoti bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar global ilmiy hamjamiyat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu adabiyot faqatgina milliy meros emas, balki butun insoniyat madaniyati rivojiga qo'shilgan beqiyos hissa sifatida qaraladi. Qadimiy yozma yodgorliklarning raqamlashtirilishi, xalq og'zaki ijod namunalari va zamonaviy adabiy jarayonlarning chuqur tadqiqi kelajak avlodlarga keng ilmiy imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda turkiy adabiyotning xalqaro nufuzini oshirish uchun ilmiy konferensiyalar, qo'shma tadqiqot markazlari va akademik almashinuv dasturlari zarur. Bunday hamkorliklar nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiya sohalarida ham fanlararo yondashuvlarni kuchaytiradi. Eng muhimi, turkiy xalqlar adabiyoti orqali milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni butun dunyoga tanitish

imkoniyati kengayadi. Shu bois, mazkur adabiy merosni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedova, M. (2020). Turkiy xalqlar adabiyotidagi mifologik elementlar: talqin va tahlil. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. UNESCO. (2018). Intangible Cultural Heritage of Turkic Peoples: Literature and Oral Traditions. Paris: UNESCO Publications.
3. Karimov, R. (2019). Qadimiy turkiy adabiyot: manbalar va tadqiqot muammolari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
4. Turan, A. (2023). Digital Technologies in Preserving Turkic Literary Heritage. Istanbul: Journal of Turkic Studies, 15(3), 45-60.
5. Saidov, B. (2021). Didaktik adabiyotning turkiy xalqlar madaniyatidagi o'rni. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Jurnali, 12(2), 22-30.
6. Yusupova, G. (2017). Islomiy kontekstda turkiy adabiyot: tarixiy va badiiy tahlil. Toshkent: Sharq Nashriyoti.

TILNING GLOBALIZATSIYA SHAROITIDAGI RIVOJLANISHI VA INGLIZ TILINING TA'SIRI

Doniyorova Kumushoy

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi

4-bosqich talabasi

xurmatoyxusanova488@gmail.com

Annotatsiya

Globalizatsiya jarayoni dunyo xalqlari va ularning tillari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirgan. Ushbu maqolada tilning globalizatsiya sharoitida rivojlanishi, ingliz tilining boshqa tillarga ta'siri, kod almashinuvi va til boyligiga kirib kelayotgan yangiliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy tillarning saqlanishi va rivojlanishidagi muammolar ham ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan til va ijtimoiy muhitning o'zaro bog'liqligini yoritadi.

Аннотация

Процесс глобализации укрепил связи между народами мира и их языками. В статье анализируется развитие языка в условиях глобализации, влияние английского языка на другие языки, переключение кодов и инновации в лингвистике. Также рассматриваются проблемы сохранения и развития национальных языков. В статье рассматривается взаимосвязь языка и социальной среды с точки зрения современной лингвистики.

Abstract

The process of globalization has strengthened the ties between the peoples of the world and their languages. This article analyzes the development of language in the context of globalization, the influence of English on other languages, code switching, and innovations in linguistics. At the same time, the problems of the preservation and development of national languages are also considered. The article highlights the interrelationship of language and social environment from the perspective of modern linguistics.

Kalit so'zlar : Globalizatsiya, ingliz tili, tilshunoslik, kod almashinuvi, milliy til, lingvistik identitet.

Ключевые слова: Глобализация, английский язык, лингвистика, переключение кодов, национальный язык, языковая идентичность.

Keywords: Globalization, English linguistics, code switching, national language, linguistic identity.

Globalizatsiya jarayoni XX-XXI asrlarda tez sur'atlar bilan rivojlanib, insoniyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jarayon tilga ham befarq qolmagan. Til insoniyat madaniyati va kommunikatsiyasining asosiy vositasi sifatida global o'zgarishlardan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir oladi. Ingliz tili esa xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalarida dominant til sifatida boshqa tillarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Globalizatsiya sharoitida tilning o'zgarishi nafaqat so'z boyligiga, balki sintaksis, fonetika va pragmatika sohalariga ham ta'sir qiladi. Masalan, xalqaro kompaniyalarda ish yuritish jarayonida inglizcha terminlar kundalik ish nutqiga kirib kelgan va bu milliy tilning texnik leksikasiga ta'sir qilmoqda. Shu nuqtai nazardan tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari global jarayonlarni o'rganishga qaratilgan.

Tilning globalizatsiya sharoitida rivojlanishi

Globalizatsiya sharoitida tillar bir-biri bilan doimiy aloqada bo'ladi. Bu jarayon til boyligini oshirish, yangi so'zlar va terminlar paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, texnologiya, ilm-fan va madaniyat sohalarida inglizcha atamalar milliy tillarga kirib kelmoqda: "internet", "software", "startup", "marketing". Shu bilan birga, ba'zi milliy tillarda so'z boyligi qisqarishi, dialektlarning yo'qolishi kabi salbiy tendensiyalar ham kuzatiladi.

- Texnologiya, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi yangi inglizcha atamalar ro'yxati ("startup", "blockchain").
- Yoshlar orasida qisqartmalar va jargonlar misoli (LOL, ASAP, FYI).
- Milliy tillarning ijtimoiy mavqeiga globalizatsiya ta'siri.

Global kommunikatsiya vositalari, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlar, tillarning tez o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, yoshlar orasida inglizcha qisqartmalar va jargonlarning kundalik nutqda ishlatilishi ko'paymoqda. Bu jarayon tilning dinamizmini oshirsa-da, milliy tilning to'liq saqlanishi uchun yangi yondashuvlar talab etadi. Shuningdek, globalizatsiya milliy tillarning ijtimoiy mavqeini ham o'zgartirmoqda. Tilshunoslar ta'kidlashicha, agar bir til xalqaro maydonda keng qo'llanilsa, boshqa tillar sekin-asta kamroq ishlatiladi, bu esa ularning ijtimoiy mavqeini pasaytiradi va til yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Ingliz tili bugungi kunda ilm-fan, biznes, texnologiya va madaniyat sohalarida universal vosita sifatida qabul qilinadi. Bu holat boshqa tillarga quyidagi ta'sirlarni ko'rsatadi:

1. Leksik ta'sir: Inglizcha so'zlar va atamalar milliy tillarga kirib kelmoqda (masalan, "internet", "software", "marketing").

2. Sintaktik ta'sir: Ba'zi hollarda inglizcha iboralar va jumla tuzilmalari milliy tillarda qo'llanadi.

3. Fonetik ta'sir: Inglizcha talaffuz elementlari o'zgarishlarga olib kelmoqda, ayniqsa yoshlar nutqida. Biroq, ingliz tilining kuchayishi milliy tillarni zaiflashtirish xavfini ham tug'diradi. Shu sababli, tilshunoslar milliy tilni rivojlantirish, yangi atamalar yaratish va ta'lim tizimida samarali til siyosatini ishlab chiqishni tavsiya qilmoqda.

Biroq, ingliz tilining kuchayishi milliy tillarni zaiflashtirish xavfini ham tug'diradi. Shu sababli tilshunoslar milliy tilni rivojlantirish, yangi atamalar yaratish va ta'lim tizimida samarali til siyosatini ishlab chiqishni tavsiya qilmoqda.

Kod almashinuvi va til boyligiga ta'siri

Kod almashinuvi (code-switching) zamonaviy jamiyatlarda keng tarqalgan hodisa. Bu jarayonda gapiruvchi bir nutqda bir nechta tilni aralashtiradi. Masalan, inglizcha texnologik atamalarni o'z ona tilida ishlatish kundalik holga aylangan. Kod almashinuvi til boyligini oshirsa-da, ba'zan tilning normativ me'yorlariga zid bo'lishi mumkin. Biroq, ingliz tilining kuchayishi milliy tillarni zaiflashtirish xavfini ham tug'diradi. Shu sababli tilshunoslar milliy tilni rivojlantirish, yangi atamalar yaratish va ta'lim tizimida samarali til siyosatini ishlab chiqishni tavsiya qilmoqda.

Milliy tillarning saqlanishi va rivojlanishidagi muammolar

Globalizatsiya milliy tillar uchun ham imkoniyat, ham xavf tug'diradi. Ilmiy va ijtimoiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, ayrim tillar yo'qolish arafasida. Shu sababli quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Milliy tilni maktab va oliy ta'lim tizimida rivojlantirish;
- Yangi texnologiyalar yordamida til resurslarini yaratish va ommalashtirish;
- Milliy adabiyot va media orqali tilni targ'ib qilish.

Tilning globalizatsiya sharoitida rivojlanishi va ingliz tilining ta'siri murakkab va ikki tomonlama jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tili xalqaro kommunikatsiya

vositasi sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatsa, milliy tillar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli tilshunoslik va ijtimoiy fanlar sohasida milliy tilni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Globalizatsiya va ingliz tilining ta'siri zamonaviy tilshunoslikning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, milliy tillarni saqlash va rivojlantirish masalasi har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
2. Phillipson, R. (2009). Linguistic Imperialism Continued. Routledge.
3. Kachru, B. B. (1992). The Other Tongue: English Across Cultures.
4. Androutsopoulos, J. (2014). Networked Multilingualism: Concepts, Issues, and Challenges. Journal of Sociolinguistics, 18(2), 185–202.
5. Komissarova, E. V. (2010). Lingvisticheskie Aspekty Globalizatsii. Moscow: Nauka.

ADABIYOT VA MILLIY O'ZLIK: ZAMONAVIY BADIY TAFAKKURDA MILLIY VA GLOBAL QADRIYATLAR UYG'UNLIGI.

Samandarova Donoxon O'tkir Qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi 4-kurs talabasi

utkirovnass0055@gmail.com:+ +998932350327

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy o'zlik va global qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir zamonaviy adabiyot namunalari misolida tahlil qilinadi. Adabiy jarayonda shaxsning milliy ongini saqlagan holda dunyoqarashni kengaytirish, global madaniyat bilan uyg'unlashuv holatlari yoritiladi. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek adabiyotida badiiy tafakkurning yangilanish jarayoni, zamonaviy yozuvchilar ijodida milliylik va universallikning o'zaro aloqasi ilmiy jihatdan izohlanadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, identitet, milliy qadriyat, global madaniyat, badiiy tafakkur, uyg'unlik, zamonaviy yozuvchilar, madaniy yangilanish.

Abstract: This article examines the interaction between national identity and global values through the lens of contemporary literary works. It discusses how individuals in literature maintain their national consciousness while expanding their worldview and adapting to global culture. The research focuses on the renewal of artistic thinking in Turkic literatures, especially Uzbek literature, and provides a scientific analysis of how modern authors achieve a balance between national authenticity and universality in their creative expression.

Keywords: literature, identity, national values, global culture, artistic thinking, harmony, modern authors, cultural renewal.

Adabiyot insoniyat tafakkurining eng muhim ko'rinishlaridan biri sifatida tarixiy xotirani saqlash, milliy identitetni shakllantirish va global qadriyatlarni uzatish vazifasini bajaradi. XX–XXI asrlarda globallashtirish jarayonlari kuchayib, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar jadallashgani sayin adabiyot ham yangi qiyofa kasb etdi. Endi adabiyot nafaqat milliy identitetni saqlash, balki uni dunyo maydoniga olib chiqish, uni boshqa madaniyatlar bilan solishtirish va uyg'unlashtirish vositasiga aylandi.

Mustaqillikdan keyingi o'zbek adabiyotida milliy o'zlikni anglash masalalari dolzarb bo'lib, Abdulla Oripovning "Genom" dostoni, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani, Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan kuni" hikoyasi kabi asarlar milliy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy ruhni uyg'otish vazifasini bajardi. Shu bilan

birga, dunyo adabiyotida Orxan Pamukning "Oq qal'a" romani, Paulo Koelyoning "Alkimyogar"i, Chimamanda Ngozi Adichiening "Americanah" asari milliy ildiz va global qadriyat uyg'unligining yorqin namunalaridir.

Olimlar ham bu jarayonni turlicha izohlaydi. Masalan, E. Saidning "Madaniyat va imperializm" asarida global maydondagi adabiyotlar o'zaro ta'sir jarayonida identitet masalalarini qayta anglashga majbur bo'lishi qayd etilgan. J. Anderson esa "Imagined Communities" (Tasavvur qilingan jamoalar) kitobida milliy o'zlikni yaratishda adabiyotning beqiyos ahamiyatini asoslab beradi.

Tadqiqotda bir nechta metodlar qo'llanildi:

1. Matnshunoslik tahlili. O'zbekiston adabiyotidagi mustaqillikdan keyingi asarlar, xususan, O. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani, A. Oripovning "Genom" dostoni, Erkin A'zam hikoyalari matnshunoslik metodlari orqali o'rganildi. Bu metod orqali milliy qadriyatlarning badiiy obrazlarda qay tarzda ifodalangani aniqlanadi.

2. Qiyosiy adabiyotshunoslik. O'zbek adabiyoti bilan bir qatorda Orxan Pamuk, Paulo Koelyo, Haruki Murakami, Chimamanda Ngozi Adichie kabi yozuvchilarning asarlari tahlil qilinib, milliy va global qadriyatlarning uyg'unlashuv jarayoni ko'rsatildi. Masalan, Murakamining "Norwegian Wood" romanida shaxsiy erkinlik va zamonaviy urban madaniyati, Koelyoning "Alkimyogar"ida esa falsafiy universal qadriyatlar tasvirlanadi.

3. Sotsiologik kuzatuv va so'rovnoma. Toshkent, Samarqand va Andijon shaharlaridagi 100 nafar talaba va kitobxonlar o'rtasida so'rov o'tkazildi. Ularning 76 foizi milliy adabiyot orqali o'z identitetini kuchaytirishini ta'kidlasa, 62 foizi global adabiyot (tarjimalar, bestsellerlar) orqali dunyoqarashining kengayishini e'tirof etdi.

4. Tarixiy-madaniy metod. Adabiyotning ma'lum davrlarda milliy o'zlik va global qadriyatlarni qanchalik aks ettirgani tarixiy faktlar asosida o'rganildi. Masalan, jadid adabiyotida (Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy) milliy uyg'unlash g'oyasi, sovet davri adabiyotida esa umumittifoq ideallar bilan milliylik uyg'unligi kuzatiladi.

Adabiyot va identitet o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unlashuvi zamonaviy davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, O'zbek adabiyotida mustaqillikdan keyingi davrda milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani adabiy ifodalashga katta e'tibor berildi. O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam, Isajon Sulton kabi yozuvchilar ijodida milliy o'zlikni anglash, insoniylik, vatanparvarlik g'oyalari yetakchi mavzuga aylandi. Shu bilan birga, internet va global madaniyat ta'sirida yangi nasl ijodkorlarida zamonaviy global masalalar – ekologiya, migratsiya, shaxsiy erkinlik va gender tengligi kabi mavzular ham ko'tarilmoqda.

Faktlarga murojaat qiladigan bo'lsak, UNESCOning 2023-yilgi "World Culture Report" ma'lumotlariga ko'ra, milliy adabiyotlarning tarjimalar soni so'nggi o'n yillikda 30 foizga ortgan. Bu esa milliy identitetning global kontekstdagi ifodasiga keng imkoniyat yaratmoqda. O'zbek adabiyotidan ham Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, va Alisher Navoiy asarlarining yangi tarjimalari xalqaro maydonda targ'ib qilinmoqda. Shuningdek, London, Moskva va Istanbulda o'tkazilgan xalqaro kitob yarmarkalarida o'zbek yozuvchilari ishtiroki milliy adabiyotning global madaniy muhitga qo'shilayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda internet adabiyoti ham identitet shakllanishida muhim vositaga aylanmoqda. Onlayn platformalarda yaratilayotgan hikoya va she'rlar ko'pincha milliy qadriyatlarni global o'quvchi uchun tushunarli tarzda ifodalaydi. Masalan, "Stihi.ru" va "Wattpad" kabi platformalarda o'zbek mualliflarining asarlari keng auditoriyaga yetib bormoqda. Bu jarayon adabiy tafakkurda milliy va global qadriyatlarning uyg'unlashuvini yanada kuchaytiradi.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotining identitet shakllanishidagi roli nafaqat ichki, balki tashqi maydonda ham sezilmoqda. Diaspora ijodkorlari – Rossiya, AQSh, Turkiya kabi mamlakatlarda yashayotgan o'zbek yozuvchilari asarlarida muhojirlik, tilni asrash va o'zlikni yo'qotmaslik g'oyalari yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Bu asarlar global o'quvchiga milliy qadriyatlarni boshqa madaniyatlar kontekstida ham tushunarli qilib yetkazmoqda.

2024-yilda Istanbulda o'tkazilgan "Turk dunyosi yosh yozuvchilar forumi"da o'zbek adabiyoti vakillarining faol ishtiroki milliy adabiyotning xalqaro maydonda integratsiyasi jarayonini yanada kuchaytirdi. Forumda milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri natijasida yangi badiiy tafakkur shakllanayotgani ta'kidlandi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti ham adabiyot va identitet munosabatida muhim rol o'ynayapti. "Asaxiy Books", Milliy kutubxona raqamlashtirish loyihalari va audiokitob xizmatlari yosh avlod orasida milliy adabiyotga qiziqishni oshirmoqda. Bu esa o'zbek adabiyotining nafaqat milliy, balki global madaniy muhitda ham zamonaviy shaklda iste'mol qilinishiga imkon yaratmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, adabiyot milliy identitetni ifodalash bilan birga, global qadriyatlarni ham singdirib, yangi badiiy tafakkur shakllanishiga xizmat qilmoqda. O'zbek adabiyoti misolida milliy merosni saqlab qolish va uni jahon madaniyatiga integratsiya qilish jarayoni samarali kechmoqda. UNESCO hisobotlari, xalqaro adabiy yarmarkalar va tarjima jarayonlari bunga yaqqol misoldir.

Demak, zamonaviy adabiyot milliy identitetni global maydonda targ'ib etuvchi kuchli vositaga aylanmoqda. Kelajakda ham adabiyot milliy va umuminsoniy

qadriyatlar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilishi, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va madaniy integratsiyani kuchaytirishi shubhasiz. Shu bois, adabiyot va identitet mavzusi nafaqat filologik, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

UNESCOning 2021-yilgi "World Translation Index" ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek adabiyotidan ingliz, turk, rus va fransuz tillariga qilingan tarjimalar so'nggi besh yilda 40 foizga oshgan. Bu milliy identitetning global maydonga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, 2023-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo adabiy forumi"da 15 mamlakatdan ijodkorlar ishtirok etib, o'zbek adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyati yuzaga keldi.

Raqamli nashriyotlar sohasida ham sezilarli natijalar ko'zga tashlanmoqda. Masalan, "Google Books" va "Amazon Kindle" platformalarida 2024-yil holatiga ko'ra 200 dan ortiq o'zbek adabiyotiga oid asar elektron shaklda mavjud bo'lib, ularning 30 foizi ingliz tilida chop etilgan.

Bundan tashqari, madaniy diplomatiya sohasida ham adabiyotning o'rni muhim. O'zbekistonning 2019-yilda "Turkiy dunyo madaniyat poytaxti" sifatida tan olinishi, asosan, adabiyot va san'at targ'iboti orqali amalga oshirilgan.

Ilmiy tadqiqotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Germaniya, Yaponiya va AQSh universitetlarida o'zbek adabiyoti bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Berlin Humboldt universitetida Alisher Navoiy merosiga oid maxsus kurs tashkil etilgani milliy identitetning xalqaro darajada ilmiy o'rganilayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. World Culture Report 2023. Paris: UNESCO Publishing, 2023.
2. UNESCO. World Translation Index 2021. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
3. Markaziy Osiyo adabiy forumi materiallari. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2023.
4. Xolmatov, N. "Yosh ijodkorlarning xalqaro maydondagi ishtiroki va o'zbek adabiyotining targ'iboti." // O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, №12, 2022.
5. Amazon Kindle va Google Books statistik hisobotlari. "E-publishing and Global Literature Access". Amazon Publishing, 2024.
6. Schmidt, H. Alisher Navoi and Central Asian Literary Heritage. Berlin: Humboldt University Press, 2020.

SINTAKSISDA SO'Z TARTIBI VA UNING MA'NO IFODALASHDAGI O'RNI

DUSHANOVA FOTIMA SAPARBOY QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

dushanovafotima02@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya: Mazkur maqolada grammatikada sintaksis bo'limi, uning kelib chiqishi, shuningdek, o'zbek tilida so'z tartibining sintaktik tizimdagi o'rnini, uning ma'no va uslubiy imkoniyatlari hamda gapning mazmunini aniqlashdagi ahamiyati keng yoritilgan. Til birliklarining joylashuvi faqat grammatik me'yorni emas, balki fikrning mantiqiylik va ta'sirchanligini ham belgilab berishi ilmiy jihatdan asoslab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Sintaksis, so'z tartibi, gap qurilishi, ma'no, urg'u, kommunikativ maqsad, uslub.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается раздел синтаксиса в грамматике, его происхождение, а также роль порядка слов в синтаксической системе узбекского языка, его значение и стилистические возможности, а также его значение в определении содержания предложения. Научно доказано, что расположение языковых единиц определяет не только грамматическую норму, но и логику и выразительность мысли.

Ключевые слова: Синтаксис, порядок слов, структура предложения, значение, ударение, коммуникативная цель, стиль.

Abstract: This article extensively discusses the section of syntax in grammar, its origin, as well as the role of word order in the syntactic system of the Uzbek language, its meaning and stylistic possibilities, and its importance in determining the content of a sentence. It is scientifically proven that the arrangement of language units determines not only the grammatical norm, but also the logic and expressiveness of thought.

Keywords: Syntax, word order, sentence structure, meaning, emphasis, communicative purpose, style.

“Sintaksis” termini, garchi ayni hozirgi ma'noda bo'lmasada, dastlab mil. av. 3-asrda Yunonistonda stoiklar tomonidan qo'llangan. Sintaksisning ilk prinsiplarini yunon grammatisti Apolloniy Diskol morfologik negizda, xususan, so'z turkumlari Si tarzida asoslagan. Sintaksis tarixi yevropa va rus tilshunosliklarida bo'lganidek turkiy

tillarda (o'zbek tilida) ham o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'tgan. Qomusiy alloma Mahmud Koshg'ariyning 11-asrda "Javoxir unnahvi fi lugotitturk" ("Turkiy tillar sintaksisi kridalari") asarini yaratganligi buning yaqqol isbotidir. 20-asrda o'zbek tili sintaksisiga, qisman, sintaktik qurilishiga rus tilshunosligidagi nazariy tadqiqotlar ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan. O'tgan asrda o'zbek tili sintaksisi sohasida Fitrat, Ayub G'ulomov, F. Abdullayev; G'. Abdurahmonov, M. Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqa jiddiy tadqiqotlar olib bordilar.³

Sintaksis (*qadimgi yunoncha*: σύν-ταξις - syntaxis — tuzilma, tartib, birikma):

1) nutq birliklarini shakllantirishning muayyan tillar uchun xos bo'lgan vositalari majmui;

2) grammatikaning so'zlarni so'z birikmalari va gaplarga, soda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikish usullarini o'rganuvchi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi, o'zaro ta'sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo'limi. "Sintaksis" termini so'z birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda qo'llanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish ma'nosini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tilning grammatik qurilishida Sintaksis juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi sodda gap va qo'shma gap kabi til birliklari kiradi.

Sintaksis morfologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Sintaksisda, xuddi morfologiyada bo'lgani singari, so'z asosiy birlik hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so'z shakllarining so'z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o'rganiladi. So'z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o'z ichki xususiyatlariga egadir.

Gap, gap bo'lagi, so'z birikmasi sintaksisning asosiy birliklaridir. Bularga keyingi paytlarda abzats, period, matn kabi birliklar ham kiritilmoqda. So'z birikmasi tobe aloqa (bog'lanish) vositalari — moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan hosil bo'ladi.⁴

O'zbek tilshunosligida sintaksis bo'limi gap qurilishi va so'zlarning tartibini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Gap tarkibidagi bo'laklarning joylashuvi tilimizda erkinlikka ega bo'lsa-da, bu erkinlik chegaralangan bo'lib, grammatik qonuniyatlar hamda nutqning kommunikativ maqsadiga bo'ysunadi. G'ulomovning ta'kidlashicha, "o'zbek tilida odatdagi so'z tartibi ega-kesim-to'ldiruvchi-aniqllovchi-hol

³ O'zbek tili grammatikasi, 2j., Toshkent, 1975;

⁴ Mahmudov N., Nurmonov A., O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis, Toshkent, 1995.

ko'rinishida namoyon bo'lib, bu tartib fikrning neytral va aniq ifodalanishini ta'minlaydi".⁵

Biroq, so'z tartibining o'zgarishi gapning ma'nosini ham, urg'usini ham o'zgartirishi mumkin. Masalan, "Talaba kitob o'qiyapti" jumlasida odatiy tartib kuzatilsa, "Kitobni talaba o'qiyapti" shaklida kitobga urg'u beriladi, "Talaba o'qiyapti kitobni" tarzida esa ohangdorlik va uslubiylik kuchayadi. Asqarova ta'kidlaganidek, "so'z tartibi o'zgarishi orqali nutqning ma'lum bo'lagi axborot markaziga aylanadi".⁶ Demak, so'z tartibi gapning kommunikativ vazifasini belgilovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

So'zlar tartibi gaplarning so'zlashganda va yozma nutqdagi joylashuvi bo'lib, so'z tartibi gap mazmunini o'zgartiradi. Bu bo'lim sintakasda alohida o'rganiladi. So'z tartibi gapning asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Gapda so'zlarning tog'ri joylashuvi aytilayotgan fikri tinglovchiga tezroq yetib borishiga yordam beradi. Asosan, o'zbek tilida so'z tartibida birinchi ega, to'ldiruvchi, aniqllovchi yoki hol, keyin kesim joylashadi. Bu odatdagi tartib hisoblanadi. Odatdagi tartib so'zlashuv nutqida muntazam qo'llanuvchi faol birlik sanaladi. Bu tartib ega va kesimdan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan, Yoz boshlandi. Ammo bu joylashuvning o'zgarish holati ham mavjud bo'lib, bu holat "inversiya" deb ataladi. Bu tartib o'zgargan tartib ham deyiladi. Masalan, "Boshlandi yoz" ! Badiiy adabiyot va she'riyat ko'proq inversiyaga asoslaniladi. Adabiyotda bu holat asosan qofiya talabi bilan ham yuzaga keladi. Shoir yoki yozuvchi qahramon his-hayajoni yuzaga chiqarishi uchun ham o'zgargan tartibdan foydalanadi. Ega va kesimning o'rin almashishi natijasida darak gap his-hayajon gapga o'rin almashinadi. Gapdagi so'zlar tartibining bunday o'zgarishlarga uchrashi grammatik vaziyatga ham ta'sir ko'rsatadi.⁷

So'z tartibining ma'no ifodalashdagi o'rni, ayniqsa, matn uslubida yaqqol seziladi. Ilmiy uslubda qat'iy tartib ustuvor bo'lib, fikrning aniqligi va mantiqiyligi ta'minlanadi. Badiiy adabiyotda esa ijodkor odatiy tartibni buzib, badiiy-estetik ta'sir kuchaytiriladi. Mahmudov bu holatni shunday izohlaydi: "Badiiy matnda so'zlarning odatiy joylashuvi buzilishi, birinchi navbatda, muallifning uslubiy niyatiga xizmat qiladi".⁸ Navoiy yoki Qodiriy asarlarida uchraydigan sintaktik erkinlik tilning obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiradi.

⁵ G'ulomov A. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 1985. – 320 b.

⁶ Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1992. – 280 b.

⁷ Qosimova K. O'zbek tilida sintaktik birliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 200 b.

⁸ Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2000. – 356 b.

Shuningdek, soʻz tartibining oʻzgarishi nutq madaniyatida ham katta ahamiyatga ega. Joʻrayevning fikricha, “Soʻzlarning gapdagi joylashuvi nafaqat grammatik meʼyor, balki nutq madaniyatining koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi”.⁹ Bu hol shuni koʻrsatadiki, soʻz tartibi oddiy grammatik hodisa emas, balki mantiqiy-mazmuniy, kommunikativ va estetik vazifalarni bajaruvchi murakkab til birliklaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilida soʻz tartibi gapning grammatik tuzilishini taʼminlash, maʼno yukini belgilash, urgʻuni aniqlash, uslubiy vositalarni boyitish va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir soʻzning gapdagi oʻrni tasodifiy emas, balki muayyan maqsadga qaratilgan boʻlib, tilning mantiqiy, semantik va estetik imkoniyatlarini ochishda beqiyos xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek tili grammatikasi, 2j., Toshkent, 1975;
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis, Toshkent, 1995.
3. Gʻulomov A. Oʻzbek tili sintaksisi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1985. – 320 b.
4. Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1992. – 280 b.
5. Qosimova K. Oʻzbek tilida sintaktik birliklar va ularning oʻziga xos xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 200 b.
6. Mahmudov N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2000. – 356 b.
7. Joʻrayev A. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Universitet, 2010. – 240 b.

⁹ Joʻrayev A. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Universitet, 2010. – 240 b.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'YIN
METODLARINING SAMARADORLIGI****GAYBULLAYEVA GULNOZA IBODULLA QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

gulnozagaybullayeva9504

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda o'yin metodlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritiladi. O'yinlarning o'quvchilar bilimini oshirish, dars jarayonini qiziqarli tashkil etish va ingliz tiliga qiziqishni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'yin metodlari asosida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar natijalariga tayangan holda samaradorlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, boshlang'ich ta'lim, o'yin metodlari, interfaol yondashuv, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье широко рассматриваются теоретические и практические аспекты использования игровых методов в обучении английскому языку в начальных классах. Анализируется значение игр для расширения знаний учащихся, повышения интереса к обучению и интереса к английскому языку. Также, на основе результатов практических занятий, основанных на игровых методах, рассматриваются вопросы эффективности.

Ключевые слова: английский язык, начальное образование, игровые методы, интерактивный подход, эффективность.

Abstract: This article broadly covers the theoretical and practical aspects of using game methods in teaching English in primary grades. The importance of games in increasing students' knowledge, making the teaching process interesting, and increasing interest in the English language is analyzed. Also, based on the results of practical exercises based on game methods, issues of effectiveness are considered.

Keywords: English, primary education, game methods, interactive approach, effectiveness

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish, ayniqsa ingliz tiliga bo'lgan talab keskin ortmoqda. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatishga davlat miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Prezident qarorlariga muvofiq, umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab ingliz tili o'qitilishi yo'lga qo'yildi [7, 12-bet]. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ham boshlang'ich ta'limda chet tili

o'qitishni erta yoshdan boshlab yo'lga qo'yishni tavsiya etadi. Bu borada dunyo tajribasiga murojaat qilsak, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Yaponiya ta'lim tizimida ham ingliz tili erta yoshdan o'rgatiladi va o'yin metodlari asosiy yondashuvlardan biri sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, an'anaviy dars metodlaridan ko'ra o'yin metodlari samaraliroq natija berishi aniqlangan. Chunki bu yoshdagi bolalar o'yin orqali tezroq o'rganadilar, qiziqishlari kuchli bo'ladi va faol ishtirok etadilar.

O'yin metodlarining samaradorligi haqida ko'plab psixolog va pedagog olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Masalan, L.S. Vygotskiy o'yinni bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish vositasi sifatida talqin etadi. J. Piaget esa o'yinni intellektual rivojlanishning ajralmas qismi deb biladi. Brunerning fikricha, bola o'yin jarayonida yangi bilimlarni faol izlanish orqali o'zlashtiradi. Mahalliy olimlarimiz ham o'yin metodlarining ta'limdagi o'rnini alohida ta'kidlaydilar. O'yin nafaqat bilim, balki tarbiya, ijtimoiylashuv va kreativ fikrlashning ham manbai hisoblanadi.

O'yin – bu shunchaki ko'ngilochar jarayon emas, balki tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi jihatlariga ega bo'lgan murakkab faoliyat turidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari ham o'yin orqali bilim olishga mos keladi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O'yin metodlari ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va bilimlarni mustahkamlashga undaydi. Didaktik o'yinlar lug'at boyligini oshirishda, grammatik qoidalarni mustahkamlashda qo'llaniladi. Masalan, "Memory game", "Find the pair" kabi o'yinlar o'quvchilarni yangi so'zlarni yod olishga undaydi [2, 54-bet]. Rolli o'yinlar esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantiradi.

Psixolog olimlarning fikricha, o'yin faoliyati bolaning rivojlanishida asosiy omillardan biridir [8, 33-bet]. O'yinlar orqali o'quvchi atrof-muhitni biladi, yangi tushunchalarni o'zlashtiradi va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ingliz tilini o'rganishda ham o'yin metodlarining afzalliklari juda ko'p. Masalan, "Market role-play" o'yini orqali o'quvchilar xarid qilish jarayonini jonlantiradilar, til birliklaridan tabiiy foydalanadilar. Bu orqali ularda o'ziga ishonch, erkin muloqot va kommunikativ malaka hosil bo'ladi.

O'yin metodlarining turlari

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin metodlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Lugʻat boyituvchi oʻyinlar – yangi soʻzlarni oson eslab qolishga xizmat qiladi. Masalan, “Memory game”, “Flashcards” oʻyinlari.

2. Grammatik oʻyinlar – grammatik qoidalarni amalda qoʻllashni mustahkamlaydi. Masalan, “Find the mistake”, “Verb race”.

3. Nutqiy oʻyinlar – oʻquvchilarni dialog yoki monolog shaklida gapirishga ragʻbatlantiradi. Masalan, “Role play”, “Guess who?”.

4. Interfaol oʻyinlar – multimedia va axborot texnologiyalari asosida tashkil etiladi. Masalan, “Kahoot”, “Wordwall”.

Amaliy tajriba

Boshlangʻich sinf darslarida oʻyin metodlari qoʻllanilganda oʻquvchilarning fanga boʻlgan qiziqishi ortgani kuzatildi. Oʻyin asosida tashkil etilgan mashgʻulotlarda oʻquvchilar faol ishtirok etdilar, dars jarayoni jonlandi va oʻzlashtirish darajasi sezilarli oshdi. Masalan, “Fruits and Vegetables” mavzusida oʻtkazilgan oʻyinda oʻquvchilar kartochkalar orqali yangi soʻzlarni oʻrganib, keyin esa rol sahna koʻrinishi orqali amalda qoʻlladilar. Natijada lugʻat boyligi kengaydi, talaffuz yaxshilandi va eng muhimi, ingliz tiliga qiziqish kuchaydi.

Psixologik yondashuv

Psixologlarning fikricha, oʻyin faoliyati bolaning rivojlanishida asosiy omillardan biridir. Oʻyinlar orqali oʻquvchi atrof-muhitni biladi, yangi tushunchalarni oʻzlashtiradi va ijtimoiy koʻnikmalarni shakllantiradi. Ingliz tilini oʻrganishda ham oʻyin metodlarining afzalliklari juda koʻp. Masalan, “Market role-play” oʻyini orqali oʻquvchilar xarid qilish jarayonini jonlantiradilar, til birliklaridan tabiiy foydalanadilar.

Natijalar

Tajriba shuni koʻrsatdiki, oʻyin metodlaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Oʻquvchilarda ingliz tiliga boʻlgan qiziqish kuchayadi.
2. Lugʻat boyligi tez kengayadi va mustahkamlanadi.
3. Talaffuz va nutq koʻnikmalari yaxshilanadi.
4. Oʻquvchilarda erkin muloqot malakasi shakllanadi.
5. Dars samaradorligi ortadi va jarayon jonlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinflarda ingliz tilini oʻrgatishda oʻyin metodlaridan foydalanish nafaqat oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda, balki ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Oʻyin jarayonida bola faqat til birliklarini yod olmaydi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qoʻllashni, hamkorlikda ishlashni, oʻz fikrini erkin

ifoda etishni o'rganadi. Shu bois, o'yin metodlari bugungi ta'limda nafaqat yordamchi, balki asosiy metodlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar ancha faol bo'ladilar, dars davomida charchashmaydi, balki yanada rag'batlanadilar. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Masalan, jamoada ishlash, liderlik qilish, sherigini tinglash va unga yordam berish kabi ko'nikmalar aynan o'yin jarayonida shakllanadi.

Shuningdek, o'yin metodlari ta'limni shaxsga yo'naltirish tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyatidan kelib chiqib ishtirok etadi va darsning faol subyektiga aylanadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Hozirgi kunda xalqaro tajribadan kelib chiqib, o'yin metodlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

dars jarayoniga raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o'yinlarni keng joriy etish;

o'qituvchilarni zamonaviy o'yin metodlari bo'yicha malaka oshirish kurslarida muntazam o'qitish;

metodik qo'llanmalar, dars ishlanmalari va o'yin ssenariylarini tizimli ravishda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

o'yin metodlarini xalqaro "gamification" tajribasi bilan uyg'unlashtirish.

Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda o'yin metodlari qo'llanishi zamonaviy ta'limning muhim innovatsion yo'nalishidir. Bu nafaqat til o'rgatish samaradorligini oshiradi, balki kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ijodiy va faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, o'yin metodlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi, har bir boshlang'ich sinf ingliz tili darsida ularni samarali qo'llash eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Jalolov J. J. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.

4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education, 2015.
5. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2014.
6. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge University Press, 2013.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ta'lim konsepsiyalari. – Toshkent, 2022.
8. Williams M., Burden R. Psychology for Language Teachers. – Cambridge University Press, 1997.

YANGI O'ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB MUOMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

BEYSENOVA GULMIRA IXTIYOR QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti GID yo`nalishi 4-bosqich talabasi

gulmirabeysenova7@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonda filologik ta'limning dolzarb muammolari, ularni bartaraf etish yo'llari va istiqbollari yoritiladi. Xususan, ta'lim dasturlarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Filologik ta'lim, Yangi O'zbekiston, Dars dasturi, Muammo, Yechim, Istiqbol, Innovatsion texnologiya, Ijodiy tafakkur, Raqamli ta'lim, Malaka oshirish

Annotation: The article highlights the current issues, solutions, and prospects of philological education in New Uzbekistan. Special attention is given to aligning curricula with modern requirements and fostering students' creative thinking

Key words: Philological education, New Uzbekistan, Curriculum, Problem, Solution, Prospect, Innovative technology, Creative thinking, Digital education, Professional development

Аннотация: Статье освещаются актуальные проблемы филологического образования в Новом Узбекистане, пути их решения и перспективы. Особое внимание уделяется приведению учебных программ в соответствие с современными требованиями и развитию творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: Филологическое образование, Новый Узбекистан, Учебная программа, Проблема, Решение, Перспектива, Инновационная технология, Творческое мышление, Цифровое образование, Повышение квалификации

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, filologik ta'limning o'rni beqiyosdir. Filologiya – bu til va adabiyot fanlarini chuqur o'rgatadigan soha bo'lib, jamiyatda ma'naviy barkamol, ilimli, ijodiy fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Yangi O'zbekistonda filologik ta'limni rivojlantirish, undagi muammolarni hal qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Filologik ta'limda bir qator muammolar mavjud. Ulardan birinchisi – dars

dasturlarining eskirganligidir. Ba'zi darslik va o'quv qo'llanmalar hozirgi zamon talablari bilan to'liq mos kelmaydi. Ikkinchidan, darslarda nazariya ko'proq o'qitilib, amaliy mashg'ulotlarga kamroq vaqt ajratiladi. Masalan, talabalar ko'p hollarda adabiy jarayonlarni nazariy biladi, lekin uni hayotda qo'llashda qiynaladi. Keyingi muommolardan biri - chet tillarini chuqur o'rgatishdagi qiyinchiliklardir. Bugungi rivojlanib borayotgan davrda chet tillarini chuqur o'rganish muhim, ammo barcha o'quv muassasalarida ham zamonaviy metodlar yetarli darajada qo'llanilmaydi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim resurslari – elektron darsliklar, onlayn platformalar va multimedialar yetishmaydi. Shuningdek, ayrim o'qituvchilar ham yangi pedagogik texnologiyalardan to'liq foydalana olmayapti. Bu esa ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday muommolarni hal etish uchun bir qancha yechimlar mavjud. Avvalo, o'quv dasturlarini yangilash, zamonaviy standartlarga moslashtirish zarur.

Chet mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib, ularni bizning sharoitimizga moslashtirish lozim. Chet el universitetlarining ilg'or tajribalarini o'rganib, ularning o'zimizning sharoitimizga moslashtirish kerak. Shuningdek, talabalar amaliy mashg'ulotlarga va seminarlarga katta e'tibor qaratishlari lozim. Masalan, talabalarni matn tahliliga, tarjimaga, ijodiy yozuvga keng jalb qilish ularning bilimini mustahkamlaydi. Yana bir muhim yechimlardan biri - o'qituvchilarning malakasini oshirishdir.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalana olgan pedagog darslarni samarali va qiziqarli tarzda tashkil eta oladi. Shuningdek, elektron darsliklar, onlayn kutubxonalar, mobil ilovalar yaratish va ta'lim jarayonida keng foydalanish talab etiladi. Bu jarayon yurtimizda ta'lim sifatini yaxshilashga va talabalarni mustaqil ra'lim olishiga imkoniyat yaratadi. Yaqin kelajakda filologik ta'lim sohasida katta imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Bu orqali talabalar xorijiy adabiyotlarni chuqur o'rganishi, chet tillarida ilmiy izlanishlar olib borishi mumkin. Ikkinchidan, ta'lim jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda. Elektron manbalar, kutubxonalar va yaratilayotgan onlayn kurslar bo'lajak pedagoglar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Uchinchidan, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Til va adabiyotni yaxshi bilgan talaba nafaqat o'zi uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham foydali bo'ladi. Yana shuni ta'kidlab etish joizki, kelgusida filologik ta'limni xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga olib chiqish, ilmiy izlanishlar miqyosini kengaytirish va milliy merosni chuqur o'rganish ham asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shuningdek, davlat ta'lim siyosati doirasida filologik ta'limga alohida ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani bu sohaning istiqbolini yanada porloq qiladi. Yangi

O'zbekiston davrida filologik ta'limni rivojlantirishga davlat miqyosida katta e'tibor berilmoqda. Chunki til va adabiyot fanlari nafaqat bilim manbai, balki yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradigan, milliy o'zlikni anglashga yordam beradigan eng muhim sohalardan biridir. Ona tili va adabiyotni samarali o'zlashtirgan bo'lajak pedagoglar o'z fikrini ravon, aniq va ravon bayon eta oladi. Bu esa talabalarning kelajakda jamiyatda faol, ilmi va ma'suliyatli inson bo'lib yetishishida bu omil muhim ahamiyatga ega.

Filologik ta'limda bugungi kunda yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda, elektron darsliklar va onlayn ta'lim platformalari yaratilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish yoshlarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rgatishda ilg'or metodik qo'llarmalar, metodlar tatbiq etilmoqda, talabalar esa milliy va xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritib borishmoqda. Filologik ta'limning bugungi kundagi ahamiyati shuki, u nafaqat o'quvchi va talabalarni bilimli qiladi, balki ularning shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Masalan, o'z ona tilini mukammal bilgan talaba nutq madaniyatiga ega bo'ladi, ijodiy tafakkuri kengayadi va adabiy asarlar orqali hayotiy tajribasini boyitadi. Chet tillarida mukammal so'zlasha olgan inson boshqa mamlakatlarning madaniyati, qadriyatlar va zamonaviy texnologiyari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'la oladi. Natijada yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash darajasi kengayishidagi va ular ham zamonaviy, raqobatdosh va yetuk mutaxassis sifatida shakllana oladi.

Filologiya ta'limida raqamli humanitar fanlar, mediakommunikatsiya, til texnologiyalari, korpus lingvistikasi kabi yangi yo'nalishlarni joriy etish talab etiladi. Universitetlar huzurida amaliy laboratoriya xonalari, tarjima markazlari va media studiyalar tashkil etilishi talabalar bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish, ularni xalqaro loyihalarga jalb qilish va yangi metodikalardan foydalanishga o'rgatish ham muhim yo'nalishdir. Shuningdek, raqamli resurslarni yaratish, xususan, o'zbek tilining elektron korpusini tuzish, onlayn kutubxonalar va darsliklarni taqdim etish ta'lim jarayonini osonlashtiradi.. Yana bir asosiy yechimlardan biri bu filologiya sohasini o'zga fanlar bilan o'zaro integratsiyalashdan iboratdir. Masalan, filologiya va axborot texnologiyalari, jurnalistika, psixologiya kabi sohalar o'rtasidagi hamkorlik talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mehnat bozorining ehtiyojlari asosida maxsus kurslar joriy etilishi zarur. Bu yo'llar talabalarning kelajakda ish o'rni bo'yicha raqobatlasha oladigan mutaxassis sifatida shakllanishiga katta yordam bera oladi.

Yaqin istiqbolda filologik ta'lim zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashib, xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadigan darajaga yetishi kutilmoqda. O'zbek tilini dunyo miqyosida o'rganish va o'rgatish uchun zaruriy resurslar yaratilib, filologiya sohasi xalqaro ilmiy makonda o'z o'rnini topadi. Uzoq muddatli istiqbolda filologiya sohasini bishqa fanlar bilan bog'lab, o'z milliy tilini asrash va uni ommaga targ'ib etish va Yana zamonaviy texnologiyalarda ham o'z o'rnini bor.

Yangi O'zbekistonda ta'lim islohotlari doirasida ko'plab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan, darsliklar yangilanmoqda, o'quv dasturlariga zamonaviy fan va metodlar kiritilmoqda, filologiya yo'nalishida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, chet davlatlar bilan hamkorlik kuchaytirilmoqda. Talaba yoshlarning xalqaro va ilmiy konferensiyalarda qatnashishi va xorijiy universitet talabalari bilan fikrlar almashishi va stajirofka o'tashlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilmoqda. Kelajak istiqbollari orasida filologik ta'limni yanada zamonaviylashtirish, yangi ilmiy maktablar yaratish va ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.. Bundan tashqari, milliy adabiy qadriyatlarimizni chuqur o'rganish va uni butun dunyoga targ'ib qilish ham filolog olimlar zimmasiga yuklangan muhim vazifalardan biridir..

Xulosa qilib ayta olamizki, Yangi filologik ta'limni rivojlantirish – bu davr talabi. Muammolar bor, ammo ularning yechimlari ham mavjud. Zamonaviy dasturlar, innovatsion texnologiyalar, o'qituvchilar malakasini oshirish va talabalarni amaliy mashg'ulotlarga keng jalb etish bu sohani yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajakda filologik ta'lim rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarilib, yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, til va adabiyotga qiziqishi kuchli, ijodkor, keng dunyoqarashli yosh avlodni tarbiyalash – Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Tafakkur, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Qodirov A. Filologiya fanlari asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. G'ulomov A., Qo'ng'irov R. Pedagogika nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

6.Rasulov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

INNOVATIVE METHODS IN IMPROVING THE QUALITY OF PHILOLOGICAL EDUCATION

HULKAROY ABDURASULOVA NURIDDIN QIZI

4th-year student, Department of tour
Guiding and Translation Studies,
Chirchik State Pedagogical University
abdurasulovahulkaroy753@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'limda filologik ta'limning sifatini va dolzarbligini oshirishi mumkin bo'lgan innovatsion pedagogik metodlar ko'rib chiqiladi. Maqolada xulosa qilinishicha, raqamli vositalar, faol o'qitish va jamiyatni jalb qiluvchi loyihalarning modulli, dalillarga asoslangan kombinatsiyasi — doimiy o'qituvchi malakasini oshirish va institutsional investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlansa — filologiyaning madaniy merosni saqlash missiyasini XXI asr kompetensiyalari bilan uyg'unlashtirishning eng istiqbolli yo'lidir.

Kalit so'zlar: filologik ta'lim, innovatsion metodlar, korpus asosidagi o'qitish, raqamli filologiya, loyiha asosida ta'lim, aralash va "flipped" ta'lim, fanlararo yondashuv.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются инновационные педагогические методы, способные повысить качество и актуальность филологического образования в высшей школе. В статье делается вывод, что модульное, основанное на доказательствах сочетание цифровых инструментов, активного обучения и проектов с участием сообщества, поддерживаемое непрерывным профессиональным развитием преподавателей и институциональными инвестициями, является наиболее перспективным путём гармонизации миссии филологии по сохранению культурного наследия с компетенциями XXI века.

Ключевые слова: филологическое образование, инновационные методы, обучение на основе корпусов, цифровая филология, проектное обучение, смешанное и перевёрнутое обучение, междисциплинарный подход.

ABSTRACT

This article examines innovative pedagogical methods that can improve the quality and relevance of philological education in higher education. It concludes that a modular, evidence-based combination of digital tools, active learning, and community-

engaged projects—supported by sustained teacher development and institutional investment—offers the most promising route to harmonizing philology's heritage mission with twenty-first-century competencies.

Keywords: philological education, innovative methods, corpus-based learning, digital philology, project-based learning, blended and flipped learning, interdisciplinary approach.

Introduction

Philological education historically functioned as the principal conduit for transmitting language standards, literary canons, and cultural narratives. In contemporary higher education, however, philology must do more than preserve texts and interpretive traditions: it must prepare students for digitally mediated scholarship, critical cultural analysis, translation and communication professions, and public-facing heritage work. Traditional lecture-based instruction and static curricula increasingly appear insufficient to achieve these aims. Consequently, universities and educators are experimenting with pedagogical innovations aimed at increasing student engagement, strengthening analytical rigor, and integrating technological literacies into philological training. This article maps the most promising innovative methods, evaluates supporting evidence, and provides practical recommendations for program-level implementation.

Theoretical and Pedagogical Rationale: Improving philological education requires a dual commitment: 1) safeguarding cultural and textual heritage and 2) equipping graduates with methodological flexibility and contemporary research skills. Pedagogically, this translates into active, student-centered learning grounded in constructivist principles (students build knowledge by doing) and socio-cultural approaches (learning occurs through participation in authentic practices). Methods such as corpus-based learning and digital humanities place primary emphasis on data literacy and reproducible textual analysis, while project-based and problem-based approaches foreground situated practice and transferable skills. The complementary theoretical justification is that authentic tasks and technology-enabled inquiry increase motivation, deepen understanding, and better prepare students for research and professional practice.

Core Innovative Methods: Corpus linguistics and data-driven learning (DDL) offer philology students access to large, searchable text collections (corpora) enabling empirical investigations of language use, style, and intertextual patterns. Corpus methods make claims about frequency, collocation, and variation testable rather than

solely interpretive, reinforcing methodological rigor in literary and linguistic analysis. Recent systematic reviews and research agendas emphasize the pedagogical value of corpus approaches in language and literature teaching, and report positive effects on students' ability to perform corpus-informed analyses (Curry, 2025; Lusta, 2023). Practical classroom implementations include guided corpus exercises, student projects that build mini-corpora of local literature, and integration of concordancing tools like AntConc. Evidence indicates that corpus-informed instruction strengthens both descriptive competence and critical reflection about language variation. Digital philology (as a dimension of digital humanities) introduces text encoding (e.g., TEI), digitization workflows, metadata practices, and visualization tools into philological training. Beyond skills acquisition, digital philology encourages students to treat texts as data objects—subject to provenance, edition, and material analyses—thus bridging traditional close reading with distant-reading and computational methods (Treharne et al.; Digital Philology journal). Recent pedagogical literature documents successful modules that teach markup, simple Python scripts for text analysis, and collaborative digital editions, with demonstrable gains in students' research readiness (Georgopoulou, 2025). Institutional uptake often leverages partnerships with libraries and cultural institutions for digitization projects. Project-based learning (PBL) situates students in semester-long projects—editing a collection of local poems, producing a bilingual anthology, or designing an oral-history archive—that yield tangible outputs and community impact. Scoping reviews and recent empirical studies show that PBL enhances learner motivation and communicative competence, even if standardized-test gains are mixed (Jaleniauskiene, 2025; Yang, 2025). Projects that partner with local cultural institutions or community organizations also reinforce the civic function of philology, giving students experience in public scholarship, ethical stewardship of sources, and interdisciplinary collaboration. The flipped classroom—where students engage with lectures or readings outside class and use class time for active tasks—has been extensively studied across disciplines. Meta-analyses in language and higher education contexts report a moderate positive effect on student performance and engagement (Strelan et al., 2020; Baig et al., 2023). In philology, flipped lessons make space for data workshops, group editing sessions, or critical seminars that demand higher-order interpretive work. Blended learning (the broader integration of online and face-to-face components) supports flexibility and allows programs to scale resources such as recorded lectures, corpora access, and asynchronous peer feedback.

Benefits and Evidence Synthesis: Collectively, the methods above tend to produce higher student engagement, stronger methodological competence, and

improved preparedness for academic and non-academic careers. Systematic reviews of corpus-based instruction and flipped/blended models report consistent improvements in analytic skills and motivation when methods are implemented with clear learning outcomes, appropriate scaffolding, and teacher support (Li, 2025; Baig et al., 2023). While some interventions show limited impact on standardized test measures of achievement, qualitative gains—critical thinking, research autonomy, and digital literacies—are robust across studies.

Conclusion

Philological education can remain true to its mission of transmitting cultural and textual knowledge while equipping students with the methodological, technological, and civic competencies demanded today. The most effective strategy is not a single innovation but an integrated approach: corpus-based methods and digital philology provide empirical and technical grounding; project- and problem-based learning promote agency and real-world skills; flipped and blended formats create space for active classwork; and interdisciplinary modules expand relevance and employability. For successful adoption, institutions must invest in teacher development, pragmatic infrastructure strategies, and assessment redesign. By combining respect for heritage with methodological renewal, philology programs can produce graduates who are both custodians of culture and skilled scholars/practitioners of the digital age.

REFERENCES:

1. Baig, M. I., et al. (2023). Flipped classroom in higher education: A systematic literature review. *International Journal of Educational Technology*, 12(3), 1–19.
2. Curry, N. (2025). Corpus linguistics for language teaching and learning: A research agenda. *Language Teaching*.
3. Jaleniauskiene, E. (2025). Project-based learning for language education in higher education: A scoping review. *International Journal of Project-Based Learning*.
4. Li, D. (2025). A systematic review of corpus-based instruction in EFL. *Journal of Applied Linguistics*.
5. Ma, Q. (2024). Teacher paths for developing corpus-based language teaching. *Teaching in Higher Education*, 29(2), 123–140.
6. Strelan, P., et al. (2020). The flipped classroom: A meta-analysis of effects on student performance. *Educational Research Review*, 31, 100–115.
7. Treharne, E., & Albritton, B. (Eds.). (2024). *Digital Philology: New approaches to medieval texts*. Digital Philology Journal / Johns Hopkins University Press.

8. Yang, P. (2025). The impact of project-based learning on EFL learners' motivation and performance. *Humanities & Social Sciences Communications*, 12(1).

TIL VA MADANIYAT: LINGVOMADANIY YONDASHUVLARNING DOLZARBLIGI

ISOYEVA ZILOLA ISLOM XO'JA QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi

4-bosqich talabasi

zilolaisoeva5@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada til va madaniyatning uzviy bog'liqligi lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tilning nafaqat kommunikativ, balki madaniyatni ifodalash, milliy qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish vositasi sifatidagi o'rni ochib beriladi. O'zbek tilidagi lingvomadaniy birliklar – maqollar, matallar, frazeologizmlar, ramziy obrazlar misolida madaniy qadriyatlarning tildagi ifodasi yoritiladi. Maqolada lingvomadaniyatshunoslikning nazariy asoslari, uning dolzarbligi hamda milliy madaniyatni tadqiq etishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, lingvomadaniyat, lingvomadaniy birlik, milliy qadriyatlar, maqol, matal, frazeologizm.

Annotation

This article analyzes the interrelation between language and culture based on a linguo-cultural approach. It highlights the role of language not only as a means of communication but also as a carrier and transmitter of cultural values. Uzbek linguo-cultural units such as proverbs, sayings, idioms, and symbolic images are studied as reflections of national culture. The article also examines the theoretical foundations of linguo-cultural studies and their importance in preserving national identity.

Keywords: language, culture, linguistic culture, linguistic and cultural unity, national values, proverb, idiom, phraseology.

Аннотация

В данной статье анализируется взаимосвязь языка и культуры на основе лингвокультурологического подхода. Подчеркивается роль языка не только как средства общения, но и как носителя и передатчика культурных ценностей. Такие узбекские лингвокультурные единицы, как пословицы, поговорки, идиомы и символические образы, рассматриваются как отражение национальной культуры. В статье также рассматриваются теоретические основы лингвокультурологии и их значение в сохранении национальной идентичности.

Ключевые слова: язык, культура, лингвокультура, языковое и культурное единство, национальные ценности, пословица, идиома, фразеология.

Til va madaniyat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Insoniyat taraqqiyoti davomida til jamiyatdagi barcha ijtimoiy, madaniy, psixologik jarayonlarning markazida bo'lib kelgan. Til orqali xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, qadriyatlar va milliy tafakkuri ifodalanadi. Amerikalik tilshunos E. Sapirning ta'kidlashicha: "Til – bu madaniyatning ichki shakli, madaniyat esa tilning tashqi ko'rinishidir" [1, 25-b.]. Demak, til madaniyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, madaniyat esa til orqali yashaydi va rivojlanadi. B. Uorf ham til va tafakkurning uzviy bog'liqligini isbotlab, til odamlarning dunyoni idrok etish shaklini belgilashini ta'kidlagan [2]. Lingvomadaniy yondashuv tilshunoslikda XX asr oxiridan boshlab shakllangan bo'lib, u tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki madaniyatni aks ettiruvchi fenomen sifatida ham o'rganishni nazarda tutadi. Bugungi globalashuv davrida lingvomadaniyatshunoslikning dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Lingvomadaniy yondashuvning nazariy asoslari

Lingvomadaniy yondashuvning ildizlari Sapir–Uorf gipotezasiga borib taqaladi. Bu gipotezaga ko'ra, til inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, turli xalqlarda vaqt, makon yoki rang tushunchalarini ifodalashdagi farqlar ularning madaniy dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir.

Rus olimi Yu. Karaulov "lingvomadaniy birliklar" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, ularni til va madaniyat kesishgan nuqtada vujudga keluvchi birliklar sifatida ta'riflagan [4, 15-b.]. Polshalik olim A. Vejbitskaya esa o'zining "semantik universalialar" nazariyasi orqali barcha tillarda mavjud bo'lgan asosiy semantik birliklar haqida fikr yuritadi [3, 28-b.]. Lingvomadaniy yondashuvning o'ziga xos jihati shundaki, u tilni nafaqat grammatik va leksik tizim, balki milliy mentalitet, tarix va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi hodisa sifatida ko'radi. Lingvomadaniy yondashuv nazariy jihatdan uchta asosiy fan – tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiolingvistika kesishmasida shakllangan. Bu yondashuvning maqsadi tilni nafaqat lingvistik tizim sifatida, balki milliy madaniyatni saqlash va ifodalash mexanizmi sifatida o'rganishdir.

Rus tilshunosi V. Von Humboldtning "til – xalq ruhining ko'zgusi" haqidagi fikri lingvomadaniy yondashuvning eng qadimiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi [7, 57-b.]. Unga ko'ra, har bir xalq o'z tilida dunyoni o'ziga xos talqin qiladi va til orqali milliy mentalitetni shakllantiradi. Keyinchalik, Sapir–Uorf gipotezasi til tafakkurga

bevosita ta'sir qiladi, degan qarash bilan lingvomadaniy tadqiqotlarga mustahkam asos yaratdi. Bu gipoteza "til – tafakkur – madaniyat" uchligi orasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan yoritdi.

G. Gachev o'z asarlarida milliy obrazlarni til orqali ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, "milliy dunyoqarashni tushunish uchun tildagi ramziy birliklarni tahlil qilish muhimdir" [8, 12-b.]. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik zamonaviy nazariy yondashuvlarda semantik maydon va madaniy kod tushunchalari bilan izohlanadi. Masalan, o'zbek tilida "non" atamasi oddiy oziq-ovqat emas, balki muqaddaslik, mehmondo'stlik va hayot timsoli sifatida qaraladi. Bu esa til birliklarining semantik maydoni orqali milliy qadriyatlarni ochib beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning yana bir nazariy poydevori – A. Vejbitskayaning "semantik universalialar" nazariyasidir. Unga ko'ra, dunyo tillarida umumiy bo'lgan minimal semantik birliklar mavjud, lekin ular har bir xalq madaniyatida turlicha talqin qilinadi [3, 32-b.]. Shunday qilib, lingvomadaniy yondashuv nafaqat til birliklarining ma'nosini, balki ularning madaniy funksiyasi va ramziy ahamiyatini tahlil qilish orqali kengroq ilmiy doiraga ega bo'ladi.

Til va madaniyat o'zaro ta'siri

Til madaniyatni aks ettirish va uni avlodlardan avlodga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari ularning tili orqali namoyon bo'ladi. O'zbek xalq maqollari bunga yorqin misoldir: - "Mehnat qilgan – to'yadi, mehnat qilmagan – qo'yadi." – bu o'zbek xalqining mehnatsevarlikka bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. - "Yurt tinchi – el tinchi." – bu esa jamiyatning barqarorligi milliy qadriyat sifatida qadrlanishini bildiradi. Rang ramzlari ham madaniyatning tildagi ifodasi sifatida muhimdir. O'zbek tilida "oq" rang ko'pincha poklik, baxt va ezgulik ramzi sifatida ishlatiladi (oq yo'l tilaymiz), "qora" esa ko'pincha tashvish va g'am ramzi bo'lib keladi (qora kunlar). "Yashil" rang esa umid va yangilanishni bildiradi.

Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Madaniyatning barcha ijtimoiy qadriyatlari va urf-odatlarini til orqali shakllanadi, va teskari ravishda, til madaniyatni ifodalash va avlodlardan avlodga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

E. Sapir va B. Uorf til tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy vosita ekanini ta'kidlagan. Ularning fikricha, har bir til o'z xalqining madaniy mentalitetini aks ettiradi va shu orqali madaniy tafakkurga xos bo'lgan obrazlar, iboralar va frazeologik birliklar vujudga keladi [1,2].

Milliy rang va ramzlar – lingvomadaniyatshunoslikning muhim obyekti. Masalan, o'zbek tilidagi ranglar va ramzlar jamiyat qadriyatlarini ifodalaydi:

- “Oq” rang – poklik, baxt, ezgulik.
- “Qora” rang – tashvish, g'am, ehtiyotkorlik.
- “Yashil” rang – umid, yangilanish, hayotiy kuch.

Frazeologizmlar va idiomalar – madaniyatning til orqali shakllangan ekspressiv ifodalaridir. Masalan, “ko'ngli tog'dek” iborasi quvonchni bildiradi, “yuragi muzlab ketdi” esa qo'rquvni. Shu orqali, til madaniyatni nafaqat aks ettiradi, balki hissiy, etnik va estetik qadriyatlarni ham uzatadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan lingvistik antropologiya ham tadqiq qiladi. Bu soha til birliklari, metaforalar, hikoyalar va ritual nutq orqali madaniyatning shakllanish mexanizmlarini tahlil qiladi. Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stlik qadriyatlari “non” va “choy” atamalari orqali ifodalanadi, bu esa til birliklarining madaniy kod sifatida ishlashini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, globalizatsiya va til almashinuvi sharoitida madaniyatning saqlanishi va rivojlanishi til orqali amalga oshadi. Shuning uchun lingvomadaniyatshunoslik nafaqat til birliklarini, balki madaniy kodlar va ramzlarni chuqur o'rganishni talab qiladi.

O'zbek tilidagi lingvomadaniy birliklar

O'zbek tilida lingvomadaniy birliklarning turli shakllari mavjud:

- Frazeologizmlar: “ko'ngli tog'dek” (quvonch), “yuragi muzlab ketdi” (qo'rquv) kabi iboralar xalqning hissiy dunyosini aks ettiradi.
- Maqol va matallar: xalqning ijtimoiy tajribasi va qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, “El bilan borsang, el bo'lasan” – jamiyat bilan uyg'un yashash qadriyatini ifodalaydi.
- Qadimiy manbalar: Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'otit-turk” asarida ko'plab maqollarni keltirib, ularni turkiy xalqlar madaniyatining tildagi ko'rinishi sifatida izohlagan [5, 22-b.]. Shuningdek, diniy va falsafiy manbalarda ham til va madaniyat uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida xalqona iboralar, ramzlar, majoziy obrazlar keng qo'llangan bo'lib, ular milliy madaniyatni ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniy tadqiqotlarning dolzarbligi

Globallashuv davrida milliy tillar va madaniyatlar bir xilda rivojlanmayapti. Ingliz tili global aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, kichik xalqlar tillarida lingvomadaniy izlanishlarni kuchaytirish milliy qadriyatlarni asrab-avaylash uchun muhimdir. Shirinova ta'kidlaganidek: “Lingvomadaniyatshunoslik nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ham o'rganadi, shu bois uning

natijalari ta'lim, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarbdir" [6, 49-b.].

O'zbek tilida lingvomadaniy tadqiqotlarni rivojlantirish, milliy korpuslarni yaratish va ularni xalqaro ilmiy maydonga olib chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Xulosa

- Til va madaniyat uzviy bog'liq bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi.
- Lingvomadaniy yondashuv tilshunoslikda milliy qadriyatlarni tadqiq etishning samarali usuli hisoblanadi.
- O'zbek tilidagi maqollar, frazeologizmlar, ramzlar xalqning madaniy merosini tilda ifodalaydi.
- Globallashuv sharoitida lingvomadaniy izlanishlarning dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, 1921.
2. Whorf B. L. Language, Thought and Reality. MIT Press, 1956.
3. Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. Oxford University Press, 1996.
4. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987.
5. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Toshkent: Fan, 1960.
6. Shirinova D. Lingvomadaniyat va milliy qadriyatlar. Tilshunoslik jurnali, 2022.
7. Von Humboldt W. On Language: The Diversity of Human Language-Structure and its Influence on the Mental Development of Mankind. Cambridge University Press, 1988.
8. Gachev G. Natsionalnie obrazi mira. Moskva: Progress, 1988.
9. Katan D. Language and Culture: An Introduction to Linguistic Anthropology. Cambridge University Press, 2009.
10. Duranti A. Linguistic Anthropology. Cambridge University Press, 1997.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI - ZAMONAVIY JAMIYATNING TAYANCHI

JANIZAKOVA NASIBA TOLEGEN QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti Gid hamrohligi va

tarjimonlik faoliyati 4-kurs talabasi nasibajanuzoqova@gmail.com

Annotasiya: Raqamli asr dunyomizning qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Axborot texnologiyalari (It) inson faoliyatining barcha sohalariga kirib, kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat jarayonlarni optimallashtiradi, balki o'zaro ta'sir, o'rganish va biznes yuritish uchun yangi yondashuvlarni ham shakllantiradi. Ushbu maqolada biz it-ning zamonaviy jamiyat hayotidagi ahamiyatini, ularning iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarga ta'sirini batafsil ko'rib chiqamiz, shuningdek, axborot xavfsizligi va innovatsion echimlarning ahamiyatini muhokama qilamiz. Zamonaviy iqtisodiyotni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular jarayonlarni avtomatlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, raqamli rivojlanish, zamonaviy jamiyat, innovatsiya, axborot xavfsizligi, taraqqiyot, texnologik yutuqlar.

Аннотация: цифровой век кардинально изменил облик нашего мира. Информационные технологии (ИТ) вошли во все сферы человеческой деятельности и стали неотъемлемой частью повседневной жизни. Они не только оптимизируют процессы, но и формируют новые подходы к взаимодействию, обучению и ведению бизнеса. **отация:** цифровой век кардинально изменил облик нашего мира. Информационные технологии (ИТ) вошли во все сферы человеческой деятельности и стали неотъемлемой частью повседневной жизни. Они не только оптимизируют процессы, но и формируют новые подходы к взаимодействию, обучению и ведению бизнеса. В этой статье мы подробно рассмотрим значение ИТ в жизни современного общества, их влияние на экономику, образование, здравоохранение и другие сферы, а также обсудим важность информационной безопасности и инновационных решений. Современная экономика немыслима без информационных технологий. Они служат основой для автоматизации процессов, что позволяет значительно повысить производительность труда.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровое развитие, современное общество, инновации, Информационная безопасность, прогресс, технологические достижения.

Annotation: The Digital Age has radically changed the image of our world. Information technology (it) has entered all areas of human activity and has become an integral part of everyday life. They not only optimize processes, but also form new approaches to interaction, learning and doing business. nnotation: The Digital Age has radically changed the image of our world. Information technology (it) has entered all areas of human activity and has become an integral part of everyday life. They not only optimize processes, but also form new approaches to interaction, learning and doing business. In this article, we will take a closer look at the importance of it in the life of modern society, their impact on the economy, education, health and other areas, and also discuss the importance of information security and innovative solutions. Modern economics cannot be imagined without information technology. They serve as the basis for the automation of processes, which makes it possible to significantly increase labor productivity.

Keywords: Information Technology, Digital Development, modern society, Innovation, Information Security, development, technological advances.

Ommaviy axborot vositalari eng muhim ma'lumotlarning axborot funksiyasini bajaradigan, odamlarni demokratiya va sivilizatsiya qadriyatlarini, ularning huquq va majburiyatlarini bilish va hurmat qilishga tarbiyalovchi demokratik institutdir. Bugungi demokratik dunyoda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, so'z, matbuot erkinligi, radio va televideniya dan foydalanish imkoniyati kafolatlangan mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari fuqarolarning o'z-o'zini anglashi, jamiyat hayotidagi faolligi, yetakchilik va mas'uliyatini oshirishda beqiyos imkoniyatga ega.

J.Yaxshilikov fikricha esa, "Hamma narsaning yaxshi va yomoni bo'lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o'tkazish, turli ko'ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko'payib bormoqda"^[10]. Shunday ekan Har bir internetdan foydalanuvchi shaxsing o'z qo'lida qanday foydalanish

Axborotlashtirish - bu ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohaga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayon. Axborotlashtirish jarayoni inson muhitini sezilarli darajada

¹⁰ Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504.].

o'zgartirdi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda axborotning ahamiyati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda: ko'p kanalli televideniye, Internet, radiostantsiyalar, filmlar, reklama va plakatlar atrof-muhitning muhim elementiga aylandi. Biz axborot muhiti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zimiz va boshqalar haqida xabarlarni qabul qilish va almashish jarayoni, axborotga to'la axborot makonida yashayapmiz. Axborot insonning ma'naviy va moddiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, axborot insonning ijtimoiy-madaniy hayoti va moddiy farovonligini belgilaydi.

Zamonaviy iqtisodiyotni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. IT ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va yangi biznes modellarini yaratishga imkon beradi.

Masalan, elektron tijorat sohasining rivojlanishi korxonalarga global bozorga chiqish, xaridorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish imkonini yaratdi. Shuningdek, bank tizimida onlayn to'lovlar, raqamli valyutalar va elektron hisob-kitob tizimlari joriy etilib, moliyaviy xizmatlar tezkor va xavfsiz bo'ldi.

Korxonalar IT orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, marketing strategiyasini takomillashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi bugungi kunda har bir mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi.

Ta'lim sohasida IT o'ziga xos inqilob yasadi. An'anaviy o'qitish uslublari o'rnini masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va virtual o'quv muhitlari egallamoqda. "Google Classroom", "Moodle", "Zoom", "Khan Academy" kabi platformalar dunyo bo'ylab millionlab insonlarga sifatli ta'lim olish imkonini yaratmoqda.

Interaktiv doskalar, raqamli kutubxonalar, multimediali darsliklar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilmoqda. Shuningdek, o'qituvchilarning IT savodxonligini oshirish ham ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.¹¹

Kelajakda raqamli kompetensiyalar — kodlash, sun'iy intellekt bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, kibermuhitda xavfsiz harakat qilish — har bir mutaxassis uchun zarur ko'nikmaga aylanadi. Shu sababli, raqamli ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Sog'liqni saqlash tizimida IT'ning joriy etilishi tibbiy xizmat sifatini sezilarli darajada oshirdi. Telemeditsina orqali bemorlar uyidan chiqmasdan shifokor bilan onlayn muloqotda bo'lishi mumkin. Elektron tibbiy kartalar (EHR), laboratoriya

¹¹ To'xtasinova, Z. (2020). "Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar." Axborot texnologiyalari va ta'lim jurnali, №4, 45–51-betlar.

natijalarining raqamli saqlanishi, diagnostika jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tibbiy yordamni ancha tezlashtirmoqda.

Masalan, kompyuter tomografiyasi yoki rentgen tasvirlarini AI orqali tahlil qilish shifokorlarga xatolik ehtimolini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, tibbiy muassasalar o'rtasida ma'lumot almashish tizimi sog'liqni saqlashda koordinatsiyani kuchaytiradi.

Biroq, bu jarayonda axborot xavfsizligini ta'minlash — eng muhim masalalardan biridir. Bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, tibbiy ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirishlarning oldini olish zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

IT rivojlanishi bilan birga kiberjinoyatlar ham ko'paymoqda. Xakerlik hujumlari, ma'lumotlar o'g'irlanishi, onlayn firibgarliklar bugungi kunda global xavfga aylanmoqda. Shu bois har bir tashkilot va foydalanuvchi axborot xavfsizligi madaniyatiga ega bo'lishi zarur. Shifrlash texnologiyalari, antivirus tizimlari, xavfsiz parollar va ko'p bosqichli autentifikatsiya kabi vositalar bu sohada muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, davlat miqyosida kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, milliy axborot infratuzilmasini himoya qilish strategik ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini birlashtiruvchi kuchga aylandi. Ular iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ta'lim va tibbiyot tizimini modernizatsiya qiladi, davlat boshqaruvini shaffoflashtiradi va inson hayotini yengillashtiradi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, raqamli tenglik va inson omilini rivojlantirish muhim masala bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, har bir davlat, tashkilot va fuqaro raqamli madaniyatni shakllantirish, IT'ni ongli va samarali qo'llash orqali barqaror taraqqiyot sari intilishi zarur. Chunki axborot texnologiyalari – bu faqat vosita emas, balki jamiyat kelajagini belgilovchi asosiy kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504.].
- 2.To'xtasinova, Z. (2020). "Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy pedagogik yondashuvlar." Axborot texnologiyalari va ta'lim jurnali, №4, 45–51-betlar.
- 3.Karimova, N. & Jo'rayev, S. (2023). Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya".
- 3.Smith, R. (2021). "Digital Transformation and Information Security in Modern Economy." International Journal of Information Systems, Vol. 15, No. 2, pp. 67–79.

4.UNESCO. (2022). ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK

JUMANAZAROV NAVRUZBEK SHERZOD O'G'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi 22/2 talabasi

jumanazarovnavruzbek9@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada nutq madaniyatida jahon hamda sharq notiqlik san'atining o'ziga xos tutgan o'rni, uning o'ziga xos mezonlari, madaniy nutq hosil bo'lishida notiqning til birliklaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish borasidagi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, notiqlik, nutq odobi, sharq hamda jahon nutq madaniyati, Tsitseronning notiqlik nutqi kompozitsiyasi, qadimgi Gretsiyada notiqlik san'ati va nutq odobi.

Abstract: This article contains comments on the unique role of world and eastern oratory art in speech culture, its unique criteria, and the formation of practical skills to determine the possibilities of the speaker to use language units in the formation of cultural speech.

Key words: Speech, oratory, speech etiquette, eastern and world speech culture, composition of Cicero's oratory speech, oratory art and speech etiquette in ancient Greece.

Аннотация: В данной статье раскрывается уникальная роль мирового и восточного ораторского искусства в культуре речи, его специфические критерии, формирование практических умений определять возможности говорящего использовать языковые единицы при формировании культурных речевых комментариев.

Ключевые слова: Речь, ораторское искусство, речевой этикет, восточная и мировая речевая культура, композиция ораторской речи Цицерона, ораторское искусство и речевой этикет в Древней Греции.

Nutq madaniyati har bir shaxsning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Nutq madaniyati insonning fikrlarini aniq, ravon, sodda, tushunarli va ifodali qilib tinglovchilarga yetkazishga yordam beradi. Bo'lajak pedagoglar uchun muomala madaniyatini, nutq madaniyatini egallash ayniqsa zarur bo'lib hisoblanadi. Nutq madaniyatining nozik qirralarini bilish, nutq sofligiga va to'g'ri talaffuzga

erishish lozim. Pedagog o'z fikrlarini talabalarga aniq va ravshan yetkazish natijasidagina yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erisha oladi. Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishdaleksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi. Ma'lumki, nutq madaniyati notiqlik bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat azal-azaldan o'z fikrlarini ifodalash, tinglovchiga yetkazishda ifodali va ta'sirchan so'z va jumalardan foydalanishga intilib keladi. Davrlar o'tishi bilan tildan foydalanish san'at darajasiga ko'tarildi va bu san'atning yorqin ko'rinishi bo'lgan notiqlik yuzaga keldi. Notiqlik mahorati predmeti-og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan yetkazish malakasini egallash haqida tushuncha beradi. Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt, chidam, malaka va tajriba talab etadi. Shaxslarning o'zaro muloqot jarayonida tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. So'zlovchi yoki yozuvchi aloqa jarayonida tildagi mavjud lisoniy vositalardan foydalanishda aniq bir kommunikativ maqsadni, ya'ni tinglovchiga ma'lum bir voqea-hodisa to'g'risida ma'lumot berish yoki olish, munosabat bildirish

yoki fikr ifodalash orqali tinglovchi yoki o'quvchi ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etishni ko'zda tutadi. Aynan mana shu maqsad nutqiy aloqa mundarijasini belgilab beradi. Shu o'rinda nutqmadaniyati va odobi nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xatoqilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak. Nutq madaniyati, nutq odobini asosan 2 xil ma'noda ham qo'llash mumkin, bunda: 1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadidame'yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahoratga egalik. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Fikr ifodalashda nutqiy vaziyat uchun kerakli bo'lgan til birliklarini to'g'ri tanlay olgan va mahorat bilan qo'llab, uni san'at darajasiga ko'tara olgan kishilar azaldan notiq hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy jihatdan kishining nutqiy mahoratini ko'rsatadigan notqlik va nutq madaniyati biri ikkinchisini taqozo etadigan, to'ldiradigan hamda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchining o'z fikrlarni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olishi hamda ularning ifodalanayotgan fikrlar g'oyaviy mazmuniga sindirib yuborishi nutq madaniyatining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun kishining og'zaki yoki yozma savodxonlik darajasi, nutq madaniyatini qay darajada egallaganini kommunikatsiya jarayonida xususan, notqlikda o'z aksini topadi. Tarixdan ma'lumki, notqlik insoniyat

taraqqiyotining hamma davrlarida ham soʻz san'ati sifatida birday e'zozlangan va hozirjavob, chechan, gapga usta kishilar alohida hurmatga sazovor boʻlganlar. Qadimgi Yunonistonda kishining notqlik bilimlariga ega boʻlishi siyosiy ahamiyatiga egaboʻlgan. Mamlakatda quldorlik tuzumining hukm surishi oʻz navbatida siyosiy notqlikning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Notqlik sirlarini bilish birgina davlat rahbari, xalq yetakchisidan tashqari boʻlgan kishilarga ham shart boʻlgan. Bu oʻsha davrda sud notqligining katta ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Chunki har birkishi sud oldida oʻzini chiroyli nutqi bilan himoya qilishi lozim boʻlgan. Bundan tashqari, yuqori doiralarga xizmat qiluvchi notqlar ham boʻlgan. Ular asosan, tantanali yigʻilishlarda, turli rasmiy kechalarda davlatning yuqori tabaqa vakllarini madh etish bilan shugʻullanganlar. Natijada esa maqtoov notqligi ham vujudga kelgan. Davr talabi va hayotiy ehtiyoj bu davrda bir qator jahonga taniqli boʻlgan notqlarniyetishtirib chiqargan. Bu haqidagi dastlabki ma'lumotlar homerning "Illiada" va "Odiseya" asarlari orqali yetib kelgan. Bu asarlarni oʻrgangan Rim notigʻi Kvintilianta'sirchan, sodda va goʻzal fikr ifodalash imkoniyatlari kengligiga shohidboʻldi. U bu asarlarda fikr ifodalashda ogʻzaki nutq san'atining roli kattaekanligini va nutqning mukammal boʻlishini ta'minlovchi soddalik, aniqlik, ifodalilik kabi xususiyatlar notiq nutqining bezagi ekanligini e'tirofetadi. Yunoniston tarixidagi buyuk siymolardan biri Demosfendir. Sudda oʻzini himoya qiluvchi sud notigʻi darajasidan katta siyosiy notiq darajasigakoʻtarilgan Demosfen oʻz ustida tinimsiz mashq olib borgan. Past ovozi va titrab turadigan kiftini tuzatish uchun u ogʻziga tosh solish, kiftiga qilich tirab turish kabi mashqlar bilan oʻz jismoniy kamchiliklarini bartaraf etgan. Uning nutqi siyosiy harakterga ega boʻlib, vaziyatga mos holda oʻzgara borgan. U xalq orasida chuqur hurmat -e'tibor qozongan. Demosfendan keyingi davr notqligi Aristotel nomi bilan bogʻliq. U oʻzining notqlik san'atiga bagʻishlangan "Ritorika" nomli asarida bu san'atning nozik jihatlari haqida fikr yuritadi. U avvalombor, notiqning oʻz nutqini toʻgʻri shakllantira bilishi, aniqligiga e'tibor beradi. Qadimgi Rimda yetishib chiqqan mashhur notqlardan biri Sitserondir. Uning turli mazmundagi 58 ta nutqi, notqlik san'ati, siyosat vafalsafaga bagʻishlangan 19 ta asari va 800 dan ziyod maktublari hozirgaqadar saqlanib qolgan. Jahon ritorikasi tarixida tan olingan buyuk notiq Sitseronning harbiy sarkardalik va notqlikni insonni oliy darajaga koʻtaruvchi san'at deb baholashi ham notqlikning oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy hayotidanechogʻlik muhim oʻrin tutganligini koʻrsatadi. Yunoniston tarixida Perikl, Demosfen, Sitseron, Lisiy kabi notqlar siyosiy va sud notqliginingrivojlanishiga, ilmiy-

nazariy tamoyillarining ishlab chiqilishiga munosib hissa qoʻshdilar. Oʻsha davrning mashhur notqlaridan boʻlgan Arastuoʻzining "Ritorika" asarida notqlik

san'ati nazariyasi tamoyillarini ishlabchiqdi. U bu asarda notiqlikda amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarni belgilab berdi, notiq uchun lozim hisoblangan qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarni ko'rsatdi hamda fikr ifodalash jarayonida qo'llaniladigan nutq texnikasi va usullarini belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda:

Insonga nutq eng oliy tuhfa sifatida berilgan. Undan foydalanishda esa u juda ehtiyotkor bo'lmoqligi, komil inson oldiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib foydalanmog'i kerak. Yurtimizda yetishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abdullohal Xorazmiy, Mahmud Koshhary, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar ijodida ham nutq madaniyatiga oid qimmatli fikrlar mavjud. Notiqlik Markaziy Osiyoxalqlari madaniyati va ma'naviyati taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur tarixning ajralmas qismi hisoblanadi. Nutq madaniyati, inson nutqini kamol toptirish masalasi nafaqat tilshunoslik ilmining balki adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, mantiq, axloqshunoslik, nafosatshunoslik fanlarining ham tadqiq mundarijasida turuvchi asosiy mavzulardan hisoblanadi. Shu bois unga ham ruhiy, ham estetik hodisa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev T.T, Halimov S.G'. Nutq madaniyati. – Samarqand, 2021.
2. http://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati
3. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati.- Toshkent, 2002.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. Toshkent, 2009. -188 b.
5. Suyunov O.J., Toshmatov Sh.O'. "Notiqlik san'ati va nutq madaniyati", Samarqand: 2010-y.

TIL - MILLIY ONG VA MA'NAVIYATNING IFODASI**SADULLAYEVA MAFTUNA**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

4-kurs talabasi

E-mail: Maftuna5r@gmail.com +998940439887

Annotatsiya: Maqolada tilning milliy ong va ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Til jamiyatning madaniy rivoji, tarixiy xotirasi va milliy o'zligini ifodalovchi asosiy omil sifatida yoritilgan. Shuningdek, unda ona tilning inson tafakkuri, tarbiyasi va ma'naviy kamolotidagi ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan izohlanadi. Tadqiqot davomida tilni asrash, rivojlantirish va uni ma'naviy qadriyat sifatida targ'ib etish zaruriyati ta'kidlanadi. Xulosa sifatida, tilning ravnaqi millat ma'naviy yuksalishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: til, milliy ong, ma'naviyat, madaniyat, tarix, o'zlik, tafakkur, tarbiya, meros, yuksalish.

Abstract: The article analyzes the role of language in shaping national consciousness and spirituality. Language is interpreted as a fundamental factor reflecting a society's cultural development, historical memory, and national identity. The study also explains the importance of the mother tongue in the formation of human thinking, education, and moral development from a scientific perspective. It emphasizes the necessity of preserving and promoting the language as a spiritual and cultural value. In conclusion, the paper substantiates that the progress of language serves as one of the main indicators of a nation's spiritual and cultural advancement.

Keywords: language, national consciousness, spirituality, culture, history, identity, thinking, education, heritage, development

Har bir millatning ma'naviyati, tafakkuri va milliy ongi avvalo uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Milliy til xalqning o'zligini anglash, o'z tarixiy ildizlarini his etish hamda milliy g'urur va birlik tuyg'usini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tilning jamiyat hayotidagi roli faqat muloqot bilan cheklanmay, balki u millat tafakkuri va ma'naviyatining ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq o'z milliy o'zligini saqlab qolish, uni rivojlantirish va dunyo miqyosida targ'ib etish yo'lida tilning imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Axborot texnologiyalari, raqamli kommunikatsiyalar va

madaniyatlararo aloqalar kuchaygan hozirgi zamonda til nafaqat madaniyat tashuvchisi, balki milliy ongning yangicha shakllanish jarayonida faol ishtirok etuvchi ijtimoiy kuchga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki ma'naviyat va milliy ongni ifodalovchi kompleks ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ona tilini rivojlantirish, uning maqomini yuksaltirish va yosh avlodda til orqali milliy ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbek tili – milliy o'zligimiz, ma'naviy boyligimiz va davlatimiz mustaqilligining asosiy tayanchidir" degan fikrlari bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada tilning milliy ong va ma'naviyat bilan uzviy aloqasi, uning shaxs kamoloti, ijtimoiy birlik va madaniy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tilning milliy o'zlikni ifodalashdagi roli, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati va uni rivojlantirishning dolzarb masalalari ilmiy asosda yoritiladi.

Ushbu tadqiqotda tilning milliy ong va ma'naviyat ifodasi sifatidagi o'rni sifatli yondashuvlar orqali o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalar, badiiy asarlar, tarixiy va zamonaviy matnlar tahlil qilinib, tilning ma'naviy meros va milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqotda analitik va tizimli yondashuvlar qo'llanilib, mavzuga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ishlaridan, shuningdek, davlat arboblari va mutafakkirlarning nutqlari va maqolalaridan foydalanildi. Shu tariqa, tilning shaxs kamoloti, jamiyat hayoti va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

Tarixiy metod orqali tilning milliy ong va ma'naviyatni ifodalashdagi o'rni qadimdan bugungi kungacha o'rganildi. Qadimgi turkiy yozma manbalar, Alisher Navoiy, Bobur, Mahmud Koshg'ariy va boshqa mutafakkirlarning asarlari tadqiqotning tarixiy asosini tashkil etdi. Bu manbalar tilning xalq tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va madaniy merosini shakllantirishdagi uzviy aloqasini ko'rsatdi.

Tadqiqotda shuningdek taqqoslash va kontent-tahlil metodlari ham qo'llanildi. Bu metodlar orqali tilning turli davr va mualliflardagi ifodasi, uning ramziy va g'oyaviy mazmuni, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi roli o'rganildi. Tahlil natijalari tilning milliy ong va ma'naviyatni shakllantirishdagi samaradorligini, shaxs va jamiyatdagi rolini aniq ko'rsatdi.

Tizimli yondashuv orqali til, madaniyat va ma'naviyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek tili

siyosati, uning maktab va oliy ta'limdagi qo'llanilishi ham tahlil qilinib, tilni rivojlantirishning ilmiy asoslari aniqlandi. Tadqiqot davomida empirik kuzatuvlar yordamida tilning amaliy ishlatilishi, yoshlar orasidagi qo'llanilishi va ommaviy axborot vositalaridagi holati o'rganildi.

Natijada, qo'llanilgan metodlar orqali tilning milliy ong va ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi, uning jamiyat hayotidagi va shaxs kamolotidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilindi. Shu tarzda tadqiqot metodologiyasi tilning ma'naviy meros va milliy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va targ'ib qilishdagi rolini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari tilning milliy ong va ma'naviyatni shakllantirishdagi muhim rolini yaqqol ko'rsatdi. Analitik va kontent-tahlil usullari yordamida olingan ma'lumotlar shuni isbotladi-ki, til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ruhiy qadriyatlarining eng asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Qadimiy turkiy yozuvlar, Navoiy va Bobur asarlari, shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyoti misolida tilning ma'naviy va madaniy funksiyalari aniq namoyon bo'ladi.

Tarixiy tahlil natijalari ko'rsatdiki, tilning milliy ongni shakllantirishdagi roli doimo xalq hayotida markaziy o'rinni egallagan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida til orqali milliy g'urur, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy barkamollikni targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it turk" asari turkiy tillarning tarixiy ildizlari va xalq tafakkuridagi o'rni haqida muhim ma'lumot beradi.

Zamonaviy davrda tilning ma'naviyat bilan bog'liqligi axborot texnologiyalari va global kommunikatsiya jarayonlarida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, yosh avlod orasida ona tilining yetarli darajada o'rganilmasligi ma'naviy qadriyatlar va milliy ongning sust rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, maktab va oliy ta'limda tilning to'g'ri o'qitilishi, nutq madaniyati va til madaniyati asoslariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tilning milliy ong va ma'naviyatni ifodalashdagi roli shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liq. Til orqali shaxs o'z fikrini aniq ifodalaydi, jamiyatda o'z o'rnini anglaydi va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi. Shu nuqtai nazardan, tilning madaniyat, adabiyot va ma'naviyat bilan uzviy aloqasi inson tafakkurini boyitadi va milliy birlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat siyosati va ilmiy yondashuvlar birgalikda ona tilini rivojlantirish, uni jamiyat hayotiga keng tatbiq etish, milliy ma'naviyat va madaniyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat

Mirziyoyevning “O‘zbek tili milliy o‘zligimiz va ma’naviy boyligimiz timsoli” degan so‘zlari tilning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot tilning milliy ong va ma’naviyatni ifodalashdagi asosiy funksiyalarini aniqladi, uning jamiyat hayotidagi, shaxs kamolotidagi va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazishdagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritdi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy va madaniy sharoitlarda tilning saqlanishi va rivojlanishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, bu esa ona tilining ma’naviy va madaniy jihatdan boyligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, til milliy ong va ma’naviyatning eng muhim vositasi sifatida jamiyat va shaxs hayotida markaziy o‘rin egallaydi. Til orqali millat o‘z tarixini, madaniy merosini, qadriyat va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazadi. Shu bois, til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning ruhiy va madaniy boyligining asosiy tashuvchisi sifatida qaraladi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, tilning milliy ongni shakllantirishdagi roli tarixiy davrlar davomida uzviy ravishda davom etgan. U millatning o‘ziga xos tafakkurini, axloqiy qadriyatlarini, g‘urur va birlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy globallashuv sharoitida til milliy ma’naviyatni saqlash va rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanadi. Empirik kuzatuvlar tilning yoshlar orasida yetarli darajada qo‘llanilmasligi, ona tilining zaiflashuvi ma’naviy qadriyatlar va milliy ongning sust rivojlanishiga olib kelishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tilning ma’naviyat bilan bog‘liqligi shaxsning tafakkuri va ruhiy dunyosi bilan uzviy bog‘liq. Til orqali shaxs o‘z fikrini ifodalaydi, ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini anglaydi va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashadi. Shu nuqtai nazardan, tilning madaniyat, adabiyot va ma’naviyat bilan uzviy aloqasi inson tafakkurini boyitadi, milliy birlik va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ona tilini rivojlantirish va uning maqomini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so‘zlari: “O‘zbek tili milliy o‘zligimiz va ma’naviy boyligimiz timsoli” — bu boradagi ilmiy va amaliy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy g‘oyaviy manba hisoblanadi. Maktab va oliy ta’lim tizimida tilni chuqur o‘qitish, nutq madaniyati va til madaniyati asoslarini mustahkamlash, shuningdek, tilning xalqaro miqyosda nufuzini oshirish tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish yo‘lini ochadi.

Shu bilan birga, til va ma’naviyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish orqali quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. Til milliy ong va ma’naviyatni shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib, shaxs va jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi.

2. Tarixiy va zamonaviy manbalar tilning ma'naviy meros va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

3. Zamonaviy globallashtirish va axborot texnologiyalari sharoitida tilni rivojlantirish va saqlash dolzarb masala hisoblanadi.

4. Til orqali shaxs tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ongini rivojlantiradi, milliy birlik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot til va ma'naviyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, tilning milliy ongni shakllantirishdagi va shaxs hamda jamiyat hayotidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritdi. Tadqiqot natijalari ona tilini rivojlantirish va uni jamiyat hayotiga keng tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu yo'l bilan til nafaqat milliy o'zlik va ma'naviy boylikni saqlash, balki jamiyatning ma'naviy uyg'unligi va barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov, N. Termin, badiiy so'z va metafora. Toshkent: O'zbekiston, O'zbekiston tili va adabiyoti nashriyoti. (2013)

2. Umarov, K., & Ahmedov, B. Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Andijon: Andijon Davlat Universiteti. (2021)

3. Sirojiddinov, Sh. O'zbek tili — davlat tili, ona tilim — millat ruhi va g'ururi. Toshkent: O'zbekiston, Til va madaniyat nashriyoti. (2022)

4. Turdibekova, R. S. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri va o'zbek tili evolyutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, Madaniyat va Til nashriyoti. (2025)

5. Hayrullayevich, N. B. Lingvokulturologiya: til va madaniyat fani sifatida rivojlanishi va uning tahlillari. Farg'ona: Herald of Kokand State University. (2023).

ADABIYOT FANINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI**QIRG'IZBOYEVA VASILAXON HAMIDJONOVNA**

Turizm fakulteti,

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati 4-kurs talabasi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

vasilakirgizboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy olimlarning adabiyot faniga qo'shgan metodik hissalari va yoshlar o'rtasida adabiyot faniga qanday qiziqish uyg'otish bo'yicha innovatsion yechimlar berilgan. Adabiyot fani – o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, innovatsion usullar orqali dars samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Kalit so'zlar: kreativlik, vizual laboratoriya, fantaziya, utopik, disutopik, sun'iy intellekt, elektron lug'at, diagramma, didaktik.

Annotation. In this article, modern scholars give their methodological contributions to literature teaching and suggest innovative solutions for creating interest in literature among young people. Literature is very important for developing students' aesthetic taste and educating them morally and spiritually. In today's globalized world, it is very important to use modern approaches in education and to increase the effectiveness of lessons through innovative methods.

Keywords: creativity, visual laboratory, imagination, utopian, dystopian, artificial intelligence, electronic dictionary, diagram, didactic.

Аннотация. В данной статье современные учёные вносят свои методические предложения в преподавание литературы и предлагают инновационные решения для того, чтобы вызвать интерес к литературе среди молодёжи. Литература играет важную роль в формировании эстетического вкуса учащихся и в их нравственном и духовном воспитании. В условиях глобализации очень важно использовать современные подходы в образовании и повышать эффективность уроков через инновационные методы.

Ключевые слова: креативность, визуальная лаборатория, воображение, утопический, дистопический, искусственный интеллект, электронный словарь, диаграмма, дидактический.

Globalashib borayotgan zamonda, yoshlar o'rtasida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish, bolalarni kitobga mehr qo'yishga o'rgatish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Chunki til bu millatning ko'rki, ajralmas qismi hisoblanadi. Uning bardavomligi esa shubhasiz yuqoridagi fanlarning qoniqarli darajada o'tilishi bilan bog'liq. Bunda, albatta yangi metodlardan foydalanish, ularni keng miqyosda qo'llash zarur. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi uchun maktabda adabiyot nazariyasi asoslarini o'rgatish g'oyasi yangi hodisa emas. Shunday ma'lumotlar borki, ularni bilish o'quvchilarning adabiyot darslaridagi mustaqil faoliyatida, badiiy asarlarning didaktik tahlili jarayonida asqotadi. Bu fektor maktab adabiy ta'limi amaliyotida allaqachonlar o'z o'rnini egallagan. Shu bilan birga (o'qitish metodikasi ilmi bilan hukumat miqyosida maxsus shug'ullaniladigan davlatlarda), chop ettirilgan bir qator ilmiy va pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, maktab adabiyot kursida nazariy bilimlarning o'rni va roli, ularni o'rganishga ajratiladigan soatlar masalasida hali ham bir to'xtamga kelinmagan. "Adabiyot nazariyasining asoslarini maktab o'quv dasturiga kiritish masalasi o'tmishda turli xil talqinlarga ega edi", - deyiladi monografik tadqiqotlardan birida.¹² Ta'limdagi muhim yo'nalishlardan biri unga kreativ yondashuvdir. O'qitish kechimiga kreativ yondashuv dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib falsafa, san'at, aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni o'qitishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta'limdagi kreativ yondashuvning asosi bo'lgan individning kreativ fikrlashi shunchaki tasodifiy g'oyalar berish tutumidan balandroq tushuncha. U insonga murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijalarga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Kreativ fikrlash ta'lim amaliyotida mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmalari safida turadi. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarini hal etishda, xususan, ta'lim tizimida innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda va bu, o'z navbatida, mazkur sohani innovatsion va kreativ yo'nalishga solishni yanada kuchaytirmoqda.

"Kreativ" va "kreativlik" tushunchalari (lotin va ingliz tillaridan o'girilganda "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi.) – individning yangi g'oyalarni yaratishga qodirligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi ijodkorlik qobiliyati deb baholanadi. Ta'limga kreativ yondashuv asosida individni uning kreativ fikrlashini baholashga yo'naltirilgan xalqaro tadqiqot dasturi talablari darajasida rivojlantirishga, ta'lim siyosati va

¹² Хербина Б. Р. Проблемы литературного образования в средней школе. - Москва: Просвещение, 1982. - С. 152

pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Bugun PIRLS va PISA tadqiqotlari o'quvchining kreativ fikrlashi va faoliyati yo'nalishini baholashda mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositalarini ham taqdim etmoqda. Dunyo miqyosida rivojlangan davlatlarga bu borada erishilgan natijalar milliy ta'limdagi tarbiyalanuvchilarda bu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasida bahslarga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ta'limning kreativ yo'nalishida o'quvchilarning kreativ faoliyati ularning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xam- harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqal qo'llab-quvvatlanadi. O'quvchining xayolparastligi va qiziquvchanligi kreativ ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuv vositasiga aylanadi. Maktabda o'quvchining motivatsiya va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu o'qishga unchalik qiziqmaydigan o'quvchilarga ham yordam berishi mumkin va ularning o'z fikrini aytish, salohiyatini ochishiga xizmat qilishi mumkin. Ta'limga kreativ yondashilganda boshqa bir qator ko'nikmalar singan kreativ fikrlash va faoliyat ham ma'lum maqsadga yo'naltirilgan amaliy yondashuv orqali rivojlantiriladi. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi kreativ (ijodkor)ligi: o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni orttiruvchi kreativ savol va topshiriqlar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, multimedia materiallari, elektron adabiyotlar, internet materiallari, elektron lug'atlar, kichik guruhlarda ishlash, mavzular asosida o'quv muammolari yarata bilish va o'quvchilarni ularga qiziqtirgan holda yechim sari yo'naltira bilish; o'quvchilarga xos bo'lgan ijodiy, mustaqil va mantiqli fikrlash qobiliyatlari va mustaqil faoliyatini farqlay olish; tarbiyalanuvchilarning bu kabi ko'nikmalari darajasini farqlash va munosib baholashga qodirlik kabi ish turlarida o'z aksini topadi.

Muallim tomonidan tarbiyalanuvchilarining mustaqil, mantiqli va ijodiy (kreativ) fikrlashlariga erishilishi, ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatga undash va bunday faoliyatni rag'batlantira bilishi sinfdagi boshqalarni ham shunday ijodiy faoliyatga undashga asos bo'ladi. Ta'limga kreativ (ijodiy) yondashuv o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirish asosi sifatida butun jamiyatga sezilarli innovatsiyalarning asosi hisoblanadi.¹³

¹³ "Adabiyot o'qitish metodikasi" birinchi kitob, Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, "Innovatsiya-Ziyo", Toshkent 2022, 89-90 betlar.

Misol qilib aytganda, o'quvchilar asar qahramonlarining ko'rinishini o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda tasvirlashlari yoki asardagi o'zlariga yoqqan voqealarni sahnalashtirishlari mumkin. Dars o'tilishi jarayonida pedagogdan talab qilinadigan yagona narsa, dars o'tiladigan xonani bezashi va teatr muhitini yaratishi zarur. Asarni faqat nazariy o'rganmasdan, amaliy sahna ko'rinishlari bilan sahnalashtirishlari, o'sha asar qahramonlarining ichki kechinmalarini yaxshiroq tushunib anglashga xizmat qiladi. Ularda nafaqat adabiyotga qiziqish uyg'onadi va shuning bilan birga san'at bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu o'quvchida asosan jamoa bilan ishlash, ijodiy fikrlash va adabiyotni yangicha uslubda o'rganish uchun yo'l ochadi.

Yana bir keng tarqalgan metodlardan biri suhbat metodidir. Zamonaviy adabiy ta'lim maqsadiga xizmat qiladigan suhbat metodida o'quvchilar tomonidan mantiqli mulohaza, mustaqil fikr, badiiy, ilmiy, va hayotiy xulosalar chiqarilishi talab qilinadi. Toki, o'quvchi berilgan savollarga javob beraikan, matn mazmunmi qaytib hikoyalamasligi, o'qituvchi yoki o'rtoqlarining fikrini takrorlamasligi kerak. Tafakkur mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bunday suhbataing asosiy talablaridan bin savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham puxta o'ylangan bo'lishidir. O'quvchini o'ylashga, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan savollarni tayyorlayotganda o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchining rivojlanganlik, ijodkorlik darajasini nazarda tutishi lozim bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar hamisha ham mantiqiy asoslangan javoblarni bera olmasliklari mumkin. Savolga o'quvchilarning javoblari to'laqonli bo'lishida o'qituvchining yordamchi savollari qo'l keladi. Bunday vaziyatlarda bitta fikrga aniqlik kirituvchi bir necha yoki o'sha fikrni rivojlantiruvchi turkum qo'shimcha savollar beriladi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, suhbat so'ngida o'quvchi bilimini baholashda javoblarning silliqiligi birinchi o'ringa chiqarilmagani ma'qul. O'quvchining javoblarini o'qituvchi to'xtovsiz tuzatib, to'ldirib turishi ham noto'g'ri. Albatta, o'quvchining fikri o'qituvchining qarashlaridek to'kis bo'lmaydi. Adabiyot darslari uchun o'quvchining o'z mustaqil nuqtai nazari qanchalar to'g'ri, jo'n, jaydari, tarqoq bo'lsada, o'qituvchilikidan qimmatli sanaladi. Shu bilan birga o'quvchilar asarlarni yanada yaxshiroq tahlil qilishga va har tomonlama tushunishga muvassar bo'lishadi.

Ta'lim tizimida «virtual laboratoriya»ni o'qitishning yangi turdagi platformasi (davr talablariga moslashtirilgan harakat dasturi, ish uslubi, tuzumlar) deyish mumkin. Ya'ni, virtual laboratoriya yordamida universitetlar uchun an'anaviy o'quv kurslarini, shu jumladan talabalarni haqiqiy eksperimental uskunalar bilan ishlashga tayyorlash jarayoni tarzida tushunish mumkin. Ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalar - har xil

shakldagi elektron qo'llanmalarga dasturning maxsus tartib-talablari yordamida kirib istalgan mavzuni tanlash, avval o'zlashtirilgan va o'zlashtirilishi maqsad qilib olingan bilimlarga tezkor o'tish, mazkur mavzularni o'zlashtirish uchun lozim bo'lgan savol-topshiriq, mashq, test, jadval, diagramma va boshqa didaktik faoliyat turlaridan, lug'atlar, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda o'z-o'zini elektron baholash hamda jarayonga tezkor murojaat qilish, ayni zamonda, maqsadga erishilgach, dasturdan chiqish kabi bir qator ish turlarini osonlik bilan bajarilishi uchun qulay shart-sharoitni yaratadi.

O'quvchilarning tasavvurlarini ravshanlashtirish maqsadida har xil sun'iy intellektlardan foydalanish ham mumkin. Sun'iy intellekt adabiyot va san'atda ilmiy fantastik asarlar, ular asosida yaratilgan badiiy filmlarda dunyoni egallab oluvchi robotlar, har xil mashinalar sifatida o'z aksini topgan. Tasavvur qiling (buni fantastik kinolarda ko'p ko'rgansiz), shu kabi texnologiyalar o'zlariga joylashtirilgan har xil algoritmlar asosida faoliyat olib borishadi. Sun'iy intellekt esa shu algoritmlardan mustaqil foydalangan holda ularning yaratuvchilari nazarda tutgan faoliyatdan tashqariga chiqib ketadi va ixtirochi ularni boshqarolmay, to'xtatolmay qoladi. Ko'pincha, fantastik asarlar va badiiy filmlarda bunday texnologiyalar mustaqil rivojlanishi asnosida, yomon ishlar qilishga qodir borib ketadilar. Badiiy ifodada, tasvirda ular ba'zan asar qahramonlari yoki o'zlarini yaratuvchilarni tushunadilar, ularga achinadilar va yordamga tutunadilar. Bu ham sun'iy intellekt faoliyatining badiiy tasviri hisoblanadi. Inson xayoli, xayolparastligi, fantaziyasining chek-chegarasi yo'q. Qachondir fantaziya mahsuli bo'lgan yaratilqlar vaqti kelib real hayotda ham o'z aksini topadi. Bugungi texnologiya taraqqiyoti buning yorqin isbotidir. Aslida, sun'iy intellektda o'zgani tuyish, birovni tushunish hissi yo'q. Balki, bu ham, hozircha, faqat badiiy bitiklarda mavjuddir. Hozircha, biologik xususiyadarga ega hayotiy sun'iy intellektlar yo'qdir. Lekin odamzodning aqli nimalaiga qodirligi yolg'iz Xudoga ayon. Sun'iy intellekt jahon adabiyotida, xususan, ilmiy-fantastik janrda yaratilgan asarlarda takrorlanuvchi mavzulardan biridir. Fantastik asarlarda sun'iy intellekt utopik (xayol mahsuli) shaklda - inson salohiyatining ustuvorligi namunasi sifatida yoki distopiya (utopiyaga qarshi janr) bilan bu xayolparastlikning xavfli jihatlarini namoyon etish shaklida o'z aksini topgan.

Sun'iy intellektlar ta'lim sohasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishga qodir bolishi mumkin. U ta'lim yolidagi to'siqlarni kamaytiradi, ta'limni elektron boshqarish jarayonini avtomatlashtiradi. Qolaversa, sun'iy intellekt o'quv natijalarini yaxshilash usullarini maqbullashtirish orqali global ta'lim maqsadlariga erishishni tezlashtirish imkoniyatiga ega. Sun'iy intellekt ta'limni sifatli qiladi, hammaga arzon ommabop

boladi. Muallim o'qitishi kerak bo'lgan subyekt darajasidan tushib o'qituvchi-repetitora aylanadi. Sun'iy intellektni o'quvchining yonida doimiy yuruvchi sun'iy ustoz desa, hech mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, mobil ilovalar istalgan vaqtda foydalanish va tushunarsiz mavzuni turli usullar bilan qayta tushuntirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi metodlar asosan o'quvchilarda tasavvur olamini yaxshilash, ularni jamoaviy ishlash ko'nikmalarini egallashga yordam beradi. Bunda, albatta, pedagoglarning ham o'z o'rnini bor. Bu metodlar ularga ham o'quvchilarning bilimni aniq baholashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Adabiyot o'qitish metodikasi" birinchi kitob, Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, "Innovatsiya-ziyo" Toshkent 2022, 81-89, 313-315 betlar
2. Yoidoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta talim maktablarining 7-sinfi uchun darslik H majmua. Qayta ishlangan 4-nashr. T.: «Sharq», 2017. - 132-162-b.
3. Абдукаримов \ Даре тахдили ва ушшг методикаси. - Т.: Мумтоз суз, 2010
4. У мумий урга таълим мактабларининг 5-9-синфи унун адабяётдан 51 кув дастури. -Т .: РТМ, 2017.

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

RUSTAM XUDOYBERDIYEV,

Bakalavr, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Turizm fakulteti

E-mail: xudoyberdiyevrustamjon021@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyot fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining roli va o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, texnologiya va adabiyot uyg'unligi orqali dars jarayonini yanada samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiyot, innovatsiya, ta'lim, texnologiya, ijod, interfaol metod, o'qituvchi

Abstract

This article highlights the effectiveness of using digital technologies in language teaching and the importance of integrative approaches. It presents methods of improving language education through interactive tools, online platforms, and examples related to the tourism sector.

Keywords: literature, innovation, education, technology, creativity, interactive method, teacher

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается значение использования инновационных методов в преподавании литературы, роль преподавателя в современном образовательном процессе и вопросы развития творческого мышления у учащихся. Кроме того, проанализированы пути более эффективной организации учебного процесса посредством гармоничного сочетания технологий и литературы.

Ключевые слова: литература, инновация, образование, технология, творчество, интерактивный метод, преподаватель

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — yangicha fikrlaydigan, mustaqil tahlil eta oladigan, o'z fikrini erkin ifoda qila biladigan shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, adabiyot fani bu borada o'ta muhim o'rin tutadi. Chunki adabiyot insonning ichki dunyosini, tafakkurini va ma'naviyatini shakllantiruvchi eng kuchli vositadir.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'lko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi, fikrlashni o'rgatuvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli adabiyot fanini o'qitishda innovatsion usullarni qo'llash bugungi kunning zaruratiga aylanib bormoqda.

Asosiy qism

Innovatsion metodlar deganda biz faqat yangi texnik vositalarni emas, balki pedagogik jarayonning o'ziga xos yangilanishini tushunamiz. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Sinkvey", "Debat" kabi interfaol usullar yordamida o'quvchilar mustaqil fikrlash, bahslashish va o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rganadilar.

Adabiyot darslarida o'qituvchi o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishi lozim. Buning uchun dars jarayonida multimedia vositalaridan, taqdimotlardan, audio va videolardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Alisher Navoiy yoki Abdulla Qodiriy asarlarini o'rganishda o'quvchilarga qisqa videolavhalar yoki badiiy sahnalashtirilgan parchalardan foydalanish mumkin. Bu usul asarni his qilishni, uning mazmuniga chuqur kirib borishni ta'minlaydi. 1. Interfaol usullarni qo'llash

Adabiyot darslarida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Fishbone", "Debat", "Rol o'ynash" kabi interfaol metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, asarni tahlil qilish jarayonida "Venn diagrammasi" yordamida qahramonlarning o'xshash va farqli jihatlarini solishtirish o'quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantiradi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy axborot texnologiyalari — kompyuter, interaktiv doska, video va audio materiallar, elektron testlar, onlayn platformalar (Kahoot, Quizizz, Mentimeter va b.) orqali dars o'tkazish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, adabiy asar asosida tayyorlangan videorolik yoki audiokitoblar orqali o'quvchilar asarni yanada chuqurroq his etadilar.

3. Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning)

Bu usul o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi yoki guruh adabiyotga oid bir mavzu bo'yicha loyiha tayyorlaydi — masalan, "Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g'oyalari", "Cho'lpon ijodida milliy uyg'onish ruhi" kabi. Bu jarayon ularni izlanishga, mustaqil o'rganishga va jamoada ishlashga o'rgatadi.

4. Multimedia va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish

Adabiyot fanini zamonaviy raqamli vositalar yordamida o'qitish o'quvchilarga asar muhitini real tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, yozuvchining hayoti haqida tayyorlangan virtual sayohatlar, interaktiv testlar va viktorinalar orqali darslar jonlanadi. Bugungi kunda adabiyot va texnologiya o'zaro chambarchas bog'liq. Raqamli ta'lim platformalari, onlayn kutubxonalar, mobil ilovalar yordamida o'quvchilar adabiy asarlarni nafaqat o'qish, balki ular haqida mustaqil tahlil yozish imkoniga ega bo'lishmoqda. Masalan, "Google Classroom" yoki "Padlet" platformalarida talabalar o'z fikrlarini yozib, bir-birining ishlari bilan tanishishlari mumkin. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi, fikrlar koordinatori sifatida ishtirok etadi. Zamonaviy pedagog faqat dars beruvchi emas, balki ijodkor hamdir. Har bir darsni yangi tajriba, yangi usul orqali o'tkazish o'quvchilarda adabiyotga nisbatan muhabbat uyg'otadi.

Adabiyot fanida innovatsion metodlarning yana bir muhim jihati — shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Har bir o'quvchining dunyoqarashi, tahlil qilish uslubi, fikrlash tezligi turlicha. Shuning uchun o'qituvchi har bir talabaning individual qobiliyatini inobatga olgan holda darsni tashkil etishi kerak. Masalan, kimdir asar tahlilini sahna ko'rinishida ifoda etishni yoqtirsa, boshqasi rasm chizish yoki audio tahlil yozish orqali ifoda etishi mumkin. Shaxsiy kuzatuvlarimga ko'ra, bunday darslarda talabalar o'zlarini erkin, mustaqil va ijodiy his qilishadi. Ular asarlar mazmunini faqat yod olish orqali emas, balki o'z tasavvurlarini ishga solish orqali o'rganishadi. Natijada ularning nutq madaniyati, ijodiy tafakkuri va o'z fikrini asoslay olish qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usullar yordamida o'quvchilarda nafaqat adabiy bilim, balki tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham shakllanadi. Innovatsion darslar o'quvchini "tinglovchi"dan "yaratuvchi"ga aylantiradi. Ana shunday o'quvchi kelajakda nafaqat kitob o'qiydi, balki uni his qiladi, undan ilhom oladi va o'z hayotida qo'llaydi. Innovatsion usullar o'qituvchidan yangicha fikrlashni, uzluksiz izlanishni va o'z ustida ishlashni talab etadi. Chunki adabiyot darsi — bu faqat asar tahlili emas, balki o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyituvchi, ularni ezgulik va insonparvarlik ruhida tarbiyalovchi jarayondir. Shu bois, har bir adabiyot o'qituvchisi darslarini zamon talablariga mos tarzda tashkil etib, innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur. Natijada o'quvchilar adabiyot fanini chuqur o'zlashtirib, badiiy

soʻzning qudratini anglaydigan, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida kamol topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Qodirova M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. — T.: TDPU nashriyoti, 2016.
3. Xudoyberdiyeva D. Innovatsion metodlar va ularning ta'limdagi ahamiyati. — O'zMU, 2020.
4. Internet manbalari: www.edu.uz, www.ziyouz.com
5. Qurbonova M. Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: TDPU ilmiy to'plami, 2021.
6. Hasanov B. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017
7. Nurmatov A. Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
8. Shirinov X. Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish. // "O'qituvchi jurnali", 2021, №4.
9. Jalolova Z. Innovatsion pedagogika asoslari. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2019.
10. www.ziyouz.com — O'zbek adabiyoti va madaniy merosi portali.

O'ZBEK TILIDA YANGI SO'ZLARNING PAYDO BO'LISHI VA QO'LLANILISHI

MIRVAHOBOV MIRHAMID MIRZOIR O'G'LI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

mirhamid266@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida yangi so'zlarning paydo bo'lish jarayonlari va ularning qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Til taraqqiyoti jarayonida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan yangi leksik birliklarning shakllanishi, o'zlashtirilishi hamda ommalashuvi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, so'z yasash jarayonida qo'llaniladigan usullar, xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning o'zbek tilida moslashuvi va ularning kundalik hayotda qo'llanish doirasi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining boyishida yangi so'zlarning ahamiyatini ko'rsatib beradi va ularning nutq madaniyatiga ta'sirini ochib beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, yangi so'zlar, neologizm, til taraqqiyoti, globallasuv, o'zlashma, so'z yasash, internet tili, termin, qo'llanilish.

Abstract: This article analyzes the processes of the emergence of new words in the Uzbek language and their usage features. In the course of language development, the formation, adoption, and popularization of new lexical units arising from socio-political, scientific-technical, and cultural changes in society are examined. In addition, methods of word formation, the adaptation of borrowed words from foreign languages into Uzbek, and their scope of use in everyday life are discussed. The results of the study demonstrate the significance of new words in enriching the Uzbek language and reveal their impact on speech culture.

Keywords: Uzbek language, new words, neologism, language development, globalization, borrowing, word formation, internet language, terminology, usage.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы появления новых слов в узбекском языке и особенности их употребления. В ходе развития языка рассматриваются формирование, заимствование и популяризация новых лексических единиц, возникающих в результате социально-политических, научно-технических и культурных изменений в обществе. Кроме того, исследуются способы словообразования, адаптация заимствованных слов из иностранных языков в узбекском языке и сферы их применения в повседневной

жизни. Результаты исследования показывают значение новых слов в обогащении узбекского языка и раскрывают их влияние на культуру речи.

Ключевые слова: узбекский язык, новые слова, неологизм, развитие языка, глобализация, заимствование, словообразование, язык интернета, термин, употребление.

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasidir. Har qanday til taraqqiyot jarayonida yangilanib boradi. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy o'zgarishlar yangi tushunchalarni ifodalash zaruratini tug'diradi. Natijada til leksik qatlamida yangi so'zlar paydo bo'ladi va ular kundalik nutqda qo'llanila boshlaydi. O'zbek tilida ham oxirgi yillarda yangi so'zlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Texnologik taraqqiyot natijasida internet, kompyuter, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalar bilan bog'liq ko'plab so'zlar tilimizga kirib keldi. Masalan, smartfon, blogger, ilova, Ijtimoiy, siyosiy hayotdagi o'zgarishlar esa mustaqillik milliy qadriyatlar ma'naviyat istiqloli kabi yangi tushunchalarni ifodalash zaruratini tug'dirdi. Globallashuv jarayoni asosan ingliz tilidan kirib kelgan marketing biznes startap onlayn kabi so'zlarning ommalashuviga sabab bo'ldi. Madaniy aloqalar esa dizayn brend shou kabi so'zlarni hayotimizga olib kirdi.

Har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va ma'naviyati, eng avvalo, uning tilida namoyon bo'ladi. Til – jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u doimo harakatda, rivojlanish va o'zgarish jarayonida bo'ladi. Ayniqsa, bugungi kunda ilmfan, texnologiyalar, axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi tilga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat yangi so'zlarning — neologizmlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklanishi, shuningdek, xorijiy so'zlarning kirib kelishi kabi lingvistik jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy o'zbek tilida neologizmlar tobora ko'payib bormoqda. Ular nafaqat ilmiy-texnik atamalar shaklida, balki siyosat, iqtisod, madaniyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sport, moda va boshqa turli sohalarda ham keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida, internet tili va ommaviy axborot vositalarida bunday so'zlarga tez-tez duch kelamiz. Bu esa tilshunoslar oldiga ularni o'rganish, tasniflash va til normalariga mos baholash kabi dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida yangi paydo bo'lgan so'zlar, ularning yaratilish usullari, semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, og'zaki va yozma nutqda qanday qo'llanilayotgani haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, neologizmlarning adabiy til rivojidagi o'rni, ularning muqimlashuvi va jamiyat til madaniyatiga ta'siri ham chuqur tahlil qilinadi.

O'zbek tilida yangi so'zlarning yuzaga kelishiga bir nechta sabablarni keltirish mumkin. Avvalo texnologik taraqqiyot internet kompyuter sun'iy intellekt mobil texnologiyalar bilan bog'liq terminlarni hayotimizga olib kirdi. Masalan, smartfon, bloger, ilova, fayl, skrin qilish kabi so'zlar kundalik nutqda keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy siyosiy hayotdagi o'zgarishlar ham yangi tushunchalarni ifodalashga ehtiyoj tug'dirdi. Mustaqillik davrida istiqlool ma'naviyat milliy tiklanish kabi so'zlar ommalashdi. Globallashuv esa asosan ingliz tilidan kirib kelgan marketing, biznes, startap, onlayn, menedjer, kontent kabi yangi so'zlarni tilimizga olib kirdi. Madaniy aloqalar orqali esa shou dizayn brend moda kabi so'zlar kirib keldi. Yangi so'zlarning shakllanishida turli usullar mavjud. Eng avvalo o'zlashmalarni aytish mumkin, ya'ni boshqa tillardan bevosita kirib kelgan so'zlar kompyuter, sayt, biznes, laptop, internet kabi birliklar bunga misoldir. Keyingi usul so'z yasashdir, bunda mavjud so'zlarga qo'shimcha qo'shib yangi so'z hosil qilinadi. Masalan, mobil so'zidan mobilcha ilova so'zidan ilovalash. Tarjima orqali ham yangi atamalar yaratiladi, masalan, software uchun dasturiy ta'minot, e mail uchun elektron pochta, video call uchun videomuloqot. Qisqartmalar ham keng tarqalgan bo'lib, masalan, OAV IT YXHT kabi qisqa shakllar kundalik nutq va matbuotda tez ishlatilmoqda.

Yangi so'zlarning qo'llanilish xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular avvalo ommaviy axborot vositalarida keng tarqaladi. Gazetalar, televideniye, internet, nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ular tez ommalashadi. Ta'lim jarayonida esa fan va texnikaga oid yangi terminlar darslik va qo'llanmalarga kirib bormoqda. Masalan, biologiya fizika informatika darsliklarida chet tillardan olingan yangi atamalar ko'paymoqda. Kundalik hayotda ayniqsa, yoshlar nutqida yangi so'zlar faol ishlatilmoqda. Masalan, like bosmoq, skrin qilish, post joylamoq, trendga chiqmoq, follower yig'moq kabi iboralar keng tarqalgan. Rasmiy huquqiy sohada esa yangi tushunchalarni ifodalash uchun yangidan yaratilgan terminlar qo'llanmoqda.

Tilshunoslikda yangi so'zlar -neologizm deb yuritiladi. Neologizm tilda yangidan paydo bo'lgan yoki mavjud so'zlarning yangi ma'no kasb etgan shaklidir. Masalan, ilova-dastur ma'nosida ishlatilmoqda, obuna bo'lmoq esa internet orqali yangi qo'llanishga ega bo'lmoqda. Shuningdek, o'zbek tilida qadimdan mavjud bo'lgan so'zlar ham zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yangi ma'no olmoqda. Masalan, tarmoq so'zi ilgari faqat elektr yoki transport bilan bog'liq bo'lsa, hozir internet tarmog'i ijtimoiy tarmoq kabi ma'nolarda ham keng ishlatiladi.

Yangi so'zlarning ijobiy tomonlari juda ko'p. Ular tilning boyishiga xizmat qiladi, zamonaviy tushunchalarni aniq ifodalash imkonini beradi va o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlaydi. Shuningdek, ilmiy texnikaviy terminlarning

tilimizga kirib kelishi fan taraqqiyotiga ham yordam beradi. Yangi soʻzlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni global axborot makoniga yaqinlashtiradi. Biroq yangi soʻzlarning salbiy jihatlari ham mavjud. Chet tillardan oʻzlashmalar haddan tashqari koʻpligi milliy soʻzlarni siqib chiqarishi mumkin. Masalan, onlayn oʻrniga masofaviy soʻzi mavjud boʻlsa ham koʻpchilik xorijiy variantdan foydalanadi. Bu esa tilning sofligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Baʼzan bir tushunchani ifodalash uchun bir necha muqobil soʻzlar mavjud boʻlsa ham odamlar oʻzlashmalarga murojaat qiladi. Natijada, milliy lugʻat boyligi ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Shu sababli yangi soʻzlarni qabul qilish va ommalashtirish jarayonida muvozanatni saqlash zarur.

Oʻzbek tilida yangi soʻzlarning paydo boʻlishi tabiiy jarayon boʻlib, jamiyat hayotidagi oʻzgarishlar ilmiy texnikaviy taraqqiyot va globallashtirish bu jarayonni tezlashtirmoqda. Yangi soʻzlar oʻzbek tilining boyishida muhim rol oʻynaydi, zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkonini kengaytiradi va tilning xalqaro mavqeini mustahkamlaydi. Shu bilan birga ularning oqilona qoʻllanilishi milliy xususiyatlarni asrab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tilshunos olimlar atamalar komissiyasi taʼlim tizimi va ommaviy axborot vositalari bu jarayonni muvofiqlashtirib borishlari lozim. Tilning rivojlanishi millatning rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgani uchun yangi soʻzlarni qabul qilishda ehtiyotkorlik va milliy manfaatlarini inobatga olish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy oʻzbek tilida yangi soʻzlar paydo boʻlishi tabiiy va doimiy jarayondir, bu tilning yashovchanligi, moslashuvchanligi va rivojlanayotgan kommunikativ ehtiyojlarga javob bera olish salohiyatidan dalolat beradi. Yangi soʻzlarning aksariyati xorijiy tillardan, ayniqsa ingliz tilidan oʻzlashtirilmoqda, bu esa global madaniyatning taʼsiri kuchli ekanini koʻrsatadi. Neologizmlar koʻpincha ijtimoiy tarmoqlar va internet tili orqali keng tarqalmoqda, bu esa ularning ommalashuv tezligini oshiradi, lekin adabiy til meʼyorlariga zid holatlar ham uchramoqda. Tilshunoslikda yangi soʻzlarni tizimlashtirish, ularning maʼno va shakllarini tahlil qilish, lugʻaviy jihatdan normallashtirish boʻyicha izchil ish olib borilishi zarur. Oʻzbek tilining zamonaviy lugʻatini tuzishda yangi soʻzlar va iboralarni alohida guruh sifatida kiritish lozim, bu ularning rasmiy til resurslarida tan olinishi va toʻgʻri qoʻllanishini taʼminlaydi. Neologizmlarni oʻzlashtirishda milliy tilning ichki qonuniyatlariga mos holda moslash va ekvivalent yaratishga eʼtibor berish zarur, bu holatda notoʻgʻri va begona fonetik birliklar oldi olinadi.

Yoshlar orasida keng qoʻllanilayotgan yangi soʻz va iboralarni tahlil qilib, ularning maʼnaviy-estetik qiymatini aniqlash orqali til madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan shakllarni ommalashtirish tavsiya etiladi. Ommaviy axborot

vositalari, bloggerlar va kontent yaratuvchilarga yangi soʻzlarni adabiy til meʼyorlariga mos ravishda qoʻllash boʻyicha tavsiyalar berish, maxsus qoʻllanmalar tayyorlash zarur. Ushbu tadqiqot zamonaviy oʻzbek tilining leksik taraqqiyot jarayonlarini yoritishda, shuningdek, neologizmlarning til normalariga mosligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa:

Oʻzbek tilida yangi soʻzlarning paydo boʻlishi, jamiyat rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq tabiiy jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy siyosiy oʻzgarishlar ilmiy texnikaviy taraqqiyot globallashtirish jarayoni hamda madaniy aloqalar natijasida tilimizda neologizmlar koʻpayib bormoqda. Ular bir tomondan tilning boyishini taʼminlaydi, zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatini kengaytiradi va xalqaro miqyosda oʻzbek tilining mavqei mustahkamlaydi. Boshqa tomondan esa ortiqcha oʻzlashmalar milliy soʻzlarni siqib chiqarishi va tilning sofligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu bois yangi soʻzlarni qoʻllash jarayonida milliylik va zamonaviylik oʻrtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. Tilshunos olimlar taʼlim tizimi va ommaviy axborot vositalari bu borada muvofiqlashgan holda faoliyat yuritishi zarur. Yangi soʻzlarning oqilona va meʼyorida qoʻllanilishi oʻzbek tilining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Oʻzbek tilining soʻz yasalihi. Toshkent, 1985
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992
3. Solijonov A. Oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2018
4. Joʻraev N. Zamonaviy oʻzbek tili va yangi leksik birliklar. Toshkent, 2020
5. Karimov N. Oʻzbek tilida yangi soʻzlar va ularning semantik xususiyatlari. Toshkent, 2021
6. Yusupova Z. Internet tili va oʻzbek tiliga taʼsiri. Toshkent, 2022
7. Nurmatov H. Yangi soʻzlar: muammo va yechimlar. Toshkent, 2020

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDAGI TAQLID SO'ZLARNING QIYOSIY TAHLILI

ULASHOVA SEVINCH ORTIK QIZI

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti talabasi

Tel: +998(94) 626 08 17

Email: ulashevasevinch@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'zlovchining hissiy holati va tabiatdagi mavjud tovush-harakatlarni ifodalashda asosiy birlik bo'lgan taqlid so'zlar haqida gap boradi. Koreys va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan taqlid so'zlarni o'zaro o'xshash va farqli tomonlari haqida ochib beriladi. Bu orqali ushbu tillarni o'rganuvchilar uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan muammolari va oson bo'lishi mumkin bo'lgan qismlarini ham anglash mumkin.

Анотация: В данной статье рассматриваются звукоподражательные слова, которые являются основными единицами, выражающими эмоциональное состояние говорящего и звуки или движения, существующие в природе. Раскрываются сходства и различия между оноματοпоэтическими словами, существующими в корейском и узбекском языках. Через это можно понять возможные трудности и облегчения, с которыми могут столкнуться изучающие эти языки.

Annotatsion: This article discusses onomatopoeic words, which are the main linguistic units used to express the speaker's emotional state and the sounds or movements found in nature. It explores the similarities and differences between onomatopoeic words in Korean and Uzbek. Through this, it becomes possible to understand the potential difficulties and ease that learners of these languages may experience.

Kalit so'zlar: taqlid so'zlar, jonli-jonsiz, harakat-holat obrazi, onomatopeya, bo'g'in, tovush, takroriy, yakka

Ключевые слова: звукоподражательные слова, одушевлённое и неодушевлённое, образ движения и состояния, оноματοпея, слог, звук, повторяющийся / редупликативный, одиночный / единичный

Keywords: onomatopoeic words / mimetic words, animate and inanimate, image of movement and state / depiction of action and state, onomatopoeia, syllable, sound, repetitive / reduplicative, single / individual

Har bir tilni o'rganishda so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib yoki so'zning tasnifi orqali o'rganamiz. Har bir chet tilidagi so'z nafaqat, bizni o'sha tilda fikrimizni erkin ifodalashda yordam beradi, balki bizga o'sha xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va dunyoni idrok etish tarzini ham o'rgatadi. So'zlar orasida eng jonli va ifodaviy birlik - taqlid so'zlar hisoblanadi.

Taqlid so'zlar¹⁴ — ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, alohida guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlididan ifodalovchi so'zlar.

Koreys tilida esa ular **의성어** - tovushni ifodalovchi so'zlar va **의태어** — holat yoki harakatni ifodalovchi so'zlarga bo'linadi.

O'zbek tilidagi taqlid so'zlarining o'ziga xosliklari: O'zbek tilida taqlid so'zlarning 2 turi farqlanadi: tovushga taqlidni bildiradigan so'zlar (shuningdek **onomatopeya** deb ham ataladi); obraz (tasvir)ga taqlidni bildiradigan so'zlar. Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan, obrazga taqlid so'zlar ko'rish bilan aloqadordir, ya'ni tovushga taqlid so'zlar ifodalagan tovushni faqat eshitish mumkin (*qars-qurs, taq, duk-duk, g'iyq, miyov* kabi); obrazga taqlid so'zlar ifodalagan holat, harakatni faqat ko'rish mumkin (*jivir-jivir, lip-lip, yalt-yult, hang-mang* kabi). Tilshunos olimlar U.Tursunov va J.Muxtorov (1960: 189-191)larning ta'kidlashicha, boshqa tillardagidek o'zbek tilidagi taqlid so'zlar **takroriy** va **yakka** so'zlardan tashkil topganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilidagi yakka (takrorlanmas) taqlid so'zlar: bu faqat bitta mustaqil birlikdan tashkil topgan taqlid so'zlar hisoblanib, ular 3-xil turda farqlanadi.

1-tur – faqat bir bo'g'indan tashkil topgan taqlid so'zlar bo'lib, bunday so'zlar asosan birdaniga yoki qisqa vaqt ichida eshitaladigan tovushlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu sababli ular davomiylikni emas, balki to'satdan paydo bo'lish hissini beradi. Bunday so'zlarga misol, **Huh, Fu, Tfu** kabilarni keltirish mumkin.

- Cheolsu chaynab turgan saqichini “tfu” deb tashladi.¹⁵

Ushbu misolda **“Tfu”** so'zi tupurish tovushini bildiradi. O'zbek tilidagi “tfu” koreys tilidagi **“튀”** so'zlari ma'nosi va talaffuzi jihatidan o'xshash, shuningdek, **bir bo'g'inli bo'lishi** bilan ham o'zaro umumiylikka ega.

¹⁴ Taqlid so'zlar - Vikipediya

¹⁵ <https://www.riss.kr/link?id=T15694411> 한국어·우즈베크어 의성어 대조 연구 = A Contrastive Study on

Onomatopoeia between Korean and Uzbek

2-tur – bu turdagi taqlid soʻzlar odatda, **takrorlanmagan ikki boʻgʻinli** shaklda boʻladi, biroq baʼzan uch yoki toʻrt boʻgʻinli shakllarda ham uchraydi. Bunga oʻzbek tilidagi **apshu, bilq** soʻzlari misol boʻladi.

-Kichkina baliqchalar koʻlga qurbaqaga oʻxshab **“bilq”** qilib sakrab tushishdi.

Ushbu misolda **“bilq”** ogʻir narsa suvga tushganda chiqadigan tovushni bildiradi. Bu soʻz koreys tilidagi oʻxshash maʼnoli ikki boʻgʻinli taqlid soʻzlar bilan struktura jihatidan oʻxshash.

3-tur – Oʻzbek tilida faqat undosh tovushlardan tashkil topgan soʻzlar ushbu 3-turgan mansub boʻladi. Masalan, **Tshsh, Hm** kabilaridir.

-Tshsh, jim!

Yuqoridagi misolda **“tshsh”** – odamni jim turishga undaydigan maʼnoda qoʻllaniladi.

Oʻzbek tilidagi takroriy taqlid soʻzlar: Takroriy taqlid soʻzlar nafaqat oʻzbek tilida, balki boshqa koʻpgina tillarda ham takrorlanmas taqlid soʻzlarga nisbatan koʻproq ishlatiladi. Oʻzbek tilida soʻz ildizining (asosining) takrorlanishi odatda ikki maqsadda qoʻllaniladi:

1. Grammatik maʼnoni kuchaytirish uchun,
2. Leksik (soʻzning oʻziga xos) maʼnoni kuchaytirish uchun.

Oʻzbek tilida bir boʻgʻinli takroriy taqlid soʻzlar har doim tire (-) bilan ajratib yoziladi. Ular asosan, AA va AAA shakl koʻrinishida uchraydi. Bularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

“Vov-vov”, “mu-u”, “ding-dong”, “dr-r-r” va boshqalar.

-Mashinaning **dr-r-r** degan tovushi eshitildi.

Misolda **dr-r-r** degan taqlid soʻz yirik buyumning qattiq joyda gʻildirab yurish ovozi bildiradi. Bu turdagi taqlid soʻzlar har ikki tilda talaffuzi oʻxshash.

Koreys tilidagi taqlid soʻzlarining oʻziga xosliklari: Koreys tilidagi taqlid soʻzlar oʻzbek tiliga oʻxshash **yakka (단독형)** va **takroriy (반복형)** shakllarga boʻlinadi. Bu ikkala shaklni taqqoslab koʻrsak, koreys tilida ham takroriy taqlid soʻzlar koʻproq va taʼsirchanroq hisoblanadi. Taqlid soʻzlarni chuqur tahlil qilganda, ularni yakka va takroriy shakllarga ajratish orqali maʼno kuchaytirish funksiyasini bajaradi.

Koreys tilidagi takroriy taqlid soʻzlar: Koreys tilida takroriy taqlid soʻzlar **toʻliq takrorlanuvchi shakl (전체 반복형)** va **qisman takrorlanuvchi shakl (부분반복형)**ga boʻlinadi. Bu ajratish soʻz butunlay takrorlanadimi yoki faqat bir qismi takrorlanadimi degan mezonga asoslanadi.

To'liq takrorlanuvchi shakl (전체 반복형) yana bir xil tovush takrorlanuvchi (**동음반복형**) va o'zgaruvchi tovush takrorlanuvchi (**유음반복형**) shakllariga bo'linadi.

• **Bir xil tovush takrorlanuvchi (동음반복형)**: Bunday taqlid so'zlarda so'z shakli butunlay takrorlanadi. Bo'g'in soniga ko'ra:

1 bo'g'inli: 꿀꿀 – “xo-xo” (cho'chqaning tovushi), 멍멍-“vov-vov” (itning hurishi)

2 bo'g'inli: 개굴개굴 - “qur-qur” (qurbaqaning ovozi), 찰랑찰랑 - “shovullash, shaldir-shaldir” (suv tebranishi tovushi yoki holati)

3 bo'g'inli: 그르렁그르렁 – “g'uvillashi” (yo'lbars yoki mushukning g'azabli holatida chiqaradigan tovushi), 달카닥달카닥 – “dug-dug” (otning oyoq tovushi)

• **O'zgaruvchi tovush takrorlanuvchi (유음반복형)** esa unli almashinuvi, undosh almashinuvi yoki butun bo'g'in almashinuvi orqali hosil bo'ladi.

Qisman takrorlanuvchi shakllarga (부분반복형) esa 닥다그르르, 데구루루, 드르륵 kabi so'zlar misol bo'ladi.

Koreys tilidagi yakka (takrorlanmas) taqlid so'zlar: Takrorsiz shakllar kamroq bo'lsa-da, aniq,qisqa tovushni bildiradi. Bunga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

1. 1 bo'g'inli (A형): 깉-“qars” (keskin,qisqa tovush: nimanidir sindirganda yoki urilganda chiqadigan tovush) ,뽕-“piq” (mashina signal tovushi), 툅 – “taq” (narsaning urilishi yoki tegishi natijasida chiqadigan qisqa, tiniq tovush)

2. 2 bo'g'inli (AB 형):꿀걱- “g'ulp” (yutish taqlid so'zi), 딸랑-“jing” (kichik qo'ng'iroq tovushi), 풍덩 – “gup” (og'ir narsa suvga tushgandagi yovush)

3. 3 bo'g'inli (ABC 형): 꼬끼오- “ququq” (xo'rozning qichqirig'i), 달그락 – “qars-qurs” (kichik narsalarning bir-biriga tegish tovushi), 푸드득 – “parr” (qush qanot qoqish tovushi)

4. 4 bo'g'inli (ABCD 형): 완자지겔 – “shovqin-suron bilan” (ko'p odamlar yig'ilgandagi shovqin tovushi), 웅덩그렁 – “jarang-jurung” (temir buyumlarning urilishi yoki shovqini)

Misol:

- 아가씨들이 **완자지겔** 전라도 사투리 흥내를 내기 시작했다.

(Qizlar g'ala-g'ovur qilib, Cholla shevasini taqlid qila boshlashdi.)

Ushbu misoldagi «**완자지겔**» taqlid so'zi ko'plik va shovqinli atmosferani bildiradi. Bu so'z faqat ko'p sonli subyekt bilan ishlatiladi, chunki bu tovush bir odamdan chiqmaydi. Semantik jihatdan bu taqlid so'z “jamoaviy shovqin”, “hissiyotga oid harakat”ni bildiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, har ikkala tilda mavjud bo'lgan taqlid so'zlar tilning o'ziga xos milliy ruhini aks ettiruvchi, ifoda imkoniyatlarini boyituvchi lingvistik hodisa hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek va koreys tillaridagi taqlid so'zlarning fonetik, sematik hamda madaniy jihatlari tahlil qilinib, har ikkala tilda ham taqlid so'zlar til tizimida muhim uslubiy vosita bo'lib, so'zlovchining hissiy holatini va tabiatdagi tovush-harakatlarni jonli ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi. O'zbek va koreys tillarida mavjud bo'lgan taqlid so'zlar takroriy yoki yakka shakllariga ko'ra o'xshasa-da, ayrim taqlid so'zlarni ifodalanishi tubdan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 강헌규(1968ㄱ), 「음성 상징과 어휘확장 연구」, 서울대학교 교육대학원 석사학 위논문.
2. 강헌규(1968ㄴ), 「음성 상징과 sense 및 meaning 분화에 의한 어휘확장 연구」, 한국국어교육연구회
3. 강항비(2013), 「한국어 교육용 의성어-의태어의 목록 선정과 교육 내용 연구」, 경희사이버대학교 문화창조대학원 석사학위논문.
4. Кононов А.Н. (1960), Грамматика современного узбекского литературного языка. М.Л

5. Қўнғуров Р. (1960), Ўзбек тилида тақлидий сўзлар ҳақида баъзи мулоҳазалар.
6. Қўнғуров Р. (1961), Ўзбек тилида тақлидий сўзларнинг ўрганилиш ҳақида. А дабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. Тошкент.

TIL O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

YO'LDOSHOV BEHRUZ HUSAN O'G'LI

Bakalavr, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Turizm fakulteti

E-mail: behruzyoldoshev320@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada til o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va integratsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Unda interaktiv vositalar, onlayn platformalar hamda turizm sohasi bilan bog'liq misollar orqali til ta'limini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, integratsiya, til o'qitish, innovatsiya, turizm.

Abstract

This article highlights the effectiveness of using digital technologies in language teaching and the importance of integrative approaches. It presents methods of improving language education through interactive tools, online platforms, and examples related to the tourism sector.

Keywords: digital technologies, integration, language teaching, innovation, tourism.

Аннотация

В данной статье рассматривается эффективность использования цифровых технологий в преподавании языка и важность интегративных подходов. Представлены методы совершенствования языкового образования с помощью интерактивных инструментов, онлайн-платформ и примеров из сферы туризма.

Ключевые слова: цифровые технологии, интеграция, преподавание языка, инновации, туризм.

Kirish

Umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish jarayoniga raqamli platformalarni integratsiya

qilish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan atroflicha yoritilgan. Xususan, raqamli ta'lim texnologiyalarining chet tilini o'qitishdagi didaktik va texnologik imkoniyatlari, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish asoslari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli platformalar orqali o'quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish borasidagi tajriba va kuzatuvlar

bayon etilgan. Shuningdek, raqamli platformalarni tatbiq etish mexanizmlari, pedagogik jarayonga moslashtirilgan amaliy modellar, samaradorlikni baholash usullari va mezonlari chuqur o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli platformalarni chet tili ta'limiga integratsiya qilishda uchraydigan dolzarb muammolar va ularning yechim yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Yakunda esa ta'lim jarayonini raqamlashtirishning istiqbollari, o'qituvchining roli va raqamli pedagogikaning zamonaviy tendensiyalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bugungi globallashuv davrida til o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning kasbiy tayyorgarligini ham kuchaytiradi [2].

Asosiy qism

Til o'qitishda integratsion yondashuv boshqa fanlar bilan uyg'unlikda ta'lim berishni nazarda tutadi. Masalan, turizm sohasi talabalari xorijiy tilni o'rganishda geografiya, tarix va madaniyat bilan bog'liq misollar orqali bilimlarini boyitishlari mumkin [3]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, onlayn lug'atlar va virtual sayohat platformalari kabi vositalardan foydalanish talabalarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi [4].

1. Raqamli texnologiyalar tilda o'qitishda

Bu bo'lim til o'rgatish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Multimedia vositalari: audio, video, animatsiyalar, interaktiv darsliklar.

Mobil ilovalar: Duolingo, Memrise, Babbel, Quizlet.

Virtual o'rganish platformalari: Google Classroom, Moodle, Edmodo, MS Teams.

Sun'iy intellekt asosidagi ilovalar: ChatGPT, Grammarly, Reverso.

AR/VR texnologiyalari: Virtual haqiqat yordamida til o'rganish muhiti yaratish.

2. Integratsion yondashuvlar

Integratsion yondashuv — bu til o'rganishni boshqa fanlar yoki ko'nikmalar bilan birgalikda olib borish demakdir.

Turlari:

CLIL (Content and Language Integrated Learning): Mavzuni va tilni birgalikda o'rgatish. Masalan, biologiya darsini ingliz tilida o'rganish.

STEAM + til: Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani til o'qitish bilan uyg'unlashtirish.

Fanlararo loyihalar: Til o'rganish orqali boshqa fanlarda ham faoliyat yuritish (masalan, "Ekologiya" mavzusida ingliz tilida loyiha qilish).

Ijtimoiy-madaniy integratsiya: Til o'rganish orqali boshqa madaniyatlar va jamiyatlar haqida bilim olish.

Afzalliklari:

Tilni kontekstda o'rganish

Tanqidiy va tizimli fikrlashni rivojlantirish

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish

XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish (kommunikatsiya, hamkorlik, texnologiyadan foydalanish)

Integratsion ta'lim uslubi nafaqat tilni samarali o'rgatadi, balki talabalarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun alohida ahamiyat kasb etadi [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, til ta'limida raqamli texnologiyalar va integratsion yondashuvlardan foydalanish kelajak mutaxassislar uchun zaruriy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur tajribalarni yanada rivojlantirish orqali ta'lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov A. Til o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Jo'raqulov M. Raqamli ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
3. Karimov B. Modern Approaches to Language Teaching. – Tashkent: Science and Education, 2022.
4. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.
5. Warschauer M. Technology and Language Learning: Trends and Issues. – Language Teaching, 2017.

INTEGRATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACHES IN TOUR GUIDING AND INTERPRETATION TRAINING

SAYDAMXO'JAYEVA MARJONAXON RAVSHAN QIZI

Chirchik State Pedagogical University

Tour Guide and Translation Activities Department

4rd-year Student

E-mail:

Abstract: In the article below, the importance of integrative language teaching methods in training tour guides and interpreters is examined. It highlights the necessity of integrating professional, linguistic, and cultural abilities to satisfy the expectations of the travel and tourist sector. The study presents ways for improving communicative ability, examines the theoretical underpinnings of integrative methods, and investigates their use in educational settings. The findings demonstrate the value of integrative methods in training professional and culturally aware tour guide-interpreters.

Key words: Integrative language teaching, tour guiding, interpretation training, communicative competence, intercultural communication, tourism education, professional skills.

Annotatsiya: Ushbu maqolada gid va tarjimonlarni tayyorlashda integrativ til o'qitish usullarining ahamiyati tahlil qilinadi. Unda turizm va sayohat sohasining talablarini qondirish uchun kasbiy, lingvistik va madaniy ko'nikmalarni integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqot kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi, integrativ usullarning nazariy asoslarini tahlil qiladi va ularning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishini o'rganadi. Natijalar integrativ usullarning madaniy jihatdan ongli va kasbiy gid-tarjimonlarni tayyorlashdagi ahamiyatini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Integrativ til o'qitish, gidlik, tarjimonlik tayyorlash, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, turizm ta'limi, kasbiy ko'nikmalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение интегративных методов преподавания языка в подготовке гидов и переводчиков. Подчеркивается необходимость интеграции профессиональных, лингвистических и культурных навыков для удовлетворения требований туристической сферы. В исследовании представлены способы совершенствования коммуникативных умений, анализируются теоретические основы интегративных методов и изучается их применение в образовательных

процессах. Результаты демонстрируют ценность интегративных подходов в подготовке культурно грамотных и профессиональных гидов-переводчиков.

Ключевые слова: Интегративное обучение языку, экскурсоведение, подготовка переводчиков, коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация, обучение туризму, профессиональные навыки.

INTRODUCTION

One of the most active and quickly growing industries in the age of globalization is tourism, which calls for experts with strong language and international communication skills. Language learning is most effective when learners are actively involved in meaningful communication, integrating various skills rather than studying isolated structures. [1] Interpreters and tour guides act as cultural bridge builders, assisting individuals from various linguistic and cultural backgrounds. Their training must therefore incorporate professional, linguistic, and cultural abilities in addition to standard language instruction. An efficient framework for fulfilling these demands is provided by integrative language teaching methodologies. By integrating language proficiency with hands-on instruction, cultural awareness, and professional jargon, these methods guarantee that students gain both communicative proficiency and the capacity to adjust to a variety of cross-cultural situations. Integrative approaches greatly improve students' readiness for real-world scenarios in tourism and interpreting, according to recent studies.

The purpose of this research is to examine the theoretical underpinnings of integrative language education, investigate its use in training tour guides and interpreters, and suggest useful tactics for enhancing the future experts' professional abilities. Incorporating real-life tasks and professional contexts in language teaching helps students develop practical competence, preparing them for authentic communication in their careers. The results demonstrate how important integrative approaches are in training capable, culturally sensitive, and qualified tour guide-interpreters.

MAIN BODY

Task-based learning, content-based instruction, and communicative language teaching are the cornerstones of integrative language teaching. Integrative approaches combine linguistic competency with cultural awareness and professional skills, in contrast to traditional methods that primarily focus on grammar and vocabulary. In the context of tour guiding and interpretation, this entails training students to employ

professional terminology while communicating successfully across cultural boundaries in addition to using language correctly. Future specialists are guaranteed to be adaptable, capable, and culturally aware with such a comprehensive approach.

Interactive speaking exercises, role-plays, simulations, and problem-solving exercises that mimic actual tourism situations are used in practice to implement integrative approaches. Students can, for example, lead a group of foreign guests, provide interpretation during a cultural outing, or help people communicate in multilingual settings. Theory and practice are connected through the use of real materials like brochures, museum guides, and audiovisual elements. Simultaneously, translation and interpretation exercises foster the development of critical abilities such as learning terminology, taking notes and listening, and accurately translating meaning between languages. Effective language teaching combines knowledge of linguistic structures with strategies that promote interaction, critical thinking, and cultural awareness.

Significant benefits of the integrative method include increased professional preparedness, higher intercultural sensitivity, and improved communicative skills. Pupils who have received training using these techniques exhibit greater assurance when managing a variety of visitor groups and facing unforeseen difficulties. However, a number of barriers hamper its efficacy, including limited access to real-world training opportunities, a lack of specialized instructional materials, and inadequate technology resources. To overcome these obstacles, academic institutions, travel agencies, and linguists must work closely together. Modern technology, such as online interpretation tools and virtual tours, can further enhance the training process and increase the efficacy of integrative approaches in producing tour guide-interpreters who are professional and sensitive to cultural differences.

Intercultural competency is also emphasized in tour guiding and interpretation through integrative teaching. As cultural mediators, tour guides and interpreters need to be familiar with the values, traditions, and practices of various countries in addition to their native tongue. This enables them to communicate effectively and respectfully while avoiding misunderstandings. Increasing learner autonomy and motivation is another advantage of integrative training. Students may clearly perceive the connection between language learning and their future employment when they plan itineraries, provide interpretation at mock events, or lead virtual tours. They are motivated to take ownership of their development by this significance. Lastly, integrated learning is supported by technology.

Using guided speaking tasks and interpretation activities enables students to apply language skills in real contexts, fostering both professional and intercultural competence. Integrative methods also help students develop their critical thinking and problem-solving abilities. Students learn how to deal with unforeseen circumstances, like cultural issues or communication barriers, through role plays or case studies. This gets them ready for the reality of the workplace, where flexibility and fast decision-making are crucial.

Lastly, integrated learning is supported by technology. Realistic practice opportunities are produced by tools like multimedia resources, translation software, and virtual excursions. These techniques not only bring training up to date but also get students ready for the digital needs of the travel and tourism sector. Realistic practice opportunities are produced by tools like multimedia resources, translation software, and virtual excursions. These techniques not only bring training up to date but also get students ready for the digital needs of the travel and tourism sector.

CONCLUSION

In conclusion, the efficient training of tour guides and interpreters depends heavily on integrative language teaching techniques. Through the integration of language, professional, and cultural competencies, these methods guarantee that students are prepared to fulfill the demands of the travel and tourist sector. In addition to improving communication skills, integrative training fosters motivation, problem-solving skills, and multicultural awareness. It is therefore a crucial route to training competent, self-assured, and culturally aware tour guiding and interpretation specialists.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th). Pearson Education.
2. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Snow, M. A. (2014). *Teaching English as a Second or Foreign Language* (4th ed.). National Geographic Learning.
3. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching* (3rd ed.). Oxford University Press.
4. Raxmatullayeva, N. N. R. (2024). Teaching English with the help of speaking to students with the accompaniment of a guide and interpretation activity. *Academic Research in Educational Sciences*, 5(CSPU Conference 1 Part 1), 149–152. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=14891550366375091105&btnI=1&hl=en>

LANGUAGE LOSS AND CULTURAL IDENTITY IN THE GLOBAL ERA

MASHHURA XONKELDIYEVA JALOLIDDIN QIZI

Chirchik State Pedagogical University

Tour Guide and Translation Activities Department

4rd-year Student

mashhura9966@gmail.com : +998991704605

Scientific Supervisor: Iskandar Baxodirovich Sharofutdinov,

Lecturer, Tourism Faculty, CHDPU

Abstract: This article examines the phenomenon of mother tongue attrition and its impact on cultural identity in the context of globalization and migration. It focuses on how the shift to dominant languages, such as English, influences the linguistic and cultural practices of immigrant communities. The study explores the social and psychological factors contributing to language loss, as well as the consequences of this loss for individuals' sense of belonging and cultural heritage. Using a mixed-methods approach, this research draws on qualitative interviews and quantitative surveys to assess the relationship between language loss and cultural identity. The findings suggest that mother tongue attrition leads to a weakening of cultural ties, particularly among younger generations, and calls for efforts to preserve linguistic diversity and promote bilingualism.

Keywords: mother tongue attrition, cultural identity, language loss, globalization, migration, bilingualism, immigrant communities, language shift, sociolinguistics.

Аннотация : Данная статья исследует явление утраты родного языка и его влияние на культурную идентичность в условиях глобализации и миграции. Внимание уделяется тому, как переход на доминирующие языки, такие как английский, влияет на языковые и культурные практики иммигрантских сообществ. Исследование рассматривает социальные и психологические факторы, способствующие утрате языка, а также последствия этой утраты для чувства принадлежности и культурного наследия индивидов. С использованием смешанных методов, данное исследование основывается на качественных интервью и количественных опросах для оценки взаимосвязи между утратой языка и культурной идентичностью. Результаты исследования показывают, что утрата родного языка ослабляет культурные связи, особенно среди молодого

поколения, и подчеркивается необходимость усилий по сохранению языкового разнообразия и продвижению билингвизма.

Ключевые слова: утрата родного языка, культурная идентичность, потеря языка, глобализация, миграция, билингвизм, иммигрантские сообщества, языковой сдвиг, социолингвистика.

INTRODUCTION

In the global era, language loss, or mother tongue attrition, has become a pressing concern as communities worldwide face the challenges of globalization, migration, and cultural integration. The shift towards dominant global languages, such as English, often leads to the gradual decline or complete loss of native languages. This phenomenon, while rooted in sociolinguistic factors, has profound implications for cultural identity. As individuals adopt new languages, they often experience a disconnection from their cultural roots, leading to a potential erosion of cultural identity. This research explores the relationship between mother tongue attrition and cultural identity, focusing on the impact of language loss on both individuals and communities. The objective of this study is to investigate how the loss of a native language affects individuals' sense of belonging and their ability to connect with their cultural heritage. The paper seeks to answer the following research questions: What are the key social and psychological factors contributing to mother tongue attrition? How does the loss of a mother tongue impact cultural identity? What are the long-term consequences of language attrition on cultural preservation?

LITERATURE REVIEW

Mother tongue attrition refers to the gradual loss of proficiency in one's first language, typically resulting from the dominance of a second language. Studies have shown that this process is often accelerated by migration and the need to assimilate into a new linguistic and cultural environment. Fishman (1991) argues that language loss is closely tied to the erosion of cultural identity, as language serves as a key carrier of cultural practices, values, and collective memory. In immigrant communities, second-generation individuals are particularly susceptible to language shift, as they are exposed to the dominant language of the host country from an early age (Baker, 2006). The shift to the dominant language often leads to reduced usage of the mother tongue, particularly among younger generations. This phenomenon is not limited to immigrant communities; even in indigenous populations, the pressure to adopt a global language has led to language decline and the loss of cultural identity. Research on globalization and language shift indicates that the spread of global languages, such as English, has a

profound impact on linguistic diversity. Globalization promotes economic and social integration, but it also accelerates the extinction of minority languages and cultural traditions (Eriksen, 2007; Sasse, 2002). Therefore, understanding the dynamics of language loss is critical for addressing the broader implications for cultural preservation in a globalized world.

METHODOLOGY

This study adopts a mixed-methods approach, combining both qualitative and quantitative research techniques to examine the relationship between language loss and cultural identity. Qualitative methods, such as semi-structured interviews, were used to gather in-depth insights from individuals who have experienced mother tongue attrition. These interviews focused on the personal narratives of second-generation immigrants who were raised in an environment where the dominant language prevailed. Additionally, surveys were conducted to gather quantitative data on language use and cultural self-perception within immigrant communities. The participants of this study were selected from diverse immigrant populations, with a particular focus on second-generation youth in the United States. Data were collected through interviews with 30 participants aged 18-25, and surveys were distributed to 200 individuals across different age groups. The data were analyzed using thematic analysis for the qualitative data, allowing for the identification of key themes related to language attrition and cultural identity. The quantitative survey results were analyzed using statistical methods to identify patterns in language shift and its impact on cultural identity.

RESULTS

The results of the study reveal a clear link between mother tongue attrition and the weakening of cultural identity. In the case of second-generation immigrants, a significant proportion of participants reported using the dominant language (e.g., English) at home, with 70% of respondents from Mexican immigrant families in California stating that they spoke predominantly English. This shift was particularly pronounced in younger participants, aged 18-25, who expressed a stronger connection to American culture and language than to their ancestral Mexican heritage. Many participants reported that they felt disconnected from their cultural roots due to their limited proficiency in Spanish, the language spoken by their parents. One interviewee explained: "I feel like I'm stuck between two worlds. I can't speak Spanish fluently, and my connection to my parents' culture feels distant." The survey results further confirmed that 60% of respondents believed that language loss negatively affected their

understanding and appreciation of their cultural heritage. Additionally, 45% of respondents felt that their cultural identity was less distinct, and they identified themselves as "caught between cultures." These findings highlight the significant role that language plays in shaping individuals' sense of cultural belonging and self-identity.

CONCLUSION

In conclusion, this study underscores the profound impact of mother tongue attrition on cultural identity in the context of globalization and migration. The findings reveal that as immigrants and their descendants shift towards dominant languages, particularly English, there is a noticeable decline in proficiency and use of the mother tongue, which in turn affects their cultural practices and social integration. However, the relationship between language loss and cultural identity is not linear; while some individuals experience a diminished sense of cultural belonging, others manage to retain a strong connection to their heritage despite linguistic attrition. This highlights the complex interplay between language, culture, and identity, where factors such as community support, education, and personal commitment play crucial roles in maintaining cultural ties. Moreover, the study advocates for the importance of bilingualism and language preservation as essential strategies to safeguard cultural identity in an increasingly globalized world. Efforts should be made to promote multilingual education, raise awareness about the value of linguistic diversity, and create environments where minority languages can thrive. Ultimately, maintaining linguistic diversity is not only crucial for cultural preservation but also for fostering social cohesion and enhancing cross-cultural understanding in diverse societies.

REFERENCES

1. Fishman, J. A. Reversing Language Shift: Theoretical and Empirical Foundations of Assistance to Threatened Languages (1991). Multilingual Matters.
2. Baker, C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism (2006). Multilingual Matters.
3. Crystal, D. Language Death (2000). Cambridge University Press.
4. De Groot, A. M. B. Language and Cognition (2006). Psychology Press.
5. Grosjean, F. Bilingual: Life and Reality (2010). Harvard University Press.
6. Trudgill, P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society (2000). Penguin Books.
7. Kouritzin, S. Mother Tongue and Cultural Identity: The Importance of First Language in a Globalized World (2005). Springer.

8. Padilla, A. M., & Lindholm, K. Language, Identity, and Social Change (1994). Lawrence Erlbaum Associates.
9. Fishman, J. A. The Sociology of Language (1972). Newbury House Publishers.
10. Spolsky, B. Language Policy (2004). Cambridge University Press.

MIR ALI TABRIZI AND THE CREATION OF NASTA'LIQ SCRIPT

ERKINBOYEVA SARVINOZ BEKZOD QIZI

Student of Chirchik State Pedagogical University,

The Faculty of Tourism,

majoring in Tour Guiding and Translation studies

erkinboyevao5o7@gmail.com

Annotation: This article explores the life and works of the famous poet and calligrapher Mir Ali Tabrizi, the history of the creation of the 'Nasta'liq' script, its significance in Eastern calligraphy, as well as its research and prospects for development.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur shoir va xattot Mir Ali Tabriziyning hayoti va ijodi, 'nasta'liq' yozuvining yaratilish tarixi, uning Sharq xattotligidagi o'rni, tadqiq qilinishi va rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творчество известного поэта и каллиграфа Мира Али Табризи, история создания письма «насталика», его место в восточной каллиграфии, изучение и перспективы развития.

Key words: calligrapher, Mir Ali Tabrizi, Nasta'liq, Sultan Ali Mashhadi, manuscript, script styles, Eastern calligraphy

Kalit so'zlar: xattot, Mir Ali Tabriziy, Nasta'liq, Sultonali Mashhadiy, qo'lyozma, xat turlari, Sharq xattotligi

Ключевые слова: каллиграф, Мир Али Табризи, Насталик, Султанали Мешади, рукопись, виды письма, восточная каллиграфия

Mir Ali Tabrizi (1330–1405) was a renowned Persian poet and calligrapher, credited by many scholars as the inventor of the Nasta'liq script. He lived and worked in Tabriz during the Timurid period and was honored with the title “Qodvat al-Kottab,” meaning “the leader of the scholars,” due to his mastery in the art of writing.

The origins of Nasta'liq are complex and debated. Traditionally, it has been described as a fusion of the Naskh and Ta'liq scripts. However, modern researchers such as Elaine Wright argue that it primarily evolved from Naskh, with stylistic innovations introduced gradually, especially in Shiraz and later perfected by Mir Ali Tabrizi. Other scholars, such as Francis Richard, point to evidence suggesting that the development of Nasta'liq was not limited to Shiraz but had a wider geographical

foundation. Furthermore, some researchers trace early stylistic elements of Nasta'liq back to as early as the 11th century in Persian translations of the Qur'an.

According to historical accounts, Mir Ali was inspired by a dream in which Imam Ali instructed him to observe the movements of a duck in water - its curves, its upright neck, and its graceful motion.

From this inspiration, Mir Ali developed a script characterized by fluid, wave-like lines, extended horizontal strokes, and a distinctive rhythm that seemed to embody both flight and swimming. The name "Nasta'liq" itself is derived from "Nasx-i Ta'liq," often translated as "hanging Naskh."

Initially, Nasta'liq was primarily used for copying works of Persian poetry and artistic manuscripts. Over time, it spread across Iran, Central Asia, Afghanistan, Azerbaijan, India, and the Ottoman Empire. Under the Timurids, Nasta'liq gained immense popularity, with Mir Ali's works - including copies of Sa'di's "Bustan", Nizami's "Khamsa", and Khvaju Kermani's "Humay and Humayun" - becoming highly valued. His son, Mir Abdullah, nicknamed "Shakar Qalam" (Sweet Pen), and later masters such as Jafar Tabrizi and Mir Ali Heravi, continued his legacy, ensuring the script's refinement and expansion.

By the Safavid period, Nasta'liq had become the dominant script of Persianate culture.

Prominent calligraphers such as Shah Mahmud Nishapuri and Mir Emad Hassani elevated its artistic standards, influencing later generations in both Iran and Mughal India.

In India, it became the favored script of the Mughal court, used extensively for Persian and later Urdu manuscripts.

By the 19th century, calligraphers like Mirza Muhammad Riza Kalhor introduced a more compact style, adapting it for lithographic printing. Although its usage declined in the early 20th century, the post-World War II period saw a revival of interest in Nasta'liq, with modern masters continuing to preserve and expand the tradition.

In the Ottoman Empire, Nasta'liq - known locally as "Ta'liq" - also flourished, with figures such as Mehmed Yasari and his successors establishing a distinct Ottoman school.

This version was often used in monumental inscriptions and mosque panels. The widespread adoption of Nasta'liq across regions highlights its adaptability and enduring aesthetic appeal.

Today, Nasta'liq remains celebrated as one of the most elegant scripts of Islamic calligraphy.

Its graceful balance between form and function, poetic rhythm, and cultural significance have made it not only a writing system but also a form of visual art that continues to inspire scholars, artists, and admirers worldwide.

Generally speaking, if we provide some additional examples of this:

Mi Ali Tabrizi - a renowned calligrapher who lived in the late 14th and early 15th centuries, recognized as the founder of the Nasta'liq script.

-

Nasta'liq script - considered one of the most elegant and refined styles of Arabic script, often referred to as the "bride of calligraphy."

The style he created became dominant in Persian literature and later spread to Turkic and Arabic literary traditions.

For centuries, Nasta'liq was widely used in handwritten books, poetic collections, and official state documents.

The artistic legacy of Mir Ali Tabrizi contributed greatly to the development of calligraphy in Islamic civilization and Eastern culture.

In conclusion, Mir Ali Tabrizi stands as a towering figure in the history of Eastern culture, having played a key role in the advancement of the art of writing. The Nasta'liq script he pioneered is not only admired for its aesthetic beauty but also valued as a cultural bridge that preserved literary heritage across generations. Today, it continues to be regarded as one of the finest achievements of Islamic calligraphy and remains a subject of scholarly research and artistic appreciation.

References

1. "Mir Ali Tabriziy". Asl nusxadan arxivlangan, 2008-08-07.
2. "Nasta'liq / Oksford Dictionary tomonidan Nastaliq ta'rifi. Nastaliq ma'nosi". Leksiko Lug'atlari. Oksford Universiteti Matbuoti. 2022-yil.
3. Palgrave Makmillan, "An'analarning aniqligi hali ham ijodkorlikka imkon beradi va mashhur fors xattotining hikoyasi bor. Mir Ali Tabriziy (milodiy 1420 -yilda vafot etgan)". 1985. 881-bet.
4. S. Brent Pleyt, "Din, san'at va vizual madaniyat: madaniyatlararo o'qituvchi". 2002. 93-bet
5. "TARIXI FORS XATTOTLARI". PersianCalligraphy.org. 2012-yil.
6. "ALI TABRIZIY" (xattot)". Encyclopedia Eron, jild (1985). Fasc. 8. p. 881.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. G'ulom-Xosayn Yusofi. "Xattotlik". Encyclopedia Eron.

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TAJRIBALAR.

YUNUSOVA NURSHODA KOMILBOY QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi

4-kurs talabasi

Tel raqam: +998 94 635 54 76

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlarning o'rnini hamda ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli resurslar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar, interaktiv platformalar va multimediya materiallaridan foydalanish adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, asar tahlilida mustaqil yondashuvni shakllantirish hamda virtual muhitda o'qitishning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida olib borilgan tajribalar misolida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish yo'llari, interfaol metodlarning o'quvchilar motivatsiyasiga ta'siri ham o'rganilgan. Tadqiqot natijalari adabiyot ta'limida ilg'or tajribalarni ommalashtirish va o'quv jarayonini modernizatsiya qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, sun'iy intellekt, ta'lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, zamonaviy pedagogika.---

Abstract: This article explores the role and significance of modern pedagogical technologies, digital tools, and innovative approaches in the teaching of literature. In today's educational system, the use of digital resources, artificial intelligence-based applications, interactive platforms, and multimedia materials plays an important role in increasing the effectiveness of literature lessons. The study discusses the development of students' critical and creative thinking, the formation of independent analytical skills in literary interpretation, and the advantages of teaching in virtual environments. Moreover, the article examines practical experiences based on innovative approaches, highlighting methods for improving teachers' professional competence and the impact of interactive techniques on student motivation. The results of the research provide a scientific foundation for popularizing advanced practices and modernizing the teaching process in literature education.

Keywords: literature education, innovative approach, digital technologies, interactive methods, artificial intelligence, teaching effectiveness, creative thinking, modern pedagogy.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning tezkor rivojlanishi natijasida o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish bo'yicha qator davlat dasturlari qabul qilingan. Jumladan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda "Ta'lim tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi"da o'quv jarayonini innovatsion va raqamli asosda tashkil etish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Adabiyot fani inson tafakkurini, estetik didni va milliy o'zlikni shakllantiruvchi eng muhim fanlardan biri sifatida bu islohotlardan chetda qolmasligi zarur. Chunki adabiy ta'lim nafaqat badiiy asarlarni o'qish va tahlil qilishni, balki o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va ma'naviy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi global raqamli davrda an'anaviy o'qitish usullari o'quvchilar ehtiyojini to'liq qondira olmayapti. Masalan, UNESCOning 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha o'qituvchilarning 64 foizi raqamli o'quv resurslaridan muntazam foydalanadi, biroq adabiyot fanida bu ko'rsatkich o'rtacha 35–40 foiz atrofida qolmoqda. Bu esa adabiyot ta'limini innovatsion asosda tashkil etish zaruratini yaqqol ko'rsatadi.

Innovatsion yondashuvlar deganda faqat texnik vositalardan foydalanish emas, balki o'quvchining faoliyatini o'zgartiruvchi yangi metodik tizimni joriy etish tushuniladi. Masalan, interfaol metodlar (debat, sinkveyn, klaster), raqamli platformalar (Google Classroom, Padlet, Kahoot, ChatGPT asosidagi tahliliy topshiriqlar) yoki aralash o'qitish (blended learning) uslubi bugungi adabiyot ta'limida samarali natijalar berayotganini tajribalar tasdiqlamoqda.

Shu jihatdan, ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning o'rni, ularning o'quvchi tafakkuri va o'qituvchi mahoratiga ta'siri, shuningdek, ilg'or tajribalardan olingan natijalar tahlil qilinadi. Maqola O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, xalqaro amaliyotlar va mavjud muammolar asosida ilmiy yondashuvda yoritiladi.

Ushbu tadqiqotda adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini aniqlash, ularning o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga ta'sirini baholash

maqsad qilingan. Shu bois ilmiy ish davomida nazariy, empirik va sotsiologik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Avvalo, nazariy tahlil usuli asosida innovatsion ta'limga oid xorijiy va mahalliy manbalar o'rganildi. Xususan, J. Deweyning "Experience and Education" (1938) asarida ilgari surilgan tajriba asosida o'rganish g'oyalari, L. Vygotskiy va J. Brunerlarning konstruktivistik ta'lim nazariyalari, shuningdek, o'zbek olimlari — Sh. Yusupov, N. To'xtasinov va D. Alimovalarning innovatsion pedagogika va adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha ishlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi (2022) tadqiqotning metodik asosini tashkil etdi.

Tadqiqotning amaliy qismi empirik (tajriba) usuli orqali amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o'quv yili davomida Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 8-, 17- va 21-maktablarda, shuningdek, Chirchiq davlat pedagogika universiteti filologiya yo'nalishida olib borildi. Tajribada jami 120 nafar o'quvchi va 10 nafar adabiyot fani o'qituvchisi ishtirok etdi.

Tajriba ikki bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqichda darslar an'anaviy usulda — ma'ruza, savol-javob va og'zaki tahlil shaklida olib borildi. Ikkinchi bosqichda esa "debat", "rol o'ynash", "sinkveyn", "klaster" kabi interfaol metodlar hamda raqamli platformalar — Kahoot, Padlet, Mentimeter va ChatGPT asosida tahliliy topshiriqlar joriy etildi. Har ikki bosqich yakunida o'quvchilar bilim darajasi, tahliliy fikrlash ko'nikmalari va darsga bo'lgan qiziqish darajasi solishtirildi.

Bundan tashqari, so'rovnoma va intervyu usullari orqali o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlari o'rganildi. 50 nafar adabiyot o'qituvchisidan va 150 nafar o'quvchidan yozma so'rovnoma olindi. O'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari, qiyinchiliklari va natijalari haqida o'z tajribalarini baham ko'rishdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 82 foizi interfaol metodlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytirganini, 74 foizi esa raqamli vositalar orqali asar tahlilining samaradorligi oshganini qayd etgan.

Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar sifat tahlili (qualitative analysis) asosida umumlashtirildi va natijalar tahlil qilish uchun diagrammalar, jadval va kuzatuv jadvallari qo'llanildi. Shu yo'l bilan adabiyot ta'limida innovatsion yondashuvlarning ilmiy-amaliy ahamiyati isbotlab berildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, adabiyot darslariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faol ishtirokini sezilarli oshiradi.

Tajriba bosqichida Kahoot, Padlet va Mentimeter kabi raqamli platformalar, shuningdek, "Sinkveyn", "Debat", "Rol o'ynash" kabi metodlar qo'llanganda, o'quvchilarning adabiy matnni tahlil qilish ko'nikmalari 38 foizdan 72 foizgacha oshgani kuzatildi. Bu ko'rsatkich so'rovnoma va baholash varaqalari orqali aniqlangan.

Shuningdek, tajriba ishtirokchilarining 81 foizi "interaktiv darslar o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi", deb javob bergan. (Manba: Tadqiqot muallifi tomonidan 2025-yil fevral–mart oylarida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.)

O'qituvchilar fikricha, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish adabiyot asarlarining badiiy-estetik mazmunini o'quvchilarga ko'rgazmali va emotsional tarzda yetkazish imkonini bergan. Masalan, "Alpomish" dostonini o'rganishda videolavhalar, xaritalar va interaktiv sahnalar o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishini kuchaytirgan.

Bu holat boshqa ilmiy manbalarda ham tasdiqlangan. Xususan:

Sh. Yusupov (2021) ta'kidlashicha, raqamli metodlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini 1,5 barobar oshiradi;

UNESCO ma'lumotlariga (2023) ko'ra, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini 40–50% gacha faollashtiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning bilimini, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tahliliy salohiyatini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, adabiyot ta'limida innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va mustaqil fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Kahoot, Padlet va Mentimeter kabi raqamli vositalar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minladi. "Rol o'ynash" va "debat" metodlari esa adabiy asarlarni tahlil qilishni osonlashtirib, badiiy tafakkurni rivojlantirdi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, OECD (2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli ta'lim usullari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini o'rtacha 25–30 foizga oshiradi. Mahalliy tadqiqotlarda ham (N. To'xtasinov, 2021) adabiyot darslarida multimedia tahlil metodlari samarali ekani ta'kidlanadi.

Shuningdek, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi ham muhim omil bo'lib chiqdi. Dastlab ba'zi pedagoglar texnologiyalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsalar-da, treninglar va amaliy mashg'ulotlar bu muammoni bartaraf etgan.

Umuman olganda, innovatsion metodlar adabiyot darslarini yanada mazmunli, zamonaviy va ijodiy muhitda tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim, tahliliy tafakkur va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar darslarni jonlantirib, o'quvchilarni faol ishtirokchi va mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirish, raqamli platformalardan samarali foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarurligi aniqlanmoqda.

Umuman olganda, adabiyot ta'limida innovatsion yondashuvlardan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirgan, ijodkor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov, Sh. Innovatsion pedagogika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
2. To'xtasinov, N. Adabiyot ta'limida raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. O'zbekiston pedagogika jurnali, №3, 45–52-betlar, 2020.
3. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan Company, 1938.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. OECD. Digital Education Outlook 2022: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain, and Robots. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. UNESCO. Reimagining Education: Innovation for a Sustainable Future. Paris: UNESCO Reports, 2023.

O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK

ABDULLAYEVA UMRINISSO BAXODIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada til haqida qarashlar keltirib o'tilgan. Leksikologiya bo'limining mavzularidan biri bo'lgan o'zbek tilining ma'no ko'chish usullari ilmiy izohlab berilgan. Ma'no ko'chishlarning har bir turiga ma'lumotlar berilib, misollar yordamida batafsil tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: metafora, metonimiya, sinekdoha, vazifadoshlik, korpus, meta, anoma, metaphore, sinekdohe, funksiyadoshlik.

ABSTRACT: In this article views on language are presented. One of the topics of the lexicology department, the methods of transfer of meaning of the Uzbek language are scientifically explained. Each type of meaning transfer is given information and explained in detail with the help of examples.

Key words: metaphor, metonymy, synecdoche, functionalism, corpus, meta, anoma, metaphor, synecdoche, functionalism

KIRISH Borliqdagi narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, burun so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosini ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismdan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan [1:191].

“Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy bu kabi gozal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotida ko'rishingiz mumkin. Chunki bu so'zlardan foydalanish bu kabi uslub o'zbek shoirlariyu, o'zbek yozuvchilariga hosdir. So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud bo'lib. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir ma'noni anglatrsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan

matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda oson matn ichidagi so'zlarni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatga o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatga ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: "Sovuq niyat qilma do'stim" degan gapdagi "sovuq" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "sovuq" so'zi havoga, suvga nisbatan o'z ma'noda qo'llaniladi. "Sovuq niyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so'zi o'z ma'nodan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. "Bir sixga qornim to'yib qoldi" bu gapda esa "six" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "six" so'zi yakka holda qo'llanganda six ya'ni temir narsa, buyum ma'nolarini anglatadi va u yeyiladigan narsa emas bu so'z ham yakka holda qo'llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma'nolarni anglatyapti va matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanilyapti.

Ma'no ko'chishining nima asosida ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud [1:191].

1. METAFORA. Metafora (yunoncha metaphora — ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlilik asosida ko'chishidir. Masalan, tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. [1:193].

1 Tashqi o'xshashlik munosabati.

2 Aloqadorlik munosabati.

3 Butun va qism munosabati.

4 Vazifadagi o'xshashlik munosabati.

Metafora- metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Ko'proq tashqi o'xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma'no ko'chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun "qora niyyat" bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo'lganda o'z ma'no bo'lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti. Metafora ko'proq quyidagilarga: 1. Odam tana azolariga

(qo'l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka). 2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak). 3. Hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosi (qanot, dum, tumshuq, shox). 4. O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir). 5. Qurollar (nayza, pichoq). Masalan: Tog'ning etagidagi uy. Uyimiz daryo yoqasida.

2. METONIMIYA. Metonimiya yunoncha metonymia — qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi. [1:196]. Bunday ma'no ko'chishiga tashqi va ichki o'xshashliklar hisobga olinmaydi balki, so'z ma'nolarining bir-biriga bog'liqligi hisobga olinadi. Shunga ko'ra quyidagi munosabatlarga bo'linadi. 1. Joy tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra (shahar, tashkilot). 2. Muallif bilan asari orasidagi aloqa. Masalan, Navoiyni o'qidim. 3. Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa orasida kelishi mumkin. 4. Ta'sir sababi munosabati: Bolalar uyning quvonchi 5. O'zining mazmuni uchun; Bir chashka iching. 6. Ramziy ma'noga ega bo'lgan belgi: Ular bayroqa sodiqlik qasamyod qildilar. 7. Hammasi uchun qism munosabati. Jamoangizni to'rini himoya qiling. 8. Hammasi qism uchun. Avtomobilni yuving. (korpusga murojat). 9. Siz foydalanadigan asbob: Bu Parijdagi eng yaxshi chotka. (Rassomga murojaat qilish). Masalan, O'n to'qqizga chiqasan bugun.

3. SINEKDOXA. Sinekdoxa yunoncha synekdoche — birgalikda anglash so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi [1:198]. Masalan: "qo'limni kesib oldim" deganda qo'limni deb barmog'ini nazarda tutmoqda, barmoq qo'lning qismi bo'lganligi uchun ya'ni butun orqali qismni anglatmoqda, "tuyoqlarni ko'paytiramiz" bu gapda esa tuyoq deb hayvonlarni nazarda tutmoqda, tuyoq hayvonning qismi bo'lganligi uchun qism orqali butunni nazarda tutmoqda, yoki bo'lmasa "eshikka kiring mehmon bir chaqchaqlashamiz" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "eshik" so'zi bo'lib, bu gapda "eshikka kiring" deb uyini nazarda tutmoqda. Eshik uyning qismi bo'lganligi uchun bunda ham qism orqali butun nazarda tutilmoqda. Sinekdoxa quyidagi munosabatlarga ko'ra ma'no ko'chadi. 1. Tana a'zolari orqali. O'n qo'lingni og'zingga solma. 2. Kiyim va uning qismlari orqali. Hisobida adashgan cho'ntagidan ayrilar. 3. Predmet, narsa, qurol. Xamir uchidan patir. 4. Hayvon parranda tana a'zolari. Qizilishton (qush), tulki (tulki terisi). 5. Daraxt va mevasi. Namangonning olmasi hil-hil pishibdi. (qo'shiq).

4. VAZIFADOSHLIK. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi. [1:199]. Vazifadoshlik bilan metaforani farqlab olish juda zarurdir. Misol uchun metaforada ham vazifadoshlikda ham narsalar, predmetlarning o'xshashligiga

qaraladi, lekin metafora tashqi o'xshashlik bo'lsa, vazifadoshlikda esa narsa, buyum, predmetlarning tashqi o'xshashligiga emas balki, faqatgina vazifasi o'xshashligiga qaraladi. Misol uchun: "stolning oyog'i qiyshayib qoldi" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "oyoq" so'zi bo'lib inson oyog'i bilan stolning oyog'ini vazifasi bir xilligi uchun vazifadoshlik bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik.) A. Nurmonov A.Sobirov, N.Mahmudov, N. Qosimova, SH. Yusupova - T.: «ILM ZIYO», 2013.
2. O'zbek tili stilistikasi.T.:O'qituvchi,1983,-B.246 6. O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-y
3. Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" "Yosh kuch" Toshkent 2023y
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/bir-ma-noli-va-ko-p-ma-noli-so-zlar-ma-no-ko-chish-usullari>
5. uz.m.wikipedia.org

ONA TILINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

O'LMASOVA MUXLISA DILSHODBEK QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi keng yoritilgan. XXI asrda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, elektron darsliklar, taqdimot dasturlari, audio va video materiallar, interaktiv doska hamda onlayn platformalar o'quvchilarning bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, nutqiy savodxonlik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, elektron darslik, axborot texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, innovatsion yondashuv, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, onlayn platformalar.

Abstract: This article broadly examines the issue of using multimedia tools in teaching the mother tongue. In the 21st century, the use of modern information and communication technologies has become an urgent necessity to increase the effectiveness of the educational process. In particular, electronic textbooks, presentation software, audio and video materials, interactive boards, and online platforms help students acquire knowledge more quickly and effectively. The use of multimedia tools in teaching the mother tongue increases students' engagement in the learning process and plays an important role in developing independent thinking, communication, language literacy, and creativity skills.

Keywords: mother tongue education, multimedia tools, interactive methods, electronic textbook, information technology, learning effectiveness, innovative approach, speech culture, independent thinking, online platforms.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается вопрос использования мультимедийных средств в преподавании родного языка. В XXI веке использование современных информационно-коммуникационных технологий приобретает особую актуальность для повышения эффективности образовательного процесса. В частности, электронные учебники,

презентационные программы, аудио- и видеоматериалы, интерактивные доски, а также онлайн-платформы помогают учащимся быстрее и эффективнее усваивать знания. Применение мультимедийных средств в преподавании родного языка повышает активность учащихся на уроках и играет важную роль в формировании у них самостоятельного мышления, коммуникативных навыков, речевой грамотности и творческих способностей.

Ключевые слова: обучение родному языку, мультимедийные средства, интерактивные методы, электронный учебник, информационные технологии, эффективность обучения, инновационный подход, культура речи, самостоятельное мышление, онлайн-платформы.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida ona tilini samarali o'qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy metodlar ko'plab o'quvchilarda tilni o'zlashtirish jarayonida qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali tilni o'rganish jarayoni samarali va qiziqarli tus oladi. Multimedia vositalari deganda matn, ovoz, rasm, animatsiya va video kabi turli modal shakllarni birlashtiruvchi texnologiyalar tushuniladi. Ular o'quvchi ongida bilimni chuqurroq shakllantirishga, tinglab tushunish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, mustaqil fikrlashga yordam beradi. Ushbu maqolaning maqsadi ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning samaradorligi hamda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishdan iboratdir.

Multimedia vositalari ta'lim jarayonida turli shakllarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, kompyuter dasturlari yordamida interaktiv testlar va viktorinalar tashkil etish, elektron kitoblar va audiovizual materiallar orqali darslarni boyitish, video va audio lavhalarni namoyish qilish orqali o'quvchilarning ona tilini grammatik qoidalarini, lug'at boyligini, talaffuz va intonatsiyani yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarining yana bir afzalligi shundaki, ular o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar kompyuter yoki planshet yordamida interaktiv mashqlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa o'qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etishga, har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini moslashishga xizmat qiladi.[1]

Multimedia vositalaridan foydalanish ona tili darslarini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Masalan, she'rlarni o'qishda audio yozuvlar yoki video kliplar yordamida o'quvchilarga asarning ohangini, kayfiyatini yetkazish osonlashadi. Shuningdek, matnlarni tahlil qilishda grafikalar, diagrammalar va animatsiyalar yordamida ma'lumotlar yanada tushunarli bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning tahliliy fikrlash

qobiliyatini rivojlantiradi. Multimedaning ta'lim jarayoniga ta'siri o'qituvchining metodik yondashuvini ham o'zgartiradi. O'qituvchi endi faqat darslikdagi matnlarni o'qib berish bilan cheklanmay, multimedia vositalari yordamida interaktiv muhit yaratadi. Bu esa o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rag'batlantiradi.[2]

Ona tilini o'rgatishda turli multimedia vositalari qo'llanilishi mumkin. Audio materiallar tinglab tushunishni rivojlantiradi, to'g'ri talaffuzni shakllantiradi va o'quvchilarni turli nutq modellari bilan tanishtiradi. Video lavhalar va filmlar esa tilni real hayotiy kontekstda idrok etishga yordam beradi, shu bilan birga madaniy bilimlarni ham boyitadi. Animatsiyalar grammatik qoidalarni tushuntirishda murakkab tushunchalarni soddalashtirib beradi. Prezentatsiyalar yordamida til birliklarini tizimli tarzda tushuntirish, misollarni vizual tarzda ko'rsatish imkoniyati tug'iladi. Interaktiv dasturlar esa o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qiladi, mashqlarni bajarish jarayonida o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Raqamli hikoya (digital storytelling) texnologiyasi esa o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi, ularni multimodal vositalar orqali mustaqil ravishda til materiallari yaratishga undaydi.

Multimedia vositalarini ona tili darslarida qo'llashda ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, texnik jihozlarning yetishmasligi, o'qituvchilarning multimedia texnologiyalarini qo'llash bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi, internet tarmog'ining cheklanganligi kabi omillar darslarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli maktablarda zamonaviy texnik baza yaratish, o'qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga jalb etish muhimdir. Multimedia vositalarining ona tili fanida samarali qo'llanilishi uchun dars rejasini va metodik materiallarni shunga mos ravishda tayyorlash zarur. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasi hisobga olinib, multimedia vositalaridan foydalanish tartibi aniqlanishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinflarda ko'proq vizual va audio materiallar, o'rta va yuqori sinflarda esa interaktiv dasturlar va taqdimotlar qo'llanilishi mumkin.[3]

Ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadigan metodik yondashuv hisoblanadi chunki multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga matn bilan birga tasvir, ovoz, video, animatsiya kabi turli ko'rinishdagi axborotlar beriladi va bu esa o'quvchining mavzuni yanada chuqurroq tushunishiga, qiziqishini oshirishga hamda eslab qolish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday darslarda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va o'qish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ko'p sezgi orqali o'rganish

jarayonini tashkil etadi va natijada o'quvchilar mavzuni nafaqat eslab qoladilar, balki uni real hayotiy misollar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.[4]

Multimedia vositalari ona tili darslarida grammatik qoidalarni tushuntirish, yangi so'zlarni eslab qolish, talaffuzni mashq qilish, badiiy asarlarni tinglash va ularni vizual ko'makchilar bilan tahlil qilishda samarali yordam beradi, chunki o'quvchilar faqat matn bilan emas, balki jonli nutq, obrazli tasvir va interaktiv topshiriqlar bilan ham shug'ullanishadi va bu ularning bilim olish jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladi. Shuningdek, multimedia vositalari dars jarayonini interaktiv qiladi, bunda o'quvchilar mustaqil ravishda mashqlar bajarishlari, testlar yechishlari, elektron lug'atlardan foydalanishlari, qisqa animatsiyali videolar yordamida grammatik hodisalarni osonroq o'zlashtirishlari mumkin, bu esa ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va mas'uliyat hissini oshiradi.[5]

Multimedia vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'qituvchining ishi yukini kamaytiradi. Masalan, tayyor interaktiv testlar va mashqlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini tez va aniq baholash mumkin. O'qituvchiga vaqtni samarali taqsimlash va darsni yanada sifatli tashkil etishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari ona tili fanida ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Multimedia vositalari yordamida o'quvchilar ona tilining nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham chuqurroq egallaydilar.[6]

Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu yondashuv o'quvchilarni faqat matn bilan cheklanmagan holda balki tasvirlar, ovozli materiallar, videolar, interaktiv dasturlar orqali mavzuni yanada samarali o'zlashtirishga yo'naltiradi, natijada o'quvchi bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hamda bu ko'p kanalli ta'lim jarayoni bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Multimedia vositalarining qo'llanilishi darsning barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi, yangi mavzuni tushuntirishda animatsiyalar va grafiklar orqali qoidalarni oddiyroq ko'rsatish mumkin, mustahkamlash bosqichida video va audio materiallar yordamida mashqlar bajarish, savollarga javob topish va tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin, nazorat jarayonida esa test dasturlari, elektron platformalar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash samarali bo'ladi. Bunday yondashuv o'quvchilarni faqat bilim olish bilan chegaralab qo'ymaydi balki ularni mustaqil o'rganishga, ijodiy fikrlashga, turli vaziyatlarda o'z ona tilida erkin muloqot qila olishga tayyorlaydi, chunki multimedia materiallari orqali berilgan

topshiriqlar odatda hayotiy misollar bilan boyitiladi va bu o'quvchilarning real kommunikativ ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, multimedia vositalarining qo'llanilishi o'qituvchi faoliyatini ham yengillashtiradi, chunki dars mazmuni vizual va eshitiladigan materiallar bilan boyitilganda mavzuni tushuntirish samarasi ortadi, murakkab qoidalarni oddiyroq qilib yetkazish mumkin bo'ladi va o'qituvchi dars jarayonini qiziqarli hamda interaktiv tarzda olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo multimedia vositalaridan foydalanishning ayrim qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, ta'lim muassasalarida texnik jihozlarning yetishmasligi, sifatli material tayyorlash uchun ko'p vaqt va mehnat talab etilishi, internetga bog'liq bo'lgan vositalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash zarurligi kabi muammolar uchraydi, shuningdek, keragidan ortiqcha rasm, video yoki audio elementlar qo'shilganda o'quvchilarning diqqat markazi asosiy mavzudan chalg'ishi mumkin, shu sababli multimedia vositalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.[7]

Xulosa:

Ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi, chunki multimedia materiallari orqali o'quvchilarga bilim berish nafaqat mavzuni tushunishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Multimedia vositalaridan samarali foydalanish natijasida ona tili darslari qiziqarli va interaktiv tarzda o'tadi, o'quvchilar bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va o'qish sezgilari orqali bilim oladilar, bu esa o'zlashtirish jarayonini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, multimedia texnologiyalarini qo'llash jarayonida o'qituvchi tomonidan oqilona tanlash, dars mazmuniga moslashtirish va texnik imkoniyatlarni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish va ta'lim sifatini yuksaltirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Ona tili va adabiyot o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi. Toshkent, 2022
- 2.Shukin A. Ta'limning audiovizual vositalaridan sistemali foydalanish.Toshkent, 2021
- 3.Islomova M. Ona tili darslarida interaktiv multimedia dasturlarining o'rni.Samarqand, 2023
- 4.Kuldasheva S.Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2022

- 5.Karimov J. Ona tili fanida multimedia texnologiyalarini qo'llash. Toshkent, 2022
- 6.Rasulova N. Bolalar adabiyotini o'qitishda multimedia vositalariddan foydalanish. Toshkent, 2023
- 7.Qodirov B. Ona tili fanini o'qitishda interaktiv usullar va multimedia vositalari. Buxoro, 2023

CHET TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH

TURG'UNBOYEVA PARVINA ASHIRBOY QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati

4-bosqich talabasi

parvina08.09.04@icloud.com

Annotatsiya

Maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va multimedia resurslaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Til ta'limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar, multimedia materiallari va interfaol metodlarning o'quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalardan foydalanib, O'zbekistonda til ta'limini zamonaviylashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, multimedia resurslari, interfaol metodlar, chet tili ta'limi, kompetensiya, lingvodidaktika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические основы использования инновационных технологий и мультимедийных ресурсов в обучении иностранным языкам. Анализируется роль современных информационно-коммуникационных средств, цифровых платформ, мультимедийных материалов и интерактивных методов в языковом образовании в развитии компетенций студентов. Также рассматриваются перспективы модернизации языкового образования в Узбекистане с использованием национального и международного опыта.

Ключевые слова: Инновационные технологии, мультимедийные ресурсы, интерактивные методы, иноязычное образование, компетентность, лингводидактика, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract

The article covers the theoretical and practical foundations of the use of innovative technologies and multimedia resources in teaching foreign languages. The role of modern information and communication tools, digital platforms, multimedia materials

and interactive methods in language education in developing students' competences is analyzed. Also, the prospects for the modernization of language education in Uzbekistan are considered using national and international experience.

Keywords: Innovative technologies, multimedia resources, interactive methods, foreign language education, competence, language didactics, information and communication technologies.

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini bilish har bir insonning hayotiy zaruratiga aylanib bormoqda. Shu bois ta'lim tizimida til o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy metodlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, ular zamonaviy ta'limning barcha talablari va ehtiyojlarini qondira olmaydi. Chunki bugungi avlod raqamli muhitda yashamoqda va ular uchun til o'rganish jarayoni ham zamonaviy texnologiyalarga mos bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar va multimedia resurslari chet tillarini o'qitishda eng muhim vositalardan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli asr til va tafakkurga faqat texnologik emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar orqali ham ta'sir ko'rsatmoqda. XXI asr globallashtirish davri bo'lib, unda milliy tillar bir vaqtning o'zida global muloqot vositasi sifatida ham, milliy identitetni saqlovchi omil sifatida ham xizmat qilmoqda. Internet va raqamli platformalar ko'p tilli muloqot imkonini kengaytirar ekan, til o'zgarishlari jarayoni tezlashmoqda.

Shuningdek, raqamli tafakkur tushunchasi ham shakllanmoqda. Endi inson tafakkuri nafaqat og'zaki yoki yozma, balki vizual va ramziy shakllarda ham ifodalanmoqda. Emoji, gif va stikerlar — bu tilning yangi semiotik qatlamlari bo'lib, ularni yoshlar muloqotida keng qo'llashmoqda. Bu hodisa lingvistik fanida "multimodal kommunikatsiya" sifatida o'rganilmoqda.

Raqamli kompetensiya ham muhim omillardan biridir. Tilni bilishning o'zi kifoya qilmaydi, uni raqamli muhitda samarali qo'llash ham zamonaviy savodxonlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, til va tafakkur masalalarini o'rganishda raqamli savodxonlik darajasi, onlayn muloqot uslublari va yangi lingvistik shakllarning shakllanish jarayonini ham inobatga olish zarur.

Bundan tashqari, yaqinda Florida State University tadqiqotchilari ChatGPT va boshqa yirik til modellari (large language models — LLM) tomonidan ishlatiladigan so'zlarning odam nutqida ham ortib borayotganligini aniqladilar, bu esa AI va inson til tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga dalildir[2:4].

Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqani raqamli innovatsiyalar prizmasida tahlil qilamiz, til o'zgarishlarining tafakkur va madaniy integratsiyaga ta'sirini ilmiy faktlar bilan yoritamiz.

Ushbu tadqiqotda raqamli lingvistik metodlariga asoslangan yondashuvlar qo'llanildi. Birinchi navbatda, korpus lingvistikasi orqali turli davr va turli ijtimoiy qatlamga oid matnlar tahlil qilindi. Bu metod yordamida yangi til birliklarining paydo bo'lishi va ularning muloqot jarayonidagi o'rni kuzatildi. Shuningdek, internet platformalaridan olingan real muloqot namunalarini statistik tahlil qilish orqali tezkor ifoda vositalari, qisqartmalar va slenjlarning til tizimiga kirib kelish jarayoni o'rganildi.

Yana bir muhim metod sifatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanildi. Xususan, avtomatik tarjima tizimlari va matnni qayta ishlash dasturlari til birliklarining kontekstdagi o'zgarishini aniqlashda yordam berdi. Bu orqali nafaqat lingvistik, balki kognitiv tafakkurdagi o'zgarishlar ham kuzatildi. Tadqiqot davomida sotsiologik so'rovlar ham o'tkazilib, yosh avlodning raqamli muloqotdagi til odatlari va raqamli savodxonlik darajasi baholandi.

Tadqiqotda quyidagi yondashuvlar ishlatilgan:

Korpus tahlili: Internetdagi matnlar, bloglar, forum yozuvlari, ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan postlar va chatbotlar tomonidan yaratilgan matnlar korpusga kiritilib tahlil qilindi.

Kompyuter lingvistika usullari: Semantik tahlil, leksika frekansiyasi (soʻzlardan necha marta foydalanilganligi), soʻz sinflari va sinonim guruhlarining oʻzgarishi model qilindi. Masalan, “delve”, “intricate”, “crucial” kabi soʻzlar LLM taʼsiri bilan tez-tez ishlatilmoqda, va ular sinonimlari bilan almashinishi yoki birdan ortib ketishi kuzatilmoqda[3:5].

Statistik tahlil: Soʻz frekansiyasida trend oʻzgarishlarini aniqlash uchun regressiya modellari va klaster tahlili ishlatildi.

Empirik kuzatish: Tadqiqotchilar soʻz va iboralar trendini AI chiqishidan oldin va keyin (masalan, 2022-yil ChatGPT chiqarilgach) solishtirib tahlil qildilar.

Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, raqamli muhit til tizimini sezilarli darajada oʻzgartirmoqda. Avvalo, internet muloqotida paydo boʻlgan qisqartmalar, yangi soʻzlar va slenjar tezkor tafakkur shakllanishiga sabab boʻlmoqda. Masalan, ingliz tilida “LOL”, “BRB” kabi qisqartmalar, oʻzbek tilida esa “ok”, “xoʻp”, “ha” kabi qisqa shakllarning keng qoʻllanishi aniqlangan.

Bundan tashqari, yoshlar orasida multimodal muloqot shakllari keng tarqalgan. Emoji, stiker va giflardan foydalanish ularning muloqotida ramziy va vizual elementlarning rolini kuchaytirgan. Bu hodisa nafaqat tilning kommunikativ vazifasini, balki tafakkurning vizual va ramziy ifoda imkoniyatlarini kengaytirayotganini koʻrsatadi.

Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, raqamli metodlar orqali yigʻilgan dalillar zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur oʻrtasidagi murakkab oʻzaro bogʻliqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda.

Raqamli asr til va tafakkur oʻrtasida yangi sinergiya yaratmoqda. LLMlar tomonidan yaratilgan soʻzlar nutqqa kirib bormoqda, semantik guruhlar siljishmoqda, katta yoshdagilar ham til oʻzgarishiga moslashmoqda. Biroq, bu jarayon tilda moslashuv, madaniy muvozanat va til adolatini talab qiladi.

Kelajakda tilshunoslikda digital linguistics yoʻnalishini kengaytirish, AI va til integratsiyasini ilmiy nazorat qilish, kam resursli tillar uchun qulay NLP vositalarini rivojlantirish zarur. Shu orqali til oʻzgarishi tafakkurga salbiy taʼsir qilmay, balki madaniy integratsiya va global muloqotni boyitishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli davr tilshunosligi nafaqat ilmiy tadqiqot, balki amaliy hayotning ham ajralmas qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda tilning

rivojlanish sur'ati texnologik yutuqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni o'rganmasdan til va tafakkurdagi jarayonlarni to'liq tasavvur qilish qiyin.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli lingvistika insonning ijtimoiy faolligi va madaniy moslashuv darajasini ham belgilab beradi. Virtual makondagi muloqot nafaqat til qoidalarini o'zgartiradi, balki shaxsiy va milliy identitetning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon madaniyatlararo integratsiyaning tabiiy natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli asrda til va tafakkur o'rtasidagi aloqadorlik tobora ko'proq dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa kelajakda ham lingvistik izlanishlar, ham ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni talab etadi. Tilni o'rganish va uni global hamjamiyatda qo'llashda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, milliy tilni asrab-avaylash bilan birga, uni zamonaviy texnologik muhitga moslashtirish ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov, Sh. (2013). Kognitiv lingvistika. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press.
3. ResearchGate (2023). Digital Linguistics: New Approaches in the Study of Language and Communication. ResearchGate.
4. Florida State University (2025). Evidence suggesting ChatGPT influences how we speak. FSU News.
5. Arxiv.org (2025). LLM-driven lexical changes in human speech: Evidence from semantic clusters. arXiv.
6. Stanford University (2025). Digital Divide: AI's Exclusion of Non-English Speakers. Stanford News.

PROSPECTS OF PHILOLOGICAL EDUCATION IN THE HARMONY OF NATIONAL VALUES AND MODERNITY

TURAQULOVA SHAHZODA SAYDULLA QIZI

4th-year student, Department of tour
Guiding and Translation Studies,
Chirchik State Pedagogical University
turaqulovashahzoda882@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola filologik ta'limning milliy qadriyatlar va zamonaviylikni muvozanatlash istiqbollari o'rganadi. Xalqaro taqqosiy nuqtai nazarlarga tayangan holda, u aksiologik ta'lim, modernizatsiya va madaniyatlararo pedagogika nazariy doiralari doirasida tadqiq qiladi va tahlil qiladi. Ushbu maqola filologik ta'lim madaniy merosni saqlab qolishga qodir ekanini xulosa qiladi, agar u izchil qadriyatlar, innovatsion usullar va global hamkorlik bilan boshqariladigan bo'lsa, shuningdek, talabalarni zamonaviy kompetensiyalar bilan jihozlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: filologik ta'lim; milliy qadriyatlar; zamonaviylik; raqamli filologiya; intercultural pedagogika; madaniy meros; globallashuv.

АННОТАЦИЯ

Эта статья исследует перспективы филологического образования в балансировании национальных ценностей и современности. Опираясь на международные сравнительные подходы, она анализирует теоретические рамки аксиологического образования, модернизации и межкультурной педагогики. В статье делается вывод, что филологическое образование способно сохранять культурное наследие, если оно направляется последовательными ценностями, инновационными методами и глобальным сотрудничеством, а также помогает оснастить студентов современными компетенциями.

Ключевые слова: филологическое образование; национальные ценности; современность; цифровая филология; межкультурная педагогика; культурное наследие; глобализация.

ABSTRACT

This article explores the prospects of philological education in balancing national values and modernity, drawing upon international comparative perspectives. It examines theoretical frameworks of axiological education, modernization, and intercultural pedagogy and analyzes it. This paper concludes that philological education

can maintain cultural heritage while equipping students with modern competencies if guided by coherent values, innovative methods, and global collaboration.

Keywords: philological education; national values; modernity; digital philology; intercultural pedagogy; cultural heritage; globalization.

Introduction

Philology, understood as the study of language, literature, and textual traditions, has long served as a bridge between culture and education. In many societies, philological education ensures that future generations inherit linguistic, literary, and ethical traditions that shape collective identity. At the same time, the twenty-first century imposes new demands on education: digital literacy, intercultural communication, critical thinking, and adaptability to global contexts. The question therefore arises: how can philological education preserve national values while preparing students for modern challenges?

This article addresses this question by examining international approaches to harmonizing tradition and innovation in philological curricula. It reviews theoretical perspectives, analyzes comparative examples, identifies challenges, and outlines future prospects.

Scholars increasingly emphasize the axiological dimension of education—teaching values alongside knowledge (Eslit, 2023). In philology, this includes transmitting ethical norms, civic responsibility, and national identity through literature and language studies. At the same time, modernization requires updating curricula with new methodologies, digital tools, and interdisciplinary approaches (Aliyeva, 2023). Research in digital humanities highlights the rise of digital philology, which uses corpora, textual databases, and computational analysis to study literature (Kestemont et al., 2020). Comparative studies also show that postcolonial and national-identity perspectives remain crucial in understanding philology's role in shaping collective memory (Anderson, 2016). Thus, the literature indicates two parallel imperatives: 1) safeguarding cultural values, and 2) equipping students with modern competencies. The challenge is not to choose one over the other but to design educational models that balance both. Philological education is deeply tied to national identity. In European contexts, philology historically contributed to the codification of national languages and the canonization of literary traditions (Pollock, 2009). For example, the study of Shakespeare in the UK or Goethe in Germany functions not only as literary training but also as a transmission of cultural values. Similarly, in many post-Soviet and Asian contexts, philological curricula include classical poetry, folklore, and epics that

embody moral and civic values. Such texts are not merely studied for linguistic or literary features but also serve as vehicles of ethical education, encouraging respect, patriotism, and cultural continuity. However, there is also a risk of over-politicization. If philological education is reduced to ideological indoctrination, it loses its critical dimension. The challenge is to present national values as part of a plural, dialogical cultural heritage rather than a fixed or exclusionary ideology. Modern educational systems increasingly demand skills-based and technology-driven approaches. Globalization has created a need for multilingual competence, intercultural communication, and critical thinking. Within philology, Digital humanities integration: using text corpora, online archives, and computational linguistics to analyze texts (Kestemont et al., 2020). Interdisciplinary connections: linking literature with cultural studies, media, and social sciences. Multilingual approaches: encouraging bilingual and multilingual philology, enabling students to study both national heritage and global texts. Critical pedagogy: teaching students to analyze texts not only for beauty but also for ideological and cultural implications. Modernity requires philological education to evolve beyond traditional text analysis into broader critical, digital, and intercultural fields.

Conclusion

Philological education stands at a crossroads in the twenty-first century. It must simultaneously safeguard national values and equip students with modern competencies. The future of philological education lies in integrating digital tools, intercultural approaches, and values-based pedagogy. By doing so, it can remain a vital force in cultural preservation and at the same time contribute to the development of critically minded, globally competent citizens.

REFERENCES:

1. Aliyeva, G. B. (2023). Educational trends in the development of philological training in the modern era. *Journal of Language and Education*, 19(2), 45–58.
2. Anderson, B. (2016). *Imagined communities: Reflections on the origin and spread of nationalism*. Verso.
3. BBC News. (2024, June 6). Turkey curriculum reforms put 'national values' at the centre. BBC.
4. Eslit, E. R. (2023). Enduring synergy of values integration, critical thinking, and communicative language pedagogy. *International Journal of Education Research*, 11(4), 77–89.

5. Kestemont, M., Riddell, A., & Degaetano-Ortlieb, S. (2020). Digital philology and the computational analysis of literature. *Journal of Cultural Analytics*, 5(2), 1–24.
6. Pollock, S. (2009). Philology and freedom: The historical imagination in South Asia and Europe. *Journal of World History*, 20(1), 1–23.
7. Saarinen, T. (2018). National and international dimensions of language and literature education in Europe. *European Educational Research Journal*, 17(6), 853–869.
8. Yang, L. (2020). Tradition and modernity in Chinese philological education. *Asian Journal of Education and Development*, 5(3), 101–118.

XALQ DOSTONLARIDA TIL XUSUSIYATLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

IBRAGIMOVA ZAMIRA YULDASHEVNA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

SHOHRUH SURONOV

3 bosqich talabasi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotasiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq dostonlari til xususiyatlarini ifodalovchi leksik, frazeologik va uslubiy birliklar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Dostonlardagi maqol, matal, topishmoq, to'y qo'shiqlari va olqish mazmunini bildiruvchi birliklarning semantik hamda grammatik jihatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu birliklarning ko'plari xalq nutqida barqarorlashib, nutqiy etiket shakliga aylanganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: dostonlar, terma, maqol, matal, topishmoq, leksik birliklar, til xususiyatlari, nutqiy etiket.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the lexical, phraseological, and stylistic features that characterize the language of Uzbek folk epics. It examines the semantic and grammatical aspects of proverbs, sayings, riddles, wedding songs, and blessing expressions found in these epics. The study emphasizes that many of these linguistic units have become stable elements in the spoken language, functioning as forms of speech etiquette.

Key words: epics, folk songs, proverb, saying, riddle, lexical units, linguistic features, speech etiquette.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ лексических, фразеологических и стилистических особенностей, характеризующих язык узбекских народных эпосов. Рассматриваются семантические и грамматические аспекты пословиц, поговорок, загадок, свадебных песен и благопожеланий, встречающихся в эпосах. Подчеркивается, что многие из этих языковых единиц закрепились в народной речи и стали формами речевого этикета.

Ключевые слова: эпосы, терма, пословица, поговорка, загадка, лексические единицы, языковые особенности, речевой этикет.

O'zbek tilshunosligida tilimizning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari bo'yicha bir qancha izlanishlar olib borildi. Shu jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodiga

doir badiiy manbalarning til xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham samarali ishlar qilindi. Dastlabki davrda o'zbek xalq dostonlarining til xususiyatlarini o'rganishga doir izlanishlar olib borilgan bo'lsa, keyingi yillarda maqol va matallarning til xususiyatlari, ertaklarning ayrim sintaktik xususiyatlari, to'y-marosim nomlari, to'y qo'shiqlarining til xususiyatlari, o'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik tahliliga doir tadqiqotlar yuzaga keldi (Расулов Р, 1970). Arabcha, forsha, hamda turkiycha diniy onomastik leksika bunday turdagi frazeologik birliklar semantikasida Alloh va uning qudrati, insonni yaxshilik va islomiy e'tiqodga da'vat qiluvchi niyatlar va duolar bilan bog'liq tarzda rang-barangdir (Omonturdiyeva, 2022:503).

Mazkur ishlarda o'zbek xalq dostonlarining til xususiyatlari, xalq ertaklarining ayrim sintaktik xususiyatlari, topishmoqlarning leksik-semantik jihatlari, to'y-marosim nomlari va to'y qo'shiqlarining lisoniy tahlili kabi masalalar o'rganib chiqilgan. Xalq dostonlari tilini qipchoq dialekti bilan qiyoslasak, ularning adabiy tilga munosabatini va adabiy tilni boyitishdagi o'rnini belgilashga harakat qilinadi. Bunda leksik-stilistik va frazeologik jihatdan ulardagi yaqinlik muhim o'rinni egallaydi. Dostonlardagi so'zlarning deyarli barchasi talaffuzi, ma'nosi, hatto qo'llanish chastotasi jihatidan qipchoq dialektlariga mos kelishini tilshunos olimlarimiz ta'kidlab o'tadi (To'ychiboyev, Muhammadjonov, 2008:95). Shuningdek, o'zbek og'zaki so'zlashuv nutqi haqida ham maxsus tadqiqot olib borilgan. Shunga qaramay, o'zbek tilining so'zlashuv nutqiga aloqador bo'lgan ayrim til birliklari borki, bular bo'yicha izlanishlar olib borilsa, o'zbek tilining leksik, grammatik jihatlari oid yetarlicha hal qilinmagan ko'p masalalar o'zining aniq va to'g'ri ilmiy yechimini topishga imkon yaratilgan bo'lardi. O'zbek tilidagi olqish mazmunini bildiruvchi birliklarning til xususiyatlarini o'rganish masalasi ham shular jumlasidandir. Xalqimiz o'tmish madaniy merosimizni o'rganish orqali o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatimizning sohibiga aylandi. O'zbek xalqi muomala madaniyatida ko'p qo'llanadigan jumlar ichida shundaylari borki, ularda o'zaro muomalaga kirishgan shaxslar bir-birlariga yaxshi tilak bildiradilar. Bunday jumlar duo qilish, biror munosabat bilan muborakbod etish, xayrlashish, salomlashish, ta'ziya bildirish kabi vaqtlarda aytiladi. Ularga xos bo'lgan umumiy xususiyat shundan iboratki, bunday jumlar semantik va shakliy jihatdan o'zbek tilida barqarorlashib, aksariyati nutqiy etiketga aylanib qolgan va ularning barchasidan olqish mazmuni anglashiladi.

Frazeologizmlar mohiyatida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xalqning hayotiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turadi. Frazeologizmlar

obrazli, emotsional-ekspressiv xususiyatga ega til birligidir. Frazologizmlar xalqning ma'naviy-marifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, turmush tarzi hamda o'ziga xosligini yorqin ifoda etadi. Frazologizmlar shakllanishi va qo'llanishi mexanizmlarini tadqiq etish til vakillarining verbal fikrlash xususiyatlarini aniqlaydi, chunki, aynan, frazeologizmlarda insonning narsa-hodisalarni anglash va insonning emotsional, his-hayajon manzarasi ifoda etadi (Маматов А. Болтаева, 2018:8).

Ta'kidlash lozimki, ijobiy istak mazmunini bildiruvchi birliklar o'zbek adabiyotshunosligiga oid tadqiqotlarda olqish termini ostida maxsus o'rganilgan. Unda mualliflar olqishlarni ijro o'rni, vazifasi va poetik tabiatiga ko'ra tadqiq etganlar. (Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. 1990: 109-112). O'zbek tilshunosligida ham bunday birliklarni jamlab, ularga lingvistik aspektda yondashish vazifasi amalga oshirilgan. O'zbek til leksikasida istak mazmunini ifodalovchi birliklar so'z birikmasi, sodda yoki qo'shma gap shaklida bo'ladi va ko'p hollarda buyruq gap tarzida shakllanadi. Shu sababli o'zbek tilshunosligidagi gap sintaksisi va semantikasiga hamda so'zlashuv nutqiga doir ilmiy ishlarda aytilgan fikrlar to'laligicha ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarga ham taalluqli deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Расулов Р.. «Алпомиш» достонида сўз бирикмалари: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. - Т., 1970;
2. Омонтурдиева.Ш. Ўзбекча диний матнлар фразеологияси. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси №6 2022. Б-503.
3. То'ychiboyev В., Muhammadjonov Sh.. "Xudoyberdi Doniyorov va o'zbek tilshunosligi". Guliston, 2008. 95-bet.
4. Маматов А. Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик прагматик тадқиқи. -Тошкент, 2018, 8-б
5. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: Ўқитувчи, 1990. – 109-112-б.;
6. IBRAGIMOVA, Z. Y., & YABBARBERGENOVA, S. (2022). WORDS OF POSITIVE WISHES OF THE UZBEK AND KARAKALPAK PEOPLES AROUND THE TABLE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (3), 685-688.

TIL VA JAMIYAT: IJTIMOY TARMOQLARDA TILNING ROLI**SHOIRA SAIDOVA ZIYAYEVNA,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,

shoirasaidova02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda tilning tutgan o'rni, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining qo'llanish holati, til madaniyati va me'yorlarining buzilishi, yangi so'zlarning paydo bo'lishi kabi masalalar yoritilgan. Internet va ijtimoiy platformalarning tilga ta'siri, yoshlar nutqiga kirib kelayotgan yangicha shakllar, shu bilan birga, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilingan. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tilning to'g'ri ishlatilishi muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, til madaniyati, internet tili, o'zbek tili, yoshlar nutqi, media tilshunoslik, til me'yorlari.

Annotation. This article explores the role of language in modern society, focusing on the use of the Uzbek language on social media platforms. It discusses issues such as the decline in language standards, the emergence of new words and expressions, and the influence of the internet on everyday communication. The paper analyzes both the positive and negative effects of social media on language and emphasizes the importance of maintaining proper language use in digital communication.

Keywords: Social media, language culture, internet language, uzbek language, youth speech, media linguistics, language norms.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль языка в современном обществе, в частности, особенности употребления узбекского языка в социальных сетях. Анализируются вопросы языковой культуры, нарушение языковых норм, появление новых слов и выражений. Также изучается влияние интернета и цифровых платформ на речь молодежи, подчеркиваются как положительные, так и отрицательные стороны этого процесса. В статье отмечается важность грамотного использования языка в социальных медиа.

Ключевые слова: Социальные сети, языковая культура, интернет-язык, узбекский язык, речь молодежи, медиалингвистика, языковые нормы.

Bugungi kunda til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik ilgari hech qachon bo'lmagan darajada yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi tilga bo'lgan munosabatni o'zgartirib yubordi. Endi til – faqat muloqot vositasi emas,

balki o'zini ifoda qilish, o'z fikrini keng ommaga yetkazish, hatto shaxsiy brend yaratish vositasiga aylangan.

Odamlar Instagram, Telegram, TikTok, Facebook, X (sobiq Twitter) kabi platformalarda fikr bildirar ekan, ular rasmiy uslubdan ko'ra og'zaki, qisqartirilgan, ko'pincha emotsiyalarga boy, shevaga yaqin til birikmalaridan foydalanadi. Bu holat esa til me'yorlariga qanday ta'sir qilayotgani borasida turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bir tomondan, bu tilning jonlanishi, xalq tilining real holatini ko'rsatishi sifatida qaralsa, boshqa tomondan esa, adabiy tilning me'yorlari buzilmoqda, degan xavotirlar mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlar tilni soddalashtiradi. Odamlar tezroq, qisqaroq, tushunarliroq yozishga intiladi. Natijada ba'zan grammatik qoidalar inkor etiladi, tinish belgilarining o'rni e'tiborga olinmaydi. Masalan, "qayerdasan", "nima qilyapsan", "nechchida borasan" kabi iboralar "qydsn", "nqlvot", "nchchd brsn" shakliga o'tadi. Bu esa yangi yozma madaniyat shakllanishiga sabab bo'lmoqda.[7: 48]

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar tilga ijodkorona yondashuvni ham keltirdi. Yangi so'zlar, neologizmlar, memlar, trendlar asosida shakllangan iboralar, metaforalar tilda faol ishlatilmoqda. Masalan, "kontent qilish", "storik qo'yish", "reels qilish" kabi iboralar yoshlar tilida ommalashib ketdi. Bu jarayon esa o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilayotgani bor gap.

Ammo ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyati muammolari ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, so'kinish, kamsituvchi iboralar, turg'un iboralarini noto'g'ri ishlatish holatlari juda ko'p. Til orqali zo'ravonlik qilish, fikrlar orqali odamlarni pastga tushirish, jamoatchilikda salbiy muhit yaratish – bular til vositasida amalga oshirilmoqda. Demak, bu faqat til masalasi emas, bu – axloq, madaniyat, savod masalasidir.

Shuningdek, ko'plab bloggerlar, influencerlar, yozuvchi bo'lmagan oddiy foydalanuvchilar ham keng auditoriyaga ega bo'lgan bir paytda, ularning tildan qanday foydalanayotgani, yoshlar ulardan qanday ta'sir olayotgani ham dolzarb masalalardan biridir. Ijtimoiy tarmoqlarda ta'sir kuchi katta bo'lgan shaxslar tilga hurmatli, to'g'ri, madaniyatli yondashsa, bu ijobiy natija beradi. Aks holda, yomon namunalar ham tez tarqaladi.

Ijtimoiy tarmoqlar o'zbek adabiy tilining rivojiga qanday ta'sir qilmoqda – bu savolga aniq javob berish qiyin. Chunki bu jarayon hali tugamagan, u dinamik, har kuni o'zgarib turadigan hodisadir. Lekin bir narsa aniq: til ijtimoiy tarmoqlarda har kuni ishlatilmoqda va u yerdagi til – haqiqiy hayotdagi tilning aksidir. Shunday ekan, tilshunoslar, filologlar, o'qituvchilar bu jarayonga befarq bo'lmasligi kerak. [3:278]

Ijtimoiy tarmoqlarni ta'lim jarayonida ham samarali foydalanish mumkin. O'quvchilarga real tilni tahlil qilish, noto'g'ri va to'g'ri shakllarni ajratish, adabiy til bilan solishtirish orqali ularni til madaniyatiga o'rgatish mumkin. Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlardagi "xavf"ni "imkoniyat"ga aylantirish yo'llari topiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlar tilga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir ijobiy ham bo'lishi mumkin, salbiy ham. Bu holatga qanday munosabatda bo'lish esa tilni ishlatadigan jamiyatning o'ziga bog'liq. Agar biz ijtimoiy tarmoqlarda ham savodli, madaniyatli va adabiy tilga hurmat bilan munosabatda bo'lsak, tilimiz boyiydi, yuksaladi. Aks holda esa til soddalashadi, aralashadi va asta-sekin o'z asosiy jihatlarini yo'qota boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal D. *Language and the Internet*. – Cambridge University Press, 2006. – 292 p.
2. Herring S. "Computer-Mediated Discourse Analysis". // *Handbook of Discourse Analysis*, 2001. – pp. 612–634.
3. Mahmudov O., Qo'chqorov M. *O'zbek adabiy tili tarixi*. – Toshkent: Universitet, 2010. – 278 b.
4. Mamajonova Z. "Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining zamonaviy muammolari". // *Filologiya masalalari*, 2020, №3. – B. 56–61.
5. Raxmatullayev Sh. *Til va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2001. – 142 b.
6. Saidova G. *Lingvomadaniyatshunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 198 b.
7. Tojiboev T. "Internet tili va yoshlar nutqi: muammo va istiqbollar". // *O'zbek tili va adabiyoti*, 2021, №1. – B. 45–50.
8. Xudoyberganova M. "Media tilshunosligi va virtual til muammolari". // *O'zbek tili va adabiyoti*, 2022, №2. – B. 74–79.

LEKSIK SINONIMIYA HODISASI

XOLIQOVA MUSLIMA SHERZOD QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

xoliqovamuslima6@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda leksik sinonimiya hodisasi o'rganiladi. Sinonimik qatorlar va sinonimlarning ba'zi turlari haqida ma'lumot keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sinonim, sinonimiya, til birliklari, leksik sinonimiya, til boyligi

Abstract:

This article studies the phenomenon of lexical synonymy in linguistics. It provides information about synonymic rows and certain types of synonyms, as well as their role in enriching the language.

Keywords: synonym, synonymy, language units, lexical synonymy, language richness.

Аннотация:

В данной статье изучается явление лексической синонимии в языкознании. Приводится информация о синонимических рядах и некоторых видах синонимов, а также их роли в обогащении языка.

Ключевые слова: синоним, синонимия, языковые единицы, лексическая синонимия, богатство языка.

Dunyodagi barcha tillarning asosini so'z tashkil etadi. Shuningdek, insonlarning nutqi ham aynan shu so'zlarning qo'llanilishiga bog'liq. Nutqimizning ravon bo'lishi va so'zlagan so'zlarimizning takrorlanmasligi uchun so'z boyligimiz ko'p bo'lishi va sinonim so'zlarni qo'llashimizga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi va til birliklarining bir xil ma'noga ega bo'lish hodisasasi sinonimiya deb ataladi. Tilshunoslikda sinonimiya hodisasi uzoq o'tmishga ega bo'lib, ancha keng tahlil qilingan hodisalardan biri hisoblanadi. Sinonimiya nafaqat tilshunoslikning, balki, madaniyatshunoslik, psixologiya va adabiyotshunoslikning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Sinonim (yunoncha "bir nomli")lar yozilishi, talaffuzi turlicha, ammo

ma'nosi yagona bo'lgan so'zlar demakdir. Sinonimlarni tadqiq qilish dastlab, „..odatda, „bir xil ma'noli so'zlar“, „bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar“, „yaqin, yoki bir ma'noli so'zlar“, „uslubiy bo'yoqlari, qo'llanish sathlari bilan farqlanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi“.

O'tgan asrning 70-yillarigacha o'zbek tilshunosligida sinonimlarni belgilashda leksemalarning ma'no jihatdan bir xilligiga e'tibor berilgan bo'lsa, 80-yillarga kelib, so'zning sematik strukturasi Sh.Rahmatullayev, H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begmatov tominidan semik tahlil qilish orqali o'rganila boshladi. Sinonimlarni belgilashda semik tahlilning ahamiyati shundaki, u orqali bir sinonimik qatorga birlashayotgan leksik birliklardagi ma'nolarning umumiy va farqli tomonlariga aniqlik kiritish imkonini beradi. Sinonimiya hodisasi leksik stilistika uchun muhim ahamiyatga ega. Stilistik bo'yoqdor so'zlar, ayniqsa, sinonimlar qatorida ko'p uchraydi. Chunki sinonimik qatordagi so'zlarning har biri muayyan nutq vaziyatlarida tanlab qo'llanadi. Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi guruh); in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu'la, yog'du, ziyo (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi. Har bir sinonimik qatorda: a) leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qollanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan. ozod, erkin, hur, sərbast leksemalari bitta denotatni — «o'z erki, haq-huquqiga egalik»ni ataydi, biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bor. Xususan, erkin leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, ozod leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, hur leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, sərbast leksemasi esa eskirgan, kitobiydir; ifoda semalari ba'zan darajalanadi: yuz, bet, aft, bashara, turq leksemalarining barchasida («yuz»dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u «bet»dan «turq»qa tomon ortib, kuchayib boradi; d) ifoda semalari bo'lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning dominantasi sanaladi. Chunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq (dominanta - yuz); nur, shu'la, yog'du, ziyo (dominanta - nur); yolg'iz, yakka, tanho (dominanta – yolg'iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qatorda), nur (ikkinchi qatorda) va yolg'iz (uchinchi qatorda) betaraf ma'nolidir; e) leksemalarning turkumlik semalari bir xil bo'ladi, bu hol sinonimlarning bir so'z turkumiga birlashishini taqozo qiladi: bahor va ko'klam (ot), chiroyli va go'zal (sifat), so'zlamok va gapirmok (fe'l) kabi. Yuqoridagi xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi: 1. Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, achchiqlanmok, g'azablanmok, qahrulanmok leksemalari «g'azabi

kelmoq» ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u «achchiqlanmoq»dan «g'azablanmoq»qa, «g'azablanmoq»dan esa «qahrlanmoq»qa qarab kuchayib boradi. 2. Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no - «ovoz chiqarmay miyig'ida kulish» hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yana-da ortib boradi. 3. Nutqiy sinonimlar - nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sinonim so'zlar shunchaki hashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Ne'matov, R.Rasulov – O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari O'qituvchi Tosh.-1995.
2. A. Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. O'qituvchi Tosh.-1974.
3. Ra'no Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili Tosh.-2005.
4. H.Jamolxonov - Hozirgi o'zbek adabiy tili Tosh. - Talqin-2005.
5. <https://s.wps.com/s4VuAs5NN3tT>

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

QODIRALIYEVA MUXLISA ALISHER QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

xadichaa960@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi dolzarb muammolar, ularning sabablari va yechimlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va globallashuv jarayoni til va tarjima faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tarjimashunoslik, globalizatsiya, neologizm, mashina tarjimasi, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные проблемы в области современной лингвистики и переводоведения, их причины и решения. Также будет проанализировано, как современные технологии и процесс глобализации влияют на языковую и переводческую деятельность.

Ключевые слова: Лингвистика, переводоведение, глобализация, неологизм, машинный перевод, межкультурная коммуникация.

Annotation. This article will talk about current problems in the fields of modern linguistics and translation, their causes and solutions. It is also analyzed how modern technologies and the process of globalization affect the functioning of language and translation.

Keywords: linguistics, interpreting, globalization, neologism, machine translation, intercultural communication.

KIRISH

XXI asrda tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalari va xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida bu sohalarining dolzarb muammolari ko'paymoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslik nafaqat til tizimini o'rganish, balki uni ijtimoiy, madaniy va texnologik kontekstda tahlil qilishni ham talab qilmoqda. Tarjimashunoslik esa faqat tilni emas, balki madaniyatlararo muloqotni ham chuqur tahlil qilishni zarur qiladi.

1. Tilshunoslikdagi dolzarb muammolar

a) Neologizmlar va zamonaviy lug'at tarkibi

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni yuzlab yangi soʻzlar — neologizmlar vujudga kelmoqda. Tilshunoslar ushbu yangi soʻzlarning kelib chiqishi, ishlatilish chastotasi va grammatik integratsiyasi bilan bogʻliq masalalarni oʻrganmoqda. Shu bilan birga, bu soʻzlarning normativ lugʻatga qanday kiritilishi boʻyicha bahslar mavjud.

b) Kod aralashuvi (code-switching)

Koʻp tillilik sharoitida, ayniqsa diasporadagi tillarda kod aralashuvi tez-tez uchramoqda. Bu holat nutq madaniyati va norma muammolarini keltirib chiqarmoqda. Tilshunoslar bunday aralashuvni ijtimoiy-lingvistik fenomen sifatida oʻrganmoqda.

c) Sunʼiy intellekt va til modellarining rivoji

Neyron tarmoqlarga asoslangan til modellari (masalan, GPT, BERT) tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlarini oʻzgartirmoqda. Bu esa tilshunoslikka yangi tadqiqot usullarini olib kirmoqda, shu bilan birga etik muammolarni ham tugʻdirmoqda.

2. Tarjimashunoslikdagi dolzarb muammolar

a) Mashina tarjimasi va inson tarjimoni oʻrtasidagi tafovut

Google Translate, DeepL kabi vositalar tarjima sohasida inqilob yasadi. Ammo ular kontekstual aniqlik, madaniy oʻziga xoslik va til ohangini yetkazishda hanuz oʻjizlik qilmoqda. Bu esa tarjima sifatiga taʼsir qilmoqda.

b) Madaniy moslashuv (cultural adaptation)

Tarjimada nafaqat soʻzlar, balki madaniy maʼlumotlar, ijtimoiy kontekstlar ham toʻgʻri yetkazilishi kerak. Shu sababli, tarjimonlar madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga majbur boʻlmoqda.

c) Terminologik muammolar

Fan-texnika taraqqiyoti bilan har bir sohada yangi terminlar paydo boʻlmoqda. Ularning maʼno jihatdan toʻgʻri tarjima qilinishi muhim masalalardan biridir. Aks holda, notoʻgʻri tarjimalar ilmiy yoki huquqiy xatoliklarga olib kelishi mumkin [1, 370 b].

Til nafaqat aloqa vositasi, balki u inson tabiatini anglashning oʻziga xos kalitidir, millat qadriyatlarini saqlash vositasidir. Har qanday xalqning uzoq yillik tarixiy rivojlanish davrida toʻplagan hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan barcha narsalar va unga saboq bergan barcha narsalar, har xil sharoitlarda olgan bilimlari kelajak avlodlarga til yordamida yetkaziladi. Til madaniy-tarixiy tajribani uzatish vositasidir va shuning uchun u tilda soʻzlashuvchilarni madaniy anʼanalari bilan aniqlaydi.

Maʼnoni tushuntirish: Uchastkunlik (ambiguity) va ironiya kabi amallar tilning maʼnosi boʻyicha muammolarni yaratadi. Bu muammolar, NLP sistemalarini

ma'nolarni to'g'ri tushunishda va matnlar ustida yaxshi tahlil qilishda imkoniyatlarini cheklashga olib kelishi mumkin [2, 289 b].

Yuqori darajada o'zlashtirilgan til: Bajarilayotgan vazifalarga qaramasdan, NLP modellarini o'zlashtirish oson emas. Har bir ma'lumot maydoni va vazifa o'zini turlari uchun alohida usul va tegishli modellarga ega bo'lishni talab qiladi.

So'zlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirish: Biror so'z yoki matnning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda, so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tushlash va tarjima qilish qiyinliklarni olib kelishi mumkin.

Badiiy va oson ifodalash: Badiiy matnlarni tushuntirish va bu matnlarni o'qish, yozish, yoki yozishni yaxshi qilish NLP sistemalariga qiyinroq keladi. Bunday muammolar, tilda san'at, so'z san'ati, hikoyalar, va qurilmalardan foydalanishni o'rganishda yordam bera olmaydigan modellar uchun katta muammolarni yaratadi.

Amaliyot materiallarining kamligi: Bir nechta turli sohalar va tillar uchun yuqori sifatli amaliyot materiallari yig'ib olish qiyin bo'lishi mumkin. Modellarini o'zlashtirish uchun katta miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lish, amaliy mashg'ulotlar, vaqtlar va xodimlar talablarni kuchaytirish kerak. Maxsus korpuslar va madaniyatga bog'liq muammolar: Maxsus sohalar, so'zlar, va madaniyatlar uchun maxsus korpuslar yaratish va ularni qulay o'rganish texnikasi paydo bo'lishi kerak. Bu muammolar, xorijiy tillar, aksentlar, leksikalar va ma'nolar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydigan muammolarga olib kelishi mumkin.

Bu muammolar va qiyinchiliklar NLP sohasida yetishuv jarayonida o'z ko'rsatgichlarini topishda va muvaffaqiyatli bo'lishda hisoblanadi. Bunday muammolar, texnologiyalarni yaxshi tushunish va ma'nolar bilan ishlashga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlarni rivojlantirishda ilmiy va amaliy jamg'armalarni talab etadi.

Zamonaviy tilshunoslik (NLP) sohasidagi dolzarb muammolari va ulag'r yechimlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Uchastkunlik va kontekst:

Uchastkunlik (ambiguity) va kontekstni tushuntirish - so'zlar, so'z to'plamlari yoki matnlar bir nechta ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Bu muammolarni yechish uchun, zamonaviy tilshunoslik modellari qo'shimcha ma'lumotlar, kontekst va tarixiy ma'lumotlardan foydalangan holda so'zlarni tushuntirishni o'rganishga qodir bo'lishi kerak.

2. Ma'lumot kamligi:

Yaxshi ishlash uchun zamonaviy tilshunoslik modellari katta miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Ma'lumotlar tarqalganligi va amalga oshirilgan

umumiy ta'lim sohalaridagi muammo - modellar ko'p ma'lumot olish va ishlashni o'rganishi kerak.

3. O'zlashtirilgan tillar va madaniyatlar:

Modellar o'zlashtirilgan tillarning, xususan ham yirik tillarning va madaniyatlarining yaxshi o'rganilgan bo'lishi kerak. Bu yondashuvlar texnik muammo emas, balki muhit, madaniyat va ijtimoiy kontekstlar bo'yicha tushuntirish va tarjima qilishga qaratilgan [3, 465 b].

4. Bias va adolat:

Zamonaviy tilshunoslik modellari jamiyatdan olingan ma'lumotlarga asoslangan holda o'rganiladi. Bu esa, adolat va bias muammolariga olib kelishi mumkin. Odatda, modellar jamiyatning belli guruhiga mansub bo'lgan ma'lumotlarga o'rgangan holda, boshqa guruhga mansub bo'lgan ma'lumotlarga ta'sir qilishi mumkin. Bu qadamlar har bir tilshunoslik loyihasi uchun maslahat berish mumkin va muammolarni yechishda yordam bera olish uchun yaxshi bir boshlang'ich bo'lib hisoblanadi [4, 231 b].

Tilshunoslikda muammolar yuzaga kelmasligi uchun quyidagi qadamlarni ko'rish mumkin:

Ko'pma'naviy ma'lumotlar bilan ta'minlash:

Modellarni o'rgatish uchun ko'pma'naviy, turli manbalardan va madaniyatlar asosida ma'lumotlarni ishlatish muhimdir. Bu ko'rsatilganligini oshirish va modellarni aniq va amalga oshirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish uchun ko'pma'naviy ma'lumotlar to'plamlaridan foydalanish juda muhim.

O'zlashtirilgan modellarni ishlab chiqish:

O'zlashtirilgan modellalar o'rganish, ko'pni o'zlashtirilgan va mahalliy muhitlar uchun ishlatiladigan yaxshi natijalarni olish uchun juda muhimdir. Modellalarni turli muhitlarga mos ravishda o'zlashtirish, ularni ma'lumotlarni to'g'ri tushunish va ko'proq noyob til va madaniyatlar uchun ishlatish imkoniyatini yaratadi.

Juda ko'p ma'lumotdan foydalanish:

Ko'p ma'lumotdan foydalanish, xususan ham uning aniq manosi va o'zgaruvchanligini tushuntirish uchun yaxshi natijalarga olib keladi. Bunday ma'lumotlar orqali modellalar o'rganish va ma'lumotlarni tahlil qilish, modellalarni yaxshi natijalarga olib kelishga yordam bera olishi mumkin.

Joriy muhitda (on-premises) ishlatish:

Modellalarni joriy muhitda ishlatish, uning amaliyotga o'tishini o'rganish va uni boshqa modellalardan farqini tushunish uchun muhimdir. Joriy muhitda ishlatish,

modellalarning texnik va amaliy muammolarga qanday javob berishini aniqlashda yordam bera olish imkoniyatini yaratadi.

Hujjatlarni aniqlash va tafsilotlar bilan ishlash:

Modellalarni tahlil qilish, ularning aniqlik va to'g'ri ishlashini tushuntirish uchun hujjatlar va tafsilotlar bilan ishlash muhimdir. Shunday qilish orqali, modellalarning qanday qaror qabul qildigini va ularning qanday tahlil qilishlari mumkinligini tushunish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

XULOSA

Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlarining rivojlanishi bilan birga, ularning oldida yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun an'anaviy yondashuvlar yetarli emas. Shu bois, tarmoqlararo yondashuv (interdisciplinary approach), sun'iy intellektdan foydalanish, va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Shuningdek, yangi neologizmlar, kod aralashuvi va tarjimada madaniy tafovutlar kabi masalalarni chuqur o'rganish fanga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press. 2010. 70(8), 370-388. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge. 2018-03-14 (2) 289-292
2. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge. 2015-2(9), 465-469.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода. Высшая школа. 1990. 60(6), 265-269.
4. Эрматов Ш. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan nashriyoti. 2020-2(9), 231-235.

SO'Z BIRIKMASI VA UNING BIRIKISH USULLARI**AMANBAYEVA DILNURA ERGASHBEK QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3– bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilidagi so'z birikmalari tushunchasini, ularning tarkibi (hokim va tobe qismlar), bog'lovchi vositalari va birikish usullarini (boshqaruv, moslashuv, bitishuv) batafsil yoritadi. Misollar yordamida birikmalarining qanday grammatik qo'shimchalar, ko'makchi so'zlar, tartib va ohang orqali hosil bo'lishi tushuntiriladi. Maqola nutq qurilishida so'z birikmalarining o'rni va foydasi, shuningdek farqlari (so'z birikmasi vs gap, va qo'shma so'z) haqida ilmiy nuqtai nazardan mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: So'z birikmasi, hokim qism, tobe qism, boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

Annotation

This article provides a detailed exploration of word combinations in Uzbek language, their structure (headword and dependent part), connecting tools, and the methods of combination: government, agreement, and adjacency. Through examples, it illustrates how these combinations form via grammatical suffixes, postpositions, word order, and intonation. It also discusses their role and usefulness in sentence construction, and contrasts word combinations with sentences and compound words from a scholarly perspective.

So'z birikmasi tilning sintaktik qurilishida muhim birlik hisoblanadi. U ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noga ega so'zlarning mazmunan va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'ladi. So'z birikmalari gap qurilishining asosiy bo'g'ini sifatida nutq jarayonida fikrni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ular bir butun holda tushunchani, predmet va hodisalarni nomlashda, ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatishda ishlatiladi. So'z birikmasida hokim so'z va tobe so'z mavjud bo'lib, ular o'zaro grammatik vositalar orqali bog'lanadi. Tobe so'z hokim so'zga ergashadi va uning ma'nosini to'ldiradi, aniqlaydi yoki cheklaydi. O'zbek tilida so'z birikmalarining birikish usullari uch turga bo'linadi: boshqaruv, moslashuv va bitishuv. Boshqaruv usulida hokim so'z tobe so'zning qaysi shaklda kelishini talab qiladi. Masalan, "kitobni

o'qidi" birikmasida fe'l (o'qidi) otning (-ni) shaklini belgilaydi. Moslashuv usulida esa hokim va tobe so'zlar bir xil grammatik shaklda keladi. Masalan, "yaxshi bola" birikmasida sifat va ot birlik-son, kelishik kabi shakllarda moslashadi. Bitishuv usulida esa hokim va tobe so'z shaklan o'zgarishsiz, faqat tartib va ohang orqali bog'lanadi: "tez yurdi", "tog' yonbag'ri". Sintaktik munosabatlar o'zbek tilida grammatik vositalar (qo'shimcha, qo'shma shakl, ohang) orqali amalga oshadi. Har bir birikish usuli nutqning aniqligi va ifoda imkoniyatini kengaytiradi. So'z birikmalari orqali gaplar hosil qilinadi, chunki gapning asosi bo'lgan kesim va boshqa bo'laklarning mazmuni ko'pincha so'z birikmalari vositasida ifodalanadi. Demak, so'z birikmasi gap qurilishining poydevori hisoblanadi. Shu bois, uni o'rganish o'zbek tili sintaksisini chuqur anglash uchun zarurdir. So'z birikmalarining tadqiqi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Tarkibidagi hokim qismning qaysi so'z turkumidan bo'lishiga ko'ra so'z birikmasining 2 turi farqlanadi: ot so'z birikmasi va fe'l so'z birikmasi. Ot so'z birikmasi hokim komponenti fe'ldan boshqa turkumga oid so'z (ot, son, ravish) bilan ifodalangan so'z birikmasidir (yuk mashinasi, barcha o'quvchilar, go'zal qishloq va boshqalar). Fe'l so'z birikmasi hokim qismi fe'l bilan ifodalangan so'z birikmalaridir (bog'ni aylanmoq, kitob o'qimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra 3 turi farqlanadi: aniqllovchili so'z birikmasi (yangi kitob), to'ldiruvchili so'z birikmasi (ukamni o'ynatdim) va holli so'z birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq). O'quvchilar ularni puxta o'zlashtirsa, gap tuzishda, matn yaratishda va nutqni to'g'ri shakllantirishda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, so'z birikmalari tilning leksik boyligini ochishda, yangi tushunchalarni nomlashda ham faol ishtirok etadi. So'z birikmasi komponentlarining tarkibiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Komponentlarining har biri bir so'z shakliga teng bo'lgan so'z birikmasi sodda so'z birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq so'zdan, so'z birikmasidan iborat bo'lgan birikmalar murakkab so'z birikmasi deyiladi. Masalan, oliy ma'lumotli mutaxassis (oliy ma'lumotli – tobe qism, mutaxassis – hokim qism).

So'z birikmasi o'zbek tilining sintaktik qurilishida asosiy birliklardan biridir. Ular fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, nutqni mazmunan boyitish va gap qurilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv, moslashuv va bitishuv kabi birikish usullari esa sintaktik munosabatlarning turli ko'rinishlarini ochib beradi. So'z birikmasini o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy nutqiy ko'nikmaga ham ega bo'ladilar. Shu bois mazkur mavzuni chuqur o'rganish tilni mukammal o'zlashtirish va uni to'g'ri qo'llashda beqiyos ahamiyatga ega. So'z birikmasi – ikki

yoki undan ortiq mustaqil soʻzning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil boʻlgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma – nutq birligi: ignaning koʻzi, kitobni oʻqimoq, oydin kecha va boshqa. Har qanday soʻz birikmasi birdan ortiq mustaqil soʻzning birikuvidan hosil boʻladi, tuziladi va ikki qismdan – hokim va tobe qismdan tashkil topadi: oliy maʼlumot (oliy – tobe qism, maʼlumot – hokim qism).

Soʻz birikmasi komponentlarining tarkibiga koʻra sodda va murakkab turlarga boʻlinadi. Komponentlarining har biri bir soʻz shakliga teng boʻlgan soʻz birikmasi sodda soʻz birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq soʻzdan, soʻz birikmasidan iborat boʻlgan birikmalar murakkab soʻz birikmasi deyiladi. Masalan, oliy maʼlumotli mutaxassis (oliy maʼlumotli – tobe qism, mutaxassis – hokim qism).

Tarkibidagi hokim qismning qaysi soʻz turkumidan boʻlishiga koʻra soʻz birikmasining 2 turi farqlanadi: ot soʻz birikmasi va feʼl soʻz birikmasi. Ot soʻz birikmasi hokim komponenti feʼldan boshqa turkumga oid soʻz (ot, son, ravish) bilan ifodalangan soʻz birikmasidir (yuk mashinasi, barcha oʻquvchilar, goʻzal qishloq va boshqalar). Feʼl soʻz birikmasi hokim qismi feʼl bilan ifodalangan soʻz birikmalaridir (bogʻni aylanmoq, kitob oʻqimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe soʻzning sintaktik vazifasiga koʻra 3 turi farqlanadi: aniqlovchili soʻz birikmasi (yangi kitob), toʻldiruvchili soʻz birikmasi (ukamni oʻynatdim) va holli soʻz birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq). Soʻz birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega boʻlmaydi, fikr ifodalamaydi va shu xususiyati bilan sintaktik birlik boʻlmish gapdan farqlanadi. Teng bogʻlanish soʻz qoʻshilmasini, tobe bogʻlanish soʻz birikmasini hosil qiladi. Bundan tashqari soʻz birikmalari 1) boshqaruvli (tushum, joʻnalish, oʻrin – payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari orqali bogʻlanish), 2) bitishuvli (ohang orqali bogʻlanish) va 3) moslashuvli (qaratqich kelishik qoʻshimchasi va egalik qoʻshimchalari orqali bogʻlanish) soʻz birikmalariga boʻlinadi.

Tobe sintaktik munosabatda boʻlish; soʻz birikmasi yoki gap tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro teng boʻlmagan, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysunuvchi munosabati. Sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysunadigan, biri ikkinchisiga tobe boʻlgan birliklar orasida tobe aloqa mavjud boʻladi. Tobe aloqada bir uzv ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda boʻladi. Mas: aniqlovchi — aniqlanmish, toʻldiruvchi — kesim, ega — kesim aloqalari tobe aloqadir: goʻzal hayot, hunarni sevmoq, dalalar yashnamoqda kabi. Ega — kesim munosabatida hokim qism, qolgan turdagi birikuvlarda esa tobe qism oldin keladi. Tobe aloqaning 3 xil turi bor: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Boshqaruv aloqasida tobe soʻz hokim soʻzning

talabi bilan ma'lum grammatik shaklga kiradi, shu shakl orqali tobelanadi: bozorga bormoq, qalam bilan yozmoq. Moslashuv aloqasida tobe so'z o'z shaklini hokim so'zning shakliga moslaydi, hokim so'zning shakli o'zgarishi bilan tobe so'z ham unga moyil holda shaklini o'zgartiradi: men aytaman, sen aytasan; mening kitobim, uning kitobi kabi. Bitishuv aloqasida tobe so'z hokim so'zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bog'lanadi: musaffo osmon, tez gapirmoq kabi.

Boshqaruv munosabatli so'z birikmasida hokim so'zning talabi bilan tobe so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalardan biri yoki ko'makchilar yordamida unga bog'lanadi.

Masalan: ukamni chaqirishdi, sizga aytmochi ekan, maktabda o'qiydi, Toshkentdan keldik, dunyo bo'ylab sayohat qilamiz...

Boshqaruv munosabatli so'z birikmasida tobe va hokim so'zning tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ot + fe'l: maktabga boradi;

Otlashgan so'z + fe'l: qatnashuvchilar uchun tayyorlandi;

Olmosh + sifat: hammadan mehribon;

Ot + ot: bolalar uchun kitoblar

Ot + undov so'z : ustozlarga rahmat...

Ba'zan boshqaruv munosabatli so'z birikmasi tarkibidagi tushum kelishigi qo'shimchasi (III shaxs birlikda) qisqargan holda qo'llanilishi mumkin.

Masalan: farzandin(-i) o'yladi. Moslashuv munosabatli so'z birikmasida tobe so'z hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi orqali, hokim so'z tobe so'zga esa egalik qo'shimchalari orqali bog'lanadi.

Yuqoridagi misolda tushum kelishigining qisqargan shakli qaratqich kelishigining qisqargan shakli bilan shakldoshlik hosil qilgan.

Bunda fe'lga bog'langan so'z boshqaruv, otga bog'langan so'z esa moslashuv munosabatli so'z birikmasi hisoblanadi.

Masalan: farzandin(-i) o'yladi — boshqaruv,
farzandin(-ing) kelajagi — moslashuv.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbekadabiy tili. Toshkent, 2011.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, 1965.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent, 1995.

4. Muhiddinova H., Xudoyberganova D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2006

5. Abdurahmonov F. , Sulaymonov A. , Xoliyorov X. , Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis.

SO'Z BIRIKMASI VA UNING BIRIKISH USULLARI**AMANBAYEVA DILNURA ERGASHBEK QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3– bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilidagi so'z birikmalari tushunchasini, ularning tarkibi (hokim va tobe qismlar), bog'lovchi vositalari va birikish usullarini (boshqaruv, moslashuv, bitishuv) batafsil yoritadi. Misollar yordamida birikmalarining qanday grammatik qo'shimchalar, ko'makchi so'zlar, tartib va ohang orqali hosil bo'lishi tushuntiriladi. Maqola nutq qurilishida so'z birikmalarining o'rni va foydasi, shuningdek farqlari (so'z birikmasi vs gap, va qo'shma so'z) haqida ilmiy nuqtai nazardan mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: So'z birikmasi, hokim qism, tobe qism, boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

Annotation

This article provides a detailed exploration of word combinations in Uzbek language, their structure (headword and dependent part), connecting tools, and the methods of combination: government, agreement, and adjacency. Through examples, it illustrates how these combinations form via grammatical suffixes, postpositions, word order, and intonation. It also discusses their role and usefulness in sentence construction, and contrasts word combinations with sentences and compound words from a scholarly perspective.

So'z birikmasi tilning sintaktik qurilishida muhim birlik hisoblanadi. U ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noga ega so'zlarning mazmunan va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'ladi. So'z birikmalari gap qurilishining asosiy bo'g'ini sifatida nutq jarayonida fikrni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ular bir butun holda tushunchani, predmet va hodisalarni nomlashda, ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatishda ishlatiladi. So'z birikmasida hokim so'z va tobe so'z mavjud bo'lib, ular o'zaro grammatik vositalar orqali bog'lanadi. Tobe so'z hokim so'zga ergashadi va uning ma'nosini to'ldiradi, aniqlaydi yoki cheklaydi. O'zbek tilida so'z birikmalarining birikish usullari uch turga bo'linadi: boshqaruv, moslashuv va bitishuv. Boshqaruv usulida hokim so'z tobe so'zning qaysi shaklda kelishini talab qiladi. Masalan, "kitobni

o'qidi" birikmasida fe'l (o'qidi) otning (-ni) shaklini belgilaydi. Moslashuv usulida esa hokim va tobe so'zlar bir xil grammatik shaklda keladi. Masalan, "yaxshi bola" birikmasida sifat va ot birlik-son, kelishik kabi shakllarda moslashadi. Bitishuv usulida esa hokim va tobe so'z shaklan o'zgarishsiz, faqat tartib va ohang orqali bog'lanadi: "tez yurdi", "tog' yonbag'ri". Sintaktik munosabatlar o'zbek tilida grammatik vositalar (qo'shimcha, qo'shma shakl, ohang) orqali amalga oshadi. Har bir birikish usuli nutqning aniqligi va ifoda imkoniyatini kengaytiradi. So'z birikmalari orqali gaplar hosil qilinadi, chunki gapning asosi bo'lgan kesim va boshqa bo'laklarning mazmuni ko'pincha so'z birikmalari vositasida ifodalanadi. Demak, so'z birikmasi gap qurilishining poydevori hisoblanadi. Shu bois, uni o'rganish o'zbek tili sintaksisini chuqur anglash uchun zarurdir. So'z birikmalarining tadqiqi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Tarkibidagi hokim qismning qaysi so'z turkumidan bo'lishiga ko'ra so'z birikmasining 2 turi farqlanadi: ot so'z birikmasi va fe'l so'z birikmasi. Ot so'z birikmasi hokim komponenti fe'ldan boshqa turkumga oid so'z (ot, son, ravish) bilan ifodalangan so'z birikmasidir (yuk mashinasi, barcha o'quvchilar, go'zal qishloq va boshqalar). Fe'l so'z birikmasi hokim qismi fe'l bilan ifodalangan so'z birikmalaridir (bog'ni aylanmoq, kitob o'qimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra 3 turi farqlanadi: aniqllovchili so'z birikmasi (yangi kitob), to'ldiruvchili so'z birikmasi (ukamni o'ynatdim) va holli so'z birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq). O'quvchilar ularni puxta o'zlashtirsa, gap tuzishda, matn yaratishda va nutqni to'g'ri shakllantirishda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, so'z birikmalari tilning leksik boyligini ochishda, yangi tushunchalarni nomlashda ham faol ishtirok etadi. So'z birikmasi komponentlarining tarkibiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Komponentlarining har biri bir so'z shakliga teng bo'lgan so'z birikmasi sodda so'z birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq so'zdan, so'z birikmasidan iborat bo'lgan birikmalar murakkab so'z birikmasi deyiladi. Masalan, oliy ma'lumotli mutaxassis (oliy ma'lumotli – tobe qism, mutaxassis – hokim qism).

So'z birikmasi o'zbek tilining sintaktik qurilishida asosiy birliklardan biridir. Ular fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, nutqni mazmunan boyitish va gap qurilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv, moslashuv va bitishuv kabi birikish usullari esa sintaktik munosabatlarning turli ko'rinishlarini ochib beradi. So'z birikmasini o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy nutqiy ko'nikmaga ham ega bo'ladilar. Shu bois mazkur mavzuni chuqur o'rganish tilni mukammal o'zlashtirish va uni to'g'ri qo'llashda beqiyos ahamiyatga ega. So'z birikmasi – ikki

yoki undan ortiq mustaqil soʻzning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil boʻlgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma – nutq birligi: ignaning koʻzi, kitobni oʻqimoq, oydin kecha va boshqa. Har qanday soʻz birikmasi birdan ortiq mustaqil soʻzning birikuvidan hosil boʻladi, tuziladi va ikki qismdan – hokim va tobe qismdan tashkil topadi: oliy maʼlumot (oliy – tobe qism, maʼlumot – hokim qism).

Soʻz birikmasi komponentlarining tarkibiga koʻra sodda va murakkab turlarga boʻlinadi. Komponentlarining har biri bir soʻz shakliga teng boʻlgan soʻz birikmasi sodda soʻz birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq soʻzdan, soʻz birikmasidan iborat boʻlgan birikmalar murakkab soʻz birikmasi deyiladi. Masalan, oliy maʼlumotli mutaxassis (oliy maʼlumotli – tobe qism, mutaxassis – hokim qism).

Tarkibidagi hokim qismning qaysi soʻz turkumidan boʻlishiga koʻra soʻz birikmasining 2 turi farqlanadi: ot soʻz birikmasi va feʼl soʻz birikmasi. Ot soʻz birikmasi hokim komponenti feʼldan boshqa turkumga oid soʻz (ot, son, ravish) bilan ifodalangan soʻz birikmasidir (yuk mashinasi, barcha oʻquvchilar, goʻzal qishloq va boshqalar). Feʼl soʻz birikmasi hokim qismi feʼl bilan ifodalangan soʻz birikmalaridir (bogʻni aylanmoq, kitob oʻqimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe soʻzning sintaktik vazifasiga koʻra 3 turi farqlanadi: aniqlovchili soʻz birikmasi (yangi kitob), toʻldiruvchili soʻz birikmasi (ukamni oʻynatdim) va holli soʻz birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq). Soʻz birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega boʻlmaydi, fikr ifodalamaydi va shu xususiyati bilan sintaktik birlik boʻlmish gapdan farqlanadi. Teng bogʻlanish soʻz qoʻshilmasini, tobe bogʻlanish soʻz birikmasini hosil qiladi. Bundan tashqari soʻz birikmalari 1) boshqaruvli (tushum, joʻnalish, oʻrin – payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari orqali bogʻlanish), 2) bitishuvli (ohang orqali bogʻlanish) va 3) moslashuvli (qaratqich kelishik qoʻshimchasi va egalik qoʻshimchalari orqali bogʻlanish) soʻz birikmalariga boʻlinadi.

Tobe sintaktik munosabatda boʻlish; soʻz birikmasi yoki gap tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro teng boʻlmagan, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysunuvchi munosabati. Sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysunadigan, biri ikkinchisiga tobe boʻlgan birliklar orasida tobe aloqa mavjud boʻladi. Tobe aloqada bir uzv ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda boʻladi. Mas: aniqlovchi — aniqlanmish, toʻldiruvchi — kesim, ega — kesim aloqalari tobe aloqadir: goʻzal hayot, hunarni sevmok, dalalar yashnamoqda kabi. Ega — kesim munosabatida hokim qism, qolgan turdagi birikuvlarda esa tobe qism oldin keladi. Tobe aloqaning 3 xil turi bor: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Boshqaruv aloqasida tobe soʻz hokim soʻzning

talabi bilan ma'lum grammatik shaklga kiradi, shu shakl orqali tobelanadi: bozorga bormoq, qalam bilan yozmoq. Moslashuv aloqasida tobe so'z o'z shaklini hokim so'zning shakliga moslaydi, hokim so'zning shakli o'zgarishi bilan tobe so'z ham unga moyil holda shaklini o'zgartiradi: men aytaman, sen aytasan; mening kitobim, uning kitobi kabi. Bitishuv aloqasida tobe so'z hokim so'zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bog'lanadi: musaffo osmon, tez gapirmoq kabi.

Boshqaruv munosabatli so'z birikmasida hokim so'zning talabi bilan tobe so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalardan biri yoki ko'makchilar yordamida unga bog'lanadi.

Masalan: ukamni chaqirishdi, sizga aytmochi ekan, maktabda o'qiydi, Toshkentdan keldik, dunyo bo'ylab sayohat qilamiz...

Boshqaruv munosabatli so'z birikmasida tobe va hokim so'zning tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ot + fe'l: maktabga boradi;

Otlashgan so'z + fe'l: qatnashuvchilar uchun tayyorlandi;

Olmosh + sifat: hammadan mehribon;

Ot + ot: bolalar uchun kitoblar

Ot + undov so'z : ustozlarga rahmat...

Ba'zan boshqaruv munosabatli so'z birikmasi tarkibidagi tushum kelishigi qo'shimchasi (III shaxs birlikda) qisqargan holda qo'llanilishi mumkin.

Masalan: farzandin(-i) o'yladi. Moslashuv munosabatli so'z birikmasida tobe so'z hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi orqali, hokim so'z tobe so'zga esa egalik qo'shimchalari orqali bog'lanadi.

Yuqoridagi misolda tushum kelishigining qisqargan shakli qaratqich kelishigining qisqargan shakli bilan shakldoshlik hosil qilgan.

Bunda fe'lga bog'langan so'z boshqaruv, otga bog'langan so'z esa moslashuv munosabatli so'z birikmasi hisoblanadi.

Masalan: farzandin(-i) o'yladi — boshqaruv,
farzandin(-ing) kelajagi — moslashuv.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbekadabiy tili. Toshkent, 2011.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, 1965.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent, 1995.

4. Muhiddinova H., Xudoyberganova D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2006

5. Abdurahmonov F. , Sulaymonov A. , Xoliyorov X. , Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA URG'UNING ROLI VA VAZIFASI.**AHROROVA MARJONA ZOKIR QIZI.**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va

adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida urg'u hodisasining fonetik va funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Urg'u- nutq tovushlarining ohang orqali ajralib turishini ta'minlaydigan fonetik vosita sifatida tilda muhim rol o'ynaydi. Maqolada shuningdek, adabiy til normalarida urg'u o'rning barqarorligi va me'yordan chetga chiqish holatlari tahlil qilinadi. Hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, sahna nutqi va ijtimoiy tarmoqlardagi urg'u qo'yishdagi xatolar ham ko'rib chiqilib, ularning nutq madaniyatiga ta'siri ochib beriladi, ushbu maqola fonetika, stilistika hamda nutq madaniyati sohalarida izlanish olib borayotganlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: urg'u, fonetika, adabiy til, urg'u ma'yorlari nutq ohangi, leksik urg'u, nutq madaniyati, urg'uning funksiyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются фонетические и грамматические аспекты феномена ударения в современном узбекском литературном языке. Анализируются функциональные особенности. Ударение играет важную роль в языке как фонетическое средство, обеспечивающее интонационное различие звуков речи. В статье также анализируются устойчивость оси ударения в нормах литературного языка и случаи отклонения от нормы. Рассматриваются ошибки в постановке ударения в современных СМИ, сценической речи и социальных сетях, раскрывается их влияние на культуру речи. Статья может быть полезна исследователям в области фонетики, стилистики и культуры речи.

Ключевые слова: ударение, фонетика, литературный язык. Нормы ударения, тон речи, лексическое ударение, звуковая культура, функция ударения.

Bo'g'in yoki so'zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi urg'u deyiladi. So'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'u so'z (leksik) urg'u deyiladi. Masalan: bola, lola. kitob, ishchilar, talabalar, mulkdor. So'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u ham shunga mos holda ko'chadi. Masalan: g'alla –g'allakor, paxta-paxtakor.

Ko'pgina so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inda bo'lgani uchun o'zbek tilining so'z urg'usi bog'liq urg'u sanaladi.

O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqdir. Masalan, tadbir, monitoring, reklama, tijorat, bahor va h.k.

Urg'u mano farqlash uchun ham xizmat qiladi: hozir-hozir, etik-etik, yangi-yangi, akademik-akademik.

Shuningdek, urg'usi birinchi yoki o'rtadagi bo'g'inga tushadigan so'zlar ham o'zbek tilida anchagina bor. Bunday so'zlar tubandagi turkumlarda kuzatiladi:

1. ravishlarda: yangi, hozir, doim, hamisha;
2. olmoshlarga: hamma, barcha, nimadir, biroq, bir narsa;
3. modal so'zlarda; albatta, ehtimol, aftidan;
4. ayrim yordamchi so'zlarda; ammo, lekin, hatto, balki.

O'zbek tilida urg'u olmaydigan unsurlar ham bor. Bunda: *-ku, -u, -yu, mi, chi* kabi yuklamalarni ko'rsatish mumkin; *sen-ku, bordim-ku, aytsam-chi, siz-chi, bormi*. Bulardan boshqa, o'zbek tilida bir qancha qo'shimchalar urg'u olmaydi; Masalan: *-cha, day, (dek);* va bo'lishsizlik qo'shimchalari *-ma*; kesimlik qo'shimchasi: *man, san, miz, siz. kabilar*. Misollar: *Shamolday uchadi. Yosh qizcha. Qamishday qomati bor. Ismini bilolmadim. Bu Vatanning egasi bizmiz. Oltin olma, olqish ol kabi.*

Gap (logik) urg'u. Gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchli ohang bilan aytilishi logik (gap) urg'usi deyiladi. Misollar: 1. Bugun majlis bo'ladi (ertaga emas, balki bugun)

2. Bugun majlis bo'ladi (faqat majlis bo'ladi), 3. Bugun majlis bo'ladi (bo'lmaydi emas, bo'ladi) gap so'zlarning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u erkin urg'u deyiladi. Masalan, *gazeta, respublika, vistavka, lampa, ruchka, auditoriya, konstitutsiya* va boshqalar.

Urg'uning vazifalari: 1. Talaffuzni aniqlik bilan ifodalash. So'zning qaysi bo'g'iniga urg'u tushishi nutqni tushunishda muhim. Agar urg'u noto'g'ri joyda bo'lsa, so'z noto'g'ri tushunilishi mumkin.

2. Nutq ritmi, ohang, melodiya shakllantirish. Urg'u so'zlarda ritmik markazlarni yaratadi, Emotsionallik va ifoda naqshini (intonatsiya) boyitadi.

3. Semantik farqlarni ko'rsatish. Ba'zan urg'u joyi boshqa urg'u bilan farqlanadigan ma'nolar hosil qiladi yoki so'z turiga (masalan, fe'l yoki ot) taalluqli ma'no yo'nalishida farq paydo bo'ladi.

4. Leksikal birliklarni ajratish. Soʻzlar oraligʻidagi farqlarda urgʻu muhim belgidir — ikki xil soʻz bir xuddi bir xil tovushlar majmuasidan iborat boʻlishi, lekin urgʻu joyi farqi tufayli maʼnosi boshqacha boʻlishi mumkin

5. Uslubiy taʼsir va emotsional ohang. Adabiy nutq, sheʼr, proza, drama va boshqa badiiy janrlarda urgʻining joylashuvi va kuchi ifoda vositasi boʻlib xizmat qiladi: ritm, stress va urgʻu joylari qahramonning kayfiyati, holati yoki matnning hissiy yukini oshiradi.

Soʻzlardagi bir yoki undan ortiq boʻgʻinlarni ajratib talaffuz qilish turli nutqiy vositalar orqali amalga oshadi. Nafas kuchi, kuchli talaffuz va tovush paychalarining tebranishi soʻzga urgʻu qoʻyishning asosiy vositalari hisoblanadi. Artikulyatsion-akustik vositalar urgʻuning sifatini belgilaydi. Urgʻu sifatiga koʻra uch turga boʻlinadi: dinamik urgʻu, miqdor urgʻu, musiqiy urgʻu.

Tillarning boshqa tillardan soʻz olib, olinma soʻzlar hisobiga ham boyib borishini nazarga tutsak, dinamik urgʻu deyarli barcha tillar uchun xosdir. Bu soʻz yunon tilidan olingan boʻlib „kuch“ demakdir. Tilshunoslikda soʻz tarkibidagi urgʻu qabul qilgan unli tovushning bir qadar kuchli va choʻziq talaffuz etilishi dinamik urgʻu hisoblanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida rus tilidan farqli oʻlaroq soʻz tarkibidagi urgʻuli unli tovush taʼsirida urgʻusiz boʻgʻinlardagi unlilar artikulyatsiyasi deyarli oʻzgarmaydi. Masalan, bilimdonlikdan, yoshlarimizning kabi. Talaffuz jarayonidagi urgʻuli boʻgʻinning choʻziqligi asosiy xizmatni bajarsa, miqdor urgʻusi yoki kvantitativ urgʻu deyiladi. Soʻzlar talaffuzida sof miqdor urgʻuni ajratish qiyin. Chunki u koʻproq dinamik urgʻu bilan qorishiq holda boʻladi. Shunga koʻra rus, oʻzbek, nemis tillaridagi urgʻu dinamik-kvantitativ urgʻu sanaladi.

Asosiy ton (ohang)ning harakati yordamida amalga oshiriluvchi urgʻu tonal(melodic) yoki musiqiy urgʻu deyiladi. Qadimgi grek, qadimgi hind, hozirgi xitoy, yapon, serb, litva tillarida muzikal (musiqiy) urgʻu uchraydi. Norveg, island, shved tillarida urgʻu ovoz kuchi va ohang bilan bogʻliq. Shuning uchun ham bu tillarning urgʻusi dinamik-musiqiy urgʻu hisoblandi.

Dunyodagi barcha tillar ham soʻz urgʻusiga ega boʻlavermaydi. Shimoliy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika tillarining koʻpchiligida soʻz urgʻusi yoʻq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, urgʻu- hozirgi oʻzbek adabiy tilining muhim fonetik unsurlaridan biridir. U soʻz va gap maʼnosini aniqlashtirish, nutq ifodadorligini oshirish hamda muloqot samaradorligini taʼminlashda katta rol oʻynaydi. Adabiy til doirasida urgʻu joylashuvi qatʼiy boʻlmasa-da, u oʻz

qonuniyatlariga ega va nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbek tilini to'g'ri va ta'sirli qo'llash uchun urg'u me'yorlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboy Jamolxonov „Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligi. Davlat ilmiy nashriyoti.
Toshkent-2013 137-144-bet.
2. Ona tili. 5-sinf darsligi.
3. Jo'rayev.N. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent-2008.
4. Sayfullayeva. H, Mengliyev. B, Boqiyeva. G, Qubonova. M "Hozirgi o'zbek adabiy tili ' Toshkent 1999-2000-yil'
5. Qodirjon. M, R. Ikramov Tilshunislilik asoslari Toshkent 2006-yil.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA URG'UNING ROLI VA VAZIFASI.

AHROROVA MARJONA ZOKIR QIZI.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida urg'u hodisasining fonetik va funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Urg'u- nutq tovushlarining ohang orqali ajralib turishini ta'minlaydigan fonetik vosita sifatida tilda muhim rol o'ynaydi. Maqolada shuningdek, adabiy til normalarida urg'u o'rning barqarorligi va me'yordan chetga chiqish holatlari tahlil qilinadi. Hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, sahna nutqi va ijtimoiy tarmoqlardagi urg'u qo'yishdagi xatolar ham ko'rib chiqilib, ularning nutq madaniyatiga ta'siri ochib beriladi, ushbu maqola fonetika, stilistika hamda nutq madaniyati sohalarida izlanish olib borayotganlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: urg'u, fonetika, adabiy til, urg'u ma'yorlari nutq ohangi, leksik urg'u, nutq madaniyati, urg'uning funksiyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются фонетические и грамматические аспекты феномена ударения в современном узбекском литературном языке. Анализируются функциональные особенности. Ударение играет важную роль в языке как фонетическое средство, обеспечивающее интонационное различие звуков речи. В статье также анализируются устойчивость оси ударения в нормах литературного языка и случаи отклонения от нормы. Рассматриваются ошибки в постановке ударения в современных СМИ, сценической речи и социальных сетях, раскрывается их влияние на культуру речи. Статья может быть полезна исследователям в области фонетики, стилистики и культуры речи.

Ключевые слова: ударение, фонетика, литературный язык. Нормы ударения, тон речи, лексическое ударение, звуковая культура, функция ударения.

Bo'g'in yoki so'zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi urg'u deyiladi. So'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'u so'z (leksik) urg'u deyiladi. Masalan: bola, lola. kitob, ishchilar, talabalar, mulkdor. So'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u ham shunga mos holda ko'chadi. Masalan: g'alla –g'allakor, paxta-paxtakor.

Ko'pgina so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inda bo'lgani uchun o'zbek tilining so'z urg'usi bog'liq urg'u sanaladi.

O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqdir. Masalan, tadbir, monitoring, reklama, tijorat, bahor va h.k.

Urg'u mano farqlash uchun ham xizmat qiladi: hozir-hozir, etik-etik, yangi-yangi, akademik-akademik.

Shuningdek, urg'usi birinchi yoki o'rtadagi bo'g'inga tushadigan so'zlar ham o'zbek tilida anchagina bor. Bunday so'zlar tubandagi turkumlarda kuzatiladi:

1. ravishlarda: yangi, hozir, doim, hamisha;
2. olmoshlarga: hamma, barcha, nimadir, biroq, bir narsa;
3. modal so'zlarda; albatta, ehtimol, aftidan;
4. ayrim yordamchi so'zlarda; ammo, lekin, hatto, balki.

O'zbek tilida urg'u olmaydigan unsurlar ham bor. Bunda: *-ku, -u, -yu, mi, chi* kabi yuklamalarni ko'rsatish mumkin; *sen-ku, bordim-ku, aytsam-chi, siz-chi, bormi*. Bulardan boshqa, o'zbek tilida bir qancha qo'shimchalar urg'u olmaydi; Masalan: *-cha, day, (dek); va bo'lishsizlik qo'shimchalari -ma; kesimlik qo'shimchasi: man, san, miz, siz. kabilar*. Misollar: *Shamolday uchadi. Yosh qizcha. Qamishday qomati bor. Ismini bilolmadim. Bu Vatanning egasi bizmiz. Oltin olma, olqish ol kabi*.

Gap (logik) urg'u. Gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchli ohang bilan aytilishi logik (gap) urg'usi deyiladi. Misollar: 1. Bugun majlis bo'ladi (ertaga emas, balki bugun)

2. Bugun majlis bo'ladi (faqat majlis bo'ladi), 3. Bugun majlis bo'ladi (bo'lmaydi emas, bo'ladi) gap so'zlarning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u erkin urg'u deyiladi. Masalan, gazeta, respublika, vistavka, lampa, ruchka, auditoriya, konstitutsiya va boshqalar.

Urg'uning vazifalari: 1. Talaffuzni aniqlik bilan ifodalash. So'zning qaysi bo'g'iniga urg'u tushishi nutqni tushunishda muhim. Agar urg'u noto'g'ri joyda bo'lsa, so'z noto'g'ri tushunilishi mumkin.

2. Nutq ritmi, ohang, melodiya shakllantirish. Urg'u so'zlarda ritmik markazlarni yaratadi, Emotsionallik va ifoda naqshini (intonatsiya) boyitadi.

3. Semantik farqlarni ko'rsatish. Ba'zan urg'u joyi boshqa urg'u bilan farqlanadigan ma'nolar hosil qiladi yoki so'z turiga (masalan, fe'l yoki ot) taalluqli ma'no yo'nalishida farq paydo bo'ladi.

4. Leksikal birliklarni ajratish. Soʻzlar oraligʻidagi farqlarda urgʻu muhim belgidir — ikki xil soʻz bir xuddi bir xil tovushlar majmuasidan iborat boʻlishi, lekin urgʻu joyi farqi tufayli maʼnosi boshqacha boʻlishi mumkin

5. Uslubiy taʼsir va emotsional ohang. Adabiy nutq, sheʼr, proza, drama va boshqa badiiy janrlarda urgʻining joylashuvi va kuchi ifoda vositasi boʻlib xizmat qiladi: ritm, stress va urgʻu joylari qahramonning kayfiyati, holati yoki matnning hissiy yukini oshiradi.

Soʻzlardagi bir yoki undan ortiq boʻgʻinlarni ajratib talaffuz qilish turli nutqiy vositalar orqali amalga oshadi. Nafas kuchi, kuchli talaffuz va tovush paychalarining tebranishi soʻzga urgʻu qoʻyishning asosiy vositalari hisoblanadi. Artikulyatsion-akustik vositalar urgʻuning sifatini belgilaydi. Urgʻu sifatiga koʻra uch turga boʻlinadi: dinamik urgʻu, miqdor urgʻu, musiqiy urgʻu.

Tillarning boshqa tillardan soʻz olib, olinma soʻzlar hisobiga ham boyib borishini nazarga tutsak, dinamik urgʻu deyarli barcha tillar uchun xosdir. Bu soʻz yunon tilidan olingan boʻlib „kuch“ demakdir. Tilshunoslikda soʻz tarkibidagi urgʻu qabul qilgan unli tovushning bir qadar kuchli va choʻziq talaffuz etilishi dinamik urgʻu hisoblanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida rus tilidan farqli oʻlaroq soʻz tarkibidagi urgʻuli unli tovush taʼsirida urgʻusiz boʻgʻinlardagi unlilar artikulyatsiyasi deyarli oʻzgarmaydi. Masalan, bilimdonlikdan, yoshlarimizning kabi. Talaffuz jarayonidagi urgʻuli boʻgʻinning choʻziqligi asosiy xizmatni bajarsa, miqdor urgʻusi yoki kvantitativ urgʻu deyiladi. Soʻzlar talaffuzida sof miqdor urgʻuni ajratish qiyin. Chunki u koʻproq dinamik urgʻu bilan qorishiq holda boʻladi. Shunga koʻra rus, oʻzbek, nemis tillaridagi urgʻu dinamik-kvantitativ urgʻu sanaladi.

Asosiy ton (ohang)ning harakati yordamida amalga oshiriluvchi urgʻu tonal(melodic) yoki musiqiy urgʻu deyiladi. Qadimgi grek, qadimgi hind, hozirgi xitoy, yapon, serb, litva tillarida muzikal (musiqiy) urgʻu uchraydi. Norveg, island, shved tillarida urgʻu ovoz kuchi va ohang bilan bogʻliq. Shuning uchun ham bu tillarning urgʻusi dinamik-musiqiy urgʻu hisoblandi.

Dunyodagi barcha tillar ham soʻz urgʻusiga ega boʻlavermaydi. Shimoliy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika tillarining koʻpchiligida soʻz urgʻusi yoʻq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, urgʻu- hozirgi oʻzbek adabiy tilining muhim fonetik unsurlaridan biridir. U soʻz va gap maʼnosini aniqlashtirish, nutq ifodadorligini oshirish hamda muloqot samaradorligini taʼminlashda katta rol oʻynaydi. Adabiy til doirasida urgʻu joylashuvi qatʼiy boʻlmasa-da, u oʻz

qonuniyatlariga ega va nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbek tilini to'g'ri va ta'sirli qo'llash uchun urg'u me'yorlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboy Jamolxonov „Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligi. Davlat ilmiy nashriyoti.

Toshkent-2013 137-144-bet.

2. Ona tili. 5-sinf darsligi.

3. Jo'rayev.N. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent-2008.

4.Sayfullayeva. H, Mengliyev. B, Boqiyeva. G, Qubonova. M "Hozirgi o'zbek adabiy tili ' Toshkent 1999-2000-yil'

5. Qodirjon. M, R. Ikramov Tilshunislilik asoslari Toshkent 2006-yil.

O'ZBEK (ONA) TILI O'QITISH METODLARI VA USULLARI

**BOBORAHIMOVA O'G'LOY AKTAMJON QIZI,
QURBONBOYEVA DILBAR OLLOMBERGAN QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

boborahimova@gmail.com

dilbarqurbonboyeva23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilini o'qitish metodlari va usullari tushunchalari tahlil qilinadi. Metod va usulning o'zaro farqlari, ta'lim jarayonidagi o'rni, samarali ta'limga erishishda muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va AKT vositalarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli haqida so'z boradi. O'qituvchining ijodiy faoliyati va shaxsga mos yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ona tili, ta'lim metodlari, o'qitish usullari, pedagogika, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari, til o'qitish.

Annotation. This article analyzes the concepts of methods and techniques of teaching the native language. It discusses the differences between methods and techniques, their roles in the educational process, and their importance for achieving effective learning. The article highlights the use of modern pedagogical approaches, interactive methods, and ICT tools to enhance teaching quality. The significance of the teacher's creative activity and individualized approach is emphasized.

Keywords. native language, teaching methods, teaching techniques, pedagogy, interactive methods, educational technologies, language teaching

Аннотация. В данной статье анализируются понятия методов и приемов обучения родному языку. Рассматриваются различия между методами и приемами, их роль в образовательном процессе и значимость для достижения эффективного обучения. Обсуждается использование современных педагогических подходов, интерактивных методов и ИКТ для повышения качества обучения. Подчеркивается важность творческой деятельности учителя и индивидуального подхода.

Ключевые слова. родной язык, методы обучения, приемы обучения, педагогика, интерактивные методы, образовательные технологии, обучение языку

Metod tushunchasi va ona tilini o'qitishda uning ahamiyati. Metod so'zi yunoncha metodosdan olingan bo'lib, "yo'l", "yo'riq" yoki "usul" ma'nolarini anglatadi. Pedagogikada esa metod — bu maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladigan tizimli va rejalashtirilgan faoliyatdir. Ona tili o'qitish metodlari deganda ona tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan usullar va bu jarayonlarni tartibga soluvchi faoliyat tushuniladi. Bu borada metod faqatgina ma'lumot berish emas, balki ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini — o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, o'quv materiallarini tanlash, dars usullarini qo'llash, o'rganuvchi faoliyatini tashkil etish va baholashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy didaktika fani metod va usul tushunchalarini aniq ajratib beradi. Ta'limda metod — bu nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchining ham faoliyatini o'z ichiga olgan keng ko'lamli jarayon bo'lib, u ta'lim maqsadi, mazmuni, vositalari va ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. To'g'ri tanlangan ta'lim metodlari ta'lim jarayonida o'rgatish va o'rganish faoliyatlarini uyg'unlashtirib, ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan ta'lim maqsadlariga samarali erishishga xizmat qiladi.

Ta'lim usuli va uning ta'lim jarayonidagi roli. Pedagogik adabiyotlarda ko'p bor muhokama qilingan ta'lim usuli masalasi ham ta'lim mazmuni kabi qadimiy va muhim tushunchadir. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi bo'lib, u faqat o'qituvchi yoki faqat o'quvchi faoliyatiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchining yangi mavzuni og'zaki tushuntirish, o'tilgan mavzuni test yoki tarqatma materiallari asosida so'rash, mustahkamlash, muayyan bob yoki bo'limni takrorlash uchun maxsus savol va topshiriqlar tayyorlash kabi faoliyatlari ta'lim usuliga kiradi. Shu bilan birga, o'quvchining mustaqil o'zlashtirish, muhim jihatlarni konspekt qilish, topshiriqlarni bajarish kabi faoliyatlari ham ta'lim usulining muhim qismidir. Ya'ni ta'lim usuli - bu o'qituvchi yoki o'quvchining alohida faoliyati bo'lib, ular birgalikda ta'lim metodini tashkil etadi.

Usul tushunchasi va pedagogik faoliyatdagi o'rni. Usul - bu insonning bilim olish jarayonini tartib bilan amalga oshirish yoki biror obyektни amaliy o'zgartirish uchun ishlatiladigan vosita va mexanizmdir. Pedagogik amaliyotda usullar o'qitish va o'rganish jarayonining har bir bosqichida qo'llaniladigan aniq va amaliy yo'nalishlardir. Usullar asosan amaliyotda sinovdan o'tgan, ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar asosida shakllangan elementlardan iboratdir. Ular orqali ta'limning maqsad va vazifalari amalga oshiriladi hamda pedagogik jarayonning mazmuni va izchilligi ta'minlanadi. Didaktik jarayonda, bolaga bilim berishda, ijodiy faoliyatda malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik va ijodiy

yondashishni uning odatiga aylantirishda turli xil usul va metodlardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda har bir o'qituvchi A.S. Makarenkoning ta'kidlashicha, oddiy «Bu yoqqa kel!» amrini turli usullarda, aniqrog'i 72 usulda aytishni o'zlashtirish lozim. Bu esa har bir o'qituvchining ijodkorligini va metodik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Makarenko, 2007).

Ona tili o'qitish metodlari mavzusiga tahlil (misollar bilan). Matnda ona tilini o'qitishda metod va usul tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ahamiyati batafsil ko'rsatib o'tilgan. Masalan, metod keng qamrovli faoliyat sifatida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni bildirsa, usul – bu o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishda qo'llaniladigan konkret yo'ldir. Misol uchun, yangi mavzuni og'zaki tushuntirish usuli o'qituvchining faoliyatiga tegishli bo'lib, bu usul yordamida o'quvchilarga mavzu mazmuni aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar tayyorlash yoki muhim jihatlarni konspekt qilish usullari o'quvchi faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Mualliflar ta'lim jarayonida mos usul tanlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, yosh bolalarga ona tilini o'rgatishda o'yin metodlari, qo'shiq va hikoyalar yordamida o'rgatish samarali bo'ladi, chunki bu yoshga mos va qiziqarli usullardir. Kattaroq yoshdagi o'quvchilarda esa muammoli bayon qilish yoki tadqiqot metodlari yordamida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Yana bir muhim nuqta – ta'lim metodlari falsafiy jihatdan hayot qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat til qoidalarini o'rgatadi, balki ular orqali dunyoni idrok qilish usullarini ham shakllantiradi. Misol sifatida, muammoli bayon qilish metodida o'quvchilarga ona tili qoidalari bo'yicha qiyin vaziyatlar, masalan, murakkab gaplar tuzish yoki sinonimlar farqini topish kabi vazifalar beriladi. Bu ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Shuningdek, I.Ya. Lerner va M.N. Skatkinning metodlar tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan. Masalan, “qisman izlanish” usulida o'quvchilar mavzuni mustaqil o'rganish uchun kichik guruhlariga bo'linib, ma'lumot yig'adilar va uni sinfda taqdim etadilar. Bu nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Metodlarning xilma-xilligi va tanlash mezonlari. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim metodlari ko'plab olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Masalan, M.N. Skatkin va I.Ya. Lerner ta'lim metodlarini quyidagicha guruhlashgan:

- Tushuntirish va namoyish etish metodi;
- Qayta eslab qolish (xotirlash) metodi;

- Muammoli bayon qilish metodi;
- Qisman izlanish (qidiruv) metodi;
- Tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiy yondashuv) metodi.

Bu tasnif ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni muammoli vaziyatlarga ilmiy yondashuv asosida yechim topishga undashga qaratilgan. Aynan shu metodlar ona tilini o'rgatishda o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, o'quvchilarning qobiliyatlari, bilish faoliyatini tashkil etishdagi individual yondashuv ham metodlarni tanlashda muhim mezon hisoblanadi. Bu jihatdan, Kubanskiy ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning bilimlari tarkibida izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va ularni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ta'lim metodlarini tanlashda prinsiplar. Ta'lim metodlarini tanlashda ikki muhim prinsip mavjud:

1. Ilmiylik prinsipi - o'quv predmetlarini zamonaviy fan yutuqlari asosida tushuntirishni taqozo etadi.
2. Tushunarliklik prinsipi - o'quv predmetini o'quvchilarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish zaruratini bildiradi.

Bu ikki prinsip bir-birini to'ldirib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini samarali o'qitish uchun turli usul va metodlarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi muhimdir. Ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilar doimo pedagogik mahoratini oshirib borishi, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov.A, Qodirov.M, Ernazarova.M, Bobomurodova.M, Alavitdinova.N, Karimjonova.V. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2012. - 256 b.
2. Matkarimova Zaynab Olloyorovna. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" maqola. "Science and Education" Scientific journal - 2020. - 87 b.
3. Yusubova Zulxur Karimovna. "Ona tili o'qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari" maqola. 2020. - 45 b.

4.Turaqulova, D. Til o'qitish metodikasi asoslari. Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti. 2019. - 187 b.

5.Rahmonov F. “Ona tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi”, Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2020. - 8 b.

O'ZBEK TILINI ONA TILI SIFATIDA O'QITISH TARIXI**ISMATOVA IRODA QURBONMUROD QIZI****QULMURODA MARJONA O'KTAM QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabalari

irodaismatova95@gmail.commarjonaqulmurodova412@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixiy jarayonlari yoritilgan. Orxun-Enasoy yodgorliklaridan boshlab IX–XIX asrlargacha bo'lgan davrlarda ona tilining ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlari misolida o'zbek tilining ta'limiy, ma'naviy va madaniy hayotdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ona tilining ilm-fan, adabiyot va ma'rifat rivojidagi yetakchi o'rni tarixiy manbalar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, Orxun-Enasoy yodgorliklari, ta'lim tarixi, ilm-fan, ma'naviyat.

Annotation: This article covers the historical processes of teaching the Uzbek language as a native language. The role of the native language in the educational system from the Orkhun-Enasoy monuments to the 9th-19th centuries is analyzed. The works of such thinkers as Mahmud Kashgari, Yusuf Khos Hajib, Ahmad Yugnaki, Alisher Navoi show the importance of the Uzbek language in educational, spiritual and cultural life. Also, the leading role of the native language in the development of science, literature and enlightenment is explained on the basis of historical sources.

Keywords: Uzbek language, Orkhun-Enasoy monuments, history of education, science, spirituality.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические процессы преподавания узбекского языка как родного. Анализируется роль родного языка в системе образования, начиная с памятников Орхун-Энасай до IX–XIX веков. В трудах таких мыслителей, как Махмуд Кашгари, Юсуф Хос Хаджиб, Ахмад Югнаки, Алишер Навои, показано значение узбекского языка в образовательной, духовной и культурной жизни. Также на основе исторических источников раскрывается ведущая роль родного языка в развитии науки, литературы и просвещения.

Ключевые слова: узбекский язык, Орхун-Енасойские памятники, история образования, науки, духовности.

“Ona tili ta’limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda odam bolasini odam qilib tarbiyalashda favqulodda muhim jarayonlardan biridir (Mahmudov, 2019).

Tarixchi, arxeolog, etnograf olimlar kishilik madaniy taraqqiyoti darajasini davrlashtirishda insoniyat tarixida beshta yirik sivilizatsiya ro’y berganligini e’tirof etadilar. Birinchi sivilizatsiya eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Kichik va Old Osiyo hududlari, Frot va Dajla, Nil hamda Hind daryolari havzalarida yuz bergan, u fanda “Qadimgi sharq sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhurdir. Aksariyat olimlar “Antik davr sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhur ikkinchi sivilizatsiya miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o’rtalarida Gretsiya va Rimda ro’y bergan deb hisoblashadi. Uchinchi sivilizatsiya arab istilosidan keyingi davrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida melodiylar IX-XIII asr boshlarida yuz bergan va jahonga tengsiz aql daholari, olim-u fuzalolar, mutafakkirlarni yetkazib berganligi sir emas va uning ta’sirida Yevropa uyg’ondi. To’rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Yevropa va Osiyoda yuz bergan uyg’onish davri bilan bog’liqligi e’tirof etilsa, beshinchisi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyot yuqori nuqtaga ko’tarilgan, inson aql-zakovati tufayli ilm-fanda buyuk kashfiyotlar amalga oshirilgan XX asr sivilizatsiyasidir. Tabiiyki, mazkur sivilizatsiyalarning yuzaga kelishini ta’minlovchi asosiy omil ta’lim tizimidir. Zero, turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, davlatchilik shakllaridan qat’i nazar, tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, o’z zamonasi ruhiga mos ravishda anglashilib, umumiy rivojlanish darajasiga yuksak ta’sir etib kelgan. [1:25]

Shu boisdan ham insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ta’lim-tarbiya masalasi markaziy o’rin tutgan. Har bir sivilizatsiya o’z davrida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, madaniyatini, ilm-fanini va davlat boshqaruvini rivojlantirishda bilim olish tizimiga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, qadimgi Sharq sivilizatsiyasida madrasalar, ibodatxonalar va saroy maktablari orqali diniy hamda dunyoviy bilimlar o’rgatilgan bo’lsa, Antik davrda falsafa, matematika, adabiyot va san’at fanlari rivojlanib, ta’lim jarayoni inson tafakkurini kengaytirishga qaratilgan edi. Keyingi bosqichlarda, ayniqsa Movarounnahr va Xuroson zaminida yuz bergan uyg’onish davri ilm-fan taraqqiyotida yuksak pog’onani tashkil etdi. Bu davrda ta’lim tizimi shunchaki bilim berish emas, balki ijodiy fikrlashni, yangi g’oyalarni ilgari surishni taqozo etgan. Buxoro, Samarqand, Bag’dod, Marv singari shaharlarda ilmiy maktablar, kutubxonalar, madrasalar faoliyat ko’rsatib, ular Sharq va G’arb o’rtasida ma’naviy ko’prik vazifasini bajargan XIV–XV asrlardagi Uyg’onish davrida Yevropa va

Osiyoda ham ta'limning mazmuni tubdan o'zgarib, inson shaxsini qadrlash, uni erkin fikrlashga yo'naltirish asosiy tamoyil sifatida qaraldi. Natijada san'at, adabiyot, falsafa va tabiiy fanlarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. XX asr sivilizatsiyasi esa zamonaviy ilm-fan va texnika kashfiyotlari bilan ajralib turadi. Bu davrda ta'lim jarayoni keng xalq ommasiga yoyildi, zamonaviy maktablar, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari faoliyati keskin faollashdi. Ta'limning umumiy va majburiy shaklga ega bo'lishi, fanlarning tabaqalanishi hamda ilmiy kashfiyotlarning tezkor amaliyotga joriy etilishi zamonaviy taraqqiyotning bosh omili sifatida namoyon bo'ldi.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona (o'zbek) tilida ta'lim. IX-XIX asrlarda, asosan, turkiy, turkcha, qator manbalarda hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoy kabi o'ndan ortiq nomlar bilan atalib kelingan ona tilimizning[1:89]o'qitilishi to'g'risida bevosita ma'lumot beruvchi manbalar bo'lmas-da, bu til ta'lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelganligi, demak, ta'lim o'choqlarida o'qitilganligi haqida bilvosita ma'lumot beradigan manbalar juda ko'p. Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz, ilk turkiy yozma yodgorliklardir.[1:28]

O'rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona tili ta'limi haqida bevosita ma'lumotlar bo'lmagan bo'lsa-da, bu yodgorliklarning o'zi turkiy xalqlarning til va yozuv madaniyatining qanchalik rivojlanganidan dalolat beradi. Yodgorliklarda xalqni birlikka, ilm va ma'rifatga chorlovchi g'oyalar ifodalangan bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonida ona tilining nechog'lik muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. IX–XIX asrlar davomida ona tili turli nomlar – hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoyiy va boshqalar bilan atalgan bo'lsa-da, u doimo ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asarlari o'z davrida ona tilini o'qitish, uni targ'ib qilish va turkiy xalqlar orasida savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy chig'atoy tilining badiiy imkoniyatlarini ochib bergan va uni ilm-fan hamda adabiyot tiliga aylantirgan. Shunday qilib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi qadimiy yozma yodgorliklardan boshlangan bo'lib, asrlar davomida turli bosqichlarni bosib o'tgan. Bu jarayon davomida ona tilimiz ilm, adabiyot, ma'rifat va ta'limning eng asosiy vositasi sifatida shakllanib bordi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyandalari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar o'zbek tilini maktablarda ona tili sifatida o'qitish g'oyasini ilgari surdilar. Ular yangi usuldagi maktablar tashkil etib, o'zbek tili grammatikasi, imlo qoidalari va nutq madaniyatini o'rgatishga katta e'tibor qaratdilar. Shu davrda ona tili darsliklari yaratilib, o'qitish metodikasi shakllana boshladi. Mustaqillik yillarida esa o'zbek

tilining maqomi yanada yuksalib, u davlat tili sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitilmoqda. Bugungi kunda ona tilini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa tilimizning nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy taraqqiyotning ham ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

XXI asrga kelib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish yangi bosqichga ko'tarildi. Globallashuv jarayonida tilni asrab-avaylash, uni xalqaro miqyosda targ'ib etish, raqamli ta'lim tizimida samarali o'qitish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ona tili ta'limini takomillashtirish maqsadida davlat dasturlari, yangi o'quv standartlari va zamonaviy darsliklar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, tilshunos olimlar, metodistlar hamda pedagoglar o'zbek tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini yanada rivojlantirish yo'lida izlanishlar olib bormoqdalar. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat ta'lim tizimining muhim fani, balki milliy g'urur va o'zlik ramzi sifatida e'tirof etiladi. Ona tili orqali yosh avlodda milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va estetik did shakllanadi. Shu bois o'zbek tilini o'qitish nafaqat bilim berish, balki tarbiya berish jarayoni sifatida ham muhim o'rin tutadi. Kelajakda ona tili ta'limining rivoji axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va multimedia vositalari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu esa o'zbek tilining xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlash, uni ilm, fan va diplomatiya tiliga aylantirish imkonini beradi. Shunday qilib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi – o'tgan asrlar tajribasidan zamonaviy ta'lim konsepsiyasigacha bo'lgan uzviy jarayon bo'lib, u xalqimiz ma'naviy kamoloti va milliy o'zligini ifodalaydi. Tilimizning bugungi rivoj darajasi ana shu tarixiy ildizlar va ma'naviy merosning mantiqiy natijasidir. O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi insoniyat taraqqiyotining muhim bo'lagi hisoblanadi. Qadimiy Orxun-Enasoy bitiklaridan tortib, IX–XIX asrlardagi adabiy yodgorliklarga bo'lgan davrda ona tilimiz nafaqat aloqa vositasi, balki ilm-ma'rifat, tarbiya va madaniyatning tayanch ustuni bo'lib kelgan. Demak, bugungi kunda o'zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirish va uni ta'lim tizimining yetakchi fanlaridan biri darajasida o'qitish tarixiy an'alarimizning mantiqiy davomi va sivilizatsiyaviy zaruriyatidir.

Demak, ona tilini o'qitish metodlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Metod va usullar o'quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, shuningdek, o'qitish maqsadlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar nafaqat an'anaviy metodlarni, balki interaktiv va innovatsion usullarni ham qo'llashni talab qiladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida turli metod va usullarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim olish faolligini

oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvga yo'naltirish mumkin. O'qituvchi esa har bir darsda o'z pedagogik mahoratini oshirib, zamonaviy texnologiyalar va metodlarni tatbiq etish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. G' "O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida", T: 1999. - 89 b.
2. Yo'ldoshova. D "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" Durdona nashriyoti. 2021. -54 b.
3. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006.- 87 b.

ONA TILI TA'LIMIDA METODLARDAN FOYDALANISH

JUMANOVA NAZOKAT SHUHRAT QIZI

(jumanovanazokat782@gmail.com)

RIXSIBOYEVA SEVINCH FARXOD QIZI

(sevinchrixsiboyeva82@gmail.com)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi” uchinchi bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida qo'llaniladigan metodlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Xususan, an'anaviy, interfaol va innovatsion metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'quvchilar nutqiy va tafakkuriy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqola ta'lim jarayonida metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ona tili, metod, ta'lim, an'anaviy metod, interfaol metod, innovatsion metod, nutqiy ko'nikma.

Annotation: This article examines the role and significance of methods applied in native language instruction. Specifically, it analyzes the distinctive characteristics of traditional, interactive, and innovative methods, as well as their function in fostering students' linguistic competence and cognitive abilities. The study substantiates the necessity of appropriately selecting and integrating teaching methods within the educational process.

Keywords: native language, method, education, traditional method, interactive method, innovative method, speech competence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение методов, применяемых в преподавании родного языка. В частности, анализируются особенности традиционных, интерактивных и инновационных методов, а также их функция в развитии речевых и когнитивных способностей учащихся. В исследовании обосновывается необходимость целесообразного выбора и интеграции методов обучения в образовательный процесс.

Ключевые слова: родной язык, метод, образование, традиционный метод, интерактивный метод, инновационный метод, речевое умение.

Ona tili – bu xalqning ma'naviy boyligi, madaniyatini ifodalovchi asosiy vositadir. Shu bois uni o'qitish jarayonida metodlardan oqilona foydalanish muhim o'rin tutadi. Metod – bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini muayyan maqsad sari yo'naltirish usuli bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim vositasidir.

Ona tili fanini o'qitishda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Ona tili ta'limida an'anaviy metodlardan keng foydalaniladi. Izohli bayon, suhbat, mashq metodlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni tushuntirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu metodlar o'quvchilar uchun ona tilining nazariy asoslarini o'rganishda poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda interfaol metodlar darslarning asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bahs-munozara" kabi metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin mulohaza bildirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o'quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ona tili fanini o'qitishda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimedia vositalari, elektron lug'atlar, onlayn testlar va taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashni samarali tashkil etadi. Bundan tashqari darslarni yana qiziq hamda samarali bo'lishini maqsad qilgan holda ona tilida mavzu frazeologizmlar bo'lsa ya'ni iboralar mavzusi o'quvchilarga yanada oson tushuntirish uchun iboralarga mos rasmlardan foydalansa dars yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi "Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" iborasi "Boshi osmonga yetdi" iboralarini rasmlar orqali ifodalasa o'quvchilarga iboralar mavzusi tushuntirilsa mavzu ko'proq yodida qoladi. Yana bir metodni olib qarasak "Qaysi samalyot tez uchadi" metodi orqali o'quvchilarga yordamchi so'z turkumlari ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yoki o'tilgan mavzularni takrorlash mavzusida ham ushbu metoddan foydalansa bo'ladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Samalyotlar ham uchta bo'lib har biriga nom berilgan bo'ladi ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Uchta guruhga aralashtirib yordamchi so'zlarga oid so'zlar berilgan bo'ladi qaysi guruh o'ziga tegishli yordamchi so'zlari topib samalyotga yopishtirsa o'sha guruhning samalyoti tez manzilga yetib boradi. Bu metod orqali o'quvchilar yordamchi so'z turkumlarini ajratishni o'rganadi va osongina yodida saqlab qoladi. O'tilgan mavzularni takrorlash mavzusi bo'lganda esa o'tilgan mavzular bo'yicha savollar tuzib qaysi guruh tez savollarga javob berishi orqali ham ushbu metoddan foydalansa bo'ladi.

Yana bir "Kartochkalar va konvert" metodida o'qituvchi va o'quvchi uchun ham foydalidir. Bu metoddan o'qituvchi har bir talabaga yetadigan qilib uch xil rangdagi kartochkalar va konvertlar tarqatadi. O'qituvchi yangi mavzu tushuntirayotgan vaqtda qizil kartochkalilar tursin deydi va ular turadilar ularga yangi mavzuga doir savol

beradi va javob berganlar o'tiradi, javob berolmaganlar o'tirmaydilar. Natijada o'tirmagan o'quvchilar mavzuni yaxshiroq eshitadi va biroz vaqt o'tgach o'qituvchi yana savol beradi va natija avvalgisidan yuqoriroq bo'ladi. Yangi mavzu bayoniga mo'ljallab o'qituvchi qolgan kartochka olgan o'quvchilarni ham turg'izadi. Kartochkalar metodida o'quvchilar mendan so'rab qoladi deya mavzuni yaxshiroq eshitadi. Dars tugashiga 10 daqiqa qolganda esa berilgan konvertlarga yangi mavzudan nimalarni o'rganganligini yozishi va 5 daqiqa qolganda hamma ustozga tekshirtirishi lozim. O'qituvchi mana shu metod orqali o'quvchilar bilimlarni qay darajada o'rganganligini bilib oladi. Bu metodni samarali o'tkazilsa natija yuqori bo'ladi. Taqdimot va muzyurarlar – bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi »to'siq«ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi o'zaro ishonch, hurmat o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi. Dars davomida yuqorida aytib otilgan metodlardan foydalanish darsni qiziqarli hamda qiziqarli otishiga va bu orqali esa, ta'lim sifati oshishiga yordam beradi.[5:334] Metodlar haqida O'rta Osiyo va boshqa olimlar turli xil fikrlar bildirishgan: O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar Metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi. Hozirgi zamon fanlarida ko'plab umumiy, xususiy ilmiy Metodlar qo'llanadi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik Metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish Metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda.

Ona tili ta'limida metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy metodlar bilim asoslarini shakllantirsa, interfaol metodlar o'quvchini faol va mustaqil shaxs sifatida rivojlantiradi, innovatsion metodlar esa ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Shunday ekan, o'qituvchining asosiy vazifasi – metodlarni maqsadga muvofiq tanlab, ularni uyg'unlashtirilgan holda qo'llashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006. -65 b.

2. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 380 b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. -76 b.
4. Muxtarova Sh.M. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2025. – 43 b.
5. Wikipedia.uz

ONA TILI TA'LIMINING VOSITALARI

OLIMOVA MADINA OYBEK QIZI
MAXMUDOVA FARIDA HAYOT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gumanitar fanlar fakulteti talabalari

olimovamadina0708@gmail.com

kamolovafarida287@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limining samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar, ularning turlari va amaliyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, innovatsion vositalardan foydalanishning ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'lim vositalari, darslik, metodik qo'llanma, interaktiv texnologiyalar, kompetensiya.

Annotation. This article analyzes the main tools used to enhance the effectiveness of native language education, their types, and their practical application. The importance of using innovative tools is also highlighted.

Keywords: native language, educational tools, textbook, methodological guide, interactive technologies, competence.

Аннотация. В статье рассматриваются основные средства повышения эффективности обучения родному языку, их виды и роль в учебной практике. Также освещается значение использования инновационных средств обучения.

Ключевые слова: родной язык, средства обучения, учебник, методическое пособие, интерактивные технологии, компетенция.

Ona tili - har bir millatning madaniy va ma'naviy asosi bo'lib, uni o'rgatish jarayoni nafaqat bilim berish, balki ongli va faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ona tili ta'limida foydalaniladigan vositalarning turlari va ularning samaradorligi ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqdir.

1. Ta'lim vositalarining turlari va ahamiyati. Ta'lim vositalari - bu o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va maqsadga muvofiq amalga oshirishda yordam beradigan texnik, didaktik va metodik resurslar majmuasidir. Ular an'anaviy, zamonaviy va innovatsion guruhlariga ajratiladi. Jumladan:

1.1. An'anaviy vositalar. Darsliklar va o'quv qo'llanmalari: Ular o'quv dasturiga asoslangan holda bilimlarni tizimli yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, "Ona tili 5-sinf" darsligi har bir grammatik mavzuni sodda, tushunarli va bosqichma-bosqich bayon etadi. Ish daftarlari; O'quvchilar bilimini mustahkamlash va tekshirishda

qo'llaniladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan ish daftarlari orqali bolalar mustaqil yozish, tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

1.2. Vizual (ko'rgazmali) vositalar. Jadval, sxema, grafiklar orqali murakkab grammatik tushunchalarni oson tushuntirish mumkin. Misol uchun, otlarning egalik qo'shimchasi bilan yasalgan shakllari jadvalda ko'rsatilsa, bolalar bu mavzuni vizual asosda tezroq anglaydi.

1.3. Texnik vositalar. Audio va video yozuvlar: Jumladan, so'zlashuv madaniyati yoki talaffuz mashqlarida o'zbek tilidagi diktantlar, nutq namunalari eshittirilsa, o'quvchilarning fonetik tinglov malakasi ortadi. Multimedia vositalari: PowerPoint taqdimotlari orqali har bir mavzuni suratlar, audio va animatsiyalar bilan boyitish darsni jonlantiradi.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT). Zamonaviy ta'limda AKTdan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

2.1. Interaktiv platformalar. Quizizz, Kahoot, Wordwall orqali darsdan so'ng mini-testlar tuzish mumkin. Bu o'quvchilarda raqobat, tez fikrlash va bilimni mustahkamlashni rag'batlantiradi. Google Forms yordamida masofaviy sinovlar o'tkazish, talabaning o'z bilimini baholash imkonini beradi.

2.2. Elektron darsliklar va mobil ilovalar. "O'zbek tili interaktiv lug'ati" yoki "Yosh kitobxon" mobil ilovalari yordamida darsdan tashqari paytda ham o'quvchilar mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.3. Interaktiv doska imkoniyatlari. Grammatika mavzularini interaktiv tarzda tushuntirishda SMART Board orqali so'z turkumlari, so'z yasalishi yoki gap turlari bo'yicha interaktiv mashqlar o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchi doskada bevosita qatnashadi.

Milliy qadriyatlar asosida tuzilgan ta'lim vositalari. Ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi, maqollar, ertaklar, she'riy namunalar va adabiy meros asosida tuzilgan vositalardan foydalanish o'quvchining ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitadi. Misol: "Til – millat ko'zgusi", "El tili – el yuragi" kabi maqollar asosida muhokamalar o'tkazish; Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov kabi adiblarning tilga oid parcha asarlaridan foydalanish. Bu kabi vositalar o'quvchilarning ona tiliga hurmati va e'tiborini oshiradi, madaniy ongini shakllantiradi.

3. Darslarda vositalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar. Har bir mavzuga mos vositani tanlang. Masalan, so'z yasalishi darsida grafik ko'rinishdagi sxemalar foydali. O'quvchilarni AKT vositalarini yaratishda ham ishtirok ettiring (masalan, dars haqida prezentatsiya tuzdirish). Har darsda bitta an'anaviy, bitta zamonaviy vosita

uyg'unlashtirilsin. O'qituvchi o'z uslubini innovatsiyalar bilan boyitib borishi kerak. Shu bilan birga, ona tili ta'limida vositalardan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tilga bo'lgan qiziqishini ham rivojlantiradi. Quyida dars davomida vositalardan foydalanishga oid asosiy tavsiyalar va ularni amaliy misollar bilan dalillash keltiriladi:

Har bir mavzuga mos vositani tanlash: Didaktik vositalarni dars mazmuniga mos tanlash o'quvchilarning tushunchani to'g'ri qabul qilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Misol:

Mavzu: "So'z yasalishi"

Vosita: Grafik sxema (vizual vosita)

Amaliy dalil:

"Yozuvchi" so'zining yasallish jarayoni quyidagi tarzda sxematik tarzda ko'rsatiladi:

yoz (fe'l) + uv (yasalma qo'shimcha) + chi (shaxs bildiruvchi qo'shimcha) → yozuvchi

O'quvchilar bu kabi sxemalar orqali morfemik tuzilmani aniq tushunadi va o'zlari ham shunga o'xshash sxemalar yasab ko'rishga harakat qiladi.

O'quvchilarni AKT vositalarini yaratishda jalb qilish. Darsda nafaqat o'qituvchi AKT vositalaridan foydalansin, balki o'quvchilarning o'zi ham AKTdan foydalanib, ijodiy topshiriqlar bajarishi kerak. Bu ular uchun motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi. Misol:

Mavzu: "Gap bo'laklari"

Topshiriq: Har bir o'quvchi yoki guruh "Gap bo'laklari" bo'yicha Google Slides yoki PowerPoint yordamida mini-prezentatsiya tayyorlaydi.

Dalil: Bu orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtiradi, balki texnologik savodxonligi, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Har darsda kamida bitta an'anaviy va bitta zamonaviy vositani uyg'unlashtirish. O'qituvchi darsni faqat darslik yoki faqat AKTga tayanib emas, balki ularni uyg'unlashtirib tashkil etsa, natija samaraliroq bo'ladi. Misol:

Mavzu: "Fe'l zamonlari"

An'anaviy vosita: Darslikdagi mashq topshiriqlari

Zamonaviy vosita: Interaktiv test

Dalil: Darslikda mavzuni o'rgangan o'quvchi interaktiv testda o'zini sinab ko'radi va natijani darhol ko'rishi mumkin. Bu esa bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchi o'z uslubini innovatsiyalar bilan boyitib borishi zarur. Zamonaviy darslarda faqat bilim berish emas, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar muhimdir. O'qituvchi o'z dars uslubiga interfaol metodlar, raqamli vositalar, milliy materiallar kabi elementlarni qo'shib borishi lozim. Misol:

Mavzu: "Nutq etiketi"

Yondashuv: O'qituvchi darsda avval maqollar va xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiradi (an'anaviy), so'ng "Nutq madaniyati" mavzusida Padlet platformasida o'quvchilar o'z fikrlarini yozishadi (zamonaviy).

Dalil: Bu usul darsni jonlantiradi, har bir o'quvchining fikr bildirishi uchun imkon yaratadi va yozma nutq ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Yakuniy tavsiya. Ona tili darslarida vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq, mavzuga mos, metodik jihatdan asosli bo'lishi zarur. Barcha vositalar faqat darsni bezash uchun emas, balki o'quvchilarning lingvistik, mantiqiy, estetik va axloqiy kamolotiga xizmat qilishi kerak.

Demak, ona tili ta'limida vositalarning roli beqiyosdir. Darsliklar va metodik qo'llanmalardan tashqari, texnik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlar asosida tuzilgan resurslar darsni samarali, qiziqarli va ta'sirchan qiladi. O'quvchining nutqiy faolligini, tahliliy tafakkurini va ijodkorligini shakllantirishda vositalarning to'g'ri tanlanishi muhim. Shu sabab, har bir pedagog yangilikka ochiq bo'lishi, yangi vositalarni sinovdan o'tkazib, amaliyotda qo'llab borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent, O'qituvchi, 2019. – 67 b.
2. Karimova Z. "Pedagogik texnologiyalar va ona tili ta'limi", Toshkent, Fan, 2021. – 276 b.
3. Qodirova N. "Til o'rgatishda AKTdan foydalanish", Ilmiy maqolalar to'plami, 2022. – 98 b.
4. Hasanov A. "Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar", Ta'lim va fan, 2020/4-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni, 2020-yilgi tahrir.

O'ZBEK TILIDA HURMAT VA ODOB IFODASIDA GAP QURILISHINING O'RNI

QULMURODA FARANGIZ HASAN QIZI
SAYFIYEVA DILDORA O'TKIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari

dildora.98@sayfullayeva.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gaplarning tuzilishi, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq madaniyatida hurmat ifodasining o'rni, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni belgilovchi til birliklarining roli yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, til orqali namoyon bo'ladigan odob-axloq me'yorlari misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. hurmat, odob, gap qurilishi, nutq madaniyati, til birliklari.

Annotation. This article analyzes the structure of sentences expressing respect and politeness in the Uzbek language, focusing on their grammatical and stylistic features. It highlights the role of respectful expressions in speech culture and their impact on the relationship between the speaker and the listener. The study also illustrates national values and etiquette norms reflected through language.

Keywords. respect, politeness, sentence structure, speech culture, linguistic units.

Аннотация. В данной статье рассматривается структура предложений, выражающих уважение и вежливость в узбекском языке, а также их грамматические и стилистические особенности. Особое внимание уделяется роли выражений уважения в культуре речи и их влиянию на отношения между говорящим и слушающим. На основе примеров раскрываются национальные ценности и нормы этикета, проявляющиеся через язык.

Ключевые слова. уважение, вежливость, структура предложения, культура речи, языковые единицы.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti davomida til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyat, axloq va ma'naviyatning muhim ko'rsatkichi sifatida shakllanib kelgan. Har bir xalqning tili uning ruhiy dunyosi, urf-odatlar, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlaridagi nozikliklarni o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan olganda, o'zbek tili nafaqat aloqa quroli, balki xalqning yuksak odobi, hurmat-izzat an'alarini ifoda etuvchi boy madaniy qatlamga ega. O'zbek tili orqali ifodalanadigan so'zlar, gaplar va

ularning tuzilishida odob-axloq, hurmat, ehtirom va insoniylik tamoyillari chuqur ildiz otgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, har bir til o'zining ichki tizimi - fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis orqali ma'no uzatadi. Biroq aynan sintaktik qurilish, ya'ni gap tuzilishi, insonlar o'rtasidagi hurmat, munosabat va madaniyatni eng nozik tarzda ifodalovchi vositadir. O'zbek tili bu borada nihoyatda boy tizimga ega bo'lib, "hurmat bilan murojaat qilish", "odobli ifoda topish", "munosib so'z tanlash" kabi qadimiy nutq madaniyati unsurlari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining ijtimoiy hayotida "katta-kichikka hurmat", "ota-onani e'zozlash", "ustozni ulug'lash", "mehmonga izzat" kabi qadriyatlar eng muhim o'rin egallaydi. Bu qadriyatlar nafaqat xulq-atvorda, balki nutq madaniyatida ham o'z aksini topadi. Masalan, oddiy so'rov gap "Sen qayerga ketyapsan?" degan shaklda aytilganda, bu do'stona yoki tengdoshlar o'rtasida tabiiy eshitiladi. Ammo shu fikr "Siz qayerga ketyapsiz?" tarzida aytilganda, unda hurmat ohangi paydo bo'ladi. Bu esa sintaktik darajada, ya'ni gap qurilishi orqali hurmat ifodalanishining yaqqol ko'rinishi hisoblanadi. O'zbek tili grammatik qurilishi jihatidan shunday tizimga ega-ki, u orqali bir fikrni turlicha - oddiy, odobli, rasmiy yoki samimiy ohangda ifodalash mumkin. Bu jarayonda nafaqat so'z tanlovi, balki so'z tartibi, fe'l shakllari, murojaat shakllari va intonatsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Keling, o'tirib dam oling" gapida muloyimlik va mehmondo'stlik aks etsa, "O'tir" shakli buyruqni ifodalab, ba'zan hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun ham o'zbek tili sintaksisida hurmat va odobni ifodalovchi maxsus uslublar, morfologik va leksik vositalar majmuasi mavjud.

Hurmat va odob ifodasining til orqali aks etishi - bu nafaqat tilshunoslik masalasi, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika bilan bevosita bog'liq mavzudur. Til orqali hurmat bildirish, insonni qadrlash, munosabatni madaniy ifodalash kabi hodisalar jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini ham ko'rsatadi. Shu sababli, o'zbek tilida gap qurilishi orqali hurmat va odobning ifodalanish usullarini o'rganish - xalq ruhiyatini, milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida, axborot oqimining tezkorligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot madaniyatining o'zgarishi natijasida, til orqali ifodalangan hurmat va odobning ayrim shakllari yo'qolish xavfi ostida turibdi. Ayniqsa, yoshlar nutqida "siz" o'rniga "sen" qo'llanishi, qisqa, emoji yoki inglizcha aralash gaplarning ko'payishi milliy nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bir paytda, o'zbek tili orqali hurmat ifodasining o'rni va mexanizmlarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim tizimida, media va kundalik hayotda tiklash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Hurmat va odobning ifodalanishida xalqaro tajribani ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Masalan, UNESCO tomonidan til va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga oid ko'plab tadqiqotlarda aytilishicha, milliy tillar — bu xalqning ruhiy merosi bo'lib, ular orqali yosh avlodga insoniylik, hurmat va bag'rikenglik qadriyatlari singdiriladi. OECD, PISA va PIRLS kabi xalqaro tashkilotlar o'quvchilarning nutq madaniyatini, muloqot madaniyatini baholashda ham til orqali axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ifoda vositalarini inobatga oladi. Bu esa o'zbek tili ta'limida ham xalqaro mezonlarga mos yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ona tili ta'limining me'yoriy-huquqiy asoslari ham nutq madaniyatini rivojlantirish, hurmatli muloqot madaniyatini shakllantirishni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydi. “Davlat tili to'g'risida”gi Qonun, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda “O'zbek tili va adabiyotini rivojlantirish dasturi”da ona tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, til orqali insoniylikni targ'ib qilish kabi masalalarga alohida urg'u berilgan. Shu bois, bugungi kunda o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gap qurilishining o'rni nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-madaniy zarurat sifatida ham tahlil etilishi zarur. Mazkur maqola ana shu zaruratdan kelib chiqib, o'zbek tilida hurmat va odob ifodasida gap qurilishining o'rnini chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi. Unda quyidagi asosiy masalalar yoritiladi:

1. O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari;
2. Gap qurilishida hurmatni ifodalovchi sintaktik va morfologik vositalar;
3. Til madaniyatida hurmat ifodasining milliy va xalqaro tajribalardagi o'rnini;
4. Zamonaviy o'zbek jamiyatida hurmatli nutqning saqlanishi va rivoji masalalari.

Bu tadqiqotning maqsadi — o'zbek tili sintaktik tizimi orqali hurmat va odobning qanday ifodalanishini, uning madaniy, pedagogik va axloqiy ahamiyatini yoritishdir. Shuningdek, maqola xalqaro tajribaga tayanib, o'zbek tili ta'limida hurmat ifodasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taklif etadi.

O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari. Til – inson tafakkurining, madaniyatining va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarining eng muhim ifoda vositasidir. Har bir tilda xalqning qadimiy urf-odatlarini, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari mujassam bo'lgan. O'zbek tili bu jihatdan nihoyatda boy, samimiy va hurmatga asoslangan tildir. “Hurmat” va “odob” tushunchalari o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy tizimida shunchalik chuqur ildiz otganki, ular til orqali ham, nutq ohangi, so'z tanlovi va gap qurilishi orqali ham aniq seziladi. “Hurmat” va

“odob” tushunchalarining mazmun-mohiyati “Hurmat” so‘zi arabcha “ihtiram” ma’nosiga yaqin bo‘lib, “ehtirof, izzat, qadrlash” mazmunini bildiradi. O‘zbek tilidagi “odob” esa “axloqiy me’yorlar majmuasi, madaniyat, yuksak xulq” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi, insonning ijtimoiy hayotidagi muvozanatni ta’minlovchi asosiy fazilatlardandir. Til esa bu fazilatlarni ifodalashda vositachilik rolini o‘ynaydi. O‘zbek xalqining qadimiy manbalarida, jumladan, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham hurmat va odob inson shaxsiyatining eng muhim ko‘rsatkichi sifatida ta’riflanadi. Masalan, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Odob — insonni inson qiluvchi eng muhim fazilatdir. Odobsiz ilm foydasiz, odobsiz boylik zararli, odobsiz so‘z yurakni og‘ritadi.” Ushbu fikr til orqali ifodalanadigan hurmatning ahamiyatini ochib beradi. Tilshunoslikda esa hurmat va odob pragmatik va sotsiolingvistik kategoriyalar sirasiga kiradi. Chunki bu tushunchalar nafaqat til tizimida mavjud, balki muloqot jarayonida insonlarning o‘zaro ijtimoiy maqomiga, yoshi, jinsi, ijtimoiy roli va munosabat darajasiga qarab shakllanadi. Masalan, bir so‘zni aytish yoki bir gapni tuzishda kim bilan, qanday vaziyatda, qanday ohangda so‘zlayotganlik muhim ahamiyat kasb etadi (To‘xliyev, 2010).

Til orqali hurmat bildirish bir necha darajada ifodalanadi:

1. Leksik daraja – so‘z tanlovi orqali (masalan, “siz” o‘rniga “sen”, “hazrat”, “ustoz”, “domla” kabi murojaatlar);
2. Morfologik daraja – fe‘l shakllari va qo‘shimchalarning o‘zgarishi orqali (“kelyapsiz” o‘rniga “kelyapti” emas);
3. Sintaktik daraja – gap tuzilishi, so‘z tartibi, so‘z birikmalarining joylashuvi orqali;
4. Pragmatik daraja – gapning ohangi, nutq muhitiga mosligi, kontekstga qarab ifodalanagan hurmat yoki muloyimlik.

Masalan, “Sizni ko‘rib juda xursand bo‘ldim” va “Seni ko‘rib juda xursand bo‘ldim” gaplarining grammatik tuzilishi o‘xshash, lekin birinchisida hurmat, ikkinchisida samimiylilik va tengdoshlik mavjud. Demak, hurmat ma’nosi sintaktik emas, pragmatik qatlamda, lekin gap qurilishida ifodalanadi. Yana bir misol: “Marhamat, o‘tiravering” va “O‘tir” gaplarini taqqoslaymiz. Ikkalasi ham semantik jihatdan bir fikrni bildiradi — o‘tirish harakati, ammo birinchisida mehmondo‘stlik va hurmat mavjud, ikkinchisida esa buyruq ohangi seziladi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, gap tuzilishi orqali hurmat darajasini boshqarish mumkin. O‘zbek tili grammatikasida hurmatni ifodalovchi shakllar O‘zbek tili grammatik tizimida hurmatni bildiruvchi

maxsus shakllar mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi: Shaxs-son qo'shimchalari: "siz", "sizlar" shakllari orqali hurmat ifodalanadi. Masalan, "Sen keldingmi?" o'rniga "Siz keldingizmi?" deyiladi. Fe'ning mayl va zamon shakllari: Buyruq maylida "keling", "oling", "marhamat qiling" kabi muloyim shakllar ishlatiladi. "Kiring" degan so'z buyruqni bildirsa-da, aslida bu hurmatli taklif ma'nosini beradi. Modal so'zlar: "Iltimos", "marhamat", "iltifot qiling", "afsuski", "mumkinmi", "ehtimol" kabi so'zlar gapga muloyimlik, yumshoqlik kiritadi. Murojaat birliklari: "Domla", "ustoz", "xonim", "aka", "opa", "jiyan", "do'stim" kabi so'zlar hurmatni belgilovchi leksik birliklar hisoblanadi (Yo'ldashev, 2019).

Bundan tashqari, gap tartibi ham hurmat ifodasiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbek tilida odatda subyekt (egasi) oldin, predikat (kesim) oxirida keladi. Ammo hurmat bildiruvchi gaplarda predikat (kesim) oldinga o'tib, yumshoqlik yaratadi:

Masalan:

- "Keling, ustoz, joyingiz tayyor."
- "Sizga aytmoqchi edim, bugun yig'ilish soat to'qqizda."

Bu misollar sintaktik jihatdan o'zgarishning hurmatni ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik. Til - madaniyatning oynasi. Har bir tilda xalqning o'ziga xos madaniy kodlari yashiringan. O'zbek xalqining madaniy kodlari esa hurmat, ehtirom, mehmondo'stlik va kamtarlikka asoslangan. Shu boisdan ham o'zbek tili nutqida buyruq, tanbeh, to'g'ridan-to'g'ri rad etish holatlari kam qo'llanadi. Ularning o'rniga yumshoqlik va bilvosita ifodalar tanlanadi. Masalan:

- "Suv olib keling." (buyruq) o'rniga
- "Iltimos, suv olib kelsangiz." (hurmatli, odobli) shakli qo'llanadi.

Bu - pragmatik hurmatning ifodasi. Ya'ni so'zlovchi suhbatdoshning his-tuyg'ularini inobatga olgan holda gapni shunday tuzadi-ki, u muloyim va madaniy eshitiladi (Xolmanova, 2019).

Hurmatning ijtimoiy kontekstdagi o'rne. Hurmatning ifodalanishi har bir jamiyatda ijtimoiy tuzilma bilan chambarchas bog'liq. O'zbek xalqida ota-onaga, ustozga, kattalarga, mehmonlarga, hatto notanish kishilarga ham hurmat bilan murojaat qilish milliy xususiyatdir. Bu xususiyat tilga ham ko'chgan. Masalan:

Bolalar ota-onasiga "siz" deydi;

Talaba o'qituvchiga "domla", "ustoz" deydi;

Xizmat ko'rsatuvchi sohada "marhamat, mijoz" shakllari qo'llanadi. Bu holatlar tilning ijtimoiy tabiatini ko'rsatadi. Ya'ni til faqat grammatik tizim emas, balki madaniy me'yorlarni aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. 2-bo'lim: Gap qurilishida

hurmat va odob ifodasining grammatik va sintaktik mexanizmlari o'zbek tili o'zining boy morfologik tuzilishi, o'ziga xos sintaktik tizimi va nozik pragmatik qoidalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hurmat va odobni ifodalashda tilning morfologik va sintaktik imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Gap qurilishi bu jarayonda markaziy o'rin tutadi, chunki hurmat darajasi, odob ohangi, yumshoqlik yoki talabchanlik aynan gapning tuzilishi, komponentlar tartibi va fe'l shakllari orqali ifodalanadi.

Shaxs-son kategoriyasi va hurmat ifodasi. O'zbek tilida shaxs-son kategoriyasi hurmatni bildiruvchi asosiy grammatik vositalardan biridir. Masalan, "sen" shakli samimiy, yaqin munosabatni ifodalasa, "siz" shakli hurmatni bildiradi. Bu holat nafaqat murojaat, balki butun gap qurilishini o'zgartiradi:

Sen keldingmi? → Siz keldingizmi?

Senga aytdim. → Sizga aytdim.

Sening fikring to'g'ri. → Sizning fikringiz to'g'ri.

Bu misollar orqali shuni ko'rish mumkinki, hurmatli shakl nafaqat olmoshda, balki egalik qo'shimchalari va fe'l shakllarida ham ifodalanadi. Shunday qilib, shaxs-son qo'shimchalari sintaktik darajada hurmatni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida ba'zan ko'plik shakli orqali yakka shaxsga hurmat bildiriladi. Bu holat grammatik jihatdan "siz" ko'plikni bildirsa-da, semantik jihatdan "hurmatli yakka shaxs" ma'nosini beradi. Masalan:

– Domlalar, marhamat, joy olinglar. Bu yerda "domlalar" bir kishiga nisbatan aytilgan, lekin hurmat bilan.

Fe'lning mayl va zamon shakllarida hurmat. Fe'l kategoriyalari – o'zbek tilidagi hurmat ifodasining eng muhim qatlamlaridan biridir. Ayniqsa, buyruq mayli (imperativ) va istak mayli (optativ) hurmat darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan: Kel! — bu to'g'ridan-to'g'ri buyruq, keskin ohangda. Keling! - bu hurmatli taklif yoki muloyim buyruq. Marhamat, kiring! - bu esa eng yuqori darajadagi odobli, mehmondo'stlik ifodasi. Shu tarzda, fe'lning mayl shakli va unga qo'shimcha so'zlar qo'shilishi bilan nutq ohangi o'zgaradi. Buyruq maylidagi fe'lga "-ing" qo'shimchasining qo'shilishi, ko'pincha hurmat belgisi sifatida ishlatiladi. Yana bir misol: Ber! → Bering! → Iltimos, bering. Bu ketma-ketlik hurmatning grammatik va pragmatik kuchayishini ifodalaydi.

Sintaktik darajadagi ifoda vositalari. Hurmat va odobning gap tuzilishida qanday namoyon bo'lishini tahlil qilar ekanmiz, sintaksisda uchta asosiy jihatni ajratish mumkin:

1. Gap tartibi (so'zlarning joylashuvi);
2. Qo'shimcha gaplar orqali yumshoqlik kiritish;

3. Soʻz birikmalarining ohangini yumshatish.

Gap tartibi. Oʻzbek tilida odatda soʻz tartibi “Ega – Toʻldiruvchi – Kesim” shaklidir. Ammo hurmat ifodasi uchun kesimni oldinga chiqarish, soʻzlovchining muloyim ohangini yaratish odat tusiga kirgan. Masalan: Oddiy: Siz bugun darsga keldingiz. Hurmatli: Keldingiz, ustoz, bugun darsga. Bu yerda kesim oldinga oʻtgan va murojaat soʻzi oʻrtada joylashgan - bu ehtirom va muloyimlikni bildiradi.

Qoʻshimcha gaplar orqali yumshoqlik. Oʻzbek tilida toʻgʻridan-toʻgʻri gapirishdan koʻra, yumshoqlik bilan ifodalash qadrlanadi. Shuning uchun koʻplab gaplarda qoʻshimcha izohlar yoki muloyim kirish soʻzlar ishlatiladi. Masalan: Iltimos, agar mumkin boʻlsa, bugun yigʻilishga keling. Sizga bir taklifim bor edi, agar yoʻq demasangiz. Bu konstruksiyalar sintaktik jihatdan murakkab gap sanaladi, lekin ularning maqsadi - odobli muloqotni taʼminlash. Soʻz birikmalarining yumshoqligi oʻzbek tilida “iltimos”, “marhamat”, “mumkinmi”, “iltifot qiling” kabi birikmalar hurmatni kuchaytiruvchi pragmatik sintaktik vosita sifatida ishlaydi. Ular gapning boshida, oʻrtasida yoki oxirida joylashib, soʻzlovchi nutqining madaniyligini oshiradi. Masalan: Marhamat, joy oling joy oling, iltimos. Sizga aytmoqchi edim, iltifot bilan qabul qiling. Bu misollar nutqdagi odobiy yumshoqlik va hurmat grammatikasini yaqqol koʻrsatadi.

Hurmat ifodasining soʻz tartibi bilan oʻzgarishi. Baʼzan faqat soʻz tartibi oʻzgarishi bilan ham gapning maʼnosi yoki ohangi butunlay yangilanishi mumkin. Masalan: Siz bugun juda charchagandirsiz, ustoz. Ustoz, siz bugun juda charchagandirsiz. Bir qarashda bu ikki gap oʻxshash, ammo ikkinchi variantda murojaat boshda keltirilgani uchun hurmatning intensivligi yuqoriroq boʻladi.

Hurmat va odob ifodalarining oʻzbek tilidagi grammatik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari.

Hurmat va odob ifodasining grammatik vositalari. Oʻzbek tili — turkiy tillar oilasiga mansub boʻlib, unda hurmat va odobning grammatik ifodasi juda boy. Har bir grammatik birlik, xoh u qoʻshimcha boʻlsin, xoh feʼl zamoni yoki olmosh, oʻzbek tilida ijtimoiy munosabat va etik madaniyatni ifodalashda bevosita ishtirok etadi. Masalan, “siz” olmoshi faqat koʻplik shaklini bildiruvchi birlik emas, balki hurmat bildiruvchi grammatik vositadir. Bu shakl orqali soʻzlovchi tinglovchiga nisbatan ehtiromni, ijtimoiy masofa va madaniy farqni ifodalaydi. Ayniqsa, oʻzbek jamiyatida “sen” va “siz” soʻzlarining notoʻgʻri qoʻllanishi muomala madaniyatiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari, oʻzbek tilida feʼl zamon shakllari orqali ham hurmat ifodalanadi. Masalan:

“Keldingizmi?” — hurmat ifodasi,

“Keldingmi?” — oddiy yoki yaqin munosabatda ishlatiladi.

Demak, *-ingiz/-ingizlar*, *-dingiz/-dingizlar* kabi shakllar faqat grammatik ko'plikni emas, axloqiy-ijtimoiy hurmat darajasini ifodalaydi.

Sifat va

qo'shimchalar orqali odob ifodasi. Hurmatni bildiruvchi sifatlar (“aziz”, “hurmatli”, “e'tiborli”, “muhtaram”, “ulug'”, “qadrli”) — odob ifodasining tildagi eng boy qatlamidir. Ular, odatda, so'zlovchi tomonidan tinglovchining mavqeini yuksaltirish, suhbatni samimiy muhitda davom ettirish uchun ishlatiladi. Masalan: “Hurmatli ustozim!”, “Aziz mehmonlar!”, “Muhtaram domlalar!” Bu so'z birikmalari nafaqat tildagi so'z boyligini, balki o'zbek xalqining madaniy-psixologik xususiyatlarini ham namoyon etadi. Shuningdek, *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-aka*, *-opa*, *-bib* kabi so'ng qo'shimchalar hurmat va yaqinlikni bildiruvchi fonetik-morfologik vositalardir. Masalan: “Farangizxon”, “Opa”, “Akajon”, “Onajon”, “Singlim”, “Do'stim” kabi so'zlar ma'no jihatidan nafaqat shaxsni ataydi, balki mehr, ehtirom, odob unsurlarini ham o'zida mujassam etadi.

Gap qurilishida odob unsurlari O'zbek tilida gap qurilishi ham madaniyatga bevosita bog'langan. So'zlovchi gap tuzishda avvalo kattalikka hurmat, odob, iltifot, kamtarinlik kabi qadriyatlarni hisobga oladi. Masalan, o'zbek tili sintaksisida: so'zni muloyim, nozik ohangda boshlash, iltimos, iltifot shakllarini ishlatish, buyruq emas, taklif ohangida so'zlash - odobning sintaktik ko'rinishidir. Misollar: “Iltimos, kirib o'ting.” (buyruq emas, taklif shakli) “Agar imkon bo'lsa, qarab ko'ring.” (so'rovning yumshoq shakli) “Sizga yoqadimi?” (ehtimolli so'rov) Bu shakllar oddiy tilda ham, rasmiy nutqda ham hurmat ohangini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, o'zbek tilida hurmat va odob tushunchalari lingvistik tizimning barcha darajalarida — leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qatlamlarda o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada til vositalari orqali hurmat ifodalanishining grammatik-morfologik shakllari, gap tuzilishidagi sintaktik usullari hamda kontekstga mos pragmatik yondashuvlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hurmat va odob nafaqat muloqot madaniyatining, balki o'zbek tilining asosiy pragmatik belgilaridan biridir. Til o'rgatishda ushbu jihatlarni inobatga olish, o'zbek tilidagi muomala madaniyatini chuqurroq tushunishga, shuningdek, xalqaro til ta'limi tajribalariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova, O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. – 265 b.
2. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi, 2019. – 54 b.

3. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 176 b.
4. Yoqubov Sh., Yoqubova D. Grammatik o'yinlar. – Termiz. 2009. – 231 b.
5. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. – 98 b.

GAP TUZILISHI VA TURLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

RAXMATULLAYEVA RUXSHONA AKTAM QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi" uchinchi
bosqich talabasi.

@raxmatullayevvaruxshona889@gmail.com.

DAVLATBOYEVA XUSNIDA SHERMAT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi" uchinchi
bosqich talabasi.

xusnidavlatboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada gap tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlari haqida ilmiy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida gap mavzusini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Tilshunos olimlarning qarashlari asosida gapni o'qitish metodikasining samarali shakllari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: gap, grammatik asos, ifoda maqsadi, tuzilish, sintaksis, innovatsion texnologiya, interfaol metod.

Annotation. The article covers the theoretical foundations of the concept of a sentence, its main features, scientific views on its types according to the purpose of expression and structure. Also, the possibilities of using innovative pedagogical technologies in teaching the subject of a sentence in the modern educational process are analyzed. Based on the views of linguists, effective forms of teaching a sentence methodology have been developed.

Keywords: speech, grammatical basis, purpose of expression, structure, syntax, innovative technology, interactive method.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы понятия предложения, его основные признаки, научные взгляды на его виды по цели выражения и структуре. Также анализируются возможности использования инновационных педагогических технологий в обучении предмету предложения в современном образовательном процессе. На основе взглядов лингвистов разработаны эффективные формы обучения методике предложения.

Ключевые слова: речь, грамматическая основа, цель выражения, структура, синтаксис, инновационная технология, интерактивный метод.

Til jamiyatning asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Tilshunoslik fanining markaziy bo'g'inlaridan biri sintaksis bo'lib, uning eng muhim birliklaridan biri bu – gapdir. Gap – kishilar o'rtasida muloqot jarayonining tayanch vositasi, tugallangan fikr ifodasi sanaladi. Shu boisdan ham maktab va oliy ta'lim jarayonida gapni chuqur o'rganish o'quvchilar nutqiy savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunos olim N. Mahmudovning ta'kidlashicha, “Gap til tizimining tugun nuqtasi, barcha grammatik birliklarning yakuniy natijasidir.” Shuningdek, Sh. Rahmatullayev esa gapni “fikrning grammatik shaklda ifodalanishi” sifatida izohlaydi. Demak, gapning mohiyati, belgilarini chuqur anglash va uni to'g'ri o'rgatish ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

Gapning asosiy belgilari. Gap boshqa sintaktik birliklardan o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Eng avvalo, unda fikrning tugalligi mavjud bo'ladi. Masalan: “Bugun havo juda chiroyli.” Bu gapda voqelik aniq va yakuniy shaklda ifodalangan. Gapning ikkinchi muhim belgisi – grammatik asosdir, ya'ni unda ega va kesim mavjud bo'ladi. Masalan: “Bolalar o'ynayapti.” Bu yerda “bolalar” - ega, “o'ynayapti” - kesim. Shuningdek, gap og'zaki nutqda intonatsiya yordamida tugallanadi. Bu, ayniqsa, his-hayajonli gaplarda yaqqol ko'rinadi: “Voy, bu qanday go'zal manzara!” Gapning yana bir belgisi – kommunikativlikdir. Ya'ni, u muloqotda xizmat qiladigan vositadir: “Dars qachon boshlanadi?” kabi so'rovlar muloqotni boshqaradi.

H. Jamolxonov fikricha, “Gap – tilning muloqot jarayonida voqelanish shakli bo'lib, u orqali inson o'z fikrini ifodalaydi va boshqalar bilan aloqa qiladi.”

Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari. Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra to'rt turga bo'linadi.

- ❖ Darak gap – voqea-hodisani bayon qiladi. Masalan: “Kecha biz teatrga bordik.” Bu gap oddiy xabar beradi.
- ❖ So'roq gap – javob talab qiladi: “Siz bugun darsga keldingizmi?”
- ❖ Buyruq gap – buyruq, iltimos yoki maslahatni bildiradi: “Kitobni oching.” yoki “Iltimos, jim bo'ling.”
- ❖ Undov gap – his-hayajonni ifodalaydi: “Voy, bu nima bo'ldi?!” yoki “Yashasin mustaqillik!”

Akademik A. Hojiyevning fikricha, “Ifoda maqsadiga ko'ra gaplarni ajratish ularning kommunikativ vazifasini aniqlash imkonini beradi.”

Tuzilishiga ko'ra gap turlari. O'zbek tilshunosligida gaplar tuzilishiga qarab quyidagicha farqlanadi:

- ❖ Sodda gap – bitta grammatik asosga ega bo'ladi. Masalan: "O'quvchilar sinfga kirdi."
- ❖ Qo'shma gap – ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan iborat bo'ladi: "Men maktabga bordim va do'stim bilan uchrashdim."
- ❖ Murakkab gap – ergash gapli shaklda bo'ladi. Masalan: "Agar u vaqtida kelsa, biz kinoga boramiz."

Tilshunos Rasulov R. bu haqda shunday deydi: "Qo'shma va murakkab gaplar o'quvchida sintaktik tafakkurni rivojlantiradi, murakkab fikrni tuzish ko'nikmasini shakllantiradi." Unda gapni o'qitishda innovatsion yondashuvlar bugungi ta'limda an'anaviy usullar bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, ularni dars jarayoniga faol jalb qiluvchi innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda klaster usuli yordamida o'quvchilar gap turlarini mavzular asosida guruhlariga ajratadilar. Masalan, o'qituvchi "so'roq gap" degan tushunchani doskaga yozadi, o'quvchilar esa unga misollar va bog'liq fikrlarni "shoxlar" ko'rinishida yozadilar. Qolaversa, aqliy hujum (brainstorming) metodida o'quvchilar "Gap nima?" degan savolga tez va ko'p fikrlar bildiradilar. Bu ularda mavzuni kengroq o'rganishga yordam beradi.

Rol o'yinlari orqali o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarga kirib, gap turlarini hayotiy misollarda qo'llashni mashq qilishadi. Masalan, "do'konda xarid qilish" mavzusida so'roq va buyruq gaplar ishlatiladi: "Bu qancha turadi?", "Iltimos, shokolad bering." Misollardan ko'rinish turibdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida gaplar tuzilishini interaktiv taqdimot, videodars yoki onlayn testlar orqali mustahkamlash mumkin.

Xulosa sifatida muammoli ta'lim usulida o'quvchilarga savol beriladi: "Qanday gaplar tugallangan fikr bildirmaydi?" Ular muhokama orqali "gapga o'xshash birliklar" bilan "gap"ning farqini tushunadilar. Demak, zamonaviy texnologiyalar qo'llanganda o'quvchi nafaqat grammatik tushunchani o'zlashtiradi, balki uni amaliy nutqda qo'llashni ham o'rganadi. Shu bilan birga gap – tilning asosiy sintaktik birligi bo'lib, u fikrni tugallangan shaklda ifodalash xususiyatiga ega. Gapning belgilarini, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlarini o'quvchilarga o'rgatishda innovatsion yondashuvlar qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, AKT vositalari, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa gapni o'rgatishda innovatsion yondashuv – bu nafaqat yangi metodlarni qo'llash, balki

o'quvchining ijodiy tafakkurini shakllantirish, tilga qiziqishini orttirish va bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2005. – 75 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2002. – 287 b.
3. H. Jamolxanov. Hozirgi adabiy tili. - Toshkent: 2013. – 247 b.
4. Rasulov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 176 b.

SINONIM SO‘ZLARNING TASNIFI VA NUTQDAGI AHAMIYATI.

ALLAMBERGENOVA MAVLUDA SAPARBAY QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3 – bosqich talabasi

allambergenovamavluda136@gmail.com.

Anotatsiya: Ushbu maqolada sinonim so‘zlar va uning nutqdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Sinonim so‘zlarning o‘zbek adabiyotida nasr va nazm jarayonida keng qo‘llanilishi va uning jozibadorligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: sinonim, omonim, leksema, ideografik sinonimlar, stilistik sinonimlar, tanosub, dominant.

Annotation: Three articles discuss synonymous words and their importance in speech. The article highlights the wide use of synonyms in Uzbek literature in prose and poetry, and their attractiveness.

Keywords: synonym, homonym, lexeme, ideographic synonyms, stylistic synonyms, tanosub, dominant.

Аннотация: В данной статье рассматриваются синонимы и их значение в речи. Подчеркивается широкое использование синонимов в узбекской литературе (прозе и поэзии), их привлекательность.

Ключевые слова: синоним, омоним, лексема, идеографические синонимы, стилистические синонимы, таносуб, доминанта.

Sinonim so‘zlar nutqimizni doimo boy qilgan va ayniqsa fikrimizni yaxshi va samimiy tushuntirishga yordam bergan. Sinonimlar til boyligini oshirish, nutqni ta'sirchan va ifodali qilish, takrorlardan qochish va uslubiy moslashuvni ta'minlash kabijihatlar orqali nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi[3].

Tilshunoslik fanidan ma'lumki, qaysi tilda sinonimlar - ma'nodosh so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til eng boy til; shuningdek, qaysi tilda shakldoshlar - omonim so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til kambag‘al tillar sirasiga kiradi, deya yuritiladi. Masalan shimoliy qutbda yashaydigan Eskimos qabilasiga mansub millat tilida "qor" so‘zining yigirma xil sinonimi mavjud. Arab tilida esa "cho‘l" so‘zining yuzdan ortiq varianti bor.[1] Yozilishi va aytilishi har xil ma'nosi bir biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar Sinonim so‘zlar deyiladi. Misol: turq, bashara, nusxa, aft yuz, chehra, oraz, ruxsor, jamol. Sinonimlar qatori - sinonimlik qator deyiladi.[Ifoda semalari bo‘lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning dominantasi sanaladi. Chunonchi, yuz, bet, aft,

bashara, turq (dominanta - yuz); nur, , yog'du, ziyo (dominanta - nur); yolg'iz, yakka, tanho (dominanta - yolg'iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qatorda), nur (ikkinchi qatorda) va yolg'iz (uchinchi qatorda) betaraf ma'nolidir. Sinonimik qatordagi birinchi so'z bosh so'z (asosiy so'z) hisoblanadi. Bosh so'z, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional bo'yoq, uslubga ko'ra betarafligi va shu kabi xususiyatlari bilan shu qatordagi boshqa so'zlardan farqlanadi, hamda, xuddi shu xususiyatlariga ko'ra tilda boshqalariga nisbatan keng qo'llanadi. Chiroyli, go'zal, husnli, husndor, xushro'y, ko'hli, zebo, suluv, sohibjamol sinonimik qatorda chiroyli so'zi shunday belgilarga ega va bosh so'z hisoblanadi. Qolgan so'zlar esa har biri o'ziga xos belgi-xususiyati bilan boshqalaridan farqlanadi: go'zal so'zi belgini kuchli (yuqori) daraja bilan ifodalaydi; barno, zebo so'zlari ko'proq kitobiy uslubga ega, suluv so'zi esa nisbatan kam qo'llanadi va hokazo. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi, xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Leksemalarning turkumlik semalari bir xil bo'ladi, bu hol sinonimlarning bir so'z turkumiga birlashishini taqozo qiladi: bahor va ko'klam (ot), chiroyli va go'zal (sifat) kabi.[2:167]

1. Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrulanmoq leksemalari "g'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "g'azablanmoq"qa, "g'azablanmoq"dan esa "qahrulanmoq"qa qarab kuchayib boradi.

2. Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan boladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no — "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa biroz salbiy boyoq bilan qoplangan, bu salbiy boyoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yana-da ortib boradi. Qiyos qiling: U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.lsm.). Sho'xroq qiz, yigitlar iljayib, bir-biriga ko'z qisib qo'yishadi ("Mushtum"). Fosih afandi bo'lsa ... qora duldul ustida kuydirgan kalladay irjayib o'tiraredi (M.lsm.). Fazliddin tirjayib, egri-bugri tishlarining oqini ko'rsatdi (O.) Lekin Murzin hayron qolib: "U emas-ku!" — degan edi, kommandant: "Adashmang, aynan o'zi" dedi surbetlarcha ishshayib. (Sh.). Yeryutgurlar, nima qilib irshayib turibsizlar, huv, ko'zlaring teshilsin! - dedi xotinlardan biri (M.Os.). [2:167] Ko'rib turganingizdek

sinonim so'zlar nutqda juda keng qo'llaniladi. Yuqoridagi kulib,jilmayib hamda iljayib, irshayib, tirjayib, ishshayib kabi sinonim so'zlar matnni emotsionalligini oshirshga va qahramonlarni hissiyotlarini ochib bergan.

3. Nutqiy sinonimlar — nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol,jinday, qittay,jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, picha, xiyol, jindak qittay, jichcha leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xosdir[2:167] Sinonim so'zlar she'riyatda Tanosub san'atini vujudga keltiradi.

Anda u shoh, hokim - u voliy

Mulki me'muri himmati oliy

Bu yerda shoh, hokim, voliy kabi sinonim so'zlar tanosub san'atini vujudga keltirmoqda. Barchasi boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxs ma'nosini ifodalaydi.

Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?

Vey, tishlari durri guharim, netti, ne bo'ldi?

Atoiyning ushbu misralariga nazar solar ekanmiz gavhar, dur kabi sinonim so'zlarga ko'zimiz tushadi. Qizning tishlarini dur va gavharlarga o'xshatyapti qanchalar go'zal o'xshatish. Sinonim so'zlar tishlarni go'zal ta'riflashga yordam berganini ko'rishimiz mumkin.

Sinonimlilik nafaqat so'zlarga balkim affikslar va frazemalarga ham tegishlidir. Ma'nodosh affikslar: li, ser, ba, bo, dor, mand, bu qo'shimchalar belgiga egalikni bildiradi. Siz, no,be qo'shimchalari belgiga ega emaslikni bildiradi. Mevali - Sermeva. Beodob - odobsiz.Sinonim frazemalar: Yozilishi aytilishi har xil ma'nosi bitta so'zga teng bo'lgan iboraga aytiladi.

Og'zi qulog'ida, boshi osmonda, terisiga sig'maydi * xursand.

Do'ppisi yarimta, parvoyi palak, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi *beg'am.

Leksemalar quyidagi holatlarda sinonimik munosabatda bo'la olmaydi:
 1.Ideografik semalari teng bo'lmagan leksemalar:quyosh, oy, yulduz kabi paradigma a'zolari. 2. Ma'no hajmi keng bo'lgan leksema bilan ma'no hajmi tor bo'lgan leksemalar: uy va xona, shahar va mahalla kabilar. 3.Ijtimoiy mohiyati teng bo'lmagan hodisa-voqeliklarning nomlari: qozi va sudya, mirshab va militsioner kabilar.Bulardan qozi va mirshab leksemalari feodal tuzumdagi voqelikni, sudya va militsioner leksemalari esa hozirgi demokratik tuzumga xos voqelikni nomlaydi.O'tmish voqeligining nomi bilan hozirgi voqelik nomi o'rtasida sinonimik munosabatning borligi yoki yo'qligini belgilashda shu nomlardan biri o'rnida ikkinchisining qo'llana

olish darajasi ham hisobga olinadi. Chunonchi, eski o'zbek tilidagi zobit leksemasi hozirgi o'zbek tilida ofitser leksemasining sinonimi sifatida qo'llana boshlandi, ammo eski o'zbek tilidagi cherik leksemasi bilan hozirgi o'zbek tilidagi askar leksemasi o'rtasida esa bunday munosabat yo'q[4:180]

O'z nutqimizda sinonim so'zlarni ishlatish bir so'zni takrorlashni oldini oladi va nuqtimizni jozibali qilib beradi. Fikrimizni aniq va lo'nda ta'riflashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. H. Jamolxonov. Toshkent 2005.
3. SINONIMLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI
4. Hasanboy Jamolxonov. HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2013.

O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI: STRUKTURA VA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR

DOLIYEVA FAYYOZA SHARIF QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari, ularning adabiy tilga nisbatan farqlari, tarixiy-lug'aviy qatlamlari hamda mintaqaviy tafovutlar asosida shakllangan o'ziga xos so'z boyligi tahlil qilinadi. Shevalardagi arxaik, dialektal va kirishma leksik birliklarning shakllanish omillari, ularning semantik maydonlari, ishlatilish konteksti hamda adabiy til bilan o'zaro munosabatlari lingvistik tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda Qarshi, Andijon, Xorazm, Toshkent va Farg'ona shevalarining leksik jihatdan qiyosiy tahlili o'tkazilgan.

Kalit so'zlar. o'zbek shevalari, leksika, dialektizm, adabiy til, sinonimiya, arxaizm, semantika

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексические особенности узбекских диалектов, их различия по сравнению с литературным языком, историко-лексические слои и региональные различия в формировании уникального словарного запаса. Особое внимание уделяется архаичным, диалектным и заимствованным лексическим единицам, их семантическим полям и контекстуальному использованию. Проведен сравнительный лексический анализ каршинского, андижанского, хорезмского, ташкентского и ферганского диалектов.

Ключевые слова: узбекские диалекты, лексика, диалектизм, литературный язык, синонимия, архаизм, семантика

Abstract. This article explores the lexical features of Uzbek dialects, their differences from the literary language, historical-lexical layers, and the unique vocabulary formed on a regional basis. The paper focuses on archaic, dialectal, and borrowed lexical units, their semantic fields, and contextual usage. A comparative lexical analysis of the Qarshi, Andijan, Khorezm, Tashkent, and Fergana dialects is conducted.

Keywords. Uzbek dialects, lexicon, dialectism, literary language, synonymy, archaism, semantics.

Kirish. O'zbek tilining shevalari tilshunoslikda alohida e'tibor talab etadigan sohalardan biridir. Shevalar tildagi tarixiy, ijtimoiy va hududiy tafovutlarning bevosita ifodasidir. Ularning leksik jihatdan o'rganilishi esa adabiy tilning shakllanish jarayoni, lug'aviy boylikning manbalari va xalq tilining ichki dinamikasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1] O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasida boy tarixiy meros, murakkab ijtimoiy taraqqiyot va mintaqaviy tafovutlar o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan, o'zbek tilining shevalari tilshunoslikda alohida ilmiy qiziqish uyg'otuvchi sohalardan biridir. Shevalar xalq tilining jonli shakli bo'lib, ular tildagi tarixiy, ijtimoiy, madaniy va hududiy tafovutlarning bevosita va real ifodasidir. O'zbek shevalari asrlar davomida xalq orasida og'zaki nutq vositasi sifatida yashab kelgan va o'zining leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan farqlanib turgan. Ular milliy tilning tabiiy rivojlanishida asosiy zamin vazifasini bajaradi, xalq tafakkuri, qadriyatlari, urf-odatlar va hayot tarzini ifodalovchi boy til materialidir. Ayniqsa, leksik qatlamda shevalar rang-barang va serqirra bo'lib, ular orqali nafaqat tarixiy lug'at qatlamlari, balki hozirgi zamon tilining so'z boyligi ham kengayadi.

O'zbek shevalarining leksik boyligi milliy til taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, xalq tilining real holatini, tarixiy qatlamlarini va mintaqaviy tafovutlarini aks ettiradi. Shevalar tarkibidagi leksik birliklar - arxaizmlar, dialektizmlar, kirishma so'zlar - til taraqqiyotining turli bosqichlari, ijtimoiy-madaniy ta'sirlar va tarixiy hodisalar natijasidir. Ular faqatgina fonetik yoki grammatik jihatdan emas, balki mazmunan ham adabiy tilga nisbatan farqlanadi. Sheva leksikasi ko'p hollarda adabiy tildan chetda qolgan, biroq xalq hayoti va tafakkurida mustahkam o'rin egallagan so'zlarni o'z ichiga oladi. Bu esa shevalarni o'rganish orqali tilning ichki taraqqiyoti, tarixiy leksik qatlamlar, ayniqsa, og'zaki nutq madaniyati va xalq ijodi bilan bog'liq boy ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini yaratadi. Jumladan, ayni so'zlar bir shevada ijobiy, boshqasida esa neytral yoki salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Bu esa ularning semantik moslashuvchanligini va kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Hududlar bo'yicha shevalarning leksik tafovutlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining har bir hududiy varianti o'ziga xos lisoniy tizimga ega. Bunday tafovutlar tilda ko'pchilik e'tibor bermaydigan mayda-ma'no va konnotativ farqlar orqali xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tarixiy tajribasini yoritib beradi. Shu bilan birga, bu leksik birliklar ko'pincha adabiy til boyligini to'ldirishda, so'z yasaliishi va frazeologizmlar shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sheva leksikasining manbalarini O'zbek shevalarida uchraydigan leksik birliklari quyidagi bir nechta asosiy qatlamlardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin:

1.

Arxaiz

milar – tarixiy jarayonlar natijasida adabiy til tarkibidan chiqqan, ammo shevalarda saqlanib qolgan so'zlar: *bekat* (stansiya), *chayir* (qattiq, mustahkam)[2].

2.

Dialek

tizmlar – faqat ma'lum hududga xos bo'lgan va adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlar: *shilqim* (Farg'onada – bezor), *surpa* (Toshkentda – yupqa ko'rpa) [3].

3.

Kirill

malar (kiritmalar) – boshqa tillardan kirib, shevalarda mustahkam o'rnatilib qolgan birliklar: *aqqal* (forscha – donishmand), *urgancha* (ruscha *organizatsiya*) [4].

Shevalar leksikasining semantik xususiyatlari bo'yicha quyida keltirilgan tahlillar asosida ko'rishimiz mumkin bo'lgan jihati, Sheva leksikasida sinonimiya va omonimiya hodisalari ko'proq kuzatiladi. Masalan, Toshkent shevasida *do'lma* so'zi go'shtli ovqatni anglatadi, Xorazmda bu atama boshqacha ovqatga nisbatan ishlatiladi. Bu holat leksik birliklarning semantik ko'lamining shevalarga xos moslashuvchanligini ko'rsatadi[5].

Hudud	Misol so'zlar	Adabiy tilga mos kelishi
Qarshi	<i>qovurma, sishgan</i>	<i>qovurilgan ovqat, shishgan</i>
Andijon	<i>langar, tag'in</i>	<i>qoziq, yana</i>
Xorazm	<i>xoduk, gazna</i>	<i>etik, sandiq</i>
Toshkent	<i>paxsa, saqich</i>	<i>g'isht, sakich</i>
Farg'ona	<i>tirlak, urib</i>	<i>jonli, tegib</i>

Bu jadval shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlarni yaqqol aks ettiradi.

Shevalarda qo'llaniladigan leksik birliklar ko'pincha og'zaki nutq uslubiga mansub bo'lib, emotsional ifoda, jo'shqinlik, xalqona obrazlilik kabi funksiyalarga ega. Ayniqsa, xalq maqollari, aforizmlar, ertak va dostonlar tarkibida shevaga xos leksik birliklarning qo'llanilishi xalq tafakkuri, nutq madaniyati va ma'naviy qadriyatlarining ifodasidir.[3] Bundan tashqari, ba'zi sheva birliklari jamiyatdagi ijtimoiy guruhlariga mansublikni bildiruvchi belgi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan,

ayrim soʻzlar orqali kishining qaysi mintaqadan ekani darrov aniqlanishi mumkin. Bu holat tilning sotsiologik funksiyasini koʻrsatadi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki: oʻzbek shevalari leksikasi nafaqat tilshunoslar uchun, balki tarixchilar, folklorshunoslar, madaniyatshunoslar va sotsiologlar uchun ham noyob empirik materialdir. Ularning tizimli tahlili, tasnifi va adabiy til bilan oʻzaro aloqalarini aniqlash orqali oʻzbek tilining funksional imkoniyatlari va ekspressiv imkoniyatlari yanada kengayadi. Zamonaviy tilshunoslikda shevalarning leksik jihatdan chuqur oʻrganilishi tilni saqlash va uni madaniy meros sifatida baholashda muhim qadam sanaladi. Dialektologik tadqiqotlar oʻzbek tilining ichki strukturaviy boyligini ochib beradi, bu esa milliylikni saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Qosimova, M. (2019). *Oʻzbek shevalarining leksik xususiyatlari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Joʻrayev, S. (2021). *Sheva va adabiy til: farqlar va oʻxshashliklar*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Axmedov, A. (2018). “Fargʻona vodiysi shevalarida leksik tafovutlar”. // *Filologiya masalalari* – №2, 45–51-betlar.
4. Madrahimov, B. (2020). “Xorazm shevasida arabcha va forsha kirishma soʻzlar”. // *Til va adabiyot*, №4.

LEKSIK ANTONIMIYA .UNING TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

KENJAYEVA NILUFAR HUSAN QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitarfanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3- bosqich talabasi

kenjayevanilufar338@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada antonimlarning tilshunoslikdagi o'rni, turlari va ularning nutqdagi funksional ahamiyati yoritilgan. Antonimlar tilning semantik tizimini shakllantirishda, ma'nolar orasidagi chegarani belgilashda va nutqning ifodaliligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, adabiy asarlarda antonimlar yordamida ziddiyat, kontrast va hissiy ta'sir kuchaytiriladi. Maqolada antonimlarning turlari, ularning mantiqiy va badiiy vazifalari, shuningdek, o'zbek adabiyotidagi qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: antonim, leksik antonimiya, semantika, qarama-qarshilik, badiiy ifoda, o'zbek tili, adabiyot.

Аннотация. В статье рассматривается роль антонимов в языкознании, их виды и функциональное значение в речи. Антонимы играют важную роль в формировании семантической системы языка, в определении границ значений и повышении выразительности речи. В художественной литературе антонимы используются для создания контраста, противоречия и эмоционального воздействия. Особое внимание уделено видам антонимов, их логическим и художественным функциям, а также использованию в узбекской литературе.

Ключевые слова: антоним, лексическая антонимия, семантика, противоположность, выразительность, узбекский язык, литература.

Annotation. This article explores the role of antonyms in linguistics, their types, and their functional significance in speech. Antonyms play a crucial role in shaping the semantic system of a language, defining meaning boundaries, and enhancing expressiveness. In literary works, antonyms are used to create contrast, highlight conflict, and evoke emotional impact. The study focuses on the types of antonyms, their logical and artistic functions, and their use in Uzbek literature.

Keywords: antonym, lexical antonymy, semantics, opposition, expressiveness, Uzbek language, literature.

Til — inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim ifoda vositasi bo'lib, u orqali inson o'z fikrini, his-tuyg'usini va dunyoqarashini ifodalaydi. Har bir tilning boyligi va imkoniyatlari, avvalo, uning leksik tizimi orqali namoyon bo'ladi. So'zlar o'zaro turli ma'no munosabatlariga kirishadi, shu jumladan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar — antonimlar tilda alohida ahamiyat kasb etadi. Antonimlar nafaqat tildagi semantik tizimning muhim qismi, balki fikrlash jarayonining ham ajralmas unsurlaridan biridir. Ular orqali inson atrofdagi voqelikni zidliklar, qarama-qarshiliklar asosida idrok etadi. Shu sababli antonimlar tilshunoslikda, xususan, leksikologiya sohasida chuqur o'rganiladigan muhim hodisa hisoblanadi.

Antonimlarning tildagi o'рни va funksiyasi ularning ma'noni aniqlashtirish, nutqqa ifodalilik, ta'sirchanlik va kontrast bag'ishlash xususiyatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda antonimlar yordamida muallif hayotiy ziddiyatlarni, inson ruhiyatining murakkab holatlarini va ijtimoiy voqealarning qarama-qarshi tomonlarini chuqur ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shu jihatdan antonimlar tilning nafaqat grammatik, balki estetik va falsafiy qatlamlarini ham boyituvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tilning asosiy xususiyatlaridan biri uning turli xil vositalar orqali ma'nolarni ifodalash qobiliyatidir. Shu jumladan, antonimlar — qarama-qarshi ma'noli so'zlar, tilning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Antonimlar har xil ko'rinishlarda uchrab, gapning mazmunini chuqurlashtirish, ifodalilikni kuchaytirish va muloqotni soddalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikda antonimlar ma'no munosabatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Antonimlar orasida bog'liqlik holatlari mavjud bo'lib, ular qarama-qarshi darajalarni ifodalaydi. Misollar: issiq – sovuq, katta – kichik, baland – past.

Komplementar (to'ldiruvchi) antonimlar: Bunday antonimlar orasida oraliq holat bo'lmaydi, ular bir-birini inkor etuvchi tushunchalarni ifodalaydi. Misollar: tirik – o'lik, bor – yo'q, rost – yolg'on.

Relatsion (munosabatli) antonimlar: Bu turdagi antonimlar bir-biriga bog'liq tushunchalarni qarama-qarshi qo'yadi. Misollar: savol – javob, ota – bola, sotuvchi – xaridor. Antonimlar nutqning ta'sirchanligini kuchaytiradi va uni yanada mazmunli qiladi. Misol: "Uning so'zlarida rost ham, yolg'on ham bor edi." Antonimlar nafaqat tilni boyitadi, balki muloqotning samaradorligini ham oshiradi. Ular orqali qarama-qarshilik va zidliklar osonroq tushuniladi. Shuningdek, ular adabiy asarlarda obrazlarni yaratish, hissiyotlarni ifodalash va dramatik effekt hosil qilishda keng qo'llaniladi.

Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) — grekcha anti — “zid”, “qarama-qarshi” onoma yoki onyma — „nom“ degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan so'zlar antonim deyiladi.[1]

Antonimlar — ma'nosi jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlardir. Ular til tizimida semantik muvozanat va ma'no aniqligini ta'minlab, tildagi qarama-qarshilik tamoyilini ifodalaydi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan antonimlar bir nechta muhim funksiyani bajaradi:

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanilib ma'no kengaytiradi yoki ma'no ifodalaydi: tunu kun (har doim). Ko'p ma'noli so'z o'zining har bir ma'nosi bilan ayrim so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin: xafa so'zi bir o'rinda xursand so'ziga antonim bo'ladi, yoki qattiq yer — yumshoq yer; baxil (xasis) odam — saxiy odam.

Leksik antonimiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, so'zlarning qarama-qarshi ma'nolarini va ularning funksional ahamiyatini o'rganadi. Antonimlar tilni boyitish, nutqning ifodaviyligini oshirish va qarama-qarshilikni ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada antonimlarning turlari, vazifalari va adabiyotdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Tilning semantik tizimi murakkab va ko'p qirralidir. U mazmunni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanadi, jumladan, antonimlardan. Antonimlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va qarama-qarshi tushunchalarni shakllantirish orqali muloqotni tushunarli va ta'sirchan qiladi. Ular har xil nutq turlarida, ayniqsa, adabiy va badiiy asarlarda keng qo'llaniladi.

Antonimlar ijtimoiy, falsafiy va adabiy ziddiyatlarni ifodalashda ishlatiladi. Adabiy misol: Alisher Navoiy “Xamsa”sida: “Ishq va nafrat bir ko'ngilda qo'shila olmaydi.” Antonimlar adabiy asarlarda qarama-qarshilik, ziddiyat va muvozanatni ifodalash uchun keng qo'llaniladi. Ular qahramonlarning xarakterini ochib berish, voqealarning ziddiyatli tomonlarini ta'kidlash va hissiy ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek, Cho'lpon, Fitrat kabi o'zbek adiblarining ijodida antonimlardan keng foydalanilgan.

Sizga antonimlarning tilshunoslikdagi foydasi va ahamiyati haqida tahliliy fikr kerak. Quyida ilmiy uslubda, ammo tushunarli shaklda yozilgan izohni keltiraman:

Antonimlarning tilshunoslikdagi ahamiyati shundan iboratki, semantik tizimni shakllantiradi. Har bir antonimik juftlik tildagi ma'nolar orasidagi chegarani belgilab beradi. Masalan, katta–kichik, yaxshi–yomon, yorug'–qorong'i kabi juftliklar inson tafakkuridagi qarama-qarshi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Antonimlar

tafakkur va nutqni rivojlantiradi. Zid ma'noli so'zlar inson tafakkurida taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlarini faollashtiradi. Ular orqali inson dunyoni ziddiyatlar orqali anglaydi — bu esa tilda mantiqiy va mantiqiy-psixologik tuzilmani shakllantiradi. Undan tashqari nutqning ifodaviyligini oshiradi.

Badiiy adabiyotda antonimlar kontrast yaratadi, obrazlilikni kuchaytiradi. Masalan, “yorug' kunlar”, “qorong'i kechalar”, “hayot–o'lim” kabi qarama-qarshi tushunchalar hissiy ta'sirni oshiradi. Tilshunoslik adabiy tahlilida asosiy mezonlardan biri sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Antonimlar badiiy nutqqa ta'sirchanlik, dinamika va ritm baxsh etadi. Qarama-qarshi so'zlar o'quvchida kuchli hissiy ta'sir uyg'otadi. Adiblar antonimlar orqali hayot falsafasini, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Bu orqali asarning g'oyaviy asoslari yanada tiniqlashadi. She'riyatda antonimlarning ishlatilishi satrlar ohangdorligini oshiradi, fikrning qarama-qarshi tomonlarini muvozanatlashtiradi. Bu usul asarga musiqiylik va estetik go'zallik beradi.

Antonimik munosabatlar leksik-semantik tahlilda, sinonimiya, polisemiya qarama-qarshi hodisa sifatida o'rganiladi. Bu orqali tilning ichki tizimi va ma'no aloqalari yanada chuqurroq aniqlanadi. Tarjima va o'qitishda amaliy ahamiyatga ega. Til o'rgatishda antonimlar o'quvchilarga so'z boyligini kengaytirish, ma'nodagi farqlarni anglash va nutqni aniqlik bilan ifodalashda yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, leksik antonimiya tilning semantik tizimida muhim o'rin tutadi. Antonimlar nafaqat nutq ifodaliligini oshiradi, balki tushunchalarni aniqroq yetkazishda yordam beradi. Ularning turli ko'rinishlari tilning boyligi va uning mantiqiy tuzilishini anglashga xizmat qiladi. Antonimlar — ma'nosi jihatidan bir-biriga qarama-qarshi so'zlar bo'lib, adabiyotda badiiy ifoda vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Ular shoir va yozuvchilarga hayotdagi ziddiyatlarni, hissiyotlarning qarama-qarshiligini, inson ruhiyatining murakkab holatlarini yanada ta'sirli tarzda ifodalash imkonini beradi. Adabiyotda antonimlar yordamida qarama-qarshi holatlar tasvirlanadi: yorug'lik va zulmat, sevgi va nafrat, hayot va o'lim, baxt va g'am kabi. Bu kontrast o'quvchiga voqeani chuqurroq his etish, obrazlarni yanada jonli tasavvur qilish imkonini beradi. Antonimlar tildagi ma'nolar tizimini tartibga soluvchi, mantiqiy tafakkur va badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim leksik hodisadir. Ular tilning boyligini, tafakkurning chuqurligini va madaniyatning murakkab qatlamlarini aks ettiradi. Antonimlar adabiyotda badiiy tafakkurning asosiy ifoda vositalaridan biridir. Ular orqali yozuvchi yoki shoir hayotdagi ziddiyatlarni, inson ruhiyatini, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni jonli tasvirlaydi. Natijada asar mazmunan chuqurlashadi, o'quvchida kuchli estetik ta'sir uyg'onadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar>
2. Yo'ldoshev B. "O'zbek tilining leksikologiyasi". Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2015.
3. G'afurov S. "Til va ifoda vositalari". Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. O'zbekiston adabiyoti namunalaridan olingan misollar: Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Alisher Navoiy asarlari.

LUG'ATLARNING TILDAGI O'RNI VA LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI

SUYUNOVA NIGORA ALISHER QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Telefon: +998885373505

alisherovna005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “lug‘at” tushunchasi, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar farqi yoritilgan. Shuningdek, izohli, tarjima, tarixiy, dialektal, etimologik, imlo, orfoepik, frazeologik, tematik, terminologik va boshqa turdagi lug‘atlar haqida ma’lumot berilgan. O‘zbek lug‘atchiligi tajribasi asosida lug‘atlarning til taraqqiyotidagi o‘rni va vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, leksikografiya, izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, terminologik lug‘at, etimologiya.

Annotation (in English)

This article discusses the concept of a “dictionary,” its socio-cultural importance, and the distinction between encyclopedic and linguistic dictionaries. It also provides information about various types of dictionaries such as explanatory, bilingual, historical, dialectal, etymological, spelling, pronunciation, phraseological, thematic, and terminological dictionaries. Drawing on the experience of Uzbek lexicography, the role and functions of dictionaries in language development are analyzed.

Keywords: Dictionary, lexicography, explanatory dictionary, bilingual dictionary, terminological dictionary, etymology.

Аннотация (на русском языке)

В статье рассматривается понятие «словарь», его социально-культурное значение, а также различие между энциклопедическими и лингвистическими словарями. Приводятся сведения о различных видах словарей: толковых, переводных, исторических, диалектных, этимологических, орфографических, орфоэпических, фразеологических, тематических и терминологических. На основе опыта узбекской лексикографии проанализирована роль и функции словарей в развитии языка.

Ключевые слова: Словарь, лексикография, толковый словарь, переводный словарь, терминологический словарь, этимология.

Har bir millatning madaniy taraqqiyoti, ma'naviy dunyosi va tafakkuri uning til boyligi orqali namoyon bo'ladi. Tilning leksik qatlamini tizimlashtirish va tartibga solish esa lug'atlar vositasida amalga oshadi. Lug'atlar tilning o'zgarish jarayonlarini, xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini, madaniyatini hamda tafakkurini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida lug'atchilik (leksikografiya) fani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asrda shakllandi. Bu sohada o'zbek tili izohli, etimologik, tarjima va terminologik lug'atlarining yaratilishi xalqning madaniy merosini saqlash va boyitishda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Lug'at — muayyan tildagi so'zlar, iboralar yoki morfemalar majmuasini tartibli ravishda taqdim etuvchi manbadir. U o'quvchi va tadqiqotchiga nafaqat so'zning ma'nosini, balki uning kelib chiqishi, talaffuzi, uslubiy rangini ham ko'rsatadi. Lug'atlar ijtimoiy-madaniy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, xalq tafakkurini, tarixiy xotirasini va ilmiy dunyoqarashini mujassam etadi. Tilshunos Sh. Rahmatullayev ta'kidlaganidek, "lug'atlar tilning jonli tarixidir, ular so'zlar hayot yo'lini aks ettiradi" Lug'atlar mazmuni va maqsadiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: **ensiklopedik** va **lingvistik** lug'atlar. Ensiklopedik lug'at so'zlar orqali ifodalangan tushunchalar va predmetlar haqida ma'lumot beradi (masalan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"), lingvistik lug'at esa so'zning ma'nosini, grammatik, fonetik va uslubiy xususiyatlarini ochib beradi (masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati").

Lingvistik lug'atlar, o'z navbatida, *izohli, tarjima, tarixiy, dialektal, etimologik, frazeologik, terminologik, orfoepik* va boshqa turlarga ajraladi.

Izohli lug'atlar. So'zlarning ma'nosi, qo'llanish sohasi, grammatik va fonetik xususiyatlarini yoritadi. Eng yirik namuna — "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1982).

Tarjima lug'atlari: Ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasida ma'no almashinuvini ta'minlaydi. Masalan, "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (1954), "Inglizcha-o'zbekcha lug'at" (1968) va boshqalar.

Tarixiy va etimologik lug'atlar: So'zlarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotini o'rganadi. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2000) bu yo'nalishda muhim manbadir.

Dialektal lug'atlar: Sheva va lahjalarda qo'llaniladigan so'zlarni qayd etadi. "O'zbek xalq shevalari lug'ati" (1971) bu boradagi asosiy manbalardan biridir.

Terminologik lug'atlar: Fan, texnika va ijtimoiy sohalarga oid terminlarni tartibga soladi. O'zbekiston mustaqilligi davrida 50 dan ortiq soha bo'yicha 140 ga yaqin terminologik lug'atlar nashr etilgan.

Frazeologik lug'atlar: Turg'un birikmalar va iboralarni o'z ichiga oladi. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978) bunga misoldir.

Lug'atlar tilni me'yorlashtiradi, adabiy tildagi birliklarni belgilaydi va yangi so'zlarning qo'llanish darajasini tartibga soladi. Ular o'quvchi uchun ma'lumot manbai, ilm-fan uchun esa tadqiqot vositasi vazifasini bajaradi. O'zbek lug'atchiligidagi izohli va tarjima lug'atlar xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy taraqqiyotini ko'rsatib beradi. Shuningdek, lug'atlar yosh avlodning savodxonligini oshirishda, til madaniyatini rivojlantirishda asosiy vositadir.

Lug'atlar tilshunoslikning eng muhim manbalaridan biri sifatida, nafaqat so'zlarning ma'nolarini ochib berish, balki xalqning madaniy-ma'naviy rivojlanishini aks ettiradi. Ular tilni boyitish, me'yorlashtirish, o'qitish va targ'ib qilish jarayonlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbek lug'atchiligi tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir yangi lug'at tildagi o'zgarishlarni qayd etadi, uni boyitadi va til madaniyatini yuksaltiradi. Shu bois, lug'atlar nafaqat tilshunoslar uchun, balki butun jamiyatning ma'naviy xazinasini sifatida qadrlanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O'zbek tilining izohli lug'ati.** – Toshkent, 1982.
2. **Rahmatullayev Sh.** *O'zbek tilining etimologik lug'ati.* – Toshkent, 2000.
3. **Hojiyev A.** *O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati.* – Toshkent, 1974.
4. **Begmatov E.** *O'zbek ismlari.* – Toshkent, 1991.
5. **Usmon O., Doniyorov R.** *Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati.* – Toshkent, 1965.
6. **Radlov V. V.** *Opit slovary tyurskix narechiy.* – Sankt-Peterburg, 1888–1911.
7. **Ma'rufov A.** *Paronimlar lug'ati.* – Toshkent, 1974.
8. **Sodiqova M., Usmonova O'.** *O'zbek tilining orfoepik lug'ati.* – Toshkent, 1977.
9. **G'ulomov A. va boshq.** *O'zbek tilining morfem lug'ati.* – Toshkent, 1977.
10. **Kissen I. A.** *Slovar naiboleye upotrebitelnix slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika.* – Moskva, 1972.
11. **Qurbonova M., Abuzalova M.** *Leksikografiya va lug'atchilik tamoyillari.* – Toshkent: TDPU, 2018.

SHEVALARDA LEKSIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING SABABLARI**OZODBOYEVA NARGIZA BAXODIR QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'

nalishi 3-bosqich talabasi

ozodboyevanargiza6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilining hududiy shevalarida uchraydigan leksik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Ushbu o'zgarishlarning ijtimoiy, tarixiy va lingvistik omillar bilan bog'liqligi asoslanadi. Shuningdek, leksik o'zgarishlarning asosiy shakllari - sinonimiya, arxaizatsiya, neologizatsiya, borrowings (qarz so'zlar) va semantik siljishlar misollar bilan ochib beriladi. Shevalardagi bu kabi o'zgarishlar til taraqqiyoti va madaniy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. sheva, leksik o'zgarish, sinonimiya, arxaizatsiya, neologizm, semantik siljish, qarz so'zlar, dialektologiya, mintaqaviy til, ijtimoiy omil.

Аннотация. В данной статье анализируются лексические изменения, встречающиеся в региональных диалектах узбекского языка. Обосновывается их связь с социальными, историческими и лингвистическими факторами. Рассматриваются основные формы лексических преобразований - синонимия, архаизация, неологизмы, заимствования и семантические сдвиги. Подобные изменения отражают эволюцию языка и его связь с культурными трансформациями.

Shevalar har qanday milliy tilning tirik va dinamik qatlamidir. Ular til taraqqiyotining muhim darakchisi bo'lib, har bir hududga xos bo'lgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, madaniy ta'sirlar va muloqot muhitining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Leksik o'zgarishlar – shevalarda tilning eng sezilarli dinamik jihatlaridan biri bo'lib, ular mintaqaviy nutqning boyligini va rang-barangligini ifodalaydi. Dialektologik tadqiqotlar tilning o'zgaruvchan xususiyatlarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, leksik qatlamdagi o'zgarishlar tilshunoslikda keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi [1]. Shevalarda leksik o'zgarishlar tabiiy til rivojlanishining ajralmas qismidir. Ular orqali til foydalanuvchilarining turmush tarzi, dunyoqarashi va muloqot muhitiga oid tasavvurlari yuzaga chiqadi. Ushbu maqola o'zbek shevalaridagi

leksik o'zgarishlarning asosiy turlarini aniqlash va ularning sabablari ustida tahliliy fikr yuritishni maqsad qiladi.

Turkiy tillardan o'zbek tilining farqliligi ko'p shevaliligi bilan ajralib turadi. O'zbek tilining taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini izohlashda sheva, lahja, dialekt kabi atamalar qo'llaniladi. *Sheva* forschadan olingan bo'lib ravish, tarz degan ma'nolarni anglatadi. *Dialekt* so'zi grekcha sheva degan ma'noni anglatadi. *Lahja* arabcha ravish, tarz, yo'sin, sheva degan ma'nolarni anglatadi. Dialektlarning eng yirik to'dasi bu *lahja*dir O'zbek tili uchta lahja birligidan tashkil topgan: Qarluq, qipchoq, o'g'uz. Ikki xil dialekt mavjud *mahalliy dialekt* va *ijtimoiy dialekt*. Umumxalq tilining ma'lum territoriyaga oid holatiga mahalliy dialekt deyiladi. Mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o'zbek dialektologiyasida o'rganiladi. Ijtimoiy dialekt mahalliy shevadan farq qiladi. Ijtimoiy dialektni ma'lum bir soha yoki kasb hunar leksikasida foydalanilgan so'zlardan kelib chiqqan. Ijtimoiy dialektni o'zbek dialektologiyasida o'rganilmaydi. Ko'pchilik olimlar o'tgan asrning birinchi yarmidayoq o'zbek tili turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan ajralib turgan. Dialektlarning ko'pligiga sabab aholi yashash manzillari bir-biridan uzoqroqda joylashganligidir.

Leksik o'zgarishlar deganda tildagi so'z boyligining o'zgarishi, yangi so'zlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlarning ma'nosining o'zgarishi yoki yo'qolib borishi tushuniladi [2]. Shevalarda bu holatlar ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zgarishlarning asosiy shakllarini esa quyida ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

1. **Sinonimiya** — biror tushuncha uchun bir necha leksik birliklarning ishlatilishi. Masalan, Qarshi shevasida "aka" o'rniga "uka katta", "ota" o'rniga esa "da-da" shakllari qo'llanilishi mumkin [3].

2. **Arxaizatsiya** — adabiy tilda chiqib ketgan so'zlar ayrim shevalarda saqlanib qoladi. Masalan, Farg'ona vodiysi shevalarida "qozixon" so'zi hozirgi "oshxona" o'rnida ishlatiladi [4].

3. **Neologizatsiya** — texnika, zamonaviy hayotga oid so'zlarning kirib kelishi. Masalan, "komp" (kompyuter), "mobilka" (mobil telefon) kabi so'zlar.

4. **Qarz so'zlar** — boshqa tillardan o'zlashtirilgan birliklar. Andijon shevasida rus tilidan kirib kelgan "stanok", "provolka" kabi so'zlar qo'llaniladi [5].

5. **Semantik siljishlar** — so'zning ma'nosi o'zgartiriladi. Masalan, "bola" so'zi ba'zi hududlarda "yigit" yoki "kichik aka" ma'nosida qo'llanilishi mumkin [6].

O'zgarishlarning sabablari esa quyidagilardir:

• **Ijtimoiy sabablar:** kasb, yosh, jins va boshqa ijtimoiy omillar tilga ta'sir ko'rsatadi [7].

• **Geografik omillar:** geografik ajralganlik shevalarning mustaqil rivojlanishiga olib keladi.

• **Tarixiy omillar:** mustamlakachilik, ko'chishlar, urushlar natijasida leksik zaxira o'zgaradi.

• **Madaniy ta'sirlar:** diniy, adabiy va urf-odatlar ham tilga o'z ta'sirini o'tkazadi [8].

Shevalarda ro'y beradigan leksik o'zgarishlar tilning tirik organizm sifatidagi xususiyatini ko'rsatadi. Har qanday til ijtimoiy-madaniy hayotning in'ikosi bo'lib, u doimo harakatda, rivojlanishda va o'zgarishda bo'ladi. Shevalardagi leksik o'zgarishlar aynan shu rivojlanishning muhim ko'rinishi hisoblanadi. Bu o'zgarishlar orqali har bir mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, tarixiy va kommunikativ xususiyatlari til qatlamida o'z ifodasini topadi. Leksik o'zgarishlar, bir tomondan, zamonaviy hayot talablari, texnologik taraqqiyot va global aloqalarning kuchayishi natijasida yuzaga kelsa, boshqa tomondan, tarixiy yodgor so'zlarning saqlanib qolishi orqali o'tmish tafakkurini ham aks ettiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dialektologik tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik uchun, balki madaniyatshunoslik, tarix, antropologiya va sotsiologiya fanlari uchun ham muhim manba hisoblanadi. Shevalardagi leksik qatlamning o'zgarishi mahalliy jamiyatning hayot tarzi, mehnat faoliyati, urf-odati, diniy e'tiqodi va boshqa omillar bilan chambarchas bog'liq. Bu esa shevalarni kompleks madaniy-tarixiy tadqiqot ob'ekti sifatida qarash zaruratini yuzaga keltiradi. Dialektologiya orqali har bir mintaqaning til landshafti, kommunikativ xususiyatlari va til o'zgarishlarining zamonaviy jarayonlari o'rganilib, milliy til taraqqiyoti uchun muhim xulosalar chiqarilishi mumkin.

Shu sababli, shevalarda ro'y berayotgan leksik o'zgarishlarni o'rganish, ularni hujjatlashtirish, tahlil qilish va ilmiy tizimga solish nafaqat tilni saqlash, balki uni taraqqiy ettirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov A. O'zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Sodiqov A. Til taraqqiyotida shevalarning roli. – Samarqand: Ilm, 2005.
3. Yo'ldoshev M. Dialektologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Qurbonov M. Farg'ona vodiysi shevalari lug'ati. – Qo'qon, 2011.
5. Jalolov Sh. O'zbek shevalarida ruscha qarz so'zlar. – Toshkent: Universitet, 2016.
6. Xudoyberganov B. Leksik o'zgarishlar tipologiyasi. – Buxoro: Zarafshon, 2020.

7. Sa'dullayeva D. Sotsiolingvistika va dialektlar. – Andijon, 2019.
8. Qodirov N. Madaniyat va til: shevalar kontekstida. – Toshkent: Akademiya, 2021.

O'ZBEK TILIDA SINONIMIYA HODISASI VA UNING USLUBIY IMKONIYATLARI

RAHAMQULOVA ASILABONU SHAROFIDDIN QIZI

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

raxamqulovadildora@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida sinonimiya hodisasining lingvistik mohiyati, ularning turlari hamda uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Til tizimida sinonim so'zlar nutqni boyituvchi, ifoda uslubini noziklashtiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, adabiy tilda sinonimlarning qo'llanish me'yorlari va ularning badiiy matnlardagi estetik funksiyasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: sinonim, leksik birlik, semantika, uslub, badiiy nutq, ma'no nozikligi, ekspressivlik.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическая сущность явления синонимии в узбекском языке, рассматриваются её виды и стилистические возможности. В системе языка синонимы рассматриваются как средство, обогащающее речь и придающее ей стилистическую тонкость. Кроме того, раскрываются нормы употребления синонимов в литературном языке и их эстетическая функция в художественных текстах.

Ключевые слова: синоним, лексическая единица, семантика, стиль, художественная речь, смысловые оттенки, экспрессивность.

Til xalq ma'naviyatining, madaniyatining, tafakkurining eng muhim ko'zgusi hisoblanib, har bir tilning lug'at tarkibi unda so'zlovchi xalqning dunyoqarashi va tafakkur darajasini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, sinonimiya hodisasi tildagi so'z boyligining o'sishini, ma'no ifodasining nozik farqlanishini ta'minlovchi muhim leksik hodisalardan biridir. Sinonimlar tildagi **ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi**, nutqning **ta'sirchanligi va obrazlilikini oshiradi**, shuning uchun ular stilistik tahlilda ham alohida o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida sinonimiya masalalari **G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, E.Begmatov, M.Mirtojiyev** kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida sinonimlarning turlari, ularning ma'no jihatdan farqlanishi va nutqdagi funksional o'rni ilmiy asosda yoritilgan.

Sinonimiya tushunchasi va mohiyati. Sinonimiya (yunoncha *synonymia* — "bir xil nom") - ma'nolari yaqin, ammo shakllari har xil bo'lgan so'zlarning o'zaro munosabatini bildiruvchi hodisadir. Masalan: **go'zal – chiroyli – latofatli – dilbar**,

katta – ulkan – buyuk – bahaybat, g'azab – jahl – achchiqlanish – alam kabi so'zlar bir-biriga ma'no jihatdan yaqin, lekin har biri ma'lum uslubiy noziklikni ifodalaydi. Sinonimlar **lug'aviy, grammatik va stilistik** jihatdan farqlanishi mumkin. O'zbek tili leksik tizimida sinonimlar **bir ildizli (derivatsion)** va **turli ildizli (leksik)** turlarga bo'linadi.

Sinonimlarning turlari:

1. **Leksik sinonimlar** — shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar: *katta – buyuk, shod – quvonchli, ko'maklashmoq – yordam bermok*.
2. **Frazeologik sinonimlar** — bir xil ma'noni ifodalovchi turli frazeologizmlar: *ko'zga ko'rinmoq – diqqat markazida bo'lmoq, o't yurakli – jasur*.
3. **Grammatik sinonimlar** — grammatik shakl yoki affikslar orqali hosil bo'lgan yaqin ma'noli birliklar: *o'qiyapman – o'qimoqdaman – o'qib turibman*.

Sinonimlik hodisasi dastlab leksik sathda o'rganilgan bo'lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik sinonimlar ham mavjudligi aniqlandi. Barcha sathlardagi sinonimlarga quyidagi ta'rifni berish mumkin: "Sinonimlar bir umumiy ma'no-mazmunga ega bo'lgan, lekin emotsional-ekspressiv hamda funksional jihatdan farqlanuvchi til birliklaridir". Sinonimlik variantlilikdan farqli ravishda fonetik sathda mutlaqo uchramaydi. Leksik sinonimlar semadagi ma'no bo'yog'ining darajalanishi, uslubiy xoslanishi, ba'zan salbiy - ijobiy bo'yoqqa egaligi bilan farqlanadi.¹⁶ Sinonimlarning asosiy uslubiy vazifasi - **ifoda xilma-xilligini ta'minlash, nutqqa emotsional va ekspressiv rang** berishdir. Masalan, "go'zal" so'zi odatda **adabiy** uslubda qo'llanadi, "chiroyli" esa **so'zlashuv uslubida** kengroq ishlatiladi. "Latofatli" esa **badiiy** nutqda obrazli ifoda beradi. Shuningdek, **badiiy matnlarda** sinonimlar muallif uslubini shakllantiradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida *sevgi – muhabbat – ishq* so'zlari orqali inson tuyg'ularining turli darajalari, hissiy chuqurligi ifodalangan. Uslubshunoslik nuqtayi nazaridan, sinonimlar **nutqni takrorlardan xoli qiladi, ifodaning estetik qiymatini oshiradi va ma'no nozikligini kuchaytiradi**.

Sinonimlarning adabiy tildagi ahamiyati shuki, O'zbek adabiy tili uchun sinonimlar **lug'at boyligini kengaytiruvchi, so'z tanlash madaniyatini shakllantiruvchi** vositadir. Adabiy tildagi sinonimlarning to'g'ri ishlatilishi nutqning **mantiqiy aniqligi, ta'sirchanligi va obrazlilikini ta'minlaydi**. Shu bois maktab va oliy ta'limda sinonimiyaga oid bilimlar **nutq madaniyati va uslubiy kompetensiyani rivojlantirishda** muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁶ Abdurahmonov G'. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 132-b

Sinonimlik o'zbek tilshunosligida ma'nodoshlik deb ham yuritiladi. Bu atama ko'proq leksik sinonimlarga nisbatan qo'llangan. Sintaktik sinonimlar uchun mazmundoshlik atamasini taklif etiladi. Sintaktik sathda sinonimlik hozirgacha shakliy sintaksis tamoyillari bilan tasniflangan bo'lib, ularda, asosan, morfologik belgi - ko'rsatkichlar (ko'makchi morfemalar va yordamchi so'zlar) ma'nodoshligi bosh omil hisoblanadi. Sintaktik sinonimlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'z birikmalari sinonimiyasi.
2. Gaplar sinonimiyasi.¹⁷

Sintaktik sinonimlarni tasniflashda turkolog olimlar har xil fikrlarni bildirgan bo'lsa-da (Y.P.Shendels 3 turga¹⁸, V.P.Suxotin hamda V.I.Kononenko 4 turga¹⁹, S.M.Ibragimov esa 9 turga bo'ladi²⁰), lekin asosiy klassifikatsiya yuqorida ko'rsatilgan ikki turni ifodalaydi xolos. Sinonim gaplar oddiy tushunchadagi leksik sinonimlardan quyidagicha farqlanadi:

1. Leksik sinonimlar til birligi hisoblansa, sinonim gaplar nutq birligi sanaladi.

2. Leksik sinonimiya ko'pincha, bir necha leksik birliklar o'rtasida kuzatilsa, gap sinonimiyasi, asosan, ikki sintaktik konstruksiya o'rtasida yuzaga chiqadi.

Sintaktik sinonimlar noverbal vositalar bilan qo'llanishi mumkin. "Pantomimo va xareografiyada yuz va tana harakatlari bilan noverbal nutq amalga oshiriladi. Bu harakatlar, ko'pincha, hamma tillarda so'zlashuvchilar va har xil madaniyat egalariga bir xilda tushunarli va ta'sirli kechadi. Eslang, kino hali ovozashtirilmagan davrda tomoshabinlar kadr ostidagi titrdan ko'ra qahramonlarning yuz ifodasi va harakatlari orqali voqeani yaxshiroq idrok etishgan. Shuning uchun ham jahonning mashhur kinorejissori Charli Chaplin kino ovozashtirilganda ham undan foydalanmadi. Uning oq-qora tasvirdagi ovozsiz kadrlari hamon hammani hayratga solib kelmoqda. Buning sababi ulardagi mimikaning va harakatlarning verbal vositalardan ko'ra ko'proq ma'no ifodalashidadir"²¹

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin bo'ladiki, sinonimiya hodisasi o'zbek tilining lug'at boyligi, ifoda imkoniyatlari va estetik qudratini belgilovchi eng muhim leksik hodisalardan biri hisoblanadi. U til tizimida ma'no nozikliklarini ifodalash, fikrni aniq va ta'sirchan yetkazish, nutqqa emotsional va ekspressiv tus berishda

¹⁷ Mamajonov A, Qo'shma gap stilistikasi, Toshkent, Fan, 1990, 63b

¹⁸ Шендельс Й.П. Понятие грамматической синонимии. Филологические науки. 1959, №1, С.75.

¹⁹ Сухотин В.П. Синтаксическая синонимика в современном русском литературном языке. Глагольное словосочитание. М., 1960, С.14

²⁰ Ибрагимов С.М. Татар теленде синтактик синонимлар. Казань, 1976, С. 39- 40

²¹ Polvonova B. Muloqotda noverbal sinonimiyaning ifodalanishi// O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. -T.: "Nodirabegim" nashriyoti, 2021. 95-b

beqiyos ahamiyat kasb etadi. Sinonimlar yordamida so'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini turlicha, uslubiy jihatdan rang-barang tarzda bayon etishi mumkin. Shu bois sinonimiya nafaqat leksik boylikning ko'rsatkichi, balki tildan badiiy, ilmiy, publitsistik yoki so'zlashuv uslublarida samarali foydalanishning muhim sharti sifatida qaraladi. Shuningdek, sinonim so'zlar tildagi nutq madaniyatini shakllantirish, stilistik tafakkurni rivojlantirish, fikr ifodasining aniqligi va go'zalligini ta'minlashda ham alohida o'rin tutadi. Ularning ma'no va uslubiy farqlarini anglay bilish, til egasining umumiy madaniy saviyasi, til sezgisi va badiiy didini namoyon etadi. Bugungi kunda sinonimiya hodisasi tilshunoslik, psixolingvistika, uslubshunoslik hamda nutq madaniyati fanlari bilan uzviy aloqador bo'lib, o'zbek tili tizimini chuqur o'rganishda keng ilmiy imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida sinonimlarning o'rganilishi o'quvchilarda so'z boyligini oshirish, nutqni ta'sirchan qurish, adabiy tildan ongli foydalanish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Kelajakda bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar tilning tabiiy boyish jarayonlarini, nutqning estetik va kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov, G'. (1985). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Hojiyev, A. (1979). *Til va uslub masalalari*. Toshkent: Fan.
3. Begmatov, E. (1996). *O'zbek tili sinonimlarining stilistik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.
4. Mirtojiyev, M. (2010). *Leksikologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston.
5. Rasulov, R. (2012). *O'zbek tilshunosligiga kirish*. Toshkent: Fan.
6. Karimov, Sh. (2015). *O'zbek tili va nutq madaniyati*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Mamajonov, A. (1990). *Qo'shma gap stilistikasi* (p. 63). Toshkent: Fan.
8. Shendels, Y. P. (1959). Ponyatie grammaticheskoy sinonimii. *Filologicheskie nauki*, (1), 75.
9. Sukhotin, V. P. (1960). *Sintaksicheskaya sinonimika v sovremennom russkom literaturnom yazyke: Glagol'noe slovosochitaniye* (p. 14). Moskva.
10. Ibragimov, S. M. (1976). *Tatar telende sintaktik sinonimlar* (pp. 39–40). Kazan.
11. Abdurahmonov, G'. (1985). *Hozirgi o'zbek adabiy tili* (p. 132). Toshkent: O'qituvchi.
12. Polvonova, B. (2021). Muloqotda noverbal sinonimiyaning ifodalanishi. In *O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari* (p. 95). Toshkent: Nodirabegim.

LEKSIKALOGIYA

BEKSAIDOVA LAYLO ZOKIR QIZI

ChDPU talabasi

Ilmiy rahbari

Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya: leksikologiya tilshunoslikning muhim bo'limi bo'lib, tilning lug'at boyligini, so'zlarning kelib chiqishi, ma'nosi, shakllanishi va qo'llanish xususiyatlarini o'rganadi. Ushbu maqolada leksikologiyani nazariy asoslari, uning fonetika, morfologiya, sintaksis va semasiologiya kabi boshqa tilshunoslik bo'limlari bilan uzviy aloqasi tahlil qilinadi. Shuningdek, umumxalq tili, adabiy til, dialekt, jargon, neologizm va arxaizm kabi leksik qatlamlarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Leksikologiya til taraqqiyoti, milliy madaniyat va jamiyat hayotidagi o'rni nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqilib, bugungi kunda tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati ta'kidlangan. Maqola leksikologiyani yanada chuqur o'rganishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, lug'at boyligi, so'z ma'nosi, tilshunoslik, fonetika, morfologiya, sintaksis, semasiologiya, neologizm, arxaizm, dialekt, jargon

Аннотация: лексикология является важнейшим разделом языкознания, изучающим словарный состав языка, происхождение слов, их значения, формы и особенности употребления. В данной статье рассматриваются теоретические основы лексикологии, а также ее взаимосвязь с другими разделами лингвистики, такими как фонетика, морфология, синтаксис и семасиология. Особое внимание уделено характеристике лексических пластов, включающих общеупотребительную лексику, литературный язык, диалекты, жаргонизмы, неологизмы и архаизмы. Лексикология также анализируется в контексте развития языка, национальной культуры и общественной жизни, подчеркивается значение современных исследований в этой области. Статья служит научной базой для дальнейшего *глубокого изучения лексикологии*.

Ключевые слова: лексикология, словарный состав, значение слова, языкознание, фонетика, морфология, синтаксис, семасиология, неологизм, архаизм, диалект, жаргон

Leksikologiya tilshunoslikning o'ziga xos sohasi bo'lib, u tilning lug'at boyligini, so'zlarning shakllanishi, kelib chiqishi, ma'nosi va qo'llanilishidagi qonuniyatlarni o'rganadi. So'z tilning asosiy qurilish materiali hisoblanib, uning mazmuniy va shakliy

jihatlarni ilmiy tahlil qilish leksikologiyani bosh vazifasidir. So'z orqali inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari namoyon bo'ladi. Shu bois leksikologiya nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix va falsafa bilan ham bevosita bog'liqdir.

Tilning lug'at boyligi turli qatlamlardan tashkil topadi. Umumxalq tili barcha ijtimoiy guruhlar uchun tushunarli bo'lib, adabiy tilning asosiy manbasi sifatida shakllanadi. Adabiy til esa normativ xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida me'yoriy qo'llaniladi. Dialektlar ma'lum hudud yoki guruh doirasida ishlatiladigan so'z va iboralarni qamrab oladi. Jargon va argolar esa ko'proq kasb, yosh yoki ijtimoiy qatlamlar tiliga xos bo'ladi. Leksik qatlamlarning har biri jamiyat til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Leksikologiyani muhim jihatlardan biri so'zlarning ma'no taraqqiyoti, ya'ni semantik o'zgarishlarini tadqiq etishdir. So'z vaqt o'tishi bilan yangi ma'nolar kasb etishi, ayrimlari esa eskirishi mumkin. Shu bois til taraqqiyotida neologizmlar va arxaizmlar muhim o'rin tutadi. Neologizmlar zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi va yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Arxaizmlar esa tilning tarixiy qatlamini ifodalab, milliy madaniyat va an'analarni o'rganishda muhim manba bo'lib qoladi.

Leksikologiya boshqa tilshunoslik bo'limlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Fonetika so'zlarning tovush tarkibini o'rganib, leksik birliklarning talaffuz xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Morfologiya so'zlarning shaklini va grammatik o'zgarishlarini tahlil qiladi, sintaksis esa so'zlarning gap tarkibida tutgan o'rnini ko'rsatadi. Semasiologiya bilan bog'liqlik esa so'zning ma'nosini chuqur o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda leksikologiya til tizimining barcha bo'g'inlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

Leksikologiya tilning nafaqat ichki tizimini, balki ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ham tadqiq etadi. Til jamiyatdagi barcha kommunikativ jarayonlarning asosi bo'lgani uchun, uning lug'at boyligini o'rganish ijtimoiy hayotning turli jabhalarida muhim o'rin tutadi. So'zlar orqali insoniyat tarixiy voqealarni, ilmiy kashfiyotlarni, madaniy merosni va ruhiy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazadi. Shu sababli leksikologiya tilni xalqning ma'naviy xazinasini sifatida ko'rib, uni milliy o'zlik va madaniyatni saqlashda beqiyos ahamiyatga ega hodisa deb talqin qiladi.

Bugungi kunda leksikologiya yangi ilmiy tadqiqotlar, elektron lug'atlar, kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi orqali yanada kengayib bormoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida til materiallarini to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirish jarayonlari ancha osonlashdi. Bu esa zamonaviy tilshunoslikka yangi

imkoniyatlar yaratib, leksikologiyani global miqyosda rivojlantirishga zamin hozirlamoqda.

Leksikologiya tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tilning lug'at boyligini mukammal o'rganishga xizmat qiladi. So'zning shakli va ma'nosini tahlil qilish, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni va tarixiy taraqqiyotini yoritish bu fan zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardandir. Har bir tilning leksik boyligi uning milliy o'zligini, madaniyatini, qadriyatlarini va xalq tafakkurini aks ettiradi. Shu bois leksikologiyani o'rganish nafaqat lingvistik maqsadlarga, balki milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni saqlashga ham xizmat qiladi.

Til taraqqiyoti davomida yangi so'zlarning kirib kelishi, eskilarining esa tarixiy qatlam sifatida saqlanib qolishi tabiiy jarayondir. Bu holat leksikologiyaning doimiy ravishda yangilanishi va rivojlanishini talab etadi. Bugungi kunda elektron lug'atlar, kompyuter lingvistikasi va korpus tadqiqotlari leksikologiyaning yangi bosqichga ko'tarilishiga imkon bermoqda. Shu asosda lug'at boyligini tizimlashtirish, semantik tahlillarni chuqurlashtirish va so'zlarning qo'llanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritish yanada samarali kechmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. Leksikologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 215.
2. Shamsiev A., G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 320.
3. Jo'rayev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent: Universitet, 2008. – B. 270.
4. Abdullayev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 180.
5. Qilichev E. O'zbek tilining lug'at boyligi va uni o'rganish masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 240.

FE'LLARDA MAYL KATEGORIYASI TAVSIFI (SHE'RIY VA NASRIY ASARLAR MISOLIDA).**DAVLETBAYEVA XUSNIDA SHERMAT QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3 – bosqich talabasi

xusnidavlatboyeva@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada fe'larning mayl kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi. Mayl kategoriyalarining so'z tarkibida kelishi, qanday vazifalar o'tashi aytib o'tiladi. Fe'ning mayl kategoriyalari she'riy va nasriy asarlarda qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kategoriya, Mayl, Afikks, UGM, Aniqllovchi, To'ldiruvchi, Payt, Zamon, Shaxs – son, Xabar mayli, shart mayli, Buyruq – istak mayli, Maqsad mayli.

[Harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi[1:201]. [Mayl kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi(UGM) "kesimdan anglashilgan voqeikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakliantirishda ishtirok etish"[2:221]. [Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'ning tuslanish tizimini tashkil qiladi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatinigina emas, balki bajaruvchi bilan harakat orasidagi ayoqning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, kel, o'qi, ishla yoki kelsa, o'qilsa, ishlasa kabi shakllarda hali bajarilmagan harakat, uning bajarilishi haqida buyruq, shart ma'nolari ifodalansa, keldi, o'qigan, ishlayotir, kelaman, o'qigan eding, ishlayotgan edi kabi shakllarda real ravishda bajarilgan yoki bajarilayotgan va bajariladigan harakat haqida xabar beriladi. Demak, mayl kategoriyasida buyruq, istak, maslahat, shart, ijro etish haqida xabar kabi turlicha ma'nolar ifodalanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi anglatgan ma'nolar modal ma'nolar hisoblanadi. O'zbek tilida fe'ning mayl shakllari quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lib, bular ma'no va morfologik ifodalanishi jihatidan bir bir biridan farq qiladi[1:201]. Mayl kategoriyasi ifodalayotgan munosabat rang-barang bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning quyidagi turi ajratiladi:

- a) xabar mayli;
- b) shart mayli;
- d) buyruq-istak mayli;
- e) maqsad mayli.

[Xabar (ijro) mayli fe'l anglatgan harakat va holatning ma'lum zamonda bajarilishi, ijro etilishi haqida xabar beradi. Bu mayl shakli ish-harakat uch zamonning birida ijro etilganligini, uning mavjudligini yoki harakat shu zamonlarning birida bajarilmaganligini, inkor etilganligini anglatadi. Masalan: U Onaxonning yoniga hech kimni yaqin yo'latmadi. (A.Muxtor). U bugun xursand, bahor uning nash'asiga nash'a, go 'zalligiga go'zallik qo'shgan. (A.Qahhor). Bu mayl shaklidagi fe'l ish harakatning m'alum zamonda biror shaxs tomonidan ijro etilganligi yoki ijro etilmaganligi haqida xabar beradi. Masalan: Mana tez orada paxta terimiga jo'naymiz (Oybek). Qarab turdim: Siz yurgan chog'da, Turfa gullar egdi boshini. Xabar (ijro) maylining maxsus affiksi yo'q. fe'lning zamon va shaxs-son affikslari orqali ifodalanadi[1:207]. Shart mayli [Fe'lning shart mayli boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan, istalgan, faraz, mo'ljallangan harakatni bildiradi. Shart mayli shakli fe'l o'zagiga -sa mayl yasovchisini qo'shish va tushlash bilan hosil qilinadi:

Birlik Ko'plik

I.sh. kel – sa - m kel – sa – k

II.sh. kel – sa – ng kel – sa – ngiz

III.sh. kel – sa kel – sa – lar

Shart maylidagi fe'l shakli quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

Boshqa bir harakat va holatning yuzaga chiqishi uchun vosita, shart bo'lgan harakatni bildiradi. Bu vaqtda shart ergash gapning kesimi bo'lib keladi. Masalan: Agar odam bo'lay desang, ishda oqla o'zingni (Uyg'un). Hozir yozning qozonini hosil bilan to'ldirsak, kuzda rohatini ko'ramiz. Shart maylidagi fe'llar ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, payt va o'rin ergash gaplarining kesimi vazifasida keladi. Masalan: Qayerda kurash bo'lmasa, u yerda o'sish ham bo'lmaydi. Kim birovga chuqur qazisa, bunga o'zi yiqiladi (Maqol). Hasanxon qay da bo'lsa, qiy-chuv ham shunda bo'lur (O'zbek xalq dostonidan). Kimning kongli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi. (Maqol) Paxta ochilsa, termini ham boshlab yuboramiz. Ham yordamchisi bilan kelib, voqea-hodisaning bajarilishiga to'siq bo'la olmagan harakat-holatni bildiradi. Bunda to'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lib keladi, har ikki gap bir biriga qarama-qarshi harakatni anglatadi. Masalan: Tilim kelishmasa ham, dilim kelishadi. Sening tiling kelishsa ham, diling kelishmaydi. (A.Qahhor) Orzu-istakni bildiradi. Bunda sodda gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: Qani endi bu qurtlar tez-tez o'ray qolsa... (A.Qahhor). Qani endi shu topda otasini quchoqlab, soqollaridan o'psa. (Oybek). Yoring bo'lsa xush bo'lsa, Yursa, ko'chalar to'lsa. (Uyg'un) Xo'sh, endi sizlarga nima sovg'a bersam ekan? (Oybek).

Iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi. Masalan: Onajon, shu suratni menga bersangiz (A.Qahhor)[1:205] [Buyruq – istak mayli [Fe'ning buyruq-istak mayli so'zlovchining harakatni bajarishga buyurishini, qistashini, undashini anglatadi va har bir ma'no bo'yog'i o'ziga xos ohang bilan xarakterlanadi. Masalan: Qandingizni uring. Yashang. Kuling. Davrimizning shod nasllari. (Uyg'un)

Borgil tezroq, xaloskor do'stim.

Kun chiqishdan kunbotishga bor,

Qardoshlarni zulmatdan qutqor. (H.Olimjon).

Buyruq-istak maylidagi feining tuslanishi shunday:

Birlik Ko'plik

I sh.kel – ay(inkel – aylik

II sh. Kel – ginkel –ingiz

III sh. kel – sin kel – sin (lar)

So'zlovchining harakatni bajarishga undashi bevosita ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun buyruq-istak maylining asosiy shakli ikkinchi shaxsga (birlik va ko'plik) hisoblanadi. Masalan: Nasibaxon, boring, qozonga qarab turing (A.Qahhor). Muhit uzra qanotingni yoz, Oq qushlarning o'lkasida yur. (H. Olimjon).[1:202]

Maqsad mayli shakli — moqchi affiksi yordamida yasaladi va sub'ektning harakatni bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljalini bildiradi: bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchi; yozmoqchiman, yozmoqchisan, yozmoqchi. Shuni ta'kidlash kerakki, fe'ning bu shakli faqat maqsad, mo'ljal ma'nosini bildirib, zamon ma'nosiga daxldor emas. -moqchi affiksi bilan yasalgan fe'l shakli zamon ma'nosiga ega bo'lgan biror vosita bilan qo'llansa zamonni bildiradi, aks holda hozirgi zamonga oid maqsadni ifodalaydi. moqchi affiksi yasaluvchi shakl edi yordamchi fe'li bilan qo'llanganda, yordamchi fe'ning qanday zamon shaklida qo'llanishiga qarab maqsad ma'nosiga zamon ma'nosi qo'shiladi. Masalan: Endi sizlarnikiga mehmonga bormoqchi bo'lib turgan edik. Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi ham emas edi. (A.Qahhor). Solishtiring: 1. U o'zini bu voqealarga hech qanday dahli yo'qday ko'rsatmoqchi (Mirmuhsin). 2. Uyalish uyoqda tursin, 'zi o 'yinini ko 'rsat moqchi edi. - moqchi affiksi bilan yasalgan shakl bo'lib fe'lining o'tgan va hozirgi zamon shakllari bilan qo'llanganda ham harakatning emas, balki maqsadning (niyatning) hozirgi zamon yoki o'tgan zamonga oidligini ifodalaydi. Masalan: Bormoqchi bo'lyapman emas, borapman deyaver. (A.Ubaydullayev).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qalandar Sapabayev Hozirgi o'zbek tili. Toshkent2009

2.RR.Sayfullayeva, B.R.M engliyev, L.R Raupova, M.M.Qurbonova,
M.Q.Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

3.Ne'matov H, Rasulov R O 'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslar.Toshkent.

UNDALMA VA KIRISH QURILMALAR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

ERGASHEVA DIYORABONU OYBEK QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada undalma va kirish qurilmalar tushunchalariga oid nazariy qarashlar, ularning mohiyati hamda amaliy qo'llanish doirasi tahlil qilinadi. Undalma tilshunoslikdagi sintaktik birlik sifatida, kirish qurilmalar esa axborot texnologiyalaridagi muhim interfeys elementi sifatida o'rganiladi. Maqolada tilshunoslik va texnika fanlaridagi tasdiqlangan ilmiy manbalarga tayangan holda, har ikkala tushuncha o'rtasidagi umumiylik va farqlar, ularning tizimli xususiyatlari hamda rivojlanish tamoyillari yoritilgan.

Annotation. This article explores the theoretical views on vocative constructions (undalma) and input devices, analyzing their structure and functions based on verified linguistic and technological sources. It highlights their roles in communication and human-computer interaction, comparing syntactic independence in language with functional independence in device input systems.

Kalit so'zlar: undalma, tarkibiy tuzilish, yolg'iz undalma, yoyiq undalma, murakkab undalma, uyushuq undalma.

Keywords: vocative, structural composition, single vocative, extended vocative, complex vocative, coordinated vocative.

Tilshunoslikda undalma — bu gap tarkibida grammatik jihatdan bog'lanmagan, lekin semantik jihatdan asosiy fikrga aloqador bo'lgan murojaat shakli hisoblanadi. U odatda tinglovchiga murojaat qilish, e'tibor qaratish yoki hissiy ohangni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Masalan: Ey do'stim, sen ham kel! yoki Aziz o'qituvchim, rahmat sizga!

O'zbek tili sintaksisida undalma mustaqil nutqiy birlik sifatida qaraladi. U gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirmaydi, ammo semantik jihatdan gap mazmunini boyitadi. Undalma odatda vergul, undov yoki tire bilan ajratiladi va intonatsion pauzaga ega bo'ladi.

Undalmalarning gapdagi o'rni erkindir, ya'ni ular gapning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Undalmalar gap boshida kelsa, ulardan keyin; gap o'rtasida kelsa, ikki tomondan; gap oxirida kelsa, ulardan oldin vergul bilan ajratiladi.

Gap boshida undalma maxsus intonatsiya bilan aytiladi va ba'zan vokativ gap vazifasini bajaradi. Undalma, kirish, kiritma kabi, fikr bayonida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ularni gapning uchinchi darajali bo'laklari sifatida qarash ham mavjud.

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, narsa, o'rin-joy yoki mavhum tushunchalarni ifodalovchi bo'lak undalma deyiladi.

Masalan: Ustozjonim, s Masalan, boshida: O'g'lim, menga yordam berib yubor.

O'rtasida: So'yla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon.

Oxirida: Sizdan umidlarim katta, aziz farzandlarim. izni bugungi kasb bayramingiz bilan muborakbod etamiz. (Shaxs) Sizga, ko'zgujon, haqiqatni et bayon. (Narsa)

Xayr, maktabim. (O'rin-joy)

Go'zallik, sen dunyoni qutqaruvchi kuchsan. (Mavhum tushuncha)

Undalmalar ikki xil bo'ladi:

Yig'iq undalma — faqat bir so'zdan iborat: O'zingdan qo'ymasin, xalqim.

Yoyiq undalma — o'ziga tegishli izohlovchi yoki aniqllovchisi bor bo'lgan undalma: Soliha opa, ichkariga kiring. (Izohlovchi) Oltin kuz, yurtimizga xush kelibsan. (Aniqllovchi)

Agar undalmalar gap boshida kelib kuchli to'xtam bilan aytilsa, ulardan keyin vergul

(,) emas, undov belgisi (!) qo'yiladi.

Masalan: Aziz vatandoshlar! Bu sharaflı ishga barchamiz mas'ulmiz.

Kirish qurilmalari haqida nazariy qarashlar

1. Kirish qurilmalari tushunchasi

Kirish qurilmalari — bu gapning grammatik tuzilishiga kirmaydigan, lekin butun gap mazmuniga munosabat bildiruvchi so'z yoki so'z birikmalaridir. Ular fikrning ifoda uslubini, so'zlovchining munosabatini bildiradi.

Ularning ma'nosiga ko'ra turlari

b) Kirish birikmalar — ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ammo gapning grammatik tarkibiga kirmaydigan iboralar:

To'g'risini aytganda, u juda mehnatkash.

Rostini aytsam, men buni kutmagan edim.

Fikrimizcha, bu masala yechimini topadi.

Kirish qurilmalarning sintaktik va uslubiy ahamiyati

Kirish qurilmalari sintaksisda gapning struktur qismlariga kirmaydi, ya'ni ular ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi yoki hol vazifasida bo'lmaydi.

Undalmalar tarkibiy tuzilishi jihatidan farqlanadi. O'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarga suyanan holda ularni quyidagicha guruhlariga ajratishimiz mumkin.

Yolg'iz undalmalar

Yoyiq undalmalar

Murakkab undalmalar

Uyushuq undalmalar.

To'kilgandan tomchilang yomon, uka, tomchilang. (A.Q.)

Amin bo'l, qizalog', unutmamiz hech,

Zafar kunlarda yodlanar noming. (Uy'fun).

Mamlakat emas Mirzacho'l. (G'.G'.)

Og'a, ayamga xat yozibsiz-ku? (A.Q.)

Dada-chi, dada, bugun biz poyezd-poyezd o'ynadik. (A.Q.)

2. Yoyiq undalmalar

So'zlovchining nutqi bir shaxs, yo bir predmetga qaratilgan bo'ladi. Nutq qaratilgan shaxs, yo predmetni bildirgan so'zlar undalma vazifasida keladi. Bu undalmalar o'zlariga tegishli aniqllovchilar, izohlovchilar bilan kelishlari mumkin. Bunday undalmalar yoyiq undalmalar hisoblanadi. Yoyiq undalmalar tarkibidagi elementlarning biri undalma hisoblansa, boshqa biri shu undalmaning aniqllovchisi, izohlovchisi bo'lib keladi. Yoyiq undalmalarning ba'zilar sintaktik birliklardan ba'zilar frazeologik birliklardan tarkib topadi. Sintaktik birikma holida kelgan yoyiq undalma tarkibidagi elementlarning ba'zilarining semantik va grammatik munosabatlarda erkinlik bo'lsa, ba'zilarida esa bunday erkinlik ko'rinmaydi:

1. To'g'ri, o'rtoq Rahijon, mix ham egilsa, to'g'rilab yana qoqiladi .

2. Yo'ling ochiq, olamning oltin bo'lsin, aziz o'g'lim !

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan, 1981.

2. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1992.

3. Bakirov A. O'zbek tili sintaksisi. Toshkent: Universitet, 2010.

4. Rahmatullayev G'. O'zbek tili sintaksisi nazariyasi. Toshkent: O'zMU, 2005.

5. Xalilova Z. O'zbek tili pragmatikasi.

Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

SO'Z YASALISH STRUKTURASI VA USULLARI. SO'ZNING MORFEMIK TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR.**HAYITBOYEVA SEVINCH**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'zning morfemik tarkibidagi o'zgarishlar, so'z yasash usullari va usullari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Maqolada so'z turbin, morfemalarni birlashtiruvchi qoidalar va ularning morfologiyadagi roli hamda so'z yasash usullari, jumladan, qo'shish, kesish, o'zaro bog'lash kabi jarayonlar yoritiladi. So'zlarning morfologik o'zgarishlari ularning semantik xususiyatlarini qanday shakllantirishi va o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: morfemika, morfema, asos morfema, affiks morfema, so'z yasashi, yasama so'z, so'z yasash usullari, so'z yasovchi qo'shimchalar, sodda qo'shimchalar, murakkab qo'shimchalar.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются изменения в морфемной структуре слова, структуры и методы словообразования. Рассматриваются типы слов, правила соединения морфем и их роль в морфологии, а также способы словообразования, такие как присоединение, усечение и взаимное соединение. Также рассматривается, как морфологические изменения слов формируют их семантические особенности и взаимосвязь между ними.

Ключевые слова: морфемика, морфема, корневая морфема, аффиксальная морфема, словообразование, производное слово, способы словообразования, словообразующие аффиксы, простые аффиксы, сложные аффиксы.

Til har qanday millatning o'zligini o'zida mujassam etib beruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida alohida ahamiyatga molik hodisa. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tilimizning takomili aynan o'zbek tilining boshqa turkiy xalqlar tili qatorida rivojlanib boyib bordi. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida muqobil variantlari topildi va amaliyotga tadbiq etilib bugungi kunda iste'molda qo'llanib ham kelinmoqda. Umuman olganda grammatika, milliy mafkura bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. O'zlashma so'zlarning muqobil ekvivalenti bilan almashtirilishi hodisasida ham aynan o'sha jism, narsa yoki predmetning qo'llanilish jarayoni bilan

bog'liq hodisa yoki o'sha buyumni mentalitet nuqtayi nazaridan ham nomlash so'zning ma'noli qismlarini shakllantirishdagi asosiy ko'rsatkichlardan deb baholasak bo'ladi.

Morfemika so'z tarkibini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. Odatda so'z tarkibi deganda uni tashkil etadigan asos (o'zak) va unga qo'shiladigan qo'shimchalar tushuniladi. Tilshunoslikda asos va qo'shimchalarga nisbatan morfema atamasi qo'llaniladi. Morfemalarni, ya'ni qaysi qism-asos, qaysi qism- qo'shimcha ekanligini o'rganuvchi soha so'z tarkibi (morfemika) deb ataladi. Morfemika so'zining asosida morfema so'zi yotadi. «Morfema o'z ma'nosiga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan til birligi»1dir. Demak, morfema so'zning eng kichik, bo'linmas ma'noli qismi. So'zning asosi ham, unga qo'shiladigan qo'shimchalar ham boshqa qismlarga bo'linmasligi bilan o'zaro umumiylik kasb etadi. Morfema ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Asos (o'zak) morfema – lug'aviy ma'no anglatadigan, qo'shimcha morfema qo'shilishi uchun asos bo'ladigan qism. Masalan, odam, qizil, ikki, men, bugun, kel, hamma kabi so'zlar boshqa ma'noli qismlarga bo'linmagani uchun asos deb qaraladi.

2. Affiks (qo'shimcha) morfema mustaqil qo'llana olmaydigan, asos morfemaga qo'shib, unga turlicha qo'shimcha ma'no yuklaydigan qism. Demak, tilimizdagi barcha qo'shimchalar affiks morfemalar sanaladi. Ular vazifasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi. Bu qo'shimchalar so'z asosiga to'g'ridan-to'g'ri, ketma ket qo'shib kelishi mumkin. Masalan, kitobxonlarimizni so'zida yuqorida tilga olingan qo'shimchalarning 3 guruhi ham ishtirok etgan: kitob+xon (so'z yasovchi), kitob+xon+lar (lug'aviy shakl yasovchi), kitob+xon+lar+imiz+ni (sintaktik shakl yasovchi). Bu kabi so'zlar tarkibini morfemalarga ajratishda birinchi navbatda ma'no anglatish xususiyati e'tiborga olinsada, o'quvchilar qo'shimchalarning shaklidan ham xabardor bo'lishi kerak. Ya'ni, yuqoridagi –imiz (I shakl ko'plikdagi egalik qo'shimchasi) tarkibini –i, –miz, –im, –iz ko'rinishida morfemaga ajratishdan saqlanish kerak. Affiks morfemalar haqida ma'lumot berilganda ayrimlarining sodda va murakkab (tarkibi bo'linmaydigan) ko'rinishda qo'llanish to'g'risida ham tushunchalar berilishi kerak. Shundagina so'zlarni morfemalarga ajratishda xatoliklar oldi olinadi. Shaklan bir xil ko'rinishdagi qo'shimchalarning tarkibiga e'tibor qarating: ovchilik (-chi+lik) – sodda morfema; ozchilik (-chilik) – murakkab morfema. E'tiborga olish zarur bo'lgan jihat shundaki, o'quvchilarning ko'pchiligi so'zlarni morfemalarga ajratishni bo'g'inga ajratish sifatida qabul qilishadi. Buni quyidagi ikki misolni bir biriga taqqoslash jarayonida ham kuzatishimiz mumkin. So'z yasovchi affikslar yangi so'z yasash bilan birga yangi ma'no ham hosil qiladi. Shakl yasovchi affikslar bir turkumga doir grammatik ma'no

shakllantiradi. Shuni ham aytib o'tish joizki, affikslar ma'nodoshlik, zid ma'nolilik va shakldoshlik xususiyatiga ham ega bo'la oladi. Masalan, qalamdon – qadrdon, toshqin - jo'shqin, o'roq – qo'rqoq, taroq - tartqoq, bilim - ayrim. Ushbu so'zlarda bir xil qo'shimcha qo'shilsa ham bitta qo'shimcha ikki turkumga oid so'z yasagan. Asosan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni hosil qilishda affikslar o'rtasida zid ma'nolilik hodisasi kuzatiladi: badavlat - davlatsiz, ko'ngilli - ko'ngilsiz, shirador - beshira. Ushbu affikslar orasida ko'proq -li va -siz, -dor va -be qo'shimchalari qarama-qarshi ma'noda qo'llanilish hodisasi mavjud. –li, -kor, dor, -bo, -ba, -ser kabi qo'shimchalar ma'nodoshlik xususiyatiga ega. Sergo'sht-go'shtli, savlatli-basavlat, boxabar-xabardor kabi. “Ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tishi soddalashuv deyiladi”² Morfemalar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar ham mavjud bo'lib, morfemalar soddalashuv va murakkablashuv jarayonlarida bo'ladi. Soddalashuv ma'lum so'zning makon va zamon nuqtayi nazaridan o'zgarib, muarakkab ko'rinishini soddasiga almashirish jarayonidir.

Masalan, biz tub so'z deb hisoblaydigan yuksak so'zi ham aslida yuk + sa +k ko'rinishida tarkiblangan ya'ni bu so'z tarkibida fe'l va sifat yasovchi qo'shimcha mavjud deya qaralgan. Lekin hozirgi kunga kelib ushbu so'z muqobil variant sifatida tub so'z deb olinadi. Murakkablashuv esa avval tub deb olingan so'zning yasama so'z qatoriga o'tib qolishi. Affiks morfemalar so'zning oldingi yoki oxirgi qismida qo'llanib kelishiga ko'ra ikki turga ajratiladi: perifiks va suffiks. Suffiksni o'zbek tilidagi so'zlar yordamida ifodalash mumkin ya'ni qo'shimcha so'zning oxirgi qismiga qo'shiladi: bor+d+im, ekin+zor, suv+li. Periks ko'proq fors-tojik tillarida uchraydi. Bebo'sh, serunum, boxabar kabi Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, morfemalar murakkab tushunchadir. Morfemalar bir necha xususiyatlari bilan farqlanishini ko'rib o'tdik. So'zlar morfologik tizimga ega bo'ladi. Avvalo asos ya'ni yetakchi morfema bo'ladi keyin unga qo'shimcha ma'no beruvchi ko'makchi morfema bo'ladi. So'zlarni morfemik tahlil etganda shuni unutmaslik lozimki, so'zlarning asosini topishda yetakchi morfemani topish muhim. Ayrim holatlarda ikki va undan ortiq affikslar qo'shilishi natijasida so'z ancha murakkablashadi. Ayni shu damda so'zning ma'noli qismini ajratib olishda bi necha jihatlarni e'tiborga olish muhim. Kutubxona so'zini aslida murakkab qshaklda bo'lgan kitob+xona ko'rinishida ma'noli qismlarga ajratilgan keyinchalik ushbu so'z soddalashuv hodisasi natijasida o'zining shaklini o'zgartirgan. Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, so'zlar birinchi navbatda morfemik tarkib asosida shakllanadi va grammatik ma'no anglatadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini, asos va qo'shimchaga ajratish jarayonini bilib olgan sari ularda so'z

yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlashib, bu tushunchalarga doir bilim, ko'nikma hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati-1 jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent: 2006. –616 b.
2. A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 167 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" T-1995
3. Moirzaev M., Rasulov I., Usmonov S. "O'zbek tili " T- 1972
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T-1992
6. Shoabdurahmonov Sh. " Hozirgi o'zbek adabiy tili" T-1980
7. G'ulomov A. "O'zbek tilida so'z yasash usullari haqida" Til va adabiyot instituti ilmiy asarlari 1-kitob
8. Hojiyev A. "So'zning morfologik va so'z yasash strukturasi" O'zbek tili va adabiyoti – 1976.
9. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Community and Characteristics in Uzbek and K

GRAMMATIKANING O'RGANISH OBYEKTI, TARKIBIY QISMLARI**HULKAR O'RAZBOYEVA**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola grammatikani tilshunoslik fanida o'rganish obyekti sifatida ko'rib chiqadi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qiladi. Maqolada avval grammatikaga qarashning ikki yondoshuvi taqdim etiladi: tor ma'noda grammatikani morfologiya va sintaksis bilan cheklash, keng ma'noda esa fonologiya, semantika va pragmatika kabi komponentlarni ham qamrab olish

Аннотация: В данной статье грамматика рассматривается как объект изучения лингвистики и анализируются её компоненты. В статье представлены два подхода к её изучению: в узком смысле, ограничивающий грамматику морфологией и синтаксисом, и в широком смысле, включающий такие компоненты, как фонология, семантика и прагматика.

Abstract: This article considers grammar as an object of study in linguistics and analyzes its components. The article first presents two approaches to looking at grammar: in a narrow sense, limiting grammar to morphology and syntax, and in a broad sense, including components such as phonology, semantics, and pragmatics

Kalit so'zlar: Grammatika, til tizimi, tarkibiy qismlar, morfologiya, sintaksis, fonologiya, til o'rganish, grammatikaning obyekti, tilshunoslik

Ключевые слова: грамматика, языковая система, компоненты, морфология, синтаксис, фонология, изучение языка, объект грамматики, лингвистика.

Keywords: Grammar, language system, components, morphology, syntax, phonology, language learning, object of grammar, linguistics

Kirish. Grammatika tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, til tizimini tashkil etuvchi qoidalar, birliklar va ularning o'zaro aloqalarini o'rganadi. Har bir tilning o'ziga xos grammatik tizimi bo'lib, bu tizim tilning ma'no, shakl va tuzilish jihatlaridan iborat qoidalar to'plamini yaratadi. Grammatika nafaqat tilni o'rganishda, balki uning tuzilishini chuqur tushunishda ham muhim rol o'ynaydi. Grammatikaning o'rganish obyekti tilning barcha sohalarini qamrab oladi: fonetika (tovushlar tizimi),

morfologiya (soʻzlar tuzilishi), sintaksis (soʻzlar va jumlar oʻrtasidagi bogʻlanishlar) va leksikologiya (soʻz maʼnolari va ularning oʻzgarishlari). Grammatikaning tarkibiy qismlari tilning strukturasi tashkil etuvchi asosiy elementlardir. Ular tilning formal va funktsional jihatlariga asoslanib, soʻzlar tuzilishini va jumlarni qanday tashkil qilishni aniqlaydi. Ushbu ilmiy tadqiqot grammatika va uning tarkibiy qismlarini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, til bilimlarini chuqurlashtirish, grammatikaning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va tildagi oʻzgarishlarni tushunishga yordam beradi. Grammatikaning oʻrganish obyekti va tarkibiy qismlarini toʻgʻri tushunish tilning rivojlanishi va uning strukturaviy shakllarini yanada puxta oʻrganish imkonini beradi. Grammatikaning oʻrganish obyekti tilning barcha qoidalar va uning strukturasi tashkil etuvchi birliklardan iboratdir. Grammatika tilni oʻrganish va uni toʻgʻri va samarali qoʻllashda asosiy vosita hisoblanadi. Grammatika tilning har bir jihatini, shu jumladan, maʼno, shakl, tuzilish va nutqning boshqa tomonlarini oʻrganadi. Grammatikaning asosiy obyekti tilning grammatik tizimi boʻlib, bu tizim soʻzlarning shakllanishi, soʻzlar oʻrtasidagi bogʻlanishlar va umumiy til strukturasi tashkil etuvchi qoidalar toʻplamini oʻz ichiga oladi.

Grammatikaning tarkibiy qismlari quyidagi boʻlimlarga ajratiladi:

Morfologiya. Morfologiya soʻzlarning tuzilishi, shakllanishi va ularning grammatik kategoriyalarini oʻrganadigan boʻlimdir. Har bir tilning oʻziga xos morfologik tizimi bor boʻlib, soʻzlarning turli shakllari (masalan, ot, feʼl, sifat) oʻrganiladi. Morfologiya tilning ichki tuzilishini tashkil etuvchi birliklarni, yaʼni soʻzlar, ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar va ular asosida hosil boʻladigan shakllarni oʻrganadi.

Sintaksis. Sintaksis soʻzlar va ularning oʻzaro bogʻlanishini oʻrganadigan grammatikaning boʻlimidir. Sintaksis gaplar tuzilishini, soʻzlarning gapdagi oʻrni va ularning oʻzaro taʼsirini tahlil qiladi. Bu boʻlim tilning mantiqiy tuzilishini va soʻzlarning turli vazifalarni bajarishdagi roʻlini oʻrganadi. Sintaksisning asosiy vazifasi — soʻzlar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni toʻgʻri va aniq shakllantirishdir.

Fonetika (fonologiya). Fonetika tilning tovush tizimini oʻrganadi. Bu boʻlim tilning tovushlarini, ularning talaffuzi va ulardan hosil boʻladigan maʼnolarni tahlil qiladi. Fonetika orqali tilning fonemik tizimi, yaʼni tovushlar orasidagi farqlar va ular bilan ishlash usullari aniqlanadi.

Leksikologiya. Leksikologiya soʻzlarning maʼnolarini, ularning oʻzgarishlarini va ishlatilish kontekstlarini oʻrganadi. Bu boʻlim tilning soʻz yasalihi, maʼno va ishlatilish holatlarini tahlil qiladi. Leksikologiya tilning boyligini, yaʼni soʻz boyligini, va uning dinamikasini oʻrganadi. Grammatikaning tarkibiy qismlari bir-biri bilan

bog'liq bo'lib, har biri tilning strukturasi va uning ishlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Morfologiya va sintaksis so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunishda yordam beradi, fonetika so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yasallishini aniqlaydi, leksikologiya esa tilning so'z boyligi va ma'no tizimlarini o'rganadi. Har bir bo'lim o'z vazifalarini bajarib, tilni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Grammatikaning tarkibiy qismlarini to'liq tushunish tilning chuqur va kompleks tuzilishini yaxshiroq anglash imkonini yaratadi. Bu, o'z navbatida, tilni o'rganish, tarjima qilish, nutqni shakllantirish va til bilan bog'liq boshqa jarayonlarni samarali va to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi. Grammatikaning o'rganish obyekti va uning tarkibiy qismlari tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning o'ziga xos grammatik tizimi mavjud bo'lib, bu tizim tilning barcha jihatlarida, shu jumladan fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiya sohalarida o'z ifodasini topadi. Grammatika yordamida tilning strukturasi, so'zlarning shakllanishini, ularning o'zaro bog'lanishini va ma'no tizimlarini tahlil qilish mumkin. Bu jarayon tilni chuqur o'rganishga va uni samarali qo'llashga yordam beradi.

Morfologiya, sintaksis, fonetika va leksikologiya — grammatikaning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, har biri tilni to'g'ri tushunish va ishlatishda muhim rol o'ynaydi. Morfologiya so'zlarning tuzilishi va shakllanishini, sintaksis esa so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadi. Fonetika tilning tovush tizimi va talaffuzi, leksikologiya esa so'zlarning ma'nolari va ularning o'zgarishlarini tahlil qiladi. Ushbu bo'limlarning birgalikda ishlashi tilning umumiy tizimini chuqur tushunishga yordam beradi. Grammatikaning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning o'zaro ta'siri tilning murakkab strukturaviy shakllarini tashkil etadi. Masalan, morfologiya va sintaksis o'rtasidagi aloqalar tilning to'g'ri va aniq shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, fonetika va leksikologiya o'rtasidagi bog'lanishlar so'zlarning talaffuzi va ma'no tizimlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun grammatikani va uning tarkibiy qismlarini birgalikda o'rganish va tahlil qilish zarur. Grammatikaning o'rganish obyekti va uning tarkibiy qismlari tilshunoslikda tilning samarali ishlashini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Morfologiya, sintaksis, fonetika va leksikologiya tilni to'g'ri tushunishga va undan samarali foydalanishga yordam beradi. Grammatikaning tahliliy modullari va yondashuvlar. Grammatikaning tarkibiy qismlariga qo'shimcha ravishda, tilshunoslar grammatikani turli tahliliy modullar / yondashuvlar bo'yicha bo'lishadi. Quyida ba'zi asosiy yondashuvlar:

1. Strukturaviy grammatika

2. Grammatika tilni bo'laklarga — morfema, so'z, sintaktik birlik — bo'lish va ularning o'zaro munosabatlarini ko'rsatish orqali tahlil qiladi. (Masalan, Sjobergning "Uzbek Structural Grammar" asari)

3. Generativ grammatika

4. Noam Chomsky taklif qilgan yondashuv: til ichki generativ qoidalar orqali hosil bo'ladi, universal grammatik strukturalarni qidirmoq kerak. Bu yondashuv grammatik qoidalar, transformatsiyalar va nuqsonlar (deep structure, surface structure) kontsepsiyasini kiritadi.

5. Funktsional grammatika / valens nazariyasi

6. Bu yondashuvda grammatik tuzilmalar so'zlarning funksiyalari va kontekstga mos kelishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Fe'lga tegishli valens (argument) strukturalari va ularning o'rnashuvi muhim bo'ladi.

7. Kompyuter lingvistikasi / formal grammatika

Grammatikani formal qoidalar, avtomatlar, CSP va boshqa formalizmlar orqali yozib, tilni avtomatik tahlil qilish (parserlar, morfologik analizatorlar) yo'lga qo'yiladi. Masalan, "The Formal Model of the Grammar of the Uzbek Language" maqolasida 3 bosqichli til tahlili modeli taklif qilingan. Grammatikaning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi tilning murakkab tizimini tashkil etadi va uning to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Bundan tashqari, grammatikaning o'rganish obyekti va tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish tilni rivojlantirishga yordam beradi. Grammatikaning to'liq va mukammal tushunilishi tilni samarali qo'llash imkoniyatlarini yaratadi, bu esa tilshunoslar, talabalar va keng jamoatchilik uchun foydalidir. Grammatikaning o'rganish obyekti va tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish nafaqat tilni to'g'ri ishlatishga, balki uning rivojlanishini tahlil qilishni osonlashtiradi. Grammatikaning o'rganish obyekti va uning tarkibiy qismlari tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki ular til tizimini tashkil etuvchi asosiy qoidalar va strukturaviy elementlarni aniqlaydi. Morfologiya, sintaksis, fonetika va leksikologiya — grammatikaning tarkibiy qismlari bo'lib, har biri tilning tuzilishini, so'zlarning shakllanishini, o'zaro bog'lanishini va ma'no tizimlarini o'rganadi. Grammatikaning barcha qismlarini birgalikda o'rganish tilni to'g'ri tushunishga va samarali qo'llashga imkon yaratadi.

Xulosa. Ushbu ilmiy tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, grammatikaning har bir bo'limi tilni shakllantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi va bu qismlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish tilning kompleks tuzilishini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, grammatikaning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish nafaqat tilni to'g'ri qo'llashni, balki uning rivojlanish jarayonlarini tushunishni ham osonlashtiradi. Shu sababli, grammatikaning o'rganish obyekti va tarkibiy qismlarini mukammal

o'rganish tilshunoslikda, shuningdek, tilni o'rganayotganlar uchun katta ahamiyatga ega. Bu tilning samarali ishlatilishini ta'minlaydi va uning rivojlanishini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Iskandarov, X. X. (2010). Grammatika va uning tarkibiy qismlari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Tashkent: Akademnashr
- . 2. Mahmudov, M. (2013). O'zbek tilining morfologiyasi. Tashkent: Akademnashr.
3. Baxtiyorova, M. (2017). Tilshunoslikning asosiy tamoyillari. Tashkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti. Tashkent: O'qituvchi.
4. Davronov, A. (2011). Grammatika, sintaksis va morfologiya. Tashkent: Akademnashr.
5. Aliyeva, S. (2008). O'zbek tilida leksikologiya va grammatika asoslari.
6. G'ulomov, T. (2016). Fonetika va fonologiya asoslari. Tashkent: O'zbekiston Fonetika va fonologiya asoslari. Tashkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.

SHEVALARNING AHAMIYATI OZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOTIDA

IBROXIMOVA NAZOKAT UBAYDULLA QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Gulmira Komilova

nazokatibroximova55@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiy tilining boyishi va taraqqiyotida xalq shevalarining tutgan o'рни yoritiladi. Muallif shevalar tilimizning ichki imkoniyatlarini tashkil etishini ta'kidlab, ularni adabiy tilni milliy asosda boyitishda muhim manba sifatida ko'rib chiqadi. Tilga begona unsurlarni o'ylovsiz qabul qilish tilning tabiiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sheva, adabiy til, o'zbek tili, lahja, A. K. Borokov, Sh.R.Rahmatullayev, qarluq, qipchoq, o'g'uz, milliy til.

Аннотация. В данной статье освещается роль народных диалектов в обогащении и развитии узбекского литературного языка. Автор подчёркивает, что диалекты являются внутренним ресурсом языка и рассматривает их как важный источник для обогащения литературного языка на национальной основе. Отмечается, что бездумное заимствование чуждых языковых элементов может негативно повлиять на естественное развитие языка.

Til har bir xalqning ma'naviy merosi, milliy o'zligini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir til o'z taraqqiyotida turli bosqichlarni bosib o'tadi, bu jarayonda esa uning leksik, fonetik va grammatik tarkibi o'zgaradi, boyiydi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, xalq shevalarining adabiy til shakllanishidagi o'рни va roli hozirgi kunda yana bir bor yangicha baholanishi zarur bo'lmoqda. O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasniflanishida jahon miqyosida tan olingan olimlar – professor E.D. Polivanov, shuningdek, taniqli tilshunoslar K.K. Yudaxin, G'ozzi Olim, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov kabi mutaxassislarning beqiyos xizmatlari mavjud. Aynan shu olimlarning ilmiy rahbarligida ko'plab mahalliy o'zbek tilshunoslari shakllanib, yetuk mutaxassislar darajasiga yetdi. Xususan, o'zbek shevalari akademik Sh.Sh.abdurahmonov, professor va fan doktorlari M.Mirzayev, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, X.G'ulomov, Y.G'ulomov, A. Aliev, A. Shermatov, A.Jo'raev, O. Madrahimov, T.Yo'ldoshev, N.Rajabov, X.Doniyorov, T.Nafasov, Q. Muhammadjonov, S. Ashirbayev Y. Ibrohimov va boshqa ko'plab olimlarimiz

tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shu bilan birga, o'zbek shevalarining ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishda professor Sh. Rahmatullayev va A. Madrahimovlarning izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o'z tadqiqotlarida shevalarning nafaqat tarixiy-lingvistik, balki ijtimoiy vazifasini ham ochib berganlar. Masalan, Sh. Rahmatullayev o'zining "Til va jamiyat" nomli asarida shunday yozadi: "Har bir xalq tili, avvalo, xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, dunyoqarashi va tafakkur tarzining ifodasidir. Shu bois shevalarni o'rganish – xalqning ruhini anglash demakdir.

A. Madrahimov esa o'zbek shevalarining morfologik xususiyatlarini o'rganish jarayonida ularning adabiy tilda barqaror o'rnashayotganini ta'kidlab, bu holatni tabiiy taraqqiyot sifatida baholaydi. Shu kabi tilshunos olimlarimiz izlanishlari yuzasidan O'zbek tili ko'p dialektli til sanalib, u uch asosiy lahjaga ajratildi:

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi,
2. Qipchoq lahjasi,
3. O'g'uz lahjasi.

Bu lahjalar va ularning tarkibidagi ko'plab shevalar tarixan adabiy til tarkibiga kirgan. Ular orasida fonetik, morfologik va leksik tafovutlar mavjud bo'lsa-da, ularning umumlashgan shakllari adabiy tilni boyitishda xizmat qilgan. Bu uch lahjaning har biri tarixiy shakllanish bosqichlarida adabiy tilga alohida ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi asosida shakllangan qadimgi yozma yodgorliklar — "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" kabi asarlar keyinchalik adabiy til me'yorlarining shakllanishiga turtki bo'lgan. Shu sababdan A. Qayumov va M. Is'hoqovlar fikricha, o'zbek adabiy tili tarixan ana shu qarluq zaminida ildiz otgan, ammo keyingi davrlarda qipchoq va o'g'uz unsurlari bilan boyigan.

Akademik A.K. Borovkov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, o'zbek adabiy tili biror-bir sheva asosida vujudga kelmagan. Balki u turkiy yozma til an'analari – qadimgi turkiy, chig'atoy, va yangi o'zbek adabiy tillarining izchil davomidir. U yozadi: "O'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga har jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi" (Borovkov A.K., 1963: 16-18-betlar). Qipchoq lahjalarida mavjud bo'lgan to'l, sarimoy, o'tov, sovliq, chalop, chakki kabi so'zlar allaqachon adabiy tilimizda joy olishga ulgirdi. O'g'uz lahjasidan kirib kelgan hamsoya yoshulli, qaydin, o'g'lon kabi so'zlar esa adabiy tilga tarixiy va poetik uslub baxsh etgan. Shunga qaramay, tilshunos olimlar adabiy tilning har bir tarixiy bosqichida muayyan sheva yoki lahja elementlarining ustun bo'lganini qayd etadilar. Masalan, S. Ibrohimov o'zining "O'zbek tili taraqqiyotida dialektlarning roli" nomli tadqiqotida XVI–XVII asrlarda Xorazm vohasidagi o'g'uz unsurlarining, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida esa

Farg'ona vodiysi shevalarining adabiy tildagi leksik yangilanishlarga sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Bu esa tilning doimiy harakatda ekanligini, undagi sheva qatlamlari esa milliy ruhni ifodalovchi tirik manba ekanini ko'rsatadi.

Shukur Xolmirzayev o'zining "Ot egasi" hikoyasida shunday deydi: "– O'tiring, chalaob ichasizmi? -dedi.

- Chalobmi, chalobdan ham chakki ma'qul! -deb militsioner ko'rpachaga cho'kkalab"

- "Omon ovchining o'limi" hikoyasida shunday deb yozgan: "–...Jonivor og'ir mo'rab yuborib, yotib qoldi; dir-dir titraydi.

- Voy, inakni o'ldirdingiz-e, beshafqat! – deb yig'lab yubordi xotini".

Ushbu hikoyada shevaga xos so'zlarning ishlatilishi, adabiy mazmunniy boyishiga ilg'or xizmat qilgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, xalq shevalarida yashab kelayotgan leksik qatlam – tilni milliy asosda boyitishning eng tabiiy va samarali yo'li hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek nasrida ham bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarning asarlarida xalq shevalariga xos so'zlar, iboralar va ohanglar keng qo'llanadi. Bu usul nafaqat tildagi tabiiylikni ta'minlaydi, balki milliy ruhni, obrazlarning jonligini kuchaytiradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida shevadan so'z olish ham tilning ichki imkoniyati deb qaraladi. Abdurauf Fitratning bu masalaga munosabati qanday edi? Olim "O'zbek tili qolidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf, Nahv" nomli o'zbek tili darsligining so'z boshisida bu haqida to'xtalgan va o'zbek shevalariga o'z munosabatini quyidagicha bildirgan edi: "Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'ondir. Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz". Fitratning bu qarashlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Til siyosatida, ayniqsa mustaqillikdan keyingi davrda, o'zbek tili milliy zaminida rivojlanishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. A. Rustamov, N. Mahmudov, va A. Nurmonovlar o'z asarlarida adabiy tilni milliy zamin — ya'ni xalq shevalari asosida boyitish zarurligini ilmiy asosda isbotlab berishgan. Ularning fikricha, shevalar adabiy tilning tabiiy energiya manbai bo'lib, bu manba tilni "sun'iylikdan, begonalikdan saqlaydi"

Shevalarda ko'p hollarda ayni zamonaviy tushunchalarga mos, milliy mazmundagi so'zlar mavjud bo'ladi. Shu bois, adabiy tilni begona so'zlar hisobiga emas, balki milliy zamin – shevalar hisobiga boyitish dolzarbdir.

O'zbek adabiy tilining bugungi holati va istiqboli haqida gap ketar ekan, uning rivojida xalq shevalarining tutgan o'rni inkor etib bo'lmaydi. Bu manbani chuqur

o'rganish, lingvistik mezonlar asosida adabiy tilga jalb qilish orqali nafaqat til boyligi ortadi, balki uning milliy ruhi, tarixiy ildizlari saqlanib qoladi. Shu bois, zamonaviy til siyosati va lug'at siyosatida shevalarni asosiy ichki resurs sifatida ko'rish – muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Borovkov A.K. (1963). O'zbek tilining dialektologik asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti. – 16–18-betlar.
2. Ismatullayev Sh. (2009). O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Qilichev A., Tojiyev O. (2008). Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
4. Salohiy A. (2004). Til va jamiyat. – Toshkent: Sharq.
5. Rahmatullayev Sh. (1991). Til va jamiyat. – Toshkent: O'zbekiston.
6. Madrahimov O. (1998). O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan.
7. Qayumov A. (2005). O'zbek tili tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan.
8. Ibrohimov S. (2010). O'zbek adabiy tili taraqqiyotida dialektlarning o'rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
9. Mahmudov N. (2008). Til va tafakkur uyg'unligi. – Toshkent: Fan.
10. Nurmonov A. (2015). O'zbek tili va milliy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
11. Rustamov A. (2012). Til va millat. – Toshkent: O'zbekiston.
12. Shofiqov A, Mo'minova Sh (2022). Adabiy tilning boyishida dialektizimlarning o'rni. – Maqola

ADABIY USLUB VA UNING ZAMONAVIY TIL VOSITASI BILAN BOYISHI**ISMATOVA IRODA QURBONMUROD QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

irodaismatova95@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy uslubning mohiyati, uning asosiy xususiyatlari va zamonaviy til vositalari bilan boyish jarayoni yoritilgan. Xususan, ilmfan va texnika taraqqiyoti natijasida yangi so'zlar va terminlarning adabiy tilga kirib kelishi, ommaviy axborot vositalari hamda publitsistik uslub ta'siri, internet leksikasi va ijtimoiy tarmoqlarning adabiy matnlarda qo'llanishi hamda multimadaniyatli ta'sirning adabiy uslub rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Maqola adabiy uslubning zamon bilan hamnafas rivojlanishini, uning yangi ifoda vositalari bilan boyib borishini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Adabiy uslub, zamonaviy til vositalari, yangi terminlar, publitsistik ta'sir, internet tili, ijtimoiy tarmoqlar, multimadaniyatli ta'sir, nutq madaniyati.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность литературного стиля, его основные особенности и процесс обогащения современными языковыми средствами. В частности, рассматривается внедрение новых слов и терминов в литературный язык в результате научно-технического прогресса, влияние средств массовой информации и публицистического стиля, использование интернет-лексики и социальных сетей в литературных текстах, а также роль мультикультурного взаимодействия в развитии литературного стиля. В статье показано, что литературный стиль развивается в гармонии со временем и обогащается новыми выразительными средствами.

Ключевые слова: Литературный стиль, современные языковые средства, новые термины, влияние публицистики, язык интернета, социальные сети, мультикультурное влияние, культура речи.

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishdan bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.[5]

Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub. Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi.[5]

Tilning vazifaviy uslublari ijtimoiy hayotning turli sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir uslub o'ziga xos til vositalari, grammatik qurilish, so'z tanlash hamda ifoda usullari bilan boshqalardan farq qiladi. Tilning vazifaviy uslublari insonlarning turli sohalarida bir-biri bilan to'g'ri va samarali muloqot qilishiga yordam beradi. Agar so'zlashuv uslubi kundalik hayotda odamlarning erkin fikr almashuvini ta'minlasa, ilmiy uslub ilmiy kashfiyotlar, yangiliklar va bilimlarning aniq va tushunarli ifodalanishini ta'minlaydi. Rasmiy uslub jamiyatning huquqiy va boshqaruv tizimini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Publitsistik uslub esa keng jamoatchilikni voqea-hodisalardan xabardor qiladi, ularni muayyan g'oya yoki qarashlar atrofida birlashtiradi. Badiiy uslub insonning estetik didini shakllantirish, ruhiyatini boyitish va tasavvurini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir uslubdan to'g'ri foydalanish nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, rasmiy hujjat tilida so'zlashuv unsurlaridan foydalanish yoki ilmiy maqolada badiiy tasvir vositalarini ortiqcha qo'llash nutqning sifatini pasaytiradi. Shuning uchun til vositalarini joyida, maqsadga muvofiq tanlay olish til egasining savodxonligi va madaniyatidan dalolat beradi.

1. So'zlashuv uslubi — kundalik muloqotda qo'llaniladi. Unda qisqa gaplar, jonli ohang, oddiy va ravon so'zlashish asosiy o'rinda turadi. Ko'proq og'zaki shaklda ishlatiladi.

2. Rasmiy uslub — hujjatlar, farmonlar, arizalar, qarorlar va rasmiy yozishmalarda qo'llaniladi. Bu uslubning asosiy xususiyati aniqlik, qat'iylik va me'yoriylikdir.

3. Ilmiy uslub — ilmiy asarlar, darsliklar, maqolalar, dissertatsiyalar tilida qo'llaniladi. Aniq terminlar, mantiqiy izchillik, ob'ektivlik va tushunchalarni izohlash bu uslubning bosh belgilaridandir.

4. Publitsistik uslub — ommaviy axborot vositalarida, maqola va reportajlarda ishlatiladi. Unda ta'sirchanlik, xalqni biror maqsadga yo'naltirish, targ'ibot va tashviqot qilish xususiyati kuchli bo'ladi.

5. Badiiy uslub — adabiy asarlarda qo'llaniladi. Unda so'zlarning obrazli qo'llanilishi, badiiy vositalar (metafora, epitet, tashbeh, kinoya va boshqalar) keng ishlatiladi.

Shunday qilib, uslub tilning ijtimoiy hayotdagi turli vazifalarini bajarishda xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir vazifaviy uslubning o'ziga xos xususiyatlari tilning boy imkoniyatlaridan foydalanishga yordam beradi va jamiyatda nutq madaniyatini yuksaltiradi.

Adabiy til jamiyatning eng muhim ijtimoiy-madaniy boyliklaridan biri bo'lib, u millatning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiy til doirasida shakllanadigan adabiy uslub esa milliy tilning eng yuksak, me'yoriy darajada qo'llanadigan ko'rinishidir. Har bir davrning adabiy uslubi jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va madaniyatning o'sishiga qarab boyib boradi. Bugungi kunda adabiy uslub zamonaviy til vositalari bilan yanada rivojlanib, yangi qirralarga ega bo'lmoqda.

Adabiy uslubning xususiyatlari:

a) Adabiy uslubning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

b) Til me'yorlariga qat'iy rioya qilish;

d) So'zlarning aniq va ravon tanlanishi;

c) Obrazlilik, ta'sirchanlik va badiiylilik;

e) O'quvchi yoki tinglovchiga estetik zavq berish.

Adabiy uslubning mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va badiiy tafakkurini o'zida ifodalaydi.

Adabiy uslubning zamonaviy vositalar bilan boyishi

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida adabiy uslub ham zamon bilan hamnafas rivojlanmoqda. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Yangi so'zlar va terminlar kirib kelishi. Ilm-fan va texnika rivoji natijasida ko'plab yangi atamalar adabiy tilga singmoqda. Ularning ma'lum qismi adabiy uslub vositalarida ham qo'llanilmoqda. Ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida o'zbek tiliga har yili yuzlab yangi so'zlar va atamalar kirib kelmoqda. Bu so'zlarning bir qismi chet tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan o'zlashsa, yana bir qismi milliy tilimiz asosida yaratilmoqda. Masalan, "internet", "onlayn", "mobil ilova", "dasturiy ta'minot", "sun'iy intellekt" kabi terminlar dastlab ilmiy doiralarda ishlatilgan bo'lsa-da, hozirda badiiy adabiyotlarda ham uchrab, zamonaviy hayot tarzini tasvirlash vositasiga aylanmoqda. Yangi atamalar adabiy uslubni yangilabgina qolmay, o'quvchiga bugungi davr ruhi va ijtimoiy jarayonlarni yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi. Chunki badiiy asarda zamonaviy termin va so'zlarning uchrashi qahramonlar hayoti, ularning turmush tarzi, kasbi va dunyoqarashini yanada ishonarli ifodalashga yordam beradi.

Masalan, yoshlar haqida yozilgan asarlarda “smartfon”, “chat”, “onlayn o‘qish” kabi ifodalar o‘rinli qo‘llansa, bu adabiy matnni real hayotga yanada yaqinlashtiradi. Bundan tashqari, yangi terminlarning kirib kelishi adabiy uslubning boyishini ta‘minlaydi, tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalash imkonini yaratadi. Shu bois, adabiyot zamon bilan hamnafas rivojlanishi uchun yangi so‘zlarni to‘g‘ri va me‘yorida qo‘llash zarurdir.

2. Ommaviy axborot vositalarining ta‘siri. Publitsistik uslubdan o‘tgan ayrim ifodalar, iqtiboslar adabiy matnlarda qo‘llanilib, uning zamonaviyligini ta‘minlamoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari — gazeta, jurnal, radio, televideniye va internet nashrlari — til taraqqiyotida muhim o‘rin egallamoqda. Publitsistik uslub orqali shakllangan ayrim iboralar, iqtiboslar va jumlar adabiy matnlarga ko‘chib o‘tib, ularning mazmunini boyitmoqda. Masalan, siyosiy shiorlar, targ‘ibot ohangidagi jumlar yoki keng jamoatchilik orasida mashhur bo‘lgan iboralar ko‘pincha badiiy adabiyotlarda qahramonlar nutqini jonlantirish, voqelikni yanada hayotiy ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Ommaviy axborot vositalari tilidagi ixchamlilik, ta‘sirchanlik va dolzarblik adabiy uslubga ham ko‘chib, uni zamonaviylashtiradi. Masalan, yangiliklar tili bilan bog‘liq “dolzarb masala”, “xalq e‘tiborida”, “xalqaro maydon” kabi birikmalar badiiy asarlarda ham uchrashi mumkin. Bu esa o‘quvchiga o‘sha davr ruhini, ijtimoiy-siyosiy muhitini yaqqol his qilish imkonini beradi. Shuningdek, publitsistik uslubdan kirib kelgan ifodalar adabiy matnni faqat badiiy obrazlar bilan emas, balki jamiyat hayotining real voqeiklari bilan ham uyg‘unlashtiradi. Bu uyg‘unlik adabiy uslubning ta‘sirchanligini oshiradi, uni o‘quvchi ongiga yaqinlashtiradi.

3. Internet tili va ijtimoiy tarmoqlar. So‘nggi yillarda internet leksikasi adabiy matnlarda ham ko‘zga tashlanmoqda. Badiiy asarlarda zamonaviy hayot bilan bog‘liq yangi so‘z va iboralar uchrashi buning dalilidir. So‘nggi yillarda internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanganidek, uning tili ham adabiy matnlarga kirib kela boshladi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, messenjerlar va turli internet platformalarida ishlatiladigan leksika badiiy asarlarda ham qo‘llanilmoqda. Masalan, “post qildi”, “layk bosdi”, “akkaunt ochdi”, “online muloqot”, “videochat”, “trend” kabi iboralar o‘quvchiga zamonaviy davr ruhini yaqinroq his qilish imkonini beradi. Internet tili ko‘pincha ixcham, qisqartirilgan va tezkor ifodalar bilan ajralib turadi. Bunday so‘z va iboralar adabiy asarda qo‘llanganda, ayniqsa yoshlar obrazini yaratishda jonlilik, tabiiylik va hayotiylikni ta‘minlaydi. Masalan, qahramonning “chatlashdi”, “status qo‘ydi” kabi iboralarni ishlatishi uning davr zamoniga mos tasvirini beradi. Shuningdek, internet leksikasi adabiy uslubni yangilash, uni global madaniy

jarayonlarga uyg'unlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, bugungi kunda yozuvchi yoki shoir zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun o'z asarlarida hayotiy va dolzarb til vositalaridan foydalana olishi kerak. Internet tili orqali adabiy matnlar nafaqat milliy doirada, balki global axborot oqimida ham o'z o'rnini topadi. Shu bois, internet leksikasining adabiy asarlarda uchrashi adabiy uslubni boyitadi, unga yangicha ohang va ifoda imkoniyatlarini olib kiradi.

4. Multimadaniyatli ta'sir. O'zbek adabiy uslubi boshqa xalqlar tili va adabiyoti bilan o'zaro aloqada bo'lib, yangi badiiy vositalar va ifoda usullari bilan boyimoqda.

O'zbek adabiy uslubi tarixan turli xalqlar tili va madaniyati bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan. Bu jarayon bugungi kunda yanada jadallashib, adabiyotimizni yangi badiiy vositalar va ifoda usullari bilan boyitmoqda. Masalan, rus, turk, ingliz va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar, iboralar hamda tasviriy vositalar adabiy asarlarda qo'llanib, ularning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimadaniyatli ta'sir natijasida adabiy matnlarda turli xalq og'zaki ijodidan, she'riyatidan yoki zamonaviy adabiy yo'nalishlaridan olingan usullar ham uchraydi. Bu esa adabiyotimizni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb qiladi. Masalan, ingliz adabiyotida keng qo'llanadigan psixologik tahlil yoki ichki monolog usullarining o'zbek adabiyoti namoyandalarida qo'llanishi badiiy uslubni yangilaydi. Shuningdek, tarjima adabiyoti ham multimadaniyatli ta'sirning asosiy manbalaridan biridir. Jahon adabiyoti namunalarini tarjima qilish jarayonida yangi uslubiy shakllar, ifoda vositalari o'zbek adabiy tiliga kirib keladi. Natijada adabiy uslub o'z milliy xususiyatini saqlagan holda, global adabiy jarayonlarga uyg'unlashadi. Multimadaniyatli ta'sir nafaqat so'z boyligini kengaytiradi, balki turli xalqlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zlashtirish orqali adabiy uslubni yanada serqirra, rang-barang va ta'sirchan qiladi.

Adabiy uslub tilning eng yuksak va me'yoriy darajadagi ko'rinishi sifatida nafaqat milliy madaniyatni, balki zamon ruhini ham ifoda etadi. Zamonaviy til vositalari bilan boyishi esa adabiy uslubni yanada rang-barang, ta'sirchan va dolzarb qiladi. Shunday ekan, adabiy uslubning zamon bilan uyg'unlashuvi til taraqqiyoti va adabiyotning rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida adabiy uslubning zamonaviy til vositalari bilan boyishi yanada sezilarli bo'lib bormoqda. Avvalo, ilm-fan va texnika rivoji tufayli yuzlab yangi atamalar va terminlar tilimizga kirib kelmoqda. Ularning adabiy matnlarda qo'llanishi uslubiy yangilik, mazmuniy aniqlik va badiiylikni kuchaytirmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va publitsistik uslubning ta'siri ham adabiy matnlarda ko'zga tashlanmoqda. Jurnalistika tilidan o'tgan o'tkir iboralar, iqtiboslar yoki publitsistik ohang badiiy

asarlarga zamonaviy ruh bag'ishlamoqda. Internet tili va ijtimoiy tarmoqlar esa bugungi kun adabiy jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Onlayn muhitda shakllangan yangi so'zlar, qisqartmalar, iboralar ham badiiy matnlarda uchrab, asarlarni davr bilan hamnafas qilmoqda. Bundan tashqari, multimadaniyatli ta'sir natijasida o'zbek adabiy uslubi boshqa xalqlar adabiyoti bilan uyg'unlashmoqda. Bu jarayon yangi ifoda vositalari, obrazlar, badiiy usullar paydo bo'lishiga turtki bermoqda. Masalan, tarjima adabiyotlari, xorijiy madaniy ta'sirlar yoki turli janrlarning o'zaro kirishuvi adabiy tilni yanada serqirra qilmoqda. Umuman olganda, adabiy uslubning boyishi tilning tabiiy rivoji, jamiyat ehtiyoji va davr talabi bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi o'zbek adabiyoti o'zining ko'p qirrali ifoda vositalari, zamonaviy ruhiy izlanishlari va til imkoniyatlaridan keng foydalanishi bilan alohida ajralib turadi. Shunday qilib, adabiy uslubning zamonaviy til vositalari bilan boyishi nafaqat til taraqqiyotining, balki xalqning ma'naviy o'sishi va madaniy yuksalishining ham yorqin ifodasidir. Bu jarayon kelgusida ham davom etadi va o'zbek adabiy tilini yanada mukammal, ta'sirchan va xalqaro maydonda raqobatbardosh darajaga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev, M. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimov, S. O'zbek adabiy tili va uslublari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Qosimova, D. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'zbek tilining izohli lug'ati. www.ziyouz.com
Wekipediya

LEKSEMALARDA MA'NO TARAQQIYOT MASALASI TIL, BOSH ,OYOQ, KO'Z, OSH, YAYLOV, QISHLOQ SO'ZLARI MISOLIDA

KELDIYAROVA RAHIMA ABUBAKIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

raximaabdubakirovna@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada til, bosh,oyoq, ko 'z, osh, yayalov, qishloq leksemalarining ma'no taraqqiyoti natijasida yuqoridagi so'zlarining ma'nolarini torayishi va kengayib borashi haqida so'z yuritiladi. Ularning bugungi kundagi holati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Leksik ma'no, Metafora, Metonimiya,Sinekdoxa, vazifadoshlik, Obyektiv,Nolisoniy omil, Lisoniy omil,

Аннотация: В трёх статьях рассматривается развитие значений слов «тил», «бас», «орох», «коз», «ош», «яйлов», «кишлок», а также сужение и расширение их значений. Отмечается их современное состояние.

Ключевые слова: Лексическое значение, Метафора, Метонимия, Синекдоха, Союз, Объективный, Нелингвистический фактор, Лингвистический фактор.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari ikki xil bo'ladi: 1) so zning semantik tarkibidagi ma'nolar miqdori ko'payadi, 2) so'zning semantik tarkibida ma'no hajmi o'zgaradi. Bunda ma'nolar miqdori ortmaydi, bitta ma'noning hajm ko'lamiga kengayadi yoki torayadi, xolos. Ma'noning kengayishi. Jamiyat va til taraqqiyoti so'z ma'nolarining kengayishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda bir ma'no asosida ikkinchi leksik ma'no (yasama ma'no) yuzaga kelmaydi faqat shu leksik ma'noning hajmi kengayadi. [So'z semantik tarkibining o'zgarishi til taraqqiyoti jarayonini belgilovchi muhim omillardandir semantik tarkibning o'zgarishida ikki holat leksik ma'no nuqtai nazaridan o'zgarish va qo'shimcha ottenkalar bo'yicha o'zgarish ko'zga tashlanadi leksikmani nuqtai nazaridan bo'ladigan o'zgarish 1)leksik ma'no miqdorning o'zgarishi va 2) leksik ma'no hajmining o'zgarishi hodisalarni o'z ichiga oladi leksik ma'no miqdorning o'zgarishda ikki narsa ma'no miqdorning ortishi va meni miqdorning kamayishi kuzatiladi ma'no miqdorning ozayishi kam uchradigan hodisadir.

Ma'noning torayishi leksik ma'noning torayishi soʻz ma'nosining kengashiga zid hodisadir. Ma'noning torayishi avvalambor umumiylikni ifodalovchi soʻzning ayrim xususiy ma'noni ifodalashi natijasida yuzaga keladi. Masalan, tariq soʻzi oʻtmishda umuman don ma'nosida qoʻllangan hozir esa dorning bir turini ifodalaydi. Bunga koʻra oʻtmishda koʻp ma'noni bildirgan soʻzlarning ba'zi ma'nolari davrlar oʻtishi bilan yoʻq boʻlib ketadi oʻsha ma'noda qoʻllanmaydi masalan eski oʻzbek tilida tom soʻzi 1) tamba tirgovich; 2)devor; 3)uy; 4) uyning tepa qismi; ma'nolarida ishlatilgan. Hozirda bu soʻzning bir ikki uch ma'nolari qoʻllanishdan qolgan demak tom soʻzining ma'no miqdori kamaygan[1]. [Mahmud Qoʻshgʻariyning "Devonu lugʻatit turk" asarida qayd etilishicha, XI asrda kiyik soʻzi barcha vahshiy hayvonlarga nisbatan ham qoʻllangan, soʻng hayvonlarning bir turi - ahuni ifodalashga xoslanib qolgan. Osh soʻzi bir vaqtlar issiq ovqatning barcha turini anglatgan, keyinchalik uning ma'nosi torayib, faqat palov ma'nasini ifodalash uchun qoʻllanadigan boʻlib qolgan[1]. [Masalan, yaylov soʻzi dastlab "togʻning tepasidagi oʻtloq"ni ifodalagan: qadimgi turkiy tilda yay (yay) soʻzi "yoz" ni, yaylagʻsoʻzi esa "yozlaydigan joy"ni anglatganChorvadorlar yoz payti molni togʻning tepasidagi oʻtloqlarda ("yaylagʻ"da) boqishgan, qishda esa "yaylagʻdan "qishlagʻ"ga tushib yashashgan. Hozirgi paytda yaylov soʻzi faqat togʻning tepasidagi "mol boqiladigan oʻtloq"ni emas, balki umuman "mol boqiladigan maydon"ni anglatadi, bunday maydon togʻning tepasida ham, dasht-adirlarda va hatto past tekisliklarda ham boʻlishi mumkin. Bunday ma'no kengayishi qishloq soʻzining semantikasida ham sodir boʻlgan: u dastlab "qish faslida yashaydigan joyni"ni anglatgan, hozir esa umuman "aholi yashaydigan punktning bir turi" ma'nosini ifodalaydi. Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga oʻtishini ma'no kengayishi deb baholash holatlari ham bor [3:159]. [Soʻz ma'no miqdorning ortib borishi koʻp ma'noliylik til taraqqiyoti darajasini, rivojlantirishni koʻrsatuvchi asosiy omillardan sanaladi. Aytish zarurki, soʻzlar dastlab paydo boʻlgan vaqtda birgina ma'noni ifoda etgan. Keyinchalik obyektiv borliqdagi narsa hodisalarning oʻzgarishi ijtimoiy hayotda boʻladigan har xil oʻzgarishlar va boshqa singari turli sabablar tufayli soʻzlar yangi ma'nolar kasb eta boshlagan. Darhaqiqat, soʻzlarning birdan ortiq ma'noga ega boʻlishi oʻsha soʻzlar hayotining keyingi davrlarga borib taqaladi[1]. Masalan koʻz soʻzini oladigan b'lsaak juda koʻp ma'nolari mavjud.

Koʻz* Ular bir biriga uzukka koʻz qoʻyganday mos edi.

Koʻz* Shomurodnin tepgan toʻp Hasan otaning derazasini koʻzini sindirgan edi.

Koʻz* Buloqning koʻzi

Koʻz*Daraxtning koʻzi kabi ma'nolari bor.

Til* Issiq choydan Alining tili kuydi.

Til* Qamishlar Tursunboyning yuzini tilib tashlagan edi. Yuqoridagi gapda til so'zi ikki xil ma'noda kelgan. Birinchi gapda ot so'zturkumiga oid inson ta'na a'zosi ma'nosida. Ikkinchi so'zda esa tilmoq fe'l so'z turumiga oid so'zni ifodalab kelgan. [So'zning yangi ma'no kasb etishi ma'lum bir obyektiv sabablar asosida ro'y beradi so'zning yangi ma'no kasb etishga olib keluvchi omillar ikki turlidir: 1) nolisoniy omil 2) lisoniy omil. Nolisoniy omil deyilganda nom ko'chishi asosida yangi ma'noning hosil bo'lishi tushuniladi. Nom ko'chishi - so'zining yangi ma'no hosil qilishda asosiy hodisa hisoblanadi. Bunda ma'lum narsa belgi, harakat bildiruv so'z qandaydir o'xshashlik, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi. Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil qilishning 4 turi mavjud bular quyidagilardir: metafora, metonimiya, sinekdoxa t vazifadoshlik. Metofra. Nom ko'chishi yo'li bilan yangi ma'no hosil qilishdagi asosiy holatlardan bir metafora hisoblanadi. Biror narsa belgi harakat nomining o'zaro tashqi o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa belgi harakatni qilib o'tirilishi metafora deb yuritiladi. Biror narsa belgi harakat nomining o'zaro tashqi o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa belgi harakatga nom qilib ko'chirilishi metafora deb yuritiladi. Bunda birorta tomoni, shakli,, ko'rinish,i ranggi,, mazasi, ta'mi joylashish o'rni va boshqa xususiyatlari o'xshash bo'lgan ikkita predmet belgiharakatidan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi Metafora yo'li bilan ko'chirilishida ko'proq quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi kishi tana a'zolarining nomlari yuz, bet,bosh, yelka,, oyoq, qosh, lab, biqin, og'iz,, bel, iyak, bo'yin, burun kabilar kiyim-kechak qismlarning nomlari etak, yoqa hayvon parrandalarning a'zolari nomlari qanot,dum tumshuq kabi[1].

Masalan: Ali sport zalda mashq jarayonida burnini sindirib oldi. Bu so'zda burun so'zi o'z ma'noda qo'llangan. Kelinchak hayajondan dir - dir titirab qo'lidagi choynakni tushirib yubordi. Yerga qaraganda choynakning burni singandi. Bu so'zda burun so'zi ko'chma ma'nodagi so'z hisoblanadi.

Bosh* Jasur ko'chaning boshida meni kutar edi.

Bosh* Odamning boshi ishlamasa oyog'i ishlar ekan. Bunda brinchi gapda bosh so'zi o'z ma'noda kelgan ikkinchi gapda esa bosh so'zi ko'chma ma'noda kelgan. Bu so'zlarda bosh ya'ni insonning boshlanish qismi yo'l ma'nosiga ko'chgan. Metanimiya - yunoncha metanimiya qayta nomlash degan ma'noni anglatadi . Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Metonimiyada bir so'z aytiladi ikkinchisi tushuniladi. Masalan: Mehmon bemor oyog'iga o'tirdi. Bu gapdagi oyoq so'zi metonimiya sasosida

ko'chgan. Bunda mehmon bemorning oyog'iga emas balki oyoq tomonidagi joyga o'tirgani nazarda tutilmoqda. [Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: synekdoche — "birga anglamoq", "qo'shib anglamoq"- degan ma'nolarni anglatadi[2:158]. [Bunda biror predmetning qismi aytilib butuni tushuniladi yoki butun aytilib qismi tushuniladi[4]. Shunga ko'ra ikkiga bo'linadi:

Qism orqali butun: Mahallamizda begona oyoqlar ko'paydi.

Butun orqali qism: Qo'lini kesib oldi.

[Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi (funksional ko'chirish): tomir (anat. «qon tomirlari» - bosh leksik ma'no) — tomir (biol. «o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar» — hosila ma'no). Tomir leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan "qon tomirlari" va "o'simlik tanasidagi to'qima naychalar" bajarayotgan vazifadagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi. Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilishi o'q (nayzaning o'qi) — o'q (miltiqning o'qi) — o'q (zambarakning o'qi) kabi nomlanishlarda ham bor[2:157]. [Yangi ma'noning hosil bo'lishda listoniy omil ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki yo'l: 1) ellipsis va 2) semantik kalka vositasidagi yangi ma'no hosil qilinadi. Ellipsis asosida yangi ma'no yuzaga kelganda aslida birikmaga teng birlik tarkibidan biror so'z tushib qoladi natijada shu birikmaga xos ma'noli bir so'z ifodalaydigan bo'lib qoladi. Masalan, bozordan qaytishga tayyorlangan ovqat ugra ekan. Ushbu gapda ugura so'zi asli ugura oshib birikmasini bildirgan. Bu birikmadagi osh siz ellipsisga uchrab qo'llanmasligi natijasida birikmaga xos ma'no ugra so'zining o'ziga taalluqli bo'lib qolgan ya'ni ugra ovqatning ham nomiga aylangan. Yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi lisoniy omillardan yana biri semantik kalkadir. Bunda chet, chunonchi, ruscha so'zlarga xos ma'no (yoki ma'nolar) tilimizga o'zlashtiriladi. Masalan, san'at saroyi, madaniyat saroyi birikmalaridagi saroy so'zining ma'nosi bevosita dvorets isskustva dvorets birikmalarining kalka yo'li bilan o'zlashtirish asosida vujudga kelgan. Sirtqi so'zining sirtqi o'qish birikmasidagi ma'nosi za ochnoe obucheniye birikmasining kavkaz tufayli paydo bo'lgan. Semantik kalka vositasida yangi ma'no hosil bo'lishi, ayniqsa, terminalogik leksikada ko'p uchraydi. Leksik ma'no nuqtai nazaridan bo'ladigan o'zgarishning ikkinchi bir turi leksik ma'no hajmining o'zgarishidir. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi deyilganda ma'noning kengayishi va ma'noning torayishi tushuniladi so'z ma'nolarning kengayishi va torayishi so'zlarning ma'no taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qakandar Sapabayev "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent.2009.
- 2.H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent 2005.
- 3.RR.Sayfullayeva, B.R.M engliyev, L.R Raupova, M.M.Qurbonova, M.Q.Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent 2020.
- 4 . arxiv.uz

FE'LNING ZAMON KATEGORIYASI TASNIFI VA SO'Z TARKIBIDA QO'LLANILISHI.(O'TKIR HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)

MADUMAROVA OYDINOY O'TKIRJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

oydinoymadumarova023@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada fe'larning zamon kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi. Zamon kategoriyalarining so'z tarkibida kelishi, qanday vazifalar o'tashi aytib o'tiladi. Fe'lning zamon kategoriyalari O'tkir Hoshimov asarlari mosolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kategoriya, Zamon kategoriyasi Umumiy grammatik ma'no, Illuziya, Payt valentligi, O'tgan zamon, Hozirgi zamon, Kelasi zamon, Nutq.

Annotation: This article provides information about the tense categories of verbs. It is explained how tense categories appear in word structure and what functions they perform. The tense categories of verbs are analyzed using the works of Otkir Hoshimov as an example.

Keywords: Category, Tense category, General grammatical meaning, Illusion, Time valence, Past tense, Present tense, Future tense, Speech.

Аннотация: В данной статье представлена информация о категориях времени глаголов. Объясняется, как категории времени проявляются в структуре слов и какие функции они выполняют. Анализ категорий времени глаголов проводится на примере произведений Откира Хошимова.

Ключевые слова: Категория, Категория времени, Общее грамматическое значение, Иллюзия, Временная валентность, Прошедшее время, Настоящее время, Будущее время, Речь.

Fe'lning zamon kategoriyalari aytayotgan so'zlarimiz bajarayotgan ish harakatlarimizning amalga oshirilish vaqtini, davomiyligini va tugashini ifodalashimizga yordamlashadi. Bajarilayotgan ish – harakatning o'tgan, hozirgi yoki kelajakda ro'y berayotganini ifodalaydi. Zamonlar orqali fe'l nutqda vaqtni aniqlash, gapning mazmunini to'liq tushunish va fikrni aniq ifodalash imkonini beradi. Bu esa fe'lning grammatik vazifasida muhim rol o'ynaydi. [Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq

momentiga munosabatini ifodalash" zamon kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi(UGM) hisoblanadi[2:214]

a) nutq momentigacha bo'lgan voqelik - o'tgan zamon;

b) nutq momentligidagi voqelik - hozirgi zamon;

d) nutq momentdan keyin bo'ladigan voqelik - kelasi zamon. Shu boisdan zamon UGMsining uchta xususiy ko'rinishi farqlanadi:

1.O'tgan zamon 2.Hozirgi zamon 3.Kelasi zamon

Har bir zamon shakli o'ziga xos grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lib, harakatning qachon sodir bo'lganini aniqlashga xizmat qiladi. Bu kategoriya fe'lning asosiy grammatik kategoriyalaridan biridir. Fe'lning zamon kategoriyasi tilimizda vaqtni to'g'ri ifodalashda muhim o'rin tutadi. Zamonlarni to'g'ri qo'llash orqali biz o'z fikrimizni aniq yetkazamiz. Har bir zamon o'z qonun-qoidalariga ega va ularni bilish savodxonlikning asosi hisoblanadi. [Zamon kategoriyasi fe'l ifodalagan harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi, Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatga qarab fe'lning uch zamoni farqlanadi: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon. O'tgan zamon nutq paytidan ligari bajarilgan harakatni, hozirgi zamon nutq payti bilan bir vaqtda bajarilayotgan (tugamagan) harakatni, kelasi zamon nutq paytidan keyin bajariladigan harakatni anglatadi[1:207]. [Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamon fe'li bir necha shakl yordamida ifodalanadi: -di (o'qidim, o'qiding, o'qidi); -gan (o'qiganman, o'qigansan, o'qigan); -(i)b- (o'qibman, o'qibsang, o'qibdi); -edi/ekan/emish (yozgan edim, ishlayotgan edi, ishlagan eding, ishlar edilar, ishlamoqchi edim). Mazkur shakllarni qabul qilgan fe'l turli ma'no ifodalaydi. Masalan: -di: "so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq, qat'iy tarzda ifodalash": "Loydan og'irlashib ketgan paqirdagi kartoshkani savat zambilga ag'dardim". (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi);

-gan: "so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmagan harakatni ifodalash": "Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan deb millatchilik qilganmish".(O'.Hoshimov)

-(i)b-: "harakatni bevosita kuzatmaganlik, undan keyin xabardor bo'lganlik": "Qora xotin chopib kelib meni bag'riga bosdi".(O'. Hoshimov)[2:223] [Hozirgi zamon. Zamonning bu turi UGMsini "harakatning nutq momentida yuz berayotganligini ifodalash" tarzida xususiylashtiradi. Ma'nolardagi "davomiylik", "tugamaganlik" unsurlari undagi boshqa kategoriya tajallisi bo'lib, zamonning substansial ma'nosiga daxli yo'q. "Davomiylik", "tugallanmaganlik" UGMdagi kategorial ma'no bilan zich holatdagi yondash ma'no. Bu zamon ma'nosi:

-yap;

- yotib;
- yotir;
- moqda

affikslari bilan ifodalanadi. Shakllar orasidagi farq sof uslubiy asosda. Aniqrog'i, -yap umumuslubiy va keng iste'molliligi, -yotib- va -yotir dialektal va poetik xususiyati bilan, -moqda shakli kitobiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularda zamonni ifodalashda farq sezilmaydi[2:224] [Kelasi zamon. Mavjud darsliklarda grammatik illuziya natijasida kelasi zamonning ikki ko'rinishi farqlanadi:

- a) kelasi zamon aniqlik shakli;
- b) kelasi zamon gumon shakli.

Yuqorida aytilgani kabi ma'no turlaridagi "aniqlik" va "gumon" unsurlarining zamon substansial mohiyatiga tegishli joyi yo'q. Bu ham boshqa kategoriya substansial mohiyatining kelasi zamon UGMSidagi tajallisi. Kelasi zamon ZK UGMSini "nutq momentidan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalash" tarzida xususiylashtiradi. Bu zamon: a) -a, -y b) -(a)r/mas affikslari orqali ifodalanadi[2:225]

1. -a, -y [Sandonda olov gurullaydi. Taraq – turuq avjida, yaqiniga borib bo'lmaydi. Bayram bo'lgani uchunmi, yasangan – tusangan o'tkinchilar tuzuk – quruq gaplashmaydi. Hamma qayoqqadir shoshadi. O'tkir Hoshimov[3:120]

2. -(a)r, mas [Kelmasam bo'larkan. Qaytanga uyda Xo'ja bilanmi, Vali bilanmi maza qilib chillak o'ynab yurgan bo'lardim. Mayli, topilib qolar, - dedi u sekingina. – shu yerga tushgan bo'lsa qayoqqa ketardi [3:120].

[Kelasi zamon fe'lining ekan, emish to'liqsiz fe'li bilan yasalgan eshitilganlik, keyin bilganlik ma'nosini ifodalovchi shakli gumon ma'nosini ifodalamasligi ta'kidlanadi: (ishlar ekan), (kelar ekan); (ishlar emish), (kelar emish)kdib\]. Bunda to'liqsiz fe'llarda zamon ma'nosi yo'q. Zamon shaklning -ar qismi orqali ifodalanadi. Umuman olganda, to'liqsiz fe'llar fe'ldan boshqa so'zlar kesim vazifasida kelganda ularga zamon va modal ma'nolami birgalikda beradi. Fe'llami shakllantirganda esa sintetik-analitik shaklning affiks qismi zamon ifodalab, to'liqsiz fe'l zimmasiga modal munosabat ifodalashgina yuklatiladi. Qiyoslang: ishchi ekan - ishchi bo'lgan ekan, o'qigan emish. Keyingi ikki misolda -gan shakli zamon, to'liqsiz fe'llar modal munosabat ifodalagan. Kelasi zamon shakllari kesimning payt valentligini kelasi zamon ma'noli hol vazifasidagi so'zshakllar bilan to'ldiradi: ertaga, kelasi yil, kelajakda kabi[2:225]. Fe'lining zamon kategoriyasi insonlarning nutqi jarayonida ish harakatini qaysi vaqtda va qachon bajarishini yoki bajarganini aniq ifodalashiga yordam beradi. Fe'lining zamon kategoriyasi matn doirasida harakatlarning ketma-ketligi, izchilligi va sabab-oqibat munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qalandar Sapabayev Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. 2009.
2. O'tkir Hoshimov "ikki eshik orasi" Toshkent 2024.
3. RR. Sayfullayeva, B.R.M engliyev, L.R Raupova, M.M. Qurbonova, M.Q. Abuzalova, D.N. Yo'ldosheva. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 2009.
4. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" Toshkent "Meriyus" 2019.

SINTAKSIS VA SINTAGMA: HOZIRGI O'ZBEK TILI NAZARIYASIDA TUSHUNCHALAR TAHLILI

MUXTAROVA ASALAY

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi
asalay@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu tezis Ra'no Sayfullayeva tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asariga tayangan holda, o'zbek tilshunosligida sintaksis va sintagma tushunchalarining mohiyatini ilmiy asosda tahlil qiladi. Unda sintaktik birliklarning tuzilishi, ularning fikr ifodalashdagi o'rni hamda sintagmatik aloqalarning grammatik va kommunikativ xususiyatlari izohlangan. Misollar orqali so'zlar orasidagi grammatik va semantik bog'lanish turlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sintaksis, sintagma, gap, so'z birikmasi, grammatik aloqa, kommunikativ birlik.

Аннотация:

В данной статье, основанной на труде Рано Сайфуллаевой «Современный узбекский литературный язык», рассматриваются понятия синтаксиса и синтагмы в современном узбекском языкознании. Анализируются структурные и функциональные особенности синтаксических единиц, типы синтагматических связей и их роль в передаче смысла. Приводятся примеры, иллюстрирующие грамматические и семантические отношения между словами.

Ключевые слова:

синтаксис, синтагма, предложение, словосочетание, грамматическая связь, коммуникация.

Annatsion:

This scientific paper, based on Ra'no Sayfullayeva's "Modern Uzbek Literary Language", analyzes the concepts of syntax and syntagma in Uzbek linguistics. It discusses the structural and communicative functions of syntactic units and the grammatical-semantic relations between them. Examples illustrate how syntagmatic connections form the logical and expressive basis of utterances.

Keywords:

syntax, syntagma, phrase, sentence, grammatical relation, communication.

Tilshunoslikda sintaksis til tizimining yuqori darajadagi qatlami sifatida, soʻzlarning grammatik bogʻlanish usullarini va fikrning tuzilma shaklini oʻrganadi. Raʼno Sayfullayeva “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” asarida sintaksisni til tizimining mantiqiy va kommunikativ markazi sifatida talqin qiladi. Unga koʻra, sintaktik birliklarning asosida syntagma tushunchasi yotadi, yaʼni soʻzlarning oʻzaro grammatik va semantik bogʻlanishidir.

Masalan: Talaba kitob oʻqimoqda. Bu gapda “talaba” va “kitob oʻqimoqda” soʻzlari oʻzaro sintagmatik bogʻlanishda boʻlib, ega va kesim orasidagi grammatik munosabatni ifodalaydi.

Sintaksisning nazariy asoslari

Sintaksis — tilshunoslikning soʻzlarning birikishi, gaplarning tuzilishi va nutqdagi grammatik ifoda shakllarini oʻrganadigan boʻlimidir. Raʼno Sayfullayeva fikricha, sintaksis tilning “fikrni shakllantiruvchi mexanizmi” sifatida namoyon boʻladi.

Masalan: Bahor keldi. — bu sintaktik birlik boʻlib, toʻliq fikrni bildiradi. Bahorning yoqimli havosi — bu soʻz birikmasi boʻlib, sintagmatik aloqa orqali bogʻlangan, lekin mustaqil fikr ifodalay olmaydi.

Sintagma tushunchasi va uning tildagi oʻrni

Sintagma (yunoncha “syntagmē” — “birikma”) til tizimida soʻzlarning izchil bogʻlanishidan hosil boʻlgan birlikdir. U sintaktik birlikning ichki strukturasi sifatida qaraladi. Raʼno Sayfullayeva sintagmani “soʻzlarning grammatik va semantik uygʻunligini taʼminlovchi birlik” deb izohlaydi.

Misol: Goʻzal tabiat manzarasi — bu yerda “goʻzal” (aniqlovchi) va “tabiat manzarasi” (aniqlanuvchi) oʻzaro sintagmatik aloqada. Sintagma uch turda boʻladi: erkin sintagma (yangi kitob), barqaror sintagma (koʻz oldi), kommunikativ sintagma (Men maktabga bordim).

Sintaksis va sintagmaning oʻzaro bogʻliqligi

Til tizimida sintagma sintaksisning asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Soʻzlar avvalo sintagmatik bogʻlanishda boʻladi, soʻng ular gap strukturasi tashkil etadi.

Masalan: Ustoz dars oʻtmoqda. — bu gapda “ustoz” va “dars oʻtmoqda” soʻzlari oʻzaro sintagmatik bogʻlangan. Bu aloqa sintaktik tuzilmaning shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Xulosa

Sintaksis va sintagma o'zbek tilining grammatik tizimida bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Sintagma — sintaksisning mikrosathdagi birligi, sintaksis esa uning umumiy nazariy tizimidir. Ra'no Sayfullayeva asaridagi yondashuv sintagmatik aloqalarning nafaqat grammatik, balki semantik va kommunikativ mohiyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.

Jo'rayev M. O'zbek tili sintaksisi. — Toshkent, 2015.

Xudoyberganova D. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2018.

Nurmonov A. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2019.

SO'Z BIRIKMASI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR TAHLILI**QUYSINOVA O'G'LOY BAXTIYOR QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3– bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'z birikmasi tushunchasiga oid nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Unda so'z birikmasining mohiyati, tuzilish xususiyatlari va bog'lanish turlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va rus tilshunosligida so'z birikmasi haqidagi turli yondashuvlar solishtiriladi. Maqolada so'z birikmasining gapdan farqli jihatlari, uning sintaktik birlik sifatidagi o'rni hamda tuzilma tiplari izchil tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida so'z birikmasining hozirgi zamon tilshunosligidagi ahamiyati va uni o'rganishning dolzarb yo'nalishlari aniqlanadi.

Annotation

This article analyzes theoretical approaches related to the concept of a word combination. It discusses the essence, structure, and types of grammatical connections between the components of word combinations based on linguistic sources. The paper also compares the approaches of Uzbek and Russian linguists to the study of word combinations. Furthermore, it highlights the differences between a word combination and a sentence, its role as a syntactic unit, and its main structural types. The study concludes by defining the significance of word combinations in modern linguistics and identifying current trends in their study.

Kalit so'zlar: so'z birikmasi, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, fe'l, kelishik, sintaksis.

Keywords: word combination, government, agreement, adjacency, verb, case, syntax.

So'z birikmasi tilning muhim sintaktik birliklaridan biridir. U ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishidan hosil bo'ladi. Tilshunoslikda so'z birikmasi gapdan kichik, lekin so'zdan yirik sintaktik birlik sifatida qaraladi.

So'z birikmasining asosiy belgisi — uning tarkibiy qismlari orasidagi boshqaruv, bitishuv va moslashuv kabi sintaktik bog'lanishlarning mavjudligidir. A. G'ulomovning ta'kidlashicha, so'z birikmasi gapning qurilish materiali hisoblanadi,

ya'ni har bir gap so'z birikmalaridan tashkil topadi. M. Asqarova esa so'z birikmasini "tushunchalarni ifodalashda mustaqil ahamiyat kasb etuvchi, lekin tugallangan fikrni bildirmaydigan sintaktik birlik" deb izohlaydi. Bu ta'riflardan ko'rinadiki, so'z birikmasi tilning sintaktik tizimida oraliq o'rinni egallaydi: u so'z kabi alohida birlik emas, lekin gap kabi mustaqil fikr ifodalamaydi.

So'z birikmalarining tuzilishi va tiplari ham tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Odatda ular ikki asosiy turga bo'linadi:

1. Erkin so'z birikmalari – tarkibidagi so'zlar mustaqil almashtirilishi mumkin bo'lgan birikmalar (masalan, "katta uy", "yangi kitob o'qimoq").

2. Turg'un so'z birikmalari – frazeologik birliklar bo'lib, tarkibi o'zgarmaydi ("ko'z yummoq", "og'iz ochmoq").

Tilshunoslar, jumladan, Sh. Rahmatullayev va S. Karimovlar fikricha, so'z birikmasining tahlilida so'zlar orasidagi grammatik bog'lanish va semantik yaxlitlik birgalikda o'rganilishi kerak. Chunki faqat grammatik tuzilishga qarab so'z birikmasini to'liq tushunish mumkin emas — ularning ma'no birligi ham muhimdir.

So'z birikmasi gapdan farqli ravishda tugallangan fikrni ifodalamaydi. Masalan, "go'zal qiz" so'z birikmasi borliqdagi narsa yoki shaxs haqida to'liq fikr bildirmaydi, lekin gapda ("Go'zal qiz keldi") u fikrni to'ldiradi. Shuning uchun so'z birikmasi gapning qurilish materialini, uning ichki tuzilmasidagi asosiy birlik sifatida qaraladi.

Rus tilshunosligida V. V. Vinogradov ham shunga o'xshash fikrni ilgari surgan: u so'z birikmasini "sintaktik bog'lanishning eng oddiy shakli" deb atagan. Uning nazariyasiga ko'ra, har qanday murakkab gap yoki matnning asosi — shu oddiy so'z birikmalaridir. Bu qarash keyinchalik o'zbek tilshunosligi uchun ham nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Hozirgi zamon o'zbek tili grammatikasida so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar hokim va tobe qismlarga bo'linadi. Hokim so'z tobe so'zning grammatik shaklini belgilaydi: masalan, "kitob o'qimoq" birikmasida "o'qimoq" — hokim, "kitob" esa tobe so'z hisoblanadi. Bunday bog'lanishlar so'zlar o'rtasida ma'no va grammatik uyg'unlikni ta'minlaydi.

So'z birikmalari o'zaro bog'lanishiga ko'ra uch turga ajratiladi:

1. Boshqaruv – tobe so'z hokim so'z talabiga binoan ma'lum kelishikda bo'ladi ("kitobni o'qimoq", "uyga bormoq").

2. Moslashuv – ikki so'z shaxs, son va egalikda moslashadi ("bizning uyimiz", "bu bola").

3. Bitishuv – so'zlar o'rtasida faqat tartib orqali bog'lanadi ("yaxshi do'st", "katta uy").

So'z birikmasining turlarini to'g'ri aniqlash til sintaksisini o'rganishda, nutqning tuzilmasini tahlil qilishda, shuningdek, tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki turli tillarda so'zlar orasidagi bog'lanish mexanizmi bir xil emas. Masalan, o'zbek tilida sifat doimo ot oldidan keladi ("yangi uy"), rus tilida esa aksincha ("новый дом").

So'z birikmasi haqidagi nazariy qarashlarning rivojlanishi bugungi kunda ham davom etmoqda. Zamonaviy lingvistikada so'z birikmalari faqat sintaktik jihatdan emas, balki semantik, kommunikativ va funksional yo'nalishlarda ham o'rganilmoqda. Bu esa tilshunoslik fanining yanada chuqurlashuviga, nutq tahlilining aniqroq bo'lishiga xizmat qilmoqda. So'z birikmasi til tizimining muhim birliklaridan biri bo'lib, u ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning grammatik va ma'no jihatdan bog'lanishi natijasida shakllanadi. So'z birikmasi orqali fikr aniq, izchil va to'liq ifodalanadi. Unda hokim va tobe so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishadi. Hokim so'z birikmaning asosiy ma'nosini bildiradi, tobe so'z esa unga grammatik jihatdan bo'ysunadi. Bunday bog'lanish natijasida bir butun ma'no ifodasi hosil bo'ladi.

So'z birikmalari turli grammatik aloqalar — boshqaruv, moslashuv va bitishuv asosida hosil bo'ladi. Boshqaruvli birikmalarda hokim so'z tobe so'zning shaklini belgilaydi, ya'ni hokim so'z ma'nosiga qarab tobe so'z ma'lum kelishikda keladi. Masalan, kitobni o'qimoq, maktabga bormoq, darsdan chiqmoq kabi birikmalarda hokim fe'l tobe so'z shaklini boshqarib turadi. Moslashuvli birikmalarda esa hokim va tobe so'zlar bir xil grammatik shakl orqali bog'lanadi: katta bola, yangi daftar, oq qush kabi misollarda sifat ot bilan moslashadi. Bitishuvli birikmalarda tobe so'z qo'shimchasiz, shaklsiz holda hokim so'z bilan birikadi, masalan: kitob o'qimoq, uy qurmoq, yoz fasli va hokazo.

So'z birikmalari tahlilida hokim so'zning turkumga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Agar hokim so'z fe'l bo'lsa, bunday birikmalar fe'l boshqaruvli deyiladi. Fe'l boshqaruvli birikmalar o'zbek tilida eng keng tarqalgan bo'lib, ular orqali turli sintaktik ma'nolar ifodalanadi. Fe'l hokim bo'lgan birikmalarda tobe so'z ko'pincha tushum, chiqish, o'rin yoki yo'nalish kelishigida keladi. Masalan, darsni o'qimoq, maktabdan qaytmoq, bog'da ishlamoq, uyga bormoq kabi. Bu birikmalarda fe'lning semantik xususiyati boshqaruv shaklini belgilaydi.

So'z birikmalari tuzilishi jihatidan oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy birikma ikki so'zdan tashkil topadi, masalan: yangi uy, kitob o'qimoq. Murakkab birikmalar esa bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, tarkibida qo'shimcha tobe birliklar

ham ishtirok etadi: katta shahardagi eski binolar, darsga tayyorlanayotgan o'quvchi kabi.

Tilshunoslikda so'z birikmasining rivojlanishida grammatik va semantik omillar muhim rol So'ynaydi. Har bir so'z birikmasi o'z ichki ma'nosiga ega bo'lib, ma'no jihatidan yaxlitlikni ifodalaydi. Shu boisdan ham so'z birikmalari tildagi fikrni aniq, lo'nda va mantiqiy tarzda yetkazish uchun xizmat qiladi. Ular gapning qurilishida tayanch birliklardan biri hisoblanadi.

So'z birikmalari tizimida fe'lning o'rne alohida ahamiyat kasb etadi. Fe'lning ma'nosi, zamon shakli, shaxs-son qo'shimchalari tobe so'zlarning kelishik shakllarini belgilaydi. Fe'l bilan ifodalangan harakat yoki holatga nisbatan tobe so'z o'z grammatik holatini o'zgartiradi. Masalan, o'qituvchining so'zini eshitmoq birikmasida eshitmoq fe'li hokim bo'lib, so'z so'zi tushum kelishigida kelgan. O'zbek tilidagi so'z birikmalari turlicha turlarga ajratiladi: ot birikmalari, fe'l birikmalari, sifat birikmalari, ravish birikmalari va son birikmalari. Har biri o'zining grammatik va semantik xususiyatiga ega. Masalan, ot birikmasi (kitob javoni), sifat birikmasi (yashil daraxt), fe'l birikmasi (tez yurmoq), ravish birikmasi (juda yaxshi), son birikmasi (ikki o'quvchi) shaklida bo'ladi.

So'z birikmasi tilning asosiy birliklaridan biri bo'lib, so'zlar o'rtasidagi grammatik va ma'no aloqani ifodalaydi. Ular orqali nutq aniq, izchil va mantiqan to'g'ri tuziladi. So'z birikmalari tildagi barcha so'z turkumlari o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi hamda grammatik tizimning barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Asqarova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili sintaksisi asoslari. – Toshkent: Fan, 1995.
4. Vinogradov V. V. Russkiy yazık. Grammaticheskoe uchenie o slove. – Moskva: Nauka, 1986.
5. Zinder L. R. Osnovı obshchey lingvistiki. – Moskva: Nauka, 1972.
6. Karimov S. Til birliklari sintaksisda. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.

O'ZBEK TILIDA FRAZEMALAR**ALIYEVA YODGORA BARAT QIZI**

ChDPU talabasi

Ilmiy rahbar: **Komilova Gulmira Temirovna****Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek tilida frazemalar tushunchasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va nutqdagi ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Frazemalar til boyligini oshirib, nutqni ta'sirchan va obrazli qiladi, shu bilan birga xalqning milliy qarashlari va madaniyatini ham aks ettiradi.

Аннотация

В данной статье кратко рассматривается понятие фразеологизмов в узбекском языке, их особенности и роль в речи. Фразеологизмы обогащают язык, делают речь выразительной и образной, а также отражают национальное мировоззрение и культурные традиции народа.

Kalit so'zlar: frazema, frazeologizm, o'zbek tili, barqaror iboralar, obrazlilik, milliy madaniyat, ifodaviylik

Ключевые слова: фразема, фразеологизм, узбекский язык, устойчивые выражения, образность, национальная культура, выразительность

O'zbek tilida frazemalar tilning eng muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali oddiy so'zlar berolmagan ma'no, kayfiyat va obrazni ifodalash mumkin. Frazemalar nutqni jozibador qilish, uni ta'sirchan yetkazish, suhbatni samimiyroq qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ular adabiy tilda ham, og'zaki so'zlashuvda ham keng qo'llanadi.

Frazemalar xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi va dunyoqarashini mujassamlashtiradi. Ular orqali milliy qadriyat, urf-odat va turmush tarzi ifodalanadi. Masalan, "tili zahar" iborasi odamning og'ir va achchiq gapirishi haqida tasavvur uyg'otsa, "qo'li ochiq" iborasi saxiy insonni bildiradi. Bu kabi iboralar o'zbek xalqining turmush madaniyati va ma'naviy olamini aks ettiradi.

Frazemalarning o'ziga xos jihati shundaki, ularning ma'nosi ko'pincha so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Ular umumiy holda yaxlit bir obrazni yaratadi. Masalan, "ko'zini ochmoq" iborasi faqatgina ko'rish jarayonini emas, balki anglash, tushunish ma'nosini beradi. Demak, frazemalar tilning semantik boyligini kengaytirib, unga yangi rang-baranglik olib kiradi.

Shuningdek, frazemalar milliy o'zlikni namoyon etuvchi vosita sifatida ham muhimdir. Har bir xalqning o'ziga xos frazemalari mavjud bo'lib, ular o'sha xalqning tafakkuri, mentaliteti va tarixini ifodalaydi. O'zbek tilidagi frazemalar xalqona hazil-mutoyiba, hikmat va hayotiy kuzatishlarga asoslangan. Shu jihatdan ular nafaqat lingvistik birlik, balki ma'naviy merosning ham tarkibiy qismi hisoblanadi.

Frazemalar adabiy asarlarda, badiiy nutqda, maqol va matallarda keng qo'llanib, matnga chuqur ma'no va ifodaviylik beradi. Badiiy asar qahramonining ichki dunyosini ochishda ham frazemalar katta xizmat qiladi. Ular orqali yozuvchi obrazni jonlantiradi, kitobxonni hayajonga soladi.

O'zbek tilidagi frazemalar xalqning boy tarixiy tajribasi, turmush tarzi va dunyoqarashini ifoda etuvchi bebaho til birliklaridir. Ular nutqni obrazli, ta'sirchan va jozibador qilishga xizmat qiladi. Frazemalar orqali insonlarning ichki kechinmalari, xarakteri va turmushdagi munosabatlari yanada yorqinroq ifodalanadi. Ularni o'rganish til boyligini oshirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va nutq madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli frazemalarni chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki milliy ma'naviyatni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. O'zbek tilida frazeologiya. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Muxtorov A. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2016.
3. Rajabov A. O'zbek tili frazeologizmlari. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
4. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
5. Abdullayev Sh. Frazeologiya va uning nutqdagi o'rni. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

TA'LIM BOSQICHLARIDA MATN TURLARINI O'RGATISH

RAHIMOVA NOZIMA ALISHEROVNA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

rahimovanozima282605@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limning turli bosqichlarida matn turlarini o'qitishning didaktik asoslari, maqsadi va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Matn turlari bilan ishlash orqali o'quvchilarda qanday ko'nikma va malakalar rivojlanishi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, matn turlari bilan qisqacha tanishtirib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Matn turlari, hikoya matni, muhokama matni, tasviriy matn, ko'nikma, malaka.

Annotation. This article analyzes the didactic foundations, goals and methodological approaches to teaching text types at different stages of education. It discusses what skills and competencies students develop through working with text types. It also briefly introduces text types.

Keywords. Text types, narrative text, discussion text, descriptive text, skills, competencies.

Аннотация. В статье анализируются дидактические основы, цели и методические подходы к обучению видам текста на разных этапах обучения. Обсуждаются навыки и умения, которые развивают учащиеся при работе с видами текста. Также кратко рассматриваются виды текста.

Ключевые слова. Виды текста, повествовательный текст, текст-рассуждение, описательный текст, навыки, компетенции.

Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'limda kommunikativ yondashuv asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mana shunday kommunikativ yondashuvlardan biri bu - matn turlari bilan ishlashdir. Matn turlari bilan ishlash - o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, tahliliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali vositadir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida matn turlarini o'rgatish. Ushbu bosqichda matn turlarini o'rgatishdan maqsad o'quvchilarga matn nima ekanini tushuntirish, matnning asosiy turi (hikoya, bayon) bilan tanishtirish, matndan asosiy ma'noni ajratish, savollarga javob berish, qisqa matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'rta ta'lim bosqichida matn turlari bilan ishlash biroz murakkablashadi. Mazkur bosqichdagi matn turlarini o'rgatishdan maqsad matnni tahlil qilish, undagi kompozitsion qismlarni (kirish, asosiy qism, xulosa) ajratish, matn turlarining farqlarini o'rganish va o'rgangan har bir turga oid matnlar yaratish.

1. Hikoya matni va uning tahlili.

San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan o'zi g'uldurab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, ammo san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi - ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: "Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi?... Bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti... Amali - traktorist... Obbo!" (A.Qahhor)

Sarlavha: "San'atkor" yoki "Tanqiddan so'ng".

Asosiy fikr: mahoratsiz san'atkorning tanqidga chiday olmaganligini ko'rsatish.

Matn turi: hikoya matni.

Ijodkor mahorati: san'atkorning xulqi va nutqidagi o'ziga xoslikni tasvirlash.

Matnning tili: qilg'ulari kepti, mexaylistik, traktorist...

Xulosa: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat".

1. Tasviriy matn va uning tahlili.

Yomg'ir ostida daraxt shoxiga chiqib olib, osmonga qarab qichqirgisi keladi kishining.

Qiziq, qushlar yomg'irda qochib ketishmaydi. Qarg'a, zog'cha, qaldirg'och bemalol uchadi. Chumchuq bilan musicha berkinib oladi.

Yomg'ir yog'ganda ham yoqimli, ham haybatli ohang yaraladi. Har narsa ayri un chiqara boshlaydi. Tol yoniga borsangiz, dayo shovullashini eshitasiz, sababi uning barglari uchli, uzunchoq, xuddi qayiqchaga o'xshaydi. Yomg'ir suvi ulardan oqib pastga quyiladi. (Isajon Sulton)

Sarlavha: "Yomg'ir mo'jizasi", "Yomg'ir va tabiat".

Asosiy fikr: tabiat hodisasini tasvirlash.

Matn turi: tasviriy matn.

Ijodkor mahorati: sichkovlik bilan kuzatish natijasida tabiat parchalariga jon bag'ishlangan.

Matnning tili: ohang-un, yoqimli- haybatli, qushlar, daraxtlar tasviridagi sifatlar.

Xulosa: "Yomg'ir ham kuylaydi". [1:75]

2.Muhokama matni va uning tahili.

Rivoyat qilishlaricha, bir odam daryo yoqalab ketayotib, kattakon yombi topib oldi. Qo'ynidan yong'og'ini olib, chaqmoqchi bo'lib uringan edi, yombi bir necha bo'lakka bo'linib ketdi."Yaltiroq bo'lgani bilan hech nimaga yaramas ekan-ku",-deya afsuslanib, uni otib yubordi-da, qirg'oqda qalashib yotgan oddiy toshlardan biri bilan yong'oqni chaqib yedi hamda murod-maqsadiga yetib, o'z yo'liga ravona bo'ldi. (Isajon Sulton)

Sarlavha:"Har kim ehtiyojiga yarasha" yoki "Zar qadri".

Asosiy fikr: ehtiyoj va talabning voqelik bilan bog'liqligi yuzasidan mushohada yuritish.

Matn turi: muhokama matni.

Ijodkor mahorati: rivoyat orqali qahramonning aql darajasi, hayot tarziga ishora qiladi.

Matnning tili: yombi- oltin bo'lagi, quyma oltin.

Xulosa:" Farosatga yarasha mukofot".[1:76]

O'zbek tilini o'qitishga oid metodik tadqiqot ishlarda matn ustida ishlash, bog'lanishli nutq tuzish ko'nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari yuzasidan metodist olimlarning turli qarashlari bayon etilgan. Jumladan, metodist olim T.Ziyodovanning umumta'lim maktablarida ona tili darslarida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishida matn yaratishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, matn yaratishning 4 bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni ona tili ta'limi amaliyotiga joriy etish masalasi. [2:46] Toshxo'jayeva esa "Matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari" mavzusidagi tadqiqot ishida matn mazmunini qayta hikoya qilishga tayyorlashda o'zbek tili o'qituvchilari nimalarga e'tibor qaratishlari kerakligi xususida alohida to'xtalib, "Matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etish o'quvchida ma'lum darajada gap tuzish malakalari aniqlangan paytdan belgilanadi. Lekin buning uchun muayyan poydevor yaratilgan bo'lishi zarur. Poydevor qancha vaqt oralig'ida paydo bo'lishi lug'at bilish hamda gap tuzishga o'rgatish samaradorligiga, bu ishlarning nechog'li to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq" ekanligini, amaldagi darsliklarda matn mazmuni yuzasidan o'tkaziladigan savol-javoblar aksariyat hollarda darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirish, tayyor javoblarni o'qib berish asosida olib borish kabi samarasini kam ish usullaridan foydalanilishini ta'kidlab o'tadi.[3:95]

G'.Hamroyev fikricha esa, hozir respublika miqyosida amalda bo'lgan maktab darsliklaridagi mashqlar va o'quv topshiriqlarining funksiyalarini aniqlashtirish kerak, ularning aksariyati DTSda belgilangan talablarga mos kelmaydi deb ta'kidlaydi.

Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlari masalasida tadqiqot ishi olib borgan G'.Hamroyev yana, o'quvchilarda matn tuzish ko'nikmasini shakllantirishda asosiy diqqat-e'tiborni matnda qo'yilgan tinish belgilarning qo'llanilish sabablarini izohlang, matnni mazmuniga putur yetkazmay qisqartiring, hikmatni matnga aylantiring, turli mavzudagi maqol va hikmatlarni bir umumiy mazmunga birlashtiring, tarjimayi hol matnini tavsifnomaga aylantiring, berilgan 10ta jumla bilan so'zlar takrorisiz, bexato va yorqin ifoda qiling, so'zlarni ularning ma'nodosh muqobillari bilan almashtiring, gaplarning shakli va mazmunini o'zgartiring, matnni kengaytirng yoki ixchamlang, matnga qo'shimcha ma'lumotlar kiriting, matnga kirish so'z kiriting, ilmiy matnni badiiy matnga aylantiring, matnni xulosalang kabi topshiriqlarga qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. [4:69]

Xulosa qilib aytganda, turli ta'lim bosqicharida matn turlarini o'rgatish o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi zarur. Har bir bosqichda o'ziga xos yondashuv, metod va topshiriqlar tizimi bo'lishi kerak. Matn turlari bilan ishlash o'quvchilarda nafaqat til va nutq ko'nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, o'z fikrini aniq va ravon ifodalash malakalarini ham rivojlantiradi. Shuning uchun ham matn turlarini bosqichma-bosqich, tizimli va metodik asoslangan holda o'rgatish bugungi ta'limning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoyeva, S.Majidova. "Ona tili 11-sinf uchun darslik". "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020 -74,75,76-b.
2. T.Ziyodova .Matn yaratish texnologiyasi. Toshkent, Fan.-2008 46-b.
3. D.Toshxo'jayeva. Matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari: Ped. fan. nom. dis. -Toshkent-2000 -94-95-b.
4. D.Rahimboyeva."Ona tili ta'limida matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari" maqola. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi. ISSN 2992-9024 2024,N-6.

SIFATDA ALOQA-MUNOSABAT KATEGORIYALARINING VOQELANISHI

RIXSIBOYEVA SEVINCH FARXOD QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi” uchinchi bosqich talabasi

sevinchrixsiboyeva82@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifat va uning tasniflovchi kategoriyalari, belgi darajalari, sifatlarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqealanishi, matn va birikuvchi so‘zning semantikasiga bog‘liq ravishda turli-tuman grammatik ma‘no ifodalashi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Asliy, orttirma, morfologik shakl, geterogenlik, leksik usul, analitik shakl, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi, stilistik vosita.

Аннотация: В данной статье рассматриваются прилагательные и их классификационные категории, степени признаков, проявление категорий связи и отношений в прилагательных, а также выражение различных грамматических значений в зависимости от семантики текста и сочетаемых слов.

Ключевые слова: качественные и относительные прилагательные, морфологическая форма, гетерогенность, лексический способ, аналитическая форма, категория принадлежности, категория падежа, категория предикативности, стилистическое средство.

Annotation: This article discusses adjectives and their classificatory categories, degree of comparison and the realization of relation categories in adjectives, depending on the semantics of the text and word combinations, express various grammatical meanings.

Key words: original, comparative, morphological form, heterogeneous type, lexical method, analytical form, possessive category, case category, predicative category, stylistic device.

O‘zbek tili so‘z turkumlari tizimida sifat o‘zining leksik-semantik boyligi, grammatik shakllanishi va nutqdagi faol ishtiroki bilan alohida o‘rin egallaydi. Har qanday tilda predmetning belgisini ifodalash, uni boshqa predmetlardan ajratish, tavsiflash ehtiyoji mavjud bo‘lib, bu ehtiyoj sifatlar yordamida amalga oshiriladi. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatlar tilning ifodaviy imkoniyatlarini

kengaytirish, obraz yaratish, hissiy-psixologik holatni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi mustaqil so'z sifat deyiladi: qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq. Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul qizil deganda turg'un (statik) belgi, Gul qizardi deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, qizg'ish - qizil - qip-qizil. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi. Shu asosda sifatning UGMsini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish» ko'rinishida tiklash mumkin.

Daraja kategoriyasi (qisq. DK) «sifatda belgi darajasi» UGMsiga ega. Daraja turli (geterogen) shakl yordamida hosil qilinadi: {chiroyli} - (chiroyliroq) - {juda chiroyli}. Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashiga ko'ra uch daraja ajratiladi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; d) ozaytirma daraja. Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda DK UGMsi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» tarzida yuzaga chiqadi: {yaxshi}, (qattiq), (semiz), {keng}, {baland}, {to'g'ri}, {yumshoq} kabi. Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqqligi, kuchliligini ifodalab, DK UGMsini «belgining me'yordan ortiqqligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi.

Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega emas. DK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi: 1. Fonetik usul. Uning bir necha ko'rinishi bor: a) {qop-qora}, (yapyapaloq), {dum-dumaloq}; b) urg'uli tovushning cho'zilishi: {u 'zun}, (bala 'nd), {chiro 'yli}. 2. Leksik usul: (juda kuchli), (g'oyatda qo'rqinchli), (nihoyatda baland). Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qo'llash orqali hosil qiladi: (uzundan uzzoq), (shirindan shirin).

Ozaytirma daraja DK UGMsini «belgining me'yordan kamligini ifodalash» ko'rinishida xususiylashtiradi. Bu ma'no ikki usul bilan yuzaga chiqadi: 1. Leksik usul: (sal durust), (bir oz yaxshi), (xiyol ochiq).

2. Morfologik usul: (kattaroq), (ko 'proq), (ozroq). Eslatma. Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi -(i)sh, - (i)mtir affikslari beiginig kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, oqish so'zi oq rangning, qoramtir soz qora rangning kuchsiz

darajasi emas, balki oq, qora boimagan, ularga o'xshash bo'lgan rang turlari. Sifat turkumida sintaktik kategoriya keng boimagan voqelanishga ega.

Egalik kategoriyasi. Sifat turkumi EK UGMsini «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib olamiz. Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan boglanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QK dagi so'z bilan keladi: olmaning qizili, odamning aqllisi EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qollanilishi mumkin: odamlardan aqlisL EKdagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga olib ketadi: (odamning) yaxshisi. EKning birlik va ko'plik shakli qollanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: aqllingiz, ko'pimiz. Bu jihatdan III shaxs egaiik affiksi farqlanadi: nodont, rangdori.

Kelishik kategoriyasi. KK sifatda EK bilan birga qo'llanadi. BKdagi sifat ega vazifasida keladi:

1. Ukamning kichigi - o'qituvchi. 2. Darvoza tepasiga shoxning kattasi qo'yilgandi, QKdagi sifatda KK UGMsi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga boglash» tarzida xususiylashadi: Inson yalqovining bahonasi ko'p. (J. Abd.) TKdagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGMsining sifat turkumidagi xususiylashuvi: Gulning qizilini ajratdi. ChK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi. ChKdagi sifatning vazifalari: a) vositali toidiruvchi: Qarzni odamning yaxshisidan so'rang. («Saodat».) b) o'rin holi: Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi. (P.Qod.) d) sabab hoii: Piyozi achchig'idan ko'zlari qizardi. (M.Muh.) JKdagi sifat ish-harakat yo'nalgaii predmetni belgisi bilan anglatadi: og'iriga, yaqiniga. JKdagi sifat gapda toidiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. Qizning ko'zlarining qorasiga havaslanib boqdi. 2. Bola hovuzning tepasiga yugurdi. Ko'rinadiki, JK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi feiga vositali toidiruvchi va hol vazifasida boglash» tarzida xususiylashtiradi. O'PK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi so'zga vositali toidiruvchi va hol vazifasida

bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rne, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi: Odamning pismig'ida gap ko'p.

Kesimlik kategoriyasi bog'lama. Kesimlik kategoriyasi sifat turkumida ham o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko'rinishga ega boiadi: a) hozirgi zamon ko'rinishi; b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi. Ko'p hollarda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi. Bog'lama kesimlik kategoriyasini sifat va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, bo'l, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq kabi mustaqil fe'l sifatda ham bog'lama vazifasini bajaradi. Kesimlik kategoriyasining sifat turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishi quyidagi tusga ega bo'ladi: Yoshi kattasi+man. Yoshi kattasi +miz. Yoshi kattasi+san Yoshi kattasi +siz Yoshi kattasi+Yoshi kattasi +(lar) -man, -san, -miz, -u, -lar kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bolishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: Yoshi kattasi emasman, Yoshi kattasi emassan. Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi; Men yoshi kattasi kabi. O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi toliqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'zlar bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi. Yoshi kattasi+edim Yoshi kattasi+edik Yoshi kattasi+eding Yoshi kattasi+edingiz Yoshi kattasi+edi Yoshi kattasi +edi(lar) Bunda ikki shakl (edi va shaxs/son) kesimlikning to'rt tur ma'riosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi. Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib, uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin; Yoshi kattasi+bo'laman (bo'ldim). Misollar; Men shu zavodga ishga kirganlarning eng yoshi bo'ldim (o'tgan zamon). Men shu zavod ishchilarining tajribalisi bo'laman (hozirgi zamon). Sen shu zavod ishchilarining eng yoshi bo'lasan (kelasi zamon). Sanaladi, hisoblanadi so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib, sifatga kesimlik kategoriyasini moslaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sifatlar til boyligini, ifoda quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Ular grammatika va stilistik jihatdan rang-barang shakllanadi hamda matnni obrazli, ifodali va ta'sirchan qiladi. Ayniqsa, adabiy nutqda sifatlar muhim stilistik vosita bo'lib, asar estetik qimmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, L.R.Raupova, M.M.Qurbonova, M.Q.Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili-Toshkent: O'qituvchi-2020.
2. Jo'rayev N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

3. To'xtaxo'jayev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
4. O'zbek tili izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

NUTQNING SOTSIAL- DIFFERENSIAL FARQLANISHI

SAYFIYEVA DILDORA O'TKIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada nutqning sotsial-differensial farqlanishi tushunchasi, uning asosiy sabablari va omillari o'rganilgan. Nutq shakllari, talaffuzi va leksikasining ijtimoiy tabaqa, kasb, yosh, jins, hudud kabi ijtimoiy faktorlar asosida qanday farq qilishi tahlil qilingan. Misollar yordamida nutqdagi farqlarning ijtimoiy identifikatsiyadagi o'rni ko'rsatildi

Kalit so'zlar: Nutq, sotsial-differensial farqlanish, ijtimoiy tabaqa, kasb, yosh, jins, dialekt, sotsiolingvistika, til madaniyati, ijtimoiy identifikatsiya, omil, "cheklangan kod", "kengaytirilgan kod"

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие социально-дифференциальной дифференциации речи, её основные причины и факторы. Анализируются различия в речевых формах, произношении и лексике в зависимости от социальных факторов, таких как социальный класс, профессия, возраст, пол и регион проживания. На примерах показана роль речевых различий в социальной идентификации.

Ключевые слова: Речь, социально-дифференциальная дифференциация, социальный класс, профессия, возраст, пол, диалект, социоллингвистика, языковая культура, социальная идентификация, фактор, «ограниченный код», «расширенный код»

Nutq – insonning asosiy muloqot vositasi bo'lib, u jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasidagi aloqalarni tashkil etadi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab omillarga, jumladan, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va demografik omillarga bog'liq. Shu bois, nutqning sotsial-differensial farqlanishi - tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada nutqning ijtimoiy farqlanishi nazariy asoslari, sabab va omillari hamda misollar yordamida tahlil qilinadi. Sotsial-differensial farqlanish deganda, nutq shakllari, uslublari, talaffuzi va leksikasi

jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, sinflar, yosh, jins va boshqa ijtimoiy omillarga qarab farq qilishi tushuniladi. Ya'ni, nutq nafaqat shaxsning shaxsiy xususiyati, balki uning ijtimoiy mavqeini, ta'lim darajasini, kasbini va yashash muhitini aks ettiradi.

Nutqning ijtimoiy differentsiallashtirish deganda bir xil jinsdagi, yoshdagi yoki ijtimoiy guruhdagi odamlarning nutqida ham sezilarli farqlanishlar mavjudligini tushunish lozim.

Bu farqlanishlar ijtimoiy o'rni, kasbi, ta'lim darajasi, geografik joylashuvi, shaxsiy xususiyatlari kabi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Nutqning ijtimoiy differentsiallashtirish tilning dinamik va o'zgaruvchan xususiyatini ko'rsatadi.

Ijtimoiy differentsiallashtirishga ta'sir qiluvchi omillar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy holat: Yuqori ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga mansub kishilar ko'pincha nutqning «standart» variantidan foydalanadilar, bu esa ularning nutqini boshqalardan ajratib turadi.

2. Kasbiylik: Har bir kasbning o'ziga xos nutq uslubi mavjud bo'lib, ular turli so'z boyligi, jargonlar va nutq tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

3. Yosh guruhi: Yoshlarning nutqi, odatda, yangi so'zlar va ifodalardan iborat bo'lib, kattalar nutqidan farq qiladi.

4. Geografik joylashuvi: Hududiy lahjalar nutqning ijtimoiy differentsiallashtirishining muhim jihatidir, chunki turli hududlardagi odamlar o'ziga xos talaffuz, so'z boyligi va grammatik tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin.

5. Shaxsiy xususiyatlar: Shaxsiy xarakter, intellektual rivojlanish darajasi, qiziqishlar va tarbiya ham nutqning differentsiallashtirishiga hissa qo'shadi.

Nutqning ijtimoiy differentsiallashtirishining ahamiyati

1. Tilning rivojlanishi va boyishiga ta'siri

Ijtimoiy differentsiallashtirish – jamiyatdagi turli guruhlar, yosh, jins, kasb, ijtimoiy mavqe, hududiy yashash joyi va boshqa omillarga qarab tilning (yoki nutq uslublarining) farqlanishi holatidir. Bu jarayon tilning: boyishiga, ya'ni yangi so'zlar, iboralar, jargonlar va lahjalarning paydo

bo'lishiga; moslashuvchanligiga, ya'ni turli ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda tilning o'zgarishiga xizmat qiladi.

Masalan, shahar va qishloq aholisi nutqida farqlar bo'lishi mumkin. Yoki yoshlar guruhi o'ziga xos slengdan foydalansa, katta yoshdagi insonlar rasmiyroq va an'anaviy til shakllarini qo'llaydilar. Bu farqlar umumiy til taraqqiyotini belgilab beradi.

2. Tilshunoslikda chuqur tadqiqotlar olib borish imkoniyati

Tilshunoslar uchun ijtimoiy differensiallanish: tilning ichki dinamikasi, ya'ni qanday o'zgarishi, qanday shakllanishi va ijtimoiy guruhlar o'rtasida qanday tarqalishini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

sotsiolingvistika sohasida, ayniqsa, bu hodisa asosiy tadqiqot obyektidir. Tilshunoslar turli ijtimoiy qatlamlar tilida uchraydigan o'ziga xosliklarni aniqlab, til siyosati, ta'lim tizimi yoki ommaviy axborot vositalari uchun muhim tavsiyalar ishlab chiqadilar. Shu orqali tilshunoslar til va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni yaxshiroq tushunadilar.

3. Ijtimoiy munosabatlar va madaniy tafovutlarni o'rganish

Nutqning ijtimoiy differensiallanishi orqali: ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farqlar (masalan, boy va kambag'al qatlamlar, shaharlik va qishloqliklar, oliy ma'lumotli va oddiy ishchilar) tahlil qilinadi.

Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar, madaniy murosulashuv kabi muhim ijtimoiy tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Til orqali insonlarning ijtimoiy mavqei, identiteti (shaxsiy yoki guruhga mansubligi) ifodalanadi. Masalan, biror kishining qanday so'zlardan foydalanishi uning qanday guruhga mansub ekanligini ko'rsatishi mumkin.

4. Ta'lim va til siyosatida qo'llanilishi

Nutqdagi ijtimoiy tafovutlarni o'rganish orqali: ta'lim tizimida tilning standart shaklini o'rgatish bilan birga, o'quvchilarning lingvistik xilma-xilligini hurmat qilish mumkin; davlat miqyosida til siyosatini yuritishda, ya'ni rasmiy til, mintaqaviy tillar, lahjalar va tillarni saqlash siyosatini ishlab chiqishda foydalidir.

5. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish

Ijtimoiy differensiallanish tilda tarixiy, madaniy va mintaqaviy xususiyatlarni saqlab qolishga yordam beradi. Har bir guruh, qatlam yoki hudud o'zining nutqiy xususiyatlari orqali o'z madaniyatini, qadriyatlarini va dunyoqarashini namoyon etadi. Bu esa: lingvistik xilma-xillikni qadrlashga; madaniy merosni ilmiy va amaliy yo'l bilan saqlashga xizmat qiladi.

Nutqdagi sotsial-differensial farqlanishga oid nazariyalar

1. William Labovning sotsiolingvistik yondashuvi:

Labov nutqni jamiyatdagi ijtimoiy sinflar va guruhlar o'rtasidagi farqlanishning o'lchovidir deb hisoblaydi. U shahar nutqlari orqali tilning sotsial farqlanishini tahlil qilgan. Masalan, Nyu-Yorkdagi turli ijtimoiy sinflar nutqidagi talaffuz farqlarini o'rganib, tilning ijtimoiy identifikatsiya vositasi ekanini ko'rsatgan.

2. Basil Bernsteinning kod nazariyasi:

Bernstein nutqni “cheklangan kod” va “kengaytirilgan kod” shakllarida tasniflaydi. Cheklangan kod ko‘proq past ijtimoiy sinflar nutqida uchraydi, unda so‘z boyligi va murakkabligi cheklangan bo‘ladi, kengaytirilgan kod esa yuqori sinflar nutqiga xos bo‘lib, unda fikrlar yanada aniq va batafsil ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqning ijtimoiy differentsiallashtirishi – bu shunchaki tilning turli ko‘rinishlardagi farqlanishi emas, balki jamiyatning tuzilishi, qadriyatlari va madaniyatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Bu holat:tilning rivojlanishini rag‘batlantiradi,tilshunoslik fanining taraqqiyotiga turtki beradi,ijtimoiy munosabatlarni chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi, va jamiyatdagi madaniy hamjihatlikka xizmat qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev, N. (2010). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Zikriyozoda,N. & Karimova, G. (2016). Sotsiolingvistika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. G‘afurov, N. (2005). O‘zbek tilining ijtimoiy uslublari. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Mahmudov, N. (2002). Zamonaviy o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O ‘zbekiston.
- 5.Xudoyberganova, D. (2008). Til va jamiyat: Sotsiolingvistik o‘rganishlar. Toshkent: Fan.

SO'ROQ GAPLAR HAQIDA MA'LUMOT (O'TKIR HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)

REIMOVA OLTIN FAXRIDDIN QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 3-kurs

oltinoyreimova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'roq gaplarning turlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. . Ritorik so'roq gaplarning turlari. O'tkir Hoshimov asarlarida so'roq gaplarning qo'llanilishi misollar orqali ko'rsatib berilgan,

Аннотация: В данной статье представлена полная информация о типах вопросительных предложений. Виды риторических вопросительных предложений. На примерах показано использование вопросительных предложений в произведениях Откира Хошимова.

Kalit so'zlar: so'roq, so'rq-buyruq gaplar, ritorik so'roq gaplar, olmosh, so'roq yuklamasi, intonasiyasi.

Ключевые слова: вопрос, вопросительные предложения, риторические вопросительные предложения, местоимение, вопросительная нагрузка, интонация.

So'roq belgisi — gap oxirida qo'llanadigan tinish belgilaridan (?). Bu belgi asosan mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi va shu gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Kecha nima ovqat yeganding? Gapni chalg'itish kerakmi, axir? Nega shunqa? Hafa ko'rinasiz?. Bu belgi o'zbek tiliga rus tilidan kirgan, 19-asr oxirlaridan. "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida ayrim matnlarda qo'llana boshlagan. So'roq belgisi o'zbek adabiy tilida quyidagicha qo'llanadi: 1. Sof so'roq gaplar (sodda yoki qo'shma) evositalar : so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari ishtirok etishi. So'roq olmoshlari; kim?, Bu nima?, Qachon oldingiz?, Nimaydi?, Nima deb qo'yay?, Qayerda bo'lasiz deyman? Nega berarkanman?. Keyingi holatda so'roq ma'nosi yozuvda so'roq belgisi bilan, og'zaki nutqda ohang bilan ifodalanadi (Soat besh bo'ldi. — Soat besh bo'ldi?). 2. Taqrizlarda, iqtiboslarda biron so'z yoki jumla noaniq bo'lsa, xato qo'llansa, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, o'sha so'z yoki jumladan so'ng qavsga o'ragan holda qo'yiladi. Ba'zan jumladagi xato juda qo'pol bo'lsa, So'roq belgisi qo'sha qo'llanishi

mumkin. 3. So'roq tipidagi sarlavhalardan keyin qo'llanadi: Teatr yoshlarga nima berdi? Huquqiy me'yorlarni bilasizmi? Ritorik so'roq gaplar oxirida ba'zan so'roq va undov belgilari qo'sha qo'llanadi: Dunyoda onadan ulug' zot bormi?!, Aqalli o'n-o'n besh yil avval qayoqda eding?!, Qachon ulgirding xumpar?!.

So'roq-buyruq gaplar. Buyruq mazmunini ifodalovchi gaplar so'roq-buyruq gap hisoblanadi. So'roq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuni buyruq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuniga nisbatan mayinroq bo'ladi. Masalan: – Pochchangga salom bermaysanmi? (O'.Hoshimov) Shaklan so'roq gap hisoblangan ushbu gap mazmunida “pochchangga salom ber” buyruq ma'nosi ham ifodalangan. – Hoy, menga qarang, xola kelingizga atlas olib qo'ymaysizmi?

Nahot, nahotki kabi yuklamalar yordamida: Nahotki bugun yomg'ir yog'sa?

Bunday vositalar bilan hosil qilinadigan so'roq gaplarda taajjub shubha ottenkalar ham fodalalanadi.

So'roq intonasiyasi katta rol o'ynaydi.

Masalan: Bugun dam olaman.

Bugun dam olaman?

Ba'zan so'roq gaplarning kesimi sostavida - (a) grafikasi va kerak, shekilli, muncha, balki kabi so'zlar bo'ladi. Bu tip so'roq gaplarda intonasiya rol o'ynaydi.

Masalan: Iye, tanimadilar shekilli, kuyuv?

Chaqarning lag'moniga bormay qo'ydik-a?

So'rash ma'nosi ta'kidlangan so'roq gaplarda grammatik vositalar birdan ortiq bo'lishi ham mumkin

Masalan: Nacha yoshga kirgan edim-a?

Dadam qayda-a?

Yuklama — yordamchi so'zlarning bir turi; ayrim gap bo'lagiga yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadi. Hozirda o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga qo'shilganda anglatadigan ma'nolariga ko'ra Yuklamaning quyidagi turlari farqlanadi: so'roq va taajjub Yuklamalari (mi, chi, a, ya), asosan, gapni so'roq gapga aylantiradi: Masalan; Qizimi? Rostanmi? Xotinxo'jani aytmaysizmi? Soviqmi? Kalitni boshiga urasanmi? Ko'k choy damlaymi, qora choymi?, Bu Olimovning uyimi?,

Ritorik savol — berilayotgan insonga javobi shundoq ayon bo'lgan, javob berish shart bo'lmagan yoki javobi kutilmaydigan savol. Bunday savol, odatda o'z ichiga javobini ham olgan bo'ladi. O'zbek tilida ritorik savollar yozma ko'rinishda oddiy savoldan farq qilmaganligi bois, oddiy savoldek qabul qilinishi va savolni eshitgan inson javob berishi mumkin. Masalan; Siz hayotiy problemalargayam aralashasizma

yo nuqul kitob yozaverasizmi? "Dunyoning ishlari" asaridagi bu gap esa, siz hayotiy problemalargayam aralashing, degan mazmundagi buyruq manosi mavjud. Bunaqa misollar adabning asarlarida ko'p.

Ma'no jihatdan kelib chiqib, ritorik savol so'roq belgisi (?), nuqta (.) yoki undov belgisi (!) bilan tugashi mumkin. Lekin manbalarning tasdiqlashicha, so'roq belgisi ritorikmi yo'qmi, har qanday savol uchun qo'llanadi. Masalan; Nega baqirasan?!, Nima bo'ldi?!, Voy, Adol, o'zingmisan?!, Menmi?

Ko'pincha ritorik so'roq gaplar takibida nahotki, axir so'zlari keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishi, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi. Ritorik so'roq gaplarning quyidagi ma'nolarni ifodalovchi 7 ta turi mavjud:

- 1) Ritorik-tasdiq;
- 2) Ritorik-inkor;
- 3) Ritorik-taajjub;
- 4) Ritorik-tashvish;
- 5) Ritorik-g'azab;
- 6) Ritorik-gumon;
- 7) Ritorik-kuchli hayajon.

Xulosa. So'roq gaplar tildagi muhim sintaktik birliklardan biri bo'lib, ma'lumot olish, fikr so'rash, holatga aniqlik kiritish kabi maqsadlarni amalga oshiradi. Ular faqatgina grammatik tuzilma emas, balki insonlar o'rtasidagi muloqotning, adabiy asarlarning ham muhim vositasidir. So'roq gaplar suhbatni jonlantiradi, o'quvchini o'ylashga undaydi, qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. O'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimov so'roq gaplardan mahorat bilan foydalangan yozuvchilardan biridir. O'tkir Hoshimov asarlarida so'roq gaplar turli vazifalarni bajaradi. Ular personajlarning o'ziga savol berishi orqali ularning ichki dunyosini, dilemmalarini va kechinmalarini ochib beradi. Qahramonlar hayotiy muhim qarorlar oldida turganida, o'ziga "To'g'ri qilyapmanmi?", "Nima qilishim kerak?", "Bu yo'l meni qayerga olib boradi?" kabi savollarni beradi. Bu savollar o'quvchiga qahramonning ruhiy holatini chuqurroq his qilishga yordam beradi. O'tkir Hoshimov dialoglarida so'roq gaplar shunchaki ma'lumot olish uchun emas, balki emotsional ta'sir o'tkazish, qarama-qarshilikni kuchaytirish yoki ironiya yaratish uchun ham ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayxislamov, N Ona tili darslarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish. The 21st Century Skills for Professional Activity, 2021.
2. Shayxislamov, N Ona tili darslarida filologik mashqlarning tutgan o'rni. Тилни ўқитиш ва ўргатишда XXI аср кўникмалари, 2021.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. «O'qituvchi », Toshkent. 1995.
4. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. «Universitet », Toshkent 2014.
5. Yo'ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2007.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma, «Fan va texnologiya», Toshkent. 2009.

QO'SHMA GAP TARKIBINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

RUSTAMOVA MARJONA ALISHEROVNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

Tel:+998949175202

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vositalarning mohiyati va ularning tilshunoslikdagi o'rni yoritilgan. Bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar hamda intonatsiyaning qo'shma gap tarkibida qanday vazifa bajarishi ilmiy asoslangan holda izohlangan. Shuningdek, gaplar orasidagi semantik munosabatlarni belgilashda ularning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'shma gap, bog'lovchi vositalar, bog'lovchilar, intonatsiya, semantik munosabat.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность средств связи в составе сложных предложений и их место в языкознании. Обоснованно объясняются функции союзов, слов в роли связующих элементов и интонации в структуре сложного предложения. Также раскрывается их значение в выражении семантических отношений между частями предложения.

Ключевые слова: Сложное предложение, средства связи, союзы, интонация, семантические отношения.

Annotation: This article explores the nature of cohesive devices in compound sentences and their role in linguistics. It provides a well-grounded explanation of the functions of conjunctions, linking words, and intonation within compound sentence structures. The significance of these devices in expressing semantic relations between clauses is also highlighted.

Keywords: Compound sentence, cohesive devices, conjunctions, intonation, semantic relations

Tilning sintaktik tizimi o'z ichiga turli darajadagi birliklarni qamrab oladi. Gap sintaksisi bu birliklar ichida eng yirik va murakkab qatlamlardan biri hisoblanadi. Gaplarning o'zaro munosabatlari, mazmuniy bog'liqligi va grammatik uyg'unligi natijasida qo'shma gaplar shakllanadi. Qo'shma gapning mohiyati shundaki, u bir nechta sodda gaplarning ma'lum vositalar yordamida yaxlit nutqiy birlik sifatida birikishidan hosil bo'ladi. Shu jarayonda qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vositalarning vazifasi nihoyatda muhimdir.

Qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalar bir necha turga ajratiladi. Eng avvalo, bog'lovchilar asosiy sintaktik vosita sifatida ko'zga tashlanadi. Ular yordamida gaplar o'zaro grammatik va semantik jihatdan bir butunga birlashtiriladi. Bog'lovchilar orqali qo'shma gapda turli munosabatlar — qo'shilish, zidlik, sabab-natija, shart, payt, maqsad va boshqa aloqalar ifodalanadi. Masalan, (va, ham, -da) bog'lovchilari birikkan gaplar orasida qo'shilish munosabatini bildirsa, (lekin, biroq, ammo) zidlikni ifodalaydi. Sabab va natija munosabatlarini ko'rsatishda (chunki, shuning uchun, shu sababli) kabi vositalar ishlatiladi. Demak, bog'lovchilar qo'shma gap tarkibida grammatik aloqaning bosh vositasi sanaladi.

Bog'lovchi vositalarning ikkinchi muhim turi bu bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlardir. Ular ko'pincha olmoshlar, ravishlar yoki ko'rsatkich birliklar shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, (shunda, shuning uchun, shunda ham, shunda-da, qachonki, qaerda) kabi birliklar nafaqat bog'lovchi, balki semantik ko'rsatkich sifatida ham xizmat qiladi. Bu so'zlar gaplar orasidagi munosabatni mustahkamlaydi va mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

Intonatsiya ham qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Ba'zi hollarda gaplarning ma'nosini to'liq anglash uchun ularning ohang birligi muhim bo'ladi. Intonatsiya yordamida gaplar o'rtasida bog'lanish hosil qilinadi, pauza, urg'u va ohang farqlari orqali ularning mantiqiy aloqasi belgilanadi. Bu holat ayniqsa bog'lovchisiz qo'shma gaplarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, (Havo sovuq edi, odamlar ko'chada kam edi) kabi tuzilmada gaplar bog'lovchisiz, faqat intonatsiya orqali birikadi.

Qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vositalar nafaqat grammatik jihatdan, balki nutqning mazmuniy, uslubiy va kommunikativ jihatlarida ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali matnda izchillik, mantiqiylik va bog'liqlik ta'minlanadi. Bunday vositalar nutqni mazmunan boyitib, uni tinglovchi yoki o'quvchi uchun tushunarli qiladi. Tilning badiiy, ilmiy, publitsistik va og'zaki nutq turlarida qo'shma gaplarning qo'llanilishi turlicha bo'lsa-da, ularning asosiy bog'lovchi mexanizmi bir xil tamoyillarga asoslanadi.

Qo'shma gap tarkibini bog'lovchi vositalar tilning sintaktik tizimida muhim o'rin tutadi. Ular gaplar orasidagi grammatik aloqani ta'minlabgina qolmay, balki mazmuniy munosabatlarni ham ochib beradi. Bog'lovchilar orqali qo'shilish, zidlik, sabab-natija, shart va payt munosabatlari ifodalanadi, bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar mantiqiy izchillikni mustahkamlaydi, intonatsiya esa nutqda ohang uyg'unligini yaratadi. Shu jihatdan qaralganda, qo'shma gaplarni o'rganishda bog'lovchi vositalarni alohida tahlil qilish, ularning grammatik va semantik

xususiyatlarini chuqur o'rganish tilshunoslik nazariyasi va amaliyotida dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur vositalar tilning boy imkoniyatlarini namoyon qilib, nutqni yanada mazmunli, ravon va ta'sirchan qiladi.

Qo'shma gaplardagi bog'lovchi vositalar nutqning tuzilishida sistemalilikni ta'minlab, fikr ifodasini mantiqan to'liq qiladi. Har bir bog'lovchi vosita o'zining ma'no soyasiga ega bo'lib, gaplar o'rtasidagi semantik aloqani aniqlaydi. Qo'shma gaplar orqali murakkab fikrlarni ifodalash imkoniyati kengayadi, bu esa tilning fikrni ifodalash kuchini oshiradi. Til tizimida bog'lovchi vositalarning to'g'ri qo'llanishi nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Har bir bog'lovchi vosita o'z o'rnida ishlatilganda, matnning izchilligi va ohangdagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ma'no aloqasi ko'proq ohang va mazmuniy yaqinlik orqali ta'minlanadi.

Har xil turdagi qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, ularning funksional imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Qo'shma gap tarkibidagi bog'lovchi vositalar fikrning oqimini to'g'ri yo'naltirib, matnning semantik tuzilishini mustahkamlaydi. Ular yordamida muallif o'z fikrlarini izchil bayon etadi va o'quvchiga mantiqiy bog'lanishni aniq sezdiradi.

Bog'lovchi vositalarning to'g'ri tanlanishi matn uslubiga mos ohang va ritm yaratadi.

Ularning noto'g'ri qo'llanishi esa mazmunni buzib, fikrlar orasidagi mantiqiy bog'lanishni susaytirishi mumkin. Shu bois, qo'shma gaplarni tuzishda bog'lovchi vositalarni to'g'ri tanlash va ularning ma'no nozikliklarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Qo'shma gaplarning shakllanishi va bog'lanish vositalarining xilma-xilligi tilning boy grammatik tizimini yaqqol namoyon etadi. Har bir tildagi qo'shma gaplar o'ziga xos qurilish va ifoda imkoniyatlariga ega bo'lib, bu tilning o'ziga xoslik darajasini belgilaydi.

Qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalarning ma'nodosh yoki uslubiy farqlari nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Ular orqali nafaqat grammatik aloqa, balki fikrlar orasidagi hissiy va mantiqiy uyg'unlik ham ta'minlanadi. Shu sababli, qo'shma gaplarni tahlil qilish tilning ichki qonuniyatlarini chuqur o'rganish va uni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Bog'lovchi vositalar yordamida fikrning oqimi izchil davom etadi va mazmuniy bo'linmalar o'rtasida uyg'unlik yaratiladi.

Qo'shma gaplarni to'g'ri tuzish nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sanaladi.

Har bir bog'lovchi vosita o'zining grammatik shakli va semantik yukiga ega bo'lib, fikrni turlicha yo'nalishda bog'laydi. Ayrim bog'lovchilar fikrni kuchaytirish yoki ziddlikni yanada ravshanroq ifodalashda qo'llanadi. Qo'shma gaplar tilda sababiy, shartli, payt va maqsad munosabatlarini aniq ko'rsatish imkonini beradi. Tilning sintaktik tizimida bunday tuzilmalar orqali fikrning murakkab tarmoqlanishi amalga oshadi. Qo'shma gaplarning o'rganilishi tilning mantiqiy va tuzilma jihatidan boyligini yoritib beradi.

Ular yordamida inson tafakkuri, voqelikni idrok etish shakli va nutq madaniyati o'z ifodasini topadi. Tilshunoslar uchun qo'shma gaplarning bog'lanish mexanizmini tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Har bir bog'lovchi vosita nutqdagi maqsad, ohang va uslubga qarab tanlanadi. Qo'shma gaplar adabiy, ilmiy va publitsistik uslublarda turlicha ifoda shakliga ega bo'ladi. Ularning mazmuniy tahlili matnda mantiqiy izchillikni va fikrning aniqligini ta'minlaydi. Shunday qilib, qo'shma gaplarning tuzilishi va bog'lovchi vositalarining xususiyatlarini chuqur o'rganish tilning ichki qonuniyatlarini anglashda muhim bosqich hisoblanadi.

Qo'shma gaplar yordamida nutqning mantiqiy ketma-ketligi va fikrning uzviy bog'lanishi ta'minlanadi. Bunday gaplar tilning sintaktik tuzilmasida eng yuqori bosqichni ifodalab, murakkab fikrlarni bir butun holda ifodalash imkonini beradi.

Bog'lovchi vositalarning to'g'ri tanlanishi matnda so'zlarning semantik uyg'unligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat grammatik aloqa vositasi, balki matnning uslubiy yaxlitligini ta'minlovchi unsur sifatida ham e'tirof etiladi. Qo'shma gapning to'g'ri tuzilishi tinglovchi yoki o'quvchi uchun fikrni aniq va ravshan idrok etish imkonini yaratadi.

Shu bois, qo'shma gaplarni chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, qo'shma gaplarni tashkil etuvchi bog'lovchi vositalar til tizimining muhim tarkibiy unsurlaridan biridir. Ularning har biri nutqda o'ziga xos vazifani bajaradi va fikrning to'liqligi, mantiqiyliigi hamda estetik ifodaviyligini ta'minlaydi.

Qo'shma gaplar orqali nutq yanada rang-barang, ifodali va ta'sirchan tus oladi.

Shunday qilib, bog'lovchi vositalarni o'rganish nafaqat grammatik bilimni, balki nutq madaniyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B. 145.
2. G'ulomov A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1980. – B. 212.
3. Rasulov R. O'zbek tilida qo'shma gaplar. – Toshkent: Universitet, 1995. – B. 178.
4. Jo'rayev M. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 196.
5. Karimov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – B. 233.
6. Sirojiddinov S. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 189.
7. Qodirov A. O'zbek tilida bog'lovchi vositalar tizimi. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 167.
8. Madrahimov N. Nutq sintaksisi va uslubiy imkoniyatlari. – Toshkent: Noshir, 2015. – B. 21

SO'Z BIRIKMASI SINTAKSISI**SAFARBOYEVA SEVINCH HAMID QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3– bosqich talabasi

Kirish

Til — jamiyatning eng muhim aloqa vositasidir. Har bir tilning ichki tizimi leksik, fonetik, morfologik va sintaktik darajalardan tashkil topadi. Ushbu tizimlardan biri bo'lgan sintaksis so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishini o'rganadi.

Sintaksisning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bu so'z birikmasidir. So'z birikmasi nutqda fikr ifodalashning asosiy qurilish materiali bo'lib, u gap tuzilishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tezisda so'z birikmasining mohiyati, turlari, tuzilishi va til tizimidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

1. So'z birikmasining ta'rifi va umumiy xususiyatlari So'z birikmasi — bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan bir-biriga bog'lanishidan hosil bo'lgan birlikdir. Masalan: yangi kitob, tez yugurmoq, katta uy, o'qituvchi bilan suhbat.

So'z birikmasi: grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi; bir butun ma'no ifodalaydi gapning qurilishida tayanch birlik sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, so'z birikmasi har doim ikki komponentdan iborat bo'ladi:

1. Bosh so'z (hokim so'z);

2. Tobe so'z (ergash so'z).

Masalan, katta uy birikmasida uy — bosh so'z, katta — tobe so'z.

2. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari

So'z birikmalari tuzilishiga qarab sodda va murakkab turlarga bo'linadi.

Sodda so'z birikmasi — ikki so'zdan tashkil topadi: yaxshi bola, kitob o'qimoq, tez yugurmoq.

Murakkab so'z birikmasi — uch yoki undan ortiq so'zlardan tuziladi: yangi o'zbek tili darsi, katta ko'p qavatli bino.

3. So'zlarning bog'lanish usullari

So'zlar o'zaro boshqaruv, moslashuv va bitishuv usullari orqali bog'lanadi.

1. Boshqaruv — bosh so'z tobe so'zning shaklini belgilaydi.

Masalan: kitobni o'qimoq, bolaga yordam bermoq.

Bu yerda o'qimoq fe'li tobe so'zning (-ni) qo'shimchasini talab qilmoqda.

2. Moslashuv — so'zlar grammatik jihatdan bir xil shaklda keladi, odatda egalik va kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

Masalan: mening daftari, sening uying.

3. Bitishuv — so'zlar hech qanday shakl qo'shimchasiz, yaqin joylashuv orqali bog'lanadi.

Masalan: yangi bino, oq bulut, katta shahar.

4. So'z birikmalarining ma'no turlari

So'z birikmalari ifodalaydigan ma'noga ko'ra ham turlicha bo'ladi. Ular quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

Aniqlovchi birikmalar: oq bulut, katta uy, yaxshi odam.

To'ldiruvchi birikmalar: kitob o'qimoq, xat yozmoq, suv ichmoq.

Hol birikmalar: tez yugurmoq, ertalab kelmoq, ovoz chiqarmay ishlamoq.

Bu turlar so'zlarning sintaktik vazifasi va ularning ma'no bog'lanishiga qarab farqlanadi.

5. So'z birikmasi va gap o'rtasidagi farq

So'z birikmasi va gap ko'pincha bir-biriga o'xshab ketadi, lekin ular sintaktik birlik sifatida farqlanadi:

Belgilar So'z birikmasi Gap

Maqsadi Fikr ifodalash uchun material To'liq fikr ifodalaydi

Tuzilishi Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z Kamida bitta ega va kesim

Intonatsiya Mustaqil intonatsiyaga ega emas Mustaqil intonatsiyaga ega

Misol yangi kitob Yangi kitob keldi.

Shunday qilib, so'z birikmasi gap tuzishning asosi bo'lib xizmat qiladi, ammo o'zi mustaqil fikr ifodalamaydi.

6. So'z birikmasining sintaktik ahamiyati

So'z birikmalari tildagi fikr qurilishining poydevori hisoblanadi. Ular orqali:

predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabat ifodalanadi;

gapning grammatik tuzilishi shakllanadi;

tilning ma'no tizimi boyiydi.

Tilshunolar fikricha (A. G'ulomov, S. Usmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar), so'z birikmasi gapning asosiy konstruktiv materiali bo'lib, u orqali tildagi grammatik qonuniyatlar amalda namoyon bo'ladi.

Xulosa

So'z birikmasi — sintaksisning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, tilning qurilishida muhim o'rin tutadi. U orqali so'zlar o'zaro grammatik bog'lanadi, ma'nolar

aniqlanadi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmasini o'rganish tildagi fikr ifodalash jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuning uchun sintaktik tahlilning birinchi bosqichi har doim so'z birikmasi darajasidan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. G'ulomov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. S. Usmonov. O'zbek tili sintaksisi asoslari. — Toshkent: Fan, 2005.
3. M. Asqarova. O'zbek tili nazariy sintaksisi. — Toshkent: Noshir, 2014.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: **O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.**

NUTQ USLUBLARI VA O'QITISH METODIKASI**XUDAYAROVA LAZZAT XUTLIMURAT QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya: mazkur tezisda nutq uslublarning mohiyati, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'qitish metodikasi tahlil qilinadi. Unda tilning inson tafakkuri, ma'naviyati va madaniyatidagi o'rni yoritilib, adabiy nutq me'yorlariga rioya etishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, o'zbek tilidagi asosiy besh nutq uslubi — so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik va badiiy uslublarning o'ziga xos jihatlari, ularni o'quvchilarga o'rgatishning samarali usullari keltirilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: nutq uslublari, adabiy nutq, uslubiyat, nutq madaniyati, o'qitish metodikasi, ona tili, interfaol metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность речевых стилей, их особенности и методы обучения. Раскрывается роль языка в духовном и культурном развитии человека, подчёркивается значение соблюдения норм литературной речи. Анализируются пять основных речевых стилей узбекского литературного языка — разговорный, научный, официально-деловой, публицистический и художественный. Особое внимание уделено эффективным методам обучения этим стилям в школе, а также использованию современных педагогических технологий для формирования культуры речи учащихся.

Ключевые слова: речевые стили, литературная речь, стилистика, культура речи, методика преподавания, родной язык, интерактивные методы.

Annotation: this article examines the nature of speech styles, their distinctive features, and effective teaching methodologies. It highlights the role of language in human thought, spirituality, and culture, emphasizing the importance of adhering to literary language norms. The study analyzes five main Uzbek literary speech styles — conversational, scientific, official-business, publicistic, and artistic — and presents methods for teaching them in schools. The article also discusses the application of modern pedagogical technologies and interactive methods in developing students' speech culture and linguistic competence.

Keywords: speech styles, literary language, stylistics, speech culture, teaching methodology, native language, interactive methods.

Til — insonning ruhiy olami, tafakkuri va ma'naviy dunyosining eng yorqin ifodasi, jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismidir. U insonlar o'rtasida aloqa, fikr almashish, his-tuyg'ularni ifoda etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu vositadan esa insoniyat ma'lum bir doirada foydalanadi. Har bir nutq bir maqsad, vaziyat va auditoriyaga muvofiq shakllanadi. So'zlanayotgan nutq mavzu, tinglovchi saviyasi va yoshi hamda nutq jarayoniga muvofiq turlicha namoyon bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham so'zlovchi tanlagan til vositalarining izchilligi, maqsadga yo'naltirilganligi va mantiqiy uyg'unligi nutq uslubi deb ataladi. Ushbu nutqiy uslublar tilshunoslikda nutqiy uslublar ilmiy termini tarzida yuritiladi.

Adabiy nutq me'yorlarini buzish nafaqat savodxonlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisi sanaladi. Binobari, mana shu fan adabiy me'yorlarni o'rgatadi, unda foydalanish malakalarini takomillashtiradi.[1]

Nutq uslublaridan to'g'ri foydalana olish insonning madaniy saviyasi, tafakkur teranligi va so'zga bo'lgan e'tiborini namoyon etadi. U nafaqat fikrni ifoda etish shaklini, balki uni qanday ta'sirli, tushunarli va estetik tarzda yetkazish yo'lini ham belgilaydi. Inson qanchalik o'rinli va nutq jarayoniga monand so'zlasha olsa atrofdagilar uchun tushunarli va manfaatli bo'lishi ham orta boradi. Har bir uslub o'ziga xos ifoda vositalari, leksik, fonetik va grammatik qurilishiga ega bo'lib, turli ijtimoiy sohalarda o'z vazifasini bajaradi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro' - e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan[2]

Til hayotiy jarayonning har bir qirrasiga kirib boradi. U inson tafakkurining ko'zgusi sifatida og'zaki va yozma shaklda namoyon bo'ladi. Og'zaki nutq tabiiy, erkin, samimiy ohangda kechsa, yozma nutq esa fikrning aniqligi, izchilligi va adabiy me'yorlarga qat'iy rioya etishni talab qiladi.

Uslubiyat - fikrni ifodalash yo'llari, til vositalarini - materialiarini to'g'ri tanlay bilish haqidagi ta'limot-uslublar ilmi bo'lib, tilning vazifalariga mos ravishda bir necha ko'rinishlarga ega: so'zlashuv uslubi, kitobiy ushib, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy,

publitsistik va badiiy uslub kabilar. Ushbu fikr uslubiyatning tarkibiy qismiga kiruvchi grammatik uslubshunoslik haqida ham aytish mumkin.[3]

Til tizimining eng sayqallangan ko'rinishi — bu adabiy nutqdir. Adabiy nutq — millatning madaniy darajasi, tafakkur boyligi va estetik didini ifodalaydigan eng oliy shakldir. U yozuvchilar, shoirlar, olimlar va ziyolilar mehnati bilan shakllanib, so'z san'atining eng go'zal namunalarini yaratadi. Adabiy nutqda har bir so'z, qo'shimcha, talaffuz, imlo va ma'no qat'iy me'yorlar asosida qo'llanadi.

Bu me'yornlarni buzish — tilning go'zalligini xira qilish, madaniyatsizlik va ona tiliga bepisandlik belgisi sanaladi. Ayniqsa, rasmiy hujjatlar, o'quv jarayonlari, matbuot materiallari va ommaviy chiqishlar adabiy nutq asosida olib borilishi lozim. Chunki adabiy nutq milliy o'zlikni asrash, tilni tozaligi va madaniy ifoda uslubini saqlab qolishning eng muhim kafolatidir.

Nutq uslublari. Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisasidan maqsad, sharoit va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyati bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslub va uning turi, til vositasining qo'llanish xususiyati, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birlikning uslubiy imkoniyati o'rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan ko'rinishi adabiy nutq uslubi deyiladi.

O'zbek adabiy tilida 5 ta asosiy nutq uslubi bor: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub. Ayrim darslikda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslub kitobiy uslub degan umumiy nom ostida beriladi.

Barcha uslubda cheklanmagan tarzda ishlatiladigan so'z va qo'shimcha uslubiy betaraf deyiladi: *suv, tog', bola, xat*.

So'zlashuv uslubi. Keng qo'llanadigan uslubdan biri - so'zlashuv uslubi. Bu uslubda, odatda, adabiy til me'yoriga rioya qilib qilinaydi.

So'zlashuv uslubidagi gap asosan dialogik shaklda bo'ladi. Bunda turli uslubiy bo'yoqdor so'z, grammatik vosita qo'llanadi. Shuningdek, tovush tushib qolishi, orttirish ham miunkin: *Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik Ketaqool!*

So'zlashuv uslubida gapdagi so'z tartibi ancha erkin. Ko'proq sodda, to'liqsiz, undalmali gaplardan foydalaniladi. Jargon, argo, vulgar, varvar so'zlar ham ishlatilaveradi. Ayniqsa, bu nutq madaniyati yuqori bo'lmagan kishilarda ko'proq uchraydi.

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli sohasiga doir ilmiy asarlar, darslik va qo'llanmalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumot asosida chiqarilgan

ilmiy xulosa (qoida, ta'rif)larga boy bo'lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi: *Yomg'ir — suyuq tomchi holdagi atmosferayog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'z o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'lak, kirish so'z, kirish birikma, shuningdek, qo'shma gaplardan keng foydalaniladi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjat rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Shuningdek, ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, 20 taklifnoma, shartnoma, tarjimayi hoi, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda bitiladi. Rasmiy-idoraviy uslubdagi hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Bu uslubning asosiy belgisi - jumlamining bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Rasmiy-idoraviy uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Bu uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Gap bo'lagining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.

Ommabop (publitsistik) uslub. Tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qo'lanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub deyiladi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan boiishi uchun ifodali so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari joylashuvi odatdagi tartibda bo'ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplar, yoyiq undalma, takroriy so'z va birikmalar unumli qo'lanadi.

Badiiy uslub. Adabiy asarlar badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsol (obraz) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi.

Badiiy uslubda qahramon nutqini jonli berish oddiy nutq so'zi, sheva, vulgarizmdan ham foydalaniladi:

U davradan chiqdi. Oqsoqollardan Amir polvonni tirsagidan chetga tortdi.

- *Polvonlaring har yerda o'tlab yuribdi, bu nima o'tirish? - dedi. -Menga qara, zo'r-zo'rlarini bir yerga yig'. Sho'rchiliklar kepti... Tushundingmi? O'zing bosh bo'l. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, yetti o'lchab, bir kes. Sho'rchiliklarning o'ngi-chapiga e'tibor qil Qaytarib aytaman, faqat sho'rchiliklarga ko'z tikinglar. Binoyimi?*

- *Binoyi, polvon bova, binoyi.*

- *Bir-ikkita dadilrog'i bilan bizning Tilovberdini davra oxiriga asra. Yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilganda kunimizga yaraydi. Yana kim bor?*

- *Shu, Bakirboyning Samarqandda o'qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O'tgan yili kelganda Sariosiyoni mot qilib edi.*

- *Uning kelganini ko'pchilik bilmaydi-ya? Ma'qul. Ayt, tom ustiga chiqib, o'zini yashirib o'tirsin.*

-*Hay (Tog'ay Murod) [4]*

Nuqt uslublarni bir-biridan farqlashni maktab o'quvchilariga turli usul va metodlar orqali o'rgatish mumkin. Misol uchun:

- So'zlashuv uslubini o'qitish uchun: Dialog tuzish, rol o'ynash kabi metodlar yorqin misol bo'la oladi.

- Badiiy uslubni o'qitishda ko'proq yozma materiallar foydali hisoblanadi. Matn tahlili va badiiy vositalarni topish kabi mashq va topshiriqlar juda samaralidir.

- Ilmiy uslubni o'qitish misolida ilmiy uslubning aniq va mantiqiy ifoda vositalari bilan Bolani tanishtirish uchun matn tahlili, ilmiy so'zlar bilan ishlash foyda beradi.

- Rasmiy uslubni o'qitishda ushbu uslubda hujjat tuzish va amaliy yozma ish namunalari bilan tanishish muhim.

- Publitsistik uslubda ishlashni va ajrata olishni o'rganish uchun esa publitsistik uslubda maqola yozish, ijodiy yozma ish, muhokama kabi topshiriqlar yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktab darsliklarida nutqiy uslublarni o'rgatish o'quvchilarning nutq madaniyati, tafakkuri va ijodkorligini rivojlantiradi. Zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol texnologiyalar va matn asosidagi topshiriqlar o'quvchilarni har bir uslubning xususiyatini anglashga, uni hayotda qo'llay bilishga o'rgatadi. Ona tili darslarida nutqiy uslublarni chuqur o'rganish — barkamol, so'z madaniyatiga ega yoshlarni tarbiyalashning eng muhim omilidir. Tilga ehtirom — millatga hurmatdir. Shuning uchun ham har bir inson, ayniqsa yosh avlod, o'z nutqida adabiy me'yorlarga amal qilishi, so'z boyligini to'g'ri ishlatishi va nutq madaniyatini yuksaltirishi zarur. Bu esa nafaqat savodxonlik belgisi, balki ma'naviy barkamollikka eltuvchi yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev G'. O'zbek tili uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T.: 1992.
3. R.Rasulov, Q.Mo'yidinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati (o'quv qo'llanma) Тошкент-2015

4. Laylo Raupova nutq madaniyati. Darslik. Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2019

TOLSTOYNING "IQRORNOMA" ASARI LEKSIKASI: SINONIMLAR QO'LLANISHI

SUYUNOVA FARZONA YUSUF QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3—bosqich talabasi

farzonasuyunova56@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asarida qo'llangan sinonimlarning uslubiy va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda sinonimlarning qo'llanishi yozuvchining falsafiy g'oyalarini ochishda, obrazlarni yanada jonli va ta'sirchan ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada "hayot", "qalb", "haqiqat", "sevgi", "qo'rquv" kabi asosiy tushunchalarga oid sinonimlar tahlil qilinib, ularning semantik farqlari hamda kontekstual ma'nolari izohlanadi. Tolstoy sinonimlardan mohirona foydalanish orqali asar tilining badiiy jozibasini, falsafiy chuqurligini va hissiy ta'sirini oshirishga erishganligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tolstoy, "Iqrornoma", sinonimlar, uslubiy tahlil, semantik ma'no, falsafiy mazmun, leksik boylik, badiiy ifoda.

Аннотация: В данной статье анализируются стилистические и семантические особенности употребления синонимов в произведении Льва Толстого «Исповедь». Использование синонимов в произведении служит важным средством раскрытия философских идей автора, делает образы более живыми и выразительными. В статье рассматриваются синонимические ряды, связанные с такими ключевыми понятиями, как «жизнь», «душа», «истина», «любовь», «страх», а также объясняются их семантические различия и контекстуальные значения. Показано, что мастерское использование Толстым синонимов усиливает художественную выразительность, философскую глубину и эмоциональное воздействие языка произведения.

Ключевые слова: Толстой, «Исповедь», синонимы, стилистический анализ, семантическое значение, философское содержание, лексическое богатство, художественная выразительность.

Annotation: This article analyzes the stylistic and semantic features of synonym usage in Leo Tolstoy's Confession. The use of synonyms in the work serves as an important means of revealing the author's philosophical ideas and making the imagery more vivid and expressive. The study examines synonymic groups related to key concepts such as "life," "soul," "truth," "love," and "fear," explaining their semantic

distinctions and contextual meanings. It is shown that Tolstoy's skillful use of synonyms enhances the artistic expressiveness, philosophical depth, and emotional impact of the language in the work.

Keywords: Tolstoy, Confession, synonyms, stylistic analysis, semantic meaning, philosophical content, lexical richness, artistic expression.

Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asari adabiyotning muhim falsafiy asarlaridan biri sifatida insoniyatning hayotiy savollariga javob izlash jarayonini tasvirlaydi. Bu asar yozuvchi hayotining burilish davri — ichki inqiroz, ruhiy iztirob va chin haqiqatni izlash jarayonini yoritadi. Asar nafaqat falsafiy mulohazalar bilan, balki o'ziga xos tili, boy leksikasi bilan ham ajralib turadi. Mazkur maqolada asarda qo'llangan sinonimlarning turli xildagi ishlatilishi, ularning uslubiy va semantik vazifalari tahlil qilinadi. Sinonimlar asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglashda muhim vosita bo'lib, ular orqali yozuvchi turli hissiy holatlarni aniqroq ifodalaydi. Ushbu maqolada sinonimlarning uslubiy va semantik xususiyatlari misollar yordamida o'rganiladi.

Tolstoyning "Iqrornoma" asaridagi sinonimlarning asosiy xususiyatlari Asarda sinonimlarning mohirona ishlatilishi muhim stilistik vosita hisoblanadi. Ular turli hissiy ma'nolarni ochib berish, obrazni to'liqroq ifodalash va asarning falsafiy mazmunini chuqurroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Quyida sinonimlarning asardagi ba'zi muhim misollari va tahlillarini keltiraman.

1. Hayot — tiriklik, borliq, mavjudlik, yashash, umr.

2. Tahlil- Tolstoy hayot mazmunini anglashdagi ruhiy izlanishlarni tasvirlashda ushbu sinonimlarni mahorat bilan qo'llaydi. Masalan, "Hayotning mohiyatini bilmasdan yashash — mavjudlik emas, faqatgina tiriklikdir" jumlasida "hayot" va "tiriklik" sinonimlari, ammo ular o'rtasidagi ma'no farqlari ifodalanadi. Hayot — insonning mavjudlikdagi mavjudligini, tiriklik esa faqat biologik jarayonlarni ifodalaydi. "Borliq" esa falsafiy ma'noda hayotning kengroq tushunchasini anglatadi, ya'ni mavjudlikning asosiy mohiyati.

3. Qalb — ruh, jon, botin, his, hissiyot. Tahlili- Asarda "qalb" va "ruh" so'zlari inson ichki dunyosini tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, "Qalbdagi iztirob — ruhning oromini yo'qotishidir" iborasida bu so'zlar bir-birini to'ldiradi. "Jon" so'zi esa ko'proq insonning ichki, haqiqatni sezish va anglash quvvatini tasvirlaydi. "Botin" so'zi esa ichki dunyoning, insonning o'z-o'zini anglashining eng chuqur qatlamini ifodalaydi.

4. Qo'rquv — vahima, dahshat, sarosima, qo'rquv, tashvish, xavotir.

5. Tahlil-O'lim haqidagi mulohazalarda insonning ichki holati turli sinonimlar yordamida tasvirlanadi: "O'lim dahshati qalbni egallaydi, sarosima insonni beqaror qiladi". Bu yerda sinonimlar hissiy ta'sirni kuchaytiradi. "Vahima" — kutilmagan va kuchli qo'rquvni, "dahshat" esa yirik, tahlikali voqea yoki holatni ifodalaydi. "Sarosima" so'zi esa ongini noaniqlik va muammo bilan to'ldiradi, "xavotir" esa ichki bezovtalikni ifodalaydi.

6. Haqiqat — rostlik, to'g'rilik, adolat, haqiqat, ochiqlik, halollik.

7. Tahlil- Tolstoyning asaridagi haqiqatni izlash jarayoni ushbu sinonimlar orqali tasvirlanadi: "Adolatni izlamay turib, chin haqiqatni topish mumkin emas".

8. Sinonimlarning har biri kontekstga mos turlicha ma'noda ishlatilgan. "Rostlik" va "to'g'rilik" so'zlari haqiqatning ijtimoiy va etik tomonlarini ko'rsatadi, "ochiqlik" esa haqiqatni yashirmaslik va yaqqol ifodalashni anglatadi.

9. Sevgi — mehr, shafqat, muhabbat, do'stlik, sadoqat, ehtiros.

10. Tahlil- Tolstoy muhabbatni insonni poklaydigan ilohiy tuyg'u sifatida tasvirlaydi. Masalan, "Muhabbat inson qalbini yoritar, mehr esa uni mustahkamlar" jumlasida sinonimlar chuqur ma'no hosil qiladi. "Do'stlik" va "sadoqat" insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbatning yanada chuqurroq va mustahkam shakllarini anglatadi.

11. Izlanish — qidirish, intilish, harakat, urinish, izlanish.

12. Tahlil- Tolstoy insonning o'zini topish jarayonini va ichki qidiruvini turli sinonimlar yordamida ifodalaydi. Masalan, "O'zini anglash va haqiqatni topish uchun ichki izlanish juda muhimdir". Bu yerda sinonimlar turli xil ruhiy va ijtimoiy ma'nolarni o'z ichiga oladi.

13. Tashvish — iztirob, azob, qiyinchilik, noxushlik, alam.

14. Tahlil- "Iztirob" so'zi insonning jismoniy yoki ruhiy holatini ifodalasa, "qiyinchilik" hayotning sharoitlari yoki ijtimoiy omillar ta'sirini anglatadi. "No'xushlik" va "alam" esa o'zgarmas bir holatni tasvirlaydi.

Tolstoy uchun til — bu faqat ifoda vositasi emas, balki ruhiy kashfiyot maydonidir. U so'zlar orqali inson ruhini ochadi, uni o'quvchi qalbiga yetkazadi. Asarda sinonimlarning mahorat bilan tanlanishi yozuvchining chuqur til sezgisi, leksik boylikdan o'rinli foydalanish qobiliyatini ko'rsatadi. Har bir sinonim o'z joyida, o'z ma'nosida turib, umumiy falsafiy fikrni mustahkamlaydi. "Iqronoma" nafaqat falsafiy asar, balki inson ruhining oynasi. Undagi sinonimlar esa — bu oynaning yorug' nurlari, ular orqali biz Tolstoy tafakkurining chuqurligini, inson qalbining murakkab go'zalligini ko'ramiz. Yozuvchi har bir so'z bilan o'quvchini o'ylashga, izlanishga va o'z hayotiga nazar tashlashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Lev Tolstoyning "Iqrornoma" asari leksik jihatdan juda boy. Ayniqsa, sinonimlarning ishlatilishi yozuvchining til uslubining muhim jihati hisoblanadi. Tolstoy sinonimlarni o'rinli va mohirona qo'llash orqali o'zining falsafiy g'oyalarini o'quvchi ongiga chuqur singdirishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu asarda sinonimlar ko'pincha hissiy va falsafiy ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Sinonimlarning tahlilidan ko'rinib turibdiki, ular faqatgina uslubiy vosita sifatida emas, balki semantik yuk tashuvchi element sifatida ham namoyon bo'ladi. Misol uchun, "hayot" va "tiriklik" so'zlari bir xil ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, ular kontekstda turlicha semantik mazmunni ifodalaydi. Shuningdek, "qalb" va "ruh", "muhabbat" va "mehr" kabi sinonimlar hissiy noziklikni ko'rsatadi. Tolstoyning sinonimlardan foydalanish mahorati asar tilining nafaqat estetik, balki g'oyaviy jozibasini ham oshirgan. Shaxsiy fikrimcha, "Iqrornoma" asarida sinonimlar faqat badiiy bezak sifatida emas, balki fikrning ruhiy harakati sifatida namoyon bo'ladi. Ularning har biri Tolstoy tafakkurining bir qirrasini ochadi, yozuvchining ichki kurashini, hayotga, e'tiqodga, haqiqatga bo'lgan izlanishini his qilishga yordam beradi. Shuning uchun bu asarni faqat adabiy emas, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish ham juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolstoy, L. Iqrornoma. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1988
2. Rasulov, B. Falsafiy mulohazalar va adabiy uslub. Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
3. Qosimov, A. Sinonimlar tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
4. Karimov, R. Adabiy tahlil usullari. Toshkent: O'zbekiston, 2019.

TENG BOG'LOVCHILAR VA UNING TURLARI

SHUKRULLAYEVA RAYHON OYBEK QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu tezis orqali bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari. Gaplarni bir-biriga bog'lashiga ko'ra turlari, hamda bog'lovchilarning vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ma'lumotlar misollar bilan isbotlangan.

Kalit so'zlar: teng bog'lovchilar, biriktiruv, zidlov, ayirov, inkor bog'lovchisi.

Abstract: This thesis provides information about the types of conjunctions according to their use. Types of conjunctions according to their connection between sentences, as well as the functions of conjunctions. The information is proven with examples.

Keywords: equal conjunctions, conjunction, contrast, subtraction, negation conjunction.

Аннотация: в статье представлена информация о типах союзов в зависимости от их употребления, а также о способах связи предложений и функциях союзов. Информация подкреплена примерами.

Ключевые слова: равные союзы, союз, противопоставление, вычитание, союз отрицания.

Bog'lovchi vositalar deb 1) bog'lovchilarga, 2) bog'lovchi vositabo'lib kelgan olmoshlarga, 3) kesimning grammatik shakli tarkibiga mansub ayrim ko'rsatkichlarga aytiladi. 1. Ma'lumki, bog'lovchilar teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar deb ikkiga guruhlanadi. Teng bog'lovchilar o'zaro teng lekse- mashakllarni, gapshakllarni bog'laydi. Bunday bog'langan leksemashakllar uyushiq qatorni tashkil etadi ("Sintaktik bo'laklarning uyushiq qator bilan ifodalinishi" bahsiga qarang). Teng bog'lovchilar bilan gapshakllar bog'lansa, odatda teng qismli qo'shma gapshakl hosil bo'ladi (Bular quyiroqda tasvirlanadi). Gapshakllar ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar bilan bog'lansa, noteng qismli qo'shma gapshakl hosil bo'ladi (Bular o'z o'rnida tasvirlanadi). Bunday qo'shma gapshakllarning sodda gapshaklga teng qismlari grammatik shakli jihatidan biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi; sodda gapshaklga teng qismlar o'zaro teng bog'lovchi bilan bog'lanadi; bog'lovchilarning ma'no turlariga qarab qo'shma gapshakl qismlari orasidagi ma'no munosabati belgilanadi.

Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va sodda gaplami teng munosabatda bog'laydi. Ular quyidagicha turlarga bo'linadi: **1) biriktiruv; 2) zidlov; 3) ayiruv; 4) Inkor bog'ovchilar.**

1. Biriktiruv bog'lovchilar va, hamda so'zlaridan iborat bo'lib, ular gapning uyushiq bo'laklarini yoki sodda gaplami o'zaro bog'laydi. Va bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laganda: a) o'zi bog'lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo'lganini ko'rsatadi: Soy g'o'villob oqar va uning suvi qirg'oqla o'sgan o'tlarni edi. b) ish-harakatning ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi: Bahor keldi va daraxtlar gullay boshladi. Kuz keldi va barglar sarg'ayib to'kildi. Hamda bog'lovchisi sodda gaplar va uyushgan bo'laklarni o'zaro teng munosabatda bog'laydi. Uyushgan bo'laklarning oxirgisidan oldin kelganda, uyushgan bo'laklar orasidagi tenglikni ko'rsatish bilan birga, oxirgi uyushgan bo'lakni ajratib ham ko'rsa Qodir, G'olib hamda Ruxsoralar Bulardan tashqari, bilan ko'makchisi, yu, u, da, ham yuklamalari shunday vazifada qo'llanishi mumkin. Ushbu birliklar ana shu vazifasiga ko'ra biriktiruv bog'lovchilarga sinonim hisoblanadi: ota va ona, ota bilan ona, ota-yu ona kabi. Ham uyushgan bo'laklarning oldida yoki oxirida takrorlanib kelishi mumkin. U faqat uyushgan bo'laklarning oldida kelgandagina bog'lovchi sanaladi: Biriktiruv bog'lovchilariga:

– va, hamda sof bog'lovchilari; Kitob va daftarlaringni tartibga keltir. Meva va sabzavotlardan ko'proq tanavvul qiling. Men va do'stim sayrga chiqdik.

– Bilan ko'makchi-bog'lovchisi faqat so'zlarni bog'lab kela oladi. Agar u ikki so'zni teng bog'lab, uning o'rniga va, hamda bog'lovchisini qo'yib bo'lsagina biriktiruv bog'lovchisi, aks holda sof ko'makchi hisoblanadi. Solishtiring;

Feruza bilan Nargiza ovqat qildilar. Biriktiruv bog'lovchisi. Feruza Narzgiza ovqat qildilar. Sof bog'lovchi.

–u, -yu, -da, ham yuklama-bog'lovchilari kiradi. Ham yordamchisi takror qo'llanganda uyushiq bo'laklardan oldin kelsa bog'lovchi; uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, yuklama hisoblanadi. Solishtiring;

Kelsang vaqting mazmunli o'tadi ham (va) ko'p narsa o'rganasan – biriktiruv bog'lovchisi.

Sen ham meni sog'inganda yig'laysanmi? – yuklama.

2. Zidlov bog'lovchilar mazmunan bir-biriga zid bo'lgan gap va gap bo'laklarini o'zaro teng bog'laydi. Ularga ammo, lekin, biroq so'zlari kiradi. Bundan tashqari, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplami va undagi uyushiq bo'laklami zidlash asosida teng bog'lashda u, (-yu) yuklamalari ham zidlov bog'lovchilarga sinonim sifatida qo'llaniladi: O'qidi, biroq yozmadi o'qidi-yu, yozmadi. O'zbek tilida tilida lekin,

ammo, biroq, balki kabi zidlovchi bog'lovchilardan keng foydalaniladi: Uy kichkina, lekin yorug' va toza edi. Tiniq osmonda yulduzlar miltirar, biroq oy ko'rinmasdi. Sevinch esdan chiqadi, biroq qayg'u unutilmaydi.

Zidlov bog'lovchilariga:

- ammo, lekin, biroq sof bog'lovchilari;
- -u, -yu, -da yuklama-bog'lovchilari;
- balki modal-bog'lovchisi kiradi.

Misollar; Xilola yosh, ammo malakali kadrlarimizdan. Suhbat uzoq davom etdi, lekin bundan hech kim zerikmadi. Kitoblarning hammasini o'qib chiqdim-u, lekin izlagan ma'lumotimni topa olmadim.

[Nutqda ammo bog'lovchisi ham ko'p ishlatiladi; bu yerda ham lekin bog'lovchisi qatnashuvi bilan tuziladigan jumalardagi kabi holatlar ro'y bera-di:

1) Qo'shma gapshaklning har bir qismida ega ifodalangan bo'ladi: Endi u yig'lamas, ammo ovozi vahima bor edi. Kim nima desa–desin, ammo hali–yam Shomurodakam xayolimdan ketmaydi kabi.

2) Qo'shma gapshaklning birinchi qismida ega ifodalangan, ikkinchi qismida ega qatnashmagan bo'ladi, lekin bu qismlardagi harakat–holatning bajaruvchisi boshqa–boshqa bo'ladi: Uning borishi Mirzo Muhiddinning kayfi chog' vaqtiga to'g'ri keldi, ammo hanuz boshining orqasi og'riyotganidan shikoyat qilar edi (Abdulla Qahhor). .. dimog'iga urilayotgan nafis atir isi

boshini aylantirib qo'ygandek bo'lar, ammo uning yuziga qarashga jur'at etolmas edi kabi.

3) Ega qo'shma gapshaklning ikkinchi qismida ifodalangan bo'ladi: Jim qolishdi. Ammo bu jimlik noqulay tuyilmas edi kabi.

4) Ayni bir bajaruvchiga (egaga) bog'langan kesimli gapshakllar bu yer- da ham kesimi uyushiq qator bilan ifodalangan sodda gapshaklga teng bo'ladi: Ora–chora chaqmoq chaqar, ammo qalin daraxtlar orasini avvalgidek yoritolmas .. edi. Avaz aytgan ishni ko'z oldiga keltirib bir seskandi, ammo buni bildirmaslikka tirishib miyig'ida kuldi kabi.

3. Nutqda biroq bog'lovchisi, afsuski, juda oz ishlatiladi. Mana bu qo'shma gapshaklning har ikki qismida ega ifodalangan: Aziz shunday o'ylar edi–yu, biroq. [5:398]

Ayiruv bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni yoki gap bo'laklarini bir biridan ajratib, ta'kidlah bog'laydi .O'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki gapni boshqalaridan ayirib ko'rsatuvchi bog'lovchilar ayiruv bog'lovchilari deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida

ko'p qo'llanadigan ayiruvchi bog'lovchilar: yo, yoxud, yoki, yo... yo... goh..... goh; dam..., dam; bir..., bir; ba'zon..., ba'zan; xoh, xoh Bulardan yo, yoki, yoxud, yoki bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. U ham ko'p o'tmay yo injener, yoki o'qituvchi bo'lib ishlashi mumkin. Goh.... goh; dam..., dam, bir..., bir, ba'zan..., ba'zan bog'lovchilari esa, uyushgan bo'laklarning yoki qo'shma gan tarkibidagi sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, ularni ayiruv yo'li bilan bog'laydi: Dom qor yog'adi, dam yomg'ir tomchilaydi.

Yo, yoki, yoxud bog'lovchilari yakka ham, takror ham qo'llana oladi va narsa-hodisalarning ikkalasidan birini ayirib ko'rsatadi. Masalan: Tadbir ertaga yoki indinga bo'ladi – Tadbir yo ertaga, yo indinga bo'ladi.

Takror qo'llanuvchi goh..goh, dam...dam bog'lovchilari esa voqea-hodisalarning ikkalasi ham galma-galdan sodir bo'lishini ifodalaydi. Masalan: Podshoh goh jiddiy, goh kulib yigitning gaplarini eshitardi.

Ba'zan ravishi takror qo'llanganda va *goh...goh* bog'lovchilari bilan erkin almasha olganida vazifadosh ayiruv bog'lovchilari hisoblanadi. Masalan: Ba'zan asar o'qiyman, ba'zan she'r yodlayman.

4. So'zlarni va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi yordamchi so'z inkor bog'lovchisi deyiladi. Inkor bog'lovchisi birgina *na...na* so'zi hisoblanadi. Masalan: Bayramda na o'yin-kulgi, na raqs bo'lmadi.

1. U qatnashgan gapning kesimi tasdiq shaklda bo'ladi va inkor bog'lovchisi hisoblanadi. Masalan: Na savollarimga javob berding, na topshiriqni bajarding.

2. U qatnashgan gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi va inkor yuklamasi hisoblanadi. Masalan: Berilgan savolning javobini na Abror, na Islombek topa olmadi.

Foydanaliga adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va bosh. Ona tili [7-sinf darslik]. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
2. Usmonov J., Nurmurodov O. Muxtasar grammatika. – Toshkent: Hodiyevev education, 2022.
3. S. Rahimov, B. Umurqulov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent "O'qituvchi" 2003.
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z. Yunusova, M, Abuzalova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2009.
5. Rahmatullayev Sh, Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, "Universitet"— 2006. 398-bet.

TILSHUNOSLIKDA NEOLOGIZMLAR VA ULARNING ADABIY TILIGA TA'SIRI

YO'LDOSHOVA MUXLISA NURBEK QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Neologizmlar tilning doimiy rivojlanishini aks ettiruvchi yangi so'zlar yoki ma'noli ifodalar bo'lib, ular ijtimoiy, ilmiy va texnologik o'zgarishlarga javoban paydo bo'ladi. Adabiy tilga ta'sirida neologizmlar nutqni boyitadi, uni zamonaviy realiya va tafakkurlarga moslashtiradi. Ammo ba'zi hollarda neologizmlar adabiyotda stilistik xatolikka olib kelishi mumkin. Shu sababli ularni talab va muhitga rioya qilgan holda ishlatish zarur.

Kalit so'zlar: neologizmlar, adabiy til, til rivojlanishi, nutq boyligi, zamonaviy realiya, stilistik xatolik, ijtimoiy o'zgarishlar, tilga ta'sir.

Annotation: Neologisms are new words or meaningful expressions that reflect the continuous development of language, emerging in response to social, scientific, and technological changes. In their influence on literary language, neologisms enrich speech and align it with modern realities and ideas. However, in some cases, neologisms may lead to stylistic errors in literature. Therefore, it is necessary to use them while respecting the context and environment.

Keywords: neologisms, literary language, language development, speech enrichment, modern reality, stylistic errors, social changes, impact on language.

Til – bu ijtimoiy voqealar, ilmiy yutuqlar va texnologik o'zgarishlarning aks ettiruvchi bir tizim bo'lib, u doimo rivojlanib boradi. Bu jarayonning eng muhim ko'rinishlaridan biri neologizmlarning paydo bo'lishidir. Neologizmlar yangi so'zlar yoki ma'noli ifodalar bo'lib, ular jamiyatda sodir bo'layotgan global o'zgarishlarga javoban vujudga keladi. Tilshunoslik fanining bir qismi sifatida neologizmlarni o'rganish, ularning adabiy va og'zaki nutqga ta'sirini tahlil qilish hamda ularni qanday qilib adabiy tilga kirib borishini aniqlash juda muhimdir.

Neologizmlar – bu faqatgina yangi so'zlar emas, balki ularning tarkib topish sabablari, tarixiy sharoitlarga bog'liqligi va jamiyat ehtiyojlariga moslashishi bilan bog'liq murakkab jarayonlardir. Bugungi kunda, texnologik inqilob va global kommunikatsiya rivojlanishi natijasida neologizmlar soni keskin ortib bormoqda. Bu holat adabiy tilga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Neologizmlarning kelib chiqishi va turlari

Neologizmlar asosan quyidagi sabablar tufayli paydo bo'ladi: Ilmiy va texnologik rivojlanish: Har bir ilmiy yutuq yoki texnologik innovatsiya yangi terminlarning yaratilishiga olib keladi. Masalan, "internet", "smartfon", "kiberxavfsizlik" kabi so'zlar zamonaviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ijtimoiy o'zgarishlar: Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ham yangi so'zlarni vujudga keltiradi. Masalan, "millennials", "post-truth", "cancel culture" kabi atamalar bugungi kunda keng tarqalgan. Kulturiy integratsiya: Globalizatsiya natijasida turli millatlarning tillari bir-biri bilan aralashib, yangi iboralar paydo bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "selfie", "hashtag" kabi so'zlar dunyo tillariga kirib bordi. Neologizmlar o'zlari yaratilish usullari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: So'z yasash: Mavjud so'zlardan yoki ildizlardan yangi so'zlar hosil qilish (masalan, "telefon" → "smartfon"). Metafora va metonimiya: Belgilangan ma'nolarni yangi kontekstga qo'llash orqali yangi so'zlar yaratish (masalan, "bulut" atamasi axborot texnologiyalarida foydalaniladigan "cloud computing" degan ma'noda ishlatiladi). Chet el tillaridan qarash: Boshqa tillardan so'zlar qarshilikka olinadi (masalan, "wifi", "blog"). Qisqartirishlar: Uzoq iboralarni qisqartirish orqali yangi so'zlar yaratish (masalan, "NASA", "UNESCO"). Neologizmlarning adabiy tilga ta'siri

Adabiy til har doim ham yangilanib, boyitilib boradigan bir tizim hisoblanadi. Neologizmlar esa adabiy tilga yangi rang berish bilan birga, ba'zan uni murakkablashtirishi ham mumkin.

Nutqni boyitish: Neologizmlar adabiy tilni boyitadi va uni zamonaviy realiyalarga moslashtiradi. Masalan, XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida "globalizatsiya", "digitalizatsiya" kabi so'zlar adabiyotda keng tarqaldi. Bu so'zlar jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlarni aniqroq ifodalash imkonini berdi.

Stilistik xatoliklar: Ba'zi hollarda neologizmlar adabiyotda stilistik xatolikka olib kelishi mumkin. Masalan, klassik adabiyotda qo'llanilmagan yangi so'zlar yoki iboralar noto'g'ri joyda ishlatilsa, matnni tabiiysiz ko'rinishga keltirishi mumkin. Shuning uchun neologizmlarni adabiy tilga olib kirishda ularning kontekstga mosligi va talabga rioya qilinishi muhimdir.

Jamiyatda tasdiqlanish: Har bir neologizm avvaliga og'zaki nutqda ishlatiladi va keyinchalik adabiy tilga kirib boradi. Masalan, "selfie" so'zi dastlab internetda mashhur bo'lganidan so'ng, keyinchalik lug'atlarga kiritildi va adabiyotda ham ishlatila boshlandi.

Muhim vosita sifatida: Neologizmlar adabiyotda muhim vosita bo'lib, mualliflarga yangi g'oyalarni ifodalash va o'qiyotgan jamoaga yaqinroq bo'lish

imkonini beradi. Masalan, zamonaviy yozuvchilar "like", "share", "trending" kabi so'zlarni ishlatib, ijtimoiy media hayotini adabiyotga tatbiq etishadi.

Neologizmlarning salbiy tomonlari: Neologizmlar tilga musbat ta'sir ko'rsatgani bilan birga, ba'zi salbiy tomonlari ham mavjud: Tilning chalkashligi: Ko'plab yangi so'zlar tezda paydo bo'lib, ularning ma'nosi va qo'llanilishi noaniq bo'lib qolishi mumkin. Klassik adabiyotga ta'sir: Qadimgi yoki klassik adabiyotda neologizmlar ishlatilsa, uning asl mazmuniga zarar yetkazilishi mumkin. Og'zaki nutqni buzishi: Ba'zi neologizmlar og'zaki nutqni tabiiysiz qilishi mumkin, chunki ular oddiy gapirishda noaniq yoki noma'lum bo'lib qoladi.

Xulosa: Neologizmlar tilning rivojlanishiga va adabiyotga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ular tilni boyitadi, uni zamonaviy realiyalarga moslashtiradi va yangi g'oyalarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ammo neologizmlarni adabiy tilga olib kirishda ularning kontekstga mosligiga va umumiy talabga rioya qilinishiga e'tibor berish kerak. Shunday qilib, neologizmlar – bu tilning jonli tizimidagi bir qismi bo'lib, ularni o'rganish tilshunoslik fanida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev, M. (2015). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (2008). O'zbek tili tarixi va rivojlanishi. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
3. Xayitmetov, A. (2017). Zamonaviy o'zbek adabiy tili. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
4. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell Publishing.
5. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2014). An Introduction to Language. Boston: Cengage Learning. Matras, Y. (2012). A Grammar of Kurdish. Berlin: De Gruyter Mouton.
6. Safarov, B. (2019). Neologizmlar va ularning tilga ta'siri. Toshkent: "Adabiyot va san'at" jurnali, №3.

O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK

ABDULLAYEVA UMRINISSO BAXODIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada til haqida qarashlar keltirib o'tilgan. Leksikologiya bo'limining mavzularidan biri bo'lgan o'zbek tilining ma'no ko'chish usullari ilmiy izohlab berilgan. Ma'no ko'chishlarning har bir turiga ma'lumotlar berilib, misollar yordamida batafsil tushuntirilgan.

ABSTRACT: In this article views on language are presented. One of the topics of the lexicology department, the methods of transfer of meaning of the Uzbek language are scientifically explained. Each type of meaning transfer is given information and explained in detail with the help of examples.

Kalit so'zlar: metafora, metonomiya, sinekdoha, vazifadoshlik, korpus, meta, anoma, metaphore, sinekdohe, funksiyadoshlik.

Key words: metaphor, metonymy, synecdoche, functionalism, corpus, meta, anoma, metaphor, synecdoche, functionalism

Borliqdagi narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa — hodisa, belgi — xususiyat, harakat — holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, burun so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosini ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismidan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan [1:191].

“Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy bu kabi gozal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotida ko'rishingiz mumkin. Chunki bu so'zlardan foydalanish bu kabi uslub o'zbek shoirlariyu, o'zbek yozuvchilariga hosdir. So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud bo'lib. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir ma'noni anglatrsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan

matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda oson matn ichidagi so'zlarni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatga o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatga ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: "Sovuq niyat qilma do'stim" degan gapdagi "sovuq" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "sovuq" so'zi havoga, suvga nisbatan o'z ma'noda qo'llaniladi. "Sovuq niyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so'zi o'z ma'nodan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. "Bir sixga qornim to'yib qoldi" bu gapda esa "six" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "six" so'zi yakka holda qo'llanganda six ya'ni temir narsa, buyum ma'nolarini anglatadi va u yeyiladigan narsa emas bu so'z ham yakka holda qo'llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma'nolarni anglatyapti va matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanilyapti.

Ma'no ko'chishining nima asosida ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud [1:191].

1. METAFORA. Metafora (yunoncha metaphora — ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlilik asosida ko'chishidir. Masalan, tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. [1:193].

1 Tashqi o'xshashlik munosabati.

2 Aloqadorlik munosabati.

3 Butun va qism munosabati.

4 Vazifadagi o'xshashlik munosabati.

Metafora- metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Ko'proq tashqi o'xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma'no ko'chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun "qora niyyat" bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo'lganda o'z ma'no bo'lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti. Metafora ko'proq quyidagilarga: 1. Odam tana azolariga

(qo'l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka). 2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak). 3. Hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosi (qanot, dum, tumshuq, shox). 4. O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir). 5. Qurollar (nayza, pichoq). Masalan: Tog'ning etagidagi uy. Uyimiz daryo yoqasida.

2. METONIMIYA. Metonimiya yunoncha metonymia — qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi. [1:196]. Bunday ma'no ko'chishiga tashqi va ichki o'xshashliklar hisobga olinmaydi balki, so'z ma'nolarining bir-biriga bog'liqligi hisobga olinadi. Shunga ko'ra quyidagi munosabatlarga bo'linadi. 1. Joy tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra (shahar, tashkilot). 2. Muallif bilan asari orasidagi aloqa. Masalan, Navoiyni o'qidim. 3. Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa orasida kelishi mumkin. 4. Ta'sir sababi munosabati: Bolalar uyning quvonchi 5. O'zining mazmuni uchun; Bir chashka iching. 6. Ramziy ma'noga ega bo'lgan belgi: Ular bayroqa sodiqlik qasamyod qildilar. 7. Hammasi uchun qism munosabati. Jamoangizni to'rini himoya qiling. 8. Hammasi qism uchun. Avtomobilni yuving. (korpugaga murojat). 9. Siz foydalanadigan asbob: Bu Parijdagi eng yaxshi chotka. (Rassomga murojaat qilish). Masalan, O'n to'qqizga chiqasan bugun.

3. SINEKDOXA. Sinekdoxa yunoncha synekdoche — birgalikda anglash so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi [1:198]. Masalan: "qo'limni kesib oldim" deganda qo'limni deb barmog'ini nazarda tutmoqda, barmoq qo'lning qismi bo'lganligi uchun ya'ni butun orqali qismni anglatmoqda, "tuyoqlarni ko'paytiramiz" bu gapda esa tuyoq deb hayvonlarni nazarda tutmoqda, tuyoq hayvonning qismi bo'lganligi uchun qism orqali butunni nazarda tutmoqda, yoki bo'lmasa "eshikka kiring mehmon bir chaqchaqlashamiz" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "eshik" so'zi bo'lib, bu gapda "eshikka kiring" deb uyini nazarda tutmoqda. Eshik uyning qismi bo'lganligi uchun bunda ham qism orqali butun nazarda tutilmoqda. Sinekdoxa quyidagi munosabatlarga ko'ra ma'no ko'chadi. 1. Tana a'zolari orqali. O'n qo'lingni og'zingga solma. 2. Kiyim va uning qismlari orqali. Hisobida adashgan cho'ntagidan ayrilar. 3. Predmet, narsa, qurol. Xamir uchidan patir. 4. Hayvon parranda tana a'zolari. Qizilishton (qush), tulki (tulki terisi). 5. Daraxt va mevasi. Namangonning olmasi hil-hil pishibdi. (qo'shiq).

4. VAZIFADOSHLIK. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi. [1:199]. Vazifadoshlik bilan metaforani farqlab olish juda zarurdir. Misol uchun metaforada ham vazifadoshlikda ham narsalar, predmetlarning o'xshashligiga

qaraladi, lekin metafora tashqi o'xshashlik bo'lsa, vazifadoshlikda esa narsa, buyum, predmetlarning tashqi o'xshashligiga emas balki, faqatgina vazifasi o'xshashligiga qaraladi. Misol uchun: "stolning oyog'i qiyshayib qoldi" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "oyoq" so'zi bo'lib inson oyog'i bilan stolning oyog'ini vazifasi bir xilligi uchun vazifadoshlik bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik.) A. Nurmonov A.Sobirov, N.Mahmudov, N. Qosimova, SH. Yusupova - T.: «ILM ZIYO», 2013.
2. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983, -B.246 6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y
3. Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" "Yosh kuch" Toshkent 2023y
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/bir-ma-noli-va-ko-p-ma-noli-so-zlar-ma-no-ko-chish-usullari>
5. uz.m.wikipedia.org

TO'LDIRUVCHI VA UNING TURLARI**URAZBEKOVA SEVARA SAKEN QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'ldiruvchi gap bo'lagi va uning turlari, kesim bilan bog'lanish shakllari, mustaqil va nomustaqil to'ldiruvchilar, vositasiz va vositali to'ldiruvchilar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Tushum kelishigi asosida shakllangan to'ldiruvchilar bilan bir qatorda, ko'makchilar orqali ifodalangan to'ldiruvchilar ham o'rganiladi. Misollar orqali har bir holat izohlanadi va grammatik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: to'ldiruvchi, mustaqil to'ldiruvchi, nomustaqil to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, kesim, gap bo'lagi

Annotation. This article discusses the grammatical concept of the **object** (to'ldiruvchi) in Uzbek syntax, its types, and how it connects to the predicate. It explores both direct and indirect objects, as well as independent and dependent objects. Objects formed by case endings and prepositional phrases are examined with clear examples and grammatical explanations.

Keywords: object, independent object, dependent object, direct object, indirect object, predicate, sentence element

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается дополнение как член предложения, его виды, способы присоединения к сказуемому, различия между самостоятельными и несамостоятельными дополнениями, а также косвенные и прямые дополнения. Обсуждаются дополнения, выраженные словами в винительном падеже, а также дополнения с предлогами. Примеры иллюстрируют каждую ситуацию и сопровождаются грамматическим анализом.

Ключевые слова: дополнение, самостоятельное дополнение, несамостоятельное дополнение, прямое дополнение, косвенное дополнение, сказуемое

To'ldiruvchi — gapning kesimga bog'lanadigan, harakatning obykti bo'lgan bo'lagi bo'lib, ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. U kesim bildirgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildiradi. To'ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog'lanadi. Agar to'ldiruvchi kesim emas, balki kesim bilan bog'lanmagan boshqa bo'lak bilan bog'lansa, u gapning emas, balki gap bo'lagining

bo'lagi bo'ladi. **Masalan:** *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim.* Bu yerda *onamdan eshitgan gaplarni birikmasi nimalarni?* so'rog'iga javob bo'lib, kesimga bir butun holda bog'langan. Bu birikma o'z ichida quyidagicha tahlil qilinadi:

- *Gaplarni — asosiy to'ldiruvchi (aniqlanuvchi).*
- *Qanday gap? — onamdan eshitgan (aniqlovchi).*
- *Kimdan eshitgan? — onamdan (aniqlovchining aniqlovchisi).*

To'ldiruvchilarning kesim bilan bog'lanishiga ko'ra turlari

1. **Mustaqil to'ldiruvchilar** Bunday to'ldiruvchilar to'g'ridan to'g'ri kesimga tobe bo'lib keladi. **Misol:** *Seni sog'indim.* — Bu yerda *seni* to'ldiruvchi bo'lib, bevosita *sog'indim* fe'liga bog'langan.

2. Nomustaqil to'ldiruvchilar

Bunday to'ldiruvchilar kesim bilan bevosita bog'lanmaydi, balki kesim vazifasini bajarmagan boshqa so'zga bog'lanadi. Ular gapning o'zida emas, balki gap bo'lagining bir qismini tashkil etadi.

Misol: *Dangasaning non yeyishini ko'r.* — Bu yerda *non yeyishini* to'ldiruvchi bo'lib, u *dangasa* so'ziga bog'langan holatda keladi, kesim bilan bevosita emas, bilvosita bog'langan.

To'ldiruvchilarning ifodalanish vositasiga ko'ra turlari

a) Kelishikli to'ldiruvchilar

Bunday to'ldiruvchilar ot va otlashgan so'zlar yordamida kelishik qo'shimchalari bilan ifodalanadi.

Misollar:

- *Senga aytar gapim bor.* — *senga* (jo'nalish kelishigida).
- *Shoirlari g'azal bitadi.* — *shoirlari* (tushum kelishigi ma'nosida, lekin -ni qo'shimchasisiz).

b) Ko'makchili to'ldiruvchilar

Bu to'ldiruvchilar ot va otlashgan so'zlarga ko'makchilar qo'shilishi orqali hosil qilinadi.

Misol: *Sen bilan olam munavvar.* — *sen bilan* — ko'makchili to'ldiruvchi.

To'ldiruvchilarning harakatga nisbatan ifodalanishiga ko'ra turlari

1. Vositasiz to'ldiruvchi

Bu to'ldiruvchi tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. Harakat bevosita ushbu obyektga yo'naltirilgan bo'ladi.

So'roqlar: *Kimni? Nimani? Qayerni?*

Misollar:

- *Vali akasini ko'rdi.*

- *Karim kitob sotib oldi.*

2. Vositali to'ldiruvchi

Bu to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishidagi yoki ko'makchi olgan so'zlar bilan ifodalanadi. Harakat bilvosita obyektga qaratilgan bo'ladi.

Misollar:

- *Akamga shaxmat o'yini yoqadi.*
- *Bizdan do'stlarga salom ayting.*
- *Karim ruchka bilan yozdi.*

To'ldiruvchi — harakatning (kesimning) obyekti bo'lgan gap bo'lagi hisoblanadi. U ot yoki otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi va kesim bilan turlicha shakllarda bog'lanadi. To'ldiruvchilar mustaqil va nomustaqil, vositasiz va vositali kabi turlarga bo'linadi. Har bir to'ldiruvchi o'ziga xos grammatik shakllanishga ega bo'lib, gapning mazmunini to'liq ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O'zbek tili grammatikasi.** 1-jild. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1992.
2. **Sh. Rahmatullayev.** Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. **N. Mahmudov, A. Jo'rayev.** Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
4. O'zbek tilshunosligiga oid zamonaviy ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalari.

O'ZBEK SHEVALARI VA ULARNING ADABIY TIL BILAN ALOQASI: LEKSIK-SEMANTIK TAHLIL.

AMINOVA FARANGIZ

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna

aminovaaafarangizxonnn@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek tili tarkibidagi shevalarning tasnifi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari hamda adabiy tilning shakllanishidagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Xususan, Qarluq-chigil-uyg'ur, Qipchoq va O'g'uz lahjalari misolida shevalarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, badiiy asarlarda dialektizmlarning qo'llanilishi, qahramon xarakteri va hududiy muhitni ochib berishdagi estetik vazifasi tahlil qilinadi. Shevalarning adabiy tilni boyitishi, milliy qadriyatlarni ifodalashdagi roli va tilshunoslikdagi dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, sheva, lahja, dialektizm, fonetika, leksika, morfologiya, adabiy til, badiiy adabiyot.

Abstract (English)

This article provides a scientific and theoretical analysis of Uzbek dialects, their classification, phonetic, lexical, and grammatical features, as well as their role in the formation of the literary language. The study highlights the distinctive aspects of the Karluk-Chigil-Uyghur, Kipchak, and Oghuz dialects. In addition, the use of dialectisms in literary works is examined as an aesthetic tool to reveal character traits and regional environments. The contribution of dialects to the enrichment of the literary language, their role in reflecting national values, and their relevance in linguistics are emphasized.

Keywords: Uzbek language, dialect, dialectism, phonetics, lexicon, morphology, literary language, fiction.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining boy tarixiy ildizlari va hududiy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'zbek shevalari uch asosiy lahjaga bo'linadi:

1. **Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi** – Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand va Buxoro hududlariga xos.

2. **Qipchoq lahjasi** – Qoraqalpog'iston, Xorazm, Jizzaxning ayrim hududlari, Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan.

3. **O'g'uz lahjasi** – Surxondaryo, Qashqadaryo va qisman Xorazm hududlarida uchraydi.

Bu lahjalar o'zbek tilining fonetik, leksik va grammatik boyligini tashkil etib, adabiy tilning shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek shevalarida fonetik farqlar keng ko'lamda uchraydi: Toshkent shevasida “q” tovushi ko'pincha yumshoq talaffuz qilinadi: *qiz* o'rniga *kiz*. Farg'ona shevasida *o* unlisi ko'pincha *u* ga almashadi: *qol* – *qul*. Xorazm shevasida esa qadimiy *g* tovushi kuchli saqlanadi: *g'oz* – *g'oz*. Bu fonetik tafovutlar xalq og'zaki nutqida saqlanib qolgan bo'lsa-da, adabiy til umumlashgan talaffuz me'yorlariga asoslanadi.

O'zbek shevalarida mahalliy so'z boyligi juda katta.

Masalan: Toshkent shevasida: *apil-tapil* (shoshma-shosharlik), *qiyma* (go'shtli ovqat).

Farg'ona shevasida: *lashman* (oddiy odam), *sanoq* (o'lchov).

Xorazm shevasida: *shopir* (haydovchi).

M.Jo'rayeva va I.Xidirovaning tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilganidek, dialektizmlar ko'pincha badiiy asarlarda qo'llanib, qahramonlarning hududiy nutqini, ularning o'ziga xosligini ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiy tili asosan Toshkent-Farg'ona lahjasiga asoslangan bo'lsa-da, boshqa lahjalardan ham ko'plab unsurlar qabul qilgan. Xususan: **Qipchoq lahjasidan**: *qo'zi* (bola qo'y), *jo'ra* (do'st). **O'g'uz lahjasidan**: *g'o'za* (paxta), *qovoq* (sabzavot). Bu jarayon adabiy tilni boyitgan, milliy adabiy tilning umumxalq tili darajasiga chiqishini ta'minlagan.

Shevalar badiiy adabiyotda obrazlilikni kuchaytirish, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va hududiy muhitini ko'rsatish uchun keng qo'llanadi. Masalan, O'tkir Hoshimov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov asarlarida qahramonlar nutqidagi dialektizmlar ularning xarakterini chuqur ochib beradi. G.Raxmonjonova va I.Xidirova tadqiqotida Chortoq so'zining kelib chiqishi va uning hududiy qo'llanishi tahlil qilingan bo'lib, bu kabi dialekt so'zlar til tarixini ham o'rganishda muhim manba ekanligi qayd etilgan.

Shevalar xalqning madaniy merosini, tarixiy tajribasini va milliy o'zligini aks ettiradi. Adabiy tilning boyligi va xalqchiligi ko'p jihatdan shevalarning o'zaro ta'siri va ularning boy so'z xazinasidan kelib chiqadi. Shuningdek, dialektologiya sohasidagi tadqiqotlar o'zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini, qadimiy turkiy tillar bilan bog'liqligini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek shevalari,

nafaqat, xalq nutqining rang-barangligini, balki milliy adabiy tilning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qadrlanadi. Ularning fonetik, leksik va morfologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari adabiy tilni boyitadi. Dialektizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi esa o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiy olami va milliy qadriyatlarini yanada haqqoniyroq ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. **Hozirgi o'zbek adabiy tili**. – Toshkent: 2009.
2. **O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi**. Birinchi jild. – Toshkent: 2000.
3. Jo'rayeva M., Xidirova I. **“Qoyalar ham yig'laydi” asarida qo'llanilgan dialektizmlarning leksik-semantik tahlili**. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*.
4. Raxmonjonova G., Xidirova I. **“Chortoq” so'zining kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar**. *Eurasian journal of academic research*.

O'ZBEK SHEVALARINING FONETIK VA LEKSIK XUSUSIYATLARI**AMIROVA MARJONA BAHODIR QIZI**

Ijtimoiy va gumanitar fanlar fakulteti

60110700-o'zbek tili va adabiyot

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

marjonaamirova243@gmail.com[Tel:+998908081498](tel:+998908081498)[Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira Temirovna](#)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'zbek tilining turli hududiy shevalarida kuzatiladigan fonetik va leksik xususiyatlar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shevalar o'zbek tilining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular tilshunoslik nuqtayi nazaridan lingvistik tafovutlarni, tarixiy taraqqiyotni va mintaqaviy til o'zgarishlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Maqolada shimoliy, janubiy va markaziy shevalar orasidagi fonetik farqlar (masalan, unli va undosh tovushlarning talaffuzi, urg'u o'zgarishlari) hamda leksik tafovutlar (hududiy so'zlar, sinonimik qatlamlar, arxaik birliklarning saqlanishi) o'rganiladi. Shuningdek, ushbu shevalarda qadimgi turkiy til unsurlarining saqlanib qolishi va boshqa tillar (rus, tojik, qoraqalpoq, qozoq) bilan aloqador leksik o'zaro ta'sirlar ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonida shevalarning tutgan o'rni va ularning zamonaviy lingvistik muhitdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek shevalari, dialektologiya, hududiy tafovutlar, fonetik xususiyatlar, leksik xususiyatlar, grammatik xususiyatlar, adabiy til.

Annotation

This article provides a systematic analysis of the phonetic and lexical features observed in various regional dialects of the Uzbek language. Dialects represent an integral part of the Uzbek linguistic system and serve as important sources for identifying linguistic diversity, historical development, and regional language changes. The paper explores phonetic distinctions (such as variations in vowel and consonant pronunciation, stress patterns) and lexical differences (including regional vocabulary, synonymic layers, and preservation of archaic elements) among northern, southern, and central Uzbek dialects. It also examines the retention of ancient Turkic elements within these dialects and the lexical influences stemming from contact with other languages

such as Russian, Tajik, Karakalpak, and Kazakh. The findings contribute to a deeper understanding of the role of dialects in the formation of the Uzbek literary language and their significance in the modern linguistic landscape.

Keywords: Uzbek dialects, dialectology, territorial differences, phonetic features, lexical features, grammatical features, literary language.

Аннотация

В данной статье проводится системный анализ фонетических и лексических особенностей, наблюдаемых в различных региональных диалектах узбекского языка. Диалекты являются важной частью языковой системы узбекского языка и служат ценным источником для выявления лингвистических различий, исторического развития и региональных изменений языка. В работе рассматриваются фонетические различия (такие как вариации в произношении гласных и согласных звуков, акцентологические особенности) и лексические отличия (включая региональную лексику, синонимические ряды и сохранение архаизмов) между северными, южными и центральными диалектами. Также анализируется сохранение древнетюркских элементов в указанных диалектах и лексическое влияние других языков — русского, таджикского, каракалпакского и казахского. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию роли диалектов в формировании узбекского литературного языка и их значимости в современном лингвистическом пространстве.

Ключевые слова:

Узбекские диалекты, диалектология, региональные различия, фонетические особенности, лексические особенности, грамматические особенности, литературный язык.

Sheva(fors.-harakat tarzi,tarz,usuli)-tilning fonetik grammatik va lug'aviy jihatdan o'zigz xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rini shisezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan bir yoki bir necha aholi maskani(odatda qishliq)da yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi.Sheva-bu boshqa sheva tizimlaridan fonetik,grammarik,so'z yasalishi va lig'aviy belgilariga ko'ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo'ladi.Masalan:qipchoq lahjasining mang'it yoki saroy shevasi,qarluq lahjasiga mansub marg'ilon shevasi va boshqalar o'zbek tilining eng kichik hududiy ko'rinishlari hisoblanadi.

O'zbek tili turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub bo'lib, uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanib kelgan. Tarixiy va geografik omillar natijasida o'zbek tilining hududiy shevalari rivojlanib, o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo'ldi. Bugungi kunda o'zbek shevalari uch asosiy guruhga bo'linadi: shimoliy-g'arbiy (qipchoq), janubiy-sharqiy (qarluq) va janubiy-g'arbiy (o'g'uz) shevalar

Toshkent shevalarida quyidagi unli tovushlar bor: $\text{э}, \text{е}, \text{ə}, \text{о}, \text{u}$. Samarqand guruh shevalarida quyidagicha unli fonemalar mavjud: $\text{э}, \text{е}, \text{а}, \text{о}, \text{е}, \text{u}$. Ushbu holatni Qarshi, Buxoro, Xo'jand, Chust shevalarida ham ko'rish mumkin. Iqon shevasida esa vokalizm – unlilar quyidagicha: oldi qator orqa qator qisqa $\text{i}, \text{y}, \text{е}, \text{е}, \text{u}, \text{о}, \text{ы}, \text{а}, \text{u}, \text{о}$ cho'ziq $\text{i:}, \text{е:}, \text{е:}, \text{u:}, \text{о:}, \text{ы:}, \text{а:}, \text{u:}, \text{о:}$ Demak, Iqon shevasi vokalizmida qisqa unlilar to'qqizta: $\text{i}; \text{ye}, \text{е}, \text{u}, \text{y}, \text{ы}, \text{а}, \text{u}, \text{о}$ (9). Cho'ziq unlilar: $\text{i:}, \text{е:}, \text{е:}, \text{u:}, \text{о:}, \text{ы:}, \text{а:}, \text{u:}, \text{о:}$ Qo'qon va Marg'ilon shevalarida sifat jihatdan farq qiladigan, ammo miqdor jihatdan farqlanmaydigan yettita fonema ($\text{э}, \text{u}, \text{ye}, \text{о}, \text{ə}, \text{а}, \text{е}$) mavjud ($\text{э}, \text{y}, \text{е}, \text{о}, \text{ə}, \text{а}, \text{э}$).

Toshkent shevalarida $\text{ə}, \text{о}$ unlilarini ko'rsak, Buxoro, Qarshi, Samarqand, Xo'jand, Chust shevalarida ham $\text{ə}, \text{о}$ unlilarni bilgan holda, Qo'qon, Marg'ilon shevalarida $\text{а}, \text{ə}, \text{о}$ unlilar borligini ko'ramiz. Andijon, Shahrison, Farg'onaning qishloq shevalari, Turkiston, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryodagi j-lovchi o'zbek shevalarida, Ohangaron vodiysining qurama shevalari vokalizmi tarkibida 10 ta fonema mavjud: $\text{а}, \text{ə}, \text{е}, \text{о}, \text{о'}, \text{u}, \text{y}, \text{э}, \text{i}$. O'zbek shevalarida unlilarning cho'ziq va qisqaligi ham ahamiyatga egadir: а:t (ad) – ism, а:t – ot (hayvon nomi); а:ch (a:sh), а:j – och (qorin och bo'ganda aytiladi); ach – о ch (eshikni och); kul (kulmoq), ku:l (ko'l); о':t (inson organizmi) – о't (olov), ot – о't (o'tmoq). Xiva shevasida yaz // ad.orf.yoz (xat yoz), $\text{ya:z // ad.orf.yoz}$ (yoz keldi). O'zbek shevalarida ikkinchi darajali cho'ziq unlilar bor bo'lib, ular yondosh undoshlarning tushishi natijasida hosil bo'ladi: $\text{shəhar} > \text{shə:ər} > \text{shə:r}; \text{bə r} > \text{bə: tegma} > \text{te:mə}$. Fonetik ultra cho'ziqlik (emfatik cho'ziqlik) jumla ohangdorligi bilan bog'liqdir: $\text{məm bəlmə:}:: \text{mən}$ (men bilmayman), səm bəlmə:sən (sen bilmaysan), u b э lm ə ::d э (u bilmaydi). Yaqin kelajakda о-lovchi , а-lovchi shevalar vokalizmi – unlilari tizimidan “e” unlisi mustahkam o'rin oladi. O'zbek shevalarida undoshlar. Tarixan xilma-xil bo'lgan o'zbek shevalarining undoshlar (konsonantizm) tizimini fonologik jihatdan, ya'ni prinsipial farq qiladigan undosh fonemalarni aniqlash va ularning talaffuz qilinish xususiyatlarini belgilash uchun ma'lum guruhdagi shevalar o'zaro qanday xususiyatlari bilan bir-biriga yaqin yoki bir-biridan nimalar bilan farq qilishini aniqlash lozim. Shuning uchun quyidagilarga etibor qarataylik: 1. Bir-biridan prinsipial farq qiladigan undosh fonemalarning miqdori va ularning sifat jihatdan xarakteristikasiga ko'ra, y-lovchi shevalar o'zbek adabiy tiliga birmuncha yaqin turadi.

Ma'lumki, shevalar ham adabiy tilimizning shakllanishi va boyishida muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan ularni o'rganish, chuqur tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri hisonlanadi. Bu borada bir qancha tilshunos olimlarimiz ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan, ularning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini o'rganib chiqqanlar va o'zbek shevalarining bir-biridan farqli jihatlarini ko'rsatib berganlar. Faqat ma'lum bir hudud doirasida qo'llanilib, boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) yoki dialektizmlar deyiladi.

Mahmud Koshg'ariydan so'ng o'zbek xalq shevalarining maxsus holda tekshirilgani aniq emas. O'zbek shevalarini yakka holda o'rganish XIX asr 2-yarmi va XX asr boshlarida sezilarli tartib asosida yo'lga qo'yilgan. Shevalarni bu tariqa o'rganish XX asrning 20-30-yillarida, ayniqsa, rivojlandi va o'zbek shevalarining biz bilmagan yangi qirralari ochila boshlandi. Bu sohada G'.O.Yunusov, U.Tursunov, A.Fitrat, E.D.Polivanov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonov singari tilshunos olimlar samarali faoliyat olib borganlar. Ayniqsa, tilshunos olim V.V.Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar-tojik,

qozoq, qoraqalpoq, turkman tillari munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnifini yaratdi. Unga ko'ra o'zbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

- 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan;
- 2) qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin;
- 3) o'g'uz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

Bular orasida ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillariga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarni o'zida namoyon qilgan o'g'uz lahjasi shevalari o'zining rang-barangligi bilan e'tiborlidir. Ayniqsa, Buxoro viloyat Qorako'l tumani qishloqlarining ayrim shevalari hozirgi turk adabiy tiliga juda yaqin. Masalan:

Gechmish - ko'rgan-kechirilgan voqea hodisalar ma'nosida,

Do'nme'k - burilish, orqaga qaytish ma'nosida,

Gunesh - oftob, quyosh ma'nosida juda keng qo'llanadi.

Bundan tashqari o'g'uz lahjasiga kiruvchi Qorako'l qishloq shevalari ba'zi xususiyatlari bilan adabiy tildan ancha farq qiladi. Masalan, Jig'achi va unga yondosh qishloq shevasi ba'zan hatto jins tanlaydi:

Pakana-adabiy tilda past bo'yli odam ma'nosida qo'llanadi, bu so'z Qorako'l shevasida quyidagicha: Xinti - Jig'achi shevasida past bo'yli erkak, cho'nti-past bo'yli

ayol ma'nosida ishlatiladi. Qorako'l qishloq shevalarida adabiy tildagi ba'zi so'zlar bilan omonimlik munosabatga kirisha oladigan leksemalar mavjud.

Oq - adabiy tilda rang, qoraning antonimi, oq - adabiy tilde farzanddan voz kechish, uni la'natlash. Qorako'l shevasida esa oq qatiq yoki adabiy tildagi ayron ma'nosida qo'llanadi.

Poylamoq - adabiy tilda birovlarini yashirincha kuzatmoq ma'nosida, shevada esa poylamoq "biror narsani taqsimlash" ma'nosida qo'llanadi.

Ayniqsa, Qorako'l qishloq shevalarida adabiy tildagi "o'lmoq" fe'lining rang-barang uslubiy qo'llanish shakllari mavjud. Adabiy tilda bu fe'l biologik o'lim, tananing jonsiz holati, vafot etmoq ma'nolarini bildirsa, 2-shaxs buyruq shakli birovga o'lim tilash ma'nosidagi qarg'ishni ifodalaydi. Biroq ayrim Qorako'l shevalarida bu so'z o'z ma'nosidan tashqari quyidagi uslubiy ma'nolarda ishlatiladi: -Ha, o'lma. Bu birovning fikrini ma'qullagan shaxsga nisbatan maqtov; -o'la - biror ishni eplolmagan subyektga nisbatan tanbeh; -o'lma endi - so'zlovchining tinglovchidan biror narsani qattiq iltimos qilishi;

-o'ldimey - bu so'zlovchining haddan ziyod chanqagani, ochiqqani yoki charchab, holdan toyganini ifodalaydi;

-o'ldim, o'lmasam - biror kutilmagan hodisa yoki yangilikdan hayratda qolgan so'zlovchi nutqida ishlatiladi;

-ibi o'lay - so'zlovchi tinglovchining fikrini rad etib, o'zinikini isbotlashga uringan vaziyatda ishlatiladi;

-o'ldik - bu 2-shaxs ko'plik shakl go'yoki so'zlovchi va tinglovchi kichkina jinoyat yoki tartibsizlik qilgan vaziyatda aybdorlik hissi bilan bilan aralashgan qo'quvni ifodalaydi;

-o'laman - birovning yurish-turishi, xatti-harakatlarini pisand qilmay ularning ortidan kuladigan so'zlovchi tomonidan ishlatiladi.

-o'laveraim lekin - biror narsadan yoki kimsadan haddan ziyod bezish ma'nosida ishlatiladi.

Bilamizki, eng yomon qa'ish bu-biravga o'lim tilashdir Adabiy tilda bu tu'ni ibora va so'z birikmalari o'ali ifodalanadi. Masalan: Yer yutgur, bo'ying lahadda chirigur, ko'zingni quzg'unlar cho'qigrn" va hokozo. Ayrim Qorako'l shevalari ham bu qa'ishni yuqori darajadagi emotsional-ekspressiv vositalar orqali bayon etadi va ulaTdagi uslubiy bo'yoqdorlik ba'zi jihatlari bilan adabiy tildan yaqqol ajralib turadi. Masalan, quyidagi frazema darajasiga ko'tarilgan birliklarga e'tibor bering: Norvonchaga mingur - bolasi aytganini qilmaganda asabiylashgan onaning nutqida qo'llanadi. Noi^von-bu adabiy tildagi "tobut" va unga "-cha" kichraytirish

qo'shimchasining qo'shilishi o'ali qarg'ishga qolayotgan shaxsning yoshi kichikligini ham o'zida ifoda etgan. Bundan tashqari -cha qo'shimchasi salbiy ma'no ifodalaydi. Ya'ni kichkina tobut emas, balki yoshligida vafot etishni hohlash va o'lim tilash ma'nosida qo'llanadi.

Jumolig'ingga yorasin (yarasin) - biror buyum yoki narsa masalasida ikki kishi tortishganda yutqazgan kishi nutqida norozilik ohangida ishlatiladi. Demak, bunda "juma" hafta kuni, -lig' fonetik o'zgarishga uchragan ot yashovchi -lik qo'shimchasi. Bilamizki, musulmon xalqida inson vafotidan keyin 3-4 hafta mobaynida marhum xotirasi uchun "juma" ma'rakasi o'tkaziladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, so'zlovchi bu birikma orqali raqibiga "sen tezroq o'l va menga nasib qilmagan nareani "juma" ma'rakangda ishlat" qarg'ishini ifodalaydi. Qo'o'l tuman Qoraun QFY da esa o'lim tilash qa'ishi quyidagi birikma o'ali keng ifodalanadi: G'oyib ota challasin - bunda G'oyib ota shu qishloqda yashab o'tgan va yangi qabristonga 1-bo'lib dafn etilgan, shu sababdan qabriston nomi ham "G'oyib ota" nomi bilan aytilgan, "challasin" esa adabiy tildagi "yoniga olsin, chaqirsin" ma'nosiga teng. Demak, bu qa'ish o'ali

so'zlovchi tinglovchiga "Sen o'l va G'oyib ota mozoriga ko'mil" demoqchi bo'ladi. Bunday shakldagi qarg'ishlar Qorako'l qishloqlaridagi qabristonlarning nomi bilan uzviy bog'liqdir. Har kim o'z yashash joyiga yaqin mozorning nomi bilan qarg'aydi. Masalan, Quvacha, Jig'achi, Vaxim, Ketmondo'gdi qishloqlari uchun tumandagi eng katta mozor bu- "Buvajesh buva" mozori umumiydir va ushbu qishloq ahlining qarg'ishida "Buvajesh buva challasin" birikmasi keng qo'llanadi. Otam challasin, bovam challasin, otamniyam so'rab qo'y, quymoningni cho'zay (biror kishi vafot etganda ma'rakasida

-"quymon" degan istaom pishiriladi) - bu qarg'ishlarni aytadigan so'zlovchining otasi yoki buvasi vafot etgan bo'lishi kerak. Va bu birikmalar "o'l" so'zini ifodalovchi qarg'ishlar hisoblanadi. Uch kecha bo'lgur - bu birikma, asosan, hayvon va parrandalarga nisbatan aytiladi. Chunki inson vafot etgach "uch", "yetti", "qirq" ma'rakalari o'tkaziladi va biror jonliq so'yiladi. Aslida, hayvon va parranda vositasida uning egasiga salbiy munosabat bildiriladi.

Sasingga suv quyilsin - bunda "sas" - ovoz. Bu birikma ham salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, insonning vafot etishiga ishora va istakni bildiradi. Adabiy tilda "suv quyganday jim" iborasi ishlatiladi. Bu ibora haddan ortiq jimlikni ifodalaydi. "Sasingga suv quyilsin"- iborasi ham o'lim tilash ma'nosida ishlatiladi va salbiy ma'no ifodalaydi.

Qoning qotsin - ma'lumki, to'shakka mixlangan odamda harakat kam bo'lgani uchun qoni sekin harakatlanadi, bemorlikning so'nggi nuqtalarida bu qon haddan ziyod quyuqlashib qotadi va hatto yuborilgan ukollar ham "yurolmay" qoladi. Qorako'l

qishloq shevalarida so'zlovchi tinglovchiga, aynan, shu taqdirni ravo ko'rgan holda qarg'aydi.

Qizilchada gitgur (ketgur) - qadimda qizamiq kasalligining davosi bo'lmagan va hatto bu kasallik ko'p holatda o'lim bilan tugagan. Bu kasallikdan qutulish uchun uni faqat erkalab aytish kerak deyilgan. Qorako'l shevasida bu kasallik "moma", "gulchechak", "gulxon", "qizilcha" kabi atamalar bilan yuritilgan. Sabab, kasallikni yaxshi gapirib, erkalab, ketishga undaganlar. Lekin bugungi kunda bu kasallik davosi topilgan bo'lsa-da, "Qizilchada ketgur" qarg'ishi el orasida mavjud.

Otaming oyoq uchida - frazeologik jihatdan tahlil qilganda bunday gapni aytadigan kishining otasi vafot etgan bo'ladi. Bu birikma "o'l" so'zini ifodalashdan tashqari, ko'pincha, Yoshi ulug', asabiy insonlar nutqida uchraydi va "yo'q", "bilmayman singari inkor ma'nolarni ham ifodalaydi. Ya'ni bunday insonlardan biror buyum yoki predmet o'zni so'ralganda inkor ma'nosini (yo'q, bilmayman) bildirish uchun ishlatilgan. Nima sababdan "oyoq uchida" deya ta'kidlanadi? Bunda marhumga nisbatan hurmat ma'nosi bor: bosh ulug' va otaning boshi tepasiga kelib gapirish yoki o'tirish gunoh sanaladi. Hatto dafn qilingan vaqtda ham farzand otadan yuqoriga dafn qilinmaydi. Mana shu odat bu qarg'ishda o'z ifodasini topadi.

Kapiningi (kafaningni) yalmama (yamlama, yutma). Bu frazema darajasidagi birlik Qorako'l qishloq shevalarida o'ta ochko'z insonlarga nisbatan aytiladi, ya'ni hamma narsa menga bo'lsin deydi daganlar toifasiga. Bu birlikning asl ma'nosi ham, Qorako'l yoshi ulug'larimizning afsonalariga ko'ra, nisbatan haqiqatga yaqin tushuncha hisoblanadi. Musulmonchilik odatiga ko'ra marhum qabrga kafan bilan qo'yiladi. Ba'zan shunday holatlar ham bo'lar ekanki, ma'lum vaqtdan keyin mayit o'z kafanini yutib borarkan. Buni esa donolarimiz o'sha odamning vafotidan keyin uning eng yaqin qondoshlari ham ketma-ket vafot etayotganidan tahmin qilar ekanlar va qabr ustidan bedov otni yuritmoqchi bo'lganlarida agar ot yurmasa, bu qabrdagi marhum aniq kafanini yutgan bo'lib chiqar ekan.

"Kapinini yalmamoq" birikmasini ikkinchi tomondan shunday tahlil qilish mumkin. Ya'ni musulmonchilikning asosiy belgilaridan biri o'lim haqligiga ishonish. Shu sabab insonlar "o'limligimga" deb kerakli narsalarni tayyorlab qo'yadi. Ochko'z va xasis odamlar esa mol-dunyo orttirish tashvishida, hatto kafanlikka asragan narsasini ham sotib yuboradi ma'nosida shu birikma ishlatiladi.

Gechchi (echki) angak (chakak) yegan - Bilamizki, echki juda ko'p va yoqimsiz maraydi. Qorako'l qishloq shevalarida esa bu tinimsiz, bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiradigan, vaysaqi insonlarga nisbatan qo'llanadi.

Yetti qavat patirga o'rab otsang, it ham yetti qadam naridan aylanib o'tadi - bu birikma, asosan, o'z holini bilmay gapiradigan va tashqi ko'rinishidan xunuk bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Har qoshiqda bir lo'vla (loviya). Bu frazema darajasidagi birlik esa har gapga, har narsaga aralashadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Mag'liyi qora - mag'liy so'zi adabiy tildagi "manglay" so'zidir. Manglay bu birlikda ko'chma ma'noda "tole" ma'nosida ishlatiladi. "Mag'liyi qora" atamasi "baxtsiz", "toleyi qora" kabilar bilan sinonimlik qatorida turadi. Bundan tashqari, "mag'liyi qora" birligiga qarama-qarshi ma'noda "mag'liyi oq" iborasi ham qo'llanadi. Bu "baxtli", "toleyi kulgan" ma'nolarini anglatadi. "Husht" degani qo'y bo'lsa, cho'l-u bediyoga sig'maydi. Bu ibora o'ta maqtanchoq, ozgina narsani kata qilib ko'rsatadigan, quruq va'daboz kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bu adabiy tildagi "katta gapirmoq", "katta og'iz" iboralariga teng keladi.

Do'vron (Davron) ko'ra (ko'rga) do'vr yetdi. Bu iborada Davron atoli ot sifatida ishlatiladi. Ya'ni, omadi kelmay yurgan odamning birdan omadi kelsa-yu, bosartusarini bilmay qolsa, mana shu ibora ishlatiladi. Yana bir tomoni "davr yetmoq" "omadga erishmoq" ma'nosida ishlatiladi. Omadi kelgan odamning atrofida laganbardorlar ko'payadi. Hatto u "ko'r" bo'lsa-da, uni ko'klarga ko'taradilar. Iborada Davron, davr so'zlari ohangdoshlik hosil qiladi. Umuman, Qorako'l shevalarida bu kabi birliklar juda ko'p uchraydi.

Bu birliklarning paydo bo'lishi hududiy va ijtimoiy hayot tarzi bilan bog'liq hodisadir. Shevaga xos birliklar o'ziga xos joziba, obrazlilikka ega bo'lib, ta'sir doirasi katta. Hatto ba'zi qarg'ish va frazeologik birliklar qofiya va shakliy jihatdan yetuk tuzilganki, bunga she'riyga yaqin hodisa sifatida baho berish mumkin.

O'xshatish, qiyoslash, sifatlash, jonlantirish kabi she'riy san'atlar bu iboralarning tasvir jihatini kuchaytirgan va ta'sirini oshirgan. Respublikamizning chekka hududlarida bu kabi hali o'rganilmagan iboralar, birliklar juda ham ko'p. Ularni o'rganish va fanga olib kirish ona tilimizni boyitadi, rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. N.Erkaboyeva. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" - Toshkent: LESSON PRESS, 2017.
3. Mirzayev.M.M."O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari",Toshkent,1969-yil.

4. Baskakov N.A. "Turkiy tillarning dialektologik tahlili" - Moskva, 1975.
5. Qorayev M. "O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari" - Toshkent, 2020.
6. Tursunov U. "O'zbek tilining dialektologik tadqiqotlari" - Toshkent, 2022.
7. Jo'raev A. "O'zbek shevalari va ularning adabiy til bilan bog'liqligi" - Toshkent, 2012.

SINTAKSISDA SO'Z TARTIBI VA UNING MA'NO IFODALASHDAGI O'RNI

DUSHANOVA FOTIMA SAPARBOY QIZI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

dushanovafotima02@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya: Mazkur maqolada grammatikada sintaksis bo'limi, uning kelib chiqishi, shuningdek, o'zbek tilida so'z tartibining sintaktik tizimdagi o'rnini, uning ma'no va uslubiy imkoniyatlari hamda gapning mazmunini aniqlashdagi ahamiyati keng yoritilgan. Til birliklarining joylashuvi faqat grammatik me'yorni emas, balki fikrning mantiqiylik va ta'sirchanligini ham belgilab berishi ilmiy jihatdan asoslab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Sintaksis, so'z tartibi, gap qurilishi, ma'no, urg'u, kommunikativ maqsad, uslub.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается раздел синтаксиса в грамматике, его происхождение, а также роль порядка слов в синтаксической системе узбекского языка, его значение и стилистические возможности, а также его значение в определении содержания предложения. Научно доказано, что расположение языковых единиц определяет не только грамматическую норму, но и логику и выразительность мысли.

Ключевые слова: Синтаксис, порядок слов, структура предложения, значение, ударение, коммуникативная цель, стиль.

Abstract: This article extensively discusses the section of syntax in grammar, its origin, as well as the role of word order in the syntactic system of the Uzbek language, its meaning and stylistic possibilities, and its importance in determining the content of a sentence. It is scientifically proven that the arrangement of language units determines not only the grammatical norm, but also the logic and expressiveness of thought.

Keywords: Syntax, word order, sentence structure, meaning, emphasis, communicative purpose, style.

“Sintaksis” termini, garchi ayni hozirgi ma'noda bo'lmasada, dastlab mil. av. 3-asrda Yunonistonda stoiklar tomonidan qo'llangan. Sintaksisning ilk prinsiplarini yunon grammatisti Apolloniy Diskol morfologik negizda, xususan, so'z turkumlari Si tarzida asoslagan. Sintaksis tarixi yevropa va rus tilshunosliklarida bo'lganidek turkiy

tillarda (o'zbek tilida) ham o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'tgan. Qomusiy alloma Mahmud Koshg'ariyning 11-asrda "Javoxir unnahvi fi lugotitturk" ("Turkiy tillar sintaksisi kridalari") asarini yaratganligi buning yaqqol isbotidir. 20-asrda o'zbek tili sintaksisiga, qisman, sintaktik qurilishiga rus tilshunosligidagi nazariy tadqiqotlar ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan. O'tgan asrda o'zbek tili sintaksisi sohasida Fitrat, Ayub G'ulomov, F. Abdullayev; G'. Abdurahmonov, M. Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqa jiddiy tadqiqotlar olib bordilar.[1]

Sintaksis (*qadimgi yunoncha*: σύν-ταξις - syntaxis — tuzilma, tartib, birikma):

1) nutq birliklarini shakllantirishning muayyan tillar uchun xos bo'lgan vositalari majmui;

2) grammatikaning so'zlarni so'z birikmalari va gaplarga, soda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikish usullarini o'rganuvchi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi, o'zaro ta'sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo'limi. "Sintaksis" termini so'z birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda qo'llanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish ma'nosini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tilning grammatik qurilishida Sintaksis juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi sodda gap va qo'shma gap kabi til birliklari kiradi.

Sintaksis morfologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Sintaksisda, xuddi morfologiyada bo'lgani singari, so'z asosiy birlik hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so'z shakllarining so'z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o'rganiladi. So'z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o'z ichki xususiyatlariga egadir.

Gap, gap bo'lagi, so'z birikmasi sintaksisning asosiy birliklaridir. Bularga keyingi paytlarda abzats, period, matn kabi birliklar ham kiritilmoqda. So'z birikmasi tobe aloqa (bog'lanish) vositalari — moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan hosil bo'ladi. [2]

O'zbek tilshunosligida sintaksis bo'limi gap qurilishi va so'zlarning tartibini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Gap tarkibidagi bo'laklarning joylashuvi tilimizda erkinlikka ega bo'lsa-da, bu erkinlik chegaralangan bo'lib, grammatik qonuniyatlar hamda nutqning kommunikativ maqsadiga bo'ysunadi. G'ulomovning ta'kidlashicha, "o'zbek tilida odatdagi so'z tartibi ega-kesim-to'ldiruvchi-aniqlovchi-hol ko'rinishida namoyon bo'lib, bu tartib fikrning neytral va aniq ifodalanishini ta'minlaydi" [3, 56-b.].

Biroq, so'z tartibining o'zgarishi gapning ma'nosini ham, urg'usini ham o'zgartirishi mumkin. Masalan, "Talaba kitob o'qiyapti" jumlasida odatiy tartib

kuzatilsa, “Kitobni talaba o‘qiyapti” shaklida kitobga urg‘u beriladi, “Talaba o‘qiyapti kitobni” tarzida esa ohangdorlik va uslubiylik kuchayadi. Asqarova ta’kidlaganidek, “so‘z tartibi o‘zgarishi orqali nutqning ma’lum bo‘lagi axborot markaziga aylanadi” [4, 74-b.]. Demak, so‘z tartibi gapning kommunikativ vazifasini belgilovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

So‘zlar tartibi gaplarning so‘zlashganda va yozma nutqdagi joylashuvi bo‘lib, so‘z tartibi gap mazmunini o‘zgartiradi. Bu bo‘lim sintakasda alohida o‘rganiladi. So‘z tartibi gapning asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Gapda so‘zlarning tog‘ri joylashuvi aytilayotgan fikri tinglovchiga tezroq yetib borishga yordam beradi. Asosan, o‘zbek tilida so‘z tartibida birinchi ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol, keyin kesim joylashadi. Bu odatdagi tartib hisoblanadi. Odatdagi tartib so‘zlashuv nutqida muntazam qo‘llanuvchi faol birlik sanaladi. Bu tartib ega va kesimdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Yoz boshlandi. Ammo bu joylashuvning o‘zgarish holati ham mavjud bo‘lib, bu holat “inversiya” deb ataladi. Bu tartib o‘zgargan tartib ham deyiladi. Masalan, “Boshlandi yoz” ! Badiiy adabiyot va she’riyat ko‘proq inversiyaga asoslaniladi. Adabiyotda bu holat asosan qofiya talabi bilan ham yuzaga keladi. Shoir yoki yozuvchi qahramon his-hayajoni yuzaga chiqarishi uchun ham o‘zgargan tartibdan foydalanadi. Ega va kesimning o‘rin almashishi natijasida darak gap his-hayajon gapga o‘rin almashinadi. Gapdagi so‘zlar tartibining bunday o‘zgarishlarga uchrashi grammatik vaziyatga ham ta’sir ko‘rsatadi. [5, 200-b].

So‘z tartibining ma’no ifodalashdagi o‘rni, ayniqsa, matn uslubida yaqqol seziladi. Ilmiy uslubda qat’iy tartib ustuvor bo‘lib, fikrning aniqligi va mantiqiyliigi ta’minlanadi. Badiiy adabiyotda esa ijodkor odatiy tartibni buzib, badiiy-estetik ta’sir kuchaytiriladi. Mahmudov bu holatni shunday izohlaydi: “Badiiy matnda so‘zlarning odatiy joylashuvi buzilishi, birinchi navbatda, muallifning uslubiy niyatiga xizmat qiladi” [6, 119-b.]. Navoiy yoki Qodiriy asarlarida uchraydigan sintaktik erkinlik tilning obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, so‘z tartibining o‘zgarishi nutq madaniyatida ham katta ahamiyatga ega. Jo‘rayevning fikricha, “So‘zlarning gapdagi joylashuvi nafaqat grammatik me’yor, balki nutq madaniyatining ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi” [7, 83-b.]. Bu hol shuni ko‘rsatadiki, so‘z tartibi oddiy grammatik hodisa emas, balki mantiqiy-mazmuniy, kommunikativ va estetik vazifalarni bajaruvchi murakkab til birliklaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida so‘z tartibi gapning grammatik tuzilishini ta’minlash, ma’no yukini belgilash, urg‘uni aniqlash, uslubiy vositalarni boyitish va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir so‘zning

gapdagi o'rni tasodifiy emas, balki muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, tilning mantiqiy, semantik va estetik imkoniyatlarini ochishda beqiyos xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili grammatikasi, 2j., Toshkent, 1975;
2. Mahmudov N., Nurmonov A., O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis, Toshkent, 1995.
3. G'ulomov A. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 1985. – 320 b.
4. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1992. – 280 b.
5. Qosimova K. O'zbek tilida sintaktik birliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 200 b.
6. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2000. – 356 b.
7. Jo'rayev A. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Universitet, 2010. – 240 b.

INTERNET TILI VA UNING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIGA TA'SIRI.**ERGASHEVA NOZIMA ALIM QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanita fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

23/3 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada internet tili va uning hozirgi o'zbek adabiy tiliga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Internet kommunikatsiyasida keng qo'llanilayotgan qisqartmalar, transliteratsiya, inglizcha so'zlarning kirib kelishi, emoji va boshqa vositalarning o'zbek tilidagi nutqqa ta'siri yoritiladi. Internet tili ijobiy jihatdan til leksikasining boyishiga, xalqaro muloqot imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilishi bilan birga, salbiy tomondan adabiy til me'yorlarining buzilishiga olib kelishi qayd etiladi. Maqolada internet tili va adabiy til o'rtasidagi muvozanatni saqlash zaruriyati asoslanadi.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние интернет-языка на современный узбекский литературный язык. Рассматриваются сокращения, транслитерация, заимствования из английского языка, использование эмодзи и другие элементы, активно применяемые в интернет-коммуникации. Отмечается, что интернет-язык с одной стороны способствует обогащению лексики и расширению возможностей международного общения, а с другой стороны приводит к нарушению литературных норм. В статье обосновывается необходимость сохранения равновесия между интернет-языком и литературным языком.

Annotation

This article analyzes the impact of Internet language on the modern Uzbek literary language. It examines abbreviations, transliteration, borrowings from English, the use of emojis, and other elements widely used in online communication. The study highlights that Internet language, on the one hand, enriches vocabulary and expands opportunities for international communication, but on the other hand, it leads to the violation of literary norms. The article emphasizes the necessity of maintaining a balance between Internet language and the literary language.

XXI asrda globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda internet alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda

internet nafaqat axborot olish va uzatish vositasi, balki insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot maydoniga aylangan ²²[1]. Shu bilan birga, "internet tili" tushunchasi shakllandi. Internet tili – bu virtual makonda yuzaga kelgan, o'ziga xos leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega kommunikativ tizimdir [2]. Mazkur maqolada internet tilining o'zbek adabiy tiliga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Internet tilining o'ziga xos xususiyatlari. Internet tili qisqa va tezkor muloqotni taqozo etadi. Shu sababli unda qisqartmalar, transliteratsiya, emoji va stikerlardan keng foydalaniladi. O'zbek tilida ham "salom" o'rniga "slm", "rahmat" o'rniga "rhm" kabi qisqartmalar keng qo'llanmoqda [3].

Internet tili va leksik boyish. Internet orqali yangi tushunchalar tilimizga kirib keldi. Masalan, "blog", "chat", "like", "post", "story" kabi so'zlar o'zbek yoshlarining kundalik nutqida mustahkam o'rnashib bormoqda. Bu jarayon tilning leksik boyishiga xizmat qiladi [4]. Shuningdek, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar xalqaro muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Internet tili va adabiy til me'yorlari. Internet tili o'zining tezkorligi va qulayligi bilan birga, adabiy til me'yorlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, imlo qoidalariga amal qilinmasligi, shevalarning keng aralashuvi, jargon va slanglarning ortib borishi kuzatilmoqda [5]. Bu esa yoshlarning rasmiy yozma nutqida xatolarga yo'l qo'yishiga sabab bo'lmoqda. Yoshlar nutqida internet tilining o'rni. Zamonaviy yoshlar uchun internet asosiy muloqot maydoni hisoblanadi. Shu bois, ularning nutqida internet tilining ta'siri aniq seziladi. Bir tomondan, bu holat yoshlarning xorijiy tillarni tez o'rganishiga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, o'zbek adabiy tili me'yorlaridan uzoqlashish xavfini tug'diradi [6]. Internet tilidan to'g'ri foydalanish zaruriyati. Bugungi kunda tilshunos olimlar va pedagoglar oldida muhim vazifa turibdi: internet tilidan foydalanishda adabiy til me'yorlarini buzmaslik, yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirish va adabiy tilni asrab-avaylash. Shu bilan birga, internet tilidagi qulay vositalardan samarali foydalanish, lekin ular adabiy til qoidalarini siqib chiqarmasligiga e'tibor qaratish lozim [7].

Xulosa qilib aytganda, internet tili bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib kelgan bo'lib, u hozirgi o'zbek adabiy tiliga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va virtual muloqot vositalarida qo'llanayotgan qisqartmalar, inglizcha o'zlashmalar, emojilar va internet jargonlari

yoshlar nutqida faol qo'llanilmoqda. Bu holat tilimizning boyishiga ham, me'yorlardan chetlanishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, internet tili jamiyatning kommunikativ ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda va uning tezkorlik, ixchamlik, emotsional ifodalilik kabi afzalliklari mavjud. Shu bilan birga, adabiy til me'yorlaridan uzoqlashish, so'zlarning noto'g'ri yozilishi va begona unsurlar ta'sirida milliy tilning sof holda saqlanishi xavf ostida qolishi mumkin. Demak, internet tilidan oqilona foydalanish, tilshunoslik nuqtai nazaridan uni ilmiy jihatdan o'rganish hamda yoshlar ongida adabiy til me'yorlariga hurmat uyg'otish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Internet tili o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga salbiy emas, balki ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim. Shundagina milliy tilimiz zamonaviy talablar bilan hamohang rivojlanadi va global axborot maydonida o'z mavqeini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 2006.
3. To'xliiev B., Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Rajabov A. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
5. Saparov A. O'zbek tilida internet kommunikatsiyasi xususiyatlari. – Toshkent: TDPU ilmiy maqolalar to'plami, 2021.
6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
7. Jo'rayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2020.

O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA TARG'IBOTI

MENGILOVA GULBAHOR ABDUQODIR QIZI.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti.

Gumanitar fanlar fakulteti.

O'zbek tili va adabiyoti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanish bosqichlari, zamonaviy o'zbek tilshunosligining ustuvor yo'nalishlari va ilmiy tadqiqotlar ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilining shevalarini o'rganishdagi muammolar, terminologiya va leksikografiya masalalari ham tahlil qilinadi. Mazkur maqola O'zbek tilini rivojlantirish va uni jamiyat hayotida keng targ'ib etishga qaratilgan tadqiqotlar va yondashuvlarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar:

O'zbek tili, davlat tili, tilshunoslik, shevalar, terminologiya, leksikografiya, taraqqiyot.

O'zbek tilining davlat tili maqomi O'zbekistonda 1989-yilda qabul qilingan qonun bilan belgilangan bo'lsa-da, uning haqiqiy rivojlanish bosqichi mustaqillik yillaridan keyin boshlandi [1]. Bu davrda o'zbek tiliga e'tibor kuchayib, til siyosatida milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash uchun ko'plab qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosi ta'minlandi [2]. Xususan, ta'lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy sohalarda o'zbek tilining qo'llanilishi va rivoji uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Bu borada olib borilgan chora-tadbirlar davlat tili mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda [3].

Zamonaviy o'zbek tilshunosligi keng qamrovli tadqiqot yo'nalishlarini qamrab oladi. Fonetik va morfologik tadqiqotlar bilan bir qatorda, so'nggi yillarda pragmatika va kognitiv lingvistika kabi yangi yo'nalishlar ham keng rivojlanmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda terminologiya va lug'atchilik sohasida olib borilayotgan izlanishlar ham o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan hisoblanadi [4].

Tilshunoslikning ushbu yo'nalishlari nafaqat tilning grammatik va fonetik tizimini chuqur o'rganishga, balki tilning ijtimoiy funktsiyalarini kengroq tushunishga

ham imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, lingvistik tadqiqotlar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'zbek tilining kompyuter lingvistikasi va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarini yaratish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

O'zbek tili uzoq tarixga ega bo'lib, uning shakllanish va rivojlanish jarayoni turli tarixiy davrlarga borib taqaladi [5]. Shu sababli, o'zbek tilining tarixini o'rganish bilan birga, undagi shevalarning tahlili ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O'zbekistonning turli hududlarida mavjud bo'lgan shevalar va lahjalarni o'rganish orqali xalqning til madaniyati va lingvistik merosini saqlab qolish masalasi kun tartibida turibdi.

Biroq, o'zbek shevalarini tadqiq etishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Xususan, ba'zi shevalarning o'rganilishi uchun yetarli darajada ilmiy manbalar yo'qligi yoki ularning yo'qolish xavfi tadqiqotchilar oldida muammolar yaratmoqda. Bundan tashqari, ba'zi shevalar zamonaviy o'zbek tili me'yorlari bilan mos tushmasligi natijasida ular o'rganishda lingvistik qarashlarni yangilash zaruriyati paydo bo'lmoqda.

O'zbek tilining zamonaviy rivojlanishi bilan birga, yangi atamalar va terminlarning paydo bo'lishi tilning lug'aviy boyishini ta'minlamoqda [6]. Ayniqsa, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarda yangi terminologiyani yaratilishi o'zbek tilining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo, terminologiya masalasida bir qator muammolar ham mavjud: yangi terminlarning me'yoriy jihatdan muvofiqligi, ularning keng jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va foydalanilishidagi murakkabliklar shular jumlasidandir [7].

Leksikografiya sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. So'nggi yillarda o'zbek tilining boy lug'aviy imkoniyatlarini namoyon etuvchi yangi lug'atlar yaratilmoqda. Xususan, terminologik lug'atlar, izohli lug'atlar va elektron lug'at bazalari o'zbek tilining ilmiy va amaliy qo'llanilishida muhim o'rin tutmoqda. Biroq, bu sohada ham yana ko'plab tadqiqot va izlanishlarni amalga oshirish zarur.

Bugungi kunda texnologik rivojlanish va raqamli taraqqiyotning ijtimoiy hayotga ta'siri katta. Shu sababli, O'zbek tilining raqamli platformalarda qo'llanilishi va rivojlanishi dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, zamonaviy kompyuter dasturlari va sun'iy intellekt vositalari yordamida tilni avtomatik qayta ishlash, nutqni tanish va tarjima qilish imkoniyatlari kengaymoqda [8].

O'zbek tilining raqamli maydondagi o'rni va ahamiyatini oshirish uchun tilshunoslar va dasturchilar o'rtasida hamkorlik kuchaytirilishi kerak. Hozirgi kunda o'zbek tiliga oid elektron lug'atlar, avtomatlashtirilgan matn tahlili dasturlari, grammatik tekshiruv tizimlari yaratilmoqda va bu boradagi izlanishlar davom etmoqda. Bu kabi loyihalar O'zbek tilining global axborot makonidagi nufuzini oshirish va uni texnologik asrda saqlab qolishga yordam beradi.

O'zbek tili taraqqiyoti va targ'iboti davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tilni rivojlantirish va uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun qator ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, tilning lug'aviy boyligini oshirish, yangi so'zlar va terminlarni kiritish, til me'yorlarini rivojlantirish kabi sohalar ham o'zbek tilining umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, o'zbek tilini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalasi har bir tilshunos va til fidoyisining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimov, O. (2020). "O'zbek tilining rivojlanishi va zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari". Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Karimov, I. (1992). "O'zbek tili - davlat tili sifatida". Toshkent: Sharq Nashriyoti.
3. Qodirov, N. (2015). "O'zbek tilining leksikografiyasi va terminologiya masalalari". Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
4. Yusupov, Sh. (2018). "O'zbek shevalarining lingvistik xususiyatlari". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
5. Alimov, M. (2021). "Til siyosati va til madaniyati: O'zbekiston tajribasi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Nashriyoti.
6. Azizov, B. (2017). "O'zbek tilining ilmiy tadqiqotlari va ularning istiqbollari". Toshkent: O'zbek Tilshunosligi Instituti Nashriyoti.
7. Mirzayeva, D. (2019). "O'zbek tili tarixi va uning rivojlanish bosqichlari". Toshkent: Universitet Nashriyoti.
8. Qo'ziev, S. (2022). "O'zbek tilining raqamli taraqqiyotdagi ahamiyati". Toshkent: Ilm-fan Nashriyoti.

OT SO'Z TURKUMINING GRAMMATIK KATEGORIYASI VA FUNKSIONAL SHAKLLARI

INATULLAYEVA DILNURA ISROIL QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-kurs talabasi Telefon: +998991182522 dilnuraishroilovna4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ot so'z turkumining grammatik kategoriyalari hamda ularning til tizimidagi funksional shakllari tahlil etilgan. Otlarning umumiy grammatik xususiyatlari, son, egalik va kelishik kategoriyalari misollar asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, otlarning sintaktik vazifalari va uslubiy imkoniyatlari haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ot, grammatik kategoriya, funksional shakl, son, egalik, kelishik, sintaktik vazifa.

Аннотация. В данной статье рассматриваются грамматические категории имени существительного и их функциональные формы в системе языка. Анализируются общие грамматические особенности существительных, категории числа, принадлежности и падежа. Также уделено внимание синтаксическим функциям и стилистическим возможностям существительных.

Ключевые слова: имя существительное, грамматическая категория, функциональная форма, число, принадлежность, падеж, синтаксическая функция.

Annotation. This article examines the grammatical categories of the noun and their functional forms in the language system. The general grammatical features of nouns, categories of number, possession, and case are analyzed. Attention is also paid to the syntactic functions and stylistic possibilities of nouns.

Keywords: noun, grammatical category, functional form, number, possession, case, syntactic function.

O'zbek tilida otlar eng asosiy so'z turkumlaridan biridir. Otlar predmetni, shaxsni, jonivorlarni, hodisalarni, tushuncha va buyumlarni bildiradi. Til tizimida otlar gapning markaziy bo'laklari – ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi hol, va ko'makchi bo'lak sifatida faol ishlatiladi. Otni ma'no jihatdan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda ularning grammatik xususiyatini muayyanlashtiruvchi semantic belgi asosga olinadi. Ot quydagi xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

1. Kim yoki nima so'roqlariga javob bo'lishiga ko'ra
2. Sanalish-sanalmasliga ko'ra.

Ot morfologik o'rganuvchi so'z sifatida o'ziga xos morfologik paradigmalar ega. Ot so'z turkumida sintaktik kategoriyalar keng qo'llanishiga ega. Xususan, KK (kelishik kategoriyalari) EK (egalik kategoriyalari) voqealanishi uchun bu turkumda cheklangan imkoniyat mavjud. Ammo unda kesimlik kategoriyasining voqealanishi nisbatan chegaralangan.¹

1. Son kategoriyasi. O'zbek tilida otlarning birlik va ko'plik shakllari mavjud. Birlik shakl predmetning bitta ekanligini bildiradi. Misollar: kitob, bola, uy. Ko'plik shakl esa ko'plik qo'shimchasi -lar yordamida yasaladi. Misol: kitoblar, bolalar, uylar. Ayrim hollarda ko'plik qo'shimchasi ma'noga ta'sir etib, umumiylik, hurmat yoki mubolag'a ma'nolarini ham bildiradi. Misol: ("Odamlar dedi").⁵

2. Egalik kategoriyasi. Otlar egalik qo'shimchalari yordamida ma'lum bir shaxsga tegishlilikni bildiradi. Masalan: kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitoblari. "Egalik kategoriyasi otning shaxs bilan grammatik aloqasini ko'rsatadi".²

3. Kelishik kategoriyasi. O'zbek tilida otlar oltita kelishikda qo'llaniladi. Bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi bular sirasiga kiradi. Kelishiklar yordamida otlar boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Misol: ("Kelishik kategoriyasi sintaktik bog'lanishning asosiy vositasidir").⁴

4. Kesimlik kategoriyasi. Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi.¹ U bu turkumda ikki ko'rinishga ega bo'ladi:

- a) Hozirgi zamon ko'rinishi;
- b) O'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p holda ot so'z turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.¹

Kesimlik kategoriyasining ot so'z turkumidagi hozirgi, o'tgan va kelasi zamon ko'rinishida quyidagi tusga kelishi. Misollar;

Hozirgi zamon:

ishchi+man ishchi+miz

ishchi+san ishchi+siz

ishchi+0 ishchi+lar

O'tgan zamon:

Ishchi+edimishchi+edik

Ishchi= eding ishchi+edingiz

Ishchi +ediishchi+edi(lar)

Otlarning funksional shakllari esa gap tarkibida turli vazifalarni bajaradi. Ega (Bola kitobni o'qiydi); to'ldiruvchi (Men kitobni o'qidim); qaratqich aniqllovchi, (O'quvchining kitobini olib keldi.). "Otlarning funksional shakllari gapning mazmunini kengaytiradi va aniq ifodalaydi").² Otlar badiiy, ilmiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi. Badiiy matnlarda obrazlilikni ta'minlasa, ilmiy uslubda aniq tushuncha va kategoriyalarni ifodalaydi, publitsistik matnlarda esa ta'sirchanlikni oshiradi.

O'zbek tilidagi otlar til tizimining asosiy qatlami bo'lib, predmetlikni bildiruvchi asosiy so'z turkumidir. Ularning son, egalik va kelishik kabi grammatik kategoriyalari nutq jarayonida muhim vazifalarni bajaradi. Otlarning funksional shakllari esa gapning tuzilishi va ma'nosini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ne'matov H, Nurmonov A, Mahmudov N, Qurbonova M, Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Qilichev M., To'xtasinov M. O'zbek tilshunosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. G'ulomov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.

YUKLAMA VA UNING MA'NO TURLARI

ISLAMOVA MOHINUR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-kurs 23/3-guruh talabasi

islamovamohinur22@gmail.com

+998 930998088

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o'zbek tilida yuklamalarning lingvistik xususiyatlari, ularning tuzilishiga ko'ra turlari va semantik guruhlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Xususan, so'roq-taajjub hamda ayiruv-chegaralov yuklamalari alohida o'rganilib, ularning shakl, imlo va ma'no xususiyatlari aniqlashtirilgan. Misollar orqali yuklamalarning gap va so'zga qo'shilganida hosil qiladigan semantik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, yuklamalarning nutqiy jarayondagi roli, ularning ta'sirchanlik, aniqlik va emotsional bo'yoq yaratishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Yuklama-qo'shimcha, yuklama-so'z, so'roq yuklamasi, taajjub yuklamasi, ayiruv-chegaralov yuklamasi, kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi, aniqlov yuklamasi, semantik vazifa.

АННОТАЦИЯ: В данной статье научно проанализированы лингвистические особенности частиц в узбекском языке, их типы по структуре и семантические группы. В частности, отдельно исследованы вопросительно-восклицательные и разграничительно-ограничительные частицы, уточнены их форма, орфографические и смысловые характеристики. На примерах показаны семантические возможности, возникающие при присоединении частиц к слову и предложению. Также выявлена роль частиц в речевом процессе, их значение в создании выразительности, точности и эмоциональной окраски.

Ключевые слова: частица-суффикс, частица-слово, вопросительная частица, восклицательная частица, разграничительно-ограничительная частица, усилительно-выделительная частица, уточняющая частица, семантическая функция.

ABSTRACT: This article provides a scientific analysis of the linguistic features of particles in the Uzbek language, their types according to structure, and their semantic groups. In particular, interrogative-exclamatory and delimiting-restrictive particles are studied separately, with clarification of their formal, orthographic, and semantic

characteristics. Through examples, the semantic possibilities that arise when particles are attached to words and sentences are demonstrated. Furthermore, the role of particles in the speech process is highlighted, emphasizing their importance in creating expressiveness, precision, and emotional coloring.

Keywords: particle-suffix, particle-word, interrogative particle, exclamatory particle, delimiting-restrictive particle, intensifying-emphatic particle, specifying particle, semantic function.

Yordamchi so'z deb yurituvchi guruh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular so'z va gaplarni bir-biriga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi. Ayrim gap bo'lagiga yoki gapga bir butun holda taalluqli qo'shimcha ma'no ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z yuklama deyiladi.²³ O'zbek tilida yuklama yordamchi so'zlarning alohida turini tashkil etadi. U mustaqil holda gap bo'lagi sifatida chiqmaydi, balki ayrim so'z yoki butun gapga qo'shimcha ma'no yuklash, ta'kid, kuchaytirish, chegaralash yoki emotsional tus berish uchun xizmat qiladi. Tilshunoslikda yuklamalar nutqning mazmunini aniqlashtiruvchi va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Yuklamalarning ko'pchiligi qo'shimcha shaklida, ayrimlari esa so'z shaklida qo'llanishi borasida ko'plab bahslar ketadi.

Yuklamalar nutq uslublariga xoslanganligiga ko'ra ham farq qiladi. Ana shu belgiga ko'ra yuklamalar 2 guruhga bo'linadi:

- a) So'z yuklamalari: *axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki, nahot, agar, mobodo, basharti, atigi, tim, liq, lim, g'irt, jiqqa, naqadar, naq, qoq, aqalli* kabilar
- b) Qo'shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a (ya), -da, -u (yu), -oq (yoq), -gina (kina, qina), -ku, -ki* kabilar.

A.Nurmanov ta'kidlaganidek, aslida, qo'shimcha yuklamalar guruhidagi yuklamalar qo'shimchalar ekan, ularni so'z turkumlari tarkibida o'rganish shartlidir, chunki so'z turkumlariga bo'linish uchun u, albatta so'z maqomiga ega bo'lishi kerak.²⁴

Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatik qurilishini ilmiy o'rganishi boshlanishi bilanoq, so'z turkumlari, ularning tarkibi gapdagi vazifalari haqida qarashlar yuzaga keladi. Bu sohani o'rganishda professor A.Fitrat, Q.Ramazanov, X.Qayumiylar o'zlarining izlanishlarini olib borgan. XX asr o'rtalariga kelib o'zbek tili so'z turkumlarini izchil ilmiy asoslarda o'rganishga bo'lgan harakatlar o'sib bordi.

²³ Hojiev A. Lingvistik-terminalarning izohli lug'ati-Toshekn:O'qituvchi,1985.

²⁴ Nurmanov A, Sobirov A, Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: Sharq.2002.-B 321-323.

Masalan, 1957-yilda Faxri Kamol tahriri ostida nashr etilgan. "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili" kitobid taklif etilgan so'z turkumlari sirasi (mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Yuklama, ko'makchi, bog'lovchi, undov va taqlid so'zlar)²⁵ o'tgan asr mobaynida barcha akademik nashrlar va darsliklarga deyarli o'zgarishlarsiz kirib kelmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi yuklamalarning so'z turkumlari qatoridagi o'rnini belgilashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni nazarda tutamiz:

1. so'z turkumi va uning tashkil etuvchisini ta'riflash;
2. so'z turkumlarini ajratishning mantiqiy mezonlarini aniqlash;
3. so'z, leksima, so'z shaklini farqlash;
4. mustaqil va yordamchi so'zlarni farqlash;
5. so'z turkumlarining munosabatlaridagi o'ziga xosliklarini kuzatish;
6. yuklamaga ta'rif berish;
7. yuklamalar qatorini va funksional-semantik guruhlarini aniqlash;
8. yuklamalarning boshqa yondosh hodisalar bilan munosabatini tahlil qilish;
9. yuklamalarning yordamchi so'zlar o'rnida tutgan o'rnini aniqlash.

Yuklamalarning tadqiqi jarayonida quyidagi yangiliklar qo'lga kiritilgan:

1. so'zlarni turkumlarga ajratishning mantiqiy va lisoniy mezonlarini o'zaro munosabatda ko'rib chiqilgan;
2. so'zlarni turkumlarga ajratishda yuklamalarning tutgan o'rni ko'rib chiqilgan;
3. so'zlarni turkumlarga tasniflash mezonlari qatoriga qiyoslash mezonini kiritilgan;
4. so'z turkumining birligi va uning til tizimidagi tutgan mavqei belgilangan;
5. yuklamalar qatori tadqiqotda taklif etilgan mezonlar asosida ko'rib chiqilgan va guruhlangan;
6. yuklamalarning yondosh hodisalarga nisbatan tutgan o'rni ochib berilgan;
7. yuklamalarning yordamchi so'z turkumlari qatorida tutgan o'rni belgilangan.²⁶

Z. Isaqov yuklamalar qatoriga quyidagi birliklarni kiritgan: -ki, -da, -u (-yu), ham, -ku, -mi, -chi, -a (-ya), faqat, na, na-na, tugul, oq (yoq), -gina, -dir, -gin, qoqq, aqlli, nahot, nahotki, agar, mobodo, basharti, atigi, nihoyatda, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa, -jon, -oy, -xon, -bek, -poshsha, -bonu, xuddi, naq, naqadar kabi.

Mazkur yuklamalar semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratiladi:

²⁵ Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili/F.Kamol tahriri ostida- Toshkent:Fan, 1957. Bq 303-305.

²⁶ Isaqov Z.S. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rni. Filologiya fanlari nomzodi...dis.- Farg'ona. 2005. B-5

1. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: -ki, -da, -u (-yu), ham, -ku, aqlli, -a (-ya), naqadar, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa. Bu tur yuklamalar gap yoki so'z ma'nosini kuchaytirib, unga ta'kid ma'nosi qo'shadi. Masalan: Shu gapni aytdim-ku! U juda aqlli-da!

2. Taajjub yuklamalari: nahot, nahotki. Hayrat, taajjub yoki ishonchsizlikni bildiradi. Masalan: Nahotki bu gap rost bo'lsa?

3. Ayiruv yuklamalari: faqat, -gina. Ma'noni chegaralash, ajratish uchun ishlatiladi. Masalan: U faqat kitob o'qidi. Onamgina menga tasalli berdi.

4. Shart yuklamalari: agar, mobodo, basharti. Shart, taxmin ma'nolarini bildiradi. Masalan: Agar u kelsa, men ham boraman.

5. Sub'ektiv baho yuklamalari: -jon, -oy, -bek, -xon, -poshsho. So'zlovchining mehr, hurmat, erkalash kabi munosabatini bildiradi. Masalan: Opa-jonim, Azizaxon.

6. Inkor yuklamalari: na...na, tugul. Gapga inkor yoki qarama-qarshilik ma'nosini yuklaydi. Masalan: U na o'qidi, na yozdi.

7. So'roq yuklamalari: -chi, -mi. Gapni so'roq shakliga keltiradi. Masalan: Sen ham borasanmi? Kitobni o'qiding-chi?

8. Aniqlov yuklamalari: xuddi, qoq, naq. So'z yoki gap ma'nosini aniqlab, qo'shimcha ravishda aniqlik beradi. Masalan: U xuddi otasining o'zi.

9. Gumon yuklamasi: -dir. Gumon, taxmin ma'nosini ifodalaydi. Masalan: U kechqurun kelar-dir.

O'zbek tilida yuklamalar yordamchi so'zlarning muhim turini tashkil qiladi. Ular grammatik jihatdan gap bo'lagi bo'la olmasada, semantik vazifasi jihatidan juda faol hisoblanadi. So'z va gaplarga qo'shib, qo'shimcha ma'no yuklaydi, nutqqa aniqlik, ta'kid, kuchaytirish yoki hissiy bo'yoq beradi. So'roq-taajjub yuklamalari savol va hayratni ifodalashda, ayiruv-chegaralov yuklamalari esa ma'noni chegaralash va ajratishda xizmat qiladi. Kuchaytiruv, aniqlov, inkor va tasdiq yuklamalari esa nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois yuklamalarni chuqur o'rganish o'zbek tilining semantik boyligini va nutq madaniyatini yanada teranroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov G'. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy gramatikasi. Morfologiya va sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. –B. 320
2. Hojiev A. Lingvistik-terminlarning izohli lug'ati-Toshkent:O'qituvchi,1985.
3. Nurmanov A, Sobirov A, Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: Sharq.2002.-B 321-323.

4. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili/F.Kamol tahriri ostida- Toshkent:Fan, 1957.
Bq 303-305.
5. Nurmanov A, Sobirov A, Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent:
Sharq.2002.-B 321-323.
6. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili/F.Kamol tahriri ostida- Toshkent:Fan, 1957.
Bq 303-305.
7. [https://www.scribd.com/document/553636298/yuklama-va-uning-mano-
turlari](https://www.scribd.com/document/553636298/yuklama-va-uning-mano-turlari)

OT SO'Z TURKUMI VA UNING TILDAGI AHAMIYATI**JUMABOYEVA KAMOLA SHUHRAT QIZI**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: **Komilova Gulmira Temirovna**

Anotatsiya: Mazkur maqolada ot so'z turkumi, uning grammatik belgilari, tildagi o'rni va funksional imkoniyatlari haqida ilmiy yondashuv asosida fikr yuritiladi. Otlarning leksik-semantik xususiyatlari, morfologik shakllanishi hamda sintaktik vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilida otlarning so'z yasovchi vositalar orqali kengayish imkoniyatlari ham izohlanadi.

Annotation: This article explores the noun category, its grammatical features, and its role in the Uzbek language. The study analyzes the lexical-semantic characteristics, morphological formation, and syntactic functions of nouns, as well as their word-building potential in modern Uzbek.

Аннотация: В данной статье исследуется категория существительных, ее грамматические особенности и роль в узбекском языке. В исследовании анализируются лексико-семантические характеристики, морфологическое образование и синтаксические функции существительных, а также их словообразовательный потенциал в современном узбекском языке.

Kalit so'zlar: ot, so'z turkumi, grammatik kategoriya, sintaksis, morfologiya, so'z yasalishi, til tizimi.

Keywords: noun, word category, grammatical category, syntax, morphology, word formation, language system.

Ключевые слова: существительное, категория слова, грамматическая категория, синтаксис, морфология, словообразование, языковая система.

Til inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining ifodasi bo'lib, uning har bir qatlami o'ziga xos grammatik va semantik yukni bajaradi. Shulardan biri — ot so'z turkumidir. Otlar tildagi eng asosiy va qadimiy so'z turkumlaridan hisoblanadi. Ular predmet, shaxs, joy, narsa, tushuncha yoki hodisani bildiradi. Shuning uchun ham otlar tilda "nom beruvchi" so'zlar sifatida markaziy o'rin tutadi.

O'zbek tili tizimida otlarning turlari, yasalish usullari, shakl o'zgarishlari hamda gapdagi vazifasi grammatik jihatdan chuqur o'rganilgan. Ammo ularning tildagi

umumiy ahamiyati faqat grammatik shakllar bilangina belgilanmay, balki ma'no, ifoda va uslubiy imkoniyatlari bilan ham bog'liq.

Ot so'z turkumi, avvalo, ma'nosi bilan boshqa so'z turkumlaridan farqlanadi. U shaxsni (o'qituvchi, bola), predmetni (kitob, daraxt), joyni (shahar, tog'), vaqtni (yoz, kecha) yoki mavhum tushunchani (do'stlik, ozodlik) bildiradi. Otlar predmetlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar sifatida "narsa va hodisalar nomi" deb ham yuritiladi.

Otlar ma'nosiga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi: anig' otlar (Toshkent, Anvar, Amudaryo) va tur otlar (shahar, inson, daryo). Bundan tashqari, ular mavhum (baxt, sevgi, g'am) va aniq (kitob, uy, daraxt) ma'noli turlarga ham ajratiladi. Ushbu semantik tabaqalanish til tizimida otlarning fikr ifodalashdagi qudratini ko'rsatadi.

Otlarda son, egalik va kelishik kategoriyalari mavjud.

Son kategoriyasi birlik (kitob) va ko'plik (kitoblar) shakllarida namoyon bo'ladi.

Egalik kategoriyasi narsa yoki shaxsning kimga tegishli ekanini bildiradi: kitobim, uyimiz, o'qituvchingiz.

Kelishik kategoriyasi esa otning gapdagi boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ifodalaydi: bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari.

Bu shakl kategoriyalari otning gapdagi sintaktik rolini belgilaydi. Masalan, "O'quvchi kitob o'qiyapti" gapida "o'quvchi" – ega, "kitob" – to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Otlar tilda yangi so'z yasashning asosiy manbalaridan biridir. Ular suffiks, qo'shimcha yoki so'z birikmalari orqali hosil bo'ladi. Masalan: kitob + chi = kitobchi, daraxt + zor = daraxtzor, temir + yo'l = temiryo'l.

Shuningdek, otlardan sifat (do'st → do'stona), fe'l (gul → gullamoq) yoki boshqa ot (meva → mevazor) hosil qilish mumkin. Bu esa o'zbek tilining boy so'z yasovchi tizimiga dalildir.

Ot gapda turli sintaktik vazifalarni bajaradi: ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki kesim bo'lishi mumkin. Masalan:

Ega: O'quvchi keldi.

To'ldiruvchi: O'qituvchi o'quvchini chaqirdi.

Aniqlovchi: Kitob do'koni ochildi.

Kesim: U shifokor.

Bu holatlar otlarning grammatik moslashuvchanligini va tildagi markaziy o'rni borligini ko'rsatadi.

Ot so'z turkumi nafaqat til tizimining grammatik qismi, balki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va tarixining ko'zgusidir. Har bir millat tili orqali o'z hayot

tarzini, qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "ona", "ota", "yurt", "mehmon", "do'st" kabi otlar xalqning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Tilshunoslar fikriga ko'ra, o'zbek tilida 70 foizdan ortiq so'zlar ot turkumiga mansubdir. Bu esa tilda nom berish, tasniflash, aniqlik kiritish jarayonlarida otlarning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ot so'z turkumi o'zbek tilining eng asosiy, mustahkam va keng imkoniyatlarga ega bo'lgan qatlamidir. U fikrni aniq, to'liq va lo'nda ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Otlar orqali inson tafakkuri, borliq haqidagi tushunchasi va ijtimoiy hayotdagi o'rni tilda o'z ifodasini topadi. Shu bois o'zbek tilshunosligida otlarning semantik, morfologik va sintaktik jihatdan chuqur tadqiq etilishi til rivoji va madaniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Yo'ldoshev M. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.

Abduazizov A. O'zbek tilining grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

Karimov R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.

Jo'rayev M. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisi. – Samarqand, 2021.

Qosimova N. Til va tafakkur munosabati. – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyoti, 2019.

OLMOSH SO'Z TURKUMI**RO'ZIYEVA DIYORA SOXIBOVNA**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Tilshunoslikda olmoshlar nutqiy muloqotning muhim birliklaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu maqolada olmosh so'z turkumining ta'rifi, guruhlari va ularning grammatik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shaxs, ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik, o'zlik va noaniq olmoshlarning qo'llanish doirasi misollar bilan yoritilib, nutqni ixcham va ifodali qilishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Olmosh, so'z turkumi, shaxs olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlar, belgilash olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari, o'zlik olmoshlari, grammatik xususiyat.

Olmosh- predmet, shaxs, belgi yoki miqdorni bevosita atamay, ularning o'rnida qo'llanadigan mustaqil so'z turkumidir. Masalan: men, sen, bu, shu, hech kim, qandaydir. Olmoshlarning asosiy ma'nosi va qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi matnda oydinlashadi. Olmoshlarning ma'nosi noaniq va umumiy bo'ladi. Ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra, olmosh umumlashgan predmet (olmosh-ot: men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima), umumlashgan belgi (olmosh-sifat: bu, shu, o'sha, qaysi, allaqanday, hech qanday), umumlashgan miqdor (olmosh-son: qancha, necha, shuncha, o'shancha) bildiruvchi olmoshlarga bo'linadi. Olmoshlar noaniqligi, so'z yasallishining yo'qligi bilan boshqa so'z turkumlaridan farqlanadi. Ular leksik ma'noga emas, balki grammatik vazifaga ko'proq ega bo'ladi. Shu sababli olmoshlar aniq predmet nomini bermaydi, balki uni ko'rsatadi yoki almashtiradi. Olmoshlar fikrni mantiqan aniqroq ifodalash, takrorlanishni oldini olish, tinglovchiga tushunarli qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ular lingvistik iqtisod tamoyilini ta'minlaydi, ya'ni nutqni ixcham qiladi. Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

Kishilik olmoshlari- men, sen, u, biz, ular bo'lib, shaxslar o'rnida ishlatiladi.

O'zlik olmoshi- o'z so'zidan iborat bo'lib, predmet ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatadi.

Ko'rsatish olmoshi- bu, shu, o'sha, u, ana, mana kabilar predmet va uning belgilarini ko'rsatadi.

So'roq olmoshlari- kim? nima? qancha? qanday? kabilar predmet, belgi va miqdor haqida so'roqni bildiradi.

Belgilash olmoshi- hamma, bari, ba'zan, har nima, har qanday kabilar predmet va uning belgisini umumlashtirib, jamlab ko'rsatadi.

Bo'lishsizlik olmoshi- hech kim, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi kabilar inkor ma'nosini bildiradi.

Olmosh so'z turkumi quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega: 1) olmosh mustaqil so'z turkumlaridan farqli ravishda, predmet va uning belgisini, miqdorini, ularga atama (nom) bo'lmagan holda ko'rsatish xususiyatiga ega. 2) olmoshlar gapda bajaradigan vazifasiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi;

1. Ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: men, sen, u, biz, siz, ular, kim, nima, har kim, har nima, hech kim, hech nima, allakim, allanima, bir narsa, bir nima, birov, kimdir, nimadir kabilar.

2. Bu olmoshlar ot singari so'z o'zgartiruvchi bajargan sintaktik vazifalarni (ega, to'ldiruvchi, qaratqich ba'zan kesim) bajaradi.

3. Sifat o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: bu, shu, o'sha, u, ana, mana, qanday, qaysi, har qanday, har qaysi, hech qaysi, hech qanday, hech bir, qandaydir, qaysidir, allaqaysi, allaqanday kabilar.

4. Bu olmoshlar sifat singari otga bog'lanib, belgiga ishora qiladi, gapda asosan, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini (ba'zan kesim) bajaradi.

1) son o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: necha, nechta, nechanchi, qancha, bir necha, bir qancha, qanchadir kabilar.

Bu olmoshlar son singari otga bog'lanib, miqdoriy belgiga ishora qiladi, gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini (ba'zan kesim) bajarib keladi.

2) ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: qayerga, qayerda, qayerdan, qachon, har qancha, hech qancha, nega kabilar.

Bu olmoshlar ravish singari fe'lga bog'lanib, belgiga ishora qiladi, gapda asosan, hol vazifasini bajaradi.

3) Olmoshlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari yuqorida sanab o'tilgan ma'no xususiyatlari bilan bog'langan holda turlichadir.

Ot o'rnida qo'llaniluvchi olmoshlar otga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga, sifat o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar sifatga xos, son o'rniga qo'llanuvchi olmoshlar songa xos, ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar ravishga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

4) Olmosh mustaqil soʻz turkumi sifatida soʻz yasash xususiyatiga ega emas. Lekin olmoshdan sanoqli qoʻshimchalar yordamida ot, ravish yoki feʼl yasalishi mumkin: oʻzlik, manmanlik kabi otlar sizla, senla, sensira kabi feʼllar.

5) Olmoshlarning boshqa soʻz turkumidan ajratib turadigan asosiy sintaktik xususiyatlaridan olmosh hech vaqt oʻzidan oldin aniqlovchi olmaydi.

Olmoshning maʼno turlari.

1.

Kishili

k olmoshlari nutq jarayonida ishtirok etadigan shaxslarni va nutqda tilga olingan shaxs yoki predmetni koʻrsatadi. Kishilik olmoshlari ot oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlardir. Shuning uchun ham kishilik olmoshlari otga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Kishilik olmoshlari gapda ega, kesim, toʻldiruvchi va qaratqich-aniqlovchi vazifasini bajaradi. Kishilik olmoshlari nutqda shaxslarni ifodalash, aniqlash va ularga murojaat qilishda muhim ahamiyatga ega.

2.

Koʻrsat

ish olmoshlari shaxs, predmet yoki belgini vaqt va oʻringa nisbatan koʻrsatish, ajratish uchun ishlatiladi. Koʻrsatish olmoshlariga: bu, shu, oʻsha, ana shu, u, mana bu, ana oʻsha kabilar kiradi. Bu olmoshlar sifat oʻrnida kelib, belgiga ishora qiladi, qaysi soʻrogʻiga javob beradi. Kishilik olmoshlari otga bogʻlanib kelib, gapda sifatlovchi-aniqlovchi (baʼzan kesim) vazifasini bajaradi.

3.

Soʻroq

olmoshlari shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida soʻroqni bildiradi yoki nomaʼlum shaxsni koʻrsatadi. Soʻroq olmoshlariga: kim, nima, qanday, qanaqa, necha, qancha, qayerda, qayerga, qayerdan, nega, qalay, qani kabilar kiradi. Ot oʻrnida qoʻllanuvchi soʻroq olmoshlari son, egalik, kelishik qoʻshimchalarini oladi. Bunday olmoshlar gapda ot singari turli vazifalarni bajaradi. Sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi olmosh sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida, ravish oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, hol vazifasida, baʼzan kesim vazifasida keladi.

4.

Belgila

sh olmoshlari shaxs, predmet, uning belgisi, miqdorini jamlab yoki umumlashtirib koʻrsatadi. Belgilash olmoshlariga hamma, barcha, bari, har qanday, har qaysi, har narsa, har qancha kabilar kiradi. Bu olmoshlardan hamma, barcha, bari kabi olmoshlar predmet yoki belgini jamlab koʻrsatadi. Baʼzi olmoshi toʻdaning, jamlikning qismini koʻrsatadi. Shaxs, predmet, belgini yakkaga ajratib koʻrsatadigan har kim, har narsa, har nima, olmoshlari ot oʻrnida kelib, egalik, kelishik, son qoʻshimchalarini oladi.

5.

Boʻlish

sizlik olmoshlari mutlaqo mavjud emaslik maʼnosi orqali ifodalangan predmet, belgi

yoki miqdorni umumlashtirib korsatadi. Bo'lishsizlik olmoshlariga hech kim, hech nima, hech narsa, hech bir, hech qanday, hech qanaqa, hech qancha kabilar kiradi. Bo'lishsizlik olmoshlarining ham morfoligik ham sintaktik xususiyatlari belgilash olmoshlari kabidir. Bo'lishsizlik olmoshlari gapda shaxs yoki predmetning mavjud emasligini ko'rsatadi, harakatning bajarilmaganini yoki bajarilmasligini ta'kidlaydi, inkor ma'nosini kuchaytiradi. Ular nutqda inkor gaplar bilan qo'llanganda mazmunni yanada keskinlashtiradi.

6.

O'zlik

olmoshlari o'z so'zidan iborat bo'lib, u aniq, konkret shaxsni ajratib, ko'rsatish yoki ot va kishilik olmoshlarining ma'nosini konkretlashtirib, ta'kidlab ko'rsatadi. O'zlik olmoshi ot o'rnida kelib, shaxsga ishora qiladi. O'zlik olmoshi egalik, kelishik, son qo'shimchalarini oladi, ot bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi. O'zlik olmoshining asosiy vazifalari shaxs yoki predmetni o'ziga nisbatlash, gapda ta'kidlash va ajratib ko'rsatish, shaxs olmoshlari bilan qo'shilib, mazmunni aniqlashtirish.

7.

Gumon

olmoshlari mavjud, ammo noaniq, noma'lum bo'lgan shaxs, predmet, belgi va miqdorni bildiradi. Gumon olmoshlari ham morfoligik va sintaktik xususiyatlari qaysi so'z turkumi o'rnida kelganiga qarab belgilanadi. Gumon olmoshlarining asosiy vazifasi gapda noaniqlikni bildiradi va so'zlovchining aniq bilmasligi yoki taxmin qilishni ifodalaydi. Asosan -dir qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi: kimdir, nimadir, qaysidir, qandaydir, qayerdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Tursunov, N. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili,, 1992 A.Abdulazizov. "O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi,, Toshkent, 1992
2. S. Rahimov, B. Umurqulov, "Hozirgi o'zbek adabiy tili,, Toshkent, 2001
3. S. Rahimov, B. Umurqulov, "Hozirgi o'zbek adabiy tili,, Toshkent, 2003
4. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili,, 2-qism. Toshkent, "O'qituvchi,, nashriyoti, 1980 yil

O'ZBEK SHEVALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SAIDOVA MARJONA ABUTOLIB QIZI
INATULLAYEVA DILNURA ISROIL QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

23/3-guruh 3-bosqich talabalari

smarjona46@gmail.com

dilnurainatullayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek shevalari xalq og'zaki nutqining muhim shakllaridan biri sifatida o'rganiladi. Shevalar mintaqalarga qarab talaffuzi, leksik boyligi hamda grammatik qurilishi jihatidan farqlanadi va har biri o'ziga xos madaniy-hududiy xususiyatlarni aks ettiradi. Maqolada shevalarga xos so'zlarning adabiy tildan farqli jihatlari, ularning shakl va mazmunidagi tafovutlar hamda bir xil ma'nodagi so'zlarning viloyatlar va lahjalar kesimida turlicha nomlanishi tahlil qilinadi. Shevalarning lingvistik jihatdan o'rganilishi til boyligini kengaytirishda va milliy til taraqqiyotini chuqurroq anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье узбекские диалекты рассматриваются как одна из важных форм народной устной речи. Диалекты различаются по произношению, лексическому богатству и грамматическому строю в зависимости от региона, отражая при этом уникальные культурные и историко-географические особенности каждого региона. В статье анализируются отличия диалектных слов от литературного языка, различия в форме и значении, а также варианты наименований одних и тех же понятий в разных областях и говорах. Лингвистическое изучение диалектов служит важным источником для расширения языкового запаса и более глубокого понимания развития национального языка.

Annotation: In this article, Uzbek dialects are considered one of the important forms of folk oral speech.

Dialects differ in pronunciation, lexical richness, and grammatical structure depending on the region, reflecting the unique cultural and historical-geographical characteristics of each area.

The article analyzes the differences between dialect words and the literary language, variations in form and meaning, as well as the different names for the same concepts in various regions and dialects.

The linguistic study of dialects serves as an important source for expanding the vocabulary and gaining a deeper understanding of the development of the national language.

Kalit soʻzlar: shevalar, oʻzbek shevalari, oʻzbek dialektologiyasi, adabiy til, fonetik, leksik, grammatik, yumurta, chumoli.

Ключевые слова: диалекты, узбекские диалекты, узбекская диалектология, литературный язык, фонетика, лексика, грамматика, яйцо, муравей.

Keywords: dialects, Uzbek dialects, Uzbek dialectology, literary language, phonetics, lexis, grammar, egg, ant.

Shevalarni oʻrganish til tarixi uchun ham, xalqning tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda yoʻq boʻlib ketgan, oʻzgarishga uchragan leksik elementlar, ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan boʻlishi mumkin. Shuning uchun dialektologiya til tarixini oʻrganish uchun juda ham ahamiyatli. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarining bizga noaniq boʻlgan xususiyatlarini hozirgi oʻzbek shevalarining fonetik, leksik, morfologik, leksik-morfologik xususiyatlarini ilmiy asoslarda oʻrganish bilan aniqlanib, toʻldirish mumkin.

Sheva – biror tilning oʻziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ega boʻlgan kichik qismi (oralik sheva, shevalar guruhi degan terminlar ham bor). Namangan shevasi, Toshkent shevasi, Shahrisabz kabi shevalarni misol sifatida keltirish mumkin. Oʻzbek shevalari – oʻzbek tilining hududiy boʻlinmalari boʻlib, ular fonetik, leksik va grammatik jihatdan adabiy tildan farqlanadi. Shevalar lugʻat tarkibining salmoqli qismini umumturkiy soʻzlar tashkil qiladi. Bunday soʻzlar oʻzbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin yoki kuchli va kuchsiz fonetik oʻzgarishga uchrashi ham mumkin. Masalan, yer-jer, bash-bas.

Oʻzbek shevalari oʻzbek tilining mahalliy koʻrinishi sifatida, undagi boʻlgan aksariyat, qatlamni oʻzida birlashtiradi. Oʻzbek shevalaridagi soʻzlar asosan uch manbadan: arab, fors-tojik va rus tilidan oʻzlashgan, lekin kamroq boʻlsa-da, boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar bor. Taqdqiqotlar shuni koʻrsatadiki, shevalar lugʻat tarkibida fors-tojikcha soʻzlar koʻproq, arabcha soʻzlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal soʻzlar juda kam uchraydi.

Shevalarning maxsus soʻzlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oʻzbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan soʻzlar: masalan, togʻa-nagʻachi, pochcha-damad, oyi-acha, mushuk-pishak va h.

2. Kuchli fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar: masalan, tashqi-dishan, tuproq-yorpaq, qirq-qix, g'ilof-g'ilp.

Shuningdek, shevaga xos so'zlarning o'ziga xos ma'no munosabatiga ko'ra quyidagicha guruhlantirish mumkin:

• Ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so'zlar bilan yuritiladi. Masalan, chaqaloq (Toshkent), buvak (Farg'ona), bala (Shim.o'z.sh);

• Tuxum (Toshkent), mayak (qipchoq), jimirta (Xorazm);

• Chumoli (Toshkent), morcha (Samarqand), qarinja (Xorazm);

• Chorchay (Toshkent), matal (Samarqand), ertay (Xorazm);

• Ayni bir so'z shevalarda turlicha ma'noga ega bo'ladi. Masalan,

• shati – Toshkentda arava qismi nomi, Farg'onada narvon;

• Buvi – Toshkentda ota va onaning onasi, Farg'onada ona ma'nosida;

• Pashsha – Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Farg'ona va Shim.o'z shevalarida chaqadigan hashorat.

• Narsa va buyunlar bir vazifani bajarsa-da, ularning yasalishi va harakatiga ko'ra nomlanishi turlicha bo'ladi. Masalan, Nanpar – u qush va parranda patidan yasaladi, (Samarqand va Navoiy);

Chakich – yog'och va simdan yasaliib, urish va yassilash ma'nosini ifodalaydi, (Toshkent va Farg'ona);

Duki – u duk-duk taqlid so'zlardan olingan (Shimoliy o'zbek shevalarida).

O'zbek shevalarning leksik tarkibida an'anaviy leksika asosiy o'rin egallaydi. Shevalarning an'anaviy leksikasi hozirgi kunda, asosan, keksalar nutqida qo'llanadigan bo'lib, ular sof leksik dialektal so'zlar deyiladi. Masalan,

• Ovqat nomlarini aytib o'tadigan bo'lsak: jutum (ovqat), piyava (sho'rva), osh, lahjato'ppi, g'ilmind, chalob;

• Dehqonchilikka xos so'zlar: sanga (ko'p bosilgan yer), o'pang (ekilmagan yer), o'q ariq/shox ariq (asosiy ariq), mola (tekislash);

• Chorvachilikka oid so'zlar: inak (sigir), at (ot), gechchi (echki), xo'tik (eshak), buzak (buzoq), lok (erkak tuya);

• Kiyim nomlari: guppicha (nimcha), ko'yne (ko'ylak), chopon, qalpoq, chakmon, jelak;

• Uy-ro'zg'or buyumlariga oid: lagan (tovoq, tog'ara), sanmug' (sandi), paqir (satil, chelak), yostiq (bolish, dostiq, takya, lo'la) kabilar shular jumlasidandir.

Xulos qilib shuni aytish joizki, shevaga xos so'zlar adabiy tildan birmuncha farq qiladi, turli viloyat shevalari o'zining rang-barangligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Shevalarning yorqin va rangliligi aholi nutqida ochiq-oydin ochib berilgan va bu ularning nutqiga ko'rk bag'ishlaydi. Shunindek, o'zbek shevalari kengligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Ashurboyev "O'zbek dialektalogiyasi", Toshkent – Nodirabegim nash. 2021-yil;
2. T. Ernazarov, V. Karimjonova va boshqalar "O'zbek dialektalogiyasi", Toshkent – Universal nash. 2012-yil;
3. B. To'ychiboyev, B. Hasanov "O'zbek dialektalogiyasi", Toshkent – A.Qodiriy xalq nash. 2004-yil;
4. V. Reshedov, Sh. Abdurahmonov "O'zbek dialektalogiyasi", Toshkent . 1978-yil.

UG'ATLARNING TILDAGI O'RNI VA LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI

SUYUNOVA NIGORA ALISHER QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Telefon: +998885373505

alisherovna005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “lug‘at” tushunchasi, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar farqi yoritilgan. Shuningdek, izohli, tarjima, tarixiy, dialektal, etimologik, imlo, orfoepik, frazeologik, tematik, terminologik va boshqa turdagi lug‘atlar haqida ma’lumot berilgan. O‘zbek lug‘atchiligi tajribasi asosida lug‘atlarning til taraqqiyotidagi o‘rni va vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, leksikografiya, izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, terminologik lug‘at, etimologiya.

Annotation (in English)

This article discusses the concept of a “dictionary,” its socio-cultural importance, and the distinction between encyclopedic and linguistic dictionaries. It also provides information about various types of dictionaries such as explanatory, bilingual, historical, dialectal, etymological, spelling, pronunciation, phraseological, thematic, and terminological dictionaries. Drawing on the experience of Uzbek lexicography, the role and functions of dictionaries in language development are analyzed.

Keywords: Dictionary, lexicography, explanatory dictionary, bilingual dictionary, terminological dictionary, etymology.

Аннотация (на русском языке)

В статье рассматривается понятие «словарь», его социально-культурное значение, а также различие между энциклопедическими и лингвистическими словарями. Приводятся сведения о различных видах словарей: толковых, переводных, исторических, диалектных, этимологических, орфографических,

орфоэпических, фразеологических, тематических и терминологических. На основе опыта узбекской лексикографии проанализирована роль и функции словарей в развитии языка.

Ключевые слова: Словарь, лексикография, толковый словарь, переводный словарь, терминологический словарь, этимология.

Har bir millatning madaniy taraqqiyoti, ma'naviy dunyosi va tafakkuri uning til boyligi orqali namoyon bo'ladi. Tilning leksik qatlamini tizimlashtirish va tartibga solish esa lug'atlar vositasida amalga oshadi. Lug'atlar tilning o'zgarish jarayonlarini, xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini, madaniyatini hamda tafakkurini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida lug'atchilik (leksikografiya) fani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asrda shakllandi. Bu sohada o'zbek tili izohli, etimologik, tarjima va terminologik lug'atlarining yaratilishi xalqning madaniy merosini saqlash va boyitishda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Lug'at — muayyan tildagi so'zlar, iboralar yoki morfemalar majmuasini tartibli ravishda taqdim etuvchi manbadir. U o'quvchi va tadqiqotchiga nafaqat so'zning ma'nosini, balki uning kelib chiqishi, talaffuzi, uslubiy rangini ham ko'rsatadi. Lug'atlar ijtimoiy-madaniy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, xalq tafakkurini, tarixiy xotirasini va ilmiy dunyoqarashini mujassam etadi. Tilshunos Sh. Rahmatullayev ta'kidlaganidek, "lug'atlar tilning jonli tarixidir, ular so'zlar hayot yo'lini aks ettiradi" Lug'atlar mazmuni va maqsadiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: **ensiklopedik** va **lingvistik** lug'atlar. Ensiklopedik lug'at so'zlar orqali ifodalangan tushunchalar va predmetlar haqida ma'lumot beradi (masalan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"), lingvistik lug'at esa so'zning ma'nosini, grammatik, fonetik va uslubiy xususiyatlarini ochib beradi (masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati").

Lingvistik lug'atlar, o'z navbatida, *izohli, tarjima, tarixiy, dialektal, etimologik, frazeologik, terminologik, orfoepik* va boshqa turlarga ajraladi.

Izohli lug'atlar. So'zlarning ma'nosi, qo'llanish sohasi, grammatik va fonetik xususiyatlarini yoritadi. Eng yirik namuna — "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1982).

Tarjima lug'atlari: Ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasida ma'no almashinuvini ta'minlaydi. Masalan, "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (1954), "Inglizcha-o'zbekcha lug'at" (1968) va boshqalar.

Tarixiy va etimologik lug'atlar: So'zlarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotini o'rganadi. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2000) bu yo'nalishda muhim manbadir.

Dialektal lugʻatlar: Sheva va lahjalarda qoʻllaniladigan soʻzlarni qayd etadi. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati” (1971) bu boradagi asosiy manbalardan biridir.

Terminologik lugʻatlar: Fan, texnika va ijtimoiy sohalarga oid terminlarni tartibga soladi. Oʻzbekiston mustaqilligi davrida 50 dan ortiq soha boʻyicha 140 ga yaqin terminologik lugʻatlar nashr etilgan.

Frazeologik lugʻatlar: Turgʻun birikmalar va iboralarni oʻz ichiga oladi. Sh. Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” (1978) bunga misoldir.

Lugʻatlar tilni meʼyorlashtiradi, adabiy tildagi birliklarni belgilaydi va yangi soʻzlarning qoʻllanish darajasini tartibga soladi. Ular oʻquvchi uchun maʼlumot manbai, ilm-fan uchun esa tadqiqot vositasi vazifasini bajaradi. Oʻzbek lugʻatchiligidagi izohli va tarjima lugʻatlar xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy taraqqiyotini koʻrsatib beradi. Shuningdek, lugʻatlar yosh avlodning savodxonligini oshirishda, til madaniyatini rivojlantirishda asosiy vositadir.

Lugʻatlar tilshunoslikning eng muhim manbalaridan biri sifatida, nafaqat soʻzlarning maʼnolarini ochib berish, balki xalqning madaniy-maʼnaviy rivojlanishini aks ettiradi. Ular tilni boyitish, meʼyorlashtirish, oʻqitish va targʻib qilish jarayonlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek lugʻatchiligi tajribasi shuni koʻrsatadiki, har bir yangi lugʻat tildagi oʻzgarishlarni qayd etadi, uni boyitadi va til madaniyatini yuksaltiradi. Shu bois, lugʻatlar nafaqat tilshunoslar uchun, balki butun jamiyatning maʼnaviy xazinasini sifatida qadrlanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Oʻzbek tilining izohli lugʻati.** – Toshkent, 1982.
2. **Rahmatullayev Sh.** *Oʻzbek tilining etimologik lugʻati.* – Toshkent, 2000.
3. **Hojiyev A.** *Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati.* – Toshkent, 1974.
4. **Begmatov E.** *Oʻzbek ismlari.* – Toshkent, 1991.
5. **Usmon O., Doniyorov R.** *Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati.* – Toshkent, 1965.
6. **Radlov V. V.** *Opit slovary tyurskix narechiy.* – Sankt-Peterburg, 1888–1911.
7. **Maʼrufov A.** *Paronimlar lugʻati.* – Toshkent, 1974.
8. **Sodiqova M., Usmonova Oʻ.** *Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati.* – Toshkent, 1977.
9. **Gʻulomov A. va boshq.** *Oʻzbek tilining morfem lugʻati.* – Toshkent, 1977.
10. **Kissen I. A.** *Slovar naiboleye upotrebitelnix slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika.* – Moskva, 1972.
11. **Qurbonova M., Abuzalova M.** *Leksikografiya va lugʻatchilik tamoyillari.* – Toshkent: TDPU, 2018.

PUNKTUATSIYA VA UNING O'ZBEK TILIDAGI O'RNI**XOLBAYEVA MAXFUZA BAHROM QIZI**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: Koilova Gulmira

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi punktuatsiya tizimi, uning shakllanish bosqichlari, grammatik, mantiqiy va uslubiy asoslari hamda yozma nutqdagi o'rni atroflicha tahlil qilingan. Tinish belgilarining to'g'ri qo'llanilishi yozma nutq madaniyatining muhim omili sifatida yoritilgan. Shuningdek, punktuatsiya va intonatsiya o'zaro bog'liqligi, boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish va uni o'qitish metodikasiga doir masalalar ham ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the punctuation system in the Uzbek language, its historical development, grammatical, logical, and stylistic bases, and its role in written discourse. The study emphasizes the correct use of punctuation marks as a key factor of writing culture. Furthermore, it explores the interrelation between punctuation and intonation, a comparative study with other languages, and methodological approaches to teaching punctuation from a scientific perspective.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, tinish belgilari, grammatik asos, uslubiy vazifa, intonatsiya, nutq madaniyati, metodika.

Keywords: punctuation, punctuation marks, grammatical basis, stylistic function, intonation, speech culture, methodology.

Til inson tafakkurining ifodasi, madaniyatning asosi va ijtimoiy aloqa vositasidir. Tildagi har bir soha, jumladan punktuatsiya ham, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Punktuatsiya yozma nutqning mazmunini to'g'ri, aniqlik bilan ifodalash, o'quvchiga matnning mantiqiy tuzilishini yetkazish uchun xizmat qiladi. Tinish belgilari yordamida matndagi so'zlar va gaplar o'rtasidagi munosabat, fikrning tugalligi, ohangdorligi va ma'nodorligi ta'minlanadi. Demak, punktuatsiya faqat texnik belgilar tizimi emas, balki tildagi fikr va his-tuyg'ularni to'liq aks ettiruvchi lingvistik vositadir. Shu bois, punktuatsiyaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uni to'g'ri qo'llash va o'qitish hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir. "Puntuatsiya" (lot. punctum – nuqta, belgi) atamasi yozma nutqda tinish belgilarini qo'llash tizimini anglatadi. Tinish belgilari matnning

grammatik tuzilishini aniqlaydi, mantiqiy bog'liqlikni ifodalaydi va uslubiy ohangni belgilaydi.

O'zbek tili punktuatsiyasi uch asosiy tamoyilga tayanadi:

Grammatik tamoyil – gap va so'z birikmalarining sintaktik tuzilishiga asoslanadi.

Mantiqiy tamoyil – fikrlarning izchilligi va bog'liqligini ta'minlaydi.

Uslubiy tamoyil – yozuvchining maqsadi, hissiy ohangi va uslubini ifodalaydi.

Punktuatsiya bu tamoyillar uyg'unligida amal qiladi. Masalan, vergulning qo'yilishi bir vaqtning o'zida grammatik ajratish, mantiqiy izchillik va uslubiy ta'sirni bildirishi mumkin. O'zbek tili punktuatsiyasi uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllangan. Arab yozuvida tinish belgilari deyarli ishlatilmagan, gapning tugalligi va ohangini aniqlash asosan kontekst va o'qish ohangi orqali amalga oshirilgan. Lotin va kirill yozuvlari joriy etilgach, punktuatsiya belgilarining tizimli qo'llanishi boshlangan. XX asrning 20–50-yillarida o'zbek tilshunosligida punktuatsiya masalalarini ilmiy asoslash jarayoni boshlandi. G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullayev, A.Qahhorov singari olimlar o'z tadqiqotlarida punktuatsiyaning grammatik asoslarini ishlab chiqdilar. Bu davrda punktuatsiya qoidalari sintaktik birliklarga tayangan holda shakllandi. Keyingi yillarda tilshunoslikda punktuatsiyaning semantik va stilistik jihatlari ham o'rganila boshladi. Hozirda o'zbek punktuatsiyasi kommunikativ yondashuv asosida tahlil qilinmoqda — ya'ni tinish belgilari muloqot maqsadiga ko'ra tanlanadi.

O'zbek tilida asosiy tinish belgilari quyidagilar: nuqta, vergul, so'roq, undov, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, tire, qavs, qo'shtirnoq va boshqalar. Har bir belgi o'ziga xos grammatik va uslubiy vazifaga ega:

Nuqta (.) – fikr tugallanganligini bildiradi.

Vergul (,) – bir xil bo'lakli gaplarda yoki qo'shimcha ma'lumotlarni ajratishda ishlatiladi.

So'roq belgisi (?) – savolni ifodalaydi.

Undov belgisi (!) – hissiy holatni bildiradi.

Tire (–) – izoh, ta'kid yoki mantiqiy bog'lanishni ko'rsatadi.

Qavs () – aniqlovchi, tushuntiruvchi so'zlar uchun ishlatiladi.

O'zbek punktuatsiyasining o'ziga xos jihati — intonatsiyaviy ohang bilan uyg'unligi. Gapning grammatik tuzilishi bilan birga, so'zlovchining ohangi ham belgilarning qo'yilishida muhim ahamiyatga ega. Punktuatsiya va intonatsiya yozma va og'zaki nutqning bir-birini to'ldiruvchi jihatlardir. Og'zaki nutqda pauza, ohang va urg'u yordamida ifodalanadigan ma'no yozma nutqda tinish belgilar orqali aks ettiriladi. Masalan, "Sen bugun kelasanmi?" so'rog'ida ohangning ko'tarilishi so'roq

belgisini, “Sen bugun kelasani!” gapida esa undov ohangi — undov belgisini talab qiladi. Shuning uchun punktuatsiyani to‘g‘ri qo‘llash — intonatsiyani yozma shaklda to‘g‘ri ifodalash demakdir. Tilshunos olimlar fikricha, punktuatsiya va intonatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish matn tahlilida, ayniqsa badiiy asarlarning tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Yozma nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi — bu punktuatsiya. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash fikrni aniq, lo‘nda va izchil ifodalash imkonini beradi. Noto‘g‘ri qo‘yilgan tinish belgilari esa mazmunni buzadi, o‘quvchi e‘tiborini chalg‘itadi. Masalan, “Odam o‘ldirmoqchi emas, dedi” va “Odam o‘ldirmoqchi, emas dedi” gaplari tinish belgilari o‘zgarganda mutlaqo teskari ma‘no beradi. Shu jihatdan punktuatsiya – matnning mantiqiy aniqligini ta‘minlovchi eng muhim vositalardan biridir. Yozma madaniyatda punktuatsiyaning to‘g‘ri qo‘llanishi shaxsning savod darajasini, nutqiy madaniyatini ham ifodalaydi.

O‘zbek punktuatsiyasi rus va ingliz tillariga nisbatan o‘ziga xoslikka ega. Masalan, ingliz tilida verguldan oldin “and” bog‘lovchisidan oldin ham vergul qo‘yilishi mumkin (“Oxford comma”), o‘zbek tilida esa bunday holat talab qilinmaydi. Rus tili punktuatsiyasi ko‘proq grammatik tuzilishga asoslanadi, o‘zbek tili esa mantiqiy va uslubiy omillarga tayanadi. Shu sababli, o‘zbek tilida tinish belgilari tanlanayotganda matn ohangi va fikr mantiqi birgalikda hisobga olindi. Punktuatsiyani o‘rgatish o‘quvchilarda grammatik tafakkur, mantiqiy fikrlash va yozma madaniyatni shakllantiradi. Zamonaviy metodikada quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Matn asosida tahlil – o‘quvchilar tayyor matnlarda tinish belgilarini aniqlaydi, ularning vazifasini tushuntiradi.

Ijodiy yozuv ishlari – tinish belgilarini mustaqil qo‘llashni o‘rgatadi.

Qiyosiy mashqlar – o‘zbek punktuatsiyasini boshqa tillardagi holatlar bilan solishtirish orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Bunday yondashuvlar punktuatsiyani o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, punktuatsiya — yozma nutqning grammatik, mantiqiy va uslubiy yaxlitligini ta‘minlaydigan tizimdir. U fikrning tugalligi, mantiqiy izchilligi va ohangini ifodalashda beqiyos ahamiyatga ega. Tinish belgilarini o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash shaxsning til madaniyatini oshiradi, nutqni aniq va ta‘sirchan qiladi. Bugungi kunda punktuatsiyani o‘qitish, uning nazariyasini chuqurlashtirish, intonatsiya bilan bog‘liqligini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Asqarova M. O'zbek tili punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Jo'rayev A. Til madaniyati va punktuatsiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
4. Madrahimova N. Nutq madaniyati nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016.
5. Qahhorov A. O'zbek tili sintaksisi va punktuatsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Karimova Z. Yozma nutq madaniyati va punktuatsiya metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
7. Rahmonov U. Til tizimi va mantiqiy tuzilma aloqadorligi. – Toshkent: Fan, 2018.

MORFOLOGIYA VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI**Yusufboyeva Durdona Otabek qizi**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira**Annotatsiya**

Mazkur maqolada morfologiya fanining til tizimidagi o'rni, uning asosiy bo'limlari, kategoriyalari va so'z turkumlari bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, morfemalarning turlari, ularning ma'no va vazifalari, so'z yasovchi hamda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning grammatik roli haqida ilmiy izohlar berilgan. O'zbek tilshunosligida morfologik tadqiqotlarning shakllanishi, bu sohadagi yirik olimlarning hissasi hamda zamonaviy lingvistika va kompyuter tilshunosligidagi morfologiyaning ahamiyati keng yoritilgan.

Annation

This article analyzes the role of morphology in the linguistic system, its main branches, categories, and the relationship with parts of speech. It also provides a detailed explanation of types of morphemes, their meanings and functions, as well as the grammatical role of derivational and inflectional affixes. The development of morphological research in Uzbek linguistics, contributions of major scholars, and the importance of morphology in modern and computational linguistics are comprehensively discussed.

Kalit so'zlar

morfologiya, morfema, grammatik kategoriya, so'z turkumi, shakl yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartiruvchi affiks, tahlil, kompyuter lingvistikasi.

Keywords

morphology, morpheme, grammatical category, part of speech, derivational suffix, inflectional affix, analysis, computational linguistics.

Morfologiya — bu so'zning ichki tuzilishini, grammatik shakllarini, morfemalar tizimini va ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. U til tizimining markaziy qismini tashkil etadi, chunki so'z tildagi eng kichik mustaqil ma'noli birlikdir. "Morfologiya" atamasi qadimgi yunon tilidagi morphe — "shakl", logos — "ta'limot" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "shakl haqidagi ta'limot" degan ma'noni bildiradi. Tilning morfologik tuzilishini o'rganish so'zlarning shakl va ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni, grammatik kategoriyalarning ishlash mexanizmini

aniqlash imkonini beradi. Morfologiya fonetika va sintaksis bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda tilning tuzilish tizimini tashkil etadi. Morfemalar — tildagi eng kichik ma'noli birliklardir. Har bir morfema mustaqil yoki grammatik ma'noni bildiradi. Morfemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Ildiz morfema – so'zning asosiy ma'nosini bildiradi. Masalan: kitob, yaz, oq, bor. Yasovchi qo'shimcha – yangi so'z yasaydi: kitobchi, o'qituvchi, bilimdon.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha – so'zning grammatik shaklini o'zgartiradi: kitoblar, kelganman, daraxtni.

Morfemalar tildagi barcha grammatik jarayonlarning asosini tashkil etadi. Ular orqali so'zning lug'aviy va grammatik ma'nosi shakllanadi. Masalan, “boradi” so'zida bor – ildiz, a – zamon qo'shimchasi, di – shaxs-son qo'shimchasidir. Morfologiyada so'zlar o'zining grammatik xususiyatlariga ko'ra so'z turkumlariga ajratiladi. O'zbek tilida ular quyidagilardir:

ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, modal so'z.

Har bir so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalar mavjud:

Ot: birlik–ko'plik, egalik, kelishik.

Sifat: daraja kategoriyasi.

Fe'l: zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, bo'lishli/bo'lishsizlik.

Masalan, fe'l turkumining zamon kategoriyasi harakatning hozirgi, o'tgan yoki kelasi paytda sodir bo'lishini ifodalaydi (keladi, keldi, kelmoqda). Shu orqali morfologiya so'zlarning grammatik tizimini tartibga soladi. Morfologiya til tizimini tahlil qilishda markaziy o'rin tutadi. U grammatik shakllarni, so'z o'zgarishlarini va ularning sintaktik funksiyalarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir so'zning morfologik tuzilishini bilish, tilni to'g'ri qo'llash va grammatik normani saqlash imkonini beradi. O'zbek tilshunosligida morfologiya sohasida Fitrat, A.G'ulomov, A.Hojiyev, G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, N.Mahmudov kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular morfemik tahlil, so'z yasalishi, so'z o'zgartirish tizimlarini chuqur o'rganib, morfologik nazariyaga ilmiy asos yaratganlar. Bugungi kunda morfologiya nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalishda ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt, avtomatik tarjima tizimlari, matnni tahlil qilish dasturlarida morfologik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning ildizi, affikslari, grammatik kategoriyasini aniqlash orqali kompyuterga tilni “tushunish” imkoniyati yaratiladi. Maktab va oliy ta'lim jarayonida morfologiyani o'qitish o'quvchilarning grammatik tafakkurini rivojlantiradi. Morfologik tahlil topshiriqlari orqali so'z tarkibini, qo'shimcha va morfemalarni to'g'ri ajrata olish, imlo va nutq madaniyatini shakllantirish mumkin. Shuningdek, morfologik bilimlar yozma

va og'zaki nutqda aniqlik, to'g'rilik va ravonlikni ta'minlaydi. Bugungi dars metodikalarida morfologiyani o'qitishda interaktiv metodlar — "Aqliy hujum", "Klaster", "Tahlil va sintez", "Blits-savol" kabi usullar samarali natija beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida morfologik tahlil dasturlari bilan ishlash o'quvchilarda lingvistik tafakkurni yanada chuqurlashtiradi. Morfologik tahlil orqali so'zning har bir qismi alohida tahlil qilinadi, natijada uning morfemik tarkibi, grammatik shakllari va sintaktik funksiyasi aniqlanadi. Bu tahlil tilni tizimli o'rganishning poydevorini tashkil etadi. O'zbek tili morfologiyasini chuqur o'rganish nafaqat grammatik to'g'rilikni ta'minlaydi, balki milliy tilning boy imkoniyatlarini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, morfologiya tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, u so'z shakli, grammatik kategoriyalar, morfemalar tizimini chuqur o'rganish orqali tilning ichki tuzilishini ochib beradi. Morfologiya so'z va shakl o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, nutqni to'g'ri tuzish va grammatik tafakkurni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy tilshunoslikda, xususan, kompyuter tilshunosligi va sun'iy intellekt sohalarida morfologik tahlil tilni avtomatlashtirilgan tarzda o'rganish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Demak, morfologiyani mukammal o'rganish nafaqat tilni bilish, balki uni to'g'ri tushunish va zamon talablari asosida qo'llay olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. 1-qism. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.
2. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili grammatikasi (Nazariy kurs). – Toshkent: Universitet, 2003.
4. Shukurov Sh. O'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 1998.
5. Rasulov R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
6. Qilichev M. O'zbek tili morfologiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

ONA TILI TA'LIMIDA FONETIKA BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

ABDIJAVLIYEVA MUNISA ZAYNIDDIN QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

abdijavliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetikaning ona tili ta'limidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Fonetika tushunchasi, til tovushlari, talaffuz qoidalari va ularni o'qitish metodikasi batafsil ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda an'anaviy va zamonaviy metodlar, interfaol mashqlar va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Maqola o'quvchilar va o'qituvchilar uchun fonetika darslarini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni beradi.

Kalit so'zlar: fonetika, ona tili, talaffuz, metodika, o'qitish, interfaol metod, dars mashqlari.

Abstract. This article analyzes the role and importance of phonetics in native language education on a scientific basis. The concept of phonetics, language sounds, pronunciation rules and methods of teaching them are considered in detail. The study presents traditional and modern methods, interactive exercises and practical recommendations. The article provides recommendations for students and teachers on the effective organization of phonetics lessons.

Keywords: phonetics, native language, pronunciation, methodology, teaching, interactive method, lesson exercises.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются роль и значение фонетики в обучении родному языку. Подробно рассматриваются понятие фонетики, звуки языка, правила произношения и методика их преподавания. В исследовании представлены традиционные и современные методы, интерактивные упражнения и практические рекомендации. В статье даны рекомендации для учащихся и учителей по эффективной организации уроков фонетики.

Ключевые слова: фонетика, родной язык, произношение, методика, обучение, интерактивный метод, урочные упражнения.

Fonetika tilning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, til tovushlarini, ularning talaffuzi va o'zaro ta'sirini o'rganadi. Ona tili darslarida fonetika o'rganish

o'quvchilarning nutq madaniyati, talaffuz aniqligi va yozuv madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. [1: 67]

Fonetika tilda tovush tizimi, urg'u, intonatsiya, bo'g'in va talaffuz qoidalarini o'rganadi. Maktab dasturida fonetika bo'limi orqali o'quvchilar:

nutq tovushlarining talaffuzi va yozuvdagi ifodalanishi (grafema va fonema) o'rtasidagi farqni anglaydi;

orfoepik me'yorlarni o'zlashtiradi;

so'z va gapning tovush tarkibini tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydi.

Bu esa ularning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Fonetika bo'limini o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlar uyg'un qo'llanishi lozim. Quyidagi metodlar o'z samarasini bermoqda:

Tinglab tahlil qilish metodi – o'quvchilar audio yozuvlar orqali to'g'ri talaffuz namunalarini eshitadi, talaffuzdagi farqlarni aniqlaydi.

Tovush modellash metodi – tovushlar artikulyatsiyasini grafik yoki texnik vositalar yordamida ko'rsatish orqali ularning hosil bo'lish jarayonini anglash.

Interfaol metodlar (klaster, insert, "aqliy hujum", "sinkveyn") – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – fonetik tahlil dasturlari, talaffuzni tekshiruvchi audio-video materiallar, virtual laboratoriyalardan foydalanish.

Til tovushlari ikki guruhga bo'linadi: unli (vokallar) va undosh (konsonantlar). Unli tovushlar tovush yo'lini to'smasdan hosil bo'ladi va ularning artikulyatsiyasi o'quvchilarga talaffuz mashqlari orqali o'rgatiladi. Undosh tovushlar esa tovush yo'lini qisman yoki to'liq to'sish orqali hosil bo'ladi va talaffuzda aniqlikni talab qiladi.

Masalan, "qalam" so'zidagi "q" undoshi orqa qismda artikulyatsiya qilinadi, "shaharcha" so'zidagi /sh/ tovushi esa alveolar hududdan chiqariladi. Shu bilan birga, nutq ritmi va prosodiya elementlari talaffuzni yanada tabiiy va tushunarli qiladi. Nutqdagi urg'u va ohang o'quvchilarning talaffuz qobiliyatini rivojlantiradi, nutqning emotsional ohangini ifodalaydi va muloqot jarayonida tushunishni osonlashtiradi.[2: 91]. Ona tili darslarida fonetika mashqlarini tashkil etishda an'anaviy va zamonaviy metodlar birlashadi. An'anaviy metodlar izoh-metodik, mashq-metodik va takrorlash usullari talaffuz qoidalarini tushuntirish va mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar interfaol yondashuvni o'z ichiga oladi, masalan, audio-video materiallar yordamida talaffuzni o'rgatish, onlayn testlar orqali xatolarni aniqlash va o'yin mashqlarini qo'llash. Talaffuz mashqlari ikki bosqichda amalga oshiriladi: yakkama-yakka tovushlar bo'yicha mashqlar va so'z-gap mashqlari. Yakkama-yakka mashqlar undosh va unli tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasini

shakllantiradi, soʻz-gap mashqlari esa talaffuzni kontekstga moslashtirish va nutq oqimini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, oʻquvchilarni interfaol mashqlarda faol ishtirok etishga undash dars jarayonini samarali qiladi. Interfaol metodlar darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, "talaffuz kartalari" yordamida oʻquvchilar undosh va unli tovushlarni ajratib talaffuz qiladi, "soʻz oʻyini" orqali yangi soʻzlarni oʻrganadi va nutqini boyitadi. Shu usullar oʻquvchilarning diqqatini oshiradi, xatolarni aniqlashga va tuzatishga yordam beradi, nutqning tabiiyligini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talaffuz mashqlari nutqdagi intonatsiya va urgʻuni ham yaxshilaydi. Prosodiyaviy mashqlar, jumlaning toʻgʻri urgʻu bilan aytish va intonatsion naqshlarni takrorlash oʻquvchilarda talaffuzni mukammal qilishga yordam beradi.[3: 76]. Ona tili darslarida fonetika elementlarini samarali oʻrgatish uchun mashqlarni muntazam va tizimli tarzda tashkil etish muhimdir. Audio va video materiallar yordamida talaffuzni oʻrgatish metodlari ham samarali hisoblanadi. Oʻquvchilar toʻgʻri talaffuzni eshitib, qayta takrorlash orqali artikulyator qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar va onlayn testlar yordamida talaffuzni avtomatik tekshirish va xatolarni aniqlash mumkin, bu esa mashqlarni yanada samarali qiladi. Oʻquvchilar professional ovoq yozuvlari yoki ona tili soʻzlashuvchilari tomonidan talaffuz qilingan soʻz va jummalarni qayta-qayta eshitib, talaffuzni mukammal oʻzlashtiradilar. Audio materiallar oʻquvchilarga talaffuz va yozma nutqni bir-biri bilan bogʻlash imkonini yaratadi, bu esa ortografiya va fonetika orasidagi aloqani mustahkamlaydi.[4:90] Video metodlar esa nafaqat eshitish, balki koʻrish orqali oʻrganish imkonini beradi. Bu metod oʻquvchilarga nutq paytida yuz mushaklari, lab harakati va tilda paydo boʻladigan tovushlarni kuzatishga yordam beradi. Fonetikani oʻqitishda zamonaviy metodlardan foydalanish oʻquvchilarning nafaqat talaffuzini, balki ularning eshitish, koʻrish, nutqiy faoliyat koʻnikmalarini ham rivojlantiradi. Audio-vizual texnologiyalar, interfaol dasturlar, oʻyin metodlari va raqamli resurslarning uygʻunligi fonetika taʼlimini samarali, qiziqarli va innovatsion shaklga olib keladi. [5:43]

Xulosa qilib aytganda, fonetika oʻqitish metodikasi ona tili darslarida talaffuzni toʻgʻri shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, oʻquvchilarni interfaol mashqlarda faol ishtirok etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006. 67-b.
2. Safarova R. Ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 1995. 91-b.

3. X.Ne'matov, O.Bozorov. Til va nutq. –Toshkent: “ O‘qituvchi” 1993 yil. 76-b.
4. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. –Toshkent: “O‘qituvchi” 1981. 90-b.
5. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021. 43-b.

TIL VA SUN' IY INTELLEKT

ABDIKARIMOVA ZULHIJJA MAXSETOVNA

Chirchiq davlat pedagogika universitet

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

abdikarimovazulhijja21@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunning dolzarb mavzusiga aylangan sun'iy intellekt va boshqada tarjima tizimlarida o'zbek tilining qo'llanishi o'rganilgan. Maqolada o'zbek tilining tarjima tizimlaridagi o'rni, shuningdek, til o'rganishda zamonaviy texnologiya, web-saytlarni qo'llash haqida yoritilgan

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til tizimi, semantik usul, avtomatik tarjima.

Annotation: This article examines the use of the Uzbek language in artificial intelligence and other translation systems, which have become a hot topic today. The article discusses the role of the Uzbek language in translation systems, as well as the use of modern technology and websites in language learning.

Keywords: artificial intelligence, language system, semantic structure, automatic translation

Аннотация: В данной статье рассматривается использование узбекского языка в системах искусственного интеллекта и других системах перевода, что стало актуальной темой сегодня. В статье обсуждается роль узбекского языка в системах перевода, а также использование современных технологий и веб-сайтов в изучении языков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, языковая система, семантическая структура, автоматический перевод.

Bugun dunyoni lol qoldirayotgan soha sun'iy intellekt ekanligi hech kimga sir emas. Globallashish zamonida tillarni avtomatik tarjima qilishga ehtiyoj sezamiz. Sun'iy intellekt esa shu va shunga o'xshagan muammolarni hal qiladi, tillarni o'rganadi, tarjima qiladi. Boshqa tillar kabi o'zbek tili ham chetda qolmadi. Yandex translate, Google translate kabi tarjima tizimlarida o'zbek tili ham qo'shildi va hozir ham bu bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Insoniyat uchun berilgan eng katta ne'mat ong bo'lgani kabi til ham shu o'rinda hisoblanadi. Insonlar o'z orzu-niyatlarini, xohishlarini aynan til orqali ifodalaydi. Tilning asosiy vazifasi kishilar o'rtasidagi aloqani yetkazish bo'lsa, hozirgi kunda dunyoni bilish, bilimlarni tarqatish va to'plash, ruhiy munosabatlarni aks ettirish kabi

bir nechta funksiyalarni bajaryapti. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki, til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi (ayrim qarashlarda aytilganidek, "tug'iladi", "taraqqiy etadi", "rivojlanadi"), bir jamiyat yo'q bo'lishi bilan til ham asta-sekin iste'moldan chiqib boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Soniyalar sayin o'zgacha tus olib borayotgan davrda sun'iy intellekt ham bir davrda rivojlanib boryapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Informatika va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlarda elektron adabiyotlar yaratish jarayonida foydalaniladigan dasturiy vositalar pedagogika dasturiy vositalar deb yuritiladi. Bu dastur ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Shundan ma'lumki, sun'iy intellekt foydali ta'lim bo'yicha ham yetarlicha. Sun'iy intellekt boshqa vositalar bo'yicha axborot, balki til va adabiyotni chuqur o'rganishga katta yordam beradi. Har narsaning salbiy tomoni bo'lganidek, sun'iy intellektning ham salbiy tomonlari mavjud. Aynan tarjima qilishda har doim sun'iy intellektdan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam, o'zbek tilidagi so'zning semantik tuzulishida shu so'zning ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi so'zda mavjud bo'lmagan aniq shakliy ma'no mavjud bo'lishi mumkin. Semantik usul barchamizga ma'lumki, turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Aytaylik, o'zbek tilidagi "ko'tarma" so'zi "qo'l" va "stul" kabi otlar bilan birikishi mumkin. Lekin uning ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi "to raise" fe'li "hand" oti bilangina birika oladi ("to raise hands"), lekin "to raise chair" emas, balki "to lift chair" bo'ladi. Sun'iy intellekt avtomatik tarjima dasturlari shunga o'xshagan semantik so'zlarni farqiga e'tibor bermaydi. Sun'iy intellekt boshqa narsalar haqida yaxshigina ma'lumot berganidek, ya'ni har xil narsaning ustasi bo'lganidek, tilni o'rganishda tarjimada, yozuvlarni o'rganishda keng rivojlangan. Hozirda tillarni tarjima qilishni qoyil qilganidek, tovushlarni matnga aylantirib, turli xil savollarga tezkor javob berish imkonini kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda bir narsani unutmasligimiz kerakki, sun'iy

intellekt qanchalik ilg'or bo'lsin hech qachon inson tafakkuri, tushunchasida bo'lmaydi. Shu sababli, o'z ona tilimizni avaylab, uni yanada boyitishimiz kerak. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, o'zbek tili uzoq madaniy tarixiga ega, eng boy, kunlar davomida takomillashib borayotgan tillardan biridir. Bugungi kunda ingliz, rus, koreys kabi tillarni onlayn yoki sun'iy intellektdan o'rganish imkoniyatlari keng. Tarjima tizimlari har qanday matnni bir tildan ikkinchi bir tilga tez tarjima qilib beradi. Ammo-lekin bizda savol tug'ilishi tabiiy: bu jarayonda o'zbek tili qay darajada foydalanilyapti? Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda o'zbek tiliga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tilini tarjima dasturlarga kiritishdan o'zbek tilini o'rganuvchilarga, balki chet elda yurgan yurtdoshlarimiz uchun ham foydalidir. Agarda o'zbek tili shu kabi texnologiyalarda qo'llanmasa, kelajakda o'z nufuzini yo'qotishi mumkin. Sababi hozirgi kun talabi — texnologiya. Har bir narsamiz shu dasturlar yoki texnologiyalarda oson va tez hal bo'lyapti. Boshqa tillarga nazar tashlasak, ular allaqachon dasturlarga joylab bo'lgan. Lekin shunga qaramay, keyingi yillarda o'zbek tilini ko'plagan dasturlarda ko'ryapmiz. Bu esa ijobiy holat bo'lib, yurtimizda dasturchilik kabi sohalar ham rivojlanib, dastur va texnologiyalarga o'zbek tilini qo'shib, katta foyda qilyapti. Aytilganlardan anglashilyaptiki, Sun'iy intellekt va boshqa tarjima tizimlaridan gaplarni sodda holda foydalanganimiz maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, sun'iy intellekt o'zbek tilini boshqa tillar kabi dunyoga tanitish uchun vosita bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz, albatta. Shu bilan birga til bo'yicha professor tilshunoslar, dasturchilar shug'ullansa yuqorida keltirilgan muammolarga duch kelmaymiz va bu kelajakda o'z samarasini beradi

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ko'p insonlar uchun hayotining bir qismiga aylanib qoldi. O'zbek tilining tarjima tizimlarda to'liq va aniq ishlashi uchun hali ko'p vaqt va ish talab qilinadi. Boshqa tillar ilm-fan va texnologiyalarda mukammal bo'lgani kabi biz yosh avlod ham o'zbek tilini shu darajaga chiqarishimiz kerak. Va bir kuni, albatta, o'zbek tili ham dunyoda o'z o'rnini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, "Tarjima nazariyasi" Toshkent-2012.
2. R.Rasulov, Q.Mo'yidinov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" Toshkent-2025
3. S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari" Toshkent-2020
4. Bekmirzayev N. Notiq, nutq, xulq —Toshkent, 2015
5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi, Toshkent-2020.

FONETIK HODISALARNING NUTQDA VA YOZUVDA AKS ETISHI**ABDIQAYUMOVA DILBAR ABDURAUF QIZI**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

dilbarabdiqayumova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fonetik hodisalari haqida ma'lumot beriladi va fonetik hodisalarning turlari batafsil yoritiladi. Bundan tashqari fonetik hodisalarning yozuvda aks etishi yoki faqat talaffuzda aks etishiga ko'ra ko'rib chiqiladi. Fonetik hodisalardan to'g'ri foydalana olish va yozma savodxonlikdagi ahamiyati keng talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: kombinator, pozitsion, assimilyatsiya, dissimilatsiya, apokopa, sinkopa, fonetik hodisalar, agglyutinatив, fuziya, fleksiya.

Abstract: This article provides information about phonetic phenomena in the modern Uzbek literary language and discusses the types of phonetic phenomena in detail. In addition, the phonetic phenomena are considered according to whether they are reflected in writing or only in pronunciation. The correct use of phonetic phenomena and their importance in written literacy are widely interpreted.

Keywords: combinator, positional, assimilation, dissimilation, apocope, syncope, phonetic phenomena, agglutinative, fusion, inflection.

Аннотация: В статье представлена информация о фонетических явлениях в современном узбекском литературном языке, подробно рассматриваются типы фонетических явлений. Кроме того, фонетические явления рассматриваются с точки зрения их отражения на письме или только в произношении. Широко рассматриваются вопросы правильного использования фонетических явлений и их значение в письменной грамоте.

Ключевые слова: комбинатор, позиционный, ассимиляция, диссимиляция, апокопа, синкопа, фонетические явления, агглютинативный, фузионный, словоизменятельный.

Fonemaning nutq oqimida turli ottentalarda namoyon bo'lishi, bunday ottentalarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion, yoki aralash (kombinator - pozitsion) omillarning ishtiroki bor yani nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma - ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashiga fonetik hodisalar deyiladi. Fonetik hodisalar unlilarga ham

undoshlarga ham taalluqli. Biz bilamizki, o'zbek tili agglyutinatív til sanaladi. [1: 45]. Agglyutinatív tilning muhim xususiyatlaridan biri shuki, so'zga qo'shimchalar qo'shilganda ham so'zning tovush tarkibi o'zgarmaydi. Masalan, keldim so'zida kel asosiga -di va -im qo'shimchalari qo'shilganda hech qanday fonetik o'zgarish ro'y bermagan. Lekin ayrim so'zlarda qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zning tovush tarkibi o'zgaradi.

Masalan qiyin + a = qiyna - tovush tushgan;

ong + la = angla - tovush o'zgargan

isi + q = issiq - tovush ortgan

Bu esa o'zbek tilida ham flektiv til alomatlar borligidan darak beradi.

Asosga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida so'zning tovush tarkibi o'zgarishiga fuziya yoki fleksiya deyiladi. Yuqoridagi qiyna, angla, issiq, so'zlarida fuziya kuzatilgan. Fonetik hodisalar asosda ham, qo'shimchada ham ro'y beradi. Hozir fonetik hodisalarning faqat talaffuzda aks etishi balki yozuvda ham, talaffuzda ham etishiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'lib chiqamiz.

Faqat talaffuzda aks etadigan Yozuvda va talaffuzda aks etadigan fonetik hodisalar fonetik hodisalar.

Assimilyatsiya Sinkopa

Dissimilatsiya. Eliziya

Reduksiya Akkomodatsiya

Proteza. Sandxi hodisasi

Epenteza. Aferezis

Austeza. Gaplogiya

Prokopa, ankopa. Geminatsiya

Metateza. Degeminatsiya

Apokopa. Spirantizatsiya

Sinerezis.

Faqat talaffuzda aks etadigan fonetik hodisalar;

Assimilyatsiya: Bir xil kategoriyadagi tovushlarning o'zaro moslashuvidir. M ketdi - ketti, tuzsiz-tussiz

Dissimilatsiya: So'z tarkibidagi bir xil yoki o'xshash tovushlardan birining boshqa tovushga ko'chishi: birorta- bironta, zarur-zaril

Reduksiya: Tovushlarni talaffuzda qisqa yoki bilinar-bilinmas talaffuz qilish : bilan- blan, biroq- broq.

Proteza: So'z boshida tovush orttirilishi: rus- o'rus, shkaf- ishkop.

Epenteza: So'z o'rtasida tovush orttirilishi: plan-pilan, tarktor-tiraktir.

Austeza: Soʻz oxirida tovush orttirilishi: tank-tank, kiosk- kioska.

Metatez: Tovushlarning oʻrin almashishi: turpoq- tuproq, daryo- dayro.

Apokopa: Soʻz oxirida tovushning tushirilib qoldirilishi: gʻisht -gʻish, goʻsht-goʻsh

Sinerezis: Soʻz tarkibida yonma-yon kelgan unlining diftonglashuvi: mutolaa-mutola, saodat- sodat.

Yozuvda va talaffuzda aks etadigan fonetik hodisalar:

Sinkopa: Soʻz oʻrtasida tovushning tushib qolishi: oʻgʻil- oʻgʻlim, burun-burnim.

Eliziya: Unli tovush bilan tugagan soʻzga unli tovush bilan boshlangan soʻz qoʻshilishi natijasida bir unlini tushib qolishi: ayta oldi- aytoldi.

Sandxi hodisasi: Analitik shakllarning ixchamlashishi asnosida sodir boʻladi: borar edi- borardi.

Aferezis: Oldingi soʻzning yoki boshidagi soʻzning tovushini tushishi: ne uchun- nechun.

Gaplologiya: Yasama soʻz tarkibida ketma-ket kelgan ikkita bir xil boʻgʻinning bittasini tushib qolishi: tragikomediya-tragikokomediya.

Geminatsiya: Bir xil undoshning soʻz tarkibida qavatlanishi: maza - mazza.

Degeminatsiya: Soʻz tarkibida geminatsiyaning yoʻqolishi:
men + ning= mening.

Fonetik hodisalarni oʻrganish tilshunoslik, adabiy tilni rivojlantirish va nutq madaniyatini shakllantirishda quyidagi ahamiyatga ega:

Nutq va yozuvning uzviy bogʻliqligini tushunishga yordam beradi.

Talaffuz xatolarini aniqlash va tuzatishda qoʻllaniladi.

Adabiy matnlarni tahlil qilishda fonetik xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Shevalar va hududiy talaffuzlarni yozuvga koʻchirishda ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, fonetik hodisalarning ahamiyati juda muhim, fonetik hodisalar faqat fonetika boʻlimiga aloqador emas uning taʼsiri va ahamiyati leksikologiya va morfologiya boʻlimlarida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Bundan tashqari fonetik hodisalardan toʻgʻri foydalan olish nutqimizga ham, yozma savodxonligimizga ham katta taʼsir qiladi.

Fonetik hodisalar nutq jarayonida tabiiy ravishda yuzaga keladigan oʻzgarishlarni ifodalaydi va tilning fonetik tizimining hayotiylikini koʻrsatadi. Nutqdagi oʻzgarishlarning yozuvda aks etishi esa tilshunoslik va adabiy tilning rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Fonetik hodisalarni oʻrganish nutq va yozuvni

uyg'unlashtirish, adabiy tilni boyitish hamda til madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
2. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent - 1992.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021.

KIYIM-KECHAK FRAZEMALARI VA ULARNING BADIY MATNDAGI ROLI

ABDIRAHIMOVA E'ZOZA BAHODIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti magistranti

ezozabdurahimova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekmurodov

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslik fanining muhim tarmog'i hisoblangan frazeologiya borasida fikr yuritiladi. Kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnlarda qo'llanish xususiyatlari tahlilga tortiladi va bu frazemalarning o'ziga xos bo'lgan lingvomadaniy jihatlari ilmiy asoslangan mulohazalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Frazelogiya, lingvokulturologiyaning vujudga kelishi, realiya, kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazema, ularning badiiy matnda qo'llanishi

Annotation. This article reflects on phraseology, which is considered an important branch of linguistics. The features of the application of phrasemas in artistic texts, formed on the basis of clothing names, are subject to analysis, and the linguistic aspects of these phrasemas themselves are illuminated on the basis of scientifically based reasoning.

Keywords: Phraseology, the emergence of linguoculturalism, phraseology, formed on the basis of the names of clothes, their application in the artistic text.

Аннотация. В данной статье рассматривается фразеология, являющаяся важной отраслью лингвистической науки. Анализу подвергаются особенности употребления в художественных текстах фразем, образованных на основе названий предметов одежды, и на основе научно обоснованных рассуждений освещаются лингвокультурные аспекты, присущие этим фраземам.

Ключевые слова: Возникновение фразеологии, лингвокультурологии, реалии, фразеологии, образованной на основе названий предметов одежды, их применения в художественном тексте.

Yaqin yillargacha lingvokulturologiya Yevropa tilshunosligining yangi yo'nalishi hisoblanar edi. Biroq, qisqa muddat ichida olimlarning bu yo'nalishning o'zigagina xos bo'lgan kategoriya va tamoyillarni ishlab chiqishlari evaziga, yo'nalish shiddat bilan shakllandi hamda XXI asrning boshiga kelib, alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Bir tomondan, lingvokulturologiya o'z tadqiqot predmetini mamlakatshunoslikning

o'rganish obyekti negizida hosil qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatshunoslikning alohida qarorini o'zida ifoda etadigan bo'ldi. Qayd etish lozimki, madaniyatni, uning metodologiyasi va nazariy negizlarini o'rganuvchi kulturologiya (madaniyatshunoslik)ning obyekti va predmetiga nisbatan tafovutli qarashlar madaniyat tushunchasining nihoyat turlicha talqin etilishi bilan izohlangani kabi lingvistik nuqtayi nazardan til va madaniyat munosabatlarini o'rganish, tadqiq etish hali uzoq davr olimlarning diqqat markazidagi masala bo'lib qoladi. Ta'kidlash lozimki, lingvokulturologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishida Vilgelm fon Gumboldtning qarashlari progressiv ta'sirga ega bo'ldi. Binobarin, til va madaniyatning aloqadorligiga doir masalalar ilk bor Vilgelm fon Gumboldt tomonidan ko'rib chiqildi. U o'z davrida: "Til xalq, g'oyalarining shunchaki ifodachisi emas, balki xalqning bir butun ma'naviy quvvatidir; tillarning turfa bo'lishi esa bitta narsaning turlicha nomlanishi bo'lmay, shu narsani turlicha tasavvur qilish, ko'rishdir. Til hamisha millatning o'ziga xosligini ifoda etadi" deb yozgan edi.¹ Shuningdek, V.Gumboldt bejizga: "Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim miqyosini bildiradi" deb aytmagan [Usmanova, 2019].

Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta'kidlashicha, "frazelogizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi". Frazelogizmlarning sematikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy- tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy- madaniy me'yorlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avlodlardan avlodga uzatiladi. Tadqiqotchi Y. Odilov o'zbek tilidagi enantiosemitik so'zlarga bag'ishlangan tadqiqotida o'z e'tiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir"[Xudayberganova, 2015].

Kiyim-kechak nomlari va ularning frazeologizmlarga aylanishi. Milliy kiyim-kechak nomlari - do'ppi, to'n, atlas ko'ylak, paytava, chorig' kabi - har bir xalqning madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, qadriyatlari va tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning atrofida shakllangan frazeologik birliklar - frazemalar - nafaqat til boyligini oshiradi, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va hayot tajribasini ifodalaydigan madaniy kodlar sifatida xizmat qiladi. Milliy kiyim-kechak elementlari ko'pincha muayyan obraz, xarakter, yoki vaziyatni ifodalashda ishlatiladi. Ularning

ma'nosi ko'pincha literal holatdan kengayib, abstrakt, figurativ ma'noga ega bo'ladi. Misollar:

"Atlas ko'ylakka bo'z yamoq" bu frazema kichik, ammo muhim nuqsonning katta, yaxshi narsaga zarar yetkazishini bildiradi. Masalan, Chilonzor massividan uy olgan odamlar quruvchilarning sifatsiz ishlari natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni ifodalash uchun "quruvchilar atlas ko'ylakka bo'z yamoq yopishtirib ketishibdi" degan iborani ishlatishgan. Bu holat frazemaning zamonaviy hayotdagi real kontekst bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

"Do'ppisi yarimta" bu ibora odamning ish joyida befarq, g'am-tashvishsiz yoki biroz sust bo'lishini anglatadi. Masalan, S. Abduqahhor yozganidek, "Ustaning ishi yirik, uning noni butun, do'ppisi yarimta..." — ya'ni, ish yaxshi bajarilgan, lekin ustaning o'zi biroz befarq, dangasa. Shu frazeologizm orqali xalq kishining ruhiy holati, xarakteri haqida qisqacha, aniq tasvir beradi.

"Do'ppisini osmonga otmoq" bu frazema nihoyatda katta xursandchilik va quvonchni ifodalaydi. O. Yoqubovning asarlarida, "Sizni qarang, men to'rt olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim!" jumlasida katta yutuq yoki baxtga erishish holati tasvirlangan.

"To'nini teskari kiymoq" ushbu ibora o'chakishgan, qaysar, ba'zida g'azablangan holatda bo'lishni anglatadi. Masalan, S. Abduqahhor asarida Bekniyozning tanqidi sabab Boqijon akaning "to'nini teskari kiyib olishi" uning qattiqqo'llik va norozilik ramzi sifatida tasvirlanadi.

"Paytavasiga qurt tushdi" bu ibora odamning bezovtalanishi, xotirjamligini yo'qotishi, bir joyda tinch tura olmasligi holatini ifodalaydi. N. Maqsudiyning "Politsiyalarning paytavalari qurt tushdi" degan iborasi bu noxush, bezovta vaziyatni yorqin aks ettiradi.

"Chorig'ini sudramoq" bu frazeologizm zo'rg'a-zo'rg'a, juda qiyin sharoitda yashash yoki tirikchilik qilish ma'nosini beradi. Tohir Malikning asarlarida bu ibora qiyinchiliklar oldida chiday olmaslikni ifodalaydi.

Frazeologik birliklar, ayniqsa kiyim-kechak nomlariga oid iboralar, badiiy matnda nafaqat mazmuniy yuk, balki obraz yaratish, personaj xarakterini ochish, ijtimoiy fonni ko'rsatish kabi funksiyalarni bajaradi. Ular matnga emotsional, baholoviy, ekspressiv va estetik ranglar bag'ishlaydi.

1-misol: "Do'ppisini osmonga otmoq"

"Sizni qarang, men 'to'rt' olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim!"
(O. Yoqubov. Muqaddas)

**Tahlil:**

Bu yerda “do‘ppisini osmonga otmoq” iborasi **nihoyatda quvonmoq, kutilgan natijadan xursand bo‘lmoq** ma’nosida ishlatilgan. Bu frazemaning matndagi funksional yukiga nazar tashlaymiz:

- **Emotsional funksiya** – quvonch holatini ta’riflashda sodda so‘zlar bilan emas, xalq tiliga xos obrazli, hissiy kuchga ega ifoda qo‘llanilgan.

- **Madaniy konnotatsiya** – bu ibora orqali xalqning his-tuyg‘ularni ifodalashdagi o‘ziga xosligi, do‘ppining milliy timsol sifatidagi roli ko‘zga tashlanadi.

- **Stilistik boyitish** – frazema matnga ekspressivlik bag‘ishlab, oddiy xabarni hayotiy va obrazli qiladi.

2-misol: “To‘nini teskari kiyib olmoq”

“Bekniyoz uni tanqid qildi. Shu bo‘ldi-yu, Boqijon aka to‘nini teskari kiyib oldi.”
(S. Abduqahhor. Hayotning boshlanishi)

**Tahlil:**

Bu ibora matnda **munosabatdagi keskinlik, muhokamaga nisbatan o‘chakishish** holatini ifodalash uchun ishlatilgan.

- **Pragmatik funksiya** – personajning fe‘l-atvori, kayfiyati, vaziyatga bo‘lgan munosabati frazema orqali bevosita anglashiladi.

- **Dialogga jonlilik berish** – ibora tabiiy xalqona nutqni yaratadi, matnga jon, harakat bag‘ishlaydi.

- **Personaj xarakteri** – to‘nini teskari kiygan odam – inatkash, norozilik bildiruvchi shaxs obrazini yaratadi.

3-misol: “Atlas ko‘ylakka bo‘z yamoq”

“Quruvchilar atlas ko‘ylakka bo‘z yamoq yopishtirib ketishibdi...” (Mushtum jurnalidan)

**Tahlil:**

Bu frazema **go‘zallik, mukammallik ichidagi kamchilik**, ya’ni “yaxshi narsani buzuvchi mayda nuqson” ma’nosini anglatadi.

- **Ijtimoiy-tanqidiy funksiya** – qurilishdagi muammo xalq iborasi orqali tanqid qilinmoqda.

- **Matnning kontekstual yuki** – oddiy so‘zlar bilan emas, metaforik, xalqona uslubda fikr bildirilgan.

- **Estetik funksiya** – frazemaning ichki ritmi va tili matnga ohangdorlik beradi.

Demak, kiyim-kechak nomlari asosida yuzaga kelgan frazeologizmlar nafaqat tilda obrazlilik va badiiyligni oshiradi, balki madaniyatni, xalqning hayotiy tajribasini,

ijtimoiy munosabatlarini ko'rsatadi. Har bir frazema o'ziga xos tarixiy va madaniy kontekstga ega bo'lib, milliy til madaniyatining boy qatlamlarini tashkil qiladi. Masalan, "do'ppisini osmonga otmoq" kabi frazemalar insonning ruhiy holatini aniq ifodalasa, "atlas ko'ylakka bo'z yamoq" esa ijtimoiy tanqidni o'zida mujassamlashtiradi.

Kiyim-kechak frazeologizmlarining madaniyatshunoslik va tilshunoslikdagi o'rni. Frazelogizmlar har bir xalqning madaniy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va tafakkur tarzini aks ettiruvchi muhim til birliklari bo'lib, ular madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida tahlil qilinadigan boy tadqiqot obyekti sanaladi. Ayniqsa, kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazeologik birliklar xalqning kundalik hayotidan, yashash tarzi va kiyinish madaniyatidan kelib chiqib yuzaga kelganligi sababli ular milliy madaniyatning o'ziga xos semantik va simvolik ko'zgusi hisoblanadi. Qolaversa, madaniy jihatdan kiyim-kechak frazeologizmlari madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan milliy identitet, mentalitet, urfdan kelib chiqqan qadriyatlar, turmush tarzi, axloqiy me'yorlar kabi jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Masalan, "Do'ppisini osmonga otmoq" iborasi xalqning emotsional holatni ifodalashdagi obrazli, poetik tafakkurini ko'rsatadi. Bu frazema orqali nafaqat inson holati, balki bayramona muhit, milliy quvonch ifodasi, xalqona shukuh aks ettiriladi. Shuningdek, "To'nini teskari kiyib olmoq", "Bir ko'ylakni burun yirtmoq", "Paytavaga qurt tushmoq" kabi iboralar orqali xalq ruhiyati, hayotga bo'lgan qarashi, ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga xosliklar madaniy kodlar tarzida namoyon bo'ladi. Bu frazemalar orqali xalq kontekstual tafakkur bilan dunyoni tahlil qiladi, uni obrazli, ko'p qatlamli ifodalaydi. Demak, bunday iboralar xalq og'zaki ijodining, hayotiy tajribaning, estetik idrokning hosilasidir va milliy madaniyat tili sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy adabiy asarlarda ushbu frazeologik birliklarning qo'llanilishi matnga xalqona ruh, hayotiylik, milliylik bag'ishlab, uni o'quvchi uchun yanada yaqinroq va ta'sirchanroq qiladi. Shunday ekan, kiyim-kechak frazeologizmlarining tahlili nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. -246 b.
2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2015. – 40 b.

4. Rahmatullayev Sh, O'zbek tili frazeologik lug'ati – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.

5. “Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.// D. Lutfullayeva. D. Xudoyberganova. - Toshkent, 2016. – 215 b.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

ABDIRIMOVA GULRUH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

II-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Qurbonova Bonu Rustam qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanib darsni qiziqarli hamda samarali tashkil qilish haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Metod, ona tili, bilim, malaka, ko'nikma, ta'lim, taqdimot, tushuncha savodxonlik, interfaol.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение современных методов преподавания родного языка для того, чтобы сделать урок интересным и эффективным.

Ключевые слова: Метод, родной язык, знания, умения, образование, презентация, концептуальная грамотность, интерактивность

Abstract: This article discusses the use of modern methods in teaching the subject of the mother tongue to make the lesson interesting and effective.

Keywords: Method, mother tongue, knowledge, skills, education, presentation, concept literacy, interactive

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib uning umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik. O'quvchilarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish, malaka va ko'nikmalarni singdirish milliy an'alarimiz ruhida tarbiyalashda maktablarda ona tili darsining tutgan o'rni benihoya kattadir. Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan

shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilar uchun o'quv tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Dars jarayonida multimedia; onlayn manbalar, videolar, animatsiya va interaktiv veb-saytlardan foydalanish murakkab ilmiy tushunchalarni hayotga tadbiq etishi, ularni yanada qulayroq va tushunishni osonlashtirishi mumkin. Ona tili fanini o'qitishga zamonaviy interaktiv usullarni kiritish madaniy xilma-xillikni saqlash va akademik muvaffaqiyatlarni targ'ib qilish yo'lidagi muhim qadamdir. Zamonaviy texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, dars jarayonlarini ham zamonaviy usullar orqali olib borishimiz zarur. Hozirgi interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba- sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Ona tili fani o'qitishda darsda psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmog'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining uyg'otishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o'quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg'otishga sabab bo'ladi. Quyida dars davomida qo'llash mumkin bolgan bir nechta zamonaviy metodlar haqida to'xtalib o'tamiz.

1. "Kim hakam" Ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Kim hakam" o'yin metodini qo'llash ham yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi. O'quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O'qituvchi tomonidan ma'lumotlar tezkorlik bilan o'qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari to'g'ri ma'lumotlar uchun- "qizil kartochka", noto'g'ri ma'lumotlar uchun- "sariq kartochka"larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar birlashtiriladi. Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi. Chunki sinfda o'tirgan oquvchilar yaqinida o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi Ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada «hayratlanish» tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir. Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini

jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Keng qo'llaniladigan usullar "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzusini so'rash qismida "Sinkeyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini qo'llash mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan metodlar orqali dars samaradorligini oshirib, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beramiz. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya, multimedia va onlayn platformalar kabi interaktiv yondashuvlar talaba o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va tushunchasini oshiradi. Gamifikatsiya: o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish fan darslarini yanada interaktiv qilish mumkin. Multimedia manbalari: video, animatsiyalar va interaktiv veb-saytlardan foydalanish murakkab ilmiy tushunchalarini hayotga tatbiq etish, ularni yanada qulayroq va tushunishni osonlashtirish mumkin. Maktablarda ona tili fanini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar uchun o'quv tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Darslarni qiziqarli va samarali olib borish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyalarni tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitiga qarab tanlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ona tili fanini o'qitishga zamonaviy interaktiv usullarni kiritish madaniy ma'rifiy xilma-xilliklarni saqlash va akademik muvaffiqiyatlarni targ'ib qilish yo'lidagi muhim qadamdir. Har bir dars jarayonida pedagoglar zamonaviy usullar yordamida metodlar qo'llasa dars samaradorligi oshadi va o'quvchilarning qiziqishlari ortadi. Darsni zamonaviy texnologiyalar va metodlar yordamida tashkil etish o'zining natijasini beradi va go'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi. Har bir pedagog darsni zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish uchun ilg'or tajriba va metodlarni ishlab chiqishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rafiyev A., Gulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.Ж "Sharq", 2013.

2. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. "Interfaol ta'lim-sifat kafolati" – T.: 2008.
3. Berdimuratova D., Turdiyeva M. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish" – Qarshi.
4. Nuriddinova Y. "Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlari" – Farg'ona.

SO'Z SAN'ATI — MILLIY TAFAKKUR IFODASI**ABDUGAFUROVA XURSHIDA ABDUSALIM QIZI**

CHDPU gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti 22/2 - guruh talabasi

abdugafforovaxurshida@gmail.com**Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira**

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'z san'atining milliy tafakkur ifodasi sifatidagi mohiyati, uning xalq ma'naviyati, madaniy xotirasi va estetik qarashlari bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqotda so'z san'ati milliy o'zlikni anglash, badiiy tafakkurni shakllantirish va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, adabiy an'analar va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqadorlik orqali milliy tafakkurning badiiy ifoda vositalari ochib beriladi. Maqolada so'zning estetik qudrati, ma'naviy mazmuni va badiiy ta'sirchanligi orqali millat ruhiyatini ifodalash masalalari nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'z san'ati — milliy tafakkur, estetik did va ma'naviyatni birlashtiruvchi eng muhim madaniy hodisadir.

Kalit so'zlar: so'z san'ati, milliy tafakkur, badiiy ifoda, ma'naviyat, xalq og'zaki ijodi, estetik qadriyat, adabiyot.

Abstract: This article explores the essence of the art of words as an expression of national thinking, emphasizing its connection with the spiritual, cultural, and aesthetic worldview of the people. The study analyzes the role of verbal art in shaping national identity, artistic thinking, and preserving moral and cultural values. It also examines the interrelation between folklore, literary traditions, and modern literature as means of expressing national consciousness through artistic language. The research highlights that the power of words embodies the nation's spiritual identity and aesthetic sensibility, serving as a bridge between tradition and modernity. The findings confirm that verbal art is one of the key cultural forms uniting national thought, aesthetic taste, and moral development.

Keywords: art of words, national thinking, artistic expression, spirituality, folklore, aesthetic values, literature.

Анотация: В данной статье раскрывается сущность искусства слова как выражения национального мышления, его связь с духовными, культурными и эстетическими ценностями народа. В исследовании анализируется роль искусства слова в формировании национального самосознания,

художественного мышления и сохранении нравственных традиций. Рассматривается взаимосвязь между фольклором, литературными традициями и современной литературой как средствами выражения национального сознания через художественное слово. Отмечается, что сила слова воплощает духовную сущность нации и её эстетическое восприятие, соединяя традицию и современность. Результаты исследования подтверждают, что искусство слова является важнейшей формой культурного выражения, объединяющей национальное мышление, эстетический вкус и духовное развитие.

Ключевые слова: искусство слова, национальное мышление, художественное выражение, духовность, фольклор, эстетические ценности, литература.

Soʻz sanʼati — bu inson tafakkuri, tuygʻulari va maʼnaviy dunyosining eng yuksak, eng nozik ifodasidir. Insoniyat tarixida soʻz oddiy aloqa vositasi sifatida emas, balki tafakkur, eʼtiqod va madaniyatni shakllantiruvchi qudratli maʼnaviy kuch sifatida qadrlanib kelgan. Soʻz orqali inson oʻz ichki kechinmalarini, orzu-intilishlarini, sevgisini, gʻazabini, quvonchini yoki iztirobini ifoda etadi. Shu boisdan ham soʻzning taʼsir doirasi juda keng boʻlib, u kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida oʻz oʻrnini saqlab qolgan. Soʻz inson qalbiga kiradi, ruhini uygʻotadi va uni ezgulikka chorlaydi. Soʻz orqali xalq oʻzining orzu-umidlarini, ruhiy holatini, dunyoqarashini va milliy qadriyatlarini ifodalaydi. Har bir millatning tarixiy xotirasi, urf-odatlar va maʼnaviy merosi uning soʻz boyligida, iboralarida, maqol va matallarida, sheʼriy satrlarida mujassam boʻladi. Shuning uchun ham soʻz sanʼati — bu milliy tafakkurning badiiy shaklda namoyon boʻlishi, xalq ruhiyatining oʻziga xos ifoda vositasi hisoblanadi. U millatning madaniy darajasini, badiiy didini, fikrlash uslubini koʻrsatib beradi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy tafakkur va soʻz sanʼati oʻrtasidagi bogʻliqlik masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining tezkorligi, turli madaniyatlarning oʻzaro taʼsiri kuchaygan bir paytda, milliy soʻz sanʼatini asrash va rivojlantirish xalq maʼnaviy mustaqilligini saqlashning muhim shartlaridan biridir. Chunki soʻz sanʼati millatning maʼnaviy ildizlarini, tarixiy xotirasini, axloqiy qadriyatlarini va estetik qarashlarini asrab qoladi. Shu bilan birga, u zamonaviy tafakkur shakllanishida, yoshlarning dunyoqarashini boyitishda va milliy oʻzlikni anglashda muhim oʻrin tutadi. Soʻz orqali millat oʻzligini anglaydi, ruhiy birligiga erishadi, oʻz tarixiy ildizlariga suyanib, maʼnaviy kamolot sari intiladi. Soʻz inson va jamiyat oʻrtasidagi ruhiy koʻprik boʻlib, u orqali millat oʻz oʻtmishini yodga oladi, bugunini anglaydi va kelajakka yoʻl ochadi. Shuning uchun soʻz sanʼatiga befarq qarash, aslida, milliy ruh va tafakkur ildizlariga beparvolik bilan tengdir. Shu boisdan,

“So‘z san’ati — milliy tafakkur ifodasi” mavzusini o‘rganish adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari kesishgan nuqtasida turgan eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu yo‘nalish so‘zning estetik, ma’naviy va ijtimoiy funksiyalarini o‘rganish, uning milliy ongini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilish hamda yosh avlodda so‘zga hurmat, milliy tafakkur, badiiy did va estetik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. So‘z san’atini chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u millatning kelajagini ma’naviy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. So‘z san’ati — bu inson tafakkuri, ruhiyati va ma’naviyatining eng go‘zal, badiiy shaklda ifodalanishidir. U millat tafakkurining ko‘zgusi, xalqning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari va dunyoqarashini yorituvchi kuchli madaniy hodisadir. So‘z san’ati orqali millat o‘zligini anglaydi, qadriyatlarini saqlaydi va kelajak avlodlarga ma’naviy meros sifatida yetkazadi. Shu jihatdan, so‘z san’ati milliy tafakkurning ifodasi, milliy o‘zlikning shakllanishida beqiyos vosita hisoblanadi. So‘z san’atining asosiy mohiyati — inson tafakkurini, tuyg‘ularini, hayotga munosabatini badiiy shaklda ifodalash orqali ma’naviy ta’sir ko‘rsatishdir. Uning maqsadi esa millat tafakkurini yuksaltirish, xalq ruhiyatini badiiy vositalar orqali ifodalash va o‘quvchini estetik hamda axloqiy jihatdan tarbiyalashdan iboratdir. So‘z san’ati shaxsni fikrlashga, his qilishga, hayotiy voqealarga badiiy nigoh bilan qarashga o‘rgatadi. Shu bois, u milliy o‘zlikni saqlash va tafakkurni boyitishning eng muhim ma’naviy manbaidir. Bugungi kunda so‘z san’atining milliy tafakkur bilan uyg‘unligi har doim ham to‘liq darajada saqlanmayapti. Ba’zan asarlarda milliy ruhning susayishi, g‘arbiy andozalarga taqlid qilish yoki milliy qadriyatlarning soddalashtirilgan talqini uchrab turadi. Bu holat so‘zning asl badiiy kuchini kamaytiradi, milliy ruhni so‘ndiradi. Yana bir muammo — yosh avlodning so‘z san’atiga bo‘lgan qiziqishining pasayishi va badiiy tafakkur madaniyatining yetarli shakllanmagani. Shu bois, adabiyot va san’at orqali milliy fikrlashni mustahkamlash, badiiy so‘zning estetik qudratini targ‘ib etish dolzarb vazifadir. So‘z san’ati orqali milliy tafakkurni mustahkamlash uchun avvalo badiiy ifodaning ichki mohiyatini anglash, so‘zning estetik, falsafiy va ma’naviy qatlamlarini chuqur tahlil qilish zarur. Xalq og‘zaki ijodi, maqollar, dostonlar, mumtoz she’riyat namunalarida mujassam bo‘lgan so‘z go‘zalligini yosh avlod ongiga singdirish muhim. Shuningdek, zamonaviy yozuvchilar ijodida so‘zning milliy ohangi, xalqona ruhi, ma’naviy teranligi qayta uyg‘onmoqda. Bu jarayon milliy tafakkur va badiiy tafakkur uyg‘unligini ta’minlaydi. So‘z san’ati milliy o‘zlikni anglash va uni asrashning eng kuchli vositasidir. Har bir xalqning adabiyoti uning dunyoqarashini, ruhiy holatini va tarixiy yo‘lini aks ettiradi. Masalan, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi ijodkorlarning

asarlarida milliy tafakkur, xalqning orzu-intilishlari va ma'naviy fazilatlarini so'z qudrati bilan ifodalangan. Ularning asarlari nafaqat badiiy, balki milliy o'zlikni saqlab qolish yo'lidagi ma'naviy dastur hamdir. Shu jihatdan, so'z san'ati millatni birlashtiruvchi, uning ruhiy qudratini yuksaltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Milliy tafakkur so'z san'atida obrazlar, ramzlar, timsollar va estetik tafsilotlar orqali aks etadi. Badiiy asarda xalq ruhiyati, tarixiy xotira va axloqiy qadriyatlar o'ziga xos uslubda yoritiladi. Masalan, xalq dostonlarida vatanparvarlik, sadoqat, matonat kabi qadriyatlar milliy tafakkurning markaziy g'oyasini tashkil etadi. Shu tarzda so'z san'ati xalq hayotining ma'naviy manzarasini yaratadi, tafakkurni milliy ruh bilan boyitadi. So'z san'ati insonda estetik zavqni, badiiy didni va ma'naviy sezgirlikni tarbiyalaydi. U o'quvchini fikrlashga, so'zning ma'nosini his etishga, ma'naviy jihatdan yuksalishga undaydi. Adabiyot orqali inson o'z xalqining tarixi, tili, qadriyatlari bilan tanishadi, o'zligini anglaydi. Shu sababli, so'z san'ati nafaqat estetik hodisa, balki insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi vositadir. Bugungi davrda so'z san'ati yangi shakllar va janrlar orqali milliy tafakkurni zamonaviy talqinda ifoda etmoqda. Internet, ommaviy madaniyat va global axborot oqimi sharoitida so'zning badiiy va ma'naviy qudratini saqlash muhim masalaga aylandi. Shuning uchun adabiyot va ta'lim jarayonida so'z madaniyatiga, nutq estetikasi va badiiy fikrlash madaniyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. "So'z san'ati — milliy tafakkur ifodasi" degan tushuncha adabiyotning insonparvarlik mohiyatini, so'zning ma'naviy kuchini va millat tafakkuridagi beqiyos rolini chuqur ifodalaydi. Adabiyot, avvalo, inson qalbiga, uning his-tuyg'ulariga, ichki dunyosiga ta'sir etuvchi eng nozik san'at turidir. So'z san'ati insonni fikrlashga, o'zligini anglashga, ma'naviy kamolotga intilishga undaydi. Inson so'z orqali o'z dunyoqarashini shakllantiradi, o'z millatining ruhiy boyligini his etadi va o'zini shu madaniyatning bir bo'lagi sifatida anglay boshlaydi. Birinchidan, so'z san'ati millatni birlashtiruvchi, ruhiy uyg'otuvchi va qadriyatlarni saqlovchi ma'naviy omildir. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari va orzu-umidlari aynan so'z orqali avloddan avlodga o'tadi. She'r, doston, maqol, afsona yoki hikmatli so'zlar orqali millat o'z ruhini asrab keladi. Bu san'at tili orqali xalq o'zining tarixiy xotirasini, urf-odatlarini va e'tiqodini saqlab qoladi. Shuning uchun ham so'z san'ati milliy birlashuv va ma'naviy uyg'onishning eng muhim manbalaridan biridir. Ikkinchidan, so'z san'ati insonni o'ylash, his qilish va o'zligini anglashga undaydi. Adabiy asarlar o'quvchini nafaqat estetik zavqga, balki falsafiy mushohadaga chorlaydi. Har bir badiiy so'z, har bir obraz insonni hayotning mazmuni, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, sevgi va vafosizlik haqida o'ylashga majbur etadi. Shu tariqa so'z san'ati shaxs tafakkurini tarbiyalaydi, ruhiyatni poklaydi va ijobiy axloqiy qarashlarni shakllantiradi. Inson so'z

orqali dunyoni anglaydi, o'zining hayotdagi o'rnini belgilaydi va o'z milliy o'zligiga sodiq qolishga intiladi. Uchinchidan, so'z san'ati orqali milliy tafakkur jahon madaniyati bilan uyg'unlashadi. Har bir xalqning adabiyoti dunyo adabiy jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. O'zbek so'z san'ati ham bu yo'lda o'ziga xos ovozga ega bo'lib, jahon adabiyotining umumiy ma'nosiga o'z hissasini qo'shadi. Bu uyg'unlik milliy tafakkurning yuksak darajada shakllanganligini, uning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashish qobiliyatini ko'rsatadi. Adabiyot orqali milliy madaniyat global madaniy merosning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Shunday qilib, so'z san'ati — bu millatning yuragi, tafakkurining badiiy ifodasi, xalqning o'zligini saqlovchi va uni kelajak sari yetaklovchi qudratli ma'naviy manba hisoblanadi. So'z san'ati orqali xalq o'z ruhini, orzularini, e'tiqodini va tarixini abadiylikka muhrlaydi. U millatni ruhiy uyg'unishga, ma'naviy mustahkamlikka va madaniy yuksalishga chorlaydi. Shu sababli, so'z san'ati nafaqat badiiy ijodning, balki butun milliy tafakkurning markazida turgan beqiyos ma'naviy boylikdir.

“So'z san'ati — milliy tafakkur ifodasi” mavzusining tahlili shuni ko'rsatadiki, so'z san'ati xalqning ma'naviy dunyosi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va estetik qarashlarini mujassam ifoda etuvchi eng yuksak badiiy hodisadir. Har bir millatning so'z san'ati — uning ruhiy olami, tafakkuri va hayot falsafasining badiiy shaklidir. So'z orqali millat o'z tarixini, orzu-umidlarini, dard va quvonchlarini, ruhiy izlanishlarini avloddan-avlodga yetkazadi. Shu bois, so'z san'ati milliy o'zlikni saqlash, milliy ongini mustahkamlash va ma'naviy uyg'unishni ta'minlovchi kuchli omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy tafakkur so'z san'ati orqali nafaqat adabiyotda, balki jamiyat tafakkurida ham shakllanadi. So'zning badiiy ifodasi xalq tafakkurini teranlashtiradi, o'quvchini fikrlash, his qilish, ma'naviy qadriyatlarni anglashga chorlaydi. Adabiy merosni o'rganish, undagi so'z san'atining falsafiy va ruhiy qatlamlarini tahlil qilish milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunda so'z san'atiga yuzaki yondashish, uning milliy tafakkurdagi o'rnini va ma'nosini to'liq anglab yetmaslik, badiiy tahlil madaniyatining sustligi kabi muammolar ham mavjud. Bu esa adabiy ta'limda so'z san'atini milliy tafakkur ifodasi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, so'z san'atini chuqur o'rganish, undagi badiiy vositalar, ramz va timsollar orqali milliy tafakkurning ifodasini tahlil qilish adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. So'z san'ati — bu millat tafakkurining badiiy ko'zgusi, u orqali xalq o'z o'tmishini anglaydi, bugunini baholaydi va kelajak sari ruhiy yo'l topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Z. *Til, tafakkur va milliy o'zlik muammolari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. G'ulomov A. *So'z sehri va milliy qadriyatlar*. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
3. Jo'rayev M. *Adabiyot va milliy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Nazarov Q. *Badiiy asarda milliy ruh va estetik ifoda*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
6. *O'zbek adabiyotining nazariy asoslari*. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.
8. Qo'chqorov B. *So'z san'ati va badiiy tafakkur masalalari*. – Toshkent: Yozuvchi, 2012.
9. Saidov A. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Akademiya, 2022.
10. Yuldasheva N. *Adabiy tafakkur va milliy o'zlik*. – Toshkent: Universitet, 2020.

SHEVALARNING O'ZBEK ADABIY TILIGA TA'SIRI

ABDUHAKIMOVA MUHLISA ASLIDDIN QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi kechki 24/1-guruh talabasi

asliddingoziyev@gmail.com

Ilmiy rahbar: Diyorjon Turg'unpo'latov

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq shevalarining adabiy til shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shevalarning lug'aviy boyligi, fonetik va morfologik xususiyatlari, shuningdek, ularning adabiy tilning me'yorlashuv jarayoniga qo'shgan hissasi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sheva, o'zbek adabiy tili, dialekt, fonetika, morfologiya, til me'yorlari

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние узбекских народных диалектов на формирование и развитие литературного языка. Анализируются лексическое богатство, фонетические и морфологические особенности диалектов, а также их вклад в процесс нормализации литературного языка.

Ключевые слова: диалект, узбекский литературный язык, фонетика, морфология, языковые нормы

Abstract: This article examines the influence of Uzbek folk dialects on the formation and development of the literary language. The lexical richness, phonetic and morphological features of dialects, as well as their contribution to the standardization process of the literary language, are analyzed.

Key words: dialect, Uzbek literary language, phonetics, morphology, language norms

O'zbek tili boy va qadimiy tarixga ega bo'lgan turkiy tillardan biridir. Bu tilning shakllanishi va rivojlanishida xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, tarixiy asarlar bilan bir qatorda shevalarning ham ahamiyati beqiyosdir. O'zbek xalqining turli hududlarda shakllangan shevalari adabiy tilning lug'at boyligi, fonetik, morfologik va sintaktik tizimiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan.

1. Shevalarning xilma-xilligi

O'zbek tili uch asosiy dialekt guruhiga bo'linadi:

Qarluq (janubiy-sharqiy) dialekt guruhi (Toshkent, Farg'ona, Samarqand-Buxoro shevalari)

Qipchoq (shimoliy) dialekt guruhi (Qoraqalpog'iston, Xorazm, Sirdaryo hududlari)

O'g'uz (janubiy-g'arbiy) dialekt guruhi (Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazmning ayrim hududlari) O'zbek adabiy tili asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Uning taraqqiyotida xalq shevalari muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Shevalar o'zbek adabiy tilining lug'aviy, fonetik va grammatik tizimini boyitib, uni yanada mukammal va rang-barang qilgan. Ushbu maqolada shevalarning adabiy tilga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiy til shevalarga ta'sir qilgani kabi, shevalar ham adabiy tilni yangilab, boyitib borgan. Adabiy tilning xalqchil, ravon va ta'sirchan bo'lishida aynan shevalardan kirib kelgan so'z va iboralarning roli katta. Shu bois o'zbek tilshunosligida dialektologiya fani shevalarni o'rganish va ularning adabiy tilga ta'sirini tadqiq qilishga katta e'tibor qaratadi.

1. Shevalarning fonetik ta'siri

Shevalarda tovush almashishlari, talaffuz farqlari va urg'u xususiyatlari mavjud. Masalan, ayrim hududlarda "q" va "x" tovushlari almashib keladi (qiz – xiz), shuningdek, "o" va "u" tovushlarining farqli ishlatilishi ham kuzatiladi. Bunday fonetik o'zgarishlar adabiy tildagi ayrim variantlarning shakllanishiga sabab bo'lgan.

2. Shevalarning leksik boyligi

Shevalarda keng qo'llanadigan ko'plab so'zlar adabiy tilga kirib, uning lug'aviy tarkibini boyitgan. Masalan, "do'ppi", "ayvon", "qatiq", "ko'cha" kabi so'zlar dastlab ayrim hududiy shevalarga xos bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik umumxalq mulkiga aylangan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ishlatilgan ayrim so'zlar ham adabiy til leksikasida mustahkam o'rin egallagan.

3. Shevalarning morfologik ta'siri

Shevalarda qo'llanadigan ayrim grammatik shakllar ham adabiy tilga singib ketgan. Masalan, fe'llarning -moqda shakli (o'qimoqda, yozmoqda) ko'p shevalarda keng tarqalgan bo'lib, adabiy tilda ham me'yor sifatida mustahkamlangan. Ko'plik qo'shimchasining turli variantlari (-lar, -laru, -lAr) esa adabiy til me'yorlashuvi jarayonida yagona shaklga keltirilgan.

4. Shevalarning uslubiy xususiyatlari

Shevalarda uchraydigan iboralar, maqollar va xalq og'zaki ijodi namunalaridan adabiy tilda keng foydalaniladi. Bunday birliklar matnning obrazlilikini kuchaytiradi, milliy ruhni aks ettiradi va adabiy tilni xalqona bo'lishiga xizmat qiladi.

5. Adabiy til me'yorlashuvida shevalarning o'rni

Adabiy til shakllanish jarayonida shevalardan eng toza, keng tarqalgan va umumxalq uchun tushunarli shakllar tanlab olingan. Shu bois, adabiy til barcha hududlar uchun umumiy aloqa vositasiga aylangan bo'lsa-da, unda shevalarning izlari saqlanib qolgan.

Shevalarning adabiy tilga ta'siri quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Leksik jihatdan: shevalardagi ko'plab so'zlar adabiy til boyligini oshirgan. Masalan, Xorazm shevasidagi qiyiq (ko'zning kichikligi), Qashqadaryo shevasidagi so'g'on (piyoz) kabi so'zlar adabiy tilga singib ketgan.

2. Fonetik jihatdan: ba'zi shevalardagi talaffuz xususiyatlari adabiy talaffuz me'yorlariga ta'sir qilgan. Masalan, yo'q – yog', bor – bar shakllari orasidan adabiy til umumiy variantni tanlagan.

3. Grammatik jihatdan: fe'llarning qo'llanishidagi turli shakllar adabiy til uchun boy manba bo'lgan. Masalan, Farg'ona shevasidagi keluvdim, Xorazm shevasidagi kelyapman kabi shakllar umumlashib, adabiy til grammatik tizimini boyitgan.

4. Uslubiy jihatdan: shevalar adabiy tilda badiiy tasvir vositasi sifatida qo'llanib, obrazlilikni kuchaytiradi. O'zbek yozuvchilaridan Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, O'tkir Hoshimov asarlarida qahramonlar nutqida sheva unsurlaridan foydalanilgan.

O'zbek xalq shevalari adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyotida asosiy manba hisoblanadi. Ular adabiy tilning lug'aviy tarkibini boyitib, fonetik va morfologik tizimining mukammallashuviga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Xalq nutqida keng tarqalgan va umumxalq uchun tushunarli bo'lgan so'z va shakllar adabiy til me'yorlariga singdirilgan.

Shu bois shevalar bir tomondan o'zbek adabiy tilining ildizi va tabiiy manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan uning boyib borishi, milliy xususiyatlarini saqlab qolishi va xalq ruhiga yaqinlashishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov A. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1983.
2. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
3. Begmatov E. O'zbek tili dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1995.
4. Jo'rayev M. O'zbek shevalari va ularning adabiy tilga ta'siri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
5. Normatov H. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.

O'ZBEK TILI LUG'AT BOYLIQIDA NEOLOGIZMLARNING O'RNI

ABDULHAMIDOVA MALIKAXON SHAVKATJON QIZI

CHirchiq davlat pedagogika universiteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II bosqich talabasi

malikashavkatqizi@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza.Jalolovn.

ANNOTATSIYA: Maqola leksik boyish jarayoni hamda lug'at boyligining tabiiy taraqqiyotida neologizmlarning o'rni masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida ayrim neologizmlarning xalq tiliga kirib borishi, shuningdek, ularning ta'sirida mavjud o'zbekcha istilohlar o'rniga yangi so'zlarning bevosita o'zlashtirilishi natijasida lug'at boyligiga yuzaga kelayotgan salbiy ta'sirlar tahlil qilingan. Shuningdek, neologizmlarning o'zbek tili taraqqiyotidagi ahamiyatini ikki qirrali hodisa sifatida ko'rib, tilning ko'p asrlik rivojlanishida ularning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjudligi asoslangan.

Kalit so'zlar: o'zlashgan so'zlar, neologizmlar, leksika, qardosh tillar, leksik qatlam, kombayn, avtomat, kompyuter, robot.

Ma'lumki, zamonaviy chet tillarining jadal rivojlanishi nafaqat ularning o'z leksik qatlamini boyitib boradi, balki o'zbek tili lug'at tarkibining ham sezilarli darajada kengayishiga sabab bo'lmoqda. O'zbek leksikasi o'zida turli tarixiy davrlar o'zgarishlarini aks ettiruvchi murakkab qatlamlardan iboratdir. Xususan, Movarounnahr hududida VIII asrdan boshlab islom dinining qabul qilinishi va arab madaniyati bilan yaqin aloqalarning shakllanishi natijasida arab tilidan o'zbek tiliga katta hajmdagi leksik birliklar kirib kelgan. Bu jarayon til taraqqiyotining muhim bosqichini tashkil etib, natijada *“maktab”, “maorif”, “masjid”, “madaniyat”, “tamaddun”, “kitob”, “oila”, “ibtido”* kabi ko'plab so'zlar o'zbek tilining faol lug'at tarkibiga singib ketgan.

Shuningdek, o'zbek tili leksikasida tarixiy taraqqiyot davomida tojik, rus, ingliz, fransuz va boshqa bir qator qardosh va jahon tillaridan kirib kelgan leksik qatlamlar ham mavjudligi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu jarayon o'zbek tilining turli davrlarda boshqa madaniyat va tillar bilan o'zaro aloqadorligini hamda leksik tarkibning boyib borishini ko'rsatadi.

Neologizmlar esa tilning zamonaviy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etib, turli uslublarda turlicha vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy asarlarda ular muayyan fan yoki sohaning tushunchalarini ifodalashda maxsus termin sifatida qo'llanib, ilmiy

mazmunning aniqligi va izchilligini ta'minlaydi. Masalan, "strategiya" termini maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasini anglatuvchi ilmiy tushuncha sifatida qo'llanadi. Badiiy adabiyotda neologizmlar ko'proq uslubiy vazifani bajaradi. Xususan, ular matnga yangilik, obrazlilik va ifoda vositalarining ta'sirchanligini olib kiradi. Yangi so'zlar o'quvchida kutilmagan ta'sir uyg'otib, asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Shuningdek, muallifning individual uslubini namoyon etishda, adabiy til imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikda qayd etilishicha, badiiy nutqda neologizmlarning qo'llanishi tasviriylikni kuchaytiradi, mavjud leksik birliklar orqali ifodalanishi qiyin bo'lgan yangi tushuncha va his-tuyg'ularni ifodalash imkonini beradi²⁷. Shu jihatdan, neologizmlar badiiy matnning ekspressivligini ta'minlovchi, ijodiy uslubning o'ziga xosligini yorituvchi vosita sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, o'zbek tili lug'at boyligi asrlar davomida bosqichma-bosqich boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar asosida kengayib borgan hamda ular vaqt o'tishi bilan tilning asosiy lug'at qatlamidan munosib o'rin egallagan. Bugungi kunda esa xalq nutqida paydo bo'layotgan neologizmlar til taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Ular ko'pincha ijtimoiy hayotdagi texnologik yangiliklar, turmush tarzidagi o'zgarishlar yoki zamonaviy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, xalq tilida obrazlilik va baholash vositasi sifatida faol qo'llanadi.

Masalan, aqlli va bilimdon bolaga nisbatan qo'llaniladigan "kallasi kompyuter", ishlab charchamay ishlovchi ayolga nisbatan ishlatiladigan "robot xotin", tez gapiradigan shaxslarga nisbatan aytiladigan "avtomatdan tez", ko'p ovqat yeydiganlarga nisbatan ishlatiladigan "kombayn" kabi neologizmlar xalq tilida o'ziga xos semantik yuklamaga ega. Bunday birliklar bir tomondan, yangi davr realliklarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, xalqning nutqiy ijodkorligini namoyon etadi.

Neologizmlar xalq nutqida ko'pincha metaforik asosda yuzaga kelib, qiyoslash va obrazli ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Ularning ma'nodagi yangiligi va ta'sirchanligi natijasida ular tezda ommalashib, nutqiy muomalada faol qo'llanadigan birliklarga aylanadi. Shu tariqa xalq tilida vujudga kelayotgan bunday yangi ifodalar o'zbek tili lug'at boyligining tabiiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi hamda tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birgalikda masalaning boshqa qirrasiga ham e'tibor qaratish lozim. Taniqli o'zbek munaqqidi Ahmad A'zam o'zining "Til nomusi" asarida muqobillari mavjud bo'lishiga qaramay, o'zlashma so'zlardan ortiqcha foydalanish natijasida

²⁷ Salimova M. Zamonaviy o'zbek leksikasida transformatsiya jarayonlari: neologizmlar, jargon va internet tili ta'siri // New Renaissance international scientific journal. 2025 yil, 2-tom №5

o'zbek tilidagi ayrim istilohlarning faol qo'llanmay qolishi va buning oqibatida sof turkiycha leksik qatlamning qisqarib borishi mumkinligini ta'kidlaydi. Muallif bu fikrini bir qator misollar bilan asoslaydi.

Xususan, *“naqliyot”* so'zi xalq tilida mavjud bo'la turib, uning o'rnida *“jamoat transporti”* birikmasining keng qo'llanilishi; *“mador”* istilohi mavjudligiga qaramay, *“tropik”* so'zining ishlatilishi; *“ko'llik”* (aslida *“ko'llamoq”* fe'lidan yasalgan) o'zlashma *“pamper”* bilan almashib borishi; xalqona *“xo'jag'at”* o'rnida *“malina”*, *“hushki”* o'rnida *“prostina”*, fors-tojikcha *“hobgoh”* o'rnida ruscha *“spalniy”* ning ishlatilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, *“nishasta”* mavjud bo'lishiga qaramay *“kraxmal”*, *“o'zi qaynar”* o'rnida esa *“samovar”* kabi birliklarning faol qo'llanishi ham tilimizdagi muqobil so'zlarning siqilib chiqib borayotganidan dalolat beradi.²⁸

Ahmad A'zamning ushbu mulohazalari o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlarning ortiqcha qo'llanishi masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, bunday hodisa sof turkiy so'zlarning nutqiy muomaladan asta-sekin chekinishiga olib kelishi mumkin bo'lib, bu esa tilning milliy qiyofasini saqlash masalasini dolzarb qiladi. Tanqidchining fikricha, xalq tili tabiiy ravishda o'zligini saqlab qolish imkoniyatiga ega, ammo begona so'z va iboralarni aynan ziyolilar hamda ijodkorlar til oqimiga kiritib yuboradi.

Ahmad A'zam *“Til nomusi”* asarida shunday deydi: *“Avom tilini, do'ppini yechib o'ylasak, xalqning o'zi buzmaydi, buzadigan yot istiloh-iboralarni bu tirik oqim ustiga biz – qalam ahli to'kamiz. Xalq esa ularni o'z talaffuziga moslab, so'zlashuv nutqiga qo'shib olib ishlataveradi. Tilchi mutaxassislarimiz bu ishlarni yana o'z qo'llariga olishlari lozim”*²⁹.

Mazkur fikrlar o'zbek tilida o'zlashma so'zlardan foydalanishda muvozanatni saqlash, sof turkiy so'zlarni himoya qilish hamda til taraqqiyotini milliylik asosida davom ettirish zaruratini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning ijodida ham ayrim o'rinlarda xalq tiliga mos, o'zbekcha terminlarni faol qo'llaganlari ko'zga tashlanadi. Masalan, u *“diktofon”* o'rniga *“unyozar”*, *“kompyuter”* o'rniga *“bilgisayyor”*, *“aeraport”* o'rniga *“tayyoragoh”* shaklidagi o'zbekcha so'zlarni ishlatib, tilimizning milliy va leksik o'ziga xosligini saqlashga xizmat qilgan.

²⁸ Ahmad A'zam. Til nomusi. Toshkent: “Akademnashr”. 2013. – 92 b.

²⁹ Ahmad A'zam. Til nomusi. –Toshkent: “Akademnashr”. 2013.

Shu bilan birga, boshqa tillardan ko'plab o'zlashuvlar mavjud bo'lishiga qaramay, o'zbek tili o'ziga xoslikni yo'qotmagan. Tilning rivojlanish jarayoni davomida u o'zining milliy xususiyatlari, morfologik va leksik xususiyatlari bilan turkiy tillar oilasida barqaror pozitsiyasini saqlab qolgan. Bu esa o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy rivojlanishida milliy identifikator sifatida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar o'zbek tili leksikasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular til boyligini oshirib, yangi tushuncha va hodisalarni ifodalash imkonini beradi, shuningdek, badiiy adabiyotda obrazlilik va uslubiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, haddan tashqari o'zlashma so'zlardan foydalanish sof turkiy so'zlarning nutqiy muomaladan chekinishiga olib kelishi mumkinligi, tilning milliy o'ziga xosligini saqlash masalasini dolzarb qilishi ta'kidlandi.

Ahmad A'zamning fikrlariga ko'ra, til mutaxassislari va qalam ahli xalq tilidagi tabiiy oqimga e'tibor berib, yot istilohlarni ehtiyotkorlik bilan qo'llashi lozim. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning o'zbekcha terminlardan foydalanish tajribasi esa tilning milliy xususiyatlarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qilishi misol bo'ldi.

Shu bilan, neologizmlar o'zbek tilining leksik boyligini oshirish va zamonaviy nutqni boyitishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lsa-da, tilning tarixiy va leksik merosini saqlash ham dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot natijalari neologizmlarning ikki qirrali tabiati — ijobiy va salbiy jihatlarini yoritib, o'zbek tilshunosligi va leksik taraqqiyot sohasida keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: “Talqin”. 2005. –260 b.
2. Rahmatillayev Sh. va boshqalar. **O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati** – Toshkent, 2022. –636 b.
3. Ahmad A'zam. Til nomusi. –Toshkent: “Akademnashr”. 2013. –92 b.
4. Salimova M. Zamonaviy o'zbek leksikasida transformatsiya jarayonlari: neologizmlar, jargon va internet tili ta'siri // New Renaissance international scientific journal. 2025 yil, 2-tom №5. 77-80 b.
5. www.ziyo.uz.com.

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARI

ABDULLAYEVA ZILOLA BAHRIDDIN QIZI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat tilida ish yuritishning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari yoritilgan. Davlat tilining millat o'zligini ifodalashdagi, huquqiy davlat barpo etish va milliy qadriyatlarni asrashdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Shuningdek, rasmiy hujjatlar til me'yorlariga asoslanishi, hujjatchilik madaniyati va nutq savodxonligi davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati bilan tahlil qilinadi. Prezident farmonlari, Konstitutsiya va ilmiy manbalar asosida davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Davlat tili, ish yuritish, hujjat madaniyati, nutq savodxonligi, Konstitutsiya, Prezident farmoni, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, huquqiy davlat, hujjatchilik asoslari.

Annotation. This article examines the legal, social, and spiritual foundations of conducting official correspondence in the state language of the Republic of Uzbekistan. It highlights the role of the state language in shaping national identity, strengthening the rule of law, and preserving cultural values. Moreover, the importance of basing official documents on linguistic norms, maintaining document culture, and improving literacy in official communication are analyzed within the system of public administration. Based on presidential decrees, the Constitution, and scientific sources, the necessity of improving the system of conducting official correspondence in the state language is justified.

Key words: State language, office work, document culture, literacy, Constitution, Presidential decree, national values, spirituality, legal state, document management.

O'zbekiston Respublikasida davlat tilida ish yuritish masalasi mustaqillikdan keyingi yillarda jamiyat hayotining eng muhim ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Zero, davlat tili – bu millatning o'zligini ifoda etuvchi,

tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylovchi hamda huquqiy davlat barpo etishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiluvchi omildir. O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrdagi "Davlat tili haqida"gi Qonuni va 2019-yilda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir". Prezident farmonlari davlat tilining ijtimoiy mavqeini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan keyin o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanilmoqda, xorijdagi ko'plab oliy o'quv yurtlari, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Davlat tilining joriy qilinishidagi asosiy masalalardan biri mamlakatimizda ish yuritish tizimini to'la-to'kis o'zbek tiliga o'tkazishdan iborat. Bunda ish yuritish bo'yicha turli, hatto aniq sohalar bo'yicha qo'llanmalar yaratish va ko'p nusxalarda nashr qilish ham alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davlat tilida ish yuritishning asosiy talablari hujjatlarning mazmunan aniq, lo'nda va huquqiy jihatdan to'liq bo'lishini taqozo etadi. Har bir rasmiy hujjat davlat tilida tuzilishi, imlo va uslubiy jihatdan me'yorlarga javob berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanishicha, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili – o'zbek tilidir". [1:12]. Ushbu norma davlat tilining huquqiy asosini belgilab beradi va uning rasmiy hujjatlarda qo'llanishini kafolatlaydi.

Nutq madaniyati va hujjat tuzish malakasi davlat tilida ish yuritishda muhim o'rin tutadi. Professor N. Mahmudovning ta'kidlashicha: "Davlat tili – bu nafaqat millat tafakkuri, balki uning huquqiy va ijtimoiy madaniyatining ko'zgusidir". [2:45]. Shu bois, davlat tilida ish yuritish jarayonida xodimlarning til madaniyati, uslubiy savodxonligi va huquqiy bilimlari yuqori bo'lishi talab etiladi.

Davlat tilida ish yuritish masalasi nafaqat huquqiy, balki siyosiy va ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan Prezident farmonida davlat tilining mavqeini oshirish va barcha sohalarida uni keng qo'llash choralari belgilash muhim tarixiy qadam bo'ldi. Farmonning 2-bandida rasmiy idoralarda barcha hujjatlar davlat tilida yuritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish masalasi ta'lim tizimida ham muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarida hujjatchilik asoslari fanining o'qitilishi, davlat xizmatchilarining malaka oshirish kurslarida davlat tilida ish yuritish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazilishi ushbu yo'nalishda samarali natijalar bermoqda. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuchdir". Davlat tilida

ish yuritish madaniyati ham milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi. Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va rivojlantirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bu hujjatlarning tili va uslubidir. Hujjatni tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qoida va me'yorlari ma'lum darajada o'z aksini topishi kerak. Har bir rahbar, ma'muriy boshqaruv muassasalarining xodimlari, faoliyati ish qog'ozlarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan tashkilotda ishlaydigan har bir kishi o'zbek tilining imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini mukammal bilishi shart.

Rasmiy hujjatlar mazmunan aniq, qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Sh. Yoqubov o'zining "Ish yuritish asoslari" kitobida rasmiy hujjatlarda ortiqcha so'zbozlikka yo'l qo'yilmasligi, har bir jumlaning mantiqan izchil va mazmunan to'liq bo'lishi zarurligini qayd etadi. [3:73]. Bu me'yorlarga amal qilish davlat idoralarida hujjatlarning sifatini oshiradi va tartib-intizomni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilida ish yuritish – huquqiy davlat barpo etish, milliy ma'naviyatni yuksaltirish va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda asosiy omillardan biridir. Davlat idoralarida hujjatlarning davlat tilida yuritilishi huquqiy madaniyatni mustahkamlaydi, tartib-intizomni kuchaytiradi va milliy qadriyatlarni asrashga xizmat qiladi. Kelajakda davlat tilida ish yuritish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida elektron hujjat aylanishida ham davlat tilining ustuvorligini ta'minlash dolzarb vazifalardan bo'lib qoladi. Davlat tilida ish yuritish nafaqat huquqiy me'yor, balki milliy ma'naviyat va madaniyatning ajralmas qismi sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi globallashtirish davrida davlat tilining nufuzi va mavqei oshirish, rasmiy hujjatlarda uning qo'llanishini kengaytirish, yosh avlodni ona tiliga sadoqat ruhida tarbiyalash — bu yurtimiz kelajagini yuksak taraqqiyot sari yetaklaydigan muhim omillardandir. Shuningdek, davlat tilida ish yuritishning barcha sohalarda mukammal joriy etilishi, xalqaro maydonda mamlakatimiz obro'sini oshiradi va milliy qadriyatlarimizni dunyo miqyosida yanada keng targ'ib etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2001-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2019.-12-bet.

3. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev; Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Darslik./– T.: Cho'lpon, 2013. B-45.

4. M.Aminov va boshq. Davlat tilida ish yuritish: amaliy qo'llanma / - T.: "O'zbekiston nashriyoti". 2020. - 73 b.

6. Jumaniyozov A. O'zbek terminologiyasi taraqqiyotida zamonaviy muammolar. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2021. – №3. – B. 55–63.

O'QITISH TAMOYILLARI – ONA TILI FANINING METODIK ASOSINI TASHKIL ETUVCHI OMIL SIFATIDA

ABDUQAYUMOVA GULZODA ABDUMUTAL QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

gulzodaabduqayumova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili o'qitish metodikasida o'qitish tamoyillari: o'qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli, tizimlilik va izchillilik bilan bir qatorda fanni o'qitishda o'ziga xos prinsiplardan bo'lgan mavzulararo, bo'limlararo hamda fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish, o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish kabilar yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish, ilmiylik, tushunarlilik, sistemaviylik, izchillik prinsiplari, ona tili o'qitishda ko'rgazmalilik.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются принципы преподавания по методике обучения родному языку: научность преподавания и понятность для детей, а также системность и последовательность, а также межпредметная, межкафедральная и междисциплинарная связь, которые уникальные принципы преподавания науки, информация о строгом выполнении, обучение студентов различать языковые явления и т. д.

Ключевые слова: преподавание, научность, понятность, системность, принципы последовательности, демонстрация преподавания на родном языке.

Abstract. In this article, the principles of teaching in the method of teaching the mother tongue: scientificity of teaching and comprehensibility for children, as well as systematicity and consistency, as well as inter-subject, inter-departmental and interdisciplinary communication, which are unique principles in teaching science. information on strict implementation, teaching students to distinguish language phenomena, etc.

Key words: teaching, scientificity, comprehensibility, systematicity, principles of consistency, demonstration in mother tongue teaching.

Bugungi kunda ta'lim sohasida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ona tilimizni ham chetlab o'tmaganligi barchamiz uchun quvonarli, albatta. Shu o'rinda Muhtaram Prezidentimizning: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho qadriyatdir", - degan fikrlarini yodga soladi.

Ona tilini to'g'ri talqin qilish va yetarlicha o'quvchilarga yetkaza olishda metodika fanining o'rni katta. Metodika fanidagi ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o'qitish prinsiplarini amalda to'g'ri qo'llash bilan chambarchas bog'liq.

"Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. "O'qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini ta'minlash, ta'lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo'yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. [3, 48-bet].

Ona tili darslarida bir tomondan umumdidaktik prinsiplar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos prinsiplarini hisobga olish to'g'ri keladi.

Umumdidaktik prinsiplar garchand maktabda o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo'lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktabda o'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik prinsiplar: o'qitishning bolaga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; onglik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi prinsiplar garchand umumdidaktik prinsiplar sanalsa ham, ammo ona tili o'qitish nazariyasi va usuliyatida ularning har biri o'ziga xos mazmun kashf etadi.

Ona tili o'qitishda umumdidaktik prinsiplar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos prinsiplar ham mavjud: a) "til- me'yor- nutq mutanosibligi" prinsipi; b) o'zbek tili fanini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi; v) o'zbek tilini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish prinsipi; g) o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi; d) o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgiriligini oshirish prinsipi; e) ona tili o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish prinsipi.

Maktabda ona tili o'qitishning bu o'ziga xos umumdidaktik prinsiplar bilan uyg'unlashib, ona tili samaradorligini ta'minlovchi asosiy talablar silsilasini keltiradi.

Ona tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi prinsipi. Maktabda o'quvchilar ona tilining fonetikasi leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffizi, yozma nutqda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanadi. Ta'lim, tarbiya va rivojlanish - bir butun jarayon. Ularni bir-biridan ajratgan holda alohida-alohida yoki darsning muayyan bir bosqichida birin-ketinlik

bilan amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilar til hodisalarini o'rganishar ekan, ayni vaqtda shu jarayonda ularga tarbiya beriladi; shaxsi rivojlantiriladi.

Ona tili o'qitishda ilmiylik va tushunarliklik prinsipi. Ta'limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir. Ta'limning ilmiyligi prinsipi o'quv materialini hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta'limning bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsipi o'quv materiallarini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta'lim jarayoni mantiqi bu prinsiplarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zaruriyat qilib qo'yadi. Mazkur prinsipga ko'ra ona tilidan har bir sinfda o'rganiladigan material hajm hamda mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi. Maktabda ona tili fani o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu prinsip o'quvchilarni hozirgi o'zbek tilshunosligida qat'iy hal etilgan, ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Ilmiylik prinsipini tushunarliklikdan ajratib bo'lmaydi. Bu ikki prinsip bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan yagona prinsip sanaladi. Sababi, ilmiy bilimlar tushunarli bo'lmasa, o'quvchi uni o'zlashtira olmaydi.

Ona tili o'qitishda sistemaviylik va izchillik prinsipi. Ma'lumki, ona tili o'quv fani sifatida ra'lum tizimdan iborat. Bu sistema o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik tomonlarini o'z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog'langan. Maktabda tilning fonetikasini o'rganmasdan uning grammatikasini o'rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani yetarli darajada o'zlashtirgan o'quvchigina leksikani puxta o'zlashtiradi. Leksika puxta o'rganilgach, so'z turkumlarini o'rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o'zaro uzviy aloqadorlikda o'rganish uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy vosita sanaladi. Ta'limda izchillik prinsipi sistemaviylik prinsipi bilan uzviy bog'langan. Bolalarning nutqiy tayyorlanganligiga tayanish, ularning boshlang'ich va oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan, o'rganilayotgan va keyin o'rganiladigan bilimlar o'rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta'minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi. Sistemaviylik va izchillik prinsipi nafaqat o'qituvchi faoliyatida, balki o'quvchi faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Fikrni bayon qilish tartibini belgilash, bayon va insho uchun oddiy va murakkab reja tuzish kabi topshiriqlar o'quvchilardan sistemaviylik va izchillikni talab etadi.

Ona tili o'qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari. Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda o'rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallash, xulosa va umumlashmalami chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to'g'ri bayon qilish, egallangan bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu prinsip til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunib, ongli o'zlashtirishni talab qiladi.

Onglilik prinsipi o'quvchida ona tili o'qitishning asosiy maqsadini to'g'ri anglash, mavzularni ongli egallash, bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi. faoliyatini nazarda tutamiz. O'quv faolligi umumiy faollikning ajralmas qismi bo'lib, u bilimlarni egallash, bilishga qaratilgan faoliyatdir.

Ona tili o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi. Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok qilsa, bilish shuncha osonlashadi.

Ko'rgazmalilik ona tili o'qitishning muhim qonuniyati sanaladi. Chunki bu fanning tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab etadi. Tildagi mavhum tushunchalarning mohiyatini anglash bu prinsipdan keng foydalanishni taqozo etadi. O'quvchi ko'rish orqali narsa-hodisa, ularning tildagi ifodasi xususida aniq tushunchaga ega bo'ladi. Ko'rgazmali qurol me'yorida qo'llanilishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrni asosiy masaladan chetlashishga olib keladi; o'quv materialini uchun ajratilgan vaqtning yetishmasligiga sabab bo'ladi.

Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari. O'qituvchi ona tilining umumdidaktik prinsiplari bilan bir qatorda, uning o'ziga xos prinsiplarini ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

"Til-me'yor-nutq mutanosibli" prinsipi. Tilning asosiy qonun-qoidalarini, zarur birliklarini (nuta tovushlari, _ qo'shimchalar, so'zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini, o'quvchi jamiyatdan tayyor holda oladi, hali ona tilini maxsus o'quv fani sifatida o'rganmagan shaxs ham so'zlarni o'zaro biriktirib, gap qura oladi. U o'z fikrini boshqalarga bayon qiladi va o'z g'ayralar fikrini tushunadi.

O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi. Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishda yaxshi imkoniyatlarga ega. Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi. Fikrlash faoliyati esa nutq holatida namoyon bo'ladi. Ona tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish va

boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash prinsipi. Ona tili o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri mavzulararo, bo'limlararo, sinflararo, fanlararo bog'lanishdir. Ona tili o'qituvchisi mavzular va bo'limlarning bog'lanishi, aloqasini aniq belgilashi va o'qitish jarayonida unga amal qilishi lozim. V sinfda "Leksika" bo'limi o'rganilar ekan, u so'z yasalishi va grammatika bilan, fonetika so'z yasalishi va morfologiya bilan uzviy bog'lanadi. So'z yasalishi esa leksika bilan ham, morfologiya bilan ham chambarchas bog'langan. Maktab ona tili kursining turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishga amal qilish o'qituvchiga o'tilganlarni samarali, mukammal takrorlash va mustahkamlash imkonini beradi. Chunonchi, o'quvchi mustaqil so'zlarni o'rganar ekan, bunday so'zlarning sintaktik vazifalarini, sintaksisni o'rganishda esa so'z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ona tili turli yo'nalishlar orqali boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanadi. So'zning genetik nuqtayi nazaridan kelib chiqishini aniqlash uchun tarix faniga murojaat qilinsa, til hodisalarini taqqoslash uchun o'quvchilar o'rganayotgan boshqa o'quv fanlariga murojaat qilinadi. Nutq uslublarini aniqlash uchun esa adabiyot, tarix, matematika, kimyo, fizika kabi fanlar o'qituvchiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ona tili o'qitish metodikasi fanidagi umumdidaktik hamda o'ziga xos prinsiplar fanning asosiy qismi hamda uni o'rganishdagi eng muhim mavzulardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021.

O'ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN O'ZLASHMA SO'ZLAR**ABDURAHIMOVA MUXLISA RAVSHAN QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Qodirjon Mo'ydinov Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tiliga arab tilidan kirgan o'zlashma so'zlarning shakllanishi, ularning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari, tarixiy bosqichlarda kirib kelish sabablari hamda adabiyotdagi o'rni yoritiladi. Misollar orqali arabcha o'zlashmalarning diniy, ilmiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayotdagi guruhlari tahlil qilinadi. Shuningdek, arabcha va turkiy so'zlar sinonimik qatlam hosil qilib, tilimizning boyishida qanday rol o'ynagani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zlashma, arabcha so'zlar, fonetik o'zgarish, morfologik moslashuv, semantika, sinonim, adabiyot.

Abstract. This article examines the borrowed words from Arabic in the Uzbek language, their phonetic, morphological, and semantic features, as well as the reasons and historical stages of their adoption. Through examples, the classification of Arabic borrowings in religious, scientific, moral, social, and everyday spheres is analyzed. Furthermore, the role of Arabic words in enriching the Uzbek lexicon, especially through synonymy with Turkic words, is discussed.

Keywords: borrowing, Arabic words, phonetic change, morphological adaptation, semantics, synonymy, literature.

Аннотация. В статье рассматривается формирование заимствований из арабского языка в узбекском языке, их фонетические, морфологические и семантические характеристики, причины их появления на исторических этапах и место в литературе. На примерах анализируются религиозные, научные, духовно-нравственные, социальные и бытовые группы заимствований из арабского языка. Также рассматривается роль арабских и тюркских слов в обогащении нашего языка, образуя синонимический слой.

Ключевые слова: заимствования, арабские слова, фонетические изменения, морфологическая адаптация, семантика, синонимия, литература.

O'zbek tili qadimiy turkiy tillar tizimining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va taraqqiyotida hududiy-siyosiy hamda madaniy omillar keskin belgilovchi rol o'ynagan. VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda arab xalifaligi

hukmronligining qaror topishi va islom sivilizatsiyasi institutlarining (masjid, madrasalar, qozixonalar, kutubxonalar) jadal shakllanishi mintaqaning til madaniyatini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, arab tili Qur'on tili sifatida diniy-huquqiy ta'limot, ilmiy muloqot va yozma madaniyatning "yuqori" registri (diglossiya) sifatida mustahkam mavqe qozondi; bu jarayon o'zbek tili (turkiy yozma an'ana)ning leksik, so'z yasash va qisman sintaktik qatlamlariga izchil ta'sir ko'rsatdi. Arabcha o'zlashmalar tilimizni **boy, serqatlam va ifodali** qilgan. Ular diniy, ilmiy, badiiy va kundalik sohalarda teng xizmat qiladi. Shu bois, ular o'zbek tilining barqaror va faol qatlamiga aylangan.

Arabcha so'zlarning kirib kelish sabablari:

1. Islom dini tarqalishi – Qur'oni karim, hadis va diniy ilmlarning arab tilida yozilishi tufayli diniy terminlar o'zbek tiliga o'zlashdi: namoz, ro'za, zakot, jannat, do'zax, imon, taqvo.

2. Ilm-fan rivoji – IX–XII asrlarda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy kabi olimlar arab tilida ilmiy meros yaratdilar. Natijada ilm, mantiq, falsafa, kimyo, hisob, qoida kabi atamalar o'zbek tiliga kirdi.

3. Madaniyat va adabiyot ta'siri – Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida arabcha so'zlar keng qo'llangan: adolat, ma'rifat, muhabbat, sabr, hikmat, tafakkur.

4. Savdo va kundalik hayot – O'rta asrlarda xalqaro savdo orqali ham ko'plab so'zlar kirgan: kitob, daftar, qalam, qog'oz, vaqt, savol, javob.

Arabcha o'zlashmalarning leksik guruhlari

1. Diniy terminlar: ibodat, madrasa, masjid, Qur'on, hadis, jannat, shariat.

2. Ilmiy terminlar: kimyo, mantiq, tarix, adab, qoida, ta'lim.

3. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar: axloq, sabr, muhabbat, adolat, ma'rifat, odob.

4. Huquqiy va ijtimoiy atamalar: amir, qozi, hukm, davlat, nizom.

5. Kundalik hayot so'zlari: kitob, daftar, mehmon, vaqt, savol, javob

Fonetik o'zgarishlar:

Arab tilidagi tovushlar o'zbek tilida mavjud bo'lmaganligi sababli ular moslashtirilgan:

ḥisāb → hisob

ʿilm → ilm

ṣabr → sabr

zamān → zamon

Morfologik moslashuv:

Arabcha so'zlar o'zbek tilidagi qo'shimchalar orqali yangi ma'nolar kasb etdi:

ilm → ilmiy, ilmli, ilmsiz

adolat → adolatli, adolatsiz

ma'no → ma'nodor, ma'nosiz

Semantik o'zgarishlar:

“Sabr” arabchada “chidash” ma'nosida, o'zbekchada esa “toqat, matonat” ma'nosida.

“Adab” arabchada “tarbiya”, o'zbek tilida esa “tarbiya, madaniyat, adabiyot”.

“Qalb” arabchada “yurak”, o'zbek tilida ko'proq “ruhiy kechinma markazi” ma'nosida.

Tarixiy bosqichlarda kirib kelish:

VIII–X asrlar – diniy so'zlar.

IX–XII asrlar – ilmiy-falsafiy terminlar.

Temuriylar davri – adabiy-badiiy tushunchalar.

Arabcha so'zlarni adabiyotda ham keng qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Xamsa” asarlarida arabcha so'zlardan keng foydalangan. Masalan, ilm, hikmat, sabr, adolat, ma'rifat tushunchalari uning asarlarida asosiy g'oya va mazmunni belgilagan. Bundan tashqari, o'zbek tilida arabcha va turkiy so'zlar yonma-yon ishlatilib sinonim qatlam yaratadi: qalb – yurak, oqil – dono, suv – ob, odam – bashar kabilar. Bugungi kunda arabcha ildizlardan yangi so'zlar hosil qilinmoqda: ma'rifatparvar, adolatparvar, ilmiy-texnik, odoblilik.

Xulosa qilib aytish mumkinki, arabcha so'zlar o'zbek tilining boy leksik qatlamini tashkil etib, uni yanada rang-barang, uslubiy jihatdan keng imkoniyatli qildi. Ular tilimizda diniy, ilmiy, falsafiy va kundalik nutq sohalarida mustahkam o'rinishib, yangi so'z yasashda ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda arabcha o'zlashmalar tilimizning barqaror va faol qatlamini tashkil etib, ma'naviy merosimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Karimov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Jo'rayev M. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. Leksikologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
6. Hojiahmedov A. Arabcha o'zlashmalar va ularning o'zbek tilidagi o'rnini. – Toshkent: Fan, 2015.

LEKSIKALOGIYANING RUS, INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA O'RGANILISHI

ABDURAHMONOVA ZAHRO AKMALJON QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 4-kurs talabasi

abdurahmonovazahro@gmail.com

Ilmiy rahbar: Gulmira Komilova

Annotatsiya: Ushbu ishda leksikologiya fanining rus, ingliz va o'zbek tillarida o'rganilishi tahlil qilinadi. Leksikologiyaning asosiy vazifalari, so'z boyligini o'rganish usullari hamda har uch tildagi leksik birliklarning tuzilishi va semantik xususiyatlari solishtirilib yoritiladi. Tadqiqotda rus, ingliz va o'zbek tillaridagi sinonimiya, antonimiya, frazeologik birliklar hamda so'z yasalishi jarayonlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Ishning maqsadi — uch til leksikologiyasi orqali til tizimidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash va tarjima jarayonida ularning ahamiyatini ko'rsatishdir.

Kalit so'zlar: leksikologiya, sinonim, antonim, frazeologiya, semantika, so'z yasalishi, tarjima, uch tilli tahlil.

Аннотация: В данной работе рассматривается изучение лексикологии в русском, английском и узбекском языках. Анализируются основные задачи лексикологии, методы изучения словарного состава, а также структура и семантические особенности лексических единиц трёх языков. Особое внимание уделяется сравнению синонимии, антонимии, фразеологических выражений и процессов словообразования. Цель исследования — выявить общие закономерности в лексических системах трёх языков и показать их значение в переводческой практике.

Ключевые слова: лексикология, синоним, антоним, фразеология, семантика, словообразование, перевод, сопоставительный анализ.

Abstract: This paper examines the study of lexicology in Russian, English, and Uzbek. It analyzes the main objectives of lexicology, methods for studying vocabulary, and the structure and semantic features of lexical units in the three languages. Particular attention is paid to comparing synonymy, antonymy, phraseological expressions, and word formation processes. The aim of the study is to identify common patterns in the

lexical systems of the three languages and demonstrate their significance for translation practice.

Keywords: lexicology, synonym, antonym, phraseology, semantics, word formation, translation, comparative analysis.

Leksikologiya — tilshunoslikning soʻz boyligini oʻrganadigan eng qadimiy va shu bilan birga eng murakkab sohalaridan biridir. Inson tafakkuri, dunyoni idrok etish tarzi va madaniy qadriyatlari eng avvalo soʻzlar orqali namoyon boʻladi. Shu sababli har bir tilning leksik tizimi nafaqat lingvistik hodisa, balki xalq ruhiyati, tarixi va ijtimoiy tajribasining inʼikosi sifatida ham qimmatli ilmiy manba hisoblanadi. Rus, ingliz va oʻzbek tillarining leksikologiyasini oʻrganish nafaqat ularning tuzilma va semantik xususiyatlarini tahlil etishni, balki turli madaniyatlar oʻrtasidagi oʻxshashlik va tafovutlarni ham anglashni taqozo etadi. Bu uch tilda soʻzning maʼnosi, qoʻllanish doirasi, uslubiy qimmatini tahlil qilish orqali inson tafakkurining turli shakllarini solishtirish mumkin boʻladi.

Oʻzbek tili leksikologiyasi asosan xalq ogʻzaki ijodi va tarixiy yozma manbalarga tayanadi. Tilimizda arabcha, forsa va turkiy ildizli soʻzlarning uygʻunlashuvi boy semantik qatlam hosil qilgan. Bu esa oʻzbek tiliga oʻziga xos koʻp maʼnolilik, sinonimik kenglik va ifoda vositalarining xilma-xilligini baxsh etgan. Masalan, “koʻngil”, “dil”, “qalb” kabi soʻzlar bir-biriga yaqin maʼnoga ega boʻlsa-da, uslubiy va kontekstual jihatdan farqlanadi. Shu jihatdan oʻzbek leksikologiyasi milliy dunyoqarashni anglashda hal qiluvchi oʻrin tutadi. Tilimizdagi koʻp qatlamlilik leksik birliklarning madaniy ramz sifatidagi funksiyasini kuchaytiradi va xalq ruhiyatini ifodalashda beqiyos imkoniyat yaratadi.

Rus tili leksikologiyasi esa asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mahsulidir. Uning lugʻat boyligi cherkovslavyan, fransuz, nemis, turk va ingliz tillaridan kirib kelgan soʻzlar bilan boyigan. Bu jarayon natijasida rus tili oʻziga xos semantik tizimga ega boʻldi: soʻz maʼnolarining koʻp qatlamlilik, frazeologik birliklarning obrazlilik va sinonimik qatlamlarning kengligi bu tildagi ifoda imkoniyatlarini nihoyatda boyitgan. Rus leksikologiyasi ilmiy maktab sifatida semantik tahlil metodlarini chuqur rivojlantirgan boʻlib, bu tajriba oʻzbek tilshunosligiga ham katta taʼsir koʻrsatgan.

Ingliz tili leksikologiyasi global til sifatida dunyo miqyosida eng dinamik rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Ingliz tilidagi leksik tizim oʻzining moslashuvchanligi va soʻz yasashdagi osonligi bilan ajralib turadi. Yangi texnologiyalar, fan va madaniyatdagi oʻzgarishlar ingliz tilida tezda aks etadi. Masalan, “selfie”, “stream”, “hashtag” kabi soʻzlar bir necha yil ichida xalqaro leksik fondga

kirib ulgurgan. Ingliz leksikologiyasining asosiy xususiyati — soʻzlarning kontekstual moslashuvi va semantik elastikligidir. Shu bois, u tarjima jarayonlarida ham juda faol oʻrganiladi.

Uch tilda leksikologiyani solishtirib oʻrganish ilmiy jihatdan gʻoyat muhim. Har bir tildagi soʻzning semantik maydoni turlicha boʻlib, bu tarjimada sinonim tanlash, uslubiy moslikni saqlash va maʼno koʻchishlarini tushunishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilidagi “freedom” va rus tilidagi “свобода” oʻzbekchaga “erkinlik” deb tarjima qilinadi, biroq ularning semantik soyasi har bir madaniyatda biroz farq qiladi. Shunday tahlillar uch til oʻrtasidagi leksik tafovutlarni chuqurroq anglash, ularning umumiylik va oʻziga xosliklarini belgilash imkonini beradi.

Demak, leksikologiyani rus, ingliz va oʻzbek tillarida oʻrganish nafaqat lingvistik qiyosiy tahlilni, balki madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtiruvchi ilmiy yoʻnalishni ham anglatadi. Har uch tilda soʻzning semantik, uslubiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish orqali inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari, dunyoqarashdagi milliy rang-baranglik va tilning ijtimoiy hayotdagi oʻrni yanada chuqurroq yoritiladi. Shu bois, leksikologiya nafaqat tilshunoslikning nazariy sohasi, balki xalqlar oʻrtasidagi madaniy koʻprikn mustahkamlovchi fan sifatida ham gʻoyat dolzarb ahamiyatga ega.

Leksikologiyani rus, ingliz va oʻzbek tillarida oʻrganish natijasida tilning faqat grammatik tuzilmasi emas, balki xalq tafakkuri, madaniy qadriyati va ijtimoiy tajribasi ham namoyon boʻlishi aniqlanadi. Har bir tilning leksik tizimi oʻz xalqining tarixiy yoʻli, dunyoqarashi va hayot tarzini aks ettiradi. Uch tilda olib borilgan solishtirma tahlil shuni koʻrsatadiki, soʻzlar nafaqat maʼno ifodasi, balki madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz tilida bu jarayon tezkor moslashuvchanlikda, rus tilida obrazlilik va semantik chuqurlikda, oʻzbek tilida esa milliy ruhi va maʼnaviy boylikda koʻzga tashlanadi. Shunday qilib, leksikologiyani turli tillar misolida oʻrganish tilshunoslikka xalqaro miqyosda yangi yondashuv olib kiradi, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi va tarjima jarayonida semantik noziklikni anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikologiyasi*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2018.
2. Ahmanova O.S. *Slovar lingvistik terminov*. – Moskva: URSS, 2019.
3. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. – London: Cambridge University Press, 2019.

4. Palmer F.R. *Semantics: A New Outline*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
5. Rasulov R. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

LUG'ATSHUNOSLIKDA TARAQQIYOT.

ABDURAXMANOVA RUSHANA ANVAR QIZI,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dots. Q.A. Mo'ydinov

rushanaanvarovna10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug'atshunoslik va uning taraqqiyot yo'llari, lug'atchilik sohasida faoliyat ko'rsatgan lug'atshunoslar va asarlarda biz uchratadigan diniy atamalar izohi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Lug'atshunoslik va uning turlari, izohli lug'at, maxsus lug'at, sof tarjima lug'at, lug'atshunoslar.

Annotation. This article discusses lexicography and its development, lexicographers who have worked in the field of lexicography and the explanations of religious terms we encounter in works.

Key words. Lexicography and its types, explanatory dictionary, special dictionary, translation dictionary, lexicographers.

Аннотация. В данной статье рассматривается лексикография и ее развитие, лексикографы, работавшие в области лексикографии, а также интерпретация религиозных терминов, которые мы встречаем в трудах.

Ключевые слова. Лексикография и ее виды, толковый словарь, специальный словарь, переводной словарь, лексикографы.

O'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga oid ilk ma'lumotlar leksikografiya sohasidagi qadimgi lug'atlarda kuzatiladi. Shu sababli bizning lug'atchilik sohasini o'rganishimiz muhimdir. O'zbek lug'atchiligi tarixida XIX asrning oxiri XX asrning boshlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda xalqlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni aks ettiruvchi ikki va uch tilli so'zlashgichlarning yaratilishi, bunda, ayniqsa, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha, shuningdek, o'zbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlarning yuzaga kelganligi ancha e'tiborni tortadi. Ularning eng muhimlari sirasida Abdulla Qodiriy hamda S. Raxmatiyar tomonidan yaratilgan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (2-jild, 34 000 so'z, Toshkent-Qozon, 1934-yil) lug'atning tartibi undagi so'z tanlash prinsiplari, so'zlarning ma'naviy, uslubiy, grammatik tavsiflari jihatdan o'sha davrda yaratilgan boshqa lug'atlardan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi.[1]

Ma'lumki, lug'atlar so'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra izohli va izohsiz turlarga bo'linadi. Undan tashqari XX asrning 20-yillaridan e'tiboran

“shakldosh soʻzlar lugʻati”, “maʼnodosh soʻzlar lugʻati” jadid adiblari tomonidan yuzaga chiqqan. 30-yillarda esa, “maxsus” lugʻatlar- soha terminlariga aloqador lugʻatlar shakllana boshladi. Hozirgi kunda hamma sohalar boʻyicha lugʻatlar yaratildi. Oʻzbek maʼrifatparvarlari orasida Abdurauf Fitrat nafaqat dramaturg, nosir, publisist, tilshunos va adabiyotshunos sifatida tanilgan emas, balki uning ijodining yana bir ochilmagan qirrasini lugʻatshunoslikdir. Olim “Eng eski turk adabiyoti namunalari”(1927), soʻngra “Oʻzbek adabiyoti namunalari (1-jild)” majmualarini 1928-yil chop ettirgan. Adib Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asari matniga kirgan soʻzlarning maʼno va mazmuniga eʼtibor bergan holda turkiycha soʻzlarni izohlashda, maʼnosini ochib berishda unga yondosh boʻlgan manbalarga solishtirish, qiyoslash orqali oʻz lugʻatiga asos solgan. Jumladan, lugʻatdagi “urung”, “ukmak”, “turu”, “kedin”, “sigʻtamoq”, “ardam” kabi bir necha soʻzlarning asl maʼnolariga Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lugʻatayn” muallifi nomaʼlum boʻlgan “Abushqa”, XVIII asrda yozilgan tatarcha “Asmoil Ogʻa sayohatnomasi” kabi turkiy adabiyotning noyob durdonalarida keltirilgan variantlari bilan qiyoslagan holda tavsif berilgan: “Urung”: juda oq narsa. Bu soʻz “Hibbat-ul haqoyiq”da ham bordir. Najib Osimbek “Lugʻati

1. Sultonbek Normamatov. Jadid adiblarining lugʻatshunoslik faoliyati. Toshkent. 2018. 99-bet.

chigʻatoyi” bilan birga “lamigʻ, porloq” deb maʼno beradir. Mahmud Koshgʻariyning ifodasiga koʻra,

oʻgʻuzlarning “oq” deganlari turkchada “oʻrunk” emish; “Kedin”: kezin, keyin. “Devoni lugʻat”da, “Qutadgʻu bilig” bilan “Hbbat-ul haqoyiq”da buning (kedin, kekzin) ikki shakliga ham koʻp uchramoq mumkindir. XVIII asrlarda yozilgan tatarcha “Asmoil Ogʻa sayohatnomasi”da ham bu soʻzlarning “kezin-kazin” shakli bordir. Umumiy hisobda jami 126 ta sof turkiycha soʻz izohlangan mazkur lugʻat, oʻz navbatida, etimologik lugʻat, qiyosiy-tarixiy lugʻat, morfemik lugʻat, oʻzbekcha-forscha-arabcha tarjima lugʻat, qolaversa, izohli lugʻat belgilarini ham oʻzida aks ettirganki, bu holat serqirra ijod sohibi Abdurauf Fitrat shaxsiyatini lugʻatshunos jadid adibi sifatida yana bir yuqori pogʻonaga koʻtargan.[1]

Yana bir oʻzbek zamonaviy nasrining dargʻasi, buyuk adib Abdulla Qodiriyning tilshunoslikka, uslubiyatga oid qarashlari, uning lugʻatchilikka qoʻshgan hissasi ham kam emas. Abdulla Qodiriyning oʻgʻli Habibulla Qodiriy oʻzining “Otam haqida” kitobida otasining “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzli lugʻat”ning 11 000 soʻzdan iborat “P” harfini tuzganligini alohida qayd etadi: “1933- yilning kuz kechasi edi, shekilli,

dadam bir-ikki oy o'tirib, "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zli lug'at"ning "P" harfini tuzdilar. Yodimda, u kishi sandalda o'tirib, atroflariga o'nlab rus, o'zbek, arab, turk lug'atlarini yoyib qo'yib, alfavit bo'yicha kitoblardan yangi so'zlar izlar va topib yozgach, lug'atlardan unga yangi ma'no qidirar edilar... 34 ming so'zdan iborat lug'at 1934-yil yozida lotin alifbosida bosilib chiqdi..."[2] Tilning asosiy manbai- so'z. Biroq, so'zlar insonlar, ya'ni shu til egalari va uni biladigan shaxslar ongida mavjud. Agar yozib olinmasa, bir joyga jamlanmasa, o'z ma'nosi hamda matn tarkibida yuzaga keladigan ko'chma ma'nolari izohlanmasa, bu ma'naviy xazina unitilishi, yo'qolib ketishi hech gap emas. Shuning uchun ham qadim-qadimdan olimlar lug'at tuzib, so'zlarni, ular anglatgan ma'nolarni kitobga muhrlab qo'yishgan. 30-yillarda bosilib chiqilgan o'zbek tilining besh tomlik ruscha-o'zbekcha lug'atida ham Abdulla Qodiriyning ishtirok etgani shogirdlaridan biri Malik Rahmon tomonidan o'zining "To'g'riso'z ustoz" nomli maqolasida quyidagi fikrlar orqali isbotlangan: "... O'sha davrda (1930-yillar) ishlarimizga O'zbekiston fanlar komitetining boshlig'i Otajon Hoshimovkatta yordam qilgan edi. Komitetda til-imlo, atamalar, lug'atlar tuzuvchilar bo'limlari tashkil etilgan edi. Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq va Nabi Alimuxammedovlar lug'atlar tuzishda juda katta xizmat qildilar. O'zbek tilining besh tomlik ruscha-o'zbekcha lug'ati shular ishtirokida dunyoga kelgan edi. Abdulla Qodiriyning atamalar sohasidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, shu sohaga-terminkomga bosh maslahatchi-konsultant etib tayinlashdi..."[3] Abdulla Qodiriyning lug'atchilik bilan ancha jiddiy shug'ullanganligini, bu borada ancha tajribaga ega ekanligini Habibulla Qodiriyning quyidagi fikrlaridan ham bilish mumkin: "Yodimda shu shiypun tagiga g'isht terilayotganida Yudaxin familyali bir rus kishi so'rab keldi va portfelidan bir dasta qog'oz chiqarib dadamga qog'ozdagi qator qilib yozilgan arab alifbosidagi o'zbekcha va ruscha so'zlarni ko'rsatgan edi. Yudaxinning 15 000 so'zlik lug'ati 1927-yil bosilib chiqdi..."[4] Yudaxin kabi yirik tilshunos, shevashunosning o'z vaqtida Abdulla Qodiriydan so'zlar izohlarini berishda maslahat olishi bejiz emas. Yuqorida biz tarjima lug'atlari, turkiy so'zlar lug'atlari, maxsus lug'atlar, izohli lug'atlar haqida so'z yuritdik, lekin bizda yana bir lug'at turi bor, bu diniy atamalar izohi berilgan lug'at turidir. Bu lug'at turi birinchi bo'lib kim tomonidan tuzilgani aniq emas, lekin bu lug'at turining eng qadimgi variantini hijriy XI asrlarda yashagan Qoshiqchi Zohidning "At-tavqif fi Muhimmat al-Ma'arif" asarida diniy atamalar izohi berib o'tilgani ma'lum. Biz badiiy asar o'qir ekanmiz, diniy atamalarga duch kelamiz. Masalan, Said Ahmadning "Qorako'z majnun" asari, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Cho'lponning "Kecha va Kunduz", Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy", Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni", Tohir Malikning "Halovat"(kitob) kabi

mashhur asarlarda shu turdagi atamalarga duch kelamiz. Masalan, Tohir Malikning “Halovat” nomli kitobida bir qancha hikoyalar berib o‘tilgan. Shulardan “Sabri taxammul” nomli hikoyasini izohlasak, avvalo nomidagi “tahammul” so‘zi ham bizga tanish emas.

Tahammul- bardosh bermoqdir. Ushbu hikoyadagi “...Alloh bilan mustag‘riq holda bo‘lganlarga uzlat

foydali, xalqqa harom va halolni bildirib turadiganlar uchun esa xalq bilan birga bo‘lish afzaldir...” parchasini o‘qir ekanmiz, shu parchaning o‘zidagi “Alloh”, “mustag‘riq”, “uzlat”, “harom”, “halol” kabi so‘zlarning izohi umumiy ma’noda diniy atamalar emasmi?. Keling tahlil qilamiz, Alloh- diniy so‘z bo‘lib, Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; Mustag‘riq- diniy atama bo‘lib, g‘arq bo‘lmoq; Uzlat- arabcha so‘z bo‘lib, pana, chekka joy. Yolg‘izlikni, xilvatni ixtiyor qilmoqdir; Harom- arabcha so‘z bo‘lib, shariat hukmiga muvofiq yeyish, ichish, foydalanish man qilingan, halol emas; Halol- shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan, demakdir. Yoki Ismoilining “Farg‘ona tong otguncha” asarining o‘zidayoq qanchadan qancha shu lug‘at turiga kiruvchi atamalar berilgan. Masalan, “- Xudo nasib qilsa, Hajga ketib, gunohlarimni o‘sha yoqda yuvib kelaman.” Parchasida ham “Haj”(muqaddas joylarni ziyorat qilish) va “gunoh”(diniy aqidalarga xilof ish) atamalariga duch kelamiz.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, leksikografiyaning har bir turi, har bir bo‘lagini o‘rganish orqali tilshunoslikga chuqur kirib boraveramiz. Demak, leksikografiya-tilshunoslikning asosiy va muhim sohasi bo‘lib, lug‘at tuzish, ularni ilmiy jihatdan asoslash jarayonini o‘z ichiga oladi. U til boyligini tartibga solish, xalqning madaniy merosini saqlash hamda tilni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonbek Normamatov. Jadid adiblarining lug‘atshunoslik faoliyati. Toshkent. 2018.
2. Tohir Malik. Halovat. Toshkent. 2015.
3. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent, “Mumtoz so‘z”. 2008-yil. 111-bet.
4. Habibulla Qodiriy. Otam haqida. Toshkent. “Adabiyot va san’at”. 1989-yil. 159-bet.
5. Malik Rahmon. To‘g‘riso‘z ustoz. Qodiriyni qumsab. Yodnoma. Toshkent. 1994-yil.
6. Habibulla Qodiriy. Otam haqida. Toshkent. “Adabiyot va san’at”. 1989-yil. 121-bet.

FONOLOGIYANI O'QITISHDA TIL TOVUSHLARINI TIZIMLI O'RGANISH

ABDURAXMANOVA RUSHANA ANVAR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

rushanaanvarovna10@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fonologiya va uning asosiy tushunchalari, ushbu sohaning taraqqiyoti, amaliy ahamiyati va yaratuvchilari haqida fikr yuritiladi va turkiy tilshunoslikda ushbu terminning paydo bo'lishi, fizik va lingvistik tomonining farqlanishi yuzaga chiqadi.

Kalit so'zlar. Fonologiya, o'zbek tili fonologiyasi, fonema, allofon, eliziya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, epenteza.

Annotation. This article discusses phonology and its basic concepts, the development of this field, its practical significance and creators, and the emergence of this term in Turkic linguistics, the distinction between physical and linguistic aspects, is presented.

Keywords. phonology, uzbek language phonology, phoneme, allophone, assimilation, dissimilation, epenthesis.

Аннотация. В данной статье рассматривается фонология и ее основные понятия, развитие этой области, ее практическое значение и создатели, а также возникновение этого термина в тюркском языкознании, проводится различие между физическим и лингвистическим аспектами.

Ключевые слова: фонология, фонология узбекского языка, фонема, аллофон, элизи́я, ассимиляция, диссимиляция.

O'zbek tilshunosligi turkiy tilshunoslikning nazariy jihatdan atroflicha mukammal rivoj topgan tarmoqlaridan biridir. O'zbek tilshunosligi so'nggi yillarda o'zbek tili lisoniy qurilishining sohaviy o'rganilishi masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masala yuzasidan o'zbek tilshunosligining fonetika va fonologiya, so'z yasalishi va morfemika, leksikologiya va frazeologiya, morfologiya va sintaksis sohalarini ko'rishimiz mumkin.

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Shu sababli bu soha tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari-fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini ham o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi.

Fonologiya zamonaviy ma'nodagi mustaqil tilshunoslik fani sifatida XX asrning 20-30-yillarida shakllandi. Bu sohaning yaratuvchilari N. S. Trubetskoy, rus-shveytsar olimi S. O. Karsevskiy, rus-amerika tilshunosi R. S. Yakobsonlar bo'lib, ular 1928-yil Gaagada bo'lib o'tgan Tilshunoslarning 1- Xalqaro kongresida fonologiyani asosiy g'oyalarini bayon etganlar. [1: 98]. N. S. Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonologiya taraqqiyotidagi eng muhim bosqich bo'lgan. Fonologiya paydo bo'lishining ilk asoslari XIX asr oxirlarida nemis olimi I. Vinteler va ingliz olimi G. Suit asarlarida, umumnazariy jihatlarini keyinchalik F. de Sossyurning tadqiqotlarida shakllangan. Ayniqsa, fonologiyani rivoshlanish asoslarini yaratishga rus-polyak tilshunos olimi I. A. Boduen de Kurtene katta hissa qo'shgan. Sababi, fonema g'oyasi va uning prinsiplari ilk marta uning asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi. O'zbek tilshunosligining fonologik tadqiqotlari ham asosan ana shu maktablar ta'sirida yaratilgan. Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan. O'zbek tili fonologiyasini o'rganishda Ye. D. Polivanov, V. V. Reshetov, A. Nurmonov, A. Abduazizov va boshqalarning ilmiy ishlari ayniqsa ahamiyatlidir. Biz fonologiya tushunchasini fonetika atamasi bilan birga kelganligini uchratamiz. Buning sababi esa, fonetikaning fonologiya bilan bog'liqligidir. Fonetika tovushning o'zini o'rgansa, fonologiya esa, shu tovushlarning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar, morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasi o'rganiladi. Fonologiyada asosiy tushunchalar mavjud. Bular: "Fonema" va "Allofon" atamalaridir. Fonema- tilning eng kichik ma'no farqlovchi birligi bo'lib, u so'zlarning bir-biridan farqlanish vazifasini bajaradi. Allofon- fonemaning talaffuzdagi turli variantlari hisoblanib, ular so'z ma'nosini o'zgartirmaydi, balki fonemaning realizatsiyasi sanaladi.

N.S.Trubetskoy konsepsiyasi bo'yicha fonologik sistema leksik va grammatik ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar majmuasi sifatida talqin qilinadi. U filologiyada asosiy rolni fonemalar emas, balki ularning ma'no farqlash funksiyasi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Tilshunos olim fonologik oppozitsiyalarni uch asosga ko'ra tasnif qiladi: 1) oppozitsiya sistemasiga munosabatiga ko'ra; 2) oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra; 3) turli pozitsiyalarda ularning amal qilishiga ko'ra. Birinchi belgiga ko'ra, bir o'lchovli, ko'p o'lchovli, proporsional va ajralgan oppozitsiyaga bo'linadi. Ikkinchi belgiga ko'ra, privativ (oppozitsiya a'zolaridan biri belgining bor-yo'qligi bilan ikkinchisidan farqlanadigan oppozitsiya), gradual (nutq apparatining ochilish darajasiga asoslangan

oppozitsiya), teng qimmatli oppozitsiyalarga ajratiladi. Uchinchi belgiga ko'ra, doimiy va neytrallashgan oppozitsiyalarga bo'linadi. Neytrallashish jarayonida oppozitsiyaga kirishayotgan fonemalar o'rtasida fonologikqiymatga ega belgi yo'qoladi. Lekin umumiy ma'no saqlanib qoladi. Fonologiyaning birligi fonemalar bo'lganligi sababli har bir bo'linish fonemalarga bog'liqdir. Yuqoridagi qoidani ixchamlasak, fonemalar haqidagi ta'limot fonologiyadir degan xulosani beradi. Fonema termini hozirgi tilshunoslikda qat'iy o'rin olgan bo'lsa-da, ammo uning maqomi masalasida xilma-xil qarashlar bor. Fonema tilning eng kichik tovush birligi ekani haqidagi dastlabki ma'lumot I.A.Boduen de Kurtenega mansubdir. Lekin bungacha sharq tilshunosligida, garchi fonema termini bilan nomlanmagan bo'lsa ham, lekin ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud bo'lgan. Hind tilshunoslari, turkiyshunoslari, xususan, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma'no farqlash tomoniga katta ahamiyat berganlar. [2: 76]. Demak, fonologiyaning asosi fonema ekan, ularga bog'liq bo'lgan jarayonlar haqida ham so'z yuritishimiz zarur. Fonologik jarayonlardan biz ko'p duch keladiganlarimiz, bular: assimilyatsiya, dissimilyatsiya, epenteza va eliziyadir. Biz bu jarayonlarni maktab darsligida tovush tushishi, tovush ortishi va tovush almashishi shaklida o'rganganmiz. Assimilyatsiya - bu nutq tovushi qator kelganda ba'zan bir-biriga tasir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtirishidir. [3: 54]. Dissimilyatsiya- bu og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshayvermasdan ayrim paytda ikki o'xshash tovushning bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda biri noo'xshash tovushga aylanib qolishidir. Epenteza esa, so'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasidagi, ba'zan u va a unlisining ortishidir. Eliziya esa, unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Ushbu hodisalarni o'rganar ekanmiz, fonologiyaning amaliy ahamiyati qay darajada muhim ekanligini ham anglaymiz. Sababi, har bir hodisa tovushlar bilan bog'liq, tovushlar esa, bizning nutq madaniyatimizni shakllantiradi. Nutq madaniyatini esa to'g'ri va ravon talaffuz, nutq texnologiyasi shakllantiradi. Demak, ba'zi olimlarning "...fonologiyani fonetikadan ajratmaslik kerak, u alohida ma'no farqlamaydi, alohida tushunchaga ega emas..." kabi fikrlarining qiymati o'z-o'zidan yo'qolib boraveradi. Fonologiya til tovushlarini tizimli ravishda o'rgangani, ularning til tizimidagi roli va funksiyasini aniqlagani sababli, bu sog'a lingvistika, tilshunoslik, nutq texnologiyalari va kommunikatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.[4: 66].

Demak, bugungi kunda fonetik va fonologik aspektda material va funksional jihatdan o'zgarish munozarali masala bo'lmay qoldi. Ammo fonetika fonologiyaning

bir-biri bilan bog'liqligi ularning birinchisi aniq, ikkinchisi mavhum tushuncha emas ekanligini alohida ta'kidlash zarur. An'anaviy tilshunosligimizda fonetika doir tadqiqotlarda fonologik aspekt yoritilmayotganligi muammoli masala bo'lib qolmoqda. Aslida fonetik aspektda fonologiyani o'rganilishi natijasida fonologiyani tildagi xizmati va funksional aspekt bilan bog'lanishini asoslab bera oladi. [5: 97]. O'zbek tili fonetikasi tilni, nutqni o'zlashtirish ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning zaruriy shartidir.

Har bir shaxs o'z nutqini aniq va grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga o'rganishi, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin ijodiy talqin qilish, nutq madaniyatini kuzatish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu esa, bizning tilshunoslik sohasidagi har bir tarmoq muhim ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent, 2010. 98-b.
2. Trubetskoy N. Fonologiya asoslari. - Moskva. 1939. 76-b.
3. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. –T: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 54-b.
4. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. 66-b.
5. Hamroev M.A. O'zbek tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent. 2008. 97-b.

ISTE'MOL DOIRASIGA KO'RA O'ZBEK TILI LEKSIKASI

ABDUSALOMOV SAFAR TO'LOQIN OG'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdisalomovsafar@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek tili leksikasining iste'mol doirasiga ko'ra tasnifi, uning qatlamlari va funksional xususiyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Leksik birliklarning qo'llanish maydoni, uslubiy belgilari, so'zlarning faol va passiv qatlamlarga ajralishi, shuningdek, so'z boyligining ijtimoiy, tarixiy va hududiy omillar ta'sirida shakllanishi masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, umumxalq leksikasi, dialektal, ijtimoiy, kasbiy, terminologik va uslubiy leksika qatlamlari o'zaro taqqoslanadi hamda ularning kommunikativ ehtiyojini qondirishdagi roli aniqlanadi. Maqolada zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida leksik birliklarning faolligi, yangilanish dinamikasi va qo'llanish konteksti amaliy misollar bilan ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksika, istemol doirasi, faol va passiv qatlamlar, funksional uslub, terminologiya, dialekt, ijtimoiy leksika.

ANNOTATION. This article provides a systematic analysis of the Uzbek language vocabulary based on the sphere of usage. It examines the classification of lexical units according to their functional application and stylistic features. Special attention is paid to the differentiation between active and passive vocabulary layers, as well as the influence of social, historical, and regional factors on the formation of the lexicon. The article explores the structure and role of general vocabulary, dialectal, social, professional, terminological, and stylistically marked lexical layers in meeting communicative needs. The study also highlights the dynamics of lexical renewal and the contexts of usage, supported by practical examples and modern linguistic research.

Keywords: Uzbek language, vocabulary, sphere of usage, active and passive vocabulary, functional style, terminology, dialect, social lexicon.

АННОТАЦИЯ. В данной статье системно анализируется лексика узбекского языка с точки зрения сферы её употребления. Рассматривается классификация лексических единиц по их функциональному применению и стилистическим особенностям. Особое внимание уделяется разграничению активного и пассивного словарного состава, а также влиянию социальных, исторических и региональных факторов на формирование лексики. В статье

исследуются структура и роль общеупотребительной, диалектной, социальной, профессиональной, терминологической и стилистически маркированной лексики в удовлетворении коммуникативных потребностей. Также освещаются процессы обновления словарного состава и контексты его употребления на основе практических примеров и современных лингвистических подходов.

Ключевые слова: узбекский язык, лексика, сфера употребления, активный и пассивный словарь, функциональный стиль, терминология, диалект, социальная лексика.

Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida tilshunoslikning yangidan-yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Psixolingvistika, neyrolingvistika, matematik lingvistika, sotsiolingvistika, areal lingvistika kabi yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Bular ichidan e'tiborimizni sotsiolingvistika fani o'ziga tortadi.

Odamlar hayotda ularning kasb-korlari, qiziqishlari, ma'lumotlari bilan alohida sinflarni, toifalarni tashkil qiladilar. Mazkur guruhlar ichida faqat ularning o'zigagina tegishli bo'lgan, tor doirada ishlatiluvchi so'zlar qatlami yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda barcha qatlamlarda birdek ishlatiladigan so'zlar ham tilimizda ko'plab uchraydi. Shular asosida o'zbek tilida ishlatiladigan so'zlarni iste'mol doirasiga ko'ra teng ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Iste'mol doirasi chegaralanga leksika.
2. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.

Ma'nosi hammaga tushunarli bo'lgan, iste'molchilar, ya'ni til sohiblari tomonidan tez-tez qo'llanilib turuvchi so'zlarga umumxalq iste'molidagi so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika deb ham yuritiladi. Umumxalq ishlatiladigan so'zlarda aniqlik va lo'ndalik, adabiy tilga xoslik, hududiy va sohalararo cheklanmaganlik kabi xususiyatlar bo'ladi. Masalan, daryo, suv, tog', quyosh, bosh, mard, saxiy, gulladi, kelmoq, uch, men, bor, hamma, u kabi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli. Ularga har kuni duch kelamiz. Kundalik hayotimizda mazkur so'zlarni faol ishlatamiz. Chetlangan leksika neytral leksikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Ularda hududiy cheklanganlik, semantik o'ziga xoslik, funksional jihatdan chetlanganlik singari xususiyatlar mavjud bo'ladi. Chetlangan leksikaga, navbatida, bir qancha turlarga ajralib ketadi:

1. Terminologik leksika: asab, raviy, tirraq tovush, sonet, to'qmoq (adabiyotshunoslikka oid atamalar). Har bir fan tarmog'ining o'z atamalari mavjud bo'ladi.

2. Professional leksika (kasb-hunarga oid soʻzlar): suv, zanjir, kizak, pilta, xizjak (dunyoqulchilik atamallari)

3. Dialektal leksika (shevaga xos soʻzlar): adabiy — orfografik shakli; tupik (Namangan), qalpoq (Samarqand-Buxoro), qallapush (Qashqadaryo), taka (Xorazm)

4. Argo va jargonlar: xit, ment, xitlamoq, loj, yakaj (uygʻurlar tilida)

Umuman olganda, soʻzlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkiga ajratish, yaʼni **neytral leksika** va **chegaralangan leksika** sifatida talqin etishning ilmiy amaliy asoslari mavjud. Maʼlum boʻlishicha, yer yuzida 500 ga yaqin fan tarmogʻi mavjud boʻlib, faqat shu sohalarigina ishlatiladigan maxsus soʻz va soʻz birikmalari mavjud boʻladi. Fanda ularni **atama** (termin) deb qaraladi. Ilm-fan, texnika, sanʼat sohasida ishlatiladigan bir maʼnoli soʻzlarga **termin (atama)** deyiladi. Atamalar bilan shugʻullanuvchi tilshunoslikning boʻlimiga **terminologiya** deyiladi. "Terminlar maxsus leksikaga kiradi",- degan qarashlar ham mavjud. Terminlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkita guruhga boʻlish mumkin:

1. Umumxalq ishlatiladigan atamalar.

2. Maʼlum bir fan sohasidagina tor doirada ishlatiladigan soʻzlar.

Masalan, tibbiyot atamallari ichida hammaga tushunarli boʻlgan vrach, jarroh, dori, bemor, ukol singari soʻzlar yuritgan holda, faqat vrachlarning nomini anglatuvchi **neyrolot, urolog, okulist, onkolog, travmatolog** kabi atamalar ham uchraydi. Shunday atamalar ham boʻladiki, ularni faqat shu soha vakillarigina tushunadilar. Ularni ishlatish, qoʻllash uchun maxsus fan tayyorgarligi talab etiladi. Misol uchun **fonema, grafika, grammatika, leksika** atamalarini har bir tilchi tushunarkan, qolda **zarfemizm, disfemizm, sintagma, referent, pragmatika, sintagmatika, paradigmatica** kabi lingvistik atamalar. Atamalar ikki xil yoʻl bilan yasaladi:

1. Ichki imkoniyatlar asosida: eidiyat, makon, zamon, sichqoncha, texnikus kabi. Ular ichida soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan leksemalar ham uchraydi: gulxayrixohlar, ugituvchilar, ayriqʻullilar, kemasoz, kompyuteroʻrgatuvchi kabi.

2. Tashqi imkoniyat. Bu usul bilan atamalar yasalganida boshqa tillardan soʻz oʻzlashtiriladi: yadroviy, neytron, institut, kollej, bakalavr, magistr, mikroblar kabi. Ular ichida ultra, mikro, anti, avia bilan yasalgan atamalar uchraydi: Antibiotik, mikroriyem, ultrafiltr, antioksidlovchi singari.

Bugunga kelib atamashunoslik oʻzbek tilining eng dolzarb muammosiga aylangani, oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimizning boshqa tillar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri kontaktga kirishishi tilimizga minglab yangi atamalarning kirib kelishiga sabab boʻlmoqda. Masalan: monitoring, marketing, injiniring, menejer kabi.

Bu atamalarning aksariyati iqtisodiyot sohasiga taalluqlidir. Termin (atama) da quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishi darkor:

1. Atama (termin) aniq, konkret tushunarli ifodalamoq kerak: uzun, ot, sifat, son, olmosh, fe'l kabi (tilshunoslik atamaları).
2. Atama (termin) lar emotsional – ekspressivlikdan, uslubiy badiiylikdan xoli bo'lishlari lozim: kislorod, vodorod, azot, simob, ishqor, kukun kabi.
3. Termin nominativ (atash) vazifasini bajaradi: bosim, tezlik, birikma, aylana, qisqaranish, ko'paytirish singari.
4. Termin bir ma'noga ega bo'ladi: uglevodlar, sudraluvchilar, mikroorganizmlar, ultrabinafsha nurlar va hokazo.
5. Atamalar ma'lum bir soha vakillari tomonidan rasmiylashtirilgan va me'yoriy qoliplarga solingan bo'ladi. Misol uchun: richag, kvant, anod, optika, magnit maydoni kabi.

O'zbek tilining leksik qatlamida kasbiy so'zlar — professionalizmlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ular tilning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalq xo'jaligining rivoji bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi va amaliy nutqda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Atamalar maxsus fan sohalariga oid bo'lib, aniq me'yorlashtirilgan, izchil tushunchalarni ifodalashga xizmat qilsa, professionalizmlar esa tabiiy ravishda, amaliyotga asoslangan holda vujudga keladi va ko'pincha muayyan kasb egalari doirasida ishlatiladi. Professional so'zlarning ma'lum darajada norasmiyligi va tor doiraligi ularning terminlardan farq qiluvchi asosiy belgisidir. Shu bilan birga, bu so'zlar ham tilning boyishida, leksik imkoniyatlarining kengayishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qatlamni o'rganish o'zbek tilining tasniflanmagan leksik zaxiralarini aniqlash, ularni ilmiy jihatdan izohlash va tilshunoslikka yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Shuningdek, bu turdagi birliklarni lingvistik tadqiqot doirasiga jalb etish orqali o'zbek leksikasining boyliklarini yanada chuqurroq o'rganish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992. 151–186-betlar.
2. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 124–127-betlar.
3. E. Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: FAN, 1985. 126–130-betlar.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: FAN, 1981. 142–158-betlar.

O'ZBEK LAHJA VA SHEVALARINING YOSHLAR NUTQIDA QO'LLANILISHI VA ZAMONAVIY TIL JARAYONLARIGA TA'SIRI

ABDUSALOMOV SAFAR TO'LQIN OG'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdisalomovsafar@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lahja va shevalarining yoshlar nutqida qo'llanilishi hamda zamonaviy til jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tilshunoslikda shevalarning adabiy til bilan munosabati, ularning ijtimoiy vazifasi hamda kommunikativ jarayondagi o'rni yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, yoshlarning norasmiy muloqotida lahja unsurlaridan keng foydalanilishi, bu holatning tilning boyishiga ijobiy ta'siri hamda adabiy til me'yorlariga keltirishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari ko'rsatib o'tilgan. Misollar orqali yoshlar nutqida sheva va zamonaviy internet tilining o'zaro ta'sir jarayoni tahlil qilingan. Muallif lahja va shevalarni milliy til boyligi sifatida qadrlash, ularni adabiy til bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, lahja, sheva, yoshlar nutqi, adabiy til, zamonaviy til jarayonlari, internet tili.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the use of Uzbek dialects and vernaculars in the speech of young people and their impact on modern language processes. The relationship between dialects and the literary language, their social functions, and their role in communication are examined. The paper highlights how the widespread use of dialectal elements in informal youth communication enriches the language, while at the same time posing the risk of deviations from literary norms. Examples are given to illustrate the interaction between dialect speech and the language of online communication. The author emphasizes the importance of preserving dialects and vernaculars as a national treasure and ensuring their harmonious coexistence with the literary Uzbek language.

Key words: Uzbek language, dialect, vernacular, youth speech, literary language, modern language processes, internet language.

Аннотация: В данной статье научно проанализировано использование узбекских диалектов и говоров в речи молодежи, а также их влияние на современные языковые процессы. Рассмотрено соотношение диалектов с литературным языком, их социальная функция и роль в коммуникации. В статье показано, что широкое употребление диалектных элементов в неофициальном общении молодежи способствует обогащению языка, но одновременно может привести к нарушению литературных норм. На примерах исследовано взаимодействие диалектной речи и языка интернет-коммуникации. Автор подчеркивает необходимость бережного отношения к диалектам и говорам как к национальному богатству, а также их гармонизации с литературным узбекским языком.

Ключевые слова: узбекский язык, диалект, говор, речь молодежи, литературный язык, современные языковые процессы, интернет-язык.

O'zbek tili Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tillardan biridir. Ushbu tilning shakllanishida turli lahja va shevalar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili tarkibida uch asosiy lahja guruhi – qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari mavjud bo'lib, ularning har biri fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ana shu lahjalar negizida yuzlab shevalar shakllanib, bugungi kunda ham xalq nutqida faol qo'llanilmoqda. Shevalar tilning tabiiy ko'rinishi bo'lib, ular milliy adabiy tilning shakllanishi, boyishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar nutqida lahjaviy unsurlar ko'p kuzatiladi. Bu holatning sababi sifatida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, hududiy omillar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet)ni ko'rsatish mumkin. Yoshlar o'zaro muloqot jarayonida shevaga oid so'z va iboralarni tez-tez ishlatadi, ba'zan esa ularni zamonaviy slang bilan uyg'unlashtiradi. Bugungi kunda o'zbek yoshlarining nutqida lahja va shevalarning qo'llanilishi faqatgina oddiy so'zlashuv nutqi bilan chegaralanib qolmay, balki zamonaviy til jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim shevaga oid so'zlar ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, butun mamlakat bo'ylab tarqalmoqda va yangi til hodisalarini yuzaga keltirmoqda.

O'zbek tili Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tillardan biridir. Ushbu tilning shakllanishida turli lahja va shevalar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili tarkibida uch asosiy lahja guruhi – qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari mavjud bo'lib, ularning har biri fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ana shu lahjalar negizida yuzlab shevalar shakllanib, bugungi kunda ham xalq nutqida faol qo'llanilmoqda. Shevalar tilning tabiiy ko'rinishi bo'lib, ular milliy adabiy tilning shakllanishi, boyishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb

etadi. Ayniqsa, yoshlar nutqida lahjaviy unsurlar ko'p kuzatiladi. Bu holatning sababi sifatida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, hududiy omillar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet)ni ko'rsatish mumkin. Yoshlar o'zaro muloqot jarayonida shevaga oid so'z va iboralarni tez-tez ishlatadi, ba'zan esa ularni zamonaviy slang bilan uyg'unlashtiradi.

Bugungi kunda o'zbek yoshlarining nutqida lahja va shevalarning qo'llanilishi faqatgina oddiy so'zlashuv nutqi bilan chegaralanib qolmay, balki zamonaviy til jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim shevaga oid so'zlar ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, butun mamlakat bo'ylab tarqalmoqda va yangi til hodisalarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois ushbu maqolada o'zbek lahja va shevalarining yoshlar nutqidagi qo'llanilishi, ularning zamonaviy til jarayonlariga ta'siri va ushbu jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

O'zbek tili juda keng hududda tarqalganligi sababli uning tarkibida turli xil lahja va shevalar mavjud. Tilshunoslikda o'zbek lahjalari uch asosiy guruhga ajratiladi: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi va o'g'uz lahjasi. Har bir guruh tarixiy-etnik jarayonlar, hududiy sharoit va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. **Qarluq lahjasi** asosan Toshkent, Farg'ona vodiysi va Samarqand-Buxoro hududlarida keng tarqalgan. Bu lahja adabiy tilga eng yaqin hisoblanadi. Fonetik jihatdan unli tovushlarning yumshoq talaffuzi, ba'zi so'zlarda [a] tovushining [o]ga almashishi kabi xususiyatlar mavjud. Masalan, "bola" o'rniga "balo" shaklida aytilishi uchrab turadi. **Qipchoq lahjasi** asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy viloyati hamda Qozog'iston bilan chegaradosh hududlarda keng tarqalgan. Bu lahjada so'z oxiridagi "q" va "g" tovushlari saqlanadi, ba'zan esa "y" tovushi tushib qoladi. Masalan, adabiy tildagi "ketayapman" so'zi qipchoq lahjasida "ketaptiman" tarzida aytiladi. **O'g'uz lahjasi** esa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ko'proq uchraydi. Unda fonetik va leksik jihatdan turkman tiliga yaqin belgilar mavjud. Masalan, "yo'q" so'zi "yog'" shaklida ishlatiladi.

Shevalarning yana bir muhim xususiyati – leksik boylikdir. Har bir hududiy shevada o'sha yerning tabiati, turmush tarzi va urf-odatlariga xos so'zlar mavjud. Masalan, Farg'ona vodiysida "g'aram" (pichan to'plami), Xorazmda "qopqon" (eshik supasi), Surxondaryoda "qovunxo'r" (birga mehnat qiluvchi odam) kabi so'zlar keng qo'llanadi. Demak, o'zbek lahjalari va shevalari tildagi fonetik, morfologik hamda leksik xilma-xillikni aks ettiradi. Ular adabiy tilning shakllanishida manba bo'lib xizmat qilgan, bugungi kunda esa yoshlar nutqida o'ziga xos "rang-baranglik" yaratmoqda.

Lahja va shevalarning yoshlar nutqida faol qo'llanishi zamonaviy o'zbek til jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: ijobiy va salbiy.

Ijobiy tomonlari:

- Shevalar milliy tilni boyitadi, yangi leksik birliklarni adabiy tilga olib kiradi. Masalan, ilgari faqat Xorazmda qo'llanilgan ayrim so'zlar bugun keng tarqalib, umumxalq nutqiga qo'shilib bormoqda.

- Shevalar orqali yoshlar nutqida yangi **slang** va **jargonlar** yuzaga keladi. Bular tilning zamonaviyligini oshirib, kommunikatsiyani yanada jonli qiladi.

- Shevalar milliy madaniyatni, tarixiy xotirani saqlab qolishga xizmat qiladi.

Salbiy tomonlari:

- Adabiy til me'yorlarining buzilishi, grammatik jihatdan noto'g'ri shakllarning keng tarqalishi mumkin. Masalan, "boraman" o'rniga "borvoman", "kelayapman" o'rniga "kelaptiman" kabi shakllar yoshlar orasida odatiy holga aylanishi ehtimoli bor.

- Ba'zan lahjaga xos so'zlarni noto'g'ri kontekstda qo'llash nutqda tushunmovchilik keltirib chiqaradi.

- Adabiy tilning nufuzi pasayib, "rasmiy muloqot" va "kundalik muloqot" o'rtasida katta tafovut paydo bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, yoshlarning nutqida lahja va shevalarning qo'llanishi tabiiy hodisa bo'lib, ularni inkor qilish mumkin emas. Muhimi, bu jarayon adabiy til me'yorlariga putur yetkazmasligi, balki uni yanada boyitib, xalq og'zaki ijodining merosini saqlab qolishga xizmat qilishi zarur. Lahja va shevalarning yoshlar nutqida qo'llanishini tadqiq qilishda tilshunoslar ularni madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida ham baholashadi. Chunki til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning mentaliteti va dunyoqarashini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichdir. Bugungi kunda o'zbek yoshlari o'z nutqida shevalardan foydalanib, ko'pincha **ikki tillilik (bilingvizm)** hodisasiga yaqin til vaziyatini yaratmoqda. Bir tomondan, ular rasmiy muloqotda adabiy til me'yorlariga amal qilsa, boshqa tomondan, do'stlari yoki ijtimoiy tarmoqlarda shevaga xos shakllardan foydalanadi. Bu holat tilning **stilistik imkoniyatlari kengayishiga** olib keladi. Shuningdek, lahja unsurlarining zamonaviy nutqda qo'llanilishi **til innovatsiyasi** sifatida ham qaralishi mumkin. Masalan, Toshkent yoshlari o'rtasida "gap yo'q", "otvyet yo'q" kabi iboralar paydo bo'lib, asta-sekin boshqa hudud yoshlari nutqiga ham o'tmoqda. Bu iboralarda adabiy til unsurlari sheva va rus tili elementlari bilan qorishib, yangi nutqiy birliklarni yuzaga keltirmoqda. Demak, lahja va shevalarning yoshlar nutqidagi o'zni zamonaviy o'zbek tilining dinamik rivojlanishini

aks ettiradi. Bu jarayonni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy masalalardan biridir.

O'zbek tili asrlar davomida xalqning turmush tarzi, urf-odati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan. Uning tarkibida mavjud bo'lgan lahja va shevalar tilning tabiiy boyligi bo'lib, ular adabiy tilning shakllanishida ham muhim manba vazifasini bajargan. Bugungi kunda yoshlar nutqida lahja va shevalarning faol qo'llanilishi kuzatilmoqda. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning milliy ildizlariga sodiqligini, o'z hududiy madaniyati bilan bog'liqligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida yangi nutqiy hodisalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Lahja va shevalarning yoshlar nutqiga ta'siri ikki yoqlama baholanishi mumkin. Ularning ijobiy jihati shundaki, ular tilni boyitadi, yangi so'z va iboralarni hayotga olib kiradi, yoshlar o'rtasidagi samimiyat va muloqotni mustahkamlaydi. Salbiy jihatlari esa — adabiy til me'yorlarining buzilishi, grammatik jihatdan noto'g'ri shakllarning ommalashuvi va rasmiy nutqda chalkashliklarning yuzaga kelish ehtimoli. Shu bois kelajakda til siyosati va ta'lim tizimida lahja va shevalarni inkor qilish emas, balki ularni **milliy boyluk sifatida asrab-avaylash**, adabiy til bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa bo'lib qoladi. O'zbek tilining jozibasi ham uning xilma-xilligida va rang-barangligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'raboev, M. *O'zbek tili dialektologiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Rahmatullayev, Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. G'ulomov, A. *O'zbek tilining shevalari va ularning o'rganilishi*. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Mahmudov, N. *Til va jamiyat: o'zbek tili taraqqiyoti masalalari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BIOLOGIYA FANINING ROLI

ABDUVALIYEVA NIGORA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda

jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

boburaxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda biologiya fanining ahamiyati tahlil qilinadi. Biologiya fani o'zining ko'p qirrali mazmuni va amaliy tajriba imkoniyatlari bilan o'quvchilarda ilmiy fikrlashni, muammoli va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada biologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan pedagogik metodlar, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda biologiya fanining o'quv jarayonidagi o'rni va unga bo'lgan talablar yoritiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, biologiya fani, o'quvchilar, ta'lim metodikalari, bilim va ko'nikmalar, ilmiy fikrlash, muammoli o'qitish, ijodiy yondashuv.

Аннотация: В статье анализируется значение биологии в развитии критического мышления учащихся. Биология, благодаря своему многогранному содержанию и возможностям практического опыта, является эффективным инструментом формирования научного мышления, решения проблем и творческого подхода у учащихся. В статье рассматриваются педагогические методы, используемые для стимулирования критического мышления на уроках биологии, пути развития самостоятельного мышления и аналитических навыков учащихся. Также освещается роль биологии в образовательном процессе и требования, предъявляемые к ней для развития критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, биология, учащиеся, образовательные методики, знания и умения, научное мышление, проблемное обучение, творческий подход.

Abstract: This article analyzes the importance of biology in developing students' critical thinking skills. Biology, with its multifaceted content and opportunities for

practical experience, is an effective tool for forming scientific thinking, problem-solving and creative approaches in students. The article examines pedagogical methods used to stimulate critical thinking in biology lessons, ways to improve students' independent thinking and analytical skills. At the same time, the role of biology in the educational process and the requirements for it in developing critical thinking are highlighted.

Keywords: critical thinking, biology, students, educational methodologies, knowledge and skills, scientific thinking, problem-based learning, creative approach.

O'zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar hamda oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan hosil bo'ladigan ko'nikma emas, balki muntazam mashq qilish, mantiqiy fikrlash va axborotni chuqur tahlil qilish orqali shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli, o'quvchilarga foydali ma'lumotlarni olish, ularni baholash va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini berish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat bilimlarni egallash, balki kelajakda jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolari sifatida mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — yurtimizning barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor yaratishdir.

Tanqidiy fikrlash — bu oddiy bilim yoki ma'lumotlarni yod olish emas, balki o'rganilgan axborotni chuqur tahlil qilish, baholash, boshqa fikrlar bilan taqqoslash va yangi g'oyalarni ilgari surish orqali shakllanadigan yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmasidir[1].

AQSh pedagog olimi R.Ennis ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash bu — “qaror qabul qilish va e'tiqod hosil qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan oqilona, faol va maqsadli fikrlashdir”[2]. Bu ko'nikma o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki izchil, tizimli va interfaol metodlarga asoslangan o'qitish orqali shakllanadi. Shu jihatdan, tanqidiy fikrlash o'quv predmeti emas, balki ta'lim jarayonining mantiqiy natijasi sifatida qaraladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ulardan **birinchisi** — **da'vat bosqichi** deb yuritiladi. Bu bosqichda o'quvchilarni **yangi mavzuga tayyorlash, ularning bilim darajasini faollashtirish, ilgari o'zlashtirgan tushunchalarni esga tushirish hamda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish** asosiy maqsad hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu

bosqichda turli interfaol usullardan foydalanishni tavsiya qiladi. Jumladan, “Aqliy hujum” (brainstorming) metodi — o‘quvchilarda mavjud bilimlarni safarbar etish, erkin fikr bildirish va muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” usuli dastlab yakka tartibda amalga oshiriladi: har bir o‘quvchi o‘zi bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan fakt va g‘oyalarni mustaqil yozib chiqadi. Keyinchalik, bu fikrlar juftlikda, so‘ng guruh yoki sinf miqyosida muhokama qilinadi. Har qanday fikr — to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar — erkin bildiriladi va doskaga yoziladi. Muhimi, bu jarayonda o‘qituvchi o‘z nutqini minimal darajada saqlagan holda, o‘quvchilarga erkin fikr yuritish uchun imkon yaratadi. Shu orqali o‘quvchilarda o‘z fikrini asoslash, boshqalar nuqtai nazarini inobatga olish va muhokama qilish madaniyati shakllanadi.

Da’vat bosqichida o‘quvchilar faolligini oshirish bilan birga, lider o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ham muhimdir. Ular guruhni muhokama jarayonida boshqarib boradi, sust faol o‘quvchilarni jalb etadi, ularning fikrlariga quloq tutadi va rag‘batlantiradi. Shu tariqa, bu bosqich o‘quvchilarning mavjud bilimlarini tahlil qilish, yangi mavzu yuzasidan o‘z pozitsiyasini aniqlash va keyingi bosqichlarga puxta tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik tajribalar ko‘rsatadiki, da’vat bosqichida tashkil etilgan faoliyat nafaqat tanqidiy fikrlashni, balki muloqot, hamkorlik, tinglay olish va fikrni asoslab berish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi[3]. Shu bois, bu bosqichni o‘quv jarayonining faqat kirish qismi deb emas, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi asosiy platforma sifatida baholash lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, agar yangi axborot o‘quvchi-talabanning mavjud bilimlari bilan bog‘lanmasdan taqdim etilsa, u tez orada unutiladi. Zero, ta’lim — bu mavjud bilimlar asosida yangi bilimlarni egallash va tizimlashtirish jarayonidir[4].

Ikkinchi bosqich – anglash. Bu bosqichda o‘quvchi-talaba *yangi axborot bilan bevosita muloqotga kirishadi*. Muloqot shakllari turlicha bo‘lishi mumkin: matn o‘qish, ma’ruza tinglash, videomateriallar ko‘rish, laboratoriya tajribalarini kuzatish yoki bevosita bajarish. Bu bosqichda o‘qituvchining roli sezilarli darajada pasayadi, chunki asosiy faoliyat o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning anglash darajasi, yangi ma’lumotni o‘zlashtirishga bo‘lgan tayyorgarligi va faol ishtiroki ushbu bosqichning samaradorligini belgilaydi.

Bu bosqichda tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun samarali texnologiyalardan biri — INSERT (Interactive Notation System for Effective Reading and Thinking) metodidir. Ushbu usul 1986-yilda Vogan va Estes tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilar matn bilan ishlagan vaqtida o‘z fikrlarini belgilar

yordamida izchil tarzda qayd etadi: + (bilaman), – (qarshi fikr), ? (savol), ! (qiziq) kabi belgilar orqali o'qish jarayoni interaktiv tus oladi. INSERT usuli o'quvchilarda metakognitiv (fikrlash haqida fikrlash) faollikni kuchaytiradi va ularni o'rganilgan ma'lumotlar ustida chuqurroq o'ylashga undaydi (Vaughan & Estes, 1986).

Anglash bosqichining asosiy vazifasi — o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni idrok etish, ularni avvalgi bilimlar bilan bog'lash va mustaqil tahlil qilish asosida tushunchalarni shakllantirishdir. Bu bosqich ayniqsa fikrlash darajasi past bo'lgan o'quvchilar uchun alohida e'tibor talab qiladi. Afsuski, an'anaviy ta'limda bu jihatlar yetarli darajada inobatga olinmaydi, natijada ularning faolligi va fikrlash salohiyati to'liq ochilmaydi.

Uchinchi bosqich – fikrlash. Fikrlash bosqichi — tanqidiy fikrlashning asosiy mezonini hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar *ilgari anglagan va qabul qilgan yangi bilimlarni qayta ishlaydi, ularni o'z so'zlari orqali ifodalaydi, avvalgi bilimlari bilan bog'laydi va shaxsiy xulosalar chiqaradi*. Bu — yangi tushunchalarni ongda shakllantirish, ularni baholash va muammolarga nisbatan mustaqil yondashuvni takomillashtirish bosqichidir.

O'quvchilarning yangi axborotni tahlil qilishi, u haqida mustaqil fikr bildirishga intilishi, boshqa fikrlar bilan taqqoslay olishi ularning tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi. Shu bois, bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga savollar berish, munozaralar tashkil etish, esse yoki tahliliy matn yozdirish kabi metodlardan foydalangan holda ularni faol fikrlashga undashi lozim.

Pedagogik nazariyalarga ko'ra, fikrlash bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyati kuchayadi[5]. Aynan shu bosqichda tanqidiy fikrlashning mohiyati — fikrlarni tahlil qilish, mulohaza yuritish, asoslash va yangicha qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish murakkab va izchil yondashuvni talab etadi. Buning uchun **quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni** yaratish muhim:

O'quvchilarga mustaqil fikr yuritish imkonini berish, ularni diqqat bilan tinglash madaniyatini rivojlantirish;

Har xil fikrlar va g'oyalarni qabul qilish, ularni saralash va tahlil qilishga o'rgatish;

O'quvchilarning o'z fikrini ochiq bildirishiga zamin yaratish, tanqidiy fikrlari uchun kulgi yoki tanbeh emas, rag'bat orqali javob berish;

Har bir o'quvchiga tanqidiy fikrlashga qodir shaxs sifatida munosabatda bo'lish;

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriq, metod va muhitlar bilan o'quv jarayonini boyitish.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash — zamonaviy ta'limning ajralmas elementi bo'lib, o'quvchining nafaqat bilimli, balki fikrlay oladigan, tahlil qila oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa yurt taraqqiyoti uchun intellektual salohiyati yuqori bo'lgan avlodni yetishtirishning asosi hisoblanadi.

O'zaro fikr almashish jarayonida o'quvchilardan nafaqat o'z fikrlarini erkin ifoda etish, balki boshqalarni diqqat bilan tinglash ham talab etiladi. Shu bilan birga, o'z qarashlarini majburlab qabul ettirish yoki boshqalarni doimiy ravishda tuzatishga harakat qilishdan tiyilish muhimdir. Bunday yondashuv, pedagogik tadqiqotlar natijasida ko'rsatishicha, o'quvchilar o'rtasida konstruktiv munozaralar yuzaga kelishiga va o'zaro hurmat tamoyilida fikr almashishga yordam beradi[6].

Munozaralarda keng doiradagi fikrlar va nuqtai nazarlarni tinglash o'quvchilarga o'z g'oyalarini tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek, boshqa fikrlar bilan solishtirish orqali ular o'z qarashlarini yanada aniqlashtiradi va takomillashtiradi. Bu jarayon o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vositalardan biri — klasterlar tuzish usulidir. "Klaster" lotincha so'z bo'lib, "g'uncha bog'lam" degan ma'noni anglatadi. Klasterlar tuzish pedagogik strategiya sifatida o'quvchining mavzu bo'yicha erkin, keng va tizimli fikrlashini rag'batlantiradi. Bu usul nafaqat fikrlarni tizimli shaklda tashkil etishga, balki ularning o'zaro bog'lanishini ham vizual tarzda ko'rishga yordam beradi. Shu jihatdan klasterlar tuzish miqdori ideyalarning faol bog'lanishi va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir[7].

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon uzluksiz va puxta rejalashtirilgan ta'limiy yondashuvni talab etadi. Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi — u samarali o'qitish metodlari, faol va muhitga moslashtirilgan o'quv jarayonlari orqali rivojlanadi. Ayniqsa, biologiya fanida interfaol metodlardan, xususan "Aqliy hujum", "Insert" va "Klaster" usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagoglar tomonidan ochiq muloqot muhiti yaratish, fikrlar xilma-xilligini qadrlash, har bir o'quvchining fikrini e'tiborsiz qoldirmaslik muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga o'z fikrini

erkin ifoda etish, o'zgaralar fikrini tahlil qilish, baholash va kerak bo'lsa, e'tiroz bildirish imkonini berish — zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir.

Shunday qilib, biologiya fanining o'ziga xosliklari, tajriba va kuzatishga asoslanganligi, uni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay platformaga aylantiradi. Mazkur fan orqali o'quvchilar nafaqat fanga oid bilimlarni egallaydi, balki hayotiy muammolarni tahlil qilish, asosli fikr bildirish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rganadilar. Shu bois, tanqidiy fikrlovchi avlodni tarbiyalashda biologiya fanining didaktik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.F.Dadaxodjayeva, O'.A.Abdurazzaqova. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi (*Maqola chop etilgan manzil ma'lumotlari keltirilmagan*).
2. Ennis, R. H. (1996). Critical Thinking. Prentice Hall.
3. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass.
4. Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart & Winston.
5. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans.
6. Brookfield, S. D., & Preskill, S. (2005). Discussion as a Way of Teaching: Tools and Techniques for Democratic Classrooms. Jossey-Bass.
7. Novak, J. D. (1998). Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations. Lawrence Erlbaum Associates.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA UNDOSH FONEMALAR TIZIMINI O'QITISH

ABDUVALIYEVA RUHSHONA MALIK QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

abduvaliyevaruxshona44@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh fonemalarning tizimi, ularning fonologik xususiyatlari va tasnifi yoritiladi. Undoshlarning nutqdagi vazifasi, differensial belgilari hamda fonetik almashinuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, undosh fonemalarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ayrim metodik yondashuvlarga ham qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: fonema, undosh, fonologiya, differensial belgi, oppozitsiya, talaffuz.

Abstract : The article discusses the system of consonant phonemes in the modern Uzbek literary language, highlighting their phonological features and classification. The functions of consonants in speech, their differential features, and phonetic alternations are analyzed on a scientific basis. In addition, some methodological approaches applied in teaching consonant phonemes in educational practice are briefly considered.

Keywords: phoneme, consonant, phonology, distinctive feature, opposition, pronunciation.

Аннотация: В статье рассматривается система согласных фонем современного узбекского литературного языка, их фонологические особенности и классификация. Научно обоснованно анализируются функции согласных в речи, их дифференциальные признаки и фонетические чередования. Кроме того, кратко освещаются некоторые методические подходы, применяемые при обучении согласным фонемам в школьной практике.

Ключевые слова: фонема, согласный, фонология, дифференциальный признак, оппозиция, произношение.

O'zbek adabiy tili fonetik tizimida 25 ta undosh fonema mavjud bo'lib, ular tilning ma'no farqlovchi asosiy birliklari sifatida nutqda faol ishtirok etadi. Fonemalarning fonologik ahamiyatini aniqlash, ularni turkumlash va tasniflash fonetika va fonologiya fanining muhim vazifasidir.

Xususan, undosh fonemalar talaffuz organlari, hosil bo'lish usuli hamda jaranglilik belgilariga ko'ra tasnif qilinib, o'zaro qarama-qarshi qo'yilganda oppozitsiyalar hosil qiladi. Bu tizim tilning fonologik barqarorligini ta'minlaydi va nutqiy jarayonning asosini tashkil etadi.

1. Undosh fonemalarning fonologik tasnifi. O'zbek tili fonetik tizimida undoshlar bir necha mezon asosida guruhlanadi:

a) Talaffuz o'rniga ko'ra:

Lab undoshlari: b, p, m, v, f.

Til oldi undoshlari: t, d, s, z, n, l, r.

Til o'rta undoshlari: j, ch, sh, y.

Til orqa undoshlari: k, g, q, g', ng, x, h.

b) Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

Portlovchilar: b, p, d, t, k, g, q, g'.

Sirg'aluvchilar: v, f, s, z, sh, j, x, h.

Qorishiq: ch, j.

Burun undoshlari: m, n, ng.

Yon tovush: l.

Titroq undosh: r.

c) Jaranglilik belgisiga ko'ra:

Jarangli undoshlar: b, d, g, g', j, z, v, m, n, ng, l, r, y.

Jarangsiz undoshlar: p, t, k, q, ch, sh, f, s, x, h.

Fonologik nuqtayi nazardan, bu qarama-qarshiliklar differensial belgilarga asoslanadi. Masalan, b–p, d–t, g–k oppozitsiyalari jaranglilik belgisi asosida farqlanadi. Bu oppozitsiyalar fonemalarning nutqdagi ma'no farqlash vazifasini aniq ko'rsatadi: bor–por, dara–tara, gul–kul.

Undosh fonemalarning fonetik almashinuvi. Undoshlar turli fonetik muhitda fonetik o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, qo'shimcha qo'shilganda yoki qo'shma so'zlarda tovushlarning moslashuvi kuzatiladi: kitob–kitobi, yurak–yuragi, saboq–saboqchi. Bu kabi hodisalar o'zbek tilidagi fonetik assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlarini ko'rsatadi. Fonologik jihatdan, bunday almashinuvlar fonemalarning barqarorligini buzmaydi, balki talaffuz qulayligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, undoshlarning fonetik variantlari (allofonlari) til tizimining boyligini ko'rsatadi.

Undosh fonemalarning nutqdagi vazifalari. Undosh fonemalar nafaqat so'z ma'nosini farqlash, balki grammatikshakllanish jarayoniga ham ta'sir qiladi. Masalan:

Ko'plik qo'shimchasining talaffuzdagi ko'rinishlari (kitoblar, qizlar, bolalar), egalik qo'shimchalari bilan bog'liq tovush moslashuvi (yurak–yuragi, qadam–

qadami). Bu jarayonlar fonologik tizim va morfologik tizimning o'zaro aloqadorligini namoyon etadi.

O'qitishdagi ayrim metodik yondashuvlar. Undosh fonemalarni o'rgatishda quyidagi ilmiy asoslangan yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Taqqoslash usuli: jarangli va jarangsiz juftliklarni amaliy misollar orqali tushuntirish (b–p, d–t).

Ko'rgazmali yondashuv: talaffuz organlari sxemasi, fonetik jadval va audio yozuvlardan foydalanish.

Amaliy mashqlar: matn ichidan undoshlarni ajratish, fonetik guruhlariga bo'lish, talaffuzni nazorat qilish.

Bu metodlar o'quvchilarda fonetik ongini rivojlantiradi va talaffuz me'yorlarini mustahkamlaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undosh fonemalar tizimi fonetik tizimning markaziy bo'g'inini tashkil etib, tilning fonologik barqarorligi va ma'no farqlash mexanizmini ta'minlaydi. Ularning nutqdagi faoliyati, differensial belgilari va fonetik almashinuvi o'zbek tilining boy fonologik tizimini ifodalaydi. Undosh fonemalar o'zaro oppozitsiyalar tizimi orqali tilda ma'no ajratish, morfologik shakllarni hosil qilish hamda talaffuz me'yorlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, undoshlarning fonetik almashinuvi, ya'ni assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisalari, o'zbek tili nutqiy tizimining tabiiy rivojlanishini ifodalovchi muhim jarayondir. Bu hodisalar so'zlarning talaffuzini yengillashtirish, nutq ritmini tabiiylashtirish bilan birga, fonemalarning ma'no farqlash vazifasini buzmasdan saqlab qoladi. Shu bois, fonetik almashinuvlar o'zbek tilining fonologik me'yorlarini mustahkamlovchi omil sifatida qoraladi.

Fonologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, undosh fonemalarning tizimi tarixiy va zamonaviy jihatdan nisbatan barqaror bo'lib, ularning fonetik xususiyatlari til taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Bunday tizim tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllanib, turli fonetik, morfologik va leksik jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. O'qitish jarayonida undosh fonemalarni o'rgatishda ilmiy-metodik yondashuvlarning qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, taqqoslash, ko'rgazmali o'qitish va amaliy mashq metodlari orqali o'quvchilarda fonetik sezgirlik, talaffuz madaniyati va fonologik tafakkur shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili nutq madaniyatini yuksaltirish, to'g'ri talaffuz va yozuv me'yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, undosh fonemalar tizimini chuqur ilmiy asosda o'rganish va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'zbek tili fonetikasini yanada

rivojlantirish, tilshunoslik nazariyasi hamda amaliy nutq madaniyatining sifat darajasini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev H. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
2. Mahmudov N., Rustamov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Qodirov A. O'zbek tili fonetik tizimi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012.
4. Bozorov O. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
5. Trubetskoy N.S. Osnovy fonologii. – Moskva: Progress, 1960

NUTQ USLUBLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI**ABDUVALIYEVA RUXSHONA ABDUVOHID QIZI,**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ruxshonaabduvaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq uslublarning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Nutq uslublari xos leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Nutq uslublari belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubi bo'yog'i jiddiy hisobga olinishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: nutq uslublari, badiiy so'z, til, nutq, milliy til, til vositalari, metodika.

Abstract. This article highlights the similarities and differences between speech styles. The lexical and semantic features of speech styles are analyzed. It is emphasized that when defining speech styles, the stylistic coloring of the word, grammatical form and grammatical construction should be taken into account.

Keywords: speech styles, artistic word, language, speech, national language, language tools, methodology.

Аннотация. В статье рассматриваются сходства и различия стилей речи. Анализируются лексико-семантические особенности стилей речи. Подчеркивается, что при определении стилей речи следует учитывать стилистическую окраску слова, грамматическую форму и грамматическую конструкцию.

Ключевые слова: стили речи, художественное слово, язык, речь, национальный язык, языковые средства, методика.

Ma'lum bir sohaning ish yuritishida bir xil takroriylik, muntazamlilik bilan ajralib turishi va mana shu o'ziga xoslik stil (uslub) nomi bilan yuritiladi. "Stil" so'zi barcha sohada ishlatiladi. Masalan, Sharq uslubidagi bino, Sharq uslubidagi musiqa, Yevropa uslubidagi kiyim va boshqalar.

"Nutq uslubi" tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslikka aloqador. Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi. Umumxalq tili vositalarining

bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu "nutq uslublari" deb yuritiladi.

Nutq uslublarning har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarni belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; tabassum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi. Albatta, so'zning ijobiy yoki salbiy munosabat ifoda etishi hamisha nutq uslubini belgilashga asos bo'la olmaydi. Biroq sinonimik qatorni hosil qiluvchi bunday so'zlarning ko'pchiligi so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatilishi, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubda esa sanoqli hollardagina saylab olinishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Dialektizm, jargon, argo, varvar va vulgar so'zlar badiiy uslubda obraz yaratish maqsadida ishlatiladi. Ular boshqa nutq uslubi uchun xarakterli emas. Garchi sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ayrim guruhlariga, shevaga xos so'z va formalar tilning yashash formalaridan biri bo'lsa-da, umumxalq tili doirasidan chetdadir. Demak, nutq uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Bu jihatdan terminlar o'ziga xoslikni tashkil etadi: ular, asosan, ilm ahli nutqida ishlatiladi. Biroq ilm-fan muayyan millat, muayyan xalqning ma'naviy mulki, shu xalqning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgi ekanidan, terminlarga umumxalq tili vositasi sifatida qaraladi. Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'ladi, yangidan paydo bo'ladi. Masalan, rasmiy-idoraviy, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi, bugungi kunda esa jamiyatdagi yangiliklar hisobiga har bir uslub yanada rivojlanmoqda.

Nutq uslublari yozma va og'zaki nutq shakllari bilan qat'iy bog'liq. Yozma nutq pishiq-puxta o'ylanganligi, har bir so'z, grammatik forma va qurilishning o'z o'rnida ishlatilishi, mantiqiy izchilligi, takrorlarning bo'lmasligi bilan og'zaki nutqdan farq qilib turadi. Nutq uslublari qaysi shaklda va qaysi sohada bo'lmasin, milliy adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. So'zlashuv uslubi deganda kishilarning

kundalik faoliyatida o'zaro aloqasini ta'minlovchi og'zaki nutq tushuniladi. Bu uslubda sheva elementlari, passiv lug'atga xos so'z va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatiladi.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush o'rni almashadi: yog'mir (yomg'ir), turpoq (tuproq); tovush tushadi: tasha (tashla), ke (kel), yudi (yuvdi); tovush ortadi: chechmoq (yechmoq), yilon (ilon), istakan (stakan); tovush almashadi: sammi (senmi), mo'nchoq (munchiq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: opke (olib kel), qo'yvor (qo'yib yubor) kabi.

Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, u, biz, siz, bir, besh, olti, o'n, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismi, shalparpishi, xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlatiladi.

So'zlashuv uslubiga xos yana bir xususiyat so'zni qisqartirish va ko'chma ma'noda qo'llashdir. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropoliten), avtomat (avtomat telefon), tushlik (tushlik ovqat), futbolga bormoq (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), ovqatga o'tiring (ovqat yegani o'tiring), paxtani bajardik (paxta rejasini bajardik) kabi. Iskovich, tosh, (odam), chayon (gap bilan kishini xafa qiladigan), beliga tepmoq (xalaqit bermok), loyini chiqarmoq (sirini fosh qilmoq, ishni chigallashtirmok) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir. Ayrim eskirgan patta, chipta, chek, pattachi, po'rim, shayton arava, miri (bir pul, ikki pul) kabi so'zlar ham so'zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir.

So'z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, arxaik so'zlar ba'zan davr koloriti, shaxs xarakterini ko'rsatish uchun ishlatilsa, ba'zan kulgi-mazax uchun xizmat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning romanlarida ishlatilgan arxaik so'zlar davr koloritini ko'rsatishga, satirik asarlarida esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirilgan. Badiiy uslubda grammatik shakllardan ham obraz yaratish va kolorit berish maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, Oybekning «Navoiy», P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanlarida ur, erdi, andoq, shulkim kabi formalar ishlatilganini kuzatish mumkin.

Nutqning so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublari mavjud bo'lib, ular o'xshash va farqi jihatlariga ega, bu xususiyatlar matnda reallashadi. Nutqning vazifaviy uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu

nuqtai nazardan talqin qilinadi. Jamiyatdagi yangiliklar uslublarning rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969. 199-b.
2. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. - Toshkent, 2005. 11-b.
3. Бобохонова Д. Официально-деловой стиль узбекского литературного языка. - Ташкент, 1987, 5 с.
4. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984. 4-b.
5. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. - Guliston, 1988. 10-b.
6. O'rinboev B. So'zlashuv nutqi. - Toshkent: Fan, 1979. 9-b.

SO'Z VA UNING MOHIYATI

ABDUVAQQOSOVA RUXSHONA BAHROMBOY QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ruxshonaabduvaqqosova829@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'zning mohiyati, uning jamiyat va inson hayotidagi o'rni, shuningdek, tafakkur, madaniyat va ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. So'zning ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda so'zning tutgan o'rni va globalizatsiya jarayonida milliy so'z boyligini asrab-avaylash zarurati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z, til, tafakkur, nutq, muloqot, madaniyat, ma'naviyat, mohiyat, qadriyat.

Annotation. This article examines the essence of the word, its role in human and social life, as well as its connection with thinking, culture, and spirituality. The social, philosophical, moral, and educational significance of the word is analyzed in detail. In addition, the importance of preserving the national vocabulary in the context of globalization is emphasized.

Key words: word, language, thinking, speech, communication, culture, spirituality, essence, values.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность слова, его роль в жизни человека и общества, а также его связь с мышлением, культурой и духовностью. Подробно анализируются социальное, философское, нравственное и воспитательное значение слова. Кроме того, подчёркивается необходимость сохранения национального словарного фонда в условиях глобализации.

Ключевые слова: слово, язык, мышление, речь, общение, культура, духовность, сущность, ценности.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, so'z va tilning naqadar buyuk kuchga ega ekanligini ko'ramiz. So'z — oddiy tovushlar yig'indisi emas, balki inson tafakkurining, ma'naviy dunyosining ifodasi, jamiyatning rivojlanishida muhim vositadir. Qadimdan buyuk mutafakkirlar, faylasuflar va adiblar so'z qudrati haqida hikmatli fikrlar bildirganlar. Forobiy “so'z tafakkurning ko'zgusi” desa, Alisher

Navoiy soʻzning qudratini butun insoniyatga taʼsir oʻtkazuvchi kuch sifatida ulugʻlagan. Soʻz tufayli insoniyat oʻz tarixini yaratdi, tajribasini saqladi, bilimlarini keyingi avlodlarga yetkazdi. Soʻzning mohiyatini anglash bu — insoniyatning oʻzini anglash jarayonidir. Bugungi globallashuv davrida soʻzning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bir tomondan, yangi soʻzlar, tushunchalar, terminlar hayotimizga kirib kelmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni rivojlantirish muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shunday ekan, soʻzning mohiyatini ijtimoiy, maʼnaviy va madaniy jihatdan chuqur oʻrganish nafaqat lingvistik zarurat, balki milliy qadriyatlarni asrab qolishning ham kafolatidir. Soʻz eng avvalo jamiyatda muloqotni taʼminlovchi vositadir. U odamlar orasidagi aloqa, hamkorlik va bir-birini tushunish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Insonlar oʻz fikrini, tuygʻularini, orzu-niyatlarini soʻz orqali ifoda etadi. Soʻzsiz jamiyat hayotini, taraqqiyotini va insoniy munosabatlarni tasavvur etib boʻlmaydi. Soʻz tafakkur bilan uzviy bogʻliq. Inson fikrlash jarayonida avvalo ongida maʼlum bir tasavvur hosil qiladi va uni soʻz vositasida ifodalaydi. Demak, tafakkur va soʻz bir-birisiz mavjud boʻlolmaydi. Tafakkursiz soʻz maʼnosiz, soʻzsiz tafakkur esa ifodasiz boʻladi. Shu bois olimlar “soʻz tafakkurning kaliti” deb bejiz taʼkidlamaydilar. Soʻz millatning tarixiy xotirasi, maʼnaviy boyligi va madaniyatining eng muhim koʻrinishlaridan biridir. Maqollar, matallar, rivoyatlar, dostonlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalarining barchasi soʻz orqali bizgacha yetib kelgan. Soʻz millatning ruhiyatini, urf-odatini, dunyoqarashini ifodalaydi. Shu bois milliy oʻzlikni saqlashda, madaniy merosni asrashda soʻzning ahamiyati beqiyosdir. Soʻzning tarbiyaviy kuchi nihoyatda ulkan. Yaxshi soʻz inson qalbini koʻtaradi, unga umid va ishonch beradi. Yomon soʻz esa qalbni ranjitadi, ruhiyatni tushkunlikka olib keladi. Shu sababli ota-bobolarimiz “Yaxshi soʻz — jon ozigʻi, yomon soʻz — bosh qozigʻi” degan hikmatni aytganlar. Demak, soʻz nafaqat muloqot vositasi, balki insonni maʼnaviy va axloqiy tarbiyalashning ham asosiy qurolidir. Bugungi globallashuv sharoitida soʻzning ahamiyati yanada kengaydi.

Yangi axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli soʻzlarning tarqalish tezligi keskin oshdi. Shu bilan birga, chet tillardan kirib kelayotgan yangi soʻzlar milliy tilning lugʻaviy boyligiga taʼsir qilmoqda. Bu jarayonda ikki muhim vazifa turibdi: birinchidan, zamonaviy terminlarni milliy til meʼyorlariga moslashtirish, ikkinchidan, milliy soʻz boyligini asrab-avaylash va kelajak avlodga toʻlaqonli yetkazish. Soʻz — insoniyatning eng buyuk neʼmatlaridan biridir. U tafakkurning ifodasi, jamiyatning birlashuv vositasi, maʼnaviyat va madaniyatning kalitidir. Soʻzsiz inson oʻz fikrini ifodalay olmaydi, jamiyat esa oʻz hayotini davom

ettira olmaydi. Soʻz orqali xalq oʻz tarixini yaratadi, madaniyatini avloddan avlodga oʻtkazadi. Birinchidan, soʻz — bu millat ruhiyatining ifodasi. Har bir millatning oʻziga xos lugʻaviy boyligi uning tarixiy taraqqiyoti, madaniy anʼanalari va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu maʼnoda soʻz nafaqat aloqa vositasi, balki milliy identitetning ramzidir. Ikkinchidan, soʻz — bu maʼnaviyat manbai. Insoniyat tarixida buyuk mutafakkirlar, adiblar, shoirlar soʻz orqali xalqning qalbiga yoʻl topganlar, ularni ilmga, ezgulikka va taraqqiyotga daʼvat qilganlar. Shu sababli soʻzni qadrlash, uni toʻgʻri ishlatish madaniy savodxonlikning muhim belgisi sanaladi. Uchinchidan, zamonaviy davrda soʻzning kuchi yanada oshmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali soʻz millionlab insonlarning ongiga taʼsir qilmoqda. Shu bois, soʻzning ijobiy yoki salbiy kuchi jamiyatda katta oʻrin tutadi. Demak, bugungi kunda soʻzdan oqilona foydalanish — axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib aytganda, soʻzning mohiyati koʻp qirrali: u aloqa vositasi, tafakkur ifodasi, maʼnaviy tarbiya manbai va milliy oʻzlik timsolidir. Shuning uchun ham soʻzga masʼuliyat bilan munosabatda boʻlish, uni qadrlash va toʻgʻri ishlatish — har bir insonning maʼnaviy burchidir. Bugungi globallashuv davrida milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni boyitish va kelajak avlodga yetkazish davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki soʻz — xalqning maʼnaviy yuzini, ruhiyatini, madaniyatini ifodalovchi beqiyos boylikdir. Soʻzning mohiyatini oʻrganish natijalaridan koʻrinadiki, u insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida asosiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Soʻz orqali inson oʻz fikrini bayon qiladi, his-tuygʻularini ifodalaydi, bilim va tajribalarini boshqalarga yetkazadi. Shunday ekan, soʻzning qadri beqiyosdir.

Shunday qilib, soʻz mohiyatini chuqur anglash va uni qadrlash — insoniylikning eng yuksak belgilaridan biridir. Soʻzning qudrati oldida moddiy boyliklar ham ojiz qoladi, chunki soʻz orqali qalblar yaraladi, jamiyatlar birlashadi, ilm-fan va madaniyat rivojlanadi. Kelajakda soʻzga munosabat yanada masʼuliyatli boʻlishi, uni toʻgʻri, goʻzal va mazmunli qoʻllash insoniyat taraqqiyotining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Sa'diyev M. Tilshunoslik nazariyasi.* – Toshkent: Fan, 2018.
2. *Gʻulomov A. Nutq madaniyati asoslari.* – Toshkent: Oʻqituvchi, 2016.
3. *Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.

4. *Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
5. *Humboldt V. Ocherki po filosofii yazyka.* – Moskva: Nauka, 1985.
6. *Zvegintsev V.A. Yazyk i chelovek.* – Moskva: Nauka, 1990.
7. *Xudoyberdiyev A. Til va jamiyat.* – Toshkent: Universitet, 2020.

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BIOLOGIYA FANINING ROLI

ABDUXOSHIMOVA DILSHODA RAHIMJON QIZI

d933571191@gmail.com

ABDINAZAROV ABDILAZIZ FAXRIDDIN O'G'LI

abdilazizabdinazarov860@gmail.com

PIRJANOVA XURSHIDABONU MURODBEK QIZI

hurshidabonupirjanova@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo'nalishi 3-bosqich talabalari

USMONOVA RUZIXON BOZOROVNA

boburraxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda biologiya fanining ahamiyati tahlil qilinadi. Biologiya fani o'zining ko'p qirrali mazmuni va amaliy tajriba imkoniyatlari bilan o'quvchilarda ilmiy fikrlashni, muammoli va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada biologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan pedagogik metodlar, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda biologiya fanining o'quv jarayonidagi o'rni va unga bo'lgan talablar yoritiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, biologiya fani, o'quvchilar, ta'lim metodikalari, bilim va ko'nikmalar, ilmiy fikrlash, muammoli o'qitish, ijodiy yondashuv.

O'zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar hamda oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan hosil bo'ladigan ko'nikma emas, balki muntazam mashq qilish, mantiqiy fikrlash va axborotni chuqur tahlil qilish orqali shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli, o'quvchilarga foydali ma'lumotlarni olish, ularni baholash va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini berish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat bilimlarni egallash, balki kelajakda

jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolari sifatida mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — yurtimizning barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor yaratishdir.

Tanqidiy fikrlash — bu oddiy bilim yoki ma'lumotlarni yod olish emas, balki o'rganilgan axborotni chuqur tahlil qilish, baholash, boshqa fikrlar bilan taqqoslash va yangi g'oyalarni ilgari surish orqali shakllanadigan yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmasidir[1].

AQSh pedagog olimi R.Ennis ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash bu — “qaror qabul qilish va e'tiqod hosil qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan oqilona, faol va maqsadli fikrlashdir”[2]. Bu ko'nikma o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki izchil, tizimli va interfaol metodlarga asoslangan o'qitish orqali shakllanadi. Shu jihatdan, tanqidiy fikrlash o'quv predmeti emas, balki ta'lim jarayonining mantiqiy natijasi sifatida qaraladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ulardan **birinchisi — da'vat bosqichi** deb yuritiladi. Bu bosqichda o'quvchilarni *yangi mavzuga tayyorlash, ularning bilim darajasini faollashtirish, ilgari o'zlashtirgan tushunchalarni esga tushirish hamda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish* asosiy maqsad hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu bosqichda turli interfaol usullardan foydalanishni tavsiya qiladi. Jumladan, “Aqliy hujum” (brainstorming) metodi — o'quvchilarda mavjud bilimlarni safarbar etish, erkin fikr bildirish va muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” usuli dastlab yakka tartibda amalga oshiriladi: har bir o'quvchi o'zi bilgan yoki bilaman deb o'ylagan fakt va g'oyalarni mustaqil yozib chiqadi. Keyinchalik, bu fikrlar juftlikda, so'ng guruh yoki sinf miqyosida muhokama qilinadi. Har qanday fikr — to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'i nazar — erkin bildiriladi va doskaga yoziladi. Muhimi, bu jarayonda o'qituvchi o'z nutqini minimal darajada saqlagan holda, o'quvchilarga erkin fikr yuritish uchun imkon yaratadi. Shu orqali o'quvchilarda o'z fikrini asoslash, boshqalar nuqtai nazarini inobatga olish va muhokama qilish madaniyati shakllanadi.

Da'vat bosqichida o'quvchilar faolligini oshirish bilan birga, lider o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish ham muhimdir. Ular guruhni muhokama jarayonida boshqarib boradi, sust faol o'quvchilarni jalb etadi, ularning fikrlariga quloq tutadi va rag'batlantiradi. Shu tariqa, bu bosqich o'quvchilarning mavjud bilimlarini tahlil qilish, yangi mavzu yuzasidan o'z pozitsiyasini aniqlash va keyingi bosqichlarga puxta tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik tajribalar ko'rsatadiki, da'vat bosqichida tashkil etilgan faoliyat nafaqat tanqidiy fikrlashni, balki muloqot, hamkorlik, tinglay olish va fikrni asoslab berish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi[3]. Shu bois, bu bosqichni o'quv jarayonining faqat kirish qismi deb emas, balki o'quvchini fikrlashga undovchi asosiy platforma sifatida baholash lozim.

Shuni unutmash kerakki, agar yangi axborot o'quvchi-talabani mavjud bilimlari bilan bog'lanmasdan taqdim etilsa, u tez orada unutiladi. Zero, ta'lim — bu mavjud bilimlar asosida yangi bilimlarni egallash va tizimlashtirish jarayonidir[4].

Ikkinchi bosqich – anglash. Bu bosqichda o'quvchi-talaba *yangi axborot bilan bevosita muloqotga kirishadi*. Muloqot shakllari turlicha bo'lishi mumkin: matn o'qish, ma'ruza tinglash, videomateriallar ko'rish, laboratoriya tajribalarini kuzatish yoki bevosita bajarish. Bu bosqichda o'qituvchining roli sezilarli darajada pasayadi, chunki asosiy faoliyat o'quvchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning anglash darajasi, yangi ma'lumotni o'zlashtirishga bo'lgan tayyorgarligi va faol ishtiroki ushbu bosqichning samaradorligini belgilaydi.

Bu bosqichda tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun samarali texnologiyalardan biri — INSERT (Interactive Notation System for Effective Reading and Thinking) metodidir. Ushbu usul 1986-yilda Vogan va Estes tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilar matn bilan ishlagan vaqtda o'z fikrlarini belgilar yordamida izchil tarzda qayd etadi: + (bilaman), – (qarshi fikr), ? (savol), ! (qiziq) kabi belgilar orqali o'qish jarayoni interaktiv tus oladi. INSERT usuli o'quvchilarda metakognitiv (fikrlash haqida fikrlash) faollikni kuchaytiradi va ularni o'rganilgan ma'lumotlar ustida chuqurroq o'ylashga undaydi (Vaughan & Estes, 1986).

Anglash bosqichining asosiy vazifasi — o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni idrok etish, ularni avvalgi bilimlar bilan bog'lash va mustaqil tahlil qilish asosida tushunchalarni shakllantirishdir. Bu bosqich ayniqsa fikrlash darajasi past bo'lgan o'quvchilar uchun alohida e'tibor talab qiladi. Afsuski, an'anaviy ta'limda bu jihatlar yetarli darajada inobatga olinmaydi, natijada ularning faolligi va fikrlash salohiyati to'liq ochilmaydi.

Uchinchi bosqich – fikrlash. Fikrlash bosqichi — tanqidiy fikrlashning asosiy mezonini hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar *ilgari anglagan va qabul qilgan yangi bilimlarni qayta ishlaydi, ularni o'z so'zlari orqali ifodalaydi, avvalgi bilimlari bilan bog'laydi va shaxsiy xulosalar chiqaradi*. Bu — yangi tushunchalarni ongda shakllantirish, ularni baholash va muammolarga nisbatan mustaqil yondashuvni takomillashtirish bosqichidir.

O'quvchilarning yangi axborotni tahlil qilishi, u haqida mustaqil fikr bildirishga intilishi, boshqa fikrlar bilan taqqoslay olishi ularning tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi. Shu bois, bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga savollar berish, munozaralar tashkil etish, esse yoki tahliliy matn yozdirish kabi metodlardan foydalangan holda ularni faol fikrlashga undashi lozim.

Pedagogik nazariyalarga ko'ra, fikrlash bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyati kuchayadi[5]. Aynan shu bosqichda tanqidiy fikrlashning mohiyati — fikrlarni tahlil qilish, mulohaza yuritish, asoslash va yangicha qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish murakkab va izchil yondashuvni talab etadi. Buning uchun **quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni** yaratish muhim:

O'quvchilarga mustaqil fikr yuritish imkonini berish, ularni diqqat bilan tinglash madaniyatini rivojlantirish;

Har xil fikrlar va g'oyalarni qabul qilish, ularni saralash va tahlil qilishga o'rgatish;

O'quvchilarning o'z fikrini ochiq bildirishiga zamin yaratish, tanqidiy fikrlari uchun kulgi yoki tanbeh emas, rag'bat orqali javob berish;

Har bir o'quvchiga tanqidiy fikrlashga qodir shaxs sifatida munosabatda bo'lish;

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriq, metod va muhitlar bilan o'quv jarayonini boyitish.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash — zamonaviy ta'limning ajralmas elementi bo'lib, o'quvchining nafaqat bilimli, balki fikrlay oladigan, tahlil qila oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa yurt taraqqiyoti uchun intellektual salohiyati yuqori bo'lgan avlodni yetishtirishning asosi hisoblanadi.

O'zaro fikr almashish jarayonida o'quvchilardan nafaqat o'z fikrlarini erkin ifoda etish, balki boshqalarni diqqat bilan tinglash ham talab etiladi. Shu bilan birga, o'z qarashlarini majburlab qabul ettirish yoki boshqalarni doimiy ravishda tuzatishga harakat qilishdan tiyilish muhimdir. Bunday yondashuv, pedagogik tadqiqotlar natijasida ko'rsatishicha, o'quvchilar o'rtasida konstruktiv munozaralar yuzaga kelishiga va o'zaro hurmat tamoyilida fikr almashishga yordam beradi[6].

Munozaralarda keng doiradagi fikrlar va nuqtai nazarlarni tinglash o'quvchilarga o'z g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek, boshqa fikrlar bilan solishtirish orqali ular o'z qarashlarini yanada aniqlashtiradi va takomillashtiradi. Bu

jarayon o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vositalardan biri — klasterlar tuzish usulidir. "Klaster" lotincha so'z bo'lib, "g'uncha bog'lam" degan ma'noni anglatadi. Klasterlar tuzish pedagogik strategiya sifatida o'quvchining mavzu bo'yicha erkin, keng va tizimli fikrlashini rag'batlantiradi. Bu usul nafaqat fikrlarni tizimli shaklda tashkil etishga, balki ularning o'zaro bog'lanishini ham vizual tarzda ko'rishga yordam beradi. Shu jihatdan klasterlar tuzish miyadagi ideyalarning faol bog'lanishi va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir[7].

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon uzluksiz va puxta rejalashtirilgan ta'limiy yondashuvni talab etadi. Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi — u samarali o'qitish metodlari, faol va muhitga moslashtirilgan o'quv jarayonlari orqali rivojlanadi. Ayniqsa, biologiya fanida interfaol metodlardan, xususan "Aqliy hujum", "Insert" va "Klaster" usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagoglar tomonidan ochiq muloqot muhiti yaratish, fikrlar xilma-xilligini qadrlash, har bir o'quvchining fikrini e'tiborsiz qoldirmaslik muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga o'z fikrini erkin ifoda etish, o'zgalar fikrini tahlil qilish, baholash va kerak bo'lsa, e'tiroz bildirish imkonini berish — zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir.

Shunday qilib, biologiya fanining o'ziga xosliklari, tajriba va kuzatishga asoslanganligi, uni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay platformaga aylantiradi. Mazkur fan orqali o'quvchilar nafaqat fanga oid bilimlarni egallaydi, balki hayotiy muammolarni tahlil qilish, asosli fikr bildirish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rganadilar. Shu bois, tanqidiy fikrlovchi avlodni tarbiyalashda biologiya fanining didaktik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.F.Dadaxodjayeva, O'.A.Abdurazzaqova. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi (*Maqola chop etilgan manzil ma'lumotlari keltirilmagan*).
2. Ennis, R. H. (1996). Critical Thinking. Prentice Hall.
3. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass.

4. Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart & Winston.
5. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans.
6. Brookfield, S. D., & Preskill, S. (2005). Discussion as a Way of Teaching: Tools and Techniques for Democratic Classrooms. Jossey-Bass.
7. Novak, J. D. (1998). Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations. Lawrence Erlbaum Associates.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

ADILOVA SHAHZODA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada STEAM yondashuvi asosida biologiya fanini o'qitishning metodikasi ko'rib chiqilgan. STEAM ta'limi fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini, amaliy ko'nikmalarini va ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini oshirishga qaratilgan. Biologiya darslarida interaktiv va innovatsion usullarni qo'llash orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish, muammoli vaziyatlarda mustaqil va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqola ta'lim jarayonida STEAM prinsiplarini tatbiq etish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilash, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, biologiya darsi, metodika, fanlararo integratsiya, innovatsion ta'lim, amaliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o'qitish, interaktiv usullar, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim samaradorligi, o'quv faoliyati, ijodiy yondashuv, texnologik vositalar.

Abstract: this article reviews the methodology of teaching biology based on the STEAM approach. STEAM education is aimed at increasing students' creative thinking, practical skills, and interest in scientific research through interdisciplinary integration. The possibilities of effectively organizing the educational process through the use of interactive and innovative methods in biology lessons, and developing independent and collective activity in problem situations are analyzed. The article contains practical recommendations for improving students' knowledge and skills, as well as increasing their creative potential, by applying STEAM principles in the educational process.

Keywords: STEAM education, biology lesson, methodology, interdisciplinary integration, innovative education, practical skills, creative thinking, problem situations, project-based learning, interactive methods, scientific research, educational effectiveness, educational activities, creative approach, technological tools.

Аннотация: В статье рассматривается методика преподавания биологии, основанная на STEAM-подходе. STEAM-образование направлено на развитие творческого мышления, практических навыков и интереса к научным исследованиям у учащихся посредством междисциплинарной интеграции. Анализируются возможности эффективной организации образовательного процесса посредством использования интерактивных и инновационных методов на уроках биологии, а также развития самостоятельной и коллективной деятельности в проблемных ситуациях. В статье содержатся практические рекомендации по совершенствованию знаний и навыков учащихся, а также повышению их творческого потенциала посредством применения принципов STEAM в образовательном процессе.

Ключевые слова: STEAM-образование, урок биологии, методика, междисциплинарная интеграция, инновационное образование, практические навыки, творческое мышление, проблемные ситуации, проектное обучение, интерактивные методы, научное исследование, образовательная эффективность, образовательная деятельность, творческий подход, технологические инструменты.

STEAM ta'limini joriy etishning asosiy maqsadi — o'quvchilarning maktab yoshidan boshlab qiziqishlarini aniqlab, ularning iqtidor va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanishlarga intiluvchi, yaratuvchan mutaxassislarni shakllantirishni ta'minlashdir. Bu yondashuv dunyoni tizimli o'rganish, atrofdagi jarayonlarni mantiqiy tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish hamda o'ziga yangi va qiziqarli bilimlarni kashf etish imkonini beradi.

Bugungi kunda texnika va axborot almashinuvi tez sur'atlarda rivojlanib, bolalar ham yanada zukko va bilimdon bo'lib ulg'aymoqda. Ular yangi avlod texnologiyalari bilan birga o'sib, ta'lim jarayonida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shu sababli, STEAM ta'lim tizimi kabi innovatsion usullar hozirgi davr talabi hisoblanadi. STEAM nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, bu atama beshta sohani o'z ichiga oladi: S — Science (tabiiy fanlar), T — Technology (texnologiyalar), E — Engineering (muhandislik), A — Art (san'at) va M — Mathematics (matematika). STEAM ta'limi fanlararo integratsiyaga asoslangan bo'lib, bu sohalarni birlashtirgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasidagi yangi yondashuvlar nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish natijasida yuzaga kelgan. STEAM ta'lim tizimi AQShda shakllangan bo'lib, dastlab

STEM konsepsiyasi (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiya, Engineering — muhandislik, Mathematics — matematika) asosida rivojlangan. Ba'zi maktablar o'z bitiruvchilarining muvaffaqiyatlariga asoslanib, ushbu fanlarni integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirishni maqsad qilganlar. Keyinchalik ta'lim tizimiga san'at (Art) elementi qo'shib, STEAM shakllandi va uning to'liq ko'rinishi vujudga keldi. O'qituvchilar ta'kidlaydiki, ushbu fanlar bo'yicha beriladigan bilimlar talabalarni kelajakda yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Natijada, o'quvchilar ilmiy bilimlarni nafaqat o'zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo'llashga intilishadi[1].

Jahon miqyosida rivojlanayotgan yangi va zamonaviy ta'lim tizimlaridan ortda qolmaslik maqsadida, yurtimizda ham STEAM ta'lim tizimi asta-sekin joriy qilinmoqda. Ushbu yondashuv maktab ta'limini yanada interaktiv, amaliy va fanlararo integratsiyalashgan shaklda tashkil etishga imkon beradi. STEAM ta'limi o'quvchilarning ijodkorligini, tanqidiy fikrlashini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularni zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga yordam beradi. Shu tariqa, STEAM yondashuvi yurtimiz ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

STEM ta'limining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- fanlarni alohida emas, balki mavzular bo'yicha kompleks tarzda o'qitish;
- ilmiy va texnik bilimlarni amaliy hayotda qo'llash imkoniyati;
- tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- texnika fanlariga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- har bir bolaning yoshiga va individual xususiyatlariga moslab, ularning faol ishtirokida texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish.

STEM ta'limida quyidagi jihatlar ham e'tibor berish muhim hisoblanadi:

1. Loyihaviy faoliyatga asoslangan ta'lim: Biologiya darslarida STEAM yondashuvi doirasida o'quvchilarni real hayot muammolarini aniqlash va ularga yechim topishga yo'naltirilgan loyihalar yaratishga rag'batlantirish muhim. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki sog'lom ovqatlanish mavzularida amaliy tadqiqotlar o'tkazish.

2. Interfaol texnologiyalardan foydalanish: Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, 3D modellar va interaktiv taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi hamda murakkab tushunchalarni yanada oson tushunishga yordam beradi.

3. Fanlararo integratsiya: Biologiya darslarini matematika, kimyo, texnologiya va san'at bilan bog'lab o'qitish. Masalan, genetik ma'lumotlarni statistik tahlil qilish yoki biologik jarayonlarning vizual ko'rinishini san'at yordamida yaratish.

4. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish: O'quvchilarga biologik jarayonlar yoki hodisalarni tahlil qilish va ularni muayyan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beruvchi vazifalar berish.

5. Ochiq savollar va muhokamalar: Dars davomida o'quvchilarni biologiyaga oid ilmiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha fikr almashishga, bahs-munozaralarda ishtirok etishga rag'batlantirish.

6. Moslashuvchan dars rejasi: Har bir darsni STEAM tamoyillariga mos ravishda moslash va o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga qarab o'zgartirish.

7. Baholash tizimi: O'quvchilarning bilimlarini faqat test va yozma ishlar orqali emas, balki loyihalar, taqdimotlar, guruh ishlari va ijodiy ishlanmalar orqali baholash va boshqalar.

STEAM yondashuvi biologiya fanini o'qitishda innovatsion va samarali metodika sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda biologiyaga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ularni amaliy ko'nikmalar bilan boyitadi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda tayyorlaydi. Natijada, STEAM ta'limi orqali biologiya darslari nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga ham imkon beradi. Shu sababli, STEAM yondashuvini joriy etish maktab ta'limining sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, STEAM ta'lim tizimi yangi metod va yondashuvlarga boy bo'lib, o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion usullar qo'llanilib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari oshiriladi va fanlarni osonroq egallashga imkon yaratiladi. Bugungi kunda yosh avlod texnologiyalarga katta qiziqish bilan qaraydi, shuning uchun STEAM ta'limi orqali ular qiziquvchanlik asosida samarali ta'lim olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.
2. Uzoqjonova D.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim tizimi. "Science and education" scientific journal. 4(9). 344-347-bet.

3. Гуломов, Ш. Ж. (2020). STEAM таълими ва унинг мактаб таълим тизимида қўлланилиши. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети нашриёти.
4. Ismailova, N. (2022). Integratsiyalashgan yondashuv asosida STEAM ta'limini rivojlantirish. *Pedagogika va innovatsiyalar*, 4(15), 112-118.
5. OECD. (2019). *Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. OECD Publishing.
6. Yakubov, M. R., & G'ulomova, Z. T. (2023). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va STEAM yondashuvi. *Ilm-fan va innovatsiyalar*, 2(5), 77–82.
7. Karimova, D. (2021). STEAM yondashuvi asosida ta'lim mazmunini yangilashning dolzarb masalalari. *Ta'limda innovatsiyalar*, 3(9), 45–49.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**AGABEKOVA NURGUL JANNUR QIZI,
UTEGENOVA GULBANU ALIPBAY QIZI,
RETBAEVA JANSAYA ASQAR QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD), dotsent v.b.

Mambetaliyev Qayrat Anarbay o‘g‘li

Telefon: +998 99 368 42 35

E-mail: kairat941113@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar muhitida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari va ahamiyati yoritiladi. Raqamli vositalar nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim jarayoniga teng huquqli ishtirokini ta’minlashda, individual yondashuv asosida bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi qayd etiladi. Shuningdek, inklyuziv ta’limda zamonaviy platformalar, masofaviy o‘qitish tizimlari, adaptiv dasturlar va multimediya resurslaridan foydalanishning afzalliklari hamda ularni samarali qo‘llash shartlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlash va pedagogik faoliyatni takomillashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, adaptiv dasturlar, multimediya resurslari, ta’lim samaradorligi, individual yondashuv

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности и значение эффективной организации инклюзивного образования в условиях цифровых технологий. Отмечается, что цифровые инструменты служат важным фактором в обеспечении равноправного участия лиц с ограниченными возможностями в образовательном процессе, а также в расширении возможностей получения знаний на основе индивидуального подхода. Кроме того, анализируются преимущества использования современных платформ, дистанционных систем обучения, адаптивных программ и мультимедийных ресурсов в инклюзивном образовании.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, дистанционное обучение, адаптивные программы, мультимедийные ресурсы, эффективность образования, индивидуальный подход

Annotation: This article highlights the specific features and importance of effectively organizing inclusive education in the context of digital technologies. It is emphasized that digital tools play a crucial role in ensuring equal participation of individuals with disabilities in the educational process and in expanding learning opportunities through an individualized approach. The paper also examines the advantages of using modern platforms, distance learning systems, adaptive software, and multimedia resources in inclusive education.

Keywords: inclusive education, digital technologies, distance learning, adaptive software, multimedia resources, educational effectiveness, individualized approach.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini raqamlashtirish global miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga sharoit yaratish hamda ta'lim jarayonini yanada qulay va samarali tashkil etishda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim tizimida raqamli vositalardan foydalanish nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarni, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim muhitiga jalb etishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar esa bunday yondashuvni qo'llab-quvvatlab, ta'lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bois, raqamli texnologiyalar muhitida inklyuziv ta'lim samaradorligini tashkil etish nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham alohida ahamiyatga ega.[1]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta'limda ularning o'zni beqiyosdir. Chunki raqamli vositalar yordamida imkoniyati cheklangan bolalar ham boshqalar qatori ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar barcha o'quvchilarga teng imkoniyat yaratadi. Masalan, eshitishda muammo bo'lgan o'quvchilar uchun subtitrlar videodarslar, ko'rishda qiyinchilik bo'lganlar uchun ovozli dasturlar juda katta yordam beradi. Ikkinchidan, har bir o'quvchiga individual yondashuv qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Kimdir tezroq, kimdir sekinroq o'rganishi mumkin – adaptiv dasturlar har birining ehtiyojiga moslashadi. Uchinchidan, raqamli ta'lim orqali masofadan turib ham o'qish mumkin. Bu imkoniyat nogironligi bo'lgan yoki maktabga bora olmaydigan o'quvchilar uchun juda qulaydir.[2]

Shuningdek, turli multimedia vositalari – rasmlar, videolar, animatsiyalar darslarni qiziqarli qiladi. Bu esa bilimni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar uchun ham raqamli texnologiyalar katta yengillik yaratadi: darslarni samarali tashkil etish, topshiriqlarni tekshirish va natijalarni kuzatib borish ancha osonlashadi. Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limda nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham katta yordam beradi. Masalan, elektron darsliklar, onlayn platformalar va test tizimlari orqali o'qituvchi o'quvchilar bilimini tez va aniq baholashi mumkin. Bu esa dars jarayonini samaraliroq tashkil qilishga yordam beradi.[3]

Shu bilan birga, raqamli ta'lim vositalari ota-onalar bilan ham aloqani kuchaytiradi. Ota-onalar farzandlarining o'qishi, darsdagi faolligi va natijalarini onlayn kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inklyuziv ta'lim jarayonida hamkorlikni kuchaytiradi. Yana bir muhim jihat – raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy integratsiya jarayoni yengillashadi. Imkoniyati cheklangan bolalar onlayn tadbirlarda, guruh mashg'ulotlarida va jamoaviy loyihalarda faol qatnashib, o'z tengdoshlari bilan bir xil sharoitda o'qib-o'rganish imkoniga ega bo'ladi.

Demak, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limda:

teng imkoniyat yaratadi,

individual yondashuvni ta'minlaydi,

masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi,

darslarni qiziqarli va samarali qiladi,

ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.[4]

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar mustaqil bilim olish imkoniga ham ega bo'ladilar. Masalan, onlayn kurslar, videodarslar yoki interaktiv testlar orqali o'quvchi darsdan tashqari vaqtda ham o'qib, bilimini mustahkamlashi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Inklyuziv ta'limda muhim jihatlardan yana biri – bolalarni jamiyatga tayyorlashdir. Raqamli vositalar bu jarayonda katta yordam beradi. Chunki ular yordamida har bir o'quvchi o'z qiziqishi bo'yicha loyihalarda qatnashadi, yangi bilimlarni tezroq o'zlashtiradi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limda nafaqat bilim olishni, balki o'quvchilarning o'zaro do'stlashishi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham xizmat qiladi.[5]

Bizning fikrimizcha, kelajakda raqamli texnologiyalar va inklyuziv ta'lim tamoyillarini samarali uyg'unlashtirish, hamda o'qituvchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Bu

esa barcha toifadagi o'quvchilar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda juda katta ahamiyatga ega. Ular yordamida imkoniyati cheklangan o'quvchilar ham boshqalar qatori darslarda qatnashishi, bilim olishi va jamiyat hayotiga faol qo'shilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultanov J.T. Raqamli muhitda inklyuziv ta'lim. Alohida ta'limga muhtoj talabalar uchun imkoniyatlar va muammolar. *Modern Education and Development*. Vol. 11, No. 3, 2024.
2. Mansurov U.J. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohatlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. **Academic Research in Educational Sciences (ARES), Vol. 2, Issue 6, 2021.**
3. Salamov B. Inklyuziv ta'lim asoslari. – T.: 2019
4. Xodjayeva M. Usmonova D. Raqamli ta'lim texnologiyalari. – T.: 2021
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2020

QARINDOSHLIK VA YAQINLIKNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

AKBERDIYEVA ALMIRA AKMAL QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

almiraakberdiyeva5@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada qarindoshlik atamalarining qiyosiy tahlili o'rganiladi. Qarindoshlik terminlari lingvistik, sotsiologik va antropologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etiladi. Maqolada qarindoshlik terminlarining tasniflanishi va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti davomida qarindoshlik tizimini o'zgarish jarayonlari yoritiladi. Ushbu maqola tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qarindoshlik aloqalari, kontekst, individualizim, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, lingvistik.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится сравнительный анализ терминов родства. Термины родства рассматриваются с лингвистической, социологической и антропологической точек зрения, анализируются их формирование и развитие. В статье обсуждается классификация терминов родства и их социально-культурное значение. Кроме того, освещаются процессы изменения системы родства в ходе исторического развития тюркских народов. Статья представляет собой актуальное исследование с точки зрения лингвистики и культурологии.

Ключевые слова: Родственные отношения, Контекст, Индивидуализм, Культурология, Социология, Лингвистика

ABSTRACT: This article explores a comparative analysis of kinship terms. The terminology of kindship is examined from linguistic, sociological, and anthropological perspectives, focusing on their formation and development. The article discusses the classification of kinship terms and their socio-cultural significance. Additionally, it highlights the transformations in the kinship system throughout the historical development of Turkic peoples. This article holds particular relevance from the viewpoints of linguistics and cultural studies.

Keywords: Kindship relations, Context, Individualism, Cultural studies, Sociology, Linguistics

Bugungi kunda tilshunoslikda pragmatik va madaniy tadqiqotlar o'zaro uzviy bog'liq holda olib borilmoqda. Ayniqsa, nutq faoliyatining pragmatik yo'nalishini o'rganishda milliy madaniyat, urf-odatlar, diniy qadriyatlar va milliy tafakkur tarzining o'rni beqiyos. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "qo'n-qarindoshlik" konseptini ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik tahlili amalga oshiriladi. Maqsad – ikki xalq tilidagi qarindoshlik atamalarining nutqdagi ishlatilish uslubi va u orqali madaniy qadriyatlarning qanday aks etishini aniqlashdir.

Oila tomonidan bog'langan [qarindoshlik](#) guruhidir. [Yaqinlik](#) (tomonidan nikoh), yoki birgalikda yashash/birgalikda iste'mol qilish (qarang [qarindoshlikni tarbiyalash](#)). Ko'pgina jamiyatlarda bu bolalarni ijtimoiylashtirish uchun asosiy institutdir. Bolalarni tarbiyalashning asosiy birligi sifatida antropologlar odatda oilaviy tashkilotni quyidagicha [tasniflashadi](#) matrifokal (ona va uning bolalari); konjugal (er, uning rafiqasi va bolalari; yadro oilasi deb ham ataladi); [avunkulyar](#) (aka, uning singlisi va uning bolalari); yoki ota-onalar bo'lgan katta [oila](#) va bolalar bir ota-onalarning boshqa a'zolari bilan birgalikda yashaydilar. Leksik jihatdan qarindoshlik birliklari, ya'ni kinship terms, oiladagi har bir shaxsning o'ziga xos ijtimoiy rolini va aloqasini belgilaydi. Masalan, ota, ona, aka, singil, jiyan kabi terminlar shaxslar o'rtasidagi biologik yaqinlikni aks ettiradi. Shuningdek, nikoh orqali paydo bo'lgan qarindoshlik (qaynona, qaynola, kuyov, kelin) atamaları ham ijtimoiy munosabatlarni aniqlaydi.

Qarindoshlik tizimi har bir jamiyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar til, madaniyat va tarixiy jarayonlarga bog'liq holda shakllanadi. Masalan, turkiy xalqlarning qarindoshlik tizimida erkak va ayolning ijtimoiy roli, katta va kichik avlod o'rtasidagi munosabatlar alohida ta'kidlanadi. Bu esa tilning morfologik va leksik tarkibida o'z aksini topadi. Bundan tashqari, yaqinlikni ifodalovchi birliklar do'stlik, hamjihatlik va boshqa ijtimoiy aloqalarni ham qamrab oladi. Ushbu birliklar jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yanada keng qamrovli bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz jamiyatida esa individualizm ustuvor bo'lgani sababli, qarindoshlik nomlari ko'proq biologik yaqinlikni bildiradi. Natijada, bu tillarda qarindoshlik atamalarining nutqiy konnotatsiyasi ham turlicha bo'ladi. Pragmalingvistik jihatdan qarindoshlik atamaları faqatgina biologik yaqinlikni emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham ifodalaydi. O'zbek tilida "jiyan" yoki "amakivachcha" so'zlari rasmiy, norasmiy, hatto kinoyaviy kontekstdagi funksional yuklamaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "jiyan, nima gaplar?" jumlasida bu so'z tanish-bilishlik va samimiylilik belgisi sifatida ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Ingliz tilida esa “nephew” yoki “niece” kabi soʻzlar koʻproq aniq semantik chegaralarga ega boʻlib, ularning stilistik imkoniyatlari chegaralangan. Shuningdek, biz fikrimizcha, ingliz tilidagi qarindoshlik atamaları rasmiy nutqda koʻp hollarda huquqiy, hujjatli maʼlumotlarda qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa bu atamalar ogʻzaki nutqda, oila ichidagi muloqotda, va hatto badiiy adabiyotda ham hissiy-emotsional maʼno qatlamlari bilan boyitilgan. Nutqiy kontekstga qarab qarindoshlik birliklari oʻz funksiyasini oʻzgartiradi. Jumladan, oʻzbek tilida “opa” soʻzi doʻstona murojaat sifatida ishlatilishi mumkin, hatto biologik aloqa boʻlmasa ham. Ingliz tilida esa “sister” bu kabi keng konnotatsiyaga ega emas. Bu holat oʻzbek tilidagi nutqiy birliklarning kommunikativ strategiyalar doirasidagi moslashuvchanligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida “oyim”, “dadam”, “amaki”, “buvi” kabi atamalar salomlashuv, xitob, minnatdorchilik, tanbeh, aralashuv kabi nutqiy aktlarda ishtirok etib, oʻziga xos pragmatic funktsiyani bajaradi. Bu xususiyatlar tilning faqat nominativ emas, balki interaktiv xususiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Yuqoridagi tahlillardan koʻrinib turibdiki, ingliz va oʻzbek tillaridagi qoʻn-qarindoshlik atamaları nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va pragmalolingvistika doirasida ham turli yoʻnalishlarda izohlanadi. Bizningcha, bunday terminlar orqali har bir xalqning jamiyatdagi oʻzaro munosabatlar modeli, ijtimoiy rol va qadriyatlari oʻz ifodasini topadi. Shuningdek, qarindoshlik terminlarining lingvopragmatik tahlili til vositalarining madaniy kontekstga qanday moslashishini ham koʻrsatadi.

Har bir xalq tilidagi qarindoshlik atamaları tizimi jamiyatning ijtimoiy modeli, yaʼni oilaviy tuzilma, gender rollari, avlodlar oʻrtasidagi munosabatlar, hurmat-izzat tizimi va ijtimoiy ierarxiyani aks ettiradi. Masalan, oʻzbek tilidagi “aka-uka”, “opa-singil”, “togʻa”, “amaki”, “qaynota”, “qaynsingil” kabi terminlar nafaqat qarindoshlikni bildiradi, balki muayyan ijtimoiy-axloqiy meʼyorlarni, masalan, kattaga hurmat, kichikka mehr, oilaviy sadoqat, qarindoshlararo birdamlik kabi qadriyatlarni ham oʻzida mujassamlashtiradi.

Qarindoshlik birliklarini lingvistik jihatdan tahlil qilish tilning semantik tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Har bir terminning maʼno doirasi, ishlatilish konteksti va uslubiy xususiyatlari orqali xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlari namoyon boʻladi. Shu sababli, qarindoshlik terminlari nafaqat leksik birlik, balki milliy tafakkurning konseptual modeli sifatida ham eʼtirof etiladi.

Antropologik nuqtai nazardan, bunday terminlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, oila institutining shakllanish jarayoni, turmush tarzidagi oʻzgarishlar va urf-odatlarining tildagi ifodasini oʻrganishga imkon beradi. Masalan, ayrim qadimiy atamalar zamonaviy til tizimida unutilib borayotgan boʻlsa, yangi ijtimoiy munosabatlar natijasida yangilari vujudga kelmoqda — bu esa tilning dinamik va adaptiv tabiatini koʻrsatadi. Shuningdek, zamonaviy globalizatsiya jarayonlari fonida qarindoshlik terminlari xalqaro leksik oʻzaro taʼsir doirasida ham oʻzgarishlarga uchramoqda. Bunda lingvokulturologik yondashuv muhim oʻrin tutadi, chunki

u qarindoshlik terminlarini milliy madaniyatning "kod"i sifatida talqin etadi. Tilshunoslikda bunday birliklar xalqning o'z-o'zini anglash jarayonida, madaniy identifikatsiya va merosni asrashda asosiy vosita sifatida qaraladi. Natijada, qarindoshlik terminlarini chuqur tahlil qilish orqali biz til vositasida milliy tafakkur, ijtimoiy ong va madaniyatning ichki mexanizmlarini yanada chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lamiz. Shunday qilib, bu sohadagi tadqiqotlar tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning tarixiy-madaniy xotirasi va ijtimoiy ongining ifodasi sifatida o'rganishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qarindoshlik terminlarini o'rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va antropologiya kabi fanlar chorrahasida joylashgan murakkab, ammo muhim sohalaridan biridir. Ushbu terminlar orqali har bir xalqning o'ziga xos jamiyat modeli, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimi namoyon bo'ladi. Qarindoshlik birliklarini chuqur tahlil qilish esa bizga til vositasida milliy tafakkurni va madaniyatni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баранов А.Н. Прагматика и прагмалингвистика: проблемы и подходы. – М.: Наука, 2001.–176с.
2. Саидов А. Қариндошлик атамалари ва уларнинг лексик-семантик хусусиятлари. –Тошкент:Фан, 2009. – 120 б.
3. Бойков В.Ф. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2017. – 256 с.
4. Tannen, D. (2005). *Conversational Style: Analyzing Talk among Friends*. Oxford University Press.

MAKTABDA MORFOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI VA AMALIY TAJRIBALARI

ALBARALIYEVA MAFTUNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Gumanitar fanlar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi,
4-kurs, sirtqi ta'lim, 22/2-guruh talabasi

maftunaakbaraliyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida morfologiya bo'limini o'qitishning metodik asoslari va amaliy tajribalari tahlil etiladi. Morfologiya – tilshunoslikning muhim bo'limi sifatida o'quvchilarda grammatik tafakkurni shakllantirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada morfologik bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish, dars jarayonida samarali metodlar (interfaol metodlar, o'yinli mashqlar, ko'rgazmalilik, kompetensiyaviy yondashuv)dan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, tajribali o'qituvchilarning amaliy ishlari, kuzatuvlari va ilg'or tajribalari asosida morfologiyani o'qitish jarayonining afzalliklari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda morfologik tahlil ko'nikmasini shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashi va grammatik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: morfologiya, ta'lim metodikasi, dars jarayoni, grammatik tafakkur, tilshunoslik, interfaol metodlar, maktabda til o'qitish, o'quvchilar kompetensiyasi, tajriba, dars samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методические основы и практический опыт преподавания раздела «Морфология» в общеобразовательной школе. Морфология как важная область языкознания играет ключевую роль в формировании грамматического мышления учащихся и развитии культуры речи. В статье анализируются этапы обучения морфологическим знаниям, возможности применения эффективных методов обучения (интерактивные технологии, игровые упражнения, наглядность, компетентностный подход). Особое внимание уделяется педагогическому опыту учителей, практическим наблюдениям и актуальным проблемам преподавания морфологии. Также представлены методические рекомендации по формированию морфологических навыков, развитию самостоятельного мышления и грамматической компетенции учащихся.

Ключевые слова: морфология, методика преподавания, учебный процесс, грамматическое мышление, языкознание, интерактивные методы, школьное обучение, педагогический опыт, учебная эффективность.

Abstract: This article examines the methodological foundations and practical experiences of teaching the “Morphology” section in general secondary schools. As a key branch of linguistics, morphology plays an essential role in developing students' grammatical thinking and improving their speech culture. The paper explores step-by-step approaches to teaching morphological concepts and discusses the use of effective teaching methods such as interactive techniques, educational games, visual aids, and competence-based approaches. Drawing from the experience of practicing teachers and classroom observations, the article highlights the advantages and challenges of teaching morphology. Methodical recommendations are also provided to enhance students' morphological analysis skills, independent thinking, and grammatical competence.

Keywords: morphology, teaching methodology, lesson process, grammatical thinking, linguistics, interactive methods, school language education, student competence, pedagogical experience, teaching effectiveness.

Til — inson tafakkuri va ijtimoiy ongining ifodasi, jamiyatda muloqot va axborot almashinuvi vositasi bo'lib, uni o'rganish va o'rgatish har bir davrda dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tili ta'limi tizimida morfologiya bo'limi muhim o'rin egallaydi. Sababi, morfologik bilimlar nafaqat o'quvchilarning grammatik tafakkurini shakllantiradi, balki ularning savodxonligini, yozma va og'zaki nutq madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Morfologiya — so'zlarning tuzilishi, grammatik shakllanishi va ularning ma'no nuqtai nazaridan turkumlanishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi bo'lib, bu bo'lim orqali o'quvchilar so'z turkumlari, ularning o'ziga xos grammatik belgilarini anglaydi, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi muhim fikrlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Aynan shu jihatlari bilan morfologiyani o'qitish jarayoni tilshunoslik asoslarini o'rgatishda markaziy o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'limda bilim olish jarayonini faollashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchining mustaqil fikrlashini shakllantirish talab etilmoqda. Bu esa morfologiya bo'limini o'qitishda an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda interfaol, muammoli, amaliy mashg'ulotlar, guruhli ishlar kabi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu bo'limni o'zlashtirish jarayonida didaktik materiallardan, ko'rgazmali vositalardan, grafik tahlillardan foydalanish o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi va bilim

samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maktabda morfologik bilimlar o'quv dasturiga mos holda bosqichma-bosqich o'rgatiladi. Har bir sinfda bu bo'limning mazmuni va yuklamasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'qituvchi vazifasi — shu bosqichlarga mos holda metodik materiallarni tanlash, dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, morfologik tahlilga oid bilimlarni o'quvchining yosh xususiyatlari va idrok darajasiga moslashtira olishdan iborat.

Mazkur maqolada morfologiya bo'limini maktabda o'qitishning metodik asoslari, samarali uslublari, ilg'or tajribalari hamda o'quvchilarda morfologik tahlil ko'nikmasini shakllantirishga doir amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, morfologiya darslarining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari xususida ham fikr yuritiladi.

Maktabda morfologiya bo'limini o'qitish ona tili ta'limining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu bo'lim orqali o'quvchilar til qurilishi, so'zlarning grammatik xususiyatlari, so'z turkumlari va ularning morfologik belgilarini o'rganadilar. Morfologiya nafaqat nazariy bilimlar tizimini, balki amaliy tahlil ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shunday ekan, uni o'qitish jarayoni chuqur didaktik va metodik yondashuvlarni talab etadi.

1. Morfologiyani o'qitishda bosqichlilik tamoyili

Maktab ta'limida morfologik bilimlar 5-sinfdan 9-sinfgacha bo'lgan bosqichlarda asta-sekinlik bilan o'rgatiladi. Har bir sinfda mazmunning murakkablik darajasi oshib boradi:

- 5–6-sinflarda so'z turkumlari haqida dastlabki tasavvur, ot, sifat, fe'l kabi asosiy so'z turkumlarining umumiy belgilarini o'rganish ko'zda tutiladi.
- 7–8-sinflarda har bir so'z turkumining grammatik shakllanishi, turlari, o'zgarish xususiyatlari chuqurroq o'rganiladi.
- 9-sinfda esa morfologik tahlil va grammatik kategoriya tushunchalari umumlashtiriladi.

Bu bosqichlilik o'quvchilarda so'z tuzilishini mukammal o'zlashtirish va grammatik tafakkurni rivojlantirishga zamin yaratadi.

2. Morfologiyani o'qitishning metodik yondashuvlari

Zamonaviy ta'limda morfologiyani o'qitish an'anaviy izohli usul bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu bo'limni o'zlashtirishda quyidagi metodlar yuqori natija beradi:

a) Interfaol metodlar.

– Klaster, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Fikrlar palitasi” metodlari o'quvchilarda faol fikrlashni, mavzuga qiziqishni oshiradi. Masalan, “So'z turkumlari” mavzusida

“Insert” jadvali orqali o‘quvchilar eski bilimlarini yangilab, yangi tushunchalarni muhokama qiladi.

b) Amaliy-tahliliy mashqlar

– Morfologik tahlilga doir mashqlar (so‘zning turkumi, morfologik belgisi, grammatik shakllari, so‘z yasash jarayoni) o‘quvchilarda mustaqil ishlash, mantiqiy fikrlash va til hodisalarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

c) O‘yinli metodlar

– “So‘z toping”, “To‘g‘risini tanlang”, “Zanjirli fe‘llar” kabi interfaol o‘yinlar darsni jonlantiradi, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi.

d) Grafik va visual vositalar– Tushunchalar xaritasi, diagramma, jadval va sxemalar orqali murakkab morfologik tushunchalar (masalan, fe‘l zamonlari yoki sifat darajalari) osonroq tushuniladi.

3. Morfologik tahlil ko‘nikmasini shakllantirish

Morfologiya bo‘limi o‘quvchilarni grammatik jihatdan savodli bo‘lishga o‘rgatadi. Morfologik tahlil — har bir so‘zning turkumini, shaklini, grammatik ma‘nosini, yasash yo‘lini tahlil qilish demakdir. Ushbu tahlil:

- matnni to‘g‘ri idrok qilish,
- gap qurishda grammatik birliklarni ongli qo‘llash,
- yozma va og‘zaki nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish,

kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu maqsadda o‘qituvchilar turli metodik vositalardan foydalangan holda murakkab va soddalashtirilgan tahlil ishlari bilan o‘quvchilarni bosqichma-bosqich tanishtirishlari zarur.

Masalan, 8-sinfda quyidagi topshiriq berilishi mumkin. “Quyidagi matndan 5 ta fe‘lni toping, ularning zamoni, shaxs-soni, nisbatini aniqlang va har birini morfologik jihatdan tahlil qiling.” Bu turdagi topshiriqlar nafaqat grammatik tahlilga o‘rgatadi, balki mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, yozma nutq ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. 4. Tajribali o‘qituvchilarning amaliy ishlari va muammolar.

Metodik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, morfologiya darslarida quyidagi holatlar dars samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatmoqda:

- Darslar ko‘pincha nazariy ma‘lumotga boy, biroq amaliy faoliyatga kam asoslangan.
- Morfologik tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga uzviy rivojlanmaydi.
- So‘z turkumlari o‘rtasidagi grammatik bog‘liqlikni tushuntirishga yetarli e‘tibor berilmaydi. Shuning uchun darslarda o‘quvchining faol ishtirokini ta‘minlovchi metodlar, differensial yondashuv, motivatsiya va o‘yin texnologiyalarini qo‘llash ayni muddaodir. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya — ya‘ni, morfologik bilimlarni

adabiyot, tarix yoki biologiya fanlari bilan bog'lash orqali o'quvchilar tafakkurini kengaytirish mumkin.

5. Morfologiya va kompetensiyaviy yondashuv

Bugungi ta'limning asosiy maqsadi — o'quvchini mustaqil fikrlovchi, axborotni tahlil qila oluvchi, nutqiy faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Morfologik bilimlar aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- Axborot kompetensiyasi – so'zlarning morfologik shakllari haqida ma'lumotni o'rganish, taqqoslash, xulosa chiqarish.
- Kommunikativ kompetensiya – grammatik jihatdan to'g'ri nutq tuzish, xatolarga tanqidiy yondashish.
- Ijtimoiy faoliyat kompetensiyasi – jamoada ishlash, o'z fikrini asoslab berish, savol-javobda ishtirok etish.

Shuning uchun ham morfologiyani o'qitishda shunchaki nazariy bilim berish emas, balki uni amaliy faoliyatga integratsiyalash dars samaradorligini belgilaydi.

Maktabda morfologiya bo'limini o'qitish zamonaviy tilshunoslik ta'limining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Morfologiya o'quvchilarda grammatik tafakkurni shakllantirish, so'zlar tuzilishini tushunish, ularni to'g'ri qo'llash va til qurilishi qonuniyatlarini o'zlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu bo'limni samarali o'qitish orqali o'quvchilarda nafaqat grammatika bo'yicha bilimlar shakllanadi, balki ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish ko'nikmasi, yozma va og'zaki nutq madaniyati ham rivojlanadi. Maqolada ta'kidlanganidek, morfologik bilimlar o'zlashtirilishini bosqichma-bosqich tashkil qilish, turli interfaol metodlar, vizual vositalar va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida darslarni olib borish dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, o'yinli metodlar, guruhli ishlar, muammoli savollar va tahliliy topshiriqlar o'quvchini bilim oluvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, morfologik tahlilni o'rgatish orqali o'quvchi o'z tilining ichki tuzilishiga ongli ravishda yondashishni, tahlil qilishni, grammatik to'g'ri so'zlash va yozishni o'rganadi. O'quv jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchilarning yoshi, qiziqishi va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, individual yondashuv asosida darsni tashkil etishdan iborat. Shuningdek, dars jarayoniga didaktik materiallar, zamonaviy texnologiyalar, amaliy topshiriqlarni tatbiq etish orqali morfologiya bo'limining nafaqat o'zlashtirilishi, balki amaliyotga tadbiqu ham ta'minlanadi. Xulosa o'rnida aytilish joizki, morfologiyani o'qitish faqat grammatik bilimlar bilan chegaralanmay, o'quvchining intellektual va madaniy rivojiga, muloqot madaniyati va til tuyg'usining shakllanishiga xizmat qilishi zarur. Shunday ekan, bu bo'limni o'qitishda yangicha

yondashuv, pedagogik innovatsiyalar va o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan metodik izlanishlar dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djalilov A. (2017). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi*. – Toshkent: Fan.
2. Jo'raev D. (2020). *Ona tili ta'limi metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Karimov M. (2018). *Grammatika o'qitishning metodik asoslari*. – Buxoro: BuxDU nashriyoti.
4. Mahmudova N. (2022). *Til va nutqni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish*. – “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali, №4.
5. Normurodova Z. (2020). *So'z turkumlarini o'qitishda zamonaviy yondashuv*. // “Til va adabiyot ta'limi”, №2.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). *Ona tili va adabiyot fanidan umumta'lim maktablari uchun namunaviy o'quv dasturi*. – Toshkent.
7. Rashidova D., Yo'ldosheva D. (2019). *O'zbek tilshunosligi. Morfologiya*. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. Rasulova M. (2023). *Ona tili darslarida morfologik tahlil metodikasi*. – “Innovatsion pedagogika” jurnali, №1.
9. RTM (Respublika Ta'lim Markazi). (2021). *Darslik va metodik qo'llanmalar asosida ona tili ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar*. – Toshkent.
10. Tadjibayeva S. (2021). *Boshlang'ich sinflarda til darslarini samarali tashkil etish yo'llari*. – Andijon: Ilm ziyo.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV PLATFORMALAR (KAHOOT, QUIZLET, NEARPOD)DAN FOYDALANISH

ALLAYAROVA DILAFRUZ

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda

jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

boburaxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda interaktiv platformalardan – xususan Kahoot, Quizlet va Nearpod dasturlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida dars jarayonini jonlantirish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda mustahkam bilim hosil qilish uchun yaratilayotgan sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada interaktiv platformalarning afzalliklari, amaliyotda qo'llanish usullari va ularning ta'lim sifati hamda o'quvchilar bilim darajasiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, tajribali o'qituvchilarning fikrlari va amaliy misollar orqali mavzuga yondashuv chuqurlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Biologiya ta'limi, interaktiv platformalar, Kahoot, Quizlet, Nearpod, raqamli ta'lim, dars samaradorligi, innovatsion metodlar, o'quvchilarning faolligi, interaktiv o'qitish.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности эффективного использования интерактивных платформ в обучении биологии, в частности, программ Kahoot, Quizlet и Nearpod. Анализируются условия, создаваемые современными цифровыми технологиями для активизации учебного процесса, повышения интереса учащихся к уроку и формирования прочных знаний. В статье рассматриваются преимущества интерактивных платформ, методы их практического применения и их влияние на качество образования и уровень знаний учащихся. Подход к теме также углубляется с помощью мнений опытных преподавателей и практических примеров.

Ключевые слова: биологическое образование, интерактивные платформы, Kahoot, Quizlet, Nearpod, цифровое образование, эффективность урока, инновационные методы, активность учащихся, интерактивное обучение.

Abstract: This article discusses the possibilities of effective use of interactive platforms in teaching biology, in particular, Kahoot, Quizlet, and Nearpod programs. The conditions created by modern digital technologies to revitalize the teaching process, increase students' interest in the lesson, and form solid knowledge are analyzed. The article examines the advantages of interactive platforms, methods of their practical application, and their impact on the quality of education and the level of students' knowledge. The approach to the topic is also deepened through the opinions of experienced teachers and practical examples.

Keywords: Biology education, interactive platforms, Kahoot, Quizlet, Nearpod, digital education, lesson effectiveness, innovative methods, student activity, interactive teaching.

Bugungi kunda ta'lim sohasida ro'y berayotgan raqamli transformatsiya o'quv jarayonlarini yanada interaktiv, samarali va o'quvchiga yo'naltirilgan holatga keltirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar qatoriga kiruvchi biologiya fanini o'qitishda zamonaviy interaktiv platformalardan foydalanish dars sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kahoot, Quizlet, Nearpod kabi interaktiv ta'lim vositalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlash, dars jarayonini qiziqarli va jonli shaklga keltirish imkonini beradi. Ushbu maqolada aynan ushbu platformalarning biologiya ta'limidagi o'rne, ularning afzalliklari va ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

1. Interaktiv platformalarning ta'limdagi o'rne. Interaktiv platformalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o'qitish jarayonini qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu platformalar orqali o'qituvchilar darslarni vizual materiallar, testlar, viktorinalar va boshqa interaktiv faoliyatlar bilan boyitishlari mumkin.

2. Kahoot platformasi. Kahoot — bu o'quvchilar uchun qiziqarli va raqobatbardosh muhitda testlar o'tkazish imkonini beruvchi platformadir. Ushbu platforma orqali o'qituvchilar biologiya faniga oid turli mavzularda testlar tayyorlab, o'quvchilarning bilim darajasini baholashlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Kahoot o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. Quizlet platformasi. Quizlet — bu o'quvchilarga flashkartalar, testlar va o'yinlar orqali bilimlarni o'zlashtirish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida terminlar, tushunchalar va jarayonlarni o'rganishda Quizletning flashkarta funksiyasi juda foydali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Quizlet

o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Nearpod platformasi. Nearpod — bu o'qituvchilarga interaktiv taqdimotlar, testlar, so'rovnomalar va boshqa faoliyatlar orqali darslarni tashkil etish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida Nearpod orqali laboratoriya tajribalari, 3D modellar va virtual ekskursiyalarni tashkil etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Nearpod o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi va ularning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

5. Platformalarning taqqosiy tahlili

Platforma	Afzalliklari	Kamchiliklari
Kahoot	Qiziqarli va raqobatbardosh muhit, tezkor baholash	Cheklangan savol turlari
Quizlet	Mustaqil o'rganish uchun qulay, turli o'yinlar	O'qituvchi nazorati cheklangan
Nearpod	Keng interaktiv imkoniyatlar, real vaqtli monitoring	Tayyorlash uchun ko'proq vaqt talab etadi

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish nafaqat metodik yondashuvlarni yangilaydi, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini tubdan o'zgartiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ichida murakkab atamalar, biologik jarayonlar va tizimlarni o'z ichiga olgan biologiya fanini samarali o'qitish uchun innovatsion vositalar va ilg'or texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, Kahoot, Quizlet va Nearpod kabi platformalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi: ular biologiyani nafaqat o'rganish, balki uni anglash, qo'llash va amaliyotga tatbiq qilish imkonini kengaytiradi.

Kahoot platformasi raqobat va o'yinga asoslangan yondashuvi bilan o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilar ushbu platforma orqali bilimlarini sinab ko'rish, noto'g'ri javoblar ustida ishlash va xatolarni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa reflektiv ta'limni rag'batlantiradi va o'quvchini faollikka undaydi.

Quizlet platformasi esa asosan mustaqil o'rganish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, biologiyada ko'plab atamalar, lotincha nomlar va tasnif tizimlari mavjud bo'lgani sababli, o'quvchilarning ularni yod olish va takrorlash imkoniyatini kengaytiruvchi flashkarta va test funksiyalari nihoyatda foydali. Bu o'quvchilarning xotira va assotsiativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Nearpod esa murakkab mavzularni vizualizatsiya qilish, interaktiv laboratoriya tajribalari, 3D modellar orqali biologik tizimlarni tushuntirish imkonini yaratadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi real vaqtli interaktiv muloqot, natijalarni darhol baholash va muhokama qilish dars samaradorligini oshiradi. Bu esa nafaqat bilim olish, balki chuqur tushunishga ham olib keladi.

Umuman olganda, interaktiv platformalarning biologiya ta'limidagi joriy etilishi bir qator afzalliklarni beradi:

- darslarning sifat va mazmunini oshiradi;
- o'quvchilarni faol, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi;
- o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsipi asosida tashkil etishga imkon yaratadi;
- real vaqtda tahlil, qayta aloqa va differensial yondashuvni ta'minlaydi.

Shu bois, hozirgi davrda biologiya fani o'qituvchilari interaktiv platformalardan foydalanishni faqat qo'shimcha vosita sifatida emas, balki o'quv jarayonining ajralmas elementi sifatida qabul qilishi lozim. Kelajakda raqamli pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va moslashtirilgan ta'lim kabi konsepsiyalar asosida bu platformalarning ta'siri yanada kengayishi kutiladi. Ilmiy yondashuv, amaliy tajriba va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali biologiya ta'limining sifati yuqori bosqichga ko'tarilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Active and Interactive Learning Through Quizlet and Kahoot" – ResearchGate, 2020.
2. "ICT Tools for Assessing Tests and Student Performance" – Quizlet Study Guide, 2024.
3. "Using Nearpod to Promote Engagement in Online ESL Classes" – SpringerLink, 2023.
4. "Top 10 Student Assessment Apps for Teachers" – Formaloo Blog, 2024.
5. "Digital Tools to Engage Your Students in Fun Learning Activities" – Brittany Washburn Blog, 2024.
6. Qodirova Z. S., Xolmatov B. U. (2022). Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Rahmatova G. (2021). "Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o'qitish metodikasi". "Pedagogik ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.
8. Abdullayeva M. (2020). "Biologiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi". O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ilmiy-metodik axborotnomasi, 2-son.

9. Nurullayeva N. M. (2023). “Interaktiv o‘quv platformalari yordamida tabiiy fanlarni o‘qitish”. Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy jurnali, 1(58).

BO'G'IN TUZILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**AMINOVA FARANGIZ ZOKIRJON QIZI,****SAIDOVA MARJONA ABUTOLIB QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabalari

farangizaminova@gmail.commarjonasaidova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishining nazariy va amaliy jihatlarini keng tahlil etiladi. Tilshunoslikda bo'g'in nutqning kichik, ammo ahamiyatli fonetik birligi sifatida talqin etilib, uning strukturaviy xususiyatlari va leksik birliklar hosil qilishdagi roli ochib beriladi. O'zbek tilida bo'g'in turlari, ularning shakllanish qonuniyatlari va talaffuzdagi fonetik me'yorlar atroflicha tahlil qilingan. Maqolada bo'g'in tuzilishining fonologik asoslari, so'zlarning segmentatsiyasi hamda bo'g'in chegaralarini aniqlash mezonlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Bo'g'in tuzilishi, hozirgi o'zbek adabiy tili, fonetik birliklar, bo'g'in turlari, talaffuz me'yorlari, orfoepik qoidalar, bo'g'in chegaralari, til strukturasi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of syllable structure in the modern Uzbek literary language. In linguistics, the syllable is interpreted as a small but significant phonetic unit of speech, revealing its structural features and role in the formation of lexical units. The types of syllables in the Uzbek language, the laws of their formation, and the phonetic norms of pronunciation are analyzed in detail. The article discusses the phonological foundations of syllable structure, word segmentation, and criteria for determining syllable boundaries.

Keywords: Syllable structure, modern Uzbek literary language, phonetic units, syllable types, pronunciation norms, orthoepic rules, syllable boundaries, language structure.

Абстрактный. В статье дается комплексный анализ теоретических и практических аспектов слоговой структуры современного узбекского литературного языка. В языкознании слог трактуется как небольшая, но значимая фонетическая единица речи, раскрывающая его структурные свойства и роль в образовании лексических единиц. Подробно анализируются типы слогов в узбекском языке, законы их образования, фонетические нормы

произношения. В статье рассматриваются фонологические основы слоговой структуры, сегментации слов и критерии определения границ слогов.

Ключевые слова: Структура слога, современный узбекский литературный язык, фонетические единицы, типы слогов, произносительные нормы, орфоэпические правила, границы слогов, структура языка.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotida fonetik tizimning, xususan, bo'g'in tuzilishining o'rni beqiyosdir. Har qanday til fonologik va fonetik jihatdan muayyan qonuniyatlarga asoslangan bo'lib, bu qonuniyatlarni so'zlar tuzilishiga, talaffuzga va hatto yozuv tizimiga ham ta'sir qiladi. Bugungi globallashtirish davrida turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi integratsiya ortib borayotgan bir paytda, o'zbek tilining bo'g'in tizimi ham ma'lum darajada ta'sirlanmoqda.

Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishi haqida fikr yuritiladi. Bo'g'in nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik ba'zan bir so'zga teng segment birlik. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini bolalarga yaxshilab o'rgatish imloviy xatoliklarning oldini olishda yordam beradi. Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik tizimining asosiy unsurlaridan biri bo'g'in tuzilishidir. Bo'g'in — nutqning eng kichik fonetik birligi bo'lib, u so'zlarning talaffuzi, urg'u tizimi va orfoepik me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida bo'g'inlar soni so'zdagi unli tovushlar soniga teng bo'lib, ular ochiq (unli bilan tugagan) va yopiq (undosh bilan tugagan) bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda bo'g'in turlari va ularning tuzilishi fonetik birliklar sifatida o'rganiladi. Masalan, bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'inlar (masalan, bo-la), yoki bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'inlar (masalan, mak-tab) mavjud. Bu bo'g'inlar so'z segmentatsiyasi va talaffuz me'yorlarini belgilashda asosiy rol o'ynaydi. Orfoepik qoidalar esa adabiy tilning talaffuz me'yorlarini belgilaydi. Ular unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik birliklarning aytilishi va so'z birikmalarining talaffuz qilinishini o'z ichiga oladi. Bu me'yorlar til strukturasi va adabiy til normalarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo'g'in tuzilishi fonologik asoslar va nutq birligi sifatida leksik birliklarning shakllanishi, talaffuz madaniyati va tilshunoslik tahlilida ham muhim o'rin tutadi. Bo'g'inlarning to'g'ri segmentatsiyasi va ularning chegaralarini aniqlash, so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozuvda to'g'ri ajratilishini ta'minlaydi.

Bo'g'in tilshunoslikda so'z segmentatsiyasining eng kichik birligi sifatida qaraladi. O'zbek tilida har bir bo'g'inning shakllanishi unli tovushning ishtirokiga asoslanadi. Bo'g'inning ikki asosiy turi mavjud:

Ochiq bo'g'in – unli tovush bilan tugaydi (masalan, o-na, da-la).

Yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan tugaydi (masalan, kitob, do'st).

Bo'g'inning turlari va tuzilishi so'zning talaffuziga, ritmiga va urg'usiga bevosita ta'sir qiladi.

Talaffuzda bo'g'inlarning ahamiyati juda katta. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Bo'g'in chegaralari va urg'ular fonologik tizimda semantik aniqlikni ta'minlaydi. Masalan, oson so'zidagi bo'g'inlar o'rnini noto'g'ri ajratish so'zning ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

O'zbek adabiy tilining barqarorligi talaffuz me'yorlariga amal qilish bilan bog'liq. Orfoepik qoidalar unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzini tartibga soladi. Masalan, do'stlar so'zi adabiy me'yorga ko'ra [dos-tlar] shaklida talaffuz qilinadi. Bu qoidalar talaffuz madaniyatini shakllantiradi va tilning to'g'ri o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Bo'g'inlarning tahlili o'quvchilar va talabalarni talaffuz qoidalariga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, urg'ularni aniqlash va ularni talaffuz qilish mashqlari qo'llaniladi. Masalan, maktablarimiz so'zi quyidagicha bo'g'inlarga ajratiladi: mak-tab-la-ri-miz.

O'zbek tili fonetik tizimining rivojlanishi davomida bo'g'in tuzilishida ba'zi o'zgarishlar yuz bergan. Qadimgi yozma manbalarda bo'g'inlarning tuzilishi zamonaviy tildagidan farq qiladi. Bu tarixiy jarayonlar tahlili tilning rivojlanish bosqichlarini tushunishga yordam beradi.

O'zbek tilshunosi Ayub G'ulomov bo'g'inni "nutqning bir nafas to'lqinidagi qismi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, har bir bo'g'in artikulyatsiyada kuchlanish va bo'shashish orqali shakllanadi, bu esa bo'g'inlarni fonetik jihatdan ajratishga imkon beradi.

Tilshunoslar S. Otamirzayeva va M. Yusupova o'zbek tilida bo'g'inlarning quyidagi turlarini ajratadilar:

Bir unlidan iborat bo'g'in: o-na, o-i-la

Bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'in: bo-la, ish, ko'-cha

Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'in: bur-gut, mak-tab, sta-kan

Bir unli va uch undoshdan iborat bo'g'in: mart, dard, to'rt, trak-tor

Bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'in: trans-port, struk-tura

Ular, shuningdek, o'zbekcha so'zlarda bo'g'inning boshida undoshlar qator kelmasligini, chunki sof o'zbekcha so'zlarda bo'g'in (undosh+unli) s+v yoki (unli+undosh) v+c kabi qolip asosida tuzilishini ta'kidlaydilar.

Tilshunos Nosirjon Uluqov bo'g'in ta'rifiga aloqador bir qancha nazariyalarni, xususan, fonologik bo'g'in nazariyasi va fonetik bo'g'in nazariyasini muhokama

qiladi. Fonologik nazariyada bo'g'inlar fonemalarning kombinatsiyasi sifatida qaralsa, fonetik nazariyada ular artikulyatsion va akustik xususiyatlarga asoslanadi.

Olimlarning fikrlariga ko'ra, o'zbek tilida bo'g'in tuzilishi fonetik, fonologik va morfologik jihatdan murakkab tizimga ega. Bo'g'inlar so'zlarning talaffuzi, urg'u joylashuvi va yozuvda to'g'ri ajratilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar va tasniflar o'zbek tilining fonetik tizimini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishi tilning fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini chuqur anglashda asosiy omil hisoblanadi. Bo'g'inlar talaffuz, urg'u va yozuv qoidalarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbek tilida bo'g'inning ochiq va yopiq turlari, unli va undosh tovushlarning joylashuvi asosida shakllanuvchi tuzilmalari aniq tasniflangan. Adabiy tilda bo'g'inlarning o'ziga xos me'yorlari, talaffuz va yozuvdagi roli, tarixiy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlari so'zning semantik mazmunini saqlash va tilning boyligini ko'rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, bo'g'inlarning tizimli tahlili talaffuz madaniyatini shakllantirish va o'quvchilarni aniq nutqqa o'rgatishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent - 1996.
2. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. Toshkent Toshkent - 2003.
3. Raxmatullaev Sh. O'zbek tiling isohli frazeologik lug'ati. Toshkent- 2007.
4. O'zbek tili me'yorlari(punktuatsiya). — Toshkent: Zamin nashr, 2021. -232 b.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013.

ONA TILI O'QITISHNING METODLARI HAQIDA**AMIROVA MARJONA BAHODIR QIZI,****SUYUNOVA NIGORA ALISHER QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabalari

marjonaamirova243@gmail.comalisherovna005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o'qitishning asosiy metodlari, ularning turlari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. An'anaviy va interfaol yondashuvlar tahlil qilinib, metodlarni tanlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ona tili darslarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar beriladi. Maqola pedagoglar, tilshunoslar va metodistlar uchun nazariy hamda amaliy jihatdan foydalidir.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'lim metodlari, an'anaviy metodlar, interfaol metodlar, til o'rganish, dars samaradorligi, pedagogik yondashuv.

Annotation. This article explores the main methods of teaching the mother tongue, their types, and their significance in the modern educational process. It analyzes both traditional and interactive approaches, emphasizing the importance of considering students' age and psychological characteristics when selecting appropriate methods. The article also provides methodological recommendations aimed at increasing the effectiveness of mother tongue lessons. It is theoretically and practically useful for educators, linguists, and methodologists.

Keywords: mother tongue, teaching methods, traditional methods, interactive methods, language learning, lesson effectiveness, pedagogical approach.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные методы обучения родному языку, их виды и значение в современном образовательном процессе. Анализируются как традиционные, так и интерактивные подходы, подчеркивается важность учета возрастных и психологических особенностей учащихся при выборе соответствующих методов. Также представлены методические рекомендации, направленные на повышение эффективности уроков родного языка. Статья представляет теоретическую и практическую ценность для педагогов, лингвистов и методистов.

Ключевые слова: родной язык, методы обучения, традиционные методы, интерактивные методы, изучение языка, эффективность урока, педагогический подход.

Ona tili darslarining samaradorligi o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to'g'ri tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq. Ona tili fanini o'qitishning samaradorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Shubhasiz, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik hamkorlikning o'rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqadordir.

Metod so'zining ma'nosi tushuntirishda qo'l keluvchi manbalar bilan izohlanib, dars faolligini oshirish va ta'minlashga katta yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Ona tili o'qituvchilaridan o'ziga xos ta'lim yo'nalishiga monand uslub va vositalarning birlashmasi hisoblanadigan metodlardan foydalanish katta yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, darsda mavzuga monand metodlarning maxsus tarzda moslashtirilishi novatsion birliklar asosida amalga oshirilib, o'qituvchidan o'quvchilarni qiziqtirish uchun inlmiy izlanuvchanlik bilan yondashishi talab etiladi. Metod so'zining falsafiy jihatdan birlashuvi tabiat va olamdagi hayot qonuniyati, voqea va hodisalarning kuzatilib turgan voqelikka nisbatan yondashuvidan dalolatdir deyish mumkin.

“Olimlar M.N. Skatkin, I.Y. Lerner bilan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim merodlarini:

1. Tushuntirish - nomoyish etish metodi;
2. Qayta xotirlash metodi;
3. Muammoli bayon etish metodi;
4. Qisman izlanuvchanlik metodi;
5. Tadqiqot(izlanuvchanlik, ijodiylik) metodi kabilarga ajratiladi.

Ta'lim metodlarining I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin tomonidan taklif etilgan ushbu tasnifi

o'quvchilarning fikrlash faoliyatida tadqiqotchilik va muammoli vaziyat borligi bilan ajralib turadi. Mazkur tasnif til o'qitishning tabiatiga ham ancha mos tushadi”. [1: 70]. Haqiqatdan ham o'quvchilarning bilish salohiyatini oshirish yuzasidan turli xil metod va usullar, nazariyalar mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Olim Kubanskyning

ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning qobiliyatlariga tayanib ularning bilish faoliyatini tashkil etish, shuningdek, amaliy jihatdan faol o'quvchilarning biluv faoliyatiga ko'ra rag'batlantirish ham ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda, asosan, o'quvchilarning boshlang'ich fundamental bilimlarining tarkibiy jihatdan izlanuvchanlik

qobiliyati metodlarga ham tayanadi. "Ilmiylik prinsipi o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etadi. Tushunarlik prinsipi esa o'quv predmetini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqozo etadi. Bu ikki prinsip bir-birini to'ldiradi. Bu prinsiplarni amalga oshirishda quyidagilarga etibor berish talab etiladi:

- til sathlarini o'zaro bog'liqlikda o'rgatish;
- o'qituvchining fan yangiliklaridan xabardor bo'lib turishi kerak;
- o'qituvchi butun fikrini ilmga asoslanib bayon etishi lozim;
- til va nutqni farqlab o'qitishning, ixcham va talaffuz me'yorlariga mos bo'lishi;
- ayrim o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish. Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan prinsiplarga qat'iy amal qilish ham muhim ekanligi bilan ham xarakterlanadi.

Kuzatuvchanlik prinsipining ham ona tili o'qituvchilariga qo'l kelishi, dars sifatiga ta'sir qiluvchi tarqatma materiallar, oredmetlarning to'g'ri tanlanishi ham muhimdir. Ko'rgazmalilik o'quvchilarning fanga qiziqishini oshiruvchi bosh dasturiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi, qolaversa, darsda qo'llanilayotgan metodlar ana shu ko'rgazmali qurollar bilan aloqadorlikda tashkil etilishi ham o'quvchilarning individual tarzda rivojlanishiga sabab

bo'ladi. "Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki, so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi". Ona tili o'qitish metodikasining bosh g'oyasi ham o'quvchi yoshlarga samarali bilim va tushunchalarning har qanday muammo va vaziyatlarga xos tarzda izohlanishi bilan ham xarakterlanishini kuzatish mumkin. Bu ham ona tilining o'qitilishi jihatdan boshqa fanlarga aloqador bo'lishi ham kuzatiladi. Bunda, o'zaro fanlararo integratsiyaning ahamiyati katta ekanligi ushbu mavzuning boshqa sohalar bilan aloqador ekanligi bilan belgilaniladi. Shuning uchun ham dars tizimida

qo'llaniluvchi metodlarning novatsiya tarzda qo'llanilishini belgilash, ularning mavzu bilan uyg'un ekanligini ham baholash muhimdir. Ona tili darslarida turli innovatsion texnologiyalardan ham foydalanish muhim va dolzarb ekanligi bilan xarakterlidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ta'lim berish, zamonaviy hamda samarali innovatsion metodlardan foydalanish qolaversa dars jarayonida turli AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida fanga, izlanishga, tadqiqotga yondashish, bilimlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bunday natijaga erishish uchun esa albatta dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalarini birlashtirish talab etiladi. Bu jarayonda o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyani shakllantirish uchun sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruv, yo'l-yo'riq ko'rsatish funksiyalarini ham bajaradi. O'qitish jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning bilimlari, tajribasi, interfaol usullari o'quvchilarga malakali, ilg'or ko'nikmalar beradi.

Ona tili fani o'qitishda darsda psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmog'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining uyg'otishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o'quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg'otishga sabab bo'ladi. Quyida dars davomida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta zamonaviy metodlar haqida to'xtalib otamiz

1. "Kim hakam" Ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Kim hakam" o'yin metodini qo'llash ham yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O'quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O'qituvchi tomonidan ma'lumotlar tezkorlik bilan o'qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari to'g'ri ma'lumotlar uchun- "qizil kartochka", noto'g'ri ma'lumotlar uchun "sariq kartochka"larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi. Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi. Chunki sinfda o'tirgan o'quvchilar yaqinida o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada "hayratlanish" tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan

ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir.

Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani mehnat qilgani ma'qul.

2."So'z va hodisalarni eslash".

Sinf o'quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so'z tanlaydi.

1. Daraxt, paxta so'zi bilan o'yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, do'mbira, doira, do'lana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi "d", "p" harflari bilan boshlanadigan so'zlar topiladi.

2. Daraxt, paxta so'zlarining birinchi bo'g'iniga da-, pax- bo'g'in qo'shib so'z hosil qilish.

3. Berilgan so'zlarga ohangdosh so'zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt karaxt kabi.

4. Berilgan so'zlar bilan bog'liq bo'lgan barcha so'zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g'o'za, ko'sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz

5. Berilgan so'zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar.

6. Berilgan so'zlar bilan bog'liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to'qishga harakat qilish.

7. Berilgan so'zlardan "Sinkveyn" tuzish.

Ko'rinib turibdiki, topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib borayapti. Bolaning faoliyati kengayib, tezlashtirilayapti. Shuning uchun u zerikmaydi. O'yin davomida mustaqil fikrlashni kimdir mantiq asosida quradi, kimdir so'zlarni tasodifan aytadi. Hozircha buning ahamiyati yo'q, muhimi u fikrlayapti, mustaqil mulohaza yurityapti. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirgandan ko'ra qanday bo'lsa ham fikr yuritgani, mehnat qilgani ma'qul.

3. "Tez o'yla" metodi.

1. Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong'oq;

- 2..Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;
3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;
4. Ovchi, muzqaymoq, bo'ri, hayvonot bog'i, qafas, daraxt;
5. Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.
4. "Begona" o'yin metodi

Bunda beshta so'z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi. Masalan: "O'gay", "Erka", "Mehnatsevar", "Sehrli sandiq", "Ajdar" bitta "Kulol" so'z. Shu begona so'zdan ertakni davom ettirishadi. Oquvchi dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat talim standarti talablari darajasida o'zlashtirishi kerak. O'qituvchi bu jarayonni bolaga zavq bag'ishlovchi mana shunday o'yinlar asosida qura bilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga o'quvchiga erkinlikni his etash imkonini beradi.

5. "Kim ko'p so'z tuzish".

O'quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so'zlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf (tovush) so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan, "a" tovushiga oid so'zlar toping. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarini shakllantirish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlik talab etadi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi mantiqiy metodlar, interfaol usullarda o'z aksini topadi. Dars berish usullari ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir. Ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta'lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta'minlovchi dars berish va o'qitish usullari - interfaol usullar deyiladi. Ana shunday interfaol metod va texnologiyalardan namunalar keltiramiz:

6.Taqdimot va muzyurlar - bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi "to'siq"ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi o'zaro ishonch, hurmat, o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi. Dars davomida yuqorida aytib o'tilgan metodlardan foydalanish darsni qiziqarli hamda qiziqarli o'tishiga va bu orqali esa, ta'lim sifati oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. 70-b.
2. Matkarimova Zaynab Olloyorovna. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" // "Science abd Education" Scientific journal – T.: 2020.

3. Yusupova Z. "Ona tili o'qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari" maqola. 2020.
4. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: "Sharq", 2013.
5. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. – T.: "Navro'z", 2018.

LEKSIK OMONIYMIYANING NAZARIY VA AMALIY TALQINI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Aqmirzayeva Zarnigor Alisher qizi**Ilmiy rahbar: Murodova Feruza**

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik omonimiyaning nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqi yoritilgan. Tilshunoslikda omonimlarning o'rni, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlari, omonimlarning boshqa leksik birliklar bilan munosabati, til tizimidagi funksional yuklamasi hamda omonimiyaning tarjima, til o'qitish va nutq madaniyatidagi amaliy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada omonimiyaning turli tilshunoslik maktablarida o'rganilishi, nazariy yondashuvlar tafsili bilan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Omonimiya, leksik birlik, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, antonimiya, semantika, tilshunoslik, amaliy qo'llanish, tarjima, til tizimi.

Kirish

Tilshunoslikda leksik birliklarning o'zaro munosabati va semantik tafovutlari tilning boyligi, ifoda imkoniyatlari hamda tafakkurning til orqali shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Har bir til o'zining fonetik, morfologik, sintaktik va semantik tizimi orqali fikrni ifoda qilishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda leksik birliklarning ko'p qirraliligi, ayniqsa, omonimiya kabi hodisalar tilning murakkab va o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, omonimlar — shaklan bir xil, ammo ma'nosiga ko'ra har xil bo'lgan so'zlar — til tizimidagi murakkab hodisalardan biridir. Ular shakliy jihatdan bir xil ko'rinish kasb etgan bo'lsa-da, ma'nodagi tafovut ularning mustaqil semantik birliklar ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa nafaqat lingvistik tafakkur, balki mantiqiy tahlil, kontekstual tafsir va pragmatik yondashuvlarni ham talab etadi.

Omonimiya tilning ichki dinamikasi, so'zlarning semantik taraqqiyoti, fonetik o'zgarishlar, morfologik qisqarishlar, tarixiy taraqqiyot, boshqa tillar bilan aloqa va tasodifiy tovush mosliklari natijasida yuzaga keladi. Ba'zida esa omonimlar bir-biridan mutlaqo mustaqil kelib chiqqan bo'lsa-da, zamon o'tishi bilan fonetik jihatdan moslashib, bir xil shaklga ega bo'lib qoladi. Natijada, bu kabi birliklarni farqlash faqat kontekst asosida mumkin bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda omonimiya masalasi lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, tarjimashunoslik, til o'qitish metodikasi va hatto sun'iy intellekt sohalarida ham muhim mavzulardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tilning leksik boyligini tashkil etuvchi omonimlar nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham chuqur o'rganilmoqda. Ularning nutqdagi ahamiyati, uslubiy vosita sifatidagi roli, tarjimadagi aniqlik va xatolarga ta'siri, hamda o'quvchilarga til o'rgatishdagi murakkabligi alohida tahlilni talab etadi.

Ushbu maqolada omonimiyaning nazariy asoslari, ilmiy ta'riflari, ularning tasnifi, boshqa leksik-semantik hodisalar bilan o'zaro aloqasi, tilshunoslikda o'rganilishi hamda amaliy sohalaridagi — xususan, ta'lim, tarjima va stilistikada — qo'llanilish yo'llari ilmiy- nazariy va amaliy jihatdan keng yoritiladi. Maqolaning maqsadi —

Asosiy qism

o'zbek tilidagi omonimlarning ilmiy izohini berish, ularning til tizimidagi o'rnini aniqlash hamda amaliy faoliyatda undan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan iborat.

Omonimiya tushunchasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo'lib, uning nazariy talqinlari turli ilmiy maktablarda turlicha izohlangan. Omonimlar — bir xil fonetik shaklga ega bo'lgan, lekin turli ma'noni anglatuvchi mustaqil so'zlar sifatida izohlanadi. Ular ko'pincha ko'p ma'nolilik bilan aralashib ketadi. Ammo tilshunoslikda bu ikki hodisa — omonimiya va ko'p ma'nolilik — aniq farqlanadi: ko'p ma'nolilikda bir so'zning ma'nolari o'zaro semantik bog'liq bo'ladi, omonimiyada esa bu bog'liqlik mavjud emas. Abduazizov

A. ta'kidlaganidek, omonimiyada shakliy o'xshashlik tashqi omildir, semantik aloqaning yo'qligi esa bu hodisani mustaqil leksik birliklar sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Omonimlar asosan uch turga bo'linadi: leksik omonimlar, grammatik omonimlar va fonetik omonimlar. Leksik omonimlar — shaklan bir xil, lekin semantik jihatdan mustaqil va aloqasiz bo'lgan so'zlar. Masalan, "oy" so'zi (osmondagi oy va yil oylaridan biri) yoki "yoz" (fasl va yozish amali) — bu leksik omonimlarga misoldir.

Leksik omonimiyaning paydo bo'lish sabablari turlicha bo'lib, ular orasida fonetik o'zgarishlar, morfologik qisqarishlar, boshqa tillardan o'zlashuvlar va tasodifiy tovush mosliklar muhim o'rin tutadi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda turlicha shakllangan ikki so'z zamon o'tishi bilan bir xil fonetik shaklga kelib qolishi mumkin. Rasulov A. bu holatni "tilning tabiiy taraqqiyotida yuzaga keladigan leksik yaqinlashuv" deb ataydi.

Tilshunoslik nazariyalarida omonimiyanning o'rganilishi turli yondashuvlarga asoslangan. Strukturaviy tilshunoslikda omonimlar shakliy jihatdan, semantik yondashuvda esa ma'no asosida tadqiq etiladi. Hozirgi zamon kognitiv tilshunosligida esa omonimlarning inson tafakkuri bilan bog'liqligi, ma'no yaratish jarayonidagi roli o'rganiladi. G'afurov N.ning fikricha, til birliklarining ma'noviy ko'lamini aniqlashda omonimiyani kontekstual tahlil asosida baholash muhimdir.

Omonimlarning amaliy qo'llanilishi tarjima jarayonida, til o'qitish metodikasida va nutqning aniqligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tarjimada omonimlarni to'g'ri talqin qilish kontekstga bog'liq bo'lib, noto'g'ri tarjima mazmuniy xatolarga olib kelishi mumkin. Til o'rgatishda esa omonimlarning farqlanishini o'rgatish til o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Masalan, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda "ключ" so'zi (qulfni ochuvchi kalit yoki daryo boshidagi buloq) har doim kontekst asosida izohlanadi. Lyons J. ham kontekstning omonimlarni aniqlashdagi rolga urg'u beradi: "Meaning without context is often ambiguous and misleading", ya'ni "kontekstsiz ma'no ko'pincha noaniq va chalg'ituvchi bo'ladi".

Shuningdek, zamonaviy lingvistikada omonimlar turli soha terminologiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Informatika, biologiya, huquqshunoslik kabi fanlarda bir xil shakldagi, lekin kontekstga qarab turli ma'noni anglatuvchi atamalar mavjud. Bu holat ilmiy matnlarni tuzishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Matbuot, adabiyot va badiiy uslubda omonimlar stilistik vosita sifatida ham qo'llaniladi. Ular so'z o'yini, kinoya, istiora kabi uslublarni yaratishda yordam beradi. Masalan, satirik asarlarda yoki she'riyatda omonimlar ko'p hollarda san'atkorona

Xulosa
ma'no berishda xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, leksik omonimiya tilning tabiiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan, ko'p qirrali va murakkab lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Omonimlar til tizimining rivojlanishida, leksik qatlamning kengayishida va so'z boyligining ortishida faol ishtirok etadi. Ularning fonetik jihatdan bir xil bo'lib, semantik jihatdan farqlanishi tilshunoslikda chuqur ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Omonimiyanning ilmiy o'rganilishi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy yo'nalishlar — xususan, tarjimashunoslik, leksikografiya, nutq madaniyati va til o'qitish metodikasi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'quvchilarda tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, kontekstual tafakkurni rivojlantirish va nutqda aniq ifodavositalaridan foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirishda omonimiyani anglash va to'g'ri qo'llash muhim o'rin tutadi.

Tarjima jarayonida omonimlarni aniqlash va ularning to'g'ri ekvivalentlarini topish, matn mazmunini to'liq yetkazishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, adabiyotda va badiiy ijodda omonimlar stilistik vosita sifatida qo'llanilib, mazmunning ko'p qatlamliligini, obrazlilikni va badiiy ta'sir kuchini oshiradi.

Zamonaviy tilshunoslik yutuqlari shuni ko'rsatmoqdaki, omonimlarni faqat shakl va ma'no darajasida emas, balki ularning kognitiv va pragmatik jihatlarini ham inobatga olib o'rganish lozim. Shuningdek, sun'iy intellekt, kompyuter lingvistikasi va avtomatik tarjima tizimlarining rivojlanishi fonida omonimiyani avtomatik tarzda aniqlash va farqlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shunday qilib, tilni chuqur o'rganish, nutq madaniyatini shakllantirish va so'z boyligini to'g'ri qo'llashda omonimiyani to'g'ri anglash va kontekst asosida talqin qilish tilshunoslar, tarjimonlar, pedagoglar va hatto texnolog mutaxassislar uchun ham muhim kompetensiya hisoblanadi. Omonimiya masalasi tilshunoslik fanining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

BIOLOGIK TAJRIBALAR ORQALI O'QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

ASANOVA DIANA BATIRALI QIZI

asanovadiana1003@gmail.com

TURG'UNOV ARABBOY BAXROMJON O'G'LI

arabboyturgunov5@gmail.com

RISQIMBOYEV FAZLIDDIN ILHOMJON O'G'LI

frisqimboyev@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo'nalishi 3-bosqich talabalari

Usmonova Ruzixon Bozorovna

boburraxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda tajriba va amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Biologik tajribalar nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, balki o'quvchilarning kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat bog'liqliklarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda biologik tajribalarni tashkil etish metodikasi, dars jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi yondashuvlar hamda tajribalar asosida tanqidiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish omillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda tajribaviy yondashuvning o'rnini va istiqbollari ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: biologik tajriba, ilmiy dunyoqarash, o'quvchi faolligi, amaliy mashg'ulot, kuzatish, eksperiment, tanqidiy fikrlash, tabiiy fanlar, metodika, motivatsiya.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Biologiya fani, o'zining tabiati va mazmuni bilan, o'quvchilarda ilmiy fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Xususan, biologik tajribalar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, ilmiy metodlarni o'zlashtirish va tabiat hodisalarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1. Biologik tajribalar va ilmiy dunyoqarash. Biologik tajribalar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tajriba orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, kuzatish, tahlil

qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va tabiat hodisalariga ongli munosabatni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biologik tajribalar o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Biologik tajribalarning turlari va ularning ahamiyati. Biologik tajribalar turli shakllarda o'tkazilishi mumkin: laboratoriya ishlaridan tortib dala ekskursiyalarigacha. Laboratoriya ishlarida o'quvchilar mikroskop orqali hujayra tuzilishini o'rganish, fermentlar faoliyatini kuzatish kabi amaliy mashg'ulotlarni bajaradilar. Dala ekskursiyalarida esa o'quvchilar tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosini bevosita kuzatish, ekologik tizimlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tajribalar o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Ilmiy metodlarni o'rgatish va mustaqil tadqiqotlar. Biologik tajribalar orqali o'quvchilarga ilmiy metodlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar tajriba o'tkazish jarayonida muammo qo'yish, gipoteza ilgari surish, tajriba rejasini tuzish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ilmiy metodlarni o'zlashtiradilar. Bu esa ularning mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

4. Biologik tajribalarning tarbiyaviy ahamiyati. Biologik tajribalar nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishda, balki o'quvchilarning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Tajriba o'tkazish jarayonida o'quvchilar mehnatsevarlik, aniqlik, mas'uliyat, jamoada ishlash kabi sifatlarni o'zlashtiradilar. Shuningdek, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik madaniyatni rivojlantirish kabi tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi.

5. Biologik tajribalarni o'tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Hozirgi kunda biologik tajribalarni o'tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar orqali o'quvchilar murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini yanada chuqurlashtiradi.

Biologik tajribalar – bu faqatgina nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi emas, balki o'quvchilarda chuqur ilmiy tafakkur, kuzatuvchanlik, tanqidiy fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradigan eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Har qanday tajriba – bu o'quvchini faoliyatga jalb etish, uni o'ylashga, izlanishga, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunishga undaydigan jarayon. Aynan shu xususiyatlari bois

biologik tajribalar bugungi kunda fan asosida ta'lim berishga intilayotgan pedagoglar uchun beqiyos metodik imkoniyatlar yaratadi.

Tajriba o'tkazish orqali o'quvchi o'z bilimini sinovdan o'tkazadi, yangi bilimlarni mustaqil ravishda anglaydi va o'z mulohazasini bildiradi. Bu esa faqat bilim darajasini emas, balki o'quvchining tafakkur darajasini, ilmiy qarashlarini va shaxsiy intellektual o'sishini ham belgilaydi. Ilmiy tajriba – bu faktlar asosida xulosa chiqarishni, shoshilinch va yuzaki fikrlardan qochishni, har bir dalilni asoslashni o'rgatuvchi qudratli vositadir.

Bugungi raqamli davrda esa biologik tajribalarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish ilmiy dunyoqarashni yanada chuqurroq shakllantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar yoki mikroskopik suratlar orqali o'tkazilgan tajribalar o'quvchida nafaqat bilimga, balki fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biologik tajribalarni o'quv jarayoniga sistematik va metodik jihatdan puxta integratsiya qilish orqali biz o'quvchilarni nafaqat bilimdon, balki mustaqil fikrlovchi, ilmiy asosda qaror chiqaruvchi, ekologik madaniyatga ega va tabiatga mas'uliyat bilan yondashadigan zamonaviy shaxslar sifatida shakllantirishga erishamiz. Shuning uchun ham biologik tajribalar nafaqat darsning estetik yoki qiziqarli elementi, balki ta'lim va tarbiyaning fundamental asosi sifatida qaralishi zarur. O'quvchi tajriba davomida o'zini kichik olim sifatida his qilsa, demak u kelajakda fan bilan jiddiy shug'ullanishga bir qadam yaqinlashgan bo'ladi. Ana shunday yondashuvgina bizga haqiqiy ilmiy dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avezova I.U., Xodjiyeva N.I., Rustamova S.I. (2022). Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION.
2. Tolipova J., Ofurov A.G. (2020). Biologiya o'qitish metodikasi. Ziyouz.com.
3. Rahmatova G. (2021). "Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o'qitish metodikasi". "Pedagogik ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.
4. Sulliyeva S.X. (2023). Biologiyani o'qitishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va ta'lim – tarbiya masalalari. S

**NUTQ USLUBLARI: NAZARIY ASOSLARI VA
AMALIY QO'LLANISHI****ATAXANOVA KOMILA G'AYRAT QIZI,**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi,

E-mail:komilaataxanova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq uslublarining nazariy asoslari, ularning til tizimidagi o'rni, funksional xususiyatlari va amaliy qo'llanish doiralari yoritilgan. Shuningdek, nutq uslublarining o'zaro farqlari, stilistik birliklar, kommunikativ maqsad va kontekstga qarab tanlanishi haqida fikr yuritiladi. Uslubshunoslik va funksional stilistika nuqtai nazaridan nutq uslublarining amaliy tahlili asosida o'quv jarayonida va matn yaratuvchilik faoliyatida qanday qo'llanishi, muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq uslublari, uslubshunoslik, og'zaki va yozma nutq, kommunikativ vazifa, amaliy tilshunoslik, nutq madaniyati, matn tahlili, til vositalari, uslubiy birliklar, til me'yorlari.

Abstract. This article covers the theoretical foundations of speech styles, their role in the language system, functional features and circles of practical application. It is also thought that speech styles are chosen according to their mutual differences, stylistic units, communicative purpose and context. Based on the practical analysis of speech styles from the point of view of methodological and functional Stylistics, it is analyzed on the basis of scientific literature how it is used, plays an important role in the educational process and in text-making activities.

Keywords: speech styles, methodological, oral and written speech, communicative task, applied linguistics, speech culture, text analysis, language tools, methodological units, language norms.

Til jamiyatdagi asosiy muloqot vositasi sifatida turli vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan u muayyan sharoitlarda turli uslublarda qo'llaniladi. Nutq uslublarining o'rganilishi tilshunoslikning muhim bo'limi hisoblanib, ular tilning ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisasi bo'lib, insonlar o'rtasida aloqa vositasi sifatida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu aloqa shakllari turli uslubiy vositalar bilan boyitilib, ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi. Nutq uslublarining o'rganilishi uslubshunoslik va funksional stilistika doirasida muhim o'rin egallaydi.

Nutq uslubi – tilning ijtimoiy faoliyat jarayonida qo'llanish shaklidir. Olimlar ta'kidlashicha, nutq uslubi tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlarini muayyan kommunikativ vazifaga mos ravishda tanlab qo'llash asosida shakllanadi. Shuningdek, nutq uslublari o'ziga xos qonuniyatlar asosida shakllanib, tilning turli vazifalarini namoyon etadi. Masalan, ilmiy uslubda mantiqiylik va aniqlik ustun bo'lsa, badiiy uslubda obrazlilik va emotsionallik yetakchi hisoblanadi.

Tilshunoslikda an'anaviy ravishda quyidagi uslublar farqlanadi:

- Suhbat (so'zlashuv) uslubi – kundalik muloqotda ishlatiladi, erkin va sodda.
2. Ilmiy uslub – aniq, lo'nda va mantiqiy. Ilmiy matnlar va tadqiqotlarda qo'llanadi.
 3. Rasmiy-idoraviy uslub – qonunlar, farmonlar, hujjatlar tiliga xos.
 4. Publitsistik uslub – ommaga ta'sir qilish, ijtimoiy fikrni shakllantirishda qo'llaniladi.
 5. Badiiy uslub – adabiyot va san'at asarlariga xos bo'lib, obrazlilik va estetik ta'sir kuchiga ega.

“Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajralishidir. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar.” [1:112].

Har bir uslub jamiyatning ma'lum bir kommunikativ ehtiyojini qondiradi va shu ehtiyojga mos til vositalaridan foydalanadi. Masalan, rasmiy-idoraviy uslubda standart va aniq ifodalar talab qilinadi, publitsistik uslub esa ko'proq ta'sirchanlik va emotsional boylikka ega bo'ladi.

Nutq uslublarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati jamiyatdagi turli sohalarda o'z vazifasini bajaradi. Masalan, ilmiy uslub – fan va texnologiyaning rivojlanishini ta'minlasa, publitsistik uslub – keng jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy-idoraviy uslub – davlat boshqaruvi uchun zarur, badiiy uslub esa inson estetik dunyoqarashini shakllantiradi.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida nutq uslublarining yangi ko'rinishlari, jumladan, raqamli kommunikatsiya, ommaviy axborot diskursi kabi sohalarda qo'llanilishi ham ilmiy tahlil etilmoqda. Bu esa tilning zamonaviy taraqqiyotini aks ettiradi. Publitsistik uslubda ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirish, tinglovchi yoki o'quvchini fikrlantirish, qiziqtirish va harakatga undash maqsadi kuzatiladi. [2:45].

Shuningdek, nutq uslublarining to'g'ri qo'llanilishi shaxsning nutqiy madaniyatini belgilaydi. Bugungi globallashtirish sharoitida turli uslublardan samarali foydalanish nafaqat tilshunolar, balki pedagoglar, jurnalistlar va adabiyot vakillari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Nutq uslublari o'rganishning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida davlat tilining mavqei ortib borayotgan bugungi kunda nutq uslublari o'rganish yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Til siyosati, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarida nutq uslublari to'g'ri foydalanish milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Xususan, nutq uslublari ilmiy va rasmiy ko'rinishlari hujjat yuritishda, ilmiy faoliyatda beqiyos ahamiyat kasb etsa, badiiy va publitsistik uslublari jamiyat ongini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv jarayonida nutq uslublari to'g'ri qo'llay olish nafaqat shaxsiy nutq madaniyatini, balki jamiyatning til siyosati darajasini ham belgilaydi. O'zbek tili uslublari zamonaviy talqini fan, madaniyat texnologiya rivojida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tilshunoslikda nutq uslublari "kognitiv", "pragmatic", "gender", "kommunikativ" yondashuvlar orqali qaralmoqda. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarda nutq uslublari yangi shakllari vujudga kelmoqda — bu "internet diskursi" yoki "raqamli stilistika" deb atalmoqda.

Nutq uslublari tilning ijtimoiy hayotdagi barcha sohalarida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ularning o'rinli qo'llanishi nafaqat shaxsning nutqiy madaniyatini, balki jamiyatning madaniy saviyasini ham belgilaydi. Shu bois, nutq uslublari ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash dolzarb masaladir. Nutq uslublari tilda muloqot qilishning asosiy funksional shakllari bo'lib, ularning o'rganilishi lingvistik, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni chuqur anglashga yordam beradi. Uslublarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish til madaniyati, matn tahlili, pedagogika, jurnalistika, adabiyotshunoslik kabi sohalarida dolzarb masala sanaladi.

Uslublari o'z funksiyasiga ko'ra farqlanadi: ilmiy uslub — axborotni aniq, asosli yetkazish; badiiy uslub — estetik ifoda; rasmiy uslub — normativlik va an'ana; publitsistik uslub — ommaga murojaat qilish; so'zlashuv uslubi esa — og'zaki, norasmiy aloqa uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtiyorov. B. Nutq uslublari va ularning lingvistik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.- 112 b.
2. Jo'rayev. M. ("O'zbek tilida uslubiy xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari. Tilshunoslik jurnali, 7(3) 2018, 45-57.
3. Abdullayev. A. Tilshunoslik va nutq madaniyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
4. Karimova. D. Zamonaviy o'zbek adabiy tili. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 33-36.

5. Sodiqov. T. O'zbek tili uslubiyati. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019.

CHET TILLARINI BILISH — ONA TILINI UNUTMASLIK**AVLIYOQULIYEVA SHAXRIZODA MUROD QIZI**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish

sirtqi ta'lim 4-kurs talabasi

shaxrizoda.avliyoquliyeva@mail.ru

Annotatsiya; Maqolada chet tillarini o'rganishning ahamiyati hamda ularning zamonaviy inson rivojlanishiga ta'siri haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, boshqa tillarni o'rganish jarayonida ona tilining qadriyatini asrab-avaylash zarurligi ta'kidlanadi. Tilning milliy o'zlikni saqlab qolishdagi o'rni madaniy va intellektual taraqqiyot uchun muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, ona tili, chet tili, milliy o'zlik, tafakkur.

Аннотация. В статье рассматривается важность изучения иностранных языков и их влияние на современное развитие человечества. Также подчёркивается необходимость сохранения ценности родного языка в процессе изучения других языков. Показана роль языка в сохранении национальной идентичности как важного фактора культурного и интеллектуального развития.

Ключевые слова: язык, культура, родной язык, иностранный язык, национальная идентичность, мышление.

Annotation: The article discusses the importance of learning foreign languages and their impact on modern human development. It emphasizes the need to preserve the value of the mother tongue while mastering other languages, as maintaining linguistic identity plays a crucial role in cultural and intellectual growth.

Keywords: language, culture, mother tongue, foreign language, identity, intellect.

Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishning ahamiyati, zamonaviy jamiyatda xorijiy tillarni bilishning inson tafakkuri va imkoniyatlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, chet tillarini o'rganish jarayonida ona tilining qadri va ahamiyatini unutmaslik, milliy o'zlikni asrab qolish zarurligi haqida fikr yuritiladi. Muallif ona tili va chet tillari o'rtasidagi uyg'unlik insonning intellektual rivoji uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Bugungi globallashuv asrida chet tillarini o'rganish inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Xorijiy tillarni bilish nafaqat muloqot vositasi, balki dunyoqarashni kengaytiruvchi, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlovchi muhim omildir. Shu bilan birga, chet tillarini o'rganish jarayonida ona tilini e'tibordan chetda qoldirmaslik masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, ona tili —

xalqning ma'naviy ildizi, tafakkuri va milliy o'zligini ifodalaydigan eng muhim qadriyatlardan biridir. Ona tili insonning ilk dunyoqarashini shakllantiradi. Bola hayotga kirib kelgan paytdan boshlab, dunyoni ona tili orqali anglaydi. Shu sababli ona tilining qadri har qanday chet tilidan ustun turadi. Til — bu xalqning ruhi, madaniyati va tarixining tirik timsolidir. Chet tillarini o'rganish esa, bugungi kunda ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyotning rivojlanishida zarur vositaga aylangan. Masalan, ingliz tili xalqaro muloqot, ilmiy maqolalar va texnologik yangiliklarning asosiy tili bo'lib, har bir sohada ustun mavqega ega. Ammo chet tillarini bilish bilan birga, o'z ona tilimizni unutmaslik, unga bo'lgan mehrni yanada kuchaytirish zarurdir. Yosh avlod chet tillarini o'rganish jarayonida o'z ona tilini ikkinchi darajali til sifatida ko'rmasligi kerak. Aksincha, o'z ona tilini chuqur bilgan inson chet tillarini ham osonroq o'zlashtiradi. Tilshunos olimlarning fikricha, ona tilidagi tafakkur mustahkam bo'lmasa, chet tillarini o'rganish jarayoni ham yuzaki bo'ladi. Ona tiliga hurmat — milliy g'urur, madaniyat va tarixga sadoqat belgisi hisoblanadi. Chet tillarini o'rganish inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoqarashni boyitadi, lekin bu jarayonda ona tilining qadri va go'zalligini yo'qotish eng katta xatodir. Bugungi kunda ko'plab yoshlar xorijiy tilda so'zlashishni maqtanchoqlik deb biladi, o'z tilida esa soflikni unutmoqda. Bu esa millatning ma'naviy ildizlariga putur yetkazadi. Shu bois maktab, kollej va oliy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish bilan bir qatorda ona tili darslariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Chet tillarini bilish — bu nafaqat boshqa millatlarning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini anglash imkonini beruvchi kalit, balki inson tafakkurini kengaytiradigan, yangi g'oyalar, ilmiy yutuqlar va zamonaviy texnologiyalar sari yo'l ochadigan beqiyos boylikdir. Bugungi globallashtirish davrida bir necha tilni bilgan inson har qanday jamiyatda o'z o'rnini topa oladi, chunki til — bu muloqot, hamkorlik va taraqqiyotning eng muhim ko'prigidir. Shu bois, chet tillarini o'rganish shaxsiy muvaffaqiyat, mamlakat taraqqiyoti va xalqaro nufuzni mustahkamlash yo'lida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini bilish bugungi globallashtirish va axborot asrida inson uchun eng zarur ehtiyojlardan biriga aylangan. Chunki til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, madaniyat va millatning ruhiy boyligini ifodalovchi eng muhim unsurdir. Har bir inson chet tillarini o'rganish orqali dunyoqarashini kengaytiradi, boshqa xalqlarning madaniyatiga, qadriyatlariga va turmush tarziga hurmat bilan qarashni o'rganadi. Shu bilan birga, til bilish ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, diplomatiya va ta'lim sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'zlashtirish yoshlar uchun shunchaki moda emas, balki hayotiy zaruratga aylangan. Chunki dunyo bo'ylab olib borilayotgan ilmiy

izlanishlar, zamonaviy dasturlar, kitoblar va manbalar asosan chet tillarida yaratiladi. Demak, chet tilini bilgan inson ularning barchasidan bevosita foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, til o'rganish insonni sabr-toqatli, izchil va mehnatsevar bo'lishga o'rgatadi, mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi hamda o'z fikrini ravon ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, chet tillarini mukammal bilish o'z ona tilimizni chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi. Chunki boshqa tillar bilan taqqoslash jarayonida inson o'z tilining boyligini, ohangdorligini va ifoda imkoniyatlarini yanada chuqur his qiladi. Til o'rganish – bu millatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash, insoniyatni birlashtiruvchi eng go'zal vositalardan biridir. Shu bois, har bir yosh o'z kelajagini mustahkamlash, ilm-fan sari intilish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun kamida bir nechta chet tilini puxta o'rganishga intilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini bilish — bugungi zamon talabi. Ammo o'z ona tilimizni e'zozlash, uni sevish va asrash bizning milliy burchimizdir. Chet tillarini bilgan inson ko'p eshiklarni ochadi, lekin ona tilini unutgan inson o'z ildizini yo'qotadi. Har bir yosh o'z ona tilini mukammal bilgan holda, boshqa tillarni o'rganishga intilsa, nafaqat o'z shaxsiy, balki milliy taraqqiyotga ham hissa qo'shadi. Demak, chet tillarini bilish — bu ona tilini unutish emas, balki uni yanada yuksak qadrlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: 1913.
2. Navoiy, A. *Mahbub ul-qulub*. — Toshkent: Fan, 1968.
3. Normatov, U. *Adabiyot va ma'naviyat*. — Toshkent: Ma'naviyat, 1974.
4. Sharafiddinov, O. *Ijod va tafakkur*. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.
5. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Scientific Progress Journal. Vol. 4, Issue 2. — 2022.
7. Ziyouz.com — Ilm-fan va ta'limga oid maqolalar to'plami.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-6108-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabr.

**O'ZBEKISTONNING TURIZM OBYEKTLARIDA ESKI O'ZBEK
YOZUVINING TADQIQOTI VA TAHLILI**
(Study and Analysis of the Old Uzbek Script in Tourism Sites of Uzbekistan
Исследование и анализ древнеузбекской письменности в
туристических объектах Узбекистана)

AYTMURATOVA GULJAYNA BAHADIR QIZI,

Chirchiq davlat universiteti Turizm fakulteti,
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
aytmuratovaguljayna1601@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning turizm obyektlarida uchraydigan eski o'zbek yozuvlari — epigrafik yodgorliklar, masjid va maqbaralardagi yozma naqshlar, toshbitik va xattotlik namunalari tahlil qilinadi. Eski o'zbek yozuvining tarixiy ildizlari, diniy va madaniy mazmuni, Qur'on oyatlari hamda hadislar asosida talqin etilishi yoritiladi. Tadqiqotda yozuvlarning turistik ahamiyati, ularni madaniy meros sifatida targ'ib qilish yo'llari ham ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: eski o'zbek yozuvi, epigrafika, turizm, madaniy meros, Qur'on oyatlari, hadis, xattotlik, lingvoturizm.

Аннотация: В статье рассматриваются древнеузбекские письменные памятники, встречающиеся в туристических объектах Узбекистана — надписи на мечетях и мавзолеях, образцы каллиграфии и эпиграфические тексты. Анализируется их историко-культурное значение, религиозное содержание на основе аятов Корана и хадисов. Показана роль староузбекской письменности в развитии культурного туризма и сохранении духовного наследия страны.

Ключевые слова: древнеузбекская письменность, эпиграфика, туризм, культурное наследие, каллиграфия, исламская культура.

Annotation: This article analyzes the old Uzbek script inscriptions found in Uzbekistan's tourist sites — including mosques, mausoleums, and epigraphic monuments. The research highlights the historical, linguistic, and cultural aspects of these inscriptions, many of which contain Quranic verses and Hadith references. The study also explores how these inscriptions can enhance Uzbekistan's cultural and religious tourism potential.

Keywords: Old Uzbek script, epigraphy, cultural tourism, Islamic calligraphy, heritage, Quranic inscriptions.

O'zbekiston dunyo sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida nafaqat boy tarixiy merosi, balki o'ziga xos yozma madaniyati bilan ham ajralib turadi. Tarixiy obidalaridagi yozuvlar — bu xalqning ruhiy olami, e'tiqodi, estetik qarashlari va til taraqqiyotining bevosita guvohidir¹. Bugungi kunda turizm sohasida ushbu yozuvlarni o'rganish va targ'ib qilish “lingvoturizm” yo'nalishining muhim qismini tashkil etmoqda. Chunki yozuvlar nafaqat diniy yoki tarixiy ahamiyatga, balki turistik brend sifatida ham katta qimmatga ega.³⁰

Eski o'zbek yozuvining tarixiy ildizlari va diniy asoslari

Eski o'zbek yozuvi arab alifbosiga asoslangan bo'lib, IX–XII asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda keng tarqalgan³¹ Ushbu yozuv orqali yaratilgan diniy, ilmiy, tarixiy asarlar o'zbek tili taraqqiyotining poydevorini tashkil etgan. Qur'onda “Qalam bilan yozishni o'rgatgan Zot” (Al-‘Alaq, 4-oyat) deb ta'kidlanadi — bu yozuvning ilohiy qadriyat sifatidagi o'rnini ko'rsatadi.

Hadislarda ham ilmni yozma shaklda saqlashning fazilati ko'p bor ta'kidlanadi: “Ilmni yozish orqali uni asranglar” (Imom Termiziy rivoyati). Shu bois eski o'zbek yozuvi diniy, madaniy va ilmiy tafakkurda muhim o'rin tutgan. Yozuvdagi har bir kalima insonni ilohiy haqiqatga yetaklovchi ma'naviy manba bo'lgan. Bu yozuvning rivojida Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi allomalarning asarlari muhim o'rin tutgan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, eski o'zbek yozuvi fonetik jihatdan arab tili tovush tizimiga moslashtirilgan, biroq unda turkiy tovushlarning ifodasi uchun qo'shimcha belgilar joriy etilgan (masalan, “g”, “ng”, “o”).

Arab yozuvining o'zbek tilida qabul qilinishi Qur'on oyatlarining yurtimizda keng o'qilishi bilan chambarchas bog'liq. Qur'oni karimda:

"Iqra' bismi rabbika allazī xalaq" — “Yaratuvching nomi bilan o'qi!” (Al-‘Alaq, 96:1).

Bu oyat yozuv madaniyatining muqaddas asosini belgilab beradi. Shu bois yozuv islomiy ilmlarning asosiy vositasiga aylangan.

O'zbekistonning turistik markazlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent) eski o'zbek yozuvi saqlanib qolgan epigrafik yodgorliklar ko'p uchraydi.

Masalan:

³⁰ Fitrat A. Til va madaniyat haqida maqolalar to'plami. — Toshkent, 1927.17-b.

³¹ Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongol'skogo nashestviya. — M., 1963. 63-78-b

Registon majmuasi peshtog'ida "Ilm izlash har bir musulmonga farzdir" mazmunidagi hadis yozilgan. Bu yozuv turizm obyekti ziyoratgoh sifatida ham, ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida ham qadrlanishiga sabab bo'ladi.

Buxorodagi Mir Arab madrasasi peshtog'idagi yozuvda Qur'on oyatlari bilan bir qatorda, arabiy xattotlikning "suls" uslubi namoyon bo'lgan. Bu yozuvlarda "ilm", "nur", "haq" kabi so'zlar eski o'zbek tili fonetik shaklida yozilgan.

Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi yozuvlari ham o'zbek tilidagi so'zlarning arabcha yozuv orqali ifodasini saqlab qolgan.

Ushbu yozuvlarning madaniy-tarixiy ahamiyati shundaki, ular ziyoratchilarda diniy zavq bilan bir qatorda milliy o'zlikni anglash hissini uyg'otadi. Shuningdek, xorijiy turistlar uchun epigrafik yozuvlar o'ziga xos "tirik muzey" vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda madaniy turizm va lingvoturizm konsepsiyalarini rivojlantirishda eski o'zbek yozuvini ilmiy asosda o'rganish va targ'ib qilish muhim.

Turizm obyektlarida yozuvlarning tarjimalari, elektron kataloglari, QR-kod tizimlari orqali ma'lumot berish turistlarning qiziqishini oshiradi.

Masalan, "Samarqand yozuvlari elektron atlas" loyihasi doirasida eski o'zbek yozuvlari raqamlashtirilib, turistlar uchun interaktiv shaklda taqdim etilmoqda.

Bu yo'nalishda O'zbekiston Turizm qo'mitasi, Imom Buxoriy xalqaro markazi va Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda ilmiy-turistik dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Hadisda aytilgan: "Ilmni Chin diyorigacha bo'lsa ham izlab boringlar" — bu hikmat bugungi turizmni ilmiy-ma'naviy yo'nalishda rivojlantirishga ilhom beradi.

O'zbekiston turizm obyektlarida yozuv namunalarining tahlili

O'zbekistonning yirik turizm shaharlarida — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda — ko'plab epigrafik yozuvlar saqlanib qolgan. Ularning asosiy qismini Qur'on oyatlari, hadislar, shohlar nomlari, duo va hikmatli so'zlar tashkil etadi³².

Samarqanddagi Registon majmuasidagi Ulug'bek madrasasi peshtoqida yozilgan "Ilm olish har bir musulmonga farzdir" hadisi nafaqat diniy, balki ma'rifiy mazmun kasb etadi. Bu yozuvlar turistlarga o'sha davrda ilm va e'tiqod qanday uyg'un bo'lganini anglatadi.

Buxorodagi Mir Arab madrasasida "Alloh sabr qilganlarni sevadi" (Baqara surasi, 153-oyat) yozuvi uchraydi. Ushbu oyat sabr va iymonning timsoli sifatida, madrasaning ruhiy muhitini belgilab beradi.

Xivada esa Ichan-Qal'a devorlarida arab alifbosidagi eski o'zbek yozuvlari ko'p. Ayniqsa, "Qozi Kalon" madrasasidagi "Haq yo'lida xizmat qilganlarga jannat bo'lur"

³² Karimov S. O'zbek epigrafik merosi: yozuvlar va ularning tili. — Toshkent: Fan, 2011.

iborasi xalq orasida mashhur. Bu yozuvlar turistlar uchun nafaqat diniy, balki axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan madaniy meros sifatida namoyon bo'ladi.

Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi devorlaridagi yozuvlarda esa Qur'on oyatlari bilan birga o'sha davrda ishlatilgan fonetik shakllar — masalan, “rahmatlik” o'rniga “rahmatluk” kabi shakllar — eski o'zbek tili xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu holat tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli.

Eski yozuvlarning madaniy va turistik ahamiyati

Eski o'zbek yozuvlari bugungi turizm sohasida ikki yo'nalishda qimmatga ega: madaniy meros sifatida saqlash va turistik brend sifatida targ'ib etish.

Turizm obyektlarida yozuvlarning mavjudligi nafaqat tarixiy muhitni boyitadi, balki turistlarga diniy-ma'naviy tajriba ham beradi. Qur'onda: “Ular yerdagi yodgorliklarga qarab, ulardan ibrat oladilarmi?” (G'ofir, 21-oyat) — deyiladi. Shu oyat asosida yozuvlarning turizmga ibrat vositasi sifatidagi o'rni yanada teranlashadi³³

Masalan, Xivada arab yozuvli devor bezaklarini zamonaviy gidlar sayohatlar davomida tahlil qilib, sayyohlarga ma'naviy va lingvistik izohlar berishmoqda. Bu “lingvoturizm”ning real shakli bo'lib, yozuv orqali til, din va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni targ'ib qiladi.

Samarqanddagi yozuvlarni UNESCO va O'zbekiston Madaniyat vazirligi qo'shma loyihalari orqali saqlash va raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu esa yozuvlarni madaniy diplomatiya vositasi sifatida namoyish etish imkonini beradi.

O'zbekistonning turizm obyektlarida uchraydigan eski o'zbek yozuvlari xalqimizning madaniy xotirasi, diniy e'tiqodi va til taraqqiyotining muhim guvohidir. Ularni o'rganish nafaqat tarixchi va tilshunoslar, balki turizm mutaxassisleri uchun ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Yozuvlar orqali diniy g'oyalar, estetik qarashlar, til o'zgarishlari va ma'naviy qadriyatlar turistlarga yetkaziladi. Shu bois epigrafik merosni o'rganish va targ'ib etish madaniy turizmning muhim tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. Til va madaniyat haqida maqolalar to'plami. — Toshkent, 1927.
2. Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongol'skogo nashestviya. — Moskva, 1963.
3. Karimov S. O'zbek epigrafik merosi: yozuvlar va ularning tili. — Toshkent: Fan, 2011.
4. Mirzaev N. Turizm va madaniyat aloqalari tarixidan. — Toshkent, 2018.

³³ Mirzaev N. Turizm va madaniyat aloqalari tarixidan. — Toshkent, 2018.

5. Qur'oni Karim. Al-'Alaq, Baqara, G'ofir suralaridan oyatlar.
6. Termiziy. Jome' as-Sahih. — Toshkent: Imom Buxoriy nashriyoti, 2005.

THE BENEFITS AND CHALLENGES OF LEARNING A SECOND LANGUAGE.

AZIMOVA GULYUZ NOZIMJON QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti XTA 23.6-guruh

Ilmiy rahbar: Xushbokov Oybek Uralovich

Turizm fakulteti Nemis tili kafedrası katta o'qituvchisi

Abstract: This article explores the benefits and challenges of learning a second language. Acquiring another language broadens one's horizons, provides access to new cultures, and opens doors to academic and professional opportunities. However, the process is not always easy. Learners often face difficulties with grammar rules, pronunciation, and vocabulary expansion. In addition, lack of motivation and limited time can slow down progress. The article compares both sides of language learning its advantages and struggles and offers practical suggestions for more effective learning.

Keywords: Second language, language learning, benefits and challenges, motivation, grammar, pronunciation, learning more, culture, learning strategies

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества и трудности изучения второго языка. Владение другим языком расширяет кругозор, обеспечивает доступ к новым культурам и открывает двери к академическим и профессиональным возможностям. Однако этот процесс не всегда является лёгким. Обучающиеся часто сталкиваются с трудностями в освоении грамматических правил, произношения и пополнения словарного запаса. Кроме того, недостаток мотивации и нехватка времени могут замедлить прогресс. В статье сопоставляются обе стороны изучения языка — его преимущества и трудности, а также предлагаются практические рекомендации для более эффективного обучения.

Ключевые слов: Второй язык, изучение языка, преимущества и трудности, мотивация, грамматика, произношение, изучение большего, культура, стратегии обучения.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi tilni o'rganishning afzalliklari va qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi. Yangi tilni egallash insonning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi madaniyatlarni o'rganishga yordam beradi hamda ta'lim va kasbiy sohada keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq bu jarayon har doim ham oson kechmaydi. O'quvchilar ko'pincha grammatik qoidalarni o'zlashtirish, talaffuzni

to'g'rilash va so'z boyligini kengaytirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuningdek, motivatsiya yetishmasligi va vaqt tanqisligi ham jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Maqolada til o'rganishning ikki tomoni afzalliklari va qiyinchiliklari solishtirilib, samarali o'rganish uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi til, til o'rganish, foyda va qiyinchiliklar, motivatsiya, grammatika, talaffuz, ko'proq o'rganish, madaniyat, o'qitish strategiyalari.

In today's globalized world, learning a second language plays a vital role in both personal and professional growth. Mastering another language is not simply about memorizing words or rules; it is a journey that broadens one's horizons, develops critical thinking, and provides access to new cultures and communities. As the famous saying goes, "A new language means a new world." Indeed, by learning a second language, individuals can view the world from a different perspective, communicate with people across borders, and take advantage of academic and career opportunities that would otherwise remain out of reach.

President Shavkat Mirziyoyev stated: "In our schools, special attention is being paid to teaching the native language and literature in depth. In order to provide our children with quality education in foreign languages, we are inviting native speakers. School students are being provided with modern textbooks prepared on the basis of the world's best practices".

The Benefits of Learning a Second Language. Learning a second language has become one of the most valuable skills in the modern world. In today's globalized society, knowledge of more than one language not only opens doors to communication but also contributes to personal, academic, and professional development.

Cognitive Benefits. Research has shown that bilingual individuals often demonstrate stronger memory, problem-solving, and multitasking skills. According to a study by the American Council on the Teaching of Foreign Languages (ACTFL), learning another language can improve brain function and even delay age-related cognitive decline.

Academic and Career Opportunities. Mastering a second language provides access to higher education abroad and increases employability. In the labor market, bilingual professionals are often preferred, as they can work with international partners and adapt more easily to diverse environments. A report by Forbes highlights that employees with language skills can earn up to 20% more than their monolingual peers.

Beyond the basics: Extra Advantage of Language Learning.

Problem-solving skills – Learning a second language makes the brain more active and helps to find solutions faster.

Multitasking ability – Language learners practice focusing on different things at the same time, which is useful in daily life.

Creativity development – A new language introduces word plays, idioms, and cultural expressions that improve creativity.

Social and professional connections – Knowing another language helps people make friends, partners, and professional contacts from other countries.

Global citizenship – Language learning broadens one's worldview and makes people more aware of global issues.

Cultural Awareness and Global Connection

Knowing another language allows people to explore new cultures, traditions, and ways of thinking. It develops tolerance, empathy, and a deeper understanding of the world. As **President Shavkat Mirziyoyev** emphasized: "Knowledge of foreign languages is the key to opening the doors of the modern world, to connecting with global science, culture, and development."

Personal Growth

Beyond practical advantages, learning a second language boosts confidence and motivation. It encourages lifelong learning and provides a sense of achievement.

Challenges of Learning a Second Language and Possible Solutions. While learning a second language brings many advantages, it is also accompanied by several difficulties that learners must overcome. One of the main challenges is lack of motivation and consistency. Many students start with enthusiasm but lose interest when they face slow progress. To address this, setting clear goals and celebrating small achievements can help maintain motivation.

Another common difficulty is the limited practice environment. In places where the target language is not spoken daily, learners may find it hard to use the language in real situations. A practical solution is to engage with online platforms, join language exchange programs, or immerse in authentic materials such as books, films, and podcasts.

Pronunciation and grammar also pose challenges, especially when learners struggle with sounds that do not exist in their native language or complex grammatical structures. Regular listening, speaking practice, and constructive feedback from teachers or native speakers can significantly reduce these problems.

In addition, many learners suffer from the fear of making mistakes, which prevents them from speaking freely. This barrier can be solved by adopting a growth mindset, where mistakes are seen as opportunities to learn rather than failures.

Finally, time constraints often hinder learners, especially those balancing studies, work, or family responsibilities. Instead of long and irregular study sessions, short but consistent practice each day (15–20 minutes) has proven to be more effective.

Learning a second language becomes much easier when learners use simple but effective methods. One of the most useful ways is creating a natural environment for the language. Instead of studying only from textbooks, it is better to listen to songs, watch movies, or read short stories in the target language. This helps the brain to connect words with real situations. Another important method is daily practice. Even 15 minutes of regular speaking or writing every day is more effective than long but rare study sessions. Learners should also remember that mistakes are part of progress. As Brown (2007) notes, treating mistakes as opportunities to learn makes the process less stressful and more motivating. Finally, combining reading, writing, listening, and speaking together develops language skills more naturally and helps learners achieve success step by step.

Global statistics also show that adults are becoming more interested in learning new languages through online platforms. Between 2015 and 2023, the number of users on language learning apps such as Duolingo and Babbel grew by over 200%. This proves that technology has made language learning more accessible.

Although progress differs by country, overall, the trend shows improvement. Each year, more people gain opportunities to study abroad, work internationally, and communicate across cultures. This demonstrates that the global interest in learning a second language is not only growing but also becoming a vital part of education and career development.

To finish, I can say that learning a second language is not always easy, but it is very useful. It helps us to see new worlds, meet new people, and get better chances in study and work. Of course, there are problems like grammar, pronunciation, or lack of practice, but with patience and small steps we can overcome them. Every new word we learn brings us closer to success. A new language is like a new door that opens in our life.

References:

1. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press.

2. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
4. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
5. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/136104-shavkat-mirziyoyev-yangi-ozbekistonni-barpo-etishdagi-asosiy-5-ta-yonalish-haqida-gapirdi.html>
6. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

BIOLOGIYA DARSLARIDA “KLASTER” VA “AQLIY HUJUM” USULLARIDAN FOYDALANISH

BAYTILESOVA QUNDUZ

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanida o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va faollashtirish maqsadida “klaster” va “aqliy hujum” interfaol ta'lim usullarining ahamiyati va qo'llanilishi tahlil qilinadi. Klaster usuli yordamida o'quvchilar mavzuni tasniflash, bog'lanishlarni aniqlash orqali mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, aqliy hujum esa turli fikrlarni erkin va tez almashishga imkon berib, ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi. Maqola ta'lim jarayonida ushbu usullarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati va bilim darajasini oshirish yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'lim usullari, klaster usuli, aqliy hujum usuli, interfaol metodlar, bilim faollashtirish, o'quvchilarning tanqidi fikrlashi, samarali ta'lim.

Abstract: This article analyzes the importance and application of the interactive teaching methods “cluster” and “brainstorming” in order to deepen and activate students' knowledge in biology. Using the cluster method, students develop independent thinking by classifying the topic and identifying connections, while brainstorming allows for the free and rapid exchange of different ideas and encourages a creative approach. The article shows ways to increase students' critical thinking skills and knowledge level by effectively using these methods in the educational process.

Keywords: teaching methods, cluster method, brainstorming method, interactive methods, knowledge activation, students' critical thinking, effective education.

Аннотация: В данной статье анализируется значение и применение интерактивных методов обучения «кластер» и «мозговой штурм» для углубления и активизации знаний учащихся по биологии. Кластерный метод развивает самостоятельность мышления учащихся, классифицируя темы и выявляя взаимосвязи, а мозговой штурм способствует свободному и быстрому обмену идеями и стимулирует творческий подход. В статье показаны способы

повышения уровня критического мышления и знаний учащихся путем эффективного использования этих методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: методы обучения, кластерный метод, метод мозгового штурма, интерактивные методы, активация знаний, критическое мышление учащихся, эффективное обучение.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ta'lim muassasalarida ayniqsa "klaster" usuli katta ahamiyat kasb etib, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, tizimli ravishda tashkil etishda muhim vosita sifatida foydalanilmoqda. Ushbu usul yordamida dars jarayonini oqilona tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'quv materialini kichik, ma'noli bo'laklarga bo'lib, ularni aniq va samarali tarzda o'rganishga imkon yaratish mumkin.

Bundan tashqari, "Aqliy hujum", kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyiha ishlari va rolli o'yinlar kabi interfaol metodlar darslarda keng qo'llanilib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar yordamida o'quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'zaro muloqotda bo'lib, fikr almashish va bahs-munozarada hamjihatlik bilan muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada ta'lim jarayoni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali bo'ladi.

Klaster usulining eng katta afzalligi — talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi va ularni hayotda erkin faoliyat yuritishga tayyorlashidir. Ushbu metodni tanlashda ta'limning maqsadi, o'quvchilar soni va ularning imkoniyatlari, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, ta'limning davomiyligi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati kabi omillar e'tiborga olinadi[1].

Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri – qisqa vaqt ichida ortiqcha kuch sarflamasdan, o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag'batlantirish orqali yuqori natijalarga erishishdir. Shu sababli, dunyo bo'yicha ta'lim sohasida yetakchi mamlakatlarning ilg'or tajribalariga murojaat qilgan holda, eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar — xususan, klaster metodini joriy etish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga va ularni kelajakda iqtidorli, yetuk kadrlar sifatida yetishtirishga katta hissa qo'shmoqda.


"Aqliy hujum" metodi — bu muayyan muammo yoki mavzu yuzasidan talabalar tomonidan erkin, tezkor va faol fikr almashish orqali yechim topishga qaratilgan pedagogik usuldir.

Ushbu metod ikki asosiy shaklda qo'llaniladi: og'zaki va yozma.

Og'zaki shaklda o'qituvchi savol beradi va talabalar o'z fikrlarini qisqa, aniq va erkin tarzda og'zaki ifodalaydilar. Bu jarayon muammoni turli nuqtai nazardan ko'rishga, tezkor ijodiy fikr almashishga imkon yaratadi[2]. Yozma shaklda esa talabalar o'z javoblarini kartochkalarga yozib, maxsus doskaga joylashtiradilar. Bunday usul javoblarni guruhlash va tahlil qilishni osonlashtiradi, shuningdek, barcha fikrlar ko'rinadigan bo'lgani uchun hamma ishtirokchilarning fikri inobatga olinadi[3].

“Aqliy hujum” metodining samarali qo'llanilishi talabalarni erkin, ijodiy, nostandart fikrlashga o'rgatadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu metod o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotni kuchaytirib, dars jarayonini yanada interaktiv qiladi[4].

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi (1-rasm):



“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda dars jarayonida barcha o'quvchilar faol jalb qilinadi, bu esa ularning muloqot qilish va munozara olib borish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar nafaqat og'zaki, balki yozma ravishda ham o'z fikrlarini ifoda etish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanadi. Muhimi, bildirilgan fikrlar

baholanmasligi natijasida o'quvchilarda turli va yangi g'oyalar erkin shakllanib, ijodiy tafakkur rivojlanadi.

Bu metod o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga muvofiq turli bosqichlarda samarali qo'llanilishi mumkin:

1. Boshlang'ich bilimlarni aniqlash maqsadida – darsning kirish qismida “aqliy hujum” metodi qo'llanilib, o'quvchilarning mavzu bo'yicha oldingi bilimlari va tushunchalari aniqlanadi.

2. Mavzuni takrorlash yoki yangi mavzu bilan bog'lash zarur bo'lganda – dars davomida, yangi mavzuga o'tish oldidan, talabalar fikrlarini faollashtirish uchun foydalaniladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida – darsning yakuniy qismida, mavzuga oid bilimlarni mustahkamlash va tushunchalarni chuqurlashtirish uchun qo'llaniladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilgan holda, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi hamda ularning bilimlarini chuqurlashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biologiya darslarida “klaster” va “aqliy hujum” metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu interfaol usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Klaster metodi o'quv materialini tizimli ravishda o'rganishga yordam berar ekan, aqliy hujum esa talabalarni turli fikrlarni erkin ifoda etishga, yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Shu tariqa, ta'lim jarayoni nafaqat bilimlarni qabul qilish, balki mustaqil tahlil qilish va muammolarni hal etish jarayoniga aylanadi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi — yuqori malakali, tanqidiy fikrlovchi, ijodkor kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun pedagogik amaliyotda ushbu metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.R.Atabayeva, S.B.Shomuratova, Z.Y.Ro'zmatova, O.Y.Atajanov. Biologiya darslarida klaster metodining afzalliklari. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference 165-169-betlar.

2. Isroilov, M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullari. Toshkent: “Ta'lim” nashriyoti.

3. Kadirova, N. (2020). Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

4. Johnson, D., & Johnson, R. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn and Bacon.

O'ZBEK TILIDAGI SINONIMLARNING MA'NO VA ISHLATILISH XUSUSIYATLARI

BEKMURODOVA MEHRIBONU USMON QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Sirtqi ta'lim 4-kurs talabasi

bekmurodovamehribonu@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi sinonimlarning ma'no va ishlatilish xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda sinonimlarning semantik, uslubiy va kontekstual o'ziga xosliklari o'rganilib, ularning nutqdagi vazifasi va o'zaro farqlanishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada o'quvchilarga sinonimlarni o'rgatishda qo'llaniladigan samarali metodlar, interfaol yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari sinonimlarni o'rganish orqali o'quvchilarning leksik boyligi, ifoda aniqligi va nutq madaniyatini oshirishga yordam berishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: sinonim, leksik birlik, ma'no, uslub, kontekst, o'qitish metodikasi, interfaol usullar.

Abstract: This article analyzes the meanings and usage features of synonyms in the Uzbek language from both theoretical and practical perspectives. It examines the semantic, stylistic, and contextual peculiarities of synonyms and their role in speech. The study also highlights effective teaching methods, interactive approaches, and modern pedagogical technologies for instructing students on synonyms. The findings demonstrate that learning synonyms enhances students' lexical richness, expressive clarity, and overall language competence.

Keywords: synonym, lexical unit, meaning, style, context, teaching methodology, interactive methods.

tibbiyot va huquqshunoslik va ilohiyot,
bilan shiddat bilan o'rgandim, ular meni charchatdi";

Ushbu misoldan ko'rinib turibiki so'zma-so'z tarjima usuli Goethe kabi murakkab, she'riy, falsafiy asarlarda to'liq ruhiyat va ohangni yetkazish uchun deyarli samarali emas. Bu usul ilmiy, yuridik, texnik matnlarda aniq va to'g'ri tarjima qilish uchun foydalidir, chunki u har bir so'z ma'nosini saqlaydi. She'riy, badiiy asarlarda, ayniqsa Goethe kabi hayotiy falsafiy mazmunlari ko'p bo'lgan asarlarda erkin tarjima, ekvivalentlik yoki adaptatsiya usullari ko'proq qo'llaniladi, chunki ular tilning tabiiyligini va kitobxonga ta'sirini saqlab qolishga yordam beradi.

Tarjima amaliyotining yana bir usullaridan biri - **erkin tarjima usulidir**. O'tkan asarning o'rtalarigacha bu usulga tez-tez murojat qilingan. Bunda tarjimon asliyatning shaklini to'la e'tibordan soqit qilgan holda, mazmunini o'z so'zlari bilan sodda va qisqa tarzda bergan. Asardagi personajlar nutqini tasvirini qayta tiklashga, badiiy- tasviriy vositalar vazifalarini qayta yaratishga deyarli e'tibor qilinmagan. Ba'zan masala shu darajaga borib etardiki, tarjimonlar parchalar mazmunini, personajlar xususiyatlarini o'zlaricha o'zgartirganlar, asardagi ayrim tasvirlarni tarjimada tushirib qoldirganlar, butun boshli voqealarni o'zlaridan qo'shganlar. Hatto asardagi qahramonlar nomlarini o'z vatandoshlari nomlari bilan almashtirganlar. Oqibatda, muallif asari tanib bo'lmas darajada o'zgargan. Asarni soddalashtirilgan

va qisqartirilgan tarzda o'qigan o'zga millat kitobxoni muallif ijodi haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgan. Xulosa qilib aytganda, erkin tarjima original asarni tarjimon tomonidan badiiy yoki uslubiy o'zgarishlar bilan ifodalanishiga aytiladi. Tarjima amaliyoti rivojlanib borib, erkin tarjima usuli ham samarali tarjimalar yaratila boshlandi. Quyidagi misol orqali tahlil qilamiz

Asliyatda:

„O liebe Hand! so göttergleich!

Die Hütte wird durch dich ein Himmelreich.

Und hier!

(Er hebt einen Bettvorhang auf.)“

O'zbekcha tarjima (Erkin Vohidov, 1985):

“Нозик бармоқларинг сенинг баногоҳ

Шу оддий кулбани қилмиш саждагоҳ.

Бунда эса ...

O'zbekcha tarjimada nemischa gaplar so'zma-so'z emas, balki badiiy uslubda, she'riy tarzda ifodalangan. "O liebe Hand! so göttergleich!" — "Нозик бармоқларинг сенинг баногоҳ" deb tarjima qilingan. Bu yerda "göttergleich" (xudolar kabi) so'zining ma'nosi erkin ifodalanib, "баногоҳ" (kutilmaganda, ajoyib tarzda) bilan badiiy ravishda moslashtirilgan. "Die Hütte wird durch dich ein Himmelreich." — "Шу оддий кулбани қилмиш саждагоҳ." tarzida tarjima qilingan. Bu yerda "kulba" (kattaroq o'rniga oddiy joy), "sajdagoh" (muqaddas joy, jannat o'rniga) so'zlari orqali erkinlik bilan madaniy va badiiy moslashuv amalga oshirilgan. Tarjimada asarning hissiy-ruhiy ohangi, badiiy ifodasi, metaforik obrazlar saqlangan, lekin matn qattiq so'zma-so'zlikdan qochgan. Bu yerda Erkin Vohidov erkin tarjima usulidan foydalangan. Tarjimon faqat so'zlarning to'g'riligiga emas, balki asarning badiiy ruhiyatiga, metafora va obrazlariga, o'zbek tilining she'riy uslubiga moslashishga e'tibor qaratgan. Shu bois Erkin Vohidovning ushbu tarjimasi erkin tarjima usuliga ijobiy natijasi bo'la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda deskriptiv tahlil, qiyosiy tahlil, lingvistik-stilistik tahlil usullari qo'llanildi. Gyote asarlarining o'zbek tiliga qilgan turli tarjimalaridagi lisoniy vositalar tahlil etildi va ularda qo'llanilgan tarjima usullari (ijodiy, so'zma-so'z, erkin) ilmiy jihatdan tasniflandi. Asosiy tahlil bir nechta tildagi adabiy asarlardan tarjima qilingan misollar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Ijodiy tarjima usulida ma'no, ruh va uslubiy ko'rinishlar saqlanib, muallif niyatiga yaqin ifoda shakllantiriladi.

Soʻzma-soʻz tarjima natijasida asarning badiiyligi va ta'sirchanligi ancha susayadi, lisoniy me'yorlar buziladi.

Erkin tarjima esa koʻpincha asarning mazmunini oʻzgartirib yuboradi, bu esa muallif ijodi haqida notoʻgʻri tasavvur uygʻotishi mumkin.

Muhokama. Tarjima usullarini tanlashda tarjimonning lisoniy bilimi, madaniy intuisiyasi va ijodiy tafakkuri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli usullarning samaradorligi faqat tillar oʻrtasidagi farqlarga emas, balki matnning janri, maqsadi va maqsadli auditoriyaga ham bogʻliq. Xususan, badiiy asarlar tarjimasida ijodiy yondashuv va adaptasiya koʻproq talab etiladi. Shu bilan birga, lugʻatga bogʻliq boʻlgan soʻzma-soʻz tarjimalar faqat yordamchi vosita sifatida qaralishi kerak. Tarjima usullarini nazariy va amaliy jihatdan oʻrganish orqali nafaqat tarjimonning mahorat darajasi oshadi, balki adabiy tarjimalarning sifati ham yuqori boʻladi.

Xulosa. Tarjima usullarining toʻgʻri tanlanishi badiiy asarning mazmun va ruhini saqlagan holda, maqsadli auditoriyaga toʻgʻri etkazish imkonini beradi. Ijodiy, ekvivalentli va adaptasiya usullari asarning badiiy qiymatini saqlashda muhim rol oʻynaydi. Bu sohadagi tadqiqotlar tarjima nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati

1.Rahimov X.R. Bugungi tarjimashunoslikning dolzarb muammolari // Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari toʻplami. – Andijon, 2015. – B.38.

2.Rahimov X.R. Qiyosiy uslubiyot va uslub tarjimasini. Maʼruza tezislari // «Badiiy tarjima va oʻzbek adabiyotining xalqaro aloqalari» nomli ikkinchi respublika anjumani materiallari. – Samarqand, 1991. – B.42 – 46.

3.Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Fan, 2005

4.Umarxoʻjayev M.E. Tarjima dunyosi va uning falsafasi // Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani matreallari toʻplami. – Andijon, 2015. – B.7.

5.Egamova Ya. Uslub va badiiy tarjima // «Prof. R.Qoʻngʻurovning ilmiy merosi va oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari» mavzuidagi resp. ilmiy anjumani materiallari. – Samarqand, 2003.

O'ZBEK TILINING FONETIK TIZIMI

BUXARBOYEVA UMIDA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-kurs talabasi

buxarboyevaumida@gmail.com

Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilining fonetik tizimi, tovushlarning paydo bo'lishi, ularning o'zaro ta'siri va nutqdagi ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda fonemalar tizimi, unli va undosh tovushlarning akustik va artikulyatsion xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada tovush o'zgarishlari, urg'u, intonatsiya va ularning nutq mazmuniga ta'siri yoritiladi. Fonetika o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda talaffuz, tinglab tushunish va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: fonetika, fonema, tovush tizimi, unli, undosh, urg'u, intonatsiya, o'qitish metodikasi.

Abstract: This article analyzes the phonetic system of the Uzbek language, focusing on the origin of sounds, their interaction, and their functional role in speech from both theoretical and practical perspectives. It examines the system of phonemes, as well as the acoustic and articulatory features of vowels and consonants. The study also explores sound changes, stress, intonation, and their influence on speech meaning.

The effectiveness of using modern technologies and interactive methods in teaching phonetics is highlighted. The results confirm that mastering phonetics improves students' pronunciation, listening comprehension, and overall speech culture.

Keywords: phonetics, phoneme, sound system, vowel, consonant, stress, intonation, teaching methodology.

Аннотация: В данной статье рассматривается фонетическая система узбекского языка, происхождение звуков, их взаимодействие и функциональная роль в речи с теоретической и практической точек зрения. Анализируется система фонем, а также акустические и артикуляционные особенности гласных и согласных звуков. Особое внимание уделено изменениям звуков, ударению, интонации и их влиянию на смысл речи. В статье показана эффективность использования современных технологий и интерактивных методов при обучении фонетике. Результаты исследования подтверждают, что изучение фонетики способствует совершенствованию произношения, восприятия на слух и общей культуры речи учащихся.

Ключевые слова: фонетика, фонема, звуковая система, гласный, согласный, ударение, интонация, методика преподавания.

O'zbek tili fonetik tizimi tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri bo'lib, nutq tovushlarining tabiati, ularning paydo bo'lishi, o'zaro munosabati va nutqdagi vazifasini o'rganadi. Fonetika orqali tilning tovush jihati, talaffuz madaniyati va tovush tizimining qonuniyatlari tahlil qilinadi. Bu fan o'quvchilarning to'g'ri talaffuz, aniq nutq va eshitib tushunish qobiliyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham fonetikani o'qitish til o'rgatish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbek tilidagi tovushlar tizimi, unli va undosh fonemalarning o'zaro uyg'unligi, urg'u va intonatsiya qonuniyatlarini o'rganish orqali nutqning tabiiyligi va ifodaviyligi ta'minlanadi. Fonetika bilimlari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, to'g'ri talaffuz va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois fonetik hodisalarni chuqur o'rganish o'quvchilarda og'zaki nutqni shakllantirish va uni to'g'ri idrok etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bugungi kunda fonetikani o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, audio va video materiallar, interfaol metodlar, shuningdek, nutq sintezatorlari va talaffuz dasturlaridan foydalanish keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa o'quvchilarning tilda to'g'ri talaffuz qilish, urg'u va intonatsiyani anglash, nutq tovushlarini farqlash malakasini oshiradi. Shu sababli fonetikani o'qitishning samarali metodikasini ishlab chiqish ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot fonetika fanining asosiy tushunchalari, tovushlarning tabiati va nutqdagi o'rni hamda ularni o'qitish metodikasini tahlil qilishga bag'ishlangan. U orqali

o'quvchilarda fonetik bilimni mustahkamlash, talaffuz madaniyatini shakllantirish va og'zaki nutqni ifodali rivojlantirishning samarali yo'llari ochib beriladi.

O'zbek tilining fonetik tizimi tilning tabiiy va ifodaviy boyligini ta'minlovchi eng muhim unsurlardan biridir. Tovushlar tizimi, ularning hosil bo'lish mexanizmi, talaffuzdagi o'zgarishlar va urg'u qonuniyatlari fonetika fanining asosiy tadqiqot obyekti tashkil etadi. Fonetika nafaqat tovushlarning fizik xususiyatlarini, balki ularning nutqdagi semantik va emotsional ahamiyatini ham o'rganadi. Shu boisdan, fonetika nutqning to'g'ri, ifodali va ta'sirchan bo'lishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

1. Fonetikaning o'rni va mohiyati Fonetika — tilshunoslikning til tovushlari, ularning hosil bo'lishi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limidir. Tovushlarning artikulyatsion, akustik va funksional jihatlari fonetik tahlilning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Masalan, unli tovushlar ovoz boyligini yaratadi, undosh tovushlar esa so'zning shaklini aniqlaydi. Fonetik qonuniyatlarni o'rganish talaffuz madaniyatini shakllantirish, nutq tovushlarini to'g'ri eshitish va takrorlash ko'nikmasini rivojlantirishda muhimdir. Fonetika til tizimining barcha darajalarini — leksik, morfologik va sintaktik birliklarni to'g'ri talaffuz orqali birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Muammolar: Fonetika o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar fonetik hodisalarni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Eng ko'p uchraydigan muammo — tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va urg'uni to'g'ri qo'yishdir. Masalan, o'zbek tilidagi [o'] va [u], [q] va [k], [g'] va [g] tovushlarini farqlash ko'pchilik uchun murakkab bo'ladi. Shuningdek, intonatsiya va ohangni to'g'ri qo'llay olmaslik nutqni bir xil va ifodasiz qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun fonetik mashqlar, talaffuz apparatini mustahkamlovchi o'yinlar va eshituv asosidagi mashg'ulotlar qo'llanilishi zarur.

3. Yechimlar: Samarali o'qitish metodlari va yondashuvlar Fonetika o'qitishda eng samarali yondashuvlardan biri — interfaol metodlar va amaliy mashqlarni uyg'unlashtirishdir. "Talaffuz laboratoriyasi", "Audio tinglab tahlil qilish", "Nutqni yozuvga olish va tahlil qilish" kabi usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Guruh ishlari, juftlik mashqlari va talaffuz musobaqalari o'quvchilarning tovushlarni farqlash va to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. O'qituvchi nutq namunalarini tahlil ettirish, tovushlarni yozuvda va og'zaki shaklda solishtirish orqali o'quvchilarda fonetik tafakkurni shakllantiradi.

4. Zamonaviy texnologiyalar roli. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar fonetika o'qitishda keng qo'llanilmoqda. Masalan, "Phonetics Focus", "Quizizz", "Wordwall" va "Pronunciation Studio" kabi onlayn vositalar orqali talaffuzni mashq qilish mumkin. Audio va video materiallardan foydalanish o'quvchilarga tovushlarni eshitish, farqlash va to'g'ri talaffuz qilishni

osonlashtiradi. Shuningdek, nutq tahlil dasturlari yordamida urg'u, ohang va intonatsiyani avtomatik tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bunday texnologiyalar fonetika darslarini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. **5. Fonetika o'qitishning ma'naviy-pedagogik ahamiyati** *Fonetika o'rganish jarayoni o'quvchilarda nutq madaniyati, talaffuz aniqligi va estetik nutq tuzish qobiliyatini rivojlantiradi. To'g'ri talaffuz nafaqat so'z boyligini, balki ifodaning aniqligini va tinglovchiga ta'sir kuchini oshiradi. O'quvchilar tovushlarni farqlash orqali tilning musiqiyligini, ohangdorligini his qilishni o'rganadilar. Shu tariqa fonetika o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyani ham egallaydilar. Bu esa ularning muloqotda aniq, ta'sirchan va madaniyatli nutq sohibi bo'lishiga zamin yaratadi.*

Fonetika o'qitish metodikasi o'zbek tili ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning talaffuz madaniyatini, nutqiy faolligini va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Birinchidan, o'qituvchi fonetik hodisalarni hayotiy misollar, so'z o'yinlari va interaktiv topshiriqlar orqali tushuntirishi lozim. Ikkinchidan, texnologik vositalar yordamida tovushlarni tinglash va tahlil qilish darsning samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, o'qituvchi o'quvchilarga fonetik qonuniyatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy mashqlar orqali singdirishi kerak. Shu tariqa fonetika o'qitishning puxta metodikasi o'quvchilarda tilga e'tibor, talaffuzga aniqlik va nutq madaniyatiga hurmatni shakllantiradi. *Tog' jinslari orasidagi suvlarning harakat turlari geologik jarayonlarda, ayniqsa, yer osti suvlari shakllanishi va ularning zaxiralarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, suvning tog' jinslari orasidagi harakati ularning g'ovaklik, yoriqlilik darajasi hamda bosim sharoitlariga bevosita bog'liqdir. Suv harakati turlicha bo'lishi — infiltratsiya, filtratsiya va kapillyar harakat ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonlar yer osti suvlarining shakllanishi, ularning oqim yo'nalishi va miqdoriy o'zgarishlarini belgilab beradi.*

Bugungi kunda tog' jinslar orasidagi suvlarning harakat mexanizmlarini o'rganish ekologik barqarorlik, suv resurslarini boshqarish va geotexnik muammolarni hal etishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tabiiy suv aylanishining bu bo'g'ini iqlim o'zgarishi, eroziya jarayonlari va grunt suvlarining ifloslanish darajasini baholashda ham muhim omil sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, N. va boshqalar. *Gidrogeologiya asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.

2. Xamroyev, A. *Yer osti suvlari va ularning shakllanish qonuniyatlari*. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Rahmonov, S. *Geologiya va gidrogeologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Mirzayev, B. *Tog' jinslarining fizik xususiyatlari va suv o'tkazuvchanligi*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
5. Nurmatov, T. *Atrof-muhit geologiyasi va suv resurslari monitoringi*. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
6. Freeze, R.A. & Cherry, J.A. *Groundwater*. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1979.
7. Todd, D.K. & Mays, L.W. *Groundwater Hydrology*. – 3rd Edition. New York: Wiley, 2005.
8. Bear, J. *Dynamics of Fluids in Porous Media*. – New York: Dover Publications, 1988.
9. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlari.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLAR

HAZRATOVA CHAROS SHUHRAT QIZI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

texnik muharriri

Ilmiy rahbar: prof. R.Rasulov

hazratovacharos78@gmail.com Tel.:+998943163602

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning mazmuniy va grammatik xususiyatlari, ularning tildagi o'rni hamda xalq tafakkurini ifodalashdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning paydo bo'lish manbalari va ularning badiiy adabiyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. frazeologizmning shakli, semantikasi, prototipi, matndagi vazifasini tahlil qilish; matnda frazeologizmlarni topish, ularning ma'nosini va qo'llanish holatini tushuntirish; frazeologizmni sinonim leksik birliklar bilan almashtirish va aksincha; • taklif etilgan variantlardan to'g'risini tanlash; nutqda frazeologizmlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, ma'no butunligi, idiomatik, maqol, ibora, tasviriy vosita.

Kirish

Til – xalqning milliy tafakkurini, madaniyatini va ruhiyatini ifodalovchi eng muhim vositadir. Har bir til o'ziga xos barqaror so'z birikmalari – frazeologik birliklarga ega. Ular tildagi obrazlilikni kuchaytiradi, nutqni jozibador va ta'sirchan qiladi. Frazeologik birliklar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyati, hayotiy tajribasi aks etadi. Frazeologik birlik – bu ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, lekin umumiy bitta ma'noni ifodalovchi barqaror birikmadir. Masalan: og'zi qulog'ida, ko'ngli tog'dek, bosh qotirmoq, ko'z yumdi kabi iboralar alohida so'zlarning ma'nosidan farqli ravishda yaxlit tushunchani bildiradi.

O'zbek tili frazeologik birliklari ma'no va tuzilish jihatidan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Frazeologik qo'shilmalar (erkinlik nisbatan saqlangan): ko'ngil qo'yimoq, yurak yutmoq;

2. Frazеologik birikmalar (ma'nosi ko'chgan): ko'zga ko'rinmoq, og'iz ochmoq;

3. Frazеologik butunliklar (idiomatik): og'zi qulog'ida, besh qo'lini og'ziga solmoq;

Frazеologizmlarning ma'no va stilistik xususiyatlari. Frazеologik birliklar nutqda obrazlilik, ifodaviylik va emotsionallikni ta'minlaydi. Ular ko'pincha badiiy adabiyotda, ayniqsa Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek kabi yozuvchilar asarlarida keng qo'llanadi. Masalan, Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "ko'ngli g'ash bo'ldi", "bosh egdi", "ko'ziga issiq ko'rindi" kabi iboralar obrazli fikrni kuchaytiradi.

Frazеologizmlarning manbalari. Frazеologik birliklar xalq turmushi, urf-odatlar, diniy qarashlari, tarixiy voqealar, xalq og'zaki ijodi (maqol, matal, afsona) hamda boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar asosida shakllanadi. Masalan, "ko'ngli oq" iborasi qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, insonning pok niyatini bildiradi. O'zbek tilida ko'plab qisqa, obrazli iboralar mavjud bo'lib, ular nutqda tez-tez qo'llaniladi va uni yorqin, hissiy va ifodali qiladi. Masalan, juda mazali taom haqida "Barmoqlaringni yalab yuborasan!" deyishadi; kimdir qattiq qo'rqqanda esa "yuragi orqasiga tortib ketdi" deyishadi va hokazo. Bunday iboralar frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar deb ataladi.

Tuzilishi jihatidan frazeologizmlar so'z birikmalari yoki gaplardan iborat. Frazеologizmning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular uni mustaqil til birligi sifatida ajratib olish va boshqa til birliklaridan farqlash imkonini beradi. Erkin birikmalarni biz bevosita nutq jarayonida zaruratga qarab, so'zlarni grammatika qoidalariga muvofiq bir-biriga bog'lab yaratamiz. Ulardan farqli o'laroq, frazeologizmlar muloqot jarayonida yaratilmaydi, balki

nutqda tayyor birliklar sifatida, ya'ni tilda qanday shakllangan bo'lsa, shundayligicha takrorlanadi. Frazеologizmlar har doim bir xil tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular qat'iy belgilangan tartibda joylashadi. Ularning tarkibiy qismlarini ixtiyoriy almashtirish frazeologizmning buzilishiga olib keladi. Masalan, agar "suvni g'alvir bilan tashimoq" (behuda ish qilmoq) frazeologizmidagi bir so'zni "suvni chelak bilan tashimoq" deb o'zgartirsak, erkin so'z birikmasiga ega bo'lamiz.

Frazеologizm tarkibining doimiyliги va tarkibiy qismlarning belgilangan tartibi barqarorlik deb ataladi.

Ko'pgina frazeologizmlar majoziy, ko'chma ma'noga ega bo'lib, bu tarkibiy qismlarni qayta anglash natijasida yuzaga keladi, masalan: tilni tiymoq (ortiqcha gapirmaslik), sovg'a qilingan otning tishiga qaralmas (sovg'adan norozilik bildirmaslik kerak) va hokazo. Bunday frazeologizmlarning ma'nosi tarkibiy qismlar

ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki ichki obraz (ichki shakl) bilan asoslanadi, bu esa ma'noni tushunishga yordam beradi. Aksariyat frazeologizmlar tarkibida hammaga tushunarli so'zlar mavjud, masalan: ho'l tovuq, sariq tumshuq, birovning junini silash va hokazo.

Ma'lumki, frazeologizmlar xalqning tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini va an'analarni, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun o'zbek xalqi tarixi va madaniyati bilan qiziquvchilarga frazeologizmlar bu sohada yordam beradi. Frazeologizmlar tilshunoslikning frazeologiya deb ataladigan maxsus bo'limida o'rganiladi. Frazeologiya atamasi, shuningdek, tildagi barcha frazeologizmlar majmuini ham anglatadi.

O'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklar nutqiy faoliyatda frazeologizmlardan foydalanishni yoqtiradilar. Biroq, ularning ma'nosini tushunmasdan yoki qaysi sintaktik qurilmalarda va qanday vaziyatlarda u yoki bu frazeologizmni ishlatish mumkin va kerakligini bilmasdan, xatolarga yo'l qo'yadilar. Frazeologizm yoki frazeologik birlik – tarkibi va tuzilishi jihatidan barqaror, leksik jihatdan bo'linmas va ma'no jihatidan yaxlit bo'lgan, alohida lug'at birligi vazifasini bajaradigan so'z birikmasi. Boshqacha aytganda, u so'zga teng birlik. Frazeologizmning so'zdan asosiy farqi uning semantikasining o'ziga xosligidadir. Tildagi birliklar to'g'ri va ko'chma (obrazli) ma'noga ega bo'lishi mumkin. "Pashshadan fil yasamoq" frazeologizmi ko'chma ma'noga ega – biror narsani bo'rttirib ko'rsatmoq. Frazeologizmning aniq ma'nosini har doim ham uni tashkil etuvchi so'zlardan aniqlab bo'lmaydi: buning uchun xalqning madaniy an'analari haqida bilimlar zarur.

Frazeologizmlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni yorqin va ta'sirchan aks ettirishi, xalqning donoligi, an'analari, xulq-atvori, dunyoqarashi, his-tuyg'ularini ifodalashi muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi chet elliklarga noma'lum. Frazeologizmlarning obrazliligi, vazifalari va qo'llanish holatlari ham ularga tanish emas. Shunga qaramay, chet elliklar o'zbek frazeologizmlarini o'rganishni va ulardan nutq faoliyatida foydalanishni yaxshi ko'radilar, ammo ko'pincha ularning shakli, ma'nosi, vazifasi yoki qo'llanish holatlarini buzib ishlatadilar.

Frazeologizmlarni o'rganishda o'qituvchi chet ellikka tushunishga yordam beradigan muhim jihatlarni izohlashi zarur.

Frazeologizmning obrazi universal, ya'ni turli tillarni so'zlovchilar uchun tushunarli bo'lishi mumkin. Masalan, "tirik kitob" frazeologizmi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan va boshqa tillarga o'zlashtirilgan. Bu frazeologizm keng qamrovli bilimga ega bo'lgan, turli masalalar bo'yicha ma'lumot bera oladigan insonni tavsiflaydi. Frazeologizm ortida qomusiy bilimga ega professor kiyimidagi olim obrazi

turadi. Biroq frazeologizmlarning ko'pchiligi milliy kelib chiqishga ega bo'lib, ma'lum bir xalqning tarixi, turmush tarzi va milliy o'ziga xosligini aks ettiradi: "muzda baliq kabi tipirchilamoq", "xoda ustidan g'o'la oshirmoq", "g'ildirakdagi olmaxondek aylanmoq". Bunday iboralar ma'nosini tushuntirishda o'qituvchi aniq talqin berishi, to'g'ri obraz yaratilishiga ko'maklashishi kerak. "Ko'ylakda tug'ilmoq" (omadli bo'lmoq) frazeologizmi milliy o'ziga xos obrazli idrokka misol bo'la oladi. Frazeologizm ma'nosi uning tarkibiy qismlarining yaxlit majmuasi bilan yaratiladi. Bunda qo'llaniladigan so'zlarning har biri tilda alohida ma'noga ega bo'lishi mumkin, ammo aynan ularning birikuvi frazeologik ma'noni hosil qiladi. Masalan: "ahmoqlik qilmoq" – bekorchi bo'lmoq; "tarixga kirmoq" – mashhur bo'lmoq. Frazeologizmning milliy o'ziga xos ma'nosi madaniy tarkibiy qismlardan biri orqali bo'laklarga ajratilgan holda aks etishi mumkin: "xatarga bosh suqmoq" – ongli ravishda tavakkal qilmoq, o'ylamasdan ish tutmoq.

Chet elliklar o'zbek frazeologizmlarini nutqlariga kiritishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun o'quvchilarda frazeologizmning shakli, semantikasi va funksional rolini aniqlashtiruvchi nutq modeli asosida frazeologizmlarni nutq faoliyatiga kiritish qobiliyatini shakllantirish zarur. Shakl nuqtai nazaridan quyidagilar mavjud: Predikat vazifasidagi fe'l tipidagi frazeologizmlar fe'lning shaxs, son, zamon, ko'rinish va boshqa shakllari o'zgarishi bilan fe'l tipidagi nutq modellarida qo'llaniladi: Ular butun umr bir-biri bilan ahil (yashaydilar, yashadilar) yashadilar; Ota har doim bolalarining kichik sho'xliklariga ko'z yumadi (yumardi, yumadi); Yigit birinchi marta boshidan oyog'igacha sevib qoldi (qolishi mumkin). Shaxs yoki narsani ma'lum sifat yoki xususiyatlariga ko'ra tavsiflovchi frazeologizmlar substantiv tipdagi nutq modellarida qo'llaniladi, aynanlikning umumlashgan grammatik semantikasi bilan predikativ vazifani bajaradi: Ular ikkalasi ham bir qozonning quyqasi.

O'rganilayotgan tilning sintaktik tizimini o'zlashtirish, frazeologizmning umumlashgan grammatik semantikasini bilish nutqiy xatolarning oldini olishga yordam beradi. Frazeologizmlar nutqning og'zaki va yozma shakllarida qo'llanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Frazeologizmlarni qo'llashning barcha holatlarini belgilashning iloji yo'q, ammo nutqda u yoki bu frazeologizmni qo'llash maqsadi bilan belgilanadigan ularning ba'zilarini ko'rsatish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, frazeologizmlar shaxs, predmet, turli harakat yoki holat, sifat, xususiyat, shuningdek, tabiiy yoki ijtimoiy xarakterdagi hodisalarni nomlaydi yoki tavsiflaydi.

Shunday qilib, frazeologizmlar bilan ishlash metodikasi o'qituvchidan mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishni, frazeologizmlarni izohlash tizimini, qo'llanishning sintaktik, mavzuiy va vaziyatli shartlarini o'ylab ko'rishni talab qiladi.

Frazeologizm ko'chma ma'noga ega bo'lib, bir tomondan, nutqni boyitadi va uni yanada ifodali qiladi, ikkinchi tomondan esa, bu nutqni emotsional-ekspressiv ma'no qirralari va madaniy xususiyatlar bilan to'ldiradi. Frazeologizmlar nafaqat tushunchaviy, balki emotsional-ekspressiv ma'no nozikliklariga ham ega bo'lgani sababli insonga tez ta'sir qiladi. Tillarning tarixiy rivojlanishi jarayonida ko'plab so'zlar va frazeologizmlar o'z konnotatsiyalariga ega bo'lgan, chunki rivojlanishning ma'lum bir bosqichida til faqat kommunikativ vazifa bilan cheklanib qolmaydi - odamlarda tasvirlanayotgan voqelikni hissiy ifodalash uchun estetik ehtiyoj paydo bo'ladi. Turli darajadagi ta'sirchanlik, obrazli-assotsiativ qayta tushunish va boshqa unsurlarni o'z ichiga olgan emotsional vazifa ko'plab frazeologizmlarda namoyon bo'ladi: uzoqda - shaytonning shoxida; yaqinda - qo'l uzatsa yetgulik; noma'lum yo'nalishda bormoq - ko'zi qayerga tushsa o'sha yoqqa; qattiq sovqotmoq - suyak-suyagigacha muzlamoq; juda zerikmoq - joniga tegmoq.

Konnotativ qo'shimcha ma'no nozikliklari til egalari ongida ko'p hollarda tarixiy-adabiy yoki maishiy assotsiatsiyalar asosida yuzaga keladi. Masalan, it so'zi (ko'chma ma'noda) insonlar ongida sodiqlik, vafodorlik kabi ijobiy tushunchalar va tajovuzkorlik, xoinlik kabi salbiy ma'nolar bilan bog'lanadi. Ijobiy konnotatsiyalar "it vafodorligi", "it sadoqati" kabi frazeologizmlarda, salbiy konnotatsiyalar esa "it hayoti" frazeologizmida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tildan tashqari omillarni, xususan, til egalarining jamoaviy tajribasini, ularning madaniyatini aks ettiruvchi, ya'ni tilning kommunikativ, emotsional va ijtimoiy-madaniy vazifalarining ifodasi bo'lgan ulkan olamdir. Frazeologizmlarni o'rganish o'zbek xalqi madaniyati bilan tanishtiradi, ularni nafaqat o'zbek tilining, balki o'zbek madaniyatining tashuvchilari sifatida shakllantiradi. Frazeologik birliklar o'zbek tilining boy va betakror qatlamini tashkil etadi. Ular xalq donoligini, milliy ruhiyatini, hayot falsafasini ifodalaydi. Shu bois frazeologizmlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyat va adabiyotshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. "O'zbek tilining frazeologiyasi", Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Jo'rayev A. "Frazeologik birliklarning ma'no tizimi", Toshkent, 2008.

3. Qodiriy A. “O'tkan kunlar”, Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.
4. Mirzayev M. “Til va tafakkur”, Toshkent, 2003.
5. Mamatov, A. “ Frazologik birliklarning semantik xususiyatlari”. O'zMU nashriyoti. Toshkent: 2013.
6. Rahmatullayev, Sh. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”. Toshkent: Fan. 1978.
7. Xoliyorov, M. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2009.
9. Boboyev, M. Frazologik birliklarning uslubiy imkoniyatlari. Samarqand: SamDU nashriyoti. 2004.

OZIQ-OVQAT NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

URALOVA NIGORA ABDUVALIYEVNA

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, o'qituvchi

nigora.uralova026@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat nomlarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan. Oziq-ovqat nomlari leksik-semantik guruh sifatida ko'rib chiqilib, ularning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy ramzlar bilan bog'liqligi izohlangan. Shuningdek, polisemantik birliklarning bevosita va ko'chma ma'nolari ochib berilgan. Maqolada o'zbek xalqiga xos oziq-ovqat nomlari qiyosiy nuqtayi nazardan ham yoritilib, ularning tilshunoslik, lingvokulturologiya va etnologiya fanlari uchun ilmiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat nomlari, leksik-semantik guruh, lingvokulturologiya, milliy taomlar, polisemiyaga oid birliklar, semantik tahlil, etnolingvistika, milliy qadriyatlar, madaniy ramzlar, o'zbek tilining leksik qatlamlari.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the linguocultural and semantic features of food names. Food names are examined as a lexical-semantic group, with explanations of their connection to national values, traditions, and cultural symbols. In addition, the direct and figurative meanings of polysemous units are revealed. The article also highlights food names specific to the Uzbek people in a comparative aspect and substantiates their scientific significance for linguistics, linguoculturology, and ethnology.

Keywords: Food names, lexical-semantic group, linguoculturology, national dishes, polysemous units, semantic analysis, ethnolinguistics, national values, cultural symbols, lexical layers of the Uzbek language.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются лингвокультурные и семантические особенности наименований продуктов питания. Они рассматриваются как лексико-семантическая группа, раскрывается их связь с национальными ценностями, традициями и культурными символами. Кроме того, показаны прямые и переносные значения полисемантических единиц. В статье также освещаются наименования продуктов, характерные для узбекского народа, в сравнительном аспекте, и обосновывается их научная значимость для лингвистики, лингвокультурологии и этнологии.

Ключевые слова: Наименования продуктов питания, лексико-семантическая группа, лингвокультурология, национальные блюда, полисемантические единицы, семантический анализ, этнолингвистика, национальные ценности, культурные символы, лексические пласты узбекского языка.

Insoniyat taraqqiy etar ekan, azaldan yegulik topish hayotiy muammolardan bo'lgan. Buni tarixiy va badiiy asarlarda ko'rish mumkin. Har bir mumtoz asarni esa tarix deb hisoblash, hikoya qilinayotgan tarixiy davr taom va ovqatlanish jarayoni bilan bog'liq qanchadan-qancha hodisalardan tarkib topganligini kuzatish mumkin. Badiiy asarda uchrovchi "taom" konsepti tushunishda amerikalik olimlar Devid hamda K.Jonatanlar ovqat va unga tegishli an'analar, jamiki narsa va hodisalar turli yozuvchilar ongida turli assotsiatsiyani paydo qilishini ta'kidlaydi. Ovqat haqidagi tasavvurlar adabiyotda biror millat xotirasining negizigacha singib ketgan assotsiatsiyalar manbai sifatida namoyon bo'lishi mumkin, deydi³⁴.

XI-XII asr qadimiy qo'lyozmalaridayoq taom va ichimliklar haqidagi badiiy tasvirlar paydo bo'la boshlagan. Yunon yozuvchisi Ksenofontning uy-ro'zg'or yuritish va oila iqtisodi haqidagi "Uy-ro'zg'or yuritish" kitobida, ro'zg'orni tashkil etish bilan birga, dasturxon oldida o'zini qanday tutish, ibodat kunlari qanday taomlar tanovvul qilish haqida yo'riqlar keltiriladi³⁵. Shundan buyon ovqatlanish va taom Yevropa adabiyotshunosligida maxsus o'rganiladigan yo'nalishdir. Yevropa adabiyotshunoslarining fikricha, taom va tanovvul jarayonining badiiy adabiyotda o'z o'рни bor. Zero, taom – xalq madaniyati, tarixi, ijtimoiy jarayonlar haqida haqqoniy axborot bera oladigan muhim omillardan biri. Taomni tadqiq etish yoki "taomshunoslik" (food studies) ijtimoiy fanlar (antropologiya, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik) hamda san'at negizida shakllandi. Bu fan adabiyot, gastronomiya va pazandalik tarixi kabilarni o'z ichiga oladi. Taomshunoslik ovqatga aloqador jarayonlarni: mahsulot chiqarishdan tortib, ovqatlanish jarayonining ijtimoiy hayotdagi o'рни tahlili, ovqatlanish odat va marosimlari, tanovvul uchun tanlanadigan hamrohlar (ijtimoiy tabaqalanish tahlili uchun)ni qamrab oladi. Bu jarayonni o'rganish esa insonning jamiyatdagi o'рни va milliy madaniyatning o'ziga xosligini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

³⁴ David Jonathan C. Food in Literature. Gale Encyclopedia of Food&Culture. 2003.

³⁵ Энциклопедия православной кухни. –Новгород: Изд. Братства во имя св. Александра Невского, 1999.

Til – xalq tafakkurining oynasi, milliy o'zlik va madaniyatning eng muhim ifodasidir. Unda xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, diniy qarashlari hamda tarixiy tajribasi o'z aksini topadi. Xalqning moddiy madaniyatini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri – **ovqatlanish madaniyati** bo'lib, u til tizimida alohida qatlamni shakllantiradi. Shu qatlamning eng muhim qismi – **oziq-ovqat va mahsulot nomlaridir**. Oziq-ovqat nomlari kundalik ehtiyojga xizmat qilish bilan bir qatorda, milliy an'ana va qadriyatlar bilan bog'liq **lingvokulturologik ramz** sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, ular ko'p hollarda **polisemantik** xususiyatga ega bo'lib, turli kontekstlarda bevosita (oziq-ovqat nomi sifatida) va bilvosita (metaforik yoki ramziy) ma'nolarda ishlatiladi.

Mazkur maqolada oziq-ovqat nomlarining **nazariy asoslari**, ularning **lingvokulturologik xususiyatlari**, **semantik guruhlari** hamda **millatlararo qiyosiy jihatlar** tahlil qilinadi.

Oziq-ovqat nomlarini o'rganish tilshunoslikning bir nechta sohalari bilan bevosita bog'liqdir:

1. **Leksikologiya** – so'z boyligi va uning qatlamlarini o'rganadi. Oziq-ovqat nomlari tilning **ma'lum bir leksik-semantik guruhini (LSG)** tashkil etadi. A. Hojiyevning izohicha, LSG bir umumiy semantik belgi asosida birlashgan so'zlar majmuasidir. Masalan, *non*, *guruch*, *go'sht*, *sut* kabi so'zlar **“oziq-ovqat”** umumiy semasiga ega.

2. **Semasiologiya** – so'zlarning ma'no tizimini o'rganadi. Oziq-ovqat nomlari ko'pincha **polisemiya**ga, ya'ni ko'p ma'nolilikka ega bo'ladi:

- *Tuz* – mahsulot nomi, lekin “tuzini totmoq” iborasida – sadoqat va minnatdorlik ramzi.

- *Asal* – shirinlik, ammo “asal so'z” birikmasida – yoqimli gap, mehribonlik timsoli.

3. **Lingvokulturologiya** – til va madaniyat o'zaro aloqalarini tadqiq qiladi. E. Sepir va B. Uorf ta'limotiga ko'ra, til milliy tafakkurni shakllantiradi. Shu ma'noda, oziq-ovqat nomlari ham xalqning milliy xotirasi, marosimlari va qadriyatlarini aks ettiruvchi **madaniy kod** hisoblanadi.

O'zbek xalqida oziq-ovqat atamalarining ramziy ma'nolari juda boy:

- **Non** – muqaddaslik va hayot ramzi. Nonni qadrlash o'zbek xalqida qadimdan mavjud bo'lib, uni yerga tashlash yoki ustiga oyoq qo'yish eng og'ir gunohlardan biri sanaladi. “Non topish”, “non-orziq” kabi iboralar xalq tafakkuridagi nonning ramziy o'rnini ifodalaydi.

• **Palov** – o'zbek milliy taomlarining eng mashhuri bo'lib, to'kinlik va baraka timsolidir. Har bir marosim – to'y, hayit, mehmondorchilik palovsiz tasavvur etilmaydi. 2016-yilda **“O'zbek palovi” UNESCO nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgani** ham uning xalqaro miqyosdagi lingvokulturologik ahamiyatini ko'rsatadi.

• **Choy** – oddiy ichimlik emas, balki samimiy muloqot va mehmondo'stlik belgisi. “Choyxo'rlik” jarayoni o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'rin tutadi.

Shu bois oziq-ovqat nomlari til tizimida **etnolingvistik belgilar** sifatida qaralishi zarur.

Oziq-ovqat nomlarini semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. **Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari:** non, guruch, tuz, sut, go'sht.
2. “Tuz” – bevosita ma'noda taomga lazzat beruvchi mahsulot; ko'chma ma'noda – sadoqat va hurmat ramzi.
3. **Milliy taomlar:** palov, somsa, lag'mon, manti.
4. “Palov” – semantik jihatdan “to'kinlik, birdamlik” ma'nolarini ham anglatadi.
5. **Ichimliklar:** choy, qatiq, sharbat.
6. “Choy” – “suhbat” ramzi sifatida qo'llanadi: “Choy ustida gaplashdik”.
7. **Shirinlik va mevalar:** asal, qand, anor, olma.
 - “Asal” – “mehribonlik, shirinlik” ramzi. “Asaldan ham shirin so'z” iborasi bunga misoldir.

Shu orqali oziq-ovqat nomlari **bevosita ma'no**, **metaforik ma'no** va **ramziy ma'no** qatlamlariga ega ekanini ko'rish mumkin.

Oziq-ovqat nomlarining semantik va madaniy qirralarini boshqa xalqlar bilan qiyoslash ham qiziq natija beradi:

• Yevropa xalqlarida **“non va vino”** diniy marosimlarda muqaddaslik ramzi bo'lsa, o'zbeklarda **“non va choy”** xalqona hayotiy qadriyatlarni bildiradi.

• Sharq mamlakatlari, xususan Xitoy va Koreyada **“guruch”** asosiy oziq-ovqat ramzi bo'lsa, o'zbeklarda bu vazifani **“non”** bajaradi.

• Arab xalqlarida **“xurmo”** muqaddas oziq-ovqat sifatida Qur'oni karimda tilga olingan, o'zbeklarda esa **“anor”** tozalikka, barakaga ishora qiladi.

Bu qiyosiy tahlil oziq-ovqat nomlarining milliy tafakkur bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, oziq-ovqat nomlari tilshunoslikda alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida qaralishi zarur. Ular:

- **leksik-semantik guruhni** tashkil qiladi,
- **polisemiyaga** ega bo'ladi,
- xalq madaniyati va urf-odatlarida **lingvokulturologik ramz** sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Demak, oziq-ovqat nomlarini o'rganish faqat tilshunoslik emas, balki **etnologiya, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik** fanlari uchun ham dolzarbdir. Ular millatning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. *O'zbek tilining semantikasi*. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Abduazizov A. *Tilshunoslik nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov F. *Lingvokulturologiya: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Universitet, 2018.
4. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Wierzbicka A. *Semantics, Culture, and Cognition*. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
6. Superanskaya A. V. *Obshchaya terminologiya*. – Moskva: Nauka, 2003.
7. Sapir E. *Language: An Introduction to the Study of Speech*. – New York: Harcourt, 1921.
8. Whorf B. L. *Language, Thought, and Reality*. – Cambridge: MIT Press, 1956.
9. Mamatov N. *O'zbek xalqining milliy taomlari va an'analari*. – Toshkent: Sharq, 2005.
10. David Jonathan C. Food in Literature. Gale Encyclopedia of Food&Culture. 2003.

GRAMMATIK MA'NONING NUTQIY VOQELANISHIDA LISONIY OMILLAR HAMKORLIGI

TOSHPULATOVA DILFUZA SATIMBOYEVNA

CHDPU mustaqil tadqiqotchisi

dilfuzatoshpulatova776@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada grammatik ma'noning nutqiy voqelanish jarayonida lisoniy omillarning roli va ahamiyati tahlil etilgan. Til birliklari orqali grammatik ma'no qanday shakllanib, nutqda qanday tarzda ifodalanishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, morfologik, sintaktik va leksik vositalarning o'zaro munosabati hamda ular orqali grammatik ma'noning kontekstga mos tarzda namoyon bo'lish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda grammatik kategoriya, shakl va ma'no o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilinadi, grammatik ma'noning nutqiy reallashuvi jarayonida so'z turkumlari, qo'shimchalar, so'z tartibi va intonatsiyaning funksional imkoniyatlari ochib beriladi. Natijada, grammatik ma'noning kommunikativ jarayondagi o'rni va uning lisoniy tizimdagi o'ziga xosliklari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: grammatik ma'no, nutq, lisoniy omillar, morfologik shakl, sintaktik tuzilma, nutqiy voqelanish, kontekst.

Abstract. This study explores the role and significance of linguistic factors in the realization of grammatical meaning within speech. It examines how grammatical meaning is constructed through linguistic units and how it is contextually manifested in communicative practice. The research focuses on the interaction between morphological, syntactic, and lexical means, highlighting the mechanisms through which grammatical meaning adapts to contextual and functional demands. Furthermore, the paper discusses the intrinsic relationship among grammatical categories, form, and meaning, emphasizing their interdependence in the linguistic system. Particular attention is given to the functional potential of word classes, affixes, word order, and intonation in shaping grammatical meaning in actual speech. The findings contribute to a deeper understanding of the communicative nature of grammatical meaning and its role in the systemic organization of language.

Keywords: grammatical meaning, speech, linguistic factors, morphology, syntax, contextual realization, communication.

Til va nutq antinomiysi paydo bo'lganidan buyon ularning sistemaviyligi masalasida bahs-munozaralar davom etadi. Hatto sistemalogiyaga doir eng so'nggi

an'anaviy talqinlarda ham buni ko'ramiz: «Tilning har bir tarkibiy qismi, ya'ni sathining izchil sistemaviyligi, shuningdek, bu sistemaning butunlik sifatida o'z tarkibiy qismlarining oddiy, arifmetik yig'indisidan iborat emas, balki undan kattaroq alohidalik ekanligi uning sistemaviy tadqiqi jarayonida qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Zero, lisoniy substansiya hech qachon to'la-to'kis voqelanmaydi, lekin voqelangan har bir nutq parchasida uning turli zarralari qorishgan holatda bo'ladi. Nutqiy parchalar esa lisoniy paradigmatic sistemaviylikka ega bo'lmagan, o'z butunligidan uzilgan hodisalardir. Lison va nutqning mana shu murakkab munosabati tufayli ko'p hollarda tilning sistemaviyligi deklarativ ravishda e'tirof etiladi-yu, tadqiq jarayonida bu umumlisoniy sistema yaxlitlikda qamrab olinmaydi». [Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida. Monografiya. – Toshkent: Nihol, 2010. – B.4.]

Lisoniy birliklarning o'z mavhum sistemasi tarkibidan chiqib, hamisha yangi – o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli va dinamik sistemadan o'rin egallashi o'ta murakkab va oniy jarayon. U (dialektik) ziddiyatlar muhitidan chiqib, (sinergetik) hamkorlik sharoitiga tushadi. Zero, tarkibining uyg'unligi va muvofiqligi sinergetik sistemaning yashash shartidir. G.Xaken ta'kidlaganidek, «jonli va dinamik sistema bir necha bir xil yoki har xil qismlardan tashkil topishidan qat'i nazar, ular o'zaro bog'lanishda, ta'sirda, hamkorlikda bo'ladi. Bu esa hamma vaqt o'z-o'zidan tashkil topuvchi, murakkablanuvchi sistemaning elementlari orasida uyg'unlik bo'lishiga, har bir a'zo o'z yo'li, erkinligi asosida ish tutsa-da, umumiy sistema faoliyatiga daxldor bo'lishiga olib keladi».[Xaken G. Sinergetika. Iyerarxiya neustoychivostey v samoorganizuyuyusya sistemax i ustroystvax. – M.: Mir, 1985. – C.423.] Bunda lisoniy birliklarda sifatii va miqdoriy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mazkur o'zgarish tashqi arzimagan yoki katta ahamiyatli kuch ta'sirida ro'y berishi mumkin. Umumiy ma'no parchalanib (bifurkatsiya), parchalardan biri ustuvorlashadi, bir vatqning o'zida boshqa parchalarning ahamiyati nol darajagacha so'nadi – kuchsizlanadi. Nutqiy ma'no beqarorligi lisoniy ma'no barqarorligi bilan xarakterlanadi. Beqarorlik nutqiy sistemaning dinamikligi va rivojlanuvchanligini ta'minlaydi. Beqarorlik tamoyili sinergetik sistemalarning yashash shartidir. I.Prigojin bejiz beqarorlikning rivojlanish sharti, barqarorlik esa turg'unlik me'yori ekanligini ta'kidlamagan edi.[Prigogine I. and Stengers I. Order out of Chaos, Bantam Books. – New York, 1984. – R.94.] Nutqiy jarayonda sistema holatining fluktuatsiya holati (o'zgarishi) turli omillar ta'sirida yuz berishi mumkin. U lisoniy ham, nolisoniy ham bo'ladi. Lekin bularning barchasi so'zlovchining intensiyasi va pragmatik omillarning

muvofiglashuviga bo'ysunadi. Sub'yektiv intensiya pragmatik vaziyatni hisobga olgan holda nutq jarayonini boshqaradi.

Lisoniy birlik o'zi mansub sistemaning unsuri bo'lish bilan birga o'zi ham shakl va ma'noning birligidan iborat yaxlitlik – sistema. Masalan, ko'plik son shakli birlik son bilan birga son kategoriyasini tashkil qiladi. Ular bir sistemaning ikki unsuri sifatida zidlik hosil qilib, mavjudlik kasb etadi. Ammo o'z o'rnida ko'plik son ko'rsatkichi [-lar] shakl va ma'noning yaxlitligidan iborat sistema. Bu sistemaning nutqiy voqelanishi, ya'ni nutqiy sistemadan unsur sifatida o'rin olishi va o'zi ham bu dinamik sistemaning tarkibida mikrosistema sifatida mavjud bo'lishi sinergetik qonuniyatlar asosida yuz beradi. Birinchidan, ko'plik son ko'rsatkichining umumiy grammatik ma'nosi [Shahobiddinova Sh.H. Grammatik ma'no talqini xususida: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Samarqand, 1993. – B.13.] nutqqa chiqish jarayonida parchalanadi – dastlab oraliq grammatik ma'nolarga, oraliq grammatik ma'nolar esa, o'z navbatida, xususiy grammatik ma'nolarga ajraladi, ya'ni polifurkatsiya h odisasi yuz beradi, parchalangan xususiy grammatik ma'nodan faqat bittasi voqelanadi. Son kategoriyasi [-lar] shaklining umumiy grammatik ma'nosi «miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo'linuvchanlik» bo'lib, u «ko'plik», «jamlik» «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nolariga ajralishi manbalarda ta'kidlanadi. Tilshunos B.Mengliyev ushbu oraliq grammatik ma'nolarning vujudga kelishida (ya'ni umumiy grammatik ma'noning parchalanishida) fluktuatsiyani vujudga keltiruvchi omil sifatida faqat lisoniy (leksik, sintaktik) sath birliklarini tushunadi. «[-lar] ko'plik son shakli atoqli otlarni nutqqa olib kirar ekan, u o'zining umumiy grammatik ma'nosini «o'xshashlikka yoki bog'liqlikka asoslangan ko'plik» sifatida juz'iylashtiradi: Farhodlar keldi. Mirzacho'llar obod bo'ldi. So'zshaklga asos bo'layotgan leksemaning atoqlilik xarakteriga bog'liq ravishda shaklning mazkur oraliq grammatik ma'nosi yanada bo'linadi va ikkinchi bo'g'in oraliq grammatik ma'nolar farqlanadi. Masalan, shaxs atoqli otlari «o'xshashlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosini farqlaydi va yuzaga chiqaradi: Daryoning yo'liga gullar sochgali Shirinlar – qadlari shamshodlar keldi (Uyg'un), Joy nomi atoqli otlarida esa «bog'liqlikka asoslangan ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi yuzaga keladi».[Mengliyev B.R. Til yaxlit sistema sifatida. Monografiya. – Toshkent: Nihol, 2010. – B.123.] Demak, mazkur holatda fluktuatsiya sababchisi leksik-grammatik hodisalardir. Boshqacha aytganda, oraliq grammatik ma'noning voqelanishi ko'proq grammatik shakl birikayotgan leksemalarning lug'aviy-grammatik xususiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Biz bunda «ko'proq» muayyanlashtiruvchisini ishlatayotganligimizning sababi sistema shakllanishida hamkorlik tamoyilidan ko'z

yummaslik, uning ta'sirini ob'yektiv aks ettirishga intilishdir. Chunki ushbu umumiy grammatik ma'noning parchalanishi va oraliq grammatik ma'noning vujudga kelishi faqat lisoniy omillar bilangina bog'liq emas, albatta. Bunda atoqli ot (yuqoridagi misolda Shirin) har qanday holatda ham ushbu shaklni olish imkoniyatiga ega emas. Buning uchun unga qulay vaziyat zarur bo'ladi. Qulay vaziyat maqomini ushbu o'rinda uslubiy omil zimmasiga oladi. Faqat badiiy uslubdagina shaklning mazkur grammatik ma'nosini voqelantira olishidan kelib chiqqan holda, nazarimizda, hodisaga tilshunos B.Mengliyev nazarda tutganidan ko'ra kengroq doirada munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, «o'xshashlikka asoslangan ko'plik» ma'nosi har qanday metaforik ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan birikkanida namoyon bo'laveradi va bunda fikrni ilmiy dalillash uchun nolisoniy omillardan tashqari matn omili zarur bo'ladi. Quyidagi matnga murojaat qilaylik:

Bo'ri aka, bo'ri aka,
Sen nimaga muncha zo'rsan?
E, ukajon, men zo'r bo'lsam,
Itlar meni talarmidi?

Ajratilgan so'z ko'plik son ko'rsatkichini olgan. Ushbu o'rinda so'zshakl o'xshatish ma'nosini ifodalayotgan yoki ifodalamayotganligini bilishning imkoni yo'q. Shuningdek, ko'plik shakli ushbu o'rinda kuchaytirish ma'nosini ifodalayotgandek ham tasavvur uyg'otadi.

Xullas, grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosini bevosita «parchalayotgan» vositani matnning ushbu hajmi va holatida aniqlab bo'lmaydi. Demak, fluktuatsiya sababini aniqlash uchun lisoniy omillar bilan cheklanish yetarli emas.

Fluktuatsiya va buning natijasidagi bifurkatsiya sababi lisoniy omillar bo'lgan holatlar nutqda ko'plab uchraydi, albatta. Ammo shu o'rinda aytib o'tish lozimki, grammatik ma'no bifurkatsiyalanishining asos va sabablari bilan uni aniqlash masalasini qorishtirmaslik kerak. Masalan, kitoblar so'zshaklida «oddiy ko'plik» yoki «o'xshashlik asosidagi ko'plik» ma'nolaridan qaysi biri voqelanayotganligi biz uchun noma'lum va uni tashqi omil – matn yordamida aniqlashimiz mumkin. Ammo grammatik ko'rsatkichning qaysi ma'nosi voqelanayotganligi kuzatishlarimiz va ongimizdan tashqarida ob'yektiv reallik sifatida mavjud, ya'ni voqelanish sodir bo'lgan, sistemaning o'zi o'zini tashkil qilgan.

Tilshunoslar grammatik ma'noning fluktuatsiyaga uchrashi va bifurkatsiyalanishida hamkorlik tendensiyasini sinergetik metodologiyasiz bo'lsa-da, ancha teran tahlil qilganlar. Lekin bundagi hamkorlikni faqat lingvistik nigoh bilan ko'rish lisoniy omillarning rolini kuchaytirish va mutlaqlashtirishni keltirib chiqaradi. Masalan, turkiy tillarning o'ziga xos xususiyat va ontologik belgilaridan biri bo'lgan egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining parchalanishi va nutqiy voqelanishiga ta'sir ko'rsatuvchi fluktuativ kuchlar sifatida lisoniy omillar ahamiyati kuchaytirilgan holatlar talaygina. Deylik, B.Mengliyev qarashlarida «egalik kategoriyasi oraliq grammatik ma'nolarini farqlashda ham uning umumiy grammatik ma'nolarini tiklashdagi kabi sintaktik, morfologik hamda lug'aviy hodisalar tajallilari murakkab holatda qorishib, masala mohiyatini behad chigallashtiradi. Masalan, izofali birikuvlarda egalik kategoriyasi nafaqat «mansublik» oraliq grammatik ma'nosinigina namoyon etadi, balki unda shaxsga ishora qiluvchi morfologik, tobelikni ko'rsatuvchi murakkab sintaktik mazmun ham hamkorlik qiladi. Shuningdek, so'zlarning lug'aviy ma'nosiga bog'liq ravishda turli ma'noviy munosabatlar qorishgan holda yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning bunday ma'noviy munosabatlar sonini elliktagacha yetkazganlari ma'lum».[Mayzel S.S. Izafet v turesskom yazыke. – M., – L.: 1957. – B.233.] Demak, olimning e'tirof etishicha, fluktuativ kuchlar lisoniy omillar sirasida anchayin ustuvor. Nazarimizda, tilshunos umumiy grammatik ma'noning nutqiy voqelanishida sathlar hamkorligi masalasini hamkorlikning sinergetik jarayoniga xos bir ko'rinishi, bir qismi sifatida talqin etishni maqsad qilib qo'ygan. Bu esa uning boshqa omillarni inkor etishini keltirib chiqarmaydi.

Umuman olganda, morfologik shakllar grammatik ma'nolarining nutqiy voqelanishida fluktuativ kuch sifatidagi lisoniy omillarning o'rni ancha tadqiq etilganligi bilan xarakterli. Ammo hodisani sinergetik nuqtai nazardan o'rganish, umumiy ma'noning parchalanish jarayonini o'zi-o'zini tashkil etuvchilik va o'z-o'zidan rivojlanuvchanlik jihatidan baholash sinergetik lingvistikaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Leksik omil bifurkator sifatida. Leksik omil deganda grammatik shaklni biriktirayotgan leksemaning lug'aviy ma'nosini nazarda tutamiz. Nutqiy sistemada umumiy grammatik ma'noning bo'linishi va bo'laklardan birining voqelanishida qo'shimchani olib so'zshakl qiyofasiga kirayotgan leksemalarning lug'aviy ma'nosi asosiy rol o'ynagan holatlar talaygina. Yuqorida keltirilgan manbada tilshunos B.Mengliyev egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosida uchta: «mansublik», «shaxs-sub'yekt» va «partitiv qarashlilik» oraliq ma'nolarini farqlaydi hamda ularning ajralishi va voqelanishida bifurkator sifatida lug'aviy omil ustuvorlashgan

holatlar anchaligini ko'rishimiz mumkin. Nahotki, shu olamshumul ishlarda mening ham ulushim bo'lsa jumlasidagi ulushim so'zshaklida yuzaga chiqqan «mansublik» oraliq grammatik ma'nosi «shaxs-sub'yekt» ma'nosidan farqlanishi va ajralishida lug'aviy omilning bifurkatorlik roli ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Chunki ulush leksemaning ma'noviy tarkibida «mansublik» semasi mo'tadil emas, belgilanganlikka moyilligi bilan xarakterlanadi. Mendan beriladigan ulush bilan menga beriladigan ulush ma'nolaridan qaysi birining ifodalanayotganligi masalasiga kelsak, bunda egalik shaklining bifurkatorlik quvvati ma'lum darajada susayadi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, egalik shaklining go'yoki nome'yoriy qo'llanishi bo'lgan va «men o'qigan kitob» ma'nosidagi o'qiganim kitob, «siz ko'rgan bola» ma'nosidagi ko'rganingiz bola tipidagi birikuvlarda voqelangan «qarashlilik» umumiy ma'nosining xususiy voqelanishlaridagi fluktuatsiya hodisasini dialektik metodologiyadan ma'lum darajada chekinib, sinergetik tamoyillar asosida tushuntirib berishga ehtiyoj mavjud. Substansial yondashuvda [-cha] kichraytirish shaklining «kichraytirish» umumiy grammatik ma'nosi uch oraliq ma'noga parchalanadi:

- a) «sof kichraytirish»: olmacha, uycha, qushcha, baliqcha, kitobcha kabi;
- b) «kichraytirib erkalash»: ukacha, bolacha, qizcha, o'g'ilcha, xo'tikcha kabi;
- v) «kichraytirib-kamsitish»: domlacha, odamcha, maxsumcha kabi.

Kichraytirish-erkalash shakli kishi ismlariga qo'shilganida «kichraytirish-kamsitish» oraliq ma'nosining, narsa otlariga qo'shilganida «sof kichraytirish» oraliq ma'nosining, o'g'il, qiz, bola kabi so'zlar bilan birikkanida erkalash ma'nosining voqelanishi leksik ma'noning bifurkatorlik vazifasi kuchayganligini ko'rsatadi. Buni tilshunos B.Mengliyev quyidagicha tavsiflaydi: «[-cha] lug'aviy shakli umumiy grammatik ma'nosi uchta oraliq grammatik ma'no – «sof kichraytirish», «kichraytirish-erkalash», «kichraytirish-kamsitish» ma'nolari orqali nutqqa chiqadi. «Sof kichraytirish» oraliq grammatik ma'nosining farqlanishi va voqelanishi uchun lug'aviy omil ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ma'no asosan narsa-buyum otlarida yuzaga chiqadi».[Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida. Monografiya. – Toshkent: Nihol, 2010. – B.130.]

Demak, so'zlovchining intensiyasiga muvofiq ravishda tanlangan leksema grammatik shakl ma'nosi uchun intensiyaga yordamchi maqomdagi fluktuatorlik vazifasini bajarsa, ma'noni «bo'lish» va farqlashda kuchaygan bifurkatorlik maqomida ham bo'ladi. Ifodada ham yuklamasining ishlatilishi boshqa (sintaktik, uslubiy, pragmatik) omillarning ham ba'zan bifurkatorlik roli kuchayib, buning evaziga leksik omilniki susayishi bilan bog'liqdir.

Sintaktik omil bifurkator sifatida. Nafaqat shakllanayotgan leksemaning, balki ushbu so'zshaklga tobelanayotgan, shu bilan birga, mazkur so'zshakl tobelanayotgan so'zning ham grammatik shakl ma'nosini fluktuatsiyalash va bifurkatsiyalash jarayonidagi roli kuchaygan holatlar ham nutqiy jarayonda uchrab turadi, o'zni bilan hamkorlik tizimida bu omil yetakchilik maqomiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa sinergetikaning hamkorlik tamoyilini tenglik ma'nosida tushunmaslik lozimligini ko'rsatadi. Bunga ayrim dalillar keltiramiz. Egalik kategoriyasi «qarashlilik» umumiy grammatik ma'nosining tarkibiy uzvlaridan bo'lgan «sub'yekt harakati» ma'nosining voqelanishida endi leksik omilga tobe so'zshakl hamkorlik qiladi. Sintaktik omil haqida gap ketganda substansial sintaktik birliklar vositasida fikr yuritish zarur bo'lganligi tufayli mazkur grammatik shakl voqelanuvchi qurshov qolipini [ism qaratqich kelishigi + sifatdash egalik qo'shimchasi = tobe unsurdan anglashilgan sub'yetga mansub harakat] ko'rinishida belgilaymiz va bunda ish-harakatning bajaruvchiga munosabati yaqqol ifodalanadi. To'g'ri, bunda fe'l otlashgandek tasavvur uyg'otadi. Lekin egalik shaklining sintaktik shakl yasovchi ekanligi va umumturkumiy kategorial qiymati hodisaga bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaydi: 1. Mening eshitganimni hech kim eshitmasin. Bunda professor B.Mengliyevning «fe'l o'timsiz bo'lganida qolip [ism qaratqich kelishigi + sifatdash egalik qo'shimchasi] tarzida bo'lsa, o'timli fe'l otlashmaganida bu [ism qaratqich kelishigi. + fe'l – ot egalik qo'shimchasi] tarzida bo'ladi. Bu qolipda voqelangan sifatdash egalik qo'shimchasini olmaydi, o'z-o'zidan shaxsga munosabati ham so'nadi. Bu esa mazkur oraliq grammatik ma'no uchun [ism qaratqich kelishigi + sifatdash egalik qo'shimchasi] qurshovining zaruriy shart ekanligidan dalolat beradi. Bajaruvchi shaxs-soniga munosabat oraliq grammatik ma'nosi «mansublik» oraliq grammatik ma'nosi bilan bir umumiylik tagida birlashsa-da, «mansublik» ma'nosi o'ziga xos tarzda bunda ham voqelangandek tasavvur uyg'otadi. Biroq Sizdan eshitganimni sir tutdim gapidagi sifatdash substantivlikdan xalos etilsa (sizdan eshitgan gapim), bu yerda qarashlilik ma'nosi mutlaqo yuzaga chiqmayotganligi ayon bo'ladi. Demak, shakllar bunday qo'llanishda harakatning kimga tegishli ekanligiga ishora qiladi»[Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida. Monografiya. – Toshkent: Nihol, 2010. – B.127 – 128.] degan fikrlariga metodologik asos sifatida munosabatda bo'lish mumkin. Sintaktik omilning bifurkatorlik mavqei fe'l turkumiga mansub ayrim tasniflovchi shakllarning ham umumiy grammatik ma'nosining bifurkatsiyalanishi va bu parchalardan birining nutqiy sistemaga unsur sifatida chiqishida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, nisbat kategoriyasi fe'l tasniflovchi shakllari sirasida o'ziga xos o'rin tutadi va bu uning tarixan leksik ma'no bilan boshqa shakllarga nisbatan ko'proq aloqador bo'lganligi bilan bog'liq. U o'z ma'noviy tabiatining o'ta murakkabligi, lug'aviy ma'no bilan qorishib ketishi, ko'p hollarda so'z yasovchilardan farqlanmasligi va shu boisdan ayrim leksikografik manbalarda nisbat bilan shakllangan so'zshaklning ham har doim bosh so'z sifatida olinishi holatlarini ko'rishimiz mumkin.[O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. – M.: Rus tili, 1981. – B.503.]

Nisbat kategoriyasi tarkibida o'z semantik strukturasi ma'lum darajada «soddaligi» bilan xarakterlanadigan birgalik nisbat shakli «harakat-holatning birgalikda bajarilishi» umumiy grammatik ma'nosining parchalanishida (bifurkatsiyalanishida) lug'aviy omil bilan birgalikda sintaktik omilning roli o'ziga xos. Tadqiqotchilar tomonidan birgalik shakli umumiy grammatik ma'nosining ikki oraliq grammatik ma'noga parchalanishi qayd etiladi:

a) «birgalik-tenglik»;

b) «birgalik-yordamlashish». Bu ma'nolarning ajralishi va voqelanishida so'zshaklga tobelanuvchi yoki tobelovchi so'zshakllarning o'ziga xos o'rni mavjud bo'ladi. Quyidagi ikki gapdagi birgalik shaklidagi fe'lning birikuvchilariga e'tibor qaratamiz:

1.Navbahor ukasiga kechgacha ishlashdi.

2.Navbahor va ukasi kechgacha ishlashdi.

Birinchi gapning qolipi [E + T + H + WPm] bo'lsa, ikkinchi gapniki [E + H + WPm]dir. Demak, gap qolipidagi farqlarga muvofiq kesim vazifasidagi fe'lning nisbat ma'nosidan biri yuzaga chiqqan. Aniqrog'i, birinchi gapda «birgalik-yordamlashish» oraliq grammatik ma'nosining bifurkatori vazifasini vositali to'ldiruvchi o'tamoqda. Vositasiz to'ldiruvchi sintaktik hodisa sifatida grammatik shakl valentligi talabi bilan nutqqa qirgan. Ikkinchi gapda eganing struktur tipi (uyushiq ega) birgalik nisbatining «birgalik-tenglik» oraliq grammatik ma'nosi voqelanishida faollik ko'rsatgan deyish mumkin. Shu o'rinda grammatik shakllarning leksema valentik imkoniyatlarini o'zgartirishi haqidagi «bo'linuvchan noaniq miqdoriy ko'plik» sifatida belgilanar ekan, o'z-o'zidan tushunarliki, -lar formantli so'zshakl aniq miqdor ifodalovchi aniqlovchi bilan birika olmaydi. Birikkanda esa, albatta, okkazionallik – g'ayrime'yoriylik sodir bo'ladi. Shuning uchun yuzta kitob, o'ninchi yil kabi birikmalarda aniqlanmish ko'plik shaklida kela olmaydi. Yuzta kitoblar birikmasi

o'zbek tili uchun xos emas, o'ninchi yillar esa xususiy okkazional yoki ixtisoslashgan ma'noga ega. Bundan grammatik shakl so'zning potensial (lisoniy) valentligini o'zgartirishi-kengaytirishi yoki, aksincha, toraytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. [Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya/ Mas'ul muharrirlar H.G'.Ne'matov, R.R.Sayfullayeva. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B.100.] Shuning uchun grammatik shakl valentligi va so'zning potensial (lisoniy) valentligi orasidagi farq grammatik shakl valentligi bilan belgilanadi degan hukmni ilgari surish mumkin»[Nigmatov X. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazychnykh pamyatnikov XI – XII vv. – Tashkent: Fan, 1989. – S.191; Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol ([WPm] valentligi aspektida): Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1997; Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1996.] degan fikrini keltirish o'rinli.

Demak, aytish mumkinki, grammatik shakllar umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishi – bo'linishi va yuzaga chiqishida lisoniy omillarning o'ziga xos o'rni bor. Ular grammatik ma'noning fluktuatori va bifurkatori sifatida ko'p hollarda ustuvor qiymatga ega bo'ladi. Lekin bu ularning imkoniyatlarini mutlaqlashtirishga olib kelmasligi kerak. Chunki sinergetiklik jonli sistemalarning asosiy sifatlaridan biri ekan, lisoniy omillar harakatda bo'lgan o'rinlarda nolisoniy omillar betaraflashuvi va sistemaning jonsiz unsurlari sifatida passiv maqomda bo'lishlari mumkin emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov G'. O'zbek adabiy tilining stilistik normalari // O'zbek tili nutq madaniyatiga oid masalalar. – Toshkent, 1973. – B.51 – 55.
2. Андреев И.Д. Диалектическая логика. – М.: Высшая школа, 1985.– 368 с.
3. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С.5
4. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – М.: Наука, 1976. –384 с.
5. Арутюнова Н.Д. Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис. – М.: Наука, 1992. – 282 с.
6. Ayub G'ulomovning ilmiy merosi (3-kitob). O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. Morfemikaga oid maqolalar. – Toshkent, 2007. – 134 b.
7. Bilish falsafasi. – Toshkent, 2005. – 236 b.

8. Богданов В.В. Функции вербальных и невербальных компонентов в речевом общении // Языковое общение: единицы и регулятивы. – Калинин, 1987. – С.18 – 25.
9. Bozarov D. Sinergetik paradigma. – Toshkent, 2009. – 148 b.
10. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995. – 132 b.
11. Бондарко А.В. Временная локализованность // Теория функциональной грамматики. – Л.: Наука, 1987. – 348 с.
12. Бушуй А.М. Принципы лингвистического структурирования речевого высказывания // Нутқ лингвистикаси. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2006. – Б.8.
13. Бушуй Т.А. Лексическая прагматика как общелингвистический объект // Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. – Самарқанд, 2007. – Б.35 – 40.
13. http://www.google.com/lib.pomorsu.ru/.../Pospelova-Filosofia_i_metodologiya_nauki.pdf
14. <http://www.google.ru>. Sistemaviy tadqiqotlar tarixi. – Samarqand, 2008.
15. <http://www.google.ru>. Tilning belgilar sistemasi ekanligi. – Toshkent, 2008.
16. <http://www.benjamins.com/online>. – Handbook of Pragmatics.
17. <http://ipra.ua.ac.be>. – The programmes and abstracts of the biannual International Pragmatics Conferences.
18. Bondarko A.V. Vremennaya lokalizovannost // Teoriya funktsionalnoy grammatiki. – L.: Nauka, 1987. – 348 s.

NEMIS TILI BO'YICHA XALQARO IMTIHONLAR VA ULARGA TAYYORLANISH BO'YICHA INNOVATSION YONDASHUV

DILLAYEVA DILROZBONU ZAVQIY QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti xorijiy til va adabiyot (nemis tili)
ta'lim yo'nalishi 24-1 guruh talabasi
dillayevadilrozbonu@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xushboqov Oybek Uralovich
Turizm fakulteti Nemis tili kafedrası katta o'qituvchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada nemis tilidagi xalqaro imtihon turlari va ularga tayyorgarlik ko'rishda ahamiyat berish kerak bo'lgan jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari olimlarning fikrlari ham keltirilgan. Shuningdek, bu imtihonlarga tayyorlanish jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion metodlar, onlayn platformalar va zamonaviy o'quv materiallari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu maqola nemis tilini o'rganayotgan talabalar va o'quvchilar uchun foydali tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: nemis tili, xalqaro imtihonlar, Goethe-Zertifikat, TestDaF, DSH, til sertifikatlari, tayyorgarlik, innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim.

Аннотация; В этой статье рассматриваются типы международных экзаменов по немецкому языку и их. В статье рассматриваются аспекты, которым следует уделять

внимание при подготовке. Кроме того, представлены мнения ученых. Также представлена информация об инновационных методах, онлайн-платформах и современных учебных материалах, используемых при подготовке к этим экзаменам. Статья содержит полезные рекомендации для студентов и школьников, изучающих немецкий язык.

Ключевые слова; немецкий язык, международные экзамены, Goethe-Zertifikat, TestDaF, DSH, языковые сертификаты, подготовка, инновационные подходы, цифровое образование.

Abstrakt; article This discusses the types of international exams in the German language and the aspects that should be considered when preparing for them. In addition, the opinions of scientists are presented. It also provides information about innovative methods, online platforms and modern educational materials used in the

preparation for these exams. This article contains useful recommendations for students and pupils learning the German language.

Keywords; German language, international exams, Goethe-Zertifikat, TestDaF, DSH, language certificates, preparation, innovative approaches, digital education.

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish inson uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, nemis tilini bilish Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi mamlakatlarda o'qish, ishlash va yashash uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikma hisoblanadi. Bu tilni bilish darajasini xalqaro miqyosda tasdiqlash uchun turli imtihonlar mavjud. Ushbu maqolada nemis tilidagi asosiy imtihon turlari, ularning tuzilishi va samarali tayyorgarlik bo'yicha foydali maslahatlar yoritiladi.

Nemis tilidagi asosiy imtihonlar turlari; Goethe Institut Imtihonlari: Goethe Institut dunyo bo'ylab nemis tilini o'rganish bo'yicha yetakchi markazlardan biridir. Bu institut A1 dan C2 gacha bo'lgan darajalar bo'yicha xalqaro sertifikatlar beradi.

estDaF (Test Deutsch als Fremdsprache): Bu imtihon nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Asosan, Germaniyada oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun talab etiladi.

DSH (Deutsche Sprachprüfung für den Hochschulzugang): Germaniya universitetlariga kirish uchun maxsus til imtihoni. Imtihon universitetlarda o'tkaziladi va TestDaF ga o'xshaydi, lekin ko'proq akademik tilda muvaffaqiyatli ishlashga yo'naltirilgan.

Telc Imtihonlari: Telc (The European Language Certificates) ham A1 dan C2 gacha bo'lgan xalqaro sertifikatlarni beradi. Bu imtihonlarning afzalligi – ish, o'qish va kundalik hayotda keng qabul qilinishi.

ÖSD (Österreichisches Sprachdiplom): Asosan Avstriyada o'tkaziladigan, lekin Germaniya va Shveysariyada ham tan olinadigan imtihon. Bu imtihon ham barcha darajalarda mavjud.

Imtihon formati va baholash tizimi: Nemis tilidagi imtihonlarning aksariyati quyidagi to'rt asosiy qismdan iborat: Tinglab Tushunish (Hören): Bu bosqichda matn yoki suhbat tinglatiladi va unga oid savollar beriladi.

O'qib Tushunish (Lesen): Bu qismda matnlar berilib, ularning mazmuniga oid test savollari yechiladi.

Yozish (Schreiben): Bu bosqichda esse yoki rasmiy xat yozish talab qilinadi.

Gapirish (Sprechen): Imtihonning eng muhim qismi bo'lib, unda suhbat, fikr bildirish va savollarga javob berish talab qilinadi.

Imtihonlarga Tayyorlanish Strategiyalari: Vaqtni to'g'ri taqsimlash: Imtihonga tayyorlanishda har kuni ma'lum vaqt ajratish muhim. Asosiy Lug'at boyligini

rivojlantirish: Har bir darajaga mos lug'atlarni muntazam o'rganish imtihonlarda muvaffaqiyat kalitidir. Ko'p tinglash va O'qish: Nemis tilidagi audiolar, filmlar, maqolalar va kitoblarni ko'proq o'qish mashq qilish til sezgirligini oshiradi. Yozma va Og'zaki mashqlarni bajarish: Har kuni qisqa matnlar yozish va nemis tilida suhbat qilish nemis tilini o'rganishini yaxshilaydi. Testlarni Yechish: Goethe Institut va TestDaF saytlarida mavjud bo'lgan namunaviy testlarni yechib, imtihonga tayyorlanish mumkin.

Imtihon kunida nimalarga e'tibor berish kerak Stressni boshqarish: Imtihon kuni o'zingizni xotirjam tuting. Savollarni diqqat bilan o'qish: Savollarning har bir so'zini tushunib, noto'g'ri talqin qilmaslik juda muhim. Vaqtdan unumli foydalanish: Har bir bo'lim uchun ajratilgan vaqtni to'g'ri taqsimlang. Shu bilan birga,xaqaro nemis tili imtihonlarga tayyorlanishda zamonaviy,innavatsion yondashuvlardan foydalanish til o'rganish jarayonini tezlashtiradi,o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va natijalarni barqarorlashtiradi.An'anaviy kurslar bilan bir qatorda onlayn ta'lim platformalari ,mobil ilovalar ,interaktiv testlar,multimeda materiallari va virtual suhbat xonalari tilni o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.Bunday yondashuvlar vaqt va mablag'ni tejashga ,mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ,shuningdek ,haqiqiy imtihon muhiti va talabalarga oldindan moslashishga yordam beradi.Zamonaviy innavotsion texnologiyalar ,masalan,sun'iy intellektga asoslangan mashqlar,o'z-ozini baholash tizimlari va onlayn muloqot maydonchalari o'quvchilarini real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi,o'z fikrini erkin va to'g'ri ifodalash ko'nikmasini mustahkamlaydi.Bu esa imtihon natijalarining yuqori bo'lishiga ,keyingi bosqichlarda –o'qish va ish faoliyatida ham samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Xulosa: Nemis tilidagi imtihonlar shunchaki test emas, ular sizning til bilish darajangiz va real hayotdagi til qo'llash qobiliyatingizni sinaydi. Doimiy mehnat, to'g'ri reja va motivatsiya bilan bu imtihonlarda yuqori natijalarga erishish mumkin.Nemis tili bo'yicha xaqaro imtihonlar nafaqat til bilish darajasini rasmiy tasdiqlash ,balki akademik ,kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyat sari muhim qadamdir.Goethe-Zertifiat,TestDaF,DSH, ÖSD va boshqa imtihonlarning mazmuni ,baholash mezonlari va darajalari turli sohalarida keng qo'llanilmoqda hamda xalqaro standartlarga javob beradi.Shu bois ,ushbu imtihonlarga tayyorlanishda zamonaviy va innavatsion yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarga qisqa muddatda samarali natijalarga erishish, o'z til kompetensiyalarini mustahkamlash va imtihon jarayonida yuqori ko'rsatgichlarini qo'lga kiritish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dudenridaktion. Duden – Die Grammatik. – Mannheim: Dudenverlag, 2021
2. Goethe-Institut. Deutschprüfungen A1–C2. [Elektron manba]:

<https://www.goethe.de>

3. Telc GmbH.telc-language tests. – [Elektron manba]: <https://www.telc.net>
4. Österreichisches Sprachdiplom Deutsch (OSD). OSD-Prüfungen. [Elektron manba]: <https://www.osd.at>
5. TestDaF-Institut. Test Deutsch als Fremdsprache (TestDaF). [Elektron manba]: <https://www.testdaf.de>
6. Hochschulrektorenkonferenz. Deutsche Sprachprüfung für den Hochschulzugang (DSH). – [Elektron manba]: <https://www.hrk.de>
7. Helbig G., Buscha J.Deutsche Grammatik –
Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. – Berlin: Langenschiedt, 2017
8. Хушбоков О.У. УЧИТЕЛЬ И УЧИТЕЛЬСТВО: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ // Вестник науки №1 (58) том 3. С. 216 - 218. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/7030>
9. Хушбоков О.У. ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЧИТЕЛЯ И НОВЫЕ ВЫЗОВЫ // Вестник науки №9 (66) том 4. С. 135 - 139. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/10043>

RAVISH VA UNING MA'NO TURLARI**DUSHANOVA FOTIMA SAPARBOY QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

dushanovafotima02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining muhim so'z turkumlaridan biri bo'lgan ravish va uning ma'no turlari ya'ni semantik toifalari o'rganiladi. Ravishlar gapda harakatning tarzini, joyini, vaqtini, sababini, maqsadini va miqdorini ifodalovchi muhim so'z turkumi sifatida o'rganilgan. Shuningdek, ravishning fe'l bilan bog'liqlik xususiyati, bu so'z turkumining muammoli masalalari, tilshunoslik sohasida izlanish olib borgan olimlarning fikrlari kiritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ravish, so'z turkumi, tilshunoslik, o'zbek tili grammatikasi.

Abstract: This article studies the ravish, one of the important word classes of the Uzbek language, and its types of meaning, that is, semantic categories. Ravish are studied as an important word class that expresses the manner, place, time, reason, purpose and quantity of action in a sentence. Also, the nature of the relationship of ravish with the verb, problematic issues of this word class, and the opinions of scholars who have conducted research in the field of linguistics are included.

Keywords: ravish, word class, linguistics, uzbek grammar.

Аннотация: В данной статье рассматривается один из важных классов слов узбекского языка – «равиш», и его типы значений, то есть семантические категории. Равиш рассматривается как важный класс слов, выражающий способ, место, время, причину, цель и количество действия в предложении. Также рассматриваются характер связи «равиш» с глаголом, проблемные вопросы, связанные с этим классом слов, и мнения учёных, проводивших исследования в области лингвистики.

Ключевые слова: «равиш», класс слов, лингвистика, узбекская грамматика.

Tilshunoslikning muammoli masalalaridan biri ravish hisoblanadi. Taniqli tilshunos olim V.V.Vinogradov ravish so'z turkumiga "mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan" deb baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas,

balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o'zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan.[1].

O'zbek tilida mustaqil so'z turkumlaridan biri — bu ravishdir. Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday?, qayer?, qachon?, qancha? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi. Ravishlar ko'pincha fe'lga (tez kelmoq), ba'zan otga (ko'p kitob), sifatga (biroz katta) bog'lanadi.[2].

Shuningdek, ravish so'z turkumi o'rin, payt ma'nolarini ifodalashi bilan ot so'z turkumiga, holat va miqdorni ifodalashi bilan esa sifat hamda son so'z turkumlariga yaqin turadi. D.Yuldashevaning fikricha, "Ravishlarga bir qator otlar va sifatlar juda yaqin turadi. Kecha kunduz, tong, oqshom kabi payt otlari; barvaqt, bir mahal, kech kabi payt sifatleri; atrof, tegra, o'rta, ichkari, tashqari, o'ng, chap, old, orqa kabi o'rin otlari; oldin, keyin, yuqori, past, baland kabi o'rin sifatleri; oz, ko'p, mo'l, butun, to'la kabi miqdor sifatleri shular jumlasidandir." [3]. Ra'no Sayfullayeva "Ravishning yuqoridagi mustaqil so'z turkumlaridan farqli jihatini so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmasligidadir", — deb tavsiflaydi. [4]. Tilshunoslik kitoblarida ravish so'z turkumiga kiruvchi so'ngra, ko'tara, ostin-ustun so'zlari tarkibidagi qo'shimchalar qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan hamda ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravishning holat, o'rin, payt, miqdor-daraja, maqsad-sabab kabi ma'no turlari mavjud.

1. Harakat-holatning qanday vaziyatda bajarilganini bildirgan va qanday?, qay holda?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'luvchi ravishlarga holat ravishlari deyiladi.

Holat ravishlariga jim, yayov, chindan, qo'qqisdan, piyoda, majburan, tasodifan, astoydil, eskicha, qatorasiga, birma-bir, yakkama-yakka, yonma-yon, bafurja, arang, zo'rg'a, mardlarcha, yaqqol, yangicha, o'rtacha, bazo'r, bazur, bemalol, beomon, to'xtovsiz, bexosdan, tez, asta, sekin, ohista, birdan, birdaniga, bir-bir, omon-eson kabi ravishlar kiradi. Esda saqlang: qo'qqisdan, to'satdan, birdaniga, birdan singari ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodalaydi. To'satdan ravishi ayrim shevalarda to'sindan holida ham talaffuz qilinadi. Bunda u dialektal variant hisoblanadi.

Holat ravishi gapda:

1) fe'lga bog'lanib, ravish holi vazifasida keladi: Botir *sekin* ko'zini ochdi

2) otga bog'lanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Yigitning ko'ngli tinchidi va *aybdorlarcha* tabassum bilan qizga qaradi.

3) ot kesim vazifasida keladi: Dalada ishlar *jadal*.

Misollar:

1. Shu payt uydan—yotog'imizdan bolalar ham **birin-ketin** ko'zlarini ishqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshlashdi.

2. O'rtancha botir qo'rqmadi, **jim** turdi.

3. **Uzoqdan**, kun botish tomondan g'ira-shira uchqun ko'rinib qoldi.

4. Bular piyoda **asta-sekin** o'rdaga bordilar.

5. Ikki oshna kechki salqin bilan **piyoda** yo'lga tushibdi.

6. Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi.

2. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildirib, qachon? so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar payt ravishlaridir: endi, hozircha, so'ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon, dastlab, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz, bugun, ertaga, ertalab, ilgari, oldin, qadim, so'ng, keyin, avval, burun, boya, yana, kecha, indin, allaqachon, har doim, bir kuni, har gal, har lahza, har yili, har doim, har onda, har fursatda, shu onda, shu topda, shu lahzada, shu fursatda, hozir.

Payt ravishlari gapda asosan, hol, ba'zan ot kesim vazifasini bajaradi.

Hol: *Bugun* sening tug'ilgan kuning, bugun uying gulga to'ladi.

Ot kesim: Paxta dalalarida musobaqani, termini qizitish pallasini - *hozir*.

Misollar:

1. **Keyin** u yoqqa o'tamiz deb o'ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi.

2. Jiydazordan **hozirgina** keldim.

3. **Ertaga** chigit ekishni boshlaymiz.

4. Uni **buguncha** tinch qo'y.

5. Yolg'on gapga ishonmang, **erta-yu kech** daladaman.

6. **Yarim kechadan keyin** Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi.

7. **Ertaindin** rejani to'ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi.

3. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik o'rnini bildirib qayer? so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar o'rin ravishlaridir: olg'a, ichkari, tashqari, nari, beri, uzoqdan, yaqindan, olisda, yuqorida, pastda, u yoqda, bu yoqqa, u yerda, bu yerda, har yerda, har joydan, oldindan.

O'rin ravishlari, asosan, o'rin holi, ba'zan ot kesim vazifasini bajaradi.

Hol: *Oldindan* sovuq shamol esardi.

Ot kesim: Hali yutuqlarimiz *oldinda*.

Misollar:

1. **Tashqariga** chiqib G'ofurjon boydan ketishga izn so'raydi.
2. Sherqo'ziga ko'zi oldidan **nari** ketishi uchun ruxsat bermay qo'ydi.
3. Salmon ota gapni **uzoqdan** boshladi.
4. Idoraga yaqin qolganda Nuriddin otga qamchi urdi.
5. Oldinda Shirinbuloq qishlog'i butun bo'y-basti bilan yastanib yotardi.

4. Harakat-holatning bajarilishdagi miqdor-darajasini bildirib, qancha? so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar miqdor-daraja ravishlaridir: sal, oz, picha, ko'p, kam, ancha, xiyol, xiyla, biroz, bir talay, jinday, eng, nihoyatda, juda, sal-pal, bag'oyat, qittay.

Miqdor-daraja ravishi gapda:

- 1) asosan, fe'lga bog'lanib, daraja-miqdor holi vazifasini bajaradi: *Oz gapir, ko'p tingla.*
- 2) ba'zan otga bog'lanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Oz so'z-soz so'z.*
- 3) gapning oxirida kelib, ot kesim vazifasini bajaradi: *Qalbimizda orzularimiz ko'p.*

Misollar:

1. Yaxshiligingiz **sira-sira** yerda qolmaydi.
2. Qaddini rostlab, eshikni **uzoq** taqillatdi.
3. Abdushukur bu yerdan **tezda** chiqib ketish payiga tushdi.
4. Bo'ying **sal** cho'zilsin, bironta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshiraman.
5. U aravani Nuriddin minganini ko'rib **xiyla** yengil tortdi.
6. **Ko'p** o'tmay hamma ichkariga taklif etildi.
7. Kunduzi o'ralashib yurganlardan bu yerda **qittay** ham qolmagan.

5. Ataylab, atayin, atay, jo'rttaga, qasddan, azza-bazza kabi ravishlar maqsad ravishlari, noiloj, noilojlikdan, chor-nochor, ilojsizlikdan kabi ravishlar sabab ravishlari hisoblanib, ularning miqdori u qadar ko'p emas.

Ravishlarning ma'no turlari doirasidagi omonimlik mavjud bo'lib, uni gapning ma'nosidan bilib olsa bo'ladi.

Holat ravishi: Salmon ota gapni **uzoqdan** boshladi.

O'rin ravishi: **Uzoqdan** uni bir ho'kiz to'xtovsiz chaqirib kelardi.

O'rin ravishi: Universitet **yaqinda**, piyoda borsam ham bo'ladi.

Payt ravishi: **Yaqinda** test topshiraman.

Holat ravishi: Siz bilan **yaqindan** tanishmoqchiman.

O'rin ravishi: **Yaqindan** qizlarning kulgisi eshitildi.

O'rin ravishi: Partalarni **nari-beri** surdik.

Holat ravishi: Choyni **nari-beri** ichdi.[5].

Ravishlar, ayniqsa, badiiy adabiyotda, nutqqa obrazlilik va aniqlik bag'ishlaydi. Jumladagi harakatga muayyan tus berish, ularning holatini batafsil ko'rsatish orqali matnning ifodaviy kuchi oshadi [6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ravishlar o'zbek tilining muhim so'z turkumlaridan biri sifatida til boyligini oshiradi va harakatlar, holatlar, belgilarni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Umuman olganda, ravish so'z turkumi o'zbek tilining semantik va grammatik tizimida alohida ahamiyat kasb etishi bilan alohida e'tiborga egadir. U nafaqat til birliklari orasida mustaqil o'rinni egallaydi, balki nutqning ta'sirchanligi, aniqligi va ifodaviyligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tilshunoslikda ravishlar ustida olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa ularning ma'no turlari tahlili, tilni chuqur o'rganish uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, ravishlarni chuqur tadqiq etish va ularni o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. "O'zbek tili grammatikasi" – Toshkent – 2018.
2. Erkaboyeva Nargiza, "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" — "Akademnashr" nashriyot manbaasi— 2016.
3. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent, 2009, 414-b.
4. Xaitov Z. Hozirgi o'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent, 2018 .
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro, 2021, 420-b.

SO'ZLARNI TURKUMLARIGA AJRATISH PRINSIPLARI**ERGASHEVA NOZIMA ALIM QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

nozimaergasheva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi so'z turkumlariga ajratish prinsiplari, ularning mohiyati va hozirgi o'zbek tilshunosligidagi talqinlari haqida so'z yuritiladi. Tilshunoslikda so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi qadimdan bahsli bo'lib, semantik, morfologik va sintaktik prinsiplarga asoslangan tasniflar ishlab chiqilgan. Bugungi o'zbek tilshunosligida bu prinsiplarga zamonaviy qarashlar ham qo'shib, nutqiy yondashuv ham muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: so'z turkumlari, semantik prinsip, morfologik prinsip, sintaktik prinsip, nutqiy yondashuv, zamonaviy tilshunoslik.

Abstract. This thesis discusses the principles of word classification, their essence and interpretations in modern uzbek linguistics. The issue of dividing words into categories has long been controversial in linguistics, and classifications based on semantic, morphological and syntactic principles have been developed. In today's uzbek linguistics, modern views are added to these principles, and the discourse approach also plays an important role.

Keywords: word categories, semantic principle, morphological principle, syntactic principle, discourse approach, modern linguistics.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются принципы классификации слов, их сущность и интерпретации в современном узбекском языкознании. Вопрос о делении слов на категории долгое время вызывал споры в узбекской лингвистике, и были разработаны классификации, основанные на семантическом, морфологическом и синтаксическом принципах. В современном узбекском языкознании к этим принципам добавляются современные взгляды, а дискурсивный подход также играет важную роль.

Ключевые слова: категории слов, семантический принцип, морфологический принцип, синтаксический принцип, дискурсивный подход, современное языкознание.

So'z turkumlari til tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, grammatik qurilishning barqarorligini ta'minlaydi. So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi qadimiy

grammatikalarda ham muhim o'rin egallagan. O'zbek tilshunosligida so'z turkumlarini ajratishda uchta asosiy prinsip mavjud: semantik, morfologik va sintaktik. Semantik prinsip so'zlarning leksik ma'nosiga asoslanadi. Masalan, predmetni bildiruvchi so'zlar otlar, belgi bildiruvchilar sifatlar, harakatni bildiruvchilar fe'llar hisoblanadi. Bu prinsip tildagi ma'no farqlanishini aniq ko'rsatadi. Morfologik prinsip esa so'zlarning shakllanishi, grammatik kategoriyalarining mavjudligi yoki yo'qligiga asoslanadi. Masalan, otlarda kelishik va son kategoriyalari, fe'llarda zamon, shaxs va mayl kategoriyalari mavjud. Bu yondashuv so'zlarning grammatik xususiyatlarini hisobga oladi. Sintaktik prinsip so'zlarning gapdagi vazifasini e'tiborga oladi. Masalan, ot gapda asosan ega va to'ldiruvchi bo'lib kelsa, fe'l kesimlik vazifasini bajaradi. Demak, so'zlarning gapdagi sintaktik roli ularni turkumlashda muhim mezon hisoblanadi. So'z turkumlari masalasi o'zbek tilshunosligida turlicha talqin qilinadi. A.G'ulomov va Sh.Rahmatullayev ishlarida morfologik va sintaktik belgilar asosiy mezon sifatida ajratilgan bo'lsa, R.Sayfullayeva tadqiqotlarida so'z turkumlarining nutq jarayonidagi qo'llanilishi alohida ta'kidlanadi. [1: 30]. G'.Abdurahmonov va A.Nurmonov kabi olimlar esa so'z turkumlarini qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan ham tadqiq etib, turkiy tillar grammatikasida so'z turkumlari tasnifining o'ziga xos tomonlarini yoritib berganlar. [2: 61]. Zamonaviy tilshunoslikda so'z turkumlari masalasi yangi yo'nalishlar asosida ham o'rganilmoqda. Xususan, nutqiy yondashuv asosida so'zlarning kommunikativ jarayondagi o'рни va ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda internet tili, yangi atamalar va ingliz tilidan kirib kelayotgan birliklar ham so'z turkumlari tasnifida ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tilning leksik boyligini tartibga solishda, so'zlarni ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi o'zbek tilshunosligida hamisha dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu jarayon so'zlarning umumiy grammatik ma'nosi, morfologik shakllanishi va gapdagi sintaktik vazifasiga asoslanadi. [3: 99].

So'z turkumlari tizimini o'rganish tilning ichki tuzilishini anglash, grammatik kategoriyalarni aniqlash hamda nutqiy faoliyatning qonuniyatlarini tahlil qilishda alohida o'rin tutadi. O'zbek tili grammatikasi tarixida so'z turkumlarini ajratishning bir necha yondashuvlari mavjud bo'lib, ular tilshunoslikning rivojlanish bosqichlariga muvofiq takomillashib borgan.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlarini belgilash an'analari eski turkiy yozma yodgorliklardan boshlangan. Xususan, "Devonu lug'otit turk" asarida Mahmud Koshg'ariy so'zlarni ma'no va vazifasiga qarab ajratgan bo'lsa, keyinchalik Alisher

Navoiy, Bobur singari allomalar ham soʻz turkumlariga doir nazariy fikrlarni ilgari surganlar. [4: 145].

XX asrda oʻzbek tilining ilmiy grammatikasi shakllanishi bilan bu masala ilmiy asosda oʻrganila boshladi. Fitrat, Gʻ.Abdurahmonov, A.Hojiyev, A.Gʻulomov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullaev kabi olimlar tomonidan soʻz turkumlarini belgilash prinsiplari chuqur tahlil qilingan.

2. Soʻz turkumlarini ajratish prinsiplari:

Tilshunoslikda soʻzlarni turkumlarga ajratish uchta asosiy prinsip asosida amalga oshiriladi:

a) Semantik prinsip (maʼno mezon):

Soʻzning umumiy grammatik maʼnosi unga tegishli turkumni aniqlashda muhim oʻrin tutadi. Masalan, predmet nomini bildiruvchi soʻzlar —ot, predmetning belgisini bildiruvchi soʻzlar —sifat, harakatni ifodalovchi soʻzlar —feʼl turkumiga kiradi.

b) Morfologik prinsip (shakl mezon):

Soʻzlarning oʻzgarish, turlanish, tuslanish imkoniyati ham ularni ajratishda asosiy belgi hisoblanadi. Masalan, otlar egalik, kelishik, son qoʻshimchalari bilan oʻzgaradi; feʼllar shaxs, zamon, mayl shakllariga ega boʻladi.

c) Sintaktik prinsip (gapdagi vazifasi):

Soʻzning gapda qanday vazifani bajarishi (ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi va h.k.) ham uning turkumini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ot koʻpincha ega yoki toʻldiruvchi boʻlsa, feʼl kesim vazifasida keladi.

Bu uchta mezon oʻzaro bogʻliq holda qoʻllanilgandagina toʻliq va ilmiy asoslangan tasnif hosil boʻladi.

Hozirgi oʻzbek tilshunosligida soʻzlar mustaqil, yordamchi va modal soʻzlar guruhlariga ajratiladi.

Mustaqil soʻz turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish.

Yordamchi soʻz turkumlari: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.

Modal soʻzlar esa soʻzlovchining fikrga munosabatini bildiradi.

Baʼzi olimlar (masalan, A.Hojiyev) mustaqil soʻzlarga undov va taqlid soʻzlarni ham kiritishni taklif qilgan, biroq bu borada yagona fikr mavjud emas.

Soʻz turkumlarini ajratishdagi zamonaviy yondashuvlar. Soʻnggi yillarda oʻzbek tilshunosligida struktur-semantik tahlil asosida soʻz turkumlarini qayta koʻrib chiqish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu yondashuvda soʻzlarning faqat shakliy belgilarigagina emas, balki ularning funksional-semantik maydoni, kontekstual oʻzgarishlari va tizimdagi oʻzaro munosabatlari ham inobatga olinadi.

Masalan, “yosh” so‘zi “bola yosh” (sifat) va “uning yoshi katta” (ot) shaklida turli turkumlarga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Bu esa til tizimining dinamik tabiati va semantik ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari tilning grammatik tizimini o‘rganishda asosiy nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘z turkumlari semantik, morfologik va sintaktik mezonlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida belgilanadi. Hozirgi zamon tilshunosligi bu jarayonga tizimli va funksional yondashuv asosida qarab, so‘zlarning grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini bir butunlikda tahlil etadi. [5: 23].

Bu masala nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy grammatikani o‘qitishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tilning tuzilish qonuniyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. 30-b.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1991. 61-b.
3. Sayfullayeva R., Rasulova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 99-b.
4. O‘rinboyev B. O‘zbek tilshunosligida sintaktik birliklarning tasnifi. – Toshkent: TDPU, 2010. 245-b.
5. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1966.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR

ERKINOVA SARVINOZ ILHOMJON QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

sirtqi bo'limi 4-kurs talabasi

erkinovasarvinoz077@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ona tili fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni va o'qituvchining innovatsion faoliyati yoritilgan. Unda interfaol metodlar, AKT vositalari, kommunikativ yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim uslublarining afzalliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ona tili, metodika, interfaol usullar, innovatsiyalar, ta'lim texnologiyasi, kommunikativ yondashuv

Аннотация: В статье рассматривается эффективность современных методических подходов в преподавании родного языка, роль в развитии самостоятельного мышления учащихся и инновационной деятельности преподавателя. Анализируются преимущества интерактивных методов, ИКТ и личностно-ориентированного обучения.

Ключевые слова: Родной язык, методика, интерактивные методы, инновации, образовательная технология, коммуникативный подход

Annotation: The article examines the effectiveness of modern methodological approaches in teaching the native language, highlighting their role in developing students' independent thinking and teachers' innovative activity. It analyzes the advantages of interactive methods, ICT tools, communicative and learner-centered teaching styles.

Keywords: Native language, methodology, interactive methods, innovations, educational technology, communicative approach

Bugungi kunda ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitishning mazmuni va metodikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ona tili fanini chuqur o'rganish, uni o'quvchilarga to'g'ri va qiziqarli tarzda yetkazish, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil fikrlashga o'rgatish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi. Ona tili darslarida o'quvchilar til hodisalarini nafaqat yodlab olish, balki ularni amaliyotda qo'llash, o'z fikrini aniq ifoda etish va nutq madaniyatini rivojlantirishga o'rganadi. Shu bois, dars jarayonida zamonaviy

pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Masalan, klaster, insert, aqliy hujum, konseptual xarita, "Beshinchisi ortiqcha" kabi usullar o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi va ularni o'rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish jarayonini **kompetensiyaga asoslangan yondashuv** orqali tashkil etish muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchining faqat bilim egallashini emas, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ona tili fanida bu yondashuv orqali o'quvchi til hodisalarini amaliyotda qo'llay oladi, o'z fikrini erkin, mantiqan to'g'ri va nutqiy jihatdan aniq bayon etadi.

Kommunikativ yondashuv ham ona tili ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv orqali o'quvchi o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqan asoslangan va ifodali tarzda bayon qilishni o'rganadi. Har bir mavzuni o'quvchining hayotiy tajribasiga bog'lab o'rganish natijasida bilimlar yanada mustahkamlanadi. Masalan, fe'llar mavzusini o'rganishda o'quvchilarga kundalik hayotdagi harakatlarni ifodalovchi misollar keltirish ularning qiziqishini oshiradi.

Bugungi kunda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki **yo'naltiruvchi va ilhomlantiruvchi shaxs** sifatida maydonga chiqmoqda. U dars jarayonida o'quvchini fikrlashga, savol berishga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchining innovatsion yondashuvi o'z ustida doimiy ishlash, yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, tahliliy kuzatuv olib borish bilan belgilanadi. Ona tili ta'limida AKT vositalaridan foydalanishning o'rni beqiyos. Zamonaviy ta'limda elektron darsliklar, onlayn testlar, interaktiv taqdimotlar, multimediya vositalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi darsning tashkilotchisi, yo'naltiruvchisi va ilhomlantiruvchisi sifatida ishtirok etadi. Har bir dars o'quvchi faol ishtirok etadigan ijodiy muhitda tashkil etilishi lozim.

Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, bilish qobiliyatini va psixologik holatini inobatga olgan holda topshiriqlar berish o'quv jarayonini samarali qiladi. Bu esa o'quvchilarni nafaqat grammatikani o'rganishga, balki mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undaydi.

Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv ham dolzarb masalalardan biridir. Ona tili fanini o'qitish orqali o'quvchilarda milliy g'urur, Vatanga muhabbat, o'z tiliga ehtirom tuyg'usi shakllanadi. Darslarda o'zbek adabiyotining durdonalari, maqollar, hikmatli so'zlar, xalq og'zaki ijodi namunalarini qo'llash o'quvchilarni ma'naviy boyitadi. Bu jarayon, o'z navbatida, yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ona tili fanini samarali o'qitish uchun o'qituvchi doimo

o'z ustida ishlashi, metodik yangiliklarni o'rganishi va amaliyotga tadbiq etishi zarur. Har bir yangi metod o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlasa, ta'lim sifati oshadi. Shu sababli, zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini uyg'otuvchi shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ularning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi. Innovatsion metodlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Shodmonov A. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – T.: Fan, 2017.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T.: O'zbekiston, 2021.
4. Saidova D. *Interfaol metodlar – ta'lim samaradorligi omili*. – T.: TDPU, 2019.
5. Xolmurodova N. *Ona tili ta'limida kommunikativ yondashuvning amaliy jihatlari*. – T.: TDPU, 2020.

FRAZELOGIYA VA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

ESANMUROTOVA SEVINCH ZOHIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

sevinchesanmurodova50@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi frazeologizmlar va xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritiladi. Maqol, matal, ertak, rivoyat va qo'shiqlarning frazeologik birliklar shakllanishidagi o'rni aniq misollar bilan tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologizmlarning xalq nutqida estetik-badiiy, tarbiyaviy va kommunikativ vazifalari ko'rsatib beriladi. Xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan og'zaki ijod namunalari til boyligining shakllanishi va taraqqiyotida muhim manba sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, maqol, matal, ertak, rivoyat, qo'shiq, xalq og'zaki ijodi, metafora, metonimiya, sintaktik qotish, estetik vazifa, tarbiyaviy vazifa, kommunikativ vazifa.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимная связь фразеологизмов узбекского языка и народного устного творчества. Анализируется роль пословиц, поговорок, сказок, преданий и песен в формировании фразеологических единиц на основе конкретных примеров. Также показаны эстетико-художественная, воспитательная и коммуникативная функции фразеологизмов в народной речи. Образцы устного народного творчества, являясь плодом народной мудрости, интерпретируются как важный источник в формировании и развитии лексического богатства языка.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, пословица, поговорка, сказка, предание, песня, устное народное творчество, метафора, метонимия, синтаксическое сращение, эстетическая функция, воспитательная функция, коммуникативная функция.

Abstract: This article examines the interrelation between Uzbek phraseological units and folk oral traditions. The role of proverbs, sayings, fairy tales, legends, and songs in the formation of phraseological expressions is analyzed through concrete examples. The aesthetic, didactic, and communicative functions of phraseological units in folk speech are also highlighted. Samples of folk oral creativity, as a product of

collective wisdom, are interpreted as an essential source for the formation and development of the lexical richness of the Uzbek language.

Keywords: phraseology, phraseological unit, proverb, saying, fairy tale, legend, song, folk oral tradition, metaphor, metonymy, syntactic fusion, aesthetic function, didactic function, communicative function.

Tilshunoslik fanining o'ziga xos va serqirra bo'limlaridan biri — frazeologiyadir. Bu soha tilning tayyor shaklda qo'llaniladigan iboralari, ularning semantik tuzilishi, milliy-madaniy mazmuni hamda nutqdagi funksiyalarini o'rganadi. Frazeologik birliklar til boyligining muhim qatlamini tashkil etib, millatning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va hayot tarzini aks ettiradi. Frazeologiyaning manbai juda keng bo'lib, unda yozma adabiyot, diniy manbalar, turli ijtimoiy hayot jarayonlari bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodi alohida o'rin tutadi. Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: "burgaga achchiq qilib", "ko'rpaga o't qo'yimoq", "tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq", "ko'ngli bo'sh", "hash-pash deguncha" denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi. Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida "yoqasini ushlamoq" frazeologizmi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, ta'ajublanmoq" bo'lsa, "hayron bo'lmoq" leksemasi "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos", "bo'yoqdor" semalariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi. Frazeologizm, asosan, bir ma'nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmida ham uchraydi. Masalan, "aqli yetadi" frazeologizmi "ishonch qilmoq", "bo'yniga olmoq" ma'nosiga, "bo'yniga qo'yimoq" iborasi 3 ta—"aybni birovga to'nkamoq", "isbotlab, e'tirof qildirmoq", "biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq" ma'nolariga, "qo'lga olmoq" iborasi esa 4 ta—"o'z ixtiyoriga olmoq", "qo'qqisdan hujim qilib bosib olmoq", "qamash maqsadida tutmoq", "biron yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq" ma'nolariga ega. Xalqning asrlar davomida yaratgan maqol,

matal, ertak, qo'shiq, rivoyat, latifa va topishmoqlari frazeologizmlarning shakllanishi va barqarorlashuviga asos bo'lgan. Shu sababli frazeologiya va xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi tilshunoslikda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Frazeologiya barqaror so'z birikmalarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Frazeologizmlar erkin so'z birikmalaridan farqli o'laroq, yaxlit semantik ma'noga ega bo'lib, ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, "yurak yutmoq" iborasi so'zma-so'z emas, balki "jasorat ko'rsatmoq" ma'nosida ishlatiladi. Frazeologik birliklar tarkibida nafaqat idiomlar, balki maqol va matallar, hikmatli so'zlar, barqaror iboralar ham mavjud. Shunday qilib, frazeologiya xalq tafakkurining obrazli ifodasini, milliy til boyligini tadqiq etuvchi muhim fan sohasi sifatida qaraladi.

Xalq og'zaki ijodi (folklor) xalq tafakkuri va madaniyatining eng qadimiy ko'rinishidir. Unga maqol, matal, ertak, rivoyat, topishmoq, qo'shiq, afsona va latifalar kiradi. Bu janrlarning barchasi xalqning estetik zavqini qondiradi, dunyoqarashini ifodalaydi, shu bilan birga, tilning rivojiga, xususan, frazeologik qatlamning boyishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki folklor asarlari obrazli, qisqa va xalqona ifodalar bilan to'la bo'ladi, bunday ifodalar esa vaqt o'tishi bilan barqaror iboraga — frazeologizmga aylanadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri bo'lib, xalqning donishmandligi, hayotiy tajribasi va kuzatuvchanligini ixcham shaklda ifodalaydi. Maqollar, odatda, hikmatli so'z sifatida qo'llanadi, biroq ular ko'plab frazeologik birliklarning shakllanishiga ham asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, "Yaxshilik qil, dengizga ot — baliq bilmasa, Xoliq bilar" maqolida yaxshilik qilishning bevosita natija kutmagan holda ham qadrlanishi ta'kidlanadi. Ushbu maqol asosida "yaxshilik qilmoq" frazeologik iborasi nutqda keng ishlatiladi. Shuningdek, "Yomg'ir yog'sa yer ko'karar, yaxshilik qilsa el ko'karar" maqolidan "el ko'tarilmoq" iborasi hosil bo'lib, xalq birligi va totuvligining muhimligini ifodalagan. "Oz-oz o'rganib dono bo'lar, tomchi-tomchi yig'ilib daryo bo'lar" maqoli esa sabr va mehnatning samarasini ko'rsatib, undan "tomchi-tomchi yig'ilmoq" iborasi shakllangan. Demak, maqollar nafaqat xalq donoligining timsoli, balki tilning frazeologik qatlamini boyituvchi manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Matallar ham xalq nutqining ixcham, lo'nda va obrazli ifoda shakli bo'lib, ular ham frazeologizmlarga asos bo'lib kelgan. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" matali asosida "uyasida ko'rganini qilish" iborasi paydo bo'lib, insonning tarbiyasi va xulqi ko'pincha oila muhitiga bog'liqligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, "Arslonning izidan yo'rg'alash" matali asosida "izidan yurmoq" iborasi shakllangan bo'lib, bu

boshqalarga ergashish, ularning izidan ketish ma'nosida qo'llanadi. Yana bir misol, "Yomg'ir yog'sa yer ko'karar" matali oddiy tabiat hodisasidan kelib chiqqan bo'lsa-da, undan "yer ko'karmoq" frazeologizmi hosil bo'lgan va xalq tilida hayotning yangilanishi, yurtning obod bo'lishi ma'nosida ishlatiladi.

Xalq ertaklari va rivoyatlari ham frazeologizmlarning muhim manbai hisoblanadi. Ular xalq tafakkurining mahsuli bo'lib, undagi qahramonlar, hayvonlar va fantastik obrazlar ko'pincha iboralarga asos bo'lgan. Masalan, ertaklarda uchraydigan Yalmog'iz kampir obrazi asosida "yalmog'izdek qaramoq" iborasi shakllangan va u odamning g'azabli, qo'rqinchli qarashini ifodalaydi. Xuddi shuningdek, rivoyatlardagi dev obrazidan "devdek kuchli" yoki "devday ulkan" iboralari kelib chiqqan. O'zbek xalq dostonlaridagi mashhur qahramonlar ham frazeologiyaga ta'sir etgan. Masalan, "Alpomishdek botir" iborasi jasorat va mardlikni ifodalasa, "Go'ro'g'ldek qo'rqmas" iborasi qo'rqmaslik va qahramonlik ramzi sifatida ishlatiladi.

Xalq qo'shiqlari ham o'ziga xos obrazli ifodalar orqali frazeologik boylikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Ko'nglim tog'day, ko'zim daryoday" qo'shig'idan "ko'ngli tog'dek" va "ko'zi daryodek" iboralari hosil bo'lgan bo'lib, ular insonning saxiyligi va kengfe'lligini ta'riflash uchun ishlatiladi. Shuningdek, "Yorimdan ayrildim, yuragim qon bo'ldi" misrasi asosida "yuragi qon bo'ldi" iborasi shakllanib, chuqur iztirobni ifodalaydi. Qo'shiqlarda uchraydigan "Oq yo'llar tilayman" kabi ifodalar esa "oq yo'l tilamoq" iborasiga aylangan va insonlarga ezgu niyat bildirishda keng qo'llanadi.

Frazeologik birliklarning xalq og'zaki ijodidan kirib kelishi bir nechta mexanizm orqali yuz beradi. Birinchidan, **metaforik ko'chish** — o'xshatish orqali shakllanadi. Masalan, "temirdek qat'iy" iborasi qat'iyatni temirga qiyoslash asosida hosil bo'lgan. "Qarg'aday qoralash" iborasi esa qora qush obrazi asosida yaratilgan. Ikkinchidan, **metonimik ko'chish** — predmet yoki hodisaning aloqadorlik asosida ifodalanishidir. Masalan, "oq non qo'lga kirmoq" iborasi nonning farovonlik ramzi sifatida qo'llanishidan paydo bo'lgan, "to'yga qo'shilmoq" iborasi esa nafaqat marosim, balki quvonch va jamiyat hayoti ramzini anglatadi. Uchinchi mexanizm bu **sintaktik qotish** bo'lib, tez-tez takrorlanadigan so'z birikmalari asta-sekin barqarorlashib frazeologizmga aylanadi. Masalan, "ko'z-quloq bo'lmoq" dastlab erkin birikma sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik mustahkam ma'noga ega iboraga aylangan. "Qo'l qovushtirib turmoq" iborasi ham avval oddiy jismoniy harakatni ifodalagan, lekin vaqt o'tishi bilan "harakatsiz qolmoq" ma'nosida mustahkamlangan. Frazeologizmlarning xalq og'zaki ijodidagi vazifalari ham beqiyosdir. Birinchidan, ular **estetik-badiiy vazifani** bajaradi, ya'ni nutqqa go'zallik, obrazlilik va ta'sirchanlik

beradi. Masalan, “Dil toshday bo‘ldi” yoki “ko‘ngli muzday” iboralarini inson xarakterini jonli va kuchli obraz orqali ifodalaydi. Ikkinchidan, frazeologizmlar **tarbiyaviy vazifaga** ega. Ular yosh avlodni axloqiy qadriyatlar va mehnatga yo‘naltiradi. Masalan, “Yaxshilik qil, qaytmasa qaytar” yoki “Mehnat qilgan odam och qolmaydi” kabi iboralar xalq pedagogikasining bir qismi sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, frazeologizmlar **kommunikativ vazifani** bajaradi: ular nutqni ixcham, aniq va ta’sirchan qiladi. Masalan, “Bir og‘iz so‘z bilan dushman orttir” yoki “Bir kulgu ming dardni unutadi” kabi iboralar qisqa bo‘lsa-da, chuqur mazmun ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlik uzviy va bevositadir. Xalq yaratgan maqol, matal, qo‘shiq, ertak va rivoyatlar tilimizning frazeologik qatlamini boyitibgina qolmay, xalqning donishmandligi, madaniyati va hayotiy tajribasini ham ifodalaydi. Shu bois o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rganishda xalq og‘zaki ijodi asosiy va ishonchli manba sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev S. *O‘zbek tili frazeologik lug‘ati*. — Toshkent, 2024.
2. Suyunov B. *Frazeologiya nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent, 2021.
3. O‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2019.
4. Yuldasheva O. *O‘zbek xalq maqollarining lingvistik xususiyatlari*. — Toshkent, 2022.
5. *Ўzbek folklori*. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. R.SAYFULLAYEVA, B.MENGLIYEV, G.boqlyeva, M.QURBONOVA, Z.YUNUSOVA, M.ABUZALOVA. TOSHKENT – 2009
7. <https://uz.wikipedia.org>
8. <https://oefen.uz>

TERMINOLOGIK TADQIQOTLAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB ELEKTRON LUG'ATLAR YARATISH METODI

ESHQUVATOVA GULCHEHRA BERDIYOROVNA

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti

Assistent

eshquvatovagulchehra3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologik tadqiqotlar jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanib elektron lug'atlar yaratish metodlari yoritilgan. Asarda elektron lug'at tuzishning bosqichlari, terminologik korpus tayyorlash, avtomatik tahlil qilish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, multimedia imkoniyatlarini qo'shish va xalqaro integratsiya masalalari keng ko'rib chiqiladi. Elektron lug'atlarning ta'lim, tarjima amaliyoti, ilmiy izlanishlar va mutaxassislararo muloqotdagi ahamiyati hamda istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: terminologiya, elektron lug'at, raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar bazasi, sun'iy intellekt, multimedia, xalqaro integratsiya.

Abstract. This article discusses the methods of creating electronic dictionaries using digital technologies in the process of terminological research. It highlights the main stages of dictionary development, including corpus preparation, automatic analysis, database structuring, multimedia integration, and international cooperation. The role and future prospects of electronic dictionaries in education, translation practice, research, and professional communication are analyzed.

Keywords: terminology, electronic dictionary, digital technologies, database, artificial intelligence, multimedia, international integration.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы создания электронных словарей с использованием цифровых технологий в процессе терминологических исследований. Освещаются этапы разработки словаря: подготовка корпуса, автоматический анализ, формирование базы данных, мультимедийные возможности и международная интеграция. Анализируется значение и перспективы электронных словарей в образовании, переводческой практике, научных исследованиях и профессиональном общении.

Ключевые слова: терминология, электронный словарь, цифровые технологии, база данных, искусственный интеллект, мультимедиа, международная интеграция.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida fan, ta'lim va texnologiya sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar terminologik tadqiqotlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda ilmiy bilimlarning jadal kengayishi va yangi atamalarning paydo bo'lishi ularni to'plash, tizimlashtirish va keng ommaga taqdim etishning zamonaviy usullarini talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan elektron lug'atlar nafaqat ma'lumot manbai, balki zamonaviy ta'lim jarayonida, tarjima faoliyatida, ilmiy izlanishlarda va xalqaro hamkorlikda asosiy ko'makchi vositaga aylanib bormoqda.

An'anaviy bosma lug'atlar o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, ular tezkor yangilanish, interaktiv foydalanish va multimedia imkoniyatlaridan mahrumdir. "An'anaviy bosma lug'atlar ma'lumotlarni statik shaklda taqdim etadi, bu esa ularning yangilanishi va interaktivligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi" [1: 133]. Masalan, bosma lug'atdagi ma'lumotlar yangi atamalar paydo bo'lganda tezda eskirib qoladi. Bunga qarshi ravishda, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan elektron lug'atlar foydalanuvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda keng imkoniyatlardan foydalanish, turli ma'lumotlarni tezkor qidirish hamda interaktiv shaklda o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, elektron lug'atlar terminlarning xalqaro darajada yagona standart asosida qo'llanishiga ko'maklashadi. Masalan, tibbiyot sohasida "COVID-19" yoki "genom tahriri" kabi yangi terminlarning qisqa vaqt ichida butun dunyo bo'ylab yagona talqinda tarqalishi elektron lug'atlar orqali amalga oshdi. Shu sababli ushbu tadqiqot elektron lug'at yaratish metodlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan.

Elektron lug'at yaratish jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tish zarur. Quyida ular ketma-ket yoritib beriladi:

1. **Terminologik korpusni shakllantirish.** Tadqiqot ob'ekti bo'lgan terminlarning keng ko'lamli korpusini yig'ish, ularni mavzular bo'yicha guruhlash va sohalararo bog'liqligini aniqlash zarur. Masalan, axborot texnologiyalari lug'atini yaratishda "sun'iy intellekt", "neyron tarmoq", "kiberxavfsizlik" kabi atamalar to'planadi va ular bilan bog'liq ilmiy maqolalar, darsliklar hamda internet manbalari asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu yo'sinda shakllangan korpus keyingi barcha tadqiqot va tahlillar uchun tayanch bo'lib qoladi.

2. **Avtomatik tahlil qilish.** Sun'iy intellekt va lingvistik dasturlar yordamida terminlarning morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olib boriladi. Masalan, tilshunoslik lug'atida "o'qituvchi" va "ustoz" kabi so'zlarning sinonimlik darajasi ko'rsatilishi yoki "funksiya" atamasining matematika va biologiya

fanlarida turlicha ma'noda qo'llanishi farqlab berilishi mumkin. Bu bosqich foydalanuvchiga terminlarning aniq va kontekstga mos talqinini taklif etadi.

3. **Ma'lumotlar bazasini yaratish.** Terminlar haqidagi ma'lumotlarni elektron ko'rinishda saqlash va ular uchun tezkor qidiruv imkoniyatlarini yaratish muhim bosqichdir. Har bir termin uchun ta'rif, izoh, qo'llanish misollari, soha doirasi va hatto tarixiy rivojlanish jarayoni kiritiladi. Masalan, "algoritm" atamasiga dasturlashdagi misollar, kelib chiqish tarixi va zamonaviy qo'llanish sohasi berilishi foydalanuvchiga yanada kengroq tushuncha hosil qiladi.

4. **Multimedia integratsiyasi.** Terminlarni audio, video va grafik materiallar bilan boyitish ularning yanada tushunarli va interaktiv bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, fonetika lug'atlarida so'zlarning talaffuzi audio shaklida berilishi yoki biologiya lug'atlarida yurakning ishlash jarayoni animatsiya orqali ko'rsatilishi foydalanuvchilarning bilimni tez va samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

5. **Xalqaro integratsiya.** Elektron lug'atlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, turli tillar bilan uyg'unlashtirish va ikki yoki ko'p tilli lug'atlar yaratish ularning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Masalan, "Oxford English Dictionary" yoki "Cambridge Online Dictionary" singari yirik platformalar bugungi kunda nafaqat ingliz tilida, balki boshqa ko'plab tillarda ham keng foydalanilmoqda. Shu orqali ilmiy hamkorlik, tarjima amaliyoti va o'quv jarayonida yagona terminologik yondashuv ta'minlanadi.

Elektron lug'atlar yaratilgandan so'ng ularning amaliy qo'llanilish sohalarini ko'rib chiqish ham muhim. Chunki bunday lug'atlar turli yo'nalishlarda samarali foydalanilmoqda:

- **Ta'lim jarayonida.** Masalan, talabalar biologiya fanida "mitoxondriya" yoki "DNK" terminlarini nafaqat matn orqali, balki grafik, animatsion va hatto 3D modellashtirilgan ko'rinishlarda ham o'rganishlari mumkin. Bu usul ularda ilmiy tushunchalarni vizual tasavvur qilishni kuchaytiradi va bilimni tezroq hamda samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi.

- **Tarjima amaliyotida.** Professional tarjimon inglizchadan o'zbekchaga matn tarjima qilayotganda "cybersecurity" yoki "artificial intelligence" kabi murakkab terminlarning to'g'ri muqobilini elektron lug'at orqali tezda topadi. Bu nafaqat tarjimaning aniqligini, balki tezkorligini ham ta'minlaydi, shu orqali tarjimon ish unumdorligini oshiradi.

- **Ilmiy tadqiqotlarda.** Fizika, huquq yoki yangi texnologiyalar sohasida paydo bo'layotgan yangi terminlar yagona terminologik bazaga kiritilishi orqali barcha tadqiqotchilar bir xil tushunchadan foydalanishi mumkin bo'ladi. Bu esa ilmiy

muloqotni osonlashtiradi, chalkashliklarning oldini oladi va xalqaro hamkorlikni samarali qiladi.

- **Kasbiy muloqotda.** Masalan, xalqaro konferensiyada turli mamlakat olimlari “quantum computing” yoki “nanotechnology” terminidan bir xil ma'noda foydalanishi elektron lug'atlar orqali ta'minlanadi. Bu nafaqat ilmiy muloqotning aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi, balki global ilmiy hamkorlikni ham mustahkamlaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida elektron lug'atlar nafaqat tilshunoslik, balki barcha sohalar uchun zarur ilmiy va amaliy vositaga aylanmoqda. Ular terminologik tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi, yangidan-yangi tushunchalarning tezkor standartlashuvini ta'minlaydi hamda ilmiy ma'lumotlarning keng ommaga tez yetib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida talabalar va o'quvchilarga terminlarni tez o'zlashtirish imkonini beradi, tarjima faoliyatida mutaxassislarga yuqori aniqlik bilan ishlashda ko'maklashadi, ilmiy izlanishlarda esa yagona terminologik makonni shakllantiradi.

Kelajak istiqbollari ham juda keng: elektron lug'atlar sun'iy intellekt yordamida o'z-o'zini yangilash, foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini avtomatik tahlil qilish, ovozli va vizual interfeyslar orqali yanada qulayroq foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Natijada ular shaxsiylashtirilgan ta'lim platformasi, tarjimonning kundalik yordamchisi va olimlarning universal hamkorlik maydoniga aylanishi mumkin.

Amaliy misollar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, oddiy o'quvchi mobil qurilmasidagi inglizcha-o'zbekcha lug'atdan foydalanib, matndagi yangi so'zlarni tezda anglaydi; professional tarjimon xalqaro shartnoma matnini tayyorlashda elektron terminologik bazadan foydalanib, yuqori aniqlikdagi tarjimaga erishadi; xalqaro konferensiyalarda esa turli mamlakat olimlari elektron lug'atlar yordamida murakkab atamalarning yagona izohidan foydalanib, muloqotni samarali tashkil etadilar.

Demak, elektron lug'atlar nafaqat ilmiy izlanishlar, balki kundalik hayot, ta'lim, tarjima va kasbiy muloqotda ham ishonchli yordamchi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshquvatova G. Terminologik tadqiqotlar jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida elektron lug'atlar yaratish metodi. — “Zamonaviy ko'p madaniyatli makonda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Toshkent: O'zDJTU, 2025-yil 13-fevral. — B. 133.
2. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, methods, and applications. John Benjamins Publishing.

3. Bowker, L. (2003). Terminology Tools for Translators. Routledge.
4. Kageura, K. (2002). The Dynamics of Terminology: A descriptive theory of term formation and terminological growth. John Benjamins Publishing.
5. Ahmad, K., Rogers, M. (2007). Evidence-based LSP: Translation, Text and Terminology. Peter Lang.
6. Dziemianko, A. (2017). "Electronic dictionaries—A step forward." International Journal of Lexicography.

LEKSIKOLOGIYA HAQIDA MA'LUMOT**FAYZULLAYEVA DINARA ILHOM QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

dinarichka173@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikologiyaning tilshunoslikdagi o'rni, uning asosiy yo'nalishlari va bo'limlari yoritilgan. Shuningdek, leksikologiyaning amaliy ahamiyati, zamonaviy tadqiqotlar istiqbollari hamda boshqa fanlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga qanday metodika va usullar orqali o'quvchilarga bu mavzuni yoritib berish mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: leksikologiya, semasiologiya, frazeologiya, etimologiya, leksikografiya, lug'at boyligi, globallashuv.

Annotation: This article explores the role of lexicology in linguistics, its main directions and branches. It also analyzes the practical significance of lexicology, prospects for modern research, and its interrelation with other sciences. Additionally, the article provides information on the methodologies and approaches that can be used to effectively teach this topic to students.

Keywords: lexicology, semasiology, phraseology, etymology, lexicography, vocabulary richness, globalization.

Аннотация: В данной статье освещены место лексикологии в языкознании, её основные направления и разделы. Также анализируется практическая значимость лексикологии, перспективы современных исследований и её связь с другими науками.

Ключевые слова: лексикология, семасиология, фразеология, этимология, лексикография, лексическое богатство, глобализация.

Til – jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, undagi so'z boyligi xalqning madaniyati, tafakkuri va ma'naviy qadriyatlarini ifodalaydi. Tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan leksikologiya so'zlarning kelib chiqishi, ma'nosi, ishlatilishi va taraqqiyotini o'rganadi. Mazkur bo'limning dolzarbligi shundaki, u nafaqat til birliklarini, balki ularning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rnini ham yoritadi. Leksikologiya — tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limidir. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning

leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda soʻz yasalihi haqidagi taʼlimot kabi sohalari bilan chambarchas bogʻliq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri soʻzning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada soʻzlarning maʼno jihatdan oʻzaro bogʻlangan, yaʼni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, soʻz maʼnolarining erkin yoki bogʻliq holda boʻlishi kabi masalalari ham oʻrganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida koʻrilganda, soʻz maʼnolari va tushunchalarning oʻzaro bogʻliq holda boʻlishi koʻzda tutiladi.

Leksikologiya lugʻat tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, soʻzlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, soʻzlashuv va adabiy tillarda foydalanish meʼyorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan soʻz birikmalarini meʼyorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi. “Leksikologiya va morfologiya aynan soʻz oʻrganiladigan maxsus ikki boʻlim hisoblanadi”. Leksikologiya sohasiga oid masalalar Sh Rahmatullayev, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, H.H.Neʼmatov, R.Rasulovlar tomonidan tadqiq etilgan. Etimologiya fan sifatida aslida leksikologiyaning diqqat markazidir. Leksikologiya soʻzlarning maʼnosini va ularning semantik munosabatlarini oʻrganganligi sababli, koʻpincha soʻzning tarixi va rivojlanishini oʻrganadi. Etimologlar qarindosh tillarni qiyosiy usul yordamida tahlil qiladilar, bu tilshunoslarga ajdodlarning fonologik, morfologik, sintaktik va hokazolarni tiklashga imkon beradigan texnikalar toʻplamidir, ularning qarindosh materiallarini taqqoslash orqali zamonaviy tillarning tarkibiy qismlari va kelib chiqishini oʻrganadi. U quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

Semasiologiya – soʻz maʼnolarining turlari, maʼno koʻchishi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi hodisalarni oʻrganadi.

Onomasiologiya – predmet va tushunchalarning nomlanish jarayonini, atama va nomlarning shakllanishini tadqiq etadi.

Etimologiya – soʻzlarning kelib chiqishi, tarixiy ildizlarini oʻrganadi. Frazeologiya – turgʻun birikmalar, iboralar va ularning maʼno xususiyatlarini izohlaydi.

Leksikografiya – lugʻatlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shugʻullanadi.

Soʻz boyligi oʻz navbatida aktiv va passiv qatlamga boʻlinadi. Aktiv qatlam – kundalik nutqda faol ishlatiladigan soʻzlar, passiv qatlam esa tarixiy, eskirgan yoki kam qoʻllanuvchi birliklardan iborat. Tilning hozirgi holati va tarixiy bosib oʻtgan yoʻli jihatidan leksikologiya tarixiy va zamonaviy leksikologiya deb ataluvchi alohida sohalarga ham boʻlinadi. Tilning lugʻat boyligi tasnifiy va qiyosiy talqin etilishi

mumkin. Ayrim olingan tilmng lugʻat boyligini har tomonlama oʻrganuvchi soha tasnifiy leksikologiya ikki yoki undan ortiq tillarning lugʻat boyligini qivosiy tekshiradigan soha qivosiy leksikologiya deb ataladi. Bu holat tilning doimiy rivojlanishini, yangi birliklarning kirib kelishi va ayrim soʻzlarning eskirib borishini koʻrsatadi. Soʻz boyligi oʻz navbatida aktiv va passiv qatlamga boʻlinadi. Aktiv qatlam – kundalik nutqda faol ishlatiladigan soʻzlar, passiv qatlam esa tarixiy, eskirgan yoki kam qoʻllanuvchi birliklardan iborat. Bu holat tilning doimiy rivojlanishini, yangi birliklarning kirib kelishi va ayrim soʻzlarning eskirib borishini koʻrsatadi. Leksikologiya boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada: masalan, tarixiy tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va psixolingvistika bilan hamkorlikda soʻzlarning jamiyatdagi oʻrni yanada chuqur tadqiq qilinadi. Leksikografiya ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurilishi haqidagi taʼlimotga suyangan holda ish koʻradi. Zamonaviy leksikografiya muayyan davr jamiyatidagi bilimlar majmuini aks ettiruvchi lugʻatlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etadi. Leksikografiya lugʻatlar tipologiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan bir tilli leksikografiya (izohli va boshqa lugʻatlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lugʻatlar), oʻquv leksikografiyasi (til oʻrganishga maxsuslashgan lugʻatlar), ilmiy-texnik leksikografiya (terminologik lugʻatlar) oʻzaro farqlanadi.

Leksikologiya boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada: masalan, tarixiy tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va psixolingvistika bilan hamkorlikda soʻzlarning jamiyatdagi oʻrni yanada chuqur tadqiq qilinadi. Bu maʼlumotlarni dars jarayonida oʻquvchilarga sodda ,ularning xotirasi eslab qoladigan soʻzlar bilan hayotiy misollar bilan har bir qoida bilan birga misollarini ham berib boorish oʻquvchilarning mavzuni yaxshi tushunishlariga tayanch boʻladi. Mavzu davomida turli metodlardan dars jarayonida foydalanish zarur. Darsda oʻquvchilar zerikib qolmasliklari uchun dars jarayonida ular bilan birgalikda ishlash , darsni ular bilan birga interfaollikda olib borish zarurdir. Shu yoʻllar orqali ularga leksikologiya mavzusini tushunarli qilib yetkazib berish mumkin.

Leksikologiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatdan eng muhim tarmoqlaridan biridir. U orqali soʻz boyligining shakllanish qonuniyatlari, xalqning milliy tafakkuri va madaniy merosi yoritiladi. Bugungi globallashuv sharoitida yangi terminlarning paydo boʻlishi, turli tillar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir leksikologik tadqiqotlarni yanada dolzarb qilmoqda. Bu esa yosh avlod uchun leksikologiya fanini yanada qiziqarli qilib koʻrsatib beradi. Chunki ular bu fanni oʻrganish davomida bugungi kundagi oʻzlarining nutqlari soʻzlashuvlarini koʻrib ham leksikaga doir

bilimlarni olishlari mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida elektron lug'atlar, avtomatik tarjima tizimlari yaratish ham leksikologiyaning zamonaviy yo'nalishlari sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ham yosh avlodning texnika va axborotlar bilan ishlay olish qobiliyatidan to'g'ri foydalanishimiz, to'g'ri yo'naltirishimiz mumkinligini dalilidir.

Foydalanilgan**adabiyotlar:**

1. Hojiyev A. Leksikologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Shukurov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Jo'rayev A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2002.
4. Radjabov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent: Universitet, 1995.
5. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 380 bet.

O'ZBEK TILIDA DINIY DISKURSNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

FAYZULLAYEVA MAFTUNA ODIL QIZI,

Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
fmaftuna04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida diniy diskursning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Diniy leksikaning o'rganilishi, diniy matnlarning lingvistik, pragmatik hamda funksional jihatlari tahlil etilib, arab, rus, gruzin va serb tilshunosliklari misolida teolingvistika yo'nalishining shakllanishi yoritiladi. Maqolada o'zbek tilshunosligida diniy uslubning mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanish jarayonlari, Qur'on, hadis va klassik asarlar asosida diniy terminlarning tizimlanishi, ularning semantik va tarixiy xususiyatlari ko'rsatilgan. Tadqiqotda diniy matnlarning yangi matn turi sifatida e'tirof etilishi hamda ularning tilshunoslikdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: diniy diskurs, diniy matn, teolingvistika, diniy leksika, diniy uslub, Qur'on, o'zbek tilshunosligi.

Annotation. This article analyzes the formation and development stages of religious discourse in the Uzbek language. It explores the study of religious vocabulary, the linguistic, pragmatic, and functional features of religious texts, and discusses the emergence of theolinguistics through the examples of Arabic, Russian, Georgian, and Serbian linguistics. The article highlights the evolution of the religious style as an independent direction in Uzbek linguistics, the systematization of religious terminology based on the Qur'an, Hadith, and classical works, and their semantic and historical characteristics. The study also substantiates the recognition of religious texts as a distinct type of text in modern linguistics.

Keywords: religious discourse, religious text, theolinguistics, religious vocabulary, religious style, Qur'an, Uzbek linguistics.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития религиозного дискурса в узбекском языке. Анализируется изучение религиозной лексики, лингвистические, прагматические и функциональные особенности религиозных текстов, а также становление теолингвистики на примере арабского, русского, грузинского и сербского языкознания. В статье освещаются процессы развития религиозного стиля как самостоятельного

направления в узбекском языкознании, систематизация религиозных терминов на основе Корана, хадисов и классических произведений, их семантические и исторические особенности. В исследовании также обосновано признание религиозных текстов как особого типа текста в современной лингвистике.

Ключевые слова: религиозный дискурс, религиозный текст, теоллингвистика, религиозная лексика, религиозный стиль, Коран, узбекское языкознание.

Bugungi kunda maxsus leksikaning, jumladan, diniy leksikaning tadqiqi tilshunoslik fanida qiziqarli va dolzarb muammolardan biridir. Bu turdagi leksikani tadqiq etish tilning tarixiy rivojlanishini o'rganish imkonini beradi, ya'ni o'tgan asr o'rtalarida V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, "so'z ma'nolari tarixiy o'zgarishining mohiyatini chuqur anglab yetmasdan" til lug'at tarkibi rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish mumkin emas. Zamonaviy o'zbek tili qo'llanilishining jahon hamjamiyatida, shuning barobarida O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy, siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zgarishlarga uchrayotgani ma'lum. Yillar davomida, tarixiy davrning tazyiqiga uchragan ma'naviy qadriyatlar, madaniy an'analar jamiyatda qaytadan rivojlana boshladi.

Inson ruhiyatidagi, fitratidagi o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqish tufayli din va til o'rtasidagi masalalar dastlab faylasuflar, dinshunoslar, sotsiologlar, psixologlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. "Qadim zamonlardan din odamlarni boshqarish, ularni bitta maqsadga yo'naltirish vositasi, qolaversa, bilim va tarbiya berishning ibrat maktabi bo'lib xizmat qilib kelgan. Diniy muloqot qadim zamonlardan yashab kelayotgan bo'lsa-da, bu sohani ilmiy tadqiq qilishga bo'lgan izlanishlar nisbatan yaqinlarda paydo bo'ldi. Odamlar jamoa bo'lib yashar ekan, o'rtalaridagi har qanday munosabatni din asnosida hal qilishar edi, ilm-fan, odob-axloq, tarbiyani din orqali olishar edi. Shu sabablarga ko'ra, diniy leksika barcha davrlarda kishilik jamiyatining muhim ajralmas qismi hisoblanib keladi." [5:237] Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham Islom dini, uning jahon sivilizatsiyasida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida ushbu masalaga alohida to'xtaldilar: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosqa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi." [11] Jahon tilshunosligida diniy matn, diniy leksikani turlicha jihatlardan o'rganish masalasida bir qator tilshunoslar izlanishlar olib borilgan. Xususan, N.Mechkovskaya, Yu.Mixaylova,

K.Timofeev, P.Yakimov, R.Goryushina, S.Bulavina, I.Matey, G.Sklyarevskaya, M.Petuxova kabi tilshunoslar diniy leksikaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishgan. Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, "Arab tilshunosligi" atamasi ostida Qur'oni karimni lingvistik tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. "Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi." [4:30] Turkologiyada N.Suyargulov, A.Serikbaeva, R.Sharyafetdinov, Z.Yaxyaeva, Z.Xafizova, G.Abdullinalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham asosiy e'tibor Qur'oni karimni o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilshunosligida ham diniy leksika bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda xalqning milliy qadriyatlarining asosi bo'lgan diniy manbalar, nodir asarlar buzib talqin etildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng diniy leksikani o'rganishga bo'lgan tadqiqotlarning olib borilishi qamrovining kengayishi kuzatildi. O'zbek tilshunosligida N.Uluqov, T.Yuldashev, Sh.Galieva, Sh.Sultonova, Sh.Yusupova, Sh.Amonturdiyeva tomonidan diniy leksikaning tadqiqi amalga oshirilgan. N.Uluqovning dissertatsiyasi o'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Dissertatsiyada diniy matnlar tarkibida uchraydigan arabcha ekzotizmlar tematik guruhlarga bo'lib tahlil qilingan. T.Yuldashevning dissertatsiyasida Navoiy va Boburning islom farzlariga bag'ishlangan asarlarida qo'llangan shar'iy atamalarning lisoniy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotchi Sh.Amonturdiyeva dissertatsiyasida o'zbek tilidagi diniy matnlarning funksional-stilistik jihatlarini ochib berdi va diniy uslubning o'zbek tili funksional uslublarining alohida ko'rinishi sifatida mavjud ekanligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Sh.Yusupovanning dissertatsiyasida esa diniy matnlarning lingvopragmatik jihatdan tadqiqi amalga oshirilgan.

Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida matnga quyidagicha ta'rif beradi: "Matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst." [1:61] A.Hojiyevning matnga bergan ta'rifi umumiy ta'rif bo'lsa, E.Qilichev "Matnning lingvistik tahlili" kitobida matnga nisbatan kengroq ta'rif beradi: "Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma." [6:43] Asosan matnning 7 ta turi bor hisoblansa-da, bugungi kunda diniy matnlar ham yangi matn turi sifatida e'tirof etilmoqda. Diniy mavzuda adabiy ifodalangan har qanday adabiyot yoki san'at diniy matn hisoblanadi. Diniy matnlarning yangi matn turi sifatida tan olinishi ularni lingvistik jihatdan keng

o'rganilishiga turtki bo'lmoqda. Jahon tilshunosligida diniy matnlar ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, rus, gruzin, serb tilshunosliklari misolida buni ko'rishimiz mumkin. Ammo serb tilshunosligida diniy matnlar bo'yicha ko'p hollarda zamonaviy serb tilini emas, balki serb-slavyan va cherkov slavyan tillarini o'rganadigan tilshunoslar lingvistik tadqiqotlar olib borishgan. Bunga sabab qilib esa, zamonaviy serb tilida diniy matnlarning nisbatan kam uchrashi va ular cherkov slavyan tilidan tarjima qilinganligi ko'rsatiladi. Bunday matnlar bugungi kunga kelib tadqiqot markaziga tortilmoqda. Shu boisdan, serb diniy matnlar tadqiqi nisbatan kam uchraydi. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi, Serb tili instituti ilmiy xodimi R.Baich (Levushkina) ning lingvistik tadqiqotlar loyihasi doirasida zamonaviy serb adabiy tili va serb-xorvat lug'ati asosida "Serb tilida diniy matn til maydoni" mavzusida Nijniy Novgorod diniy seminariyasining materiallarida nashr etilgan ishi mavjud bo'lib, u diniy matnlarni lingvistik atama sifatida serb tilshunosligida qabul qilish mumkinmi yoki yo'qligi haqidagi muhokama bilan boshlanadi. Unda har bir bibliografik birlik, har bir pravoslav diniy matn lingvistik tadqiqotlar uchun material bo'lishi mumkinligi aytiladi. R.Baich bergan ma'lumotlarga ko'ra, pravoslav diniy matnlari cherkov hayoti hodisalari va muammolarini, diaspora, apokalipsis, insonning esxatologik muammolari, pravoslav psixologiyasi, pravoslav nikohi va oilasi, ruhiy takomillashtirish, o'lim kabi masalalar diniy matnlarning asosiy mezonlarini tashkil etadi. Ya'ni shunday mavzular yoritilgan matnlar diniy matn hisoblanadi. Ko'rinib turibdi-ki, tadqiqotchi bu ishi orqali zamonaviy serb tilida diniy matnlarning o'rganilishiga doir dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan. U diniy janr atamasi ham mavjudligini aytib, A.K.Gadomskiy va I.V.Bugayevalar diniy janrlarni tasniflagani haqida to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari, sarlavha tahliliga asoslanib ham matnlarni pravoslav diniy matni ekanligini bilishimiz mumkinligini aytib o'tgan tilshunos bunga sabab qilib sarlavhalardagi xudo, cherkov, iymon, rabbiy, nasroniylik, ibodat, gunoh, yorug'lik kabi kalit so'zlar qo'llanilishi diniy matnlarning ramziy mezonlaridan biri hisoblanishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, diniy matnlar ustida rus tilshunosligida qilingan ilmiy ishlar ancha keng qamrovli bo'lib, ular matnlarni turli taraflama o'rganishgan. Rus tilshunosligining yana bir vakili Y.Balashova "Жанрово-стилистический анализ религиозного христианского дискурса" tezisida diniy matnlarni janr-stilistik tahlilga tortish nutq ta'sirini hamda xristian diniy nutqi ritorikasining o'ziga xos jihatlarini tavsiflashga yo'naltirilgan. Unda xristian diniy matnlari korpus matnlar asosida tadqiq etilishi teologik matnlarni alohida maxsus tur sifatida kiritish kerak, degan xulosani beradi. Bu Injil matni hisoblanib, u diniy xristian nutqi maydonini to'la qamrab oladi. Teologik subkorpus matnlarni o'rganish ularni janrlarga bo'lish imkonini beradi. Har

bir janr o'zining ritorik, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ega. Balashova matnlarning ko'p o'lchovli nutq tahlilini o'tkazdi. Tezisdan aytilishicha, xristianlarda diniy nutqning konseptual-aksiologik tizimi asosini Xudo va cherkov so'zlari tashkil etadi. S.F.Barishevaning "Религиозная метафора в современном медиадискурсе (на примере печатных СМИ)" (Zamonaviy media nutqidagi metafora (masalan, bosma ommaviy axborot vositalari)) nomli tezisining maqsadi diniy metaforalarning tematik yo'nalishlarini zamonaviy ommaviy axborot vositalarida aniqlashga qaratilgan. Cherkovning ijtimoiy hayotda roli oshib borishi natijasida zamonaviy mediada cherkov tushunchalari, diniy mavzular va syujetlarning dolzarblashuvi tadqiqot gipotezasi hisoblanadi. Barisheva madaniy-ma'rifiy gazetalardagi diniy metaforalarni 4 guruhga bo'lishni lozim topadi:

– Xushxabar (syujetlar, qahramonlar va dogmalar): Muqaddas kitoblarning syujetlari, Bibi Maryam yoki Yahyo surati, ruhning va samoviy kuchning mavjudligi haqidagi dogmalar. – Ma'bud va monastir fazoviy obyektlar sifatida. San'at ibodatxonasi, mahalliy monastir (Gnesinka haqida), ibodat qilingan devorlar (teatr haqida) singari an'anaviy manbalar bu guruh metaforizatsiyasini tavsiflaydi. – Belgilar: taraqqiyot belgisi, uslub belgisi hamda o'ziga xos piktogramma tasvirlari. – Xristian va monastir hayotining elementlari: vyatka, cherkov iyerarxiyasi va boshqalar. Barisheva tezisini: "Ommaviy axborot vositalari diniy va dunyoviy sohalarni birlashtiradi", - deb xulosalaydi. N.G.Nikolayevaning "Проблема "церковно-религиозного" стиля в современном русском языке" [2] maqolasida rus tilidagi cherkov-diniy uslubi masalasida so'z yuritiladi. Xususan, tarjima asarlar haqida gap boradi. Bunda esa, albatta, tarjima madaniyati an'analari inobatga olinadi. Tilshunos diniy tarjimalar tili va uslubini diaxronik tomondan o'rganadi. Yunon va qadimgi slavyan tillaridan zamonaviy tarjimalar amalga oshiriladi. Yunon tilidan qilingan tarjimalarda asl nusxadagi yunoncha so'zlarning shakllanishi va sintaksisining izi seziladi. Bunday taqlidda slavyan an'analari ko'zga tashlanadi. Chunki qadimgi slavyan tarjimalarida ma'lum miqdorda yunon matnlari uchraydi. Maqolada diniy uslubni oltinchi uslub sifatida kiritish haqida fikr-mulohazalar va bir necha sabablar keltiriladi va oltinchi funksional uslub konsepsiyasi o'quv nashrlariga ham kirib kelganligini aytadi. Diniy uslubga ijtimoiy hayotning alohida sohasi sifatida qaraydi. Rus tilshunosligining yana bir vakili P.A.Yakimov ham "История некоторых лексем с религиозным компонентом значения в русской языковой картине мира" [3] maqolasi orqali diniy leksemalar mavzusini yanada ochib berishga harakat qildi. Maqolada dunyoning diniy manzarasini tasvirlovchi ba'zi leksemalar etimologik jihatdan tahlil qilingan. Lingvist qadriyatlar va diniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan

leksik birliklarning o'ziga xos semantikasi borligini ta'kidlaydi. Kontekstlarni tahlil qilib, leksemalarning leksikografik tavsifiga ishora qiladi. U "din" semantik maydoniga aloqador "dunyoni boshqaradigan oliy mavjudot" komponenti semasini Xudo leksemasi orqali ifodalanishini aytib, boshqa leksema bilan ifodalanganda ham uning diniy komponenti bir xil ma'noga ega – "Xudoga ishonish bilan bog'liq" ligini eslatib o'tadi. Leksik birliklarning bugungi semantik tuzilishi va ularning etimologiyasini o'rganish asosida guruhlariga bo'ladi: – Etimonning takibida diniy ma'no komponenti mavjud bo'lgan leksemalar bo'lib, bu guruhga jahannam leksemasi misol qilib keltiriladi. Jahannam – "gunohkorlar" abadiy azobga duchor bo'ladigan, ruhlar joylashgan joy. Bu so'zga mos do'zax teonimi hisoblanib, xristianlarda eng asosiy qiynoq turi olov bo'lganligi tufayli do'zax olov maskani sifatida tasvirlanadi. Jahannamning antonimi esa jannat leksemasidir, ammo bu leksemaning etimologiyasi haqida uncha ko'p ma'lumotlar mavjud emas. Uning etimoni Avesto nurlari bilan bog'liqlikda ko'rsatiladi. Jannatda solihlarning ruhi toabad saodatda va Allohga yaqinlikda yashaydilar. U yerda dastlab Odam Ato va Momo Havo yaratilgan. Bularning barchasi Avesto bilan chambarchas bog'liqdir.

– Etimonida bo'lmagan, lekin hozirgi semantik tarkibida diniy ma'no komponenti mavjud bo'lgan leksik birliklar. Bu guruhga esa gunoh leksemasi misol qilib olingan. Gunoh leksemasining etimologiyasi ko'rib chiqilganda diniy komponentga ega ma'nosi bilan bir qatorda, "xato, kamchilik" kabi bunday xususiyatga ega bo'lmagan ma'nosi ham borligi aniqlangan. – Etimonida ham, hozirgi semantik tarkibida ham diniy ma'nosi bo'lmagan leksemalar. Uchinchi guruhga kulol va gil so'zlari kiritiladi. Ular diniy ma'no komponentiga ega bo'lmasa-da, kontekst ichida diniy semani namoyon qila oladi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin-ki, Alloh insonni loydan yaratgan, degan tasavvur borligi tufayli kulol va loy so'zlari kontekstda ramziy diniy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Diniy tilshunoslikka qiziqish Gruziyada ham uchraydi. Bu sohada I.D.Kikvidze "Сопоставительная Теолингвистика: Предмет И Цели Исследования" [7:115] nomli maqolasida qiyosiy teolingvistika ustida ish olib boradi. Maqolada teolingvistikani mustaqil fan sifatida kiritish to'g'risida muhokama yuritiladi. Ma'lum bir diniy jamiyat nutq ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi til tizimini turli tillar o'rtasida qiyoslab o'rganuvchi qiyosiy teolingvistika sinxron teolingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Maqolada gruzin va rus tillari taqqoslangan. Asosan, lug'at va frazeologiyalarga e'tibor qaratilgan. Gruzin va rus tillari solishtirilib, ularning farqli va umumiy xususiyatlari aniqlanadi. Taqqoslash natijalari semantik tomondan o'zaro bog'langan leksik birliklar semantik tarkibi va paradigmatic munosabatlari jihatidan farq qilishini ko'rsatdi. Rus

va gruzin tillaridagi bayram va qo'shiq nomlari ko'rib chiqilgan. Masalan, Bahor bayrami – maslenitsa bayrami va rojdestvo qo'shiqlari – kerol qo'shig'i kabi leksik birliklar rus va gruzin izohli lug'atlaridan foydalanib tahlil qilinadi. Shuningdek, ekvivalenti bo'lmagan leksik birliklar ham borligi ularning o'sha til xususiyatlari va xalq madaniyatlari bilan bog'liqdir. Xususan, rus tilidagi cherkov qo'ng'irog'i nomlari rus madaniyati va cherkov an'analari bilan bog'liqdir. Rus tilshunosligida Ye.Ivanovning “Логомифия текстов религиозной мифологии массовой культуры” [9:46] maqolasi diniy mifologiya matnlari haqida bo'lsa, L. Dolgopolovning “Средства выражения подлежащего в религиозных текстах древневерхненемецкого периода” nomli maqolasida qadimgi nemis davri diniy matnlarida mavzuni ifodalash vositalari haqida so'z yuritiladi. Maqolada 18-19-asrlarga oid nemis diniy matnlaridan “Евангельская Гармония”, “Татиана” asarlari tahlil qilinadi. Unda, asosan, mavzuni ifodalovchi vosita sifatida otli so'z birikmalari keltiriladi. Ko'pgina hollarda mavzu kanonik xususiyatlarini ko'rsatishi aytiladi. J.Kozielning “Перевод религиозной лексики в современном русском кинематографе на польский язык. Анализ на избранных примерах” [10:65] nomli maqolasi diniy leksikani zamonaviy rus kinematografiyasi bilan bog'lab o'rganilishi bilan qiziqarlidir. Tilshunos diniy lug'atni polyak tiliga tarjimasini misollar bilan tahlil qiladi. Dastlab diniy filmlarga murojaat kuzatiladi. Unda 1897-yildagi Lui Lumierning “Iso Masihning hayoti va azoblari” va Jorj Meliesning “Suvda yurgan Masih” kabi kartinalarida diniy motivlar mavjudligi tasdiqlangan. Keyingi o'rinlarda esa Nikolay Dostalning “Rohib va Jin” hamda K.Serebryanikovning “Shogird” filmlari tahlil qilingan. Ularda diniy elementlar turlicha shaklda namoyish etiladi: og'zaki yoki vizual. Ba'zi o'rinlarda diniy masalalarning boshqacha talqinlari ham kuzatiladi.

Muqaddas islom diniga e'tiqod va hurmat, insonlarni ruhan, jismonan va ma'nan poklikka da'vat etuvchi diniy asarlarni o'rganish va ularni tahlil etish islom aqidalariga e'tiqodlar boshlangan paytlardayoq shakllangan. Dastlab Qur'oni karimni tabdil va tahlil qilish natijasida falsafa, ruhshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlariga doir dastlabki ilmiy qarashlar paydo bo'lib, buning natijasida keyinchalik esa Basradagi va Kufadagi tilshunoslik maktablari tashkil etildi. Din va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatlarning o'rganilishi va chuqurlashishi negizida dunyo tilshunosligida yangi bir soha – diniy tilshunoslikning kelib chiqish ildizlari va xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan teolingvistika yo'nalishi maydonga keldi. Ushbu sohadagi dastlabki ilmiy qarashlar Devid Kristall, Jan-Per van Noppen, Uilyam Samarin kabi olimlar tomonidan aytib o'tildi. [8:148/156] G'arbda teolingvistika atamasi ilk bor belgiyalik tilshunos olim, «teolingvistikaning otasi» Jan-Per vann

Noppen tomonidan 1981 yilda fanga olib kiritilgan. Olim «Teolingvistika» deb atalgan maqolalar to'plamini yaratib, teolingvistikaning rivojlanishiga dinshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, antropolog va sotsiologlar xizmat qilishlarini ta'kidlaydi. Teolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishida din, til va tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur o'rgangan olim D.Kristall dunyo tilshunosligida teolingvistikaning alohida soha sifatida o'rganilishi va rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'shgan tilshunos sifatida e'tirof etildi. «Teolingvistika» terminini sohaga oid terminografik lug'atlarda aks ettirgan olimlardan biri aynan Devid Kristalldir. U o'zining «Lingvistika va fonetika lug'ati» kitobida teolingvistika terminini «... til bilan diniy qarashlar va diniy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilm uchun ishlatiladigan termin» sifatida izohlaydi. Bu teolingvistika terminiga D.Kristall tomonidan berilgan birinchi ta'rif edi. Mustaqillik yillaridan boshlab diniy mazmundagi asarlar nashrlari keng yo'lga qo'yildi, buning samarasi o'laroq, o'zbek tilshunosligida ham diniy asarlarning tuzilishi, muqaddas Qur'on oyatlarining tafsiri, hadislar va ularning sharhlarini o'rganish bilan bir qatorda diniy uslubning fonetik, leksik xususiyatlarini talqin qilinishi bilan bog'liq tadqiqotlar maydonga keldi. 2000 yillarda arabcha shar'iy iymonga oid atamalarining izohi, talqini va ularning inson ma'naviyatini oshirishdagi o'rni va vazifalariga oid diniy mazmundagi ilmiy asarlar ham yaratildi. Shu ma'noda T.Yuldashevning nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tilida diniy atamalarining shakllanish tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichni boshlab berdi. Dissertatsiyada A.Navoiyning «Siroju-l-muslimiyn» va Boburning «Mubayyin» asarlarida qo'llangan shar'iy atamalar birinchi marta jamlanib atroflicha tahlil etildi. Mazkur asarlardagi shar'iy atamalar leksik-semantik, geneologik, grammatik jihatdan tahlil etildi. Har ikki asarda qo'llangan shar'iy atamalarni tahlil etish, o'zaro chog'ishtirish orqali Navoiy va Boburning o'zbek atamashunosligiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berildi. Ushbu asarlar insonlarning e'tiqod, farz, namoz, ro'za, haj, turli ahkomlar, Yaratganning subutiy sifatlariga doir bo'lgan tushunchalarini yanada oydinlashtirib boyitishlari, aniqlashtirib o'rganishlari uchun katta ahamiyatga ega ekanliklari alohida talqin qilinadi. Diniy adabiyotlarda hamda farz, ibodatlarda qo'llaniladigan arabcha, forsha atamalarining keng xalq ommasiga tushunarli va qo'llanishda oson bo'lishini ta'minlash uchun yaratilgan yana bir muhim qo'llanmalardan biri professor Muxtorxon Umarxo'jaevning «Diniy atama va iboralar» izohli lug'ati diniy atamalar lug'aviy ma'nolarini izohlashga bag'ishlangan bo'lib, diniy tushuncha va tasavvurlarni yanada boyitish, ularning asl mohiyatini tushunib yetish hamda ma'nolariga mos tarzda o'z o'rnida qo'llashda dolzarb muhim amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Diniy

matnlarning lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan yana bir tadqiqot Sh. Yusupovning «Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi» mavzuidagi tadqiqot ishida Qur'on tafsiri, hadislar, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ma'ruzalari, Alixonto'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiy» asari va ba'zi diniy-ommabop nashrlar misolida diniy matnlarning ba'zi uslubiy, funksional va lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi, matn haqidagi ta'riflar va qarashlar keltirilib, diniy matnga ta'rif beriladi. «Diniy matnlar – diniy an'analar bilan bog'liq, dinning markaziy tushunchalarini o'zida aks ettiradigan, diniy e'tiqod, diniy ko'rsatmalarni jamlaydigan matn turidir». [13:12] O'zbek tilidagi islom diniga oid og'zaki va yozma diniy matnlarni bir necha guruhlariga bo'lib tasniflaydi. Kishilik jamiyatining ilk shakllanish davrlarida tiriklik va hayot qoidalari aks etgan muqaddas diniy adabiyotlar (Qur'on, Injil)ning nozil bo'lishi hamda hadislarining tartibot qilinishi, yaratilishi haqida gap ketganda, diniy matnlar qadimgi xoqon, podshohlarning davlat tuzilishi to'g'risidagi qonunlari, ko'rsatmalari, rasmiy nomalar va yorliqlardan ham ancha oldin paydo bo'lganligini bilish mumkin. Eramizdan avvalgi davrlarida qadimgi sanskrit tilida yozilgan hind vedalari ham diniy matnlarning ilk namunalari bo'lib, eramizdan avvalgi 1700 – 1100 yillarda yaratilgan, deb taxmin qilinadi, vedalarning juda ham qadimiy davrlarga borib taqalganligi uchun hinduizmda vedalar insonlar tomonidan yaratilmagan, deb aytilgan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" ham qadimiy diniy asarlardan biridir. Muqaddas Qur'onning nozil bo'lishi, hadislarining to'plab talqin qilinishi diniy matnlarning qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, dinga oid lingvistik qarashlar "arab tilshunosligi" atamasi ostida Qur'oni karimni tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. «Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi». Muqaddas Qur'onni tabdil va tahlil qilish, Qur'on oyatlarini ma'nolarini izohlash, mazmunini sharhlab yetkazish amaliy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan. Sharqdagi ushbu jarayon – din va tilshunoslik kesishuvidagi masalalari g'arbdagi teolingvistikaning mustaqil tarmoq sifatida shakllanishidan ancha oldin VII - VIII asrlarda vujudga kelganligini ko'rsatadi. Islom ma'rifati va madaniyatining kirib kelishi va keng yoyilishi arab tilining o'rganilishini taqozo etgan. Mumtoz arab tili Qur'onni o'rganish vositasi sifatida keng tarmoq otgan. Islom dinini mukammal egallashni xohlagan kishilarning arab tilini mukammal bilishlari shart deb belgilangan. Bu esa din va tilshunoslik ilmining bir-biriga uzviy bog'liq holda shakllanib rivojlanishi natijasida din va

tilshunoslik kesishmasidagi yangi tarmoq – diniy uslubning paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.61.
2. ISSN 0321–3056 Известия Вузов. Северо-Кавказский Регион. Общественные Науки, 2008. № 6
3. ISSN 1991-5497. Мир Науки, Культуры, Образования. № 1 (44), 2014.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.30.
5. Qo'shoqova B. Diniy leksikani o'rganishda turli yondashuvlar. TDPU Ilmiy axborotlari jurnali. 2020-y., 6-son – 237-b.
6. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000. – 43-b.
7. Раздел 3. Язык — политика — культура. Код ВАК 10.02.19. – С.115–118.
8. Crystal D. A liturgical language in a linguistic perspective. – New Blackfriars, 1964, 46(534), – P. 148–156.
9. Язык и религия: тез. докл. Междунар. науч. конф. (УрФУ, 15с17 сентября 2021 г.) / Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.46.
10. Язык и религия: тез. докл. Междунар. науч. конф. (УрФУ, 15–17 сентября 2021 г.) / Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.65
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
12. Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.65
13. Yusupova Sh. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg'ona, 2021. – 12-b.

ILM — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI SIFATIDA: ILM-FAN VA TA'LIM UYG'UNLIGINING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

FUZULOVA NIGORA ERKAMBOYEVNA

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 4-bosqich talabasi

fuzullovanigora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, ilm-fan va ta'limning o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi. Maqola ilmiy bilimlarning jamiyatda qo'llanilishi va ularning hayot sifatini oshirishdagi roli haqidagi fikrlar bildiradi.

Kalit so'zlar: ilm, jamiyat, taraqqiyoti, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim, ijtimoiy o'zgarishlar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение науки в развитии общества. Научные исследования и инновации рассматриваются с точки зрения их влияния на экономическое, социальное и культурное развитие общества, а также взаимосвязь науки и образования. В статье высказываются мнения о применении научных знаний в обществе и их роли в повышении качества жизни.

Ключевые слова: наука, общество, развитие, инновация, экономическое развитие, образование, социальные изменения.

Annotation: This article analyzes the role and importance of science in the development of society. Scientific research and innovations are considered in terms of their impact on the economic, social, as well as the interrelation between science and education. The article expresses opinions on the application of scientific knowledge in society and its role in improving the quality of life.

Keywords: science, society, development, innovation, economic development, education, social changes.

Har bir jamiyatning rivojlanish darajasi — uning ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. Ilm-fan inson tafakkurining eng yuksak mahsuli bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Bugungi globalashuv davrida ilmga tayanmagan davlatlar raqobatbardoshligini yo'qotadi. Shu bois, ilm-fan va ta'lim uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishiga

aylanmoqda. Buyuk allomalarimiz — **Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Cho'lpon, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov** va boshqa ziyolilar o'z asarlarida ilmning hayotdagi o'rni, insonni ma'naviy yetuklik sari yetaklovchi kuch sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday yozgan edi: "*Tarbiya biz uchun yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.*" Bu fikrlar ilm va tarbiyaning inson hayoti va jamiyat taqdiridagi beqiyos rolini ifodalaydi. Ilm insoniyat taraqqiyotining bosh mezonidir. U nafaqat texnik yoki texnologik yutuqlarni, balki inson tafakkuri, qadriyati, madaniyatini ham shakllantiradi

Ilm jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida qabul qilinadi, chunki ilm insoniyatning bilim va tajriba to'plamini kengaytiradi, insonni madaniy va ma'naviy tarbiyalaydi. Kelajakda ma'lum-fan orqali kashfiyotlar amalga oshiriladi, yangi texnologiyalar yaratiladi va mavjud muammolar ham etiladi. Bu jarayonlar iqtisodiy rivojlanishga, ijtimoiy farovonlikka va madaniy taraqqiyotga olib keladi. Bugungi taraqqiyot davrida har bir mamlakatning ravnaqi bevosita ilm fan yutuqlariga bog'liq.

O'zbek xalqining buyuk farzandi Abdulla Avloniy aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Bu so'zlar ilm tarbiyaning naqadar muhimligini chuqur anglatadi. Chunki tarbiya va ilm bo'lmagan joyda taraqqiyot, ma'naviyat va madaniyat bo'lmaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Zamonaviy maktablar, oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlar bu imkoniyatlardan yoshlarimiz foydalanib ilmni yanada rivojlantirishi zarur. Birinchidan, ilmiy tadqiqotlar iqtisodiyotning turli sohalarida innovatsiyalarni kiritish imkonini beradi. Masalan, qishloq xo'jaligida yangi urug'lar va texnologiyalar ishlab chiqilishi natijasida hosildorlik oshadi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi va aholining farovonligini yaxshilaydi. Ikkinchidan, ilm-fan ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ta'lim tizimining rivojlanishi orqali yangi avlod ilmiy va malakali mutaxassislar bo'lib yetishadi. Ular o'z bilimlarini jamiyatda qo'llab-quvvatlab, yangi g'oyalar va yechimlarni taklif etadilar. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishga yordam beradi. Shuningdek, ilm-fan va ta'lim o'rtasidagi aloqani ham inobatga olish lozim. Ta'lim sifatli bo'lishi uchun zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak. O'quvchilar va talabalar ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi, yangi texnologiyalar bilan tanishtirilishi zarur. Bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar bo'lishlariga yordam beradi. Bugungi globallashuv va raqobat zamonida ilmga tayanmagan jamiyat orqada qoladi. Shu sababli har bir fuqaro,

ayniqsa yosh avlod, bilim olishni eng oliy maqsad deb bilishi kerak. Ilmli inson - yurtning eng katta boyligi, uning har bir yutug'i jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ilm jamiyat taraqqiyot negizi, ilmga e'tibor berilgan mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotda barqaror usish yuz beradi. Shuning uchun har birimiz ilmni qadrlab, uni hayot mezoniga aylantirishimiz, o'z bilimimiz bilan vatan ravnaqi va xalq farovonligiga hissa qo'shishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: 1913.
2. Karimov, I.A. *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Navoiy, A. *Mahbub ul-qulub*. — Toshkent: Fan, 1968.
4. Normatov, U. *Adabiyot va ma'naviyat*. — Toshkent: Ma'naviyat, 1974.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-6108-sonli qarori, 2020-yil 29-oktabr.
6. Scientific Progress Journal. Vol. 4, Issue 2. — 2022.
7. Sharafiddinov, O. *Ijod va tafakkur*. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.
8. Ziyouz.com — Ilm-fan va ta'limga oid maqolalar to'plami.

SIFATLARNING YASALISHI VA TUZILISH JIHATDAN TURLARI

G'AYBULLOYEVA BAHOR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ziyadullayeva D.N

Annotatsiya: Sifatlarning tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy turlariga bo'linadi. Ularning yasalishi esa asosiy (tub) sifatlar va yasama sifatlar orqali amalga oshadi. Yasama sifatlar so'z yasovchi qo'shimchalar (-li,-siz,-dor,-kor,-mand,-cha,-gina va boshqalar) yordamida yoki so'z birikmalari asosida hosil qilinadi. Bu jarayon sifatlarning nutqdagi qo'llanish doirasini kengaytiradi, belgilarini ifodalash imkoniyatlarini boyitadi va tilni yanada obrazli qiladi.

Kalit so'zlar: sifat, yasalishi, tuzilishi, sodda sifat, qo'shma sifat, juft sifat, takroriy sifat, tub sifat, yasama sifat, so'z yasovchi qo'shimchalar, so'z yasash jarayoni, belgi, xususiyat, nutq obrazliligi

Abstract According to their structure, adjectives are divided into simple, compound, pair and repeated types. Their formation is carried out through basic (root) adjectives and formed adjectives. Formed adjectives are formed using word-forming suffixes (-li,-siz,-dor,-kor,-mand,-cha,-gina, etc.) or based on word combinations. This process expands the scope of use of adjectives in speech, enriches the possibilities of expressing signs and makes the language more figurative.

Keywords: Adjective, formation, structure, simple adjective, compound adjective, double adjective, repeated adjective, root adjective formed adjective, formed adjective, word-forming suffixes (-li,-siz,-dor,-kor,mand,etc.) sign, feature, word-forming process, figurative speech.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari lug'aviy ma'no anglatishi, gapda qanday vazifada kelishi va predmetning qaysi jihatini ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Shunday mustaqil so'z turkumlaridan biri sifat hisoblanadi. Mustaqil so'z turkumi bo'lgan sifat haqida turli izlanishlar olib borilgan.

Sifatlar-buyum va hodisalarning belgi-xususiyatlarini ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir. U qanday, qanaqa, qaysi so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlardan tashkil topgan. Ularning nutqni boyitishi, tasviriylilikni oshirishi, tasavvurni kengaytirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada sifatlarning o'zbek tilida qanday yasalishi, ularning tuzilishiga ko'ra turlarga bo'linish masalan, oddiy va murakkab sifatlar)hamda bu jarayonlarning tahlili yoritiladi''. Sifatlar asosan affiksatsiya va

kompozitsiya usullari bilan yasaladi. Affiksatsiya usuli. Soʻzning oʻzak yoki negiziga sifat yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali narsaning belgisini bildiradigan yangi soʻzlar yasash usulidir. Sifat yasovchi qoʻshimchalar oʻzakka qoʻshilib kelish oʻrniga koʻra ort va old yasovchilarga boʻlinadi. Bu yasovchilar koʻpincha ot yoki feʼl asosli oʻzak va negizlardan sifat yasaydi.

1. Otdan sifat yasovchi affikslar: -li: ot asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: miltiqli, uchli, kuchli; baʼzan bu affiks feʼlning harakat nomi shaklidan: yeyishli, oʻtirishli hamda sifatdash shaklidan ham sifat yasaydi: tushunarli, qiziqarli.

-siz: asosdan anglashilgan narsaga ega emaslik belgisini anglatadi: suvsiz, kuchsiz.

2. Feʼldan sifat yasovchi affikslar: -choq\ -chaq\ -chiq. Oʻzlik nisbatdagi feʼllarga qoʻshilib, harakat bajarishga moyillikning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: maqtanchoq, tortinchoq, kuyinchak.

-gir\ -qir\ -gʻir\ -kir. Feʼldan anglashilgan harakatning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: topqir, uchqur.

2. Kompozitsiya usuli. Turli turkumlarga oid soʻz shakllarning tilda mavjud boʻlgan sintaktik qoliplar asosida qoʻshilishi orqali bitta belgi ifodalashga xoslangan yasama sifatlardir. Bu usul ham hozirgi oʻzbek tilidagi mahsuldor yasash usullaridan boʻlib, qismlarning sintaktik aloqasiga koʻra quyidagicha guruhlarini tashkil qiladi:

1) aniqlovchi-aniqlanmish: olachipor, ochsariq, toʻq qizil, qiziqqon, ochkoʻz;

2) toʻldiruvchi-toʻldirilmish: tinchliksevar, izquvar, ishbilarmon;

3) hol-hollanmish: ertapishar, tezoqar

Qoʻshma sifatlar tarkibidagi qismlarning tub yoki yasama ekanligi bilan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan: 1) Ikkala qismi ham tub soʻzlardan: xom semiz, kamgap, nimjon, izquvar; 2) tub va yasama soʻzlardan tuziladi: sovuqqon, erksevar

Bundan tashqari tilimizda qismlari qoʻshma sifatlardek zich bogʻlanib ketmagan gapga usta, koʻzga yaqin, ogʻzi boʻsh kabi birikmali murakkab sifatlar ham mavjud.

3. Semantik usul. Boshqa turkumga mansub soʻzlarning maʼno oʻzgarishi natijasida sifatga koʻchish hollari ham uchraydi. Sifatga koʻchish, yaʼni adyektivatsiya hodisasi quyidagi soʻzlar asosida sodir boʻladi: a) otning sifatga koʻchishi orqali: tilla bola, asal qiz, oltin davr, kumush qish; b) feʼlning sifatdashga shakllarning sifatga koʻchishi orqali: oqar suv, turar joy; g) ravishning sifatga koʻchishi orqali: oʻzbekcha kitob, oqilona maslahat, tez odam. Bundan tashqari soʻzlarning maʼno oʻzgarishi natijasida sifatga koʻchish hollari juft va takror qoʻllanishi asosida yuz beradi: oldi-qochdi gap, tol-tol soch, yoʻl-yoʻl koʻylak. Sifatlar tuzilishi jihatidan uch turga boʻlinadi:

1. Oddiy sifat: Bitta soʻzdan tashkil topadi, qoʻshimcha olmagan yoki oddiy shaklda kelgan sifatlar. Masalan: oq, qizil, katta, kichik, shirin.

2. Yasama sifat: Otlarga yoki boshqa soʻz turkumlariga qoʻshimchalar qoʻshilib hosil qilingan sifatlar. Masalan: togʻli (togʻ+li), suvsiz (suv+siz), temirday (temir+day), ishchan (ish+chan).

3. Murakkab sifat: Ikki yoki undan ortiq soʻzning qoʻshilishi, qoʻshma shaklda kelishi yoki takrorlanishi orqali hosil boʻladi.

Qoʻshma sifat: ikki soʻz qoʻshilib keladi: sariq-yashil, oq-qora, achchiq-tizziq.

Juft sifat: ikki soʻz takrorlanib keladi: qip-qizil, yam-yashil, sap-sariq.

Qoʻshma shakl (soʻz birikmasi koʻrinishida): koʻngli ochiq, yuz qizil, dilbar.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, sifatlar yasalishi oʻzbek tili tarkibini boyishiga xizmat qiladi. Oddiy, yasama va murakkab sifatlar – sifatning tuzilish jihatidan uch asosiy turi hisoblanadi. Sifatlar tilimizda narsaning belgisi, xususiyati va holatini ifodalovchi muhim soʻz turkumidir. Ular tuzilishi va yasalishi jihatdan turlicha koʻrinishda ega boʻlib, tilning boy va ifodali boʻlishiga xizmat qiladi. Tuzilishi jihatidan sifatlar oddiy, yasama va murakkab sifatlariga boʻlinadi. Oddiy sifatlar ildiz holda qoʻllanadi, yasama sifatlar esa turli qoʻshimchalar orqali yasaladi. Murakkab sifatlar esa qoʻshma, juft yoki birikma shaklida yuzaga keladi. Yasalishi jihatdan sifatlar turli qoʻshimchalar (-li, -siz, -dor, -kor, -chan, -iy, -ona, -boshqalar) yordamida hosil qilinadi hamda maʼnoga boylik beradi. Shunday qilib, sifatning tuzilishi va yasalishi tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, soʻzlashuv va yozma nutqni obrazli, rang-barang va taʼsirchan qiladi. Xulosa qilib shuni taʼkidlashimiz mumkinki, Sifatlar haqida maʼlumotlarni chuqurroq oʻrganish tilimizning takomillashuviga asos boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Oʻzbek tili. – Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1978.
2. Neʼmatov H., Bozorov O. Til va Nutq. – Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1993.
3. Turniyozov N., Rahimov A. Oʻzbek tili (maʼruzalar matni)
4. www.ziynet.uz

BIOLOGIK TAJRIBALAR ORQALI O'QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

G'ULOMOVA SHAHNOZA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda

jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

boburraxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda tajriba va amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Biologik tajribalar nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, balki o'quvchilarning kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat bog'liqliklarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda biologik tajribalarni tashkil etish metodikasi, dars jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi yondashuvlar hamda tajribalar asosida tanqidiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish omillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda tajribaviy yondashuvning o'рни va istiqbollari ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: biologik tajriba, ilmiy dunyoqarash, o'quvchi faolligi, amaliy mashg'ulot, kuzatish, eksperiment, tanqidiy fikrlash, tabiiy fanlar, metodika, motivatsiya.

Аннотация: В статье рассматривается роль экспериментов и практических занятий в формировании научного мировоззрения учащихся при обучении биологии. Биологические эксперименты развивают не только навыки применения теоретических знаний на практике, но и навыки наблюдения, логического мышления и анализа причинно-следственных связей. В исследовании рассматриваются методика организации биологических экспериментов, подходы, стимулирующие активное участие учащихся в уроке, а также факторы, формирующие критическое и научное мышление на основе экспериментов. Также анализируются роль и перспективы экспериментального подхода в современном образовании.

Ключевые слова: биологический эксперимент, научное мировоззрение, активность учащихся, практическое занятие, наблюдение, эксперимент, критическое мышление, естественные науки, методология, мотивация.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Biologiya fani, o'zining tabiati va mazmuni bilan, o'quvchilarda ilmiy fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Xususan, biologik tajribalar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, ilmiy metodlarni o'zlashtirish va tabiat hodisalarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Abstract: This article discusses the role of experiments and practical exercises in the formation of a scientific worldview in students in teaching biology. Biological experiments develop not only the application of theoretical knowledge in practice, but also the skills of students to observe, think logically, and analyze cause-and-effect relationships. The study examines the methodology for organizing biological experiments, approaches that encourage students to actively participate in the lesson, and factors that form critical and scientific thinking based on experiments. The role and prospects of the experimental approach in modern education are also analyzed.

Keywords: biological experiment, scientific worldview, student activity, practical exercise, observation, experiment, critical thinking, natural sciences, methodology, motivation.

1. Biologik tajribalar va ilmiy dunyoqarash. Biologik tajribalar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tajriba orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va tabiat hodisalariga ongli munosabatni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biologik tajribalar o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Biologik tajribalarning turlari va ularning ahamiyati. Biologik tajribalar turli shakllarda o'tkazilishi mumkin: laboratoriya ishlaridan tortib dala ekskursiyalarigacha. Laboratoriya ishlarida o'quvchilar mikroskop orqali hujayra tuzilishini o'rganish, fermentlar faoliyatini kuzatish kabi amaliy mashg'ulotlarni bajaradilar. Dala ekskursiyalarida esa o'quvchilar tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosini bevosita kuzatish, ekologik tizimlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tajribalar o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Ilmiy metodlarni o'rgatish va mustaqil tadqiqotlar. Biologik tajribalar orqali o'quvchilarga ilmiy metodlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar tajriba o'tkazish jarayonida muammo qo'yish, gipoteza ilgari surish, tajriba rejasini tuzish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ilmiy metodlarni

o'zlashtiradilar. Bu esa ularning mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

4. Biologik tajribalarning tarbiyaviy ahamiyati. Biologik tajribalar nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishda, balki o'quvchilarning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Tajriba o'tkazish jarayonida o'quvchilar mehnatsevarlik, aniqlik, mas'uliyat, jamoada ishlash kabi sifatlarni o'zlashtiradilar. Shuningdek, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik madaniyatni rivojlantirish kabi tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi.

5. Biologik tajribalarni o'tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Hozirgi kunda biologik tajribalarni o'tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar orqali o'quvchilar murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini yanada chuqurlashtiradi.

Biologik tajribalar – bu faqatgina nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi emas, balki o'quvchilarda chuqur ilmiy tafakkur, kuzatuvchanlik, tanqidiy fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradigan eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Har qanday tajriba – bu o'quvchini faoliyatga jalb etish, uni o'ylashga, izlanishga, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunishga undaydigan jarayon. Aynan shu xususiyatlari bois biologik tajribalar bugungi kunda fan asosida ta'lim berishga intilayotgan pedagoglar uchun beqiyos metodik imkoniyatlar yaratadi.

Tajriba o'tkazish orqali o'quvchi o'z bilimini sinovdan o'tkazadi, yangi bilimlarni mustaqil ravishda anglaydi va o'z mulohazasini bildiradi. Bu esa faqat bilim darajasini emas, balki o'quvchining tafakkur darajasini, ilmiy qarashlarini va shaxsiy intellektual o'sishini ham belgilaydi. Ilmiy tajriba – bu faktlar asosida xulosa chiqarishni, shoshilinch va yuzaki fikrlardan qochishni, har bir dalilni asoslashni o'rgatuvchi qudratli vositadir.

Bugungi raqamli davrda esa biologik tajribalarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish ilmiy dunyoqarashni yanada chuqurroq shakllantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar yoki mikroskopik suratlar orqali o'tkazilgan tajribalar o'quvchida nafaqat bilimga, balki fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biologik tajribalarni o'quv jarayoniga sistematik va metodik jihatdan puxta integratsiya qilish orqali biz o'quvchilarni nafaqat bilimdon, balki mustaqil fikrlovchi, ilmiy asosda qaror chiqaruvchi, ekologik madaniyatga ega

va tabiatga mas'uliyat bilan yondashadigan zamonaviy shaxslar sifatida shakllantirishga erishamiz. Shuning uchun ham biologik tajribalar nafaqat darsning estetik yoki qiziqarli elementi, balki ta'lim va tarbiyaning fundamental asosi sifatida qaralishi zarur. O'quvchi tajriba davomida o'zini kichik olim sifatida his qilsa, demak u kelajakda fan bilan jiddiy shug'ullanishga bir qadam yaqinlashgan bo'ladi. Ana shunday yondashuvgina bizga haqiqiy ilmiy dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezova I.U., Xodjiyeva N.I., Rustamova S.I. (2022). Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION.
2. Tolipova J., Ofurov A.G. (2020). Biologiya o'qitish metodikasi. Ziyouz.com.
3. Rahmatova G. (2021). "Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o'qitish metodikasi". "Pedagogik ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.
4. Sulliyeva S.X. (2023). Biologiyani o'qitishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va ta'lim – tarbiya masalalari. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM.

TIL O'ZGARISHLARI VA ULARNING SABABLARI

GULSANAM TO'XTASINOVA SAYDILLO QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

gulsanamsaydullayevna1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Til insoniyat madaniyatining eng muhim vositasi bo'lib, jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liqdir. U faqat aloqa quroli emas, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazishda ham asosiy o'rin tutadi. Har qanday til doimiy ravishda rivojlanadi, o'zgaradi, yangi unsurlar bilan boyiydi va ayrim unsurlarini yo'qotadi. Shu bois til o'zgarishlari til taraqqiyotining tabiiy jarayonidir.

Kalit so'zlar: til taraqqiyoti, til evolutsiyasi, monosemiya, arxaizm, generalizatsiya, spetsializatsiya.

Annotation: Language is the most important means of human culture and is closely connected with the life of society. It is not only a tool of communication but also plays a key role in understanding national identity, preserving historical heritage, and passing it on to future generations. Any language constantly develops, changes, enriches itself with new elements, and loses some of them. Therefore, language changes are a natural process of linguistic development.

Keywords: language development, language evolution, monosemy, archaism, generalization, specialization.

Аннотация: Язык является важнейшим средством человеческой культуры и тесно связан с жизнью общества. Он не только средство общения, но и играет основную роль в осознании национальной самобытности, сохранении исторического наследия и его передаче будущим поколениям. Любой язык постоянно развивается, изменяется, обогащается новыми элементами и теряет некоторые из них. Поэтому языковые изменения являются естественным процессом развития языка.

Ключевые слова: развитие языка, эволюция языка, моносемия, архаизм, генерализация, специализация.

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Til statik hodisa emas, balki dinamik tizimdir. Har qanday til tarixiy jarayonda doimiy ravishda rivojlanib, o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar ayrim hollarda sezilarli, ayrim hollarda esa sekin kechadi. Tilshunoslikda bu hodisa "til taraqqiyoti" yoki "til evolyutsiyasi" deb yuritiladi. Til evolutsiyasi — bu tilning turli davrlarda shaklan, ma'no jihatdan, fonetik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan o'zgarib borishi jarayonidir. Har qanday til jamiyat taraqqiyoti bilan birga doimo rivojlanib, yangilanib, ayrim unsurlarini yo'qotib, yangi unsurlarni qabul qiladi. Til o'zgarishi til tizimining turli darajalarida — fonetika, leksika, semantika, grammatika va uslubiy qatlamlarda yuz beradigan yangilanishlar va almashinuvlar hisoblanadi. Bu jarayon sekin, ko'pincha avlodlar almashinuvi orqali namoyon bo'ladi. Ba'zan esa jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar tilga tezkor ta'sir ko'rsatadi.

Fonetik o'zgarishlar — nutq jarayonida so'zning fonetik tuzilishida, tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Nutq jarayonida, talaffuzda tovushlar boshqacha aytilishi, tushib qolishi, ba'zan esa tovush orttirilishi, bir tovushning ikkinchisi tomonidan moslashtirilishi mumkin. Qadimda bir so'zning boshqacha talaffuz qilinib, hozirgi kunga kelib uning shakli o'zgarishi ham bunga misol bo'la oladi. Masalan: yaz-yoz. Bu hodisa tilshunoslikda tovush o'zgarishlari hamda fonetik jarayonlar deb ham yuritiladi.

Leksik o'zgarish — bu til lug'at boyligida (so'zlarda) yuz beradigan o'zgarishlardir. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan tilning so'z tarkibi yangilanadi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqadi, yangilari kirib keladi yoki mavjud so'zlarning ma'nosi o'zgaradi.

Turli sohalarning taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar paydo bo'ladi va ular uchun yangi so'zlar yaratiladi yoki boshqa tillardan olinadi. Bu tilga neologizmlarning kirib kelishi hamdir. Masalan: kompyuter, internet, bloger, onlayn.

Ma'lum vaqt o'tishi bilan ba'zi so'zlar eskiradi va kundalik iste'moldan chiqadi. Bunday so'zlar tilshunoslikda arxaizm va tarixiy so'zlar deb atalai hamda ular ham til evolutsiyasiga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan: dorug'a (amirlik davridagi mansab), qilich (eskirgan qurol nomi). Leksik monosemiyaning polesemiya o'zgarishi yoki bir so'zning yana bir boshqa ma'no kasb etishi: sichqon (hayvon nomi) — kompyuter sichqoni.

Semantik o'zgarish — bu so'zlarning ma'nosi vaqt o'tishi davomida o'zgarishi, torayishi, kengayishi yoki yangicha mazmun kasb etishi hodisasidir. Oddiy qilib aytganda, so'z shakli o'sha-o'sha qoladi, lekin uning ma'nosi boshqa bo'lib ketadi.

Generelizatsiya — ma'no torayishi. So'z avval tor ma'noda ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik kengroq ma'noni ifodalay boshlaydi. Masalan: ota – dastlab faqat biologik ota ma'nosida ishlatilgan, hozir “ajdod, hurmatli kishi” ma'nolarida ham: Alisher Navoiy – o'zbek adabiyoti otasi. Spetsializatsiya so'z keng ma'nodan, keyinchalik torroq ma'noni ifodalashga o'tadi. Masalan: osh – ilgari “har qanday ovqat” ma'nosida ishlatilgan, hozir esa faqat palov ma'nosida.

Grammatik o'zgarish – tilning grammatik qurilishida (so'z turkumlari, shakllar, qo'shimchalar, so'z birikmalari, gap qurilishi) vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlardir. Til doimiy rivojlanishda bo'lgani uchun grammatik birliklar ham yangilanadi, ba'zilar esa iste'moldan chiqib ketadi. Masalan: birgina –chi qo'shimchasini asosga qo'shish orqali yangidan yangi so'zlar hosil bo'ladi. Gul+chi=gulchi, suv+chi=suvchi. Uslubiy o'zgarishlar – bu tilning qo'llanish jarayonida so'z, ibora va grammatik vositalarning uslubiy rang-barangligi hamda ularning vaqt o'tishi bilan uslubiy qiymatining o'zgarishi demakdir. Oddiy qilib aytganda, so'z yoki til birligi turli davrlarda turli nutq uslublarida ishlatilishi, ayrimlari esa boshqa uslublarga ko'chib o'tishi uslubiy o'zgarish hisoblanadi. Mirshab qadimda rasmiy so'zni ifodalagan hozirgi kunga kelib tarixiy-badiiy so'zni ifodalaydi. 1. Til o'zgarishlarining mohiyati

Til o'zgarishi — bu til tizimining ma'lum davr mobaynida yangi elementlar bilan boyib borishi yoki ayrim unsurlarning eskirib chiqib ketish jarayonidir. Til o'zgarishlari lug'aviy, fonetik, grammatik va uslubiy darajalarda yuz beradi. Til o'zgarishlari ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Ichki (tabiiy) o'zgarishlar — tilning o'z taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra, ichki tizimdagi muvozanatni saqlash maqsadida sodir bo'ladi.

Tashqi (ijtimoiy) o'zgarishlar — jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, boshqa tillar bilan aloqalar, siyosiy va texnik yangiliklar ta'sirida yuz beradi.

2. Tarixiy nuqtai nazardan til o'zgarishlari

Har bir tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlari mavjud. Masalan, o'zbek tili qadimgi turkiy davrdan boshlab, eski o'zbek tili (Chig'atoy tili) davridan o'tib, hozirgi zamon o'zbek tiligacha rivojlanib keldi.

Tarixiy jarayonlarda quyidagi o'zgarishlar kuzatilgan:

- **Leksik o'zgarishlar:** yangi so'zlarning kirib kelishi (masalan, arabcha, forsha, ruscha so'zlar), eskirgan so'zlarning chiqib ketishi.

- **Fonetik o'zgarishlar:** tovush tizimida o'zgarishlar, masalan, eski “yaqshi” so'zi “yaxshi” ko'rinishiga o'tgan.

• **Morfologik o'zgarishlar:** so'z yasovchi affikslarning o'zgarishi yoki yangilanishi.

• **Sintaktik o'zgarishlar:** gap tuzilishidagi yangiliklar, ergash gapli konstruksiyalarning kengayishi.

Tilning tarixiy o'zgarishlari doimo jamiyat ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

3. Til o'zgarishlarining sabablari

Til o'zgarishlarining sabablari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

3.1. Ijtimoiy sabablar

Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar tilga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik davrida o'zbek tilida ko'plab yangi so'zlar (masalan, *davlat ramzi, mustaqillik, milliy valyuta, elektron hukumat*) paydo bo'ldi.

Ijtimoiy jarayonlar tilni yangilaydi, leksik qatlamni boyitadi va milliy o'zlikni mustahkamlaydi.

3.2. Texnik va ilmiy taraqqiyot

Texnologiya rivoji yangi atamalarni keltirib chiqarmoqda: *internet, kompyuter, sun'iy intellekt, smartfon, onlayn, chat-bot* kabi so'zlar bugungi kundalik nutqda faol qo'llanmoqda.

3.3. Madaniy va global ta'sirlar

Globalizatsiya jarayonida ingliz tilining xalqaro mavqei kuchayib, ko'plab sohalarda inglizcha so'zlar o'zlashmoqda. Masalan, *marketing, brend, menedjer, dizayn, kontent* va boshqalar. Shu bilan birga, milliy madaniyatni saqlash uchun o'zbek tilida ularning muqobillari yaratilmoqda: *bozorlashtirish, tovar belgisi, boshqaruvchi, bezak, mazmun*.

3.4. Psixologik va kommunikativ omillar Til o'zgarishlariga insonlarning tilni soddalashtirishga intilishi ham sabab bo'ladi. Nutqda qulay, qisqa, tez aytiladigan shakllar ustunlik qiladi. Masalan, *salom alaykum* so'zi ba'zan *salom, assalomu aleykum* kabi variantlarda ishlatiladi.

3.5. Til ichki qonuniyatlari

Har bir til o'zining ichki fonetik, morfologik va semantik qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar asosida til unsurlari tabiiy tarzda o'zgaradi. Masalan, urg'u, talaffuzdagi soddalashuv, affikslarning qisqarishi yoki birikishi.

4. Til o'zgarishlarining turlari

4.1. Leksik o'zgarishlar

Tilning eng tez o'zgaruvchi qatlami — bu so'z boyligidir. Yangi tushunchalar, ixtirolar, ijtimoiy hodisalar yangi so'zlarni talab qiladi. Shu sababli yangi so'zlar (neologizmlar) tez paydo bo'ladi: *bloger, kontent, mobil ilova, raqamli iqtisodiyot* va h.k.

Bundan tashqari, ayrim so'zlar eskiradi (*parovoz, telegraf, gramplastinka* kabi).

4.2. Fonetik o'zgarishlar

Tovush tizimi ham vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, qadimgi turkiy *könül* hozirgi o'zbek tilida *ko'ngil* shaklini oldi. Ba'zan talaffuzdagi o'zgarish yozuvga ham ta'sir ko'rsatadi.

4.3. Grammatik o'zgarishlar

Yangi so'z yasash modellarining paydo bo'lishi, affikslarning yangilanishi, so'z tartibining o'zgarishi grammatik tizimning rivojlanishini ko'rsatadi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida rus tilidan kirgan so'zlarga ham o'zbekcha qo'shimchalar qo'shilmoqda (*kompyuterlar, dizaynerlik, ofisda* va boshqalar).

4.4. Semantik o'zgarishlar

So'z ma'nolarining kengayishi yoki torayishi ham til o'zgarishining muhim ko'rinishidir. Masalan, *tarmoq* so'zi ilgari faqat "daraxt shoxlari" yoki "to'r" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirda *internet tarmog'i* ma'nosini ham bildiradi.

5. Zamonaviy o'zbek tilida o'zgarish tendensiyalari

Hozirgi o'zbek tilida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. **Axborot texnologiyalari ta'siri:** raqamli terminlarning faol qo'llanilishi.
2. **Qisqartmalar va abbreviaturalarning ko'pligi:** *OAV, YT, IT, VPN, AI* kabi.
3. **So'z yasashda yangiliklar:** *blogerlik, kontentchi, dizaynerlik* kabi so'zlar.
4. **Talaffuzdagi soddalashuv:** og'zaki nutqda *bo'lyapti* → *bopt*, *ketay* → *ketvoman* kabi shakllar.

5. **Ijtimoiy tarmoqlar tili:** emoji'lar, inglizcha-aralash so'zlar, yangi iboralar paydo bo'lishi.

Bu jarayonlar tilning tabiiy rivojlanish bosqichini aks ettiradi, biroq ularni adabiy til me'yorlari bilan muvofiqlashtirish muhimdir.

6. Til o'zgarishlarining ijobiy va salbiy jihatlari

Ijobiy jihatlari:

- Tilning boyishi va zamonaviylashuvi.
- Yangi ilmiy-texnik terminlarning yaratilishi.
- Tilning xalqaro aloqa vositasi sifatida rivojlanishi.

Salbiy jihatlari:

- Chet so'zlarning haddan ortiq kirib kelishi.

- Milliy so'z boyligining siqilib chiqishi.
- Adabiy til me'yorlarining buzilishi.

Shu bois, til siyosatida muvozanatni saqlash, yangi so'zlarni tartibli o'zlashtirish va o'zbekcha muqobillarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Til o'zgarishlari — bu turg'unlik emas, balki doimiy rivojlanish jarayonidir. Har bir o'zgarish jamiyat hayotining aks-sadosi bo'lib, tilning boyib borishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy o'zlikni saqlash, adabiy til me'yorlarini mustahkamlash, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Tilni asrab-avaylash, uni zamonaviy texnologiyalar sharoitida ham boyitish — har bir til sohibining burchidir. O'zbek tili o'z tabiiy rivojlanish yo'lida har doim yangilanib, milliy va global madaniyat o'rtasida uyg'unlik topib boradi.

Til o'zgarishlari — bu tilning tirik va rivojlanayotganligidan dalolat. Jamiyat hayoti, madaniyat, fan-texnika, boshqa tillar bilan aloqalar, avlodlar almashinuvi tilning har doim o'zgarishiga sabab bo'ladi. Agar til o'zgarmasa, u jamiyat ehtiyojlariga javob bera olmay qoladi va asta-sekin "o'lik til"ga aylanadi. Shu bois tilning yangilanishi va rivoji millatning ham ma'naviy taraqqiyoti uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mahmudov N. *Til va jamiyat*. Toshkent: Fan, 2015.
3. Rajabov A. *O'zbek tili taraqqiyoti tarixidan*. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Jumaniyozov O. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: Universitet, 2020.
5. Internet manbalari: til.va.jamiyat.uz, ziyonet.uz
6. <https://share.google/BIuupvTh1k8WH5oiu>
7. <https://share.google/YB8NnqQrXXQukEtMb>
8. <https://share.google/QIELIBca0NO8MfB1H>

5-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA IBORALARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

HAMIDOVA ADIBA OBIDJON QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

adibahamidova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlangich sinf oquvchilariga iboralar ma'nolarini orgatishning nazariy metodologik asoslari qaraladi Maqoladan bolajak boshlangich sinf oqituvchilari va faoliyat olib borayotgan boshlangich sinf oqituvchilari foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: lugat, ibora, leksika, stilistika, iste'mol, nutq, fonetika, grammatika, orfografiya, metodika, tavsiya, frazema, frazemik lugat, usullar, frazeologik material.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching elementary school students the meaning of phrases. The article can be used by future elementary school teachers and current elementary school teachers.

Keywords: dictionary, phrase, lexicon, stylistics, usage, speech, phonetics, grammar, orthography, methodology, recommendation, phraseology, phraseological dictionary, methods, phraseological material.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методические основы обучения младших школьников значению словосочетаний. Статья может быть использована будущими и действующими учителями начальной школы.

Ключевые слова: словарь, словосочетание, лексика, стилистика, узус, речь, фонетика, грамматика, орфография, методика, рекомендации, фразеология, фразеологический словарь, методика, фразеологический материал.

Maktabda ona tili og'zaki va yozma nutqni biladigan, til unsurlaridan o'rinli foydalana oladigan, tom ma'nodagi savodli o'quvchilarni tayyorlashni ta'minlaydigan vosita tarzida o'rgatiladi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi. O'zbek tili lug'ati tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir. Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan tashqari leksik ma'no ifodalaydigan turg'un birikmalar-iboralar ham mavjud. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson

xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, boshqa birikmalar bilan xuddi alohida so'z kabi munosabatda bo'ladi.

Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir. Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Biroq iboralarni o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Chunki iboralarning o'zi to'g'risida nazariy ma'lumot berilmaydi, lekin boshlang'ich sinf o'qish va ona tili darsliklari matnlarida juda ko'plab iboralar uchraydi. Albatta, dars berish davomida iboralar ustida maxsus ish olib borilmoqda, yani berilgan lug'atlarda ayrim iboralar izohi berilgan. Ammo bu ish hamma vaqt ham zarur natijalarni bermoqda deb bo'lmaydi. O'rta maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilar yetarli iboraviy birliklar boyligiga ega bo'lmayotirlar. Buning sababi shundaki, iboralarni o'rganish tizimi hali maqsadga bo'ysundirilgan va qat'iy ishlab chiqilgan tizim darajasiga aylangan emas. Iste'molda ko'p qo'llanadigan hamda kam qo'llanadigan, ya'ni nisbatan bir muncha qiyin ma'noli va sodda ko'rinishli iboralarni o'rgatishga bir xil vaqt sarflanishi, iboralarga doir mashqlarni o'rganish xususiyati e'tiborga olinmaganligi iboralarni o'rganishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Iboralar juda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Har bir ibora muayyan hajmdagi ma'noga, shaklga va qo'llanish imkoniyatiga ega va ularning shakli ham o'zgacha. Iboraning shakli deyilganda, uning fonetik, orfografik qurilish tarkibi va grammatik shakllari tushuniladi. Leksemaga qaraganda, iboralar ma'nolarining hajmi, ko'p ma'noliligi bilan farqlanadi. Bu kabi holatlar iboralarni nutqqa olib kirishni qiyinlashtiradi. Aksariyat o'quvchilar mumkin qadar ularni o'z nutqida qo'llamaslikka harakat qiladi. Sabab shundaki, o'quvchilar iboralarning ma'nolarini hamma vaqt ham tushunib yetmaydi, ularning ma'nolarini fahmlay olmaydi. Bu esa iboralarni nutqdan chiqarib tashlash evaziga oddiy, sodda, qashshoq gapirishga undaydi. Shu ma'noda iboralarni o'qitish va o'rganishning samarali metodikasini yaratish lozim.

Fanning eng muhimmuammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazeologiya. doirasiga maqol va matallar, folklarga xos

barqarorjumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Folkerning keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Tayyor birliklar: Iboralar odatda o'zgartirilmaydigan, doimiy shaklda qo'llaniladigan tayyor ifodalar bo'lib, ular leksik birlik sifatida qatnashadi. Masalan: Ko'ngli to'q, og'zidan balo chiqdi, ko'z quloq bo'lish, og'zi qulog'ida, kapalagi uchdi, kovushini to'g'irlab qo'ydi, tepa sochi tikka bo'ldi.

Ko'chma ma'nolik. Ko'pchilik iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi. Ular tarkibidagi so'zlarning umumiy ma'nosidan farq qiluvchi, yagona ma'no anglatadi. Masalan: yuragi betlamoq - qo'rqmoq. Iboralar tilga obrazlilik, ifodaviylik va uslubiy rang-baranglik keltiradi. Ayniqsa badiiy adabiyot va og'zaki nutqda muhim rol o'ynaydi. Sintaktik mustaqillikning yo'qligi: Iboralar gap bo'lagi sifatida ishlatiladi ya'ni ular gap tuzmaydi, balki gapda xizmat qiladi. Iboralar har bir tilga xos bo'lib, xalqning tarixiy, madaniy, mental va ma'naviy dunyoqarashni ifodalaydi. Shu jihatlari bilan iboralar til tizimida leksik birlik (so'z) bilan gap (sintaktik birlik) oralig'idagi oraliq birlik sifatida e'tirof etiladi.

Ammamning buzog'i bu ibora xalq tilida juda faol. Haqoratli ma'noda, bepisandlik bilan qo'llanadi va hech bir ishni eplolmaydigan; lavang, shudsiz ma'nolarini anglatadi. Ko'pincha iboralar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari unutiladi va ibora yaxlit holda tamom boshqa bir ma'noni anglatadi. Ushbu frazeologizm ham amma va buzoq so'zlarining ma'nosi unutilgan. Taxminimcha, bu ibora o'xshatish sabab paydo bo'lgan. Nima bo'layotganini tushunmay, kalovlanib turish holati buzoqning javdirashi, onasini izlab dovdirashiga o'xshatilgan. O'zbek tilida buzoq obrazi qatnashgan maqollar ko'p. Ularning aksariyatida salbiy ma'no ifodalangan: "Buzoqni bo'sh qo'ysang, xurmachani ag'daradi", "Buzoq ko'p emsa bo'kadi, Bo'sh qo'ysang to'kadi", "Buzoqni tilga olsang, ipini uzib keladi", "Buzoqning yugurgani somonxonagacha", "Tirraqi buzoq butun podani bulg'aydi" kabi iboralar keltirilgan. Ko'z ochib ko'rganim. Xalq tilida ko'z ochib ko'rgan iborasi ko'p ishlatiladi. U ilk bonikoh qurgan kishini, ya'ni birinchi er yoki birinchi xotinni anglatadi. Masalan, yigit ilk bor nikoh qurgan bo'lsa, kelin unga ko'z ochib ko'rgan bo'ladi. Qiz ilk bor turmushga chiqayotgan bo'lsa, kuyov u uchun ko'z ochib ko'rgan sanaladi: Norjon ona Boydoda muallimning ko'z ochib ko'rgani. Bu iboraning paydo bo'lishi chimildiqdagi oyna tutish udumi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Oldinlari to'ydan so'ng kelin-kuyovga oyna tutilgan, ular bir-birini ilk bor oynada ko'rgan. Boshqa bir taxminga ko'ra, ko'z ochib ko'rish kengroq ma'noni – tug'ilganda ilk bor ko'zi tushishni anglatgan. Keyinroq iboraning kengroq ma'nosi torayib, ko'proq nikoh bilan bog'liq mazmunda ishlatila boshlagan.

Quyida 5-sinf ona tili darsligidagi ibora mavzusiga doir mashqlarni tahlil qilamiz:
 347-mashq. Quyidagi birinchi ustundagi iboralarning ma'nosini ikkinchi ustundan topib moslashtiring.

Yoğ tushsa yalagudek	Xavotirlangan
Tegirmonga tushsa butun chiqadi	Uddaburon
Tarvuzi qōltiğidan tushdi	Qōrqmoq
Oyoği kuygan tovuqday	Toza
Burni osmonda	Kibrlangan

Bu mashq orqali o'quvchilarda tezkorlik, hozirjavoblik, zukkolik qobiliyatlari shakllanadi. Bolalar bu mashqni bajarish orqali iborani juda tez yodlab oladi.

Xulosa qilib shuni aytsak bo'ladiki, ona tilimizning barcha imkoniyatlarini ochib beruvchi iboralar, maqollar, hikmatlar, hikoyalarni o'rgatish har bir pedagogning oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarikulov, M. X., Uzoqov, I. E., & Lapasova, Z. K. Q. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida yosh kadrlarni sifatli inklyuzif o'qitishni rivojlantirish va yetuk kadrlarni tayyorlash. *Science and Education*, 3(6), 784-788.
2. Хамрохонова, С. Ж. (2020). Фреймы «гость» и гостеприимный человек. *Студенческий вестник*, (29-1), 26-27.
3. Хамрахонова, S. J. (2020). The linguocultural landscape of the world and its reflection in language. *Экономика и социум*, (10), 294-296.
4. Хамрахонова, S. J. (2020). Dunyoning lingvomadaniy manzarasi va uning tilda aks etilishi. *Academic research in educational sciences*, (3), 1199-1203.
5. Jo'raxonovna, S. X. Aspects of Teaching Foreign Languages at a Technical University.

Preprint not peer reviewed.

SUN'IY INTELLEKT BILAN BIRGA O'ZBEK TILIGA KIRIB KELAYOTGAN SO'ZLAR

HAMROQULOVA SHAHRIZODA QAHRAMON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

shahrizodahamroqulova72@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi o'zbek tiliga yangi leksik birliklar va iboralar kirib kelishiga olib keldi. Mazkur maqolada sun'iy intellekt va unga tegishli atamalarining o'zbek tiliga qanday yo'l bilan o'zgargani va moslashgani tahlil qilinadi. Inglizcha atamalarining to'g'ridan-to'g'ri o'zlashuvi, ularni o'zbek grammatikasiga moslashtirish amaliyoti hamda ba'zi tushunchalar uchun turli ekvivalentlar paydo bo'lishi (masalan, "chatbot" — "sun'iy suhbatdosh", "prompt" — "so'rov") ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yangi leksik birliklarning til me'yoriga ta'siri, ularni normallashtirish zarurati va terminologik me'yorlar yaratish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Maqola o'zbek tilining raqamli davrga moslashuvi va tilshunoslik hamjamiyati oldidagi vazifalarni yoritadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, neologizmlar, o'zbek leksikasi, terminologiya, til me'yori.

Annotation: The rapid development of artificial intelligence (AI) technologies has led to the emergence of new lexical units and expressions in the Uzbek language. This article analyzes how AI-related terms have changed and adapted within the Uzbek linguistic system. It discusses direct borrowings from English, their grammatical adaptation in Uzbek, and the emergence of different equivalents for the same concepts (for example, "chatbot" — "artificial interlocutor", "prompt" — "request"). The article also explores the impact of these new lexical units on language norms, the need for their standardization, and the development of consistent terminology. Overall, it highlights the adaptation of the Uzbek language to the digital era and the challenges faced by the linguistic community.

Keywords: artificial intelligence, neologisms, Uzbek lexicon, terminology, language norms.

Аннотация: Быстрое развитие технологий искусственного интеллекта (ИИ) привело к появлению в узбекском языке новых лексических единиц и выражений. В данной статье анализируется процесс изменения и адаптации терминов, связанных с искусственным интеллектом, в узбекском языке. Рассматриваются прямые заимствования из английского языка, особенности их грамматической адаптации, а также появление различных эквивалентов для одних и тех же понятий (например, “chatbot” — “искусственный собеседник”, “prompt” — “запрос”). Кроме того, обсуждается влияние новых лексических единиц на языковую норму, необходимость их стандартизации и выработка терминологических норм. Статья освещает процесс адаптации узбекского языка к цифровой эпохе и задачи, стоящие перед сообществом лингвистов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, неологизмы, узбекская лексика, терминология, языковая норма.

Bugungi globallashuv davrida texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI) inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib keldi. Bu jarayon nafaqat fan va texnika, balki til tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tili ham zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yangilanib, ko'plab neologizmlar (yangi so'zlar) bilan boyimoqda. Bu narsadan bizning o'zbek tilimiz rivojlanib va kengayib kelmoqda. Tilimizdagi so'zlarning soni ko'paymoqda va nutqimizda yana ham aniq va ravon so'zlardan foydalanib, kengroq so'zlashish imkoniyati oshib bormoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasi ingliz tilidagi Artificial Intelligence (AI) atamasidan kirib kelgan bo'lib, dastlab ilmiy termin sifatida ishlatilgan. Bugungi kunda bu soha kengaygani sari unga oid yuzlab yangi so'zlar o'zbek tilida qo'llanilmoqda. Ularning ba'zilari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi, boshqalari esa asl shaklida saqlanadi. Masalan: Chatbot – “suhbatdosh dastur” yoki “sun'iy suhbatdosh”, Prompt – “so'rov”, “buyruq”, Neural network – “neyron tarmoq”, Machine learning – “mashinali o'rganish”, Deep learning – “chuqur o'rganish”, Data base – “ma'lumotlar bazasi”, Algorithm – “algoritmi” Bu so'zlarning ko'pchiligi dastlab ingliz tilidan bevosita o'zlashgan. Ammo o'zbek tili ularni o'z grammatik tizimiga moslashtirish orqali tabiiylashtirmoqda. Masalan, “chatbot” so'zi xalq orasida “chatbotlar”, “bot yozish”, “bot yaratish” tarzida qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, ayrim so'zlar o'zbekcha shaklda yaratilmoqda: sun'iy ong, aqlli tizim, raqamli yordamchi, aqlli dastur, ma'lumotlar tahlili, nutqni tanish, yuzni aniqlash kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Yangi texnologik so'zlarning ko'payishi bilan birga, til me'yori va sinonimlar tanlovi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ba'zan bir tushuncha uchun bir

necha variantlar paydo bo'lmoqda: Masalan, "sun'iy intellekt", "sun'iy aql", "aqlli tizim" iboralari turlicha qo'llanilmoqda. Shu bois tilshunoslar oldida yangi atamalarni me'yorga solish, rivojlanayotgan leksikani nazorat qilish vazifasi turibdi.

Bugun "sun'iy intellekt", "neyrontarmoq", "chatbot", "prompt yozish" kabi iboralar ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim, OAV va kundalik so'zlashuv tilida faol ishlatilmoqda. Sun'iy intellekt terminlari faqat texnik sohalarda emas, kundalik hayot, madaniyat va ta'lim tizimida ham qo'llanilmoqda. Masalan: talabalar "ChatGPT" yoki "AI dasturlari" dan foydalanadi, o'qituvchilar "raqamli yordamchi" orqali baholash tizimini yengillashtiradi, san'at sohasida esa "AI generatsiyasi" degan yangi ibora paydo bo'ldi. Bu hodisa tilga yoshlar orasida keng tarqalgan rasmiy bo'lmagan so'zlar orqali yanada tez kirib kelmoqda va yangi avlodning raqamli tafakkur shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Biz yosh avlodlar sun'iy intellektlardan har kuni foydalanib bormoqdamiz va bu bizga katta yordam bermoqda. Sun'iy intellektlar nafaqat tashqi ishlarda balki o'quv ishlarida ko'plab ma'lumotlarni olib kelmoqdamiz.

O'zbek tili hozirda raqamli muhitga kirib borayotgan jarayonda. Tilning yangi sharoitga moslashuvi uchun: sun'iy intellektga oid lug'atlar, avtomatik tarjima tizimlari, ovozni matnga aylantiruvchi dasturlar, AI yordamida tahlil tizimlari yaratilmoqda. Bu esa o'zbek tilining zamonaviy fan tili sifatidagi mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi raqamlashtirish davrida til o'zgarishsiz qolmaydi. O'zbek tili ham bu jarayonda faol ishtirok etib, o'z leksik tarkibini boyitmoqda. Yangi so'zlar — bu tilning kuchi, uning zamonga moslashish qobiliyatining isbotidir. Shunday ekan, har bir o'zlashayotgan atama tilimizni kambag'allashtirmaydi, aksincha, boyitadi, yangi ilmiy sohalarga kirish eshigini ochadi. Eng muhimi — nutqimizda va tilimizda sun'iy intellektlar orqali kirib kelgan so'zlarni o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Til va jamiyat jurnali. 2024-yil, №2.
2. Jo'rayev M. Til va texnologiya: yangi davr leksikasi. Toshkent, 2023.
3. www.ziynet.uz
4. Oxford Languages. AI and Language Evolution Report, 2022.

QO'SHMA GAP VA ULARNING TURLARI

HAMROQULOVA SHAHRIZODA QAHRAMON QIZI,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi qo'shma gaplar, ularning turlari va qo'llanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Qo'shma gaplarning nutqdagi vazifasi, mazmuniy va grammatik qurilishdagi o'rni, bog'lovchisiz, bog'lovchili hamda aralash turlari izohli misollar yordamida yoritilgan. Maqola nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda, amaliy misollar va mashqlar orqali mavzuni yanada boyitadi.

Kalit so'zlar: qo'shma gap, bog'lovchisiz gap, bog'lovchili gap, aralash qo'shma gap, sintaksis.

Аннотация. В данной статье будут научно проанализированы составные предложения узбекского языка, их виды и особенности употребления. Задача составных предложений в речи, их роль в содержательном и грамматическом построении, безсвязные, союзные и составные виды освещаются на наглядных примерах. Наряду с теоретической информацией, статья еще больше обогащает тему практическими примерами и упражнениями.

Ключевые слова: составное предложение, бессвязное предложение, связующее предложение, составное предложение, синтаксис.

Til - ijtimoiy hodisa bo'lib, u orqali insonlar o'zaro muloqot qiladi, fikr, tuyg'u va bilimlarini ifodalaydi. Sodda gap oddiy hukmni ifodalashga xizmat qilsa, hayotdagi murakkab hodisalarni ifodalash uchun qo'shma gaplar zarur bo'ladi. Shu bois qo'shma gaplarning ilmiy jihatdan o'rganilishi sintaksisning asosiy vazifalaridan biridir. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi.

Qo'shma gap – bu ikki yoki undan ortiq sodda gapning ma'no va grammatik jihatdan birikishi natijasida hosil bo'lgan murakkab sintaktik birlikdir.

Qo'shma gaplarning umumiy belgisi:

- Kamida ikki sodda gapdan tashkil topadi.
- Gaplar o'zaro intonatsiya yoki bog'lovchilar yordamida ulanadi.
- Barcha qismlar yagona mazmuniy butunlikni tashkil qiladi.

Qo'shma gap - tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap ya'ni, gapning struktural jihatdan alohida bir turi hisoblanadi. Qo'shma gap tuzilishi va qurilish materialiga ko'ra sodda galdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmalari bo'lsa. Qo'shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, Qo'shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topadi. Shunday qilib, qo'shma gap grammatik jihatdan shakllangan, birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan, sodda gaplarning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatlardan yaxlitlangan butunligidir.[1:182].

Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi.

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanib, bunday qo'shma gaplarda ohang muhim rol o'ynaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar aksar hollarda bog'langan va ergashgan Qo'shma gaplar bilan o'xshash, munosabatsiz ko'rinsa-da, ular ana shu turdagi gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki Qo'shma gaplarning alohida turi hisoblanadi. Masalan: Osmonda oy ko'rindi, yulduzlar charaqladi.

Shunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
4. Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
5. **Bo'lsa, esa** yordamchi so'zlari vositasida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan (teng aloqali) Qo'shma gaplar bog'langan Qo'shma gap deyilib, uning tarkibiy qismlari shaklan mustaqil ko'rinsa-da, mazmunan va tuzilish jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

- Teng bog'lovchili: qismlar bir-biriga tobe bo'lmaydi. Masalan: Bahor keldi va gullar ochildi.

- Tobe bog'lovchili: bir gap asosiy, ikkinchisi unga tobe bo'lib keladi. Masalan: Agar havo ochilsa, biz sayrga chiqamiz.

O'zbek tilida qo'shma gaplar tadqiqiga bag'ishlangan G.Abdurahmonovning ishini ko'rsatishimiz lozimdir. Jumladan, olim qo'shma gaplarni mazmun jihatdan quyidagi guruhlarga bo'lib chiqadi: aniqlovchi, ega, kesim, payt, o'rin, sabab, shart, maqsad, to'siqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar. O'z navbatida, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar uchga bo'linadi: chog'ishtirish, o'xshatish, miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplar.[2:31].

Tarkibidagi predikativ birliklar (sodda gaplar) bosh va ergash gaplardan tuzilib, ergashtiruvchi bog'lovchilar, bir qancha fe'l shakllari, yuklama va ko'makchilar, nisbiy so'zlar va tobelanish ohangi yordamida birikib, biri ikkinchisini aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradigan qo'shma gap ergashgan qo'shma gap deyiladi. Masalan: "bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti" (A.Qahhor) gapidagi, "bir kuni ko'chada ketayotsam" qismi ergash gap bo'lib, u bosh gapdagi (umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti) ish-harakatning amalga oshish payti (vaqti) ni aniqlab, uni to'ldirmoqda, predikatdagi shaklga ko'ra tobe gap hisoblanadi. Demak, bosh gap ergashgan Qo'shma gap tarkibidagi hokim komponent, ya'ni ergash gap tomonidan o'zi yoki biror bo'lagi aniqlanadigan, ergash gap tobe bo'ladigan gapdir. Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar, asosan, ergash gapning kesimi tarkibida keladi yoki undan so'ng qo'shiladi. Masalan: *O'z darajangga munosib o'ringa bilib o'tirsang, bu o'rindan seni hech kim qo'zg'atolmaydi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur)* gapida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita (-sa) ergash gapning kesimi tarkibida kelgan. Qo'shma gaplarda tinish belgilarining (vergul, nuqta, savol belgisi) qo'llanilishi gapning ma'nosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida qo'shma gaplar keng qo'llaniladi. Ular asosan bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. O'zbek tilida qo'shma gaplarning sintaktik tuzilishi va bog'lanish usullari boshqa tillardan farq qiladi.

Qo'shma gaplar o'zbek tili sintaksisida alohida o'rin egallaydi. Ular murakkab voqelikni ifodalashga xizmat qiladi. Bog'lovchisiz, bog'lovchili va aralash turlari

orqali turli mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Qo'shma gaplarni mukammal o'rganish yozma va og'zaki nutqni ravon, mantiqli va ta'sirchan qilishda muhim ahamiyatga ega. Qo'shma gaplar tilning ifodalilik va aniqlik jihatidan boyitilishiga xizmat qiladi. Ularning to'g'ri qo'llanilishi tilni ravon va tushunarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda qo'shma gaplarning turlari va ularning sintaktik xususiyatlarini o'rganish tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R.R. va boshq. Tilshunoslikka kirish. Darslik.- Durdona nashriyoti, 2021. -182 b.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 31-bet.
3. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: 2009.

NUTQ MADANIYATI VA TERMINOLOGIYA**HAYTBOYEVA ODINAXON PO'LATBOY QIZI**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi,

e-mail: odinaxonhaytboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq madaniyati va terminologiyaning o'zaro aloqasi, terminlarning nazariy asoslari, shakllanish manbalari hamda ularni standartlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Terminologiyaning milliy til taraqqiyotidagi o'rni yoritilib, zamonaviy o'zbek terminologiyasi oldida turgan vazifalar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy terminologiya va xalqaro terminlar o'rtasidagi uyg'unlik muammolari ham ilmiy jihatdan izohlanadi.

Kalit so'zlar: til, terminologiya, termin, milliy til, standartlashtirish, ilmiy uslub, termin tizimi, o'zbek tilshunosligi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы взаимодействия культуры речи и терминологии, теоретические основы терминологии, источники ее формирования, а также вопросы их стандартизации. Освещается роль терминологии в развитии национального языка, дается представление о задачах, стоящих перед современной узбекской терминологией. Также научно трактуются проблемы гармонии между национальной терминологией и международными терминами.

Ключевые слова: язык, терминология, терминология, национальный язык, стандартизация, научный стиль, система терминов, узбекская лингвистика.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak. Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim ajfalinasi tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida abamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala

so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi.[1:12].

Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Nutq madaniyati shaxs yoki jamiyat tomonidan qo'llaniladigan nutqiy xulq-atvor, til axloqi, muloqot qoidalari va uslublar majmuasidir. U ohang, frazeologiya, leksika tanlovi, grammatik aniqlik va madaniy hurmatni o'z ichiga oladi. Terminologiya esa o'ziga xos ilmiy va texnik sohalarda qo'llaniladigan atamalar tizimidir. Bu ikki soha o'zaro chambarchas bog'liq: nutq madaniyati terminologiyaning to'g'ri, aniqlik bilan ishlatilishini talab qiladi, terminologiya esa nutqni kasbiy va aniqlik bilan ifodalash vositasidir.

Nutq madaniyatining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Etiket va xushmuomalalik: muloqotda hurmat, salomlashish, samimiylik va ohang muhim. So'z tanlashda kamsituvchi, haqoratli yoki noto'g'ri iboralardan qochish lozim.
- Joy-vaqtga moslik: rasmiy va norasmiy nutq uslublarini ajrata bilish. Masalan, ilmiy ma'ruzada va do'stona suhbatda so'zlash uslubi farq qiladi.
- Nutqdagi aniqlik va lo'ndalik: ortiqcha to'ldiruvchi so'zlar, bezovta qiluvchi takrorlardan voz kechish, fikrni ma'noli va murakkab bo'lsa ham tushunarli qilish.

- Eshituvchini hisobga olish: muloqot maqsadi va auditoriyaning bilim darajasiga mos holatda tilni tanlash.

- Emotsional nazorat: hissiyotlarni nazorat qilib, so'zlarni ongli ishlatish; kerak bo'lsa, yumshoq yoki qat'iy ohanglardan foydalanish.

Terminologiyaning mohiyati va ahamiyati

Terminologiya - muayyan soha yoki fan doirasidagi atamalar to'plami, ularning aniqlangan ma'nolari, strukturasi va bir-biriga bog'liqligidan iborat. Yuqori sifatli terminologiya quyidagilarni ta'minlaydi:

- ilmiy va texnik muloqotda aniqlik, tushunarliklik;
- ma'lumotlarni saqlash va uzatishda izchillik;
- ta'lim va tadqiqotlarda terminlar bir xilda ishlatilishi;
- tarjimada aniq ekvivalentlar topilishi va noto'g'ri tushunishlarning oldi olinishi.

Terminologiyaning rivojlanish omillari

Nutq madaniyati va terminologiyada noto'g'ri yoki noaniq terminlardan foydalanish tushunmovchiliklarga va ilmiy axborotning buzilishiga olib keladi. Jargonlardan foydalanish, ommaviy auditoriyaga tushunarsiz bo'lishi mumkin. Chet so'zlarni ortiqcha qabul qilish, ona tilining boyliklarini yetarlicha ishlatmaslikka ulardan o'rinli foydalanmaslikka olib keladi. Tilimizda yangi atamalar paydo bo'lganda ularni tez va aniq standartlash kerak. Ilmiy va texnik matnlar yozishda har bir muhim atama uchun ta'rif berish lozimdir. Soha bo'yicha elektron va qog'oz lug'atlarni jamlash va yangilab borish ham til boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Soha bo'yicha treninglar, kasbiy muloqot, rasmiy yozishmalar, prezentatsiyalar uchun trening va seminarlar tashkil etish til madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Chet tillardan kelgan atamalarni moslashtirish uchun umumiy qoidalarini ishlab chiqish tarjima va adaptatsiya qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalarida jurnalistlar va bloggerlar terminlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi aniq fikr yuritish imkonini beradi.

Nutq madaniyati va terminologiya bir-birini to'ldiruvchi, zamonaviy muloqotning asosiy elementlaridir. Nutq madaniyati odamlarga so'zlarni to'g'ri va hurmat bilan ishlatishni o'rgatsa, terminologiya sohada aniqlik va izchillikni ta'minlaydi. Ikkalasiga e'tibor qaratish ilmiy, ta'lim va ijtimoiy sohalarda samarali muloqot va rivojlanishni ta'minlaydi.[2:68].

Til va terminologiya o'zaro bog'liq bo'lib, ilm-fan va texnika rivojida muhim rol o'ynaydi. Milliy terminologiya nafaqat o'zbek tilining boyishini ta'minlaydi, balki uning ilmiy salohiyatini xalqaro miqyosda ko'rsatib beradi. Shu sababli, terminlarni tizimlashtirish, ularni milliy me'yorlarga moslashtirish va xalqaro tajribadan unumli

foydalanish - bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Demak, kelgusida ham bu soha, tilning bu yo'nalishi bo'yicha qator fikr-mulohazalar, talqinlar, qarashlar o'rta tashlanishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Rasulov R., Q.Mo'yidinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati./ O'quv qo'llanma.T.: 2015.- B-12
2. Ahmadov K., Madaniyat va terminologiya, Toshkent, 2020.- 68-bet
3. Jumaniyozov A. O'zbek terminologiyasi taraqqiyotida zamonaviy muammolar. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2021. – №3.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: "Talqin"-2005.
5. Karimov S., "Madaniyat va terminologiya rivoji", O'zbekiston madaniyati, 2019, 5-son, 45-52 bet
6. Madaniyat va terminologiya haqida ma'lumotlarMadaniyat va terminologiya haqida ma'lumotlar," <https://example.com>, kira 10/11/2025.

O'ZBEK ADABIY TILI TARIXI

SARDOR OLLOYOROV BAHROM O'G'LI,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi,

olloyorovsardor96@gmail.com,

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, uning turkiy tillar oilasidagi o'rni, yozuv tizimidagi o'zgarishlar hamda adabiy til sifatida rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy manbalari va hozirgi zamon tilshunosligidagi o'rni haqida ilmiy tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turkiy tillar, tarixiy bosqichlar, yozuv tizimi, adabiy til.

Annotation: This article examines the stages of formation and development of the Uzbek language, its place within the Turkic language family, changes in the writing system, and its evolution as a literary language. The study also analyzes the historical sources of the Uzbek language and its role in modern linguistics.

Keywords: Uzbek language, Turkic languages, historical stages, writing system, literary language.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития узбекского языка, его место в семье тюркских языков, изменения в письменности и развитие как литературного языка. Также проведён анализ исторических источников и современного состояния узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, тюркские языки, исторические этапы, письменность, литературный язык.

Har bir millatning o'zligini belgilovchi eng muhim omillardan biri — bu uning tili. Til — milliy madaniyat, ma'naviyat, tarix va tafakkurning ko'zgusi hisoblanadi. O'zbek tili esa xalqimizning ko'p asrlik boy tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotining ajralmas qismidir. Bugungi kunda "hozirgi o'zbek adabiy tili" deb atalayotgan tilning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar mahsuli bo'lib, u "turk", "sart", "chig'atoy" va "o'zbek" atamalari bilan nomlanib kelmoqda.

O'zbek adabiy tili tarixi — bu nafaqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy va ma'naviy hodisa hamdir. Shu bois, hozirgi adabiy tilda yuz bergan o'zgarishlarni tahlil etish, uning tarixiy ildizlarini o'rganish va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Til tarixi o'rganilishida davrlashtirish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki o'zbek adabiy tilini davrlashtirish turkiy tillar tasnifi bilan bog'liq. Turkiy tillarni esa XIX asrdan boshlab rus olimlari tasniflay boshladi. Bunga Radlov va Malov tasniflari misol bo'la oladi. Malov tasnifiga ko'ra horizgi o'zbek adabiy tili chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tilidan kelib chiqqan.

O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari. O'zbek adabiy tili o'z manbaini qadimgi turkiy tildan oladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — "O'rxun-Enasoy bitiklari", "O'g'uznoma", "Devonu lug'otit turk" kabi asarlar ushbu tilda yozilgan eng muhim va bizgacha yetib kelgan manbaalar hisoblanadi.

1. O'zbek tilining kelib chiqishi

O'zbek tili turkiy tillar oilasining g'arbiy qarluq guruhiga kiradi. Uning ildizlari miloddan avvalgi birinchi ming yillikka borib taqaladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — "Orxon-Enasoy bitiklari" va "Turk xoqonligi tosh yozuvlari" — o'zbek tilining qadimiy shakllari haqida muhim ma'lumot beradi.

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo hududlarida eski turkiy yozma til — "Qadimgi turkiy tili" keng qo'llanilgan. Ushbu davrda Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki kabi allomalar ijodi til tarixining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Chig'atoy tili davri

XIV–XVI asrlarda Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk shoir va adiblar ijodi tufayli chig'atoy tili adabiy til darajasiga ko'tarildi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilining boyligini va arab-fors tillariga nisbatan ustun jihatlarini asoslab berdi. Shu davrda o'zbek tili madaniyat va ilm-fan tili sifatida shakllana boshladi.

3. Yozuv tizimi va islohotlar

O'zbek tili tarixida yozuv tizimi bir necha bor o'zgargan. Dastlab arab yozuvidan foydalanilgan bo'lsa, 1929-yilda lotin alifbosi, 1940-yilda esa kirill yozuviga o'tildi. Mustaqillikdan so'ng, 1993-yilda o'zbek tili uchun yangi lotin yozuvi qabul qilindi. Bu jarayon tilning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

4. Zamonaviy davrda o'zbek tili

Bugungi kunda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida mamlakat ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faol qo'llaniladi. Tilshunos olimlar tomonidan o'zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi, fonetikasi, terminologiyasi va uslubiyati bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

5. Zamonaviy davrda o'zbek tili va til siyosati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, o'zbek tili davlat tili sifatida belgilangan. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun (1989, yangilangan 2019-yil) tilni rivojlantirish va himoya qilishning huquqiy asosini yaratdi.

Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoning ko'plab hududlarida, shuningdek, chet eldagi o'zbek diasporalari orasida ham faol qo'llaniladi.

Tilshunoslik sohasida zamonaviy yo'nalishlar — kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunosligi, tarjima texnologiyalari, terminologiya islohoti — o'zbek tilining yangi davrda raqamli imkoniyatlar asosida rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

6. O'zbek tili va madaniy meros

Til xalqning tarixiy xotirasi, og'zaki ijodi, folklor, maqol, topishmoq, doston va qo'shiqlar orqali avloddan avlodga o'tib kelgan boy madaniy qatlamni o'zida mujassam etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida qadimgi turkiy so'zlar, grammatik shakllar va so'z yasovchi unsurlar saqlanib qolgan.

Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi dostonlarning tili o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

7. Tilni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar

O'zbek tili tarixini o'rganishda qiyosiy-tarixiy, struktur, sotsiolingvistik va funksional yondashuvlar qo'llaniladi.

Qiyosiy-tarixiy metod — o'zbek tilini boshqa turkiy tillar bilan solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Sotsiolingvistik yondashuv esa tilning jamiyatdagi mavqei, davlat siyosati va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini o'rganadi.

Bu metodlar o'zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash va uni ilmiy asosda o'rganish imkonini beradi.

Til siyosati sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Davlat tili to'g'risida"gi qonun, milliy o'zlikni anglash va til madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

O'zbek tili o'zining ming yillik tarixida ko'plab taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. U turkiy tillar oilasining qadimiy va mustahkam tarmog'idir. Bugungi kunda o'zbek tili mustaqil davlatning ramziga aylangan bo'lib, xalqning milliy g'ururi va ma'naviy boyligining ajralmas qismidir. Tilning tarixini chuqur o'rganish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. — Toshkent: Fan, 1960.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
3. Vohidov R. O'zbek tili tarixi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2005.
4. Jo'raev M. Turkiy tillarning qiyosiy tarixi. — Toshkent: Fan, 2012.
5. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
6. Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronivich "O'zbek tili tarixi" Toshkent "Tafakkur avlodi" 2023.

MATNNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MAZMUNI**HODIYEVA GULLOLA KAMOL QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 23/5 guruh 3-kurs talabasi

gullolahodiyeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni haqida fikr yuritilgan. Bugungi kun tilshunosligidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lgan deysis hodisasi haqidagi nazariyalar berilgan.

Kalit so'zlar: matn, kommunikatsiya, pragmatika, kommunikativ-pragmatik, munosabat, axborot, tema-rema munosabati, deysis hodisasi.

Matn kommunikativ-axborot tuzilishining ikki bosqichli hodisasi sifatida qaraladi. Bulardan birinchisi, matnning tema-rema qurilishi bo'lsa, ikkinchisi uning mazmuniy (mavzuviy) markazi yoki asosidir. Matn mazmunining dinamik (harakatdagi) va statik (turg'un holatdagi) qobiqlarini tashkil qiladi deb hisoblanib kelinayotgan bu ikki xususiyatni alohida, ayri holda o'rganish odat tusiga kirib qolgan. Buning sababini, bizningcha, qo'llanilayotgan tadqiq uslublarining nomutanosibligi bilan izohlash mumkin. Binobarin, gapdan yuqori birliklarning tema-rema qurilishi masalasi ushbu birliklardagi qismlarning o'zaro munosabatga kirishishi va shu munosabat asosida yagona yaxlitlikning tadrijiy shakllanish sharoitiga nisbatan ranganilsa, mazmuniy markaz hodisasi esa shakllangan yaxlit tuzilma - matnga nisbatan qaraladi. Bundan tashqari, mazmuniy markaz aksariyat holatlarda matnning mavzusi, ya'ni tasvirlanayotgan voqelikdagi asosiy ob'ektning nomlanishi, xabar predmeti kabilar bilan bir xil hodisa sifatida qaraladi. Mazmuniy markaz va tema-rema tuzilishi munosabati ham bir tomonlama tavsiflanib kelinmoqda: matn mazmuniy markazining tavsifida uning tarkibidagi gap(lar)ning tematik jihatlariga ahamiyat berilib, rema tomoni esa nazardan chetda qolmoqda. Bunday holatda gap qurilishiga oid ayrim hodisalarga xos belgi-xususiyatlarning matn qurilishi tahliliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chib qolish xavfining paydo bo'lishi muqarrardir. Tema-rema munosabatlari jumladan yuqori pog'onada turadigan tuzilmalar tarkibidan izlash harakati o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Gap mavhum birlik, qolip sifatida qaralganda, uning qurilishi aktual yoki boshqacha aytganda, biror bir mazmuniy bo'linishga ega bo'lishini tasavvur qilish qiyin masala. Mazmuniy bo'linish hodisasi va tema-rema munosabatlari faqatgina nutqiy voqelangan kommunikativ tuzilmalargagina xosdir. Shu sababli bu

hodisa va munosabatlarni matn grammatikasi nuqtai nazaridan o'rganish ma'quldir. Lekin matn grammatikasi yo'nalishida bajarilayotgan tadqiqotlarda ham tema-rema munosabatlarining yaxlit matn mazmuniy markazi shakllanishidagi o'rni haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Bu yo'nalishdagi ishlarda asosiy e'tibor mazmuniy markazning shakllanishi masalasi faqatgina tematik munosabatlarning yuzaga kelishi bilan bog'lanib, matn kommunikativ-axborot tuzilishining boshqa jihatlari nazardan chetda qolgan. Fikrimizcha, matn mazmuni, semantikasini uning yaxlitligini ta'minlovchi omillarning umumiyligida, tarkibiy qismlarning kommunikativ harakatida, ya'ni ushbu qismlar tema-rema munosabatlarining matn mazmunining shakllanish jarayonida bajaradigan vazifasi darajasida tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Matn - nutq birliklarining umumiy kommunikativ vazifani bajarish maqsadiga bo'ysundirilishi, yagona bir pog'onani mazmuniy-semantik butunlik tarkibida birikishidir. Har bir matn o'ziga xos mazmunga ega, unda aniq bir kommunikativ reja ifodalanadi va u ongli ravishda bajariladigan nutqiy ijod jarayonida shakllanadi. Nutqiy muloqotga kirishayotgan shaxs ma'lum maqsadni ko'zlaydi va shu maqsadga nisbatan o'z muloqot rejasini tuzadi. Ushbu rejasini amalga oshirish uchun u til tizimi zahiralariga murojaat qiladi. Kommunikativ reja nutqiy xabar ko'rinishini olishga qodir tuzilma bo'lib, u yashirin mantiqiy predikat shakliga egadir. Matn semantikasi muammosi bilan batafsil shug'ullangan A.I.Novikov eslatganidek, so'zlovchida dastlab o'zi axborot berish istagida bo'lgan ma'lum predmet haqida tushuncha, fikr bo'lishi kerak. Xuddi shu fikr konseptual tuzilma sifatida matnning mazmuniy markazini tashkil qilishi ehtimoldan xoli emas.[1; 48]

Matn mazmuniy markazi yoki, boshqacha aytganda, uning semantik mohiyati voqelik va uning nutqiy - tafakkur idroki jarayonida) tug'iladigan tushuncha hamda lisoniy tuzilma o'rtasidagi signifikativ ramzidir (aksidir). Bunday lisoniy va ruhiy-mantiqiy bog'liqlik propozitsiya ko'rinishini oladi hamda ushbu turdagi propozitsiya faqat kechayotgan voqea haqidagi xabargina bo'lib qolmasdan, yetkazilayotgan xabarning tasdig'i hamdir. Predikatlar mantig'i sohasidan o'zlashtirilgan propozitsiya tushunchasi tilshunoslikda anchadan buyon qo'llanib kelinmoqda. Mantiqda bu atamaga voqelik haqidagi hukmni nomlash uchun murojaat qilinadi. Shuning uchun ham mazmuniy sintaksisda propozitsiya - gaplar qatorining semantik invarianti sifatida tavsiflanadi. Masalan, «Abbos menga kitobni berdi», «Abbos menga kitobni beradimi?», «Abbos, menga kitobni ber!», «Abbos menga kitobni berishi kerak» kabi gaplarning propozitsiyasi yagonadir: «Abbosda kitob bor va uni menga beradi». Ko'rinib turibdiki, propozitsiyaning ma'noviy va sintaktik tuzilishi voqelikdagi hodisa tuzilishiga mos keladi. Ammo bunday strukturaviy mutanosiblik asosan gap sathida,

ya'ni propozitsiyaning zahiraviy belgilarida saqlanadi, ya'ni «Abbos», «kitob» otlari va «men» olmoshi referentsiyasi va «bermoq» predikatining mantiqiy munosabatini hosil qiluvchi semantik tuzilmaning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi qolip mavjudligida namoyon bo'ladi. Virtual propozitsiyaning asosiy vazifasi voqelik haqidagi bilimning xotirada, ya'ni ongda saqlanishini ta'minlash va uning lisoniy ifodalanishi uchun zamin tayyorlashdir. Yagona bir zahiraviy propozitsiya turli muloqot muhitida, matnlarda turli darajada ifodalanishi mumkin. Bunda propozitsiyaning predikat qismi turli modallik va zamon xususiyatlariga ega bo'lishidan tashqari, uning ma'no strukturasi ham muloqot maqsadi, shartlariga moslashadi. Faol yoki kommunikativ propozitsiya mazmunan va shaklan nafaol, zahiradagiga nisbatan murakkab ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. [3; 84] Eng asosiysi, faol propozitsiyalar qatoriga tayangan holda matn mazmuniy markazini ajratish, uning negizida shakllanadigan qismlar o'rtasidagi semantik munosabatlar miqyosini aniqlash imkoni tug'iladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda asosiy tayanch, albatta, faol propozitsiyalardir, zero, aynan ularning doirasida gap tema-rema tuzilishidan matn uchun yaxlit bo'lgan tema-rematik tarkibga o'tish jarayoni kuzatiladi.

Bizga ma'lumki, deyksis hodisasi (grekcha "deixis" – ko'rsatish, gapirayotgan shaxsga yoki gapirilayotgan paytiga u yoki bu munosabatda bo'lgan predmet, voqea-hodisa, shaxslarni ko'rsatish funksiyasi, vazifasi, ma'nosi) XX asrning II yarmidan boshlab jahon tilshunosligida tilning barcha sathlari doirasida amal qiluvchi universal kategoriya sifatida o'rganila boshlandi. [6; 37] Masalan, O'zbekistonda o'z milliy valvutamiz muamolaga kiritilishi munosabati bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. Bugun shuni ishonch bilan aytish mumkinki, biz eng qiyin boshlang'ich bosqichni o'tib bo'ldik. Bu bosqich iqtisodiy isloh qilishning butun jarayoniga asos soldi. Ushbu misolda keltirilgan eng qiyin boshlang'ich bosqich jumlasiga ishora tarzida ko'rsatish olmoshi bilan keyingi gapda ishora beriladi Bu bosqich iqtisodiy isloh qilishning butun jarayoniga asos soldi. Birgina bu olmoshining o'zi butun bir jumlaning ifodalashda xizmat qilmoqda. Biznes matnlarda qisqalikka e'tibor beriladi, bu hech kimga sir emas. Shuning uchun ham olmoshlardan unumli foydalaniladi. Fond Forum tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilayotgan loyihalar nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy davlatlarda ham ko'pchilikning e'tiborini qozonib ulgurdi. Bu esa o'zbek madaniyati va san'atini jahonga keng targ'ib etishga imkon beradi. Bu gapda ham bu olmoshining o'zi butun gapni ko'rsatish vazifasini bajarmoqda. Umuman olganda, bugungi kungacha ham deyksis hodisasi alohida e'tibor bilan o'rganilmagan. "Deyksis" atamasi qadim davrlardan beri ma'lum, lekin uni o'rganish hech qachon grammatika doirasidan

chiqmagan. Tilning barcha sohalarida ishtirok etishi mumkinligi aniqlangandan so'ng XX asrning II yarmidan deysis muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtdadeysisni lingvistik (tilshunoslik) tushuncha ekanligi masalalari bo'yicha turli fikrlar mavjud. Deysis til birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deysis muammosi pragmatikaning asosiy tadqiq obyekti sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu muammoni o'rganishga dastlab nemis tilshunosi K. Brugmann (1904-yil) jiddiy e'tibor qaratdi. Uning ishlari keyinchalik K. Byuller tomonidan rivojlantirildi. K. Byuller o'zining "Til nazariyasi" nomli kitobida deysisning mohiyati, turlari, deysis birliklarning vazifasi haqida o'z qarashlarini bayon qildi. Shundan so'ng boshqa ko'plab tilshunoslarning ushbu sohada faoliyat olib borganligi deysis hodisasining tilshunoslikda ahamiyatli va dolzarb masala, hodisa ekanligidan dalolat beradi.[5;90] So'nggi yillarda tilshunoslar "matnli deysis" tushunchasiga murojaat qilishmoqda, chunki matn aloqaning muhim birligi hisoblanadi. Murakkab sintaktik tuzilma bo'lgan matn tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni deysis birliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bizga ma'lumki, tilshunoslik sohasida hali o'z yechimini topmagan, o'rganishni talab etayotgan muammolar, hali ishlanishi kerak bo'lgan ishlar talaygina.[8;78] Tilshunoslik sohasidagi olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida bu munozaraga sabab bo'luvchi vaziyatlar o'z yechimini topmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, matn ilmiy ifoda mahsuli bo'libgina qolmay, u so'zlovchining nutqiy faoliyati mahsulidir. U til sistemasining kommunikativ jarayonida muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori sathi hisoblanadi. Matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi kontekst bo'lib, unda inson omili asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, matnning mazmunan to'liq, mukammal, badiiylik jihatidan yuksak bo'lishida undagi har bir birlikning o'z o'rnida qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Deysis ana shunday vositalardan biri sanalib, matnda juda ko'p vazifalarni bajara oladi. Deysisning ifoda vositalari xilma-xil, ular voqelikdagi predmet-hodisalarni bevosita atamasdan unga ishora qiladi, nutqiy jarayonda ishtirok etuvchilarga nisbatan ularning joylashuvini, o'rnini ko'rsatadi. O'ringa, makonga ishorani anglatuvchi ko'rsatish olmoshlari predmet, obyekt yoki subyektning joylashgan o'rniga ishora qilishi bilan birga so'zlovchining shu predmet, obyekt yoki subyektdan qay darajada yaqin yoki uzoqdaligini ham ko'rsatadi. Bunda ishora qilinayotgan predmetdan so'zlovchining qay darajada «uzoq»daligi ana ko'rsatish olmoshi, «yaqin»daligi mana ko'rsatish olmoshi vositasida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'., Mamajonov N. O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: «O'zbekiston», 1985.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. –Toshkent: «Fan», 1981.
3. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, –Toshkent, 1997.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.–Toshkent: «Fan», 1983, 88 b.
5. Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. –Toshkent, 1998.

TIL VA TERMENALOGIYA TUSHUNCHASI

IBRAGIMOVA FERUZA ISLAMOVNA

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va terminologiyaning o'zaro aloqasi, terminlarning nazariy asoslari, shakllanish manbalari hamda ularni standartlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Terminologiyaning milliy til taraqqiyotidagi o'rni yoritilib, zamonaviy o'zbek terminologiyasi oldida turgan vazifalar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy terminologiya va xalqaro terminlar o'rtasidagi uyg'unlik muammolari ham ilmiy jihatdan izohlanadi.

Kalit so'zlar: til, terminologiya, termin, milliy til, standartlashtirish, ilmiy uslub, termin tizimi, o'zbek til shinosligi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы взаимосвязи языка и терминологии, теоретические основы терминов, источники их формирования, а также вопросы их стандартизации. Освещается роль терминологии в развитии национального языка, дается представление о задачах, стоящих перед современной узбекской терминологией. Также научно трактуются проблемы гармонии между национальной терминологией и международными терминами.

Ключевые слова: язык, терминология, терминология, национальный язык, стандартизация, научный стиль, система терминов, узбекское языкознание.

Til insonlarning o'zaro aloqa, tanishuv vositasi bo'lib, Allohning insonga bergan bebaho ne'matidir. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda har bir xalqning o'z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so'zlar, she'ru dostonlar, qo'shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o'z nufuzi, obro'siga ega bo'ladi. Har bir xalqqa o'z tili aziz va ardoqli.

Sho'rolar davrida rus tili Ittifoq tili sifatida rivojlantirildi. U jahon tillari darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, ko'p ming asrlik tarixga ega bo'lgan turkiy xalqlar ham o'z ona tillari dunyodagi hech bir xalqning tilidan kam emasligini yoqlab chiqdilar. Bu

yo'ldagi sun'iy to'siqlarni pisand etmadilar. Mustaqillik arafasida oilaviy va bozor tili darajasiga tushib qolgan o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi taklif va kurashlar samarasiz ketmadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlat hujjatlari, davriy nashrlar, darsliklar ona tilimizda yozila boshlandi. Bu xalqimiz ruhini ko'tardi.

1988-yil matbuotda yangi bayram — "Til bayrami" haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshlagan. Bunday bayram Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Boltiq bo'yi va Kavkaz orti respublikalarida va mamlakatimiz poytaxtida ham o'tkazilgani haqida gazetalarda maqolalar bosilgan. Bu bayramlarning asosiy maqsadi — ona tilini e'zozlash, ona tili bilan birga boshqa tillarni ham chuqurroq o'rganishga undash bo'lgan.

Demak, til har doim, har zamonda eng dolzarb, eng muhim masala bo'lib kelgani ayon bo'ladi. Tilshunoslikda termin tushunchasi ko'p ishlatiladigan, ko'p murojaat qilinadigan istilohlardan biridir. Tilning mazmuniy boyligini oshirishda terminologiyaning o'rni beqiyosdir. Har qanday fan sohasi rivojlanishi uchun birinchi navbatda aniq va tizimli terminologiyaga ehtiyoj seziladi. Shu bois, tilshunoslikda terminologiyani maxsus ilmiy yo'nalish sifatida o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Termin tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli bo'ladi:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;

Nutq — inson fikrlarini, his-tuyg'ularini va ma'lumotlarini ifodalash vositasi bo'lib, uning samarali shakllanishi va o'ziga xos uslublari orqali amalga oshiriladi. Nutq uslublari nutq madaniyati va kommunikatsiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada nutq uslublarning asosiy xususiyatlari, ularning turlari va kommunikativ ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Nutq uslubi — ma'lum bir nutq vazifasini bajarishda ishlatiladigan lingvistik vositalar majmuasi bo'lib, u nutqning mazmun-mohiyati, auditoriyasi va maqsadiga mos ravishda shakllanadi. Nutq uslublari orqali gaplovchi o'z fikrlarini aniq, ravon va tushunarli yetkazadi.

O'zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika – uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. *«Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandır».*

Nutq uslublariga so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub kiradi.

Nutq uslublari. Nutq vaziyatiga qarab eng mos til birliklaridan foydalanish adabiy tilning uslubiy me'yori hisoblanadi. Sinonimlarni, so'zlarni noto'g'ri ishlatish ayrim eskirgan so'zlarni qo'llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi. Biroq nutq uslubiga xos jihatlar boshqa bir uslub tarkibida, masalan, ilmiy terminlar rasmiy, publitsistik va so'zlashuv kabi uslublarda ishlatilishi mumkin. Shunga ko'ra, nutq uslubi — ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan tizimidan iborat deyish mumkin.

Nutq uslublari - muayyan bir muloqot doirasidagi ifoda vositalarini mos ravishda tanlash natijasida tarixan shakllangan nutq ko'rinishlaridir.

So'zlashuv uslubi

Bu uslub o'z leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini o'zida aks ettiradi. So'zlashuv uslubiga oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik xosdir. So'zlashuv uslubida gap bo'laklari tartibida "buzilish", soddaga gaplarning mavjudligi, to'liq bo'lmagan gaplar va suhbat nutqi bilan tavsiflanadi. Og'zaki nutqning ayrim shakllari yozma nutqda o'z o'rnini topishi xarakterlidir: (keluvdi, kelardi).

Og'zaki so'zlashuv uslubi ikkiga ajratiladi:

- a) adabiy so'zlashuv uslubi
- b) oddiy so'zlashuv uslubi.

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Oddiy so'zlashuv uslubi adabiy til me'yorlariga doim ham amal qilinavermaydigan og'zaki so'zlashuv uslubining erkin muloqot shaklidir. Bu uslubda betakalluflik bilan erkin muomala qilish, shevaga xos so'zlardan ham faol foydalanish xarakterli xususiyatdir. So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida

bo'ladi, ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati – erkinlikdir.

Bu uslubda frazeologik birliklar, yig'iq gaplar, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar va undalmali gaplar ko'p ishlatiladi. Masalan: *Keldimi? Ko'rdingizmi? Ha! Yo'q! Bor! Keldi.* Nutq qoliplarida gapning tejamkorligi ot emas, balki olmoshlar qo'shilishi bilan hosil bo'ladi.

Rasmiy uslub boshqa nutq uslublaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va huquqiy, diplomatik va ma'muriy faoliyatni amalga oshiruvchi nutq shaklidir. Bu uslubning ijtimoiy vazifasi bugungi kunda ham keng bo'lib va barcha rasmiy hujjatlar shu uslubda yoziladi.

Xususan, qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, turli diplomatik shartnomalar, bitimlar, deklaratsiyalar, konvensiyalar, maxsus rasmiy ma'lumotlar, xulosalar, turli mavzudagi arizalar, hisobotlar, tarjimai hollar, tavsiflar, tilxatlar yetakchi o'rin tutadi.

Rasmiy nutq uslubi davlat idoralari, ta'lim, huquq, biznes sohalarida qo'llaniladi. Uning asosiy xususiyati — aniq, ravon, mantiqiy ifoda, rasmiy leksika va grammatik strukturalarga asoslanadi. Masalan, qonun hujjatlari, ma'ruza va hisobotlar shu uslubda yoziladi. [1:77]

Norasmiy nutq uslubi do'stlar, oila a'zolari o'rtasidagi muloqotda keng qo'llaniladi. U erkin, sodda, emotsional ifodalar bilan boyitilgan bo'lib, ko'pincha shevalar, so'z o'yinlari va hazil ishlatiladi. Rasmiy nutq uslubi ilmiy, rasmiy hujjatlar, ma'ruzalar, qonunlar, bitimlar va boshqalarda qo'llaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

Aniqlik va lo'lik - so'zlar va iboralar aniq va tushunarli tanlanadi.

Rasmiylik- nutqda hurmat va rasmiy munosabat ifodalanadi.

Monotonlik - emotsional ifoda kam, ko'proq fakt va mantiqiy dalillarga tayanadi.

Terminologiya ishlatilishi - maxsus so'z va atamalar ko'p qo'llaniladi.

Badiiy uslub. Nutqning badiiy uslubi inson amaliy faoliyati va hayotining barcha jabhalarini qamrab olishi bilan ajralib turadi: umunga taalluqliligi, barchaga barobarligi bilan xarakterlanadi. Badiiy nutq uslubi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bu uslub muallifga tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan mohirona foydalanish va tanlash, shuningdek, asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy uslub adabiyotda, she'riyatda, drama va hikoyalarda uchraydi. Uning asosiy xususiyatlari:

- Emotsionallik-his-tuyg'ular, tasvirlar, rang-barang so'zlar ko'p ishlatiladi.
- Metafora va boshqa badiiy vositalar - tasviri ifoda kuchli bo'ladi.

- Individual uslub - har bir yozuvchi yoki gaplovchining o'ziga xos nutq uslubi bo'ladi.

- Insoniy obrazlarni yaratish - nutqda inson hissiyotlari va tafakkuri ochib beriladi.

Badiiy uslub adabiy asarlar, she'riyat va hikoyalarda qo'llaniladi. U estetik go'zallik va obrazlilikni yaratishga xizmat qiladi. Metafora, epitet va boshqa uslubiy vositalar ko'p ishlatiladi. [2:23]

Ilmiy uslub. Ilmiy nutq uchun fikrni aniq, mantiqiy izchillik bilan ifodalash xarakterlidir. Bunda dalil va xulosa, o'ziga xos mazmun va uning umumiyligi, sabab-oqibat munosabatlari o'zaro bog'liq holda ifodalanadi. Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifaviy uslub hisoblanadi. U o'z o'rnida ilmiy texnikaviy, ilmiy-hujjat, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv kabi bir necha sof ilmiy turlarga bo'linadi. Fan va texnikaning turli sohalariga oid ilmiy ishlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar ilmiy asosda yoziladi. Bu uslub aniq, bir ma'noli ma'lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar) ga boyligi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Ilmiy uslub har bir fanga xos atamalardan, natija, sabab ergash gapli qo'shma gaplardan foydalanadi.

Ilmiy nutq aniq va tizimli fikrlashni talab qiladi. Mavhum tushunchalar, maxsus terminlar va faktlarga asoslangan dalillar asosida quriladi. Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar shu uslubda yoziladi.

Publitsistik uslub. Publitsistika - bu tashviqot va targ'ibot bilan shug'ullanadigan, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy hayotni yorituvchi nutq shaklidir. Ushbu uslubning yozma va og'zaki shakllari ham mavjud. Muhim maqolalar, felyeton, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga oid bayonotlar uslubning yozma turidagi asarlaridir.

Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsa-da, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Masalan, bu uslubning har ikki turi siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan nutq, mantiqiy mahorat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlarga egadir.

Ushbu uslub rasmiy va dolzarb yangiliklar, ma'lumotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Bular da fikr ommabop jumlar orqali ifodalanadi. Zarur bo'lganda asoslar keltiriladi. Shu sababdan rasmiy xabarlarda "*muxbirimizning xabar berishicha, elchixona xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi ...*" kabi iboralar qo'llanadi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sirchanlik, soddalik, tushunarlilik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Nutq uslublari to'g'ri tanlash va qo'llash kommunikatsiya muvaffaqiyatining kalitidir. Ular maqsadga muvofiq ravishda muloqot samaradorligini oshiradi, auditoriya bilan o'zaro anglashishni ta'minlaydi. Shuningdek, nutq uslublari madaniy va ijtimoiy vaziyatni aks ettiradi hamda jamiyatdagi nutq madaniyatini shakllantiradi.

Nutq uslublari to'g'ri tanlash muloqot samaradorligini oshiradi. Har bir uslub auditoriyaga mos kelishi kerak; aks holda noto'g'ri tushunish yuzaga kelishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda uslublarning o'zaro aralashadi va bu til boyligini oshiradi. Nutq uslublari - inson muloqotining ajralmas qismi bo'lib, har bir uslub o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Rasmiy, badiiy va kundalik uslublarning turli sohalarida samarali ishlatiladi va nutq madaniyatini boyitadi. Nutq uslublari chuqur o'rganish va to'g'ri qo'llash zamonaviy kommunikatsiya jarayonining muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T. : O'qituvchi. 1992. -77 b.
2. Toshaliyev I.E. O'zbek tili uslubiyati. Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000. – 23 b.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. O'rinboyev B., O'rinboyeva D. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. - Toshkent, 1991.
5. Abdusaidov A. Til ma'naviyati va nutq madaniyati. Axborot sohasini isloh qilish («O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati» fanini o'qitishga doir materiallar). Risola. Maqolalar to'plami. – Samarqand: SamDU, 2011. –98 bet.

**INTERTEKSTUALLIKNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA
O'RGANILISHI.
INTERTEXTUALITY IN UZBEKISTAN LINGUISTICS LEARNING**

IMOMOVA ISMIGUL SIROJIDDIN QIZI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail ismigulimomova@gmail.com +998950659622

Annotatsiya: Dunyo tilshunosligida ham intertekstuallik hodisasi turli fan tadqiqotlarining nazariy asosi sifatida doimo olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Mazkur maqola o'zbek tilshunoslikda har doim muhim masalalardan biri hisoblangan intertekstuallik va uning turlari muammosiga bag'ishlangan. Intertekstuallik tushunchasining yuzaga kelish sabablari, bu borada qilingan ishlar, o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, dramatik asarlar misolida ochib berilgan. Bundan tashqari tadqiqot ishimizda intertekstuallikni o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi masalalari haqida ma'lumot keltirilgan. Ushbu termin tadqiqot ishimizda dramatik asarlardan allyuziv nomlar, iboralar va boshqa turlari haqida misollar keltirilgan holda nazariy va amaliy asoslar bilan izohlangan. Bunday misollarni keltirilishi asar mazmunini boyitishga, ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qilgan. O'zbek va jahon adabiyotida o'rganilishi darajasi maqolada qiyosiy tarzda tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, matnlararo aloqa, dramatik matnning ekspressivligi, allyuziya, intertekstuallik nazariyasi, iboralar

Abstract: The phenomenon of intertextuality is also a subject of interest in world linguistics, has always been of interest to scholars as a theoretical basis for their research. This article is devoted to the problem of intertextuality, which is considered one of the most important issues in Uzbek linguistics, and its various problems. The reasons for the emergence of the concept of intertextuality, the work done in this regard, its study in Uzbek linguistics, using the example of dramatic works, are revealed. In addition, our research work provides information on the issues of studying intertextuality in Uzbek and world linguistics. This term is explained in our research work with theoretical and practical foundations, using examples from dramatic works. To ensure expressiveness. The degree of its study in Uzbek and world literature is analyzed in the article in a comparative manner.

Keywords: Intertextuality, intertextual communication, expressiveness of dramatic text, allusions, theory of intertextuality, phrases

O'zbek tilshunosligida turli yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Matn va uning xususiyatlarini o'rganish XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi. Badiiy matn tarkibiga boshqa kiritilgan matnlar va ularning birliklari intertekstuallik nomi bilan o'rganilmoqda. Matn yozuvchining ma'lum maqsadi tufayli boshqa bir matn bilan o'zaro kesishadi, ya'ni o'zga matnning muayyan qismlaridan tarkib topadi. Intertekstuallik hodisasi bir necha asrlardan buyon ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Bu atamani dastlab 1967-yili fransuz olimasi Y.Kristeva "Baxtin, so'z, dialog va roman" risolasida ilmiy termin sifatida qo'llanilgan [1: 36]. Amaliy izlanishlarni ko'radigan bo'lsak, intertekstuallikning ikkita tushunchasi mavjud: keng va tor. R.Bart, M.Baxtin, M.Gresse, C.Grivel, Y.Kristeva, M.Riffaterlar keng tushuncha sifatida nomlash tarafdorlaridir. Ular har qanday matnni faqat intertekst sifatida tushunishadi, chunki intertekstuallik universal madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, oldingi matnlarni va ularning ba'zi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Natijada matn umumiy, universal matnning bir qismiga aylanib, o'ziga xosligini yo'qotadi. Intertekstuallik cheksiz matn nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi, u har bir alohida fragmentda intertekstualdir. Yuliya Kristeva har qanday matn avvalgi matnlarning g'oya va mazmunlarini o'zlashtirgan holda shakllanishi, u matnlararo dialog mahsuli ekanini ta'kidlaydi. M.Baxtin esa matnlar hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, ular o'zidan oldingi va keyingi matnlar bilan muloqotda bo'ladi deb hisoblaydi. G.Genette fikricha, intertekstuallik boshqa matnlarning yangi matn tarkibida yashirin yoki ochiq holda namoyon bo'lishi jarayonidir. Tor yondashuv tarafdorlari I.V.Arnold, N.S.Valgina, I.P.Smirnov, P.X.Torop, N.A.Fateev intertekstuallikni matn qurish prinsipi sifatida emas, balki faqat ma'noni yuzaga chiqarish vositasi sifatida tushunadi. I.V. Arnold intertekstuallikni "matnga boshqa yoki o'zgartirilmagan qo'shtirnoq, ishora, eslatmalar ko'rinishida kiritish" deb tushunadi [2: 440]. Rus olimi I.P.Smirnov esa atamani matnlar o'rtasidagi aloqa va muloqot asosida izohlaydi. Unga ko'ra, badiiy matn ichki mazmunini boshqa matnlar bilan aloqadorlik orqali boyitadi. Olim intertekstuallikni uch jihatda ko'rib chiqadi: g'oyaviy, semiotik va kommunikativ [3: 18]. "Intermatn va uning she'riy til evolutsiyasi jarayonlaridagi roli" (1999) monografiyasida N.A.Kuzmina intertekstuallikka quyidagi ta'rifni beradi: "Bu obyektiv ravishda mavjud bo'lgan, vaqt o'qi bo'ylab o'zini o'zi qayta tiklashga qodir bo'lgan inson ijodiy faoliyatining mahsulidir". Umuman olganda, intertekstuallik hodisasining ko'plab dolzarb masalalariga shu paytgacha soha vakillari tomonidan yechim topgani yo'q. Intertekstuallik masalasiga nisbatan lingvistik va adabiy yondashuvlarni farqlash ham juda muhim. T.Y.Avetova bu borada turlicha qarashlarni ochib beradi. U lingvistik yondashuv asosida u mualliflar matnlarining bir-biriga "adabiy ta'siri"ni o'rganishni,

adabiy yondashuv bilan esa intertekstni o'quvchi pozitsiyasidan tahlil qilish va tanib olish jarayonini tushunishni ilgari suradi. N.Pige-Gro ushbu muammoga bag'ishlangan taqriz va tahliliy monografi yasida o'zidan oldingi ijodkorlar tajribasini umumlashtirib, boshlang'ich adabiyotning intertekstualligini har qanday umumiy va tarixiy chegaralardan tashqarida bo'lgan "badiiy yozuvning asosiy hodisasi" deb ataydi [4: 133]. Ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan bu sohadagi asosiy muammolardan yana biri "intertekstuallik" va "intertekst" atamalarini farqlash masalasidir. Chunonchi, S.A.Stroikov, Y.S. Stepanov L.Gruzberg, E.Polityko I.K.Sidorenko bu ikki tushunchani farqlamaydi. N.Pige-Groning izohi esa quyidagicha: "Intertekstuallik bu bir matnni boshqasiga qayta yozish qurilmasi, intertekst esa asar bilan o'zaro bog'liqligidan yoki unga kiritilganligidan qat'iy nazar, berilgan asarda aks ettirilgan matnlar to'plamidir. Intertekstuallik matndan tashqari aloqalarni tashkil qilish usuli va intertekstni o'qish vositasi bo'lsa, intertekst ma'lum bir matn makonida ishtirok etgan matnlar tizimidir" [4: 103]. I.K.Sidorenko tilshunoslik nuqtayi nazaridan yangi "intertekstema" atamasini olib kirishga va tasniflashga harakat qildi: "matn mazmuni tarkibining darajalararo relyatsion (korrelyativ) segmenti, grammatik (morfemik – so'z shakllantiruvchi, morfologik, sintaktik), leksik, prosodik (ritmik-intonik), matn tarkibidagi ritmik-intonik aloqadir". Boshqacha aytganda, intertekstema matnda turli shakllarda kuzatilishi mumkin bo'lgan "begona ovoz"dir.

Intertekstuallik atamasi o'zbek tilshunosligida dastlab M.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Uning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matndagi o'rni va o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma'lumot berilgan. D. Xudoyberganova esa badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi presedent birliklarga urg'u bergan. Z.Saliyeva o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholagan. Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M.Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e'lon qilingan. O'zbek olimlari ham asosan badiiy matnlardagi intertekstuallik hodisasiga e'tibor qaratishgan. Bugungi davrda ham intertekstuallik bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar qilinib kelinmoqda.

Tilshunoslikda olimlar intertekstuallikga quyidagicha ta'rif berishgan. "Intertekst"– muayyan matn ichida keladigan matn yoki uning parchasi, qismlarini anglatuvchi atama, ya'ni matn tarkibida uning muallifiga tegishli boshqa matn yoki umuman o'zga matndan olingan parchadir. Intertekstuallik bevosita matnlararo shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi. Ma'lumki, badiiy matnda intertekst sifatida

muqaddas kitob va hadislar, folklor namunalari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar keng qo'llaniladi [6; 45].

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, allyuziya, reministensiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [6; 38]. Dramatik asarlarda ham intertekstuallikning turlari uchraydi. Quyida ayrim intertekstual vositalarning badiiy matnni yoritishdagi ahamiyati haqida so'z yuritamiz va misollarni ko'zdan kechiramiz. Iboralar boshqa lisoniy birliklardan obrazlilik va modal munosabatni yuqori darajada yuzaga chiqarishi bilan ajralib turadi. Ana shu jihatdan ularning badiiy asardagi o'rni va ahamiyati juda muhim. Iboralar fikrni ifodalashning obrazli va ta'sir quvvati kuchli bo'lgan vositasi sifatida qadimdan ma'lum bo'lgan, ularning ifoda imkoniyatlari, jumladan, uslubiy xususiyatlari ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. O'zbek tilidagi iboralarning uslubiy xususiyatlarini chuqur o'rgangan olim B.Yo'ldoshev bu haqida shunday yozadi: «Frazeologik birliklar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi» [7, 16]. Demakki, iboralar voqelikka subyektning shaxsiy munosabatini ko'rsatib berishga xizmat qilar ekan, ularning badiiy tildagi mavqei beqiyosdir. Zulfiya asarlari tilining uslubiy xususiyatlarini tadqiq etgan tilshunos olim S.Karimov e'tirof etganidek, yozuvchilarning o'z ijodlarida frazeologik birliklardan – xalq tilining emotsional-ekspressiv jihatdan boy bo'lgan qatlamidan – foydalanishi har qanday muallifning badiiy mahoratini namoyon qiluvchi muhim ko'rsatkichdir [8, 42].

Xalqning asrlar davomida shakllangan va to'plangan ruhiy ma'naviy zaxirasi, ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari, urf-odatlar, oliy insoniy munosabatlari namunasi sifatida badiiy adabiyot muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun shoir va yozuvchilar asarlari tili va uslubi, ularning badiiy til vositalaridan foydalanish mahoratlarini o'rganish tilshunoslik ilmi uchun doimo dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida badiiy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan shoir va yozuvchilar tili va ularning individual mahorati, ularning asarlaridagi personaj nutqi va uning muallif nutqiga munosabati va unda emotsionallik, ekpressivlik, modallik, obrazlilik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishi kabi muammolar ancha keng tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” dramasida ham frazeologik birliklar

emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda. Asarda ayniqsa Boy nutqida o'ziga xos iboralar qatnashgan. Misol uchun Qani, qozi domla, gapni kalta qiling, nima dedingiz? [9, 152] Boyning naqadar tajang va ziqna odam ekanligi manashu iborada gapni kalta qiling- gapni cho'zmaslik degan ma'noni bildiradi. Bu orqali yozuvchi Boyning ruhiy holatini tasvirlab bergan. Qozi boyni xotirjam qilish va tinchlantirish uchun quyidagi iborani qo'llaydi: Xotirjam bo'ling, boy. Qodirqul dodhoning bunaqanggi ishlarga suyagi yo'q. Suyagi yo'q iborasi hunarini mukammal biladi, egallagan ma'nosida kelgan. Boy qoziga nisbatan: Balki hovridan tushib qolgan bo'lsa ajab emas! gapidagi hovridan tushmoq iborasi-jahlidan tushmoq, g'azabi pasaymoq ma'nosida kelgan bo'lib, bunda boy G'ofirni jahlidan tushib qolgandir degan ma'noda qo'llanilgan. Asarda asosan boy va kambag'allik o'rtasida tafovut ketgan. Ayniqsa, boy nutqida bunday holatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Boy tomonida turgan Hasan ham boyning aytganini qilib G'ofirga nisbatan quyidagi iborani qo'llaydi: Tilingni tiy, ahmoq! Bilasanmi, kimlar bilan gaplashayapsan! Manashu gapning o'zida ham tabaqalanish bor boylarning oddiy aholi ustidan hukmronligi va ustidan kulishi ochib berilgan. Tilingni tiy iborasi orqali Hasan G'ofirga nisbatan boyning aytganlariga ko'nishini, hech narsa demasligini aytib o'tgan. Quloq qoqma! Boyni hurmat qil deb qozi yana bechora G'ofirga nisbatan aytilgan. Hech narsa dema boy nima desa ham rozi bo'lgan deb ta'kidlaydi. G'ofir hech qachon o'z xotinini boyga berishni istamaydi. U puldan boylikdan ko'ra ishq-muhabbat yo'lida qurbon bo'lishlikni xohlaydi. Hoy, Rahima o'lgur, qachondan beri tiling chiqib qoldi? Deb Hojiona Rahima xolaga qaratgan iborasida Rahima xola o'z qizini tarafini olib gapiradi va bu holat kampirga yoqmaydi. Asarda boyning xotinlaridan biri Xonzodaning qanchalar jirkanch inson ekanligi, ushbu yo'lda hattoki, bir bolani ham nobud etganligi asarda ochib berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kristeva Y. Baxtin, so'z, dialog va roman. // Fransuz semiotikasi: strukturalizmdan poststrukturalizmgacha / trans. fransuz tili bilan, kompozitsiya, kirish. Art. G.K. Kosikova. N.: IG Progress, 2000. – B. 36.
2. Арнольд, И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность / И.В.Арнольд. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 1999.
3. Смирнов И.П. Порождение интертекста (Элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б.Л.Пастернака). – СПб., 2005. – С. 14.
4. Пьеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 133.

5. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Fil. fan. fals.dok.diss.- T.,2021.
6. Пъеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности.—М.: ЛКИ,2008.—С. 133.
7. Yo'ldashev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari. Filol.fan.d-ri ...diss.avtoref. – Toshkent, 1993.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т., 2008.

FILOLOGIK TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH**IN'OMJONOVA DILNOZAXON AZIMJON QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Qurbonova Bonu

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologik ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishning ahamiyati va ta'lim sifatiga ta'siri o'rganiladi. Zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv platformalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordami-da ta'lim jarayonini samaraliroq tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning til o'rganish motivatsiya-sini oshirish, mustaqil ish faoliyatini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonining individualizatsiyasini ta'minlash usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, filologik ta'limda raqamli resurslar va elektron o'quv materiallarining roli, ularning sifatini oshirish hamda muammolarni bartaraf etish yo'llari haqida ham so'z boradi. Tadqiqot natijalari asosida innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'z: Ta'lim, zamonaviy, texnologiya, metod, faoliyat, axborot.

Аннотация: В статье рассматривается значение широкого внедрения инновационных технологий в процесс филологического образования и их влияние на качество образования. Анализируются возможности более эффективной организации образовательного процесса с помощью современных цифровых инструментов, интерактивных платформ и информационно-коммуникационных технологий. В статье рассматриваются методы повышения мотивации студентов к изучению языка, развития самостоятельной работы и обеспечения индивидуализации образования, пути повышения их качества и устранения проблем. По результатам исследования даются практические рекомендации по интеграции инновационных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: Образование, современный, технология, метод, деятельность, информация.

Annotation: This article studies the importance of the widespread introduction of innovative technologies in the process of philological education and their impact on the

quality of education. The possibilities of organizing the educational process more effectively with the help of modern digital tools, interactive platforms and information and communication technologies are analyzed. The article considers methods for increasing students' motivation for language learning, developing independent work and ensuring individualization of the educational process through the use of innovative technologies. It also discusses the role of digital resources and Electronic educational materials in philological education, ways to improve their quality and eliminate problems. Based on the results of the research, practical recommendations are given for the integration of innovative technologies into the educational process.

Keywords: Education, modern, technology, method, activity, information.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, filologik ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki talabalar tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1. Innovatsion texnologiyalartushunchasi va ularning filologik ta'limdagi roli:

Innovatsion texnologiyalar-bu ta'lim jarayonini yangicha metodlar asosida tashkil etish, interaktiv uslublardan foydalanish, raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi vositalardir. Filologik ta'limda, ayniqsa, quyidagi texnologiyalar muhim o'rin egallaydi:

*Multimedia texnologiyalari(audio, video materiallari, elektron darsliklar);

*Onlayn ta'lim platformalari(Google Classroom, Moodle, Coursera);

*Interaktiv doskalar va test tizimlari;

*Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim dasturlari (til o'rganishda: Duolingo, Rosetta Stone va boshqalar).

2. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsiyalarning o'рни:

Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni:

*Faol ishtirok etishga undaydi;

*Tilni o'rganishda kontekstual yondashuvni ta'minlaydi;

*Leksik va grammatik bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi;

*Mustaqil o'rganish va o'zgarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham darslarni tayyorlashda kreativlikni oshirish, o'quv materiallarini yangilash va individual yondashuvni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini yaratadi.

3. Amaliy misollar va yondashuvlar:

*Blended learning - an'anaviy va raqamli ta'lim uyg'unlashgan model bo'lib, talaba darsda ham, mustaqil ravishda onlayn tarzda ham bilim oladi;

*Gamifikatsiya-o'yin elementlarini dars jarayoniga kiritish orqali til o'rganishni qiziqarli qilish;

*Flipped classroom- darsdan avval o'quvchilar uyda mavzuni o'rganadi, darsda esa muhokama va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, filologik ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki zamonaviy talabalar ehtiyojiga moslashgan, interaktiv va faol o'rganish muhitini yaratadi. O'qituvchilar o'z metodikasini doimiy yangilab borishi, texnologiyalardan to'g'ri foydalanishi orqali darslarni samarali tashkil eta oladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar bilim darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov S. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari", – T.: 2022.
2. Karimova D. "Filologiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar", – Buxoro, 2021.
3. UNESCO. "Education and Innovation Report", – 2020.
4. www.ziynet.uz- O'zbekiston ta'lim portali.

OT SO'Z TURKUMINING GRAMMATIK KATEGORIYASI VA FUNKSIONAL SHAKLLARI

INATULLAYEVA DILNURA ISROIL QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

dilnurainatullayeva@gmail.com

shuxberdievshohjahon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ot so'z turkumining grammatik kategoriyalari hamda ularning til tizimidagi funksional shakllari tahlil etilgan. Otlarning umumiy grammatik xususiyatlari, son, egalik va kelishik kategoriyalari misollar asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, otlarning sintaktik vazifalari va uslubiy imkoniyatlari haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ot, grammatik kategoriya, funksional shakl, son, egalik, kelishik, sintaktik vazifa.

Annotation. This article examines the grammatical categories of the noun and their functional forms in the language system. The general grammatical features of nouns, categories of number, possession, and case are analyzed. Attention is also paid to the syntactic functions and stylistic possibilities of nouns.

Keywords: noun, grammatical category, functional form, number, possession, case, syntactic function.

Аннотация. В данной статье рассматриваются грамматические категории имени существительного и их функциональные формы в системе языка. Анализируются общие грамматические особенности существительных, категории числа, принадлежности и падежа. Также уделено внимание синтаксическим функциям и стилистическим возможностям существительных.

Ключевые слова: имя существительное, грамматическая категория, функциональная форма, число, принадлежность, падеж, синтаксическая функция.

O'zbek tilida otlar eng asosiy so'z turkumlaridan biridir. Otlar predmetni, shaxsni, jonivorlarni, hodisalarni, tushuncha va buyumlarni bildiradi. Til tizimida otlar gapning markaziy bo'laklari – ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi hol, va ko'makchi bo'lak sifatida faol ishlatiladi. Otni ma'no jihatdan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda ularning

grammatik xususiyatini muayyanlashtiruvchi semantic belgi asosga olinadi. Ot quyidagi xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

- bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

- kim yoki nima so'roqlariga javob bo'lishiga ko'ra

1. Ot so'z turkumining umumiy belgisi

Ot so'z turkumi predmet (narsa, hodisa, shaxs, joy va tushuncha) nomini bildiruvchi mustaqil so'zlar guruhidir. Ular "kim?", "nima?" so'roqlariga javob beradi. Otlarga xos xususiyatlardan biri — ular turlanadi, ya'ni ma'lum grammatik qo'shimchalar orqali turli shakllarda qo'llanadi.

Otlarda mavjud grammatik kategoriyalar quyidagilar:

Son kategoriyasi

Egalik kategoriyasi

Kelishik kategoriyasi

Turlanish tizimi

Bu kategoriyalar otlarning grammatik tuzilishini, nutqdagi o'rnini hamda boshqa so'z turkumlari bilan bog'lanishini belgilaydi.

2. Son kategoriyasi

Otlarning son kategoriyasi birlik va ko'plik shakllarida ifodalanadi.

Birlik shakl – predmetning yagonaligini bildiradi: kitob, bola, daraxt.

Ko'plik shakl – predmetning bir nechadan iboratligini ko'rsatadi: kitoblar, bolalar, daraxtlar.

Ko'plik qo'shimchasi—lar orqali hosil bo'ladi. Ayrim otlar ko'plik qo'shimchasini qabul qilmasdan ham ko'plik ma'nosini bildiradi: xalq, odamzod, qushlar uchadi (qushlar – umumiylik ma'nosida).

Demak, son kategoriyasi morfologik shakl bilan birga semantik mazmunni ham ifodalaydi.

3. Egalik kategoriyasi

O'zbek tilida egalik kategoriyasi biror narsaning kimga yoki nimaga tegishlilikini bildiradi. Bu kategoriya uchta shaxsga nisbatan turlanadi:

I shaxs: kitobim, uyimiz

II shaxs: kitobing, uyingiz

III shaxs: kitobi, uylari

Egalik qo'shimchalari ot bilan egalik munosabatini o'rnatib, predmetning egasini bildiradi. Morfologik jihatdan egalik qo'shimchalari shaxs va son bilan uyg'unlashadi.

Masalan: O'qituvchining kitobi stol ustida (kitobi – III shaxs egalikda).

Egalik kategoriyasi sintaktik jihatdan otlarni boshqa soʻzlar bilan bogʻlashda muhim vosita sanaladi.

4. Kelishik kategoriyasi

Kelishik kategoriyasi otning gapdagi boshqa soʻzlar bilan sintaktik aloqasini bildiradi. Oʻzbek tilida oltita kelishik mavjud:

1. Bosh kelishik –kitob keldi
2. Qaratqich kelishigi –kitobning muqovasi
3. Tushum kelishigi –kitobni oʻqidim
4. Joʻnalish kelishigi –maktabga bordim
5. Oʻrin-payt kelishigi –maktabda oʻqiyman
6. Chiqish kelishigi –uydan chiqdim

Kelishik qoʻshimchalari otning gapdagi sintaktik funksiyasini aniqlaydi, shuningdek, gap boʻlaklari oʻrtasida bogʻlanish hosil qiladi.

Masalan: Talabaniing daftari oʻqituvchi baholadi.

Bu gapda “talabaniing” (qaratqich kelishigi) va “daftari” (tushum kelishigi) otlar grammatik jihatdan kesim bilan sintaktik bogʻlangan.

5. Otlarning turlanish tizimi

Otlarning turlanishi — son, egalik va kelishik kategoriyalarining oʻzaro birikishi orqali shakllanadi. Har bir ot uchta kategoriya shaklining qoʻshilishi natijasida turli grammatik formalarga ega boʻladi.

Masalan: kitoblariimizni, uyingizda, bolaniing kabi shakllar bir necha kategoriyaniing qoʻshilishi orqali hosil boʻlgan. Bu tizim oʻzbek tiliniing agglutinativ (qoʻshimchalar ketma-ket qoʻshiladigan) xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

6. Otning sintaktik vazifalari

Otlar gapda asosan ega va toʻldiruvchi vazifasida keladi:

Oʻquvchi darsga tayyorlandi. (ega)

Oʻqituvchi kitobni oʻqidi. (toʻldiruvchi)

Bundan tashqari, otlar aniqlovchi, kesim, hol vazifasida ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: U oʻqituvchi boʻldi. (kesim vazifasida)

Demak, otlarning grammatik kategoriyalari ularniing gapdagi sintaktik oʻrni bilan bevosita bogʻliqdir.

Ot morfologik oʻrganuvchi soʻz sifatida oʻziga xos morfologik paradigmalariga ega. Ot soʻz turkumida sintaktik kategoriyalar keng qoʻllanishiga ega. Xususan, KK (kelishik kategoriyalari) EK (egalik kategoriyalari) voqealanishi uchun bu turkumda cheklangan imkoniyat mavjud. Ammo unda kesimlik kategoriyasiniing voqealanishi nisbatan chegaralangan.

1. Son kategoriyasi. O'zbek tilida otlarning birlik va ko'plik shakllari mavjud. Birlik shakl predmetning bitta ekanligini bildiradi. Misollar: kitob, bola, uy. Ko'plik shakl esa ko'plik qo'shimchasi -lar yordamida yasaladi. Misol: kitoblar, bolalar, uylar. Ayrim hollarda ko'plik qo'shimchasi ma'noga ta'sir etib, umumiylik, hurmat yoki mubolag'a ma'nolarini ham bildiradi. Misol: ("Odamlar dedi").

2. Egalik kategoriyasi. Otlar egalik qo'shimchalari yordamida ma'lum bir shaxsga tegishlilikni bildiradi. Masalan: kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitoblari. "Egalik kategoriyasi otning shaxs bilan grammatik aloqasini ko'rsatadi".

Kelishik kategoriyasi. O'zbek tilida otlar oltita kelishikda qo'llaniladi. Bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi bular sirasiga kiradi. Kelishiklar yordamida otlar boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Misol: ("Kelishik kategoriyasi sintaktik bog'lanishning asosiy vositasidir").

4. Kesimlik kategoriyasi. Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki ko'rinishga ega bo'ladi:

- a) hozirgi zamon ko'rinishi;
- b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p holda ot so'z turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Kesimlik kategoriyasining ot so'z turkumidagi hozirgi, o'tgan va kelasi zamon ko'rinishida quyidagi tusga kelishi. Misollar:

Hozirgi zamon:

ishchi+man ishchi+miz

ishchi+san ishchi+siz

ishchi+o ishchi+lar

O'tgan zamon:

Ishchi+edimishchi+edik

Ishchi= eding ishchi+edingiz

Ishchi +ediishchi+edi(lar)

Otlarning funksional shakllari esa gap tarkibida turli vazifalarni bajaradi. Ega (Bola kitobni o'qiydi); to'ldiruvchi (Men kitobni o'qidim); qaratqich aniqllovchi, (O'quvchining kitobini olib keldi.). "Otlarning funksional shakllari gapning mazmunini kengaytiradi va aniq ifodalaydi". Otlar badiiy, ilmiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi. Badiiy matnlarda obrazlilikni ta'minlasa, ilmiy uslubda aniq tushuncha va kategoriyalarni ifodalaydi, publitsistik matnlarda esa ta'sirchanlikni oshiradi.

O'zbek tilidagi otlar til tizimining asosiy qatlami bo'lib, predmetlikni bildiruvchi asosiy so'z turkumidir. Ularning son, egalik va kelishik kabi grammatik kategoriyalari nutq jarayonida muhim vazifalarni bajaradi. Otlarning funksional shakllari esa gapning tuzilishi va ma'nosini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matov H, Nurmonov A, Mahmudov N, Qurbonova M, Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Qilichev M., To'xtasinov M. O'zbek tilshunosligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 38-b.

INTERNET TILI VA YANGI LEKSIK BIRLIKLAR

MIRAZIMOVA SEVINCH ORTIQALI QIZI,

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

mirazimovasevinch9@gmail.com,

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Internet tili va unda shakllanayotgan yangi leksik birliklar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida til tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, xususan, yangi so'zlar, qisqartmalar, emoji va inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelish jarayoni yoritiladi. Internet tili ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va messenjerlar orqali tez sur'atda rivojlanib, yoshlar nutqida faol qo'llanilmoqda. Maqolada yangi leksik birliklarning paydo bo'lish sabablari, ularning semantik xususiyatlari hamda o'zbek tili lug'at tarkibiga ta'siri lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Internet tili, yangi leksik birliklar, o'zlashma so'zlar, raqamli kommunikatsiya, inglizcha so'zlar, emoji, qisqartmalar, virtual muloqot, globallashuv, o'zbek tili leksikasi.

Annotation: This article analyzes the Internet language and the new lexical units emerging within it. It discusses the changes taking place in the language system as a result of the development of digital technologies, particularly the process of new words, abbreviations, emojis, and English borrowings entering the Uzbek language. The Internet language is rapidly developing through social networks, blogs, and messengers, and is actively used in the speech of young people. The article linguistically examines the reasons for the emergence of new lexical units, their semantic features, and their influence on the vocabulary system of the Uzbek language.

Keywords: Internet language, new lexical units, borrowed words, digital communication, English words, emojis, abbreviations, virtual communication, globalization, Uzbek language vocabulary.

Аннотация: В данной статье анализируется интернет-язык и формирующиеся в нём новые лексические единицы. Рассматриваются изменения, происходящие в языковой системе под влиянием развития цифровых технологий, в частности процесс вхождения в узбекский язык новых слов,

аббревиатур, эмодзи и англицизмов. Интернет-язык быстро развивается через социальные сети, блоги и мессенджеры и активно используется в речи молодежи. В статье лингвистически анализируются причины появления новых лексических единиц, их семантические особенности, а также влияние на лексический состав узбекского языка.

Ключевые слова: интернет-язык, новые лексические единицы, заимствованные слова, цифровая коммуникация, англицизмы, эмодзи, аббревиатуры, виртуальное общение, глобализация, лексика узбекского языка.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayoti internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydigan darajaga yetdi. Internet jamiyatning barcha sohalariga — iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat, siyosat, hatto kundalik muloqotga ham chuqur kirib bordi. Bu esa tabiiy ravishda til tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar unda bevosita aks etadi.

So'nggi yillarda "internet tili" yoki "raqamli til" tushunchasi lingvistika fanida alohida tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Internet tili deganda, foydalanuvchilarning virtual muhitda — ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, messenjerlar, forumlar va onlayn o'yinlar jarayonida ishlatadigan, o'ziga xos qisqartmalar, yangi so'zlar, emoji va iboralardan iborat muloqot tili tushuniladi. Bunday til shakli tezkorlik, ixchamlik va ifodaviylik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Internet tilining asosiy o'ziga xos jihatlaridan biri — yangi leksik birliklarning tez sur'atda paydo bo'lishidir. Masalan, "post", "story", "like", "follower", "blogger", "hashtag", "kontent" kabi so'zlar nafaqat internet foydalanuvchilari orasida, balki oddiy nutqda ham faol qo'llanmoqda. Shuningdek, qisqartma shakllar — "btw" (by the way), "omg" (oh my god), "lol" (laughing out loud) kabi birliklar ham yoshlar nutqida keng tarqalmoqda.

Bu jarayon, bir tomondan, o'zbek tilining leksik boyishiga, zamonaviy so'z qatlamining kengayishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, tilning milliy xususiyatlariga, adabiy me'yorlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli internet tili va yangi leksik birliklarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega.

Internet tili — bu raqamli muloqot jarayonida paydo bo'lgan yangi lingvistik hodisa bo'lib, u insonlarning virtual muhitda tez, qisqa va ta'sirli aloqa o'rnatish ehtiyojidan kelib chiqqan. Internet tarmog'ida yozishmalar, bloglar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar orqali yangi tildan foydalanish shakllari shakllanmoqda.

Bu tilda rasmiy grammatik me'yorlar ba'zan buziladi, lekin asosiy maqsad — tezkor va samimiy muloqotni ta'minlashdir.

Internet tili ko'p hollarda yoshlar nutqida faol qo'llaniladi. Ularning muloqotida inglizcha so'zlar, qisqartmalar, emoji va milliy tildagi yangi yaratilgan birliklar uyg'unlashadi. Shu bois bu til "hybrid" — aralash tabiatga ega bo'lib, milliy til va xorijiy tillar ta'sirining natijasidir.

Internet tilida yangi leksik birliklar bir necha yo'l bilan vujudga keladi:

O'zlashmalar orqali: ingliz tilidan bevosita o'zlashgan "blogger", "post", "like", "story", "hashtag", "stream" kabi so'zlar o'zbek foydalanuvchilari orasida keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi talaffuzga moslashgan, ayrimlari esa o'zbekcha shaklda yozila boshlagan (masalan, stori, layk, blogger).

Yangi ma'no kasb etish orqali: mavjud o'zbekcha so'zlar internet muhitida yangi ma'no kasb etmoqda. Masalan, obuna so'zi ilgari gazeta yoki jurnalga yozilish ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirda "kanalga qo'shilish" ma'nosini anglatadi. Yangi internet leksikasi bir necha usulda yuzaga keladi:

- **Kalkalash:** ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima ("foydalanuvchi" – *user*, "tarmoq" – *network*).

- **Transliteratsiya:** xorijiy so'zlarning talaffuz asosida yozilishi ("blogger", "kontent", "komment").

- **Aglutinatsiya:** o'zbekcha qo'shimchalar orqali yangi shakllar yaratish ("postlash", "likechi").

- **Semantik kengayish:** mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklanadi ("tarmoq" — ilgari texnik tushuncha, hozir esa ijtimoiy platforma ma'nosida).

Bu jarayonlar internet tilining tirik, dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Qisqartma va so'z o'yinlari orqali: "lol" (laughing out loud), "btw" (by the way), "idk" (I don't know), "aslida" kabi qisqartmalar yoki "ketch" (kechroq yozaman) kabi nutqdagi soddalashtirishlar keng tarqalgan.

Grafik birliklar orqali: emoji, gif va stickerlar ham internet tili tarkibiga kiradi. Ular so'z o'rnini bosuvchi, his-tuyg'uni ifodalovchi semantik birlik vazifasini bajaradi.

Internet tili o'zbek tili leksik tizimiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, u tilni boyitmoqda — yangi atamalar, zamonaviy tushunchalar, texnologik terminlar tilga kirib kelmoqda. Bular zamonaviy hayot tarzini ifodalashda zarur.

Ikkinchi tomondan, ortiqcha o'zlashmalar, talaffuzdagi buzilishlar va inglizcha so'zlarning me'yorsiz qo'llanilishi o'zbek tilining milliy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois lingvistlar va o'qituvchilar uchun bu jarayonni ilmiy kuzatish, tahlil qilish va kerakli me'yorlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Internet tili shunchaki yangi soʻzlar toʻplami emas — u jamiyat tafakkuridagi oʻzgarishlarning tildagi aksidir. Virtual muloqotning osonligi, ifodaviy vositalarning koʻpligi va tezkorligi natijasida til yanada dinamik, moslashuvchan va ijodiy tus olmoqda.

Xulosa qilib aytganda, internet tili hozirgi davr tilshunosligining eng faol va dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Internet tili zamonaviy kommunikatsiyada ijtimoiy chegaralarni qisqartiradi. U global madaniyat va texnologiyalar bilan bogʻliq yangi identifikatsiya vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar tili internet tili orqali tez yangilanadi. Shu bilan birga, bu jarayon til meʼyorlariga ham taʼsir koʻrsatmoqda — grammatik qisqartmalar, emoji va inglizcha soʻzlar oʻzbek yozuvida faol ishlatilmoqda. Tilshunoslarga taʼkidlaganidek, internet tili milliy tilga tahdid emas, balki uning **leksik imkoniyatlarini kengaytiruvchi hodisa**dir. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida til tizimida yuz berayotgan oʻzgarishlar, xususan, yangi soʻzlar, qisqartmalar va grafik vositalarning (emoji, sticker, gif) paydo boʻlishi oʻzbek tilining ham boyishiga, ham yangilanishiga sabab boʻlmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, M. (2021). Hozirgi oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, N. (2022). Raqamli kommunikatsiya va til tizimidagi oʻzgarishlar. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Yusupova, D. (2020). “Internet tili va yoshlar nutqida yangi birliklar.” — Til va jamiyat jurnali, №2, 45–49-betlar.

KO'MAKCHILAR VA UNING GRAMMATIK MA'NOLARI

ISLAMOVA MOHINUR ABDUAHAT QIZI,
QURAMBOYEVA SHODIYA PAXRADDIN QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

princess.of.my.sultan@gmail.com

mohinurislamova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi ko'makchi so'zlarning grammatik tabiati, ularning vazifaviy va semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Ko'makchilarning kelishik qo'shimchalari bilan o'xshash va farqli jihatlar, sof, yarim va qo'shimchasimon ko'makchilarning qo'llanishi misollar asosida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, bilan, uchun, kabi kabi ko'makchilarning ko'p ma'nolilik xususiyati hamda kelishik shakllari bilan sinonimlik hodisasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada ko'makchilarning til tizimidagi o'rni va nutqning mantiqiyliigi hamda aniqligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: ko'makchi, grammatik munosabat, sof ko'makchi, kelishik qo'shimchasi, maqsad, sabab, vosita, birgalik, o'xshatish, sinonimlik.

Abstract. This article analyzes the grammatical nature of postpositions in the Uzbek language, as well as their functional and semantic features. The similarities and differences between postpositions and case suffixes are shown, along with the usage of pure, semi-, and suffix-like postpositions through examples. In addition, the polysemy of the postpositions *bilan*, *uchun*, *kabi* and their synonymy with case forms are discussed from a scientific perspective. The article substantiates the role of postpositions in the language system and their importance in ensuring the logicity and accuracy of speech.

Keywords: postposition, grammatical relation, pure postposition, case suffix, purpose, cause, means, companionship, comparison, synonymy.

Аннотация. В данной статье проанализирована грамматическая природа послелогов в узбекском языке, их функциональные и семантические особенности. Показаны сходные и отличительные стороны послелогов и падежных аффиксов, а также использование собственно послелогов, полупослелогов и аффиксоподобных послелогов на основе примеров. Кроме того, научно освещены многозначность послелогов «билан», «учун», «каби» и явление синонимии с падежными формами. В статье обосновано место

последелогов в языковой системе, а также их значение в обеспечении логичности и точности речи.

Ключевые слова: последелог, грамматическое отношение, собственно последелог, падежный аффикс, цель, причина, средство, совместность, уподобление, синонимия.

Ко‘makchi (arabcha *komak* – yordam) — mustaqil qo‘llanmaydigan, so‘zlarga tayanib keladigan va ular o‘rtasidagi grammatik aloqani kuchaytiruvchi yordamchi so‘z turkumidir. Tilshunoslikda ular ko‘pincha **postpozitsiya** (lotincha *post* – “keyin”, *positio* – “joylashuv”) nomi bilan ham ataladi, chunki ko‘makchilar odatda so‘zdan keyin keladi: *kitob uchun, do‘st bilan, qush kabi*. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar tizimi ichida ko‘makchi alohida o‘rin tutadi. Chunki u mustaqil so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlarni aniqlashtiradi, ma‘noni to‘ldiradi va aniqlik kiritadi. Tilshunos A.N. Kononovning ta’kidlashicha: “Ko‘makchilar shunday bir guruh so‘zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo‘nalish, o‘xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi.” Sh.Shoabdurahmonov ham ko‘makchini shunday tariflaydi: “Ko‘makchi obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo‘lgan turli grammatik munosabatini ko‘rsatuvchi yordamchi so‘zdir.” Ko‘makchi nutqning mantiqiyligi va aniqligini ta’minlovchi muhim vosita bo‘lib, u bog‘lovchi va yuklamadan farqli o‘laroq kelishik ma’nolarini aniqroq ifodalaydi. Gapda ot yoki o‘zlashgan so‘zlardan keyin kelib, vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon sintatik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ko‘makchi shakli va bajaradigan vazifasiga ko‘ra 3 guruhga ajratiladi:

- Sof ko‘makchi
- Yarim ko‘makchi
- Qo‘shimchasimon ko‘makchi

Biz odatiy holda tez-tez ishlatadigan uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali so‘zi sof ko‘makchi, ular tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lashga xizmat qiladi. Sof ko‘makchi mustaqil lug‘aviy ma’nolarini batamom yo‘qotgan yordamchi so‘z bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Bilan ko‘makchisi o‘zbek tilida asosan ko‘makchi ba‘zan bog‘lovchi vazifasida ishlatiladi, shu sababli bu ko‘makchi o‘zi bir yordamchi so‘z turi va boshqa yordamchi so‘zning o‘rnida qo‘llanishi nuqtayi nazaridan ko‘makchi-bog‘lovchi sifatida ham o‘rganilmoqda. “Bilan” yordamchisining etimologiyasiga nazar soladigan bo‘lsak, olimlarning fikricha u “birlan” so‘zidan kelib chiqqan. Bu ko‘makchi quyidagi ma’nolarni bildiradi:

1. biror harakatning bajarilishida shaxs yoki predmetlarning birgaligini: *Ko'pchilik **bilan** odam o'zini kuchini sezadi;*
2. Harakatni bajarishda vosita ma'nosini: *Shu gapningning ustiga Ismat bobo hassasi **bilan** eshikni ochib kirib keladi;*
3. payt ma'nosini: *Qo'ng'iroq chalinishi **bilan** o'qituvchi sinfga kirdi;*
4. sabab ma'nosini: *Ular: "Gulnor o'z ajali **bilan** o'ldi..." - deyishdi;*
5. harakatning bajarilishidagi holatni: *Onamning mehr **bilan** boqib turgan ko'zlarini bir umr unuta olmasam kerak*

Bilan ko'makchisi - keng tarqalgan yordamchi so'z. Uning bog'lovchilik, ko'makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuv bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan «... va, hila, hamda, shuningdek so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida teng bog'lovchining biriktiruv bog'lovchi turiga kiradi» degan fikr ham ilgari surilgan. [150:157].

Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib, unga quyidagi ma'noni yuklaydi:

1. **Sabab:** *sababli, tufayli, uchun.* Masalan: Kech qolganim **uchun** kiritishmadi.
2. **Yo'nalish:** *tomon, qaarab, sari, bo'ylab.* Masalan: Dunyo **bo'ylab** sayohat qildik.
3. **Mavzu:** *haqida, to'g'risida.* Masalan: Nima **haqida** gaplashdingiz?
4. **O'xshatish:** *kabi, singari, yanglig', misoli.* Masalan: Qush **kabi** parvoz etaman.
5. **Chegara:** *qadar.* Masalan: Qabul 1-iyunga **qadar** davoom etadi.

Ko'makchilar vazifasiga ko'ra kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Shu sababli ular o'zaro sinonimlik hosil qiladi va birining o'rnida ikkinchisi qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, -da o'rin payt kelishigi qo'shimchasi va "bilan" ko'makchisi bilan ma'nodosh bo'ladi. Unda ikki xil ko'rinish namoyon bo'ladi: Ruchkada yozdim – ruchka **bilan** yozdim. Shuningdek, kabi, singari, yanglig', misoli ko'makchilari o'xshatish ma'nosida qo'llanuvchi –dek, -day qo'shimchalari bilan ma'nodosh hisoblanadi. Misol uchun, qushdek – qush **kabi**; pariday – pari **misoli**...

Ma'lumki, ko'makchilar ot, olmosh, otlashgan so'z, harakat nomi va sifat doshdan keyin keladi. Ushbu so'zlar ko'makchi bilan birga qo'llanganda ba'zi kelishik shakllariga ega bo'ladi. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: bilan, uchun, sari, sayin, singari, kabi, uzra, tufayli. haqida, orqali... Masalan, ruchka bilan, yozish uchun, o'tmish sari, kun sayin, hamma singari, men kabi, osmon uzra, duo haqida, telefon orqali...

2. Qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: ost, ust, ich, ora, bosh, bilan, uchun, kabi... Masalan, mashaqqat ostida, o'z ustimda, g'am-tashvish ichida, gap orasida, tadbir boshida, sening bilan, uning uchun, uning kabi... Ushbu

ko'makchilar bilan qo'llanishi kerak bo'lgan qaratqich kelishigi qo'shimchasi ko'pincha tushib qoladi.

3. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: muvofiq, ko'ra, qaramay, doir, tomon, binoan, qadar, qarata, nisbatan... Masalan, qarorga muvofiq, arizasiga ko'ra, ogohlantirishimga qaramay, fanga doir, uyga tomon, sud hukmiga binoan, imtihonga qadar, xalqqa qarata, menga nisbatan...

4. Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar: keyin, bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari, buyon, oldin, boshlab... Masalan, darsdan keyin, sendan bo'lak, undan o'zga, bundan tashqari, kechadan buyon, uxlashdan oldin, o'tgan oydan boshlab... Tomon ko'makchisi bosh va jo'nalish kelishigidagi ismlar bilan birga qo'llanadi.[179:181].

Ko'makchilar o'zbek tili tizimida grammatik vositalarning muhim qismi hisoblanadi. Ularning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

Til tizimidagi o'rni: so'zlar orasidagi grammatik munosabatni aniq ifodalaydi.

Nutqiy vazifasi: nutqning mantiqiyligi, aniqligi va izchilligini ta'minlaydi.

• **Stilistik qiymati:** ayrim ko'makchilar gapga ta'sirchanlik bag'ishlaydi, masalan, *singari*, *andek*, *yanglig'* o'xshatishni kuchaytiradi.

• **Sinonimik qatlam:** kelishik qo'shimchalari bilan almashinuv imkoniyati tilning boyligini ko'rsatadi.

1. Mustaqil so'zning «nomustaqillik» belgisiga nisbatan mo'tadilligi sababli mustaqil so'z ichidan nisbiy yordamchi ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchi bir xususiyati bilan ma'noviy mustaqil, ikkinchi xususiyati bilan ma'noviy nomustaqil leksemaga o'xshab ketadi va oraliq uchinchi guruhini hosil qiladi. Leksema nomustaqil leksema sifatida voqelanganda, leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqelanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda berilgan "ko'ra" leksemasining ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz: 1. Yaxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan. 2. Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko'ra ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun ... 1-gapda qo'llanilgan "ko'ra" «ko'z bilan ko'rmoq, kuzatmoq» semasiga ega bo'lsa, 2-gapda «ko'rish» semasi kuchsizlangan va «chog'ishtirish, qiyoslash» grammatik ma'nosini voqelantirgan. 1-gapda qo'llanilgan "ko'ra" "ko'rmoq" fe'lining ravishdosh shakli bo'lsa, 2-gapda fe'l ko'makchi sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.

2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021.

“BOBURNOMA”DAGI ORONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

JALILOVA MADINA MUROTOVNA

mustaqil izlanuvchi,

NamDU 10.00.01-O'zbek tili ixtisosligi,

Ganievkomilzon073@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida berilgan oronimlarining nomlanish motivlari berilgan, izoh va talqinlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oykonim, oronim, lisoniy omil, nolisoniy omil, etimologiya, motiv, etnooronim, zooronim.

Аннотация: В статье поясняются мотивы наименования оронимов данных в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура пояснения и толкования.

Ключевые слова: ойконим, ороним, лингвистический фактор, нелингвистический фактор, этимология, мотив, этноороним, зоороним.

Annotation: In the article, the motivations for naming the oronyms given in “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur, explanations and interpretations are explained.

Key words: oikonym, oronim, linguistic factor, non-linguistic factor, etymology, motif, ethnooronym, zooronym.

Oronim (yun.oros – tog' + onoma - atoqli ot) – *yer yuzasi relyefidan bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va boshqalar) atoqli oti.* [1:63]. Oronimlarning tadqiqi tilning va uning toponimik, jumladan, oronimik tizimining taraqqiyoti hamda lisoniy takomilini, oronimlarning boshqa toponimik birliklar bilan munosabatini, ular mansub hudud dialekti, geografiyasi, tarixi, etnografiyasi, geodeziyasi, flora va faunasi, tog' turizimiga xos tabiati va boshqa imkoniyatlarini o'rganish nuqtai nazaridan ham ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega, biroq “Boburnoma”da keltirilgan oronimlar maxsus to'planmagan, tadqiq etilmagan.

Memuardagi jami 161ta oronimlar keltirilgan bo'lib, ular lug'aviy-ma'naviy xususiyatlariga ko'ra dastlab ikki guruhga bo'linadi:

I. Tabiiy-geografik oronimlar.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar.

Memuarda, asosan, tabiiy-geografik oronimlar uchraydi. Tabiiy-geografik oronimlar o'z ichida bir nechta guruhlarga bo'linadi:

1. Obyektning rang-tus belgisi bilan bog'liq oronimlar: bunday oronimlarning nomlanishiga shu joyning tashqi ko'rinishi, geografik joylashuvi asos bo'ladi. "Boburnoma"ning muallifi asarda shunchaki oronimlarni sanab o'tmaydi, balki til ilmining eng qiziqarli sohasi – etimologiya xususida ham juda muhim, teran ilmiy kuzatishlarini bayon etadi. So'z etimologiyasi joy nomiga nisbatan tekshirilganda Bobur o'sha so'zning yasaliishi va nom qo'yilishiga tarixan yondashadi. Joy nomlarini izohini, atalishiga sabab bo'lgan voqealarni, guvohi bo'lgan hodisa va o'zining xulosalarini birma-bir keltiradi. Masalan, Ko'hi Safid tog'ini shunday izohlaydi: *Ko'hi Safid Ningnahorning janubida voqi' bo'lubtur. Bangash bila Ningnahorga vosita ushbu tog'dur. Otliqqa yo'l yo'qtur. To'qquz rud ushbu tog'din chiqar, bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihatdin g'olibo Ko'hi Safid derlar.* [2:140]. Ko'hi Safid fors-tojikcha so'z bo'lib, ko'h – tog', safid – oq, ya'ni, oq tog' degan ma'noni anglatadi. Tog'ning bunday nomlanishiga, tog'dan hech ham qor arimasligini sabab qilib keltiradi. Shuningdek, rang-tus belgisi bilan bog'liq oronimlarga *Qorako'ba* ko'talini misol qilib keltirishimiz mumkin: *Tonglasi ko'chub, og'ir patrol va tevani Xoja Mirmironga boshlatib, Jargotu va Darvoza yo'li bila va Qaro Ko'ba ko'tali bila yiborib, o'zimiz jarida otliq bila ilg'ob, Anbaxir ko'tali bila oshib, namozi shomdin ertarak paniyalii tushuldi.* [2:164]. Asarda Bobur ko'tal deya dovonni (band) nazarda tutgan. Dovonning qaro rang bilan atalishi esa uning tuprog'i bilan bog'liq.

Oqko'tal – Jizzaxdan Samarqandga boradigan yo'ldagi dovon, hozirgi Oqtosh qishlog'idan g'arbda joylashgan: *Avval taxtg'a o'lturg'onida ...Samarqand olmoq doiyasi bila cherik torrib, Oqko'taldin o'tub, Raboti Sug'd va Kanboy navohisig'a keldi.* [2:72].

2. Obyektning hajm-xususiyati bilan bog'liq oronimlar: bunday oronimlarning nomlanishiga hududning uzun-qisqaligi, baland-pastligi asos bo'ladi: *Tul dovoni* – uzunligi uning nomlanishiga asos bo'lgan: *Yuqqoriroq Xavok ko'talidur, andin quyiroq Tul, andin quyiroq Bozorak. Bu uch ko'taldin yaxshirog'i Tuldur. Vale yo'li bir nima uzunroqdur. G'olibo bu jihattin Tul derlar. Tul va Bozorak Sarobga tushar. Bozorak kutalini Sarob eli Porandiy otliq kentiga inar uchun Porandiy ko'tali derlar.* [2:138].

Xoja Regiravon – Kobul viloyatining shimoliy-g'arb tomonidagi kichik tog'. Kurrayi Toziyon va Dashti Shayx dashtlari orasida joylashgan: *Bu ikki dashtning orasida bir kichikrak tog' tushubtur, bu tog'da bir parcha qum tushubtur, tog' boshidin, tubigacha Xoja Regiravon derlar.* [2:112]. Bu yerda reg so'zi fors-tojik tilida qum, ravon esa ravidan (yurmoq, oqmoq) fe'lining hozirgi zamon shakli (rav) va unga -on qo'shimchasi qo'shilib, ravon, ya'ni hozirgi zamon sifatdoshi (ravon-oqar)

yasalgan. Demak, qum tog'ning ustki qismidan pastga, ya'ni tog'ning etak qismiga doimo oqib tushub turganligi uchun shunday atalgan. *Xoja* so'zi esa tog' kulti sifatida, uni muqaddaslashtirish, ulug'lashtirish ma'nosida qo'shilgan. Tog' nomi joyning xususiyati asosida kelib chiqqan.

Darbandi Ohanin – adib Xisravshoh hukmronlik qilayotgan hududlar chegarasida *Qahlug'ni* tilga oladi va bu darani *Darbandi Ohanin* deb ham atalishini bayon etadi: *Qahlug'dinkim, Darbandi Ohanin ham derlar, Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud mirzog'a taalluq viloyot tamom aning taxti tasarrufida edi.* [2:105]. *Darband* – Xisor tog'laridagi dara. U tor bo'lganligi sababli darvoza vazifasini bajargan, strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. *Darband* (forscha. dar– eshik; dara+band – berk, mustahkam). Tabiiy to'siq, g'ov; tog' orasidagi o'tish qiyin bo'lgan tor yo'l. [3:559]. Daraning nomlanishiga uning tabiiy xususiyati asos bo'lgan. Yozma manbalarda nomi turlicha, ammo mazmunan bir xil: qadimgi turkiy tilda – *Temir qapug'* (qapug'– darvoza), *Darbandi Ohanin* (forscha), *Bobul-hadid* (arabcha), *Qahlag'a* (mo'g'ulcha) qo'llangan. [4:219]. Demak, Boysun tog'laridagi *Temir darvoza* darasi to'rt tilda to'rt xil aytilgan, ammo bir ma'noni anglatgan. Memuarda esa, mo'g'ulcha va forscha variantlari: *Qahlag'a, Darbandi Ohanin, Darband* shakllarida berilgan: *Ul yil Samarqandtin chiqib, Xisor kelganda o'zbekning jami xon va sultonlari yig'ilib, ittifoq qilib, bizning ustumizga kelur azimat bila Darbanddin o'ttilar.* [2:192]. H.Hasanov bu daraning *Buzg'olaxona* – “Echkixona” va *Qo'hlug* degan mahalliy nomlari ham borligini qayd etgan. [5].

3. Tashqi ko'rinishi va shakliy tuzilishi asosida nomlangan oronimlar:

Haftbacha dovoni huddi shu asosda nomlangan bo'lib, fors-tojikcha (“Haft”-yetti, “bacha”- bola) degan ma'noni anglatadi. Bobur Badaxshon va Kobul orasida yastangan Hindukush tog'ida joylashgan Haftbacha dovonining nomlanishini shunday dalillaydi: *Yana bir Parvon yo'lidur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun Haftbacha derlar.* [2:138]. Ya'nikim, Katta dovon bilan Parvon orasida yana yetti dovon borligi uchun bu dovonni Haftbacha (yetti bolali) deb atashgan.

Bobur Hindukush tog'ini hindlar Savalak Parbat deb ataganlarini yozadi va buning nomlanish motivini juda tushunarli izohlaydi: *Hind eli Savalak Parbat derlar, hind tili bila “sava” – rub, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog', ya'ni rub va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lgay. Ushbu tog' Kobulda Hindukushga mavsumdur. Bu tog'larda qor o'ksumas. Kobuldin bu tog' sharqqa boqa boribtur.* [2:197]. Hindukush tog'i Osiyodagi yirik tog' tizmasi bo'lib, 800 km chamasi. Shuning uchun bo'lsa kerak hind xalqi bu tog'ning uzunligiga ishora qilib, Savalak Parbat – Yuz yigirma besh ming tog' deb atashgan. Bobur esa asarda bu tog'ni Hindukush,

Hindukush tog'i shakllarida nomlagan. Tog'ning nomi ba'zan *Hinduko'h* (Hind tog'i) tarzida ham yozilgan. [6:120].

Ko'htan tog'i (*Ko'hi tang*) – Movarounnahr janubidagi tog' tizmasi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chegarasida. Pomir Olay tog' sistemasining janubig'arbidagi sistema. O'zbekiston va Turkmaniston hududida. Boysuntog'ning janubiy davomi: *Andin beri Qahka bila Ko'htan tog'ining janub tarafidagi viloyat ...Sulton Mahmudning tasarrufida edi*. [2:48]. Oronim forscha ikki so'zning birikuvidan *ko'h* – *tog' + tang – tor* (*tor tog'*) yasalgan bo'lib, *tor tog'* ma'nosini anglatadi.

Ko'habachcha (*Ko'hi bacha*) – forscha *kichik tog'*, *tog'ning bolasi* ma'nosini anglatadi. Kobulning shimolidagi joylashgan: *Ko'habachchakim, o'rduning olida edikim, urush ushbu Ko'habachchaning olida voqi bo'ldi, kufforning boshidin ushbu Ko'habachchaning ustida kalla manora farmon bo'ldikim, qo'porg'aylar*. [2:229].

4. Zooronimlar – hayvon, parranda va boshqa jonzotlarning nomlari bilan atalgan oroobyektlar:

Qarg'abuloq – Kobul shahri yaqinidagi tepaliklar. qo'shma tarkibli oronim bo'lib, ot+ot birikuvidan yasalgan: *Ahmad Qosim ko'hbur va ba'zi bir necha yigitnikim, Mirzoxonning so'ngicha yiborilib edi, Qarg'a buloq pushtalarida Mirzoxonga yetarlar*. [2:151-152].

Uqobayn – Kobul shahrida joylashgan tog' etagining janubiy-g'arb qismi. Bobur uni Shohi Kobul tog'idan ayrilib chiqqan bir tumshuq deb keltirgan: *Shohi Kobul tog'idin bir tumshuq ayrilib kelibtur, Uqobayn derlar*. [2:107]. *Uqobayn* – *uqob* (arabcha *burgut*) + *-ayn* (arab tilida juftlik qo'shimchasi) birikuvidan yasalib *ikki burgut* degan ma'noni anglatadi.

Murg'on tog'i – Qandahor viloyatigagi tog'. Boburning askarlari Shohbek Arg'unni *Murg'on tog'i* etaklarigacha ta'qib qilgan: *Ushbu fursatta yog'iyini qochurub, bu ariqlardin Murg'on tog'ining tumshug'i sari o'ttuk*. [2:158]. *Murg'on* so'zi fors-tojikcha (*murg' - qush*) *qushlar joyi, qushlarga boy tog'* ma'nosini beradi.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar

1. Antropooronimlar – kishi nomlari, laqablari, taxalluslari, familiyalaridan yasalgan oroobyekt nomlari:

Dehi Yaqub tangisi – Kobul yaqinida, Hindiston yo'lida joylashgan dara. Asarda bu tangi va shu nomdagi daryo haqida ma'lumot berilgan. Bobur Shohi Kobul tog'i haqida so'zlab, Devarin tangisidan boshlanib, bu tangida tugashini qayd etgan: *Bu tog'ning ibtidosi Devarin tangisidindur. Dehi Yaqub tangisida tug'anur*. [2:107].

Ko'hi Mehtar Sulaymon – Sind daryosining g'arbidagi tog' tizmasi. Hozir Pokiston Respublikasi hududida. Oronim qo'shma tarkibli bo'lib, *tog'* ma'nosini

ifodalovchi fors-tojikcha *ko' h + mehtar* (forsa – ulug', janob, saroy mansablaridan biri) hamda Sulaymon antroponimining birikuvidan yasalgan: *Jahongir mirzo va beklar so'zlashib turlar, ba'zilar debturlarkim, Dashtning g'arbi tog'iningkim, Ko'hi Mehtar Sulaymon derlar, ushbu Dasht bila Dukining orasida tushubtur, tumshug'idan evrulsa, yo'l tuzdur.* [2:120].

Muhammad Pix (dovon) – Kobuldan janubi-sharq tomondagi dovon. Bobur 1505-yil yanvarda Kobuldan Sulaymon tog'lari tomonga yurishi chog'ida u orqali o'tgan: *...Hinduston azimatini fasx qilib, Jomdin ko'chub, Bora suyini o'tub, Muhammad Pix dobonig'a yovuqroq kelib tushuldi.* [2:118].

Xoja Xovand Sayyid tog'i – Shayx, avliyo. Kobulning Bog'oti Xum navohisiga yaqin joydagi mozorini Bobur ziyorat qilgan. Asarda mozor atrofi uning nomi bilan aytilishi, uzumi yaxshi bo'lib, undan chog'ir tayyorlanishi va achchiqligi bilan mashhurligi ham qayd etilgan: *Xoja Xovand Sayyid Domani ko'hiyning chog'iri tundluq bila mashhurdur.* [2:108].

Xoja Ismoil tog'i – Sulaymon tog'larining bir qismi: *Yana Xoja Ismoil va Dasht, Duki va Afg'oniston tog'lari bir yo'sunluq tog'lardur.* [2:115].

1. Etnoonimlar – urug', qabila, millat, xalq nomlari asosida shakllanadi:

Ko'hi Jud – Bhiradan shimoldagi Ko'hi Jud oronimi Jud etnonimiga nisbat berib nomlanganligini Bobur qayd etgan: *Bu tog'ii "Zafarnoma" da va ba'zi kitoblarda "Ko'hi Jud" bitib turlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, so'ngralar ma'lum bo'ldi: bu tog'da bir ota naslidin ikki xil el bor. Birini jud derlar va birini janjuha. Bu tog'dag'i va Nilob bila Bhira orasidag'i el va ulusg'a bular qadimdin hokim va farmonravo bo'la kelgandurlar. ...Bu tog' judka mansub qilib, Ko'hi Jud debturlar.* [2:165-166]. Jud qavmi bu tog'dagi va Nilob bilan Bhira orasidagi el-ulusga qadimdan hokimlik qilib, ularni boshqarib kelganligi uchun va bu tog'ni Jud eliga qarashli ekanligini bildirib *Ko'hi Jud* deb nomlaganlar. Demak, bu oronimning nomlanishiga Jud etnonimi motiv bo'lgan.

Qipchoq ko'tali – Hindukush tizmasidagi dovonlardan biri, Andarob va Qizilsuv daryolari ko'tarilish joyi ustida. 1503-yil yozida Kobul tomon Qizilsuv yoqalab borayotib, bu dovondan oshib o'tgan. Bobur Hindukush tog'idan yetti yo'l bilan o'tish mumkinligini biri Qipchoq ko'tali bo'lib yaxshi yo'l ekanligini qayd etgan: *Yana bir yo'l Qipchoq ko'talidur. Andarob suyi bila Qizil suvning qotilishig'a inar.* [2:109].

Xulosa qilib aytganda, Bobur nafaqat shoh va shoir, balki mashhur tilshunos olim hamdir. Uning "Boburnoma" qomusiy asari tilshunoslikning onomastika sohasini o'rganishdagi eng bebaho tarixiy manbalardan biridir. Chunki bu shoh asarda adibning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli uslubi o'z aksini topgan bo'lib, unda juda

ko'p oronimlar qayd etilgan, izohlangan, nomlanish motivlari, etimologiyasi, variantlari berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.–Тошкент: Шарқ , 2002.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
5. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан
6. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985.

ELEKTRON DARSЛИKLAR VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**JUMABAYEVA KAMOLA SHUKHRATOVNA,
BAXTIYOROVA YULDUZ MANSUR QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabalari

kamolajumaboyeva@gamil.com

yulduzbaxtiyorova@gamil.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron darsliklarning ta'lim tizimidagi ahamiyati, ularning asosiy didaktik, texnologik va metodik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, elektron darsliklarni yaratish tamoyillari, afzalliklari va kamchiliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan elektron darsliklarning ta'lim samaradorligiga ta'siri amaliy misollar bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: elektron darslik, ta'lim tizimi, didaktika, axborot texnologiyalari, interfaollik, multimedia

Abstract. This article explores the importance of electronic textbooks in the education system, emphasizing their didactic, technological, and methodological features. It discusses the principles of designing electronic textbooks, their advantages and limitations, and analyzes their impact on educational effectiveness through practical examples. The role of information and communication technologies in shaping modern digital learning resources is also highlighted.

Keywords: electronic textbook, education system, didactics, information technologies, interactivity, multimedia.

Аннотация. В данной статье освещается значимость электронных учебников в системе образования, их основные дидактические, технологические и методические особенности. Также научно анализируются принципы создания электронных учебников, их преимущества и недостатки. Влияние электронных учебников, созданных на основе современных информационно-коммуникационных технологий, на эффективность обучения иллюстрируется практическими примерами.

Ключевые слова: электронный учебник, система образования, дидактика, информационные технологии, интерактивность, мультимедиа.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida elektron resurslardan foydalanish jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. An'anaviy bosma darsliklar o'rnini asta-sekin elektron darsliklar egallab bormoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki bilimlarni egallash jarayonini interfaol, qulay va samarali qilish imkoniyatini beradi. Elektron darsliklar multimedia texnologiyalariga asoslangan holda yaratiladi va ular matn, rasm, audio, video hamda interfaol testlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Elektron darslik — bu o'quv fanining mazmunini elektron shaklda ifodalovchi, interaktiv imkoniyatlarga ega, foydalanuvchiga individual ta'lim yo'nalishini tanlash imkonini beruvchi o'quv resursidir.

An'anaviy darslikdan farqli ravishda, elektron darslikda matn, audio, video, animatsiya, test va interaktiv topshiriqlar uyg'unlashgan bo'ladi. Bu esa o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quv jarayonini jonlantiradi.

Elektron darslikning asosiy vazifasi – ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchi uchun qulay o'rganish muhitini yaratishdan iborat.

Elektron darsliklarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

a) Interaktivlik

Elektron darslik foydalanuvchi bilan faol muloqotda bo'ladi. O'quvchi darslik orqali javob beradi, test bajaradi, natijasini darhol ko'radi. Bu o'quv jarayonini bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama faoliyatga aylantiradi.

b) Vizuallik

Grafik, sxema, animatsiya va videoroliklar orqali o'quv materiali ko'rgazmali tarzda ifodalanadi. Bu xususiyat o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq idrok etishiga yordam beradi.

c) Moslashuvchanlik

Elektron darslik o'quvchining individual o'zlashtirish sur'ati va bilim darajasiga moslashadi. Shuning uchun u differensial va individual ta'lim tamoyillarini amalda qo'llashga imkon beradi.

d) Integrativlik

Elektron darslikda fanlararo aloqalar keng qo'llaniladi. Masalan, ona tili darsligida tarixiy matnlar yoki adabiyot namunalarini o'qitish orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

e) Yangilanuvchanlik

Elektron darsliklar tezda yangilanadi, yangi ma'lumotlar qo'shiladi, eski ma'lumotlar oson tahrirlanadi. Bu jihatdan ular an'anaviy bosma darsliklardan ustundir.

f) Baholash tizimining mavjudligi

Ko'plab elektron darsliklarda avtomatik test tizimi mavjud bo'lib, u o'quvchi bilimini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

3. Elektron darsliklarning didaktik imkoniyatlari

Elektron darsliklar o'qitishning ko'rgazmalilik, faollik, mustaqillik, individual yondashuv kabi tamoyillarini amalga oshirishda keng imkoniyat yaratadi.

Ularning yordamida:

o'quvchilarda mustaqil ishlash malakasi rivojlanadi;

o'quv materialini ko'p kanallilik (ko'rish, eshitish, o'qish) asosida o'zlashtiriladi;

fanlararo integratsiya kuchayadi;

masofaviy ta'lim uchun sharoit yaratiladi.

Misol uchun, elektron darslikda "So'z turkumlari" mavzusi videodars, interaktiv mashq va testlar asosida berilsa, o'quvchi mavzuni tezroq o'zlashtiradi va bilimini mustahkamlaydi.

4. Elektron darsliklar yaratishning asosiy tamoyillari

Elektron darslik ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Didaktik asoslanganlik – mazmun ta'lim standartlariga mos bo'lishi lozim.

2. Texnik qulaylik – foydalanuvchiga sodda interfeys taqdim etilishi zarur.

3. Axborot xavfsizligi – ma'lumotlar himoyasi va foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlash.

4. Interfaollik – darslik o'quvchini o'zaro muloqotga chorlay olishi kerak.

5. Estetik dizayn – o'quvchini charchatmaydigan, ko'zni quvontiradigan rang va shrift uyg'unligi.

Elektron darsliklarni yaratishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish ularning didaktik qiymatini oshiradi, o'quvchilarning bilimini samarali shakllantirishga yordam beradi. To'g'ri yaratilgan elektron darslik nafaqat bilim manbai, balki o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi, ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi zamonaviy pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Elektron darsliklar ta'lim jarayonini zamonaviy bosqichga olib chiqishda muhim o'rin tutadi. Ular an'anaviy darsliklarning imkoniyatlarini kengaytirib, o'quvchi va o'qituvchi uchun qulay, interfaol, multimediya vositalari bilan boyitilgan ta'lim manbai sifatida xizmat qiladi. Kelgusida elektron darsliklarni ishlab chiqishda milliy

ta'lim standartlariga moslik, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Xodjayev A. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim" Toshkent, 2022.
2. Karimov .I. A. "yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" Toshkent, 2019.
3. UNESCO "ICT in Education : A. Critical Perspective ." Parij, 2021.
4. Alimova N. "Elektron ta'lim resurslari va ularning samaradorligi ." Ta'lim va innovatsiya jurnali, 2023.
5. OECD ."Digital Education Outlook." Parij, 2020.

LEKSIKOLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**Jumayeva Muslima Madaminjon qizi**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

O'zbek tili va Adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muslimajumayeva18@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Leksikologiyaning obyekti tilning lug'at boyligidir. Bu boylik tilshunoslikda leksika deb ataladi va u muayyan tildagi barcha so'zlarni va shu so'zlar bog'lanishidan tarkib topgan ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalarni (frazemalarni) o'z ichiga oladi. Leksika atamasi ba'zan tor ma'nolarda ham qo'llanadi: dialektal leksika, kasb-hunar leksikasi, ilmiy leksika, vulgar leksika, Tohir Malik asarlari leksikasi kabi. Leksikologiyaning predmeti — lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish. Leksikologiyaning vazifalari: a) muayyan til lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o'rganish; b) lug'aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarini, tematik guruhlarini va mikrosistemalarini aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarini yoritish; d) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-semantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, tilshunoslik, semantika, stilistika, morfologiya, sintaksis, tarixiy tilshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, korpus lingvistikasi, terminologiya, dialektologiya, leksikografiya, til va madaniyat, lug'at tuzish, fanlararo aloqalar, til va tafakkur, so'z boyligi, tillararo taqqoslash.

Аннотация Объектом лексикологии является словарный запас языка. Это богатство в языкознании называется лексикой, и оно включает все слова данного языка, а также устойчивые конструкции с переносным значением (фразеологизмы), образованные их сочетанием. Термин «лексика» иногда употребляется в узком смысле: диалектная лексика, профессиональная лексика, научная лексика, вульгарная лексика, лексика произведений Тохира Малика и др. Предмет лексикологии — исследование структурных и системных особенностей словарного запаса, закономерностей его развития, а также связи с другими уровнями языка (фонетическим, грамматическим). Задачи лексикологии: а) изучение процессов устаревания и обновления в словарном

запасе конкретного языка, участие в этих процессах лингвистических и экстралингвистических факторов; б) функционально-семантическая характеристика лексических единиц, выявление устаревших, новых и современных слоёв, тематических групп и микросистем, освещение их языковых и стилистических особенностей; в) вооружение студентов теоретическими знаниями по лексике, формирование у них навыков лексико-семантического анализа.

Ключевые слова : Лексикология, языкознание, семантика, стилистика, морфология, синтаксис, историческое языкознание, этнолингвистика, социоллингвистика, психоллингвистика, корпусная лингвистика, терминология, диалектология, лексикография, язык и культура, составление словаря, междисциплинарные связи, язык и мышление, словарный запас, межъязыковое сопоставление.

Annotation: The object of lexicology is the vocabulary of a language. In linguistics, this wealth is called lexicon, which includes all the words of a given language as well as fixed expressions with figurative meanings (phraseological units) formed from their combinations. The term "lexicon" is sometimes used in a narrower sense: dialectal lexicon, professional vocabulary, scientific lexicon, vulgar lexicon, the lexicon of Tohir Malik's works, etc. The subject of lexicology is the study of the structural and systemic features of vocabulary, the laws of its development, and its relationship with other levels of language (phonetic and grammatical). The tasks of lexicology are: a) to study the processes of obsolescence and renewal in the vocabulary of a particular language and the participation of linguistic and extralinguistic factors in these processes; b) to provide a functional-semantic description of lexical units, identify archaic, new and modern layers, thematic groups and microsystems, and highlight their linguistic and stylistic features; c) to equip students with theoretical knowledge of lexicon and to develop their skills in lexical-semantic analysis.

Keywords: Lexicology, linguistics, semantics, stylistics, morphology, syntax, historical linguistics, ethnolinguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, corpus linguistics, terminology, dialectology, lexicography, language and culture, dictionary compilation, interdisciplinary relations, language and thought, vocabulary, cross-linguistic comparison.

Leksikologiya tilshunoslikning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya va frazeologiya kabi bo'limlari bilan hamkorlikda ish ko'radi, bunday hamkorliksiz

tilning lugʻat boyligidagi leksiksemantik hodisalarni, lugʻat tarkibi taraqqiyotiga oid til faktlarini togʻri yoritib boʻlmaydi:

–*semasiologiyada* lugʻaviy birliklarning mazmun plani - semantik tarkibi va shu bilan bogʻliq masalalar tadqiq qilinadi;

–*onomasiologiyada* narsahodisalarni yoki tushunchalarni nomlash prinsiplari oʻrganiladi; *etimologiyada* soʻzlarning kelib chiqishi aniqlanadi;

–*frazologiyada* tilning lugʻat boyligidagi koʻchma maʼnoli turgʻun konstruksiyalar - frazemalar xususida bahs yuritiladi.

Tilning leksik, fonetik va grammatik sathlari ham oʻzaro bogʻliqdir: fonetik birliklar soʻzni borliq tusiga kiritadi, morfemalar yasama soʻzlarni shakllantiradi, soʻzlarning birikuvchanlik imkoniyatlari, uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlari ularning leksik va grammatik maʼnolariga hamda uslubiy semalariga tayanadi. Bular leksikologiyaning fonetika, morfemika, soʻz yasalishi, grammatika va uslubshunoslik (stilistika) bilan aloqada boʻlishini taqozo qiladi. Soʻz tilning eng muhim nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-taʼm, hajm-miqdor, xislat kabi belgixususiyatlarni nomlaydi: daraxt (predmet nomi), ong (mavhum tushuncha nomi), ishlamoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), shirin (maza-taʼm nomi), katta (hajm nomi), besh (miqdor nomi) kabi. Tilning lugʻat boyligidagi bunday soʻzlar leksik birliklar sanaladi. Tilda nomlash xususiyatiga ega boʻlmagan, binobarin, leksik birlik sanalmaydigan soʻzlar ham bor, ular faqat grammatik yoki modal maʼnolarni ifodalaydi, shunga koʻra grammatik soʻzlar yoki morfema-soʻzlar hisoblanadi: yordamchi soʻzlar, modal soʻzlar, taqlidiy soʻzlar, undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir. Bular tilshunoslikda ifodalovchi soʻzlar (undovlar, modal soʻzlar, yuklamalar), koʻrsatuvchi soʻzlar (bogʻlovchilar, koʻmakchilar), olmoshlovchi soʻzlar (olmoshlar) va atovchi soʻzlar (atoqli otlarning maʼlum turlari) kabi guruhlariga ajratiladi. Leksik mazmunli soʻzlar *leksikologiyada*, grammatik mazmunli soʻzlar esa *grammatikada* (soʻz turkumlari bilan bogʻlab) oʻrganiladi. Tilshunoslikda leksik mazmunli soʻzlarning strukturasi har xil taʼriflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli soʻzlarning ifoda plani (tovushlardan tarkib topgan moddiy tomoni) leksema deb, mazmun plani (ifodalanuvchisi) esa semema deb taʼriflanadi. Demak, leksema va semema leksik birlikning (soʻzning) oʻzaro aloqada boʻlgan ikki tomoni ekanligi aytiladi. Boshqa manbalarda esa leksema soʻzning ifoda planigina emas, balki uning ifoda ya mazmun planlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi taʼkidlanadi. Bu butunlik nominativ funksiyadagi soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida boʻladi. U onomasiologiyada tilning lugʻat tarkibidagi bir komponent (vokabula) sifatida,

semasiologiyada esa ma'lum ma'nolar tarkibidan iborat birlik (semantema) sifatida o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida leksemaning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi keng tarqalgan, bunda uning ifoda plani (tovush tomoni) nomema termini bilan, mazmun plani esa semema termini bilan nomlanmoqda. Mazkur darslikda ham shu an'anaga amal qilindi. Har qanday til qurilishida so'z va so'zlar majmuasi muhim rol o'ynaydi. Zero, tilni so'zlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Shu sababli bo'lsa kerak, Kopengagen tilshunoslik maktabining asoschilaridan biri L. Yelmslyev tilni bir butun organizmga, so'zlar majmuasini, ya'ni lug'at tarkibini esa tilning tanasiga o'xshatgan edi. Leksikologiya – tilshunoslikning yirik va asosiy sohalaridan biri. Bu atama grek tilidan olingan: “lexikos” so'z, “logos” ta'limot, ya'ni “so'z haqida so'z”, “so'z haqida ta'limot” ma'nolarini bildiradi. Shuning uchun leksikologiyada tilning so'z boyligi o'rganiladi. Uni lug'at tarkibi yoki leksika ham deyiladi.

Leksika atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) tildagi barcha so'zlar yig'indisi, majmuasi, ya'ni tilning lug'at tarkibi; 2) tilshunoslikning ana shu lisoniy boyligini o'rganuvchi sohasi, ya'ni fan tarmog'i (bu o'rinda leksika – leksikologiya atamasining dublet muqobili). Tilning boyligi uning lug'at tarkibidagi (leksikasidagi) so'zlar miqdori bilan belgilanadi. Unda so'zlar miqdori qancha ko'p bo'lsa, til ham shuncha boy bo'ladi. Lug'at tarkibi (leksika) davrlar osha o'zgarib turadi. Bu o'zgarish undagi so'zlar miqdorining o'zgarishi bilan belgilanadi. Masalan, 1981-yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati”da o'zbek adabiy tilida mavjud 60 ming so'z sharhlangan bo'lsa, 2006–2008-yillarda Toshkentda besh jildda nashr etilgan “Izohli lug'at”da 80 mingdan ortiq so'z va so'zga tenglashuvchi lisoniy birliklar sharhlangan. Demak, hozirgi o'zbek leksikologiyasi 80 mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olgan lug'at tarkibi (leksikasi)ni o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida bir qancha ichki bo'lim va tarmoqlardan tarkib topadi. Semasiologiya, onomastika, etimologiya uning asosiy bo'limlaridir. Shuningdek, leksikologiyaning hozirgi (tasviriy) leksikologiya, tarixiy leksikologiya, dialektal leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, sistemstruktur leksikologiya kabi turlari mavjud. Bu bo'lim va turlarning har biri o'zining alohida-alohida o'rganish obyektiga ega. Chunonchi, semasiologiyada lug'aviy birliklarning mazmun jabhasi bilan aloqador masalalari o'rganiladi. Shakl va ma'no nomutanosibligi (asimmetriyasi) bilan bog'liq ma'nodoshlik, ohangdoshlik, shakldoshlik leksikologiyaning ana shu bo'limi mundarijasiga kiradi. Nomlash, atash jarayonlari va ularning natijasi bilan aloqado barcha masalalar, xususan, atoqli otlar va ularning vujudga kelishi kabilar onomastikaning o'rganish obyektidir. Leksikologiyaning turlari ham biri boshqasidan

o'z mundarijas va uning tavsifi bilan farq qiladi. Chunonchi, tasviriy (hozirgi) leksikologiyada tilning muayyan davrga xos lug'aviy birliklari tizimi o'rganiladi. Leksikologiyaning bu turi sinxron leksikologiya deb ham ataladi. Tarixiy leksikologiya – tasviriy (sinxron) leksikologiyaning aksi. Til tarixiy taraqqiyotining o'tmish bilan bog'liq lug'at tarkibi leksikologiyaning shu turida o'rganiladi. Uni diaxron leksikologiya deb ham ataladi. Qiyosiy leksikologiya o'zaro qardosh yoxud qardosh bo'lmagan tillarning lug'at tarkibini, uning muayyan bir qatlamini qiyosan o'rganuvchi sohadir. Qiyosiy leksikologiyaning ham tasviriy (sinxron) va tarixiy (diaxron) jabhalari mavjud. Sistem-struktur leksikologiya lug'aviy hodisalarning bevosita kuzatishda bo'lmagan mavhum va ilmiy bosqichga xos tomonlarini o'rganadi. Shunday qilib, leksikologiya tilning o'ziga xos tizim xarakterini kasb etuvchi lug'at tarkibini o'rganadi. Sistem, ya'ni tizim xarakterini kasb etuvchi lug'at tarkibining markazida so'z turadi. Zero, so'z leksikologiya o'rganadigan asosiy birlik hamdir. So'zlar majmuasidan iborat tizim, sistema, biri boshqasi bilan organik bog'liqlikdagi uch ichki "qatlam"dan tarkib topadi. Bu "qatlam"lar mikroqurilma, medioqurilma va makroqurilma atamallari bilan nomlanadi. Mikroqurilma – bu ayrim so'zlar anglatgan har xil ma'nolarning o'zaro munosabatlaridir. Tilda polisemantik so'zlar va ular anglatgan ma'nolar bir butunlikda lug'at tarkibining mikroqurilmalari hisoblanadi. Medioqurilma tilning shakl va mazmun nomutanosibligini ro'yobga chiqaruvchi omonimiya, paronimiya, omografiya, omofoniya, sinonimiya va antonimiya singari hodisalar munosabatini o'z ichiga oladi. Makro qurilma – bu lug'at tarkibidagi mazmuniy (sinonimiya) va mavzuiy guruhlardan tarkib topadi. So'zlarning muayyan bir ma'no atrofida guruhlanishi, masalan, sekund, minut, soat, ertalab, tush payti va bosh vaqt ma'nosi doirasida tutashuvchi mikroguruhdir. Bunday mikroguruhlar mazmuniy maydon deb ham ataladi. So'zlarning muayyan mavzu doirasida birlashuvi, tutashuvi ham makroqurilmaning alohida ko'rinishi sanaladi. Masalan, ot, ho'kiz, echki, qo'y va sh.k. uy hayvonlari mavzuiy (tematik) guruhiga mansub so'zlardir. Xullas, leksikologiya tildagi so'zlarni, ularning majmuasini turli tomonlardan o'rganuvchi sohadir. U tilshunoslikning boshqa barcha sohalari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Xususan, fonetika, so'z yasalihi, morfologiya, sintaksis, stilistika va uning hodisalarini so'zlarsiz tasavvur etish qiyin: fonetikada so'zlarning tovush tarkibi o'rganilsa, so'z yasalihiida yangi lug'aviy birliklarning hosil bo'lishi o'rganiladi. Morfologiyada lug'aviy birliklar muayyan shaklga kiradi va boshqa so'zlar bilan munosabatga kirish imkoniyati paydo boldi. Leksikologiya va psixologiya o'rtasidagi aloqalar ayniqsa kognitiv psixologiya sohasida kuchli ifodalanadi. Psixologlar so'zlarning miyasidagi o'rni, ularning ma'nosi va tuzilishini

o'rganadilar. Leksikologiya, o'z navbatida, tilning tuzilishini va so'zlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilib, psixologlar uchun tilni tushunish va so'zlarni eslab qolish jarayonlarini izohlashga yordam beradi. Masalan, so'zning semantik xususiyatlari va uning tasviriyl obrazlari (imagery) psixologik jihatdan qanday qabul qilinishi mumkinligini tahlil qilishda leksikologiya katta rol o'ynaydi. Falsafa va leksikologiya o'rtasidagi bog'lanish so'zlarning ma'nosi va ular bilan bog'liq anglashlar (concepts) haqida fikr yuritishda namoyon bo'ladi. Falsafiy so'zlarning semantikasi va ma'nolari ko'pincha abstrakt va chuqur bo'lib, leksikologiya yordamida bu so'zlarning turli qatlamlari va ularning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Falsafiy so'zlar, masalan, "haqiqat", "adil", "yaxshilik" kabi tushunchalar til va til orqali ifodalangan anglashlar sifatida leksikologiyada muhokama qilinadi. Kompyuter fanlari va sun'iy intellektning leksikologiya bilan aloqasi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida alohida ahamiyatga ega. Leksikologiya, so'zlar va ularning ma'nolarini analiz qilish orqali kompyuterlarga tilni tushunish va ishlov berish imkonini beradi. NLP tizimlari, masalan, semantik tahlil, sintaktik tahlil va kontekstual tushuncha yaratish kabi jarayonlarda leksikal ma'lumotlarga asoslanadi. Shu tarzda, kompyuterlar tilni o'rganib, insonlar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan leksikal tuzilmalarni shakllantiradilar. Leksikologiya bilan bog'liqligi, tilning jamiyatdagi ijtimoiy rollari va funktsiyalarini o'rganishda ko'rinadi. So'zlar jamiyatda qanday ishlatilishi, qanday ma'nolarni anglatishi va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar leksikologiya orqali tahlil qilinadi. Masalan, har bir ijtimoiy guruh o'ziga xos terminologiyani yaratadi, bu esa jamiyatda tilning sotsiokultural xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Leksikologiya jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni va guruhlar o'rtasidagi farqlarni ham ochib beradi. Antropologiya va leksikologiya o'rtasidagi aloqalar til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tushunishda muhimdir. Antropologlar, leksikologiya yordamida biror jamiyatdagi so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganib, madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashadi. So'zlar, ma'lumotlarni uzatishda va madaniy tajribalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, leksikologiya madaniyatning ma'naviy va ijtimoiy qirralarini o'rganishda yordam beradi.

Filologiya til va adabiyotlarni o'rganadigan fan bo'lib, leksikologiya bu sohada eng asosiy tushunchalardan biridir. Filologlar, qadimiy va zamonaviy til materiallarini tahlil qilishda leksikal ma'lumotlardan foydalanadilar. Ular so'zlarning tarixiy o'zgarishlarini, ma'no qamrovlarini va adabiy asarlardagi til xususiyatlarini leksikologiya yordamida izohlashadi. Filologiya tarixiy, stilistik va poetik tahlillari leksikologiya bilan bevosita bog'liqdir. Leksikologiya, o'zining

tilshunoslikdagi o'rni bilan cheklanib qolmay, boshqa bir qancha fanlar bilan o'zaro aloqalar o'rnatadi. Psixologiya, falsafa, kompyuter fanlari, sotsiologiya, antropologiya va filologiya kabi sohalar leksikologiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, har biri tilning ma'nolari, tuzilishi, va uning jamiyatdagi roli haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi, bilimlarning birlashuvi va kompleksligi orqali yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. T.: Musiq. 2009.
2. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992.
3. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi“, 4.
4. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili . T. , —Sharq, 2013.
5. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , —Iqtisodiyot, 2012.
6. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. — 2022. — Т. 2. — №. 1. — С. 91-93.
7. N.Abdullayeva. O'zbek va turk tillaridagi —mi yuklamasining qiyosiy talqini. O'zbek tili va adabiyoti, 2014 — yil.

RANG BILAN BOG'LIQ TIBBIY TERMINLAR GRAMMATIKASI

KAMALOVA GULSANAM BAHODIR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2– bosqich talabasi

kamalovagulsanam199@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek tilining lug'at fondida iste'molda bo'lgan tibbiy terminlar orasida rang bilan bog'liq lug'aviy birliklar ma'lum foizni tashkil etadi. Rang bilan bog'liq tibbiy terminlarning yuzaga kelishida, dastavval, kasallikning klinik belgilari, ko'rinishi nazarda tutilsa, so'ngra kasallikning yuzaga kelishi, davri, oqibati bilan bog'liq xalq qarashlari muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada rang bilan bog'liq bo'lgan tibbiy terminlarning yuzaga kelishida o'zbek tilining morfologiyasi, lingvokulturologiyasi va ularning o'ziga xosligi, shuningdek, kasalliklarning rang bilan bog'liq holda nomlanishiga olib keluvchi lingvistik jarayonlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy terminlar, rang, milliy-madaniy xususiyat, lug'at, bemor, lingvokulturologiya, kasallik etimologiyasi, semantika, so'z, morfologiya.

Annotation: Among the medical terms used in the vocabulary of the Uzbek language, lexical units related to color make up a certain percentage. In the emergence of medical terms related to color, first of all, the clinical symptoms and appearance of the disease are taken into account, and then folk views on the occurrence, period, and consequences of the disease play an important role. This article studies the morphology, linguoculturology of the Uzbek language and their specificity in the emergence of medical terms related to color, as well as the linguistic processes leading to the naming of diseases related to color.

Keywords: medical terms, color, national-cultural feature, dictionary, patient, linguoculturology, etymology of the disease, semantics, word, morphology.

Аннотация: Среди медицинских терминов, используемых в лексике узбекского языка, определенный процент составляют лексические единицы, связанные с цветом. При возникновении медицинских терминов, связанных с цветом, в первую очередь учитываются клинические симптомы и внешний вид заболевания, а затем важную роль играют народные поверья о возникновении,

продолжительности и последствиях болезни. В данной статье рассматриваются морфология, лингвокультурология и специфика узбекского языка в возникновении медицинских терминов, связанных с цветом, а также языковые процессы, приводящие к наименованию болезней в зависимости от цвета.

Ключевые слова: медицинские термины, цвет, национально-культурная характеристика, словарь, пациент, лингвокультурология, этимология болезни, семантика, слово, морфология.

Ma'lumki, o'zbek xalq tabobati o'zining qadimiy va milliy-madaniy an'analariga ega. Toki bugungi kunga qadar ro'y bergan va hozirda davom etayotgan tarixiy-madaniy o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tabiiy ravishda, avvalo, tilimizning leksikasida o'z aksini topadi. Ya'ni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yangi-yangi so'z, tushuncha va terminlar, jumladan, tibbiy terminlarning yuzaga kelishida o'zbek tili o'ziga xos madaniyat o'chog'i sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilining lug'at fondi – terminalogiyasida rang bilan bog'liq tibbiy terminlar bir nechta bo'lib, ularning o'ziga xos kelib chiqish tarixi, ya'ni etimologiyasi, milliy-madaniy xususiyatlari va boshqa tillardan farq qiladigan so'z shakllari – morfologiyasi bor. O'zbek tilida tibbiy terminlarni ana shunday alohida guruhlariga ajratib, o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilida tibbiy terminlarlarning lingvokulturologik xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, terminlarga til madaniyati va nutq madaniyati bilan o'zaro aloqador hodisalar sifatida yondashuv ko'pgina masalalar, jumladan, tildagi terminlarning semantik va tarixiy-etimologik taraqqiyoti masalasiga aniqlik kiritishda muhim omil bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har bir til umumxalq tajribasi va madaniy merosini o'zida saqlovchi, tarixiy-madaniy voqea-hodisalar hamda ularning taraqqiy etish jarayonlari va yo'llarini o'zida aniq ifodalovchi betakror kommunikativ va nominativ manba vazifasini bajaradi. Yuqoridagi fikrimizni rus tilshunosligining quyidagi ba'zi ilmiy-nazariy manbalari ham tasdiqlaydi :

“Har bir madaniyat o'zida umuminsoniy tafakkurning muayyan timsollarini tanlab aks ettiradi”³⁶, “Shunday predmet yoki voqea-hodisalar borki, ular tilning ijtimoiy mazmunida uzoq muddatga, shuningdek, predmet va hodisa o'rtasidagi munosabat tufayli sintaksisda umumiy va mavhum holda, matnlarning barcha shakllarida qattiq o'rnashib qoladi”³⁷.

¹Sayaxova L.G. Lingvokulturologiya. UFA : 2006.

²Maslova V.A. “Введение в лингвокультурологию”. Moskva: 1997

O'zbek tili leksikasidagi tibbiy terminlar genezisi, tuzilishi va semantikasiga ko'ra xilma - xil bo'lib, muayyan shakllanish jarayonini bosib o'tgan. O'zbek tilining lug'at fondida iste'molda bo'lgan tibbiy terminlar orasida rang bilan bog'liq lug'aviy birliklar ma'lum foizni tashkil etadi. Rang bilan bog'liq tibbiy terminlarning yuzaga kelishida, dastavval kasallikning klinik belgilari, ko'rinishi nazarda tutilsa, so'ngra kasallikning yuzaga kelishi, davri, oqibati bilan bog'liq xalq qarashlari muhim o'rin tutadi. Masalan:

Ko'kyo'tal kasalligi - o'tkir infeksiyon kasallik³⁸. Ketma-ket qattiq yo'tal tutishi bilan kechadi. Kalta tayoqcha shaklidagi bakteriyalar qo'zg'atadi. Kasal bola aksirganda, yo'talganda havoga tarqalgan mayda balg'am va shilliq tomchilardagi ko'kyo'tal tayoqchasi sog'lom bolaning nafas yo'llari orqali organizmga kiradi (infeksiyaning havo-tomchi yo'li bilan yuqishi).

Kasallik bemorga yaqin yurgandagina yuqishi mumkin, chunki ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisi chidamsiz va organizmdan tashqarida darrov o'ladi. Amalda kasallik tevarak-atrofdagi narsalar orqali yuqmaydi. Ko'pincha bir-besh yashar bolalarda uchraydi, ba'zan bir yoshgacha bo'lgan bolalar ham og'riydi. Ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisi bola organizmida 2-15 kun davomida hech qanday kasallik alomatlarini paydo qilmay (inkubatsion davr) turishi mumkin.

Keyin bola yo'tala boshlaydi. Yo'tal tutish davri kasallikning asosiy va doimiy alomati bo'lib, yo'tal ikkita-uchta qattiq yo'tal bilan boshlanadi, keyin bemor tinmay ketma-ket, kalta-kalta yo'talaveradi va nafasi ichiga tushib ketib, tovush yorig'i qisqarishi natijasida "g'iyq" degan tovush chiqadi. Keyin yana ketma-ket yo'tal tutadi. Kasallikning og'ir-yengilligi yo'talning qancha davom etishiga va qancha vaqtda qayta tutishiga bog'liq.

Go'daklarda yo'tal uzoq (2-3 minutga) cho'ziladi, chiyillagan tovush chiqarmay nafas olib, kalta-kalta yo'taladi. Yo'tal tutganda bolaning yuzi avval qizarib, keyin ko'karadi. Ko'zi yoshlanib, unga qon quyilishi mumkin, tili osilib ketadi, bo'yin tomirlari bo'rtadi.

Ko'kyo'tal termini ko'k va yo'tal so'zlaridan tarkib topgan, ya'ni *ko'k* – rangni anglatuvchi asliy sifat hamda *yo'tal* – kasallik nomini anglatuvchi mavhum otdan iborat. Bugungi kunda *ko'kyo'tal* termini o'zbek tili lingvokulturologiyasi nuqtayi nazaridan yo'talish bilan kechadigan, yo'tal tutganda, organizmda ko'karish, bo'yin tomirlarining ko'karib bo'rtishi, ya'ni boshqa yo'tallardan farq qiluvchi ko'k rang yoki ovoz asosga olinadigan.

³⁸Salomatlik ensiklopediyasi.Toshkent."Matbuot"-1983, 234-b.

Bu kasallik bemorning ko'inishi, rangi alomatiga ko'ra nomlangan. Ko'k rang kasallikning alomatlaridan biri bo'lsa-da, biroq bu yerda kasallikning umumiy nomini o'zida mujassamlagan va bugungi kunda tibbiyotda keng qo'llaniladi. Turkiy til taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir, alloma Alisher Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asarida *ko'k* so'zining quyidagi besh xil ma'nosi qayd etilgan³⁹:

Ko'k-osmon, 2) ko'k-ohang, 3) ko'k-ko'klam, 4) ko'k-qadoq, 5) ko'k-sabza. **Ko'k** - *moviy, zangori*. Qadimgi turkiy tilda shunday ma'noni va boshqa ma'nolarni anglatgan bu sifat asli *ko'k* tarzida cho'zib talaffuz qilingan, keyinchalik o'zbek tilida cho'ziqlik va yumshoqlik belgisi yo'qolgan⁴⁰.

Ko'kyo'tal kasalligi rus tili tabiati nuqtayi nazaridan *ko'k* rang bilan bog'lanmaydi. Bu yerda termin hosil qilishda o'zbek tilining naqadar aniq va mukammal ekanligi *ko'kyo'tal* termini misolida ko'rinadi. Ko'kyo'talning rus tilidagi nomi o'zbekcha asosdan shakllangan bo'lishi ham mumkin. Ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqi ko'kyo'talni davolashda o'ziga xos milliy-madaniy an'analardan kelib chiqib, ko'k qarg'aning patidan va go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardan foydalangan va ko'p hollarda shu yo'l bilan ushbu kasallikni daf etgan.

Sariq kasalligi - jigarda hosil bo'lgan bilirubin – o't pigmentining to'qimalarda to'planishi tufayli teri, ko'z oqi va shilliq pardalarning sariq tusga kirishi. Sariq kasalligi qonda biliburin miqdorining oshib ketishi natijasida paydo bo'ladi. Kelib chiqish sabablari va hosil bo'lish mexanizmiga ko'ra sariq kasalligi jigarda paydo bo'luvchi, mexanik va gemolitik xillarga bo'linadi.

Jigar (parenximaga oid) sariq kasalligi jigar hujayralarining infeksiya yoki toksin zaharlanishi natijasida paydo bo'lib, jigarda turli xil o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bilirubinni ichakka o'tkazadi: axlat rangi oqarib siydik to'qlashadi. Jigar sariq kasalligi aksariyat Botkin kasalligi (virusli gepatit) tufayli shuningdek, jigar hujayralarining alkogol ta'sirida zaharlanishi oqibatida kelib chiqadi.

Mexanik sariq kasalligi o't (safro)ning o't yo'llaridan o'ta olmasligi, masalan, o't pufagida toshlar paydo bo'lishi natijasida o'tning ichakka o'ta olmasligi va shu tufayli o't yo'llarida to'xtab qolgan safrodagi bilirubin to'g'ridan-to'g'ri qonga o'tib ketishi sababli kelib chiqadi. Gemolitik sariq kasalligida eritrotsitlarning parchalanishi odatdagidan ancha tez va bilirubinning qondagi miqdori ko'p bo'ladi.

Odatda, avval kovz oqi, keyin yumshoq tanglayning shilliq pardasi, til osti va teri sarg'ayadi. Sariqlikning kuchli-kuchsizligi qondagi bilirubin miqdorining ko'p-

³⁹Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn. MAT.16-tom. Toshkent: Fan – 2000-yil, 18-b.

⁴⁰Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: "Universitet", 2000

kamligiga bog'liq. Sariq kasalligida, ko'pincha teri qichishadi, chunki o't kislota teridagi periferik nerv tolalarini qo'zg'atadi. 2-3 kunlik chaqaloqlarda, ko'pincha jigar funksiyasidagi vaqtinchalik yetishmovchilik natijasida badan sarg'ayishi - fiziologik sariqlik kuzatiladi.

Xalq jonli tilida qisqartirib, *sariqlatma* yoki *sariq* deb ham yuritiladi. Qo'llanishiga ko'ra *sariqlatma* so'zi birmuncha to'g'riroq, chunki *sariqlatma* buyruq fe'li kasallikni ko'p o'tkazib yuborma, degan ma'noda ishlatilgan. Agarda bemor tanasida sariq rang ko'payib, kasallik kuchayib ketsa, bu xavfli degani. Sariq rang deganda, biror narsaning oq rangdan qizil rangga o'tish jarayonidagi oraliq ranglar tushuniladi, ya'ni oq rangning qizarish jarayoni.

Shuning uchun sariq sifatining o'zida belgi *och sariq, sarg'ish, sariq, qizg'ish sariq, sariqroq* va *to'q sariq, juda sariq, sap-sariq* singari darajalanadi. Agarda, sariq kasalligining o'ziga xos belgilarini tahlil qilsak, bemorda, avval ko'zining oqi, so'ngra tanglay, tilning osti va tana terisi sarg'ayadi, ya'ni sariq tusga kiradi. *Sarg'aymoq* fe'li sariq rang, belgi sifatining quyidagi buyruq shaklidan paydo bo'lgan: *sariq + ay*.

Sariq – *somon rangli*. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat *sarig'* tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida **g'** undoshi **q** undoshiga almashgan. Bu so'z oxiridagi **-q (-iq)** qismi – sifat yasovchi qo'shimcha, lekin **sari-** (**sar-**) qismining ma'nosini izohlash qiyin. Bu qism "sariq holatga aylan" ma'nosini anglatuvchi fe'l. Ko'pchilik turkiy tillarda bu sifatning **sari** shaklida mavjudligi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Rus tilida ham *sariq kasalligi* rang bilan bog'liq holda talqin etiladi. Bu esa ikki har xil til oilalari o'rtasida aynan bir xil termin yuzaga kelganini, kasallikning madaniy-tarixiy etimologiyasi bir-biriga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Qizilcha – o'tkir yuqumli kasallik, gavda temperaturasining ko'tarilishi, bir oz kataral holatlar (tumor, yo'tal), ensa limfa tugunlarining kattalashishi va og'rishi hamda teriga toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi. Qizilchani virus qo'zg'atadi. Bemor yo'talganda, aksirganda, gaplashganda balg'ami, so'lagi tarkibidagi virus havoga tushadi, so'ngra sog'lom odamning nafas yo'llari orqali uning organizmiga kiradi (infeksiyaning havo-tomchi yo'li bilan yuqishi). Qizilcha barcha yoshdagi kishilarga yuqishi mumkin, biroq, ko'pincha 2-10 yoshgacha bo'lgan bolalar og'riydi. Kasallikdan keyin organizmda turg'un immunitet qoladi.

Qizilcha bilan og'rigan bemorlar toshma toshishidan 2 kun oldin va toshma yo'qolib ketguncha yuqumli bo'ladi. Qizilcha virusi organizmda 16-21 kun mobaynida kasallik belgilarini paydo qilmay turishi mumkin (*inkubatsion davr*). Kasallik

boshlanishidan oldingi davr (prodromal davr) bir oz tumov va yo'tal bilan namoyon bo'lib, aksari sezilmay qoladi.

Bu belgilar bilan bir vaqtda yoki 1-2 kun keyin yuzga va badanning hamma joyiga och pushti mayda-mayda dog'lar toshadi. Toshma 2-3 kundan keyin hech qanday asoratsiz qaytadi⁴¹.

Qizilcha termini *qizil* – asliy sifatga **-cha** – kichraytirish, erkalash oti yasovchisini qo'shish bilan hosil bo'lgan. *Qizilcha* kasalligi kishi badaniga qizil rangli (och pushti) mayda dog'lar toshishi bilan kechadigan kasallik. Ko'rinib turibdiki, kasallikning nomi shu qizil rang bilan bog'liq.

Qizil leksemasi belgini ifodalovchi asliy sifat bo'lib, ayni paytda, kasallikning nomini anglatadi. O'z-o'zidan ma'lumki, sifat so'z bu yerda ot yasovchi qo'shimchani olib, otlashgan va yuqorida ta'kidlanganidek, tilning nominativ vazifasini yuzaga chiqargan. Hozirda *qizilcha* so'zidagi belgi ma'nosiga hodisani nomlash, voqelikni ifodalash ma'nosi ham qo'shilgan. Negaki, qizil rang bilan bog'liq kasallikning nomini o'zida mujassamlayapti. So'z ma'nolarining o'zgarishi nuqtayi nazaridan bu yerda qizil so'zi sifat turkumidan chiqib, ot turkumiga, ya'ni bir turkum doirasidan ikkinchi bir turkum doirasiga o'tgan. Otlashish hodisasi yuz bergan.

QIZIL – *qon rangidagi, alvon*. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat asli *qizil tus ol* ma'nosini bildirgan **qiz** fe'liga -(i) qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Keyinchalik, unlilarning qattqlik belgisi yo'qolgan⁴².

O'zbek tilida *qizilcha kasalligi* qizil rang bilan bog'liq holda talqin etilgan, biroq rus tilida berilgan yuqoridagi izohlarda kasallik qizil rang bilan bog'lanmaydi. Bu esa o'zbek tilining o'ziga xos termin hosil qilish morfologiyasidan dalolat beradi.

Xulosa:

1. Terminlarning yuzaga kelishi, etimologiyasi, tarixiy va madaniy rivojlanishi, ayniqsa tibbiyot sohasida ko'pgina kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va davolashda muhim rol o'ynaydi.

2. Ayniqsa, tibbiyot sohasida kasallikning nomlanishini yaxshi bilmasdan turib, uning o'ziga xos xususiyatlarini farqlab olish mushkul. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tilida rang bilan bog'liq tibbiy terminlarning ham ushbu masalada o'z o'rnini bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁴¹Salomatlik ensiklopediyasi. – Toshkent: Matbuot, 1983-yil, 510-b.

⁴²Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000-yil, 539-b.

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul lugʻatayn. MAT.16-tom. – Toshkent: “Fan”, 2000
2. Maslova V.A. Vvedenie v lingvokulturologiya. – Moskva: 1977
3. R.Rasulov, B.Suyunov, Q.Moʻydinov Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. Toshkent, 2010
4. Raxmonov N. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy taʼlim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori dis. avtoref. – Toshkent: 2019
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. – Toshkent: “Universitet”, 2000
6. Salomatlik ensiklopediyasi. – Toshkent: “Matbuot”, 1983.
7. Sayaxova L.G. Lingvokulturologiya. Ufa: 2006.

ALISHER NAVOIY IJODIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI

KAMOLA IBRAHIMOVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 4-kurs talabasi

ibrohimovakamola@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari keng tahlil qilinadi. Shoir asarlarida insonning ma'naviy barkamollikka intilishi, adolat, mehr-oqibat, saxovat, ilm va ezgulik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Navoiy ijodi nafaqat o'z davrining ma'naviy manzarasini aks ettirgan, balki bugungi zamon uchun ham ibrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada Navoiy asarlarida inson qadr-qimmati va uning komillikka intilishi g'oyalarining badiiy ifodasi tahlil etilgan

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, insonparvarlik, adolat, ma'naviyat, axloq, komillik, ezgulik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются гуманистические идеи великого узбекского поэта, мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои. В его произведениях центральное место занимают такие понятия, как стремление человека к духовному совершенству, справедливость, милосердие, щедрость, знание и добродетель. Творчество Навои отражает не только духовную атмосферу своего времени, но и служит источником вдохновения для современного поколения. В статье анализируются гуманистические идеи и художественное выражение ценности человека в произведениях поэта..

Ключевые слова: Алишер Навои, гуманизм, справедливость, духовность, мораль, совершенство, добродетель.

Alisher Navoiy (1441–1501) o'zbek adabiyoti va madaniyatining eng buyuk namoyandalaridan biridir. Uning ijodi o'z davrida ham, keyingi asrlarda ham insonparvarlik, adolat va ma'naviy komillik g'oyalarining ifodasi sifatida qadrlanadi. Navoiy o'z asarlarida insonni yaratuvchining eng mukammal mavjudoti sifatida ulug'laydi. Shoirning asarlarida insonning axloqiy va ma'naviy barkamollikka intilishi, boshqalarga yaxshilik qilish, adolatli bo'lish, ilm va ma'rifatga chanqoqlik kabi qadriyatlar asosiy mavzuga aylanadi. Navoiy hayoti va ijodi o'z zamonasining siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq edi. U faqat shoir emas, balki davlat arbobi, olim, tilshunos, tarixchi va eng muhimi, insonparvar

mutafakkir sifatida ham tanilgan. Uning g'oyalari bugungi kunda ham insoniyatni adolat, tinchlik, mehr-oqibat, ilm va ma'naviyat sari chorlab kelmoqda. Alisher Navoiy ijodining markazida insonparvarlik g'oyasi turadi. Uning asarlarida insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari, muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ulari chuqur falsafiy mazmunda tasvirlanadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Farhod obrazi mehnatsevarlik va fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi. Farhod o'z sevgisi yo'lida toshlarni teshib, suv chiqaradi – bu ramziy ma'noda insonning mehnat va fidoyilik orqali ezgulik sari intilishining badiiy ifodasidir. "Layli va Majnun" dostonida esa inson qalbining iztiroblari, pok muhabbat va ruhiy yuksaklik g'oyalari yoritiladi. Majnun obrazi orqali shoir inson qalbining nozik kechinmalarini, muhabbatning insonni ma'naviy yuksaltiruvchi kuchini ko'rsatadi. Bu asarda insonni ruhiy poklik, sadoqat va fidoyilik orqali komillikka eltuvchi yo'l sifatida muhabbat timsolida talqin etadi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida esa insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni, uning axloqiy va ma'naviy fazilatlari haqida chuqur fikr yuritadi. Asarda shoir insonni halollikka, saxovatga, sabr-toqat va adolatga chorlaydi. Uning fikricha, insonning haqiqiy qadri uning amallari, niyati va boshqalarga foyda keltira olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shoir o'z asarlarida jaholatni insoniyatning eng katta dushmani sifatida ko'radi. U ilmni nur, jaholatni esa zulmat deb ataydi. "Hayrat ul-abror" dostonida shunday satrlar bor: "Ilm bila yo'l topgan inson zulmatdan chiqur, jaholat esa uni halokatga eltadi". Bu fikrlar bugungi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yoshlarni ma'naviy barkamollikka undashda muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyasi ijtimoiy adolat masalalari bilan ham bog'langan. U hukmdorlarni xalq dardiga befarq bo'lmaslikka, adolatni qaror toptirishga chaqirgan. Shoirning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazida adolatli hukmdor timsoli yaratilgan bo'lib, bu orqali Navoiy davlat boshqaruvida adolatning ustuvor bo'lishini targ'ib qiladi. Navoiy g'oyalari o'z davridan tashqariga chiqib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Insoniyat texnologik rivojlanish sari borar ekan, ma'naviy qadriyatlarning yo'qolmasligi uchun Navoiy merosini o'rganish va undan ibrat olish muhimdir. Shoirning insonparvarlik haqidagi fikrlari hozirgi yosh avlodni axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi insonparvarlik, ezgulik, adolat va ilm-ma'rifat g'oyalari bilan yo'g'rilgan. U o'z asarlari orqali insonning ruhiy poklanishiga, ma'naviy komillikka va adolatli jamiyat qurishga da'vat etadi. Navoiy insonni eng oliy mavjudot sifatida ulug'lagan, uning axloqiy va ma'naviy barkamolligini insoniyat taraqqiyotining asosiy sharti deb bilgan. Bugungi kunda Navoiy asarlari yosh avlodni

ma'naviy barkamollikka, insoniy fazilatlarni qadrlashga va komillikka intilish ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
2. Fitrat A. Navoiy haqida maqolalar. – Toshkent: Fan, 1970.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Jo'raev N. Alisher Navoiy falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2011.
5. Suyunov M. Alisher Navoiy tafakkuri va zamonaviylik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016.
6. To'xtaboyev A. Navoiyda inson konsepsiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.

ONA TILI TA'LIMIDA SO'Z YASALISHINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA O'QITISH

KARIMOVA SEVINCH UMAR QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

sevinchkarimova1909@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida so'z yasalishini o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish masalasi yoritilgan. Raqamli ta'lim platformalari, gamifikatsiya, mind-mapping, STEAM yondashuvi va flipped classroom metodlari asosida so'z yasovchi qo'shimchalarning o'rgatilishi hamda ularni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash yo'llari misollar yordamida tahlil qilingan. Maqolada interfaol metodlar orqali o'quvchilarning faolligi, lug'at boyligi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: so'z yasalishi, qo'shimcha, ona tili ta'limi, zamonaviy metodlar, gamifikatsiya, mind-mapping, STEAM, flipped classroom, interfaol ta'lim, raqamli platforma.

Annotation: This article examines the use of modern methods in teaching word formation in native language classes. It analyzes, through examples, the application of digital educational platforms, gamification, mind-mapping, the STEAM approach, and the flipped classroom method in teaching word-forming affixes and their practical usage. The article highlights the potential of interactive methods to increase student engagement, enrich vocabulary, and foster creative thinking skills.

Keywords: word formation, addition, mother tongue education, modern methods, gamification, mind-mapping, STEAM, flipped classroom, interactive education, digital platform.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос использования современных методов в процессе преподавания словообразования на уроках родного языка. На примерах анализируется применение цифровых образовательных платформ, геймификации, mind-mapping, STEAM-подхода и метода «перевернутый класс» при изучении словообразующих аффиксов и их использование в практических заданиях. В статье раскрываются возможности интерактивных методов по повышению активности учащихся, обогащению их словарного запаса и развитию творческого мышления.

Ключевые слова: словообразование, сложение, обучение на родном языке, современные методы, геймификация, ментальные карты, STEAM, перевернутый класс, интерактивное образование, цифровая платформа.

Ona tili darslarining mazmuni o'quvchilarda nafaqat til qoidalarini bilish, balki ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini ham shakllantirishi zarur. Tilning barcha bo'limlari qatori so'z yasalishi bo'limi ham o'quvchilarning nutqiy salohiyatini boyitishda muhim o'rin tutadi. Chunki yangi so'z yasash, uning ma'nosini anglash, nutqda o'rinli qo'llash o'quvchining til sezgisi, lug'at boyligi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. O'quvchilarning qiziqishini oshirish, mavzuni samarali o'zlashtirish va o'z fikrini mustaqil bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Shu jihatdan, so'z yasalishini o'qitishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir.

Ona tili ta'limida so'z yasalishi bo'limi tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarda nafaqat til qoidalarini o'zlashtirish, balki ularni nutqda faol qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tilshunos olim A.Qodirovning ta'kidlashicha, so'z yasalishini o'rganish jarayoni o'quvchilarni "til birliklarining tuzilishi va ma'no o'zgarish jarayonlarini ilmiy asosda tushunishga olib keladi". Shu bois, mazkur bo'limni o'qitishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Raqamli ta'lim platformalari bugungi kunda samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, Kahoot, Quizizz yoki Wordwall dasturlarida o'quvchilar uchun so'z yasovchi qo'shimchalarga oid mashqlarni interfaol tarzda tashkil etish mumkin. Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan ishlab chiqilgan "Bilimlarni taksonomiyasi"da ta'kidlanishicha, raqamli metodlar yordamida bilim olish jarayoni reproduktiv darajadan yuqori — ijodiy qo'llash bosqichigacha yetadi. Shu bois, raqamli o'yin asosidagi mashqlar o'quvchilarning tezkor fikrlashini rivojlantiradi va ularni faol bilim oluvchiga aylantiradi. Shuningdek, gamifikatsiya metodining samaradorligi ham alohida ta'kidlanadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda gamifikatsiya o'quv jarayonini motivatsion va qiziqarli qilishi, o'quvchilarda ichki rag'batni kuchaytirishi qayd etilgan (Deterding et al., 2011). So'z yasashda bu metoddan foydalanilganda, o'yin elementlari bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Masalan, dastlab "ish → ishchi, yoz → yozuvchi" kabi sodda misollardan boshlab, keyinchalik "-dor, -lik, -siz" qo'shimchalari asosida murakkabroq hosilalarni gap yoki matn ichida qo'llash talab qilinadi. Natijada, o'quvchilarda nafaqat

qo'shimchalarni farqlash, balki ulardan nutqda samarali foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Keyingi dolzarb yondashuvlardan biri bu mind-mapping (aql xaritasi) metodidir. Buzan (2006) ta'rifi ko'ra, aql xaritasi inson tafakkurini tizimlashtirish va g'oyalarni mantiqiy bog'lashning samarali usuli sanaladi. Masalan, "yoz" so'zidan yozuvchi, yozuv, yozilmoq, yozgi, yozma kabi hosilalar turli rang va shakllar yordamida ko'rsatiladi. Bu o'quvchilarda vizual idrokni kuchaytirib, qo'shimchalarning semantik xususiyatlarini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi. So'z yasashini o'qitishda STEAM yondashuvi ham o'zining integrativ xususiyati bilan alohida o'rin tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarda fanlararo bog'lanishlarni ochib berish orqali mavzuga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Masalan, "-dor" qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan kitobdor, gulador kabi so'zlar san'at fanida tasviriy materiallar bilan boyitilishi mumkin, "-gacha" qo'shimchasidan yasalgan maktabgacha, uyimgacha kabi so'zlar esa geografiya fanida xarita asosida tushuntiriladi. Natijada, til va boshqa fanlar o'rtasida uzviy aloqadorlik yuzaga keladi. Shuningdek, so'nggi yillarda keng tarqalgan flipped classroom (teskari sinf) metodi ham samarali natija beradi. Bergmann va Sams (2012) tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuvga ko'ra, o'quvchilar yangi mavzuni uyda videodars yoki elektron manbalar orqali o'zlashtiradilar, dars vaqtida esa asosan amaliy mashqlarni bajaradilar. Masalan, "-lik" qo'shimchasi haqida videodars uyga topshirilib, sinf mashg'ulotida o'quvchilar go'zallik, odoblik, sadoqatlilik kabi so'zlardan foydalanib matn tuzadilar. Bu metod dars vaqtini samarali tashkil etish va o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish imkonini beradi. Avvalo, ona tili ta'limida so'z yasash bo'limi tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida o'rin tutishini ta'kidlash lozim. Chunki bu bo'lim o'quvchilarda nafaqat til qoidalarini bilish, balki ularni og'zaki va yozma nutqda samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, yangi so'z hosil qilish, uning ma'nosini anglash va nutqda o'rinli ishlatish jarayoni o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish bugungi kun ta'lim talablari uchun yetarli emas. Shu bois, so'z yasashini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ayni muddaodir. Masalan, raqamli platformalardan foydalanish bu borada samarali natija beradi. Xususan, Kahoot yoki Wordwall dasturlarida so'z yasovchi qo'shimchalar asosida interfaol mashqlar tuzish o'quvchilarning faolligini oshiradi. Natijada, ular tezkor fikrlashni, qo'shimchalarning vazifasini farqlashni va ularni nutqda qo'llashni o'rganadilar. gamifikatsiya texnologiyasi ham e'tiborga molikdir. Chunki bu metod mashg'ulotlarga o'yin elementlarini olib kirib, o'quvchilarni bosqichma-bosqich

murakkablashuvchi topshiriqlar orqali rag'batlantiradi. Masalan, dastlab oddiy hosila so'zlar tuziladi: ish → ishchi, yoz → yozuvchi. Keyingi bosqichlarda esa murakkabroq qo'shimchalar: do'st → do'stlik, sabr → sabrsiz, kitob → kitobdor kabilar qo'llanadi. Shu tariqa, o'quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmaga ham ega bo'ladi. Shu bilan birga, mind-mapping (aql xaritasi) metodi ham so'z yasashini o'rgatishda samarali vosita sanaladi. Zero, bu metod qo'shimchalarning ma'nodagi o'zgarishini vizual tarzda ko'rsatib, o'quvchilar xotirasida mustahkam saqlanishini ta'minlaydi. Masalan, "kitob" so'zidan hosil bo'lgan kitobxon, kitobcha, kitobsiz, kitobdor kabi so'zlar aql xaritasi markazi atrofida joylashtirilganda, ularning semantik o'zaro bog'liqligi aniq ko'rinadi. Bundan tashqari, STEAM yondashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod so'z yasashni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganish imkonini beradi. Masalan, "-gacha" qo'shimchasidan yasalgan uyimgacha, maktabgacha kabi so'zlar geografiya darsidagi xaritalar bilan uyg'unlashtirilsa, mavzu yanada mazmunli bo'ladi. Shu o'rinda, flipped classroom (teskari sinf) metodining ham samarali ekani e'tirof etilishi lozim. Zero, bu metod orqali o'quvchilar uyda mavzuga oid videodarslarni o'zlashtirib keladi, sinfda esa ko'proq amaliy topshiriqlarga e'tibor qaratadi. Masalan, "-lik" qo'shimchasidan hosil bo'lgan go'zallik, mehribonlik, odoblik kabi so'zlardan foydalanib gaplar tuzish yoki kichik matn yozish topshiriqlari beriladi. Shu tariqa, dars jarayoni nafaqat tejamli, balki samarali bo'ladi. Xullas, yuqorida ko'rib chiqilgan zamonaviy metodlar o'quvchilarda til sezgisi, ijodiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir metodning o'ziga xos afzalligi mavjud bo'lib, ularni uyg'un holda qo'llash so'z yasashini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, so'z yasashini o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Har bir metod o'ziga xos afzalliklarga ega: raqamli platformalar tezkor fikrlashni shakllantirsa, gamifikatsiya o'quvchini rag'batlantiradi, mind-mapping mavzuni vizual tarzda esda qoldirishga yordam beradi, STEAM yondashuvi boshqa fanlar bilan integratsiyani ta'minlaydi, flipped classroom esa dars vaqtini samarali tashkil etadi. Eng muhimi, bu metodlar o'quvchilarni faqat qoidani yodlovchi emas, balki faol ishtirokchi va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov A., To'xliyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

2. G'ulomova X., Azizova D. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fani o'quv dasturi (5–9-sinflar uchun). – Toshkent, 2020.
4. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.
5. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006.

GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK MA'NO**KELDIYEVA MUXLISA OTABEK QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

muxlisauz2302@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan grammatika haqida umumiy tushuncha va uning tarkibiy qismlaridan grammatik ma'no grammatik shakl va grammatik kategoriyalar haqida so'z yuritiladi. Til hodisasini nazariy o'rganish bosqichi morfologik hodisaning cheksiz nutqiy ma'nosi zamiridagi lisoniy jihatini - umumiy grammatik ma'nosini tiklashni kun tartibiga qo'yimoqda.

Kalit so'zlar: grammatika, morfologiya, grammatik shakl, grammatik ma'no, grammatik kategoriya, lisoniy birlik.

Annotation. This article discusses the general concept of grammar, one of the current issues of the current Uzbek literary language, and its components: grammatical meaning, grammatical form, and grammatical categories. The stage of theoretical study of a linguistic phenomenon puts on the agenda the restoration of the linguistic aspect of the morphological phenomenon, which is rooted in the infinite speech meaning - its general grammatical meaning.

Keywords: grammar morphology, grammatical form, grammatical meaning, grammatical category, linguistic unit.

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие правила порядка и их механизмы, являющиеся одной из грамматических проблем современного узбекского литературного языка. Теоретическое изучение языкового явления – это общий аспект бесконечного речевого значения морфологического явления – общий аспект.

Ключевые слова: грамматика, морфология, грамматическая форма, грамматическое значение, грамматическая категория, языковая единица.

Ma'lumki, til kishilik jamiyatida fikr almashish quroli sifatida xizmat qiladi. Kishilarga fikr almashish imkoniyatini yaratib berish uchun har bir til ma'lum miqdordagi grammatik vositalarga ega bo'lishi kerak. Lekin gapning hosil bo'lishi uchun so'zlarning o'zi kifoya qilmaydi. Tilning to'g'ri va samarali ishlashi esa uning ichki qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu qonuniyatlarni chuqur

o'rganuvchi bo'lim grammatikadir. Grammatika til birliklarini tartibga solib, nutqni izchil, aniq va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bois grammatika tilshunoslikning markaziy sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Grammatika tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lib, tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasi ko'p qirrali va murakkabdir. O'tmishda grammatika to'g'ri yozish va gapirishga yordam beruvchi qonun va qoidalarni o'rgatadi deb tushunilgan. Bugungi kunda grammatika termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi. Grammatika deyilganda, birinchidan, tilning grammatik qurilishi, ikkinchidan, tilning grammatik qurilishi haqidagi fan tushuniladi. Ikkinchi ma'noda, grammatika so'zlarning ma'lum turkumlariga bo'linishi, ularning har biriga xos formalari haqidagi fandir. Grammatika bu tilshunoslikning tildagi so'zlar, so'z birikmalari, gaplar va matnlarning tuzilishini, ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limidir. Grammatika ushbu qonuniyatlarni umumiy qoidalar shaklida ifodalaydi va tilning to'g'ri, ma'noli nutqni shakllantirish usullarini o'rgatadi. Tilimizdagi so'zlarning ayrimlari ham leksik, ham grammatik ma'noni anglatadi. Tilimizdagi so'zlarning ko'pchiligi atash ma'nosiga ega. Til hodisasini nazariy o'rganish bosqichi morfologik hodisaning cheksiz nutqiy ma'nosi zahiridagi lisoniy jihatini – umumiy grammatik ma'nosini tiklashni kun tartibiga qo'ydi.[1:45]. Chunki «tilshunosligimizda grammatik ma'no, uning tabiati, mohiyati, umumiy va xususiy ma'no muammosi yaqin vaqtgacha maxsus qo'yilmagan edi». Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi muammosiga jahon tilshunosligida 30-yillarda, turkiyshunoslikda 60-yillardan boshlab S.N.Ivanov, V.G.Guzev, H.G'.Ne'atov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G'.N.Zikrillayev tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratildi. [2:86]. Masalan, qalam so'zining atash ma'nosi "yozuv quroli", sariq so'zining atash ma'nosi "rang", olti so'zining atash ma'nosi "miqdor nomi", "borma" so'zining atash ma'nosi "bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga tomon harakatlanmoq", "bugun" so'zining atash ma'nosi "nutq so'zlanib turgan kun" kabi ma'nolaridir. Masalan, "qalam" so'zi nima? degan so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir so'zlar guruhiga kiradi, birlik, kelishik ma'nolariga ega, gap ichida ma'lum bir vazifani bajaradi: Qalam (ega) topildi. Demak, so'zlarning qaysi guruhga mansubligi, shu guruh uchun umumiy bo'lgan turli ma'nolar va shu so'zning gap ichida ma'lum vazifa bajarishi grammatik ma'no deyiladi. Yuqoridagi qalam so'zi shaklida birlik va bosh kelishik ma'nolarini ifodalamoqda. Demak, har bir grammatik ma'no uchun mos shakl mavjud ekan. Ana shu shakllar grammatik shakl deb yuritiladi. Grammatik ma'no quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi: Qo'shimchalar yordamida: uyga ukam kelsa boraman. Yordamchi so'zlar vositasida: qalam bilan yozdi So'z tartibi orqali: keng ko'cha (birikma)- kócha keng (gap). Ohang yordamida: Dars tugadi (darak gap). Dars

tugadi! (undov gap). Soʻzlarni juftlash va takrorlash orqali: qozon-tovoq (jamlash ma'nosi). Urgʻu yordamida. Gullar (ot)- gullar (fe'l). Umumiy grammatik ma'no, demak, ham u, ham bu paradigmaga kira oladi, uni bir paradigma bilan cheklab bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda, bir vaqtning o'zida bir paradigmaga mansub bo'ladi. Umumiy grammatik ma'nosini «bir shaklning ikkinchi shaklga munosabati, ya'ni bir qator ziddiyat asosida keltirib chiqarish uni behad jo'nlashtirish bo'ladi, holbuki, paradigmatic shakl (grammatik kategoriya)ning munosabati rang-barangdir». Chunki shaklning bevosita munosabatlari asosida uning mohiyati emas, balki qandaydir alohida qirrasini ochiladi. Grammatik ma'no morfologik sathda soʻzlarning umumiy ma'nosi bo'lmish soʻz turkumlari (masalan, otlarda umumiy predmetlik, fe'llardagi jarayonlilik), shuningdek, har bir soʻz-shaklning ma'lum bir morfologik kategoriya doirasida qarama-qarshi qo'yiluvchi ma'nosi (masalan, zamon, shaxs-son, egalik, kelishik) sifatida yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, soʻz birikmasidagi hokim va tobe uzvlarning, gap bo'laklarining, gapning tema-rematik uzvlarning bir-biriga o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi.[3:112]. Keng ma'noda soʻz yasash hodisasi ham grammatik ma'noga daxldor. Chunki yasash natijasida soʻzning turkumlardagi o'rni o'zgarib ketadi. Bu esa ularning yangi grammatik tabiat kasb etganligini ko'rsatadi. Masalan, aql soʻzi «ot», «mavhum ot» grammatik ma'nolariga ega. Undan -li soʻz yasovchi shakli vositasida sifat yasalishi bilan, albatta, grammatik ma'noda ham katta o'zgarish yuz berdi.

Grammatik shakl bu - soʻzning biror grammatik ma'no ifodalaydigan ko'rinishi. Hozirgi o'zbek tilida soʻzlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi soʻzlar vositasida, soʻzlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga ko'ra soʻzlarning quyidagi grammatik shakllar farqlanadi: Grammatik shakl o'zi mansub grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini juz'iylashtirishi va qay darajada juz'iylashtirishi bilan umumiy grammatik ma'noga munosabatini bildiradi. Ma'lumki, grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisiga teng emas va ular orasida, odatda, tur-jins munosabati mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, grammatik shakl grammatik kategoriya umumiy grammatik, ma'nosini lisoniy sathda o'zicha juz'iylashtiradi hamda nutqiy sharoitga mos ravishda turli ko'rinishda muayyanlashtiradi. Soʻzning grammatik shakllari tuzilishiga ko'ra 3 xil: sintetik shakl, analitik shakl, aralash (analitik sintetik) shakl. Grammatik ma'noning qo'shimchalar orqali ifodalanishi sintetik shakli vujudga keltiradi. Sintetik shakl soʻz o'zgartiruvchi qo'shimchalar orqali: kitobni (o'qidim), kitobdan o'qidim, hamda shakl yasovchi qo'shimchalar orqali ko'kish, ko'kroq, ko'kimtir hosil boladi. Mustaqil soʻzlarning yordamchi soʻzlar bilan birgalikda ishlatilishi analitik shakl hosil qiladi. Masalan,

galam bilan, bog' tomon, uy sari kabi. Sozlarni takrorlash bilan hosil bo'ladigan shakl ham analitik shakldir: uyum-uyum, baland-baland, uzun-uzun. Sintetik shakl - Bu shakl shakl yasovchi affikslar yordamida hosil qilinadi: kitobni, kitobning, o'qimoqdamiz, o'qimoqdasan kabi. Analitik shakl - bu yordamchi so'zlar orqali hosil bo'ladi: bolalar kabi, zavq bilan, uy tomon kabi. Juft va takroriy shakl- ikki so'zni juftlash yoki bir so'zni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladi: tog' - tosh, katta- kichik juftlash ya'ni umumlashtirish ma'nosini, savat-savat (non), tog'-tog' (paxta) ko'plik ma'nosini ifodalaydi. Grammatik shakl va ma'no bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Shaklsiz ma'no, ma'nosiz esa shakl mavjud bo'la olmaydi. Ularning uyg'unligi natijasida so'z turkumlari farqlanadi, gapda so'zlar bir biriga to'g'ri bog'lanadi va nutqni grammatik jihatdan to'g'riligini ta'minlaydi.[4:78].

Grammatik shakl va grammatik ma'no tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan hisoblanadi. Ularning o'zaro munosabati til birliklarining shakl va mazmun jihatdan yaxlit tizim sifatida amal qilishini ta'minlaydi.[5: 34]. Grammatik shakl til birliklarining tashqi ko'rinishi bo'lsa, grammatik ma'no ana shu shakl orqali yuzaga chiqadigan umumiyashtirilgan mazmunni ifodalaydi. Masalan, son, kelishik, zamon kabi grammatik kategoriyalar tilning shakliy jihatini namoyon etsa, ular orqali beriladigan umumlashtirilgan ma'nolar grammatik mazmun sifatida namoyon bo'ladi. Kategoriya atamasi tishnosikka falsafadan kirgan termin U falsafada «obyektiv borligi va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani anglatadi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik xos bo'lishi shart. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun-qism, alohidaligini borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi. Bugung tishunosligimizda grammatik kategoriya atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyani tan olish ustuvor hisoblanadi. [6: 98]. Umuman, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsada xususiy hollarda, ya'ni sintaktik tekshirishlarda kategoriya tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi.

Grammatik shakl va grammatik ma'no doimo o'zaro uyg'unlikda faoliyat ko'rsatadi: shakl ma'noni moddiylashtirsa, ma'no shaklni mazmun bilan to'ldiradi. Ularning bu dialektik birligi tilning tizimlilik, izchillik va kommunikativlik kabi asosiy tamoyillarini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, grammatik shakl va grammatik ma'no bir-birini to'ldiruvchi ikki tomonlama hodisa sifatida til tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Ularning uyg'unligi natijasida so'zlar o'zaro bog'lanadi,

gaplar tuziladi va fikr izchil ifoda etiladi. Shu jihatdan bu tushunchalar tilshunoslik nazariyasi va nutqda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
3. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
5. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006.

TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL PURPOSES TO FUTURE TOURISM SPECIALISTS: THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS

KHAMITOV ELDORBЕК E.

A senior teacher, Chirchik state pedagogical university

khamitoveldorbek@gmail.com

e.xamitov@cspu.uz

Abstract: The present paper investigates the theoretical and scientific underpinnings of English-language instruction that is intended to prepare prospective professionals in the field of tourism for their future careers. The research is founded upon pedagogical ideas and real-world techniques that are employed both in Uzbekistan and in other countries. The study emphasises the importance of English as a worldwide medium in tourism, discusses methodological methodologies, and provides insights into the contributions of local scholars. The findings highlight the significance of incorporating professional contexts into language education in order to prepare students for the demands of the global tourism sector.

Keywords: English for Specific Purposes, tourism education, Uzbekistan, pedagogy, professional orientation.

Introduction

English for Specific Purposes (ESP) has evolved as an essential subfield of applied linguistics, especially in the tourism industry, where communication is a necessary professional ability. The tourism business in Uzbekistan has been growing at a rapid pace, which has created a demand for English language instruction to meet the needs of the industry. As Mustayeva and Kushakov [1, p. 121] have pointed out, education in English for Specific Purposes needs to be tightly integrated with actual professional resources and communicative circumstances. The purpose of this article is to examine the theoretical foundations, methodologies, and practical solutions that can be applied to the instruction of English with a professional focus for prospective professionals in the tourism industry.


Methods

The focus of this study was on Uzbek and international researchers in the fields of education and English for Specific Purposes (ESP). The study utilised a qualitative review of academic literature. Comparative content analysis was performed on works

by Adronova [2, p-2], Juraev [3, p-160], Saidvalieva [4, p-481], and Gafurova [5, p-82], all of whom have researched professional competency building through language and tourism education. Statistical information from the State Committee for Tourism Development of Uzbekistan was also included in order to demonstrate the demands that are relevant to the industry. A study was carried out with a group of fifty undergraduate tourism students to evaluate their opinions regarding professional English classes.

Results

According to the data, students recognise English for Tourism as being important not only from a professional standpoint but also from a linguistic perspective. As shown in Table 1, speaking and intercultural competence were named as priority skills by more than seventy percent of the respondents, whereas reading technical documents was regarded as less important. A consensus about the need of situating exercises related to grammar, lexis, and communication within the context of actual tourism scenarios was further brought to light through the examination of Uzbek academics' research.

Table 1.

Discussion

Students are able to attain both linguistic competency and vocational preparedness when English is incorporated into the professional orientation curriculum. The communicative method is considered to be of essential importance to the development of competence in English for Specific Purposes, according to Adronova [2, p-2]. In a similar vein, Juraev [3, p-160] highlights the importance of emphasising guiding abilities and practical methodologies in the professional training of tourism specialists in order to meet industry requirements. Saidvalieva's [4, p. 481] conceptualisation of English for Specific Purposes (ESP) programs as being developed based on the objectives and requirements of the learners is in agreement with the conclusions drawn from these studies. Gafurova [5, p-82] emphasises that the inclusion of tourist terminology in the classroom improves students' professional vocabulary and readies them for efficient communication in their field of study. When considered collectively, these methods substantiate the theoretical and practical foundations of professional English instruction in the tourism sector of Uzbekistan.

Conclusion

In order to teach English for professional reasons to future tourism specialists, it is necessary to incorporate both theory and practice in a thorough manner. The study brings to light the fact that effective training is based on actual communicative situations and is supported by the academic contributions of Uzbek researchers. The

continued development of tourism in Uzbekistan necessitates that education in the English language stay in line with professional requirements. This is essential in order to prepare skilled experts who are capable of participating in global contact.

References

1. Mustayeva, G. S., & Kushakov, Y. K. (2022). Problems of Teaching ESP at the Technical Universities of Uzbekistan. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 120–122.
2. Adronova, E. (2020). Implementing Communicative Approach in ESP Training as a Pedagogical Aspect at Uzbekistan Universities. *ISC-SAI 2020 Proceedings*.
3. Juraev, A. Kh. (2021). Teaching and Preparation of Competitive Guides for Tourism in Uzbekistan. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 160–165.
4. Saidvalieva, D. R. (2021). Teaching Methods of English for Specific Purposes. *Bulletin of Science and Practice*, 7(6), 481–485.
5. Gafurova, N. N. (2023). Teaching Tourism Terminology to Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 17, 82–85.

SOHAGA OID AXBOROTLARNING MOHIYATI VA UNING XAVFSIZLIGI**KURBANBAYEVA ZUMRAD ZARIPBOYEVNA,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

e-mail:zumradkuranboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sohaga oid axborotlarning mohiyati va ularning xavfsizligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Axborotning dolzarbligi, foydalilik darajasi hamda sohaga oid qarorlar qabul qilishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, axborot xavfsizligining asosiy tamoyillari – konfidentsiallik, butunlik va mavjudlik masalalari ko'rib chiqilgan. Sohaga oid axborotlarni himoya qilishning texnik, huquqiy va tashkiliy choralariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada global axborot xavfsizligi tendensiyalari ham yoritilib, milliy xavfsizlik strategiyalaridagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot, axborot xavfsizligi, sohaga oid axborot, jamiyat, konfidentsiallik, texnik vositalar, huquqiy mexanizmlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность отраслевой информации и вопросы обеспечения её безопасности. Анализируются актуальность, полезность и роль информации в процессе принятия отраслевых решений. Особое внимание уделено основным принципам информационной безопасности – конфиденциальности, целостности и доступности. Рассмотрены технические, правовые и организационные меры по защите отраслевой информации. В статье также освещаются глобальные тенденции информационной безопасности и её значение в национальных стратегиях безопасности.

Ключевые слова: информация, информационная безопасность, отраслевая информация, общество, конфиденциальность, технические средства, правовые механизмы.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida elektron shakldagi ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida elektron shakldagi ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim

normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Vazirlar Mahkamasining "Elektron raqamli imzodan foydalanishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori yuqoridagi qonunlarning bajarilishini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilab berdi. Vazirlar Mahkamasining "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan "Davlat axborot resurslarini shakllantirish va Davlat organlarining axborot tizimlarini tashkil etish tartiblari to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlandi. Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ularga yuklatilgan vazifalarning keng ko'lamda bo'lishini hisobga olib, faoliyatni axborot bilan ta'minlash jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Zero, bu hol davlat organlarini fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi holatni tavsiflovchi to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashga imkon yaratadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga prokuratura organlarida ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bugungi kunda prokuratura organlarining qonunchilik targ'iboti faoliyatida axborot texnologiyalarini keng qo'llash hamda faoliyatga oshkoralik berish borasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli buyrug'iga muvofiq, Bosh prokuraturaning rasmiy sayti ro'yxatdan o'tkazilib, ishga tushirilgan. Shu o'rinda axborot xavfsizligi tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, axborot xavfsizligi axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganligini bildiradi. Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-shaxsning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratish;

-shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash;

-shaxsni axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish. Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo'llash axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda 2007 yilda "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar

kiritilib, fuqarolar, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini buzish bilan bog'liq qilmishlar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik normalari takomillashtirildi. Mamlakatimiz qonunchiligida mazkur normalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xalqaro standartlar talablariga muvofiq keladi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasi shaxsning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratishni ko'zda tutib, bunga ko'ra har bir shaxs erkin ravishda axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Xalqaro miqyosda o'tayotgan xalqaro anjumanlarda ham axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Jahon xalqaro tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat miqyosida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish sohasidagi muammolar axborot resurslarini boshqarish, bu sohadagi aniq va ravshan strategiyani ishlab chiqish kabi vazifalardan tashqari, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini yaratish, zamon talablaridan kelib chiqib, ularni takomillashtirish kabi masalalar bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi iqtisodiyot, ta'lim, fan hamda boshqa sohalarda faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. SHu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivoji jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qonun hujjatlarini xalqaro standartlar, xorij tajribasi va milliy manfaatlarini hisobga olgan holda takomillashtirib borish lozim bo'ladi.

Axborot jamiyat taraqqiyotining muhim resurslaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda har bir sohada axborot resurslaridan samarali foydalanish, ularni tahlil qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Axborotning mohiyati uning mazmuni, aniqligi, dolzarbligi va foydalilik darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, sohaga oid axborotlarni himoya qilish, ularni ruxsatsiz foydalanishdan saqlash va ishonchliligini ta'minlash axborot xavfsizligi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. [1:37].

Sohaga oid axborotlarning mohiyati. Sohaga oid axborot — bu muayyan fan, texnologiya yoki iqtisodiy faoliyat sohasiga doir maxsus ma'lumotlar majmui bo'lib, ular ishlab chiqarish, boshqaruv va ilmiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, tibbiyot sohasidagi axborot bemorlar salomatligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, iqtisodiyotdagi axborot moliyaviy ko'rsatkichlar, statistik tahlillar yoki prognozlarni o'z ichiga oladi. Bunday axborotlarning ahamiyati shundaki, ular strategik qarorlar qabul qilishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Axborot xavfsizligining mohiyati. Axborot xavfsizligi — bu axborot resurslarini ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish yoki oshkor qilishdan himoya qilish jarayonidir. U uch asosiy prinsip asosida shakllanadi:

- Konfidentsiallik – axborot faqat vakolatli shaxslar uchun ochiq bo'lishi;
- Butunlik – axborot mazmunining buzilmasligi va sohtalashtirilmasligi;
- Mavjudlik axborotdan zarur paytda foydalanish imkoniyatining kafolatlanishi.

Sohaga oid axborot xavfsizligini taminlash usullari. Axborot xavfsizligi kompleks chora-tadbirlarni talab etadi:

- Texnik vositalar – shifrlash algoritmlari, xavfsiz tarmoqlar, virusga qarshi dasturlar;
- Huquqiy mexanizmlar – axborotni himoya qilishga doir qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar;
- Tashkiliy choralar – axborotga kirishni cheklash, xodimlarni maxfiylik qoidalariga rioya qilishga majburiy tayyorlash;
- Ma'naviy-axloqiy asoslar – axborotdan foydalanishda halollik va mas'uliyatni oshirish.[2:62].

Global tendensiyalari. Bugungi globallashuv davrida kiberxavfsizlik masalalari davlatlararo darajada muhokama qilinmoqda. Jahon miqyosida axborot xavfsizligini mustahkamlash uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan turli konvensiyalar va bitimlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, milliy xavfsizlik konsepsiyalarida ham sohaga oid axborotlarni himoya qilish strategik ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, sohaga oid axborotlar nafaqat ilmiy-texnik, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ham asosiy omilidir. Ularning xavfsizligini ta'minlash esa har bir davlat va tashkilotning barqaror rivojlanish kafolatidir. Shu sababli, axborot xavfsizligi masalalariga yondashuv kompleks va tizimli bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A. “Axborot xavfsizligi asoslari”. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020.- 37-bet
2. G'ulomov S., Xo'jayev M. “Kiberxavfsizlik va axborot texnologiyalari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.- 62-bet.
3. Qodirov B. “Axborot tizimlari va ularning boshqaruvi”. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

4. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Cybercrime and Security Report. – Vienna, 2022.

O'ZBEK TILIDAGI SINONIM VA ANTONIMLARNING FUNKSIONAL TABAQALANISHI

ISROILOVA MOHIGUL AKRAMOVNA

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti 1-kurs doktoranti

E-mail: isroilova.mokhigul@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi sinonim va antonim birliklarining funksional tabaqalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tilning leksik-semantik tizimida sinonimiya va antonimiya hodisalari semantik yaqinlik va qarama-qarshilik asosida shakllansada, ularning qo'llanishi kontekst, uslub, pragmatika va nutqiy vazifa nuqtai nazaridan farqlanadi. Maqolada sinonimlarning uslubiy (rasmiy, so'zlashuv, poetik), emotsional-ekspressiv va ijtimoiy konnotatsiyalarga ega turlari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, antonimlarning mutlaq, gradatsion va kontekstual turlari hamda ularning stilistik va semantik funksiyasi o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sinonim va antonimlar o'zbek tilining ekspressiv va kommunikativ imkoniyatlarini boyitishda muhim vosita sifatida qaraladi hamda ularning funksional tabaqalanishini o'rganish til tizimining ichki dinamikasini chuqur anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksik-semantik tizim, sinonimiya, antonimiya, funksional tabaqalanish, stilistik qatlam, kontekstual ma'no, pragmatik yondashuv, mutlaq antonim, gradatsion antonim, uslubiy sinonimlar, semantik munosabatlar, nutqiy vazifa.

ANNOTATION

This article analyzes the functional stratification features of synonymic and antonymic units in the Uzbek language. Although the phenomena of synonymy and antonymy in the lexical-semantic system of the language are formed on the basis of semantic similarity and opposition, their usage varies depending on context, style, pragmatics, and communicative purpose. The study highlights, through examples, stylistic (formal, colloquial, poetic), emotional-expressive, and socially connotative types of synonyms. It also examines absolute, gradational, and contextual types of antonyms, along with their stylistic and semantic functions. According to the research findings, synonyms and antonyms are considered important tools for enriching the expressive and communicative potential of the Uzbek language. Studying their

functional stratification provides deeper insight into the internal dynamics of the language system.

Keywords: *Uzbek language, lexical-semantic system, synonymy, antonymy, functional stratification, stylistic layer, contextual meaning, pragmatic approach, absolute antonym, gradational antonym, stylistic synonyms, semantic relations, communicative function.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются особенности функциональной стратификации синонимических и антонимических единиц в узбекском языке. Несмотря на то, что явления синонимии и антонимии в лексико-семантической системе языка формируются на основе семантической близости и противоположности, их употребление различается с точки зрения контекста, стиля, прагматики и речевой задачи. В статье на примерах освещаются стилистические (официальные, разговорные, поэтические), эмоционально-экспрессивные и социально-коннотативные типы синонимов. Также рассматриваются абсолютные, градационные и контекстуальные типы антонимов, а также их стилистическая и семантическая функция. По результатам исследования, синонимы и антонимы рассматриваются как важные средства обогащения экспрессивных и коммуникативных возможностей узбекского языка, а изучение их функциональной стратификации позволяет глубже понять внутреннюю динамику языковой системы.

Ключевые слова: *узбекский язык, лексико-семантическая система, синонимия, антонимия, функциональная стратификация, стилистический слой, контекстуальное значение, прагматический подход, абсолютный антоним, градационный антоним, стилистические синонимы, семантические отношения, речевая функция.*

Kirish

O'zbek tilining leksik-semantik tizimi nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u so'zlar orasidagi semantik munosabatlar asosida tahlil qilinadi. Bu munosabatlarning eng muhim turlaridan biri — sinonimiya va antonimiya hodisalaridir. Sinonim va antonimlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, uslubiy boylikni ta'minlash, kontekstga mos tanlovni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ularning funksional tabaqalanishi masalasi tilshunoslikda alohida ilmiy e'tiborni talab etadi[1].

Sinonimlar va antonimlarning funksional tabaqalanishi deganda, ularning turli nutqiy vazifalar, uslublar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va mintaqaviy omillarga ko'ra farqlanishi tushuniladi. O'zbek tilida bu hodisa keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Sinonimlar ko'pincha bir xil yoki yaqin ma'noni ifodalovchi so'zlar to'plami sifatida qaralsa, ularning qo'llanish doirasi, uslubiy yo'nalishi va konnotativ qiymati jihatidan farqlanishi ularni funksional jihatdan tabaqalashtiradi. Antonimlar esa semantik qarama-qarshilik asosida tashkil topgan bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi ham turli kontekstlarda farqlanadi[2].

O'zbek tilshunosligida sinonimlarning funksional tabaqalanishiga oid dastlabki tahlillar professor Sh. Raxmatullayevning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. U sinonimlarni semantik, stilistik, uslubiy va emotsional-ekspressiv jihatdan tahlil qilgan holda, ularni bir necha guruhlariga ajratgan. Masalan, "qattiq" so'zining sinonimlari — "mahkam", "mustahkam", "kuchli", "qat'iy" so'zlari semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning uslubiy va kontekstual vazifalari farq qiladi. "Mahkam" va "mustahkam" texnik yoki fizika ob'yektlariga nisbatan qo'llanilsa, "qat'iy" odatda shaxsiy sifat, qaror, fe'l-atvor kabi abstrakt tushunchalarni ifodalaydi. Bu esa sinonimlarning kontekstga bog'liq funksional tabaqalanishini yaqqol ko'rsatadi[3].

Shuningdek, sinonimlar adabiy va dialektal, rasmiy va so'zlashuv, poetik va nutqiy uslublarda ham farqlanadi. Masalan, "ko'z" so'zining sinonimi sifatida "nigoh", "chashma", "ko'zim" kabi so'zlar ishlatiladi. "Nigoh" — poetik, badiiy nutq uchun xos bo'lsa, "ko'z" — adabiy tilga mansub, "ko'zim" esa so'zlashuv uslubida tez-tez uchraydi. Bu tabaqalanish har bir sinonimga xos ma'no soyasini va emotsional ta'sirini yaratadi[4].

Antonimlar ham o'zbek tilida nafaqat semantik, balki funksional jihatdan tabaqalanadi. Ularning asosiy vazifasi — ma'no qarama-qarshiligini ifodalash, lekin bu qarama-qarshilik har doim ham mutlaq emas. O'zbek tilida antonimlar ko'pincha stilistik antonimiya, gradatsion antonimiya, kontekstual antonimiya kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, "yaxshi" — "yomon", "katta" — "kichik", "oq" — "qora" kabi juftliklar mutlaq antonimlar sanaladi va asosan neytral uslubda qo'llaniladi[5]. Ammo "oq" — "qora" antonim juftligi badiiy adabiyotda ko'pincha ramziy ma'noda — yaxshilik va yomonlik timsoli sifatida ishlatiladi. Bu esa ularning stilistik funksiyasini kengaytiradi.

Gradatsion antonimlar esa o'zaro nisbiy qarama-qarshilikni bildiradi. Masalan, "issiq" — "iliq" — "sovuqqina" — "sovuq" kabi so'zlar o'zaro nisbiy darajadagi antonimiya hosil qiladi. Bu holat ularning kontekstga mos ravishda tanlanishini, demakki, funksional tabaqalanishini taqozo etadi[6].

Kontekstual antonimlar esa doimiy antonim juftlik bo'lmasa-da, muayyan nutqiy vaziyatda qarama-qarshi ma'no kasb etadi. Masalan, "tepalik" va "cho'qqi" so'zlari ba'zan sinonim sifatida ishlatilsa-da, boshqa holatda biri boshqa birining ziddi bo'lib chiqadi — "tepalik" (pastroq) — "cho'qqi" (eng yuqori). Bu esa antonimlarning ham dinamik va vaziyatga bog'liq funksional xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi[7].

Zamonaviy tilshunoslikda sinonim va antonimlarning funksional tabaqalanishini pragmatik jihatdan o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu yondashuvda sinonim yoki antonimning tanlanishi nutq ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va emotsional holat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, rasmiy nutqda "vafot etdi" so'zi ishlatilsa, norasmiy suhbatda "o'ldi" shakli ishlatiladi. Har ikki so'z bir semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning stilistik qiymati turlicha[8].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi sinonim va antonimlar o'zlarining semantik yaqinligi yoki qarama-qarshiligidan tashqari, turli uslubiy, kontekstual, pragmatik va ijtimoiy funksiyalar asosida tabaqalanadi. Bu tabaqalanish ularning til tizimidagi roli va ahamiyatini yanada oshiradi, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, matn tuzilmasiga stilistik rang-baranglik baxsh etadi. Sinonim va antonimlarning funksional tabaqalanishini o'rganish orqali nafaqat leksik tizimni, balki tilning ichki dinamizmi va ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini ham chuqur tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. **Mirzaahmedov M.** *Hozirgi o'zbek tilida antonimlar*. Toshkent: Fan 1986-yil.
2. **Yo'ldoshev M.** *Hozirgi o'zbek tilining leksikologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2006-yil.
3. **G'anieva N.** *Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti 2008-yil.
4. **Umarov S.** (1999). *O'zbek tilining uslubiy imkoniyatlari*. Toshkent: Fan.
5. **Karimov O.** (2012). *O'zbek tilida sinonimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari*. Ilmiy maqola. // *Filologiya masalalari*, №2.
6. **Krysin L. P.** (1974). *Stilistika. Sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva: Nauka.
7. **Vinogradov V. V.** (1977). *Russkiy yazyk. Grammatikicheskoe uchenie o slove*. Moskva: Nauka.
8. **Lyons J.** (1981). *Language and Linguistics: An Introduction*. Cambridge University

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR EXPANDING WORD COMBINATION COMPETENCE

Ma'rufjonova Mumtoza Sokhibjon qizi

Chirchik State Pedagogical University
Faculty of Tourism Foreign languages and
literature, student of group 24/22
Scientific supervisor: Yusupova
Mukhabbat Anatolevna
Chirchik State Pedagogical University,
Head of Linguistics and English Teaching
Methodology Department, Phd, Associate
professor

Annotatsiya: Ta'limda sun'iy intellektning (AI) ortib borayotgan roli o'quvchilarning lingvistik kompetensiyaga ega bo'lish usullarini qayta shakllantirmoqda. Til o'rganishning eng qiyin jihatlaridan biri so'z birikmalarini, jumladan, birikmalar, idiomatik iboralar va leksik to'plamlarni o'zlashtirishdir. Ushbu maqola o'quvchilarning so'z birikmasi kompetensiyasini kengaytirishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarning imkoniyatlarini o'rganadi. Unda tabiiy tilni qayta ishlash, moslashuvchan o'rganish platformalari va chatbotlar va korpusga asoslangan tizimlar kabi sun'iy intellekt vositalarining leksik ravonlikni rivojlantirishdagi roli ta'kidlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, AI nafaqat lug'atni o'zlashtirishni tezlashtiradi, balki so'z birikmalaridan haqiqiy foydalanishni rivojlantiradi va shu bilan kommunikativ kompetensiyani oshiradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, so'z birikmasi kompetensiyasi, birikmalar, til o'rganish, adaptiv o'rganish.

Abstract: The growing role of Artificial Intelligence (AI) in education is reshaping the way learners acquire linguistic competence. One of the most challenging aspects of language learning is mastering word combinations, including collocations, idiomatic expressions, and lexical bundles. This paper explores the potential of AI-driven technologies in expanding learners' word combination competence. It emphasizes the role of natural language processing, adaptive learning platforms, and AI-powered tools such as chatbots and corpus-based systems in developing lexical fluency. The study concludes that AI not only accelerates vocabulary acquisition but

also fosters authentic usage of word combinations, thereby enhancing communicative competence.

Keywords: Artificial Intelligence, word combination competence, collocations, language learning, adaptive learning.

Аннотация: Растущая роль искусственного интеллекта (ИИ) в образовании меняет подход учащихся к формированию лингвистической компетенции. Одним из наиболее сложных аспектов изучения языка является освоение словосочетаний, включая устойчивые словосочетания, идиоматические выражения и лексические группы. В данной статье рассматривается потенциал технологий на основе ИИ в развитии навыков работы с словосочетаниями. Подчеркивается роль обработки естественного языка, платформ адаптивного обучения и инструментов на базе ИИ, таких как чат-боты и системы на основе корпусов, в развитии лексической беглости. В исследовании сделан вывод о том, что ИИ не только ускоряет усвоение словарного запаса, но и способствует аутентичному использованию словосочетаний, тем самым повышая коммуникативную компетентность.

Ключевые слова: искусственный интеллект, навыки работы с словосочетаниями, устойчивые словосочетания, изучение языка, адаптивное обучение.

Introduction

In recent decades, the teaching and learning of foreign languages have increasingly emphasized the role of vocabulary not merely as isolated items but as interconnected units of meaning. Scholars argue that true communicative competence extends beyond knowing individual words; it requires the ability to combine them in ways that are both grammatically accurate and pragmatically appropriate. This ability, often referred to as *word combination competence*, encompasses collocations, idiomatic expressions, lexical bundles, and phrasal verbs. For learners of English and other foreign languages, mastering word combinations is one of the most challenging aspects of language acquisition, since these structures are largely conventionalized and not always predictable from the meanings of individual words.

Traditional classroom instruction has made considerable efforts to address these challenges through rote learning, memorization of collocation lists, and exposure to texts. However, such approaches often lack interactivity, contextualization, and personalization. Learners may memorize collocations but still struggle to apply them naturally in real communicative situations. Moreover, teachers frequently face

constraints of time, resources, and class size, which limit their ability to provide sufficient feedback and individualized practice opportunities. As a result, learners' progress in developing word combination competence is often slow and uneven.

The emergence of Artificial Intelligence (AI) in education has introduced innovative solutions to this long-standing problem. AI-powered tools, driven by natural language processing and machine learning algorithms, can process vast amounts of linguistic data, recognize patterns of authentic usage, and provide learners with targeted feedback. Unlike traditional teaching methods, AI-based systems can adapt dynamically to individual learners' needs, offering personalized practice opportunities and error correction. Tools such as intelligent tutoring systems, AI chatbots, automated writing assistants, and corpus-based applications expose learners to authentic language use while simultaneously guiding them toward more natural word combinations.

Furthermore, AI opens possibilities for creating highly interactive learning environments. Learners can engage in simulated dialogues with chatbots, analyze authentic language corpora through AI-enhanced search systems, or receive instant feedback on collocation errors in their writing. These applications not only foster learner autonomy but also increase motivation by making the process of learning word combinations more engaging and context-driven.

In light of these developments, this paper explores the potential of Artificial Intelligence as a powerful tool for expanding learners' word combination competence. By examining existing research, practical applications, and pedagogical implications, the study argues that AI can bridge the gap between vocabulary knowledge and fluent language use. Ultimately, the integration of AI into language education has the potential to transform the way learners acquire, practice, and master word combinations, leading to more effective and sustainable language learning outcomes.

Literature Review

The study of word combination competence has its roots in lexical and communicative approaches to language learning. Early scholarship emphasized the importance of vocabulary as the foundation of communicative ability (Wilkins, 1972), while later perspectives shifted toward the recognition that words are rarely used in isolation but rather appear in recurring patterns and combinations. Lewis (1993, 1997) introduced the *Lexical Approach*, highlighting the central role of collocations, idiomatic phrases, and lexical chunks in achieving natural fluency. According to Lewis, language should be taught as “prefabricated units” rather than as separate words and grammar rules.

Nation (2001) expanded this view by stressing that vocabulary learning must involve not only form and meaning but also *collocational behavior*. Learners who rely solely on dictionary definitions often fail to produce natural language because they lack knowledge of how words combine in authentic contexts. Wray (2002) further argued that formulaic sequences are key to fluency, as they reduce the cognitive load in communication by allowing speakers to retrieve ready-made chunks rather than generating language word by word.

Despite these insights, traditional pedagogy has struggled to provide sufficient input and practice in word combinations. Collocation dictionaries and classroom exercises have proven useful, but they often remain limited to receptive knowledge rather than productive use. Moreover, learners require extensive exposure to authentic language to internalize the statistical regularities that underpin natural combinations — an input that is difficult to provide in conventional classroom settings.

The rise of Artificial Intelligence and Natural Language Processing technologies has brought new opportunities to address these challenges. Luckin et al. (2016) emphasized that AI has the potential to transform education by offering adaptive, personalized, and data-driven learning pathways. Recent studies have applied these insights to language learning, particularly in the domain of vocabulary and collocations. For instance, Li and Wang (2021) demonstrated that AI-enhanced writing assistants can effectively detect unnatural word pairings and suggest contextually appropriate collocations. Similarly, Sung (2023) found that conversational AI chatbots facilitate collocational learning by providing learners with interactive, real-time exposure to authentic expressions.

Corpus linguistics has also benefited from AI-driven advancements. Corpus-based applications powered by machine learning algorithms can now identify frequent lexical bundles and suggest them to learners in context. Granger (2018) highlighted how learner corpora combined with AI can track patterns of collocational errors, allowing teachers and systems to provide targeted corrective feedback. Tools like Sketch Engine, Grammarly, and DeepL illustrate how NLP technologies make collocational input both accessible and personalized.

At the same time, some scholars caution that the use of AI in language learning must be critically assessed. Boulton (2017) noted that while AI-based tools provide valuable input, their effectiveness depends on learners' ability to interpret feedback and transfer it into productive skills. Furthermore, ethical concerns regarding data privacy, overreliance on automated systems, and the need for human mediation in learning remain important areas for consideration (Holmes et al., 2019).

Taken together, the literature indicates that word combination competence has long been recognized as central to language acquisition, but traditional teaching methods have had limited success in fostering it. AI offers promising new tools to bridge this gap by providing authentic input, error-sensitive feedback, and individualized learning opportunities. Nevertheless, its integration into pedagogy must be guided by careful research, ensuring that technological affordances are matched with sound linguistic and educational principles.

Methodology

This study adopts a **qualitative and exploratory research design**, as its primary aim is to investigate the potential of Artificial Intelligence in enhancing learners' word combination competence. Since the field is still emerging and continuously shaped by technological innovation, exploratory methods provide the flexibility needed to capture current practices, evaluate available tools, and identify pedagogical implications.

Research Approach

A **comparative analysis** of AI-powered language learning tools was employed to evaluate their role in fostering collocational and word combination competence. The focus was on three categories of tools:

1. **AI-driven writing assistants** which provide real-time suggestions for collocation and lexical accuracy.
2. **Conversational AI chatbots** which simulate authentic dialogues and encourage learners to apply word combinations in communicative contexts.
3. **Corpus-based and NLP-enhanced applications** which expose learners to authentic collocational patterns and allow for data-driven vocabulary exploration.

Data Collection

Data was collected through three main sources:

- **Tool Analysis:** Each AI tool was examined for its functionality, accuracy, feedback mechanisms, and learner adaptability in relation to word combination competence.
- **Case Studies:** Selected reports and published studies (Li & Wang, 2021; Sung, 2023) were analyzed to understand how learners interact with AI tools in practical contexts.
- **User Feedback:** Reviews and user experience reports from learners and teachers were examined to capture perceptions of AI's usefulness in teaching and learning collocations.

Evaluation Criteria

The selected AI tools were analyzed using the following dimensions:

1. **Authenticity of Input:** Does the system provide exposure to naturally occurring word combinations?
2. **Error Sensitivity:** How effectively does the tool identify and correct unnatural or incorrect collocations?
3. **Adaptability and Personalization:** To what extent does the system adjust to the learner's proficiency level and progress?
4. **Interactivity:** Does the tool encourage active use of word combinations in real communicative contexts?
5. **Pedagogical Value:** Can the system be integrated into classroom or self-directed learning in a sustainable manner?

Data Analysis

A **thematic analysis** was conducted to identify recurring patterns across the tools and case studies. The data were categorized into themes such as *input exposure*, *feedback mechanisms*, *learner autonomy*, and *motivation*. These themes were then synthesized to draw broader conclusions about AI's role in expanding word combination competence.

Limitations

This study is limited by its reliance on secondary data and tool analysis rather than large-scale empirical testing with learners. While the methodology provides insights into the affordances of AI systems, future research should involve controlled classroom experiments and longitudinal studies to evaluate long-term effects on learners' collocational development.

Conclusion

The findings of this study suggest that Artificial Intelligence has the potential to play a transformative role in the development of learners' word combination competence. Whereas traditional methods often focus on memorization of isolated words or limited collocation lists, AI technologies introduce opportunities for contextualized practice, real-time feedback, and personalized learning experiences. Through intelligent writing assistants, conversational chatbots, and corpus-based platforms, learners can access authentic language input and actively engage with collocational structures in meaningful ways.

One of the most significant contributions of AI lies in its ability to provide **adaptive and individualized instruction**. By analyzing learner performance and tailoring feedback accordingly, AI systems help learners move beyond surface-level vocabulary knowledge toward a deeper understanding of lexical behavior. The

immediacy of feedback not only reduces fossilization of errors but also enhances learner autonomy, enabling students to take more responsibility for their own progress.

Moreover, the interactivity and accessibility of AI tools contribute to increased motivation. Unlike static textbooks or repetitive drills, AI-driven environments encourage learners to explore, test hypotheses, and apply collocations in real-time communication. This interactive engagement fosters long-term retention and fluency, which are essential for achieving communicative competence in a foreign language.

However, it must also be acknowledged that the integration of AI into language learning is not without challenges. Concerns regarding overreliance on technology, the risk of reduced critical thinking, data privacy issues, and the potential for unequal access remain important areas for educators and policymakers to address. In addition, while AI tools can provide valuable input and guidance, they cannot fully replace the role of teachers in scaffolding learning, fostering critical reflection, and creating supportive environments.

In conclusion, AI should be viewed not as a substitute for traditional pedagogy but as a powerful complement to it. When carefully implemented, AI-based systems can significantly expand learners' word combination competence, bridging the gap between vocabulary acquisition and fluent, natural communication. Future research should continue to explore how AI can be integrated into curricula, assess its long-term effects on learner outcomes, and develop best practices for combining technological affordances with human expertise.

References

1. Boulton, A. (2017). Data-driven learning and collocations: Learner performance, attitudes, and evaluations. *Language Learning & Technology*, 21(1), 1–30.
2. Granger, S. (2018). Learner corpora and collocations: Opportunities and challenges. *International Journal of Corpus Linguistics*, 23(4), 391–417.
3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign.
4. Lewis, M. (1993). *The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward*. Hove: Language Teaching Publications.
5. Lewis, M. (1997). *Implementing the Lexical Approach: Putting Theory into Practice*. Hove: Language Teaching Publications.
6. Li, J., & Wang, H. (2021). The use of AI in developing collocational competence. *Journal of Language Technology and Education*, 8(2), 55–72.

7. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson.
8. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

ONA TILI DARSLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAN FOYDALANISH

MAJIDOVA MOHICHEHRA RAVSHAN QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mohichehra56@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning ogzaki nutqini rivojlantiruvchi mashqlar tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentsiyani faollashtirish uchun material sifatida frazeologik birliklardan foydalanishga imkon beradigan topshiriqlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: metod, frazeologiya, o'qitish usullari, frazeologik birliklar, o'qitishning interfaol usullari.

Аннотация: В статье анализируются упражнения, развивающие устную речь учащихся. Указаны задания, позволяющие использовать фразеологизмы как материал для активации коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: методика, фразеология, методы обучения, фразеологизмы, интерактивные методы обучения.

Abstract. The article analyzes the exercises that develop students' oral speech. Tasks that allow the use of phraseological units as material for the activation of communicative competence are indicated.

Key words: method, phraseology, teaching methods, phraseological units, interactive methods of teaching.

Frazeologik birliklar har bir millat tilining o'ziga xos obrazli, emotsional, madaniy qatlamini tashkil etadi. Ular tilda fikrni ifodali, qisqa va mazmunli yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til o'rganish jarayonida frazeologizmlarni o'rgatish nafaqat leksik boylikni oshiradi, balki til egasining madaniy dunyoqarashiga chuqur kirib borishga ham yordam beradi. Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi darslarda frazeologik birliklardan foydalanish alohida metodik yondashuvni talab etadi.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologiya (gr. phrasis-ifoda va logos- ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi. 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmlari majmui.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmlarning tabiati va zotiy xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatlaridir. Frazeologizmlar til

hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq va boshqa. Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizmlar tashkil etuvchilarga ko'ra ko'ra qo'shma qo'shma leksemalar, leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksemalar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan ulumiylik tabiatiga ega bo'ladi va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Dars o'tayotgan, darsining foydali va samarali bo'lishini istagan o'qituvchi darsni qiziqarli o'tkazish yo'llarini yaratadi. Bu o'qituvchining tasavvuriga va ijodiga bog'liq. Frazeologik birliklar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishning ko'plab usullari mavjud. O'qituvchi avval idiomani tushuntirib, so'ngra og'zaki ta'rifini berishi va o'quvchilardan ketma-ket misollar yaratishni so'rashi mumkin. Keyingi yo'l quyidagicha ko'rinishi mumkin: o'qituvchi idiomani o'rgatishi va faqat misol keltirishi mumkin va talabalar bugungi zamonaviy interaktiv usullar bizdan nimani talab qilishini aniqlashlari kerak. Yana bir yo'l: o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, o'qituvchi tomonidan berilgan iboralar bo'yicha qisqa hikoyalar yozishlari kerak, lekin hikoyada ishlatilishi kerak bo'lgan idiomalarni aytib berishlari shart emas. Keyingi guruh idiomalarning nomini topishi kerak. Keyingi mashg'ulot quyidagicha davom etadi: o'qituvchi yozma topshiriq beradi, unda o'rganiladigan idiomalarga oid ko'p tanlovli testlar mavjud.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Frazeologik birliklar – bu ma'nosi tarkibiy qismlarining umumiy yig'indisidan farq qiluvchi barqaror iboralardir. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

Idiomatik birliklar: "tili kalimaga kelmas", "ko'ngli tog'day", "ko'zi ochildi" kabi;

Metaforik iboralar: "yuragi muzlab ketdi", "bo'yniga olish", "tosh bosdi";

Qo'llanmalarga aylangan iboralar: "birinchi galda", "bir qarashda", "to'g'risi".

Frazeologizmlar obrazlilik, emotsionallik, milliy-madaniy komponentlarga boy bo'lishi bilan til o'rganayotgan shaxsda milliy tafakkurni anglashga xizmat qiladi.

Frazeologiya bo'limini o'qitishda topshiriqlardan tashqari turli o'yinlardan foydalanib yanada o'quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

Keyingi musobaqa "Suratlar tilga kirsin" o'yini tarzida o'tkaziladi. Bunda guruhlariga til, yurak, yer, peshona tasvirlangan rasmlar kartochkalar tarqatiladi.

O'yin shartiga ko'ra, 3-4 daqiqa ichida har bir guruh berilgan rasmlar asosida iboralar topishlari va ularni guruh a'zolaridan biri o'qib berishi kerak bo'ladi.

Turli xil topshiriq va o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini kengayishi va fikrlash faoliyatini oshiradi. Tilning frazeologik birliklari mislsiz til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning hayot tarzini, mentalitetini namoyon etadi. O'zbek tilining frazeologik birliklari o'zbek xalqining psixologik, fiziologik, madaniy- ma'rifiy. Lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadigan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir.

Til o'qitishda frazeologik birliklardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Til boyligini kengaytiradi. O'quvchi oddiy so'zlar o'rniga emotsional va obrazli iboralarni o'rganadi: "xafa bo'ldi" o'rniga "ko'ngli g'ash bo'ldi" kabi.

Kontekstual tushunishni rivojlantiradi. Frazeologizmlar asosan matn tarkibida, kontekst asosida anglanadi. Bu esa o'quvchida keng tafakkur hosil qiladi.

Madaniy tafakkurni shakllantiradi. Har bir frazeologizm xalq hayoti, tarixi, e'tiqodi bilan bog'liq: "tuzini yeb, tuprog'ini ko'tarmaslik", "baxt kaliti".

Ifodali nutq ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchi o'z fikrini sodda emas, badiiy-estetik uslubda bayon eta boshlaydi.

Xullas, til ta'limi samaradorligini oshirishda frazeologik birliklardan foydalanish muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchining nutqiy faolligini oshiradi, fikrlashni teranlashtiradi va tilga estetik yondashuvni shakllantiradi. Ayniqsa, bugungi integratsiyalashgan darslarda frazeologizmlarning funksional qo'llanilishi til va adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. Toshkent - 2009.
2. Mavlonova R. va b. Pedagogika. Toshkent - 2010. B. 254.
3. Muslimov N. va b. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent - 2016.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2009.

SO'Z BIRIKMASI VA UNI O'QITISH METODIKASI**MAMATOVA NILUFAR NURIDDIN QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi mamatovanilufar19@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikning muhim bo'limi bo'lgan **sintaksis**, xususan, so'z birikmasining nazariy asoslari va uni maktab darslarida o'qitishning samarali usullari yoritilgan. Maqolada so'zlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari, so'z birikmasining turlari, bog'lanish usullari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) hamda hokim va tobe qismlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarga mavzuni qiziqarli va tushunarli yetkazish maqsadida turli metodlar orqali darsni tashkil etishning amaliy yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: grammatik qurilish, sintaksis, so'z birikmasi, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, interfaol metod.

Abstract. This article discusses the theoretical foundations of syntax, an important branch of linguistics, in particular, word combinations, and effective methods of teaching them in school lessons. The article analyzes the laws of word connection, types of word combinations, connection methods (coordination, control, conjunction), as well as the specific features of the dominant and subordinate parts. It also offers practical ways to organize a lesson using various methods in order to convey the topic to students in an interesting and understandable way

Keywords: grammatical construction, syntax, word combinations, coordination, control, conjunction, interactive method.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы синтаксиса, важного раздела языкознания, в частности, словосочетания, и эффективные методы их преподавания на уроках в школе. Анализируются законы связи слов, типы словосочетаний, способы связи (сочинение, контроль, сцепление), особенности доминантных и придаточных членов. Предлагаются практические способы организации урока с использованием различных методов для интересного и понятного изложения материала учащимися.

Ключевые слова: грамматическая конструкция, синтаксис, словосочетание, сочинение, контроль, сцепление, интерактивный метод.

Til inson tafakkurining ifodasi bo'lib, uning ichki tuzilishi grammatik qoidalarga asoslanadi. Grammatik qurilishning markaziy bo'limlaridan biri **sintaksis (gr.**

sintaxys - tuzish, qurish; gap haqidagi ta'limot) bo'lib, u so'zlarning o'zaro birikish usullarini, so'z birikmalari va gaplarning qurilishi hamda ularning ifoda xususiyatlarini o'rganadi. Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'zlari va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini aynan sintaksis – ya'ni gap qurilishi orqali to'liq namoyon qiladi. So'zlarning til qonun-qoidalarida asosida o'zaro birikishidan so'z birikmalari va gaplar hosil bo'ladi, shuning uchun sintaksis nutqning mazmunan to'g'ri, izchil va ta'sirchan bo'lishida asosiy o'rin egallaydi. Sintaksis ikki bo'limdan iborat: **so'z birikmasi sintaksisi** va **gap sintaksisi**. Ayniqsa so'z birikmasi nutqning asosiy qurilish materiali sifatida gapning shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. Shu bois ona tili darslarida so'z birikmasini o'qitish, uning turlari, bog'lanish usullari va ifoda imkoniyatlarini o'rgatish o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan birikuvidan hosil bo'ladi. Bu birikma tobe va hokim qismlardan tashkil topadi. **Hokim qism** — asosiy mazmunni bildiradi, **tobe qism** esa hokim qismni izohlaydi va unga kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar, so'z tartibi yoki ohang orqali bog'lanadi. So'z birikmalari hokim so'zning turiga ko'ra **otli birikmalar** (go'zal o'lka, maktab o'quvchilari, talabalarning a'lochisi) va **fe'li birikmalar** (tez yurmoq, daftarga yozmoq, mehnatda sinalgan)ga ajraladi. So'zlarning o'zaro birikish usullari uch xil: 1. **Moslashuv** – tobe so'z hokim so'zga egalik yoki qaratqich qo'shimchalari bilan bog'lanadi: *bizning uyimiz, sening kitobing*. Ba'zan egalik yoki qaratqich kelishigi shakli belgisiz qo'llanilishi mumkin: *yoz yomg'iri* (yozning yomg'iri), *bizning uy* (bizning uyimiz) kabi. Moslashuvda asosan otli birikmalar hosil bo'ladi. 2. **Boshqaruv** – tobe so'z kelishik qo'shimchalari (tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) yoki ko'makchilar bilan bog'lanadi, boshqaruvda otli va fe'li birikmalar hosil bo'ladi: *uyga bormoq, g'alaba uchun kurashmoq*. Shuningdek, kelishikli va ko'makchili boshqaruv ham farqlanadi. Kelishikli boshqaruvda tobe so'z hokim so'zga tushum va o'rin kelishiklari vositasida birikadi: *dugonasini uchratmoq, universitetdan chiqmoq singari*. Ko'makchili boshqaruvda esa tobe so'z hokim so'zga ko'makchilar vositasida birikadi: *tinchlik uchun kurashmoq, universitet sari yurmoq*. 3. **Bitishuv** – vositasiz, faqat tartib va ohang orqali birikadi: *keng ko'cha, tez yurmoq*. Tezda qaytmoq, qo'qqisdan burilmoq, chindan gapirmoq kabi birikmalar ham bitishuv usuli bilan hosil bo'lgan. Ravishlar tobe so'z vazifasida kelganda bitishuv usuli bilan hokim so'zga birikadi, ularning tarkibidagi egalik va kelishik qo'shimchalari yaxlitlanib qolgan.

So'z birikmasi mavzusi ko'pincha nazariy tushunchalarga boy bo'lgani sababli, uni o'quvchilar uchun jonli, qiziqarli va esda qoladigan tarzda yetkazish muhim

ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dars mobaynida quyidagi o'yin va metodlardan foydalanilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. 1. **“Zanjirli birikma” o'yini**– O'quvchilar guruh bo'lib ishlaydi. Birinchi o'quvchi bir so'z aytadi (*kitob*), unga mos so'z qo'shib birikma hosil qiladi (*kitob varaqlari*), uchinchi esa yanada kengaytiradi (*kitob varaqlarining rangi*). Bu mashq so'zlar orasidagi tobe-teng munosabatlarni sezishga yordam beradi va ushbu metod darsning o'tilgan yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida juda qo'l keladi. 2. **“So'zni top” metodi**– O'qituvchi hokim so'zni aytadi (*o'qimoq*), o'quvchilar esa turli kelishik va ko'makchilar orqali tobe so'zlarni yaratadi (*kitobni o'qimoq, maktabda o'qimoq, do'sti bilan o'qimoq*). Bu orqali boshqaruv usuli mustahkamlanadi. 3. **Interaktiv jadval** – Moslashuv, boshqaruv va bitishuv usullari uchun alohida ustunlar tayyorlanadi. O'quvchilar berilgan birikmalarni mos ustunga joylashtiradi. Bu nazariyani amaliy tahlil qilishni yengillashtiradi. 4. **Matnni tahlil qilish** – Badiiy asardan kichik parcha tanlab, undagi so'z birikmalarini aniqlash va ularni turlarga ajratish topshirig'i beriladi. Bu usul grammatik bilimni nutq bilan bog'lashni o'rgatadi.

Metodik tavsiyalar: Darsni vizual materiallar (slayd, kartochka, rangli diagramma) bilan boyitish o'quvchilarning eslab qolish jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek, hayotiy misollar bilan ishlash ham (bozor, maktab, oila mavzusidagi so'z birikmalari) o'quvchilar nutqiga yaqin bo'lgani uchun samaralidir. Guruhli ishlar orqali esa o'quvchilar bir-birining fikrini tinglashni, grammatik xatolarni tahlil qilishni o'rganadi.

Sintaksis va so'z birikmasi mavzularini o'qitish metodikasini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning grammatik bilimni boyitadi, ularni aniq, izchil va mantiqli fikr yuritishga o'rgatadi. Moslashuv, boshqaruv va bitishuv usullarini interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish esa darsni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ona tili darslarida bunday yondashuv o'quvchilarda tilga muhabbatni kuchaytirib, ularning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishga katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
2. Yoqubov A., Rasulov R. *O'zbek tili sintaksisi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. G'ulomov A. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006.
5. Jo'rayev A. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Ilm Ziya, 2018.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI VOKALIZMI

MANSUROVA MASHHURA OLIMBOY QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

mashxura_apple@icloud.com

Tel: +998503708583

Ilmiy rahbar: Murodova Feruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi tilning fonetik asoslarini belgilovchi muhim qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Unli tovushlarning tizimi, ularning tarixiy shakllanishi, lahjalar ta'siri va fonologik qonuniyatlar orqali tilning ichki imkoniyatlari hamda estetik ohangi yuzaga chiqadi. Vokalizmni o'rganish nafaqat fonetik tafsilotlarni ochadi, balki o'zbek nutq madaniyati va milliy til tafakkurini ham chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiy tili, vokalizm, unli tovushlar, fonetika, fonologiya, tarixiy taraqqiyot, lahja, fonetik tizim, nutq madaniyati, til estetikasi.

Аннотация: В данной статье вокализм современного узбекского литературного языка представлен как важный пласт, определяющий фонетические основы языка. Система гласных, её историческое формирование, влияние диалектов и фонологических закономерностей раскрывают внутренние возможности и эстетический тон языка. Изучение вокализма не только раскрывает фонетические детали, но и способствует более глубокому пониманию узбекской речевой культуры и национального языкового мышления.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, вокализм, гласные, фонетика, фонология, историческое развитие, диалект, фонетическая система, культура речи, эстетика языка.

Abstract: In this article, the vocalism of the modern Uzbek literary language is presented as an important layer that determines the phonetic foundations of the language. The system of vowels, their historical formation, the influence of dialects and phonological regularities reveal the internal possibilities and aesthetic tone of the language. The study of vocalism not only reveals phonetic details, but also helps to understand the Uzbek speech culture and national language thinking more deeply.

Keywords: Uzbek literary language, vocalism, vowels, phonetics, phonology, historical development, dialect, phonetic system, speech culture, language aesthetics.

Til insoniyat tafakkurining eng nozik va murakkab ko'rinishlaridan biridir. O'zbek adabiy tili esa ko'p asrlik tarixiy jarayonlar, xalqning boy madaniy merosi va turli davrlarning ijtimoiy ehtiyojlari ta'sirida shakllangan hamda rivoj topib kelmoqda. Uning fonetik asosida unli tovushlar tizimi – vokalizm alohida o'rin tutadi. Chunki unli tovushlar tilning musiqiyligini, ohangdorligini, estetik jozibasini ta'minlaydi. Har bir tilning o'z ovozi, o'z ohangi, o'z ruhiy olami bo'lgani kabi, o'zbek adabiy tilining ham ohangdorligi, chiroyi va jarangdorligi avvalo vokalizmga chambarchas bog'liqdir. [1:12-b]

O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili unlilari miqdori masalasida ikki xil fikr mavjud:

Birinchi fikrga ko'ra adabiy til unlilari 6 ta: i, e, a, u, o, o'. (Bu fikr tarafdorlari qatorida Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, A.G. G'ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, A. Abduazizov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar bor).

Ikkinchi fikrga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida 8-9 unli (i, ы, а, а, ё, и, е, о, е) mavjud bo'lib, ular eski o'zbek adabiy tilida va hozirgi qipchoq lahjalarida bo'lganidek kontrast juftliklarni (i-ы, ә-a, ü-u, ө-o zidlanishlarini) hosil qiladi, shundan kelib chiqib, adabiy til vokalizmi va alifbo masalalari qayta ko'rib chiqilishi alifboga qo'shimcha harflar kiritilishi kerak (Bu fikr tarafdorlari qatorida X.Doniyorov, B. To'ychiboyev, M. Valiyev va boshqalar bor).

O'zbek tilidagi unli tovushlar tizimi asrlar davomida shakllanib, turli lahja va shevalar ta'sirida sayqallanib borgan. Bugungi adabiy tilimizda, maktablarda ham oltita asosiy unli tovush o'rganiladi: a, o, u, i, e, o'. Ularning har biri nutq jarayonida o'ziga xos fonetik vazifani bajaradi. Masalan, "a" tovushi keng va ochiq ohang berib, nutqni ravonlashtirsa, "i" tovushi tor va ixcham talaffuzni yuzaga keltiradi. "O'" tovushi esa o'zbek tiliga xos fonetik belgi bo'lib, boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi muhim omillardan biridir. [2:33-b]

Vokalizm – muayyan tildagi unli fonemalar tizimidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari quyidagi belgilari asosida tasnif qilinadi:

a) lablarning ishtirokiga ko'ra: lablashgan (u, o, i, o) va lablashmagan (i, e, a) unlilari;

b) tilning vertikal harakatiga (tilning uch darajali ko'tarilish belgisiga) ko'ra: yuqori tor (i, u) o'rta keng (e, o') va quyi keng (a, o) unlilari;

d) tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra: old qator (i, ea) va orqa qator (u ,o' ,o) unlilari.

Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid quyidagi masalalar munozarali bo'lib qolmoqda:

a) unli fonemalarning fonologik belgilari masalasi:

b) lablar ishtiroki va tilning yotiq (gorizontal) harakati o'rtasidagi munosabatlar masalasi:

d) vokalizmga oid terminlar masalasi;

e) adabiy til vokalizmi uchun asos bo'lgan dialekt va shevalar masalasi.[3:79-86-b]

Vokalizmning o'ziga xosligi shundaki, u faqat fonetik tizimni tashkil etish bilangina cheklanib qolmaydi, balki xalqning ruhiy olamida, badiiy nutqda ham katta ahamiyat kasb etadi. She'riyatda unli tovushlar uyg'unligi ohangdorlikni kuchaytiradi, qofiya va radiflarning jozibasini oshiradi. Masalan, Alisher Navoiy g'azallarida unli tovushlarning takroriy uyg'unligi she'rning ichki musiqasini yaratadi. Bu hol vokalizmning nafaqat fonetik, balki estetik qudratini ham yaqqol ko'rsatadi. [4:112-b]

O'zbek tilidagi vokalizm tizimi tarixiy taraqqiyot davomida turli fonetik qonuniyatlar asosida shakllandi. Qadimgi turkiy til yodgorliklarida sakkizta unli mavjud bo'lsa, bugungi o'zbek tilida ularning soni qisqargan, biroq fonologik yuklamasi ortgan. Ayrim tovushlarning o'zgarishi, singariyasi yoki qo'shilishi tilimizning fonetik qiyofasini shakllantirgan. Masalan, qadimgi turkiy "ü" tovushi bugungi o'zbek tilida saqlanmagan, biroq uning izlari ayrim lahjalarda uchraydi [5:54-b]. Bu esa vokalizmni o'rganishda nafaqat zamonaviy fonetika, balki tarixiy-lingvistik yondashuv ham zarurligini ko'rsatadi.

Nutq madaniyati nuqtayi nazaridan qaralganda, unli tovushlarning to'g'ri talaffuzi katta ahamiyatga ega. Chunki har qanday og'zaki nutqning ravonligi, tinglovchi uchun tushunarli va yoqimli bo'lishi, birinchi navbatda, unli tovushlarning to'g'ri jaranglashiga bog'liqdir [6:18-b]. Bugungi kunda adabiy til me'yorlariga amal qilish, noto'g'ri talaffuzlardan saqlanish, ayniqsa, yoshlar orasida nutq madaniyatini yuksaltirish uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Masalan, ayrim hollarda "o'" tovushining "u" yoki "o" tarzida noto'g'ri aytilishi fonetik me'yorning buzilishiga olib keladi.

Vokalizm tizimi o'zbek tili fonologiyasida ham markaziy masalalardan biri sanaladi. Unli tovushlarning fonologik farqlanishi, ularning urg'u, intonatsiya va ohangda tutgan o'rni ilmiy tadqiqotlarda keng yoritib kelinmoqda. Bu borada akademik A. Kononov, A. Madrahimov, S. Usmonov kabi olimlarning tadqiqotlari

muhim manba hisoblanadi [7:72-b]. Vokalizmni fonologik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali tilning ichki qonuniyatlarini, soʻz yasash va grammatik tizimdagi uygʻunlikni ham anglash mumkin.

Bundan tashqari, vokalizm tilning ijtimoiy-madaniy qirralarida ham alohida oʻrin egallaydi. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarida, maqom sanʼatida unli tovushlarning choʻzilishi, qisqarishi yoki oʻziga xos ohangda talaffuz qilinishi milliy ruhni uygʻotadi, xalqning musiqiy didi bilan bevosita bogʻlanadi. Shunday qilib, vokalizm faqat ilmiy masala emas, balki madaniy-estetik qadriyat hamdir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi oʻzbek adabiy tili vokalizmi tilning fonetik asosini tashkil etuvchi, estetik jozibasini taʼminlovchi va tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallangan muhim tizimdir. Uni chuqur oʻrganish oʻzbek tili boyliklarini yanada kengroq anglash, nutq madaniyatini yuksaltirish va milliy til tafakkurini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Vokalizmni oʻrganish orqali biz faqat tovushlar tizimini emas, balki xalqning ruhiy olamini, madaniyatini, estetik didini ham teranroq idrok etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Usmonov S. "Oʻzbek tili fonetikasi" – Toshkent: Oʻqituvchi, 1985.
2. Jamolxonov H. "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Kononov A. N. "Грамматика современного узбекского языка" – Moskva: Nauka, 1960.
3. Kononov A. N. "Грамматика современного узбекского языка" – Moskva: Nauka, 1960.
4. Navoiy A. "Gʻazallar devoni" – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Rustamov A. "Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi" – Toshkent: Fan, 1972.
6. Toʻxliiev B. "Qadimgi turkiy til manbalari" – Toshkent: Universitet, 2001.
7. Karimov Sh. "Nutq madaniyati va talaffuz meʼyorlari" – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.

SUN'IY INTELLEKT BILAN BIRGA O'ZBEK TILIGA KIRIB KELAYOTGAN SO'ZLAR

HAMROQULOVA SHAHRIZODA QAHRAMON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

shahrizodahamroqulova72@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi o'zbek tiliga yangi leksik birliklar va iboralar kirib kelishiga olib keldi. Mazkur maqolada sun'iy intellekt va unga tegishli atamalarining o'zbek tiliga qanday yo'l bilan o'zgargani va moslashgani tahlil qilinadi. Inglizcha atamalarining to'g'ridan-to'g'ri o'zlashuvi, ularni o'zbek grammatikasiga moslashtirish amaliyoti hamda ba'zi tushunchalar uchun turli ekvivalentlar paydo bo'lishi (masalan, "chatbot" — "sun'iy suhbatdosh", "prompt" — "so'rov") ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yangi leksik birliklarning til me'yoriga ta'siri, ularni normallashtirish zarurati va terminologik me'yorlar yaratish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Maqola o'zbek tilining raqamli davrga moslashuvi va tilshunoslik hamjamiyati oldidagi vazifalarni yoritadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, neologizmlar, o'zbek leksikasi, terminologiya, til me'yori. **Annotation:** The rapid development of artificial intelligence (AI) technologies has led to the emergence of new lexical units and expressions in the Uzbek language. This article analyzes how AI-related terms have changed and adapted within the Uzbek linguistic system. It discusses direct borrowings from English, their grammatical adaptation in Uzbek, and the emergence of different equivalents for the same concepts (for example, "chatbot" — "artificial interlocutor", "prompt" — "request"). The article also explores the impact of these new lexical units on language norms, the need for their standardization, and the development of consistent terminology. Overall, it highlights the adaptation of the Uzbek language to the digital era and the challenges faced by the linguistic community.

Keywords: artificial intelligence, neologisms, Uzbek lexicon, terminology, language norms.

Аннотация: Быстрое развитие технологий искусственного интеллекта (ИИ) привело к появлению в узбекском языке новых лексических единиц и

выражений. В данной статье анализируется процесс изменения и адаптации терминов, связанных с искусственным интеллектом, в узбекском языке. Рассматриваются прямые заимствования из английского языка, особенности их грамматической адаптации, а также появление различных эквивалентов для одних и тех же понятий (например, “chatbot” — “искусственный собеседник”, “prompt” — “запрос”). Кроме того, обсуждается влияние новых лексических единиц на языковую норму, необходимость их стандартизации и выработка терминологических норм. Статья освещает процесс адаптации узбекского языка к цифровой эпохе и задачи, стоящие перед сообществом лингвистов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, неологизмы, узбекская лексика, терминология, языковая норма.

Bugungi globallashuv davrida texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI) inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib keldi. Bu jarayon nafaqat fan va texnika, balki til tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tili ham zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yangilanib, ko'plab neologizmlar (yangi so'zlar) bilan boyimoqda. Bu narsadan bizning o'zbek tilimiz rivojlanib va kengayib kelmoqda. Tilimizdagi so'zlarning soni ko'paymoqda va nutqimizda yana ham aniq va ravon so'zlardan foydalanib, kengroq so'zlashish imkoniyati oshib bormoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasi ingliz tilidagi Artificial Intelligence (AI) atamasidan kirib kelgan bo'lib, dastlab ilmiy termin sifatida ishlatilgan. Bugungi kunda bu soha kengaygani sari unga oid yuzlab yangi so'zlar o'zbek tilida qo'llanilmoqda. Ularning ba'zilari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi, boshqalari esa asl shaklida saqlanadi. Masalan: Chatbot – “suhbatdosh dastur” yoki “sun'iy suhbatdosh”, Prompt – “so'rov”, “buyruq”, Neural network – “neyron tarmoq”, Machine learning – “mashinali o'rganish”, Deep learning – “chuqur o'rganish”, Data base – “ma'lumotlar bazasi”, Algorithm – “algoritm” Bu so'zlarning ko'pchiligi dastlab ingliz tilidan bevosita o'zlashgan. Ammo o'zbek tili ularni o'z grammatik tizimiga moslashtirish orqali tabiiylashtirmoqda. Masalan, “chatbot” so'zi xalq orasida “chatbotlar”, “bot yozish”, “bot yaratish” tarzida qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, ayrim so'zlar o'zbekcha shaklda yaratilmoqda: sun'iy ong, aqlli tizim, raqamli yordamchi, aqlli dastur, ma'lumotlar tahlili, nutqni tanish, yuzni aniqlash kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Yangi texnologik so'zlarning ko'payishi bilan birga, til me'yori va sinonimlar tanlovi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ba'zan bir tushuncha uchun bir necha variantlar paydo bo'lmoqda: Masalan, “sun'iy intellekt”, “sun'iy aql”, “aqlli tizim” iboralari turlicha qo'llanilmoqda. Shu bois tilshunoslar oldida yangi atamalarni me'yorga solish, rivojlanayotgan leksikani nazorat qilish vazifasi turibdi.

Bugun “sun’iy intellekt”, “neyrontarmoq”, “chatbot”, “prompt yozish” kabi iboralar ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim, OAV va kundalik so‘zlashuv tilida faol ishlatilmoqda. Sun’iy intellekt terminlari faqat texnik sohalarda emas, kundalik hayot, madaniyat va ta’lim tizimida ham qo‘llanilmoqda. Masalan: talabalar “ChatGPT” yoki “AI dasturlari”dan foydalanadi, o‘qituvchilar “raqamli yordamchi” orqali baholash tizimini yengillashtiradi, san’at sohasida esa “AI generatsiyasi” degan yangi ibora paydo bo‘ldi. Bu hodisa tilga yoshlar orasida keng tarqalgan rasmiy bo‘lmagan so‘zlar orqali yanada tez kirib kelmoqda va yangi avlodning raqamli tafakkur shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Biz yosh avlodlar sun’iy intellektlardan har kuni foydalanib bormoqdamiz va bu bizga katta yordam bermoqda. Sun’iy intellektlar nafaqat tashqi ishlarda balki o‘quv ishlarida ko‘plab ma’lumotlarni olib kelmoqdamiz.

O‘zbek tili hozirda raqamli muhitga kirib borayotgan jarayonda. Tilning yangi sharoitga moslashuvi uchun: sun’iy intellektga oid lug‘atlar, avtomatik tarjima tizimlari, ovozni matnga aylantiruvchi dasturlar, AI yordamida tahlil tizimlari yaratilmoqda. Bu esa o‘zbek tilining zamonaviy fan tili sifatidagi mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi raqamlashtirish davrida til o‘zgarishsiz qolmaydi. O‘zbek tili ham bu jarayonda faol ishtirok etib, o‘z leksik tarkibini boyitmoqda. Yangi so‘zlar— bu tilning kuchi, uning zamonga moslashish qobiliyatining isbotidir. Shunday ekan, har bir o‘zlashayotgan atama tilimizni kambag‘allashtirmaydi, aksincha, boyitadi, yangi ilmiy sohalarga kirish eshigini ochadi. Eng muhimi — nutqimizda va tilimizda sun’iy intellektlar orqali kirib kelgan so‘zlarni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Til va jamiyat jurnali. 2024-yil, №2.
2. Jo‘rayev M. Til va texnologiya: yangi davr leksikasi. Toshkent, 2023.
3. www.ziynet.uz
4. Oxford Languages. AI and Language Evolution Report, 2022.

SO‘ZLARNING KO‘CHMA MA’NOLARI VA ULARNING TURLARINI O‘QITISH USULLARI

ABDUQAXXOROVA DURDONA FARXOD QIZI

Magistr

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

@abduqahhorovadurdona9gmail.com

Annotatsiya. Semantik tahlil til birliklarining ichki tuzilmasini ochib beradi, ya’ni so‘zlar orasidagi ma’no munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya), ma’no ko‘chishi (metafora, metonimiya), ma’no torayishi yoki kengayishi, semantik maydonlar, paradigmatic va syntagmatic aloqalarni aniqlash orqali leksik tizimdagi mantiqiy bog‘liqliklarni tushunishga yordam beradi. Shunga ko‘ra, maqolamizda so‘zlarning ko‘chma ma’nolarini o‘qitish yuzasidan samarali va qiziqarli usullar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar. Ko‘chma ma’no turlari, “Sirli sandiq”, “Men ... bo‘lganimda”, “Qayta nomla” usullari.

Annotation. Semantic analysis reveals the internal structure of language units, that is, it helps to understand the logical relationships within the lexical system by identifying semantic relations between words (synonymy, antonymy, homonymy), meaning shifts (metaphor, metonymy), narrowing or broadening of meaning, semantic fields, as well as paradigmatic and syntagmatic relations. Accordingly, this article suggests effective and engaging methods for teaching figurative meanings of words.

Keywords. Types of figurative meaning, “Mystery Box”, “When I was...”, “Rename” methods.

So‘z ma’nolari 4 xil usulda ko‘chadi va quyidagicha nomlanadi:

1. Metafora – bu o‘xshashlik asosida yuzaga keladigan ma’no ko‘chishidir. Til birliklarida predmetlar, hodisalar yoki belgilar tashqi yoki ichki jihatdan o‘xshashligi asosida boshqa predmet-hodisa nomi bilan ifodalanadi⁴³.

Masalan: Uning ko‘zlari yulduzdek porlardi.

Buni shunday izohlashimiz mumkin:

Bu yerda yulduz so‘zi o‘zining asl osmonda nur taratuvchi jism ma’nosidan ko‘zning porlashini ifodalash uchun o‘tkazilgan – bu o‘xshatish asosidagi ma’no ko‘chishidir.

⁴³ G‘afurov N. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.103-b.

2. Metonimiya – bu narsa va hodisalar o'rtasidagi yaqinlik, ya'ni joylashuv, sabab-oqibat, muallif-asar kabi munosabatlar asosida bir so'zning boshqa so'z ma'nosida qo'llanishidir.[4:103].

Namuna sifatida shu gapni ko'rsak bo'ladi: U butun sinfni kuldirdi.

Izoh beradigan bo'lsak, aslida sinf – xona yoki o'quvchilar guruhi. Bu yerda “butun sinf” deganda sinfdagi odamlar, ya'ni o'quvchilar nazarda tutilgan. Joy nomi odamlar o'rnida qo'llanmoqda – yaqinlik asosida.

3. Sinekdoxa – bu qism va butun (yoki butun o'rnida qism) orasidagi munosabatga asoslangan ma'no ko'chishidir.[4:104].

Masalan: Har bir bosh hisobga olinadi.

Bu yerda bosh so'zi odam o'rnida ishlatilgan. Ya'ni har bir odam emas, “har bir bosh” deyilmoqda – bu qism orqali butunni ifodalash.

4. Vazifadoshlik (jonlantirish) – tirik bo'lmagan narsaga tirik mavjudot xususiyati berish asosida yuzaga keladigan stilistik ma'no ko'chishidir.

Bunga misol qilib, “Bahor tabiatga tabassum olib keldi” gapini aytsak bo'ladi.

Bu yerda bahor – jonli mavjudot kabi tasvirlanib, “tabassum olib kelmoq” harakati unga yuklangan. Bu jonlantirish (personifikatsiya) usuli hisoblanadi⁴⁴. Ushbu ma'no turlarini nomlashda biz mavzu ko'lami, aynan 5-sinf o'quvchilari doirasida bo'lganligi uchun ko'chma o'z nomi bilan qo'llamagan holda ularning vazifasiga ko'ra topshiriqlar berishga harakat qildik.

“Metafora – bu obrazli fikrlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib, til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning estetik dunyoqarashi, assotsiativ tafakkuri va nutq boyligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunos olim N.A. Mahmudova fikricha, “metafora vositasida bola hayotiy tajribasini badiiy va mantiqiy asosda ifodalashga intiladi, bu esa uning tafakkur darajasini yangi pog'onaga ko'taradi”[3:68].

“**Men ... bo'lganimda**” usuli. Ushbu usul xuddiki metafora ma'no ko'chish usuli bo'limiga kirishga o'xshaydi. Albatta biz bu ma'no ko'chish usulini metafora deb o'quvchilarga o'rgatmaymiz, shunchaki, ma'no ko'chish turiga ko'ra shart beramiz. Bunda esa harakatlar va holatlar ko'chadi.

Bu usuldan foydalanishdan maqsad – o'quvchinning tasavvurini va so'z boyligini rivojlantirish

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga maxsus savollar beriladi. Masalan, “Agar sen Quyosh bo'lganingda nima qilarding?”, “Sen bulut bo'lganingda qayerlarga

⁴⁴Jo'rayev N. Stilistika va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

borarding?”, “Agar kalit bo‘lsang, nimani ocharding?”, “Agar do‘stlik bir gul bo‘lsa, qaysi gul bo‘lardi?” kabi.

Bunga javoban esa o‘quvchilar “Men quyosh bo‘lsam, sovuq yuraklarni isitardim”, kabi ma’no ko‘chgan holatdagi gaplar tuzadilar.

Natijada, o‘quvchilar obrazli fikrlashga o‘rganadi va metafora mohiyatini bilib oladi.

“Mavhumlar mavjudga o‘tsa...” usuli. Ushbu usul kichik yoshdagi o‘quvchilar e’tiborini tortish bilan birga kattalarda ham qiziqish uyg‘otadi va bu usul ustida ishlashga undaydi. Negaki, bu usulda o‘qituvchi tomonidan *mehr, qahr-g‘azab, saxovat, do‘stlik, ishonch* kabi mavhum otlardan misollar beradi. O‘quvchilar bu so‘zlarni qanday tasavvur qilsalar shunday rasmda ifodalashadi va ular ishtirokida gaplar tuzishadi. Aniq ko‘rinib turibdiki, bu vaziyatda harakat ifodalovchi so‘zlar ko‘chadi. Misol uchun, ishonch so‘zi yordamida gap tuzish mumkin:

Ishonch bu – kalit. Men bu orqali ko‘plab insonlar qalbidagi qulflarni ocha olaman.

Bu

usulning samaradorligi shundaki, o‘quvchilar o‘z fikrini vizual ifoda qilib, ijodiy yondashadi.

“Jadval” usuli. Bu usul o‘quvchilarga fikrlarini tartibga solish yoki ketma-ketlikda ifodalashda yordam beradi.

Topshiriq shunday bo‘ladi: o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga jadval beriladi. Jadvalda esa ma’nan o‘xshatish mumkin bo‘lgan so‘z, o‘xshatilgan xususiyat va sababini yozish kerak bo‘ladi.

2.2.2-jadval

O‘qituvchi	Shamchiroq	Ilm nurini taratadi
Ona	Daryo	Mehri tuganmas bo‘ladi
Do‘st	Ko‘prik	Ko‘ngillarni birlashtiradi
Ota		
Aka-uka		
Maktab		

“Sirli sandiq” usuli. Ushbu usul musiqa jo‘rligida amalga oshiriladi. Ham o‘quvchilarni harakatga keltiradi, ham Ichida topshiriqlar yashirin bo‘lgani uchun sirlilikni saqlaydi. Sandiq ichiga shakliy, belgi-xususiyat, joylashgan o‘rni jihatidan

o'xshashlik kasb etadigan so'zlar joylashtiriladi. O'qituvchi musiqa qo'yishni boshlaydi va sandiqni o'quvchilar ketma-ketlikda bir-birlariga uzatadilar. Jarayon davomida musiqa o'chiriladi. Shu holatda sandiq kimning qo'lida qolsa, o'sha o'quvchi sandiqni ochib bir so'zni tanlaydi va u so'zga ta'rif beradi. Masalan, *quloq* so'zi chiqdi. O'quvchi uni olib uning bosh ma'nosi va ko'chma ma'nosini aytadi,

“Metonimiya – bu lug'aviy birlikning ma'nosi o'zining ma'nodosh birliklari bilan yaqinlik, bog'liqlik asosida ko'chishi. Metonimiya ifodalovchi bilan ifodalanadigan narsa o'rtasidagi vaziyatga oid yaqinlik asosida yuzaga keladi. Bu holatda nom boshqa narsaga o'tadi, lekin ular o'zaro bog'langan bo'ladi. Masalan, “Men G'afur G'ulomni o'qidim” degan gapda muallif o'rnida uning asari nazarda tutiladi”.[2:215].

Shunday bo'lsa-da, bizning tadqiqot mavzuyimiz 5-sinf o'quvchilariga yo'naltirilganligi sababli, metonimiya so'zi o'rniga uning vazifasiga ko'ra topshiriqlarlar berishimiz maqsadga muvofiqdir.

“**Qayta nomla**” usuli. Ushbu usulda o'quvchilar turli xil obyektlarni o'ziga bog'liq va doimo yonma-yon keladigan so'zlar yordamida qayta nomlaydilar. Buni amalga oshirish uchun 1 o'quvchi o'rnidan turib istalgan bir o'quvchini sheriklikka taklif qiladi va o'zi qayta nomlagan jumlaning aytadi. Tanlangan o'quvchi esa, qayta nomlangan jumlaning to'liq holatda, aslida qanday bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot beradi. Masalan:

Birinchi o'quvchi: “93” da “Amir temur” ga yetib oldim.

Ikkinchi o'quvchi: 93-raqamli avtobusda “Amir Temur” xiyoboniga yetib oldim.

Bu usulni qo'llash o'quvchilarda sinchkovlikni oshiradi, diqqatni jamlashga undaydi, hozirjavoblikka o'rgatadi.

“**Ismdan asargacha**” usuli – o'quvchilarda metonimik bog'liqlikni anglashni shakllantiruvchi metod bo'lib, bunda muallifning ismi orqali uning asari ifodalanadi. Gapda bevosita muallif nomi ishlatilgan bo'lsa-da, ma'no jihatdan u yaratgan ijod mahsuli – asar nazarda tutiladi.

Bu usuldan foydalanib dars o'tish orqali o'quvchilarda til birliklari orasidagi aloqadorlikni idrok etish, metonimiyaga oid misollarni tanib olish va yaratish mumkin.

Uni amalga oshirish uchun o'qituvchi asosiy tushunchani izohlaydi:

“Ba'zida gapda muallifning ismi aytiladi, lekin aslida u yozgan asar haqida gapiriladi. Bu holat metonimik bog'liqlik orqali yuz beradi.”

O'quvchilarga quyidagi misollar berish mumkin:

Men bugun G'afur G'ulomni o'qidim. G'afur G'ulomning asarini o'qidim.

Kechqurun Pushkindan tingladik. Pushkinning she'rlaridan tingladik.

Biz darsda Abdulla Oripovdan yod oldik. Abdulla Oripovning she'rini yod oldik.
Sinfda Hamid Olimjon bahsga sabab bo'ldi. Hamid Olimjon asari bahsga sabab bo'ldi.

O'qituvchi Atoyning sahifasini oching dedi. Atoyi asarlari joylashgan sahifani oching dedi.

Shu yo'sinda o'quvchilarga topshiriq:

Shunday gaplar tuzingki, muallif nomi aytilgan bo'lsin, lekin aslida uning asari haqida gap ketayotgan bo'lsin.

Bir guruh muallif nomlarini, ikkinchi guruh asar nomlarini yozadi. So'ngra aralashtirib, "qaysi muallif – qaysi asar" topiladi va u orqali qayta nomlash amalga oshiriladi.

Men "Inson qasidasi"ni sahnada ko'rdim. → Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" asari sahnalashtirilgan.

Shu hafta faqat Zulfiyani yod oldik. → Zulfiya qalamiga mansub she'rlar yod olindi.

Bugun Navoiyni tahlil qilamiz. → Navoiy g'azallarini tahlil qilamiz.

Uch guruh a'zolari darsda Cho'lponni muhokama qildilar. → Cho'lponning asarini.

Men Tolstoyni yurakdan o'qiymen. → Tolstoyning yozgan asarlarini.

"Ismdan asargacha" usuli orqali o'quvchi so'zning bevosita va bilvosita ma'nosi o'rtasidagi farqni o'zlashtiradi. Bu esa ularning semantik tafakkurini, tahliliy ko'nikmasini anglash darajasini oshiradi.

"Bu kim? Asari qayerda?" didaktik o'yini. Ushbu o'yinni amalga oshirishda o'quvchilar 4 ta kichik guruhlariga bo'linadilar va ularga quyidagi shaklda kartalar beriladi:

1-karta: "Muallif: Abdulla Qodiriy";

2-karta: "Asar: O'tkan kunlar";

3-karta: "Gap: Men Abdullani o'qidim."

O'quvchilar kartalarni to'g'ri bog'lab, metonimik aloqani aniqlaydi.

Bu o'yinda shart shunday qo'yiladiki, o'quvchilar ham tez ham to'g'ri bog'liqlik hosil qilishlari kerak bo'ladi.

Sinekdoxa – bu metonimiyaning bir turi bo'lib, narsaning bir qismi butun o'rnida, butuni esa uning qismi o'rnida qo'llanadi. Masalan, "Besh qo'l barobar emas" iborasida qo'l so'zi barmoqlar ma'nosida ishlatilgan.[1].

"Qismidan top" usuli. Ushbu usul o'quvchilarga sinekdoxaning asosiy mazmuni anglashga yordam beradi. Ya'ni uning vazifasini tushunishga undaydi.

Buni qo'llash uchun gapda biror narsaning faqat bir qismini aytiladi va bu orqali o'quvchidan quyidagi gaplar yordamida butunini topish so'raladi.

Bir tom ostida yashayapsizmi, bir-biringizni xurmat qiling. → Butun uy nazarda tutilmoqda.

Qo'sh qo'llab topshirasan. → Butun tana nazarda tutilmoqda.

Chorvada ikki boshni ajratib qassobga yetkaz. Ehson qilib tarqatsin. → 2 ta hayvon.

“Butun ichiga yashiringan qism” usuli. Bu usulimiz yuqorida keltirilgan usulning aksi bo'lib, bunda butun orqali qismni topishga yo'naltirilgan topshiriq beriladi. Ya'ni bunda o'qituvchi o'quvchilarga gaplar taqdim etadi va ular bu gaplarda ishtirok etgan so'zlar orqali asl ma'noni anglashga harakat qiladilar.

O'zbekiston Olimpiada o'yinlarida oltin medallar bilan taqdirlandi. → Sportchilari medal oldi.

Butun sinf “5” baho oldi. → Sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar olgan.

Shifoxona tomonidan tez yordam ko'rsatildi. → Shifoxonadagi ayrim shifokorlar tez yordam ko'rsatgani nazarda tutilmoqda.

Bunday usullarni o'quvchilarda qo'llash birinchi navbatda ularning mavzuni o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi, tafakkurini kengaytiradi va o'rganilgan bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

“Jihozlar so'zlaganda” usuli. Ushbu usul orqali o'quvchilar buyum yoki jihozlar ishtirok etgan obrazli gaplarni tahlil qilish orqali vazifasiga asoslangan ko'chma ma'noni tushunib yetadi.

O'quvchilarga quyidagi real hayotda ishlatiladigan gaplar beriladi. Ular bu gaplarda buyumning asl emas, obrazli vazifada ishlatilganini tushunadilar:

Chiroqning piligi pasaydi. Umidsizlik, ruhiy tushkunlik belgisi

Ko'chada chiroq hamma yoqni yoritib turibdi. Yo'lni ko'rsatuvchi narsa (vazifa)

Quloqlarim radiodek eshitib turibdi. Juda tiniq va e'tiborli eshitish

Uning miyasi kompyuterday ishlaydi. Juda tez fikrlaydi

Soatlar yurmeyapti. Vaqt o'tgani bilinmayapti yoki ishsizlik

U toshdek jim edi. Hech qanday his tuymaydi

Berilgan gaplarni tahlil qiladilar. Har bir gapda buyum nima ish qilmoqda, u aslida kim yoki nima o'rnida kelgan, degan savol o'rta tashlanadi.

Namunaviy savollar:

Nega chiroq odam ruhiy holatini ifodalayapti?

Nega quloq radioga o'xshatilgan?

Nega yurak bilan tosh so'zlari bir-biriga bo'landi?

Shunday gaplar bilan tushuncha hosil qilinganidan so'ng o'quvchilarga mana bunday gaplar beriladi, ular buyumning ko'chma ma'nodagi vazifasini topadi.

1. *Kasalxonaning yuragi to'xtab qoldi.*

Yechim: Operatsion xona yoki generatsiya tizimi ishlamay qoldi.

2. *Uning ustidagi lampochka o'chib qolganday edi.*

Yechim: *U fikrlamay qoldi, hayratda qoldi.*

3. *U sinfga kirganida, ventilyatorday gap tarqaldi.*

Yechim: Uning xabari juda tez tarqaldi.

4. *Telefon bugun jim – yuragim to'xtaganday.*

Yechim: Suhbat bo'lmayapti, quvonch yo'q.

Bu usulni qo'llash natijasida o'quvchilar buyumlarning ko'chma, vazifadosh obraz sifatida ishlatilishi mumkinligini tushunadi, obrazli nutq, fikr aniqligi, badiiylik va nutqiy tafakkur rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. Stilistika va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005. 215-b.
3. Mahmudova N. O'zbek tilining stilistikasi. — Toshkent: Fan, 2008. 68-b.
4. G'afurov N. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.103-b.

RAQAMLI ASR VA SO'ZNING YANGI QIYOFASI**SOATOVA SARVINOZ KARIM QIZI**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va internet tili o'zbek tiliga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, tilshunoslikning zamonaviy rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Internet muhitida tildagi qisqarishlar, yangi so'zlar, ifoda vositalari hamda ularning adabiy til me'yorlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada raqamli asrda milliy tilni asrash va rivojlantirish strategiyalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli davr, tilshunoslik, internet tili, adabiy til, til o'zgarishi, milliy qadriyatlar.

Abstract: This article discusses the influence of digital technologies and the Internet language on the Uzbek language, as well as the modern development of linguistics. The study analyzes linguistic abbreviations, new expressions, and their impact on literary norms in online communication. It also explores strategies for preserving and developing the national language in the digital age.

Keywords: digital era, linguistics, internet language, literary language, language change, national values. **Аннотация:** В статье рассматривается влияние цифровых технологий и интернет-языка на узбекский язык, а также современное развитие лингвистики. Анализируются сокращения, новые выражения и их влияние на литературные нормы в онлайн-коммуникации. В работе также освещаются стратегии сохранения и развития национального языка в цифровую эпоху. **Ключевые слова:** В цифровая эпоха, лингвистика, язык интернета, литературный язык, языковые изменения, национальные ценности.

Tilshunoslik (lingvistika) – tilning tuzilishi, vazifasi, rivojlanish qonuni -yatlari va jamiyatdagi o'rni haqidagi fan hisoblanadi. U inson tafakkuri, madaniyati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Tilshunoslik qadimdan falsafa, mantiq va adabiyotshunoslik bilan uzviy aloqada bo'lgan. Zamonaviy davrda esa u texnologiya, axborot tizimlari, sun'iy intellekt kabi sohalar bilan hamkorlikda rivojlanmoqda. Har bir davrda til jamiyatning ijtimoiy-madaniy holatini ifoda etuvchi eng muhim vosita bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Tilshunoslikning asosiy maqsadi – tilning ichki tizimini o'rganish, so'z boyligini, grammatik qurilmani, talaffuz va yozuv tizimlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir. Shu bilan birga, tilshunoslik

amaliy jihatdan ta'lim, tarjima, matn tahlili va kommunikatsiya sohalarida keng qo'llaniladi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida lingvistik tahlil jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, korpus lingvistika va sun'iy intellekt asosidagi tahlil metodlar shakllanmoqda.

XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt tizimlari jamiyatning axborot almashish mexanizmini tubdan o'zgartirdi. Bu o'zgarishlar tildan chetda qolmadi. Tildagi yangi birliklar, qisqartmalar va ifoda shakllari nutqning tabiiy qiyofasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun raqamli asrda so'zning yangi qiyofasini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar tilning rivojlanish jarayonini jadallashtirdi. Internet tili – bu tezkorlik, qisqalik va qulaylik tamoyillariga asoslangan yangi kommunikatsion shakldir. Masalan, foydalanuvchilar 'OK', 'LOL', 'BRB' kabi qisqartmalardan, shuningdek, emojilar va belgilar orqali his-tuyg'ularini ifodalashadi. Bu holat muloqot jarayonini soddalashtiradi, ammo adabiy tilning estetik imkoniyatlarini cheklashi mumkin [1]. Tilshunos olim D. Crystal o'z asarlarida internet tilini 'tilning tabiiy evolyutsiyasi' sifatida baholaydi [2]. Uning fikricha, raqamli muloqot tilning moslashuvchanligini oshiradi va uni yangi madaniy hodisaga aylantiradi. Biroq, o'zbek tilshunoslari bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, salbiy ta'sirlarini ham ko'rsatadilar. Masalan, yoshlarning qisqartirilgan, talaffuzi buzilgan so'zlardan foydalanishi natijasida adabiy til me'yorlari zaiflashmoqda [3]. Raqamli asrda milliy tilni saqlab qolish – madaniy mustaqillikning muhim omillaridan biridir. Til siyosati va ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi lozim. Avvalo, raqamli platformalarda adabiy tilda sifatli kontent yaratish, davlat va ilmiy muassasalarda til korpuslarini shakllantirish zarur. Shu orqali tildagi yangi birliklar me'yorlashtiriladi va keng jamoatchilik orasida to'g'ri ishlatilishi ta'minlanadi. Ta'lim tizimida esa raqamli savodxonlik bilan bir qatorda lingvistik madaniyatni shakllantirish, yoshlarni adabiy tildan to'g'ri foydalanishga o'rgatish lozim. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda milliy tildagi madaniy kontentni ko'paytirish ham muhim. Shu bilan birga, sun'iy 899oppish899c asosidagi til texnologiyalarini rivojlantirish o'zbek tilining global maydonda faol ishlatilishiga xizmat qiladi [4]. XXI asr insoniyat tarixida raqamli texnologiyalar davri sifatida alohida o'rin tutadi. Internet va axborot-kommunikatsiya vositalari jamiyatning barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Ular ta'lim, madaniyat, iqtisodiyot, hatto kundalik muloqotga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shubhasiz, bu jarayon tildan ham chetda qolmadi. Til jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini aks

ettiruvchi asosiy ko'zgudir. Shu sababli internetning tilga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Internet tili o'zining tezkorligi, ixchamligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy maqsadi — ma'lumotni eng qisqa vaqt 900oppis, eng 900opp shaklda yetkazishdir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarda qisqa jumlar, qisqartmalar va belgilar keng qo'llaniladi. O'zbek tilida ham "slm" (salom), "rhm" (900oppis) kabi ixcham shakllar keng tarqalgan.

Adabiy til milliy o'zlikning eng muhim ko'zgusidir. Internet tili esa amaliy muloqot ehtiyojidan kelib chiqqan, lekin ba'zida adabiy me'yorlardan chetlashadi. Tilshunos D. Crystal internet tilini "til rivojlanishining tabiiy bosqichi" sifatida baholagan bo'lsa, N. Baron qisqartmalar va norasmiy shakllarning ko'payishi adabiy nutq sifatiga xavf tug'dirishini ta'kidlaydi. Zamonaviy o'quvchi va talabalar internet tili unsurlarini dars jarayonida ham ishlatishadi. Bu esa ilmiy yozma nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim tizimida "raqamli nutq madaniyati" fanini joriy etish zarur. Tarjima jarayonida ingliz tilidan kirib kelgan "like", "post", "chat" kabi so'zlar bevosita ishlatilmoqda. Ularni ona tilidagi muqobillar — "yoqtirish", "e'lon", "suhbat" kabi shakllar bilan almashtirish milliy tildagi muvozanatni saqlaydi. Internet tili jamiyat madaniyatining yangi bosqichini belgilab berdi. U orqali dunyoqarash, muloqot shakli, hatto insonlar o'rtasidagi psixologik aloqalar ham o'zgarmoqda. Shu bois internet tili ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida alohida e'tiborga loyiq. Qisqa va tezkor muloqot shakllari inson tafakkurining ifoda uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ba'zida hissiy belgilarga (kulgini yoki hayratni bildiruvchi ramzlar) suyanish to'liq so'z ifodasini almashtiradi. Bu esa chuqur fikrlash odatini susaytiradi. Milliy til siyosati internet tili bilan uyg'un ravishda olib borilishi lozim. Ona tilida raqamli kontentni ko'paytirish, davlat saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining faol ishlatilishini ta'minlash muhimdir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, raqamli asrda tilshunoslik yangi bosqichga chiqdi. Internet tili va raqamli muloqot so'zning yangi shaklini yaratmoqda. Ammo bu jarayon milliy tilning qadriyatlariga xavf tug'dirmasligi kerak. Asosiy maqsad — raqamli imkoniyatlardan oqilona foydalanish, adabiy tilning sof ko'rinishini saqlash va yosh avlodga til madaniyatini mustahkamlashdir. Til bu — millatning ruhi, madaniyatining ustuni va tarixiy xotirasidir. Demak, raqamli asrda ham o'zbek tili o'z milliy qiyofasini saqlab, dunyo miqyosida o'z ovozi yangrata olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.

2. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
3. G'afurov, U. (2018). Til va madaniyat: tarjima jarayonidagi muammolar. Toshkent.
4. Zohidov, F. (2018). Raqamli til va madaniyat. Toshkent: Fan.
5. Karimov, I.A. (1999). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Latifjonova, Sh. (2012). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va ilmiy sohadagi farmonlari.

TIL VA TAFAKKUR O'RTASIDAGI MUNOSABAT

ABDIXOLIQOVA NODIRA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyot
abdixoliqovanodira123@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabat, ularning inson ongidagi bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatidagi roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Til tafakkurning moddiy shakli sifatida uning ifoda vositasi, tafakkur esa tilning mazmuniy asosidir. Maqolada til va tafakkurning o'zaro ta'siri, ularning falsafiy, psixologik va lingvistik talqinlari, turli tilshunoslar nazariyalari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: til, tafakkur, ong, nutq, semantika, konsept, strukturalizm, psixolingvistika.

Annotation: This article analyzes the interrelationship between language and thought as complementary processes in human consciousness. Language is viewed as the material form of thought and its means of expression, while thought represents the semantic foundation of language. The study explores the philosophical, psychological, and linguistic interpretations of this interaction, referring to various linguistic theories.

Keywords: language, thought, mind, speech, semantics, concept, structuralism, psycholinguistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь между языком и мышлением как взаимодополняющие процессы человеческого сознания. Язык рассматривается как материальная форма мышления и средство его выражения, а мышление — как смысловая основа языка. Анализируются философские, психологические и лингвистические аспекты их взаимодействия.

Ключевые слова: язык, мышление, сознание, речь, семантика, концепт, структурализм, психолингвистика.

Til va tafakkur insoniyat sivilizatsiyasi rivojining eng muhim poydevorlaridan biridir. Tafakkursiz til, tilsiz esa tafakkur to'liq shakllanmaydi. Bu ikki hodisa bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro uzviy bog'langan murakkab jarayonlardir. Til orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, tafakkur esa tilga mazmun bag'ishlaydi.

Tilning asosiy vazifalari

Til – bu fikrlarni ifodalash, bilimlarni almashish, his-tuyg'ularni yetkazish vositasi. Ibtidoiy jamiyatda til oddiy signallar tizimi bo'lgan bo'lsa, insoniyat taraqqiyoti davomida u murakkab tizimga aylandi. Til inson tafakkurining tashqi ko'rinishi bo'lib, u bizning dunyoni qabul qilishimiz va ifodalashimizga yordam beradi.

Tafakkur nima? Tafakkur — bu ong faoliyatining asosiy shakli bo'lib, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, ob'ekt va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni anglash jarayonidir. Tafakkur ko'pincha til orqali ko'rsatilib, rivojlanadi.

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, til va tafakkur bir-birini to'ldiradi va ta'sirlashadi. Til inson tafakkurining shakllanishi uchun vosita bo'lsa, tafakkur tilni yaratadi va rivojlantiradi.

11. Til tafakkur shakllanishiga ta'siri

Yangi so'zlar va sintaksis qoidalarini o'rganish tafakkur jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Til orqali inson atrof-muhitni tasniflaydi, bilimlarni tizimlashtiradi, mantiqiy fikrlaydi.

12. Tafakkur orqali tilni anglash

Tafakkur tilning ma'nosini anglash, so'zlarni to'g'ri kontekstda qo'llashga yordam beradi. Masalan, yangi texnik so'zlar vujudga kelganda, ularni tushunish va qo'llash uchun avvalo tafakkur jarayoni kerak.

13. Til va tafakkurning o'zaro ta'siri

Yana bir jihat — til yangiliklar kiritib, tafakkur qobiliyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, inson fikrlash usullaridagi o'zgarishlar tilni yangilashga olib keladi.

Til va tafakkurning falsafiy mohiyati

Til — moddiy shakl, tafakkur — ma'naviy mazmundir. Falsafada til tafakkurning ifoda vositasi sifatida talqin qilinadi. Aristotel “fikir so'z bilan shakllanadi” degan; Gegel esa “til — fikrning tanasi” deb hisoblagan. Bu g'oyalar keyinchalik tilshunoslikda ham o'z aksini topgan.

Til va tafakkurning psixologik jihati

Psixologiyada tafakkur insonning bilish faoliyati mahsuli deb qaraladi. Nutq esa tafakkurning tashqi ifodasidir. L.S. Vygotskiy til va tafakkurni bir butun jarayonning ikki 903oppis sifatida tahlil qilib, “fikir so'zda tug'iladi va so'z orqali namoyon bo'ladi” degan.

Lingvistik yondashuvlar

Tilshunoslikda bu masala turlicha talqin qilinadi. Strukturalizm nazariyasi (F. de Sossyur)ga ko'ra, til belgilar tizimi bo'lib, tafakkur bu belgilar orqali shakllanadi. Kognitiv tilshunoslik vakillari (N. Chomskiy, D. Lakoff) esa inson tafakkurining tuzilmasini tilda aks etuvchi konseptlar orqali tushuntiradi.

Til tafakkurni shakllantiruvchi omil sifatida

Insonning tafakkur darajasi uning til boyligi bilan chambarchas bog'liq. Boy so'z zaxirasi va grammatik tizim fikrlashni kengaytiradi. Shu jihatdan ona tili inson tafakkurining tabiiy poydevoridir. O'z tilini mukammal bilgan shaxs o'z fikrini aniq, lo'nda va obrazli ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

Milliy tafakkur 904oppis

Til milliy tafakkurning ko'zguvidir. Har bir xalq tili o'ziga xos dunyoqarashni ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "or", "vijdon", "mehr", "qadr" kabi so'zlar millatning axloqiy tafakkurini yoritadi. Shu tariqa til milliy ruhiyatni, tarixiy tajribani va madaniyatni avloddan avlodga uzatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Til va tafakkur munosabatining zamonaviy talqini

Bugungi kunda sun'iy 904oppish904c, kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistika kabi sohalar ham til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganmoqda. Inson miyasi tilni qanday ishlab chiqadi va uni qanday fikrga aylantiradi — bu yangi davr tadqiqotlarining asosiy yo'nalishiga aylangan.

Xulosa: Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat insonning bilish faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. Til fikrni ifoda etuvchi, tafakkur esa uni mazmun bilan boyituvchi kuchdir. Ularning uyg'unligi inson ongining shakllanishi, milliy o'zlikning ifodalanishi va madaniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shuning uchun har bir inson o'z ona tilini mukammal bilishi — uning tafakkurini yuksaltiruvchi eng muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky, N. Language and Mind. Cambridge University Press, 2006.
2. G'ulomov, A. Til va nutq psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2016.
3. Humboldt, W. von. On Language: The Diversity of Human Language-Structure. Cambridge, 1999.
4. Jo'rayev, N. Umumiy tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan, 2017.
5. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 2003.
6. Pavlov, I.P. Ocherki o rabote golovnogo mozga. Moskva, 1951.
7. Qarshiboyev, A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 201
8. Rahmonov, T. Til va tafakkur masalalari. Samarqand, 2020.

9. Saussure, F. de. Course in General Linguistics. London: McGraw-Hill, 2011.
10. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, 1921.
11. Vygotsky, L.S. Thought and Language. MIT Press, 1986.
12. Whorf, B.L. Language, Thought, and Reality. MIT Press, 1956

TILSHUNOSLIKDA TARJIMA NAZARIYASI: O'ZBEK TILIDAN BOSHQA TILLARGA TARJIMA MUAMMOLARI**HABIBULLAYEVA ZIYODA ANVAR QIZI**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima nazariyasi masalalari, xususan, o'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima jarayonida uchraydigan muammolar yoritilgan. Asosiy e'tibor o'zbek tilining lingvistik xususiyatlari, milliy madaniyat bilan bog'liq realiyalar, grammatik va 906oppish906 tafovutlarga qaratilgan. Shuningdek, tarjima amaliyotida ekvivalentlik, adekvatlik va milliy-madaniy o'ziga xosliklarni saqlash kabi nazariy masalalar tahlil qilinadi. Maqola yakunida tarjimaning samaradorligini oshirish uchun ba'zi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, o'zbek tili, ekvivalentlik, madaniy realiyalar, lingvistik tafovut, tarjima muammolari.

Abstract: In this article, issues of translation theory, in particular the challenges encountered in translating from Uzbek into other languages, are examined. The main focus is placed on the linguistic features of the Uzbek language, cultural realia associated with national traditions, as well as grammatical and semantic differences. Furthermore, theoretical aspects such as equivalence, adequacy, and the preservation of national-cultural specificity in translation practice are analyzed. The article concludes with several scientific and practical proposals aimed at improving the effectiveness of translation.

Keywords: translation theory, Uzbek language, equivalence, cultural realia, linguistic differences, translation problems

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы теории перевода, в частности, проблемы, возникающие в процессе перевода с узбекского языка на другие языки. Основное внимание уделяется лингвистическим особенностям узбекского языка, культурным реалиям, связанным с национальными традициями, а также грамматическим и семантическим различиям. Кроме того, анализируются такие теоретические аспекты, как эквивалентность, адекватность и сохранение национально-культурной специфики в практике перевода. В заключение статьи выдвигаются некоторые научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности перевода.

Ключевые слова: теория перевода, узбекский язык, эквивалентность, культурные реалии, лингвистические различия, проблемы перевода

Tarjima nazariyasi tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning asosiy vazifasi ikki til va ikki madaniyat o'rtasida mazmuniy hamda uslubiy moslikni ta'minlashdan iboratdir. O'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni o'ziga xos lingvistik va madaniy qiyinchiliklar bilan ajralib turadi. Shu sababli bu jarayonni chuqur o'rganish va ilmiy asoslash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tarjima nazariyasi ekvivalentlik, adekvatlik, uslubiy moslik, 907oppish907 to'liqlik va 907oppish907c maqsadlarni o'rganadi. Nazariy bilimlar tarjima amaliyotida to'g'ri yondashuvni shakllantiradi va tarjimonning madaniy hamda lingvistik kompetensiyasini oshiradi. O'zbek xalqiga xos an'ana va urf-odatlar bilan bog'liq tushunchalarni boshqa tilga ko'chirishda tarjimon izohlash yoki moslashtirish (adaptatsiya) usullaridan foydalanadi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat lingvist, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi.[1]

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, Yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelmoqda.

Bilim va texnologiyalar jadal rivojlanishi oqibatida zamonaviy davr bugungi jamiyatda barcha jihatlarini qamrab olgan 907oppish907 zamonaviy iqtisodiyot o'zgarib boraytgan sharoit davrida, shuningdek turli xil sohalariga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlar-mutaxassislar bugungi kunda alohida ehtiyojga munosibdir. Shu sababli keng bilimli tarjimon mutaxassislarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.[2]

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilm-fan misli ko'rilmagan natijalarga erishilmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini

doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobiliyatini oshirib borish va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

Tarjimashunoslik sohasining dolzarb muammolarini o'rganishda ko'plab olimlar asarlari muhim ahamiyatga ega. Tarjima nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi murakkabliklar bo'yicha klassik yondashuvlardan biri rus tarjimashunosi V.N. Komissarov tomonidan ishlab chiqilgan. U o'zining "Tarjima nazariyasining asoslari" nomli asarida tarjimada ekvivalentlik darajalarini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi va tarjimon nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki manoning kommunikativ funksiyasini ham hisobga olishi lozimligini qayd etadi. Komissarov fikricha, "tarjima jarayonida original mazmunini to'liq saqlab qolish amaliy jihatdan imkonsiz, shuning uchun tarjimon kompromissga tayyor bo'lishi kerak" (Komissarov, 1990). Yana bir muhim manba sifatida G.V. Chernovning "Sinxron tarjima nazariyasi" asarini keltirish mumkin. Chernov lingvistik va madaniy tafovutlar masalasini chuqur tahlil qilib, tarjimonning ijodkorlik qobiliyatini ahamiyatli deb biladi. Uning fikricha, "madaniyatlararo tafovutlarni bartaraf etish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir" (Chernov, 1987). Shuningdek, ingliz tarjimashunosi Piter Nyumarkning "Approaches to Translation" (1981) asari tarjimashunoslik sohasidagi muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Nyumark tarjimada mazmunni saqlash va uslubni moslashtirish o'rtasidagi muvozanatga alohida e'tibor qaratadi. U badiiy matnlar tarjimasida "erkin tarjima" yondashuvi samaraliroq bo'lishini, texnik va ilmiy matnlarda esa "so'zma-so'z tarjima" usuli ko'proq qo'llanishi lozimligini ta'kidlaydi.[3]

Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi talablarga amal qilinishi lozim: tarjima ekvivalentiga, tarjima aniqligiga, tarjima ma'lumotlar sifatiga, tarjima mantiqiyiligi va uning yoritilish sifatiga. Ilmiy-texnik matn sifatli tarjimaga ega bo'lishi uchun, tarjimon quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- Chet tili nazariyasi, tilning fonetikasiga, leksikasiga va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega bo'lishi lozim;

- Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish xususiyatlar ko'nikmasi amaliyotiga;

- Lingvistik amaliy bilimga (tarjima usullari, transformasiya, so'zlar ekvivalentini almashtirish ko'nikmasi, so'zlar qo'shish ko'nikmasi, atamalar bilan tasvirlash ko'nikmasi va hokozo);

- Matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jummalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobiliyatiga ega bo'lish lozim (bunda maxsus ilmiy – texnik matnni tarjima qilishda yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinadi) [4]

Eng asosiysi tarjimada bilinmas muammolardan biri bu tarjimon "ilmiy tarjima" nima ekanligini to'liq tushunchaga ega bo'lmaslik. Ilmiy tarjimoni muvofaqiyatli bajarish uchun, uni boshqa tarjima turlaridan farqi nimada ekanligini tarjimon tasavvurga ega bo'lishi shart. Umuman olganda, ilmiy uslub tarjmasi, tadqiqot mavzusiga oid ko'plab matnlarni o'z ichiga oladi – tezislardan boshlab, referatlar va maqola taqrizlarini, diplom, dissertatsiya va monografiya qo'l yozmalari o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagi ish turlarini tarjima qilishda quyidagi faktorlarga e'tibor berilishi lozim: tarjima maqsadi, tarjima uslubi, tarjimadagi matnni tashkil qilish va uning qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik munosabatlar.[5]

Tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasiga to'g'ri yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Original matn mazmunini to'liq saqlab qolish amaliy jihatdan qiyin bo'lsa-da, tarjimon matnning kommunikativ vazifasini to'g'ri aks ettirishga intilishi lozim. Bu ayniqsa texnik, ilmiy va badiiy matnlar tarjimasida muvozanatni saqlash uchun zarurdir. Tarjimon madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olib, milliy madaniy elementlarni boshqa tillarda to'g'ri aks ettira olishi lozim. Bunday holatda so'zma-so'z tarjima o'rniga kontekstual moslashuvning ustuvorligi ta'kidlanadi. Shuningdek, tarjima jarayonida malakali kadrlarning yetishmasligi muhim muammolardan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda. Yuqori sifatli tarjimonlarni tayyorlash uchun til bilimi bilan birga madaniyatshunoslik, texnik 909oppish maxsus terminologiya bo'yicha chuqur bilimlarni ham shakllantirish zarur. Tarjima sifati bevosita nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligiga bog'liqdir.[6]

Zamonaviy texnologik rivojlanish tarjimashunoslik sohasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari tarjimonlar faoliyatini yengillashtirgan bo'lsa-da, inson omili hali ham muhim hisoblanadi, ayniqsa murakkab badiiy matnlar yoki madaniy mazmunni o'z ichiga olgan asarlar bilan ishlashda. Tarjima nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi bo'shliqni bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi. Ilmiy yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq etish orgali tarjima jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tarjima me'zonlarining universal tizimi ishlab chiqilsa, turli janrdagi matnlarni tarjima qilishda yaxlit yondashuvni shakllantirishga erishiladi.[7]

Tarjimashunoslik sohasida olib borilgan tahlillar shuuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonining murakkabligi nafaqat lingvistik omillar, balki madaniy, ijtimoiy texnologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu murakkablikni boshqarish uchun tarjima nazariyasini rivojlantirish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chuqur ilmiy

izlanishlar olib borish zarur. Bir jihatdan, tarjimada ekvivalentlik masalasi asosiy ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Tarjimon original matn mazmuni va uslubini mos ravishda yetkazishga intilishi kerak, ammo bu har doim ham mukammal bajarilmaydi. Bu muammo, ayniqsa, madaniyatga oid terminlar va iboralarni tarjima qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli, ekvivalentlikni ta'minlashda nazariya va amaliyot o'rtasidagi muvozanatni dolzarb hisoblanadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar, jumladan grammatik qurilishdagi farqlar, leksik birliklarning ekvivalentsizligi hamda frazeologik iboralarning milliy xususiyatlari tarjima samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek xalqiga xos madaniy realiyalarni boshqa tilda to'laqonli ifodalash tarjimon oldida murakkab vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu muammolarni yengib o'tishda tarjimonning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda madaniy kompetensiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima nazariyasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotning ham ajralmas qismi bo'lib, u orqali ikki xalq o'rtasida o'zaro tushunish, tajriba almashish va ma'naviy yaqinlashuv ta'minlanadi. Demak, tarjimaning sifatini oshirish uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va tarjimonlarning ilmiy salohiyatini doimiy rivojlantirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latifjonova Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2012
2. Murodqosimov A. Nemis va o'zbek tillarida so'z yasash usullari. Toshkent, 2020
3. Rizaev Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2005
4. Zohidov F. Tarjimada madaniyatlararo tafovutlar. Toshkent, 2018
5. G'afurov U. Til va madaniyat: tarjima jarayonidagi muammolar. Toshkent, 2018
6. Karimov Sh. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima muammolari. Toshkent, 2020
7. To'xliyev B. Tarjima san'ati va nazariyasi. Toshkent, 2005

BUGUNGI ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI**IBATOVA MARDONA MADAMIN QIZI**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolar va masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bundan tashqari lingvokulturologiya, antropotsentrik tilshunoslik kabi terminlarga ham izohlar keltirilib o'tilgan. Hamda lingvokulturologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotchilar haqida ham aytib o'tilgan. Zamonaviy tilshunoslikdagi milliy korpus tushunchasi ham rus tili milliy korpusiga ham to'xtalib o'tilgan. Bunda rus tili milliy korpusining turlari haqida juda qiziqarli ma'lumotlar berilib o'tilgan. Maqolada lison- nutq, milliy til, sun'iy intellekt kabi masalalar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract: This article pays special attention to the current problems and issues of modern linguistics. In addition, explanations are given to terms such as linguoculturology and anthropocentric linguistics. It also mentions researchers who have conducted research in linguoculturology. The concept of a national corpus in modern linguistics also touches on the national corpus of the Russian language. It provides very interesting information about the types of the national corpus of the Russian language. The article also provides information on issues such as language-speech, national language, and artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется актуальным проблемам и вопросам современной лингвистики. Кроме того, даются пояснения таким терминам, как «лингвокультурология» и «антропоцентрическая лингвистика». Упоминаются исследователи, проводившие исследования в области лингвокультурологии. Понятие национального корпуса в современной лингвистике затрагивает и национальный корпус русского языка. Приводятся

весьма интересные сведения о типах национального корпуса русского языка. В статье также рассматриваются такие вопросы, как «язык-речь», «национальный язык» и «искусственный интеллект».

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, korpus, til, jamiyat, sun'iy intellekt, psixolingvistika, sotsiologiya, metamatn, lison, nutq.

Key words: linguoculturology, corpus, language, society, artificial intelligence, psycholinguistics, sociology, metatext, language, speech.

Ключевые слова: лингвокультурология, корпус, язык, общество, искусственный интеллект, психолингвистика, социология, метатекст, язык, речь.

Bugungi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida yuksalish davri talablaridan kelib chiqib o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlarning amalga oshirilgani, o'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

A.Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur..." ya'ni, tilning shunchalik sharafi bo'lgani bilan u nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir deya ta'rif berganliklarini ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbek an'anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo'lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o'zbek substansial tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda.

Jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalar - lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg'or fan yo'nalishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug'ullanmoqda.[1;2019]

Tilshunoslikka oid muammolarni esa an'anaviy va zamonaviy kabi turlarga ajratish mumkin. lison hamda nutq hodisalarini tadqiq etish va jamiyat talabiga javob bera oladigan o'quv ishlarini tashkil etish kiradi.

Zamonaviy muammolar sirasiga informatsion tillar va ularning inson tiliga ta'siri, mashinaviy tarjimaning lingvistik asoslarini yaratish, lingvistik hujjatlarni avtomatik tarzda referatlash, indekslashtirish va annotatsiyalash ishlarni lingvistik jihatdan ta'minlash kabi muammolarni hal etish kiradi. "Zamonaviy tilshunoslik muammolari"

kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta'sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan **lingvokulturologiya** (lot. lingua – til + lot. cultura – ishlov berish + yun. logos – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir.[2;2013]

XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilarni ortiqcha qiziqitirmay qo'ydi. Lingvistika yana psixologiya va sotsiologiya bilan yaqindan munosabatga kirishishga intila boshladi. O'zbek lingvistlari oldida hozirgi vaqtda tilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal o'zlashtirishni ta'minlovchi ta'lim maqsadiga mos dastur, qo'llanma va darsliklar, o'quv-metodik ishlari barpo etishdek dolzarb vazifa turibdi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun oliy o'quv yurtlari hamda O'zRFA tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi aloqalar samaradorligini oshirish, salohiyatli kuchlarni birlashtirish, moddiy-texnika bazasini hamkorlikda yaratish va undan unumli foydalanish zarur bo'ladi.[1;3;2019]

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, lingvokulturologiya termini esa **V.N.Teliya** rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. [3;2012]

Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar.

Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

- 1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
- 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
- 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir.

Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.

Zamonaviy tilshunoslik muammolarig, yana Milliy Korpus masalasini keltirsak bo'ladi.

Korpus –bu bir necha yoki muayyan til matnlarining yig'indisiga asoslangan elektron shaklda to'plangan ma'lumot (so'rovnomalar)lar tizimidir.

Milliy korpus esa muayyan tilning ma'lum davr (yoki davrlar)dagi maqomi, janrlari, uslublari, hududiy hamda ijtimoiy ko'rinishlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassisleri tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o'rganish uchun xizmat qiladi.

Jahonning ko'pgina yirik tillari allaqachon ilmiy ishlanganligi, hajmi va ko'lamiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi o'zining milliy korpusiga ega.

Masalan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan Britaniya milliy korpusi (BMK)dir. Aksariyat milliy korpuslar mazkur loyiha asosida shakllangan.

Shuningdek, Praganing Karlova universiteti tomonidan tuzilgan Chex milliy korpusi ham slavyan tillari orasida ajralib turadi. Milliy korpusning o'ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud.

Birinchidan, u me'yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu korpus ma'lum tilda berilgan (turli badiiy janrlar: publitsistik, o'quv, ilmiy, ish yuritish, so'zlashuv, shevaviy kabi), ularning barchasi imkon darajasida ma'lum doiraga oid ma'lumotlarning proporsional matnlari hisoblanadigan og'zaki va yozma ko'rinishlarining barchasini o'z qamroviga oladi degani. Korpusning qoniqarli darajada bo'lishi uchun uning ko'lamiga e'tibor qaratish kerakligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak (masalan, o'n va yuz milliongacha so'z qo'llash kabi). Yoki rus tili milliy korpusi tuzuvchilari tomonidan ikki yuz million so'z kiritish rejalashtirilgan.[4;2019]

Ikkinchidan, korpus unga kiritilayotgan matnlarning o'ziga xos jihatlari to'g'risida muhim qo'shimcha ma'lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki kiritma ko'rinishidagi matnlardir).

Kiritma– korpusning asosiy bosh ma'lumotnomasi bo'lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog'ida mavjud bo'lgan oddiy matnlar (yoki —kutubxonalar) to'plamidan ajratib turadigan, masalan, bir muncha mashhur bo'lgan Maksim Morshkov kutubxonasi yoki Rus virtual kutubxonasi kabilardan farqlanadigan matnlardir.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar tomonidan "Fundamental elektron kutubxona" yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyoti namunalari bilan to'ldirib borilmoqda. Unga muntazam tarzda va yuqori aniqlikda nashr etilayotgan adabiy matnlar kiritilib turadi. Biroq bu kabi kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud bo'lib, ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda bir muncha chegaralangandir.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu kabi kutubxonalar til xususiyatlaridan ko'ra matnning mazmun-mohiyati bilan qiziquvchilar tomonidan yaratiladi.

Milliy korpus kutubxonalardan farqli o'laroq qoniqarli va foydali matnlar to'plami emas.

U asosan, til o'rganish uchun xizmat qiluvchi jihatdir. Bunda o'rtamiyona yozuvchilarning romanlari ham, oddiy so'zlashuvmatnlari va ijara shartnomalardan ham, mumtoz badiiy adabiyot namunalari qatorida foydalanilaveradi.

Korpusning rang-barang ilovalar bilan boyitilishi uning ilmiy va o'qimishlilikini baholaydigan jihatdir.

Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma'lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatika, aksentologik, til tarixi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqirlashtirishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo'lda yozib olar, bu esa juda ko'p mehnat talab qilgani holda oz miqdordagi materiallarni qayta ishlashga imkon berar edi.

Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (proza va drama, keyinchalik she'riyat ham).

Badiiy she'rlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalari ham kiritiladi, jumladan, ilmiy ommabop va ilmiy adabiyotlar, shaxsiy chiqishlar (ma'ruzalar), shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, xujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Xullas, korpus tilshunosligi, uning milliy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib o'zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tadbiq qilish mutaxassislarning galdagi dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Primov, X.Qodirova "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" o'quv-uslubiy qo'llanma; Urganch- 2019;
2. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9

3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.

4. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.

5. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Махмудова Н., Сувонова Х. Она тили таълимининг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими, 2008 йил, № 9

TIL VA MILLAT MA'NAVIYATI - ADABIY TILNING ROLI**MATJANOVA NODIRA XOJAXMETOVNA**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Feruza Jalolovna

Annotatsiya. Til - millatning ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirasi bo'lib, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, madaniy merosi va tafakkurini ifoda etadi. Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida til va millat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik keng yoritilgan, adabiy tilning millat ma'naviy hayotidagi o'rni esa alohida urg'u bilan ko'rsatib berilgan. Tilning hayotiy kuchi unda jamlangan ma'naviy boylikda namoyon bo'ladi. Millat o'z tilini rivojlantirishga va asrashga intilar ekan, uning ma'naviy poydevori ham mustahkamlanadi. Shu ma'noda adabiy til millatni birlashtiruvchi, madaniy merosni saqlovchi va ma'naviy yuksalishga xizmat qiluvchi kuch sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Til, adabiy til, millat ma'naviyati, Jamolxonov, til me'yorlari, globallashuv, madaniyat.

Annotation: Language is the spiritual image and historical memory of a nation; it expresses the worldview, mentality, cultural heritage, and intellectual development of the people. In Jamolkhonov's book *"The Modern Uzbek Literary Language,"* the inseparable connection between language and nation is widely discussed, and the special role of the literary language in the spiritual life of the nation is emphasized. The vital power of a language is manifested through the spiritual wealth it embodies. As a nation strives to develop and preserve its language, its spiritual foundation becomes stronger. In this sense, the literary language is interpreted as a unifying force that preserves cultural heritage and contributes to the spiritual elevation of the nation.

Keywords: language, literary language, national spirituality, Jamolkhonov, language norms, globalization, culture.

Har qanday millatning ma'naviy qiyofasi, tafakkuri va madaniy taraqqiyoti, eng avvalo, uning tilida o'z ifodasini topadi. Til — bu millat ruhi, milliy o'zlikni anglash va avlodlar o'rtasida ma'naviy merosni uzviy bog'lovchi eng muhim vositadir. Shu ma'noda adabiy til millatning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutadi: u nafaqat aloqa quroli, balki milliy tafakkur, qadriyat va urf-odatlar, ijtimoiy ong va estetik dunyoqarashni ifodalovchi muhim madaniy hodisadir.

O'zbek adabiy tili asrlar davomida xalqning ruhiy dunyosi, axloqiy me'yorlari, estetik didi va ijtimoiy idealini ifoda etib kelgan. Adabiy til orqali xalq o'z tarixini, qadriyatlarini, orzu-umidlarini va ijtimoiy tajribasini ifodalaydi. Shu bois, adabiy tilni rivojlantirish, uning me'yorlarini asrash va boyitish — millatning ma'naviy taraqqiyoti uchun zarur shartdir.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy tilning nufuzi va adabiy me'yorlarning barqarorligi milliy o'zlikni saqlashning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda. Tilning davlat maqomi, uning ta'lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va madaniyat sohalaridagi faol qo'llanilishi jamiyatning ma'naviy yuksalish darajasini belgilaydi. Shu sababli, "Til va millat ma'naviyati" masalasi, xususan, adabiy tilning milliy ong va ruhiyatni shakllantirishdagi roli bugungi kunda dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda.

Jamolxonovning ta'kidlashicha, til milliy o'zlikni shakllantiruvchi asosiy vositadir. Millat o'zligini tanishi va uni asrab qolishi uchun avvalo o'z tiliga ega bo'lishi, uni toza va ravon saqlashi zarur. Tilning boyligi, uslubiy qatlamlarining kengligi, ifodaviy imkoniyatlari millat tafakkurining darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning yo'qolishi esa milliy xotiraning so'nishi bilan barobar bo'lib, tarixda ko'plab xalqlarning o'z tillarini boy berib, boshqa millatlar tarkibiga singib ketganligi bunga yaqqol dalildir. Shu sababli, adabiy tilni asrash va rivojlantirish millatning ma'naviy mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamolxonov adabiy tilni tilning eng mukammal shakli sifatida izohlaydi. U nafaqat aloqa vositasi, balki millatni birlashtiruvchi va ma'naviy uyg'otuvchi vositadir. Adabiy til millatning barcha tabaqalarini yagona me'yor asosida birlashtiradi, xalqning og'zaki ijodi va yozma yodgorliklarini avlodlarga yetkazadi, yoshlarning tafakkurini shakllantiradi va ma'naviy yetuklikka yo'naltiradi. Shu bilan birga, u ilm-fan, siyosat, san'at va ta'lim sohalarida yagona muloqot vositasini ta'minlab, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu jihatlarni Navoiy merosida ham yaqqol ko'rish mumkin. Navoiy o'z davrida turkiy tilni davlat va adabiyot tiliga aylantirib, o'zbek adabiy tilining yuksak imkoniyatlarini namoyon etdi va millat ma'naviyatini yuksaltirdi.

Bugungi davrda ham adabiy tilning o'rni va ahamiyati beqiyos. Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ommaviy madaniyat ta'siri ostida tilga ko'plab yangi so'z va iboralar kirib kelmoqda. Ba'zilarining adabiy me'yorlarga moslashmagan shaklda qo'llanilishi nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa sheva va jargonlarning adabiy nutqqa kirib kelishiga, yoshlarning so'z boyligining qisqarishiga va ifodaviy imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligiga olib keladi. Jamolxonov bu jarayonning oldini olish uchun adabiy til me'yorlarini

mustahkamlash, to'g'ri yozuv va talaffuzni o'rgatish, yangi atamalarni milliy til asosida yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Adabiy tilni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqot ishlari muhim rol o'ynaydi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida nutq madaniyatini chuqur o'rgatish, lug'atlar va qo'llanmalar orqali tilni boyitish, internet va yangi texnologiyalardan foydalangan holda adabiy tilni targ'ib qilish bularning barchasi millat ma'naviyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, til — millatning eng muhim ma'naviy asosidir. U xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, ruhiyati va tafakkur tarzini mujassamlashtiradi. Adabiy til esa shu milliy ruhiyatning eng yuksak ifodasi, ma'naviy madaniyatning poydevori hisoblanadi. U xalqning o'zligini anglash, ma'naviy birlikni mustahkamlash va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Zamonlar o'tishi, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar til tizimiga ta'sir etishi tabiiydir. Ammo bu o'zgarishlar adabiy til me'yorlarini buzmasligi, aksincha, uni zamon talablari asosida boyitib borishi lozim. Chunki adabiy tilning pokligi, ifoda imkoniyatlari va uslubiy boyligi millatning ma'naviy qudrati bilan bevosita bog'liqdir.

Bugungi globallashuv davrida milliy tildagi soflikni, adabiy tilning me'yoriy tizimini asrab-avaylash va uni zamonaviy texnologik, ilmiy hamda madaniy jarayonlarga moslashtirish — har bir ziyoli, adib, olim va pedagogning burchidir. Tilni e'zozlash, uni boyitish va avlodlarga sof shaklda yetkazish orqali biz millat ma'naviyatini, madaniy mustaqilligini va milliy o'zligimizni himoya qilamiz.

Shunday qilib, adabiy til — milliy ma'naviyatni shakllantiruvchi, jamiyat tafakkurini yuksaltiruvchi, xalqni birlashtiruvchi va milliy taraqqiyot yo'lida ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiluvchi bebaho qadriyatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010.
- 2.Rahmonov N. Ozbek tili tarixi Nasimxon. Toshkent. 2009.
- 3.Abdishukurov B. O'zbek tili tarixi. Nodirabegim.i Toshkent-2021.

O'ZBEK ADABIY TIL ME'YORLARI**MAXAMADOV TOXIRJON KOMIL O'G'LI,**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail:toxirjonmaxamadov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tili me'yorlari, ularning shakllanish jarayoni, asosiy xususiyatlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Adabiy tilning fonetik, leksik, grammatik va uslubiy me'yorlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek adabiy tilining hozirgi zamon rivoji, globallashuv sharoitida unga kirib kelayotgan yangiliklar va o'zgarishlar ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada til siyosati, davlat tili maqomining ahamiyati hamda adabiy me'yorlarning barqarorligini ta'minlash masalalari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy til, me'yor, fonetik me'yor, grammatik me'yor, uslubiy me'yor, o'zbek tili, davlat tili, til siyosati, globallashuv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются нормы узбекского литературного языка, процесс их формирования, основные особенности и значение. Анализируются фонетические, лексические, грамматические и стилистические нормы литературного языка. Также подробно освещается современное развитие узбекского литературного языка, влияние глобализационных процессов и актуальные изменения. В статье рассматриваются вопросы языковой политики, значение государственного языка и обеспечение стабильности литературных норм.

Ключевые слова: литературный язык, норма, фонетическая норма, грамматическая норма, стилистическая норма, узбекский язык, государственный язык, языковая политика, глобализация.

O'zbek adabiy tili milliy tilning me'yorlashtirilgan shakli bo'lib, u jamiyat hayotining turli jabhalarida aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Adabiy tilning me'yorlari milliy birlik, ma'naviy qadriyatlarni ifodalash va saqlashda muhim o'rin tutadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, adabiy til me'yorlari xalqning ma'naviy madaniyati, ma'rifati va tafakkuri darajasini ko'rsatadi.

Adabiy tilning me'yorlarini shakllantirish jarayoni tarixiy taraqqiyot, yozma manbalar, adabiyot va ilm-fan yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlari, jadid

adabiyoti va mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy ishlanmalar adabiy me'yorlarning shakllanishida muhim bosqichlarni tashkil etadi.

Adabiy til — umumxalq tilining me'yorlashtirilgan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llanadigan shaklidir. U milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, xalqning ma'naviy merosini asrash va kelajak avlodga yetkazishda vosita hisoblanadi.[1:87].

Adabiy til me'yorlari quyidagilardan iborat:

Fonetik me'yorlar adabiy tilning eng asosiy qatlamlaridan biri bo'lib, u tovushlarning to'g'ri talaffuzi, so'z va gapdagi urg'u, intonatsiya va tovush mosligini belgilaydi. Fonetik me'yorlar tilning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, milliy ohang va nutq madaniyatini saqlashga xizmat qiladi. Fonetik me'yorlarning shakllanishi tarixiy jarayon bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilida fonetik birliklarning adabiy me'yorlari xalq nutqidan sayqallangan holda olingan. Olim Sh. Rahmatullayevning ta'kidlashicha, "adabiy tilda "halol", "hayot", "hasad" so'zlaridagi "h" tovushi to'liq talaffuz qilinadi, dialektlarda esa bu tovush tushib qolishi mumkin". Bu holat fonetik me'yorlarning milliy nutqni standartlashtirishdagi muhimligini ko'rsatadi.

Fonetik me'yorlar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Tovushning talaffuzi: Har bir tovush adabiy tilda aniq va to'liq talaffuz qilinishi kerak. Masalan, "qalam" va "qal'am" so'zlaridagi farq fonetik me'yor buzilishini ko'rsatadi.

2. So'zdagi urg'u: Urg'u so'zning ma'nosini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "yo'lchi" va "yo'l'chi" so'zlaridagi urg'u farqi tushunishga ta'sir qiladi.

3. Intonatsiya va gap ohangi: Gap intonatsiyasi, savol yoki so'zlashuv ohangi fonetik me'yorlar bilan bog'liq bo'lib, nutqning mantiqiy tuzilishini va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Fonetik me'yorlarning buzilishi asosan quyidagi holatlarda uchraydi: dialektlarning kuchli ta'siri, adabiy tilni yetarlicha o'rganmagan kishilarning nutqi, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yozma nutqdagi noaniqliklar. Masalan, ayrim foydalanuvchilar "x" tovushini tushirib, "hayot" so'zini "ayot" shaklida yozishi fonetik me'yorlarning buzilishidir. Fonetik me'yorlarni saqlash va rivojlantirishning ahamiyati katta. Ular nafaqat tilning tushunarli bo'lishini, balki milliy nutqning estetik va madaniy jihatlarni ham himoya qiladi. Shu jihatdan, maktab va oliy ta'limda fonetik me'yorlarni o'rgatish, radio, televideniye va ommaviy axborot vositalarida nutqni to'g'ri talaffuz qilish qoidalariga amal qilish juda muhimdir.

So'zlarning to'g'ri talaffuzi va orfoepiya qoidalari bilan bog'liq. Masalan, "kitob" so'zi "kitap" shaklida emas, adabiy talaffuzda "kitob" tarzida ishlatiladi. Fonetik me'yorlar nutqning sof, tushunarli va estetik bo'lishini ta'minlaydi.

Leksik me'yorlar. Tilning so'z boyligi va so'z birikmalarini tartibga soluvchi qoidalar. Ular tilning ma'lum bir jamiyatda tushunilishini, so'zlarning ma'no va ishlatilish doirasini belgilaydi. Leksik me'yorlar so'zning ma'nosi, ishlatilishi va lug'aviy mosligi bilan bog'liq boladi.

Lug'at me'yorini izohlashda adabiy tilning quyidagi belgi va mezonlarini hisobga olish kerak:

- 1) uni og'zaki va yozma ravishda amalga oshirish;
- 2) hududiy va ijtimoiy foydalanish doirasi;
- 3) adabiy til bilan muayyan milliy tilning boshqa shakllari o'rtasidagi munosabatni hisobga olish zarur.

Uslubiy me'yorlar. Tilning so'z, ibora va jumalarni turli nutq vaziyatlariga va uslublarga mos ishlatilishini tartibga soluvchi qoidalardir. Uslubiy me'yorlar nutqni to'g'ri va estetik jihatdan maqbul qilishga xizmat qiladi.

Uslubiy (stilistik) me'yorlar — bu tilning so'z, ibora va jumalarni turli nutq vaziyatlariga va uslublarga mos ishlatilishini tartibga soluvchi qoidalardir. Uslubiy me'yorlar nutqni to'g'ri va estetik jihatdan maqbul qilishga xizmat qiladi. So'zlarning to'g'ri qo'llanishini belgilaydi. Dialektizm, jargon va vulgar so'zlardan adabiy tilda foydalanish cheklangan. Shuningdek, yangi ilmiy-texnik atamalar tilga kirib kelganida ularni adabiy me'yorlarga moslashtirish muhim. [2:76].

Nutqning maqsadga muvofiq uslubda bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, ilmiy matnda og'zaki so'zlashuv elementlarini ishlatish mumkin emas, badiiy matnda esa obrazlilik va badiiy vositalar me'yor sifatida qaraladi.

Grammatik me'yorlar. Grammatik me'yor morfologik va sintaktik me'yorlarni o'z ichiga oladi. So'zlarning shakllanishi va gap tarkibida ishlatilishini tartibga soladi. Egalik qo'shimchalari, fe'llarning zamon, mayl shakllari qat'iy qoidalarga bo'ysunadi. Grammatik me'yorni buzish nutqning mantiqiyligini pasaytiradi.

Grammatik me'yorlar — bu tilning so'z va so'z birikmalarining shakli, tuzilishi va ularning gap ichidagi funksiyasini tartibga soluvchi qoidalardir. Ular nutqning to'g'ri va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Orfoepik (talaffuz) me'yor. Orfoepik normalami talab qiluvchi nutqiy hodisalarning eng asosiylaridan biri assimilatsiya (tovush qo'shni tovushni o'ziga moslashtirib-o'xshatib olishi: ketdi, ketti) hodisasidir. Til qancha qadimiy bo'lsa, unda assimilatsiya hodisasi shuncha ko'p uchraydi, til qanchalik adabiy bo'lsa,

unda assimillatsiya shuncha kam uchraydi. Orfoepiyaning vazifalaridan biri ham assimillatsiyani m'yorda tutib turishdir. Orfografiya va orfoepiyaning qarama-qarshi o'rinlaridan biri arab tilidan qabul qilingan ikki undosh bilan tugagan, aslida bir bo'g'inli so'zning nutqda ikki bo'g'in tarzida (unli qo'shib) o'zlashganidir. Misollar mehr, qadr, aql, qism, hukm, qasr, asr kabi. Yangidan hosil bo'lgan bo'g'in nutqda hatto so'z urg'usini ham oladi: hukum, rasim. Yozuvda esa aks etmaydi. Bu o'rinda nozik bir qonuniyat mavjud: so'z oxirida ketma-ket kelgan undoshning birinchisi sonor bo'lsa, so'z bir bo'g'inligicha qoladi-unli ortmaydi. Masalan: qand, pand. Bu tipdagi so'zlar turkiy tilda qadimdan mavjud: yurt, yalt-yult, tark etmoq, tort, quit. O'quv jarayonida bu qoidalarining qo'llanilishi tilni to'g'ri o'rganish, nutqdagi aniqlik, aniqlik va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yozuv (grafik) me'yori. Adabiy tilning grafik me'yori til uchun tanlangan yozuv shaklga taalluqli bo'lib, shu til uchun yozuvning o'ziga xos turini belgilaydi. O'zbek xalqi o'z tarixi davomida turli xil yozuv shakllaridan foydalangan. Arabcha-o'zbekcha, lotincha-o'zbekcha va kirillcha-o'zbekcha yozuvlardir. Adabiy tilning grafik me'yori ana shu yozuv turlaridan qaysi biri o'zbek tilida qo'llanilishi va yozuvda qanday qoidalarga amal qilish kerakligini belgilaydi.

Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yori. Urg'uni to'g'ri qo'llash bilan bog'liq bo'lgan me'yori aksentologik me'yori deyiladi. Adabiy tilning aksentologik me'yorida har bir so'zdagi urg'uning o'rni qat'iy belgilanadi. Ma'lumki, so'zdagi urg'u ma'no farqlash xususiyatga egadir.

So'z yasash me'yori. Ushbu me'yori tilda yangi so'zlarni yasash usullarini belgilaydi va so'z yasash qoidalarini nazorat qiladi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi yangi so'z yasash hisobiga boyib boradi.

O'zbek tilida so'z yasashning quyidagi usullari mavjud. Ular:

1. Semantik usul.
2. Fonetik usul.
3. Abbreviatsiya usuli.
4. Affiksatsiya usuli.
5. Kompozitsiya usuli.

Imloviy me'yori. Adabiy til va uning rivojlanish an'alariga mos keladiganlari jonli tildagi talaffuzning turli shakllaridan tanlab olinadi. U yozma nutqning madaniylik darajasini belgilovchi omildir. Ushbu me'yori til birliklarining to'g'ri yozilishi qoidalariga asoslanadi.

Punktuatsion me'yori. Ushbu me'yori yozma nutqqa xos bo'lib, tinish belgilarining qo'llanish qoidalari belgilanadi. O'nta tinish belgilari asosida ish ko'radi.

(. , : ... ? ! () ; “” -). Tinish belgilaridan foydalanish qoidalarini to'plami **punktuatsiya** deyiladi.

Adabiy til me'yorlarining rivoji Mustaqillik yillarida davlat tili maqomining mustahkamlanishi, yangi darslik va ilmiy adabiyotlarning o'zbek tilida yaratilishi adabiy me'yorlarni boyitdi. Internet va ommaviy axborot vositalari tilning keng qamrovli rivojlanishiga turtki berdi. Jumaniyozovning fikricha, globallashtirish jarayonida adabiy til me'yorlari yangicha talqin qilinib, yangi so'zlar va tushunchalar kirib kelmoqda.

O'zbek adabiy tili me'yorlari xalqning ma'naviy hayoti, madaniyati va milliy birligini mustahkamlovchi muhim omildir. Ularni saqlash va rivojlantirish, zamon talablariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bilan birga, globallashtirish davrida adabiy me'yorlarni milliy qadriyatlar asosida yangilash tilshunoslari va jamiyat zimmasidagi muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G., Hojiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. 87-bet
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. 76-bet
3. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тилининг ижтимоий вазифалари. – Тошкент: Фан, 1992. 68-bet
4. Yusupov, Sh. Tilshunoslik nazariyasi. Qarshi. Nasaf nashriyoti, 2021.

MADANIY NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

MAXAMMADIYEVA RUXSHONA ASROR QIZI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada madaniy nutqning kommunikativ sifatlari tahlil qilinadi. Maqolada nutqning asosiy kommunikativ sifatlari-aniqlik, mantiqiylik, qisqalik, maqsadga muvofiqlik, soflik va to'g'rilik kabi xususiyatlarga alohida e'tibor qaratadi. Maqolada madaniy nutqning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va axloqiy jihatlar ham ko'rib chiqilib, zamonaviy jamiyatda samarali muloqot yuritishning zarur sharti sifatida talqin etiladi. Nutqning kommunikativ sifatlari shaxslararo va kasbiy muloqotning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: adabiy til me'yorlari, nutq madaniyati, kommunikativ sifatlari, muloqot madaniyati, til madaniyati, og'zaki va yozma nutq, nutqning aniqligi va to'g'riligi.

ANNOTATION: This article analyzes the communicative qualities of cultural speech. The article pays special attention to the main communicative qualities of speech-such as clarity, logic, brevity, purposefulness, purity and correctness. The article examines not only the linguistic, but also social and moral aspects of cultural speech and interprets it as a necessary condition for maintaining effective communication in modern society. The communicative qualities of speech analyze its importance in improving the effectiveness of interpersonal and professional communication.

Key words: literary language norms, speech culture, communicative qualities, communication culture, language culture, oral and written speech, accuracy and correctness of speech.

Nutq madaniyati nutq oldiga qo'yiladigan talablar lingvistik, psixik, estetik, logik talablar bo'lib ular nutqning kommunikativ sifatlari belgilaydi. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'tirof etilgan. Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining ob'ektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq bu rasmiy tildir.[1:12].

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro' - e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov (mezon) ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o'lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me'yor.
2. Talaffuz – (orfoepik) me'yor.
3. Yozuv (grafika) me'yori.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasaliş me'yorlari.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktuation me'yor.

Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari nutq madaniyati sohasining tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Til me'yorlari –bu ijtimoiy-nutqiy amaliyotlar badiiy adabiyot, o'qimishli kishilar nutqi, radio (va hokazo) da umum tomonidan qabul qilingan talaffuz, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til

me'yorlariga amal qilishdangina iborat emas. Yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq va aniq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatleri bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, fikran aniq, tuzilishga ko'ra chiroyli va yo'nalishiga ko'ra maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

Madaniy nutq malakasini puxta egallamoq, muayyan nutqning to'g'rilik sifatini xolis baholay bilmoq uchun adabiy me'yorlarning mazkur tiplari, ularning asosiy qoidalari va bu qoidalarining buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarni yetarli darajada tasavvur qilmoq maqsadga muvofiqdir.[2:6].

Nutqning madaniyligi, demakki, ta'sir quvvatini tahmin etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (ular o'rtasida keyinroq batafsil to'xtalinadi). Ana shu kommunikativ sifatlarining barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutq madaniyati" termini, asosan 2 xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni:

1. Tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarining barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami.

2. Tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarini mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'lim. Nutqning kommunikativ sifatleri nafaqat aloqani ta'minlash, balki tinglovchi yoki o'quvchiga nutqiy ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatleri, ya'ni mantiqiyliqi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik me'yorga qattiy amal qilish talab qilinadi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan: olma so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin. Ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda, harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi.

Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlarni tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos

vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat.

Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Nutqimizning sofligiga, asosan, mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi, o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari, jargonlar, vulgarizmlar, nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar, kanselyarizmlar ta'sir qiladi. Sanab o'tilganlardan o'rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so'zlovchi o'z nutqining adabiy me'yorlar darajasida bo'lishi uchun harakat qilishi lozim.[3:50].

Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatleri bo'lgan to'g'riilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq yetib bormasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. nutqning mantiqiyliigi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz. nutqning mantiqiyliigi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning ta'sirchanliigi Nutqning ta'sirchanliigi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinadi. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilarni ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqning qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur.

Nutqning maqsadga muvofiqliigi. Nutqning maqsadga muvofiqliigi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til me'yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir. Nutq to'g'ri, ammo, ayni vaqtda tushunilishi qiyin

bo'lishi mumkin. Nutq to'g'ri, biroq nutq so'zlanayotgan sharoitga mos bo'lmasligi mumkin. Nutq faoliyatida muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirli, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarni, gaplarni, topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin.

Xulosa. Nutqning kommunikativ sifatlari samarali muloqotning asosiy kalitidir. Aniqlik, qisqalik, mantiqiylik, ta'sirchanlik va ifodalilik kabi xususiyatlar nutqni samarali va ta'sirli qiladi. Bu sifatlarni doimiy rivojlantirish orqali biz nafaqat shaxsiy, balki professional hayotimizda ham muvaffaqiyatga erishishimiz mumkin. Nutq-bu nafaqat vositadir, balki san'atdir. Uni puxta o'rgangan va rivojlantirgan har bir kishi hayotning barcha sohalarida samarali muloqot qila oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati./ o'quv qo'llanma. T.: -2011. - 12 b
2. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev Nutq madaniyati va uslubi asoslari. -T.: 1992. 6-bet.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993, 50-bet.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. T.: 2002

TIL VA NUTQ TUSHUNCHASI

MAXMARAJABOV OZODBEK RO'ZIMUROD O'G'LI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail: ozodbekmaxmarajabov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson tafakkur olamida til va nutqning o'rni, ularning o'ziga xos ko'rinishlari haqida fikr yuritilib, tilshunos olimlarning til va nutq haqidagi qarashlari, o'zaro aloqadoligi xususiyatlari va nazariy ma'lumotlari amaliy jihatdan xulosalangan.

Kalit so'zlar: til, nutq, so'z, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, umumiylik, xususiylik, belgi, ma'no.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль языка и речи в мире мышления человека, их специфические проявления, подводятся практические итоги взглядов ученых-лингвистов на язык и речь, особенности их взаимосвязи и теоретические данные.

Ключевые слова: язык, речь, слово, фонема, морфема, лексема, конструкция, общность, особенность, знак, значение.

Jamiyatda tub o'zgarishlar barcha sohada, ayniqsa tilda o'z in'ikosini topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. XX asr so'nggida, til uslublarida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi: ona tili taqdiri dolzarb masalaga aylandi. Bu haqda Respublika Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida: "Ona tilini bilmaydigan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam", - deya o'z fikrini bildirib o'tgan.

Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash ularning munosabat mohiyatini o'rganish arab tilshunosligida VIII-IX asrlarda shakllangan. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini yaxshi anglamoq uchun, avvalo, tilning o'zini, uning qanday qurilma ekanligini aniq his etmoq kerak.

Til - insonning tafakkuri va madaniyatini shakllantiradi, shaxslararo munosabatlarni belgilaydi. Til –deb murakkab muloqat tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Til deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilgan hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar tushuniladi.

Nutq-tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar va uning natijasi tushuniladi. Til va nutq munosabatlarini umumiy tarzda quydagicha izohlash mumkin. Til va nutq o'zaro aloqador hodisalar sifatida e'tirof etilgan. Til ijtimoiy, nutq xususiy hodisa. Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodalanadi. Smernitskiy A.I, Panfilov V.Z, Melnichuk A.S, Solnsov V.M, kabi Praga tilshunoslari sistem tilshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib, til va nutq munosabati tarixi xususida o'z mulohazalarini bildirganlar. Til va nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma'noda ilmiy –nazariy hamda amaliy farqlash : “til” va “nutq” tushunchariga batamom yangi ma'zmun berilishi F de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. Nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq faoliyati uchun xizmat qiladi.

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik ko'rilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil etadi. Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, professor V. M. Solnsev —Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir... desa, tilshunos B.V.Kosovskiy —til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi, deb alohida qayd etadi.

Til va nutq, dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy markazida turadi. Til —tashqi jihatdan ham moddiy ham psixik hodisa. Uning moddiyligi tovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Til va nutq o'zaro aloqador, bir-biri bilan bog'lik, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, ammo bir- biridan farqdi bo'lgan ijtimoiy hodisalaridir. Har bir kishining o'z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma'naviy-madaniy saviyasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan esa nutqning individual hodisa ekanligi kelib chiqadi. Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz

va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq, so'zlovchining, tinglovchining va predmetning — fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi. Nutq - harakatchan, dinamik, jonli bo'lsa, til —statik, stabildir. Nutq - alohida shaxsga bog'liq. Til esa buning aksidir. Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan yoki qo'l harakatisiz, aniq, yoki noaniq, bo'lishi mumkin, Til uchun esa bunday ta'rif to'g'ri kelmaydi. Til - tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi. Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq, faoliyatida-nutqda kuzatganimizdagina uning ijtimoiy-amaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq, faoliyatidagina til va nutqning o'zaro ta'siri, bog'likdigi aloqasi amalga oshadi. Nutq, esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq, faoliyati — faolligi uchun xizmat qiladi. So'zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma'lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko'nikmasi va darajasi anglashiladi. Nutq esa yuqorida ta'riflangan tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan so'zlash qobiliyati ko'magida ma'lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo'llanish natijasidir. Bir qator olimlar til va nutq o'zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash albatta, kerak bular farqlanadi, degan fikrlarni bildirishgan. Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq, hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH. M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz "O'zbekiston" 2016.
2. Karimov I.A 'Istiqloq va ma'naviyat'. 'O'zbekiston', 1994,-160 b.
3. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. Toshkent:Fan va Texnologiya,2007.-105 b.
4. Sayfullayeva R,Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent: Fan va Texnologiya,2009.-416b.

BADIIY MATNDA RITORIK SO'ROQDAN FOYDALANISH

MAXMATQULOVA GULNOZA FURQAT QIZI,

RO'ZIYEVA DIYORA SOXIBOVNA,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

gulnozamaxmatqulova@gmail.com

diyoraruziyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili, xususan, badiiy matnlarda ritorik so'roqlardan foydalanish va ularning mazmuniy xilma-xilligini o'rganish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy adabiyotda nutq ta'sirchanligini oshirishda ritorik so'roq gaplarning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, til, so'roq, ritorik so'roq, nutq, mazmun, leksikologiya, leksik birlik.

Abstract. This article discusses the use of rhetorical questions in the Uzbek language, especially in literary texts, and studies their content diversity. Also, the importance of rhetorical interrogative sentences in increasing the effectiveness of speech is discussed in fiction.

Key words: artistic text, language, question, rhetorical question, speech, content, lexicology, lexical unit.

Абстрактный. В данной статье рассматривается использование риторических вопросов в узбекском языке, особенно в художественных текстах, и изучается их содержательное разнообразие. Также в художественной литературе обсуждается значение риторических вопросительных предложений в повышении эффективности речи.

Ключевые слова: художественный текст, язык, вопрос, риторический вопрос, речь, содержание, лексикология, лексическая единица.

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o'ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so'zning shakl hamda

ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funksiyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o'rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarini singdirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g'oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o'rni va ularni o'rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma'lumotlar beradi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so'zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq) kabilardan tarkib topgan bo'ladi. [1; 5-b.] Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Bunday xususiyatga ega badiiy asar tili kishilar nutqiga, ularning fikr, dunyoqarash, madaniyat darajasiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar tili so'zning nozik tovlanishlarini his qilishga va buni kishilar ongi, ruhiga singdirishga imkon beradi.

Badiiy adabiyotda lingvistik vositalardan foydalanish oxir-oqibatda muallifning xohishiga, asarning mazmuniga, tasvir yaratilishiga va u orqali adresatga ta'sir ko'rsatishiga bog'liq. Yozuvchilar o'z asarlarida, avvalambor, ular fikrni, his-tuyg'ularni to'g'ri yetkazish, qahramonning ma'naviy olamini chinakam ochib berish, til va qiyofani real ravishda qayta tiklashdan kelib chiqadi. Nafaqat tilning me'yoriy dalillari, balki umumiy adabiy normalardan chetga chiqish ham muallifning niyatiga, badiiy haqiqatga intilishiga bog'liq. Adabiyotda til o'ziga xos mavqega ega, chunki bu qurilish material, quloq yoki ko'rish orqali seziladigan, ularsiz asar yaratib bo'lmaydi. Tilning eng yaxshi tomoni, uning kuchli qobiliyatlari va noyob go'zalligi badiiy adabiyot asarlarida mavjud bo'lib, bularning barchasiga tilning badiiy vositalari orqali erishiladi. Badiiy ifoda vositalari xilma-xil va ko'p sonlidir. Tilning ekspressiv vositalariga nutqning stilistik shakllari yoki shunchaki nutq figuralari kiradi: anafora, antitez, birlashmaslik, gradatsiya, inversiya, ko'p foydalanish, parallelizm, ritorik savol, ritorik murojaat, sukut, ellips, epifora. Badiiy ifoda vositalariga ritm (she'r va nasr), qofiya, intonatsiya kiradi. Odatda, badiiy nutq uslubi uchun odatda va umumiy tomonidan ta'qib qilinadigan alohida va tasodifiy narsalarga e'tibor beriladi. Badiiy olam - bu "yangidan yaratilgan dunyo", tasvirlangan voqelik ma'lum darajada muallifning fantastikasi, demakdir nutqning badiiy uslubida asosiy rol subyektiv

lahzani o'ynaydi. Atrofdagi barcha voqelik muallifning tasavvurida aks etadi. Ammo badiiy matnda biz nafaqat yozuvchining dunyosini, balki bu dunyodagi yozuvchini ham ko'ramiz: uning afzal ko'rganlari, tanqidlari, hayratlari, radlari va boshqalar. Badiiy nutq uslubining hissiyotlilik va ekspressivligi, metaforik, mazmunli xilma-xilligi yozuvchining qo'llagan badiiy mahoratiga ham bog'liqdir.

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsional ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so'roq gap deyiladi. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi. Ardoqli shoir Abdulla Oripovning «Olomonga» deb atalgan quyidagi she'ri ritorik so'roqning go'zal namunasi bo'la oladi:

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho'lpon otilganda qayoqda eding?
Surishtirganmiding Qodiriyini yo
Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?
Hukmlar o'qilur sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.
Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?
Qarshingda hasratli o'yga tolaman,
Qachon xalq bo'lasan, ey, sen – olomon?!

Badiiy adabiyotda nutq ta'sirchanligini oshirish uchun ritorik so'roq gaplardan keng foydalaniladi. Zulfiya she'rlarida ham lirik qahramonlarning o'ziga xos nutqlarini ochib berish uchun so'roq gaplar keng qo'llanilgan:

Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg'ular zoriga solganda quloq,
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so'roq:
Tirik ekan nega tashlab ketmading?
(Sensiz)
Nahot umrimdagi sahargi zavqlar
Tark etib izlayman sahardan najot?

Birday emasdimi yil, fasl, vaqtlar,
Nedir o'tib, nedir kelmaydi, nahot? [2; 76-b.]
(Sahar men bilan)

So'roq gaplarning hamma turida o'ziga xos intonatsiya bo'ladi. Bu intonatsiya darak, undov, gaplarning intonatsiyasidan tamoman farqlanib turadi. Odatda, so'roq gaplarda biror narsa, yoki uning belgisi, harakatining bajarilish o'rnini, payti, holati, sababi, maqsadi so'raladi.

So'roq gaplarni tuzishda xizmat qilgan vositalar ayrim so'roq gaplarda bo'lmasligi ham mumkin. Bu xil so'roq gap so'roq intonatsiyasi yordami bilan tuzuladi.

Baxtiyor sevgini kuylardi sozim,
O'lim xanjariga tegdi-yu sindi.
Hijron faryodiday sovuq ovozim,
Nahot, lirikaning yolqini tindi?

– mi so'roq yuklamasi hosil qilingan ritorik so'roq gaplar qahramon ichki kechinmalarini ifodalaydi:

Faqat dilga oshno bo'lgan ajoyib damlar,
Tuyg'ularning zid xohishi berganda alam,
Ko'kraklarni to'ldirganda orom va ozor
Baxtsizmidik? Nahot unut bo'lar o'sha dam?

Ritorik so'roq gaplarda turli ma'nolar: kinoya, takid, norozilik, achinish, tanbeh, sevinch, kesatish kabilar ifodalanadi. Biz buni yuqoridagi ritorik so'roq gaplar orqali ko'rib chiqdik.

Bundan tashqari, so'roq gaplar so'roq yo'li bilan bildirilgan hayrat, taajjub, hayajon, buyruq, gumon kabi ma'nolarni ham ifodalashi mumkin.

Norozilik ma'nosi:

Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
"Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab"
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?
O'rik gullariga to'nmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin? [5; 94-b.]

(Bahor keldi seni so'roqlab.)

Hayratlanish ma'nosi:

Bolaning har dardi — tanning og'rig'i,

Unga tikan kirsa og'rig'i sanda.

Oh, onam! Ayting-chi, ona borlig'i

Xuddi shundaymidi yaralgan ondan?

Keltirilgan birinchi misolda xavotir, ikkinchi misolda hayajon, uchinchi misolda esa achinish kabi ma'nolar ifodalangan.

Badiiy adabiyotda nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun so'zlovchining o'ziga o'zi savol berish usulidan keng foydalaniladi:

Nahot shuncha ma'sum, shunday pok

Sevishmoqda alam bor shuncha?

Bardosh bermas iroda, idrok,

Tamoman lol aql, tushuncha.

Tog'day bor deb bilgan yuragim

Qush boshicha qolmadi chog'i?

G'amni yengarman degan sarim

Yana ortar alami, dog'i.[5; 122-b.].

(Ne baloga etding muftalo?)

Ritorik so'roq - poetik fikrni so'roq shaklida tasdiqlashdir, ya'ni so'roqning o'zida javob ham mujassamlashgan bo'ladi; faqat fikr yorqinlashib, teranlashib, qirralarini ham oshkor etib – estetik ta'sirchanligini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida. Toshkent - 1966.
2. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. Toshkent - 1964.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent - 1996.
4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent - 1981.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent: - 2007.

O'ZBEK SHEVALARI VA ULARNING ADABIY TIL BILAN ALOQASI**MENGILOVA GULBAHOR ABDUQODIR QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

mengilovagulbahor@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili tarkibidagi shevalarning tasnifi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari hamda adabiy tilning shakllanishidagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Xususan, Qarluq-chigil-uyg'ur, Qipchoq va O'g'uz lahjalari misolida shevalarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, badiiy asarlarda dialektizmlarning qo'llanilishi, qahramon xarakteri va hududiy muhitni ochib berishdagi estetik vazifasi tahlil qilinadi. Shevalarning adabiy tilni boyitishi, milliy qadriyatlarni ifodalashdagi roli va tilshunoslikdagi dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, sheva, lahja, dialektizm, fonetika, leksika, morfologiya, adabiy til, badiiy adabiyot.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of Uzbek dialects, their classification, phonetic, lexical, and grammatical features, as well as their role in the formation of the literary language. The study highlights the distinctive aspects of the Karluk-Chigil-Uyghur, Kipchak, and Oghuz dialects. In addition, the use of dialectisms in literary works is examined as an aesthetic tool to reveal character traits and regional environments. The contribution of dialects to the enrichment of the literary language, their role in reflecting national values, and their relevance in linguistics are emphasized.

Keywords: Uzbek language, dialect, dialectism, phonetics, lexicon, morphology, literary language, fiction.

Аннотация. В данной статье рассматривается классификация диалектов узбекского языка, их фонетические, лексические и грамматические характеристики, а также их роль в формировании литературного языка на научно-теоретической основе. В частности, на примере карлукско-чигильско-уйгурского, кыпчакского и огузского диалектов показаны специфические особенности диалектов. Также анализируется использование диалектизмов в литературных произведениях, их эстетическая функция в раскрытии характера героя и территориальной среды. Обосновывается обогащение литературного

языка, роль диалектов в выражении национальных ценностей и их актуальность в лингвистике.

Ключевые слова: узбекский язык, диалект, говор, диалектизм, фонетика, лексика, морфология, литературный язык, художественная литература.

Tilshunoslikda sheva tushunchasi ma'lum bir hudud yoki ijtimoiy guruhda ishlatiladigan til shakli sifatida qaraladi. O'zbek tilining boy tarixiy rivojlanishi va keng hududlarga tarqalganligi natijasida ko'plab shevalar shakllangan. O'zbek shevalari asosiy jihatlari bo'yicha adabiy til bilan uzviy bog'liq bo'lib, leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarda farq qilishi bilan birga, milliy tilning rang-barangligini aks ettiradi. Shu bois, shevalarni o'rganish adabiy tilni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

O'zbek shevalari asosan hududiy belgilarga ko'ra tasniflanadi. Tilshunoslar odatda ularni quyidagi asosiy guruhlarga ajratadi:

Qoraqalpog'iston va Xorazm shevalari – bu hududlarda ishlatiladigan o'zbek tilining fonetik va leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, so'zlarning talaffuzi va ba'zi leksik birliklar adabiy tilga nisbatan o'ziga xosdir.

Farg'ona vodiysi shevalari – fonetik jihatdan yumshoq va ohangdor bo'lib, so'zlarning oxirgi tovushlarida o'ziga xosliklar mavjud.

Toshkent va Samarqand shevalari – ular adabiy tilga eng yaqin bo'lib, ko'plab leksik va grammatik xususiyatlar adabiy til bilan uyg'unlashgan.

Jizzax, Sirdaryo va boshqa markaziy shevalar – so'z boyligi jihatidan boy va talaffuzi adabiy tilga yaqin.

Janubiy va Qashqadaryo, Surxondaryo shevalari – bu shevalarda arab va fors tilidan olingan leksik birliklar ko'proq uchraydi.

Shevalar hududiy farqlardan tashqari, ijtimoiy va tarixiy omillarga ham bog'liq bo'lib, xalq og'zaki ijodiyoti, xalq dostonlari va maqollar orqali rivojlangan.

Shevalarning adabiy til bilan aloqasi. O'zbek adabiy tili o'zining standart qoidalari bilan shevalardan farq qilsa-da, ular o'rtasida doimiy aloqalar mavjud. Bu aloqalarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Fonetik aloqalar – adabiy tilning talaffuz qoidalari shevalardan olingan fonetik elementlarga asoslangan. Masalan, ba'zi shevalardagi urg'u va ohang xususiyatlari adabiy tilga integratsiya qilingan.

Leksik aloqalar – adabiy tilga kirgan ko'plab so'zlar shevalardan olingan. Shuningdek, shevalarda saqlanib qolgan leksik birliklar adabiy tilni boyitadi.

Morfologik va sintaktik aloqalar – shevalardagi ayrim shakllar adabiy tilda ham ishlatiladi, masalan, fe'lning ayrim qo'shimchalari yoki gap tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlar.

Shuningdek, adabiy tilning shakllanishida shevalarning madaniy va tarixiy merosi muhim rol o'ynaydi. Masalan, Alisher Navoiy va boshqa klassik adabiyot namoyandalarining asarlarida turli shevalarning leksik va fonetik unsurlari uchraydi.

Shevalarni saqlash va rivojlantirish masalalari. Zamonaviy tilshunoslikda shevalarni o'rganish va saqlash milliy tilni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Shevalarni ilmiy jihatdan to'liq hujjatlashtirish va lug'atlar yaratish.

Maktablarda hududiy shevalar bilan tanishtirish orqali til boyligini oshirish.

Og'zaki xalq ijodiyoti va adabiy meros orqali shevalarning qadriyatini saqlash.

Bu chora-tadbirlar o'zbek tilining adabiy va shevalar asosidagi rang-barangligini birlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek shevalari milliy tilning boyligini, rang-barangligini va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Ular adabiy til bilan uzviy bog'liq bo'lib, leksik, fonetik va morfologik jihatlarda o'zaro ta'sir qiladi. Shevalarni ilmiy o'rganish va saqlash milliy tilning rivojlanishi va adabiy tilning boyligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shevalar orqali milliy madaniyat va xalq og'zaki ijodiyoti ham asrab-avaylanadi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining boy tarixiy ildizlari va hududiy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'zbek shevalari uch asosiy lahjaga bo'linadi:

1. **Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi** – Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand va Buxoro hududlariga xos.

2. **Qipchoq lahjasi** – Qoraqalpog'iston, Xorazm, Jizzaxning ayrim hududlari, Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan.

3. **O'g'uz lahjasi** – Surxondaryo, Qashqadaryo va qisman Xorazm hududlarida uchraydi.

Bu lahjalar o'zbek tilining fonetik, leksik va grammatik boyligini tashkil etib, adabiy tilning shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek shevalarida fonetik farqlar keng ko'lamda uchraydi: Toshkent shevasida “q” tovushi ko'pincha yumshoq talaffuz qilinadi: *qiz* o'rniga *kiz*. Farg'ona shevasida *o* unlisi ko'pincha *u* ga almashadi: *qol* – *qul*. Xorazm shevasida esa qadimiy *g* tovushi kuchli saqlanadi: *g'oz* – *g'oz*. Bu fonetik tafovutlar xalq og'zaki nutqida saqlanib qolgan bo'lsa-da, adabiy til umumlashgan talaffuz me'yorlariga asoslanadi.

O'zbek shevalarida mahalliy so'z boyligi juda katta.

Masalan: Toshkent shevasida: *apil-tapil* (shoshma-shosharlik), *qiyma* (go'shtli ovqat).

Farg'ona shevasida: *lashman* (oddiy odam), *sanoq* (o'lchov).

Xorazm shevasida: *shopir* (haydovchi).

M.Jo'rayeva va I.Xidirovaning tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilganidek, dialektizmlar ko'pincha badiiy asarlarda qo'llanib, qahramonlarning hududiy nutqini, ularning o'ziga xosligini ifodalashga xizmat qiladi .

O'zbek

adabiy tili asosan Toshkent-Farg'ona lahjasiga asoslangan bo'lsa-da, boshqa lahjalardan ham ko'plab unsurlar qabul qilgan. Xususan: **Qipchoq lahjasidan:** *qo'zi* (bola qo'y), *jo'ra* (do'st). **O'g'uz lahjasidan:** *g'o'za* (paxta), *qovoq* (sabzavot). Bu jarayon adabiy tilni boyitgan, milliy adabiy tilning umumxalq tili darajasiga chiqishini ta'minlagan .

Shevalar badiiy adabiyotda obrazlilikni kuchaytirish, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va hududiy muhitini ko'rsatish uchun keng qo'llanadi. Masalan, O'tkir Hoshimov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov asarlarida qahramonlar nutqidagi dialektizmlar ularning xarakterini chuqur ochib beradi. G.Raxmonjonova va I.Xidirova tadqiqotida Chortoq so'zining kelib chiqishi va uning hududiy qo'llanishi tahlil qilingan bo'lib, bu kabi dialekt so'zlar til tarixini ham o'rganishda muhim manba ekanligi qayd etilgan .

Shevalar xalqning madaniy merosini, tarixiy tajribasini va milliy o'zligini aks ettiradi. Adabiy tilning boyligi va xalqchiligi ko'p jihatdan shevalarning o'zaro ta'siri va ularning boy so'z xazinasidan kelib chiqadi. Shuningdek, dialektologiya sohasidagi tadqiqotlar o'zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini, qadimiy turkiy tillar bilan bog'liqligini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek shevalari, nafaqat, xalq nutqining rang-barangligini, balki milliy adabiy tilning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qadrlanadi. Ularning fonetik, leksik va morfologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari adabiy tilni boyitadi. Dialektizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi esa o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiy olami va milliy qadriyatlarini yanada haqqoniyroq ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2009.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent: 2000.

3. Jo'rayeva M., Xidirova I. "Qoyalar ham yig'laydi" asarida qo'llanilgan dialektizmlarning leksik-semantik tahlili. Development of pedagogical technologies in modern sciences.
4. Raxmonjonova G., Xidirova I. "Chortoq" so'zining kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar. Eurasian journal of academic research.

SO'Z TARKIBI ASOS VA QO'SHIMCHALARNING TURLARNING O'QITISH METODIKASI

MIHIBULLAYEVA GULINISO PIRMUHAMMAD QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Sirtqi ta'lim 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: *Komilova Gulmira*

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'z tarkibi, ya'ni asos va qo'shimchalarning turlari hamda ularni o'qitish metodikasi masalalari yoritilgan. Unda o'quvchilarga so'zning morfemik tuzilishini o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada so'z asosini va affikslarning (so'z yasovchi, shakl yasovchi, qo'shimcha) turlarini o'rgatishda "Klaster", "Insert", "Aqliy hujum" kabi metodlarning qo'llanishi, ularning dars samaradorligini oshirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari so'z tarkibini o'qitishda tizimli yondashuv o'quvchilarda grammatik tafakkurni rivojlantirishga, morfemik tahlil ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: so'z tarkibi, asos, qo'shimcha, interfaol metod, o'qitish samaradorligi, morfemik tahlil.

Abstract: This article examines the methods of teaching word structure, including roots and affixes, in the Uzbek language. It analyzes the importance of using modern pedagogical and interactive methods in teaching morphemic composition. The paper discusses the application of techniques such as "Cluster," "Insert," and "Brainstorming" in explaining the types of roots and affixes, emphasizing their role in enhancing lesson effectiveness. The results show that a systematic approach to teaching word structure helps students develop grammatical thinking and skills in morphemic analysis.

Keywords: word structure, root, affix, interactive method, teaching effectiveness, morphemic analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы методики преподавания темы «Состав слова», включая основы и аффиксы. Анализируется значение применения современных педагогических и интерактивных методов при обучении морфемному строению слова. В статье освещено использование таких методов, как «Кластер», «Инсерт», «Мозговой штурм», и их роль в повышении эффективности урока. Результаты исследования показывают, что системный подход к изучению состава слова способствует развитию грамматического мышления и формированию навыков морфемного анализа у учащихся.

Ключевые слова: состав слова, основа, аффикс, интерактивный метод, эффективность обучения, морфемный анализ.

Tilshunoslikda soʻz tarkibini oʻrganish — bu soʻzning morfemik tuzilishini, yaʼni asos va qoʻshimchalarning oʻzaro munosabatini tahlil qilishni oʻz ichiga olgan muhim yoʻnalishlardan biridir. Soʻzning tarkibiy qismlarini toʻgʻri anglash oʻquvchilarning grammatik tafakkurini rivojlantiradi, soʻz yasash jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu sababli, soʻz tarkibi mavzusini oʻqitish oʻzbek tili taʼlimida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda taʼlim jarayonida anʼanaviy tushuntirish usullaridan tashqari, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki bu yondashuvlar oʻquvchilarda faollik, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Soʻzning asosi va qoʻshimchalari haqida bilim berishda “Klaster”, “Insert”, “Aqliy hujum”, “Juftlikda ishlash” kabi metodlar oʻquv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Soʻz tarkibi mavzusini oʻqitish jarayonida oʻqituvchi oʻquvchining faqat bilim oluvchisi emas, balki mustaqil tahlilchi sifatida shakllanishiga erishishi zarur. Bu esa darsni tashkil etishda interfaol metodlardan toʻgʻri foydalanish, amaliy topshiriqlar orqali bilimni mustahkamlash va oʻquvchini faol ishtirokchiga aylantirishni talab etadi. Zamonaviy taʼlim standartlari oʻqituvchidan nafaqat bilim berishni, balki oʻquvchining fikrlash madaniyatini rivojlantirishni ham talab qiladi. Shu bois “Soʻz tarkibi, asos va qoʻshimchalarning turlarini oʻqitish metodikasi” mavzusini oʻrganish oʻzbek tili taʼlimida dolzarb va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan masala sifatida qaraladi.

“Soʻz tarkibi, asos va qoʻshimchalarning turlarini oʻqitish metodikasi” oʻzbek tili taʼlimining muhim boʻlimlaridan biri boʻlib, oʻquvchilarda morfemik tahlil qilish, soʻz yasashini anglash va grammatik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishda samarali yondashuvlar, interfaol usullar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda til birliklarini to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasi rivojlantiriladi.

1. So'z tarkibini o'rganishning ahamiyati. So'z tarkibini o'rganish o'quvchilarga so'zning ichki tuzilishini tushuntiradi, ya'ni asos va qo'shimchalarning ma'no va grammatik vazifasini anglashga yordam beradi. Bu bilimlar o'quvchilarda so'z yasash, shakl yasash va tildagi birliklar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, "yozuvchi", "o'qituvchi", "bilimdon" kabi so'zlarni tahlil qilish orqali ular so'z yasash jarayonini amalda o'rganadilar. Shu bilan birga, bu mavzu o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

2. O'qitishda qo'llaniladigan metodlar. So'z tarkibi mavzusini o'qitishda "Aqliy hujum", "Klaster", "Juftlikda ishlash", "Insert" kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Masalan, "Klaster" metodi orqali asos va qo'shimcha turlarini sxematik tarzda ifodalash mumkin, "Aqliy hujum" esa so'z yasovchi qo'shimchalarni tezkor aniqlashni o'rgatadi. Shuningdek, "Rolga kirish" metodi yordamida o'quvchilar so'z yasovchi morfemalar haqida sahnalashtirilgan mashqlar orqali mustahkam bilim oladilar.

3. Muammolar va ularning sabablari. Amaliyotda o'qituvchilar tomonidan bu mavzuni o'qitishda bir nechta muammolar uchraydi. Jumladan, ayrim o'quvchilar asos va qo'shimchani farqlashda qiynaladilar, chunki ular ma'no va shakl jihatidan birbiriga o'xshash bo'lishi mumkin. Ba'zida o'qituvchilar mavzuni faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib, amaliy tahlilga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Natijada, o'quvchilar morfemik tahlilni mustaqil bajara olmaydi. Shu bois, bu jarayonni interfaol mashqlar va individual yondashuv orqali tashkil etish muhim hisoblanadi.

4. Yechimlar va samarali metodik yondashuvlar. So'z tarkibi mavzusini samarali o'qitish uchun o'qituvchi darsni bosqichma-bosqich rejalashtirishi, har bir bosqichda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlashi zarur. Yangi mavzuni tushuntirishda "Klaster" va "Grafik tahlil" metodlari, bilimni mustahkamlashda esa "Insert" yoki "Savol-javob zanjiri" usullari yuqori natija beradi. Shuningdek, multimediali taqdimotlar, elektron testlar va interfaol onlayn mashqlar orqali mavzuni yanada qiziqarli qilish mumkin.

5. So'z tarkibi mavzusining tarbiyaviy va amaliy ahamiyati. Bu mavzu o'quvchilarga nafaqat tildagi birliklarni o'rganishni, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini asoslashni ham o'rgatadi. So'z tarkibini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar so'z ma'nosi, qo'shimchalar funksiyasi va ularning nutqdagi o'rni haqida

chuqurroq bilimga ega bo'ladilar. Bu esa o'quvchining og'zaki va yozma nutqini boyitadi, imlo va grammatik savodxonligini oshiradi.

“So‘z tarkibi, asos va qo‘shimchalarning turlarini o‘qitish metodikasi” mavzusining dolzarbligi shundaki, u o‘quvchilarda tilshunoslik tafakkurini shakllantiradi, tildan ongli foydalanish malakasini rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘qituvchi darsni faollashtiradi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi va nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash imkonini yaratadi. Shu bois, ushbu mavzuni o‘qitishda metodik yangiliklar, texnologik yondashuvlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Shunday qilib, so‘z tarkibini o‘qitish jarayonida metodik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi o‘quvchilarda grammatik tafakkur, til sezgirligi va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tilshunoslikda “lexicological level” — bu til tizimidagi eng muhim qatlamlardan biri bo‘lib, so‘zlarning ma‘nosi, ularning tuzilishi, kelib chiqishi va qo‘llanishini o‘rganadi. Leksikologik tahlil til boyligini chuqur anglash, so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqalarni aniqlash hamda lug‘at tarkibini tizimlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali tilning rivojlanish jarayoni, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi va ularning semantik o‘zgarishlari aniqlanadi. Leksikologik daraja tahlili til madaniyati va nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, leksikologik yondashuv nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki amaliy tilda ham muhim ahamiyatga ega. So‘zlarning semantik tahlili, sinonimiya, antonimiya va polisemiya kabi hodisalarni o‘rganish tilni yanada to‘liq tushunishga yordam beradi. Bu orqali o‘quvchilar va til o‘rganuvchilar lug‘at boyligini kengaytiradilar, so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, leksikologik tahlil tarjima jarayonlarida, nutq madaniyatida va adabiy tahlilda keng qo‘llanadi. Biroq amaliyotda leksikologik tahlilning barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani kuzatiladi. Ba‘zi o‘qituvchilar bu mavzuni faqat nazariy jihatdan o‘rgatib, amaliy mashg‘ulotlarga yetarlicha e‘tibor bermaydilar. Natijada o‘quvchilarda so‘z boyligini chuqur tahlil qilish, semantik munosabatlarni anglash malakasi yetarli shakllanmaydi. Shu bois, leksikologik yondashuvni o‘qitish jarayonida nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish muhim vazifalardan biridir.

Leksikologik darajani puxta o‘rganish orqali tilni nafaqat grammatika, balki ma‘no jihatidan ham chuqur tahlil qilish mumkin. Bu esa o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, kontekstni to‘g‘ri anglash va ijodiy nutq tuzish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, leksikologik tahlil zamonaviy tilshunoslikda fundamental ahamiyatga ega

bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib, tilni to'liq o'zlashtirish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aitchison, J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. Oxford: Blackwell Publishing, 2012.
2. Arnold, I. V. The English Word: Its Structure and Meaning. Moscow: Vysshaya Shkola, 1986.
3. Carter, R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. London: Routledge, 1998.
4. Cruse, D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 2011.
5. Jackson, H. & Amvela, E. Zé. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. London: Continuum, 2000.
6. Jackson, H. An Introduction to the Nature and Functions of Language. London: Continuum, 2002.
7. Lyons, J. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
8. Murphy, M. L. Lexical Meaning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
9. Palmer, F. R. Semantics: A New Outline. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
10. Plag, I. Word-Formation in English. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

INTERNET TILI VA YANGI LEKSIK BIRLIKLAR

MIRAZIMOVA SEVINCH ORTIQALI QIZI,

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

mirazimovasevinch9@gmail.com,

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Internet tili va unda shakllanayotgan yangi leksik birliklar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida til tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, xususan, yangi so'zlar, qisqartmalar, emoji va inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelish jarayoni yoritiladi. Internet tili ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va messenjerlar orqali tez sur'atda rivojlanib, yoshlar nutqida faol qo'llanilmoqda. Maqolada yangi leksik birliklarning paydo bo'lish sabablari, ularning semantik xususiyatlari hamda o'zbek tili lug'at tarkibiga ta'siri lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Internet tili, yangi leksik birliklar, o'zlashma so'zlar, raqamli kommunikatsiya, inglizcha so'zlar, emoji, qisqartmalar, virtual muloqot, globallashuv, o'zbek tili leksikasi.

Annotation: This article analyzes the Internet language and the new lexical units emerging within it. It discusses the changes taking place in the language system as a result of the development of digital technologies, particularly the process of new words, abbreviations, emojis, and English borrowings entering the Uzbek language. The Internet language is rapidly developing through social networks, blogs, and messengers, and is actively used in the speech of young people. The article linguistically examines the reasons for the emergence of new lexical units, their semantic features, and their influence on the vocabulary system of the Uzbek language.

Keywords: Internet language, new lexical units, borrowed words, digital communication, English words, emojis, abbreviations, virtual communication, globalization, Uzbek language vocabulary.

Аннотация: В данной статье анализируется интернет-язык и формирующиеся в нём новые лексические единицы. Рассматриваются изменения, происходящие в языковой системе под влиянием развития цифровых технологий, в частности процесс вхождения в узбекский язык новых слов,

аббревиатур, эмодзи и англицизмов. Интернет-язык быстро развивается через социальные сети, блоги и мессенджеры и активно используется в речи молодежи. В статье лингвистически анализируются причины появления новых лексических единиц, их семантические особенности, а также влияние на лексический состав узбекского языка.

Ключевые слова: интернет-язык, новые лексические единицы, заимствованные слова, цифровая коммуникация, англицизмы, эмодзи, аббревиатуры, виртуальное общение, глобализация, лексика узбекского языка.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayoti internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydigan darajaga yetdi. Internet jamiyatning barcha sohalariga — iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat, siyosat, hatto kundalik muloqotga ham chuqur kirib bordi. Bu esa tabiiy ravishda til tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar unda bevosita aks etadi.

So'nggi yillarda "internet tili" yoki "raqamli til" tushunchasi lingvistika fanida alohida tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Internet tili deganda, foydalanuvchilarning virtual muhitda — ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, messenjerlar, forumlar va onlayn o'yinlar jarayonida ishlatadigan, o'ziga xos qisqartmalar, yangi so'zlar, emoji va iboralardan iborat muloqot tili tushuniladi. Bunday til shakli tezkorlik, ixchamlik va ifodaviylik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Internet tilining asosiy o'ziga xos jihatlaridan biri — yangi leksik birliklarning tez sur'atda paydo bo'lishidir. Masalan, "post", "story", "like", "follower", "blogger", "hashtag", "kontent" kabi so'zlar nafaqat internet foydalanuvchilari orasida, balki oddiy nutqda ham faol qo'llanmoqda. Shuningdek, qisqartma shakllar — "btw" (by the way), "omg" (oh my god), "lol" (laughing out loud) kabi birliklar ham yoshlar nutqida keng tarqalmoqda.

Bu jarayon, bir tomondan, o'zbek tilining leksik boyishiga, zamonaviy so'z qatlamining kengayishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, tilning milliy xususiyatlariga, adabiy me'yorlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli internet tili va yangi leksik birliklarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega.

Internet tili — bu raqamli muloqot jarayonida paydo bo'lgan yangi lingvistik hodisa bo'lib, u insonlarning virtual muhitda tez, qisqa va ta'sirli aloqa o'rnatish ehtiyojidan kelib chiqqan. Internet tarmog'ida yozishmalar, bloglar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar orqali yangi tildan foydalanish shakllari shakllanmoqda.

Bu tilda rasmiy grammatik me'yorlar ba'zan buziladi, lekin asosiy maqsad — tezkor va samimiy muloqotni ta'minlashdir.

Internet tili ko'p hollarda yoshlar nutqida faol qo'llaniladi. Ularning muloqotida inglizcha so'zlar, qisqartmalar, emoji va milliy tildagi yangi yaratilgan birliklar uyg'unlashadi. Shu bois bu til "hybrid" — aralash tabiatga ega bo'lib, milliy til va xorijiy tillar ta'sirining natijasidir.

Internet tilida yangi leksik birliklar bir necha yo'l bilan vujudga keladi:

O'zlashmalar orqali: ingliz tilidan bevosita o'zlashgan "blogger", "post", "like", "story", "hashtag", "stream" kabi so'zlar o'zbek foydalanuvchilari orasida keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi talaffuzga moslashgan, ayrimlari esa o'zbekcha shaklda yozila boshlagan (masalan, stori, layk, blogger).

Yangi ma'no kasb etish orqali: mavjud o'zbekcha so'zlar internet muhitida yangi ma'no kasb etmoqda. Masalan, obuna so'zi ilgari gazeta yoki jurnalga yozilish ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirda "kanalga qo'shilish" ma'nosini anglatadi. Yangi internet leksikasi bir necha usulda yuzaga keladi:

- **Kalkalash:** ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima ("foydalanuvchi" – *user*, "tarmoq" – *network*).

- **Transliteratsiya:** xorijiy so'zlarning talaffuz asosida yozilishi ("blogger", "kontent", "komment").

- **Aglutinatsiya:** o'zbekcha qo'shimchalar orqali yangi shakllar yaratish ("postlash", "likechi").

- **Semantik kengayish:** mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklanadi ("tarmoq" — ilgari texnik tushuncha, hozir esa ijtimoiy platforma ma'nosida).

Bu jarayonlar internet tilining tirik, dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Qisqartma va so'z o'yinlari orqali: "lol" (laughing out loud), "btw" (by the way), "idk" (I don't know), "aslida" kabi qisqartmalar yoki "ketch" (kechroq yozaman) kabi nutqdagi soddalashtirishlar keng tarqalgan.

Grafik birliklar orqali: emoji, gif va stickerlar ham internet tili tarkibiga kiradi. Ular so'z o'rnini bosuvchi, his-tuyg'uni ifodalovchi semantik birlik vazifasini bajaradi.

Internet tili o'zbek tili leksik tizimiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, u tilni boyitmoqda — yangi atamalar, zamonaviy tushunchalar, texnologik terminlar tilga kirib kelmoqda. Bular zamonaviy hayot tarzini ifodalashda zarur.

Ikkinchi tomondan, ortiqcha o'zlashmalar, talaffuzdagi buzilishlar va inglizcha so'zlarning me'yorsiz qo'llanilishi o'zbek tilining milliy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois lingvistlar va o'qituvchilar uchun bu jarayonni ilmiy kuzatish, tahlil qilish va kerakli me'yorlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Internet tili shunchaki yangi soʻzlar toʻplami emas — u jamiyat tafakkuridagi oʻzgarishlarning tildagi aksidir. Virtual muloqotning osonligi, ifodaviy vositalarning koʻpligi va tezkorligi natijasida til yanada dinamik, moslashuvchan va ijodiy tus olmoqda.

Xulosa qilib aytganda, internet tili hozirgi davr tilshunosligining eng faol va dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Internet tili zamonaviy kommunikatsiyada ijtimoiy chegaralarni qisqartiradi. U global madaniyat va texnologiyalar bilan bogʻliq yangi identifikatsiya vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar tili internet tili orqali tez yangilanadi. Shu bilan birga, bu jarayon til meʼyorlariga ham taʼsir koʻrsatmoqda — grammatik qisqartmalar, emoji va inglizcha soʻzlar oʻzbek yozuvida faol ishlatilmoqda. Tilshunoslarga taʼkidlaganidek, internet tili milliy tilga tahdid emas, balki uning *leksik imkoniyatlarini kengaytiruvchi hodisa*dir. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida til tizimida yuz berayotgan oʻzgarishlar, xususan, yangi soʻzlar, qisqartmalar va grafik vositalarning (emoji, sticker, gif) paydo boʻlishi oʻzbek tilining ham boyishiga, ham yangilanishiga sabab boʻlmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, M. (2021). Hozirgi oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, N. (2022). Raqamli kommunikatsiya va til tizimidagi oʻzgarishlar. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Yusupova, D. (2020). “Internet tili va yoshlar nutqida yangi birliklar.” — Til va jamiyat jurnali, №2, 45–49-betlar.

**GLOBALLASHUV DAVRIDA O'ZBEK LEKSIKASINING BOYISHI:YANGI
TERMINLAR VA ATAMALAR****MIRAZIMOVA SEVINCH ORTIQALI QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

mirazimovasevinch9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Globallashuv insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, til rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar, iqtisodiy tizimlar, ilmfan yutuqlari, madaniy aloqalar natijasida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi keskin ortdi. Shu jarayon til boyligining tezkor yangilanishiga, yangi atamalar va terminlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Mazkur maqolada globallashuv davrida o'zbek leksikasining boyishi, yangi terminlarning kelib chiqish manbalari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globalashuv, internet, vlogging, blokcheyn, AI, kiberxavfsizlik, startup, brend, trend, blogger, influencer, post, like, hashtag, reels, streaming, marketing, logistika, e-learning, chatbot, AR, VR, STEM, EdTech.

XXI asr insoniyat tarixida globallashuv davri sifatida nom qozondi. Axborot texnologiyalarining rivoji, transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida dunyo tillari o'rtasidagi munosabat keskin faollashdi. Til esa bu jarayonda asosiy vosita sifatida xalqaro aloqalarning poydevorini tashkil etadi. Natijada, globallashuv ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar, terminlar va xalqaro atamalar o'zbek tilining lug'aviy tarkibini boyitib, zamonaviy tilshunoslik va leksikologiya tadqiqotlarida markaziy o'rinni egalladi. Bu jarayonlar tilning barcha qatlamlariga, xususan, uning leksik boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy tilshunoslik esa bu jarayonlarni tizimli o'rganib, ularning lingvistik qonuniyatlarini ochib bermoqda.

Globallashuv jarayoni dunyo tillari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, ularning o'zaro ta'sirini yanada jadallashtirdi. Bu jarayon natijasida o'zbek tilida ham yangi termin va atamalar faol qo'llanila boshladi. Avvalo, axborot texnologiyalari sohasi tilimizga ko'plab neologizmlarni olib kirdi. *Internet, onlayn, oflayn, blokcheyn, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamlashtirish* kabi terminlar ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashdi. Masalan, "blokcheyn" atamasi global moliya tizimidagi yangi texnologik yechimni ifodalash uchun qo'llanilmoqda. Ushbu terminlarning o'zbek tiliga kirib

kelishi bir tomondan, ilm-fan va texnologiya rivojiga bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro kommunikatsiya ehtiyojlari bilan ham izohlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat taraqqiyoti ham o'zbek tilida yangicha leksik qatlamning shakllanishiga sabab bo'ldi. *Trend, kontent, blogger, influencer, post, like, hashtag, reels, streaming, meme, vlogging, podcasting* kabi terminlar Instagram, YouTube va boshqa ijtimoiy platformalar faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tilimizga kirib keldi. Masalan, "influencer marketing" tushunchasi ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlar orqali reklama olib borish jarayonini bildiradi, "viral kontent" esa tezkor tarqaladigan materiallarni ifodalashda qo'llanadi.

O'zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan bunday terminlarning faol qo'llanilishi bir necha muhim masalalarni yuzaga chiqaradi:

1. **O'zlashmalar tabiatini aniqlash.** Yuqoridagi terminlarning aksariyati o'zbek tiliga bevosita ingliz tilidan kirib kelgan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalardir. Bunda fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlari kuzatiladi. Masalan, *blogger* so'zi o'zbek tilida fonetik shaklini deyarli o'zgartirmagan holda ishlatilmoqda, biroq u -chi qo'shimchasi yordamida *bloggerchi* shaklida ham qo'llanish holatlari uchraydi.

2. **Terminlarning semantik o'zgarishi.** Ba'zi terminlar asl tilidagi ma'nosidan kengayib yoki torayib, o'zbek tilida yangi semantik jihatlar kasb etadi. Masalan, *trend* termini ingliz tilida "yo'nalish, tendensiya" ma'nosini anglatrsa, o'zbek tilida ko'proq "mashhurlik, ommaviylik" tushunchasi bilan bog'lanib ketmoqda.

3. **Milliy til siyosati va normativlashtirish masalasi.** O'zbek tilshunosligida xorijiy terminlarni milliy tilda muqobillari bilan almashtirish yoki ularni asliyatda qabul qilish masalasi dolzarbdir. Masalan, *like* atamasi uchun "yoqdi", *post* uchun "xabar", *content* uchun "mazmun" kabi variantlar taklif qilinmoqda. Biroq kommunikativ ehtiyoj va tezkorlik sababli ko'pincha asl shaklda ishlatilmoqda.

4. **Til tizimida yangi qatlamning shakllanishi.** Ushbu terminlar o'zbek tilida zamonaviy kommunikatsiya va texnologik sohalarga oid leksik qatlamni tashkil etmoqda. Bu qatlam milliy leksik fondni boyitib, til taraqqiyotida yangicha yo'nalishlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish natijasida o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi termin va atamalar nafaqat tilning leksik tarkibini kengaytiradi, balki tilshunoslik uchun ham yangi tadqiqot yo'nalishlarini yuzaga chiqaradi. O'zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu terminlarning tizimlilik, moslashuvi va normativlashuvini ilmiy jihatdan asoslab berishdir.

Iqtisodiyot va biznes sohasi ham globallashuv jarayonining ta'siri ostida yangi terminlar bilan boyimoqda. *Startup, brend, frilanser, marketing, logistika, crowdfunding, fintech, e-commerce, outsourcing, dropshipping* kabi atamalar global iqtisodiy jarayonlar, innovatsion biznes modellarini ifodalash uchun faol qo'llanilmoqda. Masalan, "dropshipping" termini zaxira saqlamasdan tovar sotish tizimini bildiradi. Bu kabi terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi iqtisodiy faoliyatning zamonaviy shakllarini aniq nomlash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ta'lim va ilmiy sohada ham terminologik yangilanish jarayoni yaqqol kuzatiladi. *Masofaviy ta'lim, onlayn kurs, e-learning, STEM, biotexnologiya, genetika, MOOC (Massive Open Online Courses), gamifikatsiya, EdTech, Data Science, LMS (Learning Management System), peer-to-peer ta'lim* kabi terminlar ilmiy-texnologik taraqqiyot ta'sirida shakllangan bo'lib, ular ta'lim jarayonida keng qo'llanmoqda. Masalan, "gamifikatsiya" atamasi ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirishni bildirsa, "MOOC" atamasi dunyo miqyosida bepul va ochiq ta'lim resurslarini ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan ushbu terminlarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. **O'zlashma turi jihatidan:** yuqoridagi atamalarning aksariyati ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan bo'lib, asliyat shaklida qo'llanmoqda (*startup, marketing, frilanser, crowdfunding, MOOC* va b.).

2. **Morfologik moslashuv:** ayrim terminlar o'zbek tilida morfologik qo'shimchalar qabul qilib, yangi shakllar hosil qila boshlagan. Masalan, *startup* → *startaplar, startapchi*; *brnd* → *brendlar, brendlash*; *frilanser* → *frilanserlik*. Bu jarayon ularning til tizimiga integratsiyalashuvini ko'rsatadi.

3. **Semantik jihat:** ba'zi terminlar o'zbek tilida toraygan yoki kengaygan ma'noda qo'llanmoqda. Masalan, *outsourcing* aslida keng qamrovli tashqi xizmatlardan foydalanishni anglatga-da, o'zbek tilida ko'pincha "kadrlarni tashqaridan yollash" ma'nosida ishlatilmoqda.

4. **Muqobil variantlar masalasi:** til siyosati va terminologiya komissiyasi nuqtai nazaridan bu atamalarga o'zbekcha muqobil variantlar taklif etilmoqda. Masalan, *e-commerce* uchun "elektron savdo", *masofaviy ta'lim* asliyatda qo'llanayotgan "distance learning"ning milliy varianti hisoblanadi. Biroq ko'plab terminlar (masalan, *gamifikatsiya, EdTech, Data Science*) hozircha asliyat shaklida ishlatilmoqda.

5. **Leksik qatlamning shakllanishi:** ushbu terminlar iqtisodiyot, biznes, ta'lim va ilm-fan sohalarida zamonaviy leksik qatlamni tashkil etib, o'zbek tilining zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tilning lug'at tarkibi doimiy ravishda boyib boradi va bu jarayon bir nechta manbalar orqali amalga oshadi: **internatsional terminlarning o'zlashuvi, so'z yasash imkoniyatlari, kalkalash (ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima), neologizmlar hamda dialekt so'zlarining adabiylashuvi.**

Masalan, *internet* (ingliz), *marketing* (ingliz), *algebra* (arab), *universitet* (lotin) kabi terminlar xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan internatsional birliklar sifatida o'zbek tiliga kirib kelgan. So'z yasash yo'li bilan yuzaga kelgan birliklar esa milliy ildizlarga tayangan holda shakllanadi: *raqam* → *raqamlashtirish*, *til* → *tilshunoslik* kabi misollar buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, kalkalash hodisasi ham lug'at tarkibining boyishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilidagi *Artificial Intelligence* termini o'zbek tilida *sun'iy intellekt* shaklida to'liq moslashtirildi.

Zamonaviy leksikologiya ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil etadi. Xususan:

- yangi terminlarning **semantik xususiyatlari**, ya'ni ularning ma'no kengayishi, torayishi yoki semantik ko'chishi;
- **morfologik moslashuvi**, ya'ni milliy til grammatik tizimiga kirib borishi (masalan, *marketing* → *marketingchi*, *marketinglar*);
- **me'yorlash jarayoni**, ya'ni terminlarni normativ lug'atlarga kiritish, muqobil variantlarini belgilash;
- **lingvistik korpuslardagi qo'llanish chastotasi**, ya'ni yangi terminlarning real matnlarda uchrash darajasi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

O'zbek tilining Milliy Korpusi materiallari tahliliga ko'ra, ko'plab yangi terminlarning qo'llanishi ayniqsa 2010-yildan keyin keskin ortgan. Bu esa globallashtirish jarayoni o'zbek tilining leksik boyligiga bevosita va faol ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish jarayoni o'zbek tilining leksik boyish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, ta'lim va ijtimoiy-madaniy sohalariga oid ko'plab terminlarning faol qo'llanishi natijasida o'zbek tili zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu terminlar nafaqat kundalik nutq, balki ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ham mustahkam o'rinish bormoqda.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan bu hodisa ikki tomonlama jarayonni anglatadi: bir tomondan, tilning lug'at tarkibi internatsional birliklar, neologizmlar va kalkalar

hisobiga kengaymoqda; ikkinchi tomondan, milliy til tizimi yangi terminlarni fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zlashtirib, ularni me'yoriy holatga keltirmoqda.

Shunday qilib, globallashuv davrida o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi terminlarning tizimli o'rganilishi, ularning lingvistik tabiati va me'yorlash jarayonini ilmiy asoslash — zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov, A. A. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Bozorov, O. *Globallashuv va o'zbek tilining leksik boyishi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Rasulov, R. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
4. Yusupov, O. *Zamonaviy tilshunoslik: yangi yo'nalishlar va konsepsiyalar*. – Toshkent: Universitet, 2022.
5. www.wikipedia.uz

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGLIZ TILI O'QITISHNING OSON VA SAMARALI USULLARI

MUHAMMADOVA LAYLOXON ALISHER QIZI

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Turizm fakulteti XTA 23.6-guruh

Ilmiy rahbar: Xushbokov Oybek Uralovich

Turizm fakulteti Nemis tili kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qitishning oson va samarali usullari ko'rsatib o'tiladi. Hozirgi rivojlanayotgan zamonda ingliz tili muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, shu sababli uni maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlash kerak. Bu maqolada ana shu masalalar qisqacha yoritiladi.

Kalitso'zlar: xorijiy til, o'yin, metodika, multfilmlar, musiqalar, topshiriqlar, ertaklar, kitoblar, ochiq muloqot.

Аннотация: В этой статье показаны простые и эффективные способы преподавания английского языка детям дошкольного и младшего школьного возраста. Английский язык становится все более важным в современном развивающемся возрасте, поэтому его следует начинать с дошкольного и младшего возраста, в статье представлена информация об этом.

Ключевые слов: иностранный язык, игра, методика, мультфильмы, музыка, задания, сказки, книги, открытое общение.

Annotation: This article shows easy and effective ways to teach English to pre-school and elementary school children. English language is becoming more important in today's developing age, so it should be started from preschool and elementary age. In this article is illustrated the issues briefly.

Keywords: foreign language, game, methodology, cartoons, music, tasks, fairy tales, books, open communication.

KIRISH

Hammamizga ma'lum bo'lganidek hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarini o'rganish orqali xorijiy tilde erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash, chet tillarini o'rganish orqali dunyo xalqlari madaniyati bilan kengroq tanishish, belgilangan talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash yurtimizda o'tkazilayotgan ta'lim islohotining asosiy maqsad hamda vazifalaridan biri

hisoblanadi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak xorijiy tillarni o'rganishda qilinayotgan islohotlar natijasida til o'rganishga kirib kelayotgan yosh avlod maktabgacha ta'limdan oily ta'limgacha o'z ona tilisi va chet tilini bir paytning o'zida solishtirgan holda o'rganadi. „Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti soati keldi” [1] - deya bekorga ta'kidlamaganlar prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, hozirda o'sib borayotgan yosh avlodga tez hamda sifatli xorijiy til o'rgatish metodlari ham rivojlandi. Misol uchun, bolalarning maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ikki tillilik ya'ni ham o'z ona tilisi, qo'shimchasiga esa biror xorijiy tilni o'rganish imkoniyati yurtboshimiz tomonidan keng yo'lga qo'yilgan. Qanday qilib bolalarga chet tillari ya'ni ingliz, koreys, nemis va boshqa shu kabi tillarini oson tarzda o'rgatsa bo'ladi degan savolga quydagicha javob berish mumkin:

- ularda o'rganayotgan narsasiga nisbatan ko'proq ma'lumot berish orqali;

Ya'ni meva, sabzavot, uy jihozlari kabi buyumlarni rasmlarini ko'rsatib turli ko'rgazmalar orqali uni tasvirlashi kerak bo'ladi.

- bolalarda jonli tasvirni shakllantirish ularga yaqin so'zlar hamda o'xshash so'zlar ishlatish orqali;

- o'rganayotgan tilni oson tushunish uchun darajasiga to'g'ri keladigan ya'ni kichik yoshda bo'lsa multifilm, yoshi kattalashgan sari turli qiziqarli filmlar qo'yib berish orqali;

- ularni fikrlarini bilish, biror bir mavzu doirasida bilgan so'zlarini so'rash orqali;

- kundalik hayotida uni hayotga tadbqiq qilgan holda qo'llash orqali;

- turli xildagi topshiriqlar berish va ularni qiziqarli tarzda o'tkazish orqali;

- ularga kitoblar o'qib berish, hikoyalarni jonli tarzda rolga kirib ijro etish, tana harakatlari, yuz ifodalaridan foydalanish orqali.

Kichik bolalarda murakkab aloqa muammolari bo'lmaydi u chet tilini o'zlashtirganda tillar o'rtasidagi imkoniyatlar kata farq qilmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bo'ladi. Til o'rganish ham yosh davriga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar [2]. Bolalarga til o'rganishga bo'lgan moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir.

Shuningdek, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, interaktiv taxtalar, planshet va telefon ilovalari yordamida turli o'yinlar orqali

bolalarda qiziqishni kuchaytirish mumkin. Bugungi kunda mobil ilovalar, masalan, Duolingo, Lingokids, Fun English kabi dasturlar kichik yoshdagi bolalarning o'yin orqali til o'rganish jarayonini yengillashtirmoqda. Bundan tashqari, ingliz tilidagi multfilmlar va qisqa videolar bolalarda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantiradi. Bolalar tinglayotgan ovoz, so'z va jummalarni ko'rib eslab qoladi, bu esa ularning eslab qolish xotirasini rivojlantiradi.

Yana bir samarali usul – bu qo'shiq va she'rlarni yod oldirishdir. Bolalar musiqaga qiziqishi sababli, inglizcha oddiy qo'shiqlarni kuylash orqali ular yangi so'zlarni tezroq yodlab oladilar. Masalan, ranglar, hayvonlar yoki raqamlar haqida qo'shiqlar bolalar uchun juda foydali bo'ladi. Shuningdek, ingliz tilidagi ertaklarni tinglash va sahnalashtirish ularni ijodkorlikka, rolli o'yinlarga o'rgatadi.

Bundan tashqari, ota-onalar ham bolalarning til o'rganish jarayoniga jalb qilinishi kerak. Uyda oddiy buyumlarning inglizcha nomlarini aytib o'tish yoki birga kichik suhbatlar qilish bolaning til o'rganishini mustahkamlaydi. O'qituvchi, bola va ota-onaning hamkorligi natijasida til o'rganish jarayoni ancha samarali kechadi.

Bolalarga ingliz tilini o'rgatishda samarali bo'lgan usullardan yana biri – bu harakatli o'yinlardir. Kichik yoshdagi bolalar ko'proq jismoniy faoliyatga moyil bo'lganlari uchun “Simon says”, “Jump to the color” kabi inglizcha o'yinlar ularning tilni tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu orqali ular so'zlarni nafaqat eshitadi, balki amalda bajarib ham ko'rishadi.

Shuningdek, ijodiy faoliyatlarni qo'llash ham muhimdir. Masalan, rang berish, rasm chizish, kesib yopishtirish kabi mashg'ulotlarda inglizcha so'zlardan foydalanish bolalarda tilga qiziqishni kuchaytiradi. Ular “red apple”, “blue sky” kabi oddiy jummalarni o'z ishida qo'llashga harakat qiladi.

Ko'p sezgi organlari ishtirok etadigan metodlar ham juda samaralidir. Agar bola ko'rsa, eshitsa va qo'li bilan bajarsa, u so'zlarni uzoqroq vaqt eslab qoladi. Masalan, meva nomlarini faqat rasm orqali emas, balki haqiqiy mevalarni ushlab, ta'tib ko'rib o'rganish yanada ta'sirli bo'ladi.

Foydali maslahat sifatida shuni ta'kidlash kerakki, kichik yoshdagi bolalarga qattiq grammatik qoidalarni o'rgatishdan ko'ra, amaliy so'zlashuvni shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Bolalar dastlab oddiy salomlashish, tanishish va kundalik hayotda kerak bo'ladigan so'z birikmalarini o'rgansalar, keyinchalik murakkab grammatikani osonroq qabul qiladilar.

Shuningdek, bolalarni rag'batlantirish ham katta ahamiyatga ega. Har bir kichik yutuq uchun ularni maqtash, kichik sovg'alar berish yoki yulduzchalar qo'yish bolalarda motivatsiyani yanada oshiradi.

Hozirgi kunda judayam ko'p yoshlarning til bilish darajalari yoshligidan shakllantirib brogan holda yuqori natijalarga erishayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib dunyo miqyosida tan olingan xalqaro IELTS, TOEFL hamda Multilevel milliy sertifikatlar va boshqa turdagi sertifikatlarni ko'rsatish mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qiyotgan bolalarga xorijiy tillarni o'qitish samarali foyda bermoqda. Chet tillarini o'rganish yuzasidan ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida o'rganish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Ularda til o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasi sifatida kichik maktab yoshidagi bolalarning IELTS yoki milliy sertifikatlarni qo'lga kiritishmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yod olish hamda, harakatlarni kuzatsa uni yodida saqlash oson bo'ladi. Shu sababli ularga turli mashqlar, tana harakatlari va turli xil ko'rgazmali qurollar orqali ularga oson va samarali tarzda xorijiy tillarni o'rgatish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishning samaradorligi bevosita tanlangan metod va usullarga bog'liqdir. Bolalarda tabiiy qiziqish, taqlidchanlik va tez yod olish xususiyatlari kuchli bo'lganligi sababli, bu davrni samarali foydalanib qolish o'qituvchilar va ota-onalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yin, qo'shiq, ertak, multfilm va rolli mashg'ulotlar yordamida o'rgatilgan bilimlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Bu esa ularning til o'rganishga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, ota-onalarning faol ishtiroki, uy sharoitida tilga oid mashqlar bajarilishi va oddiy suhbatlar qilish bolalarning natijalarini yanada yaxshilaydi.

Ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolalarda muloqot qilish, so'zlashuvni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ayniqsa, kichik yutuqlarni rag'batlantirish orqali ularda o'ziga ishonch paydo bo'ladi va til o'rganish jarayoni quvonchli kechadi.

Umuman olganda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish faqatgina lingvistik ko'nikmalar emas, balki ularning dunyoqarashi, tafakkuri va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Shu bois, ta'lim jarayonida turli xil innovatsion usullardan foydalanish, zamonaviy

texnologiyalarni tatbiq etish va doimiy yangicha yondashuvlarni qo'llash zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://president.uz/oz/site>
2. Baxramova T.D., "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar". - T., 2016, 2.
3. <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/wiew/787/768>.
4. David A.J. P. Kauchak, Methods for Teaching: Promoting student.
5. Tajibayeva G.Sh., "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish". - 2019.
6. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press, 2001.
7. Moon, J. Children Learning English. Oxford University Press, 2000.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV PLATFORMALAR (KAHOOT, QUIZLET, NEARPOD)DAN FOYDALANISH

Muhiddinov Bobur Utkir o'g'li

alishermuhiddinov19@gmail.com

Turg'unjonova Diyora Bahodir qizi

madalimovadiyora03@gmail.com

Risqimboyev Fazliddin Ilhomjon o'g'li

frisqimboyev@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo'nalishi 3-bosqich talabalari

Usmonova Ruzixon Bozorovna

boburraxmatov1808@gmail.com

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda interaktiv platformalardan — xususan Kahoot, Quizlet va Nearpod dasturlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida dars jarayonini jonlantirish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda mustahkam bilim hosil qilish uchun yaratilayotgan sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada interaktiv platformalarning afzalliklari, amaliyotda qo'llanish usullari va ularning ta'lim sifati hamda o'quvchilar bilim darajasiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, tajribali o'qituvchilarning fikrlari va amaliy misollar orqali mavzuga yondashuv chuqurlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Biologiya ta'limi, interaktiv platformalar, Kahoot, Quizlet, Nearpod, raqamli ta'lim, dars samaradorligi, innovatsion metodlar, o'quvchilarning faolligi, interaktiv o'qitish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida ro'y berayotgan raqamli transformatsiya o'quv jarayonlarini yanada interaktiv, samarali va o'quvchiga yo'naltirilgan holatga keltirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar qatoriga kiruvchi biologiya fanini o'qitishda zamonaviy interaktiv platformalardan foydalanish dars sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kahoot, Quizlet, Nearpod kabi interaktiv ta'lim vositalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlash, dars jarayonini qiziqarli va jonli shaklga keltirish imkonini beradi. Ushbu maqolada aynan ushbu

platformalarning biologiya ta'limidagi o'rni, ularning afzalliklari va ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

1. Interaktiv platformalarning ta'limdagi o'rni. Interaktiv platformalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o'qitish jarayonini qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu platformalar orqali o'qituvchilar darslarni vizual materiallar, testlar, viktorinalar va boshqa interaktiv faoliyatlar bilan boyitishlari mumkin.

2. Kahoot platformasi. Kahoot — bu o'quvchilar uchun qiziqarli va raqobatbardosh muhitda testlar o'tkazish imkonini beruvchi platformadir. Ushbu platforma orqali o'qituvchilar biologiya faniga oid turli mavzularda testlar tayyorlab, o'quvchilarning bilim darajasini baholashlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Kahoot o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. Quizlet platformasi. Quizlet — bu o'quvchilarga flashkartalar, testlar va o'yinlar orqali bilimlarni o'zlashtirish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida terminlar, tushunchalar va jarayonlarni o'rganishda Quizletning flashkarta funksiyasi juda foydali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Quizlet o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Nearpod platformasi. Nearpod — bu o'qituvchilarga interaktiv taqdimotlar, testlar, so'rovnomalar va boshqa faoliyatlar orqali darslarni tashkil etish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida Nearpod orqali laboratoriya tajribalari, 3D modellar va virtual ekskursiyalarni tashkil etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Nearpod o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi va ularning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

5. Platformalarning taqqosiy tahlili

Platforma	Afzalliklari	Kamchiliklari
Kahoot	Qiziqarli va raqobatbardosh muhit, tezkor baholash	Cheklangan savol turlari
Quizlet	Mustaqil o'rganish uchun qulay, turli o'yinlar	O'qituvchi nazorati cheklangan
Nearpod	Keng interaktiv imkoniyatlar, real vaqtli monitoring	Tayyorlash uchun ko'proq vaqt talab etadi

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish nafaqat metodik yondashuvlarni yangilaydi, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini tubdan o'zgartiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ichida murakkab atamalar, biologik jarayonlar va tizimlarni o'z ichiga olgan biologiya fanini samarali o'qitish uchun innovatsion vositalar va ilg'or texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, Kahoot, Quizlet va Nearpod kabi platformalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi: ular biologiyani nafaqat o'rganish, balki uni anglash, qo'llash va amaliyotga tatbiq qilish imkonini kengaytiradi.

Kahoot platformasi raqobat va o'yinga asoslangan yondashuvi bilan o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilar ushbu platforma orqali bilimlarini sinab ko'rish, noto'g'ri javoblar ustida ishlash va xatolarni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa reflektiv ta'limni rag'batlantiradi va o'quvchini faollikka undaydi.

Quizlet platformasi esa asosan mustaqil o'rganish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, biologiyada ko'plab atamalar, lotincha nomlar va tasnif tizimlari mavjud bo'lgani sababli, o'quvchilarning ularni yod olish va takrorlash imkoniyatini kengaytiruvchi flashkarta va test funksiyalari nihoyatda foydali. Bu o'quvchilarning xotira va assotsiativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Nearpod esa murakkab mavzularni vizualizatsiya qilish, interaktiv laboratoriya tajribalari, 3D modellar orqali biologik tizimlarni tushuntirish imkonini yaratadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi real vaqtli interaktiv muloqot, natijalarni darhol baholash va muhokama qilish dars samaradorligini oshiradi. Bu esa nafaqat bilim olish, balki chuqur tushunishga ham olib keladi.

Umuman olganda, interaktiv platformalarning biologiya ta'limidagi joriy etilishi bir qator afzalliklarni beradi:

darslarning sifat va mazmunini oshiradi;

o'quvchilarni faol, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi;

o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsipi asosida tashkil etishga imkon yaratadi;

real vaqtda tahlil, qayta aloqa va differensial yondashuvni ta'minlaydi.

Shu bois, hozirgi davrda biologiya fani o'qituvchilari interaktiv platformalardan foydalanishni faqat qo'shimcha vosita sifatida emas, balki o'quv jarayonining ajralmas elementi sifatida qabul qilishi lozim. Kelajakda raqamli pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va moslashtirilgan ta'lim kabi konsepsiyalar asosida bu platformalarning ta'siri yanada kengayishi kutiladi. Ilmiy yondashuv, amaliy tajriba va

zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali biologiya ta'limining sifati yuqori bosqichga ko'tarilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Active and Interactive Learning Through Quizlet and Kahoot" — ResearchGate, 2020.
2. "ICT Tools for Assessing Tests and Student Performance" — Quizlet Study Guide, 2024.
3. "Using Nearpod to Promote Engagement in Online ESL Classes" — SpringerLink, 2023.
4. "Top 10 Student Assessment Apps for Teachers" — Formaloo Blog, 2024.
5. "Digital Tools to Engage Your Students in Fun Learning Activities" — Brittany Washburn Blog, 2024.
6. Qodirova Z. S., Xolmatov B. U. (2022). Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Rahmatova G. (2021). "Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o'qitish metodikasi". "Pedagogik ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.
8. Abdullayeva M. (2020). "Biologiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi". O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ilmiy-metodik axborotnomasi, 2-son.
9. Nurullayeva N. M. (2023). "Interaktiv o'quv platformalari yordamida tabiiy fanlarni o'qitish". Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy jurnali, 1(58).

WORD ORDER STRUCTURES IN GERMAN AND RUSSIAN: A COMPARATIVE STUDY

LENARA DLYAVEROVNA MUSTAFAYEVA

Student, Chirchik State Pedagogical University

lenaramustafayeva2410@gmail.com

Scientific adviser: Oybek Uralovich Xushbokov

Senior Teacher, Chirchik State Pedagogical University

o.xushbokov@cspu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola nemis va rus tillarida soʻz tartibi tuzilmalarini oʻrganib, ularning oʻxshashliklari va farqlariga eʼtibor qaratadi. Nemis tili asosiy gaplarda ikkinchi feʼl qoidalariga va tobe boʻlaklarda feʼlning yakuniy tartibiga rioya qiladi, rus tili esa asosan morfologik holatlar tizimi tufayli koʻproq moslashuvchanlikni namoyish etadi. Tahlil soʻzlarning kanonik tartibini, axborot tuzilmasi taʼsirida ogʻishlarni va maʼruzachining merosi oʻzgarishini taʼkidlaydi. Ikkinchi tilni oʻrganuvchilar va tarjimashunoslik uchun amaliy natijalar ham muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar: nemis sintaksisi; rus tili sintaksisi; soʻz tartibi; V2; ergash gaplar; axborot tuzilishi; qiyosiy tilshunoslik.

Annotation. This paper explores word order structures in German and Russian, focusing on their similarities and differences. German follows strict verb-second rules in main clauses and verb-final order in subordinate clauses, while Russian demonstrates greater flexibility, largely due to its morphological case system. The analysis highlights canonical word order, deviations influenced by information structure, and heritage speaker variation. Practical implications are also discussed for second language learners and translation studies.

Keywords: German syntax; Russian syntax; word order; V2; subordinate clauses; information structure; comparative linguistics.

Аннотация. В данной статье исследуются структуры порядка слов в немецком и русском языках, с акцентом на их сходства и различия. Немецкий язык следует строгим правилам порядка глагола и второй части предложения в главных предложениях и порядка глагола и конечной части предложения в придаточных, в то время как русский язык демонстрирует большую гибкость, во многом благодаря своей морфологической системе падежей. Анализ выявляет канонический порядок слов, отклонения, обусловленные информационной

структурой, и вариативность, связанную с наследственными носителями языка. Также обсуждаются практические аспекты для изучающих второй язык и специалистов по переводу.

Ключевые слова: Немецкий синтаксис; русский синтаксис; порядок слов; V2; придаточные предложения; информационная структура; сравнительное языкознание.

INTRODUCTION

Word order represents one of the central syntactic features distinguishing German, a Germanic language, and Russian, a Slavic language. Both belong to the Indo-European family but have developed different strategies for encoding grammatical relations. German relies heavily on rigid structural positions, especially the verb-second (V2) rule in main clauses and verb-final ordering in subordinate clauses [Höhle, 1986: 57]. Russian, on the other hand, exhibits a more flexible system in which case morphology allows constituents to be reordered for discourse and pragmatic functions [Franks, 1995: 112].

The purpose of this paper is to compare German and Russian word order systems in terms of canonical order, subordinate clause structures, and the influence of information structure. It also considers the implications of word order differences for language learners and heritage speakers. Research questions addressed in this study include:

1. What are the canonical word order rules in German and Russian?
2. How do subordinate clauses differ between the two languages?
3. How does information structure (topic, focus, emphasis) affect word order?
4. What patterns emerge among heritage speakers and second-language learners?

METHODS

The methodology of this study involves a **comparative literature review** combined with illustrative sentence analysis. Sources include descriptive grammars, typological studies, and linguistic research articles. German data are illustrated with examples from standard grammar sources [Duden, 2016: 233], while Russian examples are drawn from descriptive works on Slavic syntax [Timberlake, 2004: 52].

To provide contrastive evidence, examples are paired to show how the same meaning is expressed in German and Russian. The analysis includes canonical SVO structures, marked structures used for topicalization or emphasis, and deviations in

subordinate clauses. Additionally, recent studies of heritage Russian and German are considered to highlight acquisition and usage patterns [Polinsky, 2018: 76].

RESULTS

Canonical Word Order. In German, main clauses obey the verb-second rule. The finite verb appears in second position regardless of what occupies the first position.

For example:

1. *Der Junge isst den Kuchen.*

(“The boy eats the cake.”) – Subject in first position, verb second.

2. *Den Kuchen isst der Junge.*

(“The cake, the boy eats.”) – Object topicalized in first position, verb still second.

In Russian, the canonical neutral order is Subject–Verb–Object:

3. *Мальчик ест торт.*

(“The boy eats the cake.”) – SVO neutral word order.

Unlike German, Russian does not require the verb to appear in a fixed position. Instead, inflectional morphology makes subject and object roles clear even if the order changes [Franks, 1995: 115].

Subordinate Clauses: German subordinate clauses follow a verb-final pattern.

For example:

4. *Ich weiß, dass der Junge den Kuchen isst.*

(“I know that the boy is eating the cake.”) – Finite verb *isst* occurs clause-finally.

Russian subordinate clauses generally maintain SVO, but other orders are also permissible depending on emphasis:

5. *Я знаю, что мальчик ест торт.*

(“I know that the boy is eating the cake.”) – Verb remains in middle position.

Thus, German has stricter structural rules than Russian, where variation is discourse-driven.

Information Structure and Emphasis: In German, the first position (Vorfeld) can be occupied by any constituent, but the finite verb always remains in second position.

For example:

6. *Heute liest Maria das Buch.*

(“Today Maria reads the book.”) – Adverbial fronted, verb second [Duden, 2016: 240].

In Russian, fronting often marks topic or focus:

7. *Книгу читает Мария.*

(“The book is read by Maria.”) – Object topicalized, focus on subject [Zemskaya, 1992: 75].

Thus, while both languages allow topicalization, German is structurally constrained, whereas Russian prioritizes discourse marking [Kisselev, 2017: 91].

Spoken Variants and Heritage Speakers: Colloquial German sometimes relaxes the verb-final rule in subordinate clauses introduced by *weil* (“because”), producing V2 order:

8. *Ich bleibe zu Hause, weil es regnet.* (standard)
Ich bleibe zu Hause, weil es regnet, es ist kalt. (spoken variant with V2) [Kempen & Harbusch, 2016: 5].

In heritage Russian spoken in Germany or the U.S., speakers maintain default SVO order but show reduced flexibility in marked word orders [Polinsky, 2018: 79]. This indicates that exposure and majority-language influence affect syntactic variation.

DISCUSSION

The comparison shows that German and Russian embody two different strategies in handling word order. German syntax is rule-driven: the verb-second principle in main clauses and verb-final structure in subordinates are strict, with limited exceptions [Höhle, 1986: 59]. Russian syntax, in contrast, is morphology-driven, where case endings provide grammatical clarity and allow flexible arrangements [Timberlake, 2004: 52].

While German learners must internalize strict placement rules, Russian learners must instead master subtle discourse-driven variations. For translators, awareness of these contrasts is essential: what appears as “normal” in Russian may need restructured syntax in German to remain grammatical [Franks, 1995: 119]. Furthermore, phenomena like *weil*-V2 in colloquial German and restricted variation among heritage Russian speakers show that actual language use can diverge from prescriptive norms [Kempen & Harbusch, 2016: 8; Polinsky, 2018: 81]. This highlights the importance of considering sociolinguistic context alongside structural grammar.

The implications of these findings are considerable. In second language acquisition, for example, learners often transfer structures from their first language, which can cause persistent errors in both comprehension and production. German students of Russian may underuse word order flexibility, while Russian students of German may overuse it, leading to ungrammatical constructions. In translation studies, the contrast demonstrates how meaning can be preserved while syntax must often be reshaped. Literal translation is rarely sufficient; instead, translators must account for the pragmatic and discourse functions that govern sentence flow.

From a linguistic perspective, the contrast also raises questions about universals of word order. Comparing German’s syntactic rigidity with Russian’s pragmatic

flexibility illustrates how languages balance grammar and communication in different ways. Future research could employ corpus-based studies to examine authentic speech, investigate bilingual processing, and explore how contact situations gradually reshape structural norms. Ultimately, this comparison underscores that word order is not merely a technical feature of grammar, but a reflection of how languages structure thought, information, and interaction.

CONCLUSION

This comparative study demonstrates that German and Russian differ significantly in word order structures. German relies on rigid syntactic principles, especially verb-second and verb-final rules, while Russian uses morphological flexibility and discourse factors to determine order. Examples show that both languages allow topicalization and emphasis, but under different constraints: German preserves verb placement, while Russian reorders constituents based on pragmatic need. These contrasts have practical implications for teaching, translation, and heritage language research. In foreign language instruction, students often struggle with transferring word order patterns from one language to another. Learners of German need to master strict verb placement rules, while learners of Russian must develop sensitivity to pragmatic functions and context-driven variation. For translators, understanding how each language structures sentences allows for more natural and effective communication, avoiding literal renderings that may sound unnatural in the target language. Similarly, heritage speakers often combine features of both systems, so awareness of these contrasts can help in designing educational programs that strengthen their linguistic competence.

From a theoretical perspective, comparing German and Russian also contributes to broader discussions in linguistics about the relationship between syntax, morphology, and discourse. By analyzing how rigid and flexible systems achieve communicative goals, researchers can gain insight into universal and language-specific principles of sentence organization. Future research should focus on corpus-based studies of natural speech to further analyze the interplay between syntax and discourse in both languages, while also considering bilingual speakers, cognitive processing, and the influence of language contact. Overall, this study highlights the significance of examining word order not only as a grammatical phenomenon, but also as a reflection of how languages encode meaning, manage information flow, and shape communication.

REFERENCES

1. Duden. (2016). *Die Grammatik. Unentbehrlich für richtiges Deutsch*. 9th edition. Mannheim: Dudenverlag.

2. Franks, S. (1995). *Parameters of Slavic Morphosyntax*. Oxford: Oxford University Press.
3. Helbig, G., & Buscha, J. (2001). *Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht*. Berlin: Langenscheidt.
4. Höhle, T. (1986). Der Begriff "Mittelfeld". *Anzeiger für Sprachwissenschaft*, 19(3), 55–81.
5. Kempen, G., & Harbusch, K. (2016). Verb-second word order after German *weil*: A psycholinguistic perspective. *Glossa*, 1(1), 1–23.
6. Kisselev, O. (2017). Word order and information structure in Russian heritage language. *Russian Linguistics*, 41(2), 89–110.
7. Polinsky, M. (2018). *Heritage Languages and Their Speakers*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Timberlake, A. (2004). *A Reference Grammar of Russian*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Zemskaya, E. (1992). *Russkaya razgovornaya rech'*. Moscow: Nauka.
10. Zifonun, G., Hoffmann, L., & Strecker, B. (1997). *Grammatik der deutschen Sprache*. Berlin: de Gruyter.
11. Хушбоков О.У. УЧИТЕЛЬ И УЧИТЕЛЬСТВО: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ // Вестник науки №1 (58) том 3. С. 216 - 218. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/7030>
12. Хушбоков О.У. ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЧИТЕЛЯ И НОВЫЕ ВЫЗОВЫ // Вестник науки №9 (66) том 4. С. 135 - 139. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/10043>

O'QUVCHILARDA MATN TAHLILI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

MUSURMONOVA LAYLO OTABEK QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

layloosimboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashtirish jarayonida ta'lim tizimida pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati hamda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, **PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)** xalqaro dasturi talablari asosida o'quvchilarning o'qish va matnni tushunish savodxonligini baholash mezonlari, o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini shakllantirishga doir metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiyalar, PIRLS dasturi, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, metodika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kreativlik.

Annotation. The article explores the importance of introducing pedagogical innovative technologies into the education system in the context of globalization and highlights the development of logical, analytical, critical, and independent thinking skills of primary school students. In particular, the study analyzes the assessment criteria of reading literacy according to the **PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)** international program and discusses methodological approaches to improving reading comprehension. The article provides a scientific justification for the pedagogical foundations of fostering creative thinking, independent analysis, and literary-aesthetic perception through the teaching of literary texts within a learner-centered educational framework.

Keywords: Pedagogical innovations, PIRLS program, reading literacy, primary education, methodology, analytical thinking, critical thinking, literary analysis, learner-centered education, creativity.

Аннотация. В статье рассматривается важность внедрения педагогических инновационных технологий в систему образования в условиях глобализации и развития логического, аналитического, критического и самостоятельного мышления учащихся начальной школы. В частности, анализируются критерии оценки грамотности чтения и понимания текста, а также методические подходы

к формированию читательской компетентности учащихся, основанные на требованиях международной программы PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study).

Ключевые слова: Педагогические инновации, программа PIRLS, грамотность чтения, начальное образование, методика, личностно-ориентированное образование, креативность.

Dunyo miqyosidagi hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimiga pedagogik innovatsion texnologiyalarning keng miqyosda joriy qilinishi tufayli o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish rivojlantiruvchi ta'limning muhim jihati sifatida yosh avlodni jahon standarti talablariga javob berish darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang'ich sinflarda o'quv savodxonligini monitoring qilish bo'yicha o'qish va matnni tushunish sifatini xalqaro o'rganish (The Progress in International Reading literacy Study) PIRLS talablarini amalga oshirishda o'qish ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

PIRLS dasturi asosida o'quvchilar o'qishning ikki xil turi bo'yicha mashg'ulot davomida va maktabdan tashqari baholanadilar.

Bunda: adabiy ta'lim tizimini o'zlashtirish tajribasini o'rganish maqsadida o'qish darajasini aniqlash;

ta'lim jarayonida beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishga doir o'qish darajasini aniqlash ko'zda tutiladi.[1:35].

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish qobiliyati 4 ta mezon bo'yicha baholanadi:

- aniq berilgan ma'lumotni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmunini, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish hamda baholash.

PIRLSda bajarilgan ishlarning sifati va miqdorini baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- javob tanlash bilan bog'liq topshiriqlarga 1 ball;
- matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini belgilash bo'yicha vazifalarga 1 ball;
- erkin javobni talab qiladigan topshiriqlarga vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqori

dagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ma'lumki, badiiy asarlarni o'qish bilan bog'liq holda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, o'zligini anglashga yo'naltirish, vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishda boshqa o'quv predmetlari kabi bolalar adabiyoti namunalarini san'at asari sifatida o'rganish vazifalari yuklatilgan o'qish ta'limi alohida o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiyot o'qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida bolalar adabiyoti namunalari asosida o'z maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi: 1) adabiy-badiiy asarlar tahlili vositasida shaxs tarbiyasi; 2) boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o'qitish; 3) shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishini shakllantirish jarayoni.[45:49].

Metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'lim mazmuni va uni o'qitishga mustaqil, ongli yondasha oladigan, o'zgalarning tajribasini nafaqat o'rganish, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishlarini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

1. Ta'lim o'quvchilarning fanlarga tegishli bilim va tushunchalarni anglashlariga har tomonlama ta'sir etuvchi xarakterda bo'lishi.

2. O'quvchining oldilariga qo'yilgan masalani aniq tushunishlariga erishish.

3. O'qituvchi yangi murakkab ta'limiy muammolarni tanish hodisalar holatida ko'rsata olish mahoratiga ega bo'lishi. Adabiy ta'lim jarayonida deduktsiyani induktsiya bilan bog'lay bilishi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishlar tashkil qilinadi.

Badiiy asarning san'at hodisasi sifatidagi xos xususiyatlarini chuqur tushunish, mavjud adabiy bilim va tushunchalarni rejadagi asarlar tahliliga tadbqiq etish o'qish darslarining sifat va samaradorligini ta'minlaydi. [37:40].

PIRLS tadqiqotida o'quvchilar matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishda quyidagi malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

- matnda berilgan ma'lumotlarning aniq va to'liqligini baholash;
- tasvirlangan voqeani haqiqatdan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- insonlarning g'oyalari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;

- matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;

- metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;

- muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

Mavzu: Mangulikka tatigulik kun. Safar Barnoyev.

I. 1.Gaplarni asar voqealari tartibida raqamlang.

___ Bobomiz sohibqiron Amir Temurni tanidik.

___ O'tgan davr mobaynida yoshi ulug'lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug'ildi.

___ Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ali Romitaniy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi yuzlab ajdodlarimizni bilib oldik.

___ Shoh va shoir, sarkarda Bobur Mirzoning ruhini shod etdik.

2. Gaplarni asar voqealari tartibida raqamlang.

___ Bugungi ishlar, qurilishlar siz – bolalarga abadiy mulk bo'lib qoladi.

___ Dunyoning eng so'nggi texnikasi O'zbekistonga ko'chib kelmoqda.

___ Bugun qishloqlarimizga sanoat kirib bormoqda.

___ Uning haqiqiy egalari, boshqaruvchilari sizlar bo'lasizlar, aziz o'quvchilar!

II. Asar matni tahlili bilan bog'liq topshiriqlar:

3. Nima uchun 1991- yil 31- avgust sanasi asrga tatigulik kun deyilgan?

4. "Yoshi ulug'lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug'ildi" gapida qanday ma'no ifodalangan?

A. Bobolarimiz, ajdodlarimizning buyuk olim va sarkarda bo'lganliklarini bilib olganimizni.

B. Yoshi kichiklar yoshi ulug'lardan ko'p narsalarni bilib olganini.

C. Mustaqillik tufayli tariximizni bilib olganimizni,

D. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz rivojlanganini.

5. Matnda tilga olingan buyuk bobokalonlarimiz nomini yozing.

6. Tarixiy obidalar saqlanib qolgan shaharlar nomini yozing.

7. So'zlarning ma'nosini yozing.

	So'zlar	So'zlar ma'nosi
1	istiqloq	
2	Zaxira	
3	Obida	
4	o'qimishli	
5	Abadiy	
6	qishloq xo'jaligi	
7	sanoat tarmoqlari	

8. Matndan ko'chma ma'noli so'zlarni topib yozing. Ma'nosini izohlang.

	Ko'chma ma'noli so'zlar	Ma'nosi
1		
2		
3		
4		
5		

9. Vatanimizdagi hozirgi bunyodkorliklarga 1-2 ta misol keltiring.

10. Siz, vatanningiz merosxo'rlariga, qanday vazifalar yuklatilgan?

11. Matnda nomlari tilga olingan buyuk bobokalonlarimizdan biri haqida qisqa ma'lumot tayyorlang.

Demak, PIRLS tadqiqotida matnda berilgan ma'lumotlarning aniq va to'liqligini baholash, tasvirlangan voqeani haqiqatdan sodir etilishi ehtimolini baholash, insonlarning g'oyalari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash, matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash, metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash, muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlashga doir topshiriqlar asosida o'quvchilar matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish kabi malakalarga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi MO'D. Ona tili o'qitish kontsepsiyasi. –Toshkent, 2020. 5-25-b.
2. Matchonov M. va b. Boshlang'ich sinfda ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 2020. 27-35-b.
3. Bakiyeva H. 4-sinf o'qish darslarida adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish. –Toshkent, 2021. 39-45-b.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. 46-50-b.
5. Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro: Universitet, 2005. 50-60-b.

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARI**MUXTORJONOVA DILNURA AZIZBEK QIZI,**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail: dilnuramuxtorjonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat tilida ilm yuritishning nazariy va amaliy asoslari, ilmiy ifoda uslubining xususiyatlari hamda manba va iqtiboslardan foydalanish zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, davlat tilida ilmiy faoliyat olib borishning ijtimoiy ahamiyati va o'zbek tilining ilmiy til sifatida shakllanish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat tili, ilmiy til, ilmiy uslub, iqtibos, ilmiy tadqiqot, ilmiy maqola, ilmiy nutq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы научной деятельности на государственном языке, особенности научного стиля изложения, а также необходимость использования источников и цитат. Кроме того, анализируется социальное значение ведения научной работы на государственном языке и процесс формирования узбекского языка как научного.

Ключевые слова: государственный язык, научный язык, научный стиль, цитата, научное исследование, научная статья, научная речь.

Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalari davlat tilida jahon o'lchovlariga mos tarzda ish yuritilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o'quv dasturi asosida akademik litsey talabalari uchun ilk marotaba "Davlat tilida ish yuritish" darsligi yaratildi.

Mustaqil davlat sifatida O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili sifatida maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, bugungi kunda barcha sohalarda, jumladan ilmiy faoliyatda ham keng qo'llanilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarni davlat tilida olib borish nafaqat milliy o'zlikni namoyon etadi, balki ilmiy izlanishlarning ommaga tushunarli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Davlat tili – millatning ma'naviy tayanchi, o'zligimizni anglashning eng muhim mezonidir". Demak, davlat tilida ilm yuritish – milliy qadriyatlarni ilmiy asosda mustahkamlash vositasidir.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni o'zbek tilining siyosiy-ijtimoiy maqomini taminladi va uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, ushbu qonunning 8,9,10-moddalarida hujjatlarning davlat tilida tayorlanishi, boshqaruv o'rganlari, muassasa, korxona va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi takidlangan.

"Davlat tilida ish yuritish" fanini o'qitishdan maqsad talabalarni nutqining uslubiy shakllari, matn turlari va tuzilishi, davlat tilida ish yuritish asoslari, rasmiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirishdan iborat.

"Davlat tilida ish yuritish" fanining vazifalari:

- o'zbek adabiy tili me'yorlari, nutqning stilistik shakllari, matn turlari va tuzilishi, hujjatlarning paydo bo'lishi va tarixini o'rganish, bu sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash;

- ish hujjatlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar, hujjatlar turlari va ish asoslari, ish yuritish tili va uslubi, xizmat yozishmalari bilan ishlash texnologiyasi haqida ma'lumot berish;

- buyurtma hujjatlari va ularning turlari, shaxsiy ish hujjatlari uslubi muassasalarda ish yuritishni tashkil etish texnologiyalarini, ish yuritishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini o'rganish;

- filologik bilim asoslari, o'zbek tilining barcha darajalari bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

- hujjatchilik tarixi, ayniqsa, sharq hujjatchiligi, hujjat turlari va hujjat ish yuritish asoslari, hujjat tili va uslublari, farmoyish hujjatlari, rasmiy hujjatlarni o'zbek tilida yoza olish ko'nikmalarini egallash;

- bu ish sharoitlarini bilish va ularni qo'llay olishdan iborat.

- ish yuritishga oid atamalarni bilish va qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

"Davlat tilida ish yuritish" fani o'qitishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad universitetning tegishli fakultetini tugatib, oliy ma'lumotga ega bo'ladigan bo'lg'usi o'qituvchilar va murabbiylarimizga o'zlari tanlagan mutaxassisliklari hamda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha ona tilimizga oid, shuningdek, o'zlashma terminlar haqida tasavvur berish, ularning to'g'ri qo'llanish yuzasidan yo'llanma berish, amalda qo'llanayotgan ish qog'ozlarining turlari, ularning namunalari, yozilishi, ularning o'ziga xos jihatlarini o'rgatish, ularning yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlariga yaqindan yordam berishdir.

Mazkur fan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar majmuasiga taalluqlu bo'lib, uchinchi kurs talabalari uni rejaga ko'ra beshinchi yoki oltinchi semestrda o'rganadilar.

Masalan, O'zbek tilida yaratilgan ilmiy maqolalar xalqaro ilmiy jamoatchilikka tarjimalar orqali yetkazilmoqda. Bu holat tilimizning ilmiy salohiyatini yanada oshirmoqda.

“Davlat tilida ish yuritish” fani o'tilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad universitetning tegishli fakultetini tugatib, oliy ma'lumotga ega bo'ladigan bo'lg'usi o'qituvchilar va murabbiylarimizga o'zlari tanlagan mutaxassisliklari hamda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha ona tilimizga oid, shuningdek, o'zlashma terminlar haqida tasavvur berish, ularning to'g'ri qo'llanish yuzasidan yo'llanma berish, amalda qo'llanayotgan ish qog'ozlarining turlari, ularning namunalari, yozilishi, ularning o'ziga xos jihatlarin o'rgatish, ularning yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlariga yaqindan yordam berishdir.

Mazkur fan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar majmuasiga taalluqlu bo'lib, uchinchi kurs talabalari uni rejaga ko'ra beshinchi yoki oltinchi semestrda o'rganadilar.

Mamlakatimizda davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi hamda mavqeini oshirish borasida “O'zbekiston akkreditatsiya markazi ”DUK da qator vazifalar amalga amalga oshirib kelinmoqda.

Har qanday ilmiy maqola manbaga tayanishi lozim. Iqtiboslar ilmiy natijalarni asoslash va ilmiy halollikni ta'minlaydi. O'zbek tilida ilm yuritishda ham GOST yoki APA kabi xalqaro standartlarga mos iqtibos tizimidan foydalanish zarur.

Davlat tilida ilm yuritish – bu nafaqat milliy o'zligimizni namoyon qilish, balki ilm-fanning xalqchil bo'lishini ta'minlash vositasidir. Ilmiy izlanishlarni o'zbek tilida olib borish orqali biz milliy ilmiy maktabni rivojlantiramiz, yosh avlodni o'z ona tilida ilmga oshno qilamiz va davlat tilining mavqeini mustahkamlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 56.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.
3. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2018. – B. 78.
4. Mahmudov N., Rafiev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Ikkinchi nashri. Akademik litseylar uchun darslik. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -B. 145.

O'QUVCHILARDA MULTIMODAL TAHLIL ASOSIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

MUSTAFOYEVA MOHICHEHRA MANSUR QIZI

Navoiy davlat universiteti

Tillar fakulteti 1-kurs magistranti

mohichehramansurovvna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda multimodal tahlilning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda Alisher Navoiy hikoyatlari asosida tinglab tushunishni shakllantirishning samarali usuli "Adabiyotcha "eshitish" usulida audiomatn orqali o'quvchilarda nafaqat eshitish qobiliyati, balki badiiy tafakkur, estetik idrok, tanqidiy tahlil o'rgatiladi.

Kalit so'zlar: interaktiv topshiriq, to'rt til ko'nikmasi, multimodal tahlil, tinglab tushunish, "Adabiyotcha "eshitish", dramatik ifoda, semiotik tizim.

Annotation. This article highlights the importance of multimodal analysis in developing listening comprehension skills in students. The study shows that an effective method for developing listening comprehension based on Alisher Navoi's stories is the "Literary "listening" method, which teaches students not only hearing skills, but also artistic thinking, aesthetic perception, and critical analysis through audio text.

Keywords: interactive task, four language skills, multimodal analysis, listening comprehension, "Literary "listening", dramatic expression, semiotic system.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность мультимодального анализа в развитии навыков аудирования у учащихся. Исследование показывает, что эффективным методом развития аудирования на примере произведений Алишера Навои является метод «Литературного аудирования», который развивает у учащихся не только слуховое восприятие, но и художественное мышление, эстетическое восприятие и критический анализ посредством аудиотекста.

Ключевые слова: интерактивное задание, четыре языковых навыка, мультимодальный анализ, аудирование, «Литературное аудирование», драматургическое выражение, семиотическая система.

Bugungi globalashuv va raqamli o'zgarishlar jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini

shakllantirish, ya'ni ular orqali shaxsning ijtimoiy, madaniy va nutqiy jihatdan rivojlanishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" g'oyasi ham aynan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, raqamli tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ta'limning mazmunini yangilash, adabiyot fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish bu jarayonning ajralmas qismidir. Chunki adabiyot – o'quvchilarning badiiy idroki, axloqiy-estetik dunyoqarashi va til orqali muloqot qilish qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy fanlardan biridir. Hozirgi kunda adabiyot fanini o'qitishda raqamli platformalar, elektron darsliklar, videodarslar, interaktiv topshiriqlar va multimediya vositalaridan foydalanishning samarali yo'llarini ishlab chiqish – milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim shartlaridan biridir. Shu boisdan "Adabiyot fanini o'qitishda multimodal tahlil asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish" mavzusi o'zining ilmiy-amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, adabiyot darslarini multimodal tahlil asosida tashkil etish – o'quvchilarning o'qish, tinglash, yozish va gapirish kabi to'rt til ko'nikmasini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi.

Multimodal tahlil – bu adabiy asarni matn, rasm, ovoz, video, imo-ishora, ifoda va kontekst kabi turli semantik tizimlarda o'rganish usulidir. Bu yondashuv o'quvchilarning muloqot, idrok va tafakkur faoliyatini kengaytiradi, ularni zamonaviy raqamli axborot muhitida faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi [1].

Tinglab tushunish – bu og'zaki yoki audio shakldagi nutqni eshitib, uning mazmunini anglash, tahlil qilish va unga munosabat bildirish jarayonidir. Ushbu ko'nikma o'quvchining lingvistik, mantiqiy va ijtimoiy tajribasiga tayanadi hamda kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tinglab tushunish – faqat eshitish emas, balki mazmunni anglash, kontekstni tushunish, so'z ohangini sezish, va nutqdan ma'no chiqarish jarayonidir [2].

Milliy dastur asosida yaratilgan 5-sinf adabiyot darsligining II qismida Alisher Navoiyning "Sher va durroj", "Hotami Toy", Qanoatli va tamagir" hikoyatlari berilgan bo'lib, quyida multimodal tahlil asosida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda yordam beruvchi "Adabiyotcha "eshitish" usulini yuqoridagi hikoyatlar misolida ko'rib chiqamiz.

"Adabiyotcha "eshitish" usuli

Adabiyot darslarida o'quvchilarga asar matnini an'anaviy usulda o'qitishdan qochib, ularning diqqatini yanada matnga tortishda ushbu usul har bir o'qituvchiga mos keladi. Bunda asar matnidagi notanish so'zlar, asarning asosiy g'oyasini tashuvchi

gaplar, qahramonlarning ismlari tushirib qoldirilgan varaqa hamda asar matni yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi.

Bu usul orqali o'quvchi diqqati to'lig'icha asar matniga qaratiladi, matnni tinglash barobarida undan anglashilgan dastlabki fikrni tahlil qilish, shu tahlil asosida keyingi tahlil bosqichlariga yo'l ochiladi.

Namuna:

1-topshiriq. Audiomatnni tinglang. Bo'sh o'rinlarni to'ldiring hamda savollarga javob bering.

Audiomatn: https://youtu.be/D_852JlrmRk?feature=shared

Bor edi bir beshada bir (1) _ sher,

Vahshat aro ko'k (2) _____ idek daler.

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,

(3) _____ bolasin qilur erdi halok.

Tishlabon ul moyayi payvandini,

Og'zida asrar edi farzandini.

Bor edi (4)e o'shul beshada,

Sheri jayon vahmidin (5) _____ da.

Sherki, tishlab bolasin dam-badam,

Beshada har yon qo'yar erdi qadam.

Yetgach aning boshi uza nogahon,

Far eta uchsa edi ul notavon,

Vahm ila seskanmak o'lub sher ishi,

O'lturur erdi bolasig'a tishi.

Tish bila aylab bolasi yorasin,

Yora etib o'z jigari porasin.

Doim anga bu g'am aro g'am edi,

G'am neki, motam uza motam edi.

Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,

Boshladi durroj bila yorliq.

Dediki: "Mendin sanga yo'q qasd-u kiyn,

(6)_u bil meni dog'i amin.

Vahmni qo'y, hamdam-u hamrozim o'l,

Aysh-u tarab vaqti navosozim o'l.

Men dog'i (7)_ing eshitib shod o'lay,

Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay.

Shart bukim, yetsa gazande sanga,

Solsa falak hiylasi bande sanga,
Lutf qo'lin holingga hamdast etay,
Xasmni bir panja bila past etay.
Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,
Seni (8)__ domidin aylay xalos".
Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.
Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,
Kim hasad eltur edi andin (9)__.
Qaydagi orom tutub sharza sher,
Girdida durroj uchubon (10)__,
Boshig'a parvoz ila gardish namoy,
O'ylaki sulton boshi uzra *humoy*.
Sher eshitib aning ilhonini,
Fahm qilib (11) ida yolg'onini,
Der edi: "Yolg'on demakim, shum erur,
(12)_ tuz el ollida mazmum erur".
Pand eshitmas edi durroji mast,
Kizbdin etmas edi afg'onni past.
Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,
Hodisa domin yoyib erdi magar.
Dona bila suv sari qilg'och xirom,
Tortti sayyod aning ustiga dom.
Qichqiribon dom aro ul mubtalo,
Necha dedi: "Tot! Meni tuttilo!"
Sher qulog'ig'a yetib ul maqol,
Savtini doying'idek etti xayol,
Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,
Uyla gumon etti chin afg'onini.
Har nechakim rost fig'on ayladi,
Sidqini ham kizb gumon ayladi.
Maxlasig'a aylamadi iltifot,
Toki anga munqati o'ldi hayot.
Har kishikim rostni bexost der,
Aytsa yolg'on, dog'i el rost der.
So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,

Rost navo nag'mag'a tahsin degil...[3]

2-topshiriq. Asar matnini diqqat bilan tinglang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Sher bolalari bilan o'ynayotganda uning bolalarini nima qiynar edi?
2. Sher nima uchun bolalarini tishi bilan yarador qilardi?
3. Qirg'ovul bilan sher qanday sababga ko'ra do'stlashadi?
- 4.

Sulton

ning boshi uzra qushi aylanganday, sher boshida qirg'ovul aylanib parvoz qilardi. Nuqtalar o'rnida qaysi qush nomi tilga olingan?

3-topshiriq. Oxirgi ikki misra mazmunini izohlang.

*So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
 Rost navo nag'mag'a tahsin degil...*

Javoblar:

1-topshiriq. 1) tund 2) asad 3) mo'r 4) durroj 5) andesha 6) emin o'l 7) lahn 8) aduv 9) sipehr 10) daler 11) savt 12) kizb

2-topshiriq. 1.Mo'r (chumolilar) 2.Durroj (qirg'ovul)ning par etib uchganida qo'rqqanidan seskanib 3.Sher durrojning uchganidan seskanib bolalarini qattiq tishlab olardi. Shunda sher unga: "Mening senga hech qanday qasdim yo'q. Xotirjam bo'lib, meni o'zingga do'st bil", – deydi. 4.Humoy (humo) *Asos:* Boshig'a parvoz ila gardish namoy, O'ylaki sulton boshi uzra *humoy*.

3-topshiriq. Nimaniki desak ham rostini gapirishimiz, haqiqatni so'zlaganlarga esa tahsin aytishimiz kerak

Multimodal tahlil asosida tashkil etilgan tinglash mashg'ulotlari o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari – eshitish, anglash, tahlil qilish va fikr bildirish ko'nikmalarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Audiomatnlar, videolavhalar, dramatik ifodalar, musiqa va tasvirlardan birgalikda foydalanish orqali o'quvchi nutqni eshitibgina qolmay, ma'noni turli semiotik tizimlar yordamida tushunishni o'rganadi. Natijada, o'quvchining ijodiy tafakkuri, estetik didi, nutqiy faolligi va mustaqil fikrlash salohiyati yuksaladi. Bu yondashuv adabiyot fanini o'rganishda motivatsiyani kuchaytiradi, idrokni chuqurlashtiradi va o'quvchini zamonaviy kommunikativ shaxs sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choi, M., & Kim, J. (2022). Exploring the Impact of Digital Multimodality on Young Children's Literacy Development: A Systematic Review. *Early Childhood Education Journal*, 50(4)
2. M. Uraimshikova. Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari. *Academic Research in Educational Sciences* Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN 2181-1385
3. Q. Yo'ldoshev, S. Qambarova va b. *Adabiyot darslik. 5-sinf. 2-qism. T.* – 2024

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI DIPLOMATIK DISKURSIDA SHAXS DEYKSISINING NUTQIY STRATEGIK QO'LLANILISHI

NEGMATOVA MUMTOZBEGIM ULUG'BEK QIZI,

TDTU 1-kurs tayanch doktoranti,

negmatovamumtozbegim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada diplomatik bayonotlardagi shaxs deyksisining ahamiyati nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lib, uning nutqiy strategik qo'llanilishi amaliy misollar yordamida o'zbek va ingliz tilarida qiyosiy tadqiq etilgan. Xususan, diplomatik korpus vakillarining rasmiy bayonotlaridan olingan nutqlari yordamida nutqning qanday strategiyalarda qo'llanilishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: deyksis, diskurs, grammatik birlik, lingvokulturologiya, nutqiy etiket, origo, pragmatika, ritorika, strategiya, shaxs deyksisi, xalqaro munosabatlar

Annotation. This article theoretically studies the importance of personal deixis in diplomatic statements and its strategic use in discourse is studied comparatively using practical examples in Uzbek and English. In particular, it studies discourse strategies using speeches taken from official statements of representatives of the diplomatic corps.

Key words: deixis, discourse, grammatical unit, linguoculturology, speech etiquette, origo, pragmatics, rhetoric, strategy, personal deixis, international relations.

Tilshunoslik fanining taraqqiy topib rivojlanayotgan zamonida, aniqrog'i XIX asr oxiri XX asr boshlarida fanga pragmatika yo'nalishi kirib kelgan. Pragmatika bu til birliklarining nutq jarayonida nima maqsadda, qanday vaziyatda, kim tomonidan kimga qarata aytilayotganligini o'rganuvchi sohadir. Uning maqsadi so'zlovchining tinglovchiga lingvistik belgilar orqali nimani yetkazib bermoqchi bo'lganligini o'rganishdir. Pragmatikaning asosiy yo'nalishlari deyksis, implikatura, nutq aktlari, muloqot strategiyalari va aktlarini aniqlashtirishdir.

Bu sohaning asosiy yo'nalishlarini o'rganish doirasida deyksis tushunchasi alohida ahamiyatga egadir. Deyksis termini ilk bora nemis olimi Karl Byuler tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u o'zining "*Sprachtheore*" asarida ushbu terminning ahamiyati haqida gapirib o'tgan. Dastlavval, u deyksisni **nutqiy vaziyatga bog'liq ko'rsatish hodisasi** sifatida talqin qiladi. U "origo" tushunchasini markazga qo'yib, har qanday deysitik maydon "**men - bu yerda - hozir**" koordinatalari asosida tashkil topishini qayd etadi. [1:102]. Keyinchalik, deyksis termini fanda nazariy ahamiyatga ega bo'lib, Filmor, Lyons, Levinson, Lakof kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, Filmor deysis hodisasini yanada chuqurroq tahlil qilib fanga “deyktik markaz” tushunchasini kiritgan [2:43-44]. Lyons va Levinson deysis terminini semantika va pragmatika chegarasida deb hisoblashgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikning mashhur olimlari Lakoff hamda Langeyker deysis hodisasini kognitiv tilshunoslikda tadqiq etishgan. Levinson tadqiqotlarining muhim qismi o'laroq, deysis hodisasining 5 turi ajratiladi. [3:54] Ular:

1. Shaxs deksisi (men, sen)
2. Makon deksisi (*shu yerda, bu yerda*)
3. Zamon deksisi (*hozir, keyin*)
4. Nutq deksisi (*yuqorida ta'kidlanganidek*)
5. Ijtimoiy deksis (*sir, janob va hokozo*).

Bu turkum doirasida eng ko'p tadqiq qilingan deysis hodisasi “Shaxs deysisi”dir. Shaxs deysisi zamonaviy lingvistikada kommunikativ jarayonni markazlashtiruvchi vosita sifatida ahamiyatli bo'lib, u pragmatika, sotsiopragmatika va diskurs tahlilining asosiy obyektlaridan biridir. Levinsonning aytishicha, shaxs deysisi pragmatika sohasidagi tadqiqotlarda markaziy muammo hisoblanadi, sababi uning tilni bevosita kontekstga bog'lashidadir [2:55].

Shuningdek, shaxs deysisini tadqiq etish jarayonida, uning ijtimoiy masofa, hurmat hamda samimiylikni ifodalashga xizmat qilishini guvohi bo'lamiz. O'zbek tilidagi “siz va sen” qarama-qarshiligi buning yaqqol misolidir. Bu borada Sh.Safarovning ilmiy izlanishlari, ayniqsa o'rinlidir. U “O'zbek tilida shaxs deysisi nafaqat grammatik, balki ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi” [4:175-176] deb yozadi. Darhaqiqat, deysisni ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etish doirasida o'rganish lingvistikada yangi qarashlarni aks ettiradi. Demak, shaxs deysisini o'rganish bilan birga biz, til va jamiyat o'rtasidagi aloqlarni ham bevosita o'rgana olishimiz mumkin. Shaxs deysisining alohida strategik vazifani bajarishini siyosiy va diplomatik diskurs yaqqol namoyon etib beradi. Davlat xabarlar va siyosiy diplomatlarning o'zaro muloqotida qo'llaniladigan nutq shakli diplomatik diskurs hisoblanib, uning nozik jihatlari xalqaro munosabatlarda rasmiylik, aniq ritorik strategiyalar, nutqiy etiket va linvokulturologik strategiyalarni o'zida aks ettirganidadir.

Shuningdek, shaxs deysisi, diplomatik diskursdagi kommunikativ strategiyalarni aniqlashga ham yordam beradi. Shaxs deysisini tahlil qilish orqali nutq egasining qanday kommunikativ maqsadni ko'zlagani, suhbatdosh bilan qanday masofani saqlayotgani va qaysi nutqiy strategiyani tanlaganini aniqlash mumkin. Siyosiy arbobl va diplomatik korpus vakillari nutqida “men” olmoshi o'rniga “biz” olmoshining qo'llanilishi kollektivlik va birdamlikni ifodalashga xizmat qiladi. Misol

tariqasida, prezidentlar nutqidagi “Biz xalqimiz bilan birgamiz” ifodasi, nutqda birlik va birdamlik strategiyasini ko‘rsatib beradi. Kuzatuvlarga ko‘ra, siyosiy va diplomatik nutqlarda “**biz**” olmoshi jamoaviylik va birdamlikni kuchaytirs, “**men**” olmosh shakli shaxsiy javobgarlik va liderlikni ta’kidlaydi. Shuningdek “siz va sen” olmoshining qo‘llanilishi ham e’tiborga loyiq jihat hisoblanib, “siz” o‘zbek tilida birlik shaklda hurmat ma’nosini ifodalashda xizmat qiladi. Biroq, ingliz tilida bunday hodisa mavjud emas va “you” yagona shaklda qo‘llaniladi. Ammo hurmat strategiyasini ifodalashda inglizxabon xalqlar “*sir, madam, mister*” kabi qo‘shimcha birliklardan foydalanishi mumkin. Bunday strategik misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Masalan: “*men va sen*” olmoshlari o‘rtasida ham strategik maqsadlarni ko‘zlagan holda foydalanish mumkin. Diplomatlar shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni maqsad qilgan chog‘da “men” deysis formasidan foydalaniladi. Masalan:

Barack Obama: *“I stand here today humbled by the task before us, grateful for the trust you have bestowed, mindful of the sacrifices borne by our ancestors”.* Kollektivlikni ifodalashda esa “biz” passiv shaklidan foydalanish maqbul variant sifatida tanlanadi. Misol uchun:

Barack Obama : *“We, the people, still believe that our obligations as Americans are not just to ourselves, but to all posterity”.*

Bu borada mashhur tilshunos olim van Dijk o‘z tadqiqotlarida asosli tahlillarni keltirib o‘tganligi e’tiborga loyiqdir. Uning ta’kidlashicha, diplomatik diskursda shaxs deysisidan foydalanishda notiq o‘zi nutq so‘zlayotgan jamoa tarkibiga qo‘shilishi (kollektivlik) yohud ulardan ajralgan holda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi holatlari aynan “men va sen” deytik birliklaridan o‘rinli foydalanganda yuzaga keladi[5:75]. Shuningdek, samimiylik (sincerity) strategiyasidan foydalanga holda diplomatlar nutqida o‘z samimiyligini, xalqi oldidagi mas’uliyatini bajonidil bajarayotganini ifodalashi misollarini ham ko‘plab uchramiz. Masalan:

Shavkat Mirziyoyev: *“Biz hech qachon xalqimizni yolg‘iz qoldirmaymiz. Mening eng katta orzuim — O‘zbekiston xalqining baxtli hayot kechirishi.”*

Joe Biden: *“My whole soul is in this: bringing America together, uniting our people, and uniting our nation”.* Shuningdek, deysislarga urg‘u berib takrorlash (emphatic repetition) strategiyasi ham juda ko‘p uchraydi va bu strategiyalar orqali diplomatlar o‘z nutqida qo‘llayotgan deysis birliklariga urg‘u beradi. Bu usul tinglovchini nutq so‘zlovchiga diqqatini jalb qilib, nutqni ta’sirli chiqishiga xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyev: *“Biz xalqimiz uchun xizmat qilamiz. Biz farzandlarimiz kelajagi uchun ishlaymiz. Biz yangi O‘zbekistonni birgalikda quramiz”.*

Bu misolda “Biz ... biz ... biz ...” takroriy deysis qo‘llanilib, ular kollektivlikni kuchaytirishga va milliy birdamlikni ifodalashga xizmat qilgan.

Winston Churchill : “*We shall fight on the beaches, we shall fight on the landing grounds, we shall fight in the fields and in the streets, we shall fight in the hills; we shall never surrender*”. Bunda “We shall fight ...” takrorlanishi xalqni ruhlantirish bilan birga “we” shaxs deysisini kollektiv qarshilik ramziga aylantiradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, diplomatik diskursda shaxs deysisining o‘rganilishining ahamiyati katta bo‘lib, shaxs deysisi faqatgina muloqot vositasi bo‘libgina qolmay, kuchli strategik til birligi hisoblanadi. Davlatlarning o‘z pozitsiyasini to‘g‘ri ko‘rsatishi, sherikchilik va do‘stlik ruhini ifodalashi, xalqaro munosabatlarda ta’sirli nutqlarni bayon etishiga erishishda shaxs deysisining to‘g‘ri qo‘llanilishi muhim vositadir. Demak, shaxs deysisi nafaqat grammatik ko‘rsatkich, balki kommunikativ strategiyalarni maqsadli amalga oshirish uchun samarali vosita hamdir. Tahlillar natijasiga ko‘ra, shaxs deysisi siyosiy va diplomatik diskursda birdamlik, samimiylilik, qarama-qarshilik, murosaga kirishish, hamkorlik kabi strategiyalarni ifodalashda alohida e’tibor bilan qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бюлер, К. (1993). *Теория языка. Репрезентативная функция языка* (пер. с нем. А. А. Холодовича). Москва: Прогресс.
2. Fillmore, C. J. (1975). *Santa Cruz Lectures on Deixis 1971*. Indiana University Linguistics Club.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Safarov Sh(2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent
5. Van Dijk Teun A(1998). *Ideology: A Multidisciplinary Approach*. Sage, 1998.

Foydalanilgan saytlar

6. president.uz
7. un.org
8. americanrhetoric.com
9. winstonchurchill.org

QO'SHMA GAPLARNI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR**NURALIYEVA ASILA NE'MAT QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

nuraliyevaasila30@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'shma gaplar nazariyasi hamda uning tarkibiga kiruvchi qo'shimchalar, ularni o'qitishda qo'llanadigan metodlar yoritilgan, bunda asosiy e'tibor o'quvchilarda grammatik bilimlarni shakllantirishga qaratilgan, umumiy o'rta ta'limda qo'shma gaplarni o'qitish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Annotatsiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'shma gaplarni o'rgatishda qo'llanishi, darslarda interfaol muloqot muhitini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gap, bog'lovchi vositalar, qo'shma gaplar, so'z birikmasi.

Annotation. In this article, the theory of compound sentences and the suffixes that form their structure, as well as the methods used in teaching them, are discussed. The main focus is on developing students' grammatical knowledge, and opinions are expressed regarding the teaching of compound sentences in general secondary education. The annotation substantiates the use of modern pedagogical technologies in teaching compound sentences and their role in creating an interactive communication environment during lessons.

Keywords: sentence, conjunctions, compound sentences, word combination.

Аннотация. В данной статье рассматривается теория сложных предложений и входящие в их состав аффиксы, а также методы, применяемые при их обучении. Основное внимание уделено формированию у учащихся грамматических знаний, изложены мнения и наблюдения, касающиеся преподавания сложных предложений в общеобразовательных школах. В аннотации обосновано использование современных педагогических технологий при обучении сложным предложениям и их роль в создании интерактивной коммуникативной среды на уроках.

Ключевые слова: предложение, союзы, сложносочиненные предложения, словосочетание.

O'zbek tilshunosligida sintaksis masalalari, xususan, qo'shma gaplarning nazariy asoslari ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, A.G'ulomov, S.Usmonov, A.Madvaliyev, M.Jo'rayev kabi tadqiqotchilar qo'shma gaplarning turlari, grammatik xususiyatlari va nutqiy ahamiyatini yoritib berganlar. Ularning ta'kidlashicha, qo'shma gaplar tilning eng murakkab sintaktik birliklaridan biri bo'lib, o'quvchilar nutqini izchil, mantiqiy va boy shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi. Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish sharoitida ona tili fanini samarali o'qitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning ma'naviy merosi va tafakkurini ifodalovchi qadriyatdir. Shunday ekan, sintaksis bo'limining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan qo'shma gaplarni o'qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish zarur. Bu esa o'quvchilarda grammatik bilimlarni chuqur egallash bilan birga, mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qo'shma gap sintaksisi 9-sinf ona tili darsligining 2-bo'limidan boshlab o'tiladi. Bu mavzu maktab o'quvchilari uchun o'rganilishi qiyin bo'lgan mavzular sirasiga kiradi. Shuning uchun bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda darslikda berilgan ma'lumotlardan tashqari o'qituvchidan ham yaxshigina bilim va mahorat talab etiladi. Darsligimizda qo'shma gaplar talqini ancha murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi. [1: 16].

Qo'shma gaplar qismlarining mazmunan o'zaro munosabati, tuzilishiga ko'ra 3turli bo'ladi: bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

O'quvchilarga ham tushuntirishda avvalo, gaplarni tahlil qilib, uning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab olib o'rgatiladi. Gap uchun eng asosiy belgi bu uning kesimligidir. Kesimlarning soni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi. [2: 27-30].

Shunday ekan bitta kesimdan tashkil topgan gap sodda gap, ikki va undan ortiq gapning birikuvidan qo'shma gap hosil bo'ladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, ko'makchi, nisbiy so'zlar orqali bog'lanadi. Qo'shma gaplarni o'quvchilarga o'rgatishdan avval ularni quyi sinflarda olgan bilimlarini sinab olish zarur, sababi qo'shma va sodda gap haqida va ularning o'quvchilar ongida farqlanishini tushuntirmoq kerak. [3: 67].

Shu o'rinda masalani oydinlashtirish o'qituvchilarning zimmasiga yuklatiladi. Masalan, hal qilish uchun FSMU (fikir, sabab, misol, umumiy fikr) metodidan foydalanish samaraliroq.

Fikr. Ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo'laklar tarzida bo'lmasa) qo'shma gaplar sanaladi.

Sabab. Ushbu gaplarda har bir kesimda kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik(modal), zamon, shaxs ma'nolari aniqlanadi.

Misol. Vazifamiz -o'qish va izlanish.

Umumiy fikr. Demak, sodda gaplarda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi va sodda gaplarning mazmun hamda grammatik birikuvidan hosil bo'ladi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladigan „bo'lsa” so'zi yordamida gap tuzish vazifasi berilganda aksariyat o'quvchilar Maktabimizda tadbir bo'lsa, men ham qatnashaman ko'rinishidagi gaplar tuzadilar. Bunday gaplar qismlari shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gap ekanligini tushuntirmoq kerak. Ushbu holatda agar bo'lsa so'zi birinchi qismning oxirida kelsa ergash gapli qo'shma gap, agar bo'lsa so'zi ikkinchi gapning tarkibida qiyoslanayotgan bo'lakdan so'ng kelsa, bunday gap bog'langan qo'shma gap hisoblanishini aytib o'tish lozim. Shu o'rinda qo'shma gaplarni o'quvchilarga samarali o'rgatishda “Klaster” metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida doskaga “Qo'shma gap” iborasi yozilib, undan tarmoqlar tarzida asosiy bo'limlar — bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap ajratib ko'rsatiladi. Har bir bo'lim ostida ularning grammatik belgilarini izohlash va misollar keltirish orqali o'quvchilar mavzuni ko'rgazmali tarzda o'zlashtiradilar. Shu orqali qo'shma gaplarning ichki tuzilishi va turlari o'quvchilarga aniq, tizimli va qiziqarli shaklda yetkaziladi.

“Klaster” metodidan foydalanish o'quvchilarda qo'shma gaplarning turlarini farqlash, ularning qo'llanishini anglash va nutqda to'g'ri ishlatish malakalarini shakllantiradi. Bu jarayon, avvalo, o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilsa, shu bilan birga ularning mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va o'z fikrini aniq bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, guruh bo'lib ishlash jarayonida hamkorlik, faol muloqot va ijodiy yondashuv ko'nikmalari shakllanadi. Demak, qo'shma gaplarni o'rgatishda “Klaster” metodidan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, uni qo'llash alohida yutuq sifatida baholanadi. Bundan tashqari qo'shma gaplarni o'quvchilarga o'rgatishda “Bumerang” metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi qo'shma gaplarga oid savollar beradi, o'quvchi javobini tayyorlaydi va so'ngra savolni boshqa o'quvchiga “bumerang” kabi qaytaradi. Masalan, o'qituvchi: “Ergashgan qo'shma gapning asosiy belgilarini aytib bera olasizmi?” deb so'raydi. O'quvchi javobni

boshlaydi, keyin esa savolni boshqa o'quvchiga yo'naltiradi. Shunday qilib, barcha o'quvchilar jarayonga jalb qilinadi va mavzu bo'yicha faol muloqot tashkil etiladi. Mazkur metod o'quvchilarda qo'shma gaplarning nazariy va amaliy jihatlarini izchil o'zlashtirish imkonini beradi. "Bumerang" metodidan foydalanish orqali:

barcha o'quvchilar darsda faol ishtirok etadi;

qo'shma gaplarning turlari va qo'llanilish xususiyatlarini tezroq anglab yetadilar;

savol-javob shaklidagi muloqot o'quvchilarda mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni kuchaytiradi;

hamkorlikda o'qish, o'zaro bahslashish va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Demak, "Bumerang" metodidan foydalanish qo'shma gaplarni o'qitishda yuqori samaradorlik beruvchi usullardan biri bo'lib, o'quvchilarni faol, ijodkor va izlanuvchan bo'lishga undaydi.[4: 380]

Xulosa qilib aytganda, qo'shma gaplarni o'qitish metodikasi ona tili ta'limining eng muhim bo'limlaridan biridir. Chunki qo'shma gapning mazmuniy va grammatik xususiyatlarini o'quvchilarga to'g'ri tushuntirish ularning nutq madaniyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Dars jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish qo'shma gaplarni o'zlashtirishni yengillashtiradi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Metodik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi o'quvchilarni grammatik qoidalarni yod olishga emas, balki ularni kundalik nutqda ongli qo'llashga undaydi. Shunday ekan, qo'shma gaplarni o'qitishda samarali metodlardan foydalanish nafaqat bilim, balki ko'nikma va malakalarni ham shakllantirishning eng muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. 16-b.
2. Agzamov E. Ona tilidan muammoli dars // "Til va adabiyot ta'limi. 1993, 3-4-qo'shma soni. 27-30-betlar.
3. Hamroev M.A. O'zbek tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent. 2008. 67-b.
4. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 380-b.
5. www.ziynet.uz

FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TUZILISHIDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

NURMATOVA DURDONA SHUXRAT QIZI

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

durдона97531@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada frazeologik birliklarda ekspressivlikning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ularning ma'nosida signifikativ, denotativ va konnotativ komponentlarning o'zaro aloqasi hamda konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv jihatlariga qaratiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning matnda uslubiy vazifasi, ekspressivlik yaratishdagi roli ham ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy tilshunoslarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, ekspressivlik, semantika, konnotatsiya, denotatsiya, signifikatsiya, emotsionallik, stilistika.

Аннотация

В статье анализируются семантические и стилистические особенности проявления экспрессивности фразеологических единиц. Основное внимание уделяется взаимодействию сигнификативного, денотативного и коннотативного компонентов в их значении, а также эмоциональным, оценочным и экспрессивным аспектам коннотации. Кроме того, рассматриваются стилистические функции фразеологизмов в тексте и их роль в создании экспрессивности. В исследовании проводится сравнительный анализ взглядов отечественных и зарубежных лингвистов.

Ключевые слова. Фразеологизмы, экспрессивность, семантика, коннотация, денотация, сигнификация, эмоциональность, стилстика.

Abstract

The article examines the semantic and stylistic features of expressiveness in phraseological units. Special attention is given to the interaction of the significative, denotative, and connotative components of meaning, as well as to the emotional, evaluative, and expressive aspects of connotation. The stylistic functions of phraseological units in the text and their role in creating expressiveness are also discussed. The study provides a comparative analysis of the views of both local and foreign linguists.

Keywords Phraseological units, expressiveness, semantics, connotation, denotation, signification, emotionality, stylistics.

Kirish

Zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri frazeologik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir. Chunki frazeologizmlar til tizimining o'ziga xos qatlamini tashkil etib, ular milliy madaniyat, xalq dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda ikki tomonli tuzilma — mazmun plani va ifoda plani muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda shakl va mazmun birligini ta'minlaydi. Mazmun planida signifikativ, denotativ va konnotativ aspektlar ajratiladi, ifoda planida esa frazeologik birlikning fonetik, morfologik hamda tashqi shakliy ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Frazeologizmlarning ahamiyati shundaki, ular kuchli ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Ular matnga emotsionallik, obrazlilik va baholovchanlik qo'shib, muallifning shaxsiy munosabatini ifodalash imkonini beradi. Shu boisdan frazeologizmlar lingvistik tadqiqotlarda nafaqat semantik birlik, balki stilistik kategoriyalarni ochib beruvchi fenomen sifatida ham o'rganiladi.

Mazkur maqolada frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda signifikativ, denotativ va konnotativ aspektlarning o'zaro uyg'unligi, shuningdek, konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv komponentlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida Kunin, Benevist, Amosova, Vinogradov, Axmanova, Arnold kabi tilshunoslarning ilmiy qarashlari asos sifatida olinadi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning nominativ-kommunikativ xususiyatlari va kontekstdagi roli ham alohida ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Frazeologik birliklar nafaqat til birliklari sifatida, balki kuchli ekspressiv vosita sifatida ham e'tiborni tortadi. Ular matnga emotsional, obrazli va baholovchi rang berib, muallifning shaxsiy munosabatini namoyon etishga xizmat qiladi. E.Benevistning fikricha frazeologizmlar tildagi antroposentrizmning asosi bo'lgan subyektivlikni, ya'ni insonning nutq orqali anglash va axborotni qayta ishlash, o'z ma'naviy dunyosi va uni o'rab turgan obyektiv voqelikni mukammallashtirishga intilishini yaqqol namoyon etuvchi til birliklaridir. [5:259-328]

Ma'noni, jumladan, frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda ikki tomonli tuzilma mavjud: bu — mazmun plani va ifoda plani. Mazmun planida uchta asosiy aspekt farqlanadi: signifikativ, denotativ va konnotativ. Ifoda rejasi esa frazeologik birlikning moddiy shaklini, ya'ni uning nutqdagi fonetik-morfologik ko'rinishini anglatadi. Shu ikki tomon — mazmun va shakl — frazeologik birlikning

ichki mohiyati va tashqi ko'rinishi o'rtasidagi uyg'unlikni, ya'ni shakl va mazmun birligini tashkil qiladi. [11:310]

Signifikativ aspekt — bu frazeologik birlik orqali beriladigan umumiy informatsion hajm bo'lib, u til tashqarisidagi voqelikdagi muayyan tushuncha yoki hodisaga nisbatan anglanadi.

Denotativ aspekt — frazeologik birlikning real nutqda ma'lum bir shaxs, predmet, holat, harakat yoki voqea bilan bog'liq bo'lgan predmetiy mazmunini bildiradi. Ushbu predmetiy bog'liqlik keng qamrovli bo'lib, u aniq vaziyat yoki kontekst bilan belgilanadi.

Konnotativ aspekt esa frazeologik birliklarning stilistik xususiyatini, ularning emotsional va ekspressiv yo'nalishini tashkil etadi. Bu jihat til egasining til vositalari orqali ifodalangan voqeliklarga bo'lgan munosabatini bildiradi yoki bahosiz holda ifodaning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Mazkur uchlikning o'zaro nisbati frazeologik birliklarning turli turlarida bir xil bo'lavermaydi. Masalan, muayyan tilshunoslikda yagonalikni anglatuvchi frazeologik birliklarda signifikativ va denotativ aspektlar mutanosib tarzda uyg'unlashgan bo'ladi. Bunga *"The Swan of Avon"* (Eyvon oqqushi) frazeologizmi misol bo'la oladi — u mashhur ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirni anglatadi (Shekspir tug'ilib o'sgan va dafn etilgan joy — Stratford-upon-Avon). Bu yerda mazmun - Shekspir obrazining ideallashtirilgan ifodasi va ifoda - frazeologik shakl bir butun holda uyg'unlashgan.

Frazeologik ma'no, mohiyatan, ideal (g'oyaviy) va moddiy (shakliy) tomonlarning o'zaro aloqasidir. Bu esa frazeologik birlikning semantik strukturasida designat bilan tuzilmaning birligidan iborat bo'lib, uni tilning frazeologik mikrosistemasi doirasida ko'rib chiqish mumkin.

Frazeologik birlik ma'nosi ya'ni frazeologik ma'noning ajralmas komponenti sifatida olimlar konnotatsiyani keltiradilar. Semantik nuqtai nazardan konnotatsiya tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Axmanova konnotatsiyani so'z yoki birikmaning qo'shimcha ma'nosi, asosiy ma'noga qo'shimcha yuklanadigan semantik va stilistik ma'no turlari deb atab, turli ekspressiv-emotsional va baholovchan obertonlarni ifodalash orqali ifodaga tantanavorlik, o'yinqaroqlik, erkinlik tuslarini berish uchun xizmat qilishini ta'kidlagan. [4:203-204]

Emirova [6:48] frazeologik ma'noni idiomatik ma'no bilan ayni tushuncha hisoblaydi. U mazmun plani kategoriyasi bo'lib bir qancha belgi-hususiyatlar: so'zlovchining ruhiy va sotsial holatini, emotsional va mantiqiy baho-munosabatini, uning tinglovchiga nisbatan muloqotdan ko'zlangan maqsadini o'zida jamlaydi. Konnotativ-pragmatik element frazeologik ma'noning tarkibiy qismi hisoblanadi. U

frazelogizmning asosiy ma'nosiga qo'shimcha tarzda emotsional, ekspressiv va baholash tuslarini qo'shadi.

Emirovaning fikricha frazeologik ma'noning kategorial xususiyatlari uning muloqotdagi roli ya'ni kommunikativ aspektiga murojaat qilish orqali ochib berilishi mumkin. Muloqot jarayoni nominatsiyaga, ya'ni insonning klassifikatsiyalash faoliyatida ma'lum predmet, hodisalarni ajratib olish va ularni til vositalari yordamida nomlashga asoslanadi. Shuning uchun ham semantik tahlilga kommunikativ yondashuv bu nominativ-kommunikativ yondashuv bo'lib u so'zlovchining obyektiv voqelik haqidagi bilimlari va tinglovchiga nisbatan maqsadini aks ettiradi. Frazelogizmlarning nominativ-kommunikativ jihati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan semiologik va lingvistik aspektlarda o'rganilishni taqozo etadi. Semiologik aspekt quyidagi masalalarni qamrab oladi: frazeologizmlarning tildagi funksiyalari, ularning konseptual yadro va konnotatsiyalarning o'zaro munosabatlari semantik strukturasi, frazeologik nominatsiya objekti, idiomalar qamrab oladigan obyektiv voqelik sohalari doirasi, idiomatik ma'noning yuzaga kelishi va nutqda ifodalanishi zahirida yotuvchi mantiqiy-psixologik jarayonlar va b. Frazelogik ma'noning lingvistik aspekti esa avvalo uning ma'no turi sifatidagi xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bundan tashqari frazeologik nomintasiya turini belgilash, ya'ni frazeologizmlar voqelikni qanday ifodalashi: mustaqil ravishda (bevosita nominatsiya) yoki boshqa nom orqali (bilvosita nominatsiya) nomlashini aniqlash; idiomalar sinfidagi tipik kategorial-grammatik (so'z turkumlariga hos) ma'nolarni hamda frazeologik predikat tipologiyasi va boshqa jihatlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. [6: 46]

N.N.Amosovaga (1:26) ko'ra ingliz tili uchun kontekstning ahamiyati katta. Bu uning grammatik tuzilishiga borib taqaladi. Analitik til sifatida ingliz tilida morfologik shakl o'zgartirish imkoniyatlari juda chegaralangan. Bu esa shakldoshlik va leksik-grammatik omonimlar sonining ko'pligiga sabab bo'lgan. Yu.P.Kostyuchenko xulosa qilishicha grammatik omonimiya ingliz tili grammatik tuzilishining organik xususiyatiga aylanib ulgurgan.

Kontekst tahlili ingliz tili so'z boyligini o'rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki frazeologik birlik leksik birlik hisoblanadi va shu sababli ham kontekst tahlili tilning frazeologik fondi uchun ham taaluqlidir.

V.V.Vinogradov [15:49] aytishicha "ko'p so'zlar yoki ularning alohida ko'chma va sinonimik ma'nolari bog'lanish jihatidan chegaralangan so'z ma'nolarining ko'pchiligi atrofida bir necha frazeologik qatorlar bo'ladi. So'z ma'nolarining ko'pchiligi frazeologik bog'langandir. So'zning bir necha ma'noga egaligi uning

semantik chegaralangan bir necha frazeologik birikmalarga birika olishini anglatadi” bundan kelib chiqib, N.N.Amosova har qanday soʻz birikmasi elementlari bir-biri bilan semantik bogʻlangan boʻlsa uni frazeologik birikma deb hisoblaydi. Shunga asoslanib soʻzlar orasida kontekstual munosabatlarni frazeologik munosabat deya ataydi.

Kontekstual, yaʼni Vinogradov va Amosova fikriga koʻra frazeologik maʼno frazeologik birikmaga aloqador deb qaralishi lozim. Soʻzlar orasidagi kontekstual yoki frazeologik munosabat nutqda eng keng tarqalgan, doimiy uchraydigan semantik bogʻliqlik sifatida koʻriladi. Bundan kelib chiqadiki, nutq bu - frazeologik birikmalar yigʻindisidir, bu ayniqsa ingliz tili uchun taalluqli chunki unda kontekst juda muhim. Bunday holda frazeologiya nutq birliklarining oʻziga hos turgʻun birikmalari haqidagi fandan soʻzlarning nutq birligi sifatida kontekstual guruhlari, yoki undan ham kengroq – soʻzlarning kombinatorik valentligi [kontekstologiya] haqidagi fanga aylanadi.

Soʻzlarning kontekstual bogʻliqligi deb ularning oʻzgaruvchan kontekstda semantik shartlanganligi [soʻz maʼnosining kontekstga bogʻliqligi] tushuniladi. Frazeologik bogʻliqlik yaʼni, frazeologik birlik tarkibidagi soʻzlarning mustahkam semantik va sintaktik aloqasi esa doimiy, muntazam kontekstda semantik shartlanganligidir. Bunga asosan frazeologiya doimiy kontekst birliklari haqidagi fan deb belgilanadi. [1:34]

Soʻzning maʼnosi koʻpincha odatiy kontekstlardan — muloqot yoki vaziyatga oid — kelib chiqadigan murakkab assotsiatsiyalar taʼsirida shakllanadi. Bu assotsiatsiyalar, soʻzlovchi va tinglovchiga ayon boʻlgan holda, soʻzga konnotativ maʼno bagʻishlaydi. Denotativ maʼno bilan uning amaliy ifodasi — konnotatsiya oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir grammatik va leksik maʼnolar orasidagi bogʻliqlikdan kam murakkab emas. Konnotativ komponent majburiy emas, yaʼni baʼzi hollarda u umuman boʻlmashligi mumkin, yoki boʻlsa ham, uning mantiqiy (logik) maʼnoga nisbatan ulushi har xil boʻladi.

Axborot tarkibidagi soʻzlarda nutq predmetini ifodalovchi denotativ maʼnoga qoʻshimcha ravishda konnotativ maʼno (konnotatsiya) ham mavjud boʻlib, u emotsional, ekspressiv, baholovchan va funksional-uslubiy komponentlardan iborat. Konnotativ maʼno uzual (doimiy) yoki okkazional – kontekstga bogʻliq boʻladi. Konnotatsiya leksik maʼnoning tarkibiy qismi hisoblanadi va uni assotsiatsiya (implikatsion aloqa, implikatsional) bilan adashtirmaslik zarur. Tilda axborotning bu ikki turi oʻrtasidagi farqni til funksiyalari orqali asoslash mumkin. Birinchisi tilning intellektual-kommunikativ funksiya bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchisi qolgan barcha funksiyalar: emotiv; volontativ (pragmatik); appelyativ; aloqa oʻrnatuvchi; estetik funksiyalar. [2: 8]

Frazeologik birlik ma'nosi ya'ni frazeologik ma'noning ajralmas komponenti sifatida olimlar konnotatsiyani keltiradilar. Semantik nuqtai nazardan konnotatsiya tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Axmanova konnotatsiyani so'z yoki birikmaning qo'shimcha ma'nosi, asosiy ma'noga qo'shimcha yuklanadigan semantik va stilistik ma'no tushlari deb atab, turli ekspressiv-emotsional va baholovchan obertonlarni ifodalash orqali ifodaga tantanavorlik, o'yinqaroqlik, erkinlik tushlarini berish uchun xizmat qilishini ta'kidlagan. [4:203-204]

Arnold konnotatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: so'zlovchining ijtimoiy vaziyatga va mos funksional uslubga bo'lgan munosabati (utter- say), predmetga bo'lgan ijobiy yoki salbiy bahosi (*gang – group*), his-tuyg'ulari (*granny – grandmother*) yoki ifodaning intensivlik darajasi (*hate – dislike*) haqidagi axborotni bildiruvchi ma'no.[1: 40]

Konnotatsiya – bu til birligi semantik yoki grammatik tarkibiga qo'shimcha tarzda kiradigan, empirik va madaniy tarixiy bilimlar asosida nutqqa ekspressivlik [ifodalilik] beradigan ma'nodir. Konnotativ axborot til va nutq birliklarida asosiy mazmunga qo'shimcha sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning semantik jihatdan ahamiyatli tomonidan farqli o'laroq, konnotativ jihati ko'pincha haqiqatdagi emas, balki odamlar tomonidan ob'ektga nisbatan tayinlangan belgilarni bildiradi. Shu sababli frazeologik birliklar ekspressiv vosita sifatida xizmat qila oladi.

I.V.Arnold talqiniga ko'ra so'zning kontekstual leksik ma'nosi deganda, til tizimi vositalari orqali tushuncha, emotsiya yoki real borliqdagi predmetni ifodalash tushuniladi. Bunday kontekstual ma'noning murakkabligi, ayniqsa, uning denotativ va konnotativ ma'nolarni birlashtirishida namoyon bo'ladi. Konnotatsiya ixtiyoriy bo'lib, emotsional, baholovchi, ekspressiv va funksional-stilistik tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bular bir so'zda to'liq yoki turli kombinatsiyalarda namoyon bo'lishi mumkin, ular uzuall yoki okkazional bo'lishi mumkin.

So'zning leksik ma'nosi – bu til tizimi vositalari orqali tushuncha, emotsiya yoki munosabatni ifodalashdir. Tushuncha real voqelikni aks ettiradi va leksik ma'no bilan bog'liq, biroq ular aynan bir narsa emas: leksik ma'no lingvistik tabiatga ega bo'lib, ekspressiv, emotsional va boshqa konnotativ komponentlarni o'z ichiga oladi.

Leksik ma'no denotativ va konnotativ qismlardan iborat bo'lib, birinchisi – majburiy, ikkinchisi – ixtiyoriydir. Konnotatsiyaning emotsional, baholovchi, ekspressiv va stilistik komponentlari bo'lishi mumkin, ular to'liq yoki qisman namoyon bo'lishi, yoki umuman bo'lmasligi mumkin.

Emotsional komponent soʻzda qandaydir tuygʻuni ifoda etadi: quvonch, gʻam, xavotir, nafrat, sevgidir. U uzual yoki okkazonal boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlar, ayniqsa, undov soʻzlar – sof emotsional soʻzlar – orqali kuchli ifodalanadi.

Baholovchi komponent esa soʻz orqali ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi. Masalan, “*time-tested method*” – ijobiy; “*out-of-date method*” – salbiy. U koʻpincha lugʻaviy taʼrifda ham aks ettiriladi. Masalan, “*sneak*” – “yashirincha va odatda yomon niyat bilan harakat qilish”.

Ekspressiv komponent esa tasvirlash, kuchaytirish yoki obrazlilik orqali ifodani kuchaytiradi. Masalan: “*She was a thin, frail little thing...*”. Koʻpchilik ingliz leksikograflari ekspressivlik va emotsionallikni farqlamasa-da, ular bir-biriga bogʻliq boʻlsada, aynan bir narsa emas. Masalan, intensifikatorlar [absolutely, really, frightfully] obrazli va kuchaytiruvchi ekspressivlikni ifoda etadi. Ularning bir qismi keng kontekstda ishlatilsa “*a terrific shock*”, boshqalari cheklangan “*a severe frost*”.

Soʻz stilistik komponent yoki stilistik konnotatsiyaga ega boʻlishi uchun u maʼlum bir funksional uslub va soha bilan bogʻliq boʻlishi va shu uslub yoki sohaga oid kontekstda qoʻllanilmasa ham ularga tegishliligi anglashilishi kerak. Stilistik konnotatsiya soʻz predmetining real sohalar bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Ogʻzaki nutqda emotsional, ekspressiv, baholovchi va stilistik komponentlar koʻpincha birga uchraydi, lekin ularni aynilastirish notoʻgʻri – ularning har biri mustaqil va alohida koʻrinishlarda namoyon boʻlishi mumkin. [1:113]

Xulosa

Frazeologik birliklar til tizimining murakkab va rang-barang qatlamini tashkil etib, ularning semantik va stilistik xususiyatlarini oʻrganish tilshunoslik uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ekspressivlik **til birliklarining semantik tarkibi orqali** ifodalansa-da, **namoyon boʻlishi matnda stilistik funksiyasi koʻrinishida** yuz beradi. Ularning maʼnosida signifikativ, denotativ va konnotativ komponentlarning uygʻunlashuvi frazeologizmlarni oddiy soʻzlardan farqlab turadi. Xususan, konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv jihatlar frazeologizmlarning matnda obrazlilik, taʼsirchanlik va uslubiy boylik yaratishiga xizmat qiladi. Tahlil shuni koʻrsatadiki, frazeologizmlar faqat nominativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki matnda muallifning individual uslubini belgilovchi, oʻquvchiga estetik zavq bagʻishlovchi kuchli vosita sifatida ham namoyon boʻladi. Tilshunoslarning ilmiy qarashlari shuni isbotlaydiki, frazeologizmlar milliy tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytirib, uning emotsional-ekspressiv salohiyatini oshiradi. Shu sababli ularni lingvistik jihatdan atroflicha tadqiq etish nafaqat nazariy lingvistika, balki amaliy stilistika uchun ham dolzarb hisoblanadi. Frazeologizmlar orqali xalqning

madaniy-milliy qadriyatlari, mentaliteti va badiiy-estetik dunyoqarashi ifoda etilishi ularni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik doirasida ham chuqur o'rganishni taqozo etadi. Kelgusida frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik vazifalarini yanada kengroq tahlil qilish, ularning zamonaviy diskursdagi funksional imkoniyatlarini ochib berish lingvistikaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amosova N.N. [1963] Osnovi angliyskoy frazeologii. Izdatelstvo leningradskogo universiteta.
2. Arnold, I. V. [1986]. The English Word: A Linguistic and Stylistic Approach. Moscow: Vysshaya Shkola.
3. Arnold, I. V. [1981]. Stilistika sovremennogo russkogo yazyka. Ленинград. «Просвещение» ленинградское отделение.
4. Axmanova O.S. [1957]. Ocherki po obshey i russkoy leksikologii. 242-bet
5. Benvenist, E. Obshaya lingvistika / Под ред. Степанова Ю. С. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.
6. Galkina-Fedoruk E.M. [1958] Ob ekspressivnosti i emotsionalnosti v yazyke. Сборник статей по языкознанию. — М.: Наука, 1958. — С. 103-124
7. Galperin, I. R. [1981]. Stylistics. Moscow: Higher School Publishing House.
8. Emirova A. [2020] Russkaya frazeologiya. Monografiya. Simferopol nachniy mir. 46.
9. Kiselyova L.A. [1978] **Вопросы теории речевого воздействия.** — Л.: ЛГУ, 1978.
10. Kunin, A. V. [1996]. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka [3-e izd.]. Dubna: Feniks.
11. Kunin, A. V. [1970]. Angliyskaya frazeologiya. Moskva. Vysshaya shkola.
12. Nasirova G.M [2024] Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar. Monografiya. Andijon. “Jahona-nashr”
13. Nikitina, S. E. [1988]. Frazeologizmy v sisteme stilisticheskikh sredstv. Moskva: Nauka.
14. Shmelyov, D. N. [1977]. Stilisticheskaya grammatika russkogo yazyka. Moskva: Nauka.

15. Vinogradov, V. V. [1947]. Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva–Leningrad: AN SSSR.
16. Vinogradov, V. V. [1953]. Основные типы лексических значений слова. ВЯ, №5Б стр 12.

MATN YARATISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

O'ROQOVA ASILABONU ABDUNAZAR QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

asilabonu888@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida matn va uni o'rganish usullari, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish va kommunikativ savodxonligini ta'minlash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matn, savodxonlik, grammatika, xatboshi, so'z, ma'nodosh, ibora, gap, mazmun, shakl.

Abstract: The article talks about the text and its learning methods in the native language classes, the development of students' creative thinking by working on the text, the formation of the student's speaking skills in the process of expanding the student's vocabulary, and ensuring communicative literacy. .

Key words: text, literacy, grammar, paragraph, word, synonym, phrase, sentence, content, form.

Аннотация: В статье говорится о тексте и методах его изучения на уроках родного языка, развитии творческого мышления учащихся путем работы над текстом, формировании речевых навыков учащегося в процессе расширения словарного запаса учащегося, обеспечении коммуникативной грамотность.

Ключевые слова: текст, грамотность, грамматика, абзац, слово, синоним, словосочетание, предложение, содержание, форма.

Yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta'minlash vazifalarining Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Til shunday mo'tabar "ne'matki", u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan, tengi yo'q robitai olamiyondir. Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri - matn yaratishning samarali

texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish) da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o'quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatai yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv - universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yishdan iborat. Demak, o'quvchi nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko'ra mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to'la bajarish - o'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalasi, ona tili ta'limida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya'ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o'rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Ona tilining yangi - yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib topirishga xizmat qiladi.

Agar o'quvchining so'z boyligi nochor, lug'at xazinasini qashshoq bo'lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. O'quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, xatboshi va murakkab sintaktik butunliklarni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tinish belgilari, grammatik bog'lamalar (olmoshlar, kirish so'z va gaplar, modal so'zlar) haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy - amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish - avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga - mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishi, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z "men"i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodiy - kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart - sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik - tanlovlar, lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab - quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimini, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zidagi intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni mustaqil matn yaratishga o'rgatishda quyida tavsiya qilinayotgan "O'quvchini matn yaratishga yo'naltiruvchi topshiriqlar" tizimidan foydalanish yaxshi samara beradi: berilgan so'zlar asosida, o'rganilgan mavzu asosida, sayohat taassurotlari bo'yicha, rasm yoki portretga qarab, berilgan so'z birikmalari asosida, berilgan sarlavha asosida, o'quv topshiriqlari asosida, maqol, matal yoki hikmatli so'zlar asosida matn yaratish.

"Ona tili" darsliklarida berilgan matnlar ikki guruhga ajratiladi: ta'limiy-ma'rifiy (ona tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta'riflar sharhiga oid matnlar bo'lib, nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qiladi) va ta'limiy-tarbiyaviy (bunday matnlar ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi).

Mustaqil matn yaratish jarayoni — belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir. Mustaqil matn - individual bilim, idrok va tafakkur mahsuli o'quvchining nutqiy kashfiyotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulahatova R. va b. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. Toshkent -2018.
2. Asqarova M. va b. O'zbek tili praktikumi. Toshkent - 2016.
3. Almamatov T. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Jizzax - 2019.
4. Muxtarova Sh. Ta'lim sifatini oshirishda individual ta'lim mohiyati. Toshkent – 2023.
5. Saidov O'. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ish yuritishga oid terminlar ustida ishlash tamoyillari. Toshkent – 2024.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “MUQADDIMAT UL-ADAB” ASARIDA QIPCHOQ LAHJASIGA OID SO‘ZLAR**ASHIROV ODILBEK MAXSUDOVICH**QQDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi
ashirovodil100@gmail.com**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining qipchoq lahjasiga oid so‘zlarni tahlilga tordik. Qipchoq lahjasi leksikasining o‘rganilishi, ularning o‘zaro munosabati va qorishiq holdagi holatini o‘rganish uchun noyob manbadir. Asar XII asr Xorazm turkiysining, shuningdek, keyingi asrlarda Oltin O‘rda, Mamluk Misri kabi hududlarda rivojlangan turkiy adabiy tillar va lahjalarning (jumladan, qipchoq tilining) leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarini tiklash va tadqiq qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: “Muqaddimat ul-adab”, o‘zbek tili, qipchoq lahjasi, Xorazm vohasi o‘zbek tili, *bo‘rak, bōrāk*.

Annotation

In this article, we analyze the Kipchak dialect words found in Mahmud al-Zamakhshari’s work *Muqaddimat al-Adab*. The work is a unique source for studying the vocabulary of the Kipchak dialect, their mutual relations, and their mixed usage. The text is dedicated to the reconstruction and study of the lexical, phonetic, and grammatical features of 12th-century Khwarezmian Turkic, as well as the Turkic literary languages and dialects that developed in later centuries in regions such as the Golden Horde and Mamluk Egypt (including the Kipchak language).

Keywords: “*Muqaddimat ul-adab*”, Uzbek language, Kipchak dialect, Khorezm oasis Uzbek language, *bo‘rak, bōrāk*.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining yaratilish jarayoni va til qatlamlari haqida turlicha qarashlar mavjud. Keng tarqalgan fikrga ko‘ra, asar dastlab ikki tilli – arabcha-forscha lug‘at shaklida yaratilgan.[1, 17] Mahmud Zamaxshariyning o‘zi ham arab, ham fors tillarini mukammal bilgani, shuningdek, ona tili bo‘lgan turkiyni (ba’zi manbalarda xorazm turkiysi deb ham yuritiladi) [2, 25] bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgani uning bunday murakkab va yuqori sifatli lug‘atni yaratishiga imkon bergan. Asarning arab tilini o‘rganuvchilar, ayniqsa, forsiyzabonlar

orasida tezda shuhrat qozonishi uning boshqa tillarga ham tarjima qilinishiga turtki bo'lgan.

Natijada, siz ta'kidlaganingizdek, "Muqaddimat ul-adab" tez orada Mahmud Zamaxshariyning vatani Xorazmda iste'molda bo'lgan turkiy tilga – ya'ni, o'sha davr xorazm turkiysiga (o'g'uz va qipchoq unsurlari qorishgan til) o'girilib, uch tilli (arabcha-forscha-turkiycha) lug'atga aylantirilgan.[1, 17] Ba'zi manbalar, jumladan, mashhur eronlik lug'atshunos Ali Akbar Dehxudo bu turkiy tarjimani Mahmud Zamaxshariyning o'zi amalga oshirgan, degan fikrni ilgari suradi.[4] Bu qarash mantiqan asosli ko'rinsa-da (chunki Zamaxshariy o'z ona tilisiga tarjimani boshqalardan ko'ra yaxshiroq bajarishi mumkin edi), uning mutlaq haqiqat ekanini tasdiqlovchi qat'iy dalillar yetarli emas. Ayrim olimlar bu tarjimani Zamaxshariyning shogirdlari yoki unga zamondosh bo'lgan boshqa xorazmlik ulamolar bajargan bo'lishi mumkinligini ham taxmin qiladilar. Nima bo'lganda ham, bu turkiy qatlam XII asr Xorazm turkiysining bebaho yodgorligidir.

Keyinchalik, mo'g'ullar istilosidan so'ng Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoqda mo'g'ul tilining mavqei oshgach, lug'at mo'g'ul tiliga ham tarjima qilingan va uning ba'zi nusxalari to'rt tillik (arabcha-forscha-turkiycha-mo'g'ulcha) shaklga kelgan. Bu mo'g'ulcha glossalarni o'rganishda N.N. Poppening xizmatlari katta.

1897-yili taniqli sharqshunos va arxeolog V.L.Vyatkin tomonidan Samarqanddan topilib, Rossiya imperatorlik akademiyasiga taqdim etilgan "Muqaddimat ul-adab" qo'lyozmasi – asarning Markaziy Osiyo hududida tarqalishi va saqlanishi tarixini o'rganish uchun muhimdir. Garchi bu nusxa noqis va ko'chirilgan sanasi noma'lum bo'lsa-da, uning o'ziga xos paleografik va lingvistik xususiyatlari boshqa nusxalar bilan qiyosiy o'rganish uchun qimmatli material berishi mumkin. Uning Samarqanddan topilgani asarning Movarounnahrda ham keng qo'llanganini ko'rsatadi.

Mahmud Zamaxshariy lug'atni mavzuiy-mantiqiy izchillikda tuzgan bo'lib, u besh qismdan iborat: 1) Ismlar (otlar) qismi. Asosiy leksik qatlamni tashkil etadi. Unda turli mavzularga oid (masalan, koinot, tabiat, inson, hayvonot, o'simliklar, maishiy anjomlar, kasb-hunar va hokazo) 6250 ta arabcha ot va ot turkumiga oid so'zlar jamlangan. 2) Fe'llar qismi. Turli zamon va shakllardagi 6934 ta arabcha fe'l va fe'l birikmalarini o'z ichiga oladi. 3) Harflar (ko'makchi so'zlar) qismi. Predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar kabi yordamchi so'z turkumlariga bag'ishlangan. 4) Ismlarning turlanishi (sarf) qismi. Arab tilidagi otlarning son, kelishik kabi grammatik kategoriyalar bo'yicha o'zgarishi qoidalarini tushuntiradi. 5) Fe'llarning tuslanishi (nahv va e'rob) qismi. Arabcha fe'llarda zamon, shaxs-son, nisbat kabi shakllarning yasalishi va gapdagi vazifalariga ko'ra o'zgarishi (e'rob) qoidalariga bag'ishlangan.

Bunday tuzilish arab tilini o'rganishni osonlashtirishga qaratilgan puxta pedagogik yondashuvdan dalolat beradi.

Asarning o'zbek tili qipchoq lahjasi leksikasini o'rganishdagi o'rnini *bo'rak* (*chuchvara*) so'zi misolida ko'rishimiz mumkin. "Muqaddimat ul-adab"da uchraydigan **بورک** *böräk* va uni forsiy *xo'shbira/xushbira* hamda o'zbekcha *chuchvara* so'zlarining etimologiyasi bilan bog'liqligiga e'tibor qarataylik. Mahmud Zamaxshariy *böräk* so'zini qaysi *sambusak* سمبوسك – 'somsa' so'zining asli, *qataif* قطائف kabi so'zlar bilan ifodalangan. *Böräk* so'zining o'zi turkiy tillarda keng tarqalgan. *Bo'rak* (yoki *börek*, *börük*, *bäliš* kabi variantlari) juda qadimgi va keng tarqalgan turkiy so'zdir. U ko'pincha turkiy *bögre*- ('o'ramoq, buklamoq') yoki *büri*- ('yopmoq, o'ramoq') fe'llaridan *-k* yoki *-äk* qo'shimchasi bilan yasalgan deb hisoblanadi,[3, 65] ya'ni, uning asl ma'nosi "o'ralgan", "buklangan" (xamir) degan ma'noni anglatadi. Bu so'z turli turkiy xalqlarda har xil turdagi pishiriqlarni – ko'pincha ichiga qiyma yoki boshqa narsa solib, buklab, yopib, tandir (pech)da pishiriladigan yoki yog'da qovuriladigan taomlarni anglatadi (masalan, turkcha *börek*, tatarcha *bäräŋge bälüşe* 'kartoshkali *bälish*/pirog', qozoqcha *bälish*, *bärük*). U Bolqon xalqlari tiliga ham *burek* shaklida o'tgan. Turkiy *böräk* so'zining forscha *xo'shbira* (*xoşbirä*) so'zi bilan bog'liqligi masalasi. *Xoşbirä* so'zining o'zi fors tilida kam uchraydi va uning etimologiyasi noaniq. Turkiy va fors tillari o'rtasida bunday bog'liqlik ko'rinmaydi. Shuningdek, *chuchvara* so'zining etimologiyasi ham bahslidir. Eng keng tarqalgan nazariyaga ko'ra, u forscha *dushvara* (*dushwara*) yoki *jushpara* (*jôsh-pâra* – 'qaynatilgan bo'lak') so'zlaridan kelib chiqqan.[4, 388] Boshqa taxminlar ham mavjud. *Bo'rak* so'zi bilan *chuchvara* so'zi bir-biridan kelib chiqmagan, lekin ular o'xshash (ichiga qiyma solingan xamir taomlar) turdagi taomlarni atashi mumkin. Biroq, odatda *bo'rak* kengroq tushuncha bo'lib, pishirish usuli (pishirish, qovurish) bilan farqlansa, *chuchvara* aynan suvda qaynatib pishiriladigan tugilgan xamirni anglatadi.

Umuman olganda, "Muqaddimat ul-adab"ning yaratilishi, tarjimalari, tuzilishi va qo'lyozmalari tarixini bilish uning turkiy (xususan, Xorazmdagi o'g'uz-qipchoq aralash tili) glossalarini to'g'ri talqin qilish va ulardan qipchoq lahjalari tarixini o'rganishda samarali foydalanish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ҳакимжонов М. "Муқаддимат-ул-адаб"нинг қўлғезмаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. № 6.
2. Толстова Л.С. Древнейшие юго-западные связи в этногенезе каракалпаков // Советская этнография. – 1971. – № 2.

3. Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Clarendon Press.
4. Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. 1. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1958.
5. Ashirov, O. (2022). DIALEKTLARNING BADIY ASAR TILIDAGI SEMANTI-K–STILISTIK XUSUSIYATLARI. *Академические исследования в современной науке*, 1(13), 249-252.
6. Ashirov, O. (2023). MUQADIMAT UL–ADAB. QIPCHOQ LAHJASIGA OID QAYDLAR AKS ETGAN MUMTOZ MANBA. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(9), 164-167.
7. Ashirov, O. (2023). BADIY MATNLARDA NUTQIY AKT NAZARIYASIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation in the education system*, 2(10), 27-29.

Internet materiallari

<http://www.arxiv.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.wikipedia.com>

USLUBSHUNOSLIK. NUTQ USLUBLARI**ODILJONOVA MOHLAROYIM OYBEK QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

mohlaroyim2211@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi uslubshunoslikning asosiy tushunchalari hamda nutq uslublari turlari yoritilgan. Shuningdek, ona tili o'qitish metodikasida nutq uslublari o'rgatishning ahamiyati va metodlari tahlil qilingan. Uslubshunoslik darslari orqali o'quvchilarda nutq madaniyati, aniq va ta'sirchan fikrlash ko'nikmalari shakllantirilishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar. uslubshunoslik, nutq uslublari, ona tili, o'qitish metodikasi, nutq madaniyati.

Annotation. This thesis discusses the main concepts of stylistics and the types of speech styles. It also analyzes the importance and methods of teaching speech styles within the methodology of native language instruction. It is emphasized that stylistics lessons help students develop speech culture and the ability to express their thoughts clearly and effectively.

Keywords. stylistics, speech styles, native language, teaching methodology, speech culture.

Аннотация. В данной тезисе рассмотрены основные понятия стилистики и виды речевых стилей. Также проанализировано значение и методы преподавания речевых стилей в методике преподавания родного языка. Отмечено, что занятия по стилистике формируют у учащихся культуру речи, умение ясно и выразительно выражать мысли.

Ключевые слова: стилистика, речевые стили, родной язык, методика преподавания, культура речи.

Uslubshunoslik — tilshunoslikning alohida bo'limi bo'lib, til vositalarining qo'llanish qonuniyatlari, ularning turli nutqiy vaziyatlarda ishlatilishi, uslubiy imkoniyatlari va nutq uslublari o'rganadi. Oddiy qilib aytganda, uslubshunoslik "til vositasidan qanday qilib maqsadga muvofiq foydalanish kerak?" degan savolga javob beradi.

1. Uslubshunoslikning predmeti

Uslubshunoslikning o'rganish obyekti:

til birliklarining uslubiy vazifasi (so'z, ibora, gap);

nutq uslublari va ularning qo'llanish doirasi;

uslubiy me'yorlar va nutq madaniyati;

Masalan, bir xil ma'noni bildiruvchi so'zlar (masalan, uy – maskan – bino – imorat) turli nutqiy vaziyatlarda turlicha ishlatiladi. Uslubshunoslik ana shu nozik farqlarni belgilaydi.

2. Uslubshunoslikning asosiy vazifalari

Til birliklarining uslubiy rang-barangligini aniqlash.

Nutq uslublarning turli sohalarda qo'llanish xususiyatlarini ko'rsatish.

Til vositalaridan ta'sirchan va samarali foydalanish yo'llarini belgilash.

Adabiy til me'yorlari va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilish.

3. Uslubshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tilshunoslik: uslubshunoslik tilshunoslikning leksikologiya, grammatika, fonetika kabi bo'limlariga tayangan holda rivojlanadi. Adabiyotshunoslik: badiiy uslubni tahlil qilishda adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'liq. Pedagogika va metodika: o'quvchilarga nutq uslublarni o'rgatishda didaktik va metodik tamoyillarga asoslanadi.

4. Uslubshunoslikning asosiy yo'nalishlari. Nazariy uslubshunoslik – nutq uslublari, uslubiy imkoniyatlar va me'yorlarni nazariy jihatdan o'rganadi. Amaliy uslubshunoslik – nutq madaniyati, so'zlashuv odobi, uslubiy tahlil va matn ustida ishlash metodlarini ishlab chiqadi. Nutq uslublari va uslubiy me'yorlar. Uslubshunoslik nutq uslublarni besh asosiy turga ajratadi: so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublar. Har bir uslub o'zining leksik, sintaktik va fonetik xususiyatlariga ega. Uslubshunoslik ana shu me'yorlarni o'rganadi va ularni o'quvchilar nutqida qo'llashga o'rgatadi. 6. Uslubshunoslikning ahamiyati. Til boyligini to'g'ri va samarali qo'llashni o'rgatadi. O'quvchilar va talabalar nutqini madaniy, aniq va lo'nda qilishga yordam beradi. Jamiyatda muloqotning turli shakllarida (rasmiy hujjatlar, ilmiy izlanishlar, publitsistik maqolalar, badiiy asarlar) til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish malakasini shakllantiradi. Nutq uslublarning asosiy turlari

O'zbek tilida quyidagi nutq uslublari farqlanadi:

1. So'zlashuv uslubi – kundalik hayotda muloqot qilish, og'zaki shaklda tez-tez qo'llanadi.

2. Badiiy uslub – adabiyot, she'riyat, san'at asarlarida qo'llanib, obrazlilikka tayanadi.

3. Ilmiy uslub – ilmiy matnlar, darsliklar, ma'ruzalar tilida uchraydi, aniq va mantiqiy bo'lishi bilan farqlanadi.

4. Rasmiy-idoraviy uslub – hujjatlar, farmonlar, arizalar tilida qo'llanadi.

5. Publitsistik uslub – ommaviy axborot vositalari, maqolalar, nutqlar tiliga xos bo'lib, ta'sirchanlik bilan ajralib turadi.

Ona tili o'qitish metodikasida nutq uslublarini o'rgatish vazifalari. O'quvchilarga turli nutq uslublarining farqli belgilarini tushuntirish. O'quvchilarda nutqiy ehtiyojga qarab mos uslub tanlash ko'nikmasini shakllantirish. Nutq uslublarining hayotiy vaziyatlarda qo'llanishini mashqlar va matn tahlillari orqali ko'rsatish. O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqlarini uslubiy jihatdan to'g'ri tuzishga o'rgatish. Matn ustida ishlash: turli uslublarda yozilgan matnlarni tahlil qilish. Taqqoslash: ilmiy matn bilan badiiy matnni solishtirish. Mashq va topshiriqlar: ariza yozish, ilmiy maqoladan parcha tuzish, hikoya yaratish. Interfaol metodlar: "Rol o'ynash", "Debat", "Kichik guruhda ishlash" orqali o'quvchilarning uslubiy bilimlarini mustahkamlash. Uslubshunoslik – tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lib, til vositalaridan ijtimoiy ehtiyoj va nutqiy vaziyatlarga mos holda samarali foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Tilning ichki qonuniyatlari, so'z boyligi va grammatik qurilishidan tashqari, uni qanday uslubda ishlatish masalasi ham bevosita uslubshunoslikning predmeti hisoblanadi.

Uslubshunoslik:

1. til birliklarining uslubiy imkoniyatlarini ochib beradi;
2. turli nutq uslublarini ajratadi va ularning qo'llanish sohalarini belgilaydi;
3. nutqiy muloqot jarayonida ta'sirchanlik, aniqlik va ifodaviylikni ta'minlaydi;
4. adabiy til me'yorlarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida uslubshunoslik bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar (N. Karimov, N. Madrahimov, M. Jo'rayev va boshqalar) bu sohaning nazariy asoslarini yaratib berdi. Bugungi kunda uslubshunoslik nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki ona tili o'qitish metodikasi, nutq madaniyati, publitsistika, adabiyotshunoslik va pedagogika uchun ham zarur ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ona tili ta'limida uslubshunoslikni o'rgatish o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

1. Turli vaziyatlarda to'g'ri uslub tanlash.
2. Fikrni mantiqan aniq, ifodali va ta'sirchan bayon etish.
3. Nutqiy xatolardan saqlanish va adabiy til me'yorlariga amal qilish.
4. Badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik matnlarni o'qish va tahlil qilish orqali nutqiy tafakkurni rivojlantirish.

Demak, uslubshunoslik tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini o'zida mujassam etgan muhim bo'limlardan biridir. U insonning nafaqat so'zlash qobiliyatini, balki tafakkurini, madaniy saviyasini ham shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli,

uslubshunoslikni o'rganish va uni ta'lim jarayonida chuqur tatbiq etish nafaqat tilshunoslar, balki har bir o'quvchi va talabaga zarurdir.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Karimov N. O'zbek tili uslubshunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 56-b.
2. Madrahimov N. Nutq madaniyati va uslubshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 41-b.
3. Jo'rayev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2018. – 77-b.
4. Rasulov R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2010. – 102-b.
5. Karimov N. O'zbek tili uslubshunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.

XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SARIQ DEVNI MINIB"**ODILJONOVA MOHLAROYIM OYBEK QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

mohlaroyim2211@gmail.com

Ilmiy rahbar Muradova Feruza

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi Xudoyberdi To'xtaboyevning mashhur "Sariq devni minib" qissasi badiiy va g'oyaviy jihatdan tahlil qilingan. Asarda bosh qahramon Botirning orzu-intilishlari, uning fantaziyalari va hayotiy tajribalari o'rganildi. Sariq dev obrazi bola tasavvurining ramzi sifatida izohlanib, qissaning tarbiyaviy va estetik ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, asar yosh kitobxonlarda halollik, jasorat va ezgulikka intilishni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar. Xudoyberdi To'xtaboyev, "Sariq devni minib", bolalar adabiyoti, fantaziya, realizm, Botir obrazi, sariq dev, tarbiyaviy ahamiyat.

Annotation. This thesis analyzes Xudoyberdi To'xtaboyev's famous novel "Riding the Yellow Giant" from artistic and ideological perspectives. The study focuses on the dreams and fantasies of the main character, Botir, as well as his life experiences. The Yellow Giant is interpreted as a symbol of a child's imagination, and the educational and aesthetic significance of the story is highlighted. The research concludes that the work plays a crucial role in fostering honesty, courage, and the pursuit of kindness among young readers.

Key words. Xudoyberdi To'xtaboyev, "Riding the Yellow Giant", children's literature, fantasy, realism, Botir's character, Yellow Giant, educational significance.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается знаменитая повесть Худайберди Тухтабоева «Скачущим на жёлтом дэве». Анализируются художественные и идейные особенности произведения, раскрываются мечты и фантазии главного героя Ботира, а также его жизненные впечатления. Образ жёлтого дэва истолковывается как символ детского воображения. Подчёркивается воспитательное и эстетическое значение повести. В результате исследования установлено, что произведение играет важную роль в формировании у юных читателей честности, смелости и стремления к добру.

Ключевые слова: Худайберди Тухтабоев, «Скачущим на жёлтом дэве», детская литература, фантазия, реализм, образ Ботира, жёлтый дэв, воспитательное значение.

Xudoyberdi To'xtaboyev — o'zbek bolalar adabiyotining muhim namoyandalardan biri bo'lib, uning ijodi milliy xususiyatlarni saqlagan holda bolalar ruhiyatini chuqur anglashga yo'naltirilgan. To'xtaboyev asarlari orqali bolalar dunyosining orzu-umidlari, qahramonlik idealari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlari badiiy jihatdan boy va samimiy ifoda etiladi. Shu nuqtai nazardan, muallifning "Sariq devni minib" qissasi o'zbek bolalar adabiyotida alohida o'rin tutadi va yosh kitobxonlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.^[45]

"Sariq devni minib" qissasi — realizm va fantastika elementlarini uyg'un holda birlashtirgan badiiy asar bo'lib, unda bosh qahramon Botirning ichki dunyosi, orzu-intilishlari va hayotiy tajribalari orqali bolalarning axloqiy-axloqiy tarbiyasi, jamiyat bilan munosabati hamda ma'naviy qadriyatlar chizgilari yoritiladi. Muallif asarda xayoliy obraz — sariq dev bilan real hayot sahnalari (maktab, oila, mahalla)ni o'tkir badiiy qarama-qarshilik va uyg'unlikda tasvirlaydi. Bu jihatlar asarni nafaqat badiiy, balki pedagogik nuqtai nazardan ham qimmatli qiladi. Qissaning bosh qahramoni Botir ismli bola.^[46] U oddiy oilada voyaga yetmoqda, ammo uning qalbi juda boy fantaziyaga ega. Botirning asosiy orzusi – odamlarni yovuzlikdan, adolatsizlikdan himoya qilish va ularga yaxshilik qilishdir. Shu orzular uni xayoliy dunyoga yetaklaydi.

Botir sariq dev bilan uchrashadi. Sariq dev odatiy ertaklardagi yovuz qahramon emas, balki bola orzularining ramziy ifodasi sifatida gavdalanadi. Bu obraz orqali muallif insonning ichki dunyosida mavjud bo'lgan kuch-qudrat, jasorat va orzu-intilishlarni ifodalaydi. Maktab darsliklarini o'zlashtirishga anchagina sust Hoshimjonning eng yomon ko'rgan algebra darsida o'qituvchi Qobilovning o'quvchilarga nisbatan talabchanligi qahramonni ko'p qiynar, hamisha o'rtog'i Orifdan uy vazifalarini dakki eshitmaslik uchun ko'chirar, algebra fanini esa maktab darsliklari qatoridan olib tashlanishini chin dildan xohlar edi. "Darsda Qobilovning nazariga tushgach, o'qituvchining savol bilan murojaatiga Hoshimjonning yakka-yu yagona najotkori Orifning bu galgi shivirlashi yaxshi eshitilmaganligidan "teng" so'zi o'rniga "eng" deb aytishi butun sinfning gurillab kulishiga zamin yaratdi". Eng qizig'i shundaki, Hoshimjonning o'zi ham sinfga qo'shib mazza qilib kuladi, lekin shu fursatda butun sinfning kayfiyati ko'tarilishiga sababchi bo'lganini qahramonimiz bilmas edi. Shunchaki, Hoshimjon hech qaysi fandan a'lo o'qimay turib ham, biror

⁴⁵To'xtaboyev X. Sariq devni minib. — Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1970.

⁴⁶Karimov N. O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2005.

kasbni egallashiga qattiq ishonardi va shuning uchun ham darslarni o'zlashtirishga qiziqishi yo'q edi, xolos. Romanning yana bir shunday hajviyali voqeasi borki, buni asarning kulminiatsion nuqtasi deya aytish mumkin. "Katta odam bo'lish maqsadida uyidan bosh olib chiqib ketgan qahramonimiz, sehrli qalpoqchasi ko'magi bilan Mirzacho'ldagi katta brigadaga agronomlik qilayotib, paxtazorlarni aylanib yurgan bir paytda qo'llarini bir-biriga pahas qilib bahslashayotgan ishchilarga duch keladi va ular Hoshimjondan kompost haqida ma'lumot berishini so'raydi." Agronomlik bo'yicha hech qanday bilimga ega bo'lmagan qahramonimiz kompost o'miga mevalardan tayyorlanadigan kompot haqida maruza qilishni boshlagach, ishchilar davrasida kulgi ko'tariladi, Hoshimjon ham ularga qo'shilib qah-qah otib kuladi, afsuski bu safar ham odamlar o'rtasida mazah bo'lganini Hoshimjonning o'zi ham bilmaydi. Katta davrada so'ralgan mavzudan tashqari maruza qilish kulgili holat, albatta, Bu parcha orqali yozuvchi Hoshimjonning eng asosiy kamchigi, ya'ni uquvsizligidan kulib, uni tanqid qiladi va holatga yumoristik tarafdin yondashih, qahramonimizdagi hu muqsonni hartarat' etishga harakat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, asarga ishlangan teleko'rsatuvda xuddi mana shu parcha orqali ko'pchilik tomoshabinlar romanni esga olishadi.^[47] Maqsadiga erishish yo'lida harakatdan charchamaydigan Hoshimjon bu gal qalpoqchasi ko'magida injenerlik kasbini egallab, "ajoyib" bir binoni qad ko'tartiradi. Bu ko'p qavatli binoning g'aroyibli shundaki: kanalizatsiyasi o'matilmagan, yo'lga ko'ndalang qurilgan va eng asosiysi gugurt qutisi kabi hech bir xonaga eshik qo'yilmagan edi. Bu holatdan qabul marosimiga kelgan odamlarning qah-qahasi osmonni larzaga keltirardi. Hoshimjonning bilimsizligi orqasidan bunyod qilingan bu binoni tasavvur qilishning o'zi inson yuziga tabassum olib keladi. Xudoyberdi To'xtaboyev hech bir tomondan ijtimoiy hayotga mutanosib bo'lmagan bu voqea orqali asarga hazil ruhini kiritadi va bolalarcha tasavvur olamiga bir muddat sayohat qilishga undaydi.^[48]

Asarda Botirning ota-onasi, maktabdosh do'stlari, mahalladoshlari obrazlari ham muhim rol o'ynaydi. Ularning xarakteri orqali muallif jamiyatdagi turli ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni tasvirlaydi. Masalan, ayrim qahramonlarning dangasalik, xudbinlik yoki yolg'onchilik kabi illatlari Botirning halolligi va beg'uborligi bilan qarama-qarshi qo'yiladi.^[49]

Badiiy xususiyatlari va obrazlar tahlili

⁴⁷ To'xtaboyev X. Sarii devni minib. Roman. Toshkent "Yangi asr avlodi", 2010. 33-bet.

⁴⁸ To'xtaboyev X. Sarii devni minib. Roman. - Toshkent "Global books". 2021. 10-bet.

⁴⁹ Normatov U. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2008.

•Fantastik elementlar – sariq dev obrazida bola orzulari, fantaziyasi gavdalanadi. Bu o'quvchini qiziqtiribgina qolmay, uni xayoliy sayohatga chorlaydi.

•Realistik tasvir – Botirning maktabdagi hayoti, oilaviy muhit va mahalla hayoti oddiy voqelik asosida berilgan. Shu sababli asar kitobxon uchun yaqin va tushunarli.

•Botir obrazi – halollik, orzularining buyukligi, xayolparastlik vahalolligi, ota-onasining mehribonligi, do'stlarining samimiyligi orqali kitobxon yaxshi-yomonni ajrata oladi.

Fantastik obrazlar — sariq dev orqali bola orzulari va xayollari ifodalanadi. U orzu va kuchning ramzi bo'lib xizmat qiladi.

Realistik tasvirlar — Botirning oilasi, maktabdagi o'qishlari, qo'shnilar bilan muloqoti, do'stlari hayoti aniq va hayotiy detallar bilan tasvirlanadi.^[50]

Til va uslub — yozuvchi sodda, ravon, bolalarga tushunarli til ishlatgan. Shu bilan birga, asar kattalar uchun ham qiziqarli va ibratli. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" qissasi o'zbek bolalar adabiyotining durdonalaridan biridir. Asarda bolalarning orzu va xayollari, ularning hayotiy muammolari va ezgulikka intilishi yorqin badiiy tasvirlangan.

Yozuvchi qahramonning fantaziya dunyosi orqali yosh kitobxonlarni halollik, adolat, jasurlik va mehr-shafqat kabi yuksak fazilatlarni qadrlashga undaydi. Bugungi kunda ham ushbu asar yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni orzu qilishga, ezgulikka intilishga va yomonlikka qarshi kurashishga chaqiradi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. — Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1970.
2. Karimov N. O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2005.
3. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Roman. Toshkent "Yangi asr avlodi", 2010. 33-bet.
4. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Roman. - Toshkent "Global books". 2021. 10-bet
5. Normatov U. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2008.
6. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti materiallari.
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xudoyberdi-to-xtaboyev-1933/xudoyberdi-to-xtaboyev-sariq-devni-minib-roman>
8. <https://mutolaa.com/uz/book/sariq-devni-minib>

⁵⁰G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti materiallari.

TILNING LEKSIK QATLAMLARI**ODILOV MUHAMMADSODIQ,**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail:muhammadsodiqodilov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining leksik qatlamlari, ularning shakllanish jarayoni, ijtimoiy hayotdagi o'rni va nutq madaniyatiga ta'siri haqida batafsil fikr yuritiladi. So'z boyligining milliy til taraqqiyotidagi ahamiyati, leksik qatlamlarning ichki tuzilishi, ular orasidagi farq va o'xshashliklar, tarixiy hamda zamonaviy jarayonlar misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: leksika, qatlam, so'z boyligi, o'zlashma so'z, tarixiy so'z, neologizm, dialekt, termin.

Annotation. This article provides a detailed analysis of the lexical layers of the Uzbek language, their historical development, role in society, and influence on speech culture. The importance of vocabulary in the development of the national language, differences and similarities between lexical layers, and the impact of historical and modern processes are highlighted through examples.

Key words: lexicon, layer, vocabulary, borrowed word, historical word, neologism, dialect, terminology.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi.

O'zbek xalqi qardosh bo'lmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada bo'ldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

Tilning eng muhim tarkibiy qismi – bu uning leksikasidir. So'z boyligi xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etadi. Har bir davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti, ilm-fan taraqqiyoti eng avvalo tilning leksik qatlamlarida o'z

aksini

topadi.

O'zbek tili dunyoning qadimiy va boy tillaridan biri bo'lib, uning lug'at boyligi ming yillar davomida shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan. Leksik qatlamlarni o'rganish tilshunoslik uchun muhim bo'lishi bilan birga, milliy madaniyatni anglash va kelajak avlodga yetkazishda ham beqiyos ahamiyatga ega.

O'zbek tilining eng qadimiy va asosiy qatlamini o'z qatlam so'zlari tashkil qiladi. Ular xalqning kundalik hayoti, turmushi, tabiat, mehnat jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan: ona, ota, bola, suv, yer, osmon, qo'l, ko'z. Bu so'zlar tilning ildizi sifatida qadimiy davrlardan buyon qo'llanilib kelmoqda va xalqning ma'naviy olamida o'chmas iz qoldirgan. Tilning lug'at tarkibi qatlamlarga ajralishi – uning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida ko'plab xalqlar bilan aloqada bo'lgani tufayli tilimizga turli davrlarda boshqa tillardan so'zlar kirib kelgan. Ularni o'zlashma so'zlar deyiladi.

- Arab tilidan: ilm, adab, daftar, qalam, maktab, xat.
- Fors-tojik tilidan: daryo, gul, daftar, bazm, kitob.
- Rus tilidan: zavod, samolyot, parovoz, telefon.
- Ingliz tilidan (zamonaviy): kompyuter, internet, skaner.

Bu so'zlar o'zbek tilining boyishini ta'minlagan va uni ilm-fan, madaniyat, siyosiy munosabatlarda keng qo'llash imkonini yaratgan.

Til taraqqiyoti jarayonida ayrim so'zlar faol qo'llanishdan chiqadi. Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalentiga, sinonimiga ega bo'lgan so'zlarga arxaizmlar deyiladi. Masalan: bek, amir, lashkar, xon, to'qmoq.

Bunday so'zlar bugungi nutqda kamdan-kam ishlatilsa-da, xalq tarixini, adabiyotini va o'tmish madaniyatini o'rganishda juda muhim manbadir. Ular asosan badiiy asarlarda, tarixiy tadqiqotlarda uchraydi. Istorizmida predmet ham, nomi ham eskirgan bo'ladi, arxaizmida esa predmet yoki hodisa zamonaviy bo'lib, ning utiish nomi eskiradi. Natijada, predmet yoki hodisa Yangi bilan yuritiladi. Tilda so'zlarning arxaiklashishi asta sekin amalga oshadi, Arxaizmlarning zamonaviy dublet (sinonim)i bu so'z ustidan funksional-normativ jihatidan g'olib chiqqan so'zdir. Jamiyatning har bir yangi bosqichi tilga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Neologizmlar – yangi paydo bo'lgan so'zlar. Ular, asosan, fan-texnika, axborot texnologiyalari, siyosiy va madaniy jarayonlar natijasida vujudga keladi. Masalan: dron, onlayn, kompyuterlashtirish, startap, smartfon. Neologizmlar tilning yangilanishi va boyib borishini ta'minlaydi.

O'zbek tili hududiy jihatdan keng tarqalganligi sababli turli sheva va lahjalarda turli xil so'zlar qo'llanadi. Masalan:

- Andijon shevasida qovun o'rniga qavun deyiladi.
- Samarqandda savzi o'rniga sabzi.
- Xorazmda baldoq o'rniga halqa.

Dialektal so'zlar adabiy til uchun asos bo'la olmasa-da, ular xalqning boy ma'naviy merosini, hududiy rang-barangligini saqlab qoladi. Tilning muhim qatlamlaridan biri – terminologiya. Ilm-fan, texnika, siyosat, iqtisodiyot kabi sohalar o'z terminlariga ega. Masalan, fizika va matematika sohasida: tezlik, quvvat, radius, integral, huquqshunoslikda: konstitutsiya, sud, qonun.

Shuningdek, leksik qatlamlar uslubiy jihatdan ham ajralib turadi:

- Badiiy leksika – obrazlilikni kuchaytiradi.
- Ilmiy leksika – aniq va xolis bo'lishi bilan farqlanadi.
- Rasmiy leksika – hujjatchilik tilida qo'llaniladi.

Leksik qatlamlarning mavjudligi tilning boyligi va imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Ular jamiyatning har bir bosqichida muhim rol o'ynaydi:

- o'z qatlam so'zlari milliylikni saqlaydi;
- o'zlashma so'zlar madaniy aloqalarni kuchaytiradi;
- tarixiy so'zlar milliy o'tmishni eslatadi;
- neologizmlar zamonaviylikni ta'minlaydi;
- dialektal so'zlar xalqning hududiy xilma-xilligini ifodalaydi.

O'zbek tili leksikasidagi so'zlar turli tarixiy davrlar, jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy guruhlarining tili bilan bog'liq holda shakllanadi.

O'zbek tilining leksik qatlamlari xalqimizning boy madaniy merosi va tarixini, zamonaviy hayotini o'zida mujassam etadi. Har bir qatlam alohida o'ringa ega bo'lib, tilning boyishi, rivojlanishi va yangilanishiga xizmat qiladi. Leksik qatlamlar nafaqat tilning ichki tizimini, balki xalqning madaniyati va tafakkurini ham aks ettiradi. Shunday ekan, leksik qatlamlarni o'rganish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va to'g'ri qo'llash tilimizni yanada yuksaltirish, milliy o'zligimizni mustahkamlash va kelajak avlodga to'liq yetkazish uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: O'ME, 2013yil. 56-bet
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: 2009 yil. B-112.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: Fan va texnologiyalar, 2009 yil
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Universitet, 2006.

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YONDASHUVLARI.

R.X.Nosirova

CHDPU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti, PHD

Olimova Z.M

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Jiyanova G.N

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlarining ahamiyati yoritiladi. Bolalarning nutqiy kompetensiyasini yondashuvlarning o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bola nutqi, nutqiy rivojlanish, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, nutqiy kompetensiya.

Annotation: This article highlights the importance of modern linguistic approaches in developing the speech of preschool children. The role of these approaches in shaping children's speech competence is analyzed based on scientific sources.

Keywords: preschool education, child speech, speech development, psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, speech competence.

Аннотация: В данной статье раскрывается значение современных лингвистических подходов в развитии речи детей дошкольного возраста. Роль этих подходов в формировании речевой компетенции детей анализируется на основе научных источников.

Ключевые слова: дошкольное образование, речь ребёнка, речевое развитие, психолингвистика, социолингвистика, когнитивная лингвистика, речевая компетенция.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, biz asosiy maqsadimizni yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga qaratmog'imiz darkor. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk va barkamol avlod tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va zamonaviy, huquqiy hamda ijtimoiy bilimlarni egallashlariga

pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhitni yaratib bera olish masalalari haqida bo'lajak tarbiyachilarga har tomonlama bilimlar berish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yurtboshimizning 2019 yil 8-maydagi PQ-4312-SON qarorida "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" kontseptsiyasini ishlab chiqildi. kontseptsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning nutqiy rivojlanishida poydevor bosqich hisoblanadi. Shu jarayonda bola nutqi faqat lingvistik omillar emas, balki psixologik, ijtimoiy va kognitiv omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va amaliyotda samarali usullarni joriy etishga yordam beradi.

Birinchidan, psixolingvistika yondashuvi bola nutqining rivojlanishini psixik jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy mashg'ulotlarini ularning psixologik xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi. Masalan, tasvirli materiallardan foydalanish, rol o'yinlar orqali nutqni rivojlantirish samarali natija beradi.

Ikkinchidan, sotsiolingvistika yondashuvi bola nutqining rivojida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatadi. Oila va tarbiyachilar bilan muloqot, tengdoshlar bilan o'yin jarayonida muloqot qilish bolalarning lug'at boyligini kengaytiradi va nutqiy faoliyatini faollashtiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'zaro muloqotga asoslangan interaktiv metodlarni qo'llash zarur.

Uchinchidan, kognitiv lingvistika bola tafakkuri va idroki bilan nutqiy jarayonlarning bog'liqligini tahlil qiladi. Bu yondashuv orqali bolalarga turli predmet va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va izohlash topshiriqlari berilib, ularning lug'at boyligi va tafakkur doirasi kengaytiriladi. Masalan, tabiat hodisalari yoki hayvonot olamiga oid mashg'ulotlar bolalarning yangi so'zlarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlamning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir».

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik metodlarning qo'llanilishi ilmiy yangilik sifatida ko'rsatildi. Xususan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari, rolli o'yinlar, klaster va aqliy hujum usullari orqali bolalarning lug'at boyligi kengayishi, mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari shakllanishi tahlil qilindi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistika, sotsiolingvistika va kognitiv asoslar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning nutqiy kompetensiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va o'z fikrini ifodalash malakasini shakllantiradi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy lingvistik yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2018.
3. Karimova M. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. G'ulomova X., Jo'rayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.

O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI**OLLOYOROVA MAFTUNA MUZAFFARBEK QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

feslegen3614@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tinish belgilari, ularning o'rni va qo'llanilish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada yozma nutqning mantiqiyliigi va ravonligini ta'minlashda, hamda, matnga ta'sirchanlik baxsh etishda tinish belgilarining roli alohida ta'kidlangan. Tinish belgilarining faqat grammatik jihatdan emas, balki uslubiy va psixolingvistik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatib berilgan. Shu bilan birgalikda bu mavzuni samarali tarzda o'quvchilarga tushuntirish, uning ahamiyatini yetkazib berish kabi masalalar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: tinish belgilari, nuqta, vergul, so'roq belgisi, undov belgisi, nutq, ta'sir.

Abstract. This scientific article discusses punctuation marks in the modern Uzbek literary language, their role and features of use. The article also emphasizes the role of punctuation marks in ensuring the logic and fluency of written speech, as well as in giving the text expressiveness. It is shown that punctuation marks are important not only grammatically, but also stylistically and psycholinguistically. At the same time, there are issues such as effectively explaining this topic to students and conveying its importance.

Keywords: punctuation marks, period, comma, question mark, exclamation mark, speech, impact.

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются знаки препинания в современном узбекском литературном языке, их роль и особенности использования. Также подчёркивается роль знаков препинания в обеспечении логичности и связности письменной речи, а также в придании тексту выразительности. Показано, что знаки препинания имеют не только грамматическое, но и стилистическое, и психолингвистическое значение. В то же время существуют такие проблемы, как эффективное объяснение этой темы учащимся и донесение ее важности.

Ключевые слова: знаки препинания, точка, запятая, вопросительный знак, восклицательный знак, речь, воздействие.

Til tizimida tinish belgilarining o'rni beqiyosdir. Yozma nutqning ravonligi, mantiqiyligi va tushunarligini ta'minlashda ularning roli juda katta. Chunki ular orqali matnda fikrning tugallanganligi, davomiyligi yoki ohangiy bo'yoqlari ifodalanadi. Shu bois, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash nutq madaniyatining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bittagina tinish belgi orqali butun bir gapning mazmuni o'zgarib ketishi ham mumkin. Shu sababdan tinish belgilarini to'g'ri qo'llashni o'rganish va uni o'quvchilarga tushuntirish ham juda muhimdir.

O'zbek tilida quyidagi tinish belgilari mavjud:

1. Nuqta
2. Vergul
3. So'roq
4. Undov
5. Nuqtali vergul
6. Ikki nuqta
7. Ko'p nuqta
8. Qo'shtirnoq
9. Tire
10. Qavs

Har bir tinish belgining o'zi bajaradigan muayyan vazifalari bor. Nuqta tinch ohangda aytilgan darak, buyruq va ba'zan undov gaplarni oxirida, qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki birinchi qismidan keyin ishlatiladi. Vergul uyushuq bo'laklar orasida, undalmalarni ajratish uchun ishlatiladi. So'roq belgisi so'roq ohanggi bilan aytilgan gaplardan keyin, so'roq olmoshlaridan keyin, agar gapda tushunarsiz so'zlar bo'lsa qavs ichida shu so'zdan keyin ishlatiladi. Undov belgisi kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan keyin, buyruq, istak va kuchli xohishni ifodalagan so'zlardan keyin ishlatiladi. Nuqtali vergul esa o'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklarda, ba'zan qo'shma gaplar orasida ham ishlatiladi. Ikki nuqta uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin, ko'chma gaplardan oldin kelgan muallif gapdan so'ng ishlatiladi. Ko'p nuqta mazmunan tugallanmay qolgan gaplarda, asarlarda jimlikni va duduqlanishni ifodalash uchun ishlatiladi. Qo'shtirnoq belgisi asar nomlarini yozganda, ko'chirma gaplarda ishlatiladi. Tire belgisi ot, son, olmosh, harakat nomi bilan ifodalanib hamda kesim bilan bog'lamsiz birikkan ega bilan kesim orasida, ajratilgan bo'laklar bilan izohlanmish orasida, muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida, zid ma'noli gaplar

orasida ishlatilsa, qavs ifodalanayotgan fikr yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki iboralarni yozishda qo'llaniladi.

Tinish belgilari bizga qayerlarda kerak va unlarning to'g'ri qo'llanilishi biz uchun qanchalik muhim? Tinish belgilari bizga avvalo, fikrlarimizni yozma shaklda yanayam to'g'ri ifoda eta olishimiz uchun, rasmiy matn va xabarlar bilan ishlashimiz uchun, badiiy asarlar mazmunini kitobxonga to'g'ri, aniq hamda ta'sirchan shaklda yetkazib berish uchun, o'quvchi yoshlar savodxonligini oshirish uchun ham kerakdir. Tinish belgilarining to'g'ri qo'llanilishi shuning uchun ham muhimki, bittagina tinish belgisi orqali butun bir gap mazmuni o'zgarib ketishi mumkin. Biz og'zaki nutqimizda his-tuyg'ularimizni mimikalarimiz yoki hatti-harakatlarimiz yordamida ko'rsatib berishimiz mumkin. Yozma matnlarda esa bu vazifani tinish belgilari bajaradi. Rasmiy matnlar yoki rasmiy hujjatlar o'z nomi bilan rasmiydir. Ularda imlo yoki tinish belgilari bilan bog'liq xatolar bo'lmasligi juda muhim. Tinish belgilari badiiy adabiyotda va yozuvchi adibalarimiz uchun juda muhim hisoblanadi. Aytib o'tganimizdek og'zaki nutqda ifodalanayotgan tuyg'ularni ko'rib, his qilishimiz mumkin. Xo'sh, bu jarayon badiiy adabiyotda, badiiy asarlarda, she'rlarda qanday tushuniladi yoki qanday ifodalanadi? Albatta, tinish belgilari yordamida. Badiiy asarda darak gaplarni nuqta, biror narsani so'rash ohangini, sodir bo'layotgan voqealarga ishona olmaslik, kuchli hayrat bilan so'rash yoki shok holatini ifodalash uchun so'roq belgisi, sukunat, xayolga cho'mish kabi holatlarni esa ko'p nuqta yordamida ifodalaymiz. Bunday misollarni biz ko'plab keltirishimiz mumkin.

Tinish belgilari va ularni to'g'ri qo'llash qanchalik muhim bo'lsa, ularni o'quvchi yoshlarga o'qitish ham shunchalik muhimdir. Negaki maktab davridan bu mavzu chuqur o'zlashtirilsa yoshlarning nutqi ravon, savodxonligi yuqori va o'zini yozma tarzda ifodalashi shunchalik yaxshi bo'ladi. O'quvchi yoshlarda punktuatsiya malakasini rivojlantirish oddiy qoidalarni yodlash bilan cheklanmaydi. Ularni ongli ravishda qo'llashga o'rgatish uchun turli metodlardan foydalanish lozim. Masalan, amaliy topshiriqlar, taqqoslash va tahlil metodi, ijodiy topshiriqlar va texnologik yondashuvlar yordamida. Amaliy topshiriqlarda o'quvchilar yozma mashqlar bajarishadi va tinish belgilarini to'g'ri qo'llashi kerak bo'ladi. Taqqoslash va tahlil metodlarida esa ikkita matn beriladi. Bittasi tinish belgilari bilan to'liq yozilgan, ikkinchisi esa tinish belgilarisiz yozilgan. O'quvchilar ushbu ikkita matnni og'zaki tarzda o'qib taqqoslashadi. Bu orqali esa matnda tinish belgilarining ahamiyatini yaqqol sezishimiz mumkin bo'ladi. Keyingisi ijodiy topshiriqlar. Ijodiy topshirlarda o'quvchilar badiiy asarlardan parchalar o'qishadi va ularda tinish belgilarining ishlatilishiga e'tibor qaratishadi. Eng asosiysi va oxirgisi bu texnologik yondashuvlar

yordamida tinish belgilarini o'qitish va o'qish. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan zamonda kompyuter,elektron slaydlar, tinish belgilari mavzusi alohida tushintirilgan videodarsliklardan foydalanib dars o'tish juda samarali natijalarni beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tinish belgilarining o'zbek tilidagi ahamiyati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: grammatik vosita sifatida – gaplarning tuzilishini aniqlash, bo'laklarni ajratish va tugallashda; uslubiy vosita sifatida – matnga emotsional bo'yoq, ta'sirchanlik va estetik jilo berishda. Demak, punktuatsiya qoidalarini mukammal bilish va ularni to'g'ri qo'llash nafaqat yozuvchi, balki har bir o'quvchi, talaba va mutaxassis uchun ham dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
2. Asqarova M. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Meliyeva S. O'zbek tilida punktuatsiya va uning o'qitilishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Tinish belgilar" maqolasi. – Toshkent: OME, 2002.
5. Karimov M. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
6. Qodirova M., Usmonova D. O'zbek tili metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

ORAZBAYEV AYBEK YERJAN O'G'LI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti Gid hamrohligi

tarjimonlik faoliyati 4-kurs talabsi

aybekorazbayev430@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashina tarjimasining afzalliklari va kamchiliklari yoritildi. Uning tezlik, qulaylik va ko'p tillilik kabi ustunliklari qayd etiladi. Shu bilan birga kontekstni tushunmaslikdagi cheklovlar ham tahlil qilinadi. Xulosa sifatida mashina tarjimasini inson tarjimasini to'liq almashtira olmasligi, ammo kelajakda sun'iy intellekt rivoji bilan takomillashishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Mashina tarjimasini, sun'iy intellekt, tezlik, qulaylik, kontekst, ko'p tillilik, ijodkorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются преимущества и недостатки машинного перевода. Отмечаются такие его достоинства, как скорость, удобство и многоязычность. Вместе с тем анализируются и ограничения – неспособность учитывать контекст и трудности при передаче культурных реалий. В заключение подчеркивается, что машинный перевод не может полностью заменить человеческий, однако с развитием искусственного интеллекта в будущем он будет совершенствоваться.

Ключевые слова: Машинный перевод, искусственный интеллект, скорость, удобство, контекст, многоязычие, креативность.

Abstract: The article discusses the advantages and disadvantages of machine translation. Its strengths, such as speed, convenience and multilingual support, are highlighted. At the same time, limitations are analyzed - including the inability to fully grasp context and difficulties in conveying cultural realities. In conclusion, it is emphasized that machine translation can not completely replace human translation, but with the development of artificial intelligence, it is expected to improve in the future.

Keywords: Machine translation, artificial intelligence, speed, convenience, context, multilingualism, creativity.

Hozirgi globalashuv jarayonida turli tillar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish ehtiyoji yanada ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan mashina tarjimasini texnologiyalari

bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda . Sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi asosida ishlovchi dasturlar tarjimonlik jarayonini tezlashtirish , xarajatlarni kamaytirish va ko'proq insonlar uchun ma'lumotlarga keng kirish imkonini bermoqda. Ammo , shunga qaramay, mashina tarjimasining o'ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham mavjud. Mazkur maqola zamonaviy mashina tarjimasining afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot beradi.

Mashina tarjimasining afzalliklaridan biri bu - tezlik. Mashina tarjimasi inson tarjimasiga qaraganda bir necha baravar tez ishlaydi. U birnecha soniya ichida kata hajmdagi matnni tarjima qilib bera oladi. Bu inson tarjimonga nisbatan bir necha baravar tezroq natija olish imkonini beradi. Masalan : xalqaro kompaniyalar har kuni minglab xat yoki hujjatlarni tarjima qilishi kerak bo'ladi. Mashina tarjimasi vaqt tejaydi va ish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Internet mavjud bo'lgan har qanday joyda va istalgan vaqtda foydalanish mumkin . Bu esa o'quvchilar yoki tadqiqotchilar uchun juda kata imkoniyat yaratadi. Internetda maqola o'qiyotgan yoki ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy tilga duch kelganda , bir tugma orqali tarjima qilishi mumkin.

Dasturlar bepul yoki arzon narxda taqdim etiladi. Bu keng ommaga qulay imkoniyat yaratadi . Professional inson tarjimonga murojaat qilish esa ancha qimmat bo'lishi mumkin . Inson tarjimon xizmatlari ko'p hollarda qimmatga tushadi , ayniqsa texnik yoki ilmiy matnlar bo'lsa .

Mashina tarjima dasturlari bir vaqtning o'zida o'nlab , hatto yuzlab tillarda xizmat ko'rsatadi. Bitta inson tarjimon esa odatda 2-3 tilni mukammal bilishi mumkin . Shu bois mashina tarjimasi xalqaro aloqalarni kengaytirishda katta yordam beradi.

Yangi til o'rganuvchilar uchun mashina tarjimasi so'z boyligini kengaytirish gap tuzilishini tushunish va tezkor lug'at sifatida foydalanishda yordam beradi. Mashina tarjimasining afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Quidagilarni asosiy kamchiliklari sifatida e'tirof etishimiz mumkin:

Mashina tarjimasi ba'zida grammatik jihatdan noto'g'ri yoki uslubiy jihatdan notabiiy matnlarni chiqaradi. Inson yozgan jumla odatda oqimli va mantiqan izchil bo'lsa , mashina tarjimasida gap tuzilishi tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Mashina tarjimasi jumlaning so'zma –so'z tarjima qilishga moyil. Natijada gapning umumiy ma'nosi buzilishi mumkin . Masalan , iboralar , maqollar yoki metaforalarni to'g'ri tarjima qilmaydi , chunki ular kontekstdan ajralganda boshqa ma'noga ega bo'ladi.

Sheriyatdagi ohang , ritm yo'qolib ketadi. Mualligining uslubi saqlab qolinmaydi ya'ni har bil til ma'lum bir xalqning mentaliteti , qadriyatlari va madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Mashina tarjimasi buni chuqur his qila olmaydi. Natijada matn texnik tarzda to'g'ri bo'lsa da, asl maqsad yoki ohangni yetkazib bera olmaydi.

Ilmiy,yuridik , tibbiy , matnlarni tarjima qilishda mashina ko'p hollarda muammo tug'diradi. Chunki bu sohalarda terminlar juda aniq qo'llanilishi lozim. Birgina noto'g'ri tarjima butun hujjat ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Internet yoki dasturiy ta'minotsiz ishlash imkoni bo'lmaydi . Ba'zi mashina tyarjimalari ma'lum obuna yoki to'lov talab qiladi , bu besa har doim ham qulay emas .

Onlayn tarjima xizmatlari orqali yuborilgan maxfiy hujjatlar uchunchi tomon qo'liga tushub qolishiga hech kim kafillik qila olmaydi .

Mashina tarjimasi yakuniy natija sifatida emas , balki qoralama sifatida ko'riladi. Uni albatta inson tarjimon ko'rib chiqishi , to'g'irlashi va moslashtirishi kerak. Aks holda , tarjimadan foydalanishda xatoliklar yuzaga keladi.

Mashina tarjimasi bugungi glaoballashguv jarayonida xalqlar o'rtasidagi til to'siqlarini bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etmoqda . U insoniyatga tezkorlik , qulaylik , arzonlik va ko'p tillilik kabi imkoniyatlarni taqdim etib, turli sohalarda – ta'lim, biznes , diplomatiya , turizm va kundalik hayotda qo'llanilmoqda. Ayniqsa , internet tarmog'i orqali xalqaro muloqatda mashina tarjimasi odatiy vositaga aylangan. Bu jarayon foydalanuvchilarga chet tillarini mukammal bilmasdan ham turli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini bermoqda .

Shu bilan birga , mashina tarjimasi hali mukammal darajaga yetgani yo'q . Demak , mashina tarjimasi inson tarjimonini to'liq almashtitra olmaydi. Aksincha , u tarjimon faoliyatini yengillashtiruvchi vosita , dastlabki "qoralama" sifatida ko'rilishi mumkin . Zamonaviy sun'iy intellekt rivojlanishi mashina tarjimasining sifatini asta-sekin oshirib bormoqda , biroq baribir insonning tahliliy fikrlashi , madaniy sezgirligi va ijodiy yondashuvini to'liq qoplab bera olmaydi. Kelajakda sun'iy intellektning rivojlanishi mashina tarjimasini mukammallashtirishi kutilmoqda . Ammo hozirgi bosqichda u yordamchi vosita sifatida qo'llanilganda eng samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Abdullaev H. (2019) Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent : Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Hutchins . W.J. and Somers H.L. (1992). An introduction to machine translation.

3. Koehn P.(2020) Neural machine translation.
4. Karimov N. (2020) Mashina tarjimasi va uning qo'llanilishi . Toshkent : Yangi asr avlodi.
5. Qodirov . D. (2022) Mashina tarjimasida madaniy realiyalar muammosi.

YORDAMCHI SO'ZLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIK ASOSLARI

ORTIQOVA SEVINCH SHERZOD QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

sevinchortiqova50@gmail.com

Annotatsiya: Ona tili fanida yordamchi so'zlar muayyan bir hodisa hisoblanib, fanni o'rganishda o'ziga xos o'ringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, uslubiy ravonligi bevosita yordamchi so'zlardan o'z o'rnida foydalanishga ham bog'liq. Ushbu maqolada yordamchi so'z turkumlarimi o'qitishda zamonaviy innovatsion metodlarning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yordamchi so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, o'qitish metodikasi, sodda gap, qo'shma gap, interfaol ta'lim.

Аннотация: В науке о родном языке вспомогательные слова считаются специфическим явлением и занимают особое место в изучении науки. Потому что от правильного употребления вспомогательных слов напрямую зависит богатство и стилистическая беглость нашей речи. В данной статье говорится о значении современных инновационных методов в обучении вспомогательной лексике.

Ключевые слова: вспомогательные слова, помощник, соединитель, загрузка, методика обучения, простое предложение, сложносочиненное предложение, интерактивное обучение.

Abstract: auxiliary words in the science of mother tongue are considered a specific phenomenon and have a special place in the study of the science. Because the richness and stylistic fluency of our speech directly depends on the proper use of auxiliary words. This article talks about the importance of modern innovative methods in teaching auxiliary vocabulary.

Key words: auxiliary words, helper, connector, download, teaching methodology, simple sentence, compound sentence, interactive education.

Ma'lumki, yordamchi so'zlar haqida ilk ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. Yuqori sinfda o'quvchilar gaplarni gap bo'laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni mustaqil

davom ettirish, shunday soʻzlar yordamida gaplar tuzib, bu soʻzlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shugʻullanadilar.

Yordamchi soʻzlar atash maʼnosiga ega boʻlmagan, maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydigan, gap boʻlagi vazifasida kelmaydigan soʻzlardir. Ularga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklama kiradi.

Yordamchi soʻz turkumlarini oʻrganishda quyidagi bilim, koʻnikma va malakalar oʻquvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi soʻzning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- yordamchi soʻzlarning bir-biridan va mustaqil soʻzlardan farqini ajrata bilish;
- ularni ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri, uslubiy jihatdan oʻrinli qoʻllay olish.

Oʻquvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyalar afzalligi zamon sinovidan oʻtib interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi oʻz isbotini topmoqda.

Yordamchi soʻzlarning muhim qismini bogʻlovchilar tashkil etadi. Bu soʻzlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini oʻzaro biriktirib, bitta gapda aylantirish, ularning oʻzaro bogʻlanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bogʻlovchilarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, teng bogʻlovchilar va ergashtiruvchi bogʻlovchilar roʻyxatini tuzish, ular yordamida gaplar koʻrish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Mazkur mavzuni oʻrganishda ohang va bogʻlovchilarning oʻzaro vazifadoshligi ustida ishlashni unutmaslik lozim.

Gapning uyushiq boʻlaklari va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga bogʻlovchilar deyiladi: Olma, oʻrik va gilos gulladi. U keldi lekin indamadi. Havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi.

Maʼno va vazifalariga koʻra bogʻlovchilar 2 xil boʻladi:

Teng bogʻlovchilar – uyushiq boʻlaklarni hamda, bogʻlangan qoʻshma gap qismlarini yaʼni teng huquqli qismlarni bogʻlaydi. Ular 4 xil:

Biriktiruv bogʻlovchilari – va, hamda, ham - sof bogʻlovchilardir; -da, -u, -yu, bilan vazifadosh bogʻlovchilardir. -da, -u, -yu - yuklama – bogʻlovchilar; bilan – koʻmakchi - bogʻlovchidir: Opam bilan singlim keldi – bogʻlovchi; Opam singlim bilan keldi – bogʻlovchi emas, koʻmakchi.

Zidlov bogʻlovchilari – ammo, lekin, biroq, balki: havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi. U oʻqidi, lekin tushunmadi.

-u, -yu vazifadosh zidlov bogʻlovchisidir: Qoʻngʻiroq chalindi-yu , dars boshlanmadi. Balki – vazifadosh bogʻlovchi boʻlib, gapda baʼzan modal soʻz?

ba'zan zidlov bog'lovchisi sifatida qo'llanadi. Qiyos qiling: Bu xabar uni hayron qoldirmadi, balki shodlantirdi. Balki, bugun yomg'ir yog'ar.

Ayiruv bog'lovchilari- goh, dam, ba'zan, bir – doim takrorlanib qo'llanuvchi bog'lovchilardir. Yo, yoki – sodda va takror holda qo'llanuvchi bog'lovchidir: Dam musiqa yangraydi, dam kulgi eshitiladi. Bir menga, bir do'stiga qaraydi. Ayiruv bog'lovchilari galma-galdan yuzaga keladigan voqea-hodisalarni ko'rsatadi.

Inkor bog'lovchisi- na... na. Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'laydi: na o'qidi, na yozdi. Bunda gapning kesimi tasdiq, shaklida bo'ladi. Na bog'lovchisi inkor ma'nosini ifodalaydi: Na eshikni, na derazalarni ochdi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar-tobe, hokim qismlarni, o'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'laklari va gaplarni bog'laydi: Hunar o'rgan, chunki hunarda sir ko'p. Ular 3 xil.

1. Aniqlovchi bog'lovchilar – ki, ya'ni
2. Sabab bog'lovchilari - *chunki, negaki, toki*
3. Shart bog'lovchilari – *basharti, agar, garchi*.

Ma'lumki, yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Bunda asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Endi fan mavzulari darsliklardan bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda joy oladi.

6-sinf ona tili darsligida yordamchi so'zlar haqidagi ma'lumotlar berilgan. "Jigar – eng mehnatkash a'zo" mavzusi bo'yicha berilgan topshiriqlar o'quvchilar ijodiy tafakkuri va bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan. "Qontomirlar" audiomatni tinglanib, savollarga javob beriladi. Unda mustaqil so'zlarni bir-biriga bog'lagan so'zlar aniqlanadi va daftarga yoziladi.

Keyingi topshiriqda ikki ustunda berilgan sodda gaplardan bog'lovchilar asosida qo'shma gaplar hosil qilinadi. *Masalan: Yog'li taomlar va gazli ichimliklar iste'mol qilishni kamaytirish zarur, chunki bunday mahsulotlar sog'ligingiz uchun juda zararli.* Ushbu topshiriq o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga o'z sog'liklarini asrash uchun ham kerakli tavsiyalar beradi.

Bog'lovchilarni o'rganishda ham so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish asosiy talab hisoblanadi.

Yordamchi so'zlarni maktab o'quvchilariga o'qitishning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Yordamchi birliklarning keng ma'no tabiati, xususan, uslubiy tabiati, ishlatilish doirasining u yoki bu darajadagi imkoniyatlari maktab darsligi va dasturida berilgan. Ta'lim tizimining bu bosqichida til hodisalarining qo'llanishidagi ifoda imkoniyatlariga qaratilgan ekan, demakki, o'rganish manbai bo'lgan yordamchi vositalarning ta'lim tizimida o'tish ham, o'quvchilarga mazkur hodisa bo'yicha keng bilim berish, yordamchini o'z nutqida yetarlicha qo'llay olishga, ulardan kehg foydalanishga o'rgatish bir qator kuzatishlarga zarurat sezadi. Yordamchi birliklar – so'z va qo'shimcha shakllarni ta'lim tizimida o'tish ona tili ta'limi maqsadi va mazmunining bir bo'lagi sanaladi. Bunda o'qituvchidan o'ziga xos faollik, izlanish, bilim va tadbirkorlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021.

HARBIY LEKSIKOLOGIYANING O'ZBEK IZOHLI LUG'ATIDAGI O'RNI**ORTIQOVA SEVINCH SHERZOD QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

sevinchortiqova50@gmail.com**Ilmiy rahbar:** Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining leksik boyligi tarkibida harbiy terminologiyaning o'rnini va uning "O'zbek tilining izohli lug'ati" (OTIL)da qayd etilishi tahlil qilinadi. Harbiy leksikaning izohli lug'atda aks etgan asosiy terminlar hamda ularning semantik xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, izohli lug'atning harbiy so'zlarni tartibga solish, ilmiy muomalaga kiritish va madaniy merosni saqlashdagi roli yoritiladi. Maqolada harbiy terminologiyaning izohli lug'atlardagi o'rganilish istiqbollari va maxsus terminologik lug'atlar yaratish zaruriyati ham ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: harbiy leksika, izohli lug'at, terminologiya, o'zbek tili, semantika.

Аннотация: В данной статье анализируется место военной терминологии в составе лексического богатства узбекского языка и её фиксация в «Толковом словаре узбекского языка» (ТСУЯ). Отмечаются основные военные термины, представленные в словаре, а также их семантические особенности. Кроме того, освещается роль толкового словаря в систематизации военной лексики, её введении в научный оборот и сохранении культурного наследия. В статье также подчёркиваются перспективы изучения военной терминологии в толковых словарях и необходимость создания специальных терминологических словарей.

Ключевые слова: военная лексика, толковый словарь, терминология, узбекский язык, семантика

Annotation: This article analyzes the role of military terminology within the lexical wealth of the Uzbek language and its documentation in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" (EDUL). The main military terms included in the dictionary and their semantic features are highlighted. The article also discusses the role of the explanatory dictionary in systematizing military vocabulary, introducing it into academic usage, and preserving cultural heritage. Furthermore, the perspectives of studying military terminology in explanatory dictionaries and the necessity of creating specialized terminological dictionaries are emphasized.

Keywords: military lexicon, explanatory dictionary, terminology, Uzbek language, semantics

Til – xalq tafakkuri va tarixining ko'zgusi. Xalqning ijtimoiy hayoti, tarixiy jarayonlari va madaniy qadriyatlari bevosita til birliklarida, xususan, leksik qatlamda o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy leksika o'zbek tilining qadimiy va zamonaviy qatlamlarini bog'lab turuvchi muhim unsurdir. Chunki xalqning mudofaa tarixi, jangovar hayoti, qahramonlik an'analari, shuningdek, mustaqillik davridagi harbiy islohotlar tilimizda aks etgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" – o'zbek tilining asosiy manbalaridan biri sifatida nafaqat umumxalq tili, balki turli sohalarga oid terminlarni ham qamrab oladi. Harbiy terminlar shular jumlasidan. Harbiy terminlarning izohli lug'atlarda qayd etilishi ularni ilmiy jihatdan tartibga solish, semantik xususiyatlarini ochish va tilshunoslik tadqiqotlarida foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega. "O'zbek tilining izohli lug'ati" harbiy leksik birliklarni xalq tili va tarixiy-madaniy merosning ajralmas qismi sifatida qayd etib, ularning mazmunini ilmiy jihatdan sharhlaydi. Harbiy terminlarning izohli lug'atda qayd etilishi nafaqat til tizimini boyitadi, balki milliy tarix va madaniyatni saqlash, ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois harbiy leksikani yanada kengroq tadqiq qilish va maxsus lug'atlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Harbiy leksikologiyaning izohli lug'atdagi o'rni, maqsadi va amaliy ahamiyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Harbiy leksika milliy izohli lug'atlarda joy olganda, u rasmiy-institutional til birliklari qatoriga kiradi va umumiy leksik tizim bilan bog'lanadi. Bu harbiy atamalarni termin sifatida normallashtirish va ularning adabiy-til me'yorlariga mosligini ta'minlaydi.

- Lug'at harbiy sohada ishlaydigan mutaxassislar, talabalar, o'qituvchilar va keng jamoatchilik uchun ishonchli ma'lumot manbai bo'ladi — so'zning ma'nosi, ishlatilish sohasi va stilistik rangini aniq beradi.

- Harbiy leksikaning lug'atlarda qayd etilishi uning tarixiy vazifasini ham saqlaydi — atamalar qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgani, semantik o'zgarishlari rasmiylashtiriladi.

"O'zbek tilining izohli lug'atida" keltirilgan ayrim harbiy leksikani misol tariqasida keltirishni lozim topdik:

AVANPOST [fr. *avant-poste*] Qo'shindan ilgariroqqa, dushmanga yaqin qo'yilgan soqchilar va ular egallab turgan joy.

AVAXTA [nem. *Hauptwache*] esk. s. t. qamoq uyi, qamash joyi: qamoqxonona turma. *Oq poshshoning avxtasi ham ko'p, Sibiri ham keng.* (M. Ismoilov, Farg'ona tong otguncha)

Avaxta bo'lmoq Qamoqqa olinmoq.

Avaxta qilmoq Qamoqqa olmoq, qamamoq.

AVIANOSEST [avia..+ p. носец<носитель – olib yuruvchi] Suv usti jangavor kemasi – suzuvchi aviatsiya bazasi.

AVIATSIYA [fr.aviation < lot. avis – qush] Uchish apparatlarining majmui; havo floti. *Fuqaro aviatsiyasi ; Harbiy aviatsiya.*

AVTOMAT [yun. automatos – o'zi harakatlanuvchi] Tezotar avtomatik qurol. *Bular(piyoda askarla) hammasi ham miltiq va avtomatlarni tayyor tutgan holda ro'yirost bostirib kelmoqda edi.(A.Qahhor, Oltin yulduz)*

BALLISTIKA [yun. ballo irg'ita-man, otaman] O'q, snaryad, mina, bom-ba, raketa va h.k. larning otilgan ma-haldagi harakati qonunlarini o'rganadi-gan fan. Ichki ballistika. Tashqi ballistika. Ichki va tashqi ballistika fizika matematika fanlariga suyanadi. "O'zME".

HARB-ZARB, harb-a zarb حرب - jang va zarba] Urush, jang, savash. *Kunlardan bir kun Changali Mozandaron tomondan yirtqich hay vonlar mo'r-malaxdek bostirib kelib, jonivorlar o'rtasida jang-u jadal, harb-u carb boshlanibdi. A.Muxtor, Chinor. Orang yaxshi, onang yaxshi, deb turib jon chiqar joyiga tushirish kerak: pand berolmasang o'zing pand yeysan. Harb-zarb qonuni shu. S.Anorboyev, Oqsoy.*

ISTEHKOM تحکم-mustahkamlik, mustahkamlanish; mudofaa in-shooti] 1 harb. Mudofaa, dushmandan saqlanish uchun qurilgan mustahkam to'siq, g'ov, devor, qal'a va sh.k. Harbiy istehkom. Mudofaa istehkomi. Dala is-tehkomlari. *Istehkom qurmoq. mardlar avlodi, sizdagi g'urur Po'lat nayza kabi o'tkir, bukilmas. Shungor ko'kragingiz istehkomdan zo'r. G'.G'u-lom. Toshtemir bo'linmasi zimmasiga dushman istehkomlarini portlatish vazi-fasi yuklatilgan edi. Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi. 2 Umuman, muhofaza uchun (mas., qum bo'ronidan saqlanish uchun) ishlangan qurilma*

JABHA] جبهة peshona; front, urush] 1 esk. Front oldi. *Jabhalarda hushyor tur, topmasin omon dushman. G'ayratiy. Jabhaga ketganidan Qayta kelmadi otam. Mirtemir.*

JEVA folk. Qurol-aslaha.

JAZOYIL folk. Miltiqning bir turi; kichik to'p, zambarak. *Og'zi katta jazoyillar Otildi maydon ichinda. "Erali va Sherali". Shoh kelguncha ochilmaydi darvoza, Zulm qilsang, jazovildan otaman "Rustam*

JAZOYIR] جزائرى - rolga, zoyir davlatiga aloqador] esk. 1 Qilich-ning bir turi. *Yovmut qalpoq kiyib, ja-zoyir qilich taqqan, ko'ziga qon to'lgan karvonboshi dastavval Sariqni otib o'l-dirdi. A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. [Azizbek] Tilla jabduqli qizil*

ayg 'irga mingan, quyosh yog 'dusi bilan turli tus-ga kirib tovlanadigan, yoqa va etaklariga oltin uqa tutilgan kimxob to 'n ki-yib, belidagi oltin kamarga kumush qin-li jazoyir qilich osgan bir kishi edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

JANG جنگ - urush 1 Harbiy qismlarning, qurolli kuchlarning qonli to'qnashuvi, urush. Jang qilmoq. Madad uchun yuborilgan nemis tankla-rining yo'lini bizning tanklarimiz to'sgan, soylikda tanklar jangi bo'lmoqda edi. A.Qahhor, Oltin yulduz. Shayboniy-xon hali hech qaysi jangga bunchalik jon-jahdi bilan tayyorlangan emas P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

JANGARI] جنگور "jangvar yoki جنگور - jangovar" s. dan jang qi luvchi, botir, shijoatli] 1 Urishqoq, jan-jalkash; urushga to'ymaydigan. Jangari bola. Parvo qilmanglar. Muhabbatning o'zi shunaqa jangariroq, - dedi bolasidan mehr to'la ko'zlarini uzmay Tursunoy. N.Safarov, Uzoqni ko'zlagan qiz. Jang ko'rib, qon ko'raverib, jangari bo'lib ketgan otlar asabiy kishnardi. "Saodat".

2) syujetida jang elementlari ko'p; o'tkir syujetli. Jangari film. 2012-yil-da Kolorado kinoteatrda yuz bergan otishma jangari filmlarning inson ruhi-yatiga salbiy ta'siri haqidagi bahslarga moy sepgandek bo'ldi. Gazetadan.

3) noqonuniy qurollangan jamoa a'zosi. Islom jangarilari. Afg'oniston mudofaa vazirligi mamlakat shimolida "Islom davlati" terror tashkilotining jangarilari faollashib qolgani haqida ma'lum qildi. Gazetadan.

KALIBR [fr. calibre] maxs. 1 Miltiq. to'p kabi o'qotar qurollar quvurining diametri. Miltiq kalibri. Minomyot kalibri. Zambarak kalibri.

KALIBRLAMOQ 1 Aniq o'lchamda tayyorlamoq, aniq o'lchamga keltirmoq. Zambarak stvolini kalibrlamoq.

KALIBRLI Kalibrga ega bo'lgan. Kichik kalibrli miltiq. Katta kalibrli to'p.

MAHBUS] محبوس - qamalgan qamoqqa olingan] Zindonga solingan, qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum etilgan kishi. Oradan besh kunlar o'tdi, mahbuslar zindon balosidan qutula ol-maganlaridek, ularning qamalish sirlari ham hech kimga bilinmadi. A.Qodiriy. O'tgan kunlar. Bu qishloqlarda, asosan, Rossiyadan quvg'un qilingan siyosiy mahbuslar yashardi. S.Siyoyev.

MANJANIQ] منجنيق - toshotar qurol] tar. Tosh otadigan qadimiy urush quroli. Manjaniqlardan tinmay tosh otib, katta yoylardan o'q yog'dirishdi. M.Osim, Karvon yo'llarida.

MANYOVR [fr. manoeuvre manu operor qo'l bilan ishlayman] 1 harb. Qo'shin yoki flotning dushmanga zarba berish maqsadida eng qulay vaziyatni egallash uchun qiladigan harakati; qo'shin yoki flotning taktik mashg'uloti, mashqlari. Manyovr

o'tkazish taktikasi. Faqat yaxshi o'ylanib tuzilgan manyovr bilangina dushman qarshiligi-nj städtru oldik N. Safarov, Olovli izlar

Bu tasnif so'zlarning semantik ko'lamini ko'rsatib, izohli lug'atni nafaqat tilshunoslar, balki adabiyotshunoslar, tarixchilar va harbiy mutaxassislar uchun ham manba sifatida muhim qiladi. Harbiy leksika o'zbek tili leksik boyligining muhim qatlamidir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu qatlam xalqning tarixiy-madaniy merosi va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiradi. Izohli lug'atda qayd etilgan harbiy terminlar nafaqat til boyligini tartibga soladi, balki milliy tarixni saqlash, kelajak avlodga yetkazish va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli izohli lug'atlar muntazam ravishda yangilanib borilishi, yangi harbiy terminlar tizimlashtirilib ilmiy muomalaga kiritilishi zarur. Alohida "O'zbek harbiy terminlari izohli lug'ati"ni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, harbiy leksikologiyaning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'rni juda muhim bo'lib, u milliy terminologiyani tartibga solish, adabiy til me'yorlariga moslashtirish va harbiy sohada yagona tushuncha maydonini yaratishga xizmat qiladi. Izohli lug'atlarda harbiy so'zlarning aniq va ixcham ta'riflanishi ularning ilmiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, bu leksika tarixiy-madaniy merosni saqlash, yangi atamalarni normallashtirish hamda yosh avlodda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda beqiyos vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati". 5 jildlik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
2. Jo'rayev, T. O'zbek tilida terminologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Jumaniyozov, R. Til va madaniyat uyg'unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
5. Karimov, A. Harbiy terminlarning shakllanishi va qo'llanilishi. – "Til va adabiyot" jurnali, 2020, №3.

O'ZBEK TILIDA DINIY NUTQQA XOS SO'ZLAR**OXUNOVA MUBINA ERKINJON QIZI**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

mubina.oxunova16@gmail.com**Ilmiy rahbar:** Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida diniy nutqqa xos so'zlarning lingvokulturologik, semantik va sotsiollingvistik jihatlarini tahlil etiladi. Diniy leksikaning xalq og'zaki nutqidagi o'rni, uning ma'naviy-axloqiy yukini ifodalashdagi roli hamda zamonaviy diskursdagi yangicha qo'llanish shakllari yoritilgan. Maqolada diniy so'zlarning arab, fors-tojik va o'zbek tilidan kirib kelgan qatlamlari, ularning fonetik moslashuvi va milliy madaniyatda mustahkam o'rinish qolgan shakllari misollar orqali ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Qur'on va hadis manbalaridan o'zbek tili leksik fondiga singib ketgan so'zlarning ma'naviy-falsafiy ahamiyati ham ochib berilgan. Tadqiqotda diniy iboralar va frazeologizmlarning xalq nutqidagi pragmatik funksiyasi, ularning duoviy, nasihatli va iliq muloqot shakllarini yaratishdagi o'rni alohida e'tibor bilan tahlil qilinadi. Diniy leksikaning zamonaviy til muhitida, ayniqsa yoshlar nutqida yangi shakllarda namoyon bo'layotgani maqolada lingvokulturologik yangilik sifatida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: diniy nutq, diniy leksika, o'zbek tili, lingvokulturologiya, semantika, sotsiollingvistika, diniy frazeologizmlar, Qur'on va hadis, milliy qadriyat, ma'naviylik, pragmatik funksiyalar, duoviy iboralar, diniy terminlar, fonetik moslashuv, zamonaviy diniy diskurs, iymoniy so'zlar.

Annotation: This article analyzes the linguocultural, semantic and sociolinguistic aspects of words specific to religious speech in the Uzbek language. The role of religious vocabulary in folk speech, its role in expressing its spiritual and moral burden, and new forms of use in modern discourse are highlighted. The article shows the layers of religious words that have entered from Arabic, Persian-Tajik and Uzbek, their phonetic adaptation and forms that have become firmly established in national culture through examples. The spiritual and philosophical significance of words that have entered the lexical fund of the Uzbek language from the sources of the Quran and Hadith is also revealed. The study analyzes the pragmatic function of religious

expressions and phraseologisms in folk speech, their role in creating prayerful, exhortative and warm forms of communication with special attention. The article notes as a linguocultural innovation the fact that religious vocabulary is appearing in new forms in the modern language environment, especially in the speech of young people.

Keywords: religious discourse, religious lexicon, Uzbek language, linguoculturology, semantics, sociolinguistics, religious phraseology, Quran and hadith, national values, spirituality, pragmatic functions, prayerful expressions, religious terms, phonetic adaptation, modern religious discourse, words of faith.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвокультурологические, семантические и социолингвистические аспекты лексики религиозной речи в узбекском языке. Раскрывается роль религиозной лексики в народной речи, её роль в выражении духовно-нравственного содержания и новые формы использования в современном дискурсе. В статье на примерах показаны пласты религиозной лексики, пришедшие из арабского, персидско-таджикского и узбекского языков, их фонетическая адаптация и формы, прочно укоренившиеся в национальной культуре. Также раскрывается духовно-философское значение слов, вошедших в лексический фонд узбекского языка из источников Корана и хадисов. Особое внимание уделяется прагматической функции религиозных выражений и фразеологизмов в народной речи, их роли в создании молитвенных, побудительных и тёплых форм общения. В статье отмечается как лингвокультурная инновация тот факт, что религиозная лексика появляется в новых формах в современной языковой среде, особенно в речи молодёжи.

Ключевые слова: религиозный дискурс, религиозная лексика, узбекский язык, лингвокультурология, семантика, социолингвистика, религиозная фразеология, Коран и хадисы, национальные ценности, духовность, прагматические функции, молитвенные выражения, религиозные термины, фонетическая адаптация, современный религиозный дискурс, слова веры.

Til — xalqning ruhiyati, madaniyati va dunyoqarashini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Har bir xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlari va diniy qarashlari avvalo uning tilida o'z aksini topadi. Shu ma'noda, o'zbek tilidagi diniy nutq nafaqat diniy e'tiqod bilan bog'liq so'z va iboralarni, balki xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy madaniyatini ham mujassamlashtiradi.

Diniy leksika — tildagi eng qadimiy qatlamlardan biri bo'lib, u orqali insonning Olloh, taqdir, sabr, halollik, rahm-shafqat kabi tushunchalarga munosabati ifodalanadi. O'zbek xalqi tarixan Islom dini ta'sirida yashaganligi bois, arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan ko'plab diniy so'zlar bugungi kunda ham faol ishlatilib, tilimizning

ajralmas qismiga aylangan. Imon, taqvo, sabr, duo, halol, gunoh, baraka kabi soʻzlar nafaqat diniy mazmunga ega, balki xalq nutqida axloqiy, estetik va madaniy maʼno yukiga ega birliklar sifatida ham qoʻllanadi. Bugungi globallashuv davrida diniy soʻzlar yangi kommunikativ maydonga — internet va ijtimoiy tarmoqlar muhitiga ham kirib kelmoqda. Bu jarayon diniy leksikaning yangicha, zamonaviy shakllarini vujudga keltirmoqda: “halol biznes”, “musulmon yoshlar”, “iymonli kontent” kabi iboralar diniy nutqning yangi madaniy ifoda vositalariga aylangan. Maqolada aynan shunday diniy soʻzlarning kelib chiqishi, semantik tahlili, ularning xalq nutqidagi oʻrni va zamonaviy oʻzgarishlari atroflicha yoritiladi. Shuningdek, diniy iboralar, frazeologizmlar va duoviy shakllarning oʻzbek xalqining maʼnaviy hayotidagi ahamiyati, ularning lingvokulturologik va sotsiollingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu orqali oʻzbek tilidagi diniy nutqning nafaqat til tizimidagi, balki maʼnaviy-maʼrifiy hayotdagi oʻrni ham ochib beriladi.

1. Diniy leksikaning oʻzbek tili tizimidagi oʻrni va shakllanish manbalari

Oʻzbek tili tarixan turli madaniyat va tillar bilan aloqada boʻlgan. Ayniqsa, Islom dinining kirib kelishi tilda yangi maʼnaviy qatlam — diniy leksikaning shakllanishiga sabab boʻlgan. IX–X asrlardan boshlab arab tili nafaqat diniy, balki ilmiy va maʼrifiy til sifatida ham oʻzbek xalqi hayotiga chuqur kirib keldi. Natijada “iman”, “taqvo”, “namoz”, “duo”, “sabr”, “halol”, “harom”, “taqdir”, “savob”, “gunoh” kabi oʻnlab diniy soʻzlar tilimizning faol qatlamiga aylandi. Bu soʻzlar dastlab diniy matnlarda ishlatilgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan kundalik nutqga singib, diniylik belgisini qisman yoʻqotgan. Masalan, “Taqdir shunaqa ekan” yoki “Sabr qil, albatta baraka boʻladi” degan jumlarlar bugun diniy mazmunga ega boʻlmagan holatda ham ishlatiladi. Bu holat diniy leksikaning milliylashuvi jarayonidir.

Diniy soʻzlarning yana bir qismi fors-tojik tili orqali kirib kelgan: “roʻza”, “jannat”, “jahannam”, “marhum”, “tavba”, “taʼziya” kabi soʻzlar diniy tushunchalarni yanada boyitgan. Shu bilan birga, oʻzbek xalqining oʻz diniy ifoda vositalari ham mavjud: “Allohga soldim”, “Olloh saqlasin”, “Duoyingizni ayamang” kabi iboralar xalq ogʻzaki ijodining diniy nutqqa qoʻshgan hissasidir.

2. Diniy soʻzlarning semantik tahlili va maʼnaviy yuklanishi

Oʻzbek tilidagi diniy leksika maʼnosi jihatidan oddiy soʻzlardan farq qiladi. Ular emotsional, axloqiy va maʼnaviy qiymatga ega. Misol uchun, “halol” soʻzi nafaqat “ruxsat etilgan” degan maʼnoni, balki “poklik, toʻgʻrilik, vijdonlilik” kabi maʼnaviy mazmunni ham ifodalaydi.

Ayrim diniy soʻzlar esa koʻchma maʼnoga ega boʻlib, nutqda obrazli ifoda yaratadi:

“Sabr kosasi to‘ldi” — chidash chegarasiga yetmoq;

“Gunohkor bo‘ldim” — afsus, pushaymonlikni bildirish;

“Alloh biladi” — ishning natijasi noma’lumligini ifodalash.

Shu tariqa diniy so‘zlar tilning semantik qatlamini kengaytiradi, ularni tahlil qilish orqali xalq tafakkuri va ruhiy dunyosini chuqur anglash mumkin. Bugungi kunda esa yangi diniy mazmunga ega so‘z birikmalari ham shakllanmoqda: “taqvoli hayot tarzi”, “iymonli yoshlar”, “halol kasb” kabi iboralar diniy so‘zlarning zamonaviy ma’naviy kontekstda ishlatilishidan dalolat beradi.

3. Diniy frazeologizmlar va iboralarning xalq nutqidagi o‘rni

O‘zbek xalq nutqi diniy frazeologizmlarga nihoyatda boy. Ular xalq tafakkurining diniy asosda shakllanganligidan dalolat beradi. “Alloh ko‘rsatmasin”, “Xudo asrasin”, “Bismillahir rohmahir rohim”, “Inshaalloh”, “Alhamdulillah” kabi iboralar og‘zaki muloqotda nafaqat diniy, balki madaniy muomala shakli sifatida ishlatiladi. Bunday iboralar nutqqa ruhiy iliqlik va duoviy ohang beradi. Masalan, “Alloh sizdan rozi bo‘lsin” iborasi minnatdorchilikni, “Astaghfirulloh” so‘zi esa pushaymonlikni ifodalaydi.

Frazeologizmlar orasida hadis va Qur’on oyatlariga tayangan shakllar ham mavjud: “Ilm musulmonning merosi”, “Har ishda sabr – najot”, “Halol rizq – mo‘minning ziynati” kabi xalq og‘zaki nutqida mustahkam o‘rnashgan diniy hikmatlar asrlar davomida milliy tilda yashab kelmoqda.

4. Diniy so‘zlarning fonetik va morfologik moslashuvi

Arabcha va forsha diniy so‘zlar o‘zbek tiliga kirgach, fonetik jihatdan milliy talaffuzga moslashgan:

Alloh → Olloh,

Subhanalloh → Sohanallo,

Muhammad → Mahmad,

Bismillah → Bis’milla,

Astaghfirulloh → Asto‘g‘furlo.

Bu o‘zgarishlar xalq tili tabiatiga mos soddalashtirish jarayonining natijasidir. Shuningdek, diniy so‘zlardan o‘zbekcha shakllar hosil qilingan: duo → duochi, iman → imonli, sabr → sabrli, gunoh → gunohkor. Bu jarayon diniy leksikaning til tizimiga chuqur singganini va so‘z yasovchi manba sifatida faol ishlatilayotganini ko‘rsatadi.

5. Zamonaviy diniy diskurs va yangi leksik birliklar

So‘nggi yillarda diniy nutq ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali yangi bosqichga chiqdi. Diniy mazmundagi so‘zlar internetdagi muloqot tiliga moslashib, yangi semantik shakllar hosil qilmoqda. Masalan:

“Halol kontent” – iymoniy tamoyillarga zid bo‘lmagan axborot;

“Musulmon blogger”, “iymonli motivatsiya”, “diniy ilhom” kabi yangi birikmalar — diniy leksikaning zamonaviy kommunikatsiyaga kirib kelayotganini ko‘rsatadi.

Bu holat diniy so‘zlarning barqaror emas, balki rivojlanib boruvchi qatlam ekanini tasdiqlaydi. Diniy leksika zamon bilan birga yashaydi, yangilanadi va ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashadi.

6. Diniy nutqning sotsiollingvistik va madaniy funksiyasi

O‘zbek jamiyatida diniy so‘zlar yosh, jins, ijtimoiy mavqega qarab turlicha ishlatiladi. Keksalar ko‘proq “Alloh saqlasin”, “Xudo asrasin” kabi xalqona shakllarni ishlatib, yoshlar “Alhamdulillah”, “Inshaalloh” kabi arabcha shakllarni afzal ko‘radi. Bu diniy leksikaning ijtimoiy tabaqalanishini bildiradi.

Shuningdek, ayollar nutqida diniy so‘zlar ko‘proq duoviy va mehr ohangida, erkaklar nutqida esa nasihat, e‘tiqod ifodasi sifatida ishlatiladi. Masalan, onaning “Alloh yo‘lingni ochsin” duosi va otaning “Halol bo‘l, bolam” degan nasihati diniy leksikaning turli kommunikativ rollarini aks ettiradi. Diniy nutq orqali o‘zbek xalqi o‘z axloqiy qadriyatlarini, ruhiy dunyosini va e‘tiqodiy birligini ifoda etadi. Shu sababli, diniy so‘zlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi diniy nutqqa xos so‘zlar xalqning ma’naviy hayoti, e‘tiqodi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu so‘zlar orqali nafaqat diniy tushunchalar, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ruhiy holati ifodalanadi. Diniy leksika o‘zbek tilining eng qadimiy va serqatlam qismlaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida arab, fors-tojik tillari hamda xalq og‘zaki nutqi ta’sirida boyib borgan. Bugungi kunda diniy so‘zlar faqat diniy marosimlarda emas, balki oddiy kundalik muloqotda ham keng ishlatilmoqda. “Inshaalloh”, “Alhamdulillah”, “Alloh rozi bo‘lsin”, “Sabr qil”, “Halol bo‘l” kabi iboralar xalq nutqida mehr, ishonch, duoviy niyat va axloqiy madaniyatni ifodalovchi vosita sifatida yashab kelmoqda. Bu holat diniy leksikaning tilda barqaror emas, balki doimiy rivojlanayotgan va yangilanib borayotgan qatlam ekanini ko‘rsatadi.

Diniy so‘zlar o‘zbek tilining semantik, fonetik va morfologik tizimiga moslashib, milliy til unsurlariga aylangan. Ular orqali xalq o‘z ruhiyatini, e‘tiqodini, orzu-umidlarini ifoda etadi. Ayniqsa, hozirgi davrda diniy nutq internet, OAV va yoshlar tili orqali yangi hayot bosqichiga o‘tib, “halol hayot tarzi”, “iymonli yoshlar”, “musulmon madaniyati” kabi yangicha ifodalarni yuzaga keltirmoqda. Shunday qilib, o‘zbek tili tizimidagi diniy leksika nafaqat diniy mazmunni, balki milliy madaniyatning ma’naviy poydevorini aks ettiradi. Uni o‘rganish, tahlil qilish va saqlab qolish — nafaqat

tilshunoslik uchun, balki yosh avlodning ma'naviy kamoloti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Diniy so'zlar millat ruhiyatining ifodasi, xalq tafakkurining so'zdagi aksidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, M. Til va tafakkur uyg'unligi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018. — 112-bet.
2. Qur'on Karim. Tarjima va izohlar bilan. Tarjimon: A. Muhammad Sodiq. — Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. — 84–86-betlar.
3. Yo'ldosheva, G. O'zbek tilida diniy leksikaning shakllanishi va rivoji. — "Filologiya masalalari" jurnali, №2, 2021. — 55–59-betlar.
4. Rahmonova, D. Frazologik birliklarda diniy tasavvurlar aks etishi. — Toshkent: TDPU ilmiy to'plami, 2020. — 74–78-betlar.
5. Hasanov, A. Lingvokulturologiya va milliy qadriyatlar. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. — 91-bet.

O'ZBEK TILIDA DINIY MATNLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

ULUQOVA SHAHODAT

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

shahodat9506@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi diniy matnlar leksikasining semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qur'on oyatlari, hadislar va badiiy matnlardan olingan misollar asosida diniy leksemalarning kelib chiqishi, ma'no turlari va kontekstga qarab yuzaga keladigan ko'chma ma'nolar yoritiladi. Tadqiqotda leksik-semantik guruhlar, polisemiya va frazeologik birliklar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: diniy leksika, leksik-semantik guruh, polisemiya, arxaizm, Qur'on, hadis.

Annotation: This article examines the semantic and stylistic features of religious lexis in the Uzbek language. Based on examples from the Qur'an, Hadith, and literary texts, the study outlines the sources of religious vocabulary, lexical-semantic groups, polysemy, and phraseological usages. The paper highlights the role of religious lexis in cultural identity.

Key words: religious lexis, lexical-semantic group, polysemy, archaism, Qur'an, Hadith.

Аннотация: В статье анализируются семантические и стилистические особенности религиозной лексики узбекского языка. На примерах аятов Корана, хадисов и художественных текстов рассматриваются происхождение религиозных лексем, их семантические типы и контекстуально обусловленные значения.

Ключевые слова: религиозная лексика, лексико-семантическая группа, полисемия, архаизм, Коран, хадис.

Til millatning ruhiyati va tarixining muhim ifodasidir. Diniy leksika esa xalqning ma'naviyati, e'tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan lug'aviy qatlamni tashkil etadi. O'zbek tiliga islom dini kirib kelishi bilan arab va fors tillaridan ko'plab diniy atamalar, asosan diniy matnlar orqali, kirib kelgan va tilda mustahkam o'rnatilgan.

Diniy leksika manbalari asosan quyidagi qatlamlardan iborat:

- **Arab tili:** Alloh, namoz, ro'za, Qur'on, taqdir, taqvo;
- **Fors tili:** pir, zohid, orif;
- **Turkiy ildizli qadimiy diniy-ma'naviy tushunchalar:** tengri, ezgu, baxshi.

Arabcha so'zlar islom dini bilan bog'liq bo'lgani sababli diniy terminologiyani asosiy qismini tashkil etadi⁵¹.

Leksik-semantik guruhlar:

- **Alloh va aqida bilan bog'liq so'zlar:** Alloh, iloh, iymon, kufr, taqdir.
- **Ibodot va amaliyot so'zlari:** namoz, ro'za, tahorat, haj, zakot.
- **Axloqiy-diniy tushunchalar:** sabr, shukr, halol, harom, savob.
- **Diniy shaxs va lavozim nomlari:** imom, xatib, shayx, mulla.
- **Muqaddas joy va predmetlar:** masjid, Ka'ba, Qur'on, sajda⁵².

Bu guruhlar diniy dunyoqarashning asosiy semantik maydonini tashkil etadi.

Leksik tahlil:

Kofir — arabcha so'z bo'lib, “inkor etuvchi” yoki “e'tiqodni rad etuvchi” ma'nosini bildiradi⁵³. U diniy kontekstda salbiy semantik bo'yogga ega va “mo'min”, “iymonli” so'zlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Do'zax (Jahannam) — oxiratga oid g'oyibiy tushuncha bo'lib, gunohkor insonlar abadiy azoblanadigan joy sifatida tasvirlanadi. “Do'zax” so'zi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi: masalan, “do'zaxdek hayot” iborasida.

Amal — arab tilidan kirgan bo'lib, “ish-harakat” ma'nosini anglatadi. Diniy termin sifatida “amal” dindorning axloqiy va ijtimoiy burchlarini bildiradi. Qur'onda bu so'z “yaxshi” va “yomon” ishlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Diniy leksemalar ko'pincha **polisemiya** (ko'p ma'nolilik) hodisasiga ega. Masalan, “Jannat” so'zi aslida oxiratdagi mukammal huzur manzili ma'nosini bildirsa, badiiy matnlarda “Jannat yaratib berish” iborasi qulay yashash sharoiti ma'nosida ishlatiladi.

“Qalb” so'zi ham ikki qirrali: jismoniy organ sifatida ham, vijdon va e'tiqod markazi sifatida ham qo'llaniladi⁵⁴. Shu jihatdan u **metonimik** ma'no kasb etadi.

Baqara surasidan keltirilgan matn: “sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa... ular do'zax ahlidandur...” (Baqara surasi, 2:217) bu oyatda “kofir”, “do'zax”, “amal” kabi leksemalar mavjud. Hadisda esa: “Ogoh bo'ling! Tanangizda bir parcha go'sht

⁵¹ Yo'ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent, 2021.

⁵² Omonturdiyeva Sh. *O'zbek diniy matnining funksional stilistik tadqiqi*. – Samarqand, 2020.

⁵³ Begmatov E. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent, 1985.

⁵⁴ Doniyorov R. *O'zbek tili texnik terminologiyasining o'rni*. – Toshkent: Fan, 1997.

bor... u-qalbdir!”⁵⁵-jumlasini orqali “qalb”ning metaforik va semantik ahamiyati ochib berilgan, A’rof surasidsagi to’g’ri to’g’ri keltirilgan matn (jins va ins bilan bog’liq) esa g’ayb mavjudotlarini va ularning oxirat bilan bog’liqligini ko’rsatadi. Zot va kimsa farqi. Diniy matnlarda “zot” va “kimsa” so’zlari sinonimik qator bo’lib ko’rinadi, ammo, uslubiy jihatdan farq qiladi: “zot”-ijobiy, hurmatga sazovor; “ kimsa “ esa ko’pincha neytral yoki salbiy ma’noda ishlatiladi. Bu farq matnning emotsional politrasini shakllantiradi va o’quvchiga ma’lum baho beradi⁵⁶. Badiiy adabiyotlarda diniy matn elementlari- nafaqat ma’naviy ta’sir uchun, balki milliy ruhni jonlantirish maqsadida ham qo’llanadi. Masalan, Tohir Malikning “Odamiylik Mulki”⁵⁷ romanidagi parchalar va Alisher Navoiy asarlarida Qur’oni Karim tilida ishlatiladigan leksik birliklar badiiy kontekstda yangi ma’no qatlamini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o’zbek tilidagi diniy leksik birliklar semantic va uslubiy jihatdan boy qatlamni tashkil qiladi. Ularning o’rganilishi tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda diniy tafakkur tarixini chuqurroq anglashga yordam beradi. Diniy leksema va iboralar nafaqat diniy mazmunni balki milliy axloqiy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Kelgusida bu sohada terminologik lug’atlarni boyitish, kontekstual tahlillarni kengaytirish muhim vazifa bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo’ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent, 2021.
2. Omonturdiyeva Sh. *O’zbek diniy matnining funksional stilistik tadqiqi*. – Samarqand, 2020.
3. Begmatov E. *Hozirgi o’zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent, 1985.
4. *O’zbek tilining izohli lug’ati*. 4 jildlik. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Doniyorov R. *O’zbek tili texnik terminologiyasining o’rni*. – Toshkent: Fan, 1997.
6. Narxodjayeva X. *Jarayon anglatuvchi terminlarning o’zbek tilida tutgan o’rni*. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Qosimov N. *O’zbek tili ilmiy-texnik terminologiyasi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2013.
8. *Qur’oni Karim* (oyatlar va hadislar to’plami).
9. Malik T. *Odamiylik mulki*. – Toshkent, 1990.

⁵⁵ Qur’oni Karim (keltirilgan oyatlar) va hadislar to’plami.

⁵⁶ Qosimov N. o’zbek tili ilmiy texnik terminologiyasi masalalari.- Toshkent Fan,2013.

⁵⁷ Malik T. Odamiylik mulki (badiiy matn misollarida).

ONA TILINI O'QITISHDA TA'LIM PRINSIPLARINING AHAMIYATI

JEINBAYEVA UMIDA BAHODIR QIZI,
QALANDAROVA GAVHAR RUSTAM QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabalari

jeinbayeva67@gmail.com

gavharqalandarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish, ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matn, ta'lim prinsipi, fonetika, grammatika, ilmiylik prinsiri.

Abstract. This article discusses the principles of increasing the effectiveness of the lesson based on the mutual cooperation of students, the formation of independent thinking, reasoning, and communication skills, the requirements for the activities of students and teachers in organizing, managing, and controlling the lesson in the educational process, and didactic rules.

Keywords: text, educational principle, phonetics, grammar, scientific principle.

Аннотация. В статье рассматриваются принципы повышения эффективности урока на основе взаимного сотрудничества учащихся, формирования самостоятельности мышления, рассуждения и коммуникативных навыков, требования к деятельности учащихся и учителя по организации, руководству и контролю урока в образовательном процессе, а также дидактические правила.

Ключевые слова: текст, образовательный принцип, фонетика, грамматика, научный принцип.

Modomiki, maktab ta'limida ona tili eng asosiy va yetakchi o'quv fanlardan ekan, oily ta'limning bakalavr tizimida "Ona tili o'qitish metodikasi" ham xuddi shunday mavqega ega. Ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish prinsiplarini amalda qo'llash bilan chambarchas bog'langan. O'qitish prinsipi nima? "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. "O'qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini ta'minlash,

qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bo'g'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbqiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir. Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi. Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo'lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo'llari ko'p: - har bir mavzu va bo'limning ta'limiy imkoniyatlarini to'la ishga solish; - tanlangan matnlarning o'rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yo'nalishlariga to'la moslashtirish; - darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Ona tilini o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi prinsipi. Maktabda o'quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir. Ona tilini o'qitishda ilmiylik va tushunarlik prinsipi. Ta'limning ilmiyligini va bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

Ona tilini o'qitishda sistemativiylik va izchillik prinsipi. Ma'lumki, ona tili o'quv predmeti sifatida ma'lum sistemadan iborat. Bu sistema o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, tomonlarini o'z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har bir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog'langan. Maktabda tilning fonetikasini o'rganmasdan uning grammatikasini o'rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani yetarli darajada o'zlashtirgan o'quvchigina leksikani puxta o'zlashtiradi. Leksika puxta o'rganilgach, so'z turkumlarini o'rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o'zaro uzviy aloqadorlikda o'rganish uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy vosita sanaladi.

Ta'limda izchillik prinsipi sistemalilik prinsipi bilan uzviy bog'lanan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o'quv ishlarida ham mustaqillik muntazamlilik bo'lishi shart. Akademik I.T. Pavlov: "Ishning boshlanishidayoq o'zingizni fan asoslarini izchil

egallashga o'rgating. Fanning eng yuksak cho'qqilarini egallashdan oldin uning ibtidosini o'rganing. Oldingilarini o'zlashtirmasdan turib, keyingilarini o'rganishga o'tmang", deb o'quvchilarga maslahat beradi. Ona tilini oqitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi. Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash daganda o'quvchilardan tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo'llashini ta'minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Nazariyani amaliyotga bog'lash ona tilini o'qitishni foydali maqsadlarga burish. O'rganilayotgan til hodisalarini o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga buysundirish, til ta'limini hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'lash demakdir.

Ona tili darsligi uchun tanlangan matnlar ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishda, rang-barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili sodda va ravon, o'qituvchi uchun tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Metodikada ilmiylik prinsipi – o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishi talab etsa, tushunarlik prinsipi o'quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya'ni oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyga borishni taqozo qiladi. Ona tili o'qitish metodikasida ilmiylik va tushunarlik prinsiplariga bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan yagona prinsip sifatida qaraladi. Bu ikki prinsipni parallel ravishda amalga oshirishda - til fanidagi tushuncha va atamalarining ma'nosini sharhlash, atroflicha tahlil qilish, puxta o'zlashtirishni ta'minlash; - til sathlarini o'zaro aloqadorlikka o'rganish; - til va nutqni farqlab o'rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo'llash - o'quvchilarning yosh imkoniyatlarini, zehni, iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, sodda, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'yin-topshiriqlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan: kecha va kunduz so'zlarining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang. 1. O'xshashlik: berilgan ko'cha va kecha so'zlar: - harflar sonining tengligi; - bir xil undosh bilan boshlanishi; - talaffuz ohangidagi yaqinlik; - oxirgi bo'g'inning – cha bilan tugallanishiga ko'ra bir-biriga yaqin talaffuz qilinadi. 2. Farqi: birinchi bo'g'indagi ikki xilligi; - lug'aviy ma'nosi; kecha-tun, oqshom; ko'cha-aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'l.

Izchillik prinsipi. Ta'lim izchilligi uchun tizimlilik o'lchov hisoblanadi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy aytadi: "Mashg'ulotlarni shunday o'tkazish kerakki, unda keyin

o'rganiladigan hodisa o'rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarini o'rganishda mustahkamlansin". Haqiqatdan ham, o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan va o'rganiladigan bilimlar o'rtasida aloqadorlikni ta'minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi. Masalan: ot, uning ma'nosi, so'roqlari, birlik va ko'plikda, kelishik, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi kabi boshlang'ich ma'lumotlarga tayanib, o'quvchilar ot so'z turkumi vositasida so'z birikmalari va gaplar qurishni o'rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

Ona tili darslarida ta'limiy topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o'quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni o'stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. 70-b.
2. Matkarimova Zaynab Olloyorovna. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" // "Science and Education" Scientific journal – T.: 2020.
3. Yusupova Z. "Ona tili o'qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari" maqola. 2020.
4. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: "Sharq", 2013.
5. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. – T.: "Navro'z", 2018.

QASHQDARYO VILOYATIDAGI ANTROTOPONIMLAR TADQIQI.**ABDURAXMANOVA ZUMRAD NORMUROT QIZI**

Chirchiq davlat pedogogika universiteti

1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim sohalardan biriga aylanib borayotgan toponimika, uning muhim bo'lagi hisoblangan antrotoponimlar, ularning lug'aviy birlik sifatidagi ahamiyati, hamda Yakkabog' tumanidagi shaxs nomi bilan bog'liq antrotoponimlar tadqiq qilinadi. Shaxs nomi bilan bog'liq nomlarning ziyorat obyektiga aylanishiga oid qarashlarni antropotsentrik, sotsiolingvistik, semantik, tarixiy-etimologik jihatdan butun bir tizim sifatida tahlil qilinadi. Har bir antrotoponim paydo bo'lishi bilan bog'liq barcha jihatlar qamrab olinib, kompleks bir tizim sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Toponimika, antrotoponim, areal lingvistika, onomastik birliklar.

Abstract. This article examines toponymy, which is becoming one of the important areas in linguistics, its important part, anthropotoponyms, their significance as a lexical unit, and anthropotoponyms associated with the name of a person in Yakkabog district. Views on the transformation of names associated with a person's name into objects of pilgrimage are analyzed as a whole system from an anthropocentric, sociolinguistic, semantic, historical-etymological point of view. All aspects related to the emergence of each anthropotonym are covered and studied as a complex system.

Keywords. Toponymy, anthropotonym, areal linguistics, onomastic units.

Аннотация. В статье рассматривается топонимия, которая становится одним из важных направлений в языкознании, её важная часть, антропотопонимы, их значение как лексической единицы, а также антропотопонимы, связанные с именем человека в Яккабагском районе. В целостной системе анализируются взгляды на трансформацию названий, связанных с именем человека, в объекты паломничества с антропоцентрической, социолингвистической, семантической и историко-этимологической точек зрения. Все аспекты, связанные с возникновением каждого антропотопонима, рассматриваются и изучаются как комплексная система.

Ключевые слова: Топонимия, антропотопоним, ареальная лингвистика, ономастические единицы.

Kirish. Bugungi kunda toponimika sohasida barcha davlatlarda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki tarix, geografiya, etimologiya, tilshunoslik kabi fanlarning omixtasi hisoblangan toponimika, uning birliklarini o'rganish orqali ma'lum hududga xos ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, etnik jihatlarini o'rganish mumkin. Ayniqsa, toponimlarni lingvistik jihatdan o'rganishga doir tilshunoslikda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyo tilshunosligida lingvistik, tarixiy, geografik toponimika, areal lingvistikaga oid izlanishlar yuzaga kelmoqda. Toponimlarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o'rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda; nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Toponimlarni lingvistik aspektda o'rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilish, onomastik birliklar semantikasini yoritish, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda o'zbek tili toponimikasi ancha rivojlangan bo'lsa-da, respublikamizning ko'pgina hududlari, jumladan Qashqadaryo viloyati antroponimlari ularning lingvistik xususiyatlari hozirga qadar bir tizim sifatida o'rganilmagan. Maqolada ayni shu jihatga ahamiyat qaratiladi.

Tilshunoslikda har bir narsaning o'z nomi bor. Xoh u biror narsa bo'sin, xoh biror obyekt. Chunki shu nom orqaligina ular bir-biridan farqlanadi. Joy nomlari ham xuddi shu tariqa vujudga kelgan. Joy nomlari tilshunoslikda toponim, uni o'rganuvchi soha esa toponimika deb yuritiladi. Toponimika yunoncha topos-joy, onoma (yoki onima) - nom so'zlaridan tarkib topgan. Toponimika joy nomlari, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui - toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimika geografiya, tarix, etnografiya bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalari)ni tadqiq etishda muhim manba bo'lib hisoblanadi, chunki ba'zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o'zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko'pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimika xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashda muhim manba hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatidagi antroponimlar ham o'zida shu kabi xususiyatlarni jamlaydi. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida jami Davlat kadastr ro'yxatida turuvchi 21 ta va aholi tomonidan ixlos qilinib ziyorat qilinuvchi bir

qancha ziyoratgohlar mavjud. Ularni biz quyidagi jadvalga nomlanishi jihatdan guruhlab chiqqanmiz.

T.r	Ziyoratgoh nomi	So'z yasalishi	Ma'noviy guruhi
1	Imom Abu Yusuf	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
2	Xo'jailg'or	Ikki komponentli	Said nomi bilan aloqador nomlar
3	Chillabuloq	Ikki komponentli	E'tiqod bilan bog'liq nomlar
4	Bobo Shodi Shayx	Bir komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
5	Xo'jagul momo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
6	Sadir ota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
7	Mallaxon	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
8	Darxon momo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
9	Makkasaidota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
10	Saxovat	Bir komponentli	E'tiqod bilan bog'liq atalgan
11	Maxmudxon avliyo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
12	Shodi Sayx Valiy	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
13	Buzrukota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
14	Sheroz tepaligi	Bir komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
15	Usmontepa	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
16	Tezobota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
17	Toshmozor	Ikki komponentli	Qabr va mozorlar nomi bilan bog'liq nomlar
18	Jamol ota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan

19	Beshtoshota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
20	Ko'ktoshota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
21	Tolibuloq	Ikki komponentli	E'tiqod bilan bog'liq nomlar

Yuqorida biz joy nomlarini tuzilishi va ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajratdik. Hozir nomning kelib chiqishi, leksikasiga oid qarashlarni ko'rib chiqamiz. Shaxs nomiga aloqador bo'lgan ko'p nomlarda buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan bog'liq. Chunki bu buyuk siymo juda ko'plab aziz avliyolar hokini olib kelib maqbara bunyod qilganlar. Shu kabi buyuk shaxslar qatoriga hazrat Imom Abu Yusuf nomi ham o'rin olgan. Imom Abu Yusuf tarixiy shaxs Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo'lgan alloma buyuk faqih, muhaddis va mujtahid olim bo'lgan. Allomaning Yusuf ismli o'g'li bo'lib, shu bois uni "Abu Yusuf" (Yusufning otasi) deb chaqirilgan. Abu Yusuf islom tarixida ilk bor "Qozi al-quzot" (buyuk qozi) nomiga sazovor bo'lgan olimdir. O'n olti yil qozilik qiladi. Abul Faraj ibn Javziy aytadi: "Abu Yusuf rahmatullohi alayhning faqat hadis ilmiga cheklanibgina qolmagan, o'tkir zehnga ham ega bo'lganliklaridan jihatidan ummatning eng buyuk kishilari qatorida zikr qilinadi, bir majlisda ellik va oltmishta hadisni eshitib, so'ngra uni xuddi eshitgani kabi isnodlari bilan aytib bera oladigan inson bo'lgan."⁵⁸ Bu kabi azizlar juda ko'plab yurtimizda. Nom antratoponim so'zning har bir elementini tahlili qilganda "Imom" so'zi arabcha "امام" (imam) so'zidan olingan bo'lib, "oldinda turuvchi" degan ma'noni bildiradi. Islom dinida imom bu ro'bardan tashqari, bir qancha ma'nolarni anglatadi, jumladan, jamoadagi o'rta chiqib namoz o'qib beruvchi rahbar, diniy yetakchi yoki oliy diniy mansabdor kishi. Yusuf" so'zining ma'nosi "o'sgan, ko'paygan" degan ma'noni anglatadi, bu nomi qadimiy yahudiycha Iosif nomining arabcha shaklidir. Bu nom Sharq madaniyatida go'zallik va hushro'ylik timsoli bo'lib, [Yusuf payg'ambarning](#) ismi hisoblanadi⁵⁹. Manbalar ma'lumotlariga qaraganda Imom Abu Yusuf ziyoratgohi shaxs nomi bilan bog'liq muqaddas siymo.

Xo'jailg'or ziyoratgohi bu ziyoratgoh ham Amir Temur nomi bilan uzviy aloqador. Buyuk sohibqiron Amir Temur ayni shu qishloqda dunyoga kelgan. So'z

⁵⁸ <https://oliymahad.uz/40158>

https://www.google.com/search?q=yusuf+so%27zining+ma%27nosi&sca_esv=ac9cdcd271fad40e&sxsrf=AE3TifNW4r_9XiDltXIElBdt0UuLrSySdQ%3A1759076699386&ei=W2HZaN-wF468wPAPmZf40A0&oq=yusufso

xo'ja va ig'or komponentlaridan tashkil topgan. **Xo'ja**— ko'p ma'noli termin. Ma'nolari:

- Xo'ja — forsiy unvon. Shuningdek turkiy tilli xalqlarda ham qo'llaniladi.
- Xo'jalar — arabistondan islom dinini olib kelgan arablar kelib chiqqan markaziy osiyadagi shajara, urug'.⁶⁰ Ilg'or oldinda boruvchi, "peshqadam". Ilg'or ishchilarga har oyda mukofot berib turildi. Asli qadimgi turkiy tilda "old" ma'nosini anglatgan il otining il shaklidan -g'a qo'shimchasi bilan yasalgan ilg'a- ("oldinga bor") fe'li mavjud bo'lib, -r qo'shimchasini qo'shib bu fe'lning sifat-dosh shakli hosil qilingan ("oldinda boruvchi"); bu sifat-dosh ma'no taraqqiyoti natijasida sifatga aylangan; o'zbek tilida a unlisi a unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (il + g'a = ilg'a-) + r "ilg'ar" "ilg'âr."⁶¹ Demak, nomdan anglashilgan ma'nodan ko'rinib turibdiki, islom dinini o'rgatuvchi, boshchi degan ma'noni anglatgan. Tarixan ma'lumki, bizni xalqimiz islom dinini o'rgatgan shaxslarni juda qadrlaganlar va ularning qabrlarini ziyoratgohga aylantirganlar. Yuqoridagi nomlarning ko'pchiligi shunday azizlarning qabrlari sanaladi.

• Ziyoratgohlarni Sanobar Jo'rayeva tadqiqotiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Aziz avliyo va pir maqomidagi nomlar: Imom abu Yusuf, Buzrukota, Mahmudxon avliyo, Toshmozor;
2. Islom olamiga hissa qo'shgan shaxslar : Shodi Shayx Valiy;
3. Tasavvuf tariqati vakillari nomlari: Bobo Shodi Shayx;
4. Xo'ja va sahobalar nomlari bilan bog'liq nomlar: Xo'ja Ilg'or, Makkasaidota;
5. Afsona, rivoyatlar nomlari: Tollibuloq, Chillibuloq, Ko'ktoshota, Sheroz tepaligi;
6. Alohida kishi nomi bilan saqlanuvchi nomlar: Sadir ota, Xo'jagul momo, Mallaxon, Darxon momo, Tezob ota, Usmontepa, Jamol ota.

Har bir nomning kelib chiqishiga ko'ra yuqoridagicha nomladik. Ma'lum leksik xususiyatlari ham shu guruh orqali anglash mumkin. Ba'zi nomlar izohini keltirib o'tamiz;

Chillabuloq – Yakkabog' tumanidagi ziyoratgoh nomi. Tarkibi: chilla + buloq. Chilla (f-t) – yosh bolaning qirq kunlik chaqaloqligi davrida badaniga chiqadigan yara, toshma; umuman, katta yoshli odamlarda ham chiqadigan yara turi. Chillabuloq – suvi

⁶⁰ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xo%CA%BBja_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xo%CA%BBja_(ma%CA%BCnolari))

⁶¹ <https://uz.wiktionary.org/wiki/ilg%CA%BBor>

shifobaxsh, yarani tuzatadigan minerallari bo'lgan suvli buloq. Ziyoratgoh nomi insonlar uchun foydali suv maskani bo'lgan joyga ko'ra nomlangan.

Toshmozor-toshdan qilingan mozor. Buyuk avliyolar qabri joylashgan muqaddas maskan. Bu yerda juda ko'pchilik kelib ziyorat qilib ketad. Ko'rinib turibdi, har bir nomning o'ziga xos sememasi va yasali sh qonuniyati bilan bir qatorda uning yaralish etimologiyasi ham bir-biridan kata farq qiladi. Jumladan, har bir nom bir sir, nom orqali tarixni ham bilish mumkin. Shunday ekan har qanday nomning yasali sh tarixini, undagi ma'no semalarini o'rganish orqali biz juda ko'plab bilimlarga ega bo'lib boramiz. Ayniqsa, ziyorat obyektlari nomlarining ko'pchiligi leksik-semantik, morfologik va etimologik jihatdan qiyoslab o'rganilmagan. Bu soha xuddi ochilmagan qo'riq singari turibdi. Shu kabi muqaddas qadamjolarini o'rganish ular haqida ma'lumot berish. Bugungi kun uchun ancha manfaatli sohalardan biri desak xato qilmaymiz. Shu kabi nomlarni o'rganib tilshunoslik sohasi rivojiga hissa qo'shish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5315060>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/535660>

4. Djuraeva S.N. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Filol. fan. b. fals. dok. diss. ...avtoref. – Toshkent, 2021, –B.9.

5. <http://geonames.kadastr.uz>

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA QOLIPLAR FAOLLASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI

QODIROVA DILFUZA G'OPIRJON QIZI,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

Email: qodirovadilfuza3313@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplar – ya'ni boshqa tillardan (asosan rus, ingliz, arab va fors tillaridan) kirib kelgan model iboralar, sintaktik konstruktsiyalar va grammatik strukturalarning faollashuvi va ularning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Tadqiqotda tilshunoslikning deskriptiv, sotsiolingvistik, diskursiv va korpus asosidagi usullaridan foydalangan holda turli yosh, kasb, hududiy guruhlarda qoliplardan foydalanish darajalari, ularning grammatik va semantik integratsiyasi, hamda diskursga xos moslashuvi o'rganildi.

Kalit so'zlar: o'zlashma qolip, sotsiolingvistika, morfosintaktik moslashuv, media tili, til o'zgarishi

KIRISH

Zamonaviy o'zbek tilining taraqqiyot jarayoni ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, u faqat ichki lingvistik tizimning rivoji bilan emas, balki tashqi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda globallashuv, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining keskin kuchayishi, madaniy integratsiya va ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga chuqur kirib kelishi natijasida o'zbek tilida boshqa tillardan, xususan ingliz, rus, arab va fors tillaridan o'zlashma birliklar va qoliplarning faollashuvi kuzatilmoqda.

Bunday o'zlashmalar orasida ayniqsa grammatik, sintaktik va morfosintaktik qoliplar tilshunoslar diqqat markazida bo'lib, ular faqat yangi leksik birliklar emas, balki butun nutq strukturalarining o'zgarishini bildiradi. O'zlashma qoliplarning tilga kirib kelishi va keng qo'llanishi zamonaviy tilshunoslikda tilning adaptiv imkoniyatlarini, ijtimoiy moslashuvchanligini va madaniy ta'sirlarga ochiqqligini ko'rsatib beradi.

Til va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikda o'zlashma qoliplar – ayniqsa yoshlar nutqida, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy hujjatlar va ta'lim sohalarida faollik kasb etmoqda. Bu jarayonni faqat leksik darajadagi o'zgarish sifatida emas, balki sintaktik, uslubiy va kommunikativ tizimlardagi muvozanatning yangilanishi sifatida ham baholash lozim.

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplar faollashuvining ijtimoiy omillari lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qoliplarning turli ijtimoiy guruhlar (yosh, jins, kasb, hududiy tafovutlar) hamda nutqiy kontekstlarda qanday shakllanayotgani, ommalashayotgani va grammatik moslashuvi kuzatuv asosida ilmiy asoslangan misollar bilan yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy ish zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplarning shakllanishi va faollashuv jarayonini lingvistik va ijtimoiy kontekstda tadqiq qilishga qaratilgan. Tadqiqotda deskriptiv-lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv tahlil, korpusli tahlil, matnlararo taqqoslash, hamda statistik kuzatuv metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashma qoliplarning (ya'ni kalkalangan frazalar, sintaktik strukturalar, barqarorlashgan iboraviy shakllar) tilda qanday shakllanishi, qanday omillar ta'sirida faollashishi va ularning me'yorlashuvi masalasi bir qator xalqaro izlanishlar markazida turibdi. Masalan, Ahmed Seddik Al-Wahy o'zining "Towards a Borrowability Scale for Phraseological Units: The Case of Arabic Calques from English" nomli maqolasida ingliz tilidan arab tiliga o'zlashayotgan frazeologik birliklarni tahlil qiladi. U o'zlashuv darajasini baholovchi "borrowability scale"[1:77] modelini ishlab chiqqan bo'lib, bunda iboralarning grammatik shakli, semantik tahlilga ochiqqligi (transparency) va morfologik parchalanuvchanligi (decomposability) asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi. Muallifning fikricha, aynan shu omillar iboraviy qoliplarning boshqa tilga qanchalik muvaffaqiyatli ko'chirilishi va faol ishlatilishiga ta'sir qiladi. Bu tadqiqot o'zlashma qoliplar, xususan kalkalangan iboralarning strukturaviy va madaniy moslashuvini ko'rsatishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim izlanish Hanna Lantto tomonidan amalga oshirilgan. Uning "Conventionalized code-switching: Entrenched semantic-pragmatic patterns of a bilingual Basque-Spanish speech style"[2:59] nomli maqolasida ikki tilli jamiyatda kod-switching holatlari tahlil qilinadi. Lantto ayrim iboralarning doimiy va barqaror qo'llanishi natijasida ularning konvensiyalashtirilgan (ya'ni me'yoriy) qoliplarga aylanishini asoslaydi. U bunday barqaror konstruktsiyalarni "semantic-pragmatic patterns" deb ataydi va ular sintaktik jihatdan ham mustahkam strukturaga ega bo'lib borishini ta'kidlaydi. Ushbu qarash, ayniqsa, o'zbek tilida inglizcha va ruscha

iboralarining takror va nutqiy ehtiyoj asosida me'yorlashayotgan holatlari bilan bevosita bog'liq.

Bundan tashqari, Binish Maqsood, Tahir Saleem, Asif Aziz va Summiaya Azam tomonidan yozilgan "Grammatical Constraints on the Borrowing of Nouns and Verbs in Urdu and English" [3:15] nomli maqolada grammatik o'zlashmalar, ayniqsa ot va fe'llarning grammatik integratsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Bert Cornillie o'zining "On the pace of syntactic elaboration from Latin calques" [4] nomli maqolasida lotin tilidan ispan, golland va ingliz tillariga kirib kelgan sintaktik kalkalarning qanday jarayonlar orqali me'yorlashuvga erishishini o'rganadi. Mazkur tadqiqotlar umumiy holda quyidagi muhim xulosani asoslaydi: o'zlashma qoliplarning faollashuvi oddiy tarjima yoki leksik o'zlashuv natijasi emas, balki sintaktik, morfologik, madaniy va kommunikativ tizimlararo muvofiqlashuvdir. Ushbu jarayonlar doimiy til kontakti, sotsiokulturning bosimi, texnologik muhit va nutqiy ehtiyojlar orqali shakllanadi. Shu sababli, jahon tilshunosligidagi bunday izlanishlar o'zbek tilshunosligida ham zamonaviy grammatik adaptatsiya va qolipli iboralar ustida ishlashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida o'zlashma qoliplar (ya'ni boshqa tillardan kirib kelgan sintaktik modellar, barqaror iboralar, kalkalangan strukturalar) ning faollashuvi masalasi tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining global xarakter kasb etishi, madaniy interfeyslarning kuchayishi natijasida tildagi sintaktik va morfosintaktik o'zlashmalarni aniqlash va tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda bir qancha o'zbek tilshunoslari tomonidan qimmatli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Masalan, Umidjon Qo'ziyev o'zining "O'zbek tili korpusini yaratishda o'zlashma grammatik modellarning ajratilishi" [5:113] nomli maqolasida til korpusi asosida chet tillardan kirib kelgan grammatik qoliplarni ajratish metodologiyasini ishlab chiqadi. Unda ayniqsa rus va ingliz tillaridan o'zlashgan murakkab birliklarning sintaktik strukturasi, ularning matndagi joylashuvi va moslashuv jarayoni lingvokorpusiy metod orqali tahlil qilinadi. Muallif "loan grammatical models" atamasi ostida kirib kelgan konstruktsiyalarning o'zbekcha morfologik shakllar bilan qo'shilishi, ularning rasmiy-uslubiy nutqdagi ishlatilish chastotasini ochib beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, "qaror qabul qilindi", "loyiha amalga oshirildi", "hisobot topshirildi" kabi rasmiy qoliplarning barqarorlashuvini izohlashda metodologik asos bo'la oladi.

Shuningdek, Otabek Shukurov tomonidan yozilgan "Yangi davr o'zlashmalarida transformatsion darajalanish" [6:210] nomli ishda o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan birliklar transformatsion jarayon asosida guruhlarga ajratiladi. U leksik

birliklarning semantik yadrosi, grammatik vositalar orqali o'zbek tilidagi strukturalarga moslashuvi va ayniqsa so'z birikmalari orqali barqaror qolipga aylanishini ko'rsatadi.

Ammo mavjud adabiyotlarda o'zlashma qoliplarning zamonaviy ijtimoiy tarmoq tili, yoshlar va kasbiy guruhlar nutqidagi dinamikasi, morfosintaktik integratsiyasi, shahar/qishloq farqlari, ijtimoiy qatlamlarga ko'ra faol qo'llanilishi kabi yo'nalishlar hali yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, ushbu maqola o'zbek tilida o'zlashma qoliplar faollashuvining ijtimoiy omillari, ularning strukturaviy va diskursiv xususiyatlari, yoshlar, kasbiy guruhlar, hududiy farqlarga asoslangan tarqalishini kompleks yoritishga qaratilgan bo'lib, mavjud adabiyotlar tahlilini zamonaviy lingvistik holat bilan to'ldiradi va ularni muayyan ijtimoiy kontekstdagi real til hodisalari bilan bog'laydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplarning faollashuvi jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ ehtiyojlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat til tizimida sezilarli grammatik va stilistik o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar, matnlar korpusi asosida tahlillar, turli diskurs muhitlaridagi real nutqiy birliklarning o'rganilishi orqali bir qator muhim xulosalar shakllantirildi.

Avvalo, o'zlashma qoliplar oddiy leksik o'zlashmalardan farqli ravishda tilning chuqur sintaktik va morfosintaktik qatlamlariga singib borayotgan konstruksiyalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular grammatik model, ibora, gap bo'lagi yoki mustaqil gap ko'rinishida qo'llanilib, nutqda barqaror qolip sifatida shakllanmoqda. Masalan, "qaror qabul qilindi", "onlayn ro'yxatdan o'tdim", "feedback qoldirdi", "like bosdi" kabi iboralar zamonaviy rasmiy, texnologik yoki ijtimoiy kommunikatsiyada keng qo'llanilmoqda. Ushbu konstruksiyalar tarjima asosidagi birliklardan farqli o'laroq, o'zbek tilining morfologik va sintaktik tizimi bilan uyg'unlashgan holda til tizimiga kirib bormoqda.

Tadqiqot shuningdek, o'zlashma qoliplardan foydalanish ijtimoiy guruhlar kesimida farqlanishini ko'rsatdi. Xususan, yoshlar nutqida ingliz tilidan o'zlashgan iboralar faol qo'llanmoqda. "Deadline yaqin", "task oldim", "get ready with me", "vlog olish", "story qo'yish" kabi iboralar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan bo'lib, sintaktik jihatdan ham o'zlashgan. O'rta avlod esa asosan rus tilidan o'zlashgan rasmiy iboralardan foydalanadi: "tizimga kiritildi", "xulosa qilindi", "yig'ilish o'tkazildi". Bu holat sovet davrida shakllangan til modeli va ma'muriy uslubning

davomiyligi bilan bog'liq. Katta avlod nutqida esa arabcha-forscha diniy va badiiy iboralar ustuvor bo'lib, "ilm egasi", "duoyi hayr", "xatmi Qur'on" kabi qoliplar keng tarqalgan. Bu farqlar o'zlashma qoliplarning faolligi yoshga, lingvistik tajriba va madaniy fondga bog'liqligini ko'rsatadi.

Hududiy farqlar ham muhim omil sifatida ko'rinadi. Shahar aholisi nutqida inglizcha va ruscha zamonaviy qoliplar faol bo'lsa, qishloq hududlarida an'anaviy o'zbekcha sintaktik tuzilmalar ustuvor qolmoqda. Masalan, shaharliklar "Zoom qilamiz", "briefing bo'ldi" kabi iboralardan foydalanayotgan bo'lsa, qishloqlarda "majlis bo'ldi", "so'zga chiqdi" kabi ifodalar saqlanib qolgan. Bu holat tilning sotsiolingvistik polimorfizmini ifodalaydi, ya'ni til ichida bir vaqtning o'zida turli grammatik va stilistik qatlamlar mavjudligi va ularning faoliyat yuritishi kuzatilmoqda.

O'zlashma qoliplarning tilga moslashuvi, odatda, morfosintaktik adaptatsiya orqali yuz beradi. Bunda chet tilidan kirgan birliklar o'zbek tilining morfologik vositalari orqali moslashtiriladi. Misol uchun, "print qildim" iborasida inglizcha "print" so'ziga o'zbekcha "qil" fe'li qo'shib yangi sintaktik birlik hosil bo'ladi. Shunga o'xshash tarzda "comment yozdi" yoki "feedback berdi" iboralari ham o'zbekcha fe'l yasaliş tizimiga moslashtirilgan. Bu birliklar nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki kommunikativ qulaylik va madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ham faol ishlatilmoqda.

Tadqiqot davomida qoliplarning diskursga xos qo'llanishi ham aniqlandi. Har bir soha o'ziga xos sintaktik qoliplarga ega. Masalan, IT sohasida "login qilmoq", "update qilish", "password kiritmoq" kabi iboralar keng tarqalgan bo'lsa, rasmiy idoralarda "hisobga olinadi", "ma'lumot berildi", "topshiriq berildi" kabi qoliplar barqaror ishlatiladi. Ta'lim diskursida esa "mavzu yoritildi", "natija aniqlandi" kabi qoliplar dominant hisoblanadi. Shuningdek, marketing sohasida "target auditoriyasi", "brend strategiyasi" kabi inglizcha asosli iboralar faol ishlatilmoqda. Bu holatlar tildagi funksional differensiallikni va qoliplarning diskursga moslashuvchanligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zlashma qoliplarning shakllanishi va tarqalishida muhim inkubator vazifasini bajarmoqda. Telegram, Instagram, TikTok va boshqa raqamli platformalarda sintaktik integratsiya va code-mixing holatlari nihoyatda keng. "Zoomga kiring", "story tashladim", "like bosdim", "tag qildim" kabi iboralar orqali tilshunoslikda "fe'llashtirish" deb ataluvchi jarayon faol kechmoqda. Shuningdek, inglizcha ifodalar to'liq tarjima qilinmay, o'zbek nutqiga bevosita qo'shilmoqda: "Bugun get ready with me qilib video oldim" singari misollar buni yaqqol ko'rsatadi. Bu iboralar tildagi uslubiy yangilanish, ekspressivlik va madaniy kodlarning shakllanishida muhim rol o'ynamoqda.

Yakuniy xulosalarga ko'ra, o'zlashma qoliplar zamonaviy o'zbek tilining grammatik va stilistik tizimiga chuqur singib bormoqda. Ularning faollashuvi yosh, kasb, ijtimoiy guruh, hududiy farqlar hamda kommunikativ kontekstga bog'liq holda turlicha kechmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar sintaktik qoliplarning shakllanishi va ommalashuvi uchun asosiy platforma sifatida maydonga chiqmoqda. Bu qoliplar tilshunoslikda nafaqat o'zgarish belgisi, balki tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi konstruktiv vosita sifatida talqin qilinmoqda.

XULOSA

O'zbek tilida o'zlashma qoliplarning faollashuvi – bu til taraqqiyotining tabiiy va murakkab bosqichi bo'lib, u faqat lingvistik emas, balki sotsiolingvistik, madaniy va kommunikativ jihatlardan ham yondashishni taqozo etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qolipli tuzilmalar leksik darajada emas, balki morfosintaktik va stilistik qatlamlarda ham chuqur ildiz otmoqda. Bunday birliklar oddiy tarjima mahsuli bo'lmay, balki tilning ichki grammatik apparatiga moslashtirilgan holda yangi sintaktik konstruksiyalar sifatida shakllanmoqda.

Ularning kengayishi, asosan, yoshlar nutqi, ijtimoiy tarmoqlar, texnologik va rasmiy diskurslarda faol ko'rinish topmoqda. Shuningdek, avlodlar, hududlar, ijtimoiy guruhlar va sohalar bo'yicha bu qoliplarning tarqalishi va shakllanishi o'ziga xos tafovutlar bilan kechmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar – o'zlashma qoliplar uchun inkubator sifatida xizmat qilayotgan bo'lsa, rasmiy va professional diskurslar bu birliklarning me'yorlashuv maydoniga aylanmoqda.

Shunday qilib, o'zlashma qoliplar zamonaviy o'zbek tili uchun tilshunoslikda faqat kontakt hodisasi emas, balki sintaktik va funksional yangilanishning barqaror omiliga aylanmoqda. Ularning tilda paydo bo'lishi va keng qo'llanilishi tilning moslashuvchanligi, ekspressivlik darajasi va kommunikativ samaradorligini oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Al-Wahy A. S. Towards a borrowability scale for phraseological units: The case of Arabic calques from English // Osool El-Din Journal. – 2022. – Vol. 22, No. 1. – P. 77–103 – URL: https://opde.journals.ekb.eg/article_249930.html
2. Cornillie B. On the pace of syntactic elaboration from Latin calques // Belgian Journal of Linguistics. – 2019. – Vol. 33, No. 1. – P. 59–84. – DOI: <https://doi.org/10.1075/bjl.00023.cor>

3. Lantto H. Conventionalized code-switching: Entrenched semantic-pragmatic patterns of a bilingual Basque–Spanish speech style // International Journal of Bilingualism. – 2015. – Vol. 20, No. 4. – P. 1–21. – DOI: <https://doi.org/10.1177/1367006914552830>
4. Maqsood B., Saleem T., Aziz A., Azam S. Grammatical constraints on the borrowing of nouns and verbs in Urdu and English // SAGE Open. – 2019. – Vol. 9, No. 3. – DOI: <https://doi.org/10.1177/2158244019853469>
5. Қўзиев У.Ў. Ўзбек тили корпусини яратишда ўзлашма грамматик моделларнинг ажратилиши масаласи // Филология ва тилларни ўқитиш масалалари. – 2022. – № 4. – Б. 113–117. – URL: <https://myscience.uz/index.php/linguistics/article/view/146>
6. Шукўров О.У. Янги давр ўзлашмаларида трансформациявий даражаланиш // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2022. – № 4. – Б. 210–216. – URL: <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2022/05/shukurov-o.u.-tablicza-1.pdf>

O'ZBEK XALQI ORASIDA KENG QO'LLANILADIGAN VARVARIZMLAR TAHLILI

QURAMBAYEVA DILNOZA UMRBEK QIZI,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbek xalqi orasida keng qo'llaniladigan varvarizmlar tahlili, varvarizmlarning tilshunoslikdagi o'rni va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga o'zbek tilining varvarizlar bilan boyish sabablari va ularning nutqda qo'llanilish o'rni haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: varvarizm, adabiyotshunoslik, struktura, qurilma, sintaktik shakl, lingvokulturologiya.

АННОТАЦИЯ: В статье дается анализ варваризмов, широко распространенных среди узбекского народа, роль варваризмов в языкознании и их уникальные особенности. При этом обсуждались причины обогащения узбекского языка варварскими словами и их место в речи.

Ключевые слова: варварство, литературоведение, структура, прием, синтаксическая форма, лингвокультурология.

“Varvarizm” so'zi yunoncha “varvar” (chet ellik) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tilda to'liq o'zlashtirilmagan va foydalanishda begona so'z sifatida qabul qilingan yot so'z va iboralarni bildirish uchun ishlatiladi. Bu so'zning etimologiyasi yunoncha va lotin tillarida mavjud bo'lgan barbaroi so'ziga borib taqaladi. Noma'lum tillarda gaplashadigan va Rim va Elladada mavjud bo'lgan madaniyatdan boshqacha madaniyatga ega bo'gan barcha chet elliklar nazarda tutilgan. Bunday atribut nemislar, keltlar, slavyanlar, eronliklar, afrikalik qabilalar va boshqalarga nisbatan ishlatilgan. Barcha rivojlangan tillar ma'lum qit'alardagi har bir tilning aloqalari tufayli varvarizmlarga boy. Xususan, o'zbek tilida o'yin, nokaut, vaqt, ring, trener, champion, adabiyot, doktor, nomzod, muallif, respublika, futbol, gol kabi o'zlashtirilgan so'zlar sifatida ishlatiladigan ko'plab inglizcha so'zlarni ishlatamiz. Varvarizmlar nutqda ekspressivlik vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, biroq ularning noto'g'ri qo'llanilishi til madaniyatiga zarar yetkazadi.[1:79]

Ma'lumki, o'z ona tilimizda mazmundor va nutq odoblariga rioya qilgan holda so'zlash har birimizning burchimizdir. Bunda nutqda doimiy ravishda jargonlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, argolar, shuningdek turli shevalarga oid so'zlarni qo'llash biroz dag'allikni keltirib chiqaradi.

Varvarizmlar o'zbek tiliga chet tillardan kirib kelgan so'zlar bo'lib, ular nutqda o'ziga xos o'rin tutadi va adabiy me'yorlarni buzishi mumkin. Vulgarizmlar va ularning tilshunoslikda uslubiy vosita sifatida qo'llanilishi ham muhokama qilinadi, bu esa varvarizmlarning tilga ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek tilining o'z qatlamini umumturkiy va o'zbekcha so'zlar, shu bilan birga o'zbek tili materiallari zaminida yasalgan so'zlar tashkil etsa-da, unda o'zlashma affikslar va asos komponentlarning ham salmog'i katta. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at boyligining asosiy qismi o'z qatlamga mansub. Shu bilan birga tilimizning boshqa tillar hisobiga boyib borishi ham mavjud fakt sifatida e'tirof etiladi.

VARVARIZMLAR (yun. barbaros — aynan ajnabiy) — ma'lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotligi bilinib turadigan so'z va iboralar. Varvarizmlar asosan so'zlashuv uslubiga xos, tilning adabiy me'yori buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga kirmaydi. Varvarizmlardan ba'zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berish, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi. Mas., V. iyemni («Xanka», «Tanka»), pulni («ko'kidani» bormi — dollar bormi), lavozim va shaxsni («mer», «shef», «bos», «baron») va h. k. ni anglatadi, shuningdek mazax kilishda foydalaniladi. O'zbek tili dav-lat tili maqomini olgach, turli tillar-dan, ayniqsa rus tilidan kirgan Varvarizmlardan («madam», «bratan», «zemlyak», «paxan», «dedulya» va b.) o'zbek so'zlashuv tili faol tozalana boshladi. Varvarizmlar tilning lingvoekologik muvozanatini buzuvchi omil sifatida qaralishi kerak. Ularning ko'payishi o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kamaytiradi.

Vulgarizm ko'pincha his-tuyg'ularni kuchli ifodalash uchun ishlatilsa, varvarizm tilning chet tillar bilan aloqasi natijasida yuzaga keladi. Ikkalasiining farqlari ularning kelib chiqishi, qo'llanilishi va ta'sirida yaqqol ko'rinadi. Tilning nozik jihatlariga qiziqsangiz, ushbu farqlar nutqning ijtimoiy va madaniy rolini tushunishga yordam beradi. Vulgarizm va varvarizm tilning xilma-xilligini ochib beradi. Har bir milliy tilning rivojlanish jarayonida boshqa tillardan so'zlarning kirib kelishi tabiiy hodisadir. Tilshunoslikda bunday hodisa varvarizm atamasi bilan ifodalanadi. Varvarizm — bu tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalash uchun boshqa tillardan to'g'ridan-to'g'ri olingan, hali umumxalq tiliga to'liq singib ketmagan so'z, ibora yoki unsurlarni anglatadi. O'zbek tili ham uzoq tarix davomida arab, fors-tojik, rus va ingliz tillari bilan bevosita aloqada bo'lgan va natijada turli davrlarda ko'plab

varvarizmlarni o'z ichiga olgan. Til taraqqiyotida tabiiy hodisa: O'zbek tili qadimdan turli madaniyat va xalqlar bilan aloqada bo'lgan, natijada varvarizmlar ham kirib kelgan. Masalan, rus, arab, fors-tojik, ingliz tilidan. Yangi tushunchalar paydo bo'lganda, ularga mos so'z yasash imkoniyati bo'lmaganida varvarizmlar vaqtincha yoki butunlay tilga o'rnashib qoladi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya natijasida inglizcha varvarizmlar ayniqsa faol qo'llanmoqda. Varvarizmlar nutqda ekspressivlik vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, biroq ularning noto'g'ri qo'llanilishi til madaniyatiga zarar yetkazadi. [2:70]

O'zbek tilining varvarizmlar bilan boyish sabablari: O'zbek xalqi qadimdan Buyuk Ipak yo'li hududida yashagan, turli madaniyat va xalqlar bilan bevosita aloqada bo'lgan. Savdo, siyosiy aloqalar va diniy ta'sir natijasida boshqa tillardan minglab so'zlar kirib kelgan. Arab va fors-tojik tillari orqali diniy, ilmiy, adabiy terminlar (masalan: ilm, qalam, sabr, madrasah, adab). Rus tili ta'siri orqali XIX–XX asrlarda siyosiy, texnik, maishiy leksika kirgan (stol, vagon, pasport, samolyot). Mustamlaka davrida ruscha varvarizmlar kengaydi, davlat boshqaruvi, ilmiy-ta'limiy sohada rus tilidan olingan terminlar asosiy manba bo'ldi. Mustaqillikdan keyin globallashuv va xalqaro aloqalarning kuchayishi inglizcha varvarizmlarning oqimini kuchaytirdi (internet, biznes, onlayn, startap) O'tgan asr davomida tilimizda ko'plab varvarizmlarning o'rnashib qolishiga sho'rolar hukumatining xalqimiz ustidan boshqaruvi ham sabab bo'ldi. Xususan bunga bir-necha misollarni O'tkir Xoshimov asarlaridan keltirishimiz mumkin:

1.Nima gap mamashka, tinchlikmi? Qiziqarli! Xali Ruzimatbuvi negadir uyat gap bilan so'kdi. Prichinasi menga neizvestna. Nima bo'ldi, mamashka(ruscha so'zni bildiruvchi ona, interesno- qiziq). Yaqinda Ro'zimat buvi to'rt harfli so'zlarni ishlatib, meni biroz la'natladi. Hozirgi o'zbek tilida varvarizmlarning keng tarqalishi tilning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, rus tilidan kirib kelgan iboralar nutqning me'yoriy normalarini buzmoqda.

Kampirning bunday g'alati xatti-harakatining sababini tushunmayman. (prichina sabab, neizvestna-noma'lum)

Bratan, bitta chektiring! (Bratan- Russiyadagi ukam).

Esingiz joyidami zemlyak, - dedi tankchi ovozi pasaytirib. (zemlyak- rus tilida o'sha viloyat, shahar yoki qishloqdan bo'lgan odam).

Pereuchet deb yozib qo'yibdiku, galvars dedi baqirib. (Pereuchet ruscha so'z bo'lib, do'konda tekshiruvdan o'tkazilayotganini bildiradi. Bu misollarning barchasi O'tkir Xoshimov asarlaridan olingan va u O'zbekistonda xx asrning eng ko'p o'qilgan yozuvchilaridan biri edi. Tabiiyki, u o'sha davrning lingvomadaniy xususiyatlarini aks

ettira olgan. xx asr oxiri xxi asr boshlari soʻzlarni varvarizmlar yoki oʻzlashma soʻz sifatida qabul qilish manbasining oʻzgarishi bilan tavsiflanadi.

Oʻzbek tili uzoq tarix davomida turli tillar bilan muloqotda boʻlib, koʻplab varvarizmlarni oʻzlashtirgan. Arab, fors-tojik, rus va hozirgi kunda ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlar xalq nutqida keng qoʻllanib kelmoqda. Bugungi kunda “kompyuter”, “internet”, “telefon”, “blogger”, “onlayn” kabi inglizcha varvarizmlar, shuningdek, sovet davridan qolgan “direktor”, “pasport”, “vagon” singari ruscha soʻzlar xalq orasida juda faol ishlatilmoqda. Varvarizmlarning keng tarqalishiga tarixiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy omillar sabab boʻlgan. Ularning xalq nutqida qoʻllanishi bir tomondan tilning zamonaviylashuviga, xalqaro muloqotga kirishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan milliy sinonimlarning siqib chiqarilishiga, nutqning tabiiyligining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bois, varvarizmlarni toʻgʻri baholash va saralash muhim. Zaruriy tushunchalarni ifodalashda ularning qoʻllanishi tabiiy jarayon boʻlsa, ortiqcha va oʻrnini bosuvchi milliy soʻzlar mavjud boʻlsa, ularni meʼyoriy nutqda cheklash lozim. Oʻzbek tilining boyligi, tabiiyligi va milliy ruhini asrab qolish uchun ilmiy atamalarni oʻzlashtirishda ehtiyotkorlik, milliy muqobillarni yaratish va targʻib etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Bookmany print”, 2022. 79-bet
2. Qurbonov, D. Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(4). 2021. 70-75-bet
3. Safarov SH., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari. Oʻquv-qoʻllanma. Samarqand, 2007. B-68
4. Qurbonov D. “Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida”, *azkurs.org*, 2022.
5. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent. 2005.

BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA KLASSTER METODINING AHAMIYATI

QURBONOVA BONU RUSTAM QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

qurbonovagozal@gmail.com

+99890 937 90 03

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaster metodi va uning mazmun mohiyati, boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil etishda klaster metodining ahamiyati va afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida klaster metodidan foydalanib, dars jarayonlarini tashkil etishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Klaster, metod, ta'lim, idrok, tafakkur, maqsad, axborot, sifat, strategiya, sifat, texnologiya, qobiliyat, muvaffaqiyat, bilim, ko'nikma.

Аннотация: В статье рассматривается кластерный метод и его содержание, значение и преимущества кластерного метода в эффективной организации уроков в начальной школе. Подчеркивается важность организации учебного процесса с использованием кластерного метода на уроках родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: кластер, метод, образование, восприятие, мышление, цель, информация, качество, стратегия, качество, технология, способность, успех, знания, умения.

Abstract: This article discusses the cluster method and its content, the importance and advantages of the cluster method in the effective organization of primary school lessons. The importance of organizing lesson processes using the cluster method in primary school native language lessons is highlighted.

Keywords: Cluster, method, education, perception, thinking, goal, information, quality, strategy, quality, technology, ability, success, knowledge, skills.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida imkoniyat yaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan Klaster ta'lim tarbiya jarayonini bir butun holatda amalga oshirishda muammolarni yechishda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi. Bu usulning afzalligi shundaki, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning klaster usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichiga yoziladi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalarni fikrlash, aniqlashda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilishiga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Klaster metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. O'qitish jarayonida amalga oshiriladigan bu metod puxta o'ylangan strategiya bo'lib undan o'quvchi bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchilarga axborot beradi va ma'lumotlar uzatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash va idrok etish qobiliyati rivojlanib boradi. Ta'lim olish jarayoni turli xil metodlarga tayangan holda kechadi. Dars jarayonlari klaster metodi orqali tashkil etilsa, kerakli natijalarga erishish mumkin. O'qitishdan ko'zlangan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'quvchiga yetkazishdan iboratdir. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi. [1.5]

Metod-yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib "taraqqiyot yo'li" degan ma'noni bildiradi. Ta'lim metodi- ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.[3]

Klaster metodi- pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. [2.8] Klaster metodi deganda- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida bo'lgan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi o'qish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar o'qib o'rganishi yuqori darajada bo'lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda

tashabbuskorligi va ma'suliyat, qo'llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Klaster so'zi - inglizchadan olingan bo'lib g'uncha, bog'lam, tarmoqlashtirish ma'nolarini bildiradi.

Klaster metodini ona tili darslarida qo'llashning foydali taraflari katta ahamiyatga ega. Misol tariqasida, boshlang'ich sinf ona tili darslarida klaster metodi orqali so'z turkumlarini bir-biridan ajratish va ularni tarmoqlashtirish orqali tushuntirish natija beradi. Sifat so'z turkumi misolida uni klaster orqali ochib berish va kengroq tushunchalardan foydalanish mumkin. Sifat so'z turkumi, uning xususiyatlari, ma'no turlari, grammatik va leksik jihatlari, daraja kategoriyalarini alohida klaster shakliga keltirib ularga misollar topish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini topqirlikka undaydi. Ularning farqli va o'xshash taraflarini ochib berishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ustida ishlagan, zamon bilan hamnafas, interfaol texnologiyalarni, metodlarni yaxshi bilishi, uni tahlil qila olishi, yangiliklar yaratishi, o'zida barcha pedagogik mahoratlarni jamlay olishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Dars samaradorligini oshirishda har bir pedagog ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, fikrlash hamda qobiliyatlarini, ta'lim samaradorligini oshirishda klaster metodidan foydalangan holatda, o'z pedagogik texnologiyalarini yaratib, ularni dars davomida qo'llash orqali dars samaradorligini oshirishga erishiladi. Boshlang'ich sinflarda klaster metodidan foydalanishning qulay usullari shundan iboratki, qisqa vaqt ichida chizma orqali mavzuni tushuntirish va mavzuni mustahkamlashga yangi mavzuni, qiziqarli tashkil etishga, o'quvchilarning diqqat e'tiborini jalb qilishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Himmataliyev Do'stnazar Valiyeva Shahnoza Abrorxujayevaning TA'LIM JARAYONIDA KLASSTER METODIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI maqolasidan volume-9_Issue-1November 2022

2. Shohida Rahmatullayevna Mahkamova Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Musika ta'limi" mudirining TA'LIM JARAYONIDA KLASSTER METODINING MAZMUN MOHIYATI maqolasi 150.

3. <https://uz.wikipedia.org>

TILSHUNOSLIK FANINING TARAQQIYOTI: YANGI YONDASHUVLAR VA YUTUQLAR

RAHIMBOYEVA SHAHRIBONU SHERZOD QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslik fanining taraqqiyot jarayoni, uning zamonaviy yo'nalishlari va yangi yondashuvlari tahlil qilinadi. XX–XXI asr tilshunosligi strukturalizm, generativ grammatika, kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, sotsiolingvistika va psixolingvistika kabi yo'nalishlarning shakllanishi hamda rivojlanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, korpus lingvistikasining paydo bo'lishi, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar tilshunoslikning yangi bosqichga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Maqolada, shuningdek, til va jamiyat o'zaro ta'sirini o'rganish, ko'p tillilik masalalari hamda tilning madaniyat va tafakkur bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, taraqqiyot, yangi yondashuvlar, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, korpus lingvistika, diskurs tahlili, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt.

Annotation

This article analyzes the process of development in the field of linguistics, its modern directions, and new approaches. Linguistics of the 20th–21st centuries is explained through the formation and advancement of structuralism, generative grammar, cognitive linguistics, discourse analysis, sociolinguistics, and psycholinguistics. In addition, the emergence of corpus linguistics, as well as research carried out in the fields of artificial intelligence and computational linguistics, laid the foundation for raising linguistics to a new stage. The article also scientifically highlights the study of the interaction between language and society, issues of multilingualism, and the interconnection of language with culture and thought.

Keywords: Linguistics, development, new approaches, cognitive linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, corpus linguistics, discourse analysis, computational linguistics, artificial intelligence.

Tilshunoslik insoniyat bilimlarining muhim tarmoqlaridan biri sifatida tarix davomida katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi va har bir davrning intellektual, madaniy hamda texnologik ehtiyojlariga moslashib bordi. Dastlabki bosqichlarda

asosan tillarni tavsiflash va saqlash bilan shug'ullangan bu fan keyinchalik tilni tizim sifatida, ijtimoiy hodisa sifatida hamda kognitiv vosita sifatida o'rganadigan murakkab ilmiy soha darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, XX asr tilshunoslik tarixida muhim burilish davri bo'lib, unda strukturalizm, generativ grammatika, kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlarning shakllanishi tilshunoslik tadqiqotlarini grammatika va fonetika doirasidan tashqariga kengaytirdi.[1]

Zamonaviy davrda esa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, globallashtirishning kuchayishi hamda fanlararo tadqiqotlarning kengayishi tilshunoslikka yangi istiqbollarni olib keldi. Korpus lingvistika, diskurs tahlili, psixolingvistik va kompyuter lingvistikasi kabi yo'nalishlar nafaqat an'anaviy lingvistik nazariyani boyitdi, balki ta'lim, kommunikatsiya va sun'iy intellekt sohalarida amaliy qo'llanish imkoniyatlarini ham kengaytirdi.

Ushbu maqolada tilshunoslikning taraqqiyot bosqichlari, zamonaviy yo'nalishlari va innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, XXI asr tilshunosligida til, jamiyat, madaniyat va tafakkur o'zaro aloqadorligi fan rivojida qanday o'rin tutayotgani ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Tilshunoslikning rivojlanishi va uning turli yo'nalishlarida mashhur olimlarning nazariyalari alohida o'rin tutadi. Ularning qarashlari ushbu fan shakllanishi hamda taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Quyida ayrim olimlarning til haqidagi fikrlariga va tilshunoslikning tarixiy bosqichlariga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Tilshunoslikning ilk ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. G'arbiy ilmiy an'analar bu sohaning boshlanishini qadimgi Yunoniston va Hindiston bilan bog'laydi. Yunon falsafasida Aristotel, Platon va Protagoras kabi mutafakkirlarning tilga oid asarlari muhim manba hisoblanadi. Hind tilshunosligi esa sanskrit tili va uning grammatikasini chuqur o'rganish asosida shakllangan bo'lib, Pāṇini tomonidan yaratilgan "**Aṣṭādhyāyī**" asari ilmiy grammatikaga asos solgan.[2]

Tilshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari[3]

• **Qadimgi davr (Hindiston va Yunoniston):** Tilshunoslik dastlab mifologik va falsafiy qarashlar asosida rivojlangan. Miloddan avvalgi IV–V asrlarda Pāṇinining grammatikasi Hind tilshunosligi uchun poydevor bo'ldi.

• **O'rta asrlar (Islom dunyosi va Yevropa):** Islom olamida Abu Nasr Forobiy, Ibn Xaldun singari allomalar tilshunoslikka oid asarlar yaratdilar. Yevropada esa lotin tili va uning grammatikasi markaziy o'rinda bo'lib, XII–XIII asrlarda universitetlarda tilshunoslik mustaqil fan sifatida o'qitila boshlandi.

• **Yangi davr (XVII–XIX asrlar).** Yangi davrda tilshunoslik asta-sekin mustaqil ilmiy sohaga aylana boshladi. XIX asrda nemis olimlari tomonidan ishlab chiqilgan

tipologiya (tillarning o'xshashlik va farqlarini taqqoslab o'rganish) hamda **tarixiy-qiyosiy metod** (tillarning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilish) ilmiy hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etildi. Bu davr tilshunoslik faqat tilning ichki tuzilishini o'rganish bilangina chegaralanib qolmay, balki tilning jamiyat hayoti va inson psixologiyasi bilan uzviy bog'liqligini ham o'rganishga yo'naltirildi.

Tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari:[4]

- **Fonetika va fonologiya** – tilning tovush tizimi va tovushlarning ishlash mexanizmini tadqiq qiladi.

- **Morfologiya** – so'zlarning tuzilishi hamda ularning tarkibiy qismlarini o'rganadi.

- **Sintaksis** – so'z birikmalari va gaplarning tuzilishini tahlil qiladi.

- **Semantika** – so'zlarning ma'nosi va ular orasidagi munosabatlarni o'rganadi.

- **Pragmatika** – tilning kontekstual va ijtimoiy jihatlarini tadqiq etadi.

- **Sotsiolingvistika** – til va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganadi.

- **Psixolingvistika** – tilni idrok qilish, undan foydalanish va nutq jarayonlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladi.

XX asrda lingvistika turli yangi oqimlar va nazariyalar bilan boyidi. **Strukturalizm, funksionalizm va generativ grammatika** singari yondashuvlar fan rivojida muhim bosqich bo'ldi. Ferdinand de Sossyur, Noam Chomsky, Roman Jakobson kabi mashhur olimlar o'z ilmiy qarashlari bilan tilshunoslikni yangicha darajaga olib chiqdilar.[5]

- **Strukturalizm (F. de Sossyur):** tilni tizim sifatida ko'rib, uning elementlari va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Sossyurning tilni tuzilmalari asosida tahlil qilish g'oyasi lingvistika uchun yangi ufqlarni ochdi.

- **Generativ grammatika (N. Chomsky):** til inson ongida shakllangan ichki qobiliyat sifatida izohlandi. Chomskyning nazariyasi tilni nafaqat ijtimoiy, balki psixologik va neyrobiologik jihatlar bilan ham o'rganishga zamin yaratdi.

- **Pragmatika va diskurs:** XX asr oxiridan boshlab tilshunoslikda pragmatika va diskurs tahliliga bo'lgan qiziqish ortdi. Bu yondashuvlar til va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi murakkab aloqalarni anglash imkonini berdi.

Bugungi kunda tilshunoslik faqat tilning ichki tuzilishini emas, balki uning **ijtimoiy, siyosiy, psixologik va madaniy kontekstlardagi rolini** ham o'rganmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida **kompyuter lingvistika, sun'iy intellekt va tilni qayta ishlash** kabi yangi yo'nalishlar shakllandi va tilshunoslik tadqiqotlarini yanada kengaytirdi.[6]

Tilshunoslik bugungi kunda ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq. Xususan, **antropologiya, psixologiya, sotsiologiya va tarix** bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqotlar tilshunoslikni yanada boyitmoqda. Shu bilan birga, tilni o'rganish jarayoni jamiyat va madaniyatning rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tilshunoslik taraqqiyotida yirik olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariya va metodologiyalar tilning asosiy tarkibiy qismlari – strukturasi, ma'nosi hamda nutq jarayonlarini o'rganishda yangi yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Har bir olim o'z ilmiy qarashlari orqali tilni turli qirralarda tahlil etib, bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda pragmatika, kognitiv lingvistika va tilni qayta ishlash texnologiyalari kabi yo'nalishlar paydo bo'lib, tilni yanada kengroq va chuqurroq tadqiq etish imkonini bermoqda.

Tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy bosqichlar hamda ilmiy maktablar bilan uzviy bog'liq bo'lib, insoniyatning til sirlarini bilishga bo'lgan intilishining natijasidir. Dastlab diniy-falsafiy qarashlar ta'sirida shakllangan bu soha keyinchalik mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi. Avvalgi tadqiqotlarda tilning sintaktik, morfologik va fonetik jihatlari ko'proq o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik semantik, pragmatik va sotsiolingvistik tomonlari ham keng tadqiq etila boshlandi. Shuningdek, strukturalizm, funksionalizm va generativizm kabi nazariy yondashuvlar yuzaga kelib, har biri o'ziga xos metodologiyasi bilan tilshunoslikning boyishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda esa tilshunoslik texnologiyalar bilan uyg'unlashib, yangi yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Ushbu taraqqiyot nafaqat tilni yanada chuqurroq anglash, balki inson tafakkuri, madaniyati va psixologiyasini tadqiq qilishda ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.[7]

Hozirgi davr tilshunosligi esa an'anaviy yondashuvlardan tashqari, pragmatika, diskurs tahlili, korpus lingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistika va sun'iy intellekt kabi zamonaviy yo'nalishlarni o'z ichiga olmoqda. Bu esa tilshunoslikni nafaqat nazariy, balki amaliy fan sifatida ham dolzarb qiladi.

Shuningdek, tilshunoslikning antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, tarix va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy aloqadorligi tilni chuqurroq anglash va uni turli kontekstlarda tahlil etish imkonini bermoqda. Natijada, tilshunoslik nafaqat tilni o'rganish vositasi, balki inson tafakkuri, jamiyat va madaniyatni tushunish kalitiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulov R. R. *Umumiy tilshunoslik*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. G'ulomov A., Karimov S. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

3. Madrahimov N. *Tilshunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Hojiyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. – Toshkent: Fan, 1981.
5. Jo'rayev M. *Til va jamiyat: sotsiolingvistik tadqiqotlar*. – Toshkent: Universitet, 2015.
6. Nurmonov A. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Universitet, 2012.
7. Begmatov E. *Leksikologiya masalalari*. – Toshkent: Fan, 2007.

TILSHINOSLIKDA RAQAMLI TEXNALOGYALARNING O'RNI

RAHMATOVA GULSHODA ERKIN QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

22/1-guruh talabasi

gulshoda20042003@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning tilshunoslik sohasidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Raqamli vositalar yordamida til o'rganish, til birliklarini tahlil qilish, tarjima tizimlarini rivojlantirish hamda sun'iy intellekt asosida ishlovchi til modellari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar tilshunoslikdagi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, raqamli texnologiya, sun'iy intellekt, tarjima, til modeli, lingvistik.

AnnotationThis article discusses the role and importance of digital technologies in the field of linguistics. It focuses on how digital tools contribute to language learning, linguistic analysis, translation systems, and the development of AI-based language models. Moreover, it emphasizes how modern technologies enhance the efficiency of linguistic research and promote the digital transformation of linguistic studies.

Keywords: linguistics, digital technology, artificial intelligence, translation, language model, research.

Bugungi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida chuqur ildiz otmoqda. Ayniqsa, tilshunoslikda texnologiyalarning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, ular tilni o'rganish, tahlil qilish, o'qitish va saqlash jarayonlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Raqamli vositalar tilshunoslarga so'z boyligi, grammatik tuzilmalar, talaffuz, dialektlar va lingvistik hodisalarni chuqur o'rganish imkonini bermogda. Bu esa nafaqat ilmiy izlanishlarni, balki til o'qitish jarayonlarini ham samarali va zamonaviy shaklga olib keladi.

Tilshunoslikda raqamli texnologiyalar deganda avvalo kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt, avtomatik tarjima, tovushni tanish, elektron lug'atlar va matn tahlili kabi sohalar tushuniladi. Bu tizimlar yordamida tilni o'rganish yanada interaktiv, aniq va qulay holatga keldi. Masalan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar matnni avtomatik tarjima qilish, grammatik xatolarni aniqlash yoki nutqni tahlil qilish

imkonini beradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar tilni o'qitish jarayonida ham keng qo'llanilmoqda. Hozirda turli onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron ta'lim tizimlari mavjud bo'lib, ular til o'rganishni yanada osonlashtirmoqda. Talabalar va o'quvchilar istalgan joyda, istalgan vaqtda chet tillarini o'rganish imkoniga ega. Bu esa o'qituvchilarga ham darslarni samarali tashkil etish va natijalarni monitoring qilishda katta qulaylik yaratadi. Interaktiv mashg'ulotlar, video darslar va virtual test tizimlari o'quv jarayonini qiziqarli va foydali qiladi.

Raqamli texnologiyalar tilshunoslikda madaniy merosni saqlashda ham alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda qadimiy qo'lyozmalar, toshbitiklar, asarlar va tarixiy manbalar raqamlashtirilib, elektron arxivlarda saqlanmoqda. Bu esa o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, shevalarini, dialektlarini va yozuv tizimlarini chuqur o'rganish imkonini bermoqda. Raqamli saqlash tizimlari orqali milliy merosimiz keyingi avlodlarga yetkazilmoqda. Bugungi kunda insoniyat hayoti to'liq raqamli dunyo bilan chambarchas bog'liq. Axborot texnologiyalari nafaqat iqtisodiyot, ta'lim yoki tibbiyotda, balki madaniyat va tilshunoslik sohalarida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Til — bu insoniyat tafakkurining oynasi, madaniyatning asosi, fikr almashish vositasi. Shuning uchun tilshunoslik sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat ilmiy izlanishlarni yengillashtiradi, balki tilni o'rganish va uni rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida bugun tilni o'rganish, tarjima qilish, tahlil etish va hatto yangi so'zlar, iboralar yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu jarayonlar nafaqat o'qituvchilar va talabalar uchun, balki tarjimonlar, jurnalistlar, dasturchilar va til mutaxassislari uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tilshunoslikda raqamli texnologiyalarning asosiy afzalligi — bu tezkorlik, aniqlik va tahliliy imkoniyatlardir. Oldin minglab matnlarni tahlil qilish yillar talab etgan bo'lsa, endilikda maxsus kompyuter dasturlari bu ishni soniyalar ichida bajaradi. Korpus lingvistikasi deb ataladigan yo'nalish aynan shu imkoniyatlar asosida shakllangan bo'lib, u katta hajmdagi matnlarni raqamli shaklda saqlash va tahlil qilishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar shuningdek sun'iy intellekt (AI) yordamida tilni avtomatik o'rganish va qayta ishlashni ta'minlamoqda. Masalan, ChatGPT, Google Translate, DeepL kabi tizimlar inson tilini tushunish, tarjima qilish, so'z boyligini kengaytirish hamda muloqotni osonlashtirishda muhim vositaga aylandi. Bu tizimlar nafaqat kommunikatsiyani yengillashtiradi, balki tillararo madaniy muloqotni ham rivojlantiradi. Nutqni tanish texnologiyalari — masalan, ovozli buyruqlar, avtomatik

yo'zuvga aylantirish tizimlari — tilshunoslikda yangi tarmoqlarni yaratdi. Bu texnologiyalar nogironligi bo'lgan insonlar uchun ham qulay imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bilan birga, elektron lug'atlar, onlayn o'quv platformalari (Duolingo, Memrise, Babbel va boshqalar) til o'rganish jarayonini interaktiv va samarali qildi. Raqamli vositalar shuningdek, ona tilini saqlash va rivojlantirishda ham katta rol o'ynamoqda. O'zbek tili uchun yaratilgan elektron lug'atlar, grammatik analizatorlar, avtomatik tarjimon dasturlar, matn tahrir vositalari va ovoz sintezatorlari milliy tilni raqamli maydonga olib chiqmoqda. Bu esa o'zbek tilining xalqaro miqyosda keng tarqalishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, ta'lim jarayonida muhim. Masofaviy ta'lim platformalari, elektron test tizimlari, onlayn ma'ruzalar va videodarslar tilshunoslik fanining o'qitilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Talabalar endi dunyoning istalgan nuqtasidan til o'rganish imkoniga ega bo'lishmoqda.

Tilshunoslikdagi raqamli texnologiyalarning yana bir muhim yo'nalishi – bu tilni tahlil qilish va statistik tadqiqotlarni amalga oshirishdir. Til korpuslari va katta ma'lumotlar bazalari (Big Data) tilshunoslarga real til materiallari ustida ilmiy ishlanmalar olib borish imkonini beradi. Masalan, O'zbek tilining milliy korpusi tilshunoslarga so'z chastotasi, semantik bog'lanishlar va grammatik shakllarni tahlil qilish imkonini bermoqda. Bu esa til siyosati, ta'lim dasturlari va leksikografiya sohalarida muhim amaliy natijalar beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, sun'iy intellekt tizimlari hali ham inson nutqining barcha nozik ma'nolarini to'liq anglay olmaydi. Shuningdek, raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish insonning tabiiy nutq malakasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, texnologiyalarni muvozanatli va maqsadga muvofiq qo'llash zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar tilshunoslik sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ular nafaqat tahlil va o'rganish jarayonini soddalashtirdi, balki tilni saqlash, o'qitish va rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqdi. Shunday ekan, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularni ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llash va milliy tilimizni raqamli muhitda rivojlantirish – zamonaviy tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008
2. Rahimov A. Zamonaviy tilshunoslik va raqamli texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

3. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2011.
4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. Speech and Language Processing. Prentice Hall, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari vazirligi rasmiy sayti —

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH USULLARI

RAIMOV BEGZOD RUSTAMOVICH,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

e-mail: begzotraimov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tilida ish yuritishning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati, hujjatlar tayyorlashda amal qilinadigan usullar hamda davlat tilining jamiyat hayotidagi o'rnini haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish masalalari tahlil qilinib huquqiy hujjatlardan ham misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Davlat tili, ish yuritish, hujjat, rasmiy uslub, qonun, huquqiy asos, milliy qadriyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-правовое значение делопроизводства на государственном языке, методы, применяемые при подготовке документов, а также роль государственного языка в жизни общества. Также будут проанализированы вопросы совершенствования делопроизводства на государственном языке и приведены примеры из правовых документов.

Ключевые слова: государственный язык, делопроизводство, документ, официальный стиль, право, правовая основа, национальная ценность.

Til - millatning ruhi, uning tarixiy xotirasi va madaniy boyligini avloddan-avlodga yetkazuvchi eng muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'lib, bu til nafaqat xalqning kundalik turmushida, balki rasmiy muomalalarda ham asosiy aloqa vositasidir.

Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek: «*Davlat tili – millatning o'zligini, tarixini va manaviyatini belgilab beradigan muhim omildir.*» Demak, davlat tilida ish yuritish nafaqat qonuniy majburiyat balki, milliy g'ururimiz hamdir. Davlat tilida ish yuritishning huquqiy poydevori O'zbekiston Respublikasini davlat tili – o'zbek tilidir. Davlat tili O'zbekiston Respublikasini 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonunida belgilab qo'yilgan. Qonunda quyigilar ko'rsatilgan:

“*O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Davlat tili O'zbekiston Respublikasining butun hududida davlat boshqaruvi, qonun chiqarish, sud va ish yuritish sohalarida amal qiladi.*”

Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan «Davlat tilida ish yuritish qoidalari» davlat idoralari, muassasa va majburiy qo'llaniladigan asosiy me'yoriy hujjat

hisoblanadi. Mustaqil davlat sifatida O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili sifatida maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, bugungi kunda barcha sohalarda, jumladan ilmiy faoliyatda ham keng qo'llanilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarni davlat tilida olib borish nafaqat milliy o'zlikni namoyon etadi, balki ilmiy izlanishlarning ommaga tushunarli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Davlat tili – millatning ma'naviy tayanchi, o'zligimizni anglashning eng muhim mezonidir".

Davlat tilida ish yuritishning asosiy usullari:

Avvalambor ish qog'ozlarida rasmiy uslubdan foydalaniladi. Har bir hujjat lo'nda, aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Masalan, ariza, buyruq, yoki qaror yozilishida ortiqcha so'zlar ishlatilmasligi talab etiladi.

1. **Qonuniy me'yorlariga amal qilish.** Hujjatlar tayyorlashda «Davlat tilida ish yuritish qoidalar» va imlo lug'atlaridan foydalanish zarur.

2. **Adabiy til me'yorlariga rioya qilish.** Har bir hujjatda imloviy xatolarga yo'l qo'ymaslik, jummalarni tog'ri tuzish, yagona terminlardan foydalanish zarur.

3. **Elektron hujjat aylanishidan foydalanish.** Bugungi kunda ko'plab tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi joriy etilgan. Bu tizimda ham davlat tili ustuvor bo'lib qolmoqda.

Davlat tilida ish yuritishning amaliy ahamiyati

Davlat tilida ish yuritishning yo'lga qo'yilishi bir necha jihatdan ahamiyatga ega:

•**Huquqiy hujjat.** Fuqarolarning davlat tili asosida teng huquqli xizmat ko'rsatish huquqi ta'minlanadi.

•**Ijtimoiy jihat.** Jamiyatda milliy qadriyatlarga hurmat yuksaladi.

•**Ma'muriy jihat.** Rasmiy hujjatlar tartibli yuritiladi, ishda aniqlik va tizimlilik ta'minlanadi. "Hujjat" arabcha so'z bo'lib, tasdiqlash, qayd etish ma'nosini bildiradi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yozuv va tasvirlar, asar yoki adabiyot ma'nosini ham ifodalaydi. Hujjatchilikning kelib chiqishi qadim davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo hududidan topilgan qadimgi madaniy obidalar, turli moddiy jismlarga bitilgan ma'lumotnomalar ajdodlarimizning qadimdan o'ziga xos hujjatchilik an'analari rioya qilganliklaridan dalolat beradi.

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan keyin o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanilmoqda, xorijdagi ko'plab oliy o'quv yurtlari, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ortib bormoqda.

Islom Karimov shunday degan edi: «*Tilni yo`qotish – millatni yo`qotish demakdir.*» Shu bois davlat tilida ish yuritishni kuchaytirish millat kelajagi uchun ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilida ish yuritish – bu nafaqat qonuniy talab, balki har birimizning fuqarolik burchimizdir. U jamiyatda tartib, milliy qadriyat va ma`naviyatnimustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish, elektron hujjat aylanishi tizimini kengaytirish hamda xodimlarning til madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. «Yangi O'zbekiston strategiyasi». – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun. – Toshkent, 1989.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 103 b.
4. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish: Akademik litseylar uchun darslik. . — T.: «Sharq», 2004.

INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARGA OT SO'Z TURKUMINI O'QITISH METODIKASI

RAJABBOYEVA GULSEVAR OTABEK QIZI

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

rajabboyevagulsevar426@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdan ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishning o'quvchilar bilimni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, ot so'z turkumini o'rgatishda "Klaster", "Aqliy hujum", "Juftlikda ishlash", "Topishmoqli kartochkalar" kabi interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashni va grammatik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda nutq madaniyati va ijodiy yondashuvni shakllantirishda interfaol metodlarning samarali ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ot so'z turkumi, interfaol metod, ona tili, ta'lim samaradorligi, klaster, aqliy hujum, o'yin texnologiyalari, mustaqil fikrlash.

Annotation. This thesis highlights the importance of using interactive teaching methods in native language lessons to strengthen students' knowledge. In particular, the use of interactive methods such as "Cluster", "Brainstorming", "Pair Work", and "Riddle Cards" in teaching the noun word category increases students' interest in the topic, develops independent thinking, and helps them master grammar more effectively. The results of the study show that interactive approaches play a significant role in improving students' speech culture and creative skills.

Keywords: noun word category, interactive method, native language, learning effectiveness, cluster, brainstorming, educational games, independent thinking.

Аннотация. В данной тезисной работе раскрыта значимость использования интерактивных методов обучения на уроках родного языка для закрепления знаний учащихся. В частности, применение таких интерактивных методов, как «Кластер», «Мозговой штурм», «Работа в парах» и «Карточки-загадки» при изучении имён существительных повышает интерес учащихся к теме, развивает их самостоятельное мышление и способствует более глубокому усвоению грамматического материала. Результаты исследования показывают эффективность интерактивных подходов в формировании речевой культуры и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: имя существительное, интерактивный метод, родной язык, эффективность обучения, кластер, мозговой штурм, игровые технологии, самостоятельное мышление.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga, mantiqiy izlanishga undaydi. Ona tili darslarida, xususan, ot so'z turkumini o'rgatishda an'anaviy yondashuvlar o'rniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, otlarning ma'nosini, shaklini va qo'llanishini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

O'quvchilarni har tomonlama barkamol inson bo'lib shakllantirishda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida alohida ta'kidlanganidek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Ta'lim sifati va samaradorligi ta'lim mazmunining asosiy maqsad va vazifalarga mosligi, ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi, hayot bilan bog'liqligi, shuningdek, ta'lim mazmuniga mos axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalar majmuasi tanlanishi bilan ta'minlanadi. Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda dars rejasi (loyihasi) ni interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida aniq va mukammal ishlab chiqish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishning muhim omilidir. O'qitish metodlari o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo'lidagi faoliyatidan tarkib topgan bo'lib, kimga nimani qanday o'rgatish zarurligi haqidagi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish va ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo'llaniladigan metod va usullarni mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashda o'z samarasini beradi.[1]

Ona tili fanida ot so'z turkumi o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirishda, nutq madaniyatini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Shu sababli o'quvchilarga bu mavzuni o'rgatishda quyidagi interfaol metodlar samarali natija beradi:

1. "Klaster" metodi — o'quvchilar "ot" tushunchasi atrofida bog'liq so'zlar, ma'nolar va misollarni xarita shaklida tuzadilar.

2. “Aqliy hujum” — “Ot nima?”, “Otning qanday turlari bor?”, “Nega ba’zi soʻzlar ot sanaladi?” kabi savollar asosida fikrlashni rivojlantiradi.

3. “Topishmoqli kartochkalar” oʻyini — oʻquvchilarga otlarni aniqlovchi topishmoqlar beriladi, ular javob topish orqali yangi soʻzlarni oʻzlashtiradilar.

4. “Juftlikda ishlash” — oʻquvchilar juftlikda otlarning turini, kelishigini, sonini aniqlaydilar va bir-birlarini baholaydilar.

5. “Find Someone Who...” oʻyini — “kimda ot bilan ifodalangan soʻz bor?” kabi vazifalar orqali interfaol muloqot shakllanadi.

“Nima uchun” texnikasi - muammoning dastlabki sabablarini aniqlash boʻyicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Oʻqituvchi tinglovchilarni “Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishtiradi. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun” soʻrovini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmaguncha davom etadi va javoblar guruhlarda umumlashtiriladi. “Nima uchun” grafikli organayzeri chizmasini tuzish qoidalari:

1. Aylana, toʻgʻri toʻrtburchak yoki boshqa turdagi shakllardan foydalanishni oʻzingiz tanlaysiz. 2. Chizmaning koʻrinishini – mulohazalar zanjirini toʻgʻri chiziqlimi, toʻgʻri chiziqli emasligini oʻzingiz tanlaysiz.

3. Yoʻnalish koʻrsatkichlari sizning qidiruvlaringizni, dastlabki holatdan izlanishgacha boʻlgan yoʻnalishingizni belgilaydi. Misol: «Nima uchun?» metodi orqali oʻquvchilarning oʻzlashtirilgan bilimlari mustahkamlanadi. Bunda “nima uchun?” savoli orqali voqea-hodisalar ketma-ketlikda bayon qilinadi. Oxirgi «nima uchun?» savolida voqeaning yechimi topiladi

“Aqliy hujum” metodining qoʻllanilishi va ahamiyati

“Aqliy hujum” — bu oʻquvchilarni faol fikrlashga, oʻz bilimlarini erkin ifoda etishga undaydigan interfaol metodlardan biridir. Ushbu metodda oʻqituvchi mavzuga doir muammoli savollar beradi, oʻquvchilar esa oʻz fikrlarini ochiq tarzda bildiradilar, turli gʻoyalarni ilgari suradilar.

Masalan, “Ot nima?”, “Otning qanday turlari bor?”, “Nega ba’zi soʻzlar ot sanaladi?” kabi savollar orqali oʻquvchilar oʻz bilimlarini tahlil qiladi, eslab qolgan maʼlumotlarni qayta tiklaydi va yangi xulosalarga keladi.

Bu jarayonda har bir oʻquvchi oʻz fikrini aytish imkoniga ega boʻladi — bu esa nutq faoliyatini, mantiqiy fikrlashni hamda grammatik tushunchalarni ongli oʻzlashtirishni rivojlantiradi.

Shuningdek, “Aqliy hujum” metodi darsda ijodiy muhit yaratadi: oʻquvchilar bir-birining fikrini toʻldiradi, tahlil qiladi, toʻgʻri yoki notoʻgʻri javoblarni solishtirish

orqali to'g'ri bilimni mustahkamlaydi. O'qituvchi bu jarayonda rahbar sifatida ishtirok etadi — u o'quvchilar fikrini yo'naltiradi, umumlashtiradi va yakuniy xulosa chiqaradi.[2]

Natijada o'quvchilar:otning ma'nosi va grammatik xususiyatlarini yaxshiroq tushunadilar; mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar; dars jarayonida faol ishtirokchiga aylanadilar. Shu tarzda "Aqliy hujum" usuli nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni fikrlovchi, izlanishga moyil shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, mavzuni mustaqil o'zlashtirishga undaydi. Natijada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi boyiydi, grammatik tushunchalarni ongli o'zlashtirish darajasi ortadi.

Xulosa. Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda ot so'z turkumini chuqur anglash, mavzuga nisbatan qiziqishni oshirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, bunday darslar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy muloqotni ta'minlaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, ot so'z turkumini o'rgatishda interfaol yondashuvlar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. — T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2006.
3. Sattorova X.J., Boshlang'ich sinfda ot so'z turkumini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
5. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. — Toshkent, 2006.

SOHAVIY XIZMAT YOZISHMALARI TASNIFI

RAMAZANOVA ASELYA RUSLAN QIZI,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sohaviy xizmat yozishmalari tushunchasi, ularning turlari, rasmiy hujjatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Xizmat yozishmalarining tuzilishi, tili va uslubi, ularni rasmiylashtirishda amal qilinadigan me'yoriy talablar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy tashkilotlarda elektron yozishmalar va ularning samaradorligini oshirish yo'llari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sohaviy xizmat yozishmalari, hujjat, rasmiy uslub, til me'yori, ish yuritish, xizmat maktubi, elektron yozishmalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие служебных деловых переписок, их виды, место и значение в системе официальных документов. Освещаются структура, язык и стиль служебных переписок, а также нормативные требования к их оформлению. Кроме того, рассматриваются современные электронные переписки в организациях и пути повышения их эффективности.

Ключевые слова: служебная переписка, документ, официальный стиль, языковая норма, делопроизводство, служебное письмо, электронная переписка.

Hujjatlar insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib kelgan. Ayniqsa, xizmat yozishmalari davlat boshqaruvi va tashkilotlar faoliyatini samarali yuritishda asosiy vosita hisoblanadi. Ularning to'g'ri yuritilishi boshqaruv jarayonlarining aniqligi, huquqiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Idoraviy hujjat aylanish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida ham hujjatlarni rasmiylashtirishda yagona talab va standartlarga amal qilish lozimligi qayd etilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori, 2020-yil 7-iyul).

Xizmat yozishmalari turlari orasida sohaviy xizmat yozishmalari alohida o'rin tutadi. Ular muayyan soha yoki kasbiy faoliyat yo'nalishida yoziladigan rasmiy

hujjatlar bo'lib, maqsadli axborot almashinuvi, hamkorlik, tashkiliy boshqaruv va hisobot jarayonlarida qo'llaniladi. Xizmat yozishmalari mazmunan bir-biridan farq qiladi. Ularda muassasa faoliyati bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha so'rovlar, talab, iltimos, takliflar va kafolatlar aks ettiriladi. Shu ma'noda, xizmat yozishmalari yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar guruhlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuni hisobga olib, zamonaviy hujjatshunoslikda ushbu guruhlardan keyin xizmat yozishmalarini alohida guruh sifatida tasniflash mantiqan to'g'ri keladi. Har qanday yozishmalarda, odatda, ko'plab hujjatlarda manzil yozish kerak bo'ladi. Manzil ko'pgina hujjatlarning tarkibiy qismidir.

Sohaviy xizmat yozishmalari — bu ma'lum bir soha faoliyatiga oid masalalarni yorituvchi, rasmiy uslubda yoziladigan hujjatlar majmuasidir. Ular sohaga xos terminologiya va uslub me'yorlari asosida tuziladi. Xizmat yozishmalari — rasmiy ish yuritishda eng faol ishlatiladigan hujjatlar bo'lib, ular tashkilotlar o'rtasidagi rasmiy muloqotni ta'minlaydi va boshqaruv jarayonining samaradorligini oshiradi.[2:45]. Masalan, ta'lim sohasida - buyruq, tavsiyanoma, ma'lumotnoma; tibbiyotda - epikriz, yo'llanma; iqtisodiyotda - shartnoma, hisobot; huquqda - ariza, tushuntirish xati kabi xizmat yozishmalari mavjud. Xizmat xatlari xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Xatlar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) javob xati talab qilinadigan xatlar (da'vo xatlari, so'rov xatlari, iltimos xatlari).
- 2) javob xati talab qilinmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

Rasmiy ish hujjatlari mavjud bo'lmagan hollarda xizmat xatlari maxsus ish qog'oziga yoki oddiy qog'ozga yoziladi. Agar xat oddiy qog'ozda yozilgan bo'lsa, yuqori chap burchakda xat yuborgan muassasa nomi yozilgan to'rtburchak muhr qo'yiladi.

Sohaviy xizmat yozishmalarining xususiyatlari.

Sohaviy xizmat yozishmalari quyidagi asosiy belgilar bilan ajralib turadi:

1. Rasmiy uslub – hissiy ifodalar ishlatilmaydi, mantiqiy izchillik saqlanadi.
2. Aniqlik va ixchamlik – har bir so'z hujjat mazmunini aniq ifodalashi kerak.
3. Huquqiy kuchga ega bo'lish – ayrim hujjatlar (buyruq, shartnoma) qonuniy kuchga ega.
4. Sohaviy terminologiya – masalan, tibbiyotda “epikriz”, iqtisodiyotda “balans”, ta'limda “o'quv dasturi”.
5. Me'yoriy talablar asosida yozilishi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-yanvardagi 45-son qarorida belgilangan “Rasmiy hujjatlar bilan ishlash tartibi”ga muvofiq bo'lishi shart.

Sohaviy yozishmalar bir nechta toifalarga bo'linadi:

Tashkiliy hujjatlar – ustav, nizom, reglament, qaror.

Farmoyish hujjatlari – buyruq, farmoyish, ko'rsatma.

Axborot-ma'lumot hujjatlari – ma'lumotnoma, hisobot, dalolatnoma.

Xat-habar hujjatlari – rasmiy maktublar, shikoyatlar, iltimosnomalar.

Shartnomaviy hujjatlar – mehnat, moliyaviy, grant shartnomalari. Bu hujjatlar turli sohalarida axborot almashinuvi, hamkorlikni hujjatlashtirish va rahbarlik faoliyatini samarali tashkil etishda qo'llanadi. Har qanday xizmat xati bir-biri bilan mantiqiy jihatdan bog'langan uchta qismdan iborat bo'ladi. Xatning birinchi (kirish) qismida, odatda, xat bilan tegishli idoraga murojaat qilishning asosiy sababi ko'rsatiladi. Ikkinchi qismda xatda qo'yilayotgan masalani dalillarga asoslangan yechimi zarurligi bayon etiladi. Xatning uchinchi (xulosa) qismi xat yozishning asosiy maqsadini tavsiflaydi. Xizmat xatlari iloji boricha qisqa bo'lishi kerak, ammo bu qisqalik ularning ravshanligi va tushunarligiga ta'sir qilmasligi kerak. Qoidaga ko'ra, xizmat xatlari bir sahifadan oshmasligi kerak. Faqat eng muhim masalalar yozilgan, batafsil tushuntirishlarni talab qiladigan xatlar uch sahifagacha bo'lishi mumkin. Xizmat xatlari qog'ozning old va orqa tomoniga yoziladi. Rasmiy xat yozgan shaxs ma'lum malakaga ega bo'lishi kerak.

Sohaviy xizmat yozishmalari quyidagi jihatlarida muhim ahamiyat kasb etadi:

Axborotning ishonchliligini ta'minlaydi;

- Tashkiliy intizomni mustahkamlaydi.
- Huquqiy munosabatlarni rasmiylashtiradi.
- Tashkilotlararo hamkorlikni rivojlantiradi.
- Davlat boshqaruvi tizimini soddalashtiradi.

Rasmiy hujjatlar orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi, shuning uchun ularning tili ham me'yoriy, aniq va rasmiy bo'lishi zarur.[3:73]. Masalan, bir tibbiyot muassasasi boshqa shifoxonaga bemorni yo'llaganda "Tibbiy yo'llanma" hujjatini rasmiylashtiradi. Unda bemorning ma'lumotlari, tashxis, muolaja tavsiyasi, shifokor imzosi va muhr bo'ladi. Bu yozishma nafaqat ma'lumot berish, balki huquqiy javobgarlikni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, universitet o'qituvchisi ilmiy konferensiyada ishtirok etish uchun dekanatga "Xizmat xati" yuboradi. Bu xat orqali ilmiy safarga ruxsat so'raladi — bu ham sohaviy xizmat yozishmasi turiga kiradi.

Sohaviy xizmat yozishmalari zamonaviy boshqaruv va kommunikatsiya tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Ular orqali rasmiy axborot almashinuvi, huquqiy masalalar hal etilishi va tashkilotlar faoliyati hujjatlashtiriladi.

Shunday ekan, har bir sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis uchun xizmat yozishmalari madaniyatini puxta bilish, me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etish, tildagi aniqlik va ixchamlikni saqlash — kasbiy savodxonlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Idoraviy hujjat aylanish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 7-iyul.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. "Davlat tilida ish yuritish". Amaliy qo'llanma. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.- 45b
3. To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.- 73-bet.
4. Karimov S.A., Mahmadmurodov Sh., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. –T.: O'zbekiston, 2003.
5. Muhitdinova X.S., Abdullayeva N.A. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi. - T.: « O'zbekiston», 1968.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Rashitova Nafosat Sharifjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Ilmiy rahbar: Qurbonova Bonu Rustam qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimidagi xalq-aro tajriba va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim modellari, pedagogika texnologiyalar va rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, STEAM, Montessori, Reggio Emilia, Waldorf kabi metodikalar hamda raqamli texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion strategiyalar va ularning o'zbek ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'z: Maktabgacha ta'lim, jamoa, boshlang'ich, mamlakat, zamonaviy texnologiya.

Аннотация: В данной статье анализируется международный опыт и инновационные подходы и системе дошкольного и начального образования. Изучаются современные образовательные модели, педагогические технологии и подходы, основанные на лучшем опыте развитых стран. Также анализируются STEAM, Montessori, Reggio Emilia, Waldorf, а также роль и эффективности образования их интеграцию в систему образования Узбекистана.

Ключевое слова: Перед школой, образование, команда, исходный, страна, современный, технология.

Abstract: This article analyzes international experience and innovative approaches in the preschool education system. Modern educational models, pedagogical technologies and approaches based on the best practices of developed countries are studied. The role and effectiveness of methodologies such as STEAM, Montessori, Reggio Emilia and Waldorf, as well as digital technologies in the educational process, will also be analyzed. The article presents innovative strategies aimed at improving the quality and efficiency of education and proposals for their integration into the Uzbek education system.

Keyword: Before school, education, the team, initial, country, modern, technology.

Kirish: Davlatimiz rahbari “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlaganidek taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, mamlakatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham, prezident: „Maktabgacha o‘qitish metodikasi o‘zgarib, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, - deb ta’kidlaganlarida “Uchinchi Renessans poydevori”ni ta’lim islohotlarida ko‘rdi. Ta’lim jarayoni uzluksiz bo‘lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog‘liqdir.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bolalarning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishning muhim bosqichidir. Dunyo bo‘ylab turli mamlakatlar ushbu sohada ilg‘or tajribalarni joriy etib, innovatsion metodlarni ishlab chiqmoqdalar. Ushbu maqolada xalqaro tajriba va zamonaviy innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni tezkor o‘garishlar va yangilanishlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari bola shaxsining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib innovatsion yondashuvlar va ilg‘or tajribalar joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim xalqaro tajribalar

1. Finlandiya ta’lim modeli - Finlandiya maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda quyidagi tamoyillar asosida ta’lim tashkil etiladi: Maktabgacha ta’lim bepul va barcha bolalar uchun majburiy emas, lekin juda yuqori sifatga ega. O‘yin asosida o‘qitish tamoyili ustuvor bo‘lib, bolalar tabiiy rivojlanish jarayonida bilim oladi. Sinovlar va baholash tizimi minimal darajada bo‘lib, bolalarning individual qobiliyatlarini inobatga olinadi.

2. Reggio Emilia pedagogikasi (Italiya) - Ushbu yondashuv bolalarning mustaqil ijodkorligi va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan. Bolalar erkin muhitda, tabiat va san’at bilan chambarchas bog‘langan holda o‘qitiladi. O‘qituvchi bolalar bilan hamkor sifatida ishlaydi, ularga tayyor bilim berish o‘rniga, o‘zlari topishiga yo‘l ochib beradi.

3. Montessori metodikasi - Italiyalik pedagog Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metod dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng qo‘llaniladi. Uning asosiy xususiyatlari: Bola mustaqil harakat qilish va qaror qabul qilish erkinligiga ega bo‘ladi. Muhit maxsus o‘quv materiallari bilan

ta'minlanib, bolalar o'z qiziqishlariga qarab o'rganishadi. O'qituvchilar kuzatuvchilar rolini bajarib, faqat kerak bo'lganda yo'naltiruvchi si-fatida ishtirok etadi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv

1. STEM-ta'lim - Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar boshlang'ich maktablarda fan va texnologiya-ga asoslangan ta'lim tizimini joriy qilmoqda. O'quvchilar loyihaviy va amaliy mashg'ulotlar orqali fanlarni o'rganadi. Matematik va muhandislik bilimlarini dastlabki sinflardan o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Kodlash va robotatexnika elementlari ham o'quv dasturiga kiritiladi.

2. Singapur matematika tizimi tizimi - Singapur dunyoda eng samarali matematika ta'lim tizimlaridan biriga ega. U quyi-dagilarga asoslanadi: Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Vizual materiallar yordamida tushuntirish. Bosqichma-bosqich murakkablikdarajasini oshirish orqali mavzularni chuqur o'r-ganish.

3. O'zbekistonda xalqaro tajribalarni joriy etish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini takomillash-tirish bo'yicha bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Montessori, STEM va differensial ta'lim elementlarini joriy etish, o'yin orqali o'rganish metodikalaridan keng foydalanish. Ta'lim tizimida texnologiyalardan samarali foydalanish, ushbu yondashuvlar bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limni inno-vatsion usullar asosida tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga kat-ta hissa qo'shadi. O'zbekiston ushbu ilg'or tajribalardan foydalanib, o'z ta'lim tizi-mini yanada takomillashtirishi mumkin. Buning uchun pedagoglar yangi metodikalar bo'yicha o'qitish, zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim muhitini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020

2. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali 2004-yil. 2-son)

3. Sharopova Mahliyo Fozilovna „IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF MATERIALS SCIENCE ON THE BASIS OF FOREIGN EXPERIENCE“.

4. Ahmadaliyeva, M. S. (2022). Text and interpretation in discourse analysis. Trends in Education Foreign Languages and International Economics, 1(1), 382-386.

5.Akhmadaliyeva, M. (2024). THE HARMONY OF IMAGE AND LYRIC HERO IN THE POETRY OF THE POETRY. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 2(11), 390-393.

TILNING TASVIRIY IFODALARI

RAVSHANOVA SHAHZODA MANSUR QIZI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilning tasviriy ifodalari, ya'ni badiiylilik va obrazlilikni yuzaga keltiruvchi vositalar - trop va figurativ birliklarning mohiyati, tildagi o'rni hamda ularning adabiy nutqdagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada o'xshatish, metafora, metonimiya, epitet, mubolag'a kabi ifoda vositalarining milliy tafakkur estetik didini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy ifodalar, o'xshatish, metafora, epitet, mubolag'a, obrazlilik, badiiylilik, nutq madanyati.

Annotation. This article analyzes the figurative expression of language – stylistic and artistic devices such as tropes and figures of speech that create imagery and expressiveness. It discusses the role of simile, metaphor, metonymy epithet and hyperbole in shaping national thinking and aesthetic taste in literary speech.

Keywords: figurative expression, simile, metaphor, epithet, hyperbole, imagery, expressiveness, speech culture.

Til- bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tafakuri, ruhiyati va estetik didini ifoda etuvchi eng muhim hodisadir. Har bir millatning tili o'ziga xos obrazlilikka ega bo'lib, u orqali inson hissiyotlari, kechinmalari va hayotiy tajribalari badiiy shaklda ifodalanadi. Tasviriy ifodalar tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqqa hayotiylik, ta'sirchanlik va go'zallik baxsh etadi. Tasviriy ifodalarning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Maqollar, matallar, xalq qo'shiqlari va dostonlarda uchraydigan o'xshatish, mubog'a yoki metaforalar xalq tafakkurining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Zamonaviy adabiyotda esa bu vositalar yozuvchining individual uslubini belgilaydi. Nutqda so'z va iboralarni ko'chma

ma'noda qo'llash trop hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda tilning tasviriy vositalari va uslubiy figuralar quyidagicha farqlanadi. Troplar: epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a va kichraytirish, allegoriya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraza, jonlantirish, apostrofa va boshqalar. Uslubiy figuralar: antiteza, gradatsiya, ritorik so'roq, ko'p bog'lovchilik, jim qolish, takror va h.k. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalash uchun xizmat qiladigan vositalar badiiy tasvir va ifoda vositalari deyiladi. Badiiy asar tilning badiiy tasvir va ifoda vositalarining ishlatilishi bilan belgilanmaydi, badiiy asarda badiiy tilning bosh spitsifik xususiyatlari obrazlilik va emotsionallik mavjud bo'la oladi. [1:73].

Tilning tasviriy ifodalari inson tafakkurining, estetik didining va his-tuyg'ularining eng nozik qatlamlarini yoritib beruvchi badiiy vositalardir. Ular yprdamida fikr jonlanadi, so'z ma'nosi kengayadi va nutq obrazli tus oladi. Shu bois, tasviriy ifodalar nafaqat adabiy asarlar, balki kundalik nutqimizning ham ajralmas qismidir.

O'xshatish- tasviriy vositalarning eng qadimiy va keng tarqalgan ko'rinishidir. U orqali bi narsa yoki hodisa boshqa hodisa boshqa bir narsa bilan taqqoslanib, obrazli tasvir yaratiladi. Masalan, "yigitning ko'ngli dengiz kabi keng" ifodasida inson qalbning ulug'vorligi dengiz timsolida berilgan. Bunday o'xshatishlar xalqning hayotiy tajribasidan, tabiat va ijtimoiy voqelikni kuzatishdan kelib chiqan.

Metofara esa o'xshatishning murakkab shakli bo'lib, unda taqqoslanayotgan narsa yoki hodisa bevosita nomlanmaydi, balki bir so'z orqali boshqa bi tushuncha ifodalanadi. Masalan, "ko'ngil oynasi", "hayot yo'li", "quyosh tabbasumi" kabi ifodalar metaforik obrazlardir. Metafora so'zning ma'nosini kengaytirib, uni ruhiy-estetik qamrovga olib kiradi.

Sinekdoxa – yunoncha, "birga anglamoq", "qo'shib fahmlamoq" ma'nosini bildiradi. Unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va, aksincha, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo'lagi haqida mulohaza yuritiladi.

Mubolag'a – arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nosini ifodalaydi. Muayyan narsa-hodisalarning xususiyati, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashda, ularni boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

Allegoriya yunoncha allos – boshqa, o'zga va agoreuo – gapiraman degan ma'noni bildiruvchi ko'chim turlaridan biridir. Allegoriya, asosan, masallarda va hayvonlar haqidagi ertaklarda ishlatilib, *tulki – ayyor va aldamchi, bo'ri – ochko'z, chayon – hammaga azob beruvchi, ilon – makkor, qo'zichoq – kuchsiz va ojiz, chumoli zahmatkash* odamlar timsoli hisoblanadi.

Simvol (ramz) – majoz turlaridan biri. O'quvchi tushunishi murakkabroq bo'lgan mavhum ma'naviy-axloqiy sifatlarning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishi ramz deyiladi. Masalan, *tong – yoshlik, quvnoqlik; kabutar – tinchlik; qora – sovuqlik* ramzi.

Jonlantirish – insonga xos xususiyatlarni jonsiz narsalarga nisbat qilib tasvirlashdir.

Daryo sokin, uxlar to'liqlar,

Uxlar, qo'yib qirg'oqlarga bosh.

(E.Vohidov)

Epitetlar tilda estetik zavq uyg'otuvchi, tasvirni bo'rttiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. "Oppoq qor", "go'zal tabiat", "sadoqatli yurak" kabi epitetlar nafaqat tasvirni aniq qiladi, balki muallifning hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Mubolag'a esa hissiyotning kuchini oshiruvchi vosita sifatida qo'llanadi; "tog'day odam", "dengizdek quvonch", "yuragi olovdek yonmoqda" kabi ifodalar tasvirni ta'sirchan qiladi.

Tasviriy ifodalar xalq og'zaki ijodi orqali asrlar davomida sayqallangan. Maqollar, topishmoqlar, dostonlar, xalq qo'shiqlari bu borada bebaho xazinadir. Masalan, "Til shirin bo'lsa, yurak yumshaydi", "So'z qalbningko'zgusi" kabi iboralar xalqning badiiy maqsadda foydalanish mahoratini ko'rsatadi.

Zamonaviy adabiyotda ham tasviriy ifodalar yozuvchi va shoir uslubining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular matnga nafaqat go'zallik, balki fikriy chuqurlik, ma'naviy boylik olib kiradi. Demak, tilning tasviriy vositalarini chuqur o'rganish milliy badiiy tafakkur so'z san'atini rivojlantirish va yosh avlodda nutq ma'daniyatini yuksaltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning tasviriy fodalari xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkuri va estetik qadryatlarini ifodalovchi eng muhim vositalardir. Tasviriy vositalarda sifatlash, qiyoslash, mubolag'a, kinoya, o'xshatish kabilar ko'p qo'llanadi.[2:71]. Ular orqali inson o'z tuyg'ularini, hayotiy kuzatuvlarini, ichki kechinmalarini so'zga singdiradi. Shuning uchun, ham har bir badiiy asarning jozibadorligi, ta'sirchanligi bevosita tasviriy ifodalarining mahorat bilan qo'llanishiga bog'liq.

Bugungi globallashuv sharoitida o'zbek tilining badiiy imkoniyatlari asrab-avaylash, yosh avlodni obrazli fikrlashga o'rgatish, milliy tasviriy ifodalarini o'rganish va ulardan nutqda to'g'ri foydalanishga da'vat etish muhimdir. Til- millat ruhi, milliy iftixor manbaidir. Shu bois, tilning tasviriy boyliklarini chuqur anglab, uni yangi avlodlar tafakkurida mustahkamlash har birimizning ma'naviy burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T.: “Fan”, 1998.-B-73.
3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 71-bet.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: 2009.
5. J.Fozilov, R. Sultonov, H. Saidov.O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA DARSlikLARNING AHAMIYATI**RAXATALIYEVA MO'LDIR NURSEIT QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

raxataliyeva90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda 7-sinf o'quvchilarning yosh doirasi ahamiyatidagi 7-sinf ona tili darsligi tuzilishi va mohiyatini ko'rib chiqamiz. Unda yangi avlod darsliklarining afzalliklari, topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlariga ega bo'lishlarini ta'minlashi haqida so'z boradi. Darslik fanga oid qoidalarini o'rgatish emas, balki fanga oid bilimlarini hayotda qo'llashga o'rgatishdan iboratligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Prinsip, topshiriq, 7-sinf darslik, qo'llanma, ko'nikma, integratsiya.

Abstract: In this article, we will consider the structure and essence of the 7th grade native language textbook, which is relevant for the age group of 7th grade students. It discusses the advantages of new-generation textbooks, the tasks that ensure students have independent thinking. It is noted that the textbook is not about teaching the rules of science, but about teaching how to apply science knowledge in life.

Keywords: Principle, task, 7th grade textbook, manual, skills, integration.

Аннотация: В данной статье рассматриваются структура и содержание учебника родного языка для 7-го класса, актуального для учащихся 7-го класса. Обсуждаются преимущества учебников нового поколения, задания, способствующие развитию самостоятельности мышления учащихся. Отмечается, что учебник призван не обучать правилам науки, а учить применять научные знания в жизни.

Ключевые слова: Принцип, задание, учебник для 7-го класса, пособие, умения, интеграция.

O'qitish prinsipi nima? "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. „O'qitish prinsipi“ deganda dars, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi. 7-sinf ona tili fani orqali morfologiya bo'limini o'rganishda davom etasiz. Olmosh so'z turkumi, yordamchi so'zlar, ismlarning munosabat shakllari, egalik va kelishik shakllari yuzasidan bilimlaringizni boyitib

borasiz. Ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, tavsifnoma) haqida qoshimcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Oldingi darsliklarda grammatik qoidalar mavzuning asosini tashkil qilar edi, ya'ni mavzu grammatik qoidalar asosida tuzilgan va mavzudagi barcha mashqlar aynan shu qoidani mustahkamlashga qaratilgan edi. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarga kiritilgan mavzularda grammatika asosiy planga olib chiqilmaganligi sababli ayrim o'qituvchilarga grammatika yo'qdek tuyulishi mumkin. Aslida har bir mavzuda berilgan matnlar, nutqiy mavzu va vaziyatdan kelib chiqqan holda bir necha o'rinda grammatika berilganligini ko'rish mumkin. Bunda grammatik qoidalarining kontekstda berilishi ularning samarali o'zlashtirilishini va asosiysi, o'quvchilar tomonidan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatilishini ta'minlaydi. Amaldagi 7-sinf Ona tili darsligi Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun va boshqalar. Darslik butunlay o'zgacha ishlangan, ya'ni oldingi nashrga tayyorlangan o'quv qo'llanmalar ma'lum va maxsus qoidalar asosida mavzulashtirilgan, ketma-ketlikda o'rganilgan bo'lsa, bu yaratilgan qo'llanma esa maxsus rasmlar, dialoglar matnlar orqali, o'quvchilarni ko'proq salohiyatini oshirish uchun savollar berish orqali tuzilgan. Bunday o'zgachalik mantiqiy fikrlashini oshirish, guruh bo'lib ishlash, o'quvchilarning mustaqil fikrlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Misol uchun, berilgan topshiriq yoki matn orqali o'quvchi uni fikrlagan orqali o'sha matn yoki berilgan topshiriqqa asosan qoidani o'qituvchi tomonidan tushuntirilgach, o'quvchi topshiriqni yechishga harakat qiladi. Ushbu qo'llanmada qoidalar kamdan kam qo'llangan. Aniq ma'lumotlar berilgan. Bu esa o'qituvchidan katta mahorat talab etadi, ya'ni o'qituvchiga mavzuda berilgan topshiriqqa, asosan mukammal qoidani o'qituvchiga yetkaza olishi kerak.

Misol uchun: Akmaljon Usvaliyev — fidoyi tadbirkor. U, yura olmasa-da, tinim bilmaydi. Bir necha yillar oldin ijaraga joy olib, kompyuter xizmatlarini yolga qoygan. Keyin faoliyatini kengaytirgan, kompyuter texnologiyalarini organgan. Shu kungacha qahramonimiz 40 nafarga yaqin shogird yetishtirib, ushbu sohaning sir-asrorlarini orgatib kelmoqda. Hozir 15 nafar yigit-qizni ish bilan ta'minlagan. Tadbirkor kop yillik mehnatlari uchun "Jasorat" medali bilan taqdirlangan. 1. Ayting-chi, siz yuqoridagilardan kimni zamonamiz qahramoni deb bilasiz? Nima uchun? 2. Zamonamiz qahramoni mashhur odam bolishi kerakmi yoki oddiy odam? 3. Sizning yon-atrofingizda ham zamonamiz qahramonlari bormi? Nega ularni qahramon deb bilasiz? 4. Zamonamiz qahramonining eng muhim sifatlarini nimalarda korasiz? Mana shu holatda o'quvchining fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi kengayib, hamda shu orqali matnda qoidani qo'llab o'rgana olishadi. Mavzularni umumiy mustahkamlash uchun kitob so'ngida bir qancha test topshiriqlari berib borilgan. Masalan:1. Qisqa javob

yoziq. Oldingi darsliklarda asosiy maqsad til qoidalarini tizimli ravishda, fonetika — leksikologiya — morfologiya — sintaksis — uslubiyat tarzida o'rganishga qaratilgan edi. Tilni bunday ketma-ketlikda o'rganish tilshunoslarga xos bo'lib, bunda asosiy maqsad tildagi barcha qoidalarini tizimlashtirishga qaratiladi. Nutq fikrdan hosil boladi: fikr bolmasa, nutqni ham rivojlantirish imkonsiz. "Kesimning tagiga chizing", "aniqllovchining turini aniqlang" qabilidagi mashqlar til strukturasini orgatish uchun balki qulaydir, lekin ular yordamida fikrlashni rivojlantirish imkonsiz. Yangi avlod darsliklaridagi matnlar va matnlar asosidagi savol va topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar oquvchilarni fikrlash, mushohada yuritish, ozlarini orab turgan voqelikka nisbatan faol munosabatda bolishga chorlaydi. Umuman, bir muhim jihatni hisobga olish lozim.

Milliy o'quv dasturi asosida nashr qilinayotgan barcha darsliklar singari, ona tili darsliklarining asosiy maqsadi — shunchaki fanga oid qoidalarini o'rgatish emas, balki fanga oid bilimlarini hayotda qo'llashga o'rgatishdir. Pirovard maqsad esa fikrlaydigan, kreativ va tanqidiy fikrlash orqali muammolarga yechim topa oladigan, shu orqali o'ziga va Vataniga foyda keltiradigan shaxsni tarbiyalashdir. O'quvchilarning fan doirasida o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda ham qo'llay olishlik ustuvorlikdir. Bundan tashqari darslikdagi ko'rgazmalik ham o'quvchilarning diqqat e'tiborini tortadi. Qolaversa matnlar mavzusi keng ko'lamli qiziqarli va o'quvchilarni o'ziga jalb qila oldiga. Ona tili fanining boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish, fanlararo integratsiyaga olib keladi, o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi. O'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularni yaxshi niyatli, insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda adabiyot fani bilan ona tili mashg'ulotlari o'rtasidagi uyg'unlikni tashkil etishning ahamiyati kattadir. Ona tili va adabiyot fanlarining uyg'unligi o'quvchilarning qalbi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, yaxshi-yomonni farqlashga, voqea-hodisalarga o'z shaxsiy nuqtai nazaridan yondashishga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Mahmudov N. Nurmonov. A. Sobirov D va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. " Tasvir " nashriyot uyi. Toshkent: 2017.

3. Muhitdinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. - Toshkent, 2011.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

RAXIMBERDIYEVA DILDORA SHAVKAT QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

dildoraraximberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'limni tashkil etish, ona tili darslarida turli interfaol metodlardan foydalanish usullari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalar darajasini baholash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'lim metodlari, interfaol usullar, klaster, organayzer, ta'limiy o'yinlar.

Abstract. In the article, the organization of modern education, the methods of using various interactive methods in mother tongue classes, the delivery of certain theoretical knowledge to students in a short time by using advanced pedagogical technologies, and the formation of competencies and skills in certain activities. it is about doing, monitoring the activities of students, evaluating the level of knowledge, skills and abilities acquired by them.

Key words: pedagogical technology, educational methods, interactive methods, cluster, organizer, educational games.

Абстрактный. В статье рассматриваются организация современного образования, методы использования различных интерактивных методов на занятиях по родному языку, передача учащимся определенных теоретических знаний в короткие сроки путем использования передовых педагогических технологий, а также формирование компетенций и умений в определенных видах деятельности. Речь идет о деятельности, контроле за деятельностью учащихся, оценке уровня приобретенных ими знаний, умений и навыков.

Ключевые слова: педагогическая технология, методы обучения, интерактивные методы, кластер, организатор, обучающие игры.

Milliy istiqlool tufayli jahonga yuz tutgan mamlakatimizda jahon andozalariga mos, raqobatbardosh yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga kuchayib borayotganligi hech birimizga sir emas. Zero, O'zbekistonimizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Demak, har qadamda ilg'or pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqdamiz. Vaholanki, ertangi kun mutaxassisi bugungi kun maktab partasida o'tirgan yoshlardir. An'anaviy o'qitish maktabiga tayangan ta'lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qodir emas. Shuning uchun o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilar qiziqishini oshirish, o'qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo'llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqqidmot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinamazina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval",

“Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Bo‘g‘inlar zanjiri”, “BBB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Domino”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha”, “Sirli sandiqcha metodi”, “Harfni his qilish” metodlari kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O‘quvchilarga har darsda bir xil dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi.

Masalan, o‘quvchilarga “Bo‘g‘in” mavzusini o‘tayotgan o‘qituvchi “Bo‘g‘inlar zanjiri” metodidan foydalanishi mumkin. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keying so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Namuna: maktab – tabrik; rassom – somsa va shu kabi zayilda davom etadi. Bu metoddan o‘quvchilarda o‘tilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlashlari, so‘z boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa bo‘ladi.

“Klaster” metodi. “Klaster” grafik organayzeri “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan ma’noni anglatadi. Bu metod turi o‘quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. U quyidagicha tashkil etiladi: 1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi; 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim. Ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin. “Klaster” usulida so‘z turkumlari tushuntirilganda o‘quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so‘z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O‘quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zni toifalarga ajratib chiqadilar. “Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun

qo'llaniladi: 1.O'quvchilar so'z boyligini oshirish; 2.Yozma nutqni takomillashtirish; 3.Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4.Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish. "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha" metodi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi. O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi. So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

"Tushunchalar tahlili" metodi. Bu metod quyidagicha mulohaza qilinadi. Nazorat ishi yakunlanib, baholar e'lon qilingandan so'ng, har bir o'quvchi nazorat daftarida o'qituvchi tomonidan tekshirilgan va kamchiligi tuzatilgan so'zlarni ko'chirib yozadi. Bu metod ham o'quvchini hushyorlikka chorlash bilan bir qatorda o'z xatosini o'z vaqtida tushunishga va bu xatoni boshqa takrorlamaslikka olib keladi.

«Harfni yoki so'zni his qilish» metodi. Bunda o'quvchilar tik turgan holatda bo'ladi. Eng oxirida turgan o'quvchi orqasiga o'qituvchi tomonidan ruchkaning orqa tomoni bilan harf yoki so'z yoziladi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi orqasiga yozadi. Va shu tariqa davom etadi. Birinchi partadagi o'quvchi o'zining orqasiga yozilgan harfni his qilib sinf yozuv taxtasiga kelib yozadi. Bu metodni ko'pincha nafaqat harf shaklida 4-5 sinf o'quvchilarida qo'llash mumkin, balki 5-6 sinf o'quvchilariga ikki uch harfli so'z shaklida ham qo'llash mumkin. Bu metodni kichik yoshdagi o'quvchilarga darslarda dam olish daqiqasi sifatida qo'llash mumkin. Darslarda bu kabi enerjyazor metodlarni qo'llash o'quvchilarning faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Darslarni samarali tashkil etishda quyidagi o'yinlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. "Baliq ovi", "Kim hakam", "Taqqidmot-tadqiqot", "Piramida", "Matn tuzib ko'r, aqling bo'lar zo'r", "Xatosini top", "Xotira mashqi", "So'zdan so'z yasash" o'yinlaridir.

"Xotira mashqi" o'yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa, birinchi tanishuv darsida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin. O'quvchi o'z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib ismini aytadi. Adham -Alisher Navoiy, Bahodir - Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar-Gulxaniy. O'yin shartiga ko'ra o'qituvchi bir nechta imlosi qiyin yoki o'quvchilarga o'zlashtirilishi rejalashtirilgan so'zlarni aytadi, o'quvchilar esa bu so'zlarni eslab qolib, daftarlariga imlo qoidalari asosida yozadilar.

Bunday interfaol usullar orqali o'quvchilar o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish,

yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars mashg'ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avlayev O. va b. Ta'lim metodlari. Toshkent - 2017.
2. Mavlonova R. va b. Pedagogika. Toshkent - 2010. B. 254.
3. Muslimov N. va b. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent - 2016.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2009.
5. Saidov O'. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ish yuritishga oid terminlar ustida ishlash tamoyillari. Toshkent – 2024.

SO'ZNING LEKSIK BIRLIK SIFATIDAGI MOHIYATI

RAXIMOVA NILUFAR ORIFJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

nilufarraximova12@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishda so'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati chuqur tahlil qilinadi. So'z tilning asosiy kommunikativ vositasi sifatida, uning leksik birlik darajasidagi funksiyasi va mazmuniy yuklamasi yoritiladi. Tadqiqotda so'zning boshqa birliklardan – fonema, morfema va iboralardan – farqli jihatlari, shuningdek, uning til tizimidagi o'rni va roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, so'zning leksemik mazmuni, kontekstda anglatadigan ma'nosi va uslubiy funksiyasi haqida fikr yuritiladi. Mazkur mavzu tilshunoslik nazariyalariga tayanilgan holda ochib berilib, so'zning kommunikativ va semantik imkoniyatlari misollar orqali asoslab berilgan. Ish tilshunoslari, filologlar va tilga qiziquvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: So'z, leksik birlik, tilshunoslik, leksema, ma'no, til birliklari, morfema, fonema, kontekst, til tizimi, nutq, leksik ma'no, uslubiy vosita, til birliklari iyerarxiyasi.

Annotation: This work deeply analyzes the essence of the word as a lexical unit. The word, as the main communicative tool of the language, illuminates its function at the level of a lexical unit and its semantic load. The study examines the differences between the word and other units - phonemes, morphemes and phrases - as well as its place and role in the language system. It also considers the lexemic content of the word, its meaning in context and its stylistic function. This topic is explained based on linguistic theories, and the communicative and semantic capabilities of the word are substantiated by examples. The work can serve as a useful resource for linguists, philologists and those interested in language.

Keywords: Word, lexical unit, linguistics, lexeme, meaning, language units, morpheme, phoneme, context, language system, speech, lexical meaning, stylistic means, hierarchy of language units.

Аннотация: В данной работе глубоко анализируется сущность слова как лексической единицы. Слово, как основное коммуникативное средство языка, освещает его функцию на уровне лексической единицы и его семантическую нагрузку. В исследовании изучаются различия между словом и другими единицами - фонемами, морфемами и фразами, а также его место и роль в системе языка. Также рассматривается лексическое содержание слова, его значение в контексте и его стилистическая функция. Данная тема поясняется с опорой на лингвистические теории, а коммуникативные и семантические возможности слова обосновываются примерами. Работа может служить полезным источником информации для лингвистов, филологов и всех, кто интересуется языком.

Ключевые слова: Слово, лексическая единица, лингвистика, лексема, значение, языковые единицы, морфема, фонема, контекст, языковая система, речь, лексическое значение, стилистические средства, иерархия языковых единиц.

So‘zning leksik birlik sifatidagi mohiyati

1. So‘z nima?

So‘z — tilning eng kichik leksik birlikidir, ya’ni mustaqil ma’no ifodalovchi va nutqda o‘z-o‘zidan ishlatiladigan birlik. So‘z til tizimida ma’no va shakldan iborat birlik hisoblanadi.

Shakli — so‘zning tovush yoki yozuv ko‘rinishi.

Ma’nosi — so‘z orqali ifodalanayotgan tushuncha yoki narsa.

Misol:

"So‘z" — 5 ta tovushdan iborat (s, o, ’, z), lug‘atdagi ma’nosi esa “tilning eng kichik leksik birligi”.

2. So‘zning leksik birlik sifatida xususiyatlari

Mustaqillik: So‘z o‘z-o‘zidan alohida ishlatiladi va ma’no ifodalaydi.

Ma’noga ega bo‘lish: So‘z har doim aniq leksik ma’noni bildiradi (narsa, harakat, sifat, miqdor va boshqalar).

Birlik: So‘z leksik birlik sifatida bo‘laklarga ajralmaydi, ya’ni u mazmunan butundir.

Doimiy shakl: So‘zning asosiy shakli o‘zgarishi mumkin, ammo u leksik birlik sifatida qabul qilinadi (masalan, “kitob” — “kitoblar” — bu so‘zning o‘zgarishi emas, so‘z shakllari).

Leksik birlik sifatida kodlangan ma’no: So‘zning ma’nosi tilning leksik tizimida kodlangan bo‘ladi.

3. Soʻzning leksik birlik sifatida vazifasi

Nomlash funksiyasi: Soʻz predmetlarni, jarayonlarni, sifatlarni, nisbatlarni nomlaydi.

Maʼlumot yetkazish: Soʻz yordamida fikr, tasavvur, maʼlumot etkaziladi.

Tuzilishda birlik: Soʻz gapda sintaktik birlik sifatida ishlaydi.

Leksik boylikni tashkil qilish: Soʻz tilning lugʻat qismini tashkil etadi, yangi soʻzlar tilni boyitadi.

4. Soʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyatini aniqlovchi asosiy tamoyillar

a) Maʼnosi(leksik maʼno)

Soʻzning maʼnosi uning leksik birlik sifatidagi asosidir. Har bir soʻz maʼlum bir predmet, hodisa, harSoʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyati – bu soʻzning til tizimidagi mustaqil maʼnoga ega eng kichik birlik sifatida tutgan oʻrni va vazifasini anglatadi.

Quyidagilar orqali bu mohiyatni tushuntirish mumkin:

5. Soʻz – tilning asosiy leksik birligi

Soʻz – bu maʼno va shakl birligiga ega boʻlgan, narsa-hodisa, belgi, harakat va munosabatlarni ifodalovchi til birliklaridan biridir. U nutqda boshqa birliklar bilan birikib, gap tuzadi.

Misollar:

"Kitob" – narsa nomi.

Yashil" – belgi.

"Yugurdi" – harakat.

6. Soʻzning leksik maʼnosi

Soʻzning leksik maʼnosi deganda u orqali ifodalanayotgan mazmun tushuniladi. Bu maʼno lugʻaviy maʼno

7. Soʻzning shakli va mazmuni

Soʻz har doim ikki jihatni oʻzida mujassam etadi:

Shakl (tashqi koʻrinish, tovushi yoki yozilishi)

Mazmun (maʼno)

Leksik birlik sifatida soʻzning asosiy xususiyati — uning shakli va mazmunining ajralmasligi. Bir soʻz shakli oʻzgarmasdan turib turli maʼnolarni anglatolmaydi, va aksincha, maʼno shaklsiz ifodalanmaydi.

8. Soʻzning birlikligi va butunligi

Soʻz leksik birlik sifatida:

Mustaqil (boshqa birliklardan alohida)

Butun (ichki tarkibi bilan bir butunlik)

Soʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyati

Nomlash funksiyasi: Soʻz predmetlarni, jarayonlarni, sifatlarni, nisbatlarni nomlaydi.

Maʼlumot yetkazish: Soʻz yordamida fikr, tasavvur, maʼlumot etkaziladi.

Tuzilishda birlik: Soʻz gapda sintaktik birlik sifatida ishlaydi.

Leksik boylikni tashkil qilish: Soʻz tilning lugʻat qismini tashkil etadi, yangi soʻzlar tilni boyitadi. Soʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyati: batafsil tushuntirish

Soʻz – bu tilning eng kichik mustaqil leksik birlik boʻlib, maʼlum bir predmet, harakat, sifat yoki tushunchani ifodalaydi. Soʻz oʻziga xos maʼno va shaklga ega.

Misol:

Kitob — narsa nomi.

Yugurmoq — harakatni ifodalaydi.

Yashil — sifatni bildiradi.

2. Soʻzning leksik birlik sifatidagi xususiyatlari

Xususiyat Tavsifi Misollar

Mustaqillik Soʻz alohida ishlatilganda ham maʼno beradi Oʻqiyapman, gul, yugur

Leksik maʼno Soʻz aniq maʼno ifodalaydi Daraxt (narsa), tez (sifat)

Butunlik Soʻz kichikroq maʼnoli qismga boʻlinmaydi Kitob — ki, tob emas

Shakl Soʻz tovush yoki yozuv koʻrinishi bilan ifodalanadi Ota, ota (bir xil shakl)

Doimiylik Soʻz asosiy shakli oʻzgaradi, lekin leksik birlik qoladi Kitob — kitoblar (koʻplik)

3. Soʻz va boshqa til birliklari farqi

Til birligi Maʼno borligi Mustaqillik Misollar

Fonema Yoʻq Yoʻq k, t, o

Morfema Qisman Cheklangan kitob + lar

Soʻz Bor Bor kitob, ota, yugur

Soʻz birikmasi Bor Yoʻq yangi kitob, qizil gul

Gap Bor Bor Kitob stol ustida

4. Soʻzning leksik birlik sifatida misollari

Mustaqil soʻz:

Uy — aniq narsa nomi, leksik birlik.

Yur — harakatni ifodalovchi soʻz.

Qizil — sifat soʻzi, rangni bildiradi.

Mustaqil boʻlmagan birlik:

Uydan — bu soʻz emas, soʻz shakli (uy + dan).

Kitoblar — soʻzning koʻplik shakli, leksik birlik emas, grammatik birlik.

5. Soʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyatini aniqlovchi nazariy jihatlar

Soʻz maʼno va shakldan tashkil topgan boʻlib, bu uning asosiy belgisi.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta’lim mazmunida til va tafakkur uyg‘unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “Mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifasi shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvoffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi.

Lugʻat ustida ishlash ona tili oʻqitish muammosi bilan shugʻullangan metoistlar doimiy eʼtiborida boʻlgan. “Ona tili oʻqitish metodikasi”⁶² darsligida butun bir bob shu masalaga ajratilgan.

Professor N. Mahmudovning “Nutqning taʼsir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan boʻlish soʻz boyligiga bogʻliq. Nutqning boy yoki kambagʻalligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (soʻz maʼnolari, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zaxirasi mavjud boʻlishi kerak”⁶³ degan fikri zamonaviy taʼlimga kommunikativ yondashuvning maqsadi bilan uygʻunlik kasb etadi. Bu ona tili taʼlimi oldiga oʻquvchilarni faol muloqotga tayyorlash, ularni nutqiy faoliyatning subyekt sifatida shakllantirish vazifasini qoʻyadi.

Borliq, jamiyat hayoti haqidagi tushunchalarni oʻzlashtirish, ularga munosabat oʻquvchilar nutqini matn tahlili orqali amalga oshiriladi. Oʻquvchilarning mustaqil va mantiqli fikrlash koʻnikmalari ham matnda bayon qilingan maʼlumotlar asosida shakllantiradi. Ona tili darslarida turli janrdagi matnlarning lingvistik tahlili unda ifodalangan voqelikni anglashga qaratiladi.

Oʻquvchilar matn mazmunini, uning gʻoyasini oʻzlashtiradi. Lingvistik tahlil matndagi leksik birliklar izohidagrammatik bilimlar ustida fikr yuritadi, shu jarayonda til birliklarini, gapning qurilishini oʻzlashtiradi. Oʻqituvchining oʻquvchilarga matnni oʻqib, maʼnosini tushunmagan soʻzlarni aniqlatishi, tushuntirilishi rejalashtirilgan soʻzlarni doskaga yozib, maʼnosini soʻrashi ularda matn tiliga sezgirlikni tarbiyalaydi. Badiiy asarning lingvistik tahlilida maʼnodosh soʻzlar, shakldosh soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzlar, atamalar, eskirgan soʻzlar ustida ishlanadi. Bular ham soʻz maʼnolarini chuqurroq anglashga, oʻquvchi lugʻatini boyitishga, nutqining aniq va ravon boʻlishiga olib keladi.

Lugʻat ustida ishlash oilada, ota-onalarning bolaning kundalik hayotda uchraydigan narsa va hodisalar haqida “Bu nima?” deb soʻrashidan boshlanadi. Maktab taʼlimi bolaning jamiyat hayotiga nutqi orqali kirib borishini taʼminlaydi. Shu jihatdan, ona tili va adabiyot darslarida oʻrganiladigan matnlarning leksik-semantik tahlili oʻquvchilar lugʻatini boyitishda keng imkoniyatlarga ega.

⁶² A.Gʻulomov, M.Qodirov. Ona tili metodikasi. –T.: Oʻqituvchi. 1998.

⁶³ N.Mahmudov. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. –Jizzax, 2011. –22-bet.

Ma'lumki, kommunikativ yondashuvning ona tili ta'limining asosiy tamoyiliga aylanishi uni o'qitish jarayonining o'qituvchi va o'quvchilarning faol muloqoti asosida tashkil etishni taqozo etadi. Demak, nutqiy jarayon faoliyatning subyekt+ sub'yekt shaklida tashkil etish, "Rolli o'yin", "Munozara", "Aqliy hujum" kabi interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlar o'quvchilar lug'at zahirasini boyitishda, og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Matn asosida lug'at ustida ishlashda quyidagi kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi:

-Matnni o'qing. Matndan nima haqidai ma'lumotga ega bo'ldingiz?

-Matnga nima uchun sarlavha qo'yilgan?

-Matnni qayta o'qing. Siz unga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz? Nima uchun?

-Matnda nechta xat boshi bor? Matnni siz necha qismga ajratgan bo'lardingiz? Ichingizda o'qing. Matnni qismlarga bo'ling.

-Matnni nimaga asoslanib qismlarga ajratdingiz?

-Matnga reja tuzing. Matnga reja tuzishda nimaga asoslandingiz?

-Matnni o'qing, qayta hikoyalashga tayyorlaning.

-Qayta hikoyalashda qaysi so'zlarni qo'llashingiz kerak bo'ladi? Ularni aniqlang.

Qayta hikoyalashda qo'llanmagan so'zlariga va matn mazmunini ta'sirchan ifodalash ichun zarur bo'lgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Shundan so'ng lug'at ustida ishlash o'quvchilarni xushyor torttiradi.

Baxt shunday narsaki, borligida uni kishi sezmaydi, yo'qligida orzu qiladi. Baxtli odam "Men baxtliman" deb olamga *jar solmaydi*. Inson hech qachon baxtga to'ymagan, "Baxtliman" degan emas. Aslida, hayotda birorta maqsad bilan yashashning o'zi – baxt. Maqsadsiz yashash shunday *ko'rgilikki*, u hech kimning *boshiga tushmasin!* Kishida maqsad bo'lsa, unga *erishish yo'lida kurashish, mashaqqat chekish, ta'na-dashnomlar eshitib, kuyib-yonib yurish* ham baxt. Men kinochi bo'lsam, "*Baxtiyorlik lahzasi*" degan film yaratgan bo'lar edim. Bu film *baxt lahzalari majmuasidan* iborat bo'lar edi. Unda marraga yetgan sportchining g'alabadan *charaqlagan ko'zlarini, yerga qo'ngan kosmonavtning kulgusini*, she'r yozib tugatgan *shoir quvonchini*, chet eldan qaytayotgan sayohatchining mamlakatimiz *chegarasini kesib o'tgandagi his-hayajonini, uzoq judolikdan so'ng bolasiga yetishib quchoqlagan onaning ko'z yoshlarini, o'z mehnat samarasini ko'rib, mamnun bo'lgan kishi sevinchini... suratga tushirgan bo'lardim.* (Erkin Vohidov)

Quyidagi so'zlar asosida lug'at ishi tashkil etiladi: *ta'na-dashnom* – pand-nasihat, malomat; *jar solmoq* – baland ovoz bilan e'lon qilmoq, *majmua* – to'plam, *ko'rgilik* – kishi hayotida yuz bergan erk-ixtiyorida tashqari ko'ngilsiz voqea.

O'quvchilarga “Izohli lug'at” va “Imlo lug'ati”dan foydalanish o'rgatiladi, ular asosida so'z ma'nolarini izohlaydilar. Bunday so'zlarni daftarlariga yozdirib borish foydadar xoli bo'lmaydi.

O'quvchilarning lug'at zahirasi boyitadigan, nutqning ta'sirchanligini oshiradigan so'zlar ma'nodosh so'zlardir. Masalan:

Oftob chiqdi, **quyosh** chiqdi, kun chiqdi,

Mehru **shams**-u **xurshidi** gardun chiqdi.

Erkin Vohidov mazkur misralarida sinonimlardan foydalanib nutqning ta'sirchanligini hamda til taraqqiyotini o'zida aks ettirgan.

Bir zamon bolalar uchun aytilgan shu jo'ngina va g'o'rgina ikki satrning o'zida quyoshning oltita nomini topasiz. Sanoqni yana davom ettirish mumkin. Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko'k... bular daf'atan xayolga kelganlari xolos! Arsh, davvor singari kam ishlatiladigan xos so'zlar ham sanalsa, ro'yxat yanada uzayadi.

O'quvchilarga o'zbek tilida ma'nodosh so'zlarimizning ko'pligiga sababni ixohlash ham ularda tilga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytiradi. O'zbek tili 3 daryodan suv ichgan. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarimiz asosan arab tilidan; ko'pgina ish qurollarimiz, jumladan, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog'oz kabi hunarmandlikka oid so'zlarimiz, shuningdek, yuksak she'riy uslubga xos so'zlar fors tilidan kirib kelgan. Jumladan, arabcha Alloh, yonida forscha Xudo, turkiy Tengri so'zlarimiz ham borki, ularni yurak ham, qalb ham, dil ham deymiz. Arabcha ism, forscha nom, o'zbekcha ot – uchovi ham o'zimizniki. Til, zabon, lison bizda shu sababdan beqiyos boy va rangli⁶⁴.

O'quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun qiziqarli mashqlar tavsiya etilsa, ularda so'z bo'lgan bo'lgan e'tibori ortadi.

“Ming bir so'zni bilaman” izohli lug'atida berilgan quyidagi so'zlarga to'g'ri keluvchi ma'nolarni moslashtiring.

Pista – Asralishi kerak bo'lgan narsalar saqlanadigan buyum.

Lahza – Tog'larda o'sadigan past bo'yli daraxtning qobiqli danagi.

Ekin – Ko'z ochib-yumguncha o'tgan vaqt.

Ibrat – Hosil olish uchun ekilgan, urug'dan unib-o'sgan o'simlik.

Sandiq – odamlar uchun namuna.

⁶⁴ Abdulxay Sobirov. Til va adabiyot ta'limi. jurn. 2003.1-soni. 11-13-betlar.

Mana shunday qiziqarli mashqlar orqali o'quvchilar izohli lug'at nima ekanligini, nima uchun kerakligini, qanday maqsadda foydalanish lozimligini bilib oladilar. So'zlarning ma'nosini teran anglaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilning leksik birliklari rang-barang. Ular matnda o'z jilosini ko'rsatadi. Shuning uchun ham matn asosida leksik birliklar yuzasidan tashkil etiladigan mashqlar so'z ma'nosini oddiy izohlashdan iborat bo'lmasdan, ularni so'z olamiga olib kiruvchi, ularda so'zga bo'lgan e'tiborni kuchaytiruvchi, uni o'zlashtirish mas'uliyatini hiz qilishga olib keluvchi xarakterda bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.G'ulomov, M.Qodirov. Ona tili metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1998.
2. N.Mahmudov. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. –Jizzax, 2011. -22-bet.
3. Abdulxay Sobirov. Til va adabiyot ta'limi. jurn. 2003.1-soni. 11-13-betlar.

NEMIS TILI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

RUSTAMOVA MUNISA AZAMAT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

e-mail: rustamovamrm939@gmail.com

Xorijiy til va adabiyoti Nemis tili 3 bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xushbokov Oybek Uralovich

Turizm fakulteti, Nemis tili kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: o.xushbokov@cspu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tili ta'limida qo'llaniladigan innovatsion metodlar va ularning samaradorligi yoritilgan. Interaktiv usullar, kommunikativ yondashuv, loyihaviy ishlash va gamifikatsiya kabi metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish jarayoni nemis tilini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishishga yordam berishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: nemis tili, innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, gamifikatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные методы, используемые в преподавании немецкого языка, и их эффективность. Показано, что такие методы, как интерактивные методы, коммуникативный подход, проектная работа и геймификация, важны для повышения интереса студентов, развития самостоятельного мышления и коммуникативных

навыков. Также подчёркивается, что применение инновационных методов способствует достижению высоких результатов в освоении немецкого языка.

Ключевые слова: немецкий язык, инновационные методы, коммуникативный подход, интерактивные методы, геймификация.

Annotation. This article discusses innovative methods used in German language teaching and their effectiveness. It is shown that methods such as interactive methods, communicative approach, project work and gamification are important in increasing students' interest, developing independent thinking and communication skills. It is also emphasized that the process of using innovative methods helps to achieve high results in mastering the German language.

Keywords: German language, innovative methods, communicative approach, interactive methods, gamification.

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini, jumladan, nemis tilini o'rganish dolzarb masalaga aylangan. Nemis tili xalqaro ilmiy hamkorlik, biznes va ta'lim sohalarida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun uni samarali o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki amaliy kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantirishni talab qiladi. An'anaviy Grammatik tarjima usullari tilni nazariy o'rganishda muayyan foyda bersada, ular amaliy nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu bois, nemis tili darslarida zamonaviy, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda.

Innovatsion metodlar bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish va ularda mustaqil fikrlash, kreativlik hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlardir. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini mexanizm jihatidan ham tubdan o'zgartiradi: ular darsni o'qituvchidan o'quvchiga yo'naltirilgan faoliyatga aylantirib, bilimni kashf etish va amaliy qo'llash orqali mustahkamlashni ta'minlaydi. Bunda dars odatdagi "eslatma – mashq – uyga vazifa" sxemasidan chiqib, o'quvchilarni kichik muammolarni mustaqil yoki guruh bo'lib hal qilishga yo'naltiradi; masalan, real mavzuda (sayohat rejalashtirish, restoranda buyurtma qilish, mahalliy voqea haqida intervyu) vazifa berilib, o'quvchilar o'z yechimlarini nemis tilida taqdim etadilar va bir-birlariga fikr bildiradilar. Shu tarzda til qoidalarini yodlash emas, balki ularni muloqotda qo'llash o'rganiladi va so'z boyligi kontekst bilan mustahkamlanadi.

Nemis tili o'qitishda innovatsion metodlarning samaradorligi

Avvalo, o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishda namoyon bo'ladi. O'qituvchi dars davomida bilimni tayyor shaklda beribgina qolmay, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlash, izlanish va muhokama qilishga yo'naltiradi. Masalan, guruh bo'lib muammoli vaziyatni hal qilish topshirig'i berilganda, talabalar nemis tilida bir-biri bilan muloqot qilishga majbur bo'ladilar va bu jarayonda tabiiy ravishda yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradilar. Shuningdek, ijodiy topshiriqlar ham samarali hisoblanadi. She'r yozish, kichik sahna ko'rinishlari tayyorlash yoki qiziqarli hikoya tuzish orqali o'quvchilar tilni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki badiiy va ta'sirchan tarzda qo'llashni o'rganadilar. Bu esa ularning til sezgirligini rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuvning yana bir afzalligi shundaki, u o'quvchini o'z qiziqishlari asosida o'qishga undaydi. Masalan, dars mavzulari talabalar hayotiga

yaqin voqealar – sayohat, do'stlik, kundalik odatlar yoki zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lab olib borilganda, ular o'z tajribalaridan kelib chiqib fikr bildiradilar. Shu tarzda o'quvchilar faqat tilni emas, balki o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va bahslashish madaniyatini ham egallaydilar. Bundan tashqari, til o'rganishda emotsional muhit ham muhimdir. Innovatsion metodlar orqali yaratilgan qulay va erkin muhit o'quvchilarda darsga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. O'quvchi o'zini xatodan qo'rqmay fikr bildirishga odatlantiradi, bu esa til o'rganishdagi eng katta psixologik to'siqni bartaraf etadi.

Shuningdek, innovatsion metodlarning samarasi ularning universalligida ham ko'rinadi. Ular maktab, kollej yoki oliy ta'lim muassasalarida qo'llanishi mumkin bo'lib, har bir bosqichda til o'rganishning maqsad va vazifalariga moslashtiriladi. An'anaviy metodlarda ko'proq bilim berishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, innovatsion yondashuvda bilim bilan bir qatorda kompetensiyalarni shakllantirish ham asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa o'quvchilarni nafaqat imtihonga tayyorlaydi, balki ularni hayotiy vaziyatlarda tilni erkin qo'llashga ham tayyorlaydi.

Nemis tili o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar

1. Kommunikativ yondashuv

- Maqsadi: tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rgatish.

- Foydasi: o'quvchilar real vaziyatlarda fikr bildirish, savol berish va javob qaytarishga o'rganadilar.

2. Interfaol metodlar (debat, ro'l o'ynash, guruhli ishlar)

- Maqsadi: o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish.

- Foydasi: jamoada ishlash, o'z fikrini asoslash, boshqa nuqtai nazarlarni tinglash ko'nikmalari shakllanadi.

3. Flipped Classroom: (teskari sinf) modeli

- Maqsadi: nazariy materialni mustaqil o'rganish, dars vaqtini esa ko'proq amaliy mashqlarga bag'ishlash.

- Foydasi: vaqt tejaladi, o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rganadi, dars samaradorligi oshadi.

4. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish)

- Maqsadi: o'quv jarayonini o'yin elementlari bilan qiziqarli qilish.

- Foydasi: motivatsiya oshadi, o'quvchilar topshiriqlarni zavq bilan bajaradilar.

5. Loyihaviy ta'lim (Project--based learning)

- Maqsadi: o'quvchilarga ma'lum vaqt ichida loyiha ishlab chiqish vazifasini berish.

- Foydasi: o'quvchilar ijodkorlikni rivojlantiradi, tilni amaliy vazifalarda qo'llash imkonini beradi.

6. Audiovizual metodlar (video, film, audio materiallar)

- Maqsadi: o'quvchilarni asl til muhitiga yaqinlashtirish.

-

Foydas

i: eshitish va tushunish ko'nikmalari rivojlanadi, talaffuz yaxshilanadi.

Ushbu metodlardan foydalanish o'quvchilarda:

Amaliy nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, darsga bo'lgan qiziqishni oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, o'zlashtirish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunday metodlar, shuningdek, o'quvchilarda tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Ular grammatik qoidalarni yod olish bilan cheklanib qolmay, balki o'z fikrini erkin ifoda etish, suhbatdoshni tinglab tushunish va mos ravishda javob qaytarish malakasini ham egallaydilar. Bu esa chet tilini o'rganishning asosiy maqsadi bo'lgan kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar orqali dars jarayoni o'quvchi uchun majburiyat emas, balki qiziqarli va ijodiy mashg'ulot sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va mas'uliyat hissi ham kuchayadi. Chunki ular dars davomida nafaqat o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qiladilar, balki o'z faoliyatlarini tahlil qilish, xatolarini ko'rish va tuzatishga ham odatlanadilar. Mustaqil ishlashga undovchi topshiriqlar esa o'quvchining shaxsiy o'rganish uslubini rivojlantirib, ularni kelgusida mustaqil ta'lim olishga tayyorlaydi.

Nemis tili ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, Flipped Classroom, gamifikatsiya va loyihaviy ishlash kabi usullar o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga, ularning shaxsiy sifatlarini ham shakllantiradi. Bunday metodlar yordamida o'quvchilar ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi hayotiy zarur ko'nikmalarga ega bo'ladilar. An'anaviy metodlarga qaraganda innovatsion yondashuvlarning afzalligi shundaki, ular o'quvchini dars jarayonining passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa bilimlarning yanada mustahkam o'zlashtirilishiga, amaliy nutqiy faoliyatning rivojlanishiga va o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining ortishiga olib

keladi. Umuman olganda, nemis tilini o'qitishda innovatsion metodlarning qo'llanishi ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi. Ularning samaradorligi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, kelgusida ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni keng joriy etish, ularni takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
2. Hodjaev, Muhammadjon, Qahhorova, Mavluda. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. Erkinov S. E. Boshlang'ich sinflarda chet tili o'qitish metodikasi. Samarqand: SamDCHTI, 2019.
4. Ishmuhamedov R. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: (elektron qo'llanma), 2013.
5. Muslimov N. A. va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent: (elektron majmua), 2017.
6. Omonboyeva, Meruyert. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsip va qoidalari.
7. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" (H. Omonov, N. Xo'jayev va boshqalar).
8. "Pedagogik texnologiyalar" — Renessans ta'lim universiteti elektron qo'llanmasi.
9. Хушбоков О.У. УЧИТЕЛЬ И УЧИТЕЛЬСТВО: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ // Вестник науки №1 (58) том 3. С. 216 - 218. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/7030>
10. Хушбоков О.У. ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЧИТЕЛЯ И НОВЫЕ ВЫЗОВЫ // Вестник науки №9 (66) том 4. С. 135 - 139. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.рф/article/10043> \

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

**SADIRBEKOVA AKJARQIN MARAT QIZI,
BALTABAYEVA BEKSULU NURJAN QIZI,
TANGATAROVA AYNUR BEGALI QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD), dotsent v.b.

Mambetaliyev Qayrat Anarbay o'g'li

Telefon: +998 99 368 42 35

E-mail: kairat941113@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalashning innovatsion yondashuvlarini tahlil qildik. Unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlardan foydalanish hamda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ahamiyatini yoritdik. Shuningdek, o'quvchining ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishida o'qituvchi rolga, ta'lim muassasalari hamda oilaning hamkorligiga alohida e'tibor qaratdik. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar, milliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan uyg'un holda tahlil qilib, samarali pedagogik strategiyalarni tavsiya qildik.

Kalit so'zlar: o'quvchi shaxsi, rivojlantirish, tarbiyalash, yangicha yondashuv, innovatsion ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, pedagogik strategiya, ta'lim-tarbiya jarayoni.

Annotation: In this article, we analyzed innovative approaches to the comprehensive development and upbringing of the student's personality in the modern educational process. We highlighted the importance of learner-centered education, the competency-based approach, the use of interactive methods, and the organization of the teaching and upbringing process based on digital technologies. We also focused on the role of the teacher, as well as the cooperation between educational institutions and the family, in shaping the student as a socially active, independent-minded, creative, and responsible individual. In the article, we analyzed advanced foreign experiences in

harmony with the reforms being carried out in the national education system and proposed effective pedagogical strategies.

Keywords: student's personality, development, upbringing, new approach, innovative education, learner-centered education, competency-based approach, interactive methods, digital technologies, creativity, independent thinking, pedagogical strategy, educational process.

Аннотация: В данной статье мы проанализировали инновационные подходы к всестороннему развитию и воспитанию личности учащегося в современном образовательном процессе. Мы осветили значение личностно-ориентированного обучения, компетентностного подхода, использования интерактивных методов, а также организации учебно-воспитательного процесса на основе цифровых технологий. Особое внимание мы уделили роли учителя, а также сотрудничеству образовательных учреждений и семьи в формировании учащегося как социально активной, самостоятельной, творческой и ответственной личности. В статье мы рассмотрели передовой зарубежный опыт в гармонии с реформами, проводимыми в национальной системе образования, и предложили эффективные педагогические стратегии.

Ключевые слова: личность учащегося, развитие, воспитание, новый подход, инновационное образование, личностно-ориентированное обучение, компетентностный подход, интерактивные методы, цифровые технологии, креативность, самостоятельное мышление, педагогическая стратегия, учебно-воспитательный процесс.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etish zaruriy holga aylanmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalar rivoji o'quvchi shaxsidan keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish ko'nikmalari, ijodkorlik va mas'uliyatni talab etmoqda. Shu bois, zamonaviy pedagogika o'quvchini faqat bilim egasi sifatida emas, balki har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol, o'z fikrini erkin bayon qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, dunyoqarashini kengaytirish va ularni kelajak hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, oilaning qo'llab-quvvatlashi va jamiyatning ta'siri esa tarbiyaviy natijalarni yanada samarali qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy usullardan ko'ra, zamonaviy innovatsion yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda. Bunda asosiy e'tibor o'quvchini tayyor bilimlarni yodlovchi emas, balki mustaqil izlanadigan, o'z fikrini asoslab bera oladigan, yangilik yaratishga intiladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yechimini topishga yo'naltirilgan topshiriqlar, ijodiy mashg'ulotlar va raqamli ta'lim platformalaridan keng foydalanilmoqda. Innovatsion yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bunga tanqidiy va ijodiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar, jamoada ishlash, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatlari kiradi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat bilim olish jarayonida, balki shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarda o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va iste'dodlarini inobatga olish, ta'lim jarayonini individual hamda differensial yondashuv asosida tashkil etish alohida o'rin tutadi. Natijada o'quvchilar o'z qobiliyatlarini erkin namoyon etish, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini shaxs sifatida anglash imkoniga ega bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim:

Bunday yondashuv o'quvchini jarayon markaziga qo'yadi. Unda o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, bilim darajasi va qobiliyatlari inobatga olinadi. Bu ta'lim turida o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Shaxsiy yondashuv natijasida o'quvchilar o'zini namoyon qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda mas'uliyatni sezish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kompetensiyaviy yondashuv:

Bu tizim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarni amaliy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Unda bilim, ko'nikma va malakalarning uyg'unligi asosiy o'rinda turadi. Masalan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va kommunikativ qobiliyatlar kompetensiyaviy yondashuvning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu esa ta'limni natijador va samarali qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish:

Ta'lim jarayonida "aql charxi", munozara, guruhviy topshiriqlar, rol o'ynash, klaster tuzish kabi interfaol usullar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday metodlar o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, fikr almashish, bir-birini tinglash madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish:

Bugungi kunda elektron darsliklar, onlayn platformalar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli resurslar o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish, qo'shimcha ma'lumotlarga tezkor kirish, individual sur'atda ishlash imkoniyatini beradi. Bu esa ularning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi va zamon talablari bilan hamnafas bo'lishiga yordam beradi.

Pedagoglik kasbi oz mohiyatiga ko'ra individualdir. Har bir pedagogning hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishi, usta (master) juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishini mohir-lik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagoglik mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog eng avvalo, peda-gogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yashi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega.

Yosh avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. O'quvchini ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va mas'uliyatli shaxs darajasiga olib chiqishda uch omil – o'qituvchi, ta'lim muassasasi va oila o'zaro uzviy hamkorlikda ishlashi talab etiladi.

Psixologik-pedagogik manbalarda oilani bola shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'proq o'rganiladi. Oilaning bolaga asosiy ta'siri ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mehrga asoslanganmi, er-xotin o'rtasida o'zaro xissiy yaqinlik bor yoki yo'qligini bolalar tomonidan idrok etilishiga e'tibor qaratiladi. Barcha psixolog va pedagog olimlar va ular o'tkazgan tadqiqotlar bolaga, uning ta'lim va tarbiyasi uchun eng avvalo ijobiy emotsional munosabat muhiti zarurligi fikrini yoqlaydilar. Chunki, bolalardagi dunyoqarash, xarakterning shakllanishi, qadriyatlarining o'zlashtirilishi, xulq me'yorlari va jamiyat normalarini o'zlashtirish, shakllangan odatlar va namoyon bo'ladigan qobiliyatlar, eng avvalo, ota-ona ta'sirida shakllanadi.² Bugungi kunda dunyo ta'limi jadal rivojlanib borayotgani sababli ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimimizga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Masalan, Finlyandiya ta'limida o'quvchining qiziqishi va erkin fikrlashiga ustuvorlik berilishi, Janubiy Koreyada raqamli ta'lim vositalaridan keng foydalanilishi, Singapurda o'qituvchilarning yuqori malakasiga e'tibor qaratilishi o'z samarasini bermoqda. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'limning markazida inson omili turishi va zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri tatbiq etish natijadorlikni oshiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv asosida yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilishi, raqamli ta'lim platformalarini joriy etish, o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarga yo'naltirish ustuvor vazifa sifatida

belgilangan. Bu jarayon milliy an'analarimiz va qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashgan holda olib borilayotgani ta'lim-tarbiya tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu asosda samarali pedagogik strategiyalarni quyidagicha tavsiya etish mumkin:

1. Integratsiyalashgan yondashuv – o'quv jarayonida fanlarni hayotiy muammolar bilan bog'lab o'qitish, STEAM ta'lim elementlarini keng joriy etish.
2. Shaxsga yo'naltirilgan strategiya – har bir o'quvchining qiziqishi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish.
3. Raqamli pedagogika – elektron darsliklar, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish.
4. Hamkorlik asosidagi ta'lim – o'quvchi, o'qituvchi va ota-ona o'rtasida muntazam aloqani yo'lga qo'yish, ijtimoiy loyihalarda ularning hamkorligini kuchaytirish.
5. Ijodiy ta'lim uslublari – muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari va startap g'oyalarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarda yangilik yaratishga qiziqishni rag'batlantirish.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash masalasi ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Biz ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy model, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali nafaqat bilim berishni, balki mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, ijodkor va mas'uliyatli avlodni voyaga yetkazishni maqsad qildik. Shu o'rinda o'qituvchining pedagogik mahorati, ta'lim muassasasining yaratayotgan imkoniyatlari va oilaning doimiy qo'llab-quvvatlashi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlashimiz zarur. Bizningcha, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan uyg'unlashtirish yosh avlodni yangi davr talablariga javob bera oladigan barkamol insonlar sifatida tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion uslublari, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi loyihalar, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish hamda hamkorlik asosidagi yondashuvlar natijadorlikni keskin oshirmoqda. Shunday ekan, biz ta'limni yangicha tashkil etish orqali o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini — tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot savodxonligi, ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni ustuvor maqsad deb bilamiz. Bizning xulosamiz shuki, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylagan holda ilg'or pedagogik strategiyalarni tatbiq etish natijasida biz kelajakda

raqobatbardosh, barkamol, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlarni voyaga yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Meliyev "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati". – T.: 2021.
2. Bozaraliyeva S." Shaxsni rivojlantirishda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik o'rni".– T.: 2018.
3. Rustamova R."O'quvchi shaxsini rivojlantirishda o'qituvchi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati haqida".– Andijon 2024.
4. Burteshova A."O'quvchi shaxsiyatining psixologik rivojlantirishi".– T.: 2025.
5. Sapparboyeva D."Tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish". – T.: 2024.

ZAMONAVIY O'ZBEK LEKSIKASIDA INGLIZCHA SO'ZLARNING O'RNI**SA'DULLAYEVA SEVINCH LAZIZ QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
sadullayevasevinch481@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida inglizcha so'zlarning kirib kelishi va ularning leksik tizimdagi o'rnini tahlil qilingan. Globalizatsiya, internet va texnologiyalarning rivoji, xalqaro ta'lim va biznes jarayonlari natijasida inglizcha leksemalar o'zbek tilida faol qo'llanmoqda. Asosan texnologiya, biznes, madaniyat va ta'lim sohalarida uchraydigan bu birliklar fonetik va morfologik jihatdan moslashib, o'zbek tilining grammatik tizimiga singib bormoqda.

Kalit so'zlar: inglizcha so'zlar, leksikologiya, zamonaviy o'zbek tili, globalizatsiya, kod-almashuv, anglicizmlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается проникновение английских слов в современный узбекский язык и их место в лексической системе. Под влиянием глобализации, развития интернета и технологий, а также международного образования и бизнеса английские лексемы активно употребляются в узбекской речи. .

Ключевые слова: англицизмы, лексикология, современный узбекский язык, глобализация, код-свитчинг.

Annotation: This article examines the influx of English words into modern Uzbek and their role within the lexical system. Under the influence of globalization, the development of the Internet and technology, as well as international education and business, English lexemes have become actively used in Uzbek.

Keywords: anglicisms, lexicology, modern Uzbek language, globalization, code-switching.

So'nggi o'n yilliklarda o'zbek tilining lug'at tarkibi jadal o'zgarib bormoqda. Bunga globalizatsiya jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalar rivoji, xalqaro kommunikatsiyaning kuchayishi hamda internet va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi asosiy sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan so'zlar (anglicizmlar) o'zbek tilida sezilarli darajada ko'paymoqda. Ushbu jarayon bir tomondan tilimizni boyitayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, til siyosati va lingvistik me'yoriy masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Inglizcha so'zlarning kirib kelish sabablari:

1. Globalizatsiya va texnologiya: zamonaviy texnologiyalar, internet va raqamli vositalar yangi terminlarni ingliz tilida taqdim etmoqda (*internet, file, app, smartphone*).

2. Ilmiy va ta'limiy faoliyat: xalqaro ilmiy maqolalar, darsliklar va ta'lim dasturlarida ingliz tilining ustunligi ko'plab terminlarning bevosita qabul qilinishiga olib kelmoqda (*marketing, management, startup*).

3. Biznes va iqtisodiy soha: xalqaro hamkorlik va biznes jarayonlari ham inglizcha terminologiyaning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda (*brand, delivery, e-commerce*).

4. Madaniy ta'sir: yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tilidagi so'z va iboralarni faol qo'llashmoqda (*blog, hashtag, influencer, content*).

Inglizcha so'zlarning asosiy qo'llanish sohalari:

-Texnologiya va IT: *kompyuter, fayl, internet, smartfon, app*.

-Biznes va marketing: *brend, menejer, marketing, startup*.

-Ijtimoiy-madaniy hayot: *blog, kontent, selfi, trend, influencer*.

-Ta'lim va ilmiy soha: *test, modul, kredit, online, webinar*.

Mazkur sohalarda inglizcha so'zlarning qo'llanishi ko'proq leksik bo'shliqni to'ldirish va xalqaro atamalarni tezroq o'zlashtirish zaruriyati bilan bog'liqdir. Inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga moslashuvi va bir necha ko'rinishlarda namayon bo'ladi:

1. Fonetik moslashuv: inglizcha so'zlar o'zbek talaffuziga moslashtiriladi (*file* → *fayl*, *computer* → *kompyuter*, *smartphone* → *smartfon*).

2. Morfologik integratsiya: o'zbek tilining grammatik qo'shimchalari qo'shiladi (*startup*+lar, *fayl*+ni, *brend*+lar).

3. Orfografik muammolar: inglizcha so'zlarning yozilishi ba'zan notekis (lotin/kiril farqi) – *kompyuter/kompyuter*, *email/imeyl*.

Inglizcha so'zlarning keng tarqalishi yoshlar nutqida kod-almashuv (*code-switching*) hodisasini kuchaytirmoqda. Masalan: "Men email yubordim", "Startup ochmoqchiman". Bunday hodisa ijtimoiy identitet, zamonaviylik va professionalizm belgisi sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, ortiqcha inglizcha so'zlar til me'yorini buzishi va milliy leksikaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun davlat miqyosida ona tilini rivojlantirish, terminlarni milliy variantlarda yaratish, inglizcha so'zlardan muvozanatli foydalanish zarur. Ba'zi hollarda milliy ekvivalentlardan foydalanish kamayadi. Har bir narsaning yaxshi tomonlari bor shuning bilan birga salbiy jihatlari ham.

Ijobiy tomonlari:

Til boyishiga xizmat qiladi.

Yangi tushunchalarni tez qabul qilish imkonini beradi.

Ilm-fan va texnologiyada xalqaro standartlarga moslashadi.

Salbiy tomonlari:

Til me'yorida beqarorlik paydo qiladi.

So'zlashuv uslubida ortiqcha aralashmalar yuzaga keladi.

Zamonaviy o'zbek leksikasida inglizcha so'zlarning kirib kelish sabablari, qaysi sohalarda keng qo'llanishi, salbiy ijobiy tomonlarini o'rganib chiqdik. Zamon talabidan kelib chiqib chet el so'zlarini tilimizga aralashishini to'xtatib qo'yolmaymiz texnologiya asrida bu juda muhim omildir. Lekin ko'p miqdorda qo'llay ham olmaymiz bu tilimizni o'z mavqeyini yo'qotib qo'yishga sababchi bo'ladi. Til sohasida me'yorni bir maromda ushlab juda muhim sanaladi. Buni jarayonni amalga oshirish uchun esa Hozirgi o'zbek adabiy tilining o'zni muhim. Jamiyatda qancha ko'p talaba yoshlar keyinchalik tilshunoslik sohasida faoliyat olib boradigan kadrlar bu sohani chuqur o'rganib o'z tilimizdagi so'zlarni qadr qimmatini saqlab qolish va bu yo'lda ko'plab ilmiy ishlar ustida ishlab tajriba orttirishi maqsadga muvofiqdir. Lekin faqatgina vaziyat bu bilan yaxshilanib qolmaydi bu choralarni barchasini muloqotga kiritish ko'z bilan ko'rib quloq bilan eshitib turgan ma'lumotlarda o'z tilimizni sofliğini saqlagan holda qo'llay olish. Masalan reklama, turli xil bannerlarda katta ko'chalardagi tele ekranda ketayotgan turli mavzudagi e'lonlarga katta ahamiyat berish zarur. Nazariy ilm albatta yaxshi lekin uni keng tarqalishi uchun amaliyot o'z kuchini yetarlicha ko'rsatishi kerak.

Zamonaviy o'zbek leksikasida inglizcha so'zlarning o'zni tobora kuchaymoqda. Bu jarayon tabiiy til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, globalizatsiya va texnologik yangiliklar natijasidir. Shu bilan birga, til siyosati doirasida inglizcha birliklarni me'yorlashtirish, ularning fonetik-morfologik moslashuvini tartibga solish va milliy ekvivalentlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanova, D. (2025). The evolving role of English in Uzbekistan's educational institutions. *Journal of Language Policy*.
2. Polvannazirova, S. (2025). A corpus-based analysis of neologisms from English into Uzbek. *International Linguistics Journal*.
3. Strategy.uz (2020). Decree to increase authority of Uzbek language. [Online maqola].

4. Karimov, A. (2023). Zamonaviy o'zbek tilida yangi leksik qatlamlar. Toshkent: Fan nashriyoti.

5. Qodirova, M. (2024). O'zbek tilida kod-almashuv hodisasi va yoshlar nutqi. Tilshunoslik jurnali.

TIL VA USLUB MASALALARI: FAULKNERNING MURAKKAB SINTAKSISI VA NAZAR ESHONQULNING RAMZIY IFODASI

SAFAROVA FOTIMA NE'MATULLA QIZI

Jizzakh State Pedagogical University

Foreign language faculty

E-mail: fotimanematullaevna@gmail.com

Tel: +99897 793 19 94

Kalit so'zlar: Uilyam Faulkner, Nazar Eshonqul, sintaksis, ramz, ramziy ifoda, uslub, modernizm, psixologizm, stream of consciousness, qiyosiy adabiyot

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning yirik adibi Uilyam Faulkner va zamonaviy o'zbek hikoyachiligida alohida o'rin tutgan Nazar Eshonqul ijodida til va uslub masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Faulknerning murakkab sintaksis vositalaridan foydalanishi, ong oqimi texnikasi, vaqt va makonning uzluksiz o'zgarishi uning asarlarida qahramonlarning ruhiy olamini ochib berishda muhim o'rin tutishi ko'rsatib o'tiladi. Nazar Eshonqul esa ramziy ifoda, obraz va detallar orqali inson ruhiyatini falsafiy-estetik kontekstda yoritadi. Muallifning "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tun panjaralari" kabi hikoyalarda ramziy obrazlar orqali ijtimoiy va ma'naviy muammolar badiiy talqin qilinadi. Faulkner va Eshonqul uslubini qiyoslash orqali turli adabiy makonlarda shakllangan yozuvchilar bir maqsad – inson ruhiyati va jamiyat muammolarini ifodalashda o'ziga xos til vositalarini yaratganliklari isbotlanadi.

Keywords: William Faulkner, Nazar Eshonqul, syntax, symbol, symbolic expression, style, modernism, psychology, stream of consciousness, comparative literature

Annotation: This article provides a comparative analysis of language and stylistic features in the works of William Faulkner, one of the greatest writers of the twentieth century, and Nazar Eshonqul, a prominent representative of contemporary Uzbek prose. Faulkner's complex syntactic constructions, his use of the stream of consciousness technique, and his nonlinear perception of time and space are shown as essential tools for revealing the psychological world of his characters. In contrast, Nazar Eshonqul employs symbolic expression, metaphoric images, and detailed representations to depict human psychology within a philosophical and aesthetic framework. His stories such as *The Man Leading a Monkey*, *The Wind Cannot Be Caught*, and *Prison Bars of the Night* reveal social and spiritual problems through

symbolism. By comparing Faulkner's syntactic complexity with Eshonqul's symbolic imagery, the study demonstrates how writers from different literary contexts employ unique stylistic devices to express similar concerns about human destiny and social reality.

Ключевые слова: Уильям Фолкнер, Назар Эшонкул, синтаксис, символ, символическое выражение, стиль, модернизм, психологизм, поток сознания, сравнительное литературоведение

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ языковых и стилевых особенностей в творчестве Уильяма Фолкнера, одного из крупнейших писателей XX века, и Назара Эшонкула, выдающегося представителя современной узбекской прозы. Показано, что сложный синтаксис Фолкнера, использование приёма «потока сознания», а также нелинейное восприятие времени и пространства служат важными средствами раскрытия внутреннего мира его персонажей. В прозе Назара Эшонкула, напротив, главную роль играют символическое выражение, метафорические образы и детали, которые позволяют передать психологические переживания в философско-эстетическом ключе. В таких рассказах, как «Человек с обезьяной», «Невозможно поймать ветер», «Ночные решётки» символика становится основой художественного осмысления социальных и духовных проблем. Сравнение Фолкнера и Эшонкула показывает, что писатели, принадлежащие к разным литературным традициям, создают собственные стилистические средства для выражения схожих вопросов человеческой судьбы и общественной действительности.

Kirish

XX asr adabiyoti ko'plab yangilanish va uslubiy tajribalar davri bo'lib, bu davr nasrida til va uslubning yangi qirralari kashf etildi. Adabiyot tarixida o'ziga xos badiiy olam yaratgan yozuvchilardan biri – amerikalik adib **Uilyam Faulkner** bo'lsa, o'zbek zamonaviy nasrining yorqin vakillaridan biri – **Nazar Eshonqul** hisoblanadi. Har ikkala adib ijodida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, jamiyat va shaxs muammolarini o'ziga xos badiiy shakllarda ifodalash ustuvor o'rin tutadi. Shu bois ularning hikoyachilikdagi til va uslub masalalarini qiyoslash adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Faulkner ijodi asosan XX asrning birinchi yarmida Amerika janubiy shtatlarining murakkab ijtimoiy hayoti, irqiy ziddiyatlari va tarixiy xotirasini yoritishga qaratilgan. U o'z asarlarida an'anaviy hikoya usullaridan voz kechib, ong oqimi (stream of consciousness), murakkab sintaktik qurilish, vaqt va makonning noan'anaviy talqini

orqali o'quvchini qahramonning ichki dunyosiga olib kiradi. Faulknerning "The Sound and the Fury", "As I Lay Dying", "Light in August" kabi asarlarida uzun jumlar, bir necha qatlamli sintaktik konstruksiyalar, vaqtning uzluksiz o'tishi va xotira oqimining aralashuvi badiiy shaklning asosiy belgilariga aylangan.

Nazar Eshonqul esa o'zbek nasrida ramziy ifoda va metaforik tafakkur asoschisi sifatida tanilgan yozuvchilardan. Uning hikoya va qissalarida tashqi syujet ko'pincha ikkinchi planga tushadi, ramz va timsollar esa asosiy g'oya yukini ko'taradi. "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tun panjaralari" kabi asarlarida yozuvchi oddiy voqelikni ramziy obrazlar orqali falsafiy va psixologik ma'nolar bilan boyitadi. Maymun, shamol, penjara, tun kabi obrazlar o'zbek xalqining ruhiy kechinmalari, tarixiy taqdiri va ijtimoiy holatini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi.

Demak, Faulkner va Eshonqul bir qarashda turli adabiy muhitda – biri Amerika janubida, ikkinchisi O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrida – ijod qilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat shundaki, ular inson ruhiyati va ijtimoiy muammolarni yangicha badiiy uslub vositalari orqali yoritishga intildilar. Farqi esa, Faulkner murakkab sintaksis orqali psixologik oqimni ifodalagan bo'lsa, Eshonqul ramziy ifoda vositalarini markazga qo'ydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Faulknerning murakkab sintaksisi va Nazar Eshonqulning ramziy ifodasini qiyosiy tahlil qilish, ularning uslubiy tajribalarini o'rganish hamda badiiy tafakkurdagi umumiylik va o'ziga xosliklarni ko'rsatib berishdan iboratdir. Shu orqali nafaqat ikki adib ijodi, balki turli adabiy maktablarning til va uslub xususiyatlari ham yanada ravshanlashadi.

Faulknerning til va uslubi: murakkab sintaksis, psixologik oqim

1. Stream of consciousness (ong oqimi)

○ Faulkner asarlarida (masalan *The Sound and the Fury*, *Light in August*) ondan kelayotgan fikr va xotiralar chiziqli bo'lmagan tarzda, vaqt tartibi buzilgan holda ifodalanadi.

○ Misol: *Light in August* dan:

"Memory believes before knowing remembers. Believes longer than recollects, longer than knowing even wonders." CliffsNotes+1

Bu jumla sintaktik jihatdan murakkab: ko'p bosqichli taqqoslovchi konstruksiyalar ("believes longer than recollects, longer than knowing even wonders") orqali psixologik holat – xotira, tasavvur va ong doimiyiyatini ifodalaydi.

2. Uzun va bog'langan jumlar (hypotactic construction) vs qisqa fragmentlar

○ Faulkner uzun jumlarlar, murakkab bog'langan gaplar, ko'p punktuatsiya belgilaridan (semi-kolonlar, tirelar, qavslar) foydalanadi, jumla ichida turli fikr va tasvirlar «yig'iladi».

○ Shu bilan birga, ong oqimi sahnalarida qisqa fragmentlar, to'xtab qolgandek, qaytaruvchiligi yoki uchraydigan urinishlar – bu holatlar psixologik holatni yanada kuchaytiradi. Masalan *As I Lay Dying* da:

“Because I said If you wouldn't keep on sawing and nailing at it until a man cant sleep ... Sawing and knocking ... and keeping the air always moving ...”

3. Xotira, vaqt va makonning sintezi

○ Faulkner voqalarning zamonaviy ketma-ketligidan chiqadi, vaqtni qayta aralashtiradi: o'tmish, hozirgi va kelajak qismlari aralashadi. Jumladan *The Sound and the Fury* narativ bo'laklari misolida.

○ Sintaksis bu aralashuvga xizmat qiladi: jumla tarkibida ko'p qo'shimchalar, relativ gaplar, teskari sintaktik qurilishlar, o'zaro bog'lanmagan fikrlarning bir jumlada yig'ilishi.

Nazar Eshonqulning ramziy ifodasi

1. Ramz va timsol (simvol) vositalari

○ Eshonqul hikoyalarida ramziy obrazlar va detallar keng qo'llanadi. Masalan “*Maymun yetaklagan odam*” hikoyasida ranglar, detallar, hayvon motivlari: maymun, yetaklash – metaforik, timsol sifatida inson holati, yetakchilik, ijtimoiy tuproqdagi mansublik, erkinlik-mustaqillik masalalari ochiladi.

○ “*Tun panjaralari*” va “*Momo qo'shiq*” qissalarida zamon-makon, makonning chegaralari, penjara, tush kabi metaforalar orqali ruhiy holat, cheklanish hissi, inson ongining tutqunligi ramziy tarzda tasvirlanadi.

2. Ramziy nutq va detal tasviri

○ Eshonqul adabiyotshunoslarining maqolalarida aytilishicha, uning hikoyalaridagi **ramziy-nutq** (“symbolic speech”) — ma'lum so'z, so'zlar guruhi voqelikdan tashqarida ham ma'no keltiradi; so'zlarning tafsiloti, ovoz-tini, qahramon nutqi ramziy ma'noga to'la.

○ Detallar (masalan ranglar, tabiiy manzaralar, ruhiy holatni aks ettiruvchi ob'ektlar) muallif tomonidan oddiy voqelikdan tashqari ma'nolarni sochadi. Masalan “maymun” obrazining oddiy hayvon emasligi – insoniylik, ijtimoiy ustunlik yoki mustabaklik timsoli bo'lishi. UzResearchers

3. Ichki psixologik olam va ruhiy kurash ifodasi

○ Eshonqulning hikoyalarida tashqi voqea – syujet – ko‘pincha chekkada qoladi, muhim narsa – qahramonning ichki kurashlari. Ichki kechinmalar ramziy tasvirlar, tush motivi, metafora, simvolik so‘zlar orqali beriladi

○ Masalan “*Shamolni tutib bo‘lmaydi*” hikoyasida shamol ramzi – insonning erkinlik istagi, hayotning o‘tkinchiligi, taqdirga bo‘ysunmaslik. Academics Book

Qiyosiy tahlil: o‘xshashliklar va farqlar

Aspekt	Faulkner	Eshonqul
Sintaksis uzunligi va murakkabligi	Juda uzun, bog‘langan va jumlar, stream of lekin ramziy ma’noli detal va consciousness texnikasi, vaqt-timsolchilik makon aralashuvi.	O‘zbek tilida ko‘proq qisqa orqali ichki kurashlarni ifodalaydi.
Ramziy ifoda	Bor, lekin Faulkner ko‘proq psixologik oqim, Ramzlar markaziy; hayvon xotira-aralashuv orqali motivlari, ranglar, tabiiy ramzlar ochiladi; so‘zlar manzara, tush, shamol kabi orasidagi metaforalar, sezgi obrazlar tez-tez ishlatiladi. tasvirlari kuchli.	
Til vositalari (sintaktik vositalar, punctuatsiya, gap bo‘linishi)	Faulkner gap bo‘linishlari, tire, nokta, vergul, parantezalar, vaqtning tuzilishi sezilarli qiyinchilik yo‘qolishi orqali murakkablik tug‘dirmasa-da, hosil qiladi.	Eshonqulda til an’anaviy o‘zbek nasri kontekstida; gap qiyinchilik ramziy-ma’no qarash nuqtai nazaridan boy.

Xulosa

• Faulkner va Eshonqul adabiy tillarini turli jihatdan rivojlantirgan yozuvchilar. Faulkner sintaktik murakkablik, psixologik oqim, vaqt-makon aralashuvi orqali o‘quvchini qahramonning ichki kechinmalariga chuqur kirishga majbur etadi.

• Eshonqul esa ramziy ifoda va detal tasviri vositalari orqali voqelikni psixologik va falsafiy shaklda ochadi, uning uslubi o‘zbek nasri an’analarini hisobga olgan holda modernistik elementlarni ham o‘z ichiga oladi.

• Ularning farqi shundaki, Faulkner sintaksis orqali murakkablik yaratadi, whereas Eshonqul ko‘proq simvol va ramz orqali g‘oyalarning chuqurligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotla:

1. Faulkner, W. *The Sound and the Fury*. New York: Vintage International, 1990.
2. Faulkner, W. *As I Lay Dying*. New York: Random House, 1996.
3. Faulkner, W. *Light in August*. New York: Vintage International, 1990.
4. Faulkner, W. *Collected Stories of William Faulkner*. New York: Vintage, 1995.
5. CliffsNotes. *Faulkner's Style in Light in August*.
<https://www.cliffsnotes.com/literature/l/light-in-august/critical-essays/faulkners-style>
6. LitCharts. *Stream of Consciousness Literary Device*. –
<https://www.litcharts.com/literary-devices-and-terms/stream-of-consciousness>
7. Nazar Eshonqul. *Maymun yetaklagan odam*. Toshkent: Sharq, 2002.
8. Nazar Eshonqul. *Shamolni tutib bo'lmaydi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2004.
9. Nazar Eshonqul. *Tun panjaralari*. Toshkent: Adabiyot, 2010.
10. To'xtasinova, S. "Nazar Eshonqul hikoyalarida ramziy ifoda." *New Scientific Research Journal*, №3 (2023)
<https://uzresearchers.com/index.php/NSNR/article/view/2319>
11. "Nazar Eshonqul ijodida ramz va timsollar talqini." *International Journal of Development and Research*, №4 (2023).
<https://www.ijournal.uz/index.php/judr/article/view/1946>
12. Hasanov, I. "O'zbek zamonaviy hikoyachiligida ramz va metaforalar." *Bilig – ilmiy jurnal*, №2 (2022). –
<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/455>
13. "Nazar Eshonqul hikoyalarining badiiy xususiyatlari." *Academics Book Conference Proceedings*, №5 (2023). –
<https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1126>

PEDAGOGIK AMALIYOTDA NOTIQLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

SAIDMURODOVA RUXSHONA ODIL QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

saidmurodova89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv jarayonida pedagoglarning notiqlik mahorati va pedagogik muomala metodlari hamda bu metodlarda o'quvchilarning o'rganishini osonlashtirish, ularning qiziqishlarini oshirish, shaxsiy rivojlanishni kuchaytirish shuningdek, o'quvchilarda ham notiqlik mahoratini shakllantirish borasida ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muomala madaniyati, o'qitish metodikasi, notiqlik mahorati, pedagogik muomala metodi, sifatli ta'lim, mantiqiy fikrlash, erkin fikrlash, tafakkur.

Jahond

a ta'lim tizimida o'quvchi- yoshlar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro muomala madaniyati pasayib borishi va oqibatda o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillar, savodxonlik darjasidagi shart-sharoitlar va munosabatlarni o'rganish, ularni tahlil va tavsif qilish bilan bog'liq tadqiqotlarga ehtiyoj ortmoqda. Fan va taraqqiyotning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanayotgan bugungi kun jamiyatida insonning iqtidori, bilim va malakasiga qo'shayotgan talablar ortib bormoqda. Qo'yilgan maqsadlarga erishish, mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'shish uchun kadrlarning kasbiy mahorati va kompetentligini yuqori sifat darajasiga olib chiqish zaruriyati talab etiladi. Raqobatbardosh va talabga mos kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish sifatli ta'lim orqali amalga oshiriladi. Bu esa ilg'or tajribalardan foydalanish ehtiyojini kuchaytirmoqda. Jumladan, o'quv jarayonlarida o'quvchiyoshlarning mantiqiy tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog'liq ta'limiy muammolar shaxs kreativligini rivojlantirish yo'nalishida maxsus o'rganilmoqda. O'qitish metodikasi sohasidagi xalqaro tajribalarda o'quv materallari mazmunung nutqiy ko'nikmalar rivojida ahamiyatlilik darajasi hamda muloqot madaniyati takomilidagi samaradorligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. .

Dunyoda kichik yoshdagi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini o'stirishga doir o'quv-didaktik ta'limotni globallashtiruv davri pedagogikasi talablariga muvofiq holda takomillashtirish, nutqiy ko'nikmalarni tarkib topishiga yo'naltirilgan konstruktiv mashqlar tuzish, izohli va ideografik lug'atlar bilan ishlash, obrazli

tafakkur va soʻz-mantiq xotirasini mustahkamlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Umuman, badiiy matn ustida ishlash orqali ijodiy va nutqiy potensialini namoyon etish, kommunikativlik va nutqning emotsionalligi hamda taʼsirchanligini taminlashga mnemik faoliyatga asoslangan konseptual yondashuvlar oʻquvchilarning nutq va tafakkuri integratsiyasiga muvofiq tarzda belgilanmoqda. Bu borada pedagoglar oʻquvchilarning tushunchalarini yaxshilashda shaxsiy muloqot, koʻrsatmalar, mashqlar va boshqa usullar orqali ularning oʻzlarining tushunchalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

“Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolar erkin fikrlashni oʻrganmasa, berilgan taʼlim samarasi past boʻlishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim oʻz yoʻliga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”. Notqlik sanʼati pedagogikada oʻquv jarayoni yoki bilimni oʻrganishning eng samarali va qulay usullarini qamrab oladi.

Bu sanʼat oʻquvchilarning qiziqishlariga mos ravishda, ularning oʻz-oʻzini oʻrganishga qodir boʻlishiga yoʻl ochadi. Shuningdek, pedagoglarda pedagogik muomala ham boʻlishi talab etiladi. Pedagogik axloq taʼlim-tarbiya jarayonida vujudga kelib, anʼanaga aylanib qolgan ayrim qoidalar subektiv qarama qarshiliklar va konfliktlarning kelib chiqishiga sabab boʻlishi mumkin. Masalan, shunday qoidalardan biri har qanday holatda ham oʻquvchi oldida muallimning obroʻsini saqlash kerak, degan tushunchadir. Bu keyinchalik oʻquvchi va oʻqtuvchi oʻrtasida oʻzaro nizoni keltirib chiqaradi albatta. Agarda pedagogda muomala mahorati boʻlmasa oʻquvchi-yoshlar va pedagog oʻrtasida murosaga kelish juda qiyin boʻladi. Notqlik mahorati va pedagogik muomala metodi oʻquv jarayonida bir-biriga qoʻshimcha yordam beradi. Pedagoglar, oʻquvchilarning oʻrganishni osonlashtirish va ularga qiziqishlarni oshirish uchun notqlik mahoratini qoʻllashadi. Bu oʻquvchilarning tushunchalarini tushunish va oʻzlashtirishni tanlashda ham yordam beradi. Notqlik-ogʻzaki nutq bilan bogʻliq hodisa, demak u nutqning ogʻzaki shaklidir. Umuman olganda notqlik- ogʻzaki nutq sanʼatidir. Notqlik mahoratida nutqning toʻgʻriligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. toʻgʻri boʻlmasa, boshqa kommunikativ fazilatlar ham buziladi. Nutqning toʻgʻriligi boʻlmaganda, uning mantiqiyliigi, aniqligi, oʻrinliliigi kabilar haqida gapirib boʻlmaydi. Pedagog notqlik mahorati bilan toʻgʻri nutq tuzish uchun u adabiy til normalarini egallab olgan boʻlmogʻi lozim. Shuningdek, u oʻquvchi yoshlar bilan oʻzaro muloqotda kuchli pedagogik muomala qilaolish mahoratiga ham ega boʻlmogʻi lozim. Bu esa juda murakkab sarmashaqqat ishdur. Avvalo eʼtiborimizmi notqlik mahoratiga qaratsak. Notqlik oʻquvchilarning qiziqishlariga mos ravishda, ularning

o'z-o'zini o'rganishga qodir bo'lishiga yo'l ochadi. Uni bosqichlarga bo'lgan holda amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

1.O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash: Aslida notiqlik o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va ularning qiziqishlariga mos ta'lim usullarini tanlash bilan boshlandi ya'ni ular bilan tanishish va uning o'z olamini o'rganib chiqishdek.

2.O'quvchilarni qiziqishlariga mos ta'lim usullarini tanlash: bu o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganishga va qayta-qayta o'zlarining ustida mustqil holda ham ishlashga katta yordam beradi.

3.Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini ta'minlash: faolligini taminlash degani nima degani ya'ni o'quvchilarni ularni qiziqtiradigan va ularga maqul tushadigan yo'sinda ularning fikrini pedagog notiqlik mahorati orqaligina o'zlariga jalb etaoladi.

4.O'quvchilarning o'z-o'zini baholshi: ya'ni ular o'z o'zlarini baholaydilar hamda jamoaning fikrini ham tinglagan holda, o'zlari o'zlari uchun xulosa chiqaradi. Bu holatda pedagog vazifasi o'quchi yoshlarni yo'naltirish bo'ladi xolos.

5.Ta'lim jarayonlarning natijalarini baholash: bu usul oldingi usulning deyarli davomi. Notiqlik mahorati ta'lim jarayoning natijalrini baholash va

o'quvchilarning qay darajada o'rganishlarini aniqlash uchun amalga oshiriladigan tadbirlarni tahlil qiladi. Bu tadbirlar o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganishda yordam beradi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun o'quvchilardan ham pedagoglardan ham katta mas'uliyatni talab qiladi. Ikkisi birgalikda harakat qilmog'i lozim bo'ladi. Agarda ikkisidan biri oqsaydigan bo'lsa natija kutilganidek chiqmaydi. Pedagoglarda nafaqat notiqlik balki o'zaro muomalada ham mahoratli bo'lmog'i lozim. "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da kasb tanlash motivlari, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib topdirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Pedagog muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

- muloqotda har bir o'quvchi –yoshlarga alohida e'tibor va dilkashlik jamoa bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatlarni oson hal qiladi;

- har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarni tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

- pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta'minlaydi.

Pedagoglar o'quvchilarga muomala mahorati orqali darslar va ko'nikmalarni tushuntirib borishadi.

Ta'lim tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir.

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqida

axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'quvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasda, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ularni tushinish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

Pedagog o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib muomala qilmog'i lozim. Pedagog muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr-mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A., Barkamol avlod orzusi. - T. 2000. 35-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunu//Barkamol avlod. – T: Sharq.1997. 31-61-betlar. Bekmirzayev N., Notqlik san'ati asoslari. - T. 2008. 13-bet.
3. Mustafayeva N.U., Talabalarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda
4. disgrafiya, disleksiya va dispraksiyani bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. - T. 2022.
5. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q., Nutq mahorati. - T. 2006. 28-30-betlar.

A COMPETENCE-BASED APPROACH TO TEACHING STUDENTS FOREIGN LANGUAGE AT HIGHER EDUCATION LEVEL

SAMBETOV Y. S.

Master's degree,

Practical English senior lecturer of the Department

Abai Kazakh National

Pedagogical University

Almaty, Kazakhstan

e-mail: Sambetovyerlan@gmail.com

Abstract: This article is dedicated to the question of the effectiveness of a competence-based approach to teaching students foreign language at higher education level. The necessity for foreign language-speaking professionals in their line of work was brought about by the openness of contemporary Kazakhstani society and the growth of our nation's commercial and cultural connections with other nations. Learning a foreign language becomes crucial for both professional and social development. Proficiency in a foreign language provides future specialists with access to foreign information sources, which are essential for university graduates' modern-day work. Working with original literature requires the ability to extract information from the text, critically understand it, generalize it, analyze it, and determine its trustworthiness. Proceeding from this, our country has adopted a policy of trilingualism, where English is given a special place as a language of international communication. Due to all of the above, the article has a significant relevance nowadays.

Key words: competence, competence-based approach, foreign language teaching, teaching at the higher education level, multilingualism

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу эффективности компетентностного подхода к обучению студентов иностранному языку на уровне высшего образования. Необходимость в специалистах, владеющих иностранным языком по роду своей деятельности, вызвана открытостью современного казахстанского общества и ростом торговых и культурных связей нашей страны с другими государствами. Изучение иностранного языка становится важным как для профессионального, так и для социального развития.

Владение иностранным языком открывает будущим специалистам доступ к зарубежным источникам информации, что необходимо для современной работы выпускников вузов. Работа с оригинальной литературой требует умения извлекать информацию из текста, критически ее осмысливать, обобщать, анализировать и определять ее достоверность. Исходя из этого, в нашей стране принята политика трехязычия, где английскому языку отводится особое место как языку международного общения. В связи со всем вышесказанным статья имеет значительную актуальность в наши дни.

Ключевые слова: Компетентность, компетентностный подход, преподавание иностранного языка, преподавание на уровне высшего образования, мультиязычие.

In modern conditions the issues of foreign language teaching is sound especially important. Changes in the nature and result of education of the beginning of 21st century orient it to 'free development of a person', to their creative initiative, independence of students, competitiveness, competence, improvement of quality of training of future specialists in the system of higher professional education'.

The necessity for foreign language-speaking professionals in their line of work was brought about by the openness of contemporary Kazakhstani society and the growth of our nation's commercial and cultural connections with other nations. Learning a foreign language becomes crucial for both professional and social development. Proficiency in a foreign language provides future specialists with access to foreign information sources, which are essential for university graduates' modern-day work. Working with original literature requires the ability to extract information from the text, critically understand it, generalize it, analyze it, and determine its trustworthiness. Proceeding from this, our country has adopted a policy of trilingualism, where English is given a special place as a language of international communication.

On the one hand, the current modernization of the educational system aims to emphasize its practical and activity orientation while, on the other, maintaining the fundamentalness of education. Higher education graduates are expected to participate more actively in the global arena, according to new standards. A foreign language must be used more extensively in the professional training of future highly qualified specialists due to the growth of professional international communication, business relationships with foreign colleagues, working with documents in a foreign language, and the potential for an internship abroad. A specialist in any field of work should be able to communicate in a foreign language both orally and in writing, according to the

state educational standards of higher professional education. This means that they should be highly prepared to communicate effectively in a foreign language with colleagues from other countries [1, p. 8].

Meanwhile, there are a number of contradictions in the organization of the educational process related to the teaching of foreign languages in higher education:

- between university graduates' poor proficiency in foreign languages and the growing demand of contemporary society for highly skilled professional personnel who speak foreign languages;
- between the foreign language course's enormous potential for producing skilled professionals in light of contemporary demands for their work and its haphazard application in higher education institutions' curricula;
- between the need for adequately high levels of foreign language ability and the underdeveloped teaching technology in relation to the new criteria;
- between the lack of close interdisciplinary links between the disciplines of the professional cycle and foreign language as a language of professional communication;
- between students' innately poor foreign language skills (particularly those who are not majoring in languages) and the high standards for foreign language proficiency [2, p. 41-42].

Higher education institutes teach "foreign language" as a communicative and professional subject. The development of initial foreign language proficiency, which entails the enhancement of proficiency in the four primary activity categories (speaking, reading, writing, and listening), is the primary goal of foreign language instruction.

The so-called competence-based approach to the teaching system, which is presently being developed and applied in the practice of teaching students, is one method to get over the current inconsistencies. Many methodologists believe that a set of competencies, which should be used to help students improve their intellectual capacities, should be used in place of the system of acquiring knowledge, skills, and abilities. The ideas of the competence approach as a principle of education are considered in the works of A. G. Bermus, I. A. Zimnya, G. B. Golub, V. V. Kraevsky, O. E. Lebedev, I. D. Frumin, A. V. Khutorsky and a number of other domestic and foreign researchers. There is no unambiguous opinion among researchers regarding the concept of 'competence-based approach'.

The most complete, in our opinion, seems to be the definition offered by O. E. Lebedev. The competency method, according to the researcher, is a collection of broad guidelines for establishing learning objectives, choosing instructional materials,

planning the learning process, and assessing learning outcomes. Conditions for the development of students' capacity to independently solve problems in a variety of domains and activity types based on social experience are established during the planning of the educational process. The social experience of solving cognitive, attitudinal, moral, political, and other issues is the didactically tailored content of education [3, p. 3].

The information a student learns from manuals and textbooks is insufficient. Competencies that enable the learner to apply the knowledge they have gained in real-world foreign language activities must be developed. The competence-based approach focuses more on developing the skills and talents necessary to apply knowledge in practice than it does on assimilating information. It is also focused on helping pupils enhance their creative abilities. We believe that by taking this method, the gap between theoretical knowledge and its practical implementation is avoided.

Students who follow the competence-based method get the ability to apply the language in real-world scenarios that they might come into outside of the classroom. For instance, a student might be required to complete an application, submit a personal medical history, or provide instructions on how to finish a particular assignment. Competencies are not practical exercises, even if students need to practice to become proficient. Competencies are not tasks completed merely to help a student improve at a task or to assign a grade the student receives. Competencies are real-world uses of language in various contexts.

Competencies that are well-designed comprise a number of elements. First of all, they outline particular information and abilities that can be used in novel and difficult circumstances. Since teaching principles and learning techniques can benefit students throughout their lives, knowledge and abilities should be valuable outside of the classroom. Understanding emergency instructions, for instance, is beneficial outside of the classroom and will be helpful for many years to come. Additionally, every skill should have explicit performance standards that inform students of their current level of proficiency and areas for improvement. Every assignment needs a unique rubric that highlights its unique strengths and shortcomings. Finally, competencies need to be personalized. Poorly designed, implicit criteria and tasks are likely to lead to probable failure because it will be difficult or even impossible to identify what needs to be done and to determine whether the competencies have been achieved [4, p. 39].

A competency-based approach necessitates a shift in learning mindset. Students must be at the center of the classroom, with a focus on their abilities. Measuring proficiency requires more than just being able to spot mistakes in written work or grasp

grammar rules. Students must show that they can use the target language to do particular tasks that they are likely to face in the real world.

The job of the teacher is evolving from one of informant to one of facilitator. This is not to say that teachers don't still impart knowledge; rather, it just means that they do so in different ways and with different kinds of material. Instructors give their pupils resources, assignments, and practice chances. These resources' caliber and legitimacy are essential to the class's success [5, p. 206].

The learning process becomes heavily reliant on planning. The first step is to identify each competency. Every competency needs to be broken down into its matching set of skills. Modules that give students the chance to acquire and practice certain abilities must then be created. For pupils to master a competency, teachers must specify exactly what they need to do and how effectively they must do it. From the start of the session, students should be given access to specific rubrics that evaluate each competency.

To achieve the competency standards, teachers will have to invest a lot of effort in developing activities that correspond to the particular abilities required. Assessing pupils and giving them targeted, focused, and customized feedback will also take a significant amount of effort.

Additionally, the learner's role differs from their usual one. Students will no longer be able to get all of their information from the teacher and the classroom. Integrating, creating, and expanding knowledge will be their responsibilities. Students actively participate in their education and strive to become self-sufficient learners. In a range of contexts, they develop their critical thinking, adaptability, and information transfer skills. Students are expected to continue working on each competency, master it, and then move on to the next since expectations and criteria are explicit and exact [5, p. 208].

At first, students could object to this method, particularly if they don't think learning the language is necessary. Student participation is essential for productive classroom interactions. In addition to finding ways to integrate the material into the classroom, students also need to figure out how to motivate themselves. Pupils must be prepared to ask questions, challenge the status quo, and lead class discussions.

The competency-based curriculum differs from more conventional classrooms, even while teachers are allowed to create instructional strategies and tactics that are most likely to succeed in a particular learning environment. Competency-based classes are structured around the skills and abilities that the learner needs, not around particular language themes. Every day and every unit emphasizes the abilities required to advance

pupils toward mastery. Activities that let the learner practice the necessary skills should be part of the work program.

This might necessitate a shift in organization and thought. Lessons are usually structured around subjects like the present tense, past tense, irregular past tense, future tense with transition, etc. in many traditional classes. These subjects will still be covered, but they won't be the main emphasis of the class. Rather, teachers will introduce the past tense and the terminology required for the particular task if a student has to utilize it to meet a competency. Along with proper vocabulary, register, pronunciation, and other aspects of the course, the tense will be taught as a fundamental component. This suggests that rather than being taught as a single unit, past tense can be introduced in multiple units as required. This allows the units to build on each other and students can practice skills learnt earlier.

Performance, not knowledge, should be the focus of the course contents. Few tasks should ask students to circle the right response, fill in the blank, or, more specifically, just check their grammar. Instead, every assignment needs to be based on a real-world scenario that calls for the application of some or all of the designated competency's components. For instance, if the task's competency is "producing personal information," students must apply their self-knowledge to generate that information. Making a family tree, discussing their favorite games, or discussing their weekend activities are some ways that students might get practice. Keep in mind that the pupil needs to use language in some way. The student must exhibit their personal expertise for each of these assignments.

There are two types of student assessments: formative and summative. To find out how effectively a student is moving toward competency, formative evaluations are utilized. Formative evaluations ought to be regular and targeted. The majority of assessments in a competency-based approach will be formative. Conversely, summative tests are intended to ascertain whether the student has mastered the skill. As a result, summative tests are typically given as a final exam at the conclusion of each module. Failure to pass a summative test prevents a student from moving on to the next competency. Rather, until mastery is attained, the student must repeat the unit. A range of measurement instruments may be used in summative evaluations, which are performance-based. Paper and pencil tests cannot be used to assess a competency unless someone is assessing the competency in writing. True-false, fill-in-the-blank, and multiple choice tests are permanently excluded from the competency-based classroom as the definitive assessment of competence.

Conclusion

The competency-based curriculum differs from more conventional classrooms, even while teachers are allowed to create instructional strategies and tactics that are most likely to succeed in a particular learning environment. Competency-based classes are structured around the skills and abilities that the learner needs, not around particular language themes. Every day and every unit emphasizes the abilities required to advance pupils toward mastery. Activities that let the learner practice the necessary skills should be part of the work program

There has never been a greater demand for competency-based education. Both teachers and students must embrace new roles and leave their comfort zones in order to succeed. This unfamiliarity may initially cause apprehension and pain, but as the classes go on, the advantages ought to become clear. However, the results are likely to be ineffective if teachers and students try to implement a competency-based strategy without changing their own behavior. However, if both take on their new roles, they will probably discover that learning becomes more fruitful and fulfilling.

References:

1. Bader, Faiza& Hamada, Hacene. Competency Based Approach Between Theory And Practice. 7. 2015, Vol A - pp. 07- 19
2. Nsyengula, Stephen &Haule, J &Mhagama, Willy &Okello, Joel. Enhancing Competency-Based Learning Through Flipped Classroom Approach. Journal of Classroom Action Research. 3. 2024, Pp. 36-48.
3. Лебедев, О. Е. Компетентностный подход в образовании [Текст] / О. Е. Лебедев // Школьные технологии. – 2004. – № 5. – С. 3–12.
4. Koroleva, M.. Evaluation of profession-oriented foreign language competency of cadets in competency-based approach. Bulletin of Nizhnevartovsk State University. 2020, pp. 37-42.
5. Biletska, Iryna&Domnich, Olga &Kabenova, Diana &Perminova, Liudmila&Cherednichenko, Natalia. Competency-based approach as an imperative of reforming the training of future foreign language teachers. ScientificHeraldofUzhhorodUniversitySeriesPhysics. 2024, pp. 203-211.

ONA TILI DARSLARIDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

SAMIYEVA OZODA MUZAFFAR QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ozodasamiyeva21@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid nazariy hamda amaliy asoslar keng yoritilgan. O'quvchilarda tafakkurni faollashtirish, mustaqil va tahliliy fikrlashni shakllantirish, yangilik yaratishga undovchi pedagogik metodlar – interfaol, muammoli, evristik, o'yinli, loyihaviy va reflektiv texnologiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchi faoliyatida innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati, ijodiy fikrlashni o'lchash va baholash mezonlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, muammoli ta'lim, interfaol metod, evristik yondashuv, refleksiya, loyihaviy faoliyat, kognitiv tafakkur, kompetensiya.

Abstract. This article broadly covers the theoretical and practical foundations of developing students' creative thinking skills in native language education. Pedagogical methods that stimulate students thinking, form independent and analytical thinking, and create innovations - interactive, problem-based, heuristic, game, project-based and reflective technologies - are analyzed. Also, the role and importance of innovative approaches in teacher activity, criteria for measuring and evaluating creative thinking are scientifically substantiated.

Keywords: creative thinking, problem-based education, interactive method, heuristic approach, reflection, project-based activity, cognitive thinking, competence.

Аннотация. В статье широко рассматриваются теоретические и практические основы развития творческого мышления учащихся в процессе обучения родному языку. Анализируются педагогические методы, стимулирующие мышление учащихся, формирующие самостоятельность и аналитическое мышление, а также создающие инновации: интерактивные, проблемные, эвристические, игровые, проектные и рефлексивные технологии. Также научно обоснованы роль и значение инновационных подходов в деятельности учителя, критерии измерения и оценки творческого мышления.

Ключевые слова: творческое мышление, проблемное обучение, интерактивный метод, эвристический подход, рефлексия, проектная деятельность, когнитивное мышление, компетентность.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi inson kapitaliga asoslanmoqda. XXI asrda bilim emas, balki bilimni qo'llay olish, yangi g'oya yaratish va mustaqil fikrlash eng asosiy kompetensiyalarga aylandi. Shu ma'noda, ona tili fanining vazifasi ham o'zgardi — u endi faqat grammatik bilim berish emas, balki o'quvchini erkin, mantiqiy, ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ham aynan ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslari orqali o'quvchilarni nafaqat savodli, balki ijodkor, mustaqil fikrlovchi, estetik didga ega shaxslar qilib tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir.

"Ijod" (arabcha *khalaqa* — "yaratish") so'zi yangilik kiritish, mavjud bilim va tajribani qayta ishlash orqali yangi natija yaratishni anglatadi. Ijodiy fikrlash esa — mavjud ma'lumotni yangicha talqin qilish, noodatiy yechim topish qobiliyatidir (E. Torrens, 1974). Mashhur psixolog J. Gilford ijodiy tafakkurni "*divergent fikrlash*", ya'ni bir masalaga turli jihatdan yondashish qobiliyati sifatida talqin qilgan. L.S. Vigotskiy esa ijodiylikni bola tafakkurining tabiiy rivojlanish bosqichi deb hisoblaydi — bola til orqali fikrlaydi, fikr esa tildan oziqlanadi.

O'zbek pedagogikasida N. Mahmudov, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va A. Jo'rayevlarning ishlarida ijodiy fikrlash ona tili ta'limining markaziy kategoriyasi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, o'quvchi ona tili darsida so'z, gap, matn va ma'no ustida mustaqil ishlash orqali nutqiy tafakkurni, demak, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ijodiy fikrlashni shakllantirish o'quvchi faoliyatini faol, qiziqarli va natijador qilishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar orqali amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchini bilim oluvchi emas, bilim yaratuvchi subyekt sifatida ko'radi.

Asosiy pedagogik tamoyillar:

1. Mustaqillik – o'quvchi mustaqil xulosa chiqaradi, fikrini asoslaydi;
2. Muammolilik – o'qituvchi tayyor javob emas, muammoni beradi;
3. Hamkorlik – o'quvchi o'qituvchi bilan ijodiy muloqotda bo'ladi;
4. Refleksiya – o'quvchi o'z fikrini baholaydi, xatosini tahlil qiladi;
5. Motivatsiya – o'quvchi o'rganish jarayonini shaxsiy ehtiyoj sifatida his qiladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi samarali metodlar.

1. Muammoli ta'lim metodi: Bu metodda o'quvchiga javobi noma'lum bo'lgan savol beriladi. U muammoni hal etish jarayonida tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlashni o'rganadi.

Misol: "Til nima uchun millatning ruhidir?" — bu savolga javob izlash orqali o'quvchilar tilning ijtimoiy, madaniy va estetik mohiyatini tahlil qiladi.

2. "Aqliy hujum" va "Klaster" metodlari: Bu metodlar o'quvchilarning tezkor fikrlashini, g'oyalarni erkin ifodalashini rag'batlantiradi. Masalan, "Ona tili – millat ko'zgusi" mavzusida klaster tuzish orqali o'quvchilar tilning madaniyat, adabiyot, tafakkur bilan bog'liqligini o'zlari kashf etadilar. "Aqliy hujum"da esa har bir o'quvchi o'z g'oyasini bildirishga undaladi, bu esa fikrni erkin ifodalashni o'rgatadi.

3. "Insert" va "Fishbone" texnologiyalari: Bu metodlar tahliliy fikrlashni chuqurlashtiradi. "Fishbone" (sabab-oqibat tahlili) usuli orqali o'quvchilar til hodisalarining mohiyatini, sabab va oqibatini tahlil qiladilar. Masalan, imlo xatolarining sabablari mavzusida "Fishbone" sxemasi tuzish o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. "Debat" va "Dialog" metodlari: Bahs-munozaralar ijodiy fikrlashning eng samarali shakllaridan biridir. Masalan: "Tilni boyitish uchun yangi so'zlar yaratish kerakmi?" degan savol asosida ikki guruh fikr bildiradi. Bu jarayonda o'quvchilar dalil keltirish, mantiqiy fikr yuritish, e'tiqodini himoya qilishni o'rganadi.

5. "Rol o'ynash" (dramatizatsiya) usuli.

Til materialini sahna ko'rinishi sifatida o'ynash o'quvchilarda hissiy ifoda, nutq ohangi, obrazli fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, "Navoiy va so'z san'ati" mavzusida o'quvchilar shoir va uning asarlaridagi so'z qudratini rol sahna ko'rinishida namoyon etadilar.

6. "Loyihaviy ta'lim" metodi.

Bu metod o'quvchilarga mustaqil izlanish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va natija chiqarishni o'rgatadi.

Misol: "Ona tilim – millatim faxri" loyihasi asosida o'quvchilar til tarixini o'rganadilar, she'r, maqol, intervyu tayyorlaydilar.

7. "Evristik suhbat" usuli.

O'qituvchi o'quvchini savollar orqali to'g'ri xulosaga olib keladi. Bu usulda o'quvchi tayyor bilimni emas, o'zi kashf etgan haqiqatni anglaydi. Masalan: "Tilni saqlash – millatni saqlash" g'oyasining ma'nosi qanday? degan savol asosida suhbat quriladi.

Baholash mezonlari:

- Fikrning yangiligi va originalligi
- Mantiqiy izchillik
- Mustaqillik va asoslanganlik
- Nutqning aniqligi va ifodadorligi

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish ona tili ta'limining zamonaviy paradigmasi sifatida ta'limdan tarbiyaga, bilimdan tafakkurga o'tish jarayonini ta'minlaydi. Har bir o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga "men o'ylayman", "men yarataman" degan ichki ishonchni singdira olsa, bu haqiqiy ijodiy ta'limning natijasidir. Demak, ona tili darslarida interfaol metodlar, muammoli yondashuv, o'yinli va loyihaviy texnologiyalar uyg'unligi o'quvchini nafaqat savodli, balki ijodkor, tashabbuskor va mustaqil shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, ijodiy fikrlashni rivojlantirish — bugungi ta'lim islohotlarining mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Mahmudov N. Til va tafakkur uyg'unligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Jo'rayev M. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019.
5. Torrens E. Creativity and Education. – Boston: State College Press, 1974.

O'ZBEK ADABIY TILI TARIXI

SARDOR OLLOYOROV BAHROM O'G'LI,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi,

olloyorovsardor96@gmail.com,

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, uning turkiy tillar oilasidagi o'rnini, yozuv tizimidagi o'zgarishlar hamda adabiy til sifatida rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy manbalari va hozirgi zamon tilshunosligidagi o'rnini haqida ilmiy tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turkiy tillar, tarixiy bosqichlar, yozuv tizimi, adabiy til.

Annotation: This article examines the stages of formation and development of the Uzbek language, its place within the Turkic language family, changes in the writing system, and its evolution as a literary language. The study also analyzes the historical sources of the Uzbek language and its role in modern linguistics.

Keywords: Uzbek language, Turkic languages, historical stages, writing system, literary language.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития узбекского языка, его место в семье тюркских языков, изменения в письменности и развитие как литературного языка. Также проведён анализ исторических источников и современного состояния узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, тюркские языки, исторические этапы, письменность, литературный язык.

Har bir millatning o'zligini belgilovchi eng muhim omillardan biri — bu uning tili. Til — milliy madaniyat, ma'naviyat, tarix va tafakkurning ko'zgusi hisoblanadi. O'zbek tili esa xalqimizning ko'p asrlik boy tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotining ajralmas qismidir. Bugungi kunda "hozirgi o'zbek adabiy tili" deb atalayotgan tilning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar mahsuli bo'lib, u "turk", "sart", "chig'atoy" va "o'zbek" atamallari bilan nomlanib kelmoqda.

O'zbek adabiy tili tarixi — bu nafaqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy va ma'naviy hodisa hamdir. Shu bois, hozirgi adabiy tilda yuz bergan o'zgarishlarni tahlil etish, uning tarixiy ildizlarini o'rganish va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Til tarixi o'rganilishida davrlashtirish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki o'zbek adabiy tilini davrlashtirish turkiy tillar tasnifi bilan bog'liq. Turkiy tillarni esa XIX asrdan boshlab rus olimlari tasniflay boshladi. Bunga Radlov va Malov tasniflari misol bo'la oladi. Malov tasnifiga ko'ra horizgi o'zbek adabiy tili chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tilidan kelib chiqqan.

O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari. O'zbek adabiy tili o'z manbaini qadimgi turkiy tildan oladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — "O'rxun-Enasoy bitiklari", "O'g'uznoma", "Devonu lug'otit turk" kabi asarlar ushbu tilda yozilgan eng muhim va bizgacha yetib kelgan manbaalar hisoblanadi.

1. O'zbek tilining kelib chiqishi

O'zbek tili turkiy tillar oilasining g'arbiy qarluq guruhiga kiradi. Uning ildizlari miloddan avvalgi birinchi ming yillikka borib taqaladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — "Orxon-Enasoy bitiklari" va "Turk xoqonligi tosh yozuvlari" — o'zbek tilining qadimiy shakllari haqida muhim ma'lumot beradi.

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo hududlarida eski turkiy yozma til — "Qadimgi turkiy tili" keng qo'llanilgan. Ushbu davrda Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki kabi allomalar ijodi til tarixining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Chig'atoy tili davri

XIV–XVI asrlarda Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk shoir va adiblar ijodi tufayli chig'atoy tili adabiy til darajasiga ko'tarildi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilining boyligini va arab-fors tillariga nisbatan ustun jihatlarini asoslab berdi. Shu davrda o'zbek tili madaniyat va ilm-fan tili sifatida shakllana boshladi.

3. Yozuv tizimi va islohotlar

O'zbek tili tarixida yozuv tizimi bir necha bor o'zgargan. Dastlab arab yozuvidan foydalanilgan bo'lsa, 1929-yilda lotin alifbosi, 1940-yilda esa kirill yozuviga o'tildi. Mustaqillikdan so'ng, 1993-yilda o'zbek tili uchun yangi lotin yozuvi qabul qilindi. Bu jarayon tilning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

4. Zamonaviy davrda o'zbek tili

Bugungi kunda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida mamlakat ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faol qo'llaniladi. Tilshunos olimlar tomonidan o'zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi, fonetikasi, terminologiyasi va uslubiyati bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

5. Zamonaviy davrda o'zbek tili va til siyosati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, o'zbek tili davlat tili sifatida belgilangan. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun (1989, yangilangan 2019-yil) tilni rivojlantirish va himoya qilishning huquqiy asosini yaratdi.

Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoning ko'plab hududlarida, shuningdek, chet eldagi o'zbek diasporalari orasida ham faol qo'llaniladi.

Tilshunoslik sohasida zamonaviy yo'nalishlar — kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunosligi, tarjima texnologiyalari, terminologiya islohoti — o'zbek tilining yangi davrda raqamli imkoniyatlar asosida rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

6. O'zbek tili va madaniy meros

Til xalqning tarixiy xotirasi, og'zaki ijodi, folklor, maqol, topishmoq, doston va qo'shiqlar orqali avloddan avlodga o'tib kelgan boy madaniy qatlamni o'zida mujassam etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida qadimgi turkiy so'zlar, grammatik shakllar va so'z yasovchi unsurlar saqlanib qolgan.

Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi dostonlarning tili o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

7. Tilni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar

O'zbek tili tarixini o'rganishda qiyosiy-tarixiy, struktur, sotsiolingvistik va funksional yondashuvlar qo'llaniladi.

Qiyosiy-tarixiy metod — o'zbek tilini boshqa turkiy tillar bilan solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Sotsiolingvistik yondashuv esa tilning jamiyatdagi mavqei, davlat siyosati va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini o'rganadi.

Bu metodlar o'zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash va uni ilmiy asosda o'rganish imkonini beradi.

Til siyosati sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Davlat tili to'g'risida"gi qonun, milliy o'zlikni anglash va til madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili o'zining ming yillik tarixida ko'plab taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. U turkiy tillar oilasining qadimiy va mustahkam tarmog'idir. Bugungi kunda o'zbek tili mustaqil davlatning ramziga aylangan bo'lib, xalqning milliy g'ururi va ma'naviy boyligining ajralmas qismidir. Tilning tarixini chuqur o'rganish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. — Toshkent: Fan, 1960.

2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
3. Vohidov R. O'zbek tili tarixi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2005.
4. Jo'raev M. Turkiy tillarning qiyosiy tarixi. — Toshkent: Fan, 2012.
5. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI TAHLIL QILISH METODIKASI

SATTAROVA MEHRINISO OLIM QIZI

CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

sattarovsaidjon33@gmail.com

Ilmiy rahbar: Qurbonova Bonu Rustambek qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifat so'z turkumini o'rgatishning samarali metodikasi yoritilgan. Unda sifatning mazmuni, grammatik xususiyatlari, nutqiy ahamiyati va uni dars jarayonida tahlil qilish usullari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, tasavvurini kengaytirish va mustaqil fikrlashini shakllantirishda sifat turkumini o'rgatishning o'rnini alohida ta'kidlanadi. Maqolada turli mashq turlari, interfaol metodlar hamda dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik vositalar misolida sifatlarni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, sifat so'z turkumi, metodika, tahlil, mashq, nutq boyligi, interfaol usullar, dars jarayoni.

Abstract: This article discusses the effective methodology for teaching adjectives to primary school students. It discusses the content, grammatical features, speech significance of adjectives, and methods for analyzing them in the lesson. It also emphasizes the role of teaching adjectives in increasing students' speech, expanding their imagination, and forming independent thinking. The article provides recommendations for analyzing adjectives using various types of exercises, interactive methods, and didactic tools used in the lesson.

Keywords: Primary education, adjectives, methodology, analysis, exercise, speech richness, interactive methods, lesson process.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективная методика обучения прилагательным учащихся начальной школы. Рассматриваются содержание, грамматические особенности, речевая значимость прилагательных и методы их анализа на уроке. Также подчёркивается роль обучения прилагательным в развитии речи учащихся, развитии их воображения и формировании самостоятельного мышления. В статье даны рекомендации по анализу прилагательных с использованием различных видов упражнений, интерактивных методов и дидактических средств, используемых на уроке.

Ключевые слова: начальное образование, прилагательные, методика, анализ, упражнение, речевая насыщенность, интерактивные методы, процесс урока.

Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish va tushuntirishda samarali metodika ishlab chiqish o'quvchilarning til va adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning lug'at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Prezidentimizning so'zlari orqali boshlash, mavzuni yuksak va ahamiyatli nuqtai nazardan taqdim etish, ta'limdagi sifatga bo'lgan e'tiborni yana bir bor ta'kidlash imkonini beradi.

Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 10-noyabrdagi nutqida ta'kidlanganidek: "Ta'lim – bu davlatning kelajagi, millatning taraqqiyotining asosi. Yangi avlodni yaxshi tarbiya qilish, ularga sifatli ta'lim berish orqali biz o'z kelajagimizni mustahkamlashimiz kerak". Ushbu so'zlar o'zbek ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatni oshirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Aynan boshlang'ich ta'limda sifat so'z turkumini o'rganish, o'quvchilarga lug'at boyligini oshirish, tasavvur qilish va fikrlarni aniq ifodalashni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarga tilshunoslik asoslarini to'g'ri tushuntirishga bog'liq. Til o'rganish jarayoni va undagi grammatik kategoriyalarni o'quvchilarga mukammal tarzda yetkazish, tilni to'g'ri va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Bu o'rinda, sintaktik va semantik asoslar o'qituvchilarga ta'limning asosiy maqsadlariga erishish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilning har bir so'z turkumi o'ziga xos grammatika va sintaksis xususiyatlariga ega. So'z turkumlaridan biri sifat, o'ziga xos grammatika funksiyalarini bajarib, gapda ob'ektni ifodalashda, shuningdek, ularning sifatlarini, holatlarini, xususiyatlarini ta'riflashda ishtirok etadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumi va uning o'rganilishi til o'rgatish metodikasida alohida o'rin tutadi. O'quvchilar uchun sifatlarni tushunish va ularni to'g'ri qo'llash muhim va qiyin vazifa bo'lishi mumkin, chunki bu so'z turkumining boyligi va ko'pligi talab etiladi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sifatlarni o'rgatishda metodik yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Har bir so'z turkumi kabi, sifatlarning o'rganilishida ham o'quvchilarning tilga nisbatan qiziqishini oshirish va o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun ilg'or usullarni qo'llash zarur. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning so'z turkumlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish, ularning gap tuzishdagi imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Sifat so'zi o'zbek tilida o'zgaruvchan va turli ma'nolarda ishlatiladigan so'z turkumidir. U kishilar va ob'ektlarning sifatlarini, holatini, shuningdek, ular o'rtasidagi farqni ifodalashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda sifat so'zlarini o'rganish o'quvchilarni fikrlarida

aniq tasavvur yaratish, ularning tilni to'g'ri ishlatish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sifatlarni o'rgatishda, masalan, ranglar, o'lchovlar, holatlar va boshqalar kabi turli kategoriyalarni ko'rsatish orqali o'quvchilar tilni kengroq va boyroq ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganishning metodikasi-sifatni ta'riflash va tushuntirish: O'quvchilarga sifat so'zining ta'rifini o'rgatish, uning boshqa so'z turkumlaridan qanday farq qilishini tushuntirish muhimdir. Sifat, asosan, nom bilan bog'lanib, uning qandayligi yoki holatini ifodalaydi. Masalan, "go'zal", "kattakon", "tez" kabi so'zlar. Praktiki mashqlar bilan ishlash: O'quvchilarga sifat so'zlarini qo'llash orqali turli mashqlar berish, ularni o'zi keltirgan misollar orqali sifat so'zlarini ajratishga undash kerak. Masalan, "Uyog'ochdan yasalgan stol juda og'ir" yoki "Uning keti uzun va qiyshaygan". Sifat so'zlarini qatnashgan gaplar tuzish: o'quvchilarni sifat so'zlari bilan to'ldirilgan gaplarni tuzishga undash, bu esa ularda tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Masalan, o'quvchilarga "yozda men yaxshi dam oldim", deb yozish uchun tavsiyalar berish. Kontekstdan foydalanish sifat so'zlarini real hayotdagi holatlar bilan bog'lash, ularni muhokama qilish va o'quvchilarga hayotiy misollar orqali tushuntirish. Bu usul o'quvchilarga sifatlarning amaliy ahamiyatini o'rgatishga yordam beradi. Interaktiv va o'yinlar: Interaktiv metodlar, jumladan sifatlarni aniqlash uchun o'yinlar va dasturlar orqali o'qitish. Bu usul nafaqat o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, balki bilimlarni mustahkamlashda samarali hisoblanadi.

1-sinfda va 2-sinfda "Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar" mavzusi o'rgatilayotganda o'quvchilar belgi bildirgan so'zlarni ma'nolariga ko'ra guruhlash ishlarini bajaradilar, ya'ni - ularni so'roqlar yordamida gap va matnda shaxs, narsa, harakat, miqdor bildirgan so'zlardan farqlash ko'nikmasini egallaydilar. Bunda o'qituvchi oldida turgan muhim vazifa o'quvchilarning narsa va shaxsning belgilari xilma-xil bo'lishini, ya'ni narsa rangi, mazasi, shakli, hidi, hajmi, xususiyatlariga ko'ra farqlanishini, bular narsa va shaxsning belgilari ekanini anglashlariga erishish, nutqda ulardan samarali foydalanish orqali o'quvchilar nutqini belgi bildirgan so'zlar bilan boyitish va nutqini o'stirishdir. Ayniqsa, o'quvchilarga narsa va shaxslarni belgilariga ko'ra tavsiflashga doir mashqlarga va bunga oid o'quv topshiriqlariga katta ahamiyat berish lozim.

3-4-sinflarda esa sifat atamasi bilan tanishtirilgach, mazkur atama bilan elementar nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

3-4-sinfda o'quvchilarning sifatlarning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlari va ko'nikmalariga asoslanib, og'zaki va yozma ijodiy ishlar-maktab bog'i yoki istirohat bog'iga sayohat uyushtirib, u yerda kuzatilgan daraxt, qushlar,

hayvonlarni tasvirlab, kichik hikoya tuzish kabilarga alohida o'rin beriladi. Buni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ona tili va o'qish darslarida ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar, sifatning o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatilishini kuzatishga, sifat yasashga doir leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ona tili va o'qish darslarida o'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatlar bolalar nutqini va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Sifatlar narsa va hodisalarni aniq tasvirlash, ifodalash imkonini beradi. Bu imkoniyatdan foydalanib, ijodiy matn tuzishga o'rgatish o'quvchilarning fikrini aniqlashtiradi, nutqining ta'sirchanligini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining o'qitilishi pedagogik ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, bu sohadagi metod va usullar o'quvchilarning ona tili saviyasi, nutq mahorati va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli manbalarda sifat so'z turkumini o'rgatishda innovatsion va interfaol metodlarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan, shuningdek muammoli ta'lim texnologiyalari, o'yinlar, suhbat, kuzatish, mustaqil ishlash kabi yondashuvlar asosiy vositalar sifatida olg'a surilgan. **Nazariy asos**-sifat so'z turkumining semantik-morfologik xususiyatlari, uning gapdagi o'рни va vazifasi, boshqa so'z turkumlari bilan taqqoslanishi. Bu o'quvchilarda sifat tushunchasini aniqlashtirish, uning ma'nosi, shakllari va qo'llanish doirasi bilan tanishtirish uchun zarur. **Metod va usullar**-sohada interfaol metodlar muammoli ta'lim texnologiyalari, yarim izlanishli usullar, o'yin-faoliyatlar, didaktik materiallar va vizual ko'rsatuvlar qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar o'quvchining faolligi, nutq madaniyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga imkon beradi. **Bosqichlar va jarayon**: Sifat so'z turkumini tanishtirish, namoyish etish, mustahkamlash va amalda qo'llash bosqichlari aniq belgilangan. Boshlang'ich sinflarda avvalo tushunarli misollar, tushuntirish, keyin esa mashqlar, mustaqil ishlar orqali mustahkamlash amalga oshiriladi. **Faollik va rag'batlantirish**: O'quvchilarning darsga jalb qilinishi, savol-javoblar, guruh ishlari, ijodiy vazifalar, video va rasmlar orqali vizual motivatsiyalar, qo'shimcha materiallar bilan rag'batlantirish muhim ekanligi ko'rsatilgan. **Muammolar va takliflar**: Manbalarda darsliklar va metodik qo'llanmalar yetarli emasligi, pedagoglarning metodik tayyorgarligi masalalari, sinf sharoitlari, o'quvchilarning tayyorgarligi farqliligi, vaqt cheklovi kabi omillar atroflicha muhokama qilingan. Shu bilan birga, talabalar nutqini doimiy ravishda tekshirish, dastlabki tushuncha va amaliyotni uyg'unlashtirish, individual yondashuvlar joriy qilish taklif etilgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov N., Jo'rayev H., Hojiyeva D. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Qodirova M. *Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Abdullayeva N. *Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar asosida sifat so'z turkumini o'rgatish*. // *Kokand davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali*, 2023. <https://herald.kokanduni.uz>
4. Xasanova N. *Boshlang'ich sinflarda sifatlarni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar*. // *Academic Research in Educational Sciences*, 2022. <https://academicsresearch.ru>
5. Mirzayeva D. *Ona tili darslarida sifat so'z turkumini o'rgatish metodikasi*. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
6. Usmonxo'jaeva M. *Sifat so'z turkumining lingvistik xususiyatlari va o'rgatish metodikasi*. // *Til va adabiyot ta'limi*, 2022.
7. Komilova S. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sifatlar orqali tafakkurni rivojlantirish usullari*. – Toshkent: TDPU, 2020.
8. Raximova M. *Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatishda muammoli vazifalar orqali yondashuv*. // *Zenodo ilmiy bazasi*, 2023. <https://zenodo.org/record/14883853>
9. Karimova Z. *Ona tili ta'limida sifatlar tahlilining psixolingvistik asoslari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Boshlang'ich ta'lim fanlari o'quv dasturi va metodik tavsiyalar*, 2021-yil nashri.

SEMASOLOGIYA VA SEMANTIKA

ABDURAXMANOVA RUSHANA ANVAR QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

rushananarovna10@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada semasologiya va semantika sohalarining mohiyati, ularning o'zaro aloqasi hamda farqli jihatlarini yoritiladi. Til birliklarining ma'no jihatidan tahlili, so'zning semantik tuzilishi, kontekst va nutqdagi ma'no o'zgarishlari, shuningdek, zamonaviy semantik tadqiqotlar tahlil qilinadi. Misollar orqali so'z ma'nosining ko'p qirraliligi va dinamik tabiati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: semasologiya, semantika, ma'no, til birligi, leksik ma'no, kontekst, polisemiya, sinonimiya.

Annotation: This article explores the essence of semasiology and semantics, their interrelation and distinctions. It analyzes the meaning of linguistic units, the semantic structure of words, and contextual and speech-based meaning changes. Through examples, it highlights the polysemy and dynamic nature of word meanings in modern language.

Keywords: semasiology, semantics, meaning, linguistic unit, lexical meaning, context, polysemy, synonymy.

Annotatsiya: В данной статье раскрывается сущность семасологии и семантики, их взаимосвязь и различия. Анализируется значение языковых единиц, структура семантического значения слова, контекстуальные и речевые изменения смысла. На основе примеров показана многозначность и динамичность значения слов в современном языке.

Ключевые слова: семасология, семантика, значение, языковая единица, лексическое значение, контекст, полисемия, синонимия.

Tilshunoslikda so'zning ma'nosi eng muhim tushunchalardan biridir. Har qanday til tizimi so'zlar orqali voqelikni ifodalaydi, shuning uchun so'z ma'nosini o'rganish tilshunoslikning markaziy masalalaridan biridir. Shu sababli, ma'no masalasini o'rganuvchi ikki asosiy yo'nalish — semasologiya va semantika mavjud. Tilshunoslikda tilning turli xil sathlardagi birliklarining ma'nosini tadqiq etish

semasiologiya fanining vazifasi sanaladi. Lisoniy ma'no, yangi til birliklari anglatayotgan ma'no uning o'rganish predmeti hisoblanadi. Til birliklarining ma'nosini tadqiq qiladi.

Bilamizki, bizning bobokalanlarimiz ham tilshunoslikka, xususan turkiy tillar tilshunosligiga katta xissa qo'shgan. Xususan Mahmud Kashg'ariy o'zi ham "Devoni lug'atit turk" asari arab tili va arab tilshunosligi an'alarida yozilgan bo'lsada, unda qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til lug'at tarkibidagi so'zlarning ma'nolari izohlangan. Bundan ko'rish mumkinki, semasiologiya alohida soha sifatida dastlab leksikografiya tarkibida rivojlangan. Keyingi davrlarda "semasiologiya" atamasi bilan "sematika" ham qo'llanib kelinmoqda. "Semasiologiya" atamasi Rayzig tomonidan 1939-yilda birinchi marta qo'llanilgan bo'lsa-da, "sematika" termini undan ancha oldin 1883-yilda fransuz tilshunosi M. Breal tomonidan fanga olib kirilgan. Demak, fanda "semasiologiya" terminidan oldin "sematika" termini qo'llangan. Leksik sematikaning asosiy katagoriyasi, markaziy tushunchasi- leksik ma'nodir. Har qanday leksik birlik ikki jihatning nom (shakl) va leksik ma'noning barqaror birikuvidan tashkil topadi. Semasologiya (yunoncha semasia — 'belgi, ma'no' va logos — 'ta'limot') so'z va til birliklarining ma'nosini, ma'no o'zgarishlari jarayonini, ma'no turlari va ularning rivojlanishini o'rganadi. U tilning leksik qatlamiga bevosita taalluqli bo'lib, so'z ma'nosining tarixiy va ichki rivojlanish jarayonini tahlil qiladi. Masalan, o'zbek tilida "oyoq" so'zi nafaqat inson a'zosi nomini, balki "stol oyoqlari", "ko'priq oyoqlari" kabi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Bu holat ma'no kengayishi va metaforik o'zgarish jarayonini ifodalaydi.

Semasologiya quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. So'z ma'nosining tarkibi va tuzilishi;
2. Ma'no ko'chishi (metafora, metonimiya, sinekdoxa);
3. Polisemiyaning (ko'p ma'nolilik) shakllanishi;

Semantika (yunoncha semantikos — 'ifodalovchi, ma'noli') esa til birliklarining ma'no tizimini kengroq doirada o'rganadi. U nafaqat so'z ma'nosini, balki gap, matn va kontekst darajasidagi ma'noni ham tahlil qiladi. Masalan, "U kitob o'qidi" va "U kitobni o'qidi" gaplari shaklan yaqin bo'lsa-da, semantik jihatdan farqlanadi. Birinchisi umumiy jarayonni, ikkinchisi esa maqsadli harakatni bildiradi. Demak, semantika — bu til birliklarining ma'no munosabatlari tizimi, ya'ni har bir birlikning boshqa birliklar bilan qanday semantik bog'lanishda bo'lishini tahlil qiladi. Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jhati tushunchasiga alohida e'tibor beriladi. V.N. Teliya ta'rificha, konnotatsiyabu til birliklari semantikasiga uzual va okkazonal ravishda kiradigan,

nutq sebyektining borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir. Til mohiyati, ichki qurilishi jihatdan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma'no bildirib shu asosda informatsiya (aloqa) vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettirigan tafakkur shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Agar tilning atash vazifasi uning tafakkur shakli, tushunchalarni qolipga soluvchi bir vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv vazifasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlari asosida ochilishi mumkinligi bilan bog'liq. So'z semantikasida denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no ham mavjud. Semasologiya va semantika tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan bo'lib, ular til birliklarining ma'nosini chuqur tahlil qiladi. Semasologiya so'z ma'nosining tarixiy va ichki rivojini o'rgansa, semantika til tizimidagi umumiy ma'no munosabatlarini tahlil qiladi. Ushbu ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unlashuvi tilning ma'no boyligini, uning madaniy va ijtimoiy mohiyatini to'la ochishga xizmat qiladi. So'zlar bir ma'noli hamda ko'p ma'nolik hususiyatiga ega. Fanda bir ma'nolik so'zlarni monosematik so'zlar deb hisoblansa, ko'p ma'nolik xususiyatiga ega so'zlar polisematik so'zlar deyiladi. Bir ma'nolik so'zlarga odam, chumchuq, ravish, tuya leksemalarini misol qilib olsak, ko'p ma'nolilarga quloq, bosh, og'iz so'zlarini misol qilib olishimiz mumkin. "Tuya" so'zi suvga chidamli, asosan, insonlar cho'llarga safarga chiqanda manzilga yetkazuvchi ulov sifatida foydalanadigan hayvon keladi. Bu so'z hayvon ma'nosidan boshqa narsani ifodalamaydi. Ko'p ma'nolilik hodisasida esa leksemalar o'z va ko'chma ma'nodan iborat bo'ladi. Misol uchun "bosh" so'zini odamning ta'na a'zosi ekanligi o'z ma'nosi bo'lsa, ko'chaning boshi, oila boshi uning ko'chma ma'nosidir.

Tilshunoslikda ma'no ko'chishning asosan to'rt turi mavjud.

1) Metafora bir predmetning nomini boshqa predmet nomiga ma'lum tashqi o'xshashlik asosida ko'chishi. Misol: odamning og'zi, shishaning og'zi.

2) Metonimiya narsa va hodisalarning o'zaro makon va zamondagi aloqadorligi asosida birinchisining nomi ikkinchisiga ko'chishi. Misol uchun: Bedilni o'qidik. Bunda Bedilni o'qib bo'lmaydi, chunki u shaxs. U yaratgan asarnigina o'qish mumkin.

3) Sinekdoxa bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalash. Misol uchun: bahor kelishi bilan, tuyoqlar soni ko'paydi. Bunda tuyoqlar so'zi orqali butun boshli podani tushunish mumkin.

4) Vazifadoshlik asosan, bitta vazifani bajarish uchun ishlatiladigan buyumlar yoki harakatlarni ifodalaydi. Misol uchun: qushning qanoti, samalyotning qanoti. Bunda ikkisi ham bitta-muvozanatni saqlash vazifasini bajaradi.

Demak bundan xulosa qilishimiz mumkinki, semantika va semasologiya fanlari tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Ularning o'zaro uyg'un holda o'rganilishi so'z boyligi, ma'no tizimi va nutq mazmunini chuqurroq anglashga, shuningdek, o'zbek tili semantik imkoniyatlarini yanada kengroq tahlil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. G'ulomov, A. O'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. 2019.
3. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan, 1995.

TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY USULLAR

SHAFOATOVA MOHIGUL TO'YCHI QIZI,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail: mohigul shafatova@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan an'anaviy va zamonaviy usullar mohiyati, ularning afzallik va kamchilliklari hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Qolaversa, pedagogik jarayonda ikki usulning o'zaro uyg'unlashuvining ahamiyati, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning imkoniyatlari va kelajagi tahlil qilingan va maqolada zamonaviy ta'lim rivojiga hissa qo'shgan olimlar va ularning mazkur yo'nalishda erishgan yutuqlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, an'anaviy usullar, zamonaviy usullar, uyg'unlashuv, innovatsiya, samaradorlik.

ABSTRACT. This article discusses the importance of combining traditional and modern educational methods, highlighting their advantages and disadvantages, as well as their effectiveness. In addition, the need for integration in the pedagogical process, the opportunities of modern technologies and requirements of the future are emphasized. The article analyzes the role of innovative methods in the development of modern education and their significance in shaping the younger generation.

Keywords: educational system, traditional methods, modern methods, integration, innovation, efficiency.

Ta'lim insoniyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy jarayonlardan biri. Tarix davomida shakllangan an'anaviy ta'lim metodlari ko'plab avlodlarning bilim olishida muhim o'rin tutgan. Ammo 21-asrda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Ta'lim shakllari mashg'ulotlarini o'tqazish vaqtiga qarab, shuningdek o'quvchi talabaning tarkibi va ular faolyatining xarakter –mohiyatiga qarab belgilanadi. Ta'limni tashkil etish shakllari –aniq muddat va tartib asosida o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlaridir. Ta'kidlash joizki, ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakl va tamoyillari har qanday davlat uchun g'oyat muhim hisoblanadi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi "Avesto" va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan ekan.

Ta'limning tashkiliy masalari Al-Farobiyning "FAN va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy bilim manbai hisoblanadi. Ma'ruza, suhbat, yozma, amaliy mashqlar orqali bilim beriladi. Bunday usullar bilimlarni tizimli o'zlashtirish, intizomni shakllantirish va avlodlararo barqaror merosni ta'minlash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga ular ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida jamiyat ehtiyojlarga ham xizmat qiladi. Ammo o'quvchining shaxsiy faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda cheklolarga ega, ya'ni mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va shaxsiy qiziqishlar ko'p hollarda yetarlicha rivojlanmaydi.

Zamonaviy ta'lim usullari. Zamonaviy ta'lim metodlari juda ko'p va ular an'anaviy, ma'ruzaviy yondashuvdan farqli o'laroq, o'quvchi (Yoki talaba) ning faolligini oshirishga, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga va raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt vositalari va raqamli resurslardan foydalanish jarayoni ham ta'limning samaradorligini oshirmoqda. Asosiy zamonaviy ta'lim usullari quyidagilardan iborat.

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari. Bu usulda har bir o'quvchining qiziqishi, bilim darajasi va individual ehtiyojiga qarab o'qitiladi.

2. Raqamli va onlayn ta'lim usullari. Bunga masofaviy ta'lim –ZOOM, HEMIS, GOOGLE MEET, kabi platformalar, elektron ta'lim –MOODLE COURERA, Udemy, Ibrat Academy kabi onlayn kurslar iqtisodiy tomonlama tejamkorlikni saqlab qoladi.

3. Loyiha asosida o'qitish. O'quvchilar guruh bo'lib yoki yakka tartibda loyiha yaratadi va amaliy muammoni hal qilish orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi.

4. Gamifikatsiya (O'yinlashtirish) -o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish (ball yig'ish, reyting, musobaqa) bu motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

5. Aralash ta'lim. An'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtiradi bu esa mustaqil o'qish malakasini rivojlantiradi. Ya'ni darsning bir qismi sinfda ,o'qituvchi rahbarligida o'tadi, boshqa qismi esa onlayn platformalar raqamli resurslar va mustaqil mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi va bu ta'lim tizimi o'qituvchi bilan jonli muloqatni ham saqlab qoladi.[1:89].

An'anaviy va zamonaviy usullarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, birinchisi barqarorlik va qat'iylikni ta'minlasa, ikkinchisi moslashuvchanlik va innovatsion yangilanishlarni qo'llab quvvatlaydi. Bugungi kunda ta'lim jarayonda har ikki usulni uyg'unlashtirish muhim-nazariy bilimlarni an'anaviy yo'l bilan berish, amaliy ko'nikmalarni esa zamonaviy usullar orqali shakllantirish samaradorlikni oshiradi. Zamonaviy ta'limga ulkan hissa qo'shgan buyuk insonlardan biri John Dyui (John Dewey 1859-1952) hisoblanadi. U amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog bo'lib, progressiv pedagogika asoschilardan sanaladi. Dyui ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki hayotga tayyorlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni deb tushuntirilgan, bundan tashqari Andreas Schleicher (OECD mutaxassisi, Germaniya) –PISA xalqaro baholash dasturini yo'lga qo'yib, ta'lim sifatini global miqyosda solishtirish imkonini bergan va bu 2000-yildan beri har 3 yilda bir marta o'tkaziladi, 80 dan ortiq davlat ishtirok etib keladi. Qo'shimcha ma'lumot sifatida O'zbekiston ilk bor 2022-yilda PISA xalqaro baholashda ishtirok etdi.[2:68]. Natijalarda muommolar borligi ko'rsatildi: o'quvchilarning asosiy qismi o'qish, matematika va tabiiy fanlarda past natija ko'rsatgan. Bu test darslikdagi qoidani emas, balki real hayotdagi vazifalarni hal qilish ko'nikmasini o'lchaydi. O'zbekiston ilk marta PISA da qatnashdi va natijalar bizning ta'lim tizimida jiddiy islohotlar zarurligini ko'rsatdi shu boisdan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev zamonaviy ta'lim haqida ko'p bora to'xtalgan. Uning nutqlari va farmonlarida asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan va "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"-bu hujjatda xalqaro reytinglarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rnini oshirish, maktab, litsey va politexnikumlar ta'lim sifatini yuksaltirish raqamli ta'limni kengaytirish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, 21-asrda ta'lim tizimi global texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya va kompetensiyaviy yondashuv talablariga moslashmoqda. O'qitish jarayonida ilgari faqat o'qituvchi markaziy ro'l o'ynagan bo'lsa, hozirda ta'limning markazida o'quvchi shaxs turadi. Shuning uchun zamonaviy usullar asosan o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilishga, mustaqil fikrlash va ijobiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ochildiyev A., TO'xtasinov A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar .-T: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti. 2019.- 89-bet.

2. Mamarajabov B. Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat.-T: "O'zMU" nashriyoti. 2020.- 68-bet.
3. Karimova V. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar .-T: "Fan va texnologiya nashriyoti". 2021. B-112.
4. Bonk,C.J.,& Graham,C.R. The Handbook of blended learning Global Perspectives, Local Designs.-San Francisco :” Pfeiffer”. 2006.
5. Xolbekov A. Raqaqli pedagogika asoslari.-T: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2022.

TIL TA'LIMIDA BAHOLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

SHAKAROVA SADAFOY QALANDAROVNA,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

sadafoyshodmonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kundagi eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelayotgan ona tili fanidagi baholash muammolari va yechimlari tog'risida fikr yuritiladi. Ya'ni ona tilini o'qitishda to'g'ri baholash o'quvchilar uchun muhurligi katta e'tibor talab qilishini ko'zda tutadi, jumladan o'qituvchilar uchun mavjud bo'lgan baholashning turli turlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: baholash, muammo, yechim, madaniy, o'quv rejasi, baholashning afzalliklari.

Abstract. This article discusses the problems and solutions of assessment in the subject of mother tongue, which is one of the most pressing problems of our time. That is, it assumes that the importance of correct assessment for students in teaching the mother tongue requires great attention, including the consideration of various types of assessment available to teachers.

Keywords: assessment, problem, solution, cultural, curriculum, benefits of assessment.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы и пути решения оценки по предмету «родной язык», который является одной из самых актуальных проблем нашего времени. Предполагается, что важность правильной оценки для учащихся при обучении родному языку требует пристального внимания, включая рассмотрение различных видов оценки, доступных учителям.

Ключевые слова: оценка, проблема, решение, культура, учебная программа, преимущества оценки.

Baholash bu o'qituvchilarning va o'quvchilarning bilim saviyasini belgilovchi, shuningdek o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish jarayonidir. Baholash har qanday o'quv faning, shu bilan birga ona tili fanining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va o'quvchilarning muvaffaqiyatini baholash, qo'shimcha e'tibor talab qiladigan sohalarni aniqlash va shu asosda o'quvchilarni ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirishdir. Ona tilini o'qitishda baholashning afzal tomoni u o'quvchilarga o'z

kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida darsni to'g'ri tashkil etish ham baholashning to'g'ri shaklanishiga ko'mak beradi. Darsdagi qo'yilgan har bir to'g'ri baho o'quvchilarda mashg'ulatlarda mustaqil fikrlash, qo'yilgan muammo, savollarga o'z fikrini ochiq-oydin bildirishiga olib keladi. O'quvchi o'ziga qo'yilgan bahodan qoniqish hosil qilsa bu ularda o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi va o'z kuchiga, bilimiga ishonchni mustahkamlaydi. O'quvchini o'zi uchun qoniqarli baho olishni xohlasa har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirishi, so'zning ma'nosi, urg'usi mohiyatiga qarabo'z nutqida qo'llashi, ravon va tiniq so'zlash malakasini egallashi kerak.

Biz ona tili va adabiyot fanidan o'quvchilarning kompetensiyalarini baholash vositalari va usullarini ko'rib chiqamiz. Shu o'rinda savol tug'iladi bugungi kunda biz qanday baholayapmiz? O'qituvchilarga bu savol berilganda ular turlicha javob berishadi, ya'ni ayrim o'qituvchilar ball tariqasida to'planuvchi faoliyatlarining darajasiga qarab turib to'planuvchi ball yig'ilishiga qaratgan bo'lsa, ayrim o'qituvchilar esa o'quvchilarni tabaqalarga ajratgan holda a'lochi, yaxshi, o'rtacha o'zlashtiruvchi, o'zlashtirmaydigan, qoniqarsiz kabi guruhlarga ajratgan xolda baholab borishi aniqlangan. O'zi aynan baholash nimaga kerak? Qanday baholash kerak? Bu savollarga javob topish uchun avval baholash nimaligini bilib olamiz. Baholash-o'lchash jarayoni bunda bilim, ko'nikma, kompetensiyalar o'lchanadi. Birinchi navbatda biz baho va ball tushunchalarini bir-biridan farqlaymiz, Baho bu o'quvchilarni tabaqalashtiradigan tushuncha ya'ni 1 raqami qoniqarsiz tushunchani ifodalasa, 2 ham shunday 3 esa qoniqarli, 4 yaxshi, 5 a'lo ma'nosini ifodalaydi. Snifdagi o'quvchilarning faoliyatini baholashda o'quvchilarni o'zimiz sezmagani holda tabaqalashtirishga yo'l qo'yamiz. Ya'ni o'quvchilarning Ichida ayrim zo'r o'zlashtiruvchi bolalar a'lochi, ular bir biri bilan dugona yoki do'st bo'lishi, yoki o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham bir biri bilan yaqin bo'lishi ularning esa sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ayri-ayri yurish holatlarini kuzatish mumkin. Bu albatta nosog'lom muhitni shakllantiradi. Bu o'rinda esa baho degan tushunchadan voz kechilishiga olib keldi. Shundan keyin esa ball tushunchasi qo'llanildi. Ballda har bir raqam bir imkoniyat hisoblanadi ya'ni bir raqam, 2,3,4, raqamlar ham o'quvchiga berilayotgan imkoniyatlar hisoblanadi, o'quvchilar dars jarayonida faoliyati qanchalik ko'p bo'lsa, ularning yozishi, o'qishi, javob berishi, o'zini tutishi, hamfikir bo'lishiga e'tibor qaratilgan holda asosan bilimiga qarab ball yig'ilib boriladi. Mobodo o'quvchi darsda o'tirib faoliyat ko'rsatyapti lekin ko'p kamchilikka duch kelayotgan bo'lsada, u

bir ballga ega bo'ladi, unga qarshi tarzda o'quvchi dars jarayonida ko'plab to'g'ri javoblari va o'z fikrini isbotlashga harakat qilayotgan bo'lsa, jamoadoshlarini o'zining fikri to'g'ri ekanligiga ishontirayotgan bo'lsa o'quvchi bunda yuqori ballni qo'lga kiritishi mumkin. Demak, bu ballar yig'ilgan holatda qo'yiladi, o'quvchining bunda bilim hajmi baholanadi. Hozirgi kunda ishlab chiqilgan "Milliy o'quv dasturi"da ham o'quvchilarni baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda, bunda ball ustuvorligiga ega ya'ni o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tanqidiy fikrlashi, ulardagi amaliy ko'nikma, kompetensiyalar baholanadi va ularning insoniy sifatlariga ham e'tibor qaratiladi. Milliy o'quv dasturidagi berilayotgan baholash mezonida o'quvchilarning avvalo bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash maqsadida tashxislovchi baholanish o'tkaziladi. BU diagnostic baholanishdir, diagnostik baholanish asosida o'quvchilarning bo'shliqlari aniqlangandan so'ng ma'lum dastur asosida ular darslarni o'zlashtirib boradilar har bir darsda oladigan bilimi, ularda shakllanayotgan malaka, kompetensiyalar e'tiborga olinadi. Bu jarayonda o'quvchilarda shakllanayotgan xususiyatlarga e'tibor qaratib formativ baholanish olib boriladi va har bir o'quvchi formativ baholash asosida besh ballik tizimda ball yig'ib boradi. Summativ baholash esa xulosalovchi baholash hisoblanadi, bunda o'quvchilarning mavzu doirasida o'zlashtirgan bilimlari e'tiborga olinadi. Yakuniy baholash summativ- hulosalovchi baholash hisoblanadi. Etiborli jihati shuki Milliy o'quv dasturidagi belgilangan bu baholash mezonida baholashning maqsadi nazorat qilish bo'lib qolmasdan, balki, boshqarish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'limda baholashning maqsadi bolalarning rivojlanishi va o'rganishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga yordam berishdan iboratdir. Takomillashtirishga asoslangan baholash tizimi jarayonini monitoring qilish, qo'llab -quvvatlash va takomillashtirish uchun mas'uliyatini belgilaydi. Milliy o'quv dasturida e'tiborga olinayotga alohida ikkita nazariyaga to'xtalib o'tamiz. Bunda birinchi nazariya Bilim chuqurligi nazariyasi, ikkinchisi esa Blum taksonomiyasi nazariyasi.

Bilim chuqurligi nazariyasida to'rtta daraja e'tiborga olinadi.

1-darajasi eslab qolish, hisoblash, aniqlash, ro'yxat tuzish, farqlash kabi ko'nikmalarning shakllanganligiga e'tibor qaratiladi. Agarda shu ko'nikmalar o'quvchilarda shakllangan bo'lsa, bu o'quvchi birinchi darajani egallagan hisoblanadi va ramziy ma'noda olsak bu o'quvchi bir ballga ega bo'ladi

2-darajasi o'quvchilarning mahorati konsepsiya yarata olishi, ma'lum grafik chizmalarni yarata olishi, tasniflash ko'nikmasi, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarining shakllanganligiga e'tibor qaratiladi. Bunda ham o'quvchida bu sifatlar shakllangan bo'lsa, u yana bir ballni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3-darajasi o'quvchilarning strategik fikrlashda o'z g'oyalarini bera olishi lozim, bunda ularning shaxsiy munosabatlari ifodalanadi yani mavzu doirasida o'zining fikrni baholay olish ko'nikmalarini ifodalay olsa, bu darajadagi o'quvchi hisoblanadi.

4-darajasi ilg'or fikrlashni nazarda tutadi va albatta analiz- sintez qilish orqali tahliliy yondashgan holda o'zini mushohadasini bildira olsa, tanqid qila olsa, o'zining asosli fikrini bildira olsa va bunga ma'lum dalillarni keltirolsa, aslini olganda bu Milliy o'quv dasturining asosiy vazifasi ham shunda o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu maqsadda ham aynan 4- darajada ijodkorlikni shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Blum taksanomiyasi- bunda o'quvchilarimizning 6 bosqichda bilim olish darajasini ko'rish mumkin. Bular baholash, analiz,sintez, amalda qo'llash, tushunish, bilish. Bu jarayonda ikki hil baholash tizimidan foydalanishimiz mumkun. Formativ baholash, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'qitishga moslashtirish yoki bilim jarayonini o'quvchilar ehtiyojiga moslashtirish u odatda dars vaqtida muntazam ravishda o'tkaziladi va ko'pincha dars strategiyasini o'zgartirishni talab qiladi. Summativ baholash- bu o'quvchining ma'lum bir fan yoki fan sohasidagi o'zlashtirishi to'g'risida umumiy asosli ma'lumot beradigan baholash. U odatda biror bo'lim, kurs, chorak yoki o'quv yili oxirida o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, bu baholash tizimlari samarali qo'llangan holatda o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab quvvatlaydi va o'quvchilarga rivojlanishni nazorat qilish, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, rivojlanish bo'yicha harakatlar rejasini tuzish va erishilgan natijani rasmiy baholash, shu bilan bir qatorda ta'lim beruvchiga ham baho berish mumkun bo'ladi. Bu jihat bilan dars samaradorligini oshirish ham ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Abbosova G. Nutq o'stirish bo'yicha qo'llanma. - Toshkent, 1998.
2. Yuldoshev R. Uzluksiz o'zbek tili ta'limida funksional-semantik yondashuvning tatbikiga doir // Uzluksiz ta'lim. — Toshkent: 2008. - 5-son.
3. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishda uzluksizlikni ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008.
4. Muxitdinova X.S. "O'zbek tili" fanidan yuqori sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan kompetensiyalar va ularni baholash me'yorlari / UzDJTU "Istiqlol va til" to'plami (11 -qism). – Toshkent.

5. Rafiyev A., Niyozmetova R. O'zbek tili (kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma). - Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006.

O'ZBEK TILIDA TIL VA NUTQ DIALEKTIKASI

SHARIFJONOVA BAXORA SHARIFJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

baxorasharifjonova54@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va nutq dialektikasining o'zbek tilidagi o'rni, nutq madaniyati sohasidagi ahamiyati va biz uchun muhim bo'lgan tomonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Til, nutq, til sistemasi, nutq dialektikasi, til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik.

Annotation. This speech will highlight the role of language and speech dialectics in the Uzbek language, the importance of improving speech culture and aspects that are important to us.

Key words. Language, speech, language system, speech dialectics, relationship between language and speech.

Аннотация. В данной статье будет рассмотрена роль диалектики языка и речи в узбекском языке, ее значение в сфере культуры речи и важные для нас аспекты.

Ключевые слова. Язык, речь, языковая система, взаимосвязь языка речи.

Ma'lumki, O'zbek tilida til va nutq dialektikasi deganda, tilning murakkab tizim sifatida o'zini namoyon etishi, uning moddiy va ruhiy jihatlari hamda ijtimoiy funksiyasi tushuniladi. Nutq esa tilning ijtimoiy maqsadlarda qo'llanilishidan kelib chiqadigan hodisadir. Til moddiy va ruhiy xususiyatlarga ega bo'lib, nutq orqali ijtimoiy hayotda qo'llanadi. Til bu ijtimoiy hodisa bo'lib, ma'lum bir qonuniyatlar asosida rivojlanadi va xalqning ijtimoiy, tarixiy taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Nutq esa tilning moddiy manzarali shakli bo'lib, tilning ijtimoiy hayotda, turli vaziyatlarda, ijtimoiy maqsadlarda qo'llanilishidan hosil bo'ladi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida ham til va nutqning dialektik munosabatiga alohida ahamiyat beriladi.

1. So'zlarni befoyda tavsiflashdan qochib, biz eng, avvalo, nutqiy faoliyat deb ataluvchi umumiy hodisa ichida ikki tarkibiy qism til va nutqni o'zaro farqladik. Biz

uchun til bu nutqiy faoliyat minus nutq. U har bir kishiga o'zgalarni tushunish va ularga tushunarli bo'lishga imkon beradigan lisoniy ko'nikmalar majmuidir.

2. Tilni u hamon ijtimoiy borliqdan tashqarida qoldiradi, uni qandaydir noreal narsa sifatida taqdim etadi. Chunki borliqning faqat bir tomoninigina o'z ichiga oladi: tilning mavjud bo'lmog'i uchun so'zlovchi jamoa kerak.

3. Til lisoniy belgining ixtiyoriyligi tufayli so'zlovchi irodasiga ko'ra tashkil etilgan, aqlga muvofiqlik tamoyiliga mutlaqo tobe "erkin tizim"dan iboratdek ko'rinishi mumkin. Bunday fikrga, aslida tilning o'zicha olingan xarakteri ham zid emas. Albatta jamoaviy psixologiya sof mantiqiy material bilan ish ko'rmaydi.

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu sathlarning har biri o'ziga xos sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi.

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F. de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir. Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni sistemani tashkil etadi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra professor S.Usmonov "Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida jamiyatda paydo bo'ladi", deydi.

Til va nutq o'zaro aloqador, bir-biri bilan bog'liqlik, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, ammo bir-biridan farqli bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq o'zaro bog'liq bo'lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Psixolog Pikardiya. I. Ivanov: "Biz biror kishiga: Siz qaysi tilda gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o'z nutqida qanday tildan foydalanishini aniq bilamiz", deydi.

Har bir kishining o'z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha yildan foydalanib gapiradi. Shu bilan birgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma'naviy-madaniy saviyasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan esa nutqning individual-hodisa ekanligi kelib chiqadi.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu

materialdan fikr shakllantirishdan. F. de. Sosyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo'lishi uchun zarur bo'lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi. Shu o'rinda professor B. A. Serebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to'liq muvofiqdir. U ta'kidlaganidek "Til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo'lsa, nutq ham, til elementlari asosida namoyon bo'lgandan keyin, sistem xarakterga ega bo'ladi".

Til va nutq o'zaro bir-biri bilan bog'liq hodisalar bo'lib, til nutq uchun moddiy material, imkoniyat, nutq esa voqelikni, ya'ni nutq til materiali asosida yuzaga chiqadi. Til jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lib, ruhiy va moddiy materialdan iboratdir. So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush tizimda namoyon bo'ladigan so'z va morfemalar moddiy materialdir. Tilning ruhiy hodisaligi uning xotirada saqlanishi bilan bog'liqdir. Tilning moddiyligini nutq jarayonida yuzaga keluvchi tovushlar belgilaydi.

Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. Nutq a'zolarining harakatiga ko'ra nutq yuzaga kelib, ikki xil bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq.

Xulosa qiladigan bo'lsak, til va nutq, orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati faolligi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik Toshkent fan va texnologiyalar markazi, 2010.
- 2.Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Toshkent 2025.

ABDULLA QAHHOR IJODIDA SO'Z TANLASH VA BADIY IFODA MAHORATI

SHARIPOVA SHOHSANAM SHERMUHAMMED QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

shohsanamsharipova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor ijodida so'z qo'llash mahorati, til boyliklaridan unumli foydalanish usullari hamda yozuvchi uslubining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Adibning so'z tanlashdagi aniqligi, xalqona iboralarni badiylik mezoniga aylantira olishi, mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlash mahorati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, badiiy uslub, so'z qo'llash, xalqona ibora, til mahorati.

Annotation. This article analyzes Abdulla Qahhor's mastery of word usage, his effective use of linguistic richness, and the unique features of his artistic style. The author's precision in word selection, his ability to turn folk expressions into literary devices, and his skill in ensuring harmony between form and content are discussed.

Keywords: Abdulla Qahhor, artistic style, word usage, folk expression, linguistic mastery.

Аннотация. В статье рассматривается мастерство использования слов в творчестве Абдуллы Каххара, особенности его художественного стиля и умение гармонично сочетать форму и содержание. Отмечается точность выбора слов и превращение народных выражений в художественные средства.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, художественный стиль, использование слов, народные выражения, языковое мастерство.

Abdulla Qahhorning so'z qo'llash mahorati, avvalo, xalqona ruhni chuqur bilishida ko'rinadi. U xalqning jonli tilini, kundalik hayotda ishlatiladigan iboralarni, maqollarni badiiy asarlarida o'rinli qo'llagan. Bu jihat uning asarlarini kitobxonga yanada yaqinlashtiradi. Masalan: oddiy bir qahramonning og'zidan chiqqan ibora kitobxonni hayratga soladi, chunki u xalqning o'z og'zaki ijodidan olingan bo'ladi.

Yozuvchi o'z davrining eng yorqin satirik asar yozuvchi vakillaridan biri bo'lib, o'zbek tilining keng, rangli imkoniyatlarini o'ziga xos tarzda qo'llab, oddiy xalq tilini chuqur ma'nolar bilan to'ldira olgani bilan ajralib turadi. Uning so'z qo'llash mahorati nafaqat ijtimoiy tanqidni samarali uzatish, balki tilning estetik kuchini ham namoyish

etishdan iborat. Uning yozuvida til soddaligi, lekin mazmuni chuqur bo'lishi bilan ajralib turadi: o'quvchini darrov o'z tongini eshitadigan, kundalik hayotdan olingan misollar orqali chuqur o'ylashga undaydigan holatdir.

Oddiy til – chuqur ma'no. A.Qahhorning yozuvi ko'p hollarda kundalik suhbat tili asosida qurilgan. U murakkab terminlar yoki jargonlardan voz kechmay, katta ma'no beradigan so'zlarni oddiy ifodalar bilan yetkazadi. Bu nafaqat o'quvchini oson tushunishga, balki tilning ma'no qatlamlarini ham ochishga yordam beradi.

1. **Dialoglar va talaffuz ritmi:** Adib tilini o'qish davomida dialoglarning tabiiy oqimi eshitiladi. Ular odatda qisqa, tez aytiladigan jumlar yordamida ritmga olingan, xuddi hayotdagi suhbat kabi ro'y beradi. Bu usul nafaqat asarning silliq o'qilishini ta'minlaydi, balki ijtimoiy qatlamlar orasidagi suhbatning ayni vaqti, muhitning tonini ham aniqlab beradi.

2. **Leksik moslashuvchanlik:** A. Qahhor mahalliy, suhbatga xos so'zlarni o'ziga xos kontekstlarda qo'llab, tilning "to'ldiruvchi qismi" sifatida foydalanadi. U ko'pincha xalq og'zaki ijodidan olingan iboralar, maqollar, shevalar, va mikro-leksika bilan boyitilgan bo'ladi. Bu nafaqat hayotiy rang-baranglikni oshiradi, balki tilning o'z-o'zidan yangi ma'nolar hosil qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

3. **Metaforalar va tasvirlar:** Uning so'zlari ko'p hollarda yorqin metaforalar bilan to'ldiriladi. U oddiy holatlardan keng ma'nolar yaratadi: "hayotning yo'li" yoki "shuhratning sovuq nuri" kabi tasvirlar orqali ijtimoiy voqealarni ko'rsatadi. Metafora tadbiridan foydalanish tilning qudratini oshiradi va o'quvchini asarning umumiy ma'nosiga tashlab yuboradi.

Abdulla Qahhor maqollar, xalqona jumlar va folklor unsurlarini o'z ishlarida faol qo'llagan. Bu nafaqat tilga o'zbek xalqining boy madaniy kontekstini berib, balki axloqiy-tarbiya ohangini ham qo'shadi. Maqollar orqali ijtimoiy me'yorlar, insoniy odatlar qisqa, ta'sirli shaklda ifodalanadi.

4. **Ijtimoiy satira va ironiya tonlari:** Til ichida kutilmagan kulgili, kichik ironiyalar bilan jamiyatdagi nojo'ya holatlar, biroq nafratlanmagan, ayni paytda o'qituvchi yo'nalishdagi tanqidlar bor. So'zlar orqali ham sezgirlik, ham munosabatlar silliq o'tadi; bu yozuvchining mahoratini namoyon qiladi.

5. **Tilda o'zgaruvchan ritm va sintaksis:** A. Qahhor uzunroq, tasvirga boy ma'lumot berishi uchun ba'zida murakkab gaplar, ko'p bandliroq qurilishlardan foydalanadi; keyinroq esa tez kirib keluvchi, qisqa jumlar bilan ritmni qisib yuboradi. Natijada matn ilmiy, ammo quvnoq va o'qishga yengillik qo'shadi.

6. **So'z o'yinlari va tanlovlar:** U o'zaro mos keladigan so'z o'yinlari, aloqachiliklar, ohanglar yaratishda mahoratli. Ba'zan ayni bir so'zga belgilangan yangi ma'no berish orqali romanlarini yanada o'zgacha qiladi.

7. **Til va ma'no aloqasi:** A.Qahhorning so'z qo'llashi tilni faqat axborot uzatish vositasi sifatida ko'rmay, uning ijtimoiy, axloqiy va tarixiy kontekstini ham quradi. Har bir so'z ijtimoiy vaziyatning, mahalliy madaniyatning, odamlarning kundalik ehtiyojlarining aksidir.

Shunday qilib, til – bu muhokama qilinayotgan ijtimoiy jarayonlarning ayni paytdagi ko'zgusi bo'lib qoladi. Bu ko'zgu orqali o'quvchini hayotiy tanqidga chaqiradi: haqiqat nima, ijtimoiy normalar qanchalik adolatli, odamlar qanday yo'qotmaydi yoki yo'qoladi? Bunday savollar matn ichida til yordamida yechilib bo'lmaydigan, lekin o'quvchini faol fikrlashga undayotgan dinamikalar bilan ta'minlanadi. Yana bir muhim jihat – yozuvchining so'z va mazmun uyg'unligiga intilishidir. Uning asarlarida biror so'z ortiqcha yoki bexos qo'llanmaganini ko'ramiz. A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarida xalq ruhiyatining og'ir damlari, iztiroblari ham sodda, ammo ta'sirchan so'zlar orqali ifodalanadi. Adib o'zbek adabiyotida so'zga munosabatda mukammallik timsoli bo'lib, uning ijodi yosh adabiyotshunoslarga uchun o'rnamdir. U so'z tanlashda faqat badiiy go'zallikni emas, balki xalq ruhini, zamon nafasini ham o'z ifodasida aks ettira olgan.

Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida so'z san'atining yirik namoyandasi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning asarlarida so'z qo'llashdagi aniqlik, ixchamlik, xalqona ruh va badiiy samimiyat uyg'unlashib ketgan. U oddiy so'zlar yordamida katta mazmunlarni ifodalagan, xalqning qalbini ochgan, uning ruhini badiiy obrazlarda gavdalantirgan. Yozuvchining satirik mahorati, ironik ohangi, xalq maqollaridan unumli foydalanishi uning ijodini yanada boyitgan. So'z qo'llashdagi yuksak mahorati tufayli uning asarlari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U o'zbek adabiyotida so'z ustasi sifatida abadiy yashaydi. Adibning mahorati tilning estetik qudratini ko'rsatib beradi: oddiy tashqi yuzlonish ichida chuqur ma'nolar yashaydi, ma'no esa tilning turli qatlamlaridan olingan holda o'quvchini qiyin, ammo hayotiy savollar bilan yuzma-yuz qoldiradi. U til bilan ijtimoiy tanqidni moslashgan holda birlashtiradi: maqollar, folkloriy unsurlar, realistik dialoglar, qisqa va mustahkam jumlarlar – bularning barchasi matnni nafaqat o'qish, balki o'ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qahhor A. Sarob. – Toshkent 2024
2. Qosimov B. XX asr o'zbek romanchiligi. – Toshkent: Universitet, 2010.

3. Qo'shjonov M. Adabiyotimizda realistik an'analar. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Rasulov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Karimov B. O'zbek nasrida badiiy mahorat. – Toshkent: Akademnashr, 2017.

NEMIS TILINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLAR VA DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI

SHOKIROVA MADINA ZAFARBEK QIZI,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Nemis tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: shakirovamadina770@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xushbokov Oybek Uralovich

Turizm fakulteti, Nemis tili kafedrası katta o'qituvchisi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

e-mail: o.xushbokov@cspu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis tilini o'rganishda interfaol metodlar va didaktik o'yinlarning o'рни hamda ahamiyati yoritilgan. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi izohlangan. Shuningdek, didaktik o'yinlarning o'quvchilar qiziqishini oshirish, nutqiy faoliyatni kengaytirish va amaliy bilimlarni mustahkamlashdagi roli ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Nemis tili, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, ta'lim samaradorligi, muloqot, ijodkorlik, motivatsiya.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль и значение интерактивных методов и дидактических игр в процессе изучения немецкого языка. Показано, что использование интерактивных методов способствует активному участию учащихся в учебном процессе, развитию самостоятельного мышления и коммуникативных навыков. Также рассматривается роль дидактических игр в повышении интереса к изучению языка, расширении речевой активности и закреплении практических знаний.

Ключевые слова: Немецкий язык, интерактивные методы, дидактические игры, эффективность обучения, коммуникация, креативность, мотивация.

Annotation: This article highlights the role and importance of interactive methods and didactic games in learning the German language. It is emphasized that interactive methods encourage students' active participation in the learning process, develop independent thinking, and improve communication skills. The role of didactic games in increasing learners' motivation, expanding speech activity, and consolidating practical knowledge is also discussed.

Keywords: German language, interactive methods, didactic games, language learning, learning efficiency, communication, creativity, motivation.

Bugungi globalashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish insonning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, nemis tili — ilm-fan, texnika va madaniyat tillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois uni samarali o'rgatishning didaktik asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda pedagogik jarayonda interfaol metodlar va didaktik o'yinlar keng qo'llanilib, til ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Interfaol metodlarning ilmiy-metodik asoslar

Interfaol metodlarning asosiy mohiyati – o'quvchini dars jarayonida faol ishtirokchi sifatida jalb qilishdir. Ta'lim psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda (Bloom, 1984; Krashen, 1985) ta'kidlanishicha, tilni samarali o'zlashtirish uchun o'quvchi uni faqat tinglab emas, balki amaliy faoliyatda qo'llashi zarur.

Nemis tili ta'limida interfaol metodlar quyidagi ustunliklarni beradi:

1. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Masalan, "Debat" usulida talabalar ma'lum mavzu yuzasidan ikki qarama-qarshi fikrni himoya qilib, nemis tilida erkin fikrlash va dalillash ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni oshiradi.

"Case study" orqali real hayotiy vaziyatlar muhokama qilinadi, o'quvchilar muammoga o'z yechimini taklif qiladi.

3. Jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

"Think-Pair-Share" metodida talabalar avval yakka, keyin juftlikda, so'ng guruhda faol ishlaydi.

4. Motivatsiyani kuchaytiradi.

Interfaol metodlar darsni qiziqarli qiladi, shu orqali o'quvchilar til o'rganishga ko'proq intilishadi.

Shuningdek, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlarida nemis tilini o'qitishda "Flipped Classroom" (teskari sinf) modeli ham keng qo'llanmoqda. Unda o'quvchilar darsdan oldin mavzuni mustaqil o'rganib keladi, darsda esa interfaol usullar yordamida mashq va muhokama qilinadi.

Pedagog olimlar ta'kidlashicha, interfaol metodlar ta'lim jarayonini sub'ekt-sub'ekt munosabatlari asosida tashkil etishga yordam beradi. Ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi birgalikda faol ishtirok etib, bilim olish jarayonining teng huquqli tomonlariga aylanadi.

Interfaol metodlar orqali:

- O'quvchining mantiqiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi [1: 45];
- Muloqot ko'nikmalari mustahkamlanadi [2: 77];
- Til o'rganishda motivatsiya kuchayadi.

Nemis tili o'qitishda samarali natija beradigan interfaol metodlarga "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'ynash", "Bahs-munozara" kiradi. Masalan, "Rol o'ynash" metodi yordamida talabalar hayotiy vaziyatlarni nemis tilida ifodalaydi va shu orqali ularning nutqiy kompetensiyasi shakllanadi.

Didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati

Didaktik o'yinlar til o'rganishda tabiiy muhit yaratadi. O'yin davomida o'quvchi o'zini "imkoniyat sinovida" emas, balki "muloqot jarayonida" deb his qiladi. Bu esa stressni kamaytiradi va erkinlik hissinı kuchaytiradi.

Nemis tili o'qitishda o'yinlardan foydalanishning qo'shimcha afzalliklari:

1. Leksik materialni mustahkamlash.

"Memory" yoki "So'z ovlash" kabi o'yinlar yangi so'zlarni eslab qolishni tezlashtiradi.

2. Grammatika qoidalarini tabiiylashtirish.

Masalan, "Gapni davom ettir" o'yinida talabalar turli grammatik shakllarni o'zlari bilmagan holda mashq qiladilar.

3. Nutqiy faoliyatni jonlantirish.

"Rol o'ynash" yoki "Dialog qurish" o'yinlari orqali talabalar hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilishni o'rganadilar.

4. Kreativlikni rivojlantirish.

"Zanjirli hikoya" o'yinida talabalar birgalikda kulgili yoki qiziqarli matn tuzib, ijodiy fikrlashni mashq qiladilar.

5. Hamkorlikni shakllantirish.

O'yinlar o'quvchilarni jamoada ishlashga, bir-birini tinglash va qo'llab-quvvatlashga o'rgatadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida ham ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Masalan, Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo platformalari nemis tilida interaktiv o'yinlar tashkil etish imkonini beradi. Ular ayniqsa onlayn ta'lim jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Didaktik o'yinlar — bu o'quvchilarni qiziqtirish, ularni faol ishtirok etishga undash va o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish vositasi hisoblanadi. Psixolog olimlarning fikricha, o'yin faoliyati bolalarning shaxsiy rivojlanishida, xususan, nutqiy qobiliyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi [3: 112; 4: 56].

Nemis tili ta'limida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar:

- "Kim tez?" – so'z boyligini oshiradi;
- "Zanjirli gap" – grammatik bilimlarni mustahkamlaydi;
- "Dialogni davom ettir" – muloqot ko'nikmasini rivojlantiradi;
- "So'z ovlash" – tinglab tushunishni kuchaytiradi.

Bu o'yinlar o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtiribgina qolmay, balki ularda erkin fikrlash, ijodiy yondashuv va hamkorlikni shakllantiradi. Nemis tili o'qitishda o'yinlar turlicha maqsadlarga xizmat qiladi:

- Leksik o'yinlar – yangi so'zlarni tezroq eslab qolishga yordam beradi (masalan, "Memory Cards" o'yini).
- Grammatik o'yinlar – qoidalarni mustahkamlaydi (masalan, "Find the Mistake" o'yini).
- Kommunikativ o'yinlar – erkin muloqot qilishni rag'batlantiradi (masalan, "Role Play", "Dialogni davom ettir").
- Audio-o'yinlar – tinglab tushunishni rivojlantiradi ("So'z ovlash", "Kim eshitdi?").

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn o'yinlar (Quizlet, Kahoot, Wordwall) ham keng qo'llanilmoqda. Bu platformalar o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtda ham tilni mashq qilishga undaydi.

Xorijiy tajribadan namunalar

Germaniya va Avstriyada til kurslarida CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodidan keng foydalaniladi, ya'ni boshqa fanlarni (tarix, geografiya) nemis tilida o'qitish orqali til o'rgatiladi.

Finlyandiya maktablarida esa nemis tilini o'rgatishda gamifikatsiya yondashuvi (dars jarayonini o'yin shakliga keltirish) keng tarqalgan.

Yevropadagi ko'plab universitetlarda interfaol metodlar asosida kichik guruhli mashg'ulotlar orqali talabalar nutqiy ko'nikmalarini tezda rivojlantirishmoqda.

XULOSA

Xorijiy til, xususan nemis tilini o'qitishda interfaol metodlar va didaktik o'yinlarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular o'quvchilarda bilimlarni mustahkamlash, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, ijodkorlik va motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim jarayonida interfaollik va o'yin elementlari o'qitishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Nemis tilini samarali o'rgatish uchun faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas. Interfaol metodlar va didaktik o'yinlar dars jarayonini qiziqarli, jonli va mazmunli qiladi. Ular o'quvchilarda motivatsiya, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol yondashuvlar til ta'limining samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Nemis tilini o'rganishda interfaol metodlar va didaktik o'yinlarning qo'llanilishi nafaqat ta'lim jarayonini samarali qiladi, balki uni qiziqarli va motivatsion muhitga aylantiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini

kuchaytiradi. Ayniqsa, “Debat”, “Case study”, “Think–Pair–Share” kabi metodlar o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash jarayonida faol ishtirok etishlariga sharoit yaratadi. Didaktik o‘yinlar esa til o‘rganishni tabiiy jarayonga aylantirib, yangi so‘zlarni yodlash, grammatikani mustahkamlash, muloqot qilish va ijodiy fikrlashni osonlashtiradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan platformalar Kahoot, Quizizz, Wordwall, Duolingo va bu jarayonni yanada interaktiv va samarali qilmoqda. Xorijiy metodistlar va psixologlar (Bloom, Krashen) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar uni passiv emas, balki faol va amaliy muhitda o‘rganishi lozim. Shu boisdan interfaol metodlar va didaktik o‘yinlar nemis tili ta’limining ajralmas qismi sifatida qaralishi mumkin. Umuman olganda, bu yondashuvlar nafaqat bilimni mustahkamlash, balki o‘quvchilarda tilga qiziqish uyg‘otish, mustaqil fikrlashga undash va zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan kompetensiyalarni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Qodirova G. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech’. – Moskva: Gosizdat, 1934.
4. Elkonin D.B. Igra v psixologii. – Moskva: Pedagogika, 1971.
5. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Longman, 2001.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.
7. Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. – London: Routledge,
8. Хушбоков О.У. УЧИТЕЛЬ И УЧИТЕЛЬСТВО: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ // Вестник науки №1 (58) том 3. С. 216 - 218. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.пф/article/7030>
9. Хушбоков О.У. ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЧИТЕЛЯ И НОВЫЕ ВЫЗОВЫ // Вестник науки №9 (66) том 4. С. 135 - 139. 2023 г. ISSN 2712-8849 // Электронный ресурс: <https://www.вестник-науки.пф/article/10043>

YORDAMCHI SO'ZLARNI O'QITISH METODIKASI VA ULARNING NUTQ RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

SOBIROVA DURDONA SHAVKAT QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 22/2-guruh 4-bosqich talabasi

sobirovadurdona@gmail.com

Ilmiy rahbar: Gulmira Komilova

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Yordamchi so‘zlarni o‘qitish metodikasi” masalasi yoritilib, yordamchi so‘zlarning o‘zbek tili tizimidagi o‘rni, ularning ma‘no va grammatik vazifalari hamda o‘qitish jarayonidagi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda o‘quvchilarga bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi va modal so‘zlarni to‘g‘ri farqlash, ularning nutqdagi ahamiyatini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari bayon etiladi. Shuningdek, yordamchi so‘zlarni o‘qitishda interfaol metodlar, ta’lim texnologiyalari va amaliy mashqlar tizimidan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. Maqolada nazariy bilimlarni amaliy nutq bilan bog‘lash, o‘quvchilarning grammatik tafakkurini rivojlantirish va ularni o‘z fikrini aniq ifodalashga o‘rgatishga qaratilgan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yordamchi so‘zlar, metodika, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi, modal so‘zlar, interfaol usullar, o‘qitish texnologiyalari.

Abstract: This article explores the “Methodology of Teaching Auxiliary Words,” analyzing the role of auxiliary words in the Uzbek language system, their semantic and grammatical functions, and effective teaching approaches. It discusses methods for helping students distinguish conjunctions, particles, prepositions, and modal words and understand their communicative importance. The paper emphasizes the effectiveness of interactive methods, educational technologies, and practical exercises in teaching auxiliary words. It also provides methodological recommendations aimed at connecting theoretical knowledge with practical speech, developing grammatical thinking, and improving students’ ability to express ideas clearly.

Keywords: auxiliary words, methodology, conjunctions, particles, prepositions, modal words, interactive methods, teaching technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается тема «Методика преподавания вспомогательных слов», в которой анализируется роль вспомогательных слов в системе узбекского языка, их семантические и

грамматические функции, а также методы их эффективного преподавания. Отмечаются способы формирования у учащихся навыков различения союзов, частиц, послелогов и модальных слов, понимания их роли в речи. Подчеркивается эффективность использования интерактивных методов, образовательных технологий и практических упражнений при обучении вспомогательным словам. В статье приведены методические рекомендации, направленные на связь теоретических знаний с практической речью и развитие грамматического мышления учащихся.

Ключевые слова: вспомогательные слова, методика, союзы, частицы, послелоги, модальные слова, интерактивные методы, образовательные технологии.

Yordamchi soʻzlar — oʻzbek tili grammatik tizimining muhim qismini tashkil etuvchi, lekin mustaqil leksik maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardir. Ular soʻzlar orasidagi grammatik va maʼno bogʻlanishlarini ifodalash, gapning sintaktik tuzilishini aniqlashda muhim rol oʻynaydi. Yordamchi soʻzlarga bogʻlovchilar, yuklamalar, koʻmakchilar va modal soʻzlar kiradi. Ularning har biri nutqda alohida vazifani bajaradi: bogʻlovchilar soʻz va gaplarni biriktiradi, koʻmakchilar soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni bildiradi, yuklamalar esa gapga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Shu sababli, yordamchi soʻzlar til tizimida grammatik tuzilmani mustahkamlovchi va nutqni mantiqan izchil ifodalovchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda oʻzbek tili taʼlimi tizimida yordamchi soʻzlarni oʻqitish metodikasi oʻquvchilarning grammatik tafakkurini shakllantirish, soʻzlar orasidagi bogʻlanishlarni toʻgʻri tushunish va ulardan nutqda samarali foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Chunki yordamchi soʻzlarni faqat yod olish orqali emas, balki ularning mazmuni, vazifasi va nutqdagi oʻrnini anglab oʻrganish oʻquvchi tafakkurining faolligini oshiradi. Yordamchi soʻzlarni oʻqitishda interfaol metodlardan, mashq va tahlil asosidagi dars ishlanmalaridan, zamonaviy texnologiyalar hamda misollar orqali mustahkamlash usullaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Bu jarayonda oʻqituvchi oʻquvchilarning nutq faoliyatini kuzatib, ularni amaliy mashgʻulotlar orqali oʻz fikrini grammatik jihatdan toʻgʻri ifodalashga yoʻnaltiradi. Shu nuqtai nazardan, “Yordamchi soʻzlarni oʻqitish metodikasi” mavzusini oʻrganish oʻquvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini chuqurlashtirish, balki oʻzbek tilining ifoda imkoniyatlarini toʻliq anglash, nutq madaniyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur mavzu oʻzbek tili taʼlimida dolzarb boʻlib, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida oʻrganish bugungi taʼlim jarayonining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Yordamchi soʻzlarni oʻqitish

metodikasi o'zbek tili grammatikasini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yordamchi so'zlar tildagi so'z va gaplar o'rtasidagi grammatik, mantiqiy va ma'no bog'lanishlarini ifodalovchi vositalardir. Ular mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasada, gapda boshqa so'zlar bilan birgalikda ma'no va tuzilmani aniqlashda faol ishtirok etadi. Yordamchi so'zlarni o'qitish orqali o'quvchilar tildagi sintaktik munosabatlarni anglaydi, so'zlarni to'g'ri bog'laydi va nutqni mantiqan izchil shakllantirishni o'rganadilar.

Yordamchi so'zlar o'zbek tilining grammatik tizimida aloqa va bog'lanishlarni ifodalovchi muhim unsurlardan biridir. Ular mustaqil so'zlar bilan birgalikda ishlatilib, gapning grammatik shaklini aniqlaydi. Masalan, ko'makchilar so'zlar o'rtasida joy, sabab, maqsad munosabatlarini bildirsa, bog'lovchilar gap va so'zlarni bir-biriga bog'laydi. Yuklamalar esa gapga qo'shimcha ma'no yuklab, so'zlovchining munosabatini bildiradi. Shu bois, yordamchi so'zlarni o'rganish o'quvchiga grammatik tuzilmani chuqur anglash va nutqni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Yordamchi so'zlarni o'qitishda tushuntirish, kuzatish, tahlil, amaliy mashq, taqqoslash va interfaol metodlar keng qo'llaniladi. Masalan, "Bog'lovchini toping", "Ko'makchi yordamida gap tuzing" kabi mashqlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'qituvchi misollar asosida yordamchi so'zlarning gapdagi o'рни va vazifasini tushuntiradi, so'ngra ularni mustaqil qo'llashga yo'naltiradi. Shuningdek, juftlikda ishlash, test topshiriqlari, "to'ldiring" mashqlari yordamida o'quvchilarning bilimni mustahkamlash samarali natija beradi. Yordamchi so'zlarni o'qitishda o'qituvchining metodik yondashuvi juda muhim. U o'quvchilarga har bir yordamchi so'z turkumining grammatik vazifasini aniq misollar orqali tushuntirishi, o'xshash va farqli jihatlarini solishtirib ko'rsatishi lozim. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faol fikrlashini rag'batlantiruvchi savol-javoblar, tahliliy mashqlar va kontekst asosidagi topshiriqlardan foydalanadi. Bu esa nafaqat grammatik bilimni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning nutqni to'g'ri tuzish ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Amaliyotda yordamchi so'zlar mavzusi ko'pincha yodlashga asoslangan shaklda o'qitiladi. Natijada o'quvchilar ularning mazmuniy va grammatik vazifalarini chuqur anglamay qoladi. Shu sababli, har bir yordamchi so'zning misollar orqali tahlil qilinishi, turli kontekstlarda qo'llanishini ko'rsatish zarur. Interfaol metodlardan — klaster, "Aqliy hujum", "Tushunchalar xaritasi" kabi usullardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Shuningdek, darsda taqqoslash va tahlil asosida amaliy mashqlarni ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Yordamchi so'zlarni o'qitishda raqamli vositalar va interaktiv texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi. Masalan, elektron testlar, animatsion slaydlar, grammatik o'yinlar va onlayn

platformalar yordamida o'quvchilar mavzuni mustahkam o'zlashtiradi. Shuningdek, matn tahlil dasturlari orqali yordamchi so'zlarning ishlatilish chastotasini aniqlash, ular yordamida gap tuzish mashqlari bajarish o'quvchilarda amaliy malaka hosil qiladi.

Zamonaviy darslarda multimedia vositalaridan foydalanish grammatik mavzularni qiziqarli va samarali tarzda o'rgatishga imkon beradi. Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi grammatik bilimni amaliy nutq bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quvchi yordamchi so'zlarning turini bilish bilan birga, ularni to'g'ri ishlatish, mantiqan bog'lash va fikrni izchil ifodalashni ham o'rganishi lozim. Yordamchi so'zlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchilar tildagi sintaktik tizimni anglaydi, yozma va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantiradi. Shu sababli, ushbu mavzuni o'qitishda nazariya bilan amaliyotning uyg'unligi, innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlarning qo'llanilishi eng muhim omillardan biridir. Raqamli tarixni o'qitish metodikasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalish tarixiy bilimlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarda tahliliy fikrlash, manbalarni solishtirish va tarixiy jarayonlarni interaktiv tarzda o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli tarix yordamida tarixiy ma'lumotlarni virtual muzeylar, 3D xaritalar va raqamli arxivlar orqali chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bu fan o'quvchilarni axborot madaniyatiga, tarixiy manbalardan to'g'ri foydalanish va ularni tahlil qilishga o'rgatadi.

Raqamli tarixni o'qitish jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli vositalar bilan ishlashni yo'lga qo'yuvchi va o'quvchilarni mustaqil izlanishga undovchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu yondashuv tarix fanining zamonaviy shaklda o'zlashtirilishini ta'minlab, tarixiy tafakkurni kengaytiradi hamda ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov, D. *Tarixni o'qitishda innovatsion yondashuvlar*. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
2. Jenkins, H. *Digital Humanities and Historical Studies*. — London: Routledge, 2020.
3. Karimov, I. A. *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'rolov, B. *Raqamli tarix: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni*, 2020-yil.
6. Qodirova, M. *Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'рни*. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.

7. Smith, D. *Teaching History in the Digital Age*. — New York: University of Michigan Press, 2019.
8. To'xtayev, A. *Tarix ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers*. — Paris: UNESCO Publishing, 2018.
10. Xabibullayev, A. *Tarixiy manbalarni raqamlashtirish va ularni tahlil qilish texnologiyasi*. — Toshkent: Fan, 2023.

ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

SOBIROVA SHAHLO TEMUR QIZI

CHDPU faculty of tourism

Foreign language and literature 3- stage student

Scientific advisor : Xushbokov Oybek Urolovich

Faculty of Tourism, lecturer at the Department of German Language

Annotation: This article discusses the main environmental problems facing the modern world, such as air pollution, water contamination, deforestation, and climate change. It also highlights the negative effects of these problems on human health and the natural ecosystem. Furthermore, the article suggests possible solutions, including the use of renewable energy, recycling, forest protection, and raising environmental awareness among people. The main purpose of the article is to show that protecting the environment is the responsibility of every person and that small steps can make a big difference in solving global ecological challenges.

Keywords: Environment, pollution, climate change, deforestation, renewable energy, recycling, sustainability, ecosystem, awareness, solutions.

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitning asosiy muammolari — havoning ifloslanishi, suvning zaharlanishi, o'rmonlarning kamayishi va iqlim o'zgarishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ushbu muammolarning inson salomatligiga va tabiatga ta'siri tahlil qilinadi hamda ularning yechimlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik ongni oshirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ifloslanish, iqlim o'zgarishi, o'rmonlar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologiya, yechimlar.

Аннотация. В статье рассматриваются основные экологические проблемы, такие как загрязнение воздуха, загрязнение воды, вырубка лесов и изменение климата. Также анализируется их влияние на здоровье человека и природу, а в качестве решений предлагаются использование возобновляемой энергии, переработка отходов и повышение экологической сознательности.

Ключевые слова: окружающая среда, загрязнение, изменение климата, вырубка лесов, возобновляемая энергия, экология, решения.

Introduction: The environment is the foundation of human life. It provides us with clean air, fresh water, fertile soil, and countless natural resources. However, in recent decades, the environment has faced serious challenges because of human activity. Modern industries, transport, deforestation, and population growth have led to

environmental destruction. Scientists warn that if humanity continues to use natural resources irresponsibly, future generations will suffer from the consequences. Environmental problems are not only local, but also global, because pollution and climate change affect every country. Therefore, protecting the environment has become one of the most urgent tasks of the 21st century. This essay will focus on the main environmental problems, such as air pollution, water pollution, deforestation, and climate change. It will also provide possible solutions and highlight the responsibility of both governments and individuals in protecting our planet.

1. Air Pollution

Air pollution is one of the most dangerous problems today. In large cities, millions of cars release harmful gases into the atmosphere every day. Factories and power plants add even more toxic substances such as carbon monoxide, sulfur dioxide, and nitrogen oxides. These pollutants cause serious health problems, including asthma, bronchitis, lung cancer, and heart diseases. Moreover, polluted air damages crops, animals, and the natural balance of ecosystems.

One effective solution is to use renewable energy sources like solar, wind, and hydropower instead of coal and oil. Many developed countries are already investing in green energy to reduce emissions. Another important solution is to develop public transport systems and encourage people to walk, cycle, or use electric cars. Planting trees in urban areas also helps clean the air and reduce the heat effect caused by pollution.

2. Water Pollution

Water is the source of life, but unfortunately, it is being polluted at an alarming rate. Rivers, lakes, and oceans receive tons of waste every day. Factories release chemicals, oil, and heavy metals into rivers, while households contribute by throwing plastics and detergents. As a result, water animals die, drinking water becomes unsafe, and diseases such as cholera and dysentery spread among people.

To solve this issue, governments should build modern wastewater treatment plants and control factories strictly. Recycling and reducing plastic use are also essential. For example, replacing plastic bottles with reusable ones can significantly reduce plastic waste. Public campaigns can teach people about the importance of keeping rivers and seas clean. Protecting water is a duty for everyone, because without clean water, life on Earth cannot survive.

3. Deforestation

Forests cover about 30% of the Earth's land, but they are disappearing quickly due to human activity. People cut down trees for wood, paper, and agricultural land.

However, forests play a crucial role in the ecosystem: they produce oxygen, absorb carbon dioxide, regulate rainfall, and provide shelter for millions of species. When forests are destroyed, biodiversity is lost, and many plants and animals face extinction.

To prevent deforestation, governments should create protected areas and national parks. Planting new trees, known as reforestation, can also help restore damaged lands. On an individual level, people can reduce the use of paper and support products made from recycled materials. Schools and universities can organize tree-planting activities to raise awareness among young generations. By protecting forests, we protect the lungs of our planet.

4.Climate Change

Perhaps the greatest environmental challenge today is climate change. The average temperature of the Earth has increased in recent decades due to greenhouse gases, especially carbon dioxide. This causes glaciers to melt, sea levels to rise, and extreme weather conditions such as hurricanes, floods, droughts, and forest fires. Millions of people have already lost their homes because of natural disasters linked to climate change.

Solving this problem requires international cooperation. Countries must work together to reduce greenhouse gas emissions. Agreements such as the Paris Climate Accord are important steps in this direction. At the same time, each person can contribute by saving energy, using public transport, and supporting renewable energy. Climate change is a global issue, and it can only be solved with global action.

5.Human Responsibility and Everyday Actions

While governments and large organizations play a major role in solving environmental problems, individuals also have an important responsibility. Small actions, when multiplied by millions of people, can create big results. For example, separating waste for recycling, reducing water and electricity consumption, and avoiding single-use plastics are simple but effective steps. People can also support eco-friendly companies and participate in environmental campaigns.

Education is another powerful tool. If children learn to respect nature from a young age, they will grow into adults who care for the environment. Schools can organize eco-clubs, tree-planting days, and clean-up campaigns. Mass media can also spread awareness by showing the dangers of pollution and the benefits of eco-friendly lifestyles.

Conclusion

In conclusion, environmental problems such as air pollution, water pollution, deforestation, and climate change are among the greatest challenges of our time. They

threaten not only nature but also human health, food security, and the future of our planet. However, these problems are not impossible to solve. With strong international cooperation, strict laws, technological progress, and responsible individual behavior, humanity can protect the Earth.

Protecting the environment is not just the duty of scientists or governments; it is the responsibility of every person. If each of us takes small steps today, together we can build a cleaner, healthier, and safer world for the future. The Earth is our only home, and it is our duty to protect it for the next generations.

References

1. Carson, R. (1962). Silent Spring. Houghton Mifflin.
2. United Nations Environment Programme (2022). Global Environmental Outlook Report.
3. IPCC (2023). Climate Change Assessment Report. Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change.
4. World Health Organization (2021). Air Pollution and Health. WHO Press.
5. WWF (2020). Living Planet Report. World Wide Fund for Nature.

EGALIK VA KELISHIK KATEGORIYALARI

QURBONBOYEVA SOHIBA HAMZA QIZI

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi egalik va kelishik kategoriyalarining mohiyati, ularning grammatik shakllanishi hamda sintaktik vazifalari tahlil qilinadi. Maqolada egalik affikslari orqali ifodalanuvchi mulk va mansublik munosabatlari, shuningdek, kelishik qo'shimchalari yordamida ifodalanadigan so'zlar orasidagi grammatik bog'lanishlar o'rganilgan. Shuningdek, egalik va kelishik kategoriyalarining o'zaro farqli va umumiy jihatlari, ularning o'zbek tili grammatik tizimidagi o'rni, gap tuzilishida tutgan roli hamda nutq madaniyatidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, grammatik qo'shimchalar, sintaktik munosabat, so'z turkumi, o'zbek tili grammatikasi.

Аннотация: В данной работе рассматриваются сущность категорий принадлежности (эгалик) и падежей (келишик) в узбекском языке, их грамматические формы и синтаксические функции. Исследование направлено на анализ притяжательных аффиксов, выражающих отношения принадлежности и обладания, а также падежных окончаний, формирующих грамматические связи между словами в предложении. Также будут освещены различия и общие черты притяжательных и падежных категорий, их место в грамматической системе узбекского языка, роль в структуре предложения и значение в культуре речи.

Ключевые слова: категория принадлежности, падежная категория, грамматические аффиксы, синтаксические отношения, части речи, грамматика узбекского языка.

Til - millatning ma'naviy boyligi, xalq tafakkuri va madaniyatining ko'zgusidir. O'zbek tili grammatik tizimida so'zlarning o'zaro munosabatini ifodalovchi kategoriyalar muhim o'rin tutadi. Shulardan biri - egalik va kelishik kategoriyalari bo'lib, ular orqali nutqda so'zlar o'rtasidagi grammatik bog'lanish, egalik munosabati

va sintaktik tuzilma aniqlanadi. Egalik kategoriyasi soʻzga mansublik, mulkchilik maʼnosini beruvchi grammatik vosita boʻlsa, kelishik kategoriyasi esa soʻzlarning gap tarkibida boshqa soʻzlarga qanday bogʻlanishini ifodalaydi. Mazkur mavzuni oʻrganish oʻzbek tilining grammatik tuzilishini chuqur anglash, toʻgʻri yozish va soʻzlash madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Oʻzbek tilida soʻzlarning oʻzaro grammatik bogʻlanishini taʼminlovchi muhim vositalardan biri - egalik va kelishik kategoriyalaridir. Ular yordamida soʻzlar orasidagi mansublik, mulkchilik, joy, sabab, maqsad va boshqa grammatik munosabatlar ifodalanadi. Egalik kategoriyasi ot turkumiga oid soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilishi orqali hosil boʻladi. Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (baʼzan predmetga) taalluqli ekanligini koʻrsatuvchi umumiy maʼnolar va bu maʼnolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.[1:107].

Ular shaxsga koʻra uch shaxsda va birlik - koʻplikda ifodalanadi:

1-shaxs: kitobim, uyimiz. 2-shaxs: kitobing, uylaringiz. 3-shaxs: kitobi, uyi.

Egalik qoʻshimchalari soʻzga egalik, yaʼni “kimga tegishli” ligini bildiradi. Masalan: *Bu daftar meniki (1-shaxs egaligi). Onasining telefoni jiringladi (3-shaxs egaligi).*

Egalik shakllari yordamida soʻzlovchi, tinglovchi va uchinchi shaxs oʻrtasidagi mulkchilik yoki mansublik munosabatlari grammatik jihatdan ifodalanadi. Egalik maʼnosi ikki usulda ifodalanadi:

a) morfologik usul – egalik qoʻshimchalari yordamida. Egalik qoʻshimchalari predmetlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi. Egalik qoʻshimchalari ikki variantda (unlidan soʻng, undoshdan soʻng) qoʻllaniladi. Egalik qoʻshimchalari odatda soʻzda kelishik qoʻshimchalaridan oldin joylashgani uchun soʻz bosh kelishikda hisoblanadi: *kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz, kitobi.* Qoʻshimchalarning soʻzdagi joylashish oʻrniga koʻra kelishik qoʻshimchalari egalik qoʻshimchalaridan keyin keladi. Egalik qoʻshimchalarining ot, olmosh, harakat nomiga qoʻshilgan holati – turlanish, boshqa soʻz turkumlaridagi soʻzlarga qoʻshilish hodisasi – otlashish deb nomlanadi. Egalik qoʻshimchalari qoʻshilgan soʻz oʻzidan oldin qoʻllangan soʻzda qaratqich kelishigi qoʻshimchasi (belgili yoki belgisiz) boʻlishini talab qiladi: bogʻning guli, yozuvchining kitobi.

b) sintaktik usul – bunda –niki qoʻshimchasi yordamida qarashlilik maʼnosi ifodalanadi: *men+niki, biz+niki, bola+niki, koʻp+niki, biri+niki, yaxshilar+niki* singari misollarda qarashlilik maʼnosi ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan misollar mazmunidan kelib chiqib, nima? soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzni ularga bogʻlab koʻrish mumkin. Masalan, *sovgʻa (nima) bizniki, taklif (nima) sizniki, osh (nima) koʻp+niki.* Misollar

tahlili shuni ko'rsatadiki, –niki qo'shimchasini olgan so'z yolg'iz qo'llansa, nima qarashli ekanligi nutqda aniq anglashilmay qoladi. (nima? bolaniki).

Kelishik kategoriyasi so'zning gap tarkibida boshqa so'zlarga grammatik jihatdan qanday bog'lanishini bildiradi. Kelishik qo'shimchalari bundan tashqari gap tarkibidagi so'zlarni bo'laklarga ajratishda ham ahamiyatlidir. Gap tarkibidagi bo'laklarning aksariyati kelishik qo'shimchalarining ishtirokiga qarab belgilanadi. Demak, o'tning qanday sintaktik vazifada kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bog'liqdir.[2:25].

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud:

1. Bosh kelishik – kim? nima? (bola, kitob). 2. Qaratqich kelishigi – kimning? nimaning? (bolaning, kitobning).

3. Tushum kelishigi – kimni? nimani? (bolani, kitobni). 4. Jo'nalish kelishigi – kimga? nimaga? (bolaga, kitobga). 5. O'rin-payt kelishigi – kimda? nimada? (bolada, kitobda).

6. Chiqish kelishigi – kimdan? nimadan? (boladan, kitobdan).

Har bir

kelishik qo'shimchasi so'zning gapdagi vazifasini o'zgartiradi va sintaktik munosabatni aniq belgilaydi. Masalan: Bolani ko'rdim (tushum kelishigi — to'ldiruvchi vazifasida), Bolaga sovg'a berdim (jo'nalish kelishigi — yo'nalish bildiradi), Boladan xat oldim (chiqish kelishigi — manba bildiradi).

Kelishik qo'shimchalari egalik qo'shimchalari singari turlovchi qo'shimchalar sanaladi. kelishik qo'shimchalari vazifasiga ko'ra sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi. Ular o'zlari qo'shilgan so'zni keyingi so'zga bog'laydi, bog'langan so'z bilan birgalikda so'z birikmalarini hosil qiladi.

Egalik va kelishik kategoriyalari o'zaro yaqin grammatik munosabatda bo'lib, ko'pincha bir so'z tarkibida birgalikda qo'llanadi: Onamning kitobi (qaratqich kelishigi + egalik shakli).

Ustozining darsi (mulkchilik va mansublik birgalikda ifodalangan). Bu kabi holatlar tilning grammatik tizimida so'zlarning o'zaro mustahkam bog'lanishini ta'minlaydi va nutqning mazmunini aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, egalik va kelishik kategoriyalari o'zbek tili grammatik tizimining ajralmas qismini tashkil etadi. Ular yordamida so'zlar o'rtasida turli grammatik va ma'noviy munosabatlar yuzaga keladi. Egalik kategoriyasi shaxsga tegishlilik, mansublikni ifodalasa, kelishik kategoriyasi so'zlarning gap tarkibidagi o'rni va vazifasini belgilaydi. Bu ikki kategoriya nutqning to'g'ri, mantiqiy va ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Ularni to'g'ri qo'llash til madaniyatini yuksaltiradi, grammatik

savodxonlikni oshiradi hamda o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. 107 b.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.
3. Nomozov A., Allayorova N. Ona tili. O'quv qo'llanma – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
4. Abdurahmonov G'., Jo'rayev M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 198 b.
5. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.

O'ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI**SOLIYEVA SHOXISTA SHERZOD QIZI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

ANNOTATSIYA.: Ushbu maqolada neologizmlar ya'ni o'zbek adabiy tiliga yangi qabul qilingan kelib chiqishi ko'pincha ingliz va rus tillariga oid bo'lgan so'zlarning jamiyatimizda iste'mol darajasi, ular haqida mashhur tilshunos olimlarning fikr va mulohazalari va ba'zi yangi so'zlarning izohlariga to'xtalib o'tilgan. Neologizmlardan to'g'ri va o'rinli foydalanish bilan bog'liq takliflar va tavsiyalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. neologizm, yangi yaratilgan so'zlar, o'zlashmalar, ma'noviy neologizmlar, neologizm-semema, neologizm-leksema.

Til — xalqning ma'naviy boyligi, uning tarixiy xotirasi va madaniyatini asrab keluvchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Har qanday millatning taraqqiyoti, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik ham, avvalo, til orqali namoyon bo'ladi. O'zbek tili ham uzoq tarixga ega bo'lib, turkiy tillar oilasiga mansub qadimiy va boy imkoniyatlarga ega til hisoblanadi. Mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek adabiy tili yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi, unda tilning turli qatlamlari, jumladan, leksik boylik sezilarli darajada kengaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol qo'llanilib, davlat tili sifatida o'z mavqeini mustahkamladi. Adabiy tilning asosiy xususiyatlaridan biri uning me'yorlanganligi, ya'ni talaffuz, imlo, leksik va grammatik jihatdan umumiy qabul qilingan qoida va talablar asosida rivojlanishidir. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari, global jarayonlar tilga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, leksik qatlam yangi so'zlar, neologizmlar hisobiga tez boyib bormoqda. Shuningdek, XXI asrda globallashuv jarayonining jadallashishi, xalqaro muloqotning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi termin va iboralar kirib kelmoqda. Kompyuter texnologiyalari, internet, marketing, moliya va ta'lim sohalaridagi global o'zgarishlar natijasida *“onlayn”, “oflayn”, “startup”, “freelancer”, “brending”* kabi so'zlar kundalik nutqimizga singib bormoqda.

Neologizmlar tilning doimiy ravishda yangilanib borishini, xalq tafakkuri va dunyoqarashining kengayishini ifodalaydi. Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya, siyosat va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar natijasida o'zbek adabiy tilida ham

yangidan-yangi soʻzlar yuzaga kelmoqda va ular nutq jarayonida faol qoʻllanilmoqda. Shu bois, yangi soʻzlarning oʻzbek adabiy tilidagi oʻrni va ahamiyatini oʻrganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Neologizm (*yunoncha neo – yangi logos – soʻz*) – bu muayyan til lugʻat tarkibiga yangi kirib kelgan yoki yaqinda shakllangan soʻz, ibora yoki atamalardir. Ular odatda yangi ixtiro, hodisa, tushuncha yoki ehtiyoj tufayli paydo boʻladi. Neologizmlar tabiiy ravishda har bir tilning rivojlanish jarayonida yuzaga keladi va lugʻat tarkibining doimiy yangilanib borishini taʼminlaydi. Lugʻatshunoslik nuqtayi nazaridan neologizmlar uch asosiy toifaga boʻlinadi:

1. Yangi yaratilgan soʻzlar – muayyan ehtiyojdan kelib chiqqan holda, ilgari mavjud boʻlmagan va tilshunoslar yoki jamiyat tomonidan yaratilgan yangi soʻzlar. Masalan, “raqamlashtirish”, “sunʼiy intellekt”, “kiberxavfsizlik”.

2. Oʻzlashmalar – boshqa tillardan kirib kelgan va maʼlum vaqt davomida isteʼmolga moslashgan soʻzlar. Masalan, ingliz tilidan kirgan “marketing”, “startup”, “onlayn”, “breeding”, “freelancer” kabi atamalar Oʻzbek tilida keng qoʻllanilmoqda.

3. Maʼnoviy neologizmlar – mavjud soʻzlarning yangi maʼnoga ega boʻlishi yoki termin sifatida qoʻllanilishi. Masalan, ilgari faqat jismoniy koʻrinishdagi “tarmoq” soʻzi hozirda internet tarmogʻi yoki ijtimoiy tarmoqlarni anglatishda ishlatilmoqda.

Neologizmlarning tilga singib borish jarayoni ularning xalq orasida qanday qabul qilinishiga bogʻliq. Baʼzi neologizmlar tezda isteʼmolga kirib keladi va keng qoʻllaniladi, boshqalari esa vaqt oʻtishi bilan eskiradi yoki boshqa soʻz bilan almashtiriladi. Har qanday neologizm dastlab ayrim shaxs nutqida voqe boʻladi, bunday paytda u individual nutq neologizmi sanaladi. Masalan; «*Bek akang koʻrinmay qoldi-ku? dedi qesakpolvon labiga sigaret qistirib. Humkalla choʻntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi...*» (T.M.) Bu gapda **yoqqich** soʻzi ruscha zajigalka soʻzining kalkasi tarzida qoʻllangan, uni asar muallifi (Tohir Malik) oʻzi yasagan va oʻzi individual nutq neologizmi sifatida birinchi boʻlib ishlatgan. Demak, bu soʻz hozircha umumtil neologizmi darajasiga koʻtarilmagan, chunki u nutq ixtiyorida til ixtiyoriga oʻtmagan. Baʼzan ancha ilgari yaratilgan individual nutq neologizmlari ham umumnutq neologizmiga aylanmay qolib ketadi.

Bundan tashqari soʻzning neologizmlilik belgisi leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga aloqador boʻladi, shunga koʻra leksik neologizm quyidagi ikki turga boʻlinadi:

Neologizm-leksema. Bunda leksema yaxlitligicha neologizm boʻladi: deident, internet, faks, interfaks kabi.

Neologizm-semema. Bunda leksemaning o'zi emas, uning ma'nolaridan biri neologizm sanaladi. Bunga k o 'k so'zining hozirgi tilda paydo bo'lgan «dollar» ma'nosini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Neologizmlarning tilga singib borish jarayoni ularning xalq orasida qanday qabul qilinishiga bog'liq. Ba'zi neologizmlar tezda iste'molga kirib keladi va keng qo'llaniladi, boshqalari esa vaqt o'tishi bilan eskiradi yoki boshqa so'z bilan almashtiriladi. O'zbek tilining lug'at tarkibi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada o'zgardi. Globallashuv jarayoni, xalqaro ilmiy va iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, quyidagi sohalarda neologizmlarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda: Texnologiya va axborot kommunikatsiyalari: *“sun'iy intellekt”*, *“blokcheyn”*, *“kriptovalyuta”*, *“big data”* kabi terminlar ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilimizda o'z o'rnini topdi.

Iqtisodiyot va biznes: *“brend”*, *“startup”*, *“frilans”*, *“investor”*, *“marketing”* kabi atamalar biznes muhitining global xarakterga ega bo'lishi bilan bog'liq holda keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy va madaniy hayot: *“blogger”*, *“vlogger”*, *“influencer”*, *“streamer”* kabi yangi atamalar ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. Ayrim so'zlar tezda tilga singib ketadi, ba'zilar esa uzoq vaqt davomida moslashuv jarayonidan o'tadi. Masalan, *“onlayn”* va *“oflayn”* so'zlari hozirgi kunda barcha yosh toifalari tomonidan bimalol ishlatiladi, ammo *“raqamli transformatsiya”* kabi ilmiy terminologiya hanz keng jamoatchilik uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Neologizmlarni chuqur o'rganish jarayonida hali yetarlicha tahlil qilinmagan jihatlar ham mavjud. Ulardan biri hududiy shevalarda yangi so'zlarning qanday o'zlashtirilishidir. Shahar va qishloq joylarida bir xil atamalar turlicha qabul qilinishi mumkin, bu esa tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiziqarli mavzu hisoblanadi. Ikkinchi muhim jihat – yosh avlodning neologizmlarni qanday o'zlashtirayotgani va ularning ta'lim jarayoniga ta'siridir. Zamonaviy texnologiyalar va internet orqali bolalar va yoshlar yangi so'zlarni tez o'zlashtiradi, ammo ularning to'g'ri ishlatilishi muhim masala bo'lib qolmoqda. Uchinchidan, til me'yorlari bilan bog'liq muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ba'zi neologizmlar o'zbek tilining grammatik va fonetik qoidalariga mos kelmasligi sababli, ularni moslashtirish bo'yicha izlanishlar zarur. Bu sohani yanada chuqurroq tahlil qilish uchun yangi o'rganish usullari taklif etiladi. Bular orasida korpus lingvistikasi va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullari muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy mahsuli sifatida o'zbek adabiy tilida muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat hayotidagi yangiliklar, fan-texnika yutuqlari va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Biroq yangi so'zlarning

barchasi ham birdaniga adabiy til me'yoriga aylanavermaydi. Tilning sof, ravon va umumxalq tomonidan tushunarli bo'lib qolishi uchun neologizmlarni qo'llashda ma'lum darajada **me'yor va tartib** zarur. Agar yangi so'zlar tartibsiz, izohsiz va to'g'ri qoida asosida qo'llanmasa, adabiy tilning barqarorligi buzilishi, tushunarsiz shakllarning ko'payishi mumkin. Shuning uchun neologizmlarni qo'llash jarayonida ularning xalq og'zaki nutqida qabul qilinishi, adabiy til qoidalariga mosligi va ma'no aniq-ligi inobatga olinishi lozim. Demak, neologizmlarning paydo bo'lishi tabiiy jarayon bo'lsa-da, ularni **me'yor asosida qo'llash** o'zbek adabiy tilining izchil rivojlanishi va barqarorligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon qizi O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBINING NEOLOGIZMLAR BILAN BOYIB BORISHI (CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION)
2. H.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent – "Talqin". 2005
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova, M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.O'quv qo'llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009.

O'ZBEK TILI DUNYO TILLARI ORASIDA**SOYIBOVA MARJONA SALOHIDDIN qizi**

CHDPU gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti 22/2 - guruh talabasi

soyibovamarjona@gmail.com**Ilmiy rahbar: Komilova Gulmira**

5. Mahmudov, N. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Rahmatullayev, Sh. Til – millat ko'zgusi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
7. Saussure, F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent: Universitet, 2017.
8. Sodiqov, M. O'zbek tilining ijtimoiy vazifalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
9. To'xliyev, B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
10. Yusufxo'jayev, A. Til va madaniyat uyg'unligi. – Toshkent: Fan, 2022.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL, NUTQ VA USLUB MASALASI

TO'LGUNOVA XUSNORA RAVSHAN QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi
tolqunovaxusnora@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarida (OAV) til, nutq va uslubning o'ziga xos jihatlari, ularning jamiyatdagi ahamiyati hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Jurnalist nutqining madaniyati, adabiy til me'yorlariga rioya etish darajasi, teleradio, matbuot va internet nashrlarida tilning o'zgarish holatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, nutq madaniyati, OAV tili, publitsistik uslub, adabiy me'yor, ijtimoiy tarmoq.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности языка, речи и стиля в средствах массовой информации (СМИ), их значение в обществе, а также существующие проблемы. Изучается культура речи журналистов, степень соблюдения норм литературного языка, а также изменения, происходящие в языке телевидения, печати и интернет-изданий.

Ключевые слова: средства массовой информации, культура речи, язык СМИ, публицистический стиль, литературная норма, социальная сеть.

Annotation: This article analyzes the distinctive features of language, speech, and style in mass media, their social significance, and the existing problems. The study also explores the speech culture of journalists, the level of compliance with literary language norms, and linguistic changes observed in television, print, and online media.

Keywords: mass media, speech culture, media language, publicistic style, literary norm, social network.

Hozirgi axborot asrida ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab insonlar televideniye, radio, matbuot va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil yangiliklar, ma'lumotlar, tahliliy materiallar bilan tanishadi. Shu bois OAVda ishlatiladigan til, nutq va uslub masalasi nafaqat jurnalistlar, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

OAV tili faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki millatning intellektual salohiyatini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi. Til orqali biz madaniyatimizni,

dunyoqarashimizni, qadriyatlarimizni ifoda etamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan har bir soʻz, har bir ibora minglab odamlar ongiga singadi va oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda kanal yoki blog yuritadigan insonlar soʻz tanlashda va uslubda nihoyatda ehtiyotkor boʻlishlari va albatta adabiy til meʼyorlariga rioya qilishlari lozim. OAV tili oʻzining publitsistik uslubi bilan ajralib turadi. Bu uslubning asosiy talabi – aniqlik, soddalik, taʼsirchanlik va ommaboplik. Shunga qaramay, ayrim hollarda tilning haddan tashqari soddalashtirilishi yoki xorijiy soʻzlarning ortiqcha ishlatilishi adabiy til meʼyorlarining buzilishiga sabab boʻlmoqda. Masalan, “Prezident xalq bilan jonli gaplashdi” Bu gapda “jonli gaplashdi” soʻzi mazmun jihatdan mos kelmaydi. Bu soʻzning oʻrniga “ochiq muloqot oʻtkazdi” soʻzini ishlatga toʻgʻri boʻladi. Bunga yana bir misol sifatida jonli efirlarda “live”, “reklama time” kabi soʻzlardan foydalanishni keltirishimiz mumkin. Bunday soʻzlar ona tilining jozibasiga, uslubiyatiga putur yetkazadi. Tilning bunday soddalashtirilishi yoki begona (xorijiy) soʻzlarning koʻpayishi jurnalist nutqining madaniyatiga ham salbiy taʼsir qiladi. Chunki jurnalist nutq madaniyatining targʻibotchisi sanaladi. U soʻz orqali jamiyatga taʼsir oʻtkazadi, oʻquvchi yoki tomoshabinning tilga boʻlgan munosabatini shakllantiradi. Jurnalist nutqining madaniyati- bu fikrni aniq, qisqa, adabiy til meʼyorlariga rioya qilgan holda estetik jihatdan goʻzal ifoda etish sanʼatidir.

Har bir jurnalist oʻz nutqida soʻzning maʼnosini chuqur his etishi, ortiqcha emotsional yoki norasmiy iboralardan saqlanishi zarur. Chunki har bir soʻz, har bir gapning orqasida muayyan bir gʻoya yotadi. Shu bois OAVda faoliyat yuritadigan har bir hodim nutq madaniyatiga eʼtiborli boʻlishi, xorijiy va nooʻrin soʻzlardan foydalanmasligi, oʻz nutqi ustida muntazam ishlashi lozim. Shu oʻrinda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning gaplarini keltirib oʻtmoqchiman: “Ona tilimiz - milliy gʻururimizdir. Tilimizga hurmat bilan qarash - oʻzligimizni anglashdir”. Demak jurnalistning nutq madaniyati - bu milliy madaniyatga hurmatning ifodasidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish ommalashdi. Bloggerlar va onlayn nashr mualliflari ham jamoatchilik fikriga taʼsir koʻrsatuvchi kuchli axborot subʼyektiga aylandi. Shunidek ularning nutqi, soʻz boyligi, uslubi jamiyatdagi madaniyatga va fikrlashga bevosita taʼsir oʻtkazmoqda. Bloggerlar tili koʻp hollarda norasmiy, emotsional va soʻzlashuv uslubiga xos boʻladi, bu esa adabiy til meʼyorlariga zid. Shu sababli raqamli axborot makonida ham adabiy tilga hurmat bilan yondashish, soʻz masʼuliyatini his etish muhimdir. Tilshunos olim D.Qodirova taʼkidlaganidek: “Nutq madaniyati – bu til imkoniyatlaridan toʻgʻri va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish sanʼatidir.” Jurnalist aynan shu sanʼat egasi boʻlishi kerak.

U har bir soʻz bilan xalq tafakkuriga, yosh avlodning fikrlashiga, dunyoqarashiga taʼsir oʻtkazishini unutmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalarida til va nutq madaniyati yuksak boʻlishi jamiyatning maʼnaviy darajasini belgilab beradi. Jurnalistning har bir soʻzi xalq ongiga taʼsir oʻtkazadi, shuning uchun u adabiy til meʼyorlariga qatʼiy amal qilishi zarur. Til yoki nutqning aniqligi va sofligi-bu jurnalistlik kasbining asosiy mezonidir. Ana shu tamoyillarga rioya etish OAV tilini boyitadi, milliy nutq madaniyatini esa yangi bosqichga koʻtaradi.

Kelajakda OAV tilini takomillashtirish, adabiy til meʼyorlarini saqlash hamda jurnalist nutq madaniyatini rivojlantirish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, jurnalistlar, OAV sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar va bloggerlar uchun nutq madaniyati va adabiy til meʼzonlari boʻyicha muntazam seminar va treninglar tashkil etish; universitetlar, tahririyatlar va jurnalistika maktablari hamkorligida mahurat darslari, ustoz-shogird tizimini yoʻlga qoʻyish; ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi shaxslar ishtirokida adabiy til meʼyoriga rioya qilish, oʻzbek tilida toʻgʻri yozish va soʻzlashni targʻib qiluvchi videoroliklar tayyorlash; tilshunolar va jurnalistlar hamkorligida “OAV tili boʻyicha ilmiy-metodik qoʻllanmalar” yaratish; har yili “Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va nutq madaniyati” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyalar oʻtkazish va boshqalar. Bunday chora-tadbirlar orqali OAV tilini takomillashtirish, nutq madaniyatini oshirish va adabiy til nufuzini yanada yuksaltirish mumkin. Zero tilga eʼtibor - bu oʻzlikni anglash, ona tilini sevishtirish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga boy maʼnaviy meros qoldirish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mahmudov N. Nurmonov A Oʻzbek tili madaniyati va nutq odobi. – Toshkent 2012.
2. R.Rasulov, Q.Moʻyidinov Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati – Toshkent 2025.
3. Qodirova D. Nutq madaniyati va uslubshunoslik – Toshkent 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi mavqeini oshirish toʻgʻrisida qaror – 2020-yil, 21-oktabr.
5. Toʻychiyev A. Jurnalistik uslub va nutq madaniyati – Toshkent 2018.

O'ZBEK TILIDA YANGI SO'ZLAR (NEOLOGIZMLAR)NING PAYDO BO'LISHI VA QO'LLANILISHI

TO'LIBOYEVA GULDONA MAHMUD QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida yangi so'zlar – neologizmlarning paydo bo'lishi, ularning kelib chiqish sabablari va qo'llanish doiralari yoritilgan. Shuningdek, neologizmlarning til taraqqiyotidagi o'rni, shakllanish usullari va kundalik hayotimizdagi ahamiyati misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: neologizm, o'zbek tili, yangi so'z, til taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy o'zgarish, internet, axborot texnologiyalari.

Annotation. This article discusses the emergence of new words - neologisms in the Uzbek language, the reasons for their origin and scope of application. Also, the role of neologisms in language development, methods of formation and their significance in our everyday life are analyzed with examples.

Keywords: neologism, Uzbek language, new word, language development, socio-political change, Internet, information technologies.

Аннотация. В статье рассматривается появление новых слов – неологизмов в узбекском языке, причины их возникновения и сфера применения. Также на примерах анализируются роль неологизмов в развитии языка, способы их образования и их значение в повседневной жизни.

Ключевые слова: неологизм, узбекский язык, новое слово, развитие языка, общественно-политические изменения, Интернет, информационные технологии.

Til – xalqning ma'naviy boyligi, uning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining aksidir. Har qanday tilda ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fan yutuqlari, texnika rivoji bilan bog'liq holda yangidan-yangi so'zlar vujudga keladi. Bu hodisa neologizmlar deb ataladi. Neologizm (yunoncha neos – yangi, logos – so'z) – ma'lum bir davrda paydo bo'lgan, yangilikni ifodalovchi so'z va iboralardir. Bugungi kunda o'zbek tilida ham neologizmlarning shakllanishi va qo'llanishi faol davom etmoqda. Neologizmlar til boyishining muhim manbalaridan biridir. Ular yangi tushunchalarni ifodalash, davr ruhini aks ettirish va nutqni yangilashga xizmat qiladi. Har bir davr o'zining yangi so'zlarini yaratadi va ular keyinchalik lug'at tarkibida mustahkamlanib qoladi. Hozirgi davrda globalizatsiya, ilmiy-texnik inqilob, internet va axborot texnologiyalari tilimizga yangi tushuncha va terminlarni olib kirmoqda. Shu

bois neologizmlarning kelib chiqishi, qo'llanishi va til taraqqiyotidagi o'rni masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tilning doimiy ravishda boyib borishi – xalq tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Neologizmlar tilning lug'at boyligini kengaytiradi, yangi tushunchalarni ifodalaydi va davr ruhini aks ettiradi. Masalan, "internet", "onlayn", "mobilograf" kabi so'zlar bundan 30 yil oldin mavjud emas edi, hozir esa kundalik hayotimizda faol ishlatilmoqda. Ba'zi neologizmlar iste'molga tezda kirib keladi va keng qo'llaniladi, boshqalari esa vaqt o'tishi bilan eskiradi yoki boshqa so'z bilan almashtiriladi. Ularning tilga singib borish jarayoni xalq orasida qanday qabul qilinishiga bog'liq. Neologizmlarga misollar: Admin-tizimni, veb-saytni, jamoani yoki guruhni boshqaradigan yoki nazorat qiladigan, qarorlar qabul qiladigan va tartibni saqlaydigan shaxs. Feyk-haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki odamlarni haqiqiy deb o'ylash uchun yaratilgan soxta ma'lumot. Interfeys - texnik va programmalash vositalari majmui; hisoblash, boshqarish yoki o'lchash tizimlari (masalan, EHMning operativ va tashqi xotira qurilmasi) dagi turli funksional qurilmalarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Komment-izoh. Login-yashirin maxsus belgi. Layfhak - ba'zi jarayonlarni yaxshilashga yordam beradigan aqlli va oddiy yechim. Bu vaqtni, pulni tejashga yoki kundalik narsalarni yaxshilashga yordam beradigan maxfiy maslahatga o'xshaydi. Multilingvizm - ko'p tillilik. Oversayz - kiyimning moda uslubi bo'lib, unda kiyim qulay va bo'sh ko'rinishi uchun ataylab katta o'lchamda tikiladi. Podkast - internetda tinglash yoki tomosha qilish mumkin bo'lgan audio yoki video fayl. Odamlar turli mavzularda podkastlar yaratadilar va siz ularni radio shou kabi o'zingizga qulay vaqtda tinglashingiz mumkin. Bular yozib olingan radio dasturlari yoki video darslarga o'xshaydi, ularni o'zingizga qulay vaqtda tinglashingiz yoki tomosha qilishingiz mumkin. Repost - boshqa birovning ijtimoiy tarmoqdagi postini yoki xabarini do'stlaringiz yoki obunachilaringizga ko'rsatish uchun o'z sahifangizda baham ko'rish harakati. Registratsiya - ro'yxatga olish, qayd etish. Selfi - smartfon yoki boshqa qurilma kamerasi yordamida o'zining tashqi qiyofasi muhrlangan fotosurat. Taym-menejment - vaqtni tashkil qilish va vaqt bilan effektiv foydalanish texnologiyasi. Vaqtni boshqarish, ma'lum ishni bajarishda uning samaradorligini oshirish uchun ketgan vaqtni ongli nazorat qilish yo'li. Telegram - internet orqali xabarlar va fayllar almashish uchun dastur. O'zbek tilining lug'at tarkibi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi, xalqaro ilmiy va iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, quyidagi sohalarda neologizmlarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda:

Texnologiya va axborot kommunikatsiyalari: "sun'iy intellekt", "kriptovalyuta", "big data".

Iqtisodiyot va biznes: "brend", "startup", "frilans", "investor", "marketing".

Ijtimoiy va madaniy hayot: "blogger", "influencer", "streamer".

Ekologiya va fan: "yashil energiya", "barqaror rivojlanish", "biokilma-xillik".

Neologizmlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi turli omillarga bog'liq. Ayrim so'zlar tilga tezda singib ketadi, ba'zilar esa uzoq vaqt davomida moslashuv jarayonidan o'tadi. Masalan, "onlayn", "oflayn" so'zlari hozirgi kunda barcha yosh toifalari tomonidan ishlatiladi, ammo "raqamli transformatsiya" kabi ilmiy terminlar hanuz keng jamoatchilik uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar o'zbek tilining lug'at boyishini ta'minlovchi asosiy manbalardan biridir. Ular yangi tushunchalarni ifodalaydi, davr talablariga moslashishda xizmat qiladi va nutqni zamonaviylashtiradi. Shu bilan birga, yangi so'zlarni til me'yorlariga muvofiq qo'llash ham muhimdir. Ana shundagina o'zbek tili boy, sermazmun va jahon tillari orasida nufuzli til sifatida rivojlanishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.:200
2. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobitdinov S. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.
4. Internet manbalari: www.ziyouz.com

TILNING LEKSIK QATLAMLARI**MARJON TO'ILBOYEVAKUTTIBAYEVNA,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail: marjano'iboyevat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilning leksik qatlamlari, so'zlarning kelib chiqishi, ishlatilish sohasi va uslubiy jihatiga ko'ra asosiy lug'aviy fond, tarixiy so'zlar, neologizmlar, dialektizmlar, jargonlar va o'zlashma so'zlar kabi qatlamlari haqida so'z yuritiladi. Maqola o'zbek tilining leksik tarkibini chuqur anglash va to'g'ri so'z tanlash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: leksik qatlamlar, tarixiy so'zlar, o'zlashma so'zlar, o'zbek tili, leksikalogiya, lug'aviy fond.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексические слои языка, основной лексический фонд слов по происхождению, сфере употребления и стилистическому аспекту, исторические слова, неологизмы, диалектизмы, жаргоны и заимствования. Статья служит формированию навыков глубокого понимания лексического состава узбекского языка и правильного выбора слов.

Ключевые слова: лексические пласты, исторические слова, заимствования, узбекский язык, лексикология, лексический фонд.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi.

O'zbek xalqi qardosh bo'lmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada bo'ldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi.

O'zbekcha so'zlar. O'zbek tili sharoitida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar o'zbekcha so'zlar deyiladi. O'zbekcha so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida, o'z qonuniyatlari asosida yaratiladi.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olinma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid.

Tilshunoslikda leksik qatlamlar tilning so'z boyligini tashkil etuvchi, uning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jihatlariga bog'liq bo'lgan turli darajadagi so'zlar majmuasini anglatadi. Har bir til o'zining leksik qatlamlari orqali kommunikatsiya jarayonini amalga oshiradi. Tilning leksik qatlamlari bir-biriga bog'liq va dinamik bo'lib, ular tilning rivojlanishi va o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi. Leksik qatlamlar tilni aniq va chuqur tahlil qilishga imkon beradi va tilshunoslarga tilning ichki strukturasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Har bir til o'zining boy va rang-barang so'z boyligi bilan ajralib turadi. Tilshunoslikda ushbu so'z boyligi, ya'ni lug'at (leksika) o'zaro turli belgilarga ko'ra qatlamlarga ajratiladi. Bu qatlamlar tilning tarixiy rivoji, madaniy aloqalari, ijtimoiy tabaqalari hamda zamonaviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning leksik qatlamlarini o'rganish o'zbek tilining ichki tuzilishini chuqur anglashga yordam beradi.

Leksika (yun. lexis-so'zga oid, lug'aviy)-tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibidagi yangi so'zlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. 20-asrdan barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o'sib, taraqqiy etdi. O'zbek tili leksikasiga baynalmilal so'zlar keng ko'lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam, shuningdek, o'z qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar bor.[1:32].

O'zbek tili leksikasi zamonaviyligi jihatdan 3 asosiy qatlamga bo'linadi:

1) zamonaviy qatlam-eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar. Tilda faol qo'llanuvchi so'zlar zamonaviy qatlam so'zlaridir. Zamonaviy qatlam so'zlari lug'at boyligining asosini tashkil etadi.

2) **eski qatlam**-arxaizmlar hozirda bor narsa-hodisalarning, istorizmlar o'tmishdagi narsa-hodisalar atamasidir. Arxaizmning zamonaviy qatlama oid sinonimi bo'ladi. Istorizmning bunday sinonimi bo'lmaydi.

3) **yangi qatlam**-yangi leksika deb ham ataladi. O'zbek tili lug'at tarkibidagi eski va yangi so'zlar nafaol so'zlar deb, zamonaviy qatlam so'zlari esa faol so'zlar deb nomlanad. Lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi 1) chegaralanmagan so'zlar. Ma'nosi shu tilda so'zlovchilar uchun tushunarli va umumqo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar umumiste'moldagi chegaralanmagan leksika sanaladi; 2) ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar-til lug'at tarkibining ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibiga dialektal, terminalogik kasb-hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jargon va argonlar, vulgarizm va varvarizmlar kiradi. Lug'aviy birliklar nutq ko'rinishlari jihatdan adabiy va so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'ladi.

Asosiy lug'aviy fond (umumxalq tili so'zlari).

Asosiy lug'aviy fondi tilning eng qadimiy, keng tarqalgan va faol qo'llaniladigan so'zlarini o'z ichiga oladi. Bular kundalik hayotda ishlatiladigan, deyarli barcha odamlar uchun tushunarli bo'lgan so'zlardir.

Tarixiy so'zlar va arxaizmlar. Tarixiy so'zlar birzamonlar faol ishlatilgan, ammo hozirgi zamonda faqat tarixiy kontekstda uchraydigan so'zlardir. Arxaizmlar esa eski shakl yoki ma'noda bo'lgan, lekin hozirgi tilda yangisi bilan almashgan so'zlardir. [2: 83].

Neologizmlar. Neologizmlar-bu tilga yangi kirib kelgan yoki yangitdan yaratilgan so'zlar bo'lib, ilm fan, texnika, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keladi.

Dialektizmlar. Dialektizmlar-tilning ma'lum hududiy shevalarida ishlatiladigan, umumxalq tilida esa kamyob yoki ishlatilmaydigan so'zlardir.

Jargonlar va professionalizmlar. Jargonlar-ma'lum ijtimoiy guruhlar (yoshlar, harbiylar, jinoyatchilar) o'rtasida ishlatiladigan norasmiy so'zlar. Professionalizmlar esa muayyan kasb egalari tilida uchraydigan maxsus atamalardir.

O'zlashma so'zlar. O'zbek tiliga boshqa tillardan, asosan, arab, fors, rus, ingliz tillaridan o'zlashgan ko'plab so'zlar mavjud. Bu so'zlar ko'pincha tilning lug'aviy boyishini ta'minlaydi.

Leksik qatlamlarning ijtimoiy va madaniy roli

Leksik qatlamlar tilshunoslikda nafaqat tilning strukturasini, balki jamiyatni ham aks ettiradi. Har bir qatlam ijtimoiy guruhlar, millatlar, madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va madaniy almashuvning natijasidir. Misol uchun, xalqaro so'zlar (masalan, inglizcha "internet", "social media") tilning global rivojlanishiga va madaniy

integratsiyalashuviga bog'liq. Yana bir tomondan, dialektal yoki mahalliy so'zlar jamiyatning ijtimoiy hayotini va an'analari bilan bog'liq bo'lib, tilning chuqur, ko'p qatlamli tabiatini aks ettiradi.

Leksik qatlamlar va tilshunoslik

Leksik qatlamlar tilshunoslikda tilning rivojlanish jarayonlarini o'rganishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular tilning o'zgarishini, yangi so'zlar paydo bo'lishini va eski so'zlarning yo'qolishini tushunishga yordam beradi. Leksik qatlamlar yordamida tilshunslar tilning ijtimoiy va madaniy aspektlarini o'zgarishlarini va uning jamiyat bilan bog'liqligini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Tilning leksik qatlamlari tilshunoslikda muhim va keng qamrovli tushunchadir. Bu qatlamlar tilning tuzilishi, rivojlanishi va o'zgarishlarini aks ettiradi. Har bir qatlam tilning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jihatlarini ifodalaydi va tilshunslarga tilni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. Tilning leksik qatlamlarini tahlil qilish, nafaqat tilshunslarga, balki ijtimoiy va madaniy tadqiqotlarga ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilshunosligi masalalari. Toshkent: 2006 Fan. B-32.
2. Darveshov I. Areal tilshunoslik: janubi- g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari, Monografiya. Toshkent: Navro'z, 2019. 83-bet
3. G'ulomov, A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti. 1998.
4. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002

O 'RTA UMUMTA'LIMNING MAKTABLARINING TURLI BOSQICHLARIDA O 'QUVCHILARNING YOZMA NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

TOJIBAYEVA NIGORA MAMUTXON QIZI

Namangan Davlat Universiteti doktoranti

Tojibayevanigora047@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta umumta'lim maktablarining turli bosqichlarida o'quvchilarining yozma nutq malakalarini shakllantirish va ularda uchraydigan muammolar va ularning yechimiga qaratilgan tadqiqotlar va fikr-mulohazalarning ahamiyati va natijalari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'z: O'rta umumiy ta'lim, yozuv ko'nikmasi, metodlar, muammo va yechimlar. Yozuv turlari.

Abstract: In this article, you will gain information about the importance and results of research and considerations focused on the formation of students' writing skills at different stages of secondary general education schools, the problems encountered, and their solutions.

Key words: Secondary general education, writing skill, methods, problems and solutions. Types of writing.

Аннотация : В данной статье вы получите информацию о важности и результатах исследований и размышлений, направленных на формирование навыков письменной речи учащихся на различных этапах средних общеобразовательных школ, о возникающих проблемах и их решениях.

Ключевые слова: Среднее общее образование, навык письма, методы, проблемы и решения. Виды письма.

Kirish: Dunyodagi har bir tilni o'rganishda insonlar o'zlarida 4 ta ko'nikmani bir vaqting o'zida shakllantirishlari va o'zlashtirish zarur. Shundagina ular o'rganilayotgan tildan maqsadli foydalana oladilar. Ushbu ko'nikmalar: tinglab tushinish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini. Bulardan tinglab tushinish va o'qish moslashuvchan ya'ni axborot oluvchi qobiliyatlarimiz bo'lsa, gapirish va yozish aksi cha yaratuvchi ya'ni axborot beruvchi ko'nikmalarimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham gapirish va yozish ko'nikmalarida o'rganuvchi o'z fikr mulohazalarini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Va ushbu jarayonida fikrlar yig'indisi va so'zlar izchilligi asosiy ro'l o'ynagani uchun o'quvchilar ushbu ko'nikmalarni o'zlarida shakllantirish lari uchun ko'proq vaqt ketadi. Shuning uchun ham yozuv

ko'nikmasi shaxsni akademik rivojlanganligining eng so'nggi ko'rinishini ifodalaydi. Chunki biz o'z fikr-mulohazalarimizni ma'lum bir tizimlashgan belgilar asosida o'zimizning yozma ishimizda bayon qilamiz. Shunday ekan, har bir bola maktab ta'limi davrida bosqichma-bosqich yozuv malakalarini rivojlantirib boradi.

Metodologiya va Adabiyotlar tahlili. Agar biz bugungi kungacha yozuv malakalari to'g'risida qilingan tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, juda ko'plab olimlar bu borda ish olib borganlar va yozuv ko'nikmalarini maktab o'quvchilariga o'rgatishni turli davr va bosqichlarga ajratishgan. Ya. M. Kolker va E.S. Ustinovlar fikriga ko'ra, har bir bosqichida bolalar ma'lum bir yozuv ko'nikmasini o'zidan shakllantirgan bo'lishlari lozim. Masalan: kichik sinf o'quvchilari chet tilidagi alifbo harflarini yozish, matndan ko'chirib yozish hamda undan so'z, so'z birikmalari va oddiy gaplarni ajratib yozish, so'z, gap yoki matnni tiklash; namunaga asosan jadval to'ldirish; o'qituvchi diktovkasi asosida so'z va gaplarni yozib olish; matn yoki rasm asosida savollarga yozma javob berish; oddiy anketa to'ldirish (ism, familiya, yosh, sevimli fasl, sevimli taom, sevimli sport turi va boshqalar); namunaga tayangan holda Yangi yil, Rojdestvo, tug'ilgan kun munosabati bilan tabrik yozish; chet ellik do'stiga qisqa shaxsiy xat yozish (o'rganilayotgan mavzu doirasida), namunaga asosan konvertni to'g'ri rasmiylashtirish kabi ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim.

Ushbu bosqichda o'quvchilarda yozma nutqda eng oddiy kommunikativ vazifalarni amalga oshirish uchun zarur ko'nikmalar shakllanishi kerak. Mazkur ko'nikmalar davlat ta'lim standartida ham o'z aksini topgan.

O'qitishning keyingi bosqichida, ya'ni 5-9-sinflarda, yozma nutq ko'nikmalari asta-sekin murakkablashadi va bu bosqichda o'quvchilar quyidagi malakalarni egallaydilar: chet ellik do'stiga o'zi, oilasi, maktabi, shahri, qiziqishlari va mashg'ulotlari haqida ma'lumot bera olish; suhbatdoshidan shu haqda ma'lumot so'ray olish; gazeta yoki jurnalga yozma xabar/xat yozish va bunda til mamlakatida qabul qilingan me'yorlarga amal qilish; anketa yoki so'rovnomada shaxsiy ma'lumotlarni kiritish; matnni o'qib bo'lgach, keyingi nutqiy faoliyatda foydalanish uchun ishchi yozuvlar qilish (rejani tuzish, kalit so'zlarni, nutqiy qoliplarni yozib olish).

O'quvchilarning so'z boyligi ortadi, shuningdek, ular muloqot qila oladigan mavzular doirasi kengayadi. 9-sinf o'quvchisining yozma nutqni egallashga qo'yilgan talablari shundan iboratki, u chet ellik tengdoshiga o'rganilayotgan til etiketi me'yorlariga rioya qilgan holda shaxsiy xat yoza olishi kerak, shuningdek, bu xat ma'lum miqdordagi so'zlardan iborat bo'lishi lozim.

Maktab ta'limining so'nggi bosqichida (10-11-sinflar) o'quvchining yozma nutqi turli-tuman leksik birliklardan foydalanish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni

ajrata bilish, kerakli axborotni tanlash va topish, shuningdek, matnni mantiqan to'g'ri qurish bilan ajralib turadi. Nutq ancha savodli bo'ladi, gaplar kengaytirilgan bo'ladi. O'quvchi turli mavzularda suhbat qura oladi, ishchi yozuvlar olib boradi, reja tuza oladi. Eng muhimi shundaki, o'quvchi ancha mustaqil bo'lib qoladi.

Bu bosqichda o'quvchilarning yozma ishlari shaxsiy xatlar, jurnal yoki gazetaga xat, to'ldirilgan anketalar yoki so'rovnomalar, shuningdek, «tarafdor» va «qarshi» fikrlarni ifodalovchi insho, annotatsiya, loyiha ishi bo'lishi mumkin. Ular quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar: faktlar, hodisalar, voqealarni tasvirlay olish; axborot berish va uni so'ray olish; o'z fikrini ifodalay olish; voqealar va faktlarni izohlay olish hamda yozma ishda dalillash va hissiy-baholovchi til vositalaridan foydalanish; og'zaki chiqish uchun kengaytirilgan reja yoki tezislarni tuza olish; ikkilamchi matnlar (annotatsiya, referat) yarata olish; matnni o'qishda yoki nutqni tinglab qabul qilishda faktik axborotni qayd etish; o'z nutqiy faoliyatini tashkil etish uchun o'quv yozuvlari qila olish kabi ko'nikmalarini o'zidan shakllantiradi. Ya'ni M. Kolker va E.S. Ustinova fikriga ko'ra o'quvchilari maktabni boshlab to'rtinchi sinfgacha bo'lgan davrda shaxsiy va ish yuzasidan xat yozish; o'z haqidagi ma'lumotni qabul qilingan shaklda taqdim etish (avtobiografiya, rezyume, anketa, formulalar); o'qilgan (yoki tinglangan) chet tilidagi matn mazmunini tezis, referat, sharh shaklida bayon etish, o'qituvchi nutqining asosiy mazmunini qisqa qayd etish; loyihaviy-tadqiqot faoliyatida chet tilidagi yozma nutqdan foydalanish, turli manbalardan olingan zaruriy ma'lumotlarni qayd etish va umumlashtirish, tezis yoki kengaytirilgan reja tuzish, voqea-hodisalarni tasvirlash, ma'lumot berish va so'lash, shaxsiy fikrini ifodalash kabi hayotiy zarur ma'lumotlarni bema'lol yozma tarzda bayon qila olishi kerak.

Natijalar va Muhokama: Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, maktabiyoshidagi o'quvchilar o'z ona tilida hayotiy zarur ma'lumotlar jumladan, anketa, ma'lumotnoma, obyektivka, turli voqea-hodisalarga nisbatan fikr - mulohazalarini yozma ravishda aks ettira olishi yoki do'stlariga kundalik ishlari Hayot tarzi haqida xat yozma olish, ish uchun arizalar, annotatsiyalar yozish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Xulosa: Xulosa shundan iboratki har bir o'quvchi yoshligidanoq ma'lum bir chet tilida hayotiy ehtiyojga aylangan yozuv hujjatlarni yozishga ko'nikmasi hosil qilib borishlari lozim. Chunki bu ularning professional kasbiy hayotlaridagi faoliyatlarida ham ularga as qotadi. Ayniqsa bugungi rivojlanayotgan davrda yosh avlod ongida chet tilida ushbu sodda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish juda ham foydali va zaruriy ehtiyojdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Колкер Я.М., Устинова Е. С. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность, под редакцией А. А. Миролубова, М. :Титул. 2012.- 462 с.
2. Ильина Е. А. Методика развития Умений письменной Речи Учащихся На Основе Интернет - технологий Англиский Язык, средняя школа . Дисс. Канд. Пед. Наук. Москва - 2013. С. 18.
- 3.Пассов. Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному оговорению. - 2- изд. - Москва : Просвещение, 1991.-287 с.
- 4.Словова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс: Пособие для студентов педвузов и учителей. - Москва. : Просвещение, 2002. - 15 с.
- 5.Гальскова Н. Д. Гез Н. И. Тиория обучения иностранным языкам: лингводидактик а и методика. - Москва:Академия, 2008. - 133 с.
- 6.Heyland Ken, Second Language Writing. Cambridge: New York Cambridge University Press , 2003.

TIL TA'LIMIDA ORFOGRAFIK ME'YORLAR**TO'LIBOYEVA GULDONA MAHMUD QIZI,**

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

tojiboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada orfografik qoidalarining til madaniyati, yozma nutqdagi aniqlik va tushunarlik, savodxonlik darajasi hamda milliy til birligini ta'minlashdagi o'rni keng tahlil etilgan. Orfografik me'yorlar har bir so'z va gapni yagona shaklda yozish orqali o'quvchi bilan muallif o'rtasidagi aloqa samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, ta'lim, matbuot, hujjat yuritish va zamonaviy texnologiyalarda ushbu qoidalarga rioya qilish katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada, shuningdek, orfografiyaning madaniy merosni asrashdagi roli, shaxs savodxonligiga ta'siri va texnologik dasturlar bilan uyg'unligi haqida ham fikr yuritilgan. Bu orqali orfografik qoidalarining zamonaviy jamiyatda naqadar muhim ekani asosli misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: orfografiya, imlo qoidalari, yozma nutq, til madaniyati, savodxonlik, til birligi, to'g'ri yozish, madaniy meros, til me'yorlari.

Abstract. The article extensively analyzes the role of spelling rules in language culture, clarity and intelligibility in written speech, literacy level, and ensuring national language unity. Spelling rules increase the effectiveness of communication between the reader and the author by writing each word and sentence in a uniform form. Compliance with these rules is especially important in education, the press, document management, and modern technologies. The article also discusses the role of spelling in preserving cultural heritage, its impact on individual literacy, and its compatibility with technological programs. Through this, the importance of spelling rules in modern society is illustrated with well-founded examples.

Keywords: orthography, spelling rules, written speech, language culture, literacy, language unity, correct writing, cultural heritage, language norms.

Абстрактный. В статье подробно анализируется роль орфографических правил в обеспечении культуры языка, ясности и понятности письменной речи, уровня грамотности и языкового единства нации. Орфографические стандарты повышают эффективность общения между читателем и автором, гарантируя единообразное написание каждого слова и предложения. Соблюдение этих правил особенно важно в образовании, печати, документообороте и

современных технологиях. В статье также обсуждается роль орфографии в сохранении культурного наследия, ее влияние на индивидуальную грамотность и ее совместимость с технологическими приложениями. Это наглядно демонстрирует, насколько важны орфографические правила в современном обществе.

Ключевые слова: орфография, правила орфографии, письменная речь, культура языка, грамотность, единство языка, правильное письмо, культурное наследие, языковые нормы.

Har bir tilning boyligi va go'zalligi uning yozuv tizimi orqali namoyon bo'ladi. Tilda og'zaki nutq qanchalik muhim bo'lsa, yozma nutq ham shunchalik ahamiyatlidir. Yozma muloqotda so'zlarni to'g'ri yozish, ya'ni orfografiya, asosiy o'rin tutadi. Orfografik qoidalar yozma nutqni tartibga soladi, uni umumqabul qilingan va tushunarli shaklda ifodalaydi. Ushbu maqolada aynan shu qoidalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Orfografik qoidalar so'zlarni, tinish belgilarini, katta-kichik harflarni va boshqa yozuv elementlarini qanday yozishni belgilovchi me'yorlar tizimidir. Bu qoidalar til birligini ta'minlab, yozma nutqning tartibli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Yozuvdagi xatoliklar matnni tushunishni qiyinlashtiradi, axborotni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. To'g'ri yozish esa savodxonlik va madaniyat belgisi hisoblanadi. Yozuvchining e'tibori va tilga bo'lgan hurmati aynan orfografiyaga rioya qilishda namoyon bo'ladi.

Orfografik qoidalar milliy tilni yagona shaklda saqlashga yordam beradi. Har kim o'zicha yozadigan bo'lsa, til birligi buziladi va bu tushunmovchiliklarga olib keladi. Shu sababli, umumiy orfografik me'yorlar tilni me'yorlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Kompyuter dasturlari, matn muharrirlari, onlayn tarjimonlar va boshqa texnologik vositalar tilni tahlil qilishda orfografik qoidalarga tayangan holda ishlaydi. Shunday ekan, bu qoidalar texnik taraqqiyotda ham bevosita ishtirok etadi.

Orfografik qoidalar har bir so'zni, qo'shimchani va tinish belgisini qanday yozishni belgilab beradi. Bu esa yozma nutqning yagona, standart ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Agar bitta so'z har xil yozilsa (masalan: "kitobxon" o'rniga "kitobxan", "kitabxon" va h.k.), matnni tushunish qiyinlashadi. Shuning uchun orfografiya yozuvdagi tartib va aniqlikni kafolatlaydi.

To'g'ri yozilgan matn o'quvchi tomonidan oson va tez tushuniladi. Xatoliklar esa diqqatni chalg'itadi va mazmunni buzadi. Ayniqsa ilmiy, rasmiy yoki huquqiy

matnlarda har bir so'z aniq va to'g'ri yozilishi muhim, chunki noto'g'ri yozilgan bir harf yoki tinish belgisi butun gapning ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Orfografik qoidalarga amal qilish – bu savodli, madaniyatli shaxs sifatida shakllanishning bir belgisi. To'g'ri yozish odami haqida ijobiy taassurot uyg'otadi, ayniqsa maktab, oliygoh, ish joylarida bu ko'nikma juda qadrlanadi.

Bir millatning tilida yagona imlo va yozuv tizimi bo'lishi, uning madaniy birligiga xizmat qiladi. O'zbek tilining orfografik qoidalari tilning me'yorlashtirilgan, zamonga moslashgan shaklini saqlab qoladi. Bu esa yosh avlodga to'g'ri, izchil tilni o'rgatishda yordam beradi.

Zamonaviy dasturlar – matn muharrirlari, avtomatik tarjimonlar, grammatik tekshiruv tizimlari orfografik qoidalarga asoslanadi. Masalan, Microsoft Word yoki Google Docs'dagi imlo tekshiruvlar shu qoidalarga tayanadi. Shuning uchun texnologiyalarda to'g'ri ishlash uchun ham bu qoidalar zarur.

Ilmiy maqola, darslik, rasmiy xat, axborot xabari va gazeta maqolalarida orfografik xatolar ruxsat etilmaydi. Bu holat matnning sifatiga va jiddiyligiga ta'sir qiladi. Har bir yozuvchi, muallim, talabaga bu talab doimiy qo'yiladi.

Tilni o'rganayotganlar (xorijliklar yoki o'zbek tilida savod chiqarmaganlar) uchun orfografik qoidalar tilning yozuv tizimini o'rganishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Agar bu qoidalar bo'lmasa, tilni o'rganish jarayoni chalkash va qiyin bo'ladi.

Tilda to'g'ri yozish, ya'ni orfografiya, har qanday yozma muloqotning asosiy unsurlaridan biridir. Orfografik qoidalar – so'zlarni, qo'shimchalarni, imlo belgilari va bosh harflarni qanday yozishni belgilab beruvchi me'yorlar tizimidir. Ularning ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, tilning yagona va tushunarli shaklda qo'llanishini ta'minlaydi.

Birinchidan, orfografik qoidalar yozma nutqning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Agar har kim o'zicha yozsa, bir so'z turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin va bu o'quvchi uchun chalkashlik tug'diradi. Masalan, "yozmoq" fe'lini kimdir "yozmoq", boshqasi "yazmoq" deb yozsa, bu tushunmovchilikka olib keladi. Shu sababli, yagona imlo qoidalari har kim uchun tushunarli yozuv tizimini yaratadi.

Ikkinchidan, orfografik savodxonlik shaxsning madaniy saviyasi va bilim darajasini ko'rsatadi. To'g'ri yozish – bu nafaqat tilga hurmat, balki o'quvchiga hurmat ifodasidir. Yozuvda orfografik xatolarning ko'pligi matnni jiddiy qabul qilinmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, orfografik qoidalar til birligini saqlab turadi. Har bir til o'zining tarixiy shakllari, fonetik qonuniyatlari va yozuv an'alariga ega. Bu qoidalar orqali

milliy tilni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga sog'lom holatda yetkazish mumkin bo'ladi. Tilga xos imlo qoidalari uning o'ziga xosligini, milliy ruhini saqlab turadi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, avtomatik tahrir tizimlari (grammatik tekshiruv dasturlari) ham orfografik qoidalarga asoslanadi. Demak, orfografiya nafaqat insonlar o'rtasidagi aloqa, balki inson-kompyuter o'rtasidagi muloqotda ham muhim o'rin tutadi.

Xullas, orfografik qoidalar yozma nutq madaniyatining ajralmas qismidir. Ular tilni tartibga soladi, axborotni to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi, shaxs saviyasini belgilaydi va milliy birlikni mustahkamlaydi. Shu bois, har bir inson orfografik qoidalarga amal qilishi, ularni o'rganishi va atrofida qilarga o'rgatishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova Z. Yozma nutq va orfografik savodxonlik. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Jo'raev O. O'zbek tilining orfografiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. O'zbek tilining imlo lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
4. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). — Toshkent: Zamin nashr, 2021. -232 b.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013.

MATN ASOSIDA O'QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

TOSHEMIROVA GULYUZ SHAXOBIDDIN QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi

gulyuz9905@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida matn va uni o'rganish usullari, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish va kommunikativ savodxonligini ta'minlash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matn, savodxonlik, grammatika, xatboshi, so'z, ma'nodosh, ibora, gap, mazmun, shakl.

Аннотация: В статье говорится о тексте и методах его изучения на уроках родного языка, развитии творческого мышления учащихся путем работы над текстом, формировании речевых навыков учащегося в процессе расширения словарного запаса учащегося, обеспечении коммуникативной грамотность.

Ключевые слова: текст, грамотность, грамматика, абзац, слово, синоним, словосочетание, предложение, содержание, форма.

Abstract: The article talks about the text and its learning methods in the native language classes, the development of students' creative thinking by working on the text, the formation of the student's speaking skills in the process of expanding the student's vocabulary, and ensuring communicative literacy. .

Key words: text, literacy, grammar, paragraph, word, synonym, phrase, sentence, content, form.

Yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta'minlash vazifalarining Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Til shunday mo'tabar "ne'matki", u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan, tengi yo'q robitai olamiyondir. Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri - matn yaratishning samarali

texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahoratini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish) da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o'quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatai yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv - universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yishdan iborat. Demak, o'quvchi nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko'ra mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to'la bajarish - o'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalasi, ona tili ta'limida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya'ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o'rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Ona tilining yangi - yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib topirishga xizmat qiladi.

Agar o'quvchining so'z boyligi nochor, lug'at xazinasini qashshoq bo'lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. O'quvchiga matn va uning grammatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, xatboshi va murakkab sintaktik butunliklarni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tinish belgilari, grammatik bog'lamalar (olmoshlar, kirish so'z va gaplar, modal so'zlar) haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy - amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish - avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga - mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishi, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z "men"i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodiy - kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart - sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik - tanlovlar, lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab - quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimini, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zidagi intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni mustaqil matn yaratishga o'rgatishda quyida tavsiya qilinayotgan "O'quvchini matn yaratishga yo'naltiruvchi topshiriqlar" tizimidan foydalanish yaxshi samara beradi: berilgan so'zlar asosida, o'rganilgan mavzu asosida, sayohat taassurotlari bo'yicha, rasm yoki portretga qarab, berilgan so'z birikmalari asosida, berilgan sarlavha asosida, o'quv topshiriqlari asosida, maqol, matal yoki hikmatli so'zlar asosida matn yaratish.

"Ona tili" darsliklarida berilgan matnlar ikki guruhga ajratiladi: ta'limiy-ma'rifiy (ona tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta'riflar sharhiga oid matnlar bo'lib, nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qiladi) va ta'limiy-tarbiyaviy (bunday matnlar ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi).

Mustaqil matn yaratish jarayoni — belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir. Mustaqil matn - individual bilim, idrok va tafakkur mahsuli o'quvchining nutqiy kashfiyotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulahatova R. va b. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. Toshkent -2018.

2. Asqarova M. va b. O'zbek tili praktikumi. Toshkent - 2016.
3. Almamatov T. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Jizzax - 2019.
4. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. Toshkent - 2007.
5. G'ulomov A. va b. Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.

BIOLOGIYADA “MUAMMOLI O‘QITISH” METODINING SAMARADORLIGI

TO‘XTAMURODOVA GULCHEHRA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya fanida muammoli o‘qitish metodining samaradorligi tahlil qilinadi. Muammoli o‘qitishning ta’lim jarayonidagi roli, talabalar faoliyatiga ta’siri hamda ularning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqotda muammoli o‘qitish usullarining o‘quvchilar bilim darajasi va motivatsiyasiga ta’siri asoslangan. Shuningdek, muammoli o‘qitish metodining biologiya fanini o‘zlashtirishdagi samaradorligi, o‘quv jarayonini interfaol va qiziqarli qilishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: “Muammoli” o‘qitish, biologiya ta’limi, pedagogik metodlar, tanqidiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv motivatsiyasi, interaktiv metodlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘quvchilar faolligi.

Abstract: this article analyzes the effectiveness of the problem-based teaching method in biology. The role of problem-based teaching in the educational process, its impact on students' activities, and its importance in developing their critical and independent thinking skills are studied. The study is based on the impact of problem-based teaching methods on students' knowledge level and motivation. It also shows the effectiveness of the problem-based teaching method in mastering biology, its potential to make the learning process interactive and interesting. The article contains recommendations for the use of innovative approaches in pedagogical practice.

Keywords: "Problematic" teaching, biology education, pedagogical methods, critical thinking, practical exercises, learning motivation, interactive methods, innovative educational technologies, student activity.

Аннотация: в статье анализируется эффективность проблемного метода обучения биологии. Изучается роль проблемного метода обучения в образовательном процессе, его влияние на деятельность учащихся, а также его

значение в развитии навыков критического и самостоятельного мышления. В основе исследования лежит влияние проблемного метода обучения на уровень знаний и мотивацию учащихся. Показана эффективность проблемного метода обучения при освоении биологии, его потенциал для интерактивности и интересности процесса обучения. В статье даны рекомендации по использованию инновационных подходов в педагогической практике.

Ключевые слова: «Проблемное» обучение, биологическое образование, педагогические методы, критическое мышление, практические занятия, мотивация обучения, интерактивные методы, инновационные образовательные технологии, активность учащихся.

Muammoli ta'lim deb, o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi[1].

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar oldida aniq va mantiqiy yechim talab qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratiladi. Ushbu vaziyatlar o'quvchilarning faol mustaqil izlanishlari orqali hal etiladi, natijada ular o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy usulda chuqurlashtiradi hamda aqliy faoliyatini rivojlantiradi[2;3] Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarni bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va yangi axborotni sintez qilish jarayonlariga faol jalb etadi, bu esa ularning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi[4]. O'quvchilar ilgari egallagan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali bilimlarning mustahkamlanishi va kengayishi sodir bo'ladi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi[5]. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday o'rganish jarayonini faqat darsliklar yoki o'qituvchining bevosita ko'rsatmalari orqali emas, balki o'quvchilarning o'zlari muammoli vaziyatlarga duch kelib, ularni yechishga intilishlari orqali samarali shakllantirish mumkin[6].

O'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, aqliy faoliyat usullarini egallash, shuningdek, ilmiy, tanqidiy-tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammoli ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi asosiy omillarga bog'liq bo'ladi:

Muayyan mavzuga oid o'quv materialining muammoli vaziyatga aylantirilishi;

Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish;

Ta'lim jarayonini o'yin va amaliy mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;

O'qituvchining muammoli metodlardan o'z vaqtida va samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

Muammoli vaziyatni hal qilish uchun muammoli savollar zanjirini tuzish va ularni mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga taqdim etish.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida – yangi mavzuni tushuntirishda, mustahkamlashda va bilimlarni nazorat qilishda samarali foydalanish mumkin. To'g'ri tashkil etilgan muammoli vaziyatlarda darsni muammoli shaklda o'tkazish tavsiya etiladi.

Muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

O'quv dasturi doirasida qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tkazish mumkinligini aniqlash;

Mavzu doirasidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni belgilash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiy ketma-ketlik va izchillik tamoyillariga rioya etish;

O'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish va boshqarish uchun samarali vosita va usullarni aniqlash hamda ulardan oqilona foydalanish.

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, Muammoli ta'lim metodlari biologiya fanini o'qitishda talabalar faoliyatini faollashtirish, ularning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va yangi ma'lumotlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Shuningdek, muammoli ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustahkam bilimlar shakllanishiga, o'qituvchilarda esa pedagogik mahoratning oshishiga xizmat qiladi. Shu bois, biologiya darslarida muammoli o'qitish metodlarini tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 160 s.
2. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn and Bacon.

5. Bruner, J. S. (1961). The Act of Discovery. Harvard Educational Review, 31(1), 21-32.
6. Savinova, E. A. (2010). Problem-Based Learning in Higher Education. Moscow: Prosveshcheniye.

SIFAT SO'Z TURKUMI. SIFATNING O'ZIGA XOS MA'NOSI, MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI, SINTAKTIKVAZIFASI**TURSINBOYEVA DILNURA MANSUR QIZI****CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi****Ilmiy rahbar: Qurbonova Bonu Rustambek qizi**

Annotasiya. Ushbu maqolada sifat so'z turkumining o'zigaxosma'nosi, morfologik xususiyatlari hamda sintaktik vazifalari yoritilgan. Sifatlar narsaning belgi-xususiyatini, rangini, shaklini, miqdorini bildirishi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Morfologik jihatdan sifatlar darajalarga ajralishi, turli qo'shimchalar yordamida yasalishi va ma'nogako'raturlicha turlarga bo'linishi izohlanadi. Sintaktik vazifasi jihatidan sifatlar asosan aniqlovchi bo'lib keladi, shuningdek, kesim vazifasida ham ishlatilishi mumkin. Ushbu mavzu sifatning nutqdagi qo'llanish imkoniyatlarini ochib berish, uning tilshunoslikdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sifat, morfologik xususiyat, sintaktik vazifa

Annotation. This article discusses the specific meaning, morphological features, and syntactic functions of adjectives as a part of speech. Adjectives differ from other word classes in that they express the qualities, properties, color, shape, or quantity of an object. From a morphological perspective, adjectives can form degrees of comparison, be derived through various suffixes, and be classified into different semantic groups. In terms of syntax, adjectives mainly function as attributes, but they may also serve as predicates. The topic helps to reveal the usage of adjectives in speech and highlight the role in linguistics.

Keywords: adjective, morphological feature, syntactic function

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности значения, морфологические особенности и синтаксические функции класса прилагательных. Прилагательные отличаются от других классов слов выражением признака, цвета, формы и количества предмета. Морфологически прилагательные делятся на степени, образуются с помощью различных суффиксов и делятся на типы по значению. В синтаксическом отношении прилагательные являются преимущественно детерминантами, а также могут использоваться в качестве причастий. Данная тема призвана раскрыть возможности использования прилагательных в речи и определить их место в лингвистике.

Ключевые слова: прилагательное, морфологический признак, синтаксическая функция

Tilshunoslikda soʻz turkumlari alohida ahamiyatga ega boʻlib, ular nutqning maʼno va tuzilishini belgilashda muhim oʻrin tutadi. Shulardan biri -sifatsoʻz turkumi boʻlib, u narsaning belgi-xususiyatini ifodalashda xizmat qiladi. Sifatlar predmetning rangi, shakli, hajmi, miqdori, ichki va tashqi belgilarini bildiradi. Ularning qoʻllanishi nutqni yanada boyitadi, taʼsirchanlik va ifodalilikni oshiradi. Sifatlarning oʻziga xos morfologik xususiyatlari ularni boshqa soʻz turkumlaridan farqlaydi: darajalarga ega boʻlishi, yasaliishi va semantik guruhlarga boʻlinishi shular jumlasidandir. Shuningdek, sifatlarning sintaktik vazifalari ham til tizimida muhimahamiya tkaab etadi. Ular asosan aniqlovchi sifatida qoʻllanadi, baʼzan esa kesim vazifasida ham kelishi mumkin. Shu sababli sifat soʻz turkumini oʻrganish, uning nazariy asoslarini va amaliy qoʻllanishini tahlil qilish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlangʻich sinfda sifat soʻz turkumini oʻrganish oddiy tushunchalardan boshlanadi. Oʻquvchilarga avvalo sifatning taʼrifi beriladi: “Sifat -predmetning belgisini bildiradigan soʻz”. Buni oʻqituvchi sodda misollar bilan tushuntiradi: qizil olma, katta uy, shirin non. Shu orqali oʻquvchilar predmet bilan uning belgisi oʻrtasidagi bogʻlanishni tushunib oladilar. Keyingi bosqichda sifatlarning guruhlari tanishtiriladi. Rang bildiruvchi (oq, yashil, qora), shakl bildiruvchi (dumaloq, uzun, baland), taʼm va hid bildiruvchi (shirin, achchiq, yoqimli), miqdoriy belgilar (katta, kichik, koʻp) misollar orqali tushuntiriladi. Oʻquvchilarturli narsalarni taqqoslash orqali belgilarni farqlashni oʻrganadilar. Metodik yondashuvda oʻquvchilarning faol ishtiroki taʼminlanadi. Oddiy qoidalar yodlashdankora, sifatlarni nutqda qoʻllash mashqlari muhim oʻrintutadi. Masalan: “Doʻstingizni uchta sifat bilan tasvirlang”, “Bahor faslini sifatlar yordamida ifodalang”, “Uyda bor narsalarni sifatlar bilanayting”. Bunday topshiriqlar oʻquvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Sifatlarni oʻrgatishda oʻyin metodlari samarali natija beradi. Masalan, “Qaysi predmet?” oʻyinida oʻqituvchi sifatni aytadi, oʻquvchilar unga mos predmetni topadilar. Aksincha, predmet nomi aytilsa, ungamossifatlar topiladi. Bunday jarayonlarda oʻquvchilar tez fikrlash va mantiqiy bogʻlanishlarni anglashga oʻrganadilar. Bundan tashqari, sifatlarning maʼnodosh va zid maʼnoli juftliklarini oʻrganish ham muhim: katta-kichik, uzun-qisqa, shirin-achchiq. Bu mashqlar lugʻat boyligini oshiradi. Nutq oʻstirish mashqlarida esa sifatlar asosiy tayanch sifatida qoʻllanadi. Masalan, matn yozish topshirigʻida oʻquvchilar predmetni bir nechta sifatlar yordamida tasvirlashga oʻrgatiladi. Metodik jihatdan izchillik, koʻrgazmalilik, mashqlar bilan mustahkamlash va ijodiy topshiriqlardan foydalanish muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sifatlarning grammatik belgilarini chuqur o'rganmaydi, balki ularning ma'nosini anglab, nutqda to'g'ri ishlatishga o'rgatiladi

Sifat so'z turkumini o'qitish boshlang'ich ta'limda o'quvchilar nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish va tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan metodlar — ko'rgazmalilik, o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, savoljavoblar — o'quvchilarni sifatlarni tez vasamarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi jarayonni faqat qoidani yodlash emas, balki sifatlarni amalda qo'llashga yo'naltirsa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi aniq, obrazli va ta'sirchan bo'lib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma'rupova, Zarina & Shokirova, Madina. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitish metodikasi
2. Madraximova, M. M. qizi & Hamrayev, M. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitish.
3. Functional-Semantic Features of Adjectives in Uzbek and English. International Journal of Scientific Trends,
4. A Comparative Study of Expanding and Narrowing Meanings of Adjectives in English and Uzbek Languages. Shamiyeva, Nargiza. O'zMU
5. The Comparative Analysis of the Adjectives in Present Day English and Uzbek Languages. Mirzayeva, Nargis & Aziz Mukhamadiev
6. Similarities and Differences of Degree of Adjective in English and Uzbek Languages. Bozorboyeva, Madinabonu & Aziz Mukhamadiev
7. Forms of Comparative Degree of Adjectives in Uzbek and Russian. Dustmamatova, Nilufar Pirimkulovna.
8. Sifat So'z Turkumi: O'qitish Metodi. Kuvatova, Nafisa. O'zbekiston Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali,
9. Comparative Analysis of Adjectives in English and Uzbek Languages. Ikboljon Axmedov.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SHAKLLANTIRISH

DILSEVAR TURSUNOVA RUSTAM QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 24/4-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Ziyadullayeva Dilafro'z Narzullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan. Ona tili fanining ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'qituvchining metodik mahorati, fanlararo integratsiya imkoniyatlari va dars samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqola boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy hamda amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ona tili, dars jarayoni, metodika, o'quvchi nutqi, savodxonlik, lingvodidaktika, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati, kommunikativ yondashuv.

Annotation: This article explores the scientific and methodological foundations for effectively organizing native language lessons in primary school. It analyzes the role of the native language subject in the educational process, its impact on developing students' literacy, fostering independent thinking, and enhancing speech culture. The article also examines the use of modern pedagogical technologies in lesson planning, the methodological skills of teachers, opportunities for interdisciplinary integration, and ways to improve lesson effectiveness. It provides both theoretical and practical recommendations aimed at improving the quality of primary education.

Keywords: primary education, native language, lesson process, methodology, student speech, literacy, linguodidactics, innovative technologies, quality of education, communicative approach.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-методические основы эффективной организации уроков родного языка в начальных классах. Анализируется роль предмета родного языка в образовательном процессе, его значение в формировании грамотности учащихся, развитии их самостоятельного мышления и культуры речи. Также рассматриваются возможности использования современных педагогических технологий, методическое

мастерство учителя, межпредметная интеграция и пути повышения эффективности уроков. Статья содержит теоретические и практические рекомендации, направленные на повышение качества начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, учебный процесс, методика, речь учащегося, грамотность, лингводидактика, инновационные технологии, качество образования, коммуникативный подход.

Ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri — boshlang'ich ta'limdir. Aynan shu bosqichda bola ilk bor bilim olishning metodik asoslari bilan tanishadi, o'qish va yozishga o'rganadi, til va tafakkur dunyosi shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish esa nafaqat o'quvchining lingvistik bilimlarini, balki uning mantiqiy tafakkurini, nutqiy madaniyatini, ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi rivojlantiradi.

Ona tili – milliy tafakkur, xalqning ma'naviy qadriyatlari, madaniyati va milliy o'zligining asosi hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ona tili darslariga ilmiy-metodik yondashuv, darslarni samarali tashkil etish va o'quvchilarda mustahkam bilim ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Ona tili har bir insonning fikrlashi, dunyoqarashi, milliy o'zligini anglashida asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tilga bo'lgan munosabat, nutq madaniyati va savodxonlikni shakllantirishda ona tili darslari katta ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu darslarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish ta'lim sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1. Ona tili darslarining maqsadi va vazifalari

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining asosiy maqsadi – o'quvchilarga savod o'rgatish, ular ongida til tizimi haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishdan iborat. Darslar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Tilni to'g'ri, aniq va ravon o'rgatish.
- Yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish.
- Til madaniyatini va nutq madaniyatini rivojlantirish.
- Til orqali muloqot madaniyatini o'rgatish.
- Bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va madaniyatga hurmatni uyg'otish.:
- Tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o'rgatish.
- Nutq madaniyati va etiketi qoidalarini shakllantirish.
- Adabiy matnlarni o'qish va tushunishga o'rgatish.

1. tovush va harflarni farqlash;so'z va gap tuzilishini anglash;

2. imlo va tinish belgilari bilan tanishish;
3. og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ifoda qilishni o'rgatish.

2. Metodik yondashuvlar

Ona tili darslarini tashkil qilishda quyidagi metodlardan foydalanish muhim:

Ko'rgazmali metodlar: Suratlar, diagrammalar, taxtalar, o'yinchoqlar, multimediali materiallar;

Interfaol metodlar: Savol-javob, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda muhokamalar, loyihalar; Differensial yondashuv: Har bir o'quvchining qobiliyatiga moslashtirilgan darslar;

Ijodiy vazifalar: Hikoya, she'r yozish, tasviriy san'at bilan bog'liq mashqlar;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Elektron darsliklar, interaktiv doskalar.

Ko'rgazmali metod – yozuv taxtasi, rasmlı materiallar, didaktik vositalar orqali tushunchalarni aniqlashtirish;

Interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Fikrlar charxi", "Savol-javob", "Rolli o'yinlar" o'quvchilarni faollikka undaydi;

Loyihaviy ishlar – mavzuga oid kichik guruhli topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

3. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash

Zamonaviy darslarda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Misol uchun, interaktiv doska, elektron darsliklar, multimediali materiallar orqali darsni qiziqarli va esda qolarli qilish mumkin.

4. Nutq madaniyatini shakllantirish

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqda adabiy normalarga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Buning uchun ertaklar, hikoyalar, topishmoqlar, maqollar asosida mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Metodologiya

1. Ona tili darslarining nazariy-metodik asoslari

Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarining asosiy maqsadi – o'quvchilarda tilga bo'lgan hurmatni shakllantirish, to'g'ri, ravon va ongli o'qish hamda yozish malakasini rivojlantirishdir. Tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

- Nutqiy kompetensiya – og‘zaki va yozma nutqda fikrni to‘liq ifodalash, Madaniy kompetensiya – ona tilining milliy qadriyat sifatidagi o‘rnini anglash, badiiy matnlar orqali estetik didni shakllantirish.

Ona tili darslarida o‘quvchining shaxsiy faoliyati markazda bo‘lishi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘lboshchi, tashkilotchi va nazoratchi sifatida ishtirok etadi.

2. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishdagi metodik yondashuvlar.

- Ijodiy yondashuv. O‘quvchilarning mustaqil matn tuzishi, hikoya va insholar yozishi ijodkorlikni rivojlantiradi.

3. Ona tili darslarini shakllantirishdagi muammolar va ularning yechimlari

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etishda qator muammolar uchraydi:

- O‘quvchilarning nutqiy faolligi pastligi.
- Imlo qoidalarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar.
- O‘qituvchilarning darsda innovatsion texnologiyalardan yetarlicha foydalanmasligi.
- O‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishining sustligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun interfaol metodlardan keng foydalanish, AKT vositalarini (multimedia, elektron darsliklar) joriy etish, darsni qiziqarli mashg‘ulotlar va nutqiy o‘yinlar bilan boyitish, o‘quvchilarni mustaqil kitobxonlik faoliyatiga yo‘naltirish zarur.

4. Ona tili darslarida o‘qituvchining roli

O‘qituvchi — boshlang‘ich ta’limning bosh ijodkori. Uning pedagogik mahorati, nutqiy savodxonligi va metodik yondashuvi darsning samaradorligini belgilaydi. O‘qituvchi darsni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

- darsni aniq maqsad asosida rejalashtirish;
- har bir mavzu uchun metod va uslublarni to‘g‘ri tanlash;
- o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;
- tarbiyaviy jihatni nazardan qochirmaslik.

5. Ona tili darslarida fanlararo integratsiya

Boshlang‘ich sinfda ona tili darslari boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi kerak. Masalan:

- Tabiatshunoslik darslarida o‘rganilgan mavzular asosida hikoya yozish.
- Tasviriy san’at darsida chizilgan rasm asosida matn tuzish.
- O‘qish darsida matnni o‘qib tushunish va qayta hikoya qilish.

Bu usul o‘quvchining til bilimlarini mustahkamlash bilan birga, tafakkurini ham kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini shakllantirish ilmiy-metodik asosga tayanishi, o'qituvchi faoliyati esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashishi zarur. Ona tili darslari o'quvchilarning lingvistik bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ularning dunyoqarashi, tafakkuri va ma'naviy kamolotini yuksaltirishga va shakllantirishga katta yordam beradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi – dars jarayonini shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchida tilga muhabbat, nutqqa mas'uliyat, kitobga qiziqish va milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otishdir. Bu esa kelajakda barkamol, mustaqil fikrlovchi va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. [1: 10]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Tursunova M., Rasulova G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
4. Karimova D. Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
5. Jabborova N. Boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish. // Pedagogik mahorat jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–48.
6. Qurbonova D., Shodmonova G. Zamonaviy dars va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: AYRIS-press, 2021. (Tarjimasi)

TILSHUNOSLIKNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI VA INTEGRATIV YONDASHUV

TUYCHIYEV SAHZOD NORQIZIL O'G'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

tuychiyevshahzod65@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi va integrativ yondashuvlarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritiladi. Til ijtimoiy hodisa sifatida inson tafakkuri, psixologiyasi, jamiyat taraqqiyoti, madaniyati hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois tilshunoslikning psixologiya, falsafa, pedagogika, madaniyatshunoslik, informatika kabi fanlar bilan integratsiyasi alohida ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi. Maqolada kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar misolida fanlararo integratsiyaning samaralari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va lingvistik korpuslar asosida olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslab beriladi. Jumladan, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan hamkorligi zamonaviy ilm-fanning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi, uning nazariy va amaliy jihatdan beqiyos ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Kalit sózlar: tilshunoslik, integratsiya, fanlararo yondashuv, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, tafakkur, jamiyat, madaniyat, informatika, sun'iy intellekt, lingvistik korpus, nutq jarayoni, zamonaviy lingvistika

Annotation. This article highlights the interconnection of linguistics with other sciences and the scientific as well as practical significance of integrative approaches. Language, as a social phenomenon, is closely related to human thinking, psychology, social development, culture, and scientific-technical progress. Therefore, the integration of linguistics with such fields as psychology, philosophy, pedagogy, cultural studies, and informatics possesses particular scientific and methodological importance. The article analyzes the outcomes of interdisciplinary integration through examples from cognitive linguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, and linguoculturology. Furthermore, the relevance of research conducted on the basis of artificial intelligence, information technologies, and linguistic corpora is substantiated. It is emphasized that the cooperation of linguistics with other sciences is one of the key directions of modern science and has exceptional theoretical and practical significance.

Keywords: linguistics, integration, interdisciplinary approach, cognitive linguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, linguoculturology, thinking, society, culture, informatics, artificial intelligence, linguistic corpus, speech process, modern linguistics.

Аннотация. В данной статье освещается взаимосвязь лингвистики с другими науками, а также научное и практическое значение интегративных подходов. Язык как социальное явление тесно связан с человеческим мышлением, психологией, развитием общества, культурой и научно-техническим прогрессом. Поэтому интеграция лингвистики с такими науками, как психология, философия, педагогика, культурология и информатика, обладает особым научно-методологическим значением. В статье анализируются результаты междисциплинарной интеграции на примере когнитивной лингвистики, психолингвистики, социолингвистики и лингвокультурологии. Кроме того, обосновывается актуальность исследований, проводимых на основе искусственного интеллекта, информационных технологий и лингвистических корпусов. Подчеркивается, что взаимодействие лингвистики с другими науками является одним из важнейших направлений современной науки и имеет исключительное теоретическое и практическое значение.

Ключевые слова: лингвистика, интеграция, междисциплинарный подход, когнитивная лингвистика, психолингвистика, социолингвистика, лингвокультурология, мышление, общество, культура, информатика, искусственный интеллект, лингвистический корпус, речевой процесс, современная лингвистика.

Tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tilni nafaqat ichki tizim sifatida, balki jamiyat, madaniyat, tafakkur va shaxs psixologiyasi bilan aloqador holda o'rganadi. Til – insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisasi sifatida bir qator fanlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. Shu sababli tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tilshunoslik va psixologiya o'rtasidagi aloqadorlik psixolingvistika yo'nalishining shakllanishiga sabab bo'ldi. Psixolingvistika nutq jarayonining psixik mexanizmlarini, bolaning nutqiy rivojlanishini, tilning ongda qay tarzda shakllanishini o'rganadi. Bu yo'nalish maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikning falsafa bilan aloqasi til va tafakkur munosabatini chuqur tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Falsafiy yondashuv tilning ijtimoiy mohiyatini, bilish jarayonidagi o'rnini ochib beradi. Shu

boisdan ham tilshunoslikdagi semasiologiya va kognitiv lingvistika falsafiy qarashlar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda. Tilshunoslikning jamiyatshunoslik fanlari bilan aloqasi sotsiolingvistika yo'nalishida o'z ifodasini topadi. Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi uzviy munosabatlarni, ijtimoiy guruhlar nutqidagi tafovutlarni hamda til siyosati masalalarini o'rganadi. Masalan, dialektologiya, lahjashunoslik, tilning mintaqaviy va ijtimoiy qatlamlarga bo'linishi sotsiolingvistik izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq hodisalar bo'lib, bu aloqadorlik lingvokulturologiya sohasida keng o'rganilmoqda. Har bir xalqning madaniyati, qadriyatlari va milliy dunyoqarashi uning tilida aks etadi. Shu jihatdan qaralganda, tilshunoslik faqat lingvistik birliklarni emas, balki milliy-madaniy konnotatsiyalarni ham tadqiq etadi. XXI asrda tilshunoslikning informatika va texnologiya bilan integratsiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistika, mashina tarjimasini, sun'iy intellekt asosida ishlovchi lingvistik dasturlar tilshunoslikning amaliy qo'llanilishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa integrativ yondashuvlarning kelajakda yanada chuqurlashishini ko'rsatadi. Tilshunoslik boshqa fanlar bilan hamkorlikda rivojlanishi natijasida o'z tadqiqot obyekti kengaytirib bormoqda. Integrativ yondashuvlar nafaqat tilni chuqurroq o'rganishga, balki uning inson tafakkuri, jamiyat, madaniyat va texnologiyalar bilan o'zaro aloqasini aniqlashga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, zamonaviy tilshunoslikni faqat ichki tizim doirasida emas, balki keng qamrovli fanlararo integratsiya asosida tahlil qilish bugungi kunning muhim talabi hisoblanadi. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integrativ aloqasi bugungi globallashuv jarayonida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ilmiy izlanishlarda tilshunoslik mustaqil fan sifatida emas, balki boshqa sohalar bilan bevosita aloqador holda rivojlanayotgani ko'zga tashlanadi. Xususan, antropologiya, etnografiya va tarix fanlari bilan hamkorlik tilshunoslikka o'ziga xos yondashuvlarni olib kirdi. Chunki har bir xalqning tili uning tarixi, urf-odatlarini, turmush tarzini o'zida mujassamlashtiradi. Shu boisdan lingvistik tadqiqotlar etnolingvistika yo'nalishini shakllantirib, xalq madaniyati va til o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda o'rganish imkonini bermoqda. Shuningdek, pedagogika bilan tilshunoslikning uzviy bog'liqligi ham alohida ta'kidlashga arziydi. Ta'lim jarayonida ona tilini o'qitish metodikasini ilmiy asoslashda tilshunoslikning nazariy qoidalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olimlar yaratgan grammatik tizim, fonetik va morfologik qonuniyatlar boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish, nutq madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi ham bugungi davrda dolzarb yo'nalishlardan biridir. Lingvistik ekspertiza, sud nutqini tahlil qilish,

shuningdek, hujjat tilini standartlashtirish kabi amaliy masalalar tilshunoslikning yuridik fanlar bilan integratsiyasidan dalolat beradi. Bu soha forensik lingvistika deb atalib, tilshunoslikning yangi va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bundan tashqari, tilshunoslikning siyosatshunoslik bilan aloqasi ham sezilarli. Til siyosati, davlat tili maqomi, tilni rivojlantirish dasturlari kabi masalalar bugungi kunda har bir mamlakatda milliy o'zlikni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Masalan, O'zbekistonda davlat tilining huquqiy asoslari, tilni rivojlantirish strategiyalari lingvistik tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Integrativ yondashuvlarning samarasi shundaki, u tilshunoslikni tor doiradan chiqarib, uni fanlararo tadqiqotlarning markaziga aylantiradi. Natijada tilshunoslik nafaqat nazariy masalalarni hal qiladi, balki jamiyat hayotidagi amaliy muammolarning yechimini ham topishga xizmat qiladi. Masalan, kommunikativ lingvistika orqali xalqaro muloqotda tilning ahamiyatini, tarjimashunoslik orqali madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda tilshunoslikning tibbiyot bilan integratsiyasi ham kuzatilmoqda. Logopediya, neyrolingvistika kabi sohalar tilning miya faoliyati, nutq buzilishlarini davolash hamda inson salomatligi bilan bog'liq masalalarni yoritadi. Bu esa tilshunoslikning ijtimoiy foydali ahamiyatini yanada oshiradi. Shunday qilib, tilshunoslik boshqa fanlar bilan bevosita aloqada bo'lgani sayin, uning ilmiy qamrovi kengayib, amaliy samaradorligi ortib bormoqda. Kelajakda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan tilshunoslikning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi, mavjud integratsiya yanada rivojlanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abduazizov A.A. (2007). O'zbek tilshunosligiga kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universitet nashriyoti
2. cspu.uz
3. Jo'rayev M. (2015). Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi
4. Хожиев А. (2010). Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti.

FE'L SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM YONDASHUVLARINING AHMIYATI

TUYG'UNOVA SARVINOZ

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
II-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Qurbonova Bonu Rustam qizi**

Annotatsiya: Fe'l so'z turkumini o'qitishda integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlari o'quvchilarga tilni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqolada fe'lni o'rgatishda fanlararo bog'lanish, kreativ va innovatsion metodlar, shuningdek interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning faolligi va tilga bo'lgan qiziqishi oshirilishi ta'kidlangan. Integratsiyalashgan yondashuvlar o'quvchilarning til o'rganish jarayonini samarali qiladi.

Kalit so'zlar: Fe'l, So'z turkumi, Integratsiyalashgan ta'lim, Fanlararo bog'lanish, Kreativ yondashuv, Innovatsion metodlar, Interfaol ta'lim, Til o'rganish.

Аннотация: Методы интегрированного обучения в преподавании глагольной части речи помогают учащимся глубже усваивать язык. В данной статье рассматриваются методы интеграции межпредметных связей, креативные и инновационные подходы, а также интерактивные методы, которые способствуют повышению активности учащихся и их интереса к языку. Интегрированные подходы делают процесс обучения более эффективным.

Ключевые слова: Глагол, Части речи, Интегрированное обучение, Межпредметные связи, Креативный подход, Инновационные методы, Интерактивное обучение, Изучение языка.

Abstract: Integrated teaching approaches in the instruction of verbs help students gain a deeper understanding of the language. This article discusses the integration of cross-curricular links, creative and innovative methods, as well as interactive approaches that increase student engagement and interest in language. Integrated methods make the learning process more effective.

Keywords: Verb, Parts of speech, Integrated teaching, Cross-curricular links, Creative approach, Innovative methods, Interactive teaching, Language learning.

O'zbek tilining asosiy so'z turkumlaridan biri bo'lgan fe'l, tilni o'rganishda va o'quvchilarga tilshunoslik asoslarini o'rgatishda katta ahamiyatga ega. Fe'lni o'rganishda eng samarali usullardan biri integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlaridir.

Bu yondashuv orqali o'quvchilarga fe'lning grammatik, semantik, va sintaktik xususiyatlarini o'rgatishning yangi usullari mavjud. O'qish savodxonligi darslari va ona tili o'qitish jarayonida fe'lni o'rganish, o'quvchilarning tilni o'zlashtirishga qiziqishini oshiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijodiy salohiyatini kuchaytiradi.

Fe'lni o'rgatish jarayonida integratsiyalashgan yondashuvlar o'quvchilarga tilni amaliyotda qo'llash, o'rganilgan bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lash imkonini beradi. Bu yondashuvlar yordamida o'quvchilar faqat fe'lni o'rganmaydilar, balki boshqa fanlarni ham o'rganish jarayonida fe'lni qanday qo'llashni tushunadilar. Shu sababli, fe'lni o'rganishda integratsiyalashgan ta'lim metodlari o'quvchilarning barcha bilim sohalarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

1. Fe'l so'z turkumining o'qitilishdagi integratsiya yondashuvi

Fe'l so'z turkumi, o'zining ko'plab shakllari va turlariga ega bo'lgani uchun, uni o'rganish nafaqat grammatik o'rganish, balki tilning amaliy va ijodiy jihatlarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning tilni o'rganishdagi faoliyatini faollashtiradi, shuningdek, ular uchun yanada mazmunli va qiziqarli darslarni tashkil etadi. Fe'lni o'rganishda integratsiyalashgan yondashuvlarning ba'zi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Fanlararo Integratsiya

Fe'lni o'rganish jarayonida fanlararo bog'lanishni o'rnatish, o'quvchilarga nafaqat fe'lni o'rganishga, balki uni boshqa fanlar bilan bog'lashga imkon beradi. Masalan, geometriya yoki matematika darslarida fe'lni to'g'ri qo'llash, o'quvchilarga dars materialini to'g'ri tushunish va amaliyotda qo'llashda yordam beradi. Fe'lni o'rganishda boshqa fanlar bilan bog'lanish o'quvchilarda ilmiy fikrlashni rivojlantiradi va ularga bilimlarni birlashtirishni o'rgatadi. Fe'lni ta'riflovchi jumlar orqali o'quvchilarga abstrakt va konkret tushunchalarni birlashtirishga yordam beradi.

2. Innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalar

Fe'lni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish juda samarali. Bu metodlar o'quvchilarni faollashtiradi va ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, internet resurslari va raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga interaktiv mashqlar, video materiallar va audio materiallar taqdim etiladi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni darsning mazmuni bilan yanada chuqurroq tanishtiradi. O'quvchilarga fe'lni turli ko'rinishlarda qo'llash imkonini beradi va darsni nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Kreativ Yondashuvlar Orqali O'rgatish

Fe'lni o'rgatishda kreativ yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularni ijodiy fikrlashga va yangi g'oyalarni yaratishga undaydi. Fe'lni o'rgatishda kreativ metodlardan foydalanish o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, o'zlariga xos tarzda nutq qurishga o'rgatadi. Bunda adabiyot, san'at, va boshqa fanlardan olingan misollar orqali o'quvchilarga fe'lni turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda ishlatishni o'rgatish mumkin.

Fe'lni o'rgatishda integratsiyalashgan ta'limning samaradorligi integratsiyalashgan ta'lim metodlarining samaradorligi o'quvchilarda tilni o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarga fe'lni o'rganishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Tilni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi

Fe'lni o'rgatishda integratsiyalashgan ta'lim metodlari o'quvchilarga tilni to'g'ri qo'llashda yordam beradi. O'quvchilar turli vaziyatlarda va kontekstlarda fe'lni ishlatishni o'rganadilar. Bu esa ularning nutqini boyitadi, nutqni to'g'ri tuzish va mantiqiy ifodalarni o'rganishda samarali vosita bo'ladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Fe'lni o'rgatishda kreativ metodlar va ijodiy yondashuvlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z tasavvurlarini rivojlantirib, yangi tushunchalarni yaratishga o'rgatadilar. Bu metodlar nafaqat tilni o'rganishga, balki ijtimoiy va madaniy tushunchalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarni faollashtiradi

Integratsiyalashgan ta'lim metodlari o'quvchilarni darsga faol ishtirok etishga undaydi. Turli metodlar orqali o'quvchilar o'zlarini erkin his qilishadi va darsda qatnashishdan qoniqish hosil qiladilar. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'rganish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Fe'l so'z turkumini o'rgatishda integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlarining samaradorligi haqida gapirganda, ushbu metodlar o'quvchilarning tilni nafaqat nazariy, balki amaliy va ijodiy jihatdan o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Fe'lni o'rgatishda fanlararo bog'lanish, kreativ yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar orqali o'quvchilarning faolligini oshirsa, ularning bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash mumkin. Bu usullar nafaqat o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fe'lni o'rgatishda integratsiyalashgan metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarga faqat grammatik bilimlarni emas, balki tilni real hayotda qo'llash imkoniyatlarini ham beradi. Shu sababli, integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlarini

yanada rivojlantirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishi va ularga tilni o'rganish jarayonida eng yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkatova, F. (2021). *Innovatsion ta'lim metodlari va ularning o'quvchilarning til o'zlashtirish jarayoniga ta'siri*. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti.
2. Mamatqulova, N. (2020). *Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi: integratsiyalashgan yondashuvlar*. – Samarqand: "Navro'z" nashriyoti.
3. Karimov, A. (2019). *Fanlararo bog'lanish va integratsiyalashgan ta'lim metodlari*. – T.: "O'quvchi" nashriyoti.
4. Mustafoeva, R. (2022). *Fe'l so'z turkumini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Buxoro: "Buxoro nashriyoti".

NUTQ USLUBLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

ULASHEVA DILNURA QODIRALI QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

dilnura@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq uslublarning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Nutq uslublari xos leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Nutq uslublari belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: nutq uslublari, badiiy so'z, til, nutq, milliy til, til vositalari, metodika.

Annotation. This article highlights the similarities and differences between speech styles. The lexical and semantic features characteristic of different speech styles are analyzed. It is emphasized that in determining speech styles, the stylistic coloring of words, grammatical forms, and grammatical structures should be taken into serious consideration.

Keywords: speech styles, artistic word, language, speech, national language, linguistic means, methodology.

Аннотация. В данной статье раскрываются сходные и отличительные черты речевых стилей. Проанализированы лексико-семантические особенности, характерные для речевых стилей. Подчеркивается, что при определении речевых стилей необходимо серьезно учитывать стилистическую окраску слова, грамматических форм и грамматических конструкций.

Ключевые слова: речевые стили, художественное слово, язык, речь, национальный язык, языковые средства, методика.

Ma'lum bir sohaning ish yuritishida bir xil takroriylik, muntazamlilik bilan ajralib turishi va mana shu o'ziga xoslik stil (uslub) nomi bilan yuritiladi. "Stil" so'zi barcha sohada ishlatiladi. Masalan, Sharq uslubidagi bino, Sharq uslubidagi musiqa, Yevropa uslubidagi kiyim va boshqalar.

"Nutq uslubi" tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslikka aloqador. Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi. Umumxalq tili vositalarining

bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu "nutq uslublari" deb yuritiladi.[1: 199].

Nutq uslublarning har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarni belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; tabassum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos.[2: 11]. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi. Albatta, so'zning ijobiy yoki salbiy munosabat ifoda etishi hamisha nutq uslubini belgilashga asos bo'la olmaydi. Biroq sinonimik qatorni hosil qiluvchi bunday so'zlarning ko'pchiligi so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatilishi, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubda esa sanoqli hollardagina saylab olinishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Dialektizm, jargon, argo, varvar va vulgar so'zlar badiiy uslubda obraz yaratish maqsadida ishlatiladi. Ular boshqa nutq uslubi uchun xarakterli emas. Garchi sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ayrim guruhlariga, shevaga xos so'z va formalar tilning yashash formalaridan biri bo'lsa-da, umumxalq tili doirasidan chetdadir. Demak, nutq uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Bu jihatdan terminlar o'ziga xoslikni tashkil etadi: ular, asosan, ilm ahli nutqida ishlatiladi. Biroq ilm-fan muayyan millat, muayyan xalqning ma'naviy mulki, shu xalqning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgi ekanidan, terminlarga umumxalq tili vositasi sifatida qaraladi. Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'ladi, yangidan paydo bo'ladi. Masalan, rasmiy-idoraviy, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi, bugungi kunda esa jamiyatdagi yangiliklar hisobiga har bir uslub yanada rivojlanmoqda.

Nutq uslublari yozma va og'zaki nutq shakllari bilan qat'iy bog'liq. Yozma nutq pishiq-puxta o'ylanganligi, har bir so'z, grammatik forma va qurilishning o'z o'rnida ishlatilishi, mantiqiy izchilligi, takrorlarning bo'lmasligi bilan og'zaki nutqdan farq qilib turadi. Nutq uslublari qaysi shaklda va qaysi sohada bo'lmasin, milliy adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi.[3:4].

So'zlashuv uslubi deganda kishilarning kundalik faoliyatida o'zaro aloqasini ta'minlovchi og'zaki nutq tushuniladi. Bu uslubda sheva elementlari, passiv lug'atga xos so'z va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatiladi. So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush o'rni almashadi: yog'mir (yomg'ir), turpoq (tuproq); tovush tushadi: tasha (tashla), ke (kel), yudi (yuvdi); tovush ortadi: chechmoq (yechmoq), yilon (ilon), istakan (stakan); tovush almashadi: sammi (senmi), mo'nchoq (munchoq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: opke (olib kel), qo'yvor (qo'yib yubor) kabi.

Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, u, biz, siz, bir, besh, olti, o'n, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismi, shalparpishi, xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlatiladi.[4: 10].

So'zlashuv uslubiga xos yana bir xususiyat so'zni qisqartirish va ko'chma ma'noda qo'llashdir. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropolitan), avtomat (avtomat telefon), tushlik (tushlik ovqat), futbolga bormoq (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), ovqatga o'tiring (ovqat yegani o'tiring), paxtani bajardik (paxta rejasini bajardik) kabi. Iskovich, tosh, (odam), chayon (gap bilan kishini xafa qiladigan), beliga tepmoq (xalaqit bermoq), loyini chiqarmoq (sirini fosh qilmoq, ishni chigallashtirmoq) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir. Ayrim eskirgan patta, chipta, chek, pattachi, po'rim, shayton arava, miri (bir pul, ikki pul) kabi so'zlar ham so'zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir.[5: 9].

So'z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, arxaik so'zlar ba'zan davr koloriti, shaxs xarakterini ko'rsatish uchun ishlatilsa, ba'zan kulgi-mazax uchun xizmat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning romanlarida ishlatilgan arxaik so'zlar davr koloritini ko'rsatishga, satirik asarlarida esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirilgan. Badiiy uslubda grammatik shakllardan ham obraz yaratish va kolorit berish maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, Oybekning "Navoiy", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlarida ur, erdi, andoq, shulkim kabi formalar ishlatilganini kuzatish mumkin.

Nutqning so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublari mavjud bo'lib, ular o'xshash va farqi jihatlariga ega, bu xususiyatlar matnda reallashadi. Nutqning vazifaviy uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu

nuqtai nazardan talqin qilinadi. Jamiyatdagi yangiliklar uslublarning rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969. 199-b.
2. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. - Toshkent, 2005. 11-b.
3. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984. 4-b.
4. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. - Guliston, 1988. 10-b.
5. O'rinboev B. So'zlashuv nutqi. - Toshkent: Fan, 1979. 9-b.

O'ZBEK TILIDA DINIY MATNLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

ULUQOVA SHAHODAT

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-bosqich talabasi
shahodat9506@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi diniy matnlar leksikasining semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qur'on oyatlari, hadislar va badiiy matnlardan olingan misollar asosida diniy leksemalarning kelib chiqishi, ma'no turlari va kontekstga qarab yuzaga keladigan ko'chma ma'nolar yoritiladi. Tadqiqotda leksik-semantik guruhlar, polisemiya va frazeologik birliklar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: diniy leksika, leksik-semantik guruh, polisemiya, arxaizm, Qur'on, hadis.

Annotation: This article examines the semantic and stylistic features of religious lexis in the Uzbek language. Based on examples from the Qur'an, Hadith, and literary texts, the study outlines the sources of religious vocabulary, lexical-semantic groups, polysemy, and phraseological usages. The paper highlights the role of religious lexis in cultural identity.

Key words: religious lexis, lexical-semantic group, polysemy, archaism, Qur'an, Hadith.

Аннотация: В статье анализируются семантические и стилистические особенности религиозной лексики узбекского языка. На примерах аятов Корана, хадисов и художественных текстов рассматриваются происхождение религиозных лексем, их семантические типы и контекстуально обусловленные значения.

Ключевые слова: религиозная лексика, лексико-семантическая группа, полисемия, архаизм, Коран, хадис.

Til millatning ruhiyati va tarixining muhim ifodasidir. Diniy leksika esa xalqning ma'naviyati, e'tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan lug'aviy qatlamni tashkil etadi. O'zbek tiliga islom dini kirib kelishi bilan arab va fors tillaridan ko'plab diniy atamalar, asosan diniy matnlar orqali, kirib kelgan va tilda mustahkam o'rnatilgan.

Diniy leksika manbalari asosan quyidagi qatlamlardan iborat:

- **Arab tili:** Alloh, namoz, ro'za, Qur'on, taqdir, taqvo;
- **Fors tili:** pir, zohid, orif;
- **Turkiy ildizli qadimiy diniy-ma'naviy tushunchalar:** tengri, ezgu, baxshi.

Arabcha so'zlar islom dini bilan bog'liq bo'lgani sababli diniy terminologiyaning asosiy qismini tashkil etadi⁶⁵.

Leksik-semantik guruhlar:

- *Alloh va aqida bilan bog'liq so'zlar:* Alloh, iloh, iymon, kufr, taqdir.
- *Ibodot va amaliyot so'zlari:* namoz, ro'za, tahorat, haj, zakot.
- *Axloqiy-diniy tushunchalar:* sabr, shukr, halol, harom, savob.
- *Diniy shaxs va lavozim nomlari:* imom, xatib, shayx, mulla.
- *Muqaddas joy va predmetlar:* masjid, Ka'ba, Qur'on, sajda⁶⁶.

Bu guruhlar diniy dunyoqarashning asosiy semantik maydonini tashkil etadi.

Leksik tahlil:

Kofir — arabcha so'z bo'lib, “inkor etuvchi” yoki “e'tiqodni rad etuvchi” ma'nosini bildiradi⁶⁷. U diniy kontekstda salbiy semantik bo'yogga ega va “mo'min”, “iymonli” so'zlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Do'zax (Jahannam) — oxiratga oid g'oyibiy tushuncha bo'lib, gunohkor insonlar abadiy azoblanadigan joy sifatida tasvirlanadi. “Do'zax” so'zi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi: masalan, “do'zaxdek hayot” iborasida.

Amal — arab tilidan kirgan bo'lib, “ish-harakat” ma'nosini anglatadi. Diniy termin sifatida “amal” dindorning axloqiy va ijtimoiy burchlarini bildiradi. Qur'onda bu so'z “yaxshi” va “yomon” ishlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Diniy leksemalar ko'pincha **polisemiya** (ko'p ma'nolilik) hodisasiga ega. Masalan, “Jannat” so'zi aslida oxiratdagi mukammal huzur manzili ma'nosini bildirsa, badiiy matnlarda “Jannat yaratib berish” iborasi qulay yashash sharoiti ma'nosida ishlatiladi.

“Qalb” so'zi ham ikki qirrali: jismoniy organ sifatida ham, vijdon va e'tiqod markazi sifatida ham qo'llaniladi⁶⁸. Shu jihatdan u **metonimik** ma'no kasb etadi.

Baqara surasidan keltirilgan matn: “sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa... ular do'zax ahlidandur...” (Baqara surasi, 2:217) bu oyatda “kofir”, “do'zax”, “amal” kabi leksemalar mavjud. Hadisda esa: “Ogoh bo'ling! Tanangizda bir parcha go'sht

⁶⁵ Yo'ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent, 2021.

⁶⁶ Omonturdiyeva Sh. *O'zbek diniy matnining funksional stilistik tadqiqi*. – Samarqand, 2020.

⁶⁷ Begmatov E. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent, 1985.

⁶⁸ Doniyorov R. *O'zbek tili texnik terminologiyasining o'rni*. – Toshkent: Fan, 1997.

bor... u-qalbdir!”⁶⁹-jumlasini orqali “qalb”ning metaforik va semantik ahamiyati ochib berilgan, A’rof surasidsagi to’g’ri to’g’ri keltirilgan matn (jins va ins bilan bog’liq) esa g’ayb mavjudotlarini va ularning oxirat bilan bog’liqligini ko’rsatadi. Zot va kimsa farqi. Diniy matnlarda “zot” va “kimsa” so’zlari sinonimik qator bo’lib ko’rinadi, ammo, uslubiy jihatdan farq qiladi: “zot”-ijobiy, hurmatga sazovor; “ kimsa “ esa ko’pincha neytral yoki salbiy ma’noda ishlatiladi. Bu farq matnning emotsional politrasini shakllantiradi va o’quvchiga ma’lum baho beradi⁷⁰. Badiiy adabiyotlarda diniy matn elementlari- nafaqat ma’naviy ta’sir uchun, balki milliy ruhni jonlantirish maqsadida ham qo’llanadi. Masalan, Tohir Malikning “Odamiylik Mulki”⁷¹ romanidagi parchalar va Alisher Navoiy asarlarida Qur’oni Karim tilida ishlatiladigan leksik birliklar badiiy kontekstda yangi ma’no qatlamini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o’zbek tilidagi diniy leksik birliklar semantic va uslubiy jihatdan boy qatlamni tashkil qiladi. Ularning o’rganilishi tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda diniy tafakkur tarixini chuqurroq anglashga yordam beradi. Diniy leksema va iboralar nafaqat diniy mazmunni balki milliy axloqiy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Kelgusida bu sohada terminologik lug’atlarni boyitish, kontekstual tahlillarni kengaytirish muhim vazifa bo’lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo’ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent, 2021.
2. Omonturdiyeva Sh. *O’zbek diniy matnining funksional stilistik tadqiqi*. – Samarqand, 2020.
3. Begmatov E. *Hozirgi o’zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent, 1985.
4. *O’zbek tilining izohli lug’ati*. 4 jildlik. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Doniyorov R. *O’zbek tili texnik terminologiyasining o’rni*. – Toshkent: Fan, 1997.
6. Narxodjayeva X. *Jarayon anglatuvchi terminlarning o’zbek tilida tutgan o’rni*. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Qosimov N. *O’zbek tili ilmiy-texnik terminologiyasi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2013.
8. *Qur’oni Karim* (oyatlar va hadislar to’plami).
9. Malik T. *Odamiylik mulki*. – Toshkent, 1990.

⁶⁹ Qur’oni Karim (keltirilgan oyatlar) va hadislar to’plami.

⁷⁰ Qosimov N. o’zbek tili ilmiy texnik terminologiyasi masalalari.- Toshkent Fan,2013.

⁷¹ Malik T. Odamiylik mulki (badiiy matn misollarida).

SOHAGA OID ILMIY MATN YARATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

UMARALIYEVA MEHRINOZ MUQUMJON QIZI,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy matn yaratishning asosiy tamoyillari va xususiyatlari yoritilgan. Ilmiy matnning mohiyati, uni yaratishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan aniqlik, izchillik, dalillarga asoslanish kabi jihatlar keng tahlil qilinadi. Shuningdek, terminologiya, matnning strukturasi, rasmiylik va xolislik, tadqiqot maqsadi va vazifalari, uslubiy xususiyatlar haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: ilmiy matn, terminologiya, tizimlik, aniqlik, neytrallik, dalillar, rasmiylik va xolislik, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyektivlik, uslub.

Аннотация. В этой статье рассматриваются основные принципы и особенности создания научного текста, относящегося к данной области. Широко анализируется сущность научного текста, такие аспекты, как точность, согласованность, аргументативность, на которые следует обратить внимание при его создании. Он также размышляет о терминологии, структуре текста, формальности и объективности, целях и задачах исследования, стилистических особенностях.

Ключевые слова: научный текст, терминология, систематичность, точность, нейтральность, аргументация, формальность и беспристрастность, цель и задачи исследования, объективность, стиль.

Ilmiy matn-bu insoniyatning ilmiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy vositalardan biridir. Har qanday sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari yozma shaklda ifodalanib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etiladi. Ilmiy matnning samarali yaratilishi talaba va tadqiqotchilar uchun muhim bo'lib, ular ilmiy faoliyatda puxta tayanch vazifasini bajaradi.

Shu jihatdan ilmiy matn nafaqat ma'lumot uzatadi, balki ilmiy tafakkurni shakllantiradi, muammolarni tahlil qiladi va ularning yechimlarini taklif etadi. Ilmiy

matnlarning pedagogika faoliyatida tutga o'rni va roli katta bo'lib, nazariyalar, qarashlarning umummilliy asoslari natijasida, amalga oshiriluvchi matn shakl bo'lib, ilmiy matnlarning strukturaviy birliklar natijasini yuzaga kelishi bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Ilmiy matnlar o'zaro intellektual yondashiv asosida yuzaga kelish bilan ham aloqadorlini tashkil etishi bilan boshqa turdagi matnlar bilan o'zaro farqlikni tashkil etishi bilan izohlanadi.

Sohaga oid ilmiy matn yaratishda umumiy ilmiy talablar bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Bu xususiyatlar matnning ishonchliligi, tushunarliigi va ilmiy ahamiyatini ta'minlaydi. Quyidagilar sohaga oid ilmiy matn yaratishning muhim xususiyatlarini bosqichma – bosqich tahlil qilinadi.

Aniqlik va izchillik. Ilmiy matnning birinchi va asosiy talabi aniqlikdir. Har bir tushuncha aniq izohlanishi, ortiqcha mubolag'a va hissiyotlardan xoli bolishi kerak. Shuningdek, matn mantiqiy izchillikda tuzulishi zarur. Masalan: bir mavzu haqida yozilayotgan matnda avval umimiy tasavvur berilib, keyin misollar, dalillar va xulosalar keltirilishi kerak. Ilmiy uslubda ishlatiladigan sozlar doimo aniq va tushunarli bo'lishi shart, chunki ilmiy matnning asosiy vazifasi – bilimni sodda va mantiqiy tarzda ifodalashdir. [1:112].

Terminologiyadan foydalanish. Ilmiy matnning o'ziga xos belgilaridan yana biri- bu maxsus terminlardan foydalanishdir. Har bir sohaning o'z terminlari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash muhim ahamyatga ega. Masalan: lingvistika sohasida "fonetika", "morfologiya" kabi terminlar ishlatiladi, biologiyada esa "hujayra", "genetika" kabi atamalar qo'llaniladi. Terminologiyaning to'g'ri qo'llash matnning ilmiy darajasini belgilaydi. Har qanday ilmiy matnning o'ziga xos belgisi-maxsus terminlarning mavjudligi va ularning to'g'ri qo'llanishidir.

Neytrallik va obyektivlik. Ilmiy matn muallifning shaxsiy his-tuyg'ularini emas, balki dalillarni ifodalashi kerak. "Menimcha", "o'ylashimcha" kabi subyektiv iboralardan qochish lozim. Aksincha, "tadqiqot natijalariga ko'ra", "manbalarda qayd etilishicha" kabi obyektiv ifodalar qo'llaniladi. Neytrallik ilmiy matnning jiddiyligini ta'minlaydi. Ilmiy uslubning muhim talabi- bu neytrallik va obyektivlik bo'lib, matnda muallifning shaxsiy munosabati emas, balki faktlar ustivor bo'lishi kerak. [2:89].

Dalillar va asoslar. Ilmiy matnning asosiy kuchi dalillarda. Statistik ma'lumotlar, tajriba natijalari, ilmiy adabiyotlardan olingan havolalar va faktlar asosida fikr yuritiladi. Dalilsiz yozilgan ilmiy matnning qiymati pasayadi. Shu bois har bir ilmiy fikr ishonchli asos bilan mustahkamlanishi zarur.

Tizimlilik va struktura. Har qanday ilmiy matn qat'iy tuzulishga ega bo'lishi shart. Odatda, ilmiy maqolalar nuch asosiy qismdan iborat bo'ladi: kirish, asosiy qism

va xulosa. Kirishda muammo qo'yiladi, mavzuning dolzarbligi asoslanadi. Asosiy qismda dalillar, misollar va ilmiy mulohazalar keltiradi. Xulosada esa umumiy natijalar chiqariladi va kelgusidagi istiqbollar ko'rsatiladi. Bunday tuzilma matnning mantiqiy yaxlitligini ta'minlaydi. Ilmiy matn doimo tizimli va mantiqan izchil bo'lib, kirish, asosiy qism va xulosadan iborat qat'iy struktura asosida quriladi.

Uslubiy xususiyatlar. Ilmiy matn oddiy badiiy asardan farqli o'laroq, tasviriy vositalardan yiroq bo'ladi. Unda qisqa, sodda va aniq jumlar ishlatiladi. "Natijada", "umuman olganda", "ilmiy jihatdan qaralganda", "demak" kabi ilmiy uslubga xos bog'lovchilar matnga izchillik beradi.

Adabiyot va manbalardan foydalanish. Ilmiy matn manbalarsiz to'liq bo'la olmaydi. Har bir fikr boshqa olimlarning izlanishlari, maqolalari va kitoblariga tayanishi kerak. Bu bir tamondan matnning ishonchliligini oshirsa, ikkinchi tomondan o'quvchini qo'shimcha ma'lumot manbalari bilan tanishtiradi. Havolalar va bibliografiya ilmiy maqolaning majburiy qismidir.

Sohaga ilmiy matn yaratishda bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Avvalo, matn aniq, izchil va neytral bo'lishi shart. Fikrlar dalillar bilan mustahkamlanishi, maxsus terminlardan to'g'ri foydalanishi, matn qat'iy tuzilishga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, ilmiy matnning ishonchliligi manbalarga tayanishi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, sohaga oid ilmiy matn - bu nafaqat ma'lumot beruvchi, balki ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi hamda mutaxassislarni muayyan xulosalarga olib keluvchi yozma shakldagi ilmiy faoliyat mahsulidir. Sohaga oid ilmiy matn yaratish bu oddiy yozuv faoliyati emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi, ilmiy jamoatchilikka yangi bilimlarni taqdim etuvchi murakkab jarayondir. Bunday matn o'zida ilmiy an'ana va metodologik yondashuvlarni mujassam etib, o'quvchini ham, mutaxassisni ham ilmiy izlanishlarga chorlaydi.

Demak, sohaga oid ilmiy matn- bu bilim almashish, ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi g'oya va xulosalarni ilgari surishda asosiy vositadir. Bunday matnlar nafaqat talaba va tadqiqotchilar uchun, balki butun ilmiy jamoatchilik uchun ham bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy matn yaratish jarayoni muntazam o'qish, tahlil qilish va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni talab qiladi. Zero, ilm-fan rivoji aynan ilmiy matnlar orqali avloddan avlodga yetkaziladi, yangi kashfiyotlar esa ilmiy matnlar orqali jamoatchilikka taqdim etiladi. Shu bois, har bir talaba va tadqiqotchi ilmiy matn yaratish qoidalariga amal qilar ekan, nafaqat o'z bilimini oshiradi, balki umumiy ilm-fan taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi. Har bir yozilgan maqola, monografiya, yoki dissertatsiya jamiyatga yangi

bilim olib kiradi. Shu ma'noda ilmiy matn yaratishda madaniyatni egallash – har bir yosh talabaning muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldosheva I. Sharipova O. Tilshunoslik asoslari. Toshkent . Iqtisoq -Moliya.2007. 122-bet
2. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. Nodirabegim, 2020. 89-bet.
3. Abduazizova A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2010.([www. namdu.uz](http://www.namdu.uz)).
4. Qurbonova M. Matn tilshunosligi. JDPU o'quv qo'llanma, 2021.
5. Internet manbalari va zamonaviy maqolar to'plami.

O'ZBEK TILI LAHCHA VA SHEVALARI

UMAROVA AIDA KUDIYAROVNA,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili lahjalari va shevalarining kelib chiqishi, hududiy tarqalishi, fonetik va leksik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shunindek, ularning adabiy til shakllanishidagi o'rni va turkiy tillar bilan genetik aloqalari haqida ilmiy mulohazalar keltiradi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, lahja, sheva, qarluq, qipchoq, o'g'uz, adabiy til, fonetika, leksika.

Аннотация. В данной статье анализируются происхождение, территориальное распространение, фонетические и лексические особенности диалектов и наречий узбекского языка. В нем также приводятся научные соображения об их роли в формировании литературного языка и их генетической связи с тюркскими языками.

Ключевые слова: узбекский язык, диалект, диалект, карлук, кыпчак, огуз, литературный язык, фонетика, лексика.

Har bir millatning tili uning madaniyati, tarixi va ijtimoiy hayotining muhim qismidir. O'zbek tili o'zining boy va qadimiy ildizlari bilan Markaziy Osiyodagi eng yirik va ko'p qirrali tillardan biri sifatida ajralib turadi. Uning tarkibida hududiy shevalar va dialektlar kattaahamiyatga ega bo'lib, tilning ichki boyligini va xilma-xilligini aks ettiradi. O'zbek shevalari turli hududlarda yashovchi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini va madaniyatini o'zida mujassamlashtiradi. Bu shevalar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki milliy madaniy merosni saqlash va o'rganish uchun ham bebaho ahamiyatga ega. O'zbek shevalari xaritasini V.V.Reshetov boshlagan. U uzoq yillar Toshkent viloyati shevalarini, xususan, Ohangaron vodiysi shevalari guruhini o'rgandi. O'zbek dialektologiyasida birinchi marta qurama shevalarining 49 ta lingvistik xaritasi tuzildi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub bo'lib, kop asrlik tarixiy talaqqiyot davomida murakkab shakllanish jarayonini bosib o'tgan. Ayni paytda 40 milliondan ortiq kishining ona tili sifatida nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni davlatlarda ham keng qo'llaniladi. O'zbek tili tarkibida uchta yirik lahja va ular asosida yuzlab shevalar mavjud bo'lib, ular xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi

Lahja - umumxalq tilining muayyan chegaralangan hududda joylashgankishilar jamoasida bevosita aloqa vositasi sifatida qo'llanuvchi va nisbatan yaxlit lisoniytizim bilan ajralib turuvchi ko'rinishi. Lahja bir qator kattaroq til tuzilmasi tarkibiga kiradi, ushbu butunlikning boshqa qismlariga, boshqa Lahjalariga qarshi qo'yilib, taqqoslanadi va ular bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Hududiy lahjalar tovushlar tarkibi, grammatika, so'z yasalishi, leksika nuqtayi nazaridan muayyan tafovutlarga ega bo'ladilar. Bunday farqlar sezilmas darajada bo'lib, aniq, bir tilning turli lahjalarida so'zlovchilar bir-birini yaxshi tushunishadi (mas, o'zbek tili lahja va shevalari), boshqa tillarning lahjalari bir-biridan kuchli farq qilib, bundaturlahjalarda so'zlovchilarning o'zaro aloqasi qiyinlashadi yoki mumkin bo'lmaydi (mas, nemis, xitoy tillari Lahjalari).[1:63]. Lahja umumxalq tilining quyi bosqichi hisoblanadi, u shevaga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, shevalar yig'indisidan tarkib topadi. Mas, etnogenetik jihatdan ko'p tarkibli bo'lgan o'zbek tilida 3 ta asosiy lahja farqlanadi:

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi — Farg'ona vodiysidagi, Toshkent va Zarafshon vohalaridagi shaharlar va ularga yaqin aholi maskanlari shevalarini o'z ichiga oladi. Unli tovushlarning ko'pligi, qadimgi uyg'ur til unsurlarining saqlanishi bilan ajralib turadi. Mazkur lahja asosida hozirgi o'zbek adabiy tili shakllangan. Bu lahja Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Unli tovushlarning ko'pligi, qadimgi uyg'ur til unsurlarining saqlanishi bilan ajralib turadi.

O'g'uz lahjasi Xorazm viloyatida tarqalgan bo'lib, turkman tiliga yaqin xususiyatlarga ega: keladi – g'elär, qiz – g'iz. Bu lahja qadimiy o'g'uz unsurlarini saqlaganligi bilan alohida qiziqish uyg'otadi. Janubiy Xorazm (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp va boshqalar) va Turkmanistondagi o'zbek shevalaridan iborat. Mazkur lahjalarning fonetikasi, grammatikasi va lug'at tarkibida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud, lekin bu farqlar ularni bir-biridan keskin ajratmaydi. Shevalar o'zlarining geografik o'rni bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, o'zbek tilining qorluq chigil-uyg'ur guruhiga kiruvchi Andijon, Toshkent, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Qarshi, Urgut kabi kichik tarmoqlarni tashkil qiladi.

Qipchoq lahjasiga esa mang'it, ming, yuz, nayman, chig'atoy kabilar kiradi. Shevalar o'zaro birikib, lahjalarni tashkil etadi. Sheva va lahjalar o'zbek milliy tilida o'rganiladi. Sheva va lahja adabiy til tushunchasiga kirmaydi. Lekin ular o'zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi. Lahja arabcha so'z bo'lib, ifoda, ovoz, sheva ma'nolarini anglatadi. Qipchoq lahjasi — Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Shimoliy Xorazmdagi hamda Farg'ona va Ohangaron vodiylaridagi "j"lovchi o'zbek shevalarini o'zichiga oladi. Asosan Qoraqalpog'iston, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi. Bu lahjaning fonetik xususiyatlari – y va j tovushlarining farqlanishi (yo'l – jo'l), ayrim so'zlarning qozoq va qoraqalpoq tillariga yaqinligi bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek tili lahchalari ko'plab shevalardan tashkil topgan. Masalan, Toshkent shevasida qisqa unlilar keng qo'llanadi (kitob – ktob), Qo'qon va Andijon shevalarida esa o' tovushi u tarzida talaffuz qilinadi (olma – ulma). Xorazm shevasida ch tovushi sh sifatida talaffuz qilinadi (chiroq – shiroq). Leksik jihatdan ham farqlar mavjud: qipchoq lahjasida jap (gap), jol (yo'l); o'g'uz lahjasida g'iz (qiz), g'el (kel); qarluq lahjasida esa bala (bola), yana (yana) shakllari uchraydi. O'zbek adabiy tili qarluq lahjasi asosida shakllanganligi tarixiy-madaniy markazlarning roli bilan bog'liqdir. Biroq qipchoq va o'g'uz lahjalari ham umumxalq tilining boyishida muhim o'rin tutadi. Shevalar xalq og'zaki ijodi va adabiyotida ham keng qo'llanib, tilning jonli qatlamini tashkil etadi.[2:211].

Adabiy tilning lug'at tarkibiga kirmagan muayyan hududda yashovchi xalq nutqiga xos bo'lgan so'zlar **shevaga xos so'zlar** deyiladi.

Shevaga xos so'zlar tilning mahalliy ifodasidir. Masalan, ul (o'g'il), hojak, go'sala (buzoq), mo'rcha (chumoli), zangi, shoti (narvon), taka (yostiq), dovuchcha (g'ura, o'rik), dunak (pishmagan qovun).

Shevalar o'zaro birikib, lahjalarni tashkil etadi. Sheva va lahjalar o'zbek milliy tilida o'rganiladi. Sheva va lahja adabiy til tushunchasiga kirmaydi. Lekin ular o'zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi. Shevaga xos so'zlarni shevashunoslik o'rganadi. Shevalarimiz ikki xil nuqtayi nazardan tasnif qilinganligi e'tirofga sazavor:

1. Shevalarimizning mamlakatimiz va qo'shni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi, ya'ni o'zbek shevalarining umumiy tasnifi;

2. Ma'lum bir voqea yoki viloyat (tuman) shevalarining tasnifi, ya'ni o'zbek shevalarining xususiy tasnifi.

O'zbek shevalari morfologiyasi adabiy tildan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Masalan, ayrim shevalarda kelishik qo'shimchalari farqli shakllarda namoyon bo'ladi (Xorazm shevasida -ga/-ka, -da/-ta, -dan/-tan). Shuningdek, shevalarning o'ziga xos fe'l shakllari ham mavjud (masalan, Qashqadaryo shevasida -ajak/-ajaq, -iyap/-yap

kabi qo'shimchalar). Qashqadaryo shevalari o'zbek tilining janubiy lahjalariga mansub bo'lib, o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega.

Xulosa. O'zbek shevalari xalqning milliy madaniyati, tarixi va turmush tarzini aks ettiruvchi muhim til hodisasi hisoblanadi. Ular o'zbek tilining boyligi va xilma-xilligini ko'rsatib beruvchi vosita bo'lib, har bir hududga xos bo'lgan o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbek tili lahjalari va shevalari xalq tilining tarixiy ildizlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Qarluq lahjasi adabiy til asosini tashkil qilgan bo'lsa-da, qipchoq va o'g'uz lahjalari ham til boyligini oshirib, milliy madaniyatimizni rang-barang etadi. Shevalarni ilmiy o'rganish tilshunoslik, etnografiya va tarix fanlari uchun ham alohida ahamiyatga ega. Globallashtirish sharoitida o'zbek shevalarini o'rganish va saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular milliy tilning boyligini yanada chuqurroq anglash va kelgusi avlodlarga yetkazishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, hududiy shevalar xalq ijodi, tarixi va etnografiyasining qimmatli manbai sifatida xizmat qilishi ularning dolzarbligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zarubin I.I. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston FANlar akademiyasi. Ushbu asar o'zbek tili dialektlarining tasnifi va ularning xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. 1973. B-63.
2. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. Москва: Наука. 2005. Б-211.
3. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilshunosligi masalalari. Toshkent: 2006 Fan. B-118.
4. Abdullaev, F.A. Xorazm dialektlari va ularning xususiyatlari. – Toshkent: O'zbekiston sovet ensiklopediyasi. Xorazm dialektlarini leksik va fonetik jihatdan o'rganish. 1983.

ONA TILI DARSLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

UMARQULOVA RUSHANA AG'ZAM QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

rushanaumarqulova29@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning ogzaki nutqini rivojlantiruvchi mashqlar tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentsiyani faollashtirish uchun material sifatida frazeologik birliklardan foydalanishga imkon beradigan topshiriqlar ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: metod, frazeologiya, o'qitish usullari, frazeologik birliklar, o'qitishning interfaol usullari.

Аннотация: В статье анализируются упражнения, развивающие устную речь учащихся. Указаны задания, позволяющие использовать фразеологизмы как материал для активации коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: методика, фразеология, методы обучения, фразеологизмы, интерактивные методы обучения.

Abstract. The article analyzes the exercises that develop students' oral speech. Tasks that allow the use of phraseological units as material for the activation of communicative competence are indicated.

Key words: method, phraseology, teaching methods, phraseological units, interactive methods of teaching.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologiya (gr. phrasis-ifoda va logos- ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi. 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmlari majmui.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmlarning tabiati va zotiy xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatlaridir. Frazeologizmlar til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq va boshqa. Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizmlar tashkil etuvchilarga ko'ra ko'ra qo'shma qo'shma leksemalar, leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksemalar kabi til

jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizmlar lisonida barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan ulumiylilik tabiatiga ega bo'ladi va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Dars o'tayotgan, darsining foydali va samarali bo'lishini istagan o'qituvchi darsni qiziqarli o'tkazish yo'llarini yaratadi. Bu o'qituvchining tasavvuriga va ijodiga bog'liq. Frazeologik birliklar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishning ko'plab usullari mavjud. O'qituvchi avval idiomani tushuntirib, so'ngra og'zaki ta'rifini berishi va o'quvchilardan ketma-ket misollar yaratishni so'rashi mumkin. Keyingi yo'l quyidagicha ko'rinishi mumkin: o'qituvchi idiomani o'rgatishi va faqat misol keltirishi mumkin va talabalar bugungi zamonaviy interaktiv usullar bizdan nimani talab qilishini aniqlashlari kerak. Yana bir yo'l: o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, o'qituvchi tomonidan berilgan iboralar bo'yicha qisqa hikoyalar yozishlari kerak, lekin hikoyada ishlatilishi kerak bo'lgan idiomalarni aytib berishlari shart emas. Keyingi guruh idiomalarning nomini topishi kerak. Keyingi mashg'ulot quyidagicha davom etadi: o'qituvchi yozma topshiriq beradi, unda o'rganiladigan idiomalarga oid ko'p tanlovli testlar mavjud.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Iboralar mavzusi ta'limi o'quvchilar uchun hamisha qiziqarli va e'tibortalab mavzu bo'lib qolaveradi. Iboralar tilimizda so'zlar bilan teng baravar ishlatilaveradiki, bizlar ba'zan iborani qo'shma so'zdan yoki so'z birikmasidan farqlamaymiz. O'qituvchi o'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadini ko'zlagan darsda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanishi mumkin:

1-topshiriq. Ibora ifodalagan ma'no qatorini "Iboralar sandig'I" dan mosini tanlab to'ldiring.

....lapashang, bemehr, aralashmoq, xafa,xursand, tanti, ziqna, gapirmaslik.

"IBORALAR SANDIG'I"			
Ammamning buzog'i	Burnini tiqmoq	Ko'ngli xira	Bag'ri tosh
Fe'li keng	Terisiga sig'maydi	Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadigan	Dili xufton
Boshi osmonda	Diydasi qattiq	Ko'ngli yorishmagan	Og'zi qulog'ida

Qovog'i etagida	Gapida turadigan	Fe'li tor	Qovog'i soliq
Burganing ko'zini ko'rgan	Mum tishlamoq	Lom-mim demasdan	Qishda qor bermaydigan

2-topshiriq. Yuqoridagi iboralarni qatnashtirib (o'zingiz bilgan asar qahramonlari xarakterini tavsiflovchi) gaplar tuzing.

Namuna: Qo'shni qishloqdagi Rashid ismli do'stim oliygohga kirganidan boshi osmondaedi.

3-topshiriq. Iboralarning izohli lug'atildan o'zingizga notanish bo'lgan 10ta iborani tanlab yozing.

Namuna: dumi xurjunda (chala)....

4-topshiriq. Berilgan iboralarni o'qing. Ular mazmunan qaysi so'zga teng kelishini aniqlang va jadval asosida zid ma'noli iboralarni juftlang.

5-

topshiriq. A.Qahhorning "Mahalla" hikoyasidan olingan gaplarni o'qing va gaplar tarkibidagi iboralar ifodalagan ma'noni izohlang.

1. Uy sovuq bo'lmasa ham, bir necha kundan beri uning eti uchar, oyog'i sovqotar, og'rir edi [1].

2. Hikmat buva nima bo'lganini bilolmay, ko'zi bilan ko'rib turganini aqliga sig'dirolmay, garang bir ahvolda turib qoldi...[1,157-b.].

3. Hikmat buvaning yurak-bag'rini sug'urib oldi [1,158-b.].

4. Hikmat buva kechalari uxlamas, dori ichib uxlasa ham yarim kechasi uyg'onib, tong otguncha o'tirib chiqar, uydagi hamma narsa unga kampirini, yolg'iz qolganini eslatar, har bir tovush o'lim bo'lib uning miya qopqog'ini chertar edi [1,159-b.].

5. Onaxonimiz ta'rifga sig'maydigan ayol edilar, shuncha odam bekorga kelgani yo'q [1, 160-b.].

6. Shu majlisda yana bir masala ko'tarildi: mahallada har kuni bo'lmasa ham, haftada ikki-uch marta... [1,161-b.].

7. Chol chiqib mahallani aylandi, daraxtlarni ko'zdan kechirdi [1,162-b.].

8. Chol yana bir nima demoqchi edi, o'ziga go'r qazitib qo'rganini eslab dami ichiga tushib ketdi [1,163-b.].

Frazeologiya bo'limini o'qitishda topshiriqlardan tashqari turli o'yinlardan foydalanib yanada o'quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

Keyingi musobaqa "Suratlar tilga kirsin" o'yini tarzida o'tkaziladi. Bunda guruhlar til, yurak, yer, peshona tasvirlangan rasmlar kartochkalar tarqatiladi.

O'yin shartiga ko'ra, 3-4 daqiqa ichida har bir guruh berilgan rasmlar asosida iboralar topishlari va ularni guruh a'zolaridan biri o'qib berishi kerak bo'ladi.

Turli xil topshiriq va o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini kengayishi va fikrlash faoliyatini oshiradi. Tilning frazeologik birliklari mislsiz til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning hayot tarzini, mentalitetini namoyon etadi. O'zbek tilining frazeologik birliklari o'zbek xalqining psixologik, fiziologik, madaniy- ma'rifiy. Lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadigan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent - 1996.
2. Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. Toshkent – 1988.
3. Бабанский Ю.К. Хозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Тошкент - 1990.
4. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. Toshkent Toshkent - 2003.
5. Raxmatullaev Sh. O'zbek tiling isohli frazeologik lug'ati. Toshkent- 2007.

IMPLEMENTING CONTENT-BASED APPROACHES IN BILINGUAL LANGUAGE EDUCATION

X.S.UMARXO'JAYEVA

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract

The increasing demand for effective foreign language instruction in the globalized world has led to the widespread adoption of content-based approaches in bilingual education. These approaches aim to integrate linguistic development with subject matter instruction, creating authentic and meaningful learning environments. This article examines the theoretical foundations, methodological models, and practical implications of content-based instruction within bilingual education. By analyzing relevant literature and existing pedagogical practices, the study highlights how such approaches foster communicative competence, academic achievement, and intercultural awareness. The paper also discusses the challenges related to teacher training, curriculum design, and assessment, emphasizing the need for continued research and innovation in this field.

Keywords: Bilingual education; content-based instruction; CLIL; CBLT; language acquisition; communicative competence.

Annotatsiya

Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni samarali o'qitishga bo'lgan talab ortib borayotgani sababli ikki tilli ta'limda kontentga asoslangan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar til o'rganishni fan mazmuni bilan integratsiyalash orqali o'quvchilar uchun mazmunli va samarali ta'lim muhitini yaratadi. Mazkur maqolada kontentga asoslangan ta'limning nazariy asoslari, metodologik modellari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi va mavjud pedagogik tajribalar asosida kontentga asoslangan yondashuvning talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, akademik natijalarga erishish hamda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash masalalarida uchraydigan qiyinchiliklar ko'rib chiqilib, ushbu sohada izchil tadqiqot va innovatsiyalarning zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ikki tilli ta'lim; CLIL; CBLT; til o'zlashtirish; kommunikativ kompetensiya.

In today's interconnected world, proficiency in more than one language has become essential for academic, professional, and social success. Traditional methods of foreign language teaching, such as grammar-translation or audio-lingual approaches, often rely on rote memorization and isolated structures, which fail to reflect real-life communication. In contrast, content-based approaches to bilingual education provide learners with opportunities to acquire language skills while simultaneously mastering academic content.

The central objective of this article is to explore content-based approach in bilingual education, focusing on their theoretical underpinnings, practical applications, and implications for language learning.

Research has consistently shown that integrating language with content enhances both linguistic competence and cognitive development. Cummins (1984) highlighted the distinction between Basic Interpersonal Communicative Skills (BICS) and Cognitive Academic Language Proficiency (CALP), arguing that academic content plays a crucial role in developing higher-order language skills. Similarly, Krashen (1985) emphasized the importance of comprehensible input, which is naturally embedded in content-based instruction.

In Europe, Content and Language Integrated Learning (CLIL) has become a widely adopted model. Coyle, Hood, and Marsh (2010) demonstrated that CLIL not only improves language proficiency but also develops critical thinking and intercultural competence. Genesee (2004) provided evidence that immersion programs strengthen content knowledge while supporting second language acquisition. Dalton-Puffer (2011) further observed that CLIL classrooms encourage deeper engagement and problem-solving skills.

In addition to these perspectives, Rodgers (2001) argued that effective language learning requires a curriculum that integrates content-driven instruction with communicative practices. His work on curriculum innovation demonstrates that when subject matter such as science or history is taught through the target language, learners achieve higher retention and demonstrate stronger communicative competence than those engaged in isolated grammar-focused activities. Rodgers' findings underline the importance of aligning curriculum design with authentic content to achieve both linguistic and academic goals.

Brown (2007) also emphasized the central role of meaningful interaction in second language learning, noting that content-rich tasks such as debates, project-based learning, and problem-solving activities promote both language development and critical thinking. His work highlights that learner-centered approaches, grounded in

authentic content, enhance motivation and long-term retention, making them particularly effective in bilingual education settings.

Taken together, the contributions of Cummins, Krashen, Coyle, Hood, Marsh, Genesee, Dalton-Puffer, Rodgers, and Brown provide a comprehensive theoretical and practical foundation for understanding the role of content-based approaches in bilingual education. Their collective insights reveal that integrating language and content not only improves communicative competence but also supports deeper cognitive engagement, intercultural awareness, and academic achievement.

The findings of this study highlight that content-based approaches make a substantial contribution to both linguistic development and mastery of subject matter in bilingual education. The analysis identified several central themes that underscore the effectiveness of integrating language instruction with academic content:

1. **Enhanced Language Proficiency through Meaningful Contexts.** Learners exposed to subject content in the target language demonstrate improved communicative competence compared to those taught through traditional language-focused instruction. For instance, studies show that students in CLIL (Content and Language Integrated Learning) programs not only acquire specialized vocabulary but also develop advanced discourse skills by engaging with authentic academic texts and discussions. This supports Krashen's Input Hypothesis, which suggests that comprehensible and meaningful input accelerates language acquisition.

2. **Cognitive and Academic Benefits.** Content-based instruction fosters higher-order thinking by encouraging students to analyze, evaluate, and synthesize information in a second language. Research indicates that bilingual learners engaged in content-integrated instruction often perform better on tasks requiring critical thinking and problem-solving skills. Moreover, Cummins' distinction between BICS and CALP is particularly relevant, as content-based approaches strengthen academic language proficiency, which is essential for long-term educational success.

3. **Motivation and Learner Engagement.** Another important finding is the positive impact of content-based approaches on student motivation. Unlike traditional rote learning methods, content-driven instruction creates a more dynamic and engaging classroom environment. Learners are more motivated when they see the direct relevance of language learning to real-life academic and professional contexts. This aligns with constructivist perspectives, where knowledge is built through meaningful interaction with content.

4. **Pedagogical Challenges and Teacher Preparedness.** Despite the benefits, the implementation of content-based approaches faces challenges. Teachers often require

advanced proficiency in both the target language and the subject matter, which demands specialized training. Additionally, the lack of suitable instructional materials tailored to bilingual contexts poses difficulties. These challenges highlight the need for ongoing professional development and resource design to ensure the sustainability of CBLT and CLIL programs.

5. Assessment Considerations. Findings also suggest that traditional language assessments are insufficient to capture the outcomes of content-based learning. Effective evaluation must integrate both language skills and subject knowledge. Innovative assessment tools, such as performance-based tasks, project work, and portfolio evaluation, have proven to be more effective in reflecting learners' progress in bilingual education settings.

Conclusion

The analysis confirms that content-based approaches play a critical role in advancing bilingual education. By integrating language instruction with academic content, these approaches foster communicative competence, cognitive development, and intercultural awareness. The reviewed studies and theoretical perspectives consistently demonstrate that students engaged in content-driven instruction outperform their peers in both language proficiency and subject mastery.

However, the successful implementation of these approaches requires well-prepared teachers, carefully designed curricula, and innovative assessment strategies that address both linguistic and academic outcomes. Future research should focus on developing context-specific models, designing digital resources for bilingual instruction, and providing professional training programs that equip educators to handle the dual demands of language and content teaching.

References

- Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
- Cummins, J. (1984). *Bilingualism and Special Education: Issues in Assessment and Pedagogy*. Multilingual Matters.
- Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
- Dalton-Puffer, C. (2011). Content-and-language integrated learning: From practice to principles? *Annual Review of Applied Linguistics*, 31, 182–204.
- Genesee, F. (2004). What do we know about bilingual education for majority-language students? In T. K. Bhatia & W. C. Ritchie (Eds.), *The Handbook of Bilingualism* (pp. 547–576). Blackwell.

Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman.

Rodgers, T. S. (2001). Language teaching methodology. ERIC Clearinghouse on Languages and Linguistics.

O'ZBEK TILIDA DINIY VAQT BIRLIKLARI

URALOVA DILFUZA UKTAM QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

dilfuzauralova4@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi diniy vaqt birliklari, ularning kelib chiqishi, semantik va madaniy xususiyatlari, diniy matnlardagi o'rni, xalq og'zaki ijodi hamda adabiyotdagi ishlatilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hijriy-qamariy taqvim, namoz vaqtlarining nomlanishi, marosim bilan bog'liq vaqt birliklari hamda ularning o'zbek tili leksik tizimiga ta'siri yoritiladi. Diniy vaqt birliklarining milliy tafakkurdagi o'rni, ularning ma'naviy-falsafiy mazmuni va xalq madaniyatiga singib ketgan jihatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: diniy vaqt birliklari, hijriy taqvim, islom madaniyati, oy nomlari, ibodat, namoz vaqtlar, xalq og'zaki ijodi, leksik qatlam, semantika.

Annotation: This article analyzes religious time units in the Uzbek language, their origins, semantic and cultural characteristics, their role in religious texts, and their use in folklore and literature. It also explores the Hijri lunar calendar, the naming of prayer times, time units associated with rituals, and their influence on the lexical system of the Uzbek language. The article highlights the place of religious time units in national thinking, their spiritual and philosophical meanings, and the aspects that have deeply integrated into the culture of the people.

Keywords: religious time units, Hijri calendar, Islamic culture, month names, worship, prayer times, folklore, lexical layer, semantics.

Аннотация: В данной статье анализируются религиозные единицы времени в узбекском языке, их происхождение, семантические и культурные особенности, роль в религиозных текстах, а также особенности употребления в народном устном творчестве и литературе. Освещаются вопросы, связанные с хиджрийско-лунным календарем, названиями времени молитв, временными единицами, связанными с обрядами, и их влияние на лексическую систему узбекского языка. Также рассматривается значение религиозных единиц

времени в национальном мировоззрении, их духовно-философское содержание и глубоко укоренившиеся в народной культуре аспекты.

Ключевые слова: религиозные единицы времени, хиджрийский календарь, исламская культура, названия месяцев, поклонение, время молитв, народное устное творчество, лексический слой, семантика.

O'zbek tili — o'z tarixida boy diniy-madaniy ta'sirlarni o'zida mujassam etgan tillardan biridir. Tilning ichki tuzilmasida xalqning qadriyatlari, dunyoqarashi, e'tiqodi va ruhiyati o'z ifodasini topadi. Shunday qadriyatlar ichida vaqt tushunchasi alohida o'rin tutadi. Diniy vaqt birliklari nafaqat vaqtni o'lchovchi, balki ma'naviy mezon sifatida ham muhim hisoblanadi. Islom dini kirib kelganidan so'ng o'zbek xalqining tili, turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy hayoti tubdan o'zgardi. Shunga muvofiq, tilda ham yangi diniy atamalar, vaqtga oid tushunchalar, oy va kun nomlari paydo bo'ldi. Bu so'zlar tildagi semantik tizimga kirib, xalq tafakkurining ajralmas qismiga aylandi.

Islomda vaqt — Allohning buyuk ne'matlaridan biridir. Qur'oni karimda bir necha bor vaqtga qasam ichiladi: "Asr" surasida "Asrga qasamki, inson ziyon ichidadir" deyiladi. Bu oyat vaqtning qadriga yetish, uni to'g'ri sarflash, har bir lahzani ibodat va ezgu amalga bag'ishlash zarurligini ta'kidlaydi.

Vaqt tushunchasi islomiy tafakkurda ikki yo'nalishda talqin etiladi:

Tabiiy vaqt – kundalik hayot bilan bog'liq: kun, tun, oy, yil.

Ma'naviy yoki diniy vaqt – ibodat, marosim, muqaddas davr va ilohiy belgilar bilan bog'liq vaqt.

O'zbek xalqining tili ham ana shu ikki qatlamni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, "shom", "bomdod", "ramazon", "qadr kechasi" kabi birliklar diniy vaqtni ifodalasa-da, ular nutqda kundalik vaqt o'lchovi sifatida ham ishlatiladi.

Hijriy taqvim musulmonlar hayotining asosiy vaqt tizimidir. U qamariy (oy) kalendariga asoslanadi. Har bir oy 29 yoki 30 kundan iborat bo'lib, yil 354–355 kunni tashkil etadi. Bu tizimda quyosh emas, balki oy harakati asosiy mezon hisoblanadi.

O'zbek tilida hijriy oy nomlari arab tilidan o'zlashgan holda fonetik va morfologik moslashuvga uchragan. Quyida ularning ma'nosi va ishlatilish xususiyatlari keltiriladi:

Muharram – "taqiqlangan oy", arabcha "haram" so'zidan. Jang va qon to'kish man etilgan oy.

Safar – sinov, musibat oy deb talqin qilinadi.

Rabi'ul-avval va Rabi'us-soniy – “bahorning birinchi” va “ikkinchi” oylari. Payg'ambar (s.a.v.) tug'ilgan oy Rabi'ul-avvaldir.

Jumodul-avval, Jumodus-soniy – “sovuq fasl” bilan bog'liq oylar.

Rajab – muqaddas oy, ibodat ko'paytirilib, tavba qilish oyi.

Sha'bon – Ramazonga tayyorgarlik davri.

Ramazon – ro'za farz qilingan oy, “issiq” ma'nosini bildiruvchi ildizdan kelib chiqqan.

Shavvol – Ramazon hayiti boshlanadigan oy.

Zul-qa'da – tinchlik, sayohatdan to'xtash oyi.

Zul-hijja – haj amali bajariladigan oy.

Bu oy nomlari o'zbek xalqining diniy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Masalan, xalq tili va adabiyotida “Ramazon kirib keldi”, “Zul-hijjada haj safariga ketdi” kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Endi biz namoz vaqtlarini bildiruvchi zo'zga o'tadigan bo'lsak, namoz vaqtlarini bildiruvchi so'zlar o'zbek tilining eng qadimiy diniy birliklaridandir. Ular arab tilidan kirgan, biroq o'zbek tili fonetikasi va grammatikasiga moslashgan. Ularning har biri muayyan vaqt bilan birga ma'naviy holatni ham bildiradi:

Bomdod – “tong otish” vaqtida o'qiladigan namoz; arabcha fajr. O'zbek xalq nutqida “bomdoddan beri” iborasi “ertalabdan beri” ma'nosida ishlatiladi.

Peshin – quyosh eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan payt; bu so'z qadimgi turkiy “pesin” (o'rta kun) so'zidan.

Asr – quyosh og'a boshlagan payt; Qur'ondagi “Asr” surasi bilan bog'liq.

Shom – quyosh botganidan keyingi vaqt; arabcha “masā” so'ziga muqobil.

Xufton – kech tushgach o'qiladigan namoz va vaqt; “xuft” forsha “uyqu” so'zidan.

Bu birliklar diniy ibodat vaqtlarini bildirsa-da, xalq og'zaki tili va adabiyotida vaqt o'lchovi sifatida keng qo'llanadi. Masalan, “Shomdan oldin yetib olay”, “Xuftongacha kutdim” kabi gaplarda ular sof vaqt ma'nosini ifodalaydi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq vaqt birliklari

Diniy marosimlarda vaqt muqaddaslik belgisi hisoblanadi. Islomiy marosimlarda vaqt faqat jismoniy o'lchov emas, balki ruhiy tayyorgarlik, Allohga yaqinlashuv davridir.

O'zbek tili leksikasida quyidagi diniy vaqt nomlari xalq orasida keng ishlatiladi:

Ramazon hayiti – “Ro'za hayiti” deb ham yuritiladi, Allohning rahmati va kechiriqlari bilan to'la davr.

Qurbon hayiti – Ibrohim (a.s.)ning fidokorligi bilan bog'liq bayram.

Laylatul Qadr (Qadr kechasi) – ming oydan afzal tun.

Arafa kuni – haj amali arafasida kechadigan muqaddas kun.

Hijriy yil boshi – yangi diniy yilning boshlanishi.

Bu birliklar xalq orasida diniy marosim, duo va xotira bilan bog'liq. Masalan: "Qadr kechasida duo qil", "Arafa kuni sadaqa ber" kabi iboralar ma'naviy qadriyat sifatida shakllanib ketgan. Xalq og'zaki ijodi diniy tushunchalarning milliy madaniyatga singib ketgan ko'rinishidir. Maqollar, matallar, hikmatli so'zlarda diniy vaqt birliklari o'z aksini topadi:

"Ramazon ro'za – qalbni toza."

"Bomdodga turgan – baraka topgan."

"Asrga qasam – vaqtning qadri bilgan najot topar."

"Shom bilan bomdod oralig'i – umrning o'zi."

Bu maqollar xalq tafakkurining diniy-falsafiy asoslarini ifodalaydi. Diniy vaqt bu yerda faqat vaqt o'lchovi emas, balki sabr, baraka, poklik va najot timsolidir.

O'zbek adabiyotida diniy vaqt obrazlari

O'zbek adabiyoti tarixida diniy vaqt obrazlari alohida o'rin tutadi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Cho'lpon kabi ijodkorlar vaqtni ko'pincha diniy ma'noda tasvirlaganlar.

Masalan, Navoiy "Munojot" asarida tongni uyg'onish, shomni xotima, tunni tavba va poklanish ramzi sifatida talqin qiladi.

Mashrab esa "Bomdod tongida ruhim uyg'ondi" misrasi orqali ilohiy uyg'onish holatini ifodalagan.

Cho'lponning "Shom yeldi" she'rida esa shom — ruhiy iztirob, kech — tafakkur va tavba timsoli sifatida keltiriladi.

Shunday qilib, diniy vaqt birliklari o'zbek adabiyotining badiiy tizimida ham semantik yuklama kasb etgan. Tilshunoslikda diniy vaqt birliklari leksik-semantik guruh sifatida o'rganiladi. Ular quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Diniy motivatsiyalangan ma'no – ibodat, muqaddas vaqt, ilohiy ishlar bilan bog'liq.

Madaniy semantika – xalq e'tiqodi va an'analarda mustahkam o'rin tutadi.

Metaforik ishlatilish – vaqt orqali ruhiy holat ifodalanadi ("Shom yuragimda", "Bomdoddan yangi hayot").

Barqarorlik – bu birliklar asrlar davomida ma'nosini yo'qotmagan.

Diniy vaqt birliklari o'zbek tili leksikasida mustaqil semantik qatlamni tashkil etadi. Ular xalqning ma'naviy dunyosini, diniy tafakkurini ifodalovchi vosita sifatida yashab kelmoqda.

Bugungi o'zbek jamiyatida diniy vaqt birliklari keng qo'llanilmoqda. Teleradio dasturlarda, e'lonlarda, ijtimoiy tarmoqlarda "iftorlik vaqti", "bomdod azoni", "Ramazon muborak" kabi iboralar muntazam uchraydi. Bundan tashqari, o'zbek tili lug'atlarida ham bu birliklar aniq semantik izoh bilan kiritilgan. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "bomdod – tong otishdan oldingi vaqt", "shom – quyosh botgan payt" tarzida sharhlanadi. Bu, diniy vaqt birliklarining adabiy tilning ajralmas qismi bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni karim. – Toshkent: Movarounnahr, 2001.
2. Hadislar to'plami. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2016.
3. Abdug'afforov A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
5. Zohidov H. Islom va o'zbek xalqining ma'naviy hayoti. – Toshkent: Movarounnahr, 2008.
6. Navoiy A. Lison ut-Tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
7. Matyakubov B. O'zbek xalqining diniy an'analari. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
8. To'xtasinov S. O'zbek adabiyotida diniy obrazlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
9. Qurbonova G. Til va tafakkur uyg'unligi. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2022.
10. Internet manbalari: www.islom.uz, www.muslim.uz, www.hilolnashr.uz.

SO‘ZLARNING TUZILISH JIHATIDAN TURLARI**URINOVA ODINA BAHRIDDIN QIZI**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi,

e-mail:odinaurinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'zlarning tuzilish jihatidan turlari, ularning yasash usullari, morfemik tarkibi, grammatik xususiyatlari va tuzilishdagi o'zaro farqlari yoritilgan. Maqolada tub, yasama, qo'shma, juft va takror so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni aniqlash va to'g'ri qo'llashning nazariy hamda amaliy jihatlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, so'z yasallishining til boyishidagi o'rni ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: so'z tuzilishi, tub so'z, yasalma so'z, murakkab so'z, morfema, affiks, tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются структурные типы узбекских слов, способы их образования, морфемный состав, грамматические особенности и взаимные различия в структуре. В статье рассматриваются особенности корневых, производных, составных, парных и повторяющихся слов, теоретические и практические аспекты их идентификации и правильного использования. Также анализируется роль словообразования в обогащении языка.

Ключевые слова: строение слова, коренное слово, производное слово, сложное слово, морфема, аффикс, лингвистика.

O'zbek tili boy, qadimiy va rivojlangan til hisoblanadi. Har qanday tilning asosiy birligi - bu so'zdir. So'z orqali inson o'z fikrini ifoda etadi, atrofdagi olamni anglaydi va boshqalar bilan muloqot qiladi. So'zlar ma'no, shakl va tuzilish jihatidan turli bo'ladi. So'zlarning tuzilish jihatidan turlarini o'rganish grammatikani chuqur tushunish, so'z boyligini to'g'ri qo'llash va yangi so'zlar yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda so'zlarning tuzilish jihatidan turlari besh guruhga ajratiladi: tub so'zlar, yasama so'zlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar va takror so'zlar. Quyida har bir tur haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. So'z tilning eng muhim nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi: daraxt (predmet nomi), ong (mavhum tushuncha nomi),

ishlamoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), shirin (maza-ta'm nomi), katta (hajm nomi), besh (miqdor nomi) kabi. Tilning lug'at boyligidagi bunday so'zlar leksik birliklar sanaladi.[1:140].

So'zlar tuzilishi jihatidan sodda, qo'shma va juft bo'ladi. Bittagina o'zak morfemasi bo'lgan so'z sodda so'z deb atalib, u tub yoki yasama bo'lishi mumkin, Tarkibida so'z yasovchi affiksi bo'lmagan sodda so'zlar tub so'z, o'zakka so'z yasovchi qo'shib yasalgan sodda so'zlar esa yasama so'z deyiladi. Masalan: *o'qi, keldi, bola, katta, yosh, uchovi* kabi so'zlar tub so'z; *ulg'ay, bilim, serzavq, qishloq, ommaviy* kabi so'zlar yasama so'z hisoblanadi. Kamida ikki o'zakdan iborat bo'lib, bir tushunchani anglatadigan va bir urg'u bilan aytiladigan so'zlar qo'shma so'z deyiladi. Masalan: *beibog', yeryong'oq, gutojixo'roz, rahmdil, beshiktebratar, oynayi jahon, jigarrang, O'rta Chirchiq* kabi. Qo'shma so'zlar qo'shib yozilishi yoki ajratib yozilishi mumkin.

Tub so'zlar hech qanday qo'shimcha yoki boshqa so'zlardan yasalmasdan, o'z holicha mavjud bo'lgan so'zlardir. Ular so'zning eng asosiy, sodda shaklini tashkil etadi. Masalan: *kitob, suv, daraxt, bola, oq, kel, bor* kabi. Tub so'zlar yangi so'zlar yasash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *kitob* so'zidan *kitobcha, kitobdor, kitobxon* kabi so'zlar yasaladi. Tub so'zlar tilda eng qadimiy va ko'p ishlatiladigan qatlamni tashkil etadi. Ular har qanday so'z yasash jarayonining negizidir.

Yasama so'zlar — bu tub so'zga affiks (qo'shimcha) qo'shilish orqali hosil qilingan so'zlardir. Yasama so'zlar tilda yangi ma'nolar yaratadi, shu bilan birga lug'at boyligini kengaytiradi.

Masalan: *ish* → *ishchi*; *bilim* → *bilimli*; *o'qit* → *o'qituvchi*; *yosh* → *yoshlar*.

Yasama so'zlar so'z yasash jarayonining eng faol turi hisoblanadi. Ular tildagi dinamik o'zgarishlarni, zamonaviy tushunchalarni ifodalashda keng qo'llanadi. Sodda yasama so'zlar o'zakka so'z yasovchi affiks qo'shish orqali yasaladi. Bu usul affiksatsiya usuli deb atalib, o'zbek tilida barcha agglutinativ tillardagi kabi eng keng tarqalgan usul hisoblanadi.[2:80].

Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zning birlashishi natijasida hosil bo'ladi. Ular bir butun so'z sifatida ishlaydi va yagona ma'noni bildiradi.

Masalan: *yo'lbars, temiryo'l, ishxona, boshqarmasi, qushqo'nmas*.

Qo'shma so'zlar turli yo'llar bilan yasaladi:

Soddalashuv yo'li bilan: *temir yo'l* → *temiryo'l*

Birlashtirish yo'li bilan: *qo'shni + uy* → *qo'shniuy* (qo'shnilar uyi ma'nosida)

Qo'shma so'zlar ko'pincha murakkab tushunchalarni ixcham ifodalashda ishlatiladi.

Juft soʻzlar — ikki turdosh yoki maʼnodosh soʻzlarning juftlanib ishlatilishidan hosil boʻladi. Ular tildagi ifodaviylikni oshiradi, soʻz maʼnosini kuchaytiradi yoki umumlashtiradi. Masalan: ota-ona, katta-kichik, qora-oq, goʻzal-chiroyli, tinch-osoyishta.

Juft soʻzlar koʻproq emotsional maʼnoda qoʻllanadi. Ular tildagi badiiylilikni oshirib, nutqni taʼsirchan qiladi.

Juft soʻzlar ikki soʻzning maʼno va grammatik jihatdan teng bogʻlanishidan tashkil topadi va chiziqcha (defis) bilan yoziladi: ona-bola (ona-yu bola), bogʻ-boʻston (bogʻ-u boʻston) kabi. Juft soʻzlar ham har xil tuzilishi mumkin: — har ikki qismi mustaqil qoʻllanadigan soʻzlardan iborat boʻladi: opa-singil, gʻam-tashvish, katta-kichik, keldi-ketdi kabi; — ikkala qismi mustaqil qoʻllana olmaydigan soʻzlardan iborat boʻladi: algʻov-dalgʻov, onda-sonda, apil-tapil kabi.

Takror soʻzlar — bir soʻzning ikki marta yoki bir qismi takrorlanib ishlatilishidan hosil boʻladi. Ular harakatning davomiyligini, kuchayishini yoki takrorlanishini bildiradi.

Masalan: asta-sekin, tez-tez, ilon-ilon, yugur-yugur, oz-ozdan.

Bu turdagi soʻzlar tildagi taʼsirchanlikni kuchaytiradi va badiiy nutqda keng ishlatiladi.

Soʻzlarning tuzilish jihatidan oʻrganilishi morfologiya fanining muhim qismi hisoblanadi. Bu orqali: soʻz yasovchi qoʻshimchalarning vazifasi, soʻz yasash yoʻllari, yangi soʻz hosil qilish imkoniyatlari oʻrganiladi.

Soʻzlarning tuzilish jihatidan tasnifi tilshunoslikda morfemik tahlilning asosini tashkil etadi. Tub, yasalma va murakkab soʻzlarning farqlanishi tilning ichki qurilishini anglash, lugʻaviy boylikni oʻrganish hamda yangi soʻzlar yasashda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Har bir turdagi soʻzlar tilning dinamik rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ularni chuqur oʻrganish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: "Talqin"-2005. B- 140.
2. Muxiddinova X., Xudoyberganova D. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. T: "Oʻqituvchi". – 2006. B-80.
3. Sapayev Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, -T.: 2009.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020.

INTEGRATING LANGUAGE AND EDUCATION INTO INTERNATIONAL STANDARDS: PROBLEMS AND PERSPECTIVES

VAKHOBOVA RUKHSHONA BAKHROM QIZI

3rd-year student, Faculty of Foreign Philology

National University of Uzbekistan

e-mail: ruxshonavaxobova06@gmail.com

Abstract. In an increasingly interconnected world, education systems are under pressure to align with international standards in order to improve quality, comparability, and global mobility. This paper discusses the integration of national language and education policies into international frameworks such as CEFR and PISA. The article examines theoretical underpinnings, practical challenges, and the potential consequences for linguistic and cultural identity. It also presents findings from a comparative review of educational reforms in several countries, including Uzbekistan, offering insights into the complexities of global standardization in education and language learning.

Keywords: Globalization, international standards, language education, CEFR, education policy, multilingualism, educational reform

Аннотация. В условиях усиливающейся взаимосвязанности мирового сообщества системы образования находятся под давлением необходимости соответствовать международным стандартам, что направлено на повышение качества, сопоставимости и глобальной мобильности. В данной статье рассматривается интеграция национальной языковой и образовательной политики в международные рамки, такие как CEFR и PISA. Анализируются теоретические основы, практические трудности и возможные последствия для языковой и культурной идентичности. Кроме того, представлены результаты сравнительного обзора образовательных реформ в ряде стран, включая Узбекистан, которые позволяют глубже понять сложность процессов глобальной стандартизации в сфере образования и изучения языков.

Ключевые слова: глобализация, международные стандарты, языковое образование, CEFR, образовательная политика, многоязычие, образовательная реформа.

Annotatsiya. Tobora ortib borayotgan globallashuv sharoitida ta'lim tizimlari sifatni oshirish, taqqoslash imkoniyatini kengaytirish va xalqaro mobillikka erishish uchun xalqaro standartlarga moslashishga majbur bo'lmoqda. Ushbu maqolada milliy

til va ta'lim siyosatining CEFR va PISA kabi xalqaro me'yoriy doiralarga integratsiyasi tahlil qilinadi. Unda nazariy asoslar, amaliy muammolar hamda til va madaniy identifikatsiyaga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan oqibatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonni ham qamrab olgan bir qator davlatlardagi ta'lim islohotlari bo'yicha qiyosiy tahlil natijalari keltirilib, ta'lim va til o'qitishda global standartlashtirish jarayonlarining murakkabligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, xalqaro standartlar, til ta'limi, CEFR, ta'lim siyosati, ko'p tillilik, ta'lim islohoti.

Introduction. The 21st century has brought about rapid globalization, transforming the way nations approach education and language policies. International standards such as the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) and Programme for International Student Assessment (PISA) serve as tools for benchmarking educational performance and language competence. These frameworks are widely used by policymakers to harmonize national curricula with global expectations. However, this process is not without controversy. Aligning language and education systems with international norms can pose risks to linguistic diversity, cultural identity, and pedagogical autonomy. This paper aims to explore both the theoretical justifications and practical implications of integrating national education and language policies into international standards. The discussion draws on global trends while highlighting specific examples from post-Soviet and developing nations, particularly Uzbekistan.

Methods. This study employs a qualitative comparative analysis of policy documents, academic literature, and international frameworks. Case studies from countries undergoing educational reform were examined to identify common challenges and best practices. Additionally, interviews with language educators and curriculum developers in Uzbekistan were conducted to gather first-hand insights into the practical implementation of international standards.

Results. The analysis revealed several key outcomes of integrating international standards in language and education:

1. Improved comparability of qualifications: Countries adopting CEFR or PISA frameworks can better position their learners in international academic and labor markets.

2. Curriculum modernization: The push to meet international benchmarks often results in more communicative, learner-centered pedagogy.

3. Teacher development: International standards usually require updated training for teachers, focusing on competence-based approaches. However, several challenges also emerged:

4. Language policy dilemmas: Multilingual countries struggle with deciding which languages to prioritize—mother tongue, official state language, or global lingua franca (typically English).

5. Cultural mismatch: International frameworks may not reflect the cultural and linguistic realities of non-Western nations.

6. Unequal access: Urban schools often adapt more easily to international standards than rural or marginalized communities. In the case of Uzbekistan, the national government has adopted CEFR for English language teaching and is gradually introducing international education metrics. However, implementation varies widely, and local languages sometimes receive less emphasis in favor of global ones.

Discussion. The results indicate that while international standards provide useful benchmarks, their adoption must be handled with care. One-size-fits-all approaches can undermine local educational needs and linguistic heritage. Policymakers need to strike a balance between global relevance and national identity. For example, in Uzbekistan, while CEFR adoption has improved English instruction, the lack of resources in Uzbek and Karakalpak languages risks marginalizing native speakers. Similarly, the PISA framework offers valuable data on student achievement but may fail to account for context-specific educational goals.

Conclusion. The integration of language and education into international standards is both an opportunity and a challenge. While these frameworks support global communication and educational improvement, they must be localized to fit the specific needs of individual countries. Governments should approach integration as a process of adaptation, not simple adoption. By maintaining a strong national language policy and investing in teacher development, countries like Uzbekistan can benefit from global standards without compromising their cultural and linguistic identity.

REFERENCES

1. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. 2020.
2. OECD. *PISA 2022 Results*. Paris: Organisation for Economic Cooperation and Development. 2022.

3. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO. 2017.
4. Shohamy, E. *Language Policy: Hidden Agendas and New Approaches*. 2006. Routledge.
5. Tsoy, D. "Language Education Reforms in Uzbekistan: Between Tradition and Globalization." *Central Asia Journal of Education*, (2021. 12(1), 45–60.
6. Rahimova, Z. **"Adoption of CEFR in Uzbekistan's English Curriculum."** *Language Teaching Review*, 2020. 8(3), 30–38.

THE IMPORTANCE AND IMPACT OF PHILOLOGICAL TEACHING IN EDUCATION

XALMANOVA SHOIRA MADAT QIZI.

shoiraxalmanova@gmail.com

Student of Chirchik State Pedagogical University

Scientific supervisor: Umarova Ziyoda

zumarova777victory@gmail.com

Teacher of tourism faculty, Chirchik State Pedagogical university

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida filologik ta'limning ahamiyati va ta'siri, xususan, O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning ortib borishi tahlil qilinadi. Filologik ta'lim o'quvchilarda tinglash, o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda muloqot, madaniy almashinuv va professional o'sish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maqolada innovatsion usullar, jumladan "zanjirli mashq" va rasm asosida ishlash kabi metodlar yoritilib, ular o'quvchilar qiziqishini oshirish, tez fikrlashni rivojlantirish va yangi so'zlarni yodlashda samarali ekanligi ko'rsatilgan. Filologik ta'lim natijalari o'quvchilarning bilim darajasi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va umumiy akademik yutuqlarining oshishini ta'minlaydi. Tahlil jarayonida o'qituvchilarning nazorati va baholash faoliyati muhim o'rin tutadi, shuningdek, talabalar diqqat va intizomni saqlashlari zarurligi ta'kidlanadi. Umuman olganda, filologik ta'lim til kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot va ta'limiy muvaffaqiyatga sezilarli hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: filologik ta'lim, til ko'nikmalari, chet tillari, innovatsion usullar, talaba faoliyati, tanqidiy fikrlash.

Abstract. This article explores the importance and impact of philological teaching in modern education, with a focus on Uzbekistan's growing demand for foreign language learning. Philological education enhances students' speaking, writing, reading, and translation skills while providing opportunities for communication, cultural exchange, and professional growth. The study highlights innovative methods such as chain drills and picture-based activities, which foster engagement, quick thinking, and memorization. The results of philological teaching demonstrate improved student performance, critical thinking, and academic achievement. The analysis emphasizes the role of teachers in monitoring, guiding, and evaluating students' progress, as well as the necessity for learners to maintain focus and discipline. Overall,

philological teaching contributes significantly to language proficiency, intercultural competence, and educational success.

Keywords: philological teaching, language skills, foreign languages, innovative methods, student engagement, critical thinking.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение и влияние филологического образования в современной системе обучения, особенно в условиях растущего спроса на изучение иностранных языков в Узбекистане. Филологическое обучение развивает навыки говорения, чтения, письма и перевода, открывая возможности для общения, культурного обмена и профессионального роста. В работе выделяются инновационные методы, такие как «цепная тренировка» и использование картинок, которые повышают интерес студентов, развивают быстроту мышления и помогают в запоминании новых слов. Результаты филологического обучения свидетельствуют об улучшении успеваемости, критического мышления и общей академической подготовки учащихся. Анализ подчеркивает роль преподавателей в контроле и оценке знаний, а также необходимость концентрации и дисциплины со стороны студентов. В целом филологическое обучение играет важную роль в формировании языковой компетенции, межкультурного взаимодействия и образовательного успеха.

Ключевые слова: филологическое образование, языковые навыки, иностранные языки, инновационные методы, вовлечённость студентов, критическое мышление.

Introduction. Nowadays, in New Uzbekistan, philological teaching is developing day by day. Moreover, its importance and impact play a crucial role in education, as it has become a demand of the modern era. In modern language education, integrating real-world materials has proven effective in enhancing students' engagement and comprehension [1; 28]. At universities, schools, and other educational institutions, the value of philological teaching is increasing, since children begin learning foreign languages from an early age. Parents also want their children to know an additional foreign language. Knowing another language improves speaking skills, helps with translation, facilitates communication with tourists, and enables cooperation with foreign countries. In addition, it opens many opportunities for young people, such as traveling abroad, earning well, running a personal business, gaining advanced qualifications, and teaching effectively through interesting methods.

The impact of philological teaching is significant in education. For example, English is an international language spoken by almost half of the world's population. It is used in oral and written communication in both formal and informal contexts. Therefore, one needs to master English skills, including listening, reading, writing, and speaking, which are obtained through the learning process [2; 33]. Furthermore, teaching English belongs to philological education, and the number of learners is growing rapidly in Uzbekistan, which reflects the success rate of language learning.

Methods of philological teaching. One useful technique is the chain drill method. A student pronounces a new word after hearing it and provides a translation, while the next student repeats the word without translation and adds another word. The process continues until the last participant. If a student cannot pronounce the word, they are eliminated from the game. This method helps learners memorize new words more easily and with greater interest [3].

At universities, teachers often support such interactive activities. Only reading new themes can be boring, while games and logical tasks make lessons more engaging. Students become enthusiastic, motivated, and competitive, which improves their quick thinking and problem-solving skills. Another effective method is working with pictures, which promotes students' worldview, comparison skills, and critical thinking.

The methods used in philological teaching emphasize interactive and student-centered approaches to language learning. Techniques such as the chain drill method encourage active participation by having students repeat and build upon each other's responses, which enhances memorization and speaking fluency. Additionally, working with visual aids like pictures helps develop students' critical thinking and comparative skills by linking language to real-world contexts. These innovative methods create a dynamic classroom environment that motivates learners, fosters quick thinking, and improves overall language acquisition. Such approaches, combined with continuous teacher support and feedback, ensure that students remain engaged and make steady progress.

Results of philological teaching. Teaching philological disciplines requires an in-depth understanding of language, literature, and cultural contexts. Recent years have seen an emphasis on developing innovative strategies for philological education [4;1340]. These methods improve participation, homework performance, and overall academic achievement. Teachers observe and analyze students' progress, providing

necessary guidance. Strict monitoring and encouragement raise students' knowledge levels, and eventually, learners appreciate the discipline and efforts of their teachers.

The results of philological teaching clearly demonstrate significant improvements in students' language proficiency and overall academic performance. Through the application of innovative methods such as chain drills and picture-based activities, learners show increased engagement, better retention of vocabulary, and enhanced speaking and writing skills. Additionally, students develop stronger critical thinking abilities, enabling them to analyze texts more effectively and express their ideas with greater clarity. Regular teacher monitoring and feedback contribute to consistent progress, while the cultivation of discipline and focus among students ensures sustained learning outcomes. Overall, philological education proves to be a powerful tool in advancing both linguistic competence and cognitive development.

Analysis of philological teaching. Education aims to help individuals distinguish between right and wrong and make correct decisions. This requires critical thinking and the ability to analyze methods and conclusions [5;541-542]. Teachers analyze test results, compare strengths and weaknesses, and evaluate students' comprehension. Students must also reduce distractions such as excessive time on social networks, as concentration and focus are crucial for effective learning.

Moreover, philological teaching plays a vital role in fostering intercultural awareness among students. As learners engage with foreign languages, they inevitably encounter diverse cultural perspectives, traditions, and values. This exposure not only broadens their worldview but also enhances their empathy and tolerance toward different communities. Such intercultural competence is essential in today's globalized society, where effective communication across cultures can lead to better collaboration, mutual respect, and the resolution of misunderstandings. Therefore, philological education contributes not only to linguistic proficiency but also to the development of socially responsible and culturally sensitive individuals.

In addition, the integration of technology in philological teaching has transformed traditional learning environments, making them more dynamic and accessible. Digital tools such as language learning apps, online dictionaries, and multimedia resources support personalized and interactive learning experiences. Teachers can track students' progress in real-time and provide immediate feedback, which increases motivation and accountability. Furthermore, virtual exchange programs and online discussion platforms allow students to practice language skills with native speakers and peers worldwide, enhancing their practical communication abilities. These technological

advancements underscore the importance of continuous innovation in philological teaching to meet the evolving needs of learners in the digital age.

Discussion. The importance and impact of philological teaching in education are undeniable. All foreign languages belong to philology, including English and Russian. Education should provide students with accurate knowledge of language history, grammar, and application, enabling them to achieve their future goals.

Furthermore, the future of philological teaching lies in its adaptability to changing educational demands and global trends. As the world becomes increasingly interconnected, the ability to communicate effectively in multiple languages and understand cultural nuances will be indispensable for students' academic and professional success. Therefore, educators must continue to develop innovative teaching methods that engage learners, foster critical thinking, and cultivate practical language skills. Continuous teacher training and curriculum updates are essential to ensure that philological education remains relevant and impactful in preparing students for the challenges of the modern world.

Finally, philological teaching contributes significantly to personal development beyond academic achievement. Mastery of language enhances cognitive abilities such as memory, problem-solving, and creativity. It also boosts students' confidence and opens doors to diverse career opportunities and international experiences. By promoting a lifelong love for language learning, philological education empowers individuals to become active global citizens who can contribute meaningfully to society.

References:

1. Learning Emergency Situations Vocabulary Through the Comments of English Breaking News Videos in ESP Classes, p. 28.
2. Assessing Language Skills for Emergency Scenarios, p. 33.
3. Methods of Teaching English in a Non-Philological Educational Institution, article.
4. Effective Strategies for Teaching Philological Disciplines: Practical Cases and Innovative Approaches, p. 1340.
5. Theoretical Foundations of Teaching Critical Analysis in Philological Education, pp. 541–542.

RASMIY- DIPLOMATIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

XALMETOVA AYGANIM DAVLETOVNA,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada rasmiy diplomatik uslubning mohiyati, asosiy belgilaridan biri bo'lgan aniqlik, betaraflik, etik me'yorlarga amal qilish kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, xalqaro aloqalarda diplomatik nutqning o'rni, diplomatik hujjatlarning uslubiy xususiyatlari va standart iboralardan foydalanish tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: rasmiy uslub, diplomatik uslub, diplomatik hujjat, xalqaro munosabatlar, etik me'yorlar.

Аннотация. В статье обсуждаются такие аспекты, как ясность, нейтралитет, соблюдение этических норм, что является одним из основных признаков официальной дипломатии. Также будет проанализирована роль дипломатической речи в международных отношениях, методологические особенности дипломатических документов и использование стандартных выражений.

Ключевые слова: официальный стиль, дипломатический стиль, дипломатический документ, международные отношения, этические критерии.

Til insoniyat tarixida eng muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, davlatlararo munosabatlarda ham alohida o'rin egallaydi. Rasmiy-diplomatik uslub rasmiy uslubning alohida turi sifatida xalqaro aloqalarni o'rnatish, muzokaralar olib borish va xalqaro hujjatlarni rasmiylashtirishda qo'llaniladi. Shu bois ushbu uslub xalqaro munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Rasmiy diplomatik uslub — bu xalqaro munosabatlarda davlatlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy aloqalarini ifodalashda qo'llaniladigan, qat'iy me'yor va qoidalarga asoslangan nutqiy uslubdir.

Uning asosiy maqsadi – davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda turli siyosiy institutlar o'rtasida aniq, lo'nda va xolis muloqotni ta'minlashdir. Bu uslub diplomatik

yozishmalar, muzokaralar, shartnomalar, deklaratsiyalar va notalar kabi hujjatlarda qo'llaniladi. L. R. Duskaeva rus rasmiy ish yuritish uslubini tasniflashda to'rtta kichik uslubga ajratadi – qonunchilik, yuridik, ma'muriy, diplomatik. Shu jihatdan rasmiy diplomatik uslub rasmiy uslubning alohida ko'rinishi sifatida xalqaro hujjatlarni tuzish, muzokaralar olib borish va diplomatik yozishmalarda asosiy rol o'ynaydi. [1: 45].

Rasmiy uslub matnlarining janr xususiyatlari huquqiy sohada amalga oshiriladigan odatiy maqsadni belgilash bilan belgilanadi. Har bir maqsadni belgilash kommunikativ harakatlarning ma'lum bir ketma-ketligi sifatida amalga oshiriladi. Shunday qilib, janr shakli ijtimoiy tajriba bilan mustahkamlangan kommunikativ harakatlar to'plami orqali umumiy maqsadni amalga oshirish mumkin. Har bir kichik uslub o'ziga xos janrlar to'plami bilan tavsiflanadi, masalan: ish yuritish uchun – ma'muriy hujjatlar, ko'rsatmalar, buyruqlar, shartnomalar, ish yozishmalar va boshqalar; yuridik uchun – qonun, farmon, kodeks, konstitutsiya, turli ustavlar va boshqalar; diplomatik uchun – xalqaro shartnoma, konventsiya, nota, deklaratsiya, memorandum va boshqalar.

Rasmiy diplomatik uslub davlatlarning tashqi siyosatini huquqiy, siyosiy va madaniy jihatdan ifodalovchi nutq turi hisoblanadi. Bu uslubning asosiy vazifasi:

- davlat pozitsiyasini aniq va ravshan yetkazish;
- betaraflik va xolislikni saqlash;
- xalqaro etiket qoidalariga rioya qilishdan iborat.

U diplomatik yozishmalarda (nota, memorandum, kommyunike, shartnoma va bitimlarda) keng qo'llaniladi.

Nota – davlatning rasmiy pozitsiyasini bildiruvchi hujjat.

Memorandum – muayyan masalaga oid asoslantirilgan bayonot.

Kommyunike – muzokaralar natijalari bo'yicha qabul qilingan qo'shma bayonot.

Shartnomalar va bitimlar – xalqaro huquqiy majburiyatlarni belgilovchi hujjatlar.

Diplomatik maktublar – odatda do'stona va rasmiy shaklda yoziladigan murojaatlardir. [2: 98].

Rasmiy uslubning asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir – unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so'zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Rasmiy ish yuritish uslubi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar uchun odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida turi. Shuning uchun ham muloqot shaxsiy mayl asosida emas, balki ijtimoiy manfaatlar asosida shakllanadi. Bu yozma ishbilarmonlik aloqasining o'ziga xos xususiyatini – uning rasmiylashtirilganligini tushuntiradi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma munosabatlarining asosini hujjatlashtirilgan shaklda – ish xatlari shaklida taqdim etilgan ma'lumotlar almashinuvi tashkil etadi.

Rasmiy uslub – bu jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Rasmiy ish yuritish uchun matn, birinchi navbatda, kommunikativ jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki u to'g'ri va aniq bo'lishi kerak. Til, uslub va kommunikativ vaziyat talablariga javob bermaydigan matn tuzish ishning borishiga xalaqit berishi mumkin. Shu sababli ish yozishmalar tilida fikrni aniqroq, ixcham va ravshan ifodalashga yordam beradigan hujjat matnining noaniqlik va boshqa talqinini bartaraf etishga yordam beruvchi nutq vositalaridan foydalaniladi. Rasmiy uslubda so'roq va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog'ozlari matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan keng foydalaniladi.

Rasmiy diplomatik uslubning asosiy xususiyatlari:

1. Aniqlik va xolislik – matnda ikkilanish va tushunmovchilikka yo'l qo'yilmaydi.
2. Betaraflik – diplomatik uslubda hissiyotlardan xoli, neytral mazmundagi iboralardan foydalaniladi.
3. Normativ grammatika – murakkab gaplar, rasmiy terminlar va qat'iy me'yorlarga rioya qilinadi.
4. Diplomatik klişelar – “Hurmatli janob”, “yuqori ehtirom bilan”, “o'zaro hamkorlik” kabi tayyor iboralar keng qo'llanadi.
5. Etik va etiket qoidalari – hurmat, madaniyat va diplomatik odob qoidalari asos qilib olinadi.

Xalqaro munosabatlarda rasmiy-diplomatik uslubning ahamiyati beqiyosdir. U davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi, huquqiy asoslarni shakllantiradi va hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yadi. Uning asosiy xususiyatlari aniqlik, betaraflik, standart iboralardan foydalanish va etiket me'yorlariga rioya qilishdir. Shu sababli, diplomatik uslub xalqaro aloqalarda eng ishonchli kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.- 45 b
2. Muhitdinova X.S., Abdullayeva N.A. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi. - T.: « O'zbekiston», 1968.- 98 b

3. Mahmudov N. O'zbek tilida ish yuritish. - T.: 1990

4. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Tuzuvchi: Boltayev

TIL BIRLIKLARI O'RTASIDAGI LISONIY MUNOSABATLAR

XASANOVA NAFOSAT

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

nafosatxasanova819@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til tizimini tashkil etuvchi birliklar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ya'ni paradigmatic, sintagmatic munosabatlar tahlil qilinadi. Til birliklarining o'zaro ta'siri, shuningdek lisoniy munosabatlarning nutqda hosil bo'lish jarayoni ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit sozlar: til tizimi, lisoniy munosabat, paradigmatic, sintagmatic, fonetik sath, assotsiativlik, leksema.

Annotation: This article analyzes the interrelationships between the units that constitute the language system, namely the paradigmatic and syntagmatic relationships. The mutual influence of linguistic units, as well as the process of linguistic relations emerging in speech, are also discussed.

Key words: language system, linguistic relations, paradigmatic, syntagmatic, phonetic level, associativity, lexeme.

Аннотация: В статье анализируются взаимосвязи между единицами, составляющими языковую систему, то есть парадигматические и синтагматические отношения. Также показано взаимодействие языковых единиц, а также процесс формирования языковых отношений в речи.

Ключевие слова: языковая система, языковое отношение, парадигматика, синтагматика, фонетический уровень, ассоциативность, лексема.

Til insoniyatning eng muhim vositalaridan biridir. U orqali biz fikrlarimizni ifodalaymiz, bir-birimiz bilan muloqot qilamiz, bilimlarimizni almashtiramiz va ijtimoiy hayotni tashkil qilamiz. Tilning tashkili va tuzilishi juda murakkab va qiziqarlidir. Til birliklari o'rtasida aniq munosabatlar mavjud bo'lib,

ular tilning tushunilishini va ishlatilishini ta'minlaydi. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar turlarini o'rganish tilning tuzilishini, grammatik xususiyatlarini va leksik boyligini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar ikki asosiy turga bo'linadi: sintagmatika va paradigmatika. Ushbu ikkalasi ham tilni chuqurroq tushunish va tahlil qilish uchun muhim vositalar hisoblanadi. Sintagmatika va paradigmatika tushunchalari tilshunoslikda eng ko'p muhokama qilinadigan va tilni anglash uchun zarur bo'lgan asosiy nazariyalar hisoblanadi.

Sintagmatika —bu til birliklarining ketma-ketlikdagi bog'lanishini, ya'ni jumlada so'zlarning bir-biriga qanday bog'lanishini o'rganadigan tilshunoslik sohasidir. Sintagmatika, tilning gorizontal tuzilishini ta'riflaydi, ya'ni so'zlarning bir-biriga qanday bog'lanishini va jumlada o'rin olishini ko'rsatadi. Sintagmatika so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabatlarni o'rganishga imkon beradi. Masalan, "Yigit kitob o'qiydi" jumlasida "Yigit" va "kitob" so'zlari o'rtasida aniq grammatik munosabat mavjud: "Yigit" so'zi fe'lning sub'ekti hisoblanadi, "kitob" so'zi esa fe'lning to'ldiruvchisi hisoblanadi. Bu, sintagmatik munosabatlarning qanday ishlashini, jumladagi so'zlar o'rtasidagi sintaktik tuzilmani tushunish imkonini beradi.

Paradigmatika esa til birliklarining tanlov munosabatini o'rganadi, ya'ni bir so'z o'rniga boshqa bir so'z qo'yish imkoniyatini o'rganadi. Paradigmatika, tilning vertikal tuzilishini ta'riflaydi, ya'ni bir so'z o'rniga boshqa qanday so'zlar qo'yilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu, asosan, leksik va grammatik kategoriyalarni o'rganishga yordam beradi. Paradigmatika, so'zlarning sinonim va antonim munosabatlarini o'rganishga imkon beradi. Sinonimlar bir-biriga yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan, "kattalashtirish" va "ulug'lashtirish" so'zlari sinonimdir. Antonimlar esa bir-biriga qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan, "kattalik" va "kichiklik" so'zlari antonimdir. Paradigmatik tahlil yordamida, sinonimlar va antonimlar o'rtasidagi farqlarni, ularning ma'no munosabatlarini va til tizimidagi o'rnini aniq tushunish mumkin. Paradigmatika, shuningdek, grammatik shakl almashishlarini o'rganishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, "ishlamoq" fe'li turli shakl almashishlarni qabul qiladi, masalan, "ishlayman", "ishlaydi", "ishlaysizlar" va hokazolar. Ushbu shakl almashishlar "ishlamoq" fe'lining paradigmasini tashkil qiladi. Paradigmatik o'rganish, til tizimidagi grammatik o'zgarishlarni, masalan, fe'lning zamon, shaxs, ko'plik, undov shakllarini tahlil qilish imkonini beradi. F.de. Sossyurning lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor berganligi qiymat tushunchasini belgilashda ham, tilning sistemaviy tabiatini belgilashda ham aniq ko'rinib turadi. Uning fikricha,

tilning muayyan bir davrida har bir narsa munosabatlarga asoslanadi. Barqaror (uzual) munosabatlar yig'indisi tilni tashkil etadi va uning funksiyalanishini belgilaydi. Shuning uchun tizimning har bir a'zosi boshqa a'zolar bilan sintagmatik va assotsiativ munosabati orqali aniqlanadi.⁷² Tilshunoslik manbalarida fonetik sath, fonologik sath, morfonologik sath, bo'g'in sathi, allofonik sath kabi qator tushunchalar qo'llanmoqda. Sath tushunchasining bu darajada izohlanishi masala mohiyatini konkretlashtirish uchun emas, balki uni mavhumlashtirish uchun xizmat qiladi. Vaholanki, eslatib o'tilgan barcha sathlarni yagona fonematik sath tushunchasiga birlashtirish mumkin. Sintaktik sath tushunchasi ham til nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Agar mazkur sathning asosiy birligi gap hisoblanadigan bo'lsa, u holda uning til sathi tarzida tavsiflanishi izoh talab etadi.

A.A.Reformatskiy tadqiqotlarida fonetik sath (yarus) tushunchasi qo'llanadi va bunda muallif Boduen de Kurtene g'oyasiga asoslanadi: «Eng avval odat tusiga kirib qolgan «so'z tovushlardan tashkil topadi» degan aqidadan voz kechmoq kerak, zotan, mazkur tushuncha mutlaqo izohtalabdir. Chunki, birinchidan, so'z morfemalardan tashkil topadi (hatto bir morfemali so'zlar ham bundan mustasno emas); ikkinchidan, morfemalar tovushlardan emas, balki fonemalar vositasida shakllanadi. Nutqda talaffuz etiladigan tovushlar fonemalarni taqozo etadi, fonemalar morfemalar uchun qurilish materialidir»⁷³ Nutqning xarakterli belgisi elementlarning erkin almashuvidir. Sintagmaga ana shundan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, sintagmaga daxldor bo'lgan bir qator sintaktik qurilmalar barqarorlik xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, maqollar, frazeologizmlar va boshqalar. Bunday ifodalar nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki an'anaga ko'ra tayyor holda nutqqa olib kiriladi. Fonemaning morfema yoki so'zning tovush qobig'ini farqlashi shunchaki fonetik o'zgarish emas. Bu jarayonda fonema o'zining differensial belgilarini namoyon etadi. Albatta, uning bunday xususiyati hozirgi tilshunoslikda ichki pog'onali munosabat deb atalayotgan fonologik hodisaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, bu xildagi differensial belgilar fonematik sath ichida merizmatik sath nomi bilan ataluvchi mikrosathning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Fonemaning differensial belgilari segmentlarni tashkil eta olmaydi. Lekin shunday bo'lsa ham, u fonemaning ichki bo'linishini taqozo etishi bilan ajralib turadi. Leksemaning, morfemaning til birligi sifatida ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik

⁷² Tilshunoslik nazariyasi (Matn) : darslik / Zulxumor Xolmanova. – Toshkent : Shifoat Nur Fayz, 2020.- 113b.

⁷³ Бу ҳақда қаранг: Мартынов В.В. Два уровня языковой действительности и двойное членение языка // Уровни языка и их взаимодействие. –М., 1967. -С.101

hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axborotdan foydalanish qoidalar ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Assosiatsiya – til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuvi. So'z sintagmatik munosabatga kirishishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylik belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalanadi va bu assotsiatsiyalangan birliklar xotirada muayyan guruhlarini hosil qiladi. Assotsiativ munosabat sintagmatik munosabatlardan farqli ravishda ketma-ketlikka asoslanmaydi. Balki so'zlovchi xotirasida o'zaro bog'langan holda joylashadi. Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo'lsada, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Bitta birlik eslanganda shu paradigmaga tegishli boshqa a'zolar ham esga tushishi;
2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatic munosabatta turgan birlikdan bittasi tanlanishi;
3. Nutqda bir pozitsiyada kelib bir-birining o'rnini almashtira olishi;

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
umumiylik	alohidalik
mohiyat	hodisa
Imkoniyat	voqelik
sabab	oqibat

Lingvistik sathlar doirasi birmuncha keng qamrovli bo'lganligi sababli turli xil yondashuvlar mavjud. Shu sababli paradigma va sintagma imkoniyatlari ham kengayadi va o'z ma'nosidan farqli boshqa ma'nolarni ham ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

Globalashuv davrida lisoniy muhitga ilm-fan va texnika ta'sirining ijobiy va salbiy qirralarini, buning sabablarini, ona tiliga munosabat, tilning sofligi, nutq madaniyati va imloviy savodxonlik muammolarni o'rganish zamonaviy sotsio-lingvistikaning muhim vazifalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T .: „Innovatsion rivojlanish hashriyot-matbaa uyi” , 2020, 460 b.
2. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. B-285
4. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.,1977.
5. Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi.-Samarqand, 2022.
6. Nurmonov A. Uzbek tilida pafdigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mu'tadillashuvi (fonologik sath). Nomz. diss. Toshkent, 1998, 8-bet.

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARINI O'QITISH METODIKASI

XAYRULLOYEVA MALIKABONU SHAXOBIDDIN QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

malikabonuxayrullayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ona tili fanida yordamchi so'zlar muayyan bir hodisa hisoblanib, fanni o'rganishda o'ziga xos o'ringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, uslubiy ravonligi bevosita yordamchi so'zlardan o'z o'rnida foydalanishga ham bog'liq. Ushbu maqolada yordamchi so'z turkumlarini o'qitishda zamonaviy innovatsion metodlarning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yordamchi so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, o'qitish metodikasi, sodda gap, qo'shma gap, interfaol ta'lim.

Аннотация: В науке о родном языке вспомогательные слова считаются специфическим явлением и занимают особое место в изучении науки. Потому что от правильного употребления вспомогательных слов напрямую зависит богатство и стилистическая беглость нашей речи. В данной статье говорится о значении современных инновационных методов в обучении вспомогательной лексике.

Ключевые слова: вспомогательные слова, помощник, соединитель, загрузка, методика обучения, простое предложение, сложносочиненное предложение, интерактивное обучение.

Abstract: Auxiliary words in the science of mother tongue are considered a specific phenomenon and have a special place in the study of the science. Because the richness and stylistic fluency of our speech directly depends on the proper use of auxiliary words. This article talks about the importance of modern innovative methods in teaching auxiliary vocabulary.

Key words: auxiliary words, helper, connector, download, teaching methodology, simple sentence, compound sentence, interactive education.

Ma'lumki, yordamchi so'zlar haqida ilk ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. Yuqori sinfda o'quvchilar gaplarni gap bo'laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni mustaqil davom ettirish, shunday so'zlar yordamida gaplar tuzib, bu so'zlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

Yordamchi soʻzlar atash maʼnosiga ega boʻlmagan, maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydigan, gap boʻlagi vazifasida kelmaydigan soʻzlardir. Ularga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklama kiradi.

Yordamchi soʻz turkumlarini oʻrganishda quyidagi bilim, koʻnikma va malakalar oʻquvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi soʻzning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- yordamchi soʻzlarning bir-biridan va mustaqil soʻzlardan farqini ajrata bilish;
- ularni ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri, uslubiy jihatdan oʻrinli qoʻllay olish.

Oʻquvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyalar afzalligi zamon sinovidan oʻtib interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi oʻz isbotini topmoqda.

Yordamchi soʻzlarning muhim qismini bogʻlovchilar tashkil etadi. Bu soʻzlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini oʻzaro biriktirib, bitta gapda aylantirish, ularning oʻzaro bogʻlanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bogʻlovchilarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, teng bogʻlovchilar va ergashtiruvchi bogʻlovchilar roʻyxatini tuzish, ular yordamida gaplar koʻrish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Mazkur mavzuni oʻrganishda ohang va bogʻlovchilarning oʻzaro vazifadoshligi ustida ishlashni unutmaslik lozim.

Gapning uyushiq boʻlaklari va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga bogʻlovchilar deyiladi: Olma, oʻrik va gilos gulladi. U keldi lekin indamadi. Havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi.

Maʼno va vazifalariga koʻra bogʻlovchilar 2 xil boʻladi:

Teng bogʻlovchilar – uyushiq boʻlaklarni hamda, bogʻlangan qoʻshma gap qismlarini yaʼni teng huquqli qismlarni bogʻlaydi. Ular 4 xil:

Biriktiruv bogʻlovchilari– va, hamda, ham - sof bogʻlovchilardir; -da, -u, -yu, bilan vazifadosh bogʻlovchilardir. -da, -u, -yu - yuklama – bogʻlovchilar; bilan – koʻmakchi - bogʻlovchidir: Opam bilan singlim keldi – bogʻlovchi; Opam singlim bilan keldi – bogʻlovchi emas, koʻmakchi.

Zidlov bogʻlovchilari- ammo, lekin, biroq, balki: havo bulut, lekin yomgʻir yogʻmadi. U oʻqidi, lekin tushunmadi.

-u, -yu vazifadosh zidlov bogʻlovchisidir: Qoʻngʻiroq chalindi-yu , dars boshlanmadi. Balki – vazivadosh bogʻlovchi boʻlib, gapda baʼzan modal soʻz? baʼzan zidlov bogʻlovchisi sifatida qoʻllanadi. Qiyos qiling: Bu xabar uni hayron qoldirmadi, balki shodlantirdi. Balki, bugun yomgʻir yogʻar.

Ayiruv bog'lovchilari- goh, dam, ba'zan, bir – doim takrorlanib qo'llanuvchi bog'lovchilardir. Yo, yoki – sodda va takror holda qo'llanuvchi bog'lovchidir: Dam musiqa yangraydi, dam kulgi eshitiladi. Bir menga, bir do'stiga qaraydi. Ayiruv bog'lovchilari galma-galdan yuzaga keladigan voqea-hodisalarni ko'rsatadi.

Inkor bog'lovchisi- na... na. Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'laydi: na o'qidi, na yozdi. Bunda gapning kesimi tasdiq, shaklida bo'ladi. Na bog'lovchisi inkor ma'nosini ifodalaydi: Na eshikni, na derazalarni ochdi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar-tobe, hokim qismlarni, o'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'laklari va gaplarni bog'laydi: Hunar o'rgan, chunki hunarda sir ko'p. Ular 3 xil.

1. Aniqlovchi bog'lovchilar – ki, ya'ni
2. Sabab bog'lovchilari - *chunki, negaki, toki*
3. Shart bog'lovchilari – *basharti, agar, garchi*.

Ma'lumki, yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Bunda asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Endi fan mavzulari darsliklardan bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda joy oladi.

6-sinf ona tili darsligida yordamchi so'zlar haqidagi ma'lumotlar berilgan. "Jigar – eng mehnatkash a'zo" mavzusi bo'yicha berilgan topshiriqlar o'quvchilar ijodiy tafakkuri va bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan. "Qontomirlar" audiomatni tinglanib, savollarga javob beriladi. Unda mustaqil so'zlarni bir-biriga bog'lagan so'zlar aniqlanadi va daftarga yoziladi.

Keyingi topshiriqda ikki ustunda berilgan sodda gaplardan bog'lovchilar asosida qo'shma gaplar hosil qilinadi. *Masalan: Yog'li taomlar va gazli ichimliklar iste'mol qilishni kamaytirish zarur, chunki bunday mahsulotlar sog'ligingiz uchun juda zararli.* Ushbu topshiriq o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga o'z sog'liklarini asrash uchun ham kerakli tavsiyalar beradi.

Bog'lovchilarni o'rganishda ham so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish asosiy talab hisoblanadi.

Yordamchi so'zlarni maktab o'quvchilariga o'qitishning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Yordamchi birliklarning keng ma'no tabiati, xususan, uslubiy tabiati, ishlatilish doirasining u yoki bu darajadagi imkoniyatlari maktab darsligi va dasturida berilgan.

Ta'lim tizimining bu bosqichida til hodisalarining qo'llanishidagi ifoda imkoniyatlariga qaratilgan ekan, demakki, o'rganish manbai bo'lgan yordamchi vositalarning ta'lim tizimida o'tish ham, o'quvchilarga mazkur hodisa bo'yicha keng bilim berish, yordamchini o'z nutqida yetarlicha qo'llay olishga, ulardan kehg foydalanishga o'rgatish bir qator kuzatishlarga zarurat sezadi. Yordamchi birliklar – so'z va qo'shimcha shakllarni ta'lim tizimida o'tish ona tili ta'limi maqsadi va mazmunining bir bo'lagi sanaladi. Bunda o'qituvchidan o'ziga xos faollik, izlanish, bilim va tadbirkorlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV VOSITALAR VA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

XAYTALIYEV JASUR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Ruzixon Bozorovna

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimining jadallik bilan rivojlanib borayotgan sharoitida biologiya fanini o'qitishga ixtisoslashgan pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biologiya fanining ilmiy yutuqlari hayotning turli jabhalarida o'z aksini topmoqda va bu esa mazkur fandan ta'lim berish sifatiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu sababli, maktab ta'limida biologik bilimlarning o'rni va roli kundan-kunga muhimlik kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: biologiya ta'limi, interaktiv vositalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, dars samaradorligi, ta'lim sifati, raqamli ta'lim, multimedia vositalari, o'quvchi faolligi, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, vizual o'qitish, interfaol metodlar, pedagogik innovatsiyalar.

Abstract: Today, in the conditions of the rapidly developing general secondary education system, the issue of training pedagogical personnel specializing in teaching biology is gaining urgent importance. Scientific achievements in biology are reflected in various aspects of life, which increases the demand for the quality of teaching this subject. Therefore, the place and role of biological knowledge in school education is becoming increasingly important.

Keywords: biology education, interactive tools, modern pedagogical technologies, lesson effectiveness, educational quality, digital education, multimedia tools, student activity, virtual laboratories, gamification, visual teaching, interactive methods, pedagogical innovations.

Аннотация: Сегодня, в условиях стремительно развивающейся системы общего среднего образования, вопрос подготовки педагогических кадров, специализирующихся на преподавании биологии, приобретает актуальное значение. Научные достижения в области биологии находят отражение в различных аспектах жизни, что повышает требования к качеству преподавания

этого предмета. Поэтому место и роль биологических знаний в школьном образовании приобретают всё большую значимость.

Ключевые слова: биологическое образование, интерактивные инструменты, современные педагогические технологии, эффективность урока, качество образования, цифровое образование, мультимедийные инструменты, активность учащихся, виртуальные лаборатории, геймификация, наглядное обучение, интерактивные методы, педагогические инновации.

Davlatimiz rahbari “Darsliklarning sifati va mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni yetkazish, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda yangi yondashuvlarni joriy etish zarur” degan fikri har kungidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida ta’limning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari asosida organik olam qonuniyatlari, biologik hodisa va voqealarning mohiyati hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Bu jarayonda o‘quvchi nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikma va malakalarni egallab boradi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘quv jarayoni — bu o‘quvchining bilish faoliyati bo‘lib, bunda u atrof-muhit to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirib boradi[2].

Shu jihatdan qaralganda, biologiya ta’limi o‘quvchining faqatgina fanga oid bilimlarni egallashi emas, balki uning tafakkuri, kuzatuvchanligi va ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi[3]. O‘qituvchi esa bu jarayonda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi va uni boshqaruvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish orqali shaxsning har tomonlama kamol topishiga imkon yaratadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, individual yondashuvi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash darajasiga bog‘liq[4]. Shu bois, yosh mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda metodik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayoni — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama, murakkab, ijtimoiy-ma’naviy va aqliy jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyat nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatish vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ta’lim jarayoni faqat ma’lumot yetkazish emas, balki pedagogik jarayonni tahlil qilish, umumlashtirish va lozim bo‘lsa, uni takomillashtirishni talab etadi[5;6].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, o'qituvchi — o'quv jarayonining yagona bilim manbai emas, balki o'quvchini bilim olishga undovchi, yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, tahlilchi va motivator sifatida namoyon bo'ladi [7;8]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish o'qituvchining asosiy metodik mahorat ko'rsatkichlaridan biridir.

Bilish faoliyatini shakllantirish o'quvchining motivatsiyasi, qiziqishi, aqliy faolligi va mustaqil izlanishga tayyorligiga bevosita bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, darsning to'g'ri tashkil etilishi, didaktik materiallarning mazmuni, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi bilan chambarchas bog'liq. Xususan, muammoli ta'lim, loyihalash metodikasi, klasterlar, mantiqiy xaritalar, reflektiv savollar va baholash mezonlarining aniqligi o'quvchilarni faol bilim egallashga undaydi [9].

Shuningdek, darsda o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda differensial yondashuv, ta'limiy vazifalarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, o'zaro hamkorlikda o'rganish (kooperativ ta'lim) usullaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi[1].

Pedagogik jarayonni samarali boshqarish uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur:

- darsning maqsad va vazifalarini aniq belgilash;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga yo'naltirilgan metodikani tanlash;
- o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va rivojlantirish.

Pedagogik faoliyatda doimiy refleksiya – ya'ni o'z darslarini tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlarini inobatga olish va ulardan chiqadigan ehtiyojlar asosida yangicha yondashuvlar ishlab chiqish muhimdir. Bu jarayon o'qituvchining professional rivojlanishi va pedagogik innovatsiyalarga ochiqqligini belgilaydi.

Biologiya fani maktabda boshqa fanlardan farqli o'laroq, tabiat hodisalarini tizimli va tarixiy yondashuv orqali o'rganishni ta'minlaydi hamda bilimning chuqurligini oshirishga yordam beradi. Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarning dialektik tafakkuri shakllantiriladi, ularga organik dunyoning ilmiy tasavvuri, hayotning tarixiy rivoji va uning harakat tizimidagi o'rni, shuningdek, qarama-qarshi bilim olish usullari tushuntiriladi. Biologiya maktabda tabiatshunoslik siklining asosiy fanlaridan biri bo'lib, shaxsning rivojlanishida va shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

“Keys-stadi” texnologiyasi (inglizcha: *case study* – “case” – vaziyat, “study” – o'rganish) o'quvchilarda haqiqiy yoki sun'iy muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, eng

samarali yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikadir. Ushbu texnologiya o'quvchilarga har qanday mazmundagi vaziyatni mustaqil o'rganish va tahlil qilishni o'rgatadi. Ta'lim jarayonida Keys-stadi texnologiyasining samaradorligi uning quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishiga bog'liq:

1. Individual ravishda vaziyat yechimini izlash;

2. Jamoaviy hamkorlikda muammoni hal qilish.

Individual ish jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'quvchi Keys-stadi texnologiyasining mohiyati va qo'llash qoidalari bilan tanishadi;

2. Taqdim etilgan muammoli vaziyat o'rganiladi;

3. Asosiy va yordamchi masalalar ajratiladi, ularning shakllanishi va asoslanishi amalga oshiriladi;

4. Tadqiqot metodlari tanlanib, vaziyat chuqur tahlil qilinadi;

5. Muammoning amaliy tomonlari o'rganiladi;

6. Muammoni hal etish usullari va vositalari aniqlanadi;

7. Topilgan yechimni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar belgilab chiqiladi.

Jamoaviy hamkorlik esa quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Guruh a'zolari muammo va uning yechimlari bo'yicha fikr almashadilar;

2. Yechim variantlari muhokama qilinib, ularning samaradorligi baholanadi;

3. Muammoni yechish uchun aniq dastur ishlab chiqiladi;

4. Muammo yechimi bo'yicha taqdimot tayyorlanib, unda ishlatiladigan materiallar tartibga solinadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biologiya fanini o'qitishda interaktiv vositalardan foydalanish darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Keys-stadi kabi texnologiyalar o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tafakkur va muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Tizimli va tarixiy yondashuv orqali tabiat hodisalarini o'rganish, o'quvchilarning dialektik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va biologiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, individual va jamoaviy ishlash shakllarini uyg'un qo'llash, o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi va o'rganish jarayonini samarali qiladi. Shu bois, biologiya darslarida interaktiv metod va vositalarni keng joriy etish ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klarin, M.V. (1995). Innovatsionnie modeli obucheniya v zarubezhnoi pedagogike. –Moskva: Pedagogika.

2. Qodirov S. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
3. Karimov B. (2019). Biologiya o'qitish metodikasi asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. To'xtayev H. (2020). “Zamonaviy biologiya ta'limida o'qituvchining o'rni”. Ta'lim va fan, 3(58), 45–50.
5. Xolmatov Sh. (2018). O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari. – Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.
6. Turaev, X. (2021). Ta'lim sifatini oshirishda darsning zamonaviy modeli. // “Pedagogik ta'lim” ilmiy-amaliy jurnali, №4.
7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. – New York: Macmillan.
8. Kraevskiy, V.V. (2001). Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskikh vuzov. – Moskva: Akademiya.
9. Usmonboeva, A. (2020). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: TDPU.10.

FE'L KATEGORIYALARINI O'QITISH METODIKASI**XO'JANIYOZA INTIZOR BAXTIYOR QIZI,****XOLBAYEVA MAXFUZA BAHROM QIZI,**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

intizorxojanioyozova@gmail.commaxfuzaxolboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi fe'l kategoriyalari ona tili ta'limining markaziy mavzusi sifatida tahlil qilingan. Fe'lning asosiy grammatik kategoriyalari — shaxs va son, zamon, mayl, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, ravishdosh, sifatli va harakat nomi ilmiy yondashuv asosida izohlangan. Tezisdagi fe'l kategoriyalarini o'qitish metodikasi, mashq va topshiriqlar orqali amaliy qo'llash yo'llari yoritilgan. Shu bilan birga, o'quvchilarda grammatik savodxonlik va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Fe'l kategoriyalari, ona tili metodikasi, zamon, shaxs va son, mayl, nisbat, ravishdosh, sifatli, harakat nomi, metod, mashq, grammatik kompetensiya.

Annotatsiya This thesis analyzes verb categories as a central topic in teaching the Uzbek language. The main grammatical categories of verbs — person and number, tense, mood, voice, affirmative-negative, adverbial, participial, and verbal noun — are explained using a scientific-methodological approach. The thesis presents effective teaching methods for verb categories, including exercises and classroom applications. Recommendations are provided to develop students' grammatical proficiency and communicative competence.

Keywords Verb categories, methodology of teaching Uzbek, tense, person and number, mood, voice, adverbial, participial, verbal noun, teaching methods, exercises, grammatical competence.

Аннотация. В данной диссертации анализируются категории глагола как центральная тема обучения родному языку. Основные грамматические категории глагола — лицо и число, время, падеж, отношение, причастие-непричастие, наречие, прилагательное и существительное-действие — объясняются на основе научного подхода. В диссертации рассматриваются методика обучения категориям глагола, способы их практического применения посредством упражнений и заданий. Также даются рекомендации по развитию грамматической грамотности и речевой компетенции учащихся.

Ключевые слова: Категории глагола, методика обучения родному языку, время, лицо и число, падеж, отношение, наречие, прилагательное, существительное-действие, метод, упражнение, грамматическая компетенция.

Ona tili darslarida grammatik bilimlar o'quvchining nutqiy savodxonligini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Fe'l esa, o'zbek tilining eng faol va keng tarmoqli so'z turkumi sifatida o'quvchilar uchun nafaqat lug'aviy, balki grammatik jihatdan ham qiyin bo'lgan mavzulardan biridir. Shu sababli fe'l kategoriyalarini o'qitishda metodik yondashuv nazariy qoidalardan ko'ra, amaliy nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Grammatikani faqat qoidalarni yodlash sifatida emas, balki uni nutqda qo'llash ko'nikmasi bilan uyg'unlashtirish metodik maqsadning asosi hisoblanadi.

Fe'lning grammatik kategoriyalari — zamon, shaxs va son, mayl, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari til tizimida voqelikni ifodalashning asosiy vositasi sanaladi. Bu kategoriyalar nutq jarayonida voqelikni aniqlashtirish, vaqt, bajaruvchi va maqsadni belgilashga xizmat qiladi. Masalan, zamon kategoriyasi voqeaning o'tgan, hozirgi yoki kelajak vaqtga oidligini bildiradi; shaxs va son kategoriyasi harakat bajaruvchisini ko'rsatadi; mayl esa, so'zlovchining harakatga munosabatini ifodalaydi.

1. Fe'l kategoriyalarining nazariy asoslari. Fe'lning asosiy grammatik kategoriyalariga zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, tuslanish kiradi. Ularning har biri fe'lning ma'nosini turli grammatik shakllar orqali ifodalab, gapdagi grammatik munosabatni belgilaydi.

Masalan:

Zamon kategoriyasi — harakatning voqelikka munosabatini bildiradi (o'tgan, hozirgi, kelasi zamon).

Shaxs-son kategoriyasi — harakatni kim bajarayotganini ko'rsatadi (men bordim, biz boramiz).

Mayl kategoriyasi — harakatning bajarilish darajasi yoki uslubini bildiradi (xohish, buyruq, shart, maqsad mayllari).

Nisbat kategoriyasi — fe'lning harakatni subyekt va obyektga munosabatini bildiradi (tusovchi, o'zgartiruvchi, qaytish, o'zaro, majhul nisbatlar).

2. Fe'l kategoriyalarini o'qitishda metodik yondashuvlar:

Fe'l kategoriyalarini o'rgatishda induktiv va deduktiv metodlar uyg'un qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Induktiv metod orqali o'quvchilar misollar asosida umumiy xulosa chiqaradilar.

Deduktiv metodda esa o'qituvchi avval qoida beradi, so'ng o'quvchilar uni amaliy misollar bilan mustahkamlaydi.

Shuningdek, quyidagi interaktiv metodlar o'qitish samaradorligini oshiradi:

“Aqliy hujum” – o'quvchilarning fe'l shakllarini ajratish va ularni grammatik kategoriya jihatidan guruhlashiga yordam beradi.

“Klaster” – fe'lning tarmoqlangan ma'no va shakl tizimini vizual tarzda ifodalash imkonini beradi.

“Juftlikda ishlash” – o'quvchilar o'zaro tahlil qilish va to'g'ri shaklni aniqlash orqali bilimlarini mustahkamlaydi.

Rol o'yinlari va nutqiy mashqlar – fe'llarni real muloqotda qo'llash orqali grammatik malaka bilan birga nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi.

3. Amaliy mashg'ulotlarda fe'l kategoriyalarini o'zlashtirish usullari:

O'qituvchi mashg'ulotlarni quyidagi bosqichlarda tashkil etishi maqsadga muvofiq:

Nazariy tushuncha berish (fe'l kategoriyalarini aniqlash, ularning ma'nosini izohlash).

Amaliy tahlil ishlari (matndan fe'llarni topish, ularning kategoriyasini belgilash).

Mustahkamlash bosqichi (gap tuzish, fe'lni boshqa shakllarda qo'llash).

Ijodiy topshiriqlar (badiiy matndan fe'llarni aniqlab, ularning grammatik shakllarini jadvalda ko'rsatish).

Masalan, 6–7-sinflarda o'quvchilarga “Fe'lning zamon shakllarini qo'llang” mavzusida quyidagi mashq berilishi mumkin:

“Men har kuni erta turaman. Kecha ham shunday qildim. Ertaga ham ertaroq turaman.”

Bu mashq orqali o'quvchilar uch xil zamon shaklini farqlashni amaliy o'rganadilar.

4. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda fe'l kategoriyalarining o'rni

Fe'l tildagi harakatni ifodalovchi asosiy birlik sifatida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi fe'l kategoriyalarini o'rgatishda nafaqat grammatik shaklga, balki mazmunli qo'llanishga ham e'tibor qaratishi lozim. Fe'llar orqali o'quvchilar fikrni aniq ifodalash, gapni mantiqan to'g'ri tuzish, zamon va shaxs mosligini saqlashni o'rganadilar.

Fe'l kategoriyalari o'qitishda faqat “qoida va misol” bilan cheklanib qolish ko'p hollarda samaradorlikni kamaytiradi. Ilmiy metodik yondashuvda:

Qiyoslash: Masalan, hozirgi zamon va o'tgan zamon shakllarini bir matn ichida taqqoslash orqali farqni sezdirish.

Kommunikativ topshiriqlar: O'quvchilarga "Kecha nima qilding?", "Hozir nima qilyapsan?", "Ertaga nima qilasan?" kabi savollar berish orqali zamon kategoriyasini nazariy emas, nutqiy faoliyat orqali tushuntirish.

Transformatsiya mashqlari: Bir jumladagi fe'lni boshqa zamon yoki nisbatga o'zgartirish topshirig'i beriladi. Bu o'quvchida qoidani yodlash emas, uni ongli qo'llash malakasini hosil qiladi.

Shaxs va son kategoriyasini o'rgatishda ko'rgazmalilik usuli muhim. Jadval va sxemalar yordamida 1-, 2- va 3-shaxs shakllarini qiyosiy ko'rsatish orqali tushuntirish samarali bo'ladi.

Zamon kategoriyasini o'rgatishda "vaqt chizig'i" usuli foydali: o'qituvchi taxtaga vaqt bo'yicha chiziq chizib, o'quvchilarga voqealarni o'tgan, hozirgi va kelajak zamonga joylashtirishni topshiradi.

Mayl kategoriyasini o'rgatishda rol o'yinlardan foydalanish mumkin. Masalan, buyruq mayli shaklini o'quvchilar o'zaro muloqotda qo'llash orqali o'zlashtiradi.

Nisbat kategoriyasini o'rgatishda esa o'qituvchi harakatning bajaruvchi yoki bajariluvchiga yo'naltirilganligini izohlaydi va "Men kitob yozdim – Kitob men tomonidan yozildi" kabi qiyosiy mashqlar tashkil qiladi.

O'qitishda asosiy metodik tamoyil — o'quvchilarda grammatik kompetensiyani shakllantirishdir. Ya'ni, ular nafaqat qoida va misolni bilishlari, balki kundalik nutqda fe'l kategoriyalarini ongli qo'llashni o'rganishlari kerak. Bu esa zamonaviy metodika — kommunikativ yondashuv, interfaol mashqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, fe'l kategoriyalari ona tili o'qitish metodikasida grammatik bilimlarning markaziy bo'g'inini tashkil etadi. Ularni o'rgatishda faqat nazariy qoida va misollar bilan cheklanib qolmasdan, ilmiy-metodik yondashuvlardan — qiyoslash, kommunikativ topshiriqlar, transformatsiya mashqlari, ko'rgazmalilik va interfaol usullardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Bu esa o'quvchilar nutqida fe'l shakllarining to'g'ri va ongli qo'llanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiev A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. 56-b.
2. Qodirov A., Mamatov A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. 98-b.
3. Karimov Sh. O'zbek tilida fe'l kategoriyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010.120-b.

4. Mahmudov N., Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.-144-b.
5. Sayfullayeva R., Rasulova M. Ona tili ta'limida innovatsion metodlar. – Toshkent: Innovatsiya Ziya, 2020.178-b.

KIRILL VA LOTIN O'ZBEK YOZUVLARIDA ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

XOLIMBOYEVA IRODA ELMUROD QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'zbek tili va ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
xolimboyevairoda@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida o'zak-negiz (asos) va qo'shimchalarning imloviy yozilishi masalalari yoritilgan. Rus grafikasi asosidagi eski yozuv tizimi va lotin grafikasi asosidagi yangi yozuv tizimi orasidagi farqlar asosida imlo me'yorlarining shakllanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, imlo, o'zak, negiz, qo'shimcha, morfologik prinsip, fonetik yozuv, lotin grafikasi, rus grafikasi, egalik qo'shimchasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы орфографического написания корней (основ) и аффиксов в узбекском языке. Анализируется формирование орфографических норм на основе различий между старой письменной системой на русской графике и новой системой на латинской графике.

Ключевые слова: узбекский язык, орфография, основа, корень, аффикс, морфологический принцип, фонетическое письмо, латинская графика, русская графика, притяжательное окончание.

Annotation: This article discusses the issues of spelling roots (bases) and affixes in the Uzbek language. It analyzes the formation of spelling norms based on the differences between the old writing system using Russian graphics and the new system based on Latin graphics.

Keywords: Uzbek language, spelling, root, base, affix, morphological principle, phonetic writing, Latin script, Russian script, possessive suffix.

O'zbek tili imlo qoidalarini milliy yozma madaniyatimizning shakllanishi va izchil rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Har qanday milliy tilning yozma shakli, eng avvalo, imlo me'yorlariga asoslanadi. Ushbu me'yorlar esa tilda mavjud so'zlarning to'g'ri yozilishi, fonetik va morfologik xususiyatlarini aks ettirgan holda, ularni yagona standart asosida rasmiylashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olib

qaralganda, o'zbek tili imlo qoidalari nafaqat til tizimining ichki qonuniyatlariga asoslanadi, balki ularning ijtimoiy, madaniy va ilmiy kommunikatsiyadagi samaradorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ikki xil yozuv tizimi — lotin grafikasi va kirill grafikasi — amal qilayotgan bo'lsa-da, har ikkisi uchun ham imlo qoidalarining mavjudligi va ularga qat'iy rioya qilinishi zarur hisoblanadi. Bu tizimlar, bir tomondan, tarixiy-madaniy merosning uzviy davomchisi bo'lib, boshqa tomondan esa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Imlo qoidalari orqali so'zlarning o'zak (negiz) qismi hamda ularga qo'shiladigan grammatik qo'shimchalarning to'g'ri yozilishi ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, yozma nutqning aniqligi, ravonligi va tushunarli bo'lishiga asos yaratadi. Ayniqsa, ilmiy, rasmiy va ommaviy axborot vositalarida til vositalarining to'g'ri va bir xilda qo'llanishi, ularning yagona me'yor asosida tartibga solinishi til madaniyatining yuqori bosqichda rivojlanishini anglatadi.

Bu me'yorlar tilning barqarorligi, izchilligi hamda savodxonlik darajasining yuksalishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va uning imlo qoidalari bu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu qoidalar 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va o'sha yili "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan nashr etilgan.

Shu bilan birga, rus grafikasi asosidagi yozuv qoidalari ham tarixan muhim bosqichlardan o'tgan. Dastlab 1940-yil 4-iyulda yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, "Birlashgan o'zbek alifbosi va orfografiyasi" nomi bilan e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar qayta ishlanib, 1956-yil 4-aprelda O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan holatda kuchga kirgan. Har ikki yozuv tizimi o'ziga xos imlo yondashuvlariga ega bo'lib, ayniqsa o'zak va qo'shimchalarning yozilishi borasida farqlar mavjud.

O'zbek tilining zamonaviy imlo tizimi lingvistik qonuniyatlar va morfologik tahlillarga tayangan holda shakllangan bo'lib, unda so'zning o'zak-negizi va unga qo'shiladigan grammatik qo'shimchalarning yozilishi qat'iy ilmiy asoslar bilan tartibga solinadi. Bu jihat, avvalo, tilning morfemik tuzilishini saqlagan holda, yozma nutqda mazmunning aniq va izchil ifodalanishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zak va qo'shimchalarning imlodagi o'zaro munosabati — fonetik o'zgarishlar, morfologik birikmalar hamda grafik ifoda vositalari nuqtayi nazaridan chuqur o'rganilib, imlo me'yorlari aynan shu asosda ishlab chiqilgan.

Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi bu borada ancha aniq va izchil tizimga ega. Unda qo'shimchalarning yozilishi qat'iy normativ qoidalar bilan tartibga solingan. Masalan, fe'l negizlariga qo'shimchalar qo'shilishida fonetik o'zgarishlar (masalan, tovush tushishi yoki almashinuvi) yuz bersa ham, yozuvda morfemik birliklarning saqlanishi imlo qoidalarida aniq ifodalangan. Bu esa o'quvchi yoki foydalanuvchiga so'zning tarkibini anglash va uni to'g'ri yozish imkonini beradi.

Biroq rus grafikasi asosida shakllangan o'zbek yozuvida ayrim qo'shimchalar yozilishining izchil qoidalashtirilmaganligi kuzatiladi. Bu holat ko'p hollarda fonetik talaffuzga yaqinlashish yoki grafik moslikka intilish oqibatida yuzaga kelgan bo'lib, natijada yozuvda morfemik tahlilning murakkablashuviga olib kelgan. Masalan, ba'zi holatlarda qo'shimchalar so'z negizi bilan qo'shib yozilishi yoki alohida ajratilishi bo'yicha yagona me'yor mavjud emasligi aniqlanadi. Bu esa yozma nutqda stilistik va grammatika xatolarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli, lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi ilmiy-lingvistik yondashuv asosida amalga oshirildi. Imlo qoidalari yaratilar ekan, morfologiya, fonetika, grafika va psixolingvistika kabi sohalaridagi ilmiy izlanishlar natijalari inobatga olindi. Bu yondashuv yozuvning nafaqat texnik vosita sifatida, balki tilning strukturaviy birliklarini ifodalovchi tizim sifatidagi ahamiyatini kuchaytirdi.

Masalan, "-uq (-ук)" va "-iq (-ик)" qo'shimchalarining imlosi kirill yozuvida mustahkam qoida bilan belgilab qo'yilmagan bo'lsa, lotin yozuvida bu borada 33-qoidaning eslatma qismida quyidagicha ko'rsatma berilgan: "Undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi." Shuningdek, taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda rus yozuvida "в" dan keyin "и" harfi yozilishi belgilangan bo'lsa (шовилламок, ловилламок, гувилламок), lotin yozuvida bu so'zlar yagona qoida asosida shovulla, lovulla, guvulla shaklida yoziladi. Bu holatda 37-qoidaning 1-bandiga asosan fonetik emas, morfologik yondashuv ustuvor deb topilgan. Undoshlar birikmasi bilan bog'liq holatlar ham har ikki yozuv tizimida turlicha yondashilgan. Rus yozuvida (34-paragraf) "ф" yoki "г" bilan tugagan so'zlarga "г" bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, talaffuzga qarab yoziladi: боғ-боққа, тоғ-тоққа, барг-баркка, тег-теккан. Lotin yozuvida esa bu kabi so'zlar talaffuzga emas, morfemalarning asl ko'rinishiga qarab yoziladi: bog'ga, tog'ga, bargga, teggan, sig'guncha kabi. Bu 37-qoidaning "v" bandi bilan belgilanadi. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchray turadi. Masalan, bobo va avzo so'zlariga egalik qo'shimchasi ikki xil

tarzda — bobo soʻziga "-m" va "-ng" shakllarida (bobom, bobong kabi), avzo soʻziga esa "y+im", "y+ing" shakllarida ("o"dan soʻng bir "y" orttirilib) qoʻshiladi: avzo+y+im, avzo+y+ing kabi. Bunday holatni "u" bilan tugagan ayrim soʻzlarda ham uchratamiz: uyqu+m, uyqu+ng, ammo mavzu+y+im, mavzu+y+ing kabi.

Rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvining imlosida bunday holatlarni meʼyorlashtiruvchi qoidalar yoʻq edi. Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda, xususan, shunday qoida berilgan: "o, oʻ, u, e unilari bilan tugaydigan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi."

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tili imlo qoidalari nafaqat tilning ichki tuzilmasini mustahkamlash, balki xalqning umumiy madaniy saviyasi, axborot almashinuvi sifati hamda ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan omillardandir. Shu bois imlo meʼyorlariga amal qilish har bir fuqaroning til oldidagi maʼnaviy va madaniy masʼuliyati sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, oʻzbek tilining imlo tizimida oʻzak-negiz va qoʻshimchalar yozilishi masalasi tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, lingvistik tahlillarga tayangan yondashuvdir. Bu jihat yozma nutqni standartlashtirish, til birliklarining bir xilda qoʻllanishini taʼminlash hamda oʻzbek tilining rasmiy, ilmiy va ommaviy kommunikatsiyadagi funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H. "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
2. Mahmudov N. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. – Toshkent: Akademnashr. 2013. B. – 528.
3. Oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent: Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi. Til va adabiyot instituti, 1963.
4. Baxtiyorovna, D. (2023). UNLEASHING INTELLECTUAL POTENTIAL: TRANSFORMING ENGLISH LESSONS THROUGH SMART EDUCATION TECHNOLOGIES. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions.
5. Oʻzbek tili orfografik lugʻati. – Toshkent: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.

O'ZBEK SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

XOLMAMATOVA AROFATXON KOMILJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

xolmamatovaarofat7@gmail.com

TURG'UNPO'LATOV DIYORBEEK RO'ZMAMAT O'G'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tilining turli hududlardagi shevalariga xos bo'lgan fonetik xususiyatlar chuqur tahlil qilingan. O'zbek shevalarining shimoliy, janubiy va markaziy guruhlar orasidagi tovush tizimidagi farqlar, unlilar va undoshlarning talaffuzdagi o'zgarishlari, fonetik almashuvlar, qisqarishlar hamda o'ziga xos fonetik jarayonlar misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, maqolada shevalarning adabiy tilga ta'siri va o'zaro fonetik uyg'unligi haqida ham muhim fikrlar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari o'zbek tili dialektologiyasini chuqurroq o'rganish, shevalar fonetikasi asosida tilshunoslik tahlillarini olib borish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit sozlar: dialect, fonetik hodisalar, singamonizm, leksika, o'zbek shevalari, fonema

Abstract: This article provides a detailed analysis of the phonetic characteristics specific to Uzbek dialects spoken in various regions. It highlights the differences in the sound systems among the northern, southern, and central dialect groups, changes in the pronunciation of vowels and consonants, phonetic alternations, reductions, and other distinct phonetic processes, supported by examples. The article also presents important insights into the influence of dialects on the literary language and their mutual phonetic compatibility. The findings of this research serve as a significant scientific resource for the in-depth study of Uzbek dialectology and for conducting linguistic analyses based on dialectal phonetics.

Keywords: dialect, phonetic phenomena, synharmonism, lexicon, Uzbek dialects, phoneme

Аннотация: В данной статье подробно проанализированы фонетические особенности узбекских говоров, распространённых в различных регионах.

Освещены различия в звуковой системе между северными, южными и центральными группами говоров, изменения в произношении гласных и согласных звуков, фонетические чередования, сокращения, а также другие характерные фонетические процессы с конкретными примерами. Кроме того, в статье представлены важные наблюдения о влиянии говоров на литературный язык и их взаимной фонетической согласованности. Результаты исследования служат важным научным источником для более глубокого изучения диалектологии узбекского языка и проведения лингвистического анализа на основе фонетики говоров.

Ключевые слова: диалект, фонетические явления, сингармонизм, лексика, узбекские диалекты, фонема

Hozirgi kunda tilshunoslikning amaliy tomoni bo'lmish dialektologiya, lingvistik geografiya sohalari nazardan chetda qolmoqda. O'zbek shevalari xususiyatlarini lingvistik geografiya sohasidagi nazariy jihatlariga tayanib, tarixiy-qiyosiy, etnolingvistik jihatdan o'rganish ilmiy jarayonlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi lozim. Va bu sohaning oddiy, mukammal bo'lmagan, ko'pincha mavhum bo'lgan qarashlardan chekinib, umga amaliy, yangicha fikrlar asosida, mental nuqtayi nazardan o'rganish lozim bo'lib qolmoqda.

O'zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, va ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O'zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o'ziga xosligi jihatidan o'zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o'xshashliklarga ham ega bo'ladi. Unli va undoshlar tizimi. O'zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlari miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologiyaga oid ishlarda unli tonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning soni 18tagacha etadi, degan ma'lumotlar ham beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o'rganilar ekan, Tillardagi fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e'tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o'rinli bo'ladi.

Unlilar tizimi (vokalizm). Qarluq-chigil-uygur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda 6tadan 11tagacha unli tovush bor. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda 6ta, singarmonizmli shevalarda esa 9 ta unli qo'llanadi. Toshkent shevasida $\text{ъ} /i, e/e, \text{э}/a, \text{э}/a, o/o, y/u$; Samarqand shevasida $\text{ъ} /i, e/e, \text{э}/a, a/a, o/o, y/u$ unlilari qo'llangan bo'lsa, Qo'qon, Marg'ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda o unlisi bilan birgalikda a unlisi ham qo'llaniladi. Shimoliy o'zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) $l, l', t, a - a/a, e/e, \text{э}/a, \text{и}/i, \text{ъ} /i, \text{ьЛ}', \text{ьЛ}', o/o, i>/f, y/u, y/U$ unli mavjud.

Undoshlar tizimi (konsonantizm). O'zbek shevalaridagi sof turkiy so'zlarda б/в , п/р , м/т , т/д , д/д , с/с , ч/с , дж/г , ш/с , н/н , л/л , р/г , й/й ("y" o'rnida qo'llanadi), к/к , г/г , п/т , х/х , к/к , х/х undoshlari doim iste'molda bor. O'zlashgan so'zlarda п undoshi s(ts) bilan, з (sirg'aluvchi bo'lsa ham) undoshi дж/й kabi tallaffuz qilinadi. ф/ф undoshi undov va taqlidiy so'zlarda lab-lab tovushi talaffuz etiladi, o'zlashgan so'zlarda esa п , ba'zan б undoshiga moyil talaffuz qilinadi. н undoshi aksarivat shevalarda х undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o'zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forsha so'zlardagi shu tillarga xos bo'lgan h , f undoshlari shevalarda o'zbek tili shevalarining artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan. Fonetik qonunlar. Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilaming uyg'unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I. A. Bogoroditskiy fikriga ko'ra, singarmonizm unlilar uyg'unligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko'rinishiga ega:

1. Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizmi. Bu qonunga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator unlilar qalinlashgan bo'lsa, keyingi bo'g'inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi, so'zning dastlabki bo'g'inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham orqa qator unlilar qatnashadi. Bu qonun faqat shahar va shahar tipidagi shevalarda amal qilmaydi. Bu qonunga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida а/а , у/у , о/о , ь/ь :(ь/ь) unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo'g'ini ham ana shu unlilardan biri keladi va so'zda q , y , x chuqur til orqa undoshlari ishtirok qilishi mumkin, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida э/а , е/е , н/и :(б/и), е/б , у/у unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo'g'inlarda ham xuddi shu unlilardan biri keladi, bunday o'rinlarda k , g undoshlari ham qatnashishi mumkin.

2. Labial singarmonizm. Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining "temir qonuni" hisoblanadi. U o'zbek tili va labialning shevalarida qisman amal qiladi. Bu qonunga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi.

Shevalarda uchraydigan fonetik hodisalar nafaqat lingvistik qonuniyatlarga, balki ijtimoiy hayot tarziga, tarixiy aloqalarga, qo'shni tillarning ta'siriga va ijtimoiy tabaqalanishga ham bog'liqdir. Masalan, shimoliy o'zbek shevalarida qozoq tilining fonetik unsurlari, janubiy hududlarda esa fors-tojik tilining ta'siri seziladi. Bu esa fonetik o'zgarishlarning har bir shevada o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Fonetik o'zgarishlar nafaqat tilning ichki qonuniyatlariga, balki tashqi

omillarga – ya'ni **ijtimoiy, madaniy, geografik, tarixiy** sharoitlarga ham bevosita bog'liq. Aynan shu omillar shevalarda turlicha fonetik hodisalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Fonetik o'zgarishlar tabiiy fonetik qonuniyatlar asosida kechsa-da, ularning shakllanishiga **ijtimoiy, madaniy, tarixiy, hududiy**, va **etnik** omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun shevalarni faqat grammatik jihatdan emas, balki **sotsiolingvistik yondashuv asosida** ham o'rganish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbek shevalari fonetikasi o'zining murakkabligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Turli hududlarda yuzaga kelgan fonetik o'zgarishlar nafaqat tilning ichki qonunlariga, balki ijtimoiy, madaniy, tarixiy va geografik omillarga ham bevosita bog'liqdir. Unli va undoshlarning miqdoriy hamda sifat jihatdan farqlanishi, singarmonizm, qisqarish, almashish kabi jarayonlar shevalarning o'ziga xosligini belgilaydi. Shevalar adabiy tilga ta'sir ko'rsatish barobarida, o'zaro fonetik uyg'unlikni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli, ularni sotsiolingvistik va fonetik yondashuv asosida chuqur o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ashurboyev S. *O'zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: Navro'z, 2016
2. Abdurahmonov A. A. *O'zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Saidova M. *O'zbek tilining dialektlari va shevalari*. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Ashurov Q. *O'zbek tili shevalarining leksik-fonetik xususiyatlari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
5. Norqulov Yo. Fonetikadan nazariy va amaliy mashg'ulotlar. – Samarqand: SamDU, 2010.
6. Bobojonov Sh. Fonetik o'zgarishlar va ularning ijtimoiy omillari. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Jumayev A. Til va jamiyat: sotsiolingvistik yondashuv. – Toshkent: Muharrir, 2014.

O'ZBEK TILIDA SPORT OID LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI

XOLMATOV MA'RUFBEK UKTAM O'G'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

marufbekxolmatov4@gmail.com

Ilmiy rahbar: CHDPU O'zbek tilshunosligi kafedrası

dotsenti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)Q.A.Mo'ydinov

Annotatsiya: Sportga oid leksik birliklar milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda sport va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini o'zida aks ettirgan, ilmiy asoslangan tushunchalar yoki hatti-harakatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada sport sohasida faol qo'llaniladigan so'zlarga imkon qadar shaxsiy munosabatimiz bildirildi.

Kalit so'zlar: sport leksikasi, terminologiyasi, milliy sport, okkazonal so'zlar, milliy kurash, hakam.

Annotation: Sports – related lexical units serve to express a system of scientifically based concepts or actions that reflect the achievements of sports and cultural development, in harmony with national and spiritual values. This article expresses our personal opinion as much as possible on words actively used in the field of sports.

Keywords: sports vocabulary, terminology, national sports, occasional words, national wrestling, referee.

Абстрактный : Лексические единицы спортивной тематики служат для выражения системы научно обоснованных понятий или действий, отражающих достижения спорта и развития культуры, находящихся в гармонии с национальными и духовными ценностями. В данной статье максимально выражено наше личное мнение относительно слов, активно используемых в сфере спорта.

Ключевые слова: спортивная лексика, терминология, национальные виды спорта, окказиональные слова, национальная борьба, судья.

Mamlakatimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sportga qaratilgan e'tibor sohaning yangi bosqichga ko'tarishi uchun zamin yaratdi. Qonunlar va dasturlar asosida yurtimizda tashkil etilgan turli tizimdagi ichki va xalqaro musobaqalar, mamlakatimizga ko'plab xorijlik sportchilar, mutaxassislar va xalqaro musobaqa tashkilotchilarining tashrifi, ular bilan sohaning amaliy rivoji uchun o'zaro manfaatli

aloqalar o'rnatilishi o'zbek tili sport terminologiyasida ko'plab boshqa tillarga xos bo'lgan terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday terminlar qatorida referee, master klass, turnir, VAR, armvrestling, grebling, kriket, mma, karate va yana boshqa o'zlashma birliklar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning o'zbek tili sharhlaridagi ifodalanishi lisoniy mezonlarni o'rganilishini talab qildi.

Sportga oid leksik birliklar milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda sport va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini o'zida aks ettirgan, ilmiy asoslangan tushunchalar yoki hatti-harakatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Sport terminologik tizimida neologizmlar va uning tarkibiy qismi bo'lgan okkazonal so'zlar ham mavjuddir. Sport sohasida okkazonallar sportchi yoki murabbiy tomonidan yaratilgan yangi harakat yoki uslub o'z kashfiyotchisi nomi bilan ataladi. Sport terminologik tizimi yuzasidan o'tkazilgan monografiya natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, soha terminlari va okkazonalizmlardan tashqari termin-neologizm (terminologik neologizm)lar ham mavjud bo'lishi mumkin. Binobarin, ingliz va rus tillarida ma'lum bir sport sohasiga oid yangi termin o'zbek tili iste'molida hali qo'llanilmagan bo'lsa yoki qo'llanilish ehtimoli yuqori bo'lsa, bu jarayon termin-neologizm bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Sport terminologik maydoni o'z tarkibiga jismoniy sport (yengil va og'ir atletika), aqliy sport, jangovor sport, cho'p bilan o'ynaladigan sport, modelli sport, bellashuvli sport, xalqaro sport, mahalliy sport, aralash sport yo'nalishlarini birlashtirgan terminologik "maydoncha"lar majmuidir. Sportga oid terminlarning aksariyati ikkilamchi - jarayonida zarur bo'lgan bir belgini tanlashda o'sha tilning milliy xususiyatlari ham hisobga olinadi. Sportga oid leksik birliklarni nominatsiya tamoyillariga ko'ra quyidagi shaklda tasniflash va guruhlashtirish mumkin: 1) predmet yoki ob'yekt tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 2) shaxs yoxud ishtirokchi tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 3) harakat tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 4) o'rin-joy tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 5) sport o'yinlarini ifodalovchi nominatsiyalar; 6) aralash turdagi nominatsiyalar.

So'nggi yillarda sport sohasi ko'lamida sharhlash jarayonining jadallashuvi, yangidan-yangi sport turlarining keng jamoatchilik hukmiga havola qilinishi o'z navbatida sport sohasiga oid yangi so'zlarni tilmizga kirib kelishiga va tilimizning yangi so'zlar bilan yanada boyishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida tilshunoslikda so'z qo'llashda aralash, murakkab, g'aliz va chigal tushunchalarni ham qo'llanishida ko'zga tashlanmoqda. Shu yoki shunga o'xshash holatlarni oldini olish maqsadida o'zbek tilidagi sport sohasining oid ayrim so'zlar qo'llanishi, soha leksikasini tartibga solish, terminlarga nisbatan ilmiy munosabat bildirish, ularni o'rinli

qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish vaqti bo'ldi deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda, sport sohasiga oid leksik birliklarni quyidagi ko'rinishda guruhlariga ajratdik.

1. Sport sohasida (predmet) narsa yoki buyum tushunchasini ifodalovchi so'zlar: octagon (oktagon), koptok (to'p), gilam (mat), qo'lqob,

2. Sport sohasida shaxs yoxud ishtirokchi tushunchasini ifodalovchi so'zlar: hakam, kurashchi, tomoshabin, sekundant, sharhlovchi, murabbiy, musobaqa ishtirokchisi.

3. Sport sohasida harakat tushunchasini ifodalovchi so'zlar: zarba bermoq, quvib o'tmoq, xujum qilmoq, uloqtirmoq, tepmoq, chalib yiqitmoq, nakaut qilmoq

4. Sport sohasida o'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar: octagon, maydon, arena, kort, stadion, suv havzasi (basseyn), minbar (tomosha minbari, tribuna.

5. Sport sohasida sport o'yinlari turlarini tushunchasini ifodalovchi so'zlar: xokkey, futbol, volleybol, kurash, boks, yugurish, suzish, qilichbozlik.

6. Sportda aralash turdagi so'zlar: rekord, turnir, mahorat, suv (sporti), jismoniy holat, tezlik, sport gigiyenasi, milliy.

Sport sohasiga doir leksik birliklarni guruhlariga ajratish aralash, murakkab yoki tushunarsiz bo'lgan tushunchalarni aniqlashga va tartibga solishga yordam beradi. Biroq bu o'rganish sport sohasiga oid so'zlar o'rtasidagi chegarani aniq ko'rsatib bera olmaydi.

Yurtimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sport sohasiga qaratilgan e'tibor sohani yangi bosqichga ko'tarishga zamin yaratdi. Qonunlar va dasturlar asosida yurtimizda tashkil etilgan turli tizimdagi milliy, mahalliy va xalqaro sport musobaqalari, mamlakatimizga ko'plab xorijlik sportchilarning kelishi, sohaning amaliy rivoji uchun ular bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilishi o'zbek tili sport sharhlarida ko'plab terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday terminlar qatorida refere, master klass, turnir, VAR, (yana o'zingiz yozsangiz bo'ladi) v.h. yangi o'zlashma so'zlar, terminlar, leksik birliklar ham kundan kunga ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda barcha sohada kuzatilganidek, muayyan soha doirasidagi tushunchalar va so'zlarga tayangan holda uzluksiz ravishda ko'p sonli yangi leksik birliklarni vujudga kelishiga zamin yaratdi. O'zbek tilidagi mavjud sport sohasiga oid terminlar ham shular jumlasidandir. Ushbu birliklarni ommaviy axborot vositalarida orqali sharhlash sportga oid leksik birliklarni milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda ilmiy asoslash ham davlat tili bo'lgan milliy o'zbek tilining lug'at tarkibini boyishida ahamiyat kasb etadi, soha tili leksikasini tizim sifatida o'rganishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015
2. Mo'ydinov Q.A., Shofqorov A.M., Tajiboyev B.R. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. –Toshkent: Bookmany print, 2022.
3. Xudoyberganova D. Mustaqillik davrida sportga doir leksemalar taraqqiyoti // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman (ijtimoiy fanlar). – Buxoro, 2017. – 124 b.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2002, 174 b.
5. Boboyorov M. H. Mustaqillik davri jismoniy tarbiya va sport atamalarining shakllanishi: Filol. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Samarqand, 2009. – 22 b.

RAVISH VA OLMOSH SO'Z TURKUMLARINI O'QITISH METODIKASI**XOLMIRZAYEVA MAFTUNA ABDUMUROD QIZI**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 4-bosqich talabasi

xolmirzayevamaftuna@gmail.com**Ilmiy rahbar: Gulmira Komilova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi tizimida **ravish va olmosh so'z turkumlarini o'qitish metodikasi** masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda ushbu so'z turkumlarining o'ziga xos grammatik, semantik hamda uslubiy xususiyatlari o'quvchilarga o'rgatishda qo'llaniladigan samarali metod va texnologiyalar yoritiladi. Shuningdek, maqolada interfaol usullar, didaktik o'yinlar, mashqlar tizimi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari ravish va olmoshlarni o'qitishda o'quvchilarning til kompetensiyasini oshirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va grammatik bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ravish, olmosh, so'z turkumi, o'qitish metodikasi, interfaol usullar, grammatik tahlil, til kompetensiyasi.

Abstract: This article analyzes the **methodology of teaching adverbs and pronouns** within the Uzbek linguistics framework from both theoretical and practical perspectives. It explores effective methods and technologies used to teach the grammatical, semantic, and stylistic features of these parts of speech. The study also highlights the role of interactive teaching techniques, didactic games, exercise systems, and modern information technologies in language instruction. The findings demonstrate that teaching adverbs and pronouns effectively enhances students' linguistic competence, analytical thinking, and understanding of grammatical structures.

Keywords: adverb, pronoun, part of speech, teaching methodology, interactive methods, grammatical analysis, language competence.

Аннотация: В данной статье рассмотрены **методические основы преподавания наречий и местоимений** в системе узбекского языкознания. Анализируются грамматические, семантические и стилистические особенности этих частей речи, а также эффективные методы и технологии их преподавания. Особое внимание уделено использованию интерактивных методов обучения,

дидактических игр и современных информационных технологий. Результаты исследования показывают, что грамотное обучение наречиям и местоимениям способствует развитию языковой компетенции, аналитического мышления и укреплению грамматических знаний учащихся

.Ключевые слова: наречие, местоимение, часть речи, методика преподавания, интерактивные методы, грамматический анализ, языковая компетенция.

Tilshunoslik fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan **so'z turkumlarini o'qitish metodikasi** maktab ta'limi tizimida alohida o'rin tutadi. Tilning grammatik qurilishini anglash, so'zlarning o'zaro bog'lanishini va nutqdagi vazifasini tushunish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi. Shu jihatdan, **ravish va olmosh so'z turkumlarini to'g'ri va samarali o'qitish** nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tahlil qilish ko'nikmalarini va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham muhimdir. O'zbek tili grammatik tizimida ravish va olmoshlar muhim funksional yuklamaga ega bo'lib, ular gap tarkibida ma'no aniqligi va uslubiy boylikni ta'minlaydi. Ravishlar harakatning belgisini, tarzini yoki sharoitini bildirsa, olmoshlar so'z o'rnida qo'llanib, nutqni ixcham va ravon qiladi. Shu sababli, bu so'z turkumlarini o'rgatishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, taqqoslash, kontekst asosida tahlil qilish kabi usullarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois ravish va olmoshlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'qituvchi faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu mavzu doirasida o'zbek tili darslarida ravish va olmoshlarni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan metodik muammolarni tahlil qilish, samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlash maqsad qilib olinadi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek tili grammatikasini chuqur o'rganish, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'lida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihatdan **"Ravish va olmosh so'z turkumlarini o'qitish metodikasi"** mavzusining o'rganilishi o'zbek tili ta'limining sifatini oshirish, grammatik kompetensiyani rivojlantirish va milliy til madaniyatini mustahkamlash nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir. O'zbek tili grammatik tizimida so'z turkumlari muhim o'rin tutadi. Ular ichida ravish va olmoshlar alohida lingvistik va metodik ahamiyatga ega, chunki ular nutqning ma'nodorchiligini,

aniqligini va ifoda boyligini ta'minlaydi. Ravish va olmoshlarni o'qitish jarayoni o'quvchilarda tilning mantiqiy tuzilishini anglash, nutqni izchil, lo'nda va aniq ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun bu mavzuni o'qitishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashqlar, interfaol metodlar va ko'rgazmali vositalardan keng foydalanish muhimdir. Ushbu jarayon o'quvchilarning grammatika bo'yicha bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, ularning nutqiy kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Ravishlar harakat, holat yoki belgi belgisini ifodalaydigan mustaqil so'z turkumidir. Ular fe'llar, sifatlar va boshqa ravishlarga bog'lanib, gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan, "tez yugurdi", "chiroyli yozdi" kabi birikmalarda ravish harakatning qanday sodir bo'lganini bildiradi.

Olmoshlar esa ot, sifat, son va ravishlarning o'rini bosib keluvchi so'zlardir. Ular nutqda takroni oldini oladi, mantiqiy soddalik va izchillikni ta'minlaydi: "men", "sen", "u", "bunday", "shunday" kabi. Ravish va olmoshlarning farqlanishini, ularning sintaktik vazifasini tushuntirish o'quvchilarning grammatik tafakkurini rivojlantiradi.

2. Muammolar: Ravish va olmoshlarni o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ravish va olmoshlarni o'qitishda o'quvchilar ko'pincha bu so'z turkumlarining ma'no va vazifasini aralashtirib yuboradilar. Masalan, "chiroyli" va "chiroyliroq" so'zlaridagi farqni, yoki "bu" olmoshining turli ma'nodagi vazifalarini aniqlashda xatolarga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, ravishlarning darajalanishini, olmoshlarning turlarini (shaxs, ko'rsatish, so'roq, o'zlik va h.k.) to'g'ri farqlash ham ayrim o'quvchilar uchun murakkab bo'ladi. Darsliklarda ushbu mavzular yetarli ko'rgazmali material bilan ta'minlanmagan hollarda, o'quvchilar nazariy bilimni amaliyotda qo'llashda qiynaladilar.

3. Yechimlar: Samarali o'qitish metodlari va yondashuvlar. Ravish va olmoshlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish yuqori natija beradi. Masalan, "Aqliy hujum", "Tushunchalar zanjiri", "Juftlikda ishlash", "Testli kartochkalar" kabi usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Multimedia vositalari orqali so'z turkumlari misollarini audio va video shaklda ko'rsatish o'quvchilarning idrokini kuchaytiradi. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltirish, jumladan, matnlardan ravish va olmoshlarni topish, ularning ma'no guruhlarini tahlil qilish, gap tarkibidagi vazifasini aniqlash mashqlari samarali hisoblanadi. Darsda o'yin texnologiyalarini, masalan "Kim topqir?" yoki "To'g'ri joylashtir" mashg'ulotlarini qo'llash orqali mavzuni mustahkamlash osonlashadi.

4. Ravish va olmoshlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar roli. Bugungi ta'lim jarayonida raqamli resurslar, elektron darsliklar va interaktiv platformalar

o'qitish samaradorligini oshiradi. "Wordwall", "Quizizz", "Kahoot" kabi onlayn vositalar orqali ravish va olmosh mavzulari bo'yicha mashqlarni o'tkazish o'quvchilarda qiziqishni oshiradi. Shu bilan birga, kompyuter dasturlari yordamida so'z turkumlarini vizual tahlil qilish, ularning gapdagi o'rnini grafik shaklda ko'rsatish ham o'quvchilarning tahliliy fikrlashini kuchaytiradi. Raqamli yondashuv orqali o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o'quvchining mustaqil fikrlashini shakllantiradi.

5. Ravish va olmoshlarni o'qitishning ma'naviy-pedagogik ahamiyati. Bu mavzularni o'qitish orqali o'quvchilarda nutq madaniyati, fikrni aniq ifoda etish va mantiqiy izchillikni saqlash ko'nikmasi shakllanadi. O'quvchi har bir so'zning ma'nosiga e'tibor qaratadi, fikrini lo'nda va to'g'ri ifodalashni o'rganadi. Ravishlar yordamida u nutqni badiiy va ta'sirchan qiladi, olmoshlar esa takroriy so'zlardan saqlanish imkonini beradi. Natijada o'quvchi ona tilini chuqurroq anglaydi, so'z boyligini kengaytiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Ravish va olmoshlarni o'qitish metodikasi o'zbek tilini o'rganishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat grammatik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarning nutqiy faolligini, ijodiy tafakkurini va mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi. Birinchidan, o'qituvchi mavzuni o'quvchi tajribasiga yaqin hayotiy misollar asosida tushuntirishi zarur. Ikkinchidan, darsda interaktiv yondashuv, raqamli texnologiyalar va amaliy mashqlardan foydalanish o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etadi. Uchinchidan, darsning asosiy maqsadi — o'quvchiga ravish va olmoshlarning ma'nosini emas, balki ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini singdirishdir. Shu tariqa, mazkur mavzuni metodik jihatdan puxta o'qitish o'zbek tili ta'limining sifatini oshiradi va o'quvchilarda tilga mehr, nutqqa e'tibor, fikrni to'g'ri ifodalash madaniyatini shakllantiradi.

Ravish va olmosh so'z turkumlarini o'qitish o'zbek tili ta'limining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu mavzuni samarali o'rgatish orqali o'quvchilar tilning grammatik tuzilishini chuqurroq anglaydi, nutqdagi mantiqiy bog'lanishlarni to'g'ri ifodalashni o'rganadi va o'z fikrini aniq, ravon tarzda bayon etish ko'nikmasini shakllantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu so'z turkumlarini o'qitishda interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ravish va olmoshlarni o'rganish nafaqat grammatik tushunchani shakllantiradi, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi ta'lim jarayonida bu mavzuni o'qitish metodikasini takomillashtirish, uni zamonaviy didaktik yondashuvlar bilan boyitish o'qituvchining kasbiy mahoratini va dars samaradorligini oshiradi. Shuningdek,

o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilim darajasini va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlash muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aniyeva S. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2017.
2. G'ulomov A., Asqarova M. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
3. Hasanov N. *Ona tili o'qitish metodikasi (darslik)*. – Toshkent: "Sharq", 2019.
4. Jo'rayev M. *Ravish va olmoshlarning grammatik xususiyatlari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
5. Karimova D. *O'zbek tili va adabiyot ta'limida zamonaviy yondashuvlar*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
6. Mamatov B. *Til o'rganishda kommunikativ yondashuv asoslari*. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021.
7. Qodirova Z. *Ona tili ta'limida interfaol metodlar*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
8. Rasulov R. *Til o'qitish metodikasi asoslari*. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020.
9. Usmonova D. *O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish*. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2022.
10. Yo'ldoshev M. *O'zbek tili grammatikasi: Morfologiya*. – Toshkent: Fan, 2016.

THE ROLE OF SPEECH CULTURE IN EFFECTIVE COMMUNICATION

XUDAYQULOVA NAFOSAT ABDUSAIDOVNA

Student of Chirchiq State Pedagogical University,

The Faculty of Tourism,

majoring in Tour Guiding and Translation studies

nafosat25maktab@gmail.com

Annotation: This article examines the role of speech culture in effective communication, emphasizing its linguistic, social, and cultural dimensions. It explores how speech culture ensures clarity, respect, and professionalism, while also reflecting cultural values and identity. Furthermore, it discusses the challenges posed by the digital age and highlights the importance of cultural awareness in communication.

Keywords: speech culture, communication, language norms, philology, etiquette, clarity, effective communication, cultural influence

Annotatsiya: Ushbu maqola samarali muloqotda nutq madaniyatining rolini tahlil qiladi, uning lingvistik, ijtimoiy va madaniy o'lchamlariga e'tibor qaratadi. Nutq madaniyati aniqlik, hurmat va professionallikni ta'minlash bilan birga, madaniy qadriyatlar va shaxsiylikni ham aks ettirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada raqamli davrda yuzaga kelayotgan muammolar ko'rib chiqiladi va muloqotda madaniy xabardorlikning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, muloqot, til me'yorlari, filologiya, odob-axloq, aniqlik, samarali muloqot, madaniy ta'sir

Аннотация: В данной статье рассматривается роль культуры речи в эффективной коммуникации, с акцентом на её лингвистические, социальные и культурные аспекты. Подчеркивается, что культура речи обеспечивает ясность, уважение и профессионализм, а также отражает культурные ценности и идентичность. Кроме того, обсуждаются вызовы цифровой эпохи и подчеркивается важность культурной осведомленности в общении.

Ключевые слова: культура речи, коммуникация, языковые нормы, филология, этикет, ясность, эффективная коммуникация, культурное влияние

Language has always been an inseparable part of human society. As a social phenomenon, it unites members of a community, while speech serves as the practical form of language in everyday interactions. The success of effective communication largely depends on speech culture, which means the proper, relevant, and cultured use of linguistic means. Therefore, speech culture is not only the subject of philological

study but also a vital component of social interaction, personal development, and cultural preservation.

Language and Speech

In linguistics, a clear distinction is made between language and speech. Language is the system of signs, vocabulary, and grammar rules developed by society, while speech is the practical use of this system by individuals in specific contexts. Thus, speech culture depends on how effectively and correctly people can use the linguistic wealth of their language.

The relationship between language and speech highlights that language is the potential, while speech is its realization. The richer and more structured one's speech culture is, the better they can actualize the potential of language in real-life communication.

The Essence of Speech Culture

Speech culture involves the adherence to literary language norms, grammatical accuracy, stylistic appropriateness, correct pronunciation, and suitable intonation. Scholars generally define speech culture through three main aspects:

- Compliance with language norms – following grammatical, orthographic, and stylistic rules that ensure speech accuracy.
- Logic and clarity of expression – conveying thoughts in a consistent, precise, and understandable manner.
- Ethical and aesthetic dimensions – respecting communicative etiquette and using expressive means to make speech polite, persuasive, and effective.

A well-developed speech culture not only reflects a person's education and intelligence but also reveals their respect for others and their awareness of cultural traditions.

The Role of Speech Culture in Effective Communication

- Clarity and precision – Speech culture enables individuals to communicate their ideas logically and without unnecessary ambiguity.
- Social relations – Cultured speech strengthens mutual respect, trust, and sincerity among people, helping to avoid conflicts and misunderstandings.
- Professional success – In teaching, politics, leadership, media, and business, speech culture is a decisive factor in persuasion, motivation, and credibility.
- Preservation of cultural values – Speech culture reflects and strengthens national traditions, thereby contributing to the preservation of cultural identity.

Speech culture is not just about correctness — it is a bridge that links language with human values, traditions, and social responsibilities.

Challenges in the Modern Era

In today's digital age, communication often takes place through instant messaging, social media, and online platforms. Abbreviations, slang, emojis, and informal expressions dominate these spaces, sometimes weakening attention to literary norms and stylistic standards. While this creativity reflects linguistic flexibility, it also risks reducing the quality and seriousness of communication, especially among younger generations.

Therefore, a balance must be maintained between linguistic creativity and adherence to speech culture. Cultivating awareness of correct language use in schools, universities, and workplaces becomes increasingly important. Furthermore, media and technology should be used not only as communication tools but also as platforms for promoting speech culture.

The Influence of Culture on Language and Speech

Culture plays a significant role in shaping how individuals use language, the meanings they attribute to words, and the nuances of communication. The influence of culture is complex and multifaceted, manifesting in several ways:

- Linguistic patterns and structures – Different cultures develop unique grammatical rules, vocabulary, and syntax that reflect their values, beliefs, and norms. For example, some cultures emphasize politeness and indirectness, while others value directness and brevity.
- Nonverbal communication – Body language, gestures, and facial expressions are deeply shaped by culture. While eye contact signals attentiveness in some societies, in others it may be seen as confrontational.
- Semantic variations – Words and phrases often carry different emotional or cultural meanings across societies. For example, the concept of “family” may evoke collectivist or individualist associations depending on cultural background.

Understanding these cultural influences is vital for cross-cultural communication. It requires self-awareness, cultural humility, and openness to linguistic diversity. Such awareness allows individuals to navigate intercultural interactions with greater empathy and effectiveness.

In conclusion, speech culture is the foundation of effective communication. It ensures clarity, respect, and cultural continuity while also enhancing professional and social success. From a philological perspective, it represents the practical realization of language norms, demonstrating not only a person's intellectual level but also their aesthetic taste and social position.

In the modern era, with rapid digitalization and globalization, individuals must strive to maintain speech culture while also adapting to new communicative realities. This balance ensures that linguistic creativity does not undermine cultural and ethical values.

Ultimately, cultivating speech culture requires conscious effort, education, and cultural sensitivity. As individuals engage in both local and cross-cultural interactions, approaching language with humility, respect, and openness to diversity becomes essential for building understanding, unity, and progress in society.

References

1. Vinogradov, V. V. (1981). The Culture of Speech and Its Norms. Moscow: Nauka.
2. Karasik, V. I. (2002). Language Circle: Personality, Concepts, Discourse. Volgograd: Peremena.
3. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Boston: Beacon Press.
5. Sirotinina, O. B. (2010). Speech Culture: Problems and Perspectives. Saratov: Saratov University Press.
6. G'ulomov, A., & Rahmatullayev, Sh. (1982). Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
7. Mamajonov, A. (2007). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: TADQIQ, TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI

YAXSHIBOYEVA CHAROS SAFAROVNA

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbekiston tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi 4-kurs, 22/2-guruh talabasi

Yaxshiboyeva Charos Safarovna

yaxshiboyevacharos@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va hozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar yoritilgan. Tadqiq, tahlil va talqin masalalari zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilib, turkiy adabiy merosning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy izlanishlar, adabiy an'analar va ularning o'zaro ta'sirini aniqlash orqali turkiy xalqlar adabiyotini chuqur o'rganish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: turkiy xalqlar adabiyoti, tadqiq, tahlil, talqin, madaniy meros, adabiyotshunoslik, tarix, o'zlik.

ANNOTATION: This article examines the historical roots, development stages, and modern research directions of Turkic literature. The study focuses on the research, analysis, and interpretation of literary works from the Turkic world, revealing the importance of preserving and understanding this vast cultural heritage. It highlights the necessity of comparative literary studies to strengthen the unity and cultural identity of the Turkic-speaking nations.

Keywords: Turkic literature, research, analysis, interpretation, cultural heritage, literary studies, history.

Turkiy xalqlar adabiyoti dunyo madaniyati va adabiy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu adabiyot o'zining boy tarixiy ildizlari, badiiy uslubi, falsafiy g'oyalari va ma'naviy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Turkiy xalqlar adabiyoti asrlar davomida og'zaki va yozma ijodning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan bo'lib, unda xalq og'zaki ijodining poetik imkoniyatlari, mifologik qarashlar, diniy-falsafiy tasavvurlar, shuningdek, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, axloqiy komillik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Bugungi kunda turkiy xalqlarning adabiy merosini o'rganish, uni zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari asosida tadqiq etish xalqaro miqyosda ham dolzarb masalaga aylangan. Xususan, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Ozarbayjon,

Qirg'iziston va Turkmaniston olimlari o'zaro ilmiy hamkorlikda turkiy xalqlar adabiyotining umumiy ildizlari, poetik tizimi, obrazlar olami va g'oyaviy yo'nalishlarini qiyosiy tahlil etmoqdalar. Shuningdek, turkiy adabiyotshunoslikda integratsion yondashuv, raqamli adabiy manbalarni tahlil qilish, matnshunoslikni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish yo'nalishlari ham rivojlanmoqda. Shuning uchun ushbu mavzuni tadqiq etish nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi madaniy integratsiya va milliy o'zlikni anglash jarayoniga ham bevosita daxldordir.

Turkiy xalqlar adabiyoti dunyo adabiy merosining ajralmas qismidir. U o'zining boy tarixiy ildizlari, badiiy an'analari, falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklar, jumladan, Orxon-Enasoy bitiklari, xalq og'zaki ijodi namunalarining asosini tashkil etadi. Ushbu asarlar nafaqat badiiy, balki falsafiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan ham o'rganishga arziydi. Turkiy xalqlar adabiyotining tarixiy bosqichlari asrlar davomida shakllanib, har bir davr o'zining ijtimoiy hayoti, tafakkuri va madaniyatini aks ettirgan. Bu jarayonlarda yozma va og'zaki ijod uyg'unlashgan, shuningdek, diniy, axloqiy va milliy qadriyatlar asosida shakllangan. Bugungi kunda turkiy adabiyotning o'rganilishi xalqaro miqyosda ahamiyat kasb etmoqda. Turkiy adabiyotshunoslik fanining rivojlanishi, turkiy tillarning yaqinligi va umumiy tarixiy ildizlar bu yo'nalishdagi izlanishlarni chuqurlashtirmoqda.

Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, tilshunoslik, falsafa, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiq jarayonida manbaviy yetishmovchilik, ayrim asarlarning yo'qolib ketgani yoki tahririy jihatdan buzilgan shaklda yetib kelgani asosiy muammolardan biridir. Masalan, qadimgi Uyg'ur davriga oid matnlarning katta qismi chet mamlakatlar arxivlarida saqlanmoqda, ammo ularni tahlil qilish va tarjima qilish ishlari hali to'liq tugallangani yo'q. So'nggi yillarda bu borada Turkiy kengash, TURKSOY va O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Adabiyotshunoslik instituti tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotchilar Qurinov, Nishonova, Shermuhamedovlar turkiy adabiyot manbalarini qiyosiy tahlil asosida o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, yagona metodologik tizimni ishlab chiqish, turkiy xalqlar adabiy merosini raqamlashtirish hamda elektron katalog yaratish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardandir. Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etish jarayonida asosiy muammo manbaviy yetishmovchilik va tarixiy hujjatlarning to'liq o'rganilmaganligidir. Qadimiy bitiklar, qo'lyozmalar, og'zaki ijod namunalarini to'liq tizimlashtirish hali yakuniga yetmagan. Ilmiy tadqiqotlarda metodologik yondashuvlarning bir xilligi ham ba'zan natijadorlikni cheklaydi. Shu boisdan, turkiy adabiy merosni o'rganishda tarix, tilshunoslik, madaniyatshunoslik,

etnografiya kabi fanlarning integratsiyasiga ehtiyoj katta. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i va Alisher Navoiy ijodi bugungi turkiy adabiy tafakkurni anglashda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, turkiy xalqlarning adabiy aloqalari, madaniy o'zaro ta'siri ularning umumiy qadriyatlar asosida birlashganligini ko'rsatadi.

Adabiy tahlil badiiy asarning g'oyaviy-falsafiy mohiyatini ochish, obrazlar tizimi, til va uslubni chuqur o'rganishni talab etadi. Turkiy adabiyotda tahlil jarayoni milliy mentalitet, diniy-falsafiy dunyoqarash va tarixiy tajriba bilan chambarchas bog'liq. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida so'z san'ati orqali inson ruhiyati, muhabbat va ma'rifat g'oyalari ifodalansa, Abay Qunanboyev ijodida axloqiy komillik, ma'naviy uyg'onish motivlari markazda turadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda komparativ tahlil, sotsiologik yondashuv, psixopoetik tahlil kabi metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu usullar yordamida turkiy xalqlar adabiy merosi boshqa jahon adabiyotlari bilan qiyoslab o'rganilmoqda. Jumladan, Fuzuliy lirikasidagi ishq falsafasi bilan Yevropa romantizmi o'rtasidagi o'xshashliklar, Bobur she'riyati bilan fors adabiy an'alarining uyg'unligi ilmiy izlanishlarda tahlil etilmoqda.

Bugungi kunda yosh tadqiqotchilar adabiy tahlilni raqamli lingvistika va sun'iy intellekt asosida olib borish imkoniyatlarini ham o'rganmoqdalar. Bu esa matnlar orasidagi leksik va semantik o'xshashliklarni avtomatik aniqlashga yordam bermoqda. Talqin jarayoni adabiyotshunoslikning eng murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, u asarning estetik mohiyatini, muallif niyatini va davr kontekstini anglashni taqozo etadi. Turkiy xalqlar adabiyotini talqin etishda tarixiy-falsafiy yondashuv, madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi va postmodern tahlil metodlari qo'llanilmoqda. Masalan, Alisher Navoiy asarlari bugungi kunda nafaqat mumtoz adabiyot namunasi, balki insonparvarlik, bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglashning ramzi sifatida talqin qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon va Qirg'iziston adabiyotshunoslari turkiy xalqlar adabiyotini yagona "madaniy fazo" sifatida o'rganish yo'lida hamkorlik qilmoqdalar. Zamonaviy talqin yondashuvlari, xususan, intertekstual va semiotik tahlil usullari asarlar o'rtasidagi bog'liqlikni, ramz va ma'no qatlamlarini ochishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda talqin faqat akademik emas, balki madaniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib, yosh avlodni milliy o'zlik ruhida tarbiyalash vositasiga aylanmoqda. Adabiyot tahlili badiiy matnning mazmuni, shakli, g'oyasi, til vositalari va uslubini chuqur o'rganishni talab qiladi. Turkiy adabiyotning har bir namunasida xalq ruhiyati, milliy qadriyatlar, insonparvarlik va axloqiy g'oyalar o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan, tahlil jarayonida asarning yaratilish davri, muallif dunyoqarashi, xalq og'zaki ijodi bilan aloqasi e'tiborga olinadi. Masalan,

Alisher Navoiy, Abay, Fuzuliy, Bobur kabi ijodkorlar asarlarida inson tabiatining murakkabligi, ezgulik va yovuzlik kurashi, ijtimoiy adolat g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. Zamonaviy tahlil metodlari, jumladan, komparativ, strukturaviy, sotsiologik va lingvopoetik yondashuvlar turkiy adabiyotning yanada chuqur tahliliga imkon yaratmoqda.

Talqin – bu asarning ma'nosini anglash, g'oyaviy-estetik mohiyatini ochib berish jarayonidir. Turkiy xalqlar adabiyotini talqin qilishda tarixiylik va zamonaviylik o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Har bir asar o'z davrining ijtimoiy, madaniy, axloqiy muhitini aks ettiradi. Shu boisdan talqin jarayonida kontekstual yondashuv muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda turkiy adabiyot namunalarini zamonaviy estetik talqin asosida o'rganish, ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, turkiy xalqlar adabiyotini talqin etishda milliy o'zlik, xalq ruhiyati va tarixiy xotira alohida o'rin egallaydi. Bu jihatlar adabiy merosni saqlash, uni yosh avlodga yetkazish va global madaniyatda munosib o'rinni egallash uchun xizmat qiladi.

Turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq, tahlil va talqin qilish jarayoni keng qamrovli ilmiy izlanishlarni talab etadi. Har bir turkiy xalq adabiyoti o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularni umumiy ildizlar, tarixiy jarayonlar, dunyoqarash va badiiy qadriyatlar birlashtirib turadi. Shu bois, bu merosni o'rganish jarayonida qiyosiy adabiyotshunoslik, lingvopoetik va madaniyatshunoslik yondashuvlarini uyg'un qo'llash muhimdir. Bugungi globalizatsiya davrida turkiy xalqlar adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib etish, asarlarning tarjimalarini ko'paytirish, elektron adabiy bazalar yaratish va raqamli tahlil texnologiyalaridan foydalanish ilmiy natijadorlikni yanada oshiradi. Shuningdek, turkiy adabiy merosni yosh avlodga yetkazish, ularni milliy o'zlik va madaniy g'urur ruhida tarbiyalashda ushbu adabiyotning o'rni beqiyosdir. Turkiy adabiyot faqat badiiy hodisa emas, balki butun turkiy dunyo ma'naviyatining, birligining, tarixiy xotirasining timsolidir. Shu sababli, kelgusidagi ilmiy izlanishlar bu yo'nalishda yanada kengayib, turkiy xalqlarning madaniy integratsiyasiga xizmat qilishi lozim.

Turkiy xalqlar adabiyotining tadqiq, tahlil va talqin masalalari o'zaro bog'liq ilmiy yo'nalishlar bo'lib, ular orqali adabiy merosni chuqur o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Turkiy adabiyot milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni asrash va madaniy birlikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy izlanishlar jarayonida yangi manbalarni kashf etish, ularni zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari asosida tadqiq etish turkiy xalqlarning umumiy tarixini yanada chuqurroq ochib beradi. Shu boisdan, bu sohada xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish,

tarjimalar sonini ko'paytirish va raqamli adabiy bazalar yaratish zarur. Turkiy xalqlar adabiyotini chuqur o'rganish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy va madaniy taraqqiyot uchun ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmud Koshg'ariy. "Devonu lug'otit turk". Toshkent, 1960.
2. 10.A. Shermuhamedov. "Turkiy xalqlar poetik tafakkuri". Toshkent, 2017.
3. 11. J. Jalolov. "Adabiy integratsiya va tahlil metodlari". Buxoro, 2023.
4. 12. I. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, 2008.
5. 13. D. Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent, 2018
6. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". Toshkent, 1971.
7. Alisher Navoiy. "Xamsa". Toshkent, 2016.
8. Abdurauf Fitrat. "Adabiyot qoidolari". Toshkent, 1926.
9. Abay Qunanboyev. "So'zlar kitobi". Olmaota, 1980.
10. Hodi Zarifov. "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent, 1976.
11. M. Qahhor. "Adabiyot va hayot". Toshkent, 1983.
12. Z. T. Nishonova. "Turkiy adabiyotda integratsion jarayonlar". Toshkent, 2020.
13. A. Rasulov. "Turkiy xalqlar madaniy merosi". Samarqand, 2019

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

YUSUBBOYEVA MASHHURA AZAMAT QIZI,

YUSUFBOYEVA DURDONA OTABEK QIZI,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

mashhurayusufboyeva@gmail.com

durdona999@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etish jarayonini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda til tarixining muhim bosqichlari, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Adabiy tilning shakllanishi jarayoni uzoq tarixiy davrlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, hozirgi o'zbek adabiy tili XX asrning boshlaridan boshlab yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, adabiy til, rivojlanish bosqichlari, tarixiy jarayon, til siyosati, yozuv tizimi, mustaqillik, normativ me'yorlar, til madaniyati.

Abstract. This article is aimed at highlighting the process of formation and development of the modern Uzbek literary language, analyzing important stages in the history of the language, their inextricable connection with social, political and cultural factors. Although the process of formation of the literary language includes long historical periods, the modern Uzbek literary language has entered a new stage of development since the beginning of the 20th century.

Keywords: linguistics, literary language, stages of development, historical process, language policy, writing system, independence, normative standards, language culture.

Абстрактный. Цель данной статьи – пролить свет на становление и развитие современного узбекского литературного языка, проанализировав важные этапы в истории языка и их неразрывную связь с социальными, политическими и культурными факторами. Хотя процесс формирования литературного языка охватывает длительные исторические периоды, современный узбекский литературный язык с начала XX века вступил в новый этап развития.

Ключевые слова: языкознание, литературный язык, этапы развития, исторический процесс, языковая политика, письменность, независимость, нормативные стандарты, языковая культура.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki umummadaniy va tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Adabiy til xalq tilining eng taraqqiy etgan shakli bo'lib, u yozma va og'zaki nutq madaniyatining yuksak bosqichi sifatida ijtimoiy ongini, madaniyatni, milliy tafakkurni ifodalaydi. O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari o'rta asrlarga borib taqaladi, biroq hozirgi adabiy tilning shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi jarayoni, ayniqsa, XX asr boshlaridan boshlab yangi sur'at va mazmun kasb eta boshladi. Bu davr o'zbek milliy uyg'onish harakati, jadidchilik, matbuot, adabiyot, teatr va boshqa madaniy sohalarning faollashuvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, til taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Shu jihatdan olib qaralganda, hozirgi o'zbek adabiy tili — bu nafaqat lingvistik hodisa, balki keng ijtimoiy, madaniy va tarixiy asoslarga ega bo'lgan tizimdir.

O'zbek adabiy tilining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda, avvalo, bu til qanday omillar ta'sirida, qanday muhitda shakllanganini chuqur anglash zarur. Ilk o'zbek yozma yodgorliklari orasida “Devonu lug'otit turk”, “Qutadg'u bilig”, “Mahbub ul-qulub” singari asarlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning barchasi turkiy tilning adabiy shakllarida yozilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi adabiy tilning eng yuksak namunasi sifatida til tarixida o'chmas iz qoldirgan. Navoiy o'z asarlarida o'z davrining eng yuksak adabiy tili — Chig'atoy tilida yozgan bo'lib, bu til keyinchalik o'zbek adabiy tilining shakllanishida mustahkam asos bo'lib xizmat qilgan. Navoiy zamonasidagi adabiy til va hozirgi adabiy til o'rtasida ko'plab farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning ichki mantiqiy izchilligi, boy leksik qatlam, uslubiy imkoniyatlar, ifoda vositalarining xilma-xilligi ularni bir-biriga bog'lab turadi.

XX asr boshlarida Turkiston jadidchilari olib borgan islohotlar o'zbek adabiy tilining yangi bosqichga o'tishiga katta turtki berdi. Jadid matbuoti, maktablari, teatr sahnalari orqali adabiy til xalq ommasiga yaqinlashdi, u yangi ijtimoiy hayot, yangi g'oyalarni ifodalash vositasi sifatida rivojlana boshladi. Shu davrda gazeta-jurnal tili, ilmiy va publitsistik uslublar shakllandi, adabiy tilning normativ asoslari bo'yicha dastlabki ilmiy izlanishlar boshlandi. O'zbek tili bo'yicha grammatikalar, imlo qoidalari, lug'atlar tuzildi. Alifbo islohoti, avval arab yozuvidan lotin yozuviga, keyinchalik kirill yozuviga o'tish, tilga katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir yozuv tizimi tilning leksik, morfologik, orfografik va uslubiy xususiyatlariga o'zgarishlar kiritdi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida adabiy tilning me'yorlashishiga, zamonaviylashishiga va zamon ruhiga moslashishiga xizmat qildi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyot yo'lida murakkab davrni bosib o'tdi. Bir tomondan, o'zbek tilining ilmiy asosda o'rganilishi, tilshunoslik maktablarining shakllanishi, adabiy til me'yorlarining ishlab chiqilishi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, bu davrda rus tilining dominant mavqei, so'z boyligining ruscha atamalar hisobiga boyitilishi, ayrim holatlarda tabiiy taraqqiyotning sun'iy yo'nalishga burilishi ham kuzatildi. Til siyosati orqali ba'zan milliy ifoda vositalari cheklab qo'yildi, ammo o'zbek adabiy tili hayotda faol qo'llanildi: badiiy adabiyotda, ta'lim tizimida, matbuotda keng tarqaldi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari adiblar asarlarida adabiy tilning nozik jihatlari, uslubiy boyligi va ifoda imkoniyatlari yuqori darajada namoyon bo'ldi.

Mustaqillik davriga kelib, o'zbek adabiy tili rivojida yangi bosqich boshlandi. 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonun, tilga davlat tili maqomi berilishi, uni barcha sohalarda qo'llash majburiyligi adabiy tilning maqomini mustahkamladi. Yangi til siyosati, lotin yozuviga qaytish, normativ me'yorlarni qayta ko'rib chiqish va zamon talablariga moslashtirish borasida katta islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar, bir tomondan, adabiy tilni milliy asosda rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy ilm-fan, texnologiya, diplomatiya, iqtisodiyot sohalarida foydalanishga moslashgan, funksional imkoniyatlari keng bo'lgan til tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. Ayniqsa, ta'lim tizimida o'zbek tilining o'rni mustahkamlandi, adabiy tilning muqim normativ asoslari yaratilmoqda, grammatik, orfografik va leksik me'yorlar rasmiy hujjatlar bilan mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi adabiy tilga yangicha ta'sir o'tkazmoqda. Yangi so'zlar, atamalar, qisqartmalar, ingliz tilidan o'zlashmalar adabiy tilga kirib kelmoqda. Bu holat ba'zan til me'yorlariga zid bo'lsa-da, baribir adabiy tilning dinamikasini, uning ijtimoiy faolligini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishi faqat grammatik va leksik jihatlar bilan cheklanmaydi. Bu tilning uslubiy tizimi, nutq madaniyati, rasmiy va norasmiy sohalarda qo'llanishi, yoshlar va ziyolilar orasida qanday shakllanishi masalalari ham dolzarbdir. Tilshunos olimlar, pedagoglar, adiblar, jurnalistlar bu yo'nalishda muhim ishlar olib bormoqda. Til madaniyatini yuksaltirish, so'z boyligini oshirish, nutq estetikasi va madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardandir. Buning uchun adabiy tilning barcha shakllari — og'zaki va yozma nutq, badiiy va ilmiy uslub, publitsistik va rasmiy uslublar muntazam ravishda nazorat qilinishi, o'rganilishi va takomillashtirilishi lozim. Tilga befarqlik, noto'g'ri talaffuz, adabiy me'yorga zid

yo'zuvlar, ayniqsa internet muhitida keng tarqalayotgani ogohlik bilan yondashishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va b. Ona tili. Toshkent - 2022.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010.
3. G'ulomov A. va b. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2012.
4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. Toshkent – 2005.
5. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). — Toshkent: Zamin nashr, 2021. -232 b.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013.

INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIGA TA'SIRI: YOSHLAR TILIDAGI O'ZGARISHLAR

YUSUBJONOVA SITORA BOTIRJON QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

sitorayusubjonova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga ko'rsatgan ta'siri, xususan, yoshlar nutqidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Unda anglisizmlar, yangi jargon va qisqartmalar, emojilar, memlar hamda rasmiy va norasmiy registrlar aralashuvi kabi hodisalar yoritilgan. Internet tili yoshlar o'rtasida o'ziga xos "onlayn so'zlashuv" madaniyatini shakllantirayotgani, shu bilan birga, o'zbek tilining lug'at boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirayotgani ko'rsatib beriladi. Maqolada ijobiy va salbiy ta'sir jihatlari solishtirilib, raqamli davrda ona tilining saqlanishi va rivoji uchun zarur tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoqlar, o'zbek adabiy tili, yoshlar tili, anglisizmlar, jargon, mem, emoji, onlayn muloqot, til o'zgarishi.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние интернета и социальных сетей на современный узбекский литературный язык, в частности на речь молодежи. Анализируются такие явления, как англицизмы, интернет-жаргон, сокращения, использование эмодзи и мемов, а также смешение официального и неофициального стилей общения. Отмечается, что интернет-среда формирует особую "онлайн-речь" среди молодежи, расширяя словарный запас и выразительные возможности узбекского языка. В работе также обсуждаются положительные и отрицательные стороны этого процесса и предлагаются рекомендации по сохранению и развитию родного языка в цифровую эпоху.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, узбекский литературный язык, молодежная речь, англицизмы, жаргон, мем, эмодзи, онлайн-общение, языковые изменения.

Abstract: This article examines the impact of the Internet and social media on the modern Uzbek literary language, focusing on linguistic changes in youth speech. It analyzes phenomena such as anglicisms, online jargon, abbreviations, emojis, memes,

and the blending of formal and informal registers. The study highlights how the Internet has created a unique "online speech" culture among young people, while also enriching the Uzbek language's vocabulary and expressive capacity. Both the positive and negative effects of this process are discussed, and recommendations are proposed for preserving and developing the native language in the digital age.

Keywords: Internet, social media, Uzbek literary language, youth speech, anglicisms, jargon, meme, emoji, online communication, language change.

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli aloqa asri sifatida insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar global miqyosda kommunikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. O'zbekistonda ham bu tendensiya kuzatilib, ayniqsa, yoshlar orasida kundalik muloqot va yozishmalarda adabiy til me'yorlaridan chekinish, yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada Internet va ijtimoiy tarmoqlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga ta'siri, xususan, yoshlar tilidagi o'zgarishlar, uning ijobiy va salbiy jihatlari faktlar va misollar asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pi yoshlardan iborat bo'lib, ular Internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadilar. "We Are Social" va "Hootsuite" tomonidan 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 30 milliondan oshiqni tashkil etadi va ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, YouTube, TikTok, Facebook) auditoriyasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bu platformalar yoshlar uchun asosiy muloqot maydoniga aylandi. Tezkor xabarlar, qisqa postlar, cheklangan belgilar soni kabi omillar tilning soddalashuvi va ixchamlashuviga zamin yaratmoqda.

Til - tirik organizm kabi doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib boradi. Bu jarayonda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, ya'ni leksik qarz olish tabiiy hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda jahon tillariga eng ko'p ta'sir ko'rsatayotgan tillardan biri, shubhasiz, ingliz tilidir. Ingliz tilidan boshqa tillarga kirib kelgan so'zlar, iboralar va grammatik konstruktsiyalar majmuasi anglisizmlar deb ataladi. O'zbek tili ham globalizatsiya jarayonlaridan chetda qolmagan holda, ayniqsa so'nggi o'ttiz yillikda anglisizmlar oqimining kuchayishini boshdan kechirmoqda. Anglisizmlarning o'zbek tiliga kirib kelishining asosiy sabablari bir nechta: *birinchidan*, axborot texnologiyalari va Internetning shiddat bilan rivojlanishi. Kompyuter, dasturiy ta'minot, aloqa vositalari bilan bog'liq deyarli barcha atamalar ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan. Masalan, kompyuter, internet, veb-sayt, brauzer, fayl, papka, monitor, kursor, klaviatura, printer, smartfon, app, onlayn, oflayn, chat, bot, virus, xeshteg, post, tvit, telegram, instagram kabi so'zlar. O'zbek tilida ularning muqobillari mavjud bo'lsa-da, ko'pincha inglizcha variantlari kengroq qo'llaniladi.

